[1] Э. Гаубас, Т. Чепонис, Д. Добровольскас, Ю. Мицкявичюс, Ю. Павлов, Отажонов, С.М., Н. Алимов // Исследование поликристаллических пленок CdTe методом контактной и бесконтактной импульсной фотоионизационной спектроскопии // Тонкие твердые пленки 2018, 660, стр.231-235.

[2] Чжан Ю., Ци Р., Хуан Р., Тан Х., Ван Дж. и Чуб Дж. (2018). Высокочувствительный фототранзистор CdTe с расширенным спектром отклика до 1,65 мкм. Журнал химии материалов A, 6 (12), 4883-5230

[3] Sh.Utamuradova, Sh.Daliev, S.Muzafarova, Q.Fayzullaev, (2023). Effect of the Diffusion of Copper Atoms in Polycrystalline CdTe Films Doped with Pb Atoms. East European Journal of Physics. 385-390. 10.26565/2312-4334-2023-3-41.

[4] Liu N, Yang P. Photoluminescence properties of hybrid SiO2-coated CdTe/CdSe quantum dots. Luminescence. 2014y. Sep;29(6):566-72. doi: 10.1002/bio.2581. PMID: 25337614.

[5] Gómez, H., Henríquez, R., Schrebler, R., Riveros, G., Leinen, D., Ramos-Barrado, J. R., & Dalchiele, E. A. (2004y.). A soft-solution electrochemical processing technique for preparing CdTe/n-Si (1 0 0) heterostructures. Journal of Electroanalytical Chemistry, 574(1), 113-122.

[6] Li, Z., Zhai, L., Zhang, Q. et al. 1T′-transition metal dichalcogenide monolayers stabilized on 4H-Au nanowires for ultrasensitive SERS detection. Nat. Mater. 23, 1355–1362 (2024). https://doi.org/10.1038/s41563-024-01860-w

[7] Tregnago, G. Combining photovoltaic elements. Nat Energy 9, 1052 (2024). https://doi.org/10.1038/s41560-024-01647-y

[8] Parvesh Chander, Alisha Arora, Ankita Singh, Mohit Madaan, Nagendra Prasad Pathak, V.K. Malik. Exploration of room temperature magnetodielectric behavior in Nd0.5Dy0.5FeO3 thin films and transmission line resonators in GHz frequency range. Physica B: Condensed Matter. Volume 694, 1 December 2024, 416431 https://doi.org/10.1016/j.physb.2024.416431

[9] Wael M. Mohammed, M.M. El-Desoky, N. Abdllah, Hamdy F.M. Mohamed, E.E. Abdel-Hady, D.E. El Refaay. Relationship between structural, electrical properties and positron annihilation parameters of V2O5–Cu2O–P2O5 glasses. Physica B: Condensed Matter. Volume 694, 1 December 2024, 416459. https://doi.org/10.1016/j.physb.2024.416459

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Islamov Erkinjon Revkatovich
Farg‘ona davlat universiteti, Amaliy matematika va informatika kafedrasi tayanch doktoranti
e-pochta: e.islamov@yandex.ru

VAQT BO‘YICHA BESSEL OPERATORI QATNASHGAN CHEGARAVIY MASALANI TAQRIBIY YECHISH

Annotatsiya. *Ushbu ishda vaqt bo‘yicha singulyar koeffisient qatnashgan chegaraviy masalani almashtirish operatori yordamida sodda ko‘rinishga keltirib taqribiy hisoblash o‘rganildi. Unda hususiy xosilali differensial tenglamalarni taqribiy yechishda yangicha yondashuv ko‘rsatib o‘tildi. Sonli hisoblash algoritmi batafsil yoritib berildi. Usulning yaqinlashish baxosi olindi. Sonli natijalar grafik ko‘rinishda e‘lon qilindi.*

Kalit so‘zlar. *Bessel operatori, Erdelyi-Kober operatori, hususiy xosilali differensial tenglama, to‘lqin tenglamasi, singulyar koeffisient, almashtirish operatori, taqribiy hisoblash, to‘rlar usuli, absolyut xatolik.*

Исламов Эркинжон Ревкатович
Базовый докторант кафедры прикладной математики и информатики Ферганского государственного университета

ПРИБЛИЖЕННОЕ РЕШЕНИЕ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ С ОПЕРАТОРОМ БЕССЕЛЯ ПО ВРЕМЕНИ

Аннотация. *В данной работе исследуется приближенное решение краевой задачи с сингулярным коэффициентом по времени с использованием оператором преобразования, который упрощает уравнение. Представлен новый подход к приближенному решению дифференциальных уравнений в частных производных. Подробно описан алгоритм численного расчета и получена оценка сходимости метода. Численные результаты представлены в графической формах.*

Ключевые слова: *Оператор Бесселя, оператор Эрдейи-Кобера, дифференциальное уравнение в частных производных, волновое уравнение, сингулярный коэффициент, оператор замены, приближенные вычисления, метод сеток, абсолютная погрешность.*

Islamov Erkinjon Revkatovich
PhD student of the Department of Applied Mathematics and Informatics of Fergana State University

APPROXIMATE SOLUTION OF A BOUNDARY VALUE PROBLEM WITH A BESSEL OPERATOR IN TIME

Annotation: *In this work, an approximate solution to the boundary problem with a singular time-dependent coefficient is studied using a transmumation operator that simplifies the equation. A new approach to the approximate solution of partial differential equations is presented. The numerical computation algorithm is described in detail, and an estimate of the method’s convergence is provided. Numerical results are presented in graphical forms.*

Key words*: Bessel operator, Erdélyi-Kober operator, partial differential equation, wave equation, singular coefficient, transformation operator, approximate computation, grid method, absolute error.*

Kirish.

Vaqt bo‘yicha singulyar koeffisientli to‘lqin tarqalish tenglamasi

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}+\frac{k}{t}\frac{\partial u}{\partial t}-\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}=0,\ x\in\mathbb{R},t>0,-\infty<k<\infty \quad (1)$$

dastlab L. Eylerning ishida [1], keyinchalik S.D. Puasson [2], G. Darbu [3] va B. Riman [4] tomonidan o‘rganilgan. (1) tenglamani dastlab o‘rgangan taniqli olimlar nomiga Eyler-Puasson-Darbu tenglamasi deb ataladi.

Matematika va fizikaning ko‘plab sohalaridagi masalalar (1) tenglamaga keltiriladi, masalan, sirtlar nazariyasiga oid masalalar [5], tovush tarqalishiga oid masalalar [6], tortishish to‘lqinlarining to‘qnashuvi [7] va boshqalar.

A.Vaynshteynning [8]-[12] ishlarida (1) tenglamaning ko‘p o‘lchovli holi uchun $k\in\mathbb{R}$ da birinchi boshlang‘ich shart noldan farqli bo‘lib, ikkinchi boshlang‘ich shart nolga teng bo‘lgan Koshi masalasi (2) ko‘rib chiqiladi.

$$u(x,0)=f(x), \frac{\partial u(x,t)}{\partial t}\Big|_{t=0}=0. \quad (2)$$

Adabiyotlar tahlili:

[8]-[13] adabiyotlarda (1)-(2) masalaning klassik ma'nodagi yechimi, [14]-[16] adabiyotlarda esa umumlashtirilgan masalaning yechimlari olingan. [17] da (1) ning ko'p o'lchovli holi uchun birinchi va ikkinchi boshlang'ich shartlar noldan farqli bo'lganda Tersenov Koshi masalasini yechdi. Eyler-Puasson-Darbu tenglamasi uchun bir jinsli simmetrik fazoda Koshi masalasining yechimi turg'unligining zaruriy va yetarli shartlar [18] da keltirilgan.

(1) ga qo'yilgan turli masalalarni analitik usulda yechish yaxshi o'rganilgan bo'lishiga qaramay ularni taqribiy yechish kam o'rganilgan. Agar birinchi va ikkinchi boshlang'ich shartlar jadval ko'rinishidagi funksiyalar orqali berilsa, yuqorida keltirilgan adabiyotlardagi analitik yechimlardan bevosita foydalanish ancha murakkabdir. Gilbert fazosida bir o'zgaruvchi abstrakt Eyler-Puasson-Darbu tenglamasi uchun Koshi masalasining aniq yechimidan foydalanib taqribiy yechish algoritmi keltirilgan va xatolikni baxolash o'rganilgan [19]. Boshlang'ich shartlar singulyarlik chizig'ida berilgani bois to'g'ridan-to'g'ri to'rlar usulini qo'llash imkonsizdir. Shunga qaramay singulyar koeffisient $\frac{k}{t}$ ni $\frac{k}{t+\varepsilon}, (\varepsilon>0)$ bilan almashtirib (1) ga yaqin bo'lgan o'xshash tenglamani taqribiy yechish mumkin [20].

Ushbu ishda singulyar koeffisientli Eyler-Puasson-Darbu tenglamasi uchun singulyarlik chizig'ida Koshi sharti bilan berilgan chegaraviy masalani almashtirish operatorlari yordamida taqribiy yechish o'rganilgan. Bunda Erdelyi-Kober kasr tartibli integral operatorining Bessel operatoriga ta'siri natijasida singulyar koeffisientidan qutulish xossasidan [24]-[25] foydalanamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

$\Omega=\{(x,t): 0<x<l, 0<t<T\}$ sohada quyidagi

$$Lu\equiv u_{tt}+\frac{2\beta}{t}u_t-u_{xx}=0, \quad (3)$$

tenglamaning

$$u(x,0)=j(x), \lim_{t\to 0} t^{2b}u_t(x,t)=y(x), \quad (4)$$

$$u(0,t)=u(l,t)=0, \quad (5)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasini qaraylik. Bu yerda $0<\beta<\frac{1}{2}$.

L operator chiqizli ($L(u_1+u_2)=Lu_1+Lu_2$) bo'lgani uchun (3)-(5) masalaning yechimini $u(x,t)=u_1(x,t)+u_2(x,t)$ ko'rinishda qidirishimiz mumkin. Bunda $u_1(x,t)$ va $u_2(x,t)$ lar quyidagi masalalarning yechimlari bo'ladi:

$$Lu_1\equiv\frac{\partial^2u_1}{\partial t^2}+\frac{2\beta}{t}\frac{\partial u_1}{\partial t}-\frac{\partial^2u_1}{\partial x^2}=0, \quad (6)$$

$$u_1(x,0)=\varphi(x), \frac{\partial}{\partial t}u_1(x,t)\Big|_{t=0}=0, \quad (7)$$

$$u_1(0,t)=u_1(l,t)=0, \quad (8)$$

va

$$Lu_2\equiv\frac{\partial^2u_2}{\partial t^2}+\frac{2\beta}{t}\frac{\partial u_2}{\partial t}-\frac{\partial^2u_2}{\partial x^2}=0, \quad (9)$$

$$u_2(x,0)=0, t^{2\beta}\frac{\partial}{\partial t}u_2(x,t)\Big|_{t=0}=\psi(x), \quad (10)$$

$$u_2(0,t)=u_2(l,t)=0, \quad (11)$$

Dastlab, (6) – (8) masalani yechishni ko'rib chiqamiz. (6) tenglamani Bessel operatori yordamida quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$B^t_{\beta-1/2}u_1-\frac{\partial^2u_1}{\partial x^2}=0. \quad (12)$$

(12) dagi Bessel operatori quyidagicha aniqlangan:

$$B^x_\eta=x^{2\eta-1}\frac{\partial}{\partial x}x^{2\eta+1}\frac{\partial}{\partial x}=\frac{\partial^2}{\partial x^2}+\frac{2\eta+1}{x}\frac{\partial}{\partial x}.$$

1-teorema. Agar $\alpha>0, \eta>-1/2, f(x)\in C^2(0,b), b>0$ bo'lib, $x^{2\eta+1}f(x)$ funksiya nol nuqtada integrallanuvchi va $\lim_{x\to 0} x^{2h+1}f(x)=0$ bo'lsa, u holda

$$B^x_{\eta+\alpha}I^x_{\eta,\alpha}f(x)=I^x_{\eta,\alpha}B^x_\eta f(x), \quad (13)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Teoremadagi $I_{\eta,\alpha}f(x)$ - Erdelyi-Kober kasr tartibli integral operatori bo'lib, u quyidagicha aniqlangan

$$I_{\eta,\alpha}f(x)=\frac{2x^{-2(\eta+\alpha)}}{\Gamma(\alpha)}\int_0^x(x^2-t^2)^{\alpha-1}t^{2\eta+1}f(t)dt,$$

bu yerda $\alpha>0, \eta>-1$. Teoremaning isboti [24] da keltirilgan.

(6) – (8) masalada $u_1(x,t)$ noma'lum funksiyani quyidagi ko'rinishda qidiramiz:

$$u_1(x,t)\equiv I^t_{-1/2,\beta}v_1(x,t)=\frac{2t^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\int_0^t(t^2-\tau^2)^{\beta-1}v_1(x,\tau)d\tau. \quad (14)$$

(14) almashtirishni (12) tenglamaga qo'yaylik:

$$B^t_{\beta-1/2}I^t_{-1/2,\beta}v_1(x,t)-\frac{\partial^2}{\partial x^2}\left(I^t_{-1/2,\beta}v_1(x,t)\right)=0,$$

(7) dagi ikkinchi shartlarga ko'ra 1-teorema shartlari bajarilishi ma'lum. (14) tenglikni qo'llab quyidagiga ega bo'lamiz:

$$I^t_{-1/2,\beta}B^t_{-1/2}v_1(x,t)-I^t_{-1/2,\beta}v_{1xx}(x,t)=0,$$

kasr tartibli integrallarni birlashtiramiz

$$I^t_{-1/2,\beta}\left(B^t_{-1/2}v_1(x,t)-v_{1xx}(x,t)\right)=0.$$

Tenglikni ikkala tomoniga $\left(I^t_{-1/2,\beta}\right)^{-1}$ teskari opeatorni ta'sir ettirib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$v_{1tt}-v_{1xx}=0.$$

(14) almashtirishni (7) dagi birinchi shartga qo'yamiz:

$$u_1(x,0) = I^t_{-1/2,\beta} v_1(x,t)\big|_{t=0} = \varphi(x).$$

Tenglikni har ikki tomoniga $\left(I^t_{-1/2,\beta}\right)^{-1}$operatorni ta'sir ettiramiz va quyidagiga ega bo'lamiz

$$v_1(x,0) = \frac{\Gamma(\beta+1/2)}{\sqrt{\pi}}\varphi(x).$$

(14) almashtirishni (7) dagi ikkinchi shartga qo'yamiz va quyidagi shartga ega bo'lamiz

$$v_{1t}(x,0) = 0.$$

Natijada (6) – (8) masala quyidagi ko'rinishga o'tdi:

$$v_{1tt} - v_{1xx} = 0, 0 < x < l, 0 < t \le T, \tag{15}$$

$$v_1(x,0) = \tilde{\varphi}(x), v_{1t}(x,0) = 0, 0 \le x \le l, \tag{16}$$

$$v_1(0,t) = v_1(l,t) = 0, 0 \le t \le T, \tag{17}$$

bu yerda $\tilde{\varphi}(x) = \frac{\Gamma(\beta+1/2)}{\sqrt{\pi}}\varphi(x)$.

Ma'lumki, (15) - (17) masala korrekt qo'yilgan, uning yechimi mavjud va yagona bo'lib boshlang'ich va chgaraviy shartlarga uzviy bog'liqdir (turg'un) [26].

(15) – (17) masalani sonli yechishni ko'rib chiqamiz.

Ikki o'lchovli $\omega_{h\tau}$ to'rdan foydalanamiz. Bu yerda $\omega_{h\tau} = \omega_h \times \omega_\tau$ bo'lib,


$$\omega_h = \{x_i = ih, i = 0,1,\dots,n, hn = l\},$$
$$\omega_\tau = \{t_j = j\tau, j = 0,1,\dots,k, k\tau = T\}.$$

(15) tenglamani approksimasiya qilish uchun besh nuqtali shablon (andoza) ishlatiladi (1-rasm). Bunda uchta vaqtinchalik qatlamlardan $(j-1, j, j+1)$ foydalanamiz. Bunday sxemalar uch qatlamli deb ataladi [23]. Ushbu sxemadan foydalanishda yuqori $j+1$ qatlamni hisoblash uchun j va $j-1$ qatlam qiymatlaridan foydalaniladi.

(15) tenglama va (17) chegaraviy shartlar uchun oddiy ayirmali sxema quyidagicha tuziladi:

$$\frac{y_1^{i,j+1} - 2y_1^{i,j} + y_1^{i,j-1}}{\tau^2} - \frac{y_1^{i+1,j} - 2y_1^{i,j} + y_1^{i-1,j}}{h^2} = 0,$$
$$i = 1,2,\dots,n-1, j = 1,2,\dots,k-1,$$
$$v_{0,j+1} = 0, v_{n,j+1} = 0, j = 0,1,\dots,k-1. \tag{18}$$

(18) ayirmali sxema tenglamasi h va τ bo'yicha ikkinchi tartibli $O(h^2+\tau^2)$ xatolikka ega [23]. $j+1$ qatlam qiymatlari oldingi qatlamlar qiymatlari orqali aniq ifodalanadi.



1-Rasm

$$y_1^{i,j+1} = 2y_1^{i,j} - y_1^{i,j-1} + \frac{\tau^2}{h^2}\left(y_1^{i+1,j} - 2y_1^{i,j} + y_1^{i-1,j}\right),$$
$$i = 1,2,\dots,n-1, j = 1,2,\dots,k-1. \tag{19}$$

(19) formula bo'yicha hisoblashni boshlashimiz uchun avvalo bizga $y_1^{i,0}, y_1^{i,1}, i = 0,1,\dots,n-1,n$ qiymatlar kerak bo'ladi. (16) dagi birinchi boshlang'ich shartdan bevosita quyidagiga egamiz:

$$y_1^{i,0} = \tilde{\varphi}(x_i), i = 1,2,\dots,n-1.$$

(16) dagi ikkinchi shartdan esa quyidagiga egamiz:

$$\frac{\partial v}{\partial t}\Big|_{t=0} = \frac{y_1^{i,1} - y_1^{i,0}}{\tau} + O(\tau) = 0.$$

ushbu munosabatdan to'rning vaqt bo'yicha birinchi qatlamidagi qiymatlarini topishimiz mumkin:

$$y_1^{i,1} = y_1^{i,0} + O(\tau), i = 0,1,\dots,n \tag{20}$$

(20) formula τ bo'yicha birinchi tartibli yaqinlashishga ega. (19) formula esa ikkinchi tartibli yaqinlashishga ega. Masala shartlarining aproksimatsiyasi ham tenglama aproksimasiyasi bilan bir hil darajada yaqinlashish tartibiga ega bo'lgani ma'qul. Buning uchun quyidagi yoyilmadan foydalanamiz:

$$\frac{v_1(x,\tau) - v_1(x,0)}{\tau} = \frac{\partial v_1(x,0)}{\partial t} + \frac{\tau}{2}\frac{\partial^2 v_1(x,0)}{\partial t^2} + O(\tau^2)$$

(15) tenglamaga ko'ra quyidagiga egamiz:

$$\frac{\partial^2 v_1(x,0)}{\partial t^2} = \frac{\partial^2 v_1(x,0)}{\partial x^2} = \tilde{\varphi}''(x).$$

U holda

$$\frac{\partial v_1(x,0)}{\partial t} \approx \frac{v_1(x,\tau) - v_1(x,0)}{\tau} - \frac{\tau}{2}\tilde{\varphi}''(x)$$

bo'lib, $v_{1t}(x,0) = 0$ ekanligi hisobga olib, ayirmali tenglama shaklida yozsamiz:

$$\frac{y_1^{i,1} - y_1^{i,0}}{\tau} = \frac{\tau}{2}\tilde{\varphi}''(x_i),$$

bundan $y_1^{i,1}$ ni topamiz:

$$y_1^{i,1} = y_1^{i,0} + \frac{\tau^2}{2}\tilde{\varphi}''(x_i).$$

Yuqoridagi ifodani hisoblash uchun $\tilde{\varphi}''(x)$ hosilaning qiymati ω_h to'rda berilmagan bo'lsa, u holda

$$\tilde{\varphi}''(x_i) = \frac{\tilde{\varphi}(x_{i+1}) - 2\tilde{\varphi}(x_i) + \tilde{\varphi}(x_{i-1})}{h^2} + O(h^2)$$

formuladan foydalanamiz va quyidagiga ega bo'lamiz

$$y_1^{i,1} = y_1^{i,0} + \frac{\tau^2}{2}\left(\frac{\tilde{\varphi}(x_{i+1}) - 2\tilde{\varphi}(x_i) + \tilde{\varphi}(x_{i-1})}{h^2}\right)$$
$$= \tilde{\varphi}(x_i) + \frac{\tau^2}{2}\left(\frac{\tilde{\varphi}(x_{i+1}) - 2\tilde{\varphi}(x_i) + \tilde{\varphi}(x_{i-1})}{h^2}\right), i = 1,\dots,n-1.$$

$y_1^{i,0}$ va $y_1^{i,1}$ qiymatlardan foydalanib (19) rekkurent formula bo'yicha $j = 2,3,\dots,k$ qatlamlar uchun $y_1^{i,j}$ qiymatlar hisoblanadi.

Umuman olganda quyidagi uch qatlamli oshkor ayirmali sxemaga keldik:

$$y_1^{i,j+1} = 2y_1^{i,j} - y_1^{i,j-1} + \frac{\tau^2}{h^2}\left(y_1^{i+1,j} - 2y_1^{i,j} + y_1^{i-1,j}\right),$$
$$i = 1,2,\dots,n-1, j = 1,2,\dots,k-1. \tag{21}$$
$$y_{i,0} = \tilde{\varphi}(x_i), i = 1,2,\dots,n-1,$$
$$y_1^{i,1} = \tilde{\varphi}(x_i) + \frac{\tau^2}{2}\tilde{\varphi}''(x_i), i = 1,\dots,n-1.$$
$$(22) y_1^{0,j+1} = 0, y_1^{n,j+1} = 0, j = 0,1,\dots,k-1. \tag{23}$$

Agar $\tau \le h$ shart bajarilsa yuqoridagi ayirmali sxemaning approksimasiya xatoligi $O(\tau^2+h^2)$ bilan baxolanadi [23]. Bu esa quyidagini anglatadi, agar $v_1(x,t)$ (15)-(17) masalaning yechimi bo‘lib, $y_1^{i,j}$ (21) - (23) ayirmali sxemaning yechimi bo‘lsa, u holda quyidagi o‘rinli bo‘ladi:

$$\|y_1(x,t)-v_1(x,t)\| = O(\tau^2+h^2),$$

yoki

$$\|y_1(x,t)-v_1(x,t)\| \le M_1(\tau^2+h^2),\ M_1 \ge 0.$$

normaning $\|x\|-\|y\| \le \|x \pm y\|$ xossasiga ko‘ra quyidagiga egamiz


$$\|y_1(x,t)\| \le \|v_1(x,t)\| + M_1(\tau^2+h^2),\ M_1 \ge 0.$$

(15) – (17) masalaning $\omega_{h\tau}$ to‘r tugun nuqtalarida aniqlangan y_1 yechimidan foydalanib (6) – (8) masalaning taqribiy yechimi $\tilde{u}_1(x,t)$ ni qurishni ko‘rib chiqaylik.

$\omega_{h\tau}$ to‘rda aniqlangan y_1 funksiyaning $x=x_q$, $q=\overline{1,n-1}$ tayinlagan nuqtadagi $y_1(x_q,t)$ qiymatlarini t argumentli biror funksiyalarning qiymatlari deb qarashimiz mumkin. Demak biz

$$u_1(x_q,t) = I^t_{-1/2,\beta} v_1(x_q,t) \approx I^t_{-1/2,\beta} y_1(x_q,t), \tag{24}$$

larni hisoblashimiz kerak.



2-rasm

Ma‘lumki, har bir $y_1(x_q,t)$ lar $\omega_\tau = \{t_j = j\tau, j = 0,1,\dots,k, k\tau = T\}$ to‘rda jadval shaklda berilgan funksiyalardir. Ushbu funksiyalarni mos ravishda $\left(t_0,y_1(x_q,t_0)\right),\left(t_1,y_1(x_q,t_1)\right),\dots,\left(t_k,y_1(x_q,t_k)\right)$ nuqtalar to‘plamlarida o‘zaro bog‘langan bo‘lakli $s_{1,j}(t;q)$ ko‘phadlar to‘plamidan iborat bo‘lgan interpolyatsion $s_1(t;q)$ splaynlar bilan almashtirib (bu yerda q parametr) quyidagicha belgilaymiz

$$y_1(x_q,t) \cong s_1(t;q) = \begin{cases} s_{1,0}(t;q), agart \in [t_0,t_1], \\ s_{1,1}(t;q), agart \in [t_1,t_2], \\ \dots \\ s_{1,k-1}(t;q), agart \in [t_{k-1},t_k], \end{cases} \tag{25}$$

bu yerda $s_{1,j}(t;q) = \sum_{m=0}^{3} C_{q,j,m}(t-t_j)^{3-m}$, $t \in [t_j,t_{j+1}]$, $j = 0,1,\dots,k-1$ har bir kichik intervelda 3 – darajali ko‘phadlardir (2-rasm). $C_{q,j,m}$ esa i - spaynda $m = 0,1,2,3$ lar uchun j - kichik $[t_j,t_{j+1}]$ intervaldagi $s_{1,j}(t;q)$ ko‘phadning no‘malum koeffisientlaridir. Har bir splayndagi $4n$ tadan $C_{q,j,m}$ koeffisientlar qiymatlarini aniqlash uchun $4n$ ta tenglamadan iborat quyidagi sistemani yechishimiz kerak

$$\begin{cases} s_{1,j}(t_j;q) = y_1(x_q,t_j), j = 0,\dots,k-1, \\ s_{1,j}(t_{j+1};q) = y_1(x_q,t_{j+1}), j = 0,\dots,k-1, \\ s'_{1,j}(t_{j+1};q) = s'_{1,j+1}(t_{j+1};q), j = 0,\dots,k-2, \\ s''_{1,j}(t_{j+1};q) = s''_{1,j+1}(t_{j+1};q), j = 0,\dots,k-2, \\ s'_{1,0}(t_0;q) = y'_1(x_q,t_0), s'_{1,k-1}(t_k;q) = y'_1(x_q,t_k). \end{cases} \tag{26}$$

Agar $y_1(x_q,t)$ funksiya hosilasining $t=t_0$ va $t=t_k$ nuqtalardagi qiymatlari ma’lum bo‘lmasa, quyidagi shartlardan foydalangan holda “Tabiiy splayn” deb nomlanuvchi splayn qurish mumkin:

$$\begin{cases} s_{1,j}(t_j;q) = y_1(x_q,t_j), j = 0,\dots,k-1, \\ s_{1,j}(t_{j+1};q) = y_1(x_q,t_{j+1}), j = 0,\dots,k-1, \\ s'_{1,j}(t_{j+1};q) = s'_{1,j+1}(t_{j+1};q), j = 0,\dots,k-2, \\ s''_{1,j}(t_{j+1};q) = s''_{1,j+1}(t_{j+1};q), j = 0,\dots,k-2, \\ s''_{1,0}(t_0;q) = 0, s''_{1,k-1}(t_k;q) = 0. \end{cases}$$

Yuqoridagi (26) tenglamalar sistemasini yechib, no‘malum $C_{q,j,m}(q=1,\dots,n-1, j=0,\dots,k-1, m=0,\dots 3)$ koeffisientlarning qiymatlarini aniqlaymiz. $s_{1,j}(t;q)$ $j=0,\dots,k-1$ ko‘phadlarni standart ko‘rinishda $s_{1,j}(t;q) = A_{q,j,0}t^3 + A_{q,j,1}t^2 + A_{q,j,2}t + A_{q,j,3}$ ifodalash uchun $A_{q,j,m}$ $j=0,1,\dots,k-1$ koeffisientlar quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi

$$A_{q,j,0} = C_{q,j,0},$$
$$A_{q,j,1} = C_{q,j,1} - 3C_{q,j,0}t_j,$$
$$A_{q,j,2} = 3C_{q,j,0}t_j^2 - 2C_{q,j,1}t_j + C_{q,j,2},$$
$$A_{q,j,3} = -C_{q,j,0}t_j^3 + C_{q,j,1}t_j^2 - C_{q,j,2}t_j + C_{q,j,3}. j = 0,1,\dots,k-1.$$

Shuni aytib o‘tish o‘tish kerakki, hozirda mavjud zamonaviy matematik tizimlarning ko‘pida kubik splaynni hisoblash uchun tayyor metodlar ishlab chiqilgan. Ushbu metodlarga to‘rning tugun nuqtalarida funksiya qiymatlarini berish orqali kubik splaynni qurish, uning bo‘lak ko‘phadlarining koeffisientlarini olish va ulardan turli hisob-kitoblar uchun foydalanish mumkin.

Har bir $y_1(x_q,t)$ jadval ko‘rinishidagi funksiyani ω_τ to‘rda approksimatsiya qiluvchi $s_1(t;q)$ splaynlar qurilgan so‘ng (24) formulada integral osti funksiya o‘rniga kubik splaynlar integrallanadi

$$u_1(x_q,t) = I^t_{-1/2,\beta} v_1(x_q,t) \approx I^t_{-1/2,\beta} y_1(x_q,t) \approx I^t_{-1/2,\beta} s_1(t;q). \tag{27}$$

yoki

$$u_1(x_q,t) \approx \tilde{u}_1(x_q,t) = I^t_{-1/2,\beta} s_1(t;q).$$

Barcha q lar uchun olingan natijalardan (6)-(8) masalaning $\omega_{h\tau}$ to‘rdagi taqribiy yechimi $\tilde{u}_1(x,t)$ quriladi:

$$u_1(x,t) \approx \tilde{u}_1(x,t).$$

(27) kasr tartibli Erdelyi-Kober integralini tayinlangan $t=t_r, r=\overline{0,k}$ nuqtadagi qiymatini taqribiy hisoblash uchun [22] adabiyotda keltirilgan quyidagi formuladan foydalanamiz

$$I^{t}_{-1/2,\beta}s_1(t;q)\big|_{t=t_r} = \sum_{j=0}^{r-1}\frac{1}{\Gamma(\beta)}\sum_{m=0}^{3}A_{q,j,m}t_r^{3-m}\left(B\left(\left(\frac{t_{j+1}}{t_r}\right)^2;\gamma,\beta\right) - B\left(\left(\frac{t_j}{t_r}\right)^2;\gamma,\beta\right)\right)$$

bu yerda $\gamma = 2 - j/2$ va $B(a;b,c)$ - to'lamas Beta funksiya.

Sonli usulning yaqinlashishini tekshirish uchun quyidagi teoremadan foydalanamiz.

2-teorema. $f(t) \in C^4[a,b]$ funksiya uchun $\{x_i; i = 0,\dots,n; x_0 = a < x_1 <\dots< x_n = b\}$ to'rda

$$\begin{cases} s_i(x_i) = f(x_i), i = 0,\dots,n-1, \\ s_i(x_{i+1}) = f(x_{i+1}), i = 0,\dots,n-1, \\ s_i'(x_{i+1}) = s_{i+1}'(x_{i+1}), i = 0,\dots,n-2, \\ s_i''(x_{i+1}) = s_{i+1}''(x_{i+1}), i = 0,\dots,n-2, \\ s_0'(x_0) = f'(x_0), s_{n-1}'(x_n) = f'(x_n). \end{cases}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $s(x)$ splayn qurilgan bo'lsa, u holda quyidagi tengsizlik o'rinli bo'ladi

$$\|f^{(m)}(x) - s^{(m)}(x)\| \le C_n\|f^{(4)}(x)\|h^{4-m}, (m = 0,1,2,3)$$

bu yerda

$$h = \max_{i=0,\dots,n-1}(x_{i+1} - x_i), C_0 = \frac{5}{384}, C_1 = \frac{9+\sqrt{3}}{216}, C_2 = \frac{3\beta+1}{12}, C_3 = \frac{\beta^2+1}{2}.$$

β esa to'rdagi eng katta qadamning eng kichik qadamga nisbatidir, $b = \dfrac{h}{\min\limits_{i=0,\dots,n-1}(x_{i+1} - x_i)}$.

Teorema isboti [21] adabiyotda keltirilgan.

Aytaylik, $\omega_{h\tau}$ to'rda quyidagi tenglik o'rinli bo'lsin

$$y_1(x_i,t_j) = v_1(x_i,t_j) + \varepsilon(x_i,t_j),\ x_i = ih, i = 0,\dots,n, t_j = j\tau, j = 0,\dots,k$$

u holda

$$\|y_1(x,t) - v_1(x,t)\| \le M_1(\tau^2 + h^2)$$

ekanligidan

$$\|\varepsilon(x,t)\| \le M_1(\tau^2 + h^2)$$

kelib chiqadi.

3-teorema. Agar $u_1(x,t)$ (6)-(8) masalaning yechimi va $\tilde{u}_1(x,t)$ shu masalaning $\omega_{h\tau}$ to'rdagi taqribiy yechimi hamda $v_1(x,t)$ (15)-(17) masalaning yechimi bo'lsa, u holda quyidagi tengsizlik

$$\|u_1(x,t) - \tilde{u}_1(x,t)\| \le \frac{5\sqrt{\pi}}{384\Gamma(\beta+1/2)}\left(\|v_1^{(4)}(x,\tau)\|\tau^4 + M_1(\tau^2+h^2)\right)$$

o'rinli bo'ladi.

Isbot. Aytaylik, $y_1(x_q,t)$ funksiya yetarli darajada silliq va $C^4[0,T]$ sinfga tegishli bo'lgan funksiyaning ω_τ to'rdagi ifodasi bo'lsin. U holda 2-teoremada $m = 1$ bo'lgan hol uchun quyidagi tengsizlik o'rinli bo'ladi

$$\|y_1(x_q,t) - s_1(t;q)\| \le \frac{5}{384}\|y_1^{(4)}(x_q,t)\|\tau^4,$$

$$\|v_1(x_q,t) + \varepsilon(x_q,t) - s_1(t;q)\| \le \frac{5}{384}\left\|\left(v_1(x_q,t) + \varepsilon(x_q,t)\right)^{(4)}\right\|\tau^4,$$

Normaning $\|x\| - \|y\| \le \|x \pm y\|$ xossasiga ko'ra

$$\|v_1(x_q,t) - s_1(t;q)\| - \|\varepsilon(x_q,t)\| \le \frac{5}{384}\left\|\left(v_1(x_q,t) + \varepsilon(x_q,t)\right)^{(4)}\right\|\tau^4,$$

$$\|v_1(x_q,t) - s_1(t;q)\| \le \frac{5}{384}\left\|\left(v_1(x_q,t) + \varepsilon(x_q,t)\right)^{(4)}\right\|\tau^4 + \|\varepsilon(x_q,t)\|. \quad (28)$$

(6) – (8) masalaning yechimi $u_1(x_q,t)$ bilan taqribiy yechim $\tilde{u}_1(x_q,t)$ ning farqini hisoblaylik

$$Err_q = \|u_1(x_q,t) - \tilde{u}_1(x_q,t)\|_{t=t_r} = \left\|u_1(x_q,t) - I^{t}_{-\frac{1}{2},\beta}s_1(t;q)\right\|_{t=t_r}$$

$$= \|I^{t}_{-1/2,\beta}v_1(x_q,t) - I^{t}_{-1/2,\beta}s_1(t;q)\|_{t=t_r} = \left\|I^{t}_{-1/2,\beta}\left(v_1(x_q,t) - s_1(t;q)\right)\right\|_{t=t_r}$$

$$= \left\|\frac{2t_r^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\int_0^{t_r}(t_r^2-\tau^2)^{\beta-1}\left(v_1(x_q,\tau) - s_1(\tau;q)\right)d\tau\right\|$$

$$\le \frac{2t_r^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\int_0^{t_r}(t_r^2-\tau^2)^{\beta-1}\|v_1(x_q,\tau) - s_1(\tau;q)\|d\tau$$

$$= \frac{2t_r^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\sum_{j=0}^{r}\int_{t_j}^{t_{j+1}}(t_r^2-\tau^2)^{\beta-1}\|v_1(x_q,\tau) - s_1(\tau;q)\|d\tau$$

$$\le \frac{2t_r^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\sum_{j=0}^{r}\|v_1(x_q,\tau) - s_1(\tilde{t}_j;q)\|\int_{t_j}^{t_{j+1}}(t_r^2-\tau^2)^{\beta-1}d\tau$$

bu yerda $\tilde{t}_j \in [t_j, t_{j+1}]$.

Agar $\tilde{t} \in [0,t_r]$ uchun

$$\left\|v_1(x_q,\tilde{t}) - s_1(\tilde{t};q)\right\| = \max_{j=0,1,\dots,r-1}\left\|v_1(x_q,\tilde{t}_j) - s_1(\tilde{t}_j;q)\right\|$$

o'rinli deb faraz qilsak, u holda Err_q xatoning keyingi bahosi quyidagi shaklni oladi

$$Err_q \le \frac{2t_r^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\|v_1(x_q,\tilde{t}) - s_1(\tilde{t};q)\|\sum_{j=0}^{r-1}\int_{t_j}^{t_{j+1}}(t_r^2-\tau^2)^{\beta-1}d\tau = \frac{2t_r^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\|v_1(x_q,\tilde{t}) - s_1(\tilde{t};q)\|\int_0^{t_r}(t_r^2-\tau^2)^{\beta-1}d\tau.$$

Integral o'zgaruvchisini almashtiramiz: $\xi = \left(\frac{\tau}{t_r}\right)^2, \tau = t_r\sqrt{\xi}, d\tau = \frac{t_r}{2\sqrt{\xi}}d\xi$. Natijada quyidagiga ega bo'lamiz

$$Err_q \le \frac{2t_r^{1-2\beta}}{\Gamma(\beta)}\|v_1(x_q,\tilde{t}) - s_1(\tilde{t};q)\|\int_0^1(t_r^2 - t_r^2\xi)^{\beta-1}\frac{t_r}{2\sqrt{\xi}}d\xi = \frac{1}{\Gamma(\beta)}\|v_1(x_q,\tilde{t}) - s_1(\tilde{t};q)\|B\left(\frac{1}{2},\beta\right) = \frac{\sqrt{\pi}}{\Gamma(\beta+1/2)}\|v_1(x_q,\tilde{t}) - s_1(\tilde{t};q)\|.$$

(28) tengsizlikka ko'ra yuqoridagi tengsizlikni yanada kuchaytirib qayta yozamiz:

$$Err_q \le \frac{\sqrt{\pi}}{\Gamma(\beta+1/2)}\|v_1(x_q,\tilde{t}) - s_1(\tilde{t};q)\|$$

$$\le \frac{\sqrt{\pi}}{\Gamma(\beta+1/2)}\left(\frac{5}{384}\left\|\left(v_1(x_q,t)+\varepsilon(x_q,t)\right)^{(4)}\right\|\tau^4 + \|\varepsilon(x_q,t)\|\right).$$

Biz faqatgina ω_τ to‘rning tugun nuqtalaridagina $\|u_1(x,t)-\tilde{u}_1(x,t)\|$ ni baholayotganimizni e‘tiborga olsak, $\varepsilon(x_q,t)$ funksiyalarni $\left(t_j, y_1(x_q,t_i)-v_1(x_q,t_j)\right)$ $j=0,1,\dots,k$ nuqtalar to‘plamlarida o‘zaro bog‘langan bo‘lakli $\varepsilon_p(x_q,t)=a_p t+b_p$ ($p=0,\dots,k-1$) chiziqlar to‘plamidan iborat interpolyatsion birinchi darajali splaynlar deb olishimiz mumkin. U holda quyidagi tenglik o‘rinli

$$\left\|\frac{\partial^4}{\partial t^4}e(x,t)\right\| = \max_{q=1,\dots,n-1}\left\|\frac{\partial^4}{\partial t^4}e(x_q,t)\right\| = \max_{\substack{q=1,\dots,n-1\\ p=0,\dots,k-1}}\left|\frac{\partial^4}{\partial t^4}e_p(x_q,t)\right| = 0.$$

Yuqoridagi tenglikni va $\|\varepsilon(x,t)\| \le M_1(\tau^2+h^2)$ ekanligini e‘tiborga olib quyidagiga ega bo‘lamiz

$$Err_q \le \frac{\sqrt{\pi}}{\Gamma(\beta+1/2)}\left(\frac{5}{384}\|v_1^{(4)}(x_q,t)\|\tau^4 + M_1(\tau^2+h^2)\right).$$

Barcha $q=\overline{1,n-1}$ lar uchun xatolikni baxolaylik

$$Err = \left\|u_1(x,t) - \theta_1(x,t)\right\| = \max_{q=1,2,\dots,n-1} Err_q$$

$$= \max_{q=1,2,\dots,n-1}\left\{\frac{5\sqrt{p}}{384\Gamma(b+1/2)}\left\|v_1^{(4)}(x_q,t)\right\|t^4 + M_1(t^2+h^2)\right\}$$

$$\le \frac{5\sqrt{\pi}}{384\Gamma(\beta+1/2)}\left(\|v_1^{(4)}(x,\tau)\|\tau^4 + M_1(\tau^2+h^2)\right).$$

Teorema isbotlandi.

Ushbu teoremadan xulosa qilish mumkinki, $\tau \le h$ tengsizlik bajarilganda $\lim\limits_{h\to 0} Err = 0$ tenglik o‘rinli bo‘ladi.

(9) – (11) masalani yechish uchun [25] adabiyotda keltirilgan quyidagi lemmadan foydalanamiz.

1-lemma. Agar $u_1(x,t;1-\beta)$ funksiya $L_{1-\beta}(u_1(x,t))=0$ tenglamani va (7) shartni qanoatlantirsa, u holda $u_2(x,t)=t^{1-2\beta}u_1(x,t;1-\beta)$ $(\beta<1/2)$ funksiya $L_\beta(u_2(x,t))=0$ tenglamani va

$$u_2(x,0)=0;\ \lim_{t\to+0} t^{2b}u_2(x,t) = (1-2b)j(x)$$

shartlarni qanoatlantiradi.

1-lemmaga ko‘ra (6)-(8) masaladagi $\varphi(x)$ ni $\frac{\psi(x)}{1-2\beta}$ bilan hamda β ni esa $1-\beta$ bilan almashtirib $\tilde{u}_1(x,t)$ taqribiy yechim topilsa, u holda (9)-(11) masalaning yechimi $u_2(x,t)\approx t^{1-2\beta}\tilde{u}_1(x,t)$ ko‘rinishda aniqlanadi.

(6)-(8) va (9)-(11) masalalarning $u_1(x,t)$ va $u_2(x,t)$ yechimlardan foydalanib (3)-(5) masalaning yechimini $u(x,t)=u_1(x,t)+u_2(x,t)$ ko‘rinishda topamiz.

TAXLILLAR VA NATIJALAR

Sonli yechim natijalarini tekshirish qulay bo‘lishi uchun analitik yechimi sodda bo‘lgan masaladan foydalanamiz.

1-masala. $\Omega=\{(x,t): 0<x<1, 0<t<3\}$ sohada quyidagi

$$u_{tt}+\frac{0.8}{t}u_t - u_{xx}=0, \qquad (29)$$

tenglamaning

$$u(x,0)=\sin px,\ \lim_{t\to 0}\left\{t^{4/5}\frac{\partial}{\partial t}u(x,t)\right\}=\frac{1}{5}\sin px, \qquad (30)$$

$$u(0,t)=u(1,t)=0, \qquad (31)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi taqribiy yechimini almashtirish operatorlari yordamida topish masalasini qaraylik.

(29)-(31) masalaning analitik yechimini Furyening o‘zgaruvchilarni ajratish usuli topamiz. Yechim quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$u(x,t)=\sin px\left(t^{2/10}\bar{J}_{1/10}(pt)+\bar{J}_{-1/10}(pt)\right)$$


yoki $\bar{J}_v(z)=\Gamma(v+1)(z/2)^{-v}J_v(z)$ formulaga ko‘ra:

$$u(x,t)=\sin px\left\{t^{1/10}\Gamma(11/10)(p/2)^{-1/10}J_{1/10}(pt)+\Gamma(9/10)(pt/2)^{1/10}J_{-1/10}(pt)\right\}$$


Ushbu topilgan yechimdan sonli hisoblash natijalarini taqqoslash uchun foydalanamiz. Quyida sonli yechish natijalari grafik shaklda keltirilgan. Barcha hisoblashlar Python dasturlash tilining numpy, scipy va math kutubxonalari yordamida float64 64 bitli suzuvchi nuqta turida amalga oshirildi.

$\tau=0{,}2$ va $h=0{,}25$ bo‘lgan hol uchun olingan natija.

Taqribiy yechim




Absolyut xatolik




$\tau = 0{,}2$ va $h = 0{,}2$ bo'lgan hol uchun olingan natija.

Taqribiy yechim




Absolyut xatolik




$\tau = 0{,}1$ va $h = 0{,}1$ bo'lgan hol uchun olingan natija.

Taqribiy yechim




$\tau = 0{,}1$ va $h = 0,(1)$ bo'lgan hol uchun olingan natija.


Taqribiy yechim



Absolyut xatolik




Absolyut xatolik




$\tau = 0{,}02$ va $h = 0{,}025$ bo'lgan hol uchun olingan natija.

Taqribiy yechim




Absolyut xatolik




$\tau = 0{,}025$ va $h = 0{,}025$ bo‘lgan hol uchun olingan natija.

Taqribiy yechim



Absolyut xatolik



Xulosalar

Ushbu ishda singulyar koeffisientli Eyler-Puasson-Darbu tenglamasi uchun chegaraviy masalani taqribiy yechish ko‘rib chiqildi. Masaladagi tenglama chiziqli ekanligidan foydalanib uni bittadan boshlang‘ich shartlari bir jinsli bo‘lgan ikkita masalaga keltiramiz. Birinchi masalaning yechimi vaqt bo‘yicha Erdelyi-Kober kasr tartibli integral operatori ta’siridagi funksiya ko‘rinishda qidirildi. Natijada masala singulyar koeffisientsiz yangi yordamchi masalaga keltirildi. Hosil bo‘lgan yordamchi masala to‘rlar usuli bilan taqribiy yechildi. To‘rning har bir ustunida yordamchi masala yechimini aproksimatsiya qiluvchi splaynlar qurildi. Splaynlarga Erdelyi-Kober operatorining ta’siri hisoblanib birinchi masala yechimi hosil qilindi. Ikkinchi masala 1-lemmada keltirilgan xossa asosida xuddi birinchi masala kabi taqribiy yechildi. Ikkala masalaning taqribiy yechimlarini qo‘shib asosiy masalaning taqribiy yechimi hosil qilindi.

Maslaning yechimida xatolikni kamaytirish uchun Erdelyi-Kober operatorini kubik splayn usuli yordamida hisoblandi [22]. Erdelyi-Kober operatorini yana to‘g‘ri to‘rtburchaklar, trapetsiyalar yoki o‘rta qiymat usulidan foydalanib ham hisoblash mumkin [27].

Olingan sonli natijalar shuni ko‘rsatdiki $\omega_{h\tau}$ to‘rni $\tau < h$ shart bajariladigan qilib qurish masalaning taqribiy yechimini aniq yechimga sekin yaqinalashishiga sabab bo‘ladi. Agar to‘r $\tau = h$ shart bajariladigan qilib qurilsa taqribiy yechim aniq yechimga juda tez yaqinlashar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.L. Euler. Institutiones calculi integralis, Vol. III, Petropoli. 1770. Also in: Pt. II. Ch. III, IV, V, Opera Omnia. Ser. 1, Vol. 13. Leipzig, Berlin, 1914, 212-230s.

2.S. D. Poisson. M´emoire sur l’int´egration des ´equations lin´eaires aux diff´rences partielles, J. de L’Ecole Polytechechnique, Ser. 1., 19 (1823), 215-248s.

3.G. Darboux. Le¸cons sur la th´eorie g´en´erale des surfaces et les applications g´eom´etriques du calcul infinit´esimal, Vol. II., 2 ed., Paris, 1915 (1 ed. 1888).

4.B. Riemann. On expansion of waves with finite amplitude, Collected Works, MoscowLeningrad, Gostehizdat, 1948. (in Russian).

5.G. Darboux. "Sur la théeorie générale de surfaces" , **II** , Chelsea, reprint (1972)

6.E.T. Copson. "Partial differential equations" , Cambridge Univ. Press (1975)

7.I. Hauser, F.J. Ernst. "Initial value problem for colliding gravitational plane wave" *J. Math. Phys.* , **30** : 4 (1989). 872–887s

8.A. Weinstein. Sur le probl´eme de Cauchy pour l´´equation de Poisson et l´´equation des ondes, C.R. Acad. Sci. Paris, 234 (1952), 2584-2585s.

9.A. Weinstein. On the wave equation and the equation of Euler–Poisson, Proceedings of Symposia in Applied Mathematics, Vol. V, Wave motion and vibration theory, McGraw-Hill Book Company, New York-Toronto-London, 1954, 137-147.

10. A. Weinstein. The generalized radiation problem and the Euler-Poisson-Darboux equation, Summa Brasiliensis Mathematicae, 3 (1955), 125-147.

11. A. Weinstein. Some applications of generalized axially symmetric potential theory to continuum mechanic, Applications of the function theory to the mechanics of continuum. Transections of international symposium, vol. 2. Mechanics of liquids and gases, mathematical methods. Nauka, Moscow, 1965.

12. A. Weinstein. Selecta, Pitman Publishing, 1978.

13. F. C. Young. On a generalized EPD equation, J. Math. Mech., 18 (1969), 1167-1175.

14. D. W. Bresters. On the equation of Euler-Poisson-Darboux, SIAM J. Math. Anal., 4(1) (1973), 31-41.

15. D. W. Bresters. On a generalized Euler-Poisson-Darboux equation, SIAM J. Math. Anal, 9(5) (1978), 924-934.

16. R. W. Carroll, R. E. Showalter. Singular and Degenerate Cauchy problems, Academic Press, New York, 1976

17. S. A. Tersenov. An introduction to the theory of equations degenerating on a boundary, Novosibirsk State University, Novosibirsk, 1973. (in Russian).

18. V.N. Denisov. "On the stabilization of means of the solution of the Cauchy problem for hyperbolic equations in symmetric spaces" *Soviet Math. Dokl.* , **42** : 3 (1991) pp. 738–742 *Dokl. Akad. Nauk. SSSR* , **315** : 2 (1990) 266–271s.

19. Gavrilyuk, I. P., and V. V. Makarov. *Explicit and approximate solutions of the Euler-Poisson-Darboux equation with an operator coefficient in Hilbert space*. No. NTZ-95-7. SCAN-9504121, 1995.

20. Roland Glowinski, Annalisa Quaini. When euler-poisson-darboux meets painleve and bratu: on the numerical solution of nonlinear wave equations. Methods and applications of analysis. Vol. 20, No. 4, pp. 405{424, December 2013

21. Charles A.Hall, W. Weston Meyer. “Optimal Error Bounds for Cubic Spline Interpolation.” Journal of approximation theory (1976): 105-122s.

22. Sh.T.Karimov, E.R.Islamov. “Approximation of the Erde´lyi–Kober Operator Using Cubic Spline Interpolation.” Lobachevskii Journal of Mathematics (2024, Vol. 45, No. 9,): 4534–4547.

23. А.А.Самарский, А.В.Гулин. Численние методы. Москва: "Наука", 1989.

24. А.К.Уринов, С.М.Ситник, Э.Л.Шишкина, Ш.Т.Каримов. Дробные интегралы и производные (обобщения и приложения). Фергана: "Фаргона", 2022.

25. А.К.Уринов, Ш.Т.Каримов. Операторы Эрдейи - Кобера и их приложения к дифференциальным уравнениям в частных производных. Фергана: "Фаргона", 2021.

26. А.Н.Тихонов, А.А.Самарский. Уравнения математической физики. Москва: Наука, 1951.

27. Płociniczak, Ł., Sobieszek, S. Numerical schemes for integro-differential equations with Erdélyi-Kober fractional operator. *Numer Algor* **76**, (2017). 125–150s. https://doi.org/10.1007/s11075-016-0247-z

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Egamov J
Namangan davlat universiteti
Isoqboyeva G
Namanga shahar 27-maktab matematika fani o‘qituvchisi

QUYOSH PANELLARINING MAKSIMAL SAMARADORLIK BILAN ISHLASH VAQTINI ANIQLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada quyosh panellarining maksimal samaradorlik bilan ishlash vaqtini aniqlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Quyosh panellarining ishlab chiqarish quvvati quyosh nurlanishining intensivligiga bog‘liq bo‘lib, bu intensivlik vaqt bo‘yicha sinusoidal model asosida ifodalanadi. Maksimal samaradorlik vaqtini aniqlash uchun matematik analiz usullari qo‘llanilib, hosila olish orqali ekstremum nuqtasi topiladi.*

Kalit so‘zlar: *quyosh panellari, fotoelektrik tizim, samaradorlik, ishlash vaqti, quyosh nurlanishi, iqlim sharoiti, energiya ishlab chiqarish, optimizatsiya, harorat ta’siri , panel burchagi, monitoring tizimi, rejalashtirish, energiya tejamkorlik, yoritilish darajasi, fotovoltaik modullar.*

Эгамов Ж
Наманганский государственный университет
Исокбоева Г
Учитель математики школы №27 города Наманган

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВРЕМЕНИ, КОГДА СОЛНЕЧНЫЕ ПАНЕЛИ РАБОТАЮТ С МАКСИМАЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос определения времени работы солнечных панелей с максимальной эффективностью. Производительность солнечных панелей зависит от интенсивности солнечного излучения, которая выражается на основе синусоидальной модели во времени. Для определения времени максимальной эффективности применяются методы математического анализа, и через дифференцирование находится точка экстремума.*

Ключевые слова: *солнечные панели, фотоэлектрическая система, эффективность, время работы, солнечное излучение, климатические условия, производство энергии, оптимизация, температурный эффект, угол наклона панели, система мониторинга, планирование, энергоэффективность, уровень освещенности, фотоэлектрические модули.*

Egamov J
Namangan State University
Isoqboyeva G
Mathematics Teacher at School No. 27, Namangan City

DETERMINING THE TIME WHEN SOLAR PANELS WORK AT MAXIMUM EFFICIENCY

Abstract. *This article examines the issue of determining the operating time of solar panels with maximum efficiency. The power output of solar panels depends on the intensity of solar radiation, which is expressed based on a sinusoidal model over time. To determine the time of maximum efficiency, mathematical analysis methods are applied, and the extremum point is found through differentiation.*

Keywords: *solar panels, photovoltaic system, efficiency, operating time, solar radiation, climatic conditions, energy production, optimization, temperature effect, panel angle, monitoring system, planning, energy efficiency, illumination level, photovoltaic modules.*

Quyosh panellarining samaradorligi quyosh nurlanishining intensivligi $I(t)$ ga bog‘liq. Samaradorlikni aniqlash uchun quyosh nurlanishining vaqt bo‘yicha maksimal qiymatini topish kerak. Bu jarayonni matematik tilda tushuntiramiz.

1. Quyosh panellari quvvati va samaradorligi modeli

Quyosh panellari tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy quvvat $P(t)$ quyidagicha ifodalanadi:

$$P(t) = \eta A I(t)$$

Bu yerda:

η – quyosh panelining samaradorlik koeffitsiyenti,

A – panel yuzasi *(m²)*,

I(t) – vaqt bo‘yicha quyosh nurlanishi quvvati *(W/m²)*.

Umumiy ishlab chiqarilgan energiya *E* esa aniq integral orqali ifodalanadi:

$$E = \int_{t_1}^{t_2} P(t)dt = \eta A \int_{t_1}^{t_2} I(t)dt$$

Maqsad: Quyosh panellari qaysi vaqtda maksimal samaradorlik bilan ishlashini aniqlash uchun *I(t)* ning maksimal qiymatini topishimiz kerak.

2. Quyosh nurlanishining vaqt bo‘yicha ifodasi

Quyosh nurlanishi kun davomida quyidagi sinusoidal modelga mos keladi:

$$I(t) = I_{\max} \sin\left(\frac{\pi(t - t_s)}{T}\right)$$

Bu yerda:

Imax $I_{\max}$ – maksimal nurlanish intensivligi *(W/m²)*,

t_s – quyosh chiqish vaqti (soatlar bilan),

T – kunduz uzunligi (soatlar bilan).

3. Maksimal samaradorlik vaqtini topish

Maksimal nurlanish vaqtini topish uchun *I(t)* ning ekstremum nuqtasini aniqlash lozim. Buning uchun hosila olib, uni nolga tenglaymiz:

$$\frac{dI}{dt} = I_{\max} \frac{\pi}{T} \cos\left(\frac{\pi(t - t_s)}{T}\right) = 0$$

Bu tenglama quyidagicha yechiladi:

$$\cos\left(\frac{\pi(t - t_s)}{T}\right) = 0$$

Kosinus funksiyasi 0 bo‘ladigan eng kichik qiymat:

$$\frac{\pi(t - t_s)}{T} = \frac{\pi}{2}$$

Bu tenglamani *t* bo‘yicha yechamiz:

$$t - t_s = \frac{T}{2}$$

4. Amaliy natijada Quyosh panellari quvvati va samaradorligi modeli – hayotiy misol bilan tushuntiramiz.

Misol. Tasavvur qilaylik, bizda quyidagi xususiyatlarga ega quyosh paneli bor:

1) Samaradorlik koeffitsiyenti: $\eta = 20\%$ (0.2)
2) Panel yuzasi: *A=2 m²*
3) Maksimal quyosh nurlanishi: $I_{\max} = 1000$ W/m² (quyoshli kunda)
4) Quyosh chiqish vaqti: $t_o = 6:00$
5) Quyosh botish vaqti: $t_b = 18:00$

Quyosh nurlanishining vaqt bo‘yicha ifodasi:

$$I(t) = 1000 \cdot \sin\left(\frac{\pi(t - 6)}{12}\right)$$

Quyosh paneli tomonidan ishlab chiqariladigan quvvat:

$$P(t) = \eta \cdot A \cdot I(t) = 0.2 \times 2 \times 1000 \cdot \sin\left(\frac{\pi(t - 6)}{12}\right)$$

$$P(t) = 400 \cdot \sin\left(\frac{\pi(t - 6)}{12}\right) \quad \text{(W)}$$

Maksimal samaradorlik vaqtini aniqlaymiz:

$$\frac{dI}{dt} = 1000 \cdot \frac{\pi}{12} \cos\left(\frac{\pi(t - 6)}{12}\right) = 0$$

Bu tenglama quyidagicha yechiladi:

$$\cos\left(\frac{\pi(t - 6)}{12}\right) = 0$$

Kosinus 0 ga teng bo‘ladigan eng kichik qiymat:

$$\frac{\pi(t - 6)}{12} = \frac{\pi}{2}$$


Bundan:

$$t - 6 = 6$$
$$t = 12:00$$

Natija:

Soat 12:00 da quyosh panellari maksimal quvvat ishlab chiqaradi:

$$P(12) = 400 \times \sin\left(\frac{\pi(12 - 6)}{12}\right) = 400 \times \sin\left(\frac{\pi}{2}\right) = 400 \text{ W}$$



Bu shuni anglatadiki, soat 12:00 da panel eng yuqori quvvat bilan ishlaydi. Kun davomida esa ishlab chiqarilgan umumiy energiyani integral orqali hisoblash mumkin.

Bu misol real hayotda, masalan, uy tomiga o‘rnatilgan quyosh panellarining eng samarali vaqti tush paytiga to‘g‘ri kelishini isbotlaydi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari quyosh panellarining samaradorligi quyosh nurlanishining intensivligiga bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi. Matematik modellashtirish asosida maksimal samaradorlik vaqti aniqlanib, quyosh nurlanishining sinusoidal taqsimlanishi hisobga olinganda, eng yuqori quvvat ishlab chiqarish vaqti mahalliy vaqt bilan soat 12:00 ga to‘g‘ri kelishi isbotlandi. Integral usuli yordamida ishlab chiqarilgan umumiy energiyani hisoblash mumkinligi ko‘rsatildi. Olingan natijalar quyosh panellarining joylashuvi va samaradorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari qayta

tiklanuvchi energiya manbalaridan optimal foydalanish va quyosh energetika tizimlarining ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Turdaliyev M., Xolmatov B**.** (2018). *Matematik modellashtirish asoslari*. Toshkent: Fan nashriyoti.

2.Ravshanov U., Abdullayev B. (2021). *Tabiiy tizimlarning matematik modellashtirilishi*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.

3. Abduqodirov A., (2017). *Matematik analiz va uning amaliy tadbiqlari*. Toshkent: Universitet nashriyoti.

4.Yoqubov A., Karimov T. (2020). *Ekologik muammolar va ularning matematik modellashtirish asoslari*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

5.Qosimov I., Mamatqulov R. (2019). *Matematik fizika tenglamalari va ularning ekologiyadagi tadbiqlari*. Toshkent: O‘zMU.

6.Egamov J.A, Rustamaliyeva R.I. *Ratsional va irratsional funksiyalarni integrallashning turli metodlari.* NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2023 йил 9-сон. 104-109-betlar

7.Egamov J.A, Sobitov R.A. *Some applications in economics*. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 1, January,2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Karimberdi Egamberdiyevich Onarkulov
Professor of Fergana State University
E-mail: maxmaqsad@gmail.com
Gulnoza Jo'rayeva Fazlitdinovna
Senior teacher of the Fergana branch of Tashkent information technology
E-mail: gulnozajorayeva1984@gmail.com

UDC:53.096

THE EFFECT OF INHOMOGENEITY ON THE EFFICIENCY OF SEMICONDUCTOR PHOTODETECTORS

Annotation: *In this article, causes of abnormal photovoltaic voltage (APV), asymmetry in light illumination at the boundary of crystallites, the angle dependence of the APV effect in CdTe thin films are studied. It is shown that the processes of the emergence and diffusion of photocarriers are related to the formation of the priority absorption areas of the light and shadow areas in the angular illumination of the samples.*

Keywords: *APV, thin curtains,thermal condensation, molecular flow, columnar structure, roughness, crystallite boundary (CB), surface states, optical phenomena, refraction of light.*

Каримберди Егамбердиевич Оноркулов
Профессор Ферганского государственного университета
Жураева Гулноза Фазлитдиновна
Старший преподаватель Фаганский филиал Ташкентских информационных технологий

ВЛИЯНИЕ НЕОДНОРОДНОСТИ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ФОТОДЕТЕКТОРОВ

Аннотация: *В данной статье исследованы причины появления АФН, асимметрия светового освещения на границе кристаллитов, угловая зависимость эффекта АФК в тонких пленках CdTe. Показано, что процессы появления и диффузии фотоносителей связаны с формированием областей приоритетного поглощения световых и теневых участков при угловом освещении образцов.*

Ключевые слова: *АФН, тонкие пленки, термическая конденсация, молекулярный поток, столбчатая структура, граница кристаллитов (ГК), поверхностные состояния, оптические явления, преломление света.*

Karimberdi Egamberdiyevich Onarkulov
Farg'ona davlat universiteti professori
Jo'rayeva Gulnoza Fazlitdinovna
Toshkent axborot texnologiyalari Fag'ona filiali katta o'qituvchisi

YARIM O'TKAZGICHLI FOTOQABUL QILGICHLARNING SAMARADORLIGIGA BIR JINSLI EMASLIKNING TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, AFKning paydo bo'lishi sabablari, kristalitlar chegarasida nurning yoritilishidagi assimetriyasi, CdTe yupqa pardalarida AFK effektining burchakka bog'liqliklarini o'rganilgan. Fototashuvchilarning paydo bo'lishi va diffuziyalanish jarayonlari namunalarning burchakli yoritilishida yorug'lik va soya sohalarning ustuvor yutilish sohalarini shakllantirish bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *AFK, yupqa pardalar, termik kondensatsiya, molekulyar oqim, ustunsimon tuzilma, g'adir-budirlik, kristallitlar chegarasi (KCH), sirt holatlari, optik hodisalar, yorug'likning qaytarilishi.*

Introduction

The basis of modern electronics, microelectronics and nanoelectronics, is devices based on semiconductors and semiconductor thin-film structures. Because in microelectronics, semiconductor materials are used to convert various signals, and in energy, to convert one type of energy into another. They are classified according to their function, mode of operation, material, structure and production technology, and field of application [1].

Methods

Photocells made of semiconductors allow the direct conversion of solar radiation energy into electrical energy (solar cells). They are a source of electrical energy without polluting the environment and without using fossil fuels, the reserves of which are running out. Thin films with APV are obtained by thermal condensation of a semiconductor material on a dielectric substrate (e.g. glass) in vacuum [2]. Such thin films grow continuously in the direction of molecular currents and acquire a columnar structure (Fig. 1). Changing the direction of molecular currents, for example by changing the position of the substrate - the growth of crystallites whose plane is not perpendicular to the direction of molecular currents on the substrate, leads to changes in properties that are not exactly the same in different directions.




Figure 1. Electron microscopic image of the surface (a) and the fractured side (b) of a thin film of PbS. B - is the direction of molecular flow, AA - is the base surface.

Has been experimentally confirmed that the surface of each crystallite is "rough". This is a relief called "natural rough", which is also due to the minimum free energy requirement. Roughness can be the reason for the appearance of surface at the boundary of crystallites [3].

Considering the individuality of the crystallite surface in thin films , it is necessary to take into account the properties of light transmission through the CB in optical phenomena, in particular its reflection [4]. The roughness of the CB may be the main reason for their reflectivity level (Fig . 2).




Figure 2. Absorption of a plane-parallel light beam incident on a thin film at an angle, obtained under the condition of the molecular stream incident perpendicular to the base plane. r – angle of refraction; d – thickness of the thin film; α- light absorption coefficient.

The main conclusion that follows from figure 2 is that the absorption of light over the volume of the thin film is not uniform due to the reflection of the light incident on it by the CB. The symmetry that occurs during normal incidence of a light beam is broken when it is illuminated at an angle to the surface and leads to the formation of preferential absorption areas of light and shadow. This is one of the natural reasons for the appearance of APV in such structures. The intensity of the light entering the shadow region through the CB has a lower intensity than the intensity of the primary light incident on the thin film.

Thus, the reason for the appearance of APV is the asymmetry of the light illumination in the CCH. To clarify the conclusions, we studied the angular dependence of the APV effect φon CdTe thin films . Thin films were obtained by changing the angle of incidence of the molecular stream on the substrate ( ). In this case, an acute angle between φthe substrate plane and the molecular stream ($0 \le \varphi \le 90^0$). The films had a pronounced polycrystalline structure. To change the concentration of SHs in the CCH, the energy spectrum, and other properties, the samples were treated with heating in air.


Figure 3 shows the amplitude of the AFC (V_{APV}) The dependence of the incident light flux angle (α) on the incident light flux for thin films obtained by passing a molecular stream perpendicular to the substrate is shown ($\varphi=90^0$). The angle of illumination varied in the range $0 \le \alpha \le 180^0$, so αat = $\varphi=90^0$ light propagates parallel to the CB

plane. It can be seen from the figure that the inversion of the sign of V α_{APV} occurs at = φ=90 ^{0}. APV The characteristic V $_{APV}$ (α) is strictly symmetrical with respect to the inversion point (the direction of the molecular current). The amplitude of the effect to the left and right of the inversion point is the same. During heating, only an increase in the amplitude of the effect is observed, which is associated with a change in the electronic properties of the CB due to diffusion processes leading to a change in the SH parameters.

Results and Discussion

As can be seen from these data, the geometric factor is clearly evident in the experimental manifestation of the effect:

1) the inversion of the effect is again observed when the molecular stream and the plane-parallel light directions on which it falls coincide; in the geometry of our experiments, φwhen the condition + α=180 ^{0} is met (Figure 4);



after treatment with heating in air at 200 and 300 ^{0} C, respectively.




Figure 4. Geometry of the experiment

2) the angular characteristics of the molecular stream at each angle of incidence are asymmetric with respect to the point of inversion of the sign of the effect (primarily, this concerns the amplitude of the effect); This is due to the fact that when illuminated from the right, a significant part of the volume of the thin curtain in our terminology becomes a shadow area;

3) the angle of incidence of light at which the maximum amplitude of the effect is observed follows the angle of incidence of the molecular stream; In addition, the APV The maximum will have an empirical dependence on the angular position.

On the left $\alpha_{is\,1}(V_{APV}^{MAX})$≈(180- φ)/2 and on the right is $\alpha_2(V_{APV}^{MAX})$≈φ/2, so $\alpha_1(V_{APV}^{MAX})$+ $\alpha_2(V_{APV}^{MAX})$=90 ^{0}.

The AFC effect produces photoelectrons that diffuse into an adjacent potential barrier in a thinner part of the thin film (Figure 5).




Figure 5. Zone structure of an illuminated p-CdTe thin film

Conclusion

The increase in the amplitude of the effect during heating (curves 2, 3) is associated with a change in the height of the potenti α, deg the CB due to the oxygen SC formed by the di ygen atoms along the CB. An increase in the amplitude of the Zons bending in the inversion channel leads to an increase in the electron concentration, which, as a result, leads to a decrease in the share of photoelectrons in the total number of electrons in the channel. Ionized electrons repel photoelectrons, which leads to a decrease in the amplitude of the APV effect.

APV for newly planted and lightly tilled thin grasses (α) The maximum value of V APV on the left and right sides of the connection. The appearance of additional peaks is probably due to the contribution of the main photocarriers to the effect. Their appearance and diffusion processes are associated with the formation of preferential absorption zones of light and shadow areas under angular illumination of the samples. Thus, the theoretical considerations presented here show almost complete agreement with the experiments discussed here. The simplicity of the mechanism and its compatibility with other phenomena indicate its viability.

References:

1.Быстров, Ю. Оптоэлектронные приборы и устройства. Учебное пособие. РадиоСофт. 2012, с.250-256

2. Колосов В.Ю., Веретенников Л.М., Старцева Ю.Б., Швам К.Л. Электронно-микроскопические исследования микроструктуры поликристаллических конденсатов на основе халькогенидов: влияние состава и толщины на внутреннее искривление кристаллической решетки. // ФТП.- 2005.- Т.39. В.8.

3. Неустроев Л.Н., Осипов В.В., Онаркулов К.Э. Исследование внутренней структуры фоточувствительных поликристаллических пленок сульфида свинца с помощью вакуумного прогрева. // ФТП.1987.Т.21В.7. С. 5-12.

4. Атакулов Ш.Б., Зайнолобидинова С.М. Влияние структурных особенностей полликристаллических пленок полупроводников на формирование эффекта аномального фотонапряжения. I. Механизм явления. // Физика и техника полупроводников, 2011, № 46-(6).-с.728-733.

5. Onarkulov, K., Jo‘rayeva, J. R. G. F., & Fazlitdinovna, G. (2024). AFK elementlarining tuzilishi va xususiyatlarining bog‘lanishini o‘rganish. // FarDU ilmiy xabarlar.2024. (3), 348-348 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Ro‘ziyev Farid Murtoza o‘g‘li
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, , kichik ilmiy xodim
e-mail: roziyevf@iplt.uz

UDK 537.9:621.311.243

DEH-X SERIYALI DONOR VA L8-Bo AKSEPTOR ASOSIDAGI FAOL QATLAMLARNING OPTIK XOSSALARI

Annotatsiya. *Hozirgi zamonda ekologik toza va barqaror energiya manbalarini rivojlantirish global muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu tadqiqot organik quyosh elementlari (OQE)ning samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan bo‘lib, D18 va D18 donor polimeri asosida yangi sintez qilib olingan DEH-3,DEH-10, DEH-20 donor polimerlari va L8-Bo akseptori asosida kombinatsiya qilib xloroform eritmasi yordamida eritilib tayyorlab olingan faol qatlamlarning optik va fotovoltaik xususiyatlarini o‘rganish asosiy maqsadlarimizdan biri qilib belgiladik. Tadqiqot doirasida DEH-3, DEH-10 va DEH-20 polimerlarining yutilish spektri, yorug‘likni o‘rtacha o‘tkazuvchanligi (AVT) shu bilan birga tashqi kvant samradorligi (TKS), energiya o‘zgarish samradorligi (EO‘S) tahlil qilindi. DEH-X donor materiallari yuqori yutilish koeffitsiyentiga ega. L8-Bo akseptori keng yutilish spektriga va yuqori elektron akseptorlik qobiliyatiga ega bo‘lganligi sababli, EO‘Sligini oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *YSH-OQE, EO‘S, D18, AVT, TKS, samaradorlik, barqarorlik.*

Ruziev Farid Murtoza ugli
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, Junior Researcher

OPTICAL PROPERTIES OF ACTIVE LAYERS BASED ON DEH-X SERIES DONORS AND L8-BO ACCEPTORS

Abstract: *Nowadays, the development of environmentally friendly and sustainable energy sources remains one of the global challenges. This study aims to further enhance the efficiency of organic solar cells (OSCs) by investigating the optical and photovoltaic properties of active layers prepared by combining newly synthesized DEH-3, DEH-10, and DEH-20 donor polymers based on the D18 donor polymer with the L8-Bo acceptor. These active layers were fabricated using chloroform as a solvent. One of our main goals is to analyze the absorption spectra, average visible transmittance (AVT), external quantum efficiency (EQE), and energy conversion efficiency (PCE) of the DEH-3, DEH-10, and DEH-20 polymers. The DEH-X donor materials demonstrate a high absorption coefficient, while the L8-Bo acceptor, with its broad absorption spectrum and high electron-accepting capability, contributes to improved PCE.*

Keywords*: ST-OSC, PCE, D18, AVT, EQE, efficiency, stability.*

Рузиев Фарид Муртоза угли
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий, младший научный сотрудник

ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА АКТИВНЫХ СЛОЕВ НА ОСНОВЕ ДОНОРОВ СЕРИИ DEH-X И АКЦЕПТОРОВ L8-BO

Аннотация. *В настоящее время развитие экологически чистых и устойчивых источников энергии остается одной из глобальных проблем. Данное исследование направлено на дальнейшее повышение эффективности органических солнечных элементов (ОСЭ) путем изучения оптических и фотоэлектрических свойств активных слоев, приготовленных путем комбинации вновь синтезированных донорных полимеров DEH-3, DEH-10 и DEH-20 на основе донорного полимера D18 с акцептором L8-Bo. Эти активные слои были изготовлены с использованием хлороформа в качестве растворителя. Одной из наших основных целей является анализ спектров поглощения, средней видимой пропускной способности (AVT), внешней квантовой эффективности (ВКЭ) и эффективности преобразования энергии (ЭПЭ) полимеров DEH-3, DEH-10 и DEH-20. Донорные материалы DEH-X демонстрируют высокий коэффициент поглощения, а акцептор L8-Bo, благодаря своему широкому спектру поглощения и высокой способности принимать электроны, способствует улучшению ЭПЭ.*

Ключевые слова: *ПОСЕ, ЭПЭ, D18, AVT, ВКЭ, эффективность, стабильность.*

Kirish.

Hozirgi zamon energetika sohasida muammolaridan biri bo‘lgan barqaror va ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan texnologiyalar, xususan, quyosh energiyasini elektr va issiqlik enegiyasiga aylantirish alohida e‘tiborga loyiqdir. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi qurilmalarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, organik quyosh elementlari (OQE) bu yo‘nalishda istiqbolli sohalardan biri bo‘lib kelmoqda. OQElari yengil, egiluvchan, ishlab chiqarish jarayoni soddaligi va arzon ishlab chiqarish texnologiyasiga ega bo‘lganligi bilan an‘anaviy kremniy asosidagi fotoelektr elementlardan farq qiladi[1]. Ushbu qurilmalarda foydalaniladigan donor va akseptor materiallarining optik va fotovoltaik xususiyatlarini yaxshilash orqali ularning energiya o‘zgarish samaradorligi (EO‘S) ligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, DEH-X seriyali donor polimerlar va L8-Bo akseptor materiallariga asoslangan OQElarining faol qatlamlaridagi optik va fotovoltaik xossalarini tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega. DEH-X seriyali donor materiallari, masalan, D18 va D18 asosida yangi siztez qilib olingan DEH-3, DEH-10 va DEH-20 polimerlari, ularning molekulyar tuzilishi va fotofizik xususiyatlariga ko‘ra yuqori koeffitsiyentli yutilishga ega. Ushbu polimerlar donor sifatida L8-Bo kabi akseptor materiallar bilan kombinatsiyalanganida yuqori samarali quyosh elementlarini yaratish imkoniyatini beradi. L8-Bo akseptori o‘zining yuqori elektron akseptorlik qobiliyati va keng polosali yutilish spektri bilan ajralib turadi, bu esa umumiy EO‘Sligini oshiradi[2].

Faol qatlamdagi materiallarning optik xususiyatlari, masalan, yutilish spektri, yorug‘lik o‘tkazuvchanligi, EO‘S, volt amper xarakteristikasi, fotoluminessensiya ko‘rsatkichlari va (AVT) yarimshaffof quyosh elementining asosiy parametrlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi[3]. Ushbu materiallarning spektral natijasi va optik o‘tkazuvchanligi qurilmaning samaradorligi, shuningdek, yoritilgan sharoitda ishlash qobiliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yarim shaffof organik quyosh elementlari (YSH-OQE) uchun ushbu xususiyatlar o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, (AVT) ko‘rsatkichi orqali baholanadi.

D18 polimeri hamda D18 polimeri asosida turli strukturada tayyorlangan DEH-X seriyali ya’ni DEH-3, DEH-10 va DEH-20 nomli olingan polimerlarning optik va fotovoltaik xususiyatlari tadqiq qilindi. DEH-3, DEH-10 va DEH-20 polimerlarining L8-Bo akseptor bilan kombinatsiyasida hosil bo‘ladigan faol qatlamlarning optik xususiyatlarini o‘rganish maqsad qilib olingan. Bu yerda materiallarning yutilish spektri, yorug‘likka nisbatan sezgirligi va fotonlar bilan o‘zaro ta‘siri qamrab olinadi. Bundan tashqari, ushbu xususiyatlarning quyosh elementlarining samaradorligiga ta‘siri nazariy va eksperimental asosda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tadqiqot OQElarining amaliy qo‘llanilishi va ularning tijoratlashtirishga o‘zini ulkan hissasini qo‘shishi mumkin bo‘lgan yangi bilimlarni taqdim etadi. Ayniqsa, DEH-X donor polimerlarinniing molekulyar modifikatsiyasi orqali ularning yutilish spektrini kengaytirish va EO‘Sni oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu o‘zgarishlar natijasida nafaqat energiya yutilishi yaxshilanadi, balki qurilmalarning ishlash barqarorligi ham oshadi[4].

Ushbu ishning ahamiyati shundaki, u DEH-X seriyali polimerlarga o‘xshash yangi donor polimerlarni OQElarda qo‘llanilish imkoniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, ushbu donor va akseptor materiallarining kimyoviy tuzilishini modifikatsiya qilish orqali ularning optik va fotovoltaik xususiyatlarini yanada yaxshilash imkoniyatlarini o‘rganish uchun ilmiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari nafaqat OQElari texnologiyasini rivojlantirishga, balki qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy qilishga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

Tadqiqot usullari.


D18 hamda DEH-3, DEH-10 va DEH-20 polimerlarini L8-Bo akseptor bilan aralashtirgan holda OQElar uchun faol qatlamlar tayyorlab olindi. Faol qatlamlar tayyorlash uchun D18, DEH-3, DEH-10 va DEH-20 hamda L8-Bo polimerlari har biri 10 mg miqdorida olinib, donor va akseptor massa ulushi 1:1 nisbatda olinib 0,5 ml xlorobenzol erituvchisi yordamida eritildi. Aralashma xona temperaturasida magnitli aralashtirgich yordamida eritma to‘liq tayyor bo‘lguniga qadar 5 soat davomida qizdirmasdan xona haroratida aralashtirildi. Tayyor bo‘lgan aralashmani “spin coating” usulida shisha/ITO ustiga yotqiziladi. Buning uchun shisha/ITO tagliklari ketma-ket uch bosqichda tozalab olinadi sababi OQElarida shisha/ITO (Indiy-qalay oksidi) elektrodining tozaligi juda muhim hisoblanadi, chunki bu qatlamning sirt holati va notozalik darajasi qurilmaning samaradorligi va takrorlanuvchanligiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi[5]. Shuning uchun har qanday tajribadan oldin tozalash jarayonlarini ehtiyotkorlik bilan bajarish talab etiladi. Dastlab ultratovushli vanna yordamida deionizatsiyalangan suvda, atseton hamda izopropil spirtida 10-15 minut vaqt davomida tozalab olinadi. Ultratovushli vannada tozalab olingandan so‘ng tagliklar yuzasini azot gazi yordamida purkash usuli bilan shisha/ITOning har ikkila tomoni yaxshilab quritiladi. Tozalangan shisha/ITO tagliklar ustiga PEDOT:PSSni “spin coating” usuli yordamida 4000 ayl/daq. tezlikda 15 sekund davomida aylantirib qalinligi 40 nm atrofida bo‘lgan PEDOT:PSS qatlam hosil qilindi. PEDOT:PSS ning vazifasi anodga faqat kovaklarni o‘tqazib elektronlarni qaytarish uchun xizmat qiladi.Tayyor bo‘lgan shisha/ITO/PEDOT:PSS tagliklar argon gazi bilan to‘ldirilgan qo‘lqopli maxsus qutiga joylashtiriladi va jarayon davom ettiriladi.

Shisha/ITO/PEDOT:PSS ustiga D18:L8-Bo, DEH-3:L8-Bo, DEH-10:L8-Bo, DEH-20:L8-Bo yupqa qatlamlar 4000 ayl/daq. tezlikda 15 sekund davomida aylantirib yotqizildi va tayyor bo‘lgan yupqa qatlamlarning optik xossalari tadqiq qilindi. Tayyor bo‘lgan shisha/ITO/PEDOT:PSS/faol qatlam ustiga PDINO qalinligi taxminan 40 nm 20 soniya davomida 6000 aylanish tezlikda aylantirilib qoplandi[6].

PDINO - elektron tashish qatlami sifatida ishlatiladi, ya'ni u quyosh elementidagi elektronlarni anod va katodga samarali ravishda yo‘naltirish uchun yordam beradi. PDINO yotqizilib tayyor bo‘lgach oxirgi bosqich yani, yupqa metall elektrod alyuminiy (Al) kontakti 2×10^{-4} Pa vakuumli kamerada bug’lantirish yordamida yotqizish orqali tayyorlandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

1-rasmda Xloroform eritmasi yordamida eritilib tayyorlangan D18, DEH-3, DEH-10 va DEH-20 donor polimerlarining yutilish spektrlari keltirilgan bo‘lib, yutilish spektri 350-700 nm diapazon to‘lqin uzunligida keng yutilish polasasini



1-rasm. Xloroform eritmasi yordamida eritilib tayyorlangan D18, DEH-3, DEH-10 va DEH-20 donor polimerlarining yutilish spektrlari.

ko‘rsatdi, bu yutilish spektrlari OQElarida samaradorlikka ta’sir qiluvchi xususiyatlarni ifodalaydi. Asosiy yutilish piki 560-600 nm to‘lqin uzunligiga to‘g’ri kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu polimerning yorug’likni yutish xususiyati samarali ekanligini bildiradi. DEH qo‘shilishi bilan yutilish intensivligi pasaygan va biroz qisqa to‘lqin uzunligiga spektral siljish kuzatilganini ko‘rishimiz mumkin. D18 va D18 asosida yangi sintez qilib olingan DEH-3 bu namuna D18 bilan solishtirganda biroz past yutilish ko‘rsatgan bo‘lsada umumiy spektral shakl saqlanib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, DEH-3 qo‘shilishi polimerning optik xususiyatlariga kichik bo‘lsa ham samarali ta’sir qilganini ko‘rishimiz mumkin. DEH-10 yutilish intensivligi D18 va DEH-3 bilan solishtirilganda esa biroz kamaygan. Bu DEH-10 miqdorining ortishi bilan D18 donor polimerining optik o‘zaro ta’sirga tushishi natijasida bo‘ladi. DEH-20 eng past yutilish intensivligi kuzatilgan. Bu DEH ning ko‘proq miqdorda qo‘shilishi natijasida D18 polimerining yutilish qobiliyati pasayganini ko‘rsatgan. DEH-20 tarkibida ko‘proq DEH mavjud bo‘lganligi sababli, D18 strukturasi bilan yetarlicha aralashmasligi sababli, yutilish kamayishiga olib kelgan. Konjugatsiya uzunligining qisqarishi DEH ning qo‘shilishi natijasida polimerning π elektron tizimini o‘zgarishiga olib keladi[7]. Bu esa yutilish intensivligining kamayishiga olib keladi. DEHning D18 tarkibida mavjudligi D18 ning yorug’lik yutilishi va energiya uzatish jarayonlariga ta’sir qilib, umumiy yutilish spektrini o‘zgartiradi.


Xloroform yordamida eritilib tayyorlangan D18, DEH-3, DEH-10 va DEH-20 polimer eritmalarining 700 nm dan keyin yutilishining sezilarli darajada kamayganini ko‘rsatadi, bu ularning uzun to‘lqin uzunliklarida yutilish chegarasi yaxshi ekanligini bildiradi.

Jadval-1. HUMO/LUMO darajasi o‘lchovidan o‘lchangan qiymatlar

Polimerlar	HUMO (eV)	LUMO (eV)
L8-Bo	-5.71	-4.30
D18	-5.01	-3.04
DEH-3	-5.03	-3.06
DEH-10	-5.10	-3.13
DEH-20	-5.15	-3.19


1-jadvalda D18 va D18 donor polimeridan yangi sintez qilib olingan donorlarning energetik sathlariga bo‘lgan ta’siri keltirilgan bo‘lib, L8-Bo polimer akseptorning ham natijalari keltirilgan. HOMO va LUMO qiymatlar orasidagi farq asosan energetik bo‘shliqni bildirgan bo‘lsa D18 materiali uchun esa LUMO qiymati -3.04 eV va HOMO qiymati -5.01 eV ga teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin. DEH tarkibli donorlarining qo‘shilishi quyidagicha natijani namoyish etdi: DEH-3%, DEH-10%, va DEH-20% konsentratsiyalari qo‘shilganda, LUMO qiymatlari biroz pasaygan (-3.06 , -3.13 va -3.19 eV oralig’ida), bu esa elektron akseptor material sifatida LUMO darajasida kichik o‘zgarishlarni ko‘rsatadi[8]. HOMO qiymatlarida esa sezilarli o‘zgarish kuzatilmagan, ular deyarli bir xil (-5.03, -5.10, -5.15 eV). L8-Bo bilan solishtirganimizda esa L8-Bo materialining LUMO qiymati ancha past (-4.30 eV), bu esa uning elektron akseptor sifatida yuqori samaradorlikka ega ekan. HOMO darajasi ham D18 va DEH materiallariga nisbatan pastroq (-5.71 eV) ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida D18 va D18 polimeridan yangi sintez qilib olingan DEH-X polimerlari LUMO va HOMO darajalariga biroz ta’sir ko‘rsatadi. L8-Bo esa nisbatan chuqurroq energetik sathlar ko‘rsatganini ko‘rishimiz mumkin, bu uni samarali akseptor sifatida ajratib turadi. Ushbu natijalar quyosh elementlaridagi samaradorlikni yanada oshirish maqsadida turli donor va akseptor materiallar o‘rtasidagi energetik sath mosliklarini o‘rganish uchun muhim hisoblanadi.



2-rasm. Turli D18 va DEH modifikatsiyalari asosidagi faol qatlarning AVT ko‘rsatgichlari.

2-rasmda Turli D18 va DEH modifikatsiyalari asosidagi faol qatlamlarning AVT ko‘rsatgichlari keltirilgan bo‘lib, barcha polimerlar D18 va DEH-3, DEH-10, DEH-20 asosida ishlangan donor polimerlarning AVT qiymati 300-100 nm to‘lqin uzunligi oralig‘ida keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, AVT qiymatlari ko‘rinadigan yorug‘lik diapazonida 400-700 nm yuqoriroq va infraqizil diapazonga o‘tgan sari pasayib borganini kuzatishimiz mumkin. Bu shaffoflikni yorug’lik energiyasi spektrida qanday taqsimlanishini ko‘rsatadi[9]. Asosiy yorug’lik yutlish piklarga e’tibor beradigan bo‘lsak, 410 nm da maksimum pikga ega ekanligini va 620 nm hamda 900 nm to‘lqin uzunliklarda piklar hosil bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab shu maksimum pik nuqtalarda ko‘rsatilgan to‘lqin uzunliklarda yorug’likni yaxshi o‘tqazayotganligini bildiradi. Yuqori o‘tkazuvchanlik shuni ko‘rsatadiki, materiallar nisbatan yaxshi optik xususiyatlarga ham ega. Ushbu hosil bo‘lgan 3 ta pikning turli materiallar ya’ni (DEH-20:L8-Bo, DEH-10:L8-Bo, D18:L8-Bo, va DEH-3:L8-Bo) uchun farq qilishi materiallarning turli xil optik va strukturaviy xususiyatlari bilan izohlanadi. Bu farqlar materiallarning tarkibi, qalinligi yoki tarkibidagi qo‘shimcha komponentlarga bog’liq[10]. Xulosa o‘rnida D18:L8-Bo materiali yarim shaffoflik va ko‘rinadigan yorug’likni o‘tkazish jihatidan eng yuqori samaradorlikka ega. DEH modifikatsiyalari bir biriga yaqin bo‘lib, infraqizil yutilishi bilan samarali ishlashini ko‘rsatadi.



3-rasm. Turli D18 va DEH modifikatsiyalari asosidagi OQElarning volt-amper xarakteristikasi.

3-rasmda Ushbu grafikda turli polimerlar D18 va uning DEH-3, DEH-10, DEH-20 modifikatsiyalari hamda L8-Bo akseptor asosida ishlab chiqilgan OQElarning volt-amper xarakteristikalari keltirilgan bo‘lib, har bir materialning ishchi sohasidagi tok zichligi va maksimal kuchlanishdagi tokning o‘zgarishi solishtirilgan. D18 va DEH polimerlarning J_{sc} qiymatlari bir biriga yaqin bo‘lib, bu materiallar fotoaktiv qatlamda yorug’likni samarali yutishini ko‘rsatadi. Eng yuqori J_{sc} qiymati esa D18:L8-Bo da kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Materiallar o‘rtasidagi farqlarni ko‘radigan bo‘lsak, barcha materiallar uchun V_{oc} taxminan 0.9 V ga yaqin bo‘lib, bu DEH-3, DEH-10, DEH-20 va D18 asosidagi fotoaktiv qatlamlarning elektr kimyoviy xossalarini ko‘rsatadi. D18 asosidagi donor material boshqa modifikatsiyalarga ya’ni DEH-3, DEH-10, DEH-20 nisbatan biroz yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda. DEH-20 esa boshqa DEH modifikatsiyalariga nisbatan biroz pastroq samaradorlik namoyish etdi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, grafikdan ko‘rinib turibdiki, barcha materiallar bir xil ishchi kuchlanish sohasida o‘xshash natijalar ko‘rsatmoqda, lekin D18 polimeri yuqori samaradorlikka ega. Bu D18 va L8-Bo materiallari o‘rtasidagi optimal energiya darajalari moslashuvi bilan bog’liq[11]. DEH modifikatsiya esa o‘z kimyoviy strukturasidagi kichik farqlar tufayli bir oz kamroq samaradorlik ko‘rsatmoqda.


Ushbu natijalar DEH-X seriyasi donor modifikatsiyalari va materiallarning xususiyatlariga ta’sirini nomoyon qiladi. Bu OQElarini yanada samarali qilishda ilg’or qadam hisoblanadi.

2-Jadval. YSH-OQElarning fotovoltaik parametrlari.

Faol qatlam	J_{sc} (mA/sm^2)	V_{oc} (V)	FF (%)	EO‘S (%)
D18:L8-Bo	25.50	0.90	74.2	17.1
DEH-3:L8-Bo	25.34	0.94	71.1	16.9


DEH-10:L8-Bo	25.11	0.94	71.0	16.7
DEH-20:L8-Bo	26.32	0.94	69.6	17.1

2-Jadvalda D18 va DEH polimerlari (DEH-3, DEH-10, DEH-20) asosidagi OQEning asosiy fotovoltaik parametrlari keltirilgan bo‘lib, D18:L8-Bo polimer uchun qisqa tutashuv toki zichligi J_{sc} 25.50 mA/sm² tashkil etdi, J_{sc} quyosh elementlarining yorug’likni elektr energiyasiga aylantirish qobiliyatining muhim ko‘rsatkichidir hamda J_{sc} asosan yorug’lik yutilishi va tashuvchi zaryadlarni (elektron va kovak) samarali ajratish va qabul qilish jarayoniga aks ettiradi. D18:L8-Bo uchun esa 25.50 mA/sm² dan boshlab, DEH-20:L8-Bo uchun 26.32 mA/sm² gacha oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘sish materiallar tarkibidagi o‘zgarishlar tufayli yorug’likni yaxshi yutish va ko‘proq fotogenerator hosil qilish bilan bog’liq. Ochik zanjir kuchlanishi V_{oc} qiymatlari 0,90 V dan 0,94 V gacha o‘zgaradi. Bu qiymatlar pastdan o‘rtacha diapazongacha bo‘lib, shaffof materiallar uchun tipik hisoblanadi. V_{oc} ning barqarorligi, materiallar orasidagi energetik moslik yaxshi ekanligini ko‘rsatdi. To‘ldirish faktori FF esa maksimal quvvat nuqtasining samaradorligini aks ettiradi[12]. U D18:L8-Bo uchun 74.2% bo‘lsa, DEH-3:L8-Bo uchun 71.1.6 % ga ko‘tarilganini ko‘rishimiz mumkin. Biroq, keyingi materiallarda bu biroz pasayganini ham ko‘rishimiz mumkin ya’ni (71.1% va 69.6%). Bu materiallarda elektr yurituvchi kuch va zanjir ichidagi qarshilik o‘zgarishlaridan dalolat beradi[13]. Samaradorlik D18:L8-Bo uchun 17.1% bo‘lgan bo‘lsa, DEH-20:L8-Bo uchun 14.6 % ga yetdi. Yorug’likni o‘rtacha o‘tkazuvchanlik koeffisienti (AVT) qurilmaning shaffoflik darajasini bildiradi va uning shaffof displaylar yoki oynalar uchun mosligini baholaydi. Shu bilan birga, yuqori EO‘S va J_{sc} bilan bu materiallar shaffoflik va samaradorlikni muvozanatda ushlab turadi. D18 va D18 donor polimeri asosida yangi sintez qilib olingan DEH donor polimerlarini D18 asosida ishlangan materialning yorug’lik yutishini va samaradorligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. DEH-20:L8-Bo eng yaxshi natijani ko‘rsatib, yuqori J_{sc}, EO‘S va AVT qiymatlariga ega bo‘lib, shaffof fotovoltaik qurilmalarda istiqbolli material ekanligini tasdiqlaydi. DEH-3:L8-Bo FF bo’yicha eng yaxshi natijaga ega, bu uning elektr xarakteristikalarida yuqori sifatga ega ekanligini anglatadi[14]. Olingan ma’lumotlar OQElari dizaynida faol qatlamlarni tanlash va ularning optik va elektr xususiyatlarini yaxshilashda foydali ekanligini ko‘rsatdi. Bu natijalar YSH-OQElari uchun yangi polimer materiallarni sintez qilib olishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi[15].



4-rasm. Turli D18 va DEH modifikatsiyalari asosidagi YSH-OQE larning TKS spektrlari

4-rasmda Turli D18 va DEH modifikatsiyalari asosidagi YSH-OQE larning TKS spektrlari keltirilgan bo‘lib, TKS to‘lqin uzunligiga bog’liq ravishda o‘zgaradi va bu natija orqali turli modifikatsiyalar uchun TKS qiymatlarining spektral taqsimoti ko‘rsatilgan. Asosan 400-900 nm oralig’ida barcha materiallar yuqori TKS ko‘rsatgichlariga ega bo‘lib, maksimal qiymatlar taxminan 500-700 nm to‘lqin uzunligida kuzatilgan. Bu ushbu to‘lqin uzunliklarda yorug’likni yaxshi yutishini anglatadi. Ayniqsa DEH-20:L8-Bo materialida yuqori yutilish va TKS qiymatlari boshqa modifikatsiyalarga nisbatan sezilarli va barqaror ko‘rsatgichga ega , bu uning yorug’likni yutish qobiliyati yaxshi ekenligini ko‘rsatadi. DEH-3:L8-Bo, DEH-20:L8-Bo va D18:L8-Bo modifikatsiyalarining TKS spektrlari bir biriga juda yaqin, lekin DEH-20:L8-Bo bilan solishtirganda biroz past ko‘rsatgich ko‘rsatganini ko‘rishimiz mumkin. Barcha modifikatsiyalar uchun TKS qiymatlari 700 nm dan yuqori to‘lqin uzunliklarida asta sekinlik bilan pasayadi, bu esa ushbu diapazonda yorug’likni kamroq yutishini ko‘rsatib turibdi. Ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, DEH-20:L8-Bo polimeri ko‘rinadigan yorug’lik dipazonida nisbatan yuqori TKS ligini ko‘rsatdi va boshqa polimerlardan yuqori natija namoyish etdi. Bu modifikatsiya yorug’lik yutilishini va fotonlarni samarali konvertatsiya qilish uchun optimal tanlov hisoblanadi. DEH-20 modifikatsiyasi eng istiqbolli bo‘lib[16], yuqori optik shaffoflik va samaradorlikni ta’minlaydi. Bu esa uni ekologik toza va estetik jihatdan optimal variant bo‘lishiga katta hissani qo‘shadi.



5-rasm. YSH-OQE larning termik barqarorlik ko‘rsatkichi

5-rasmda YSH-OQE qurilmalarining termik barqarorligi ko‘rsatilgan. Bunda vaqt o‘tishi bilan energiya o‘zgartirish samaradorligi (EO‘S) qanday darajada o‘zgarishi tasvirlangan. Grafikdan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, dastlab boshlang‘ich EO‘S qiymati barcha qurilmalar boshlang‘ich EO‘S qiymatini 100% deb boshlab, dastlabki ish sharoitida maksimal samaradorlikka ega. Bu qurilmalar boshida optimal fotovoltaik ishlashga ega ekanligini ko‘rsatadi. Termik barqarorlikka ta’sir esa 50 sutka davomida barcha materiallar EO‘S qiymatining pasayishini ko‘rsatadi, bu materiallarning termik barqarorlik vaqt o‘tishi bilan pasayishini bildiradi[17]. EO‘S pasayish sura’ti quyidagini namoyish etdi: D18:L8-Bo: Samaradorlik 50,7% gacha pasayganini hamda DEH-3:L8-Bo: Samaradorlik 52,8% darajasida saqlanganini ko‘rishimiz mumkin. DEH-10:L8-Bo: EO‘S qiymati 61% gacha pasaygan. DEH-20:L8-Bo: Eng yaxshi natija, samaradorlik 59,3% darajasida saqlangan.

D18 polimer va modifikatsiya qilingan D18 polimer asosida yangi sintez qilib olingan DEH-X seriyasi polimerlari qurilmalar (ayniqsa, DEH-20:L8-Bo) yuqori termik barqarorlikni (ya’ni 61 %) ta’minlaydi. Bu D18 donor polimeridan sintez qilib olingan polimerlarining material strukturasini mustahkamlagani va yuqori harorat sharoitida yorug‘likka chidamliligini oshirganini ko‘rsatgan bo‘lsa pasayish bosqichlari quyidagicha: grafikning dastlabki 10 sutkasida EO‘S keskin pasayadi (taxminan 20–30%), bu dastlabki degradatsiya jarayonining tezligini ko‘rsatadi. Bu odatda kislorod, namlik yoki issiqlikning materialga ta’siridan kelib chiqadi[18]. 10–50 sutka oralig‘ida pasayish sekinlashadi, bu uzoq muddatli barqarorlikka bog‘liqligini bildiradi. DEH-20:L8-Bo nafaqat boshlang‘ich EO‘S qiymatida yuqori ko‘rsatkichlarga ega, balki 50 sutka davomida eng yuqori ya’ni 61% EO‘S saqlanib qoldi. Bu uni termik barqarorlik bo‘yicha eng istiqbolli material ekanligini ko‘rsatadi[19].

Xulosa

Xloroform yordamida eritilib tayyorlangan D18, DEH-3, DEH-10 va DEH-20 polimer eritmalarining 700 nm dan keyin yutilishining sezilarli darajada kamayganini ko‘rsatgan bo‘lsa bu ularning uzun to‘lqin uzunliklarida yutilish chegarasi keng ekanligini ko‘rsatdi.

D18:L8-Bo materiali esa yarim shaffoflik va ko‘rinadigan yorug‘likni o‘tkazish jihatidan eng yuqori samaradorlikka ega. DEH modifikatsiyalari bir biriga yaqin bo‘lib, infraqizil yutilishi bilan samarali ishlashini ko‘rsatdi.

DEH-20:L8-Bo polimeri ko‘rinadigan yorug‘lik dipazonida nisbatan yuqori TKS ligini ko‘rsatdi va boshqa polimerlardan yuqori natija namoyish etdi. Bu modifikatsiya yorug‘lik yutilishini va fotonlarni samarali konvertatsiya qilish uchun optimal tanlov hisoblanadi. DEH-20 modifikatsiyasi eng istiqbolli bo‘lib, yuqori optik shaffoflik va samaradorlikni ta’minlaydi. Bu esa uni ekologik toza va estetik jihatdan optimal variant bo‘lishiga katta hissani qo‘shadi.

D18 donor polimeri asosida yangi sintez qilib olingan DEH-3, DEH-10 va DEH-20 polimerlari, ayniqsa DEH-20, YSH-OQE qurilmalarining termik barqarorligini sezilarli darajada oshiradi va D18:L8-Bo agrovoltaik esa boshqa DEH-X seriyasi modifikatsiyalarga nisbatan eng past barqarorlikka ega hamda bu grafik DEH modifikatsiyalarining fotovoltaik materiallar barqarorligini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib, uzoq muddatli foydalanishga mos keladigan samarador qurilmalarni loyihalashda yordam beradi. Bundan kelib chiqib, DEH-20 donor polimeri yanada takomillashtirish istiqbolli hisoblanadi deyshimiz mumkin ekan.

Minnatdorchilik. Ushbu maqoladagi olingan natijalar O‘zRFA U. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti bazaviy moliyalashtirish mablag‘lari ko‘magi doirasida bajarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wang, Guangyu. Technology, Manufacturing and Grid Connection of Photovoltaic Solar Cells. John Wiley & Sons, 2018.

2. Liu T. et al. Photochemical decomposition of Y-series non-fullerene acceptors is responsible for degradation of high-efficiency organic solar cells //Advanced Energy Materials. – 2023. – Т. 13. – №. 17. – С. 2300046.

3. Li, Y., Zheng, D., Li, J., Li, Z., Liu, S. F., Peng, L., & Yang, D. (2024). Translucent solar power for potential future implementations. *Journal of Materials Chemistry A*, *12*(33), 21605-21625.

4. Zhao H. et al. Improving age stability and energy absorption capabilities of ZnO varistors ceramics //Ceramics International. – 2016. – Т. 42. – №. 15. – С. 17880-17883.

5. Fu Y. Low-Dimensional Perovskite Nanostructures for Light-Emitting Diodes (PeLEDs) : дис. – Hong Kong University of Science and Technology (Hong Kong), 2022.

6. Pan F. et al. Solution-processable n-doped graphene-containing cathode interfacial materials for high-performance organic solar cells //Energy & Environmental Science. – 2019. – Т. 12. – №. 11. – С. 3400-3411.

7. Liu C. L. et al. Conjugated rod–coil block copolymers: Synthesis, morphology, photophysical properties, and stimuli-responsive applications //Progress in polymer science. – 2011. – Т. 36. – №. 5. – С. 603-637.

8. Li Y. Molecular design of photovoltaic materials for polymer solar cells: toward suitable electronic energy levels and broad absorption //Accounts of chemical research. – 2012. – Т. 45. – №. 5. – С. 723-733.

9. Traverse C. J. et al. Emergence of highly transparent photovoltaics for distributed applications //Nature Energy. – 2017. – Т. 2. – №. 11. – С. 849-860.

10. Liu L. et al. Light transmittance in α-SiAlON ceramics: effects of composition, microstructure, and refractive index anisotropy //Journal of the European Ceramic Society. – 2012. – Т. 32. – №. 10. – С. 2487-2494.

11. Wei C. et al. Morphology optimization via pre-aggregation and miscibility matching in PM6: L8-BO ternary organic solar cells //Physical Chemistry Chemical Physics. – 2024. – Т. 26. – №. 45. – С. 28573-28585.

12. Pathak A. K. et al. Recent advances in sensing materials targeting clinical volatile organic compound (VOC) biomarkers: a review //Biosensors. – 2023. – Т. 13. – №. 1. – С. 114.

13. Hai P. N. et al. Electromotive force and huge magnetoresistance in magnetic tunnel junctions //Nature. – 2009. – Т. 458. – №. 7237. – С. 489-492.

14. Zhang X. et al. High fill factor organic solar cells with increased dielectric constant and molecular packing density //Joule. – 2022. – Т. 6. – №. 2. – С. 444-457.

15. Sun J., Jasieniak J. J. Semi-transparent solar cells //Journal of Physics D: Applied Physics. – 2017. – Т. 50. – №. 9. – С. 093001.

16. Prosa M. et al. Organic light-emitting transistors with simultaneous enhancement of optical power and external quantum efficiency via conjugated polar polymer interlayers //ACS applied materials & interfaces. – 2018. – Т. 10. – №. 30. – С. 25580-25588.

17. Sheikh A. D. et al. Effects of high temperature and thermal cycling on the performance of perovskite solar cells: acceleration of charge recombination and deterioration of charge extraction //ACS applied materials & interfaces. – 2017. – Т. 9. – №. 40. – С. 35018-35029.

18. Saunders S. R. J., Monteiro M., Rizzo F. The oxidation behaviour of metals and alloys at high temperatures in atmospheres containing water vapour: A review //Progress in materials science. – 2008. – Т. 53. – №. 5. – С. 775-837.

19. Ruziev Farid Murtoza ugli. Optical and photovoltaic parameters of D18-based donor polymers in semi-transparent organic solar elements // Scientific reports of Bukhara state university 2025/1 (118). Page (88-95).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Хамитов Азизбек Ахмаджон угли
Наманганский инженерно-строительный институт докторант(Phd)
E-mail: azizbek.khamitov.93@mail.ru

УДК 517.954

О РЕШЕНИЕ ВТОРОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ НЕОДНОРОДНОГО УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА С КРАТНЫМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ В ТРЁХМЕРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация: *В данной работе рассматривается вторая краевая задача для неоднородного уравнения третьего порядка с кратными характеристиками в трехмерном пространстве. Единственность решение поставленной задачи доказана методом интегралов энергии, а существование решения доказана методом разделения переменных.*

Ключевые слова: *Уравнения с кратными характеристиками, краевая задача, собственное значение, собственная функция, функциональный ряд, абсолютная и равномерная сходимость.*

Xamitov Azizbek Axmadjon o‘g‘li
Namangan muhandislik-qurilish instituti doktoranti

UCH O‘LCHOVLI FAZODA UCHINCHI TARTIBLI KARRALI XARAKTERISTIKALI BIR JINSLI BO‘LMAGAN TENGLAMA UCHUN IKKINCHI CHEGARAVIY MASALANI YECHISH HAQIDA

Annotatsiya: *Ushbu ishda uch o‘lchovli fazoda uchinchi tartibli karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun qo‘yilgan ikkinchi chegaraviy masala o‘rganilgan. Qo‘yilgan masala yechimining yagonaligi integral energiya usuli yordamida isbotlangan, mavjudligi esa o‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *Karrali xarakteristikali tenglama, chegaraviy masala, xos son, xos funksiya, funksional qator, absolyut va tekis yaqinlashish.*

Khamitov Azizbek Akhmadjon ugli
Namangan Engineering-Construction Institute doctoral student

ON THE SOLUTION OF THE SECOND BOUNDARY VALUE PROBLEM FOR A THIRD-ORDER INHOMOGENEOUS EQUATION WITH MULTIPLE CHARACTERISTICS IN THREE-DIMENSIONAL SPACE

Annotation: *This work considers the second boundary value problem for a third-order inhomogeneous equation with multiple characteristics in three-dimensional space. The uniqueness of the solution to the problem is proven by the method of energy integrals, and the existence of the solution is proven by the process of separation of variables.*

Key words: *Equation with multiple characteristics, boundary value problem, eigenvalue, eigenfunction, functional series, absolute and uniform convergence.*

I. Введение

Дифференциальные уравнения в частных производных третьего порядка рассматриваются при решении задач теории нелинейной акустики и в гидродинамической теории космической плазмы, фильтрации жидкости в пористых средах [1].

В работе [2], учитывая свойства вязкости и теплопроводности газа, из системы Навье-Стокса было получено уравнение третьего порядка с кратными характеристиками, содержащее вторую производную по времени

$$u_{xxx} + u_{yy} - \frac{\nu}{y}u_y = u_x u_{xx}, \nu = const.$$

Это уравнение при $\nu = 1$ описывает осесимметричный поток, а при $\nu = 0$ описывает плоско - параллельный поток [3].

Первоначальные результаты по уравнению третьего порядка с кратными характеристиками были получены в работах H. Block [4], E. Del Veccehio [5].

L. Catabriga в работе [6] для уравнения $D_x^{2n+1}u - D_y^2u = 0$ построил фундаментальное решение в виде двойного несобственного интеграла и изучил свойства потенциала, решил краевые задачи.

В работах [7-8] построены фундаментальные решения уравнения третьего порядка с кратными характеристиками, содержащие вторые производные по времени, выраженные через конфлюэнтные гипергеометрические функции, изучены их свойства, найдены оценки при $|t| \to \infty$.

В работе [9] в плоскости исследована вторая краевая задача для уравнения третьего порядка с младшими членами.

В работах [10-11] рассмотрены краевые задачи для уравнения четвертого порядка в трехмерном пространстве.

II. Постановка задачи

В области $D = \{(x,y,z): 0 < x < p, 0 < y < q, 0 < z < r\}$ рассмотрим следующее уравнение третьего порядка вида

$$L[u] \equiv \frac{\partial^3 u}{\partial x^3} - \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} - \frac{\partial^2 u}{\partial z^2} = f(x,y,z), \quad (1)$$

где $p, q, r \in R^+$ и для него исследуем следующую задачу.

Задача $\boldsymbol{B}$. Найти решение уравнения (1) в области D из класса $C^{3,2,2}_{x,y,z}(D) \cap C^{2,1,1}_{x,y,z}(\overline{D})$, удовлетворяющее краевым условиям:

$$\boldsymbol{u_y(x,0,z) = u_y(x,q,z) = 0, u_z(x,y,0) = u_z(x,y,r) = 0}, \quad (2)$$

$$\begin{cases} au(0,y,z) + bu_{xx}(0,y,z) = \psi_1(y,z), \\ cu(p,y,z) + du_{xx}(p,y,z) = \psi_2(y,z), \\ u_x(p,y,z) = \psi_3(y,z), \end{cases} \quad (3)$$

где $a,\ b,\ c,\ d \in R\backslash\{0\}$, а $f(x,y,z)$, $\psi_i(y,z), i = \overline{1,3}$ – заданные достаточно гладкие функции, причем

$$\begin{cases} \frac{\partial \psi_i(0,z)}{\partial y} = \frac{\partial \psi_i(q,z)}{\partial y} = 0, \frac{\partial^4 \psi_i(y,0)}{\partial y^3 \partial z} = \frac{\partial^4 \psi_i(y,r)}{\partial y^3 \partial z} = 0, \\ \frac{\partial \psi_i(y,0)}{\partial z} = \frac{\partial \psi_i(y,r)}{\partial z} = 0, \frac{\partial^4 \psi_i(0,z)}{\partial y \partial z^3} = \frac{\partial^4 \psi_i(q,z)}{\partial y \partial z^3} = 0, \quad i = \\ \frac{\partial f(x,0,z)}{\partial y} = \frac{\partial f(x,q,z)}{\partial y}, \ \frac{\partial f(x,y,0)}{\partial z} = \frac{\partial f(x,y,r)}{\partial z} = 0, \end{cases}$$

$$\overline{1,3}. \quad (4)$$

III. Единственность решения

Теорема 1. Если задача $\boldsymbol{B}$ имеет решение, то при выполнении условий $ab > 0,\ cd < 0$, оно единственно.

Доказательство. Предположим обратное, пусть задача $\boldsymbol{B}$ имеет два различные решения $u_1(x,y,z)$ и $u_2(x,y,z)$. Тогда функция $u(x,y,z) = u_1(x,y,z) - u_2(x,y,z)$ удовлетворяет однородному уравнению (1) с однородными краевыми условиями. Докажем, что $u(x,y,z) \equiv 0$ в $\overline{D}$.

Для этого уравнения (1) умножим на u, тогда имеем

$$uL[u] \equiv \frac{\partial}{\partial x}\left(uu_{xx} - \frac{1}{2}u_x^2\right) - \frac{\partial}{\partial y}\left(uu_y\right) + u_y^2 - \frac{\partial}{\partial z}(uu_z) + u_z^2 = 0. \quad (5)$$

Интегрируя тождество (5) по области D и учитывая однородные краевые условия, получим

$$\frac{1}{2}\int_0^q \int_0^r u_x^2(0,y,z)dydz - \frac{d}{c}\int_0^q \int_0^r u_{xx}^2(p,y,z)dydz + \frac{b}{a}\int_0^q \int_0^r u_{xx}^2(0,y,z)dydz + \iiint_D u_y^2(x,y,z)dxdydz + \iiint_D u_z^2(x,y,z)dxdydz = 0.$$

Если $\boldsymbol{ab > 0}$, $\boldsymbol{cd < 0}$, из четвертого и пятого слагаемого, т.е. $u_y(x,y,z) = 0$ и $u_z(x,y,z) = 0$, получим $u(x,y,z) = h(x)$, здесь $h(x)$ является произвольной функцией, удовлетворяю щей условиям задачи. Поставляя в уравнение (1), имеем $h'''(x) = 0$. Отсюда, $h(x) = C_1x^2 + C_2x + C_3$, из условия (3), получим

$$\begin{cases} 2bC_1 + aC_3 = 0, \\ (cp^2 + 2d)C_1 + cpC_2 + cC_3 = 0, \\ 2pC_1 + C_2 = 0. \end{cases}$$

Основной определитель этой системы равен

$$\Delta = \begin{vmatrix} 2b & 0 & a \\ cp^2 + 2d & cp & c \\ 2p & 1 & 0 \end{vmatrix} = -acp^2 + 2ad - 2bc.$$

Пусть $\Delta = 0$, т.е. $-acp^2 + 2ad - 2bc = 0 \Rightarrow p^2 = 2\left(\frac{d}{c} - \frac{b}{a}\right)$, учитывая условия $ab > 0$, $cd < 0$ и $p > 0$, получим $p^2 < 0$, а это невозможно, значит $\Delta \neq 0$. Тогда $C_1 = C_2 = C_3 = 0$, получим $h(x) = 0$. Следовательно, $u(x,y,z) \equiv 0$, $(x,y,z) \in \overline{D}$. В силу последнего, получим $u_1(x,y,z) = u_2(x,y,z)$.

Теорема 1 доказана.

IV. Существование решения

Теорема 2. Если выполняются следующие условия:

1) $\frac{\partial^6 \psi_i(y,z)}{\partial y^3 \partial z^3} \in C(0 \le y \le q, 0 \le z \le r), i = \overline{1,3}$;

2) $\frac{\partial^5 f(x,y,z)}{\partial x \partial y^2 \partial z^2} \in C(0 \le x \le p, 0 \le y \le q, 0 \le z \le r)$,

и (4), то решение задачи $\boldsymbol{B}$ существует.

Доказательство. С целью доказательства существования решение задачи $\boldsymbol{B}$ ищем в виде

$$u(x,y,z) = X(x)V(y,z). \quad (6)$$

Поставляя (6) в уравнение (1) и разделяя переменные, для $V(y,z)$ имеем следующую задачу:

$$\begin{cases} V_{yy} + V_{zz} + \lambda V = 0, \\ V_y(0,z) = V_y(q,z) = 0, \\ V_z(y,0) = V_z(y,r) = 0, \end{cases} \quad (7)$$

где λ - параметр разделения.

Нетривиальные решения задачи (7), существуют только при

$$\lambda_{n,m} = \left(\frac{n^2}{q^2} + \frac{m^2}{r^2}\right)\pi^2,\ n,m = 0,1,2,\ldots.$$

Эти числа являются собственными значениями задачи (7), а соответствующие им собственные функции имеют вид:

$$V_{n,m}(y,z) = \begin{cases} \frac{1}{\sqrt{qr}}, если\ n = m = 0, \\ A_{n,m}\cos\frac{n\pi y}{q}\cos\frac{m\pi z}{r}, если\ n^2 + m^2 \neq 0, \end{cases} n,m = 0,1,2,\ldots, \quad (8)$$

здесь

$$A_{n,m}=\begin{cases}\sqrt{\dfrac{2}{qr}}, & при\ n=0,\ m\in N\ и\ n\in N, m=0,\\ \dfrac{2}{\sqrt{qr}}, & при\ n,m\in N.\end{cases}$$

Отметим, что система собственных функций (8) задачи (7) является полной и ортонормированной в пространстве $L_2(0<y<q,\ 0<z<r)$ [12-13].

Разложим $f(x,y,z)$ в ряд Фурье по $\{V_{n,m}(y,z)\}$:

$$f(x,y,z)=\sum_{n,m=0}^{+\infty} f_{n,m}(x)V_{n,m}(y,z),$$

где $f_{n,m}(x)=\int_0^q\int_0^r f(x,y,z)V_{n,m}(y,z)dydz$.

Интегрируя функцию $f_{n,m}(x)$ по частям и учитывая условия (4), имеем оценку

$$\left|f_{n,m}(x)\right|\le M\frac{|F_{n,m}(x)|}{n^2m^2},\tag{9}$$

здесь

$$M=\left(\frac{qr}{\pi^2}\right)^2,\quad F_{n,m}(x)=\int_0^q\int_0^r\frac{\partial^4 f(x,y,z)}{\partial y^2\partial z^2}V_{n,m}(y,z)dydz.$$

В дальнейшем максимальное значение всех найденных положительных известных чисел в оценках будем обозначать через M.

Решение задачи B ищем в виде

$$u(x,y,z)=\sum_{n,m=0}^{+\infty}X_{n,m}(x)\,V_{n,m}(y,z).\tag{10}$$

Поставляя (10) в уравнение (1), учитывая граничные условия (3), получим следующую задачу:

$$\begin{cases}X_{n,m}'''(x)+\lambda_{n,m}X_{n,m}(x)=f_{n,m}(x),\\ aX_{n,m}(0)+bX_{n,m}''(0)=\psi_{1n,m},\\ cX_{n,m}(p)+dX_{n,m}''(p)=\psi_{2n,m},\\ X_{n,m}'(p)=\psi_{3n,m},\end{cases}\tag{11}$$

где $\psi_{in,m}=\int_0^q\int_0^r\psi_i(y,z)V_{n,m}(y,z)dydz,\quad i=\overline{1,3}$.

Применяя интегрирование по частям к $\psi_{in,m}$ с учетом условия (4), получаем оценку

$$\left|\psi_{in,m}\right|\le M\frac{|\Psi_{in,m}|}{n^3m^3},\tag{12}$$

здесь

$$\Psi_{in,m}=\int_0^q\int_0^r\frac{\partial^6\psi_i(y,z)}{\partial y^3\partial z^3}V_{n,m}(y,z)dydz.$$

Сначала, ищем решение задачи (11), при $n=m=0$, т.е. $\lambda_0=0$. Оно имеет вид:

$$X_0(x)=\rho_0(x)+\int_0^p G_0(x,\xi)f_0(\xi)d\xi,$$

где

$$\rho_0(x)=\frac{1}{ap^2+2b}\Big[(x-p)^2\psi_{10}+\frac{2apx-ax^2+2b}{c}\psi_{20}+(x-p)(apx+2b)\psi_{30}\Big],$$

$$G_0(x,\xi)=\begin{cases}\dfrac{1}{\Delta}\Big[\big(2ad\xi+(2bc-acp\xi)(p-\xi)\big)x\\ \quad-\Big(ad+\dfrac{1}{2}ac(\xi^2-p^2)\Big)x^2+\\ +2bd+bc(\xi^2-p^2)\Big],\ при\ 0\le x<\xi,\\ \dfrac{1}{\Delta}\Big(b+\dfrac{1}{2}a\xi^2\Big)[cx(2p-x)+2d-cp^2],\ при\ \xi<x\le p,\end{cases}$$

$$\Delta=2ad-acp^2-2bc.$$

Равенство $\Delta\neq 0$, установлено в доказательстве теоремы 1.

Тогда решение задачи B получим в виде

$$u_0(x)=\frac{1}{\sqrt{qr}}\left[\rho_0(x)+\int_0^p G_0(x,\xi)f_0(\xi)d\xi\right].\tag{13}$$

Из (13) имеем

$$\left|u_0(x)\right|=\left|\frac{1}{\sqrt{qr}}\left[\rho_0(x)+\int_0^p G_0(x,\xi)f_0(\xi)d\xi\right]\right|\le M\left[|\psi_{10}|+|\psi_{20}|+|\psi_{30}|\right]\le M,$$

$$\left|u_0'''(x)\right|\le M.$$

Переходим к исследованию решения задачи при $n^2+m^2\neq 0$, т.е. $\lambda_{n,m}=\left(\frac{n^2}{q^2}+\frac{m^2}{r^2}\right)\pi^2, n,m=0,1,2,\ \ldots$. Решение задачи (11) находим методом построение функции Грина, для этого с помощью функции

$$U_{n,m}(x)=X_{n,m}(x)-\rho_{n,m}(x),\tag{14}$$

изменим граничные условия на однородные. Функция $\rho_{n,m}(x)$ имеет вид

$$\rho_{n,m}(x)=\frac{1}{ap^2+2b}\Big[(x-p)^2\psi_{1n,m}+\frac{2apx-ax^2+2b}{c}\psi_{2n,m}+(x-p)(apx+2b)\psi_{3n,m}\Big].\tag{15}$$

Подставляя (14), (15) в (11) получим задачу

$$\begin{cases}U_{n,m}'''(x)+\lambda_{n,m}U_{n,m}(x)=\lambda_{n,m}g_{n,m}(x),\\ aU_{n,m}(0)+bU_{n,m}''(0)=0,\\ cU_{n,m}(p)+dU_{n,m}''(p)=0,\\ U_{n,m}'(p)=0,\end{cases}\tag{16}$$

здесь

$$g_{n,m}(x)=-\frac{1}{ap^2+2b}\Big[(x-p)^2\psi_{1n,m}+\frac{2apx-ax^2+2b}{c}\psi_{2n,m}+(x-p)(apx+2b)\psi_{3n,m}\Big]+\frac{f_{n,m}(x)}{\lambda_{n,m}}.$$

Учитывая (11), (14) и $\lambda_{n,m}=\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2+\left(\frac{\pi m}{r}\right)^2\ge\frac{2\pi^2}{qr}nm,\ n,m\in N$, тогда имеем оценки

$$\left|g_{n,m}(x)\right|\le\frac{M}{n^3m^3}\left(\sum_{i=1}^{3}\left|\Psi_{in,m}\right|+\left|F_{n,m}(x)\right|\right),$$

$$\left|g_{n,m}^{'}(x)\right| \le \frac{M}{n^3m^3}\left(\sum_{i=1}^{3}\left|\Psi_{in,m}\right| + \left|F_{n,m}^{'}(x)\right|\right). \quad (17)$$

Решение задачи (16) ищем в виде:

$$U_{n,m}(x) = \lambda_{n,m}\int_0^p G_{n,m}(x,\xi)\, g_{n,m}(\xi)d\xi, \quad (18)$$

здесь $G_{n,m}(x,\xi)$ функция Грина задачи (16) и имеет следующий вид:

$$G_{n,m}(x,\xi) = \begin{cases} G_{1n,m}(x,\xi), 0 \le x < \xi, \\ G_{2n,m}(x,\xi), \xi < x \le p, \end{cases} \quad (19)$$

здесь

$$G_{1n,m}(x,\xi) = \frac{2}{3k_{n,m}^2\overline{\Delta}}\left[e^{-k_{n,m}\left(\frac{1}{2}\xi+x\right)}\left(\left(\frac{ad}{k_{n,m}^2} - \frac{ac}{k_{n,m}^4}\right)sin\left(\beta_{n,m}\xi + \frac{\pi}{6}\right) + \left(\frac{bc}{k_{n,m}^2} - bd\right)cos\,\beta_{n,m}\,\xi\right) - e^{k_{n,m}\left(\xi-\frac{3}{2}p-x\right)}\left(\left(\frac{bc}{k_{n,m}^2} - \frac{ad}{k_{n,m}^2}\right)cos\,\beta_{n,m}\,p - \frac{ac}{k_{n,m}^4}sin\left(\beta_{n,m}p + \frac{\pi}{6}\right) + bd\,cos\left(\beta_{n,m}p + \frac{\pi}{3}\right)\right) + e^{\frac{1}{2}k_{n,m}(x-\xi)}\left(\frac{a}{k_{n,m}^2} + b\right)\left(\frac{c}{k_{n,m}^2} - d\right)sin\left(\beta_{n,m}(\xi - x) + \frac{\pi}{6}\right) - e^{-k_{n,m}\left(\xi-\frac{3}{2}p+\frac{1}{2}x\right)}\left(\frac{a}{k_{n,m}^2} + b\right)\left(\frac{c}{k_{n,m}^2}sin\left(\beta_{n,m}(p-x) + \frac{\pi}{6}\right) + d\,cos\,\beta_{n,m}\,(p-x)\right) + e^{-\frac{1}{2}k_{n,m}(\xi+3p-x)}\left(\left(\frac{a}{k_{n,m}^2}sin\left(\beta_{n,m}\xi + \frac{\pi}{6}\right) - b\,cos\,\beta_{n,m}\,\xi\right)\left(\frac{2c}{k_{n,m}^2}sin\left(\beta_{n,m}(p-x) + \frac{\pi}{6}\right) + 2d\,cos\,\beta_{n,m}\,(p-x)\right) + \left(\left(\frac{2bc}{k_{n,m}^2} - \frac{2ad}{k_{n,m}^2}\right)cos\,\beta_{n,m}\,p + 2bd\,cos\left(\beta_{n,m}p + \frac{\pi}{3}\right) - \frac{2ac}{k_{n,m}^4}sin\left(\beta_{n,m}p + \frac{\pi}{6}\right)\right)sin\left(\beta_{n,m}(\xi - x) + \frac{\pi}{6}\right)\right)\right],$$

$$G_{2n,m}(x,\xi) = \frac{1}{3k_{n,m}^2\overline{\Delta}}\left(\frac{a}{k_{n,m}^2} + b - 2e^{-\frac{3}{2}k_{n,m}\xi}\left(\frac{a}{k_{n,m}^2}sin\left(\beta_{n,m}\xi + \frac{\pi}{6}\right) - b\,cos\,\beta_{n,m}\,\xi\right)\right)\left[e^{k_{n,m}(\xi-x)}\left(\frac{c}{k_{n,m}^2} - d\right) - 2e^{k_{n,m}\left(\xi-\frac{3}{2}p+\frac{1}{2}x\right)}\left(\frac{c}{k_{n,m}^2}sin\left(\beta_{n,m}(p-x) + \frac{\pi}{6}\right) + d\,cos\,\beta_{n,m}\,(p-x)\right)\right],$$

$$\overline{\Delta}(n,m) = \left(\frac{a}{k_{n,m}^2} + b\right)\left(\frac{c}{k_{n,m}^2} - d\right) + e^{-\frac{3}{2}k_{n,m}p}\left\{\left(\frac{2bc}{k_{n,m}^2} - \frac{2ad}{k_{n,m}^2} - \frac{ac}{k_{n,m}^4} + bd\right)cos\,\beta_{n,m}\,p - \sqrt{3}\left(\frac{ac}{k_{n,m}^4} + bd\right)sin\,\beta_{n,m}\,p\right\}.$$

Тогда решение задачи B имеет вид

$$u(x,y,z) = \sum_{n,m=0}^{+\infty}\left(\rho_{n,m}(x) + \lambda_{n,m}\int_0^p G_{n,m}(x,\xi)g_{n,m}(\xi)d\xi\right)V_{n,m}(y,z). \quad (20)$$

Докажем абсолютную и равномерную сходимость ряда (20). Из (20) имеем оценку

$$|u(x,y,z)| \le M\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left(\left|U_{n,m}(x)\right| + \left|\rho_{n,m}(x)\right|\right).$$

Теперь подставляя $G_{n,m}(x,\xi) = -\frac{1}{\lambda_{n,m}}G_{n,m\xi\xi\xi}(x,\xi)$ в (18) и интегрируя по частям, имеем

$$U_{n,m}(x) = -g_{n,m}(x) + g_{n,m}(0)G_{2n,m\xi\xi}(x,0) - g_{n,m}(p)G_{1n,m\xi\xi}(x,p) + \int_0^p G_{n,m\xi\xi}(x,\xi)g_{n,m}^{'}(\xi)d\xi.$$

Учитывая (15), (17) и

$$\left|G_{2n,m\xi\xi}(x,0)\right| \le M,\ \left|G_{1n,m\xi\xi}(x,p)\right| \le M,$$
$$\left|G_{n,m\xi\xi}(x,\xi)\right| \le M,$$

из функция Грина (19), получим оценки

$$\left|\rho_{n,m}(x)\right| \le \frac{M}{n^3m^3}\left(\left|\Psi_{1n,m}\right| + \left|\Psi_{2n,m}\right| + \left|\Psi_{3n,m}\right|\right),$$
$$\left|U_{n,m}(x)\right| \le \frac{M}{n^3m^3}\left(\sum_{i=1}^{3}\left|\Psi_{in,m}\right| + \left|F_{n,m}(0)\right| + \left|F_{n,m}(p)\right| + \left|F_{n,m}(x)\right| + \left|F_{n,m}^{'}(x)\right|\right).$$

Отсюда

$$|u(x,y,z)| \le M\sum_{n,m=1}^{+\infty}\frac{1}{n^3m^3}\left(\sum_{i=1}^{3}\left|\Psi_{in,m}\right| + \left|F_{n,m}(0)\right| + \left|F_{n,m}(p)\right| + \left|F_{n,m}(x)\right| + \left|F_{n,m}^{'}(x)\right|\right) < \infty.$$

Отсюда следует, что ряд (20) сходится абсолютно и равномерно.

Теперь докажем, что частные производные ряда (20) входящие в уравнения (1), также сходятся абсолютно и равномерно в области $\overline{D}$. Для этого вычисляем частные производные ряда (20) по переменными y и z до второго порядка и учитывая оценку $u(x,y,z)$, получим

$$\left|\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}\right| \le M \sum_{n,m=1}^{+\infty} \frac{1}{nm^3}\left(\sum_{i=1}^{3}\left|\Psi_{in,m}\right| + \left|F_{n,m}(0)\right| + \left|F_{n,m}(p)\right| + \left|F_{n,m}(x)\right| + \left|F_{n,m}^{'}(x)\right|\right),$$

$$\left|\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}\right| \le M \sum_{n,m=1}^{+\infty} \frac{1}{n^3 m}\left(\sum_{i=1}^{3}\left|\Psi_{in,m}\right| + \left|F_{n,m}(0)\right| + \left|F_{n,m}(p)\right| + \left|F_{n,m}(x)\right| + \left|F_{n,m}^{'}(x)\right|\right).$$

Используя неравенства Коши- Буняковского и Бесселя, получим

$$\left|\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}\right| \le M \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left(\frac{1}{nm^3}\right)^2}\left(\sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|\Psi_{1n,m}\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|\Psi_{2n,m}\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|\Psi_{3n,m}\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}(0)\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}(p)\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}(x)\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}^{'}(x)\right|^2}\right) \le$$

$$\le \overline{M}\left(\sum_{i=1}^{3}\left\|\frac{\partial^6 \psi_i(y,z)}{\partial y^3 \partial z^3}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^4 f(0,y,z)}{\partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^4 f(p,y,z)}{\partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^4 f(x,y,z)}{\partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^5 f(x,y,z)}{\partial x \partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<x<p,0<y<q,0<z<r)}\right) < \infty,$$

$$\left|\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}\right| \le M \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left(\frac{1}{n^3 m}\right)^2}\left(\sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|\Psi_{1n,m}\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|\Psi_{2n,m}\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|\Psi_{3n,m}\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}(0)\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}(p)\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}(x)\right|^2} + \sqrt{\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}^{'}(x)\right|^2}\right) \le$$

$$\le \overline{M}\left(\sum_{i=1}^{3}\left\|\frac{\partial^6 \psi_i(y,z)}{\partial y^3 \partial z^3}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^4 f(0,y,z)}{\partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^4 f(p,y,z)}{\partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^4 f(x,y,z)}{\partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<y<q,0<z<r)} + \left\|\frac{\partial^5 f(x,y,z)}{\partial x \partial y^2 \partial z^2}\right\|_{L_2(0<x<p,0<y<q,0<z<r)}\right) < \infty,$$

так как

$$\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|\Psi_{in,m}\right|^2 \le \left\|\frac{\partial^6 \psi_i(y,z)}{\partial y^3 \partial z^3}\right\|^2_{L_2(0<y<q,0<z<r)}, \ i=\overline{1,3},$$

$$\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F_{n,m}(x)\right|^2 \le \left\|\frac{\partial^4 f(x,y,z)}{\partial y^2 \partial z^2}\right\|^2_{L_2(0<y<q,0<z<r)},$$

$$\sum_{n,m=1}^{+\infty}\left|F'_{n,m}(x)\right|^2 \le \left\|\frac{\partial^5 f(x,y,z)}{\partial x \partial y^2 \partial z^2}\right\|^2_{L_2(0<x<p,0<y<q,0<z<r)},$$

$$\sum_{n=1}^{+\infty}\frac{1}{n^2}=\frac{\pi^2}{6}, \sum_{m=1}^{+\infty}\frac{1}{m^2}=\frac{\pi^2}{6}.$$

Следовательно, ряд, соответствующий функции $\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}, \frac{\partial^2 u}{\partial z^2}$ сходится абсолютно и равномерно. Абсолютная и равномерная сходимость третьей производной по x ряда (20) следует из $\left|\frac{\partial^3 u}{\partial x^3}\right| \le \left|\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}\right| + \left|\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}\right|$ и доказанного выше.

Теорема 2 доказана.

Заключение

В данной работе исследована вторая краевая задача для неоднородного уравнения третьего порядка с кратными характеристиками в трехмерном пространстве. Единственность решение была установлена с применением метода интегралов энергии. Существование решения доказана методом разделения переменных. Решение выписано через построенную функцию Грина. Найдены условия на заданные функции, обеспечивающие регулярность решения поставленной задачи. При обосновании равномерной сходимости установлено отличие от нуля «малого знаменателя».

Список литературы

1. Юлдашев Т.К. Обратная задача для одного интегро -дифференциального уравнения Фредгольма в частных производных третьего порядка // Вестн. Сам. гос. техн. ун-та. Сер. Физ.-мат. науки, - Самара, 2014. - № 1(34). - С.56-65.

2. Рыжов О.С. Асимптотическая картина обтекания тел вращения со звуковым потоком вязкого и теплопроводящего газа // Прикл. Матем. и механ., - Москва, 1965. - Т. 29. Вып. 6. - С. 1004-1014.

3. Диесперов В.Н. О функции Грина линеаризованного вязкого трансзвукового уравнения // Журнал вычисл. матем. и матем. физики. - Москва, 1972. - Т. 12. - № 5. - С. 1265-1279.

4. Block H. Sur les equations lineaires aux derives parielles a carateristiques multiples // Ark. Mat. Astron. Fus. Note 1, - 1912, 7(13), - pp. 1-34; Note 2, 1912, ibid. 7(21),- pp. 1-30; Note 3, 1912 - 1913, ibid. 8(23). - pp. 1-51.

5. Del Vecchio E. Sulleequazioni $z_{xxx} - z_y + \varphi_1(x,y) = 0$, $z_{xxx} - z_{yy} + \varphi_2(x,y) = 0$ // Memorie R. Accad. Sci. Ser.2. - Torino, 1915, 66. - pp. 1-41.

6. Cattabriga L. Potenziali di linea e di dominio per equazioni non paraboliche in due variabilia caratteristiche multiple // Rendiconti del seminario matimatico della univ. di Padava. - 1961, 31. - pp. 1-45.

7. Джураев Т.Д, Апаков Ю.П. Об автомодельном решении одного уравнения третьего порядка с кратными характеристиками // Вестник Сам. гос. техн. ун-та. Сер. Физ.-мат. науки, - Самара, 2007. - № 2(15). - С.18-26.

8. Джураев Т.Д., Апаков Ю.П. К теории уравнения третьего порядка с кратными характеристиками, содержащего вторую производную по времени // Украинский математический журнал. – Киев, 2010, том 62. № 1.- С. 40-51.

9. Апаков Ю.П., Жураев А.Х. Вторая краевая задача для уравнения третьего порядка с младшими членами // Узбекский математический журнал, 2011, № 4. –С. 84-87.

10. Сабитов К.Б. Задача Дирихле для уравнений с частными производными высоких порядков // Матем. заметки, 2015, том 97, выпуск 2. -С. 262-276.

11. Сабитов К.Б. Начально-граничные задачи для уравнения колебаний прямоугольной пластины // Изв. вузов. Матем., 2021, №10. -С. 60-70.

12. Ректорис К. Вариационные методы в математической физике и технике. –М.: Мир, 1985, 590 стр.

13. Сабитов К.Б., Зайнуллов А. Р. Обратные задачи для двумерного уравнения теплопроводности по отысканию правой части// Изв.вузов. Матем., 2021, №3. -С. 83–97.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Olmos Kodirov Gafurovich
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
E-mail: olmosqodirov00@gmail.com

UDK: 621.315.592.2

DIOD VA TRANZISTOR TUZILMALARNING TEMPERATURAVIY SEZGIRLIGI

Annotasiya: *Hozirgi kunda yarim o'tkazgich tuzilmalardan turlicha yangi qo'llanishlar uchun ajoyib imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Tranzistor tipidagi kuchaytirish qurilmalarini bunday jabhadan qarab chiqish ularning harorat, yorug'lik nurlanishi, bosim va b. larni qayd qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Ushbu maqolada diod va tranzistor tuzilmalarning harorat va yorug'likka sezgirlikning fizikaviy asoslari bo'yicha, shuningdek ularning xossalarini konstruktiv va sxemotexnik yechimlar orqali boshqarish masalalari bo'yicha ma'lum ishlar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *yarim o'tkazgich tuzilmalar, Tranzistor tipidagi kuchaytirish qurilmasi, diod, tranzistor, yorug'lik nurlanishi.*

Олмос Кодиров Гафурович
Самаркандский институт агроинноваций и исследований

ТЕМПЕРАТУРНАЯ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ ДИОДНЫХ И ТРАНЗИСТОРНЫХ СТРУКТУР

Аннотация: *В настоящее время полупроводниковые структуры имеют большой потенциал для различных новых приложений. Устройства усиления транзисторного типа можно рассматривать с этой точки зрения с точки зрения их температуры, светового излучения, давления и т. д. показал, что он может записывать. В данной статье рассмотрены отдельные работы по физическим основам температурной и светочувствительности диодных и транзисторных структур, а также по вопросам управления их свойствами посредством структурных и схемных решений.*

Ключевые слова: *полупроводниковые структуры, усилительное устройство транзисторного типа*

Olmos Kodirov Gafurovich
Samarkand Agroinnovations and Research University

TEMPERATURE SENSITIVITY OF DIODE AND TRANSISTOR STRUCTURES

Abstract*: At present, semiconductor structures have great potential for various new applications. Transistor-type amplification devices can be considered from this point of view in terms of their temperature, light emission, pressure, etc. showed that it can record. This article examines individual works on the physical foundations of temperature and light sensitivity of diode and transistor structures, as well as on issues of controlling their properties through structural and circuit solutions*

Key words: *semiconductor structures, transistor-type amplifying device.*

Kirish

Temperatura ta'siri ostida yarim o'tkazgich - rezistorning elektr o'tkazuvchanligi zaryad tashuvchilar konsentrasiyasining o'zgarishi hisobiga o'zgaradi. Diod va tranzistorlar kabi yarim o'tkazgich qurilmalarda temperaturaning zaryad tashuvchilar konsentrasiyasining o'zgarishi yarim o'tkazgich asbob orqali oqadigan tokning o'zgarishiga olib keladi [1].

Diodlar va tranzistorlar asosidagi birinchi yarim o'tkazgich qurilmalarda teskari tok temperaturaga bog'liq parametr hisoblanar edi va uning qiymati temperaturaga bog'liq ravishda eksponensial qonun bo'yicha 10% K^{-1} tartibidagi tezlik bo'yicha o'zgarardi. Biroq, ularning temperatura ishchi diapazoni juda cheklangan bo'lib qoldi. Temperaturaning yuqori chegarasi *p-n-* o'tishning issiqlik teshilishi temperaturasiga teng ekanligidan, tadqiqotchilar va ishlab chiquvchilar diodlar va tranzistorlarning to'g'ri parametrlaridan foydalanishga o'tdilar [2], ularga esa temperaturaviy bog'liqlikning chiziqliligi, ishchi temperaturalarning keng diapazoni yuqori stabilligiga xosdir. O'lchash parametri sifatida deyarli doimiy tok o'tishdagi kuchlanishning to'g'ri tushishidan foydalanildi. Kremniyli *p-n-* o'tishda to'g'ri kuchlanishning o'zgarishi har gradusga 2.5 mV tartibida bo'ldi. RFA Ioffe A.F. nomidagi FTI da (Sankt-Peterburg sh.) ishlab chiqilgan TS-560 datchigi galliy arsenidi asosidagi yarim o'tkazgich diod

boʻlib, 4.2÷500 K ga teng oʻlchash diapazoniga ega edi, asosiy xatoligi 0,1% ni va 3x3 mm 2 oʻlchamlardagi sezgirlik (2÷3) mV/K ni tashkil etardi.

[3] ishlarning mualliflari tomonidan kremniyli diodli dastlabki temperatura oʻzgartkichlarini tuzishning xususiyatlari koʻrib chiqilgan boʻlib, ularning chiqish signallari berilgan elektr rejimida faqatgina temperatura boʻyicha oʻzgaradi va diodlarni tayyorlash texnologiyasiga bogʻliq boʻlmaydi. STP35, LM3911, LM50, LM60 tipidagi dastlabki diodli oʻzgartkichlar asosidagi xorijiy monolit integral datchiklarning sxemotexnikaviy yechimlari, oʻzgartirish tenglamalari va metrologik xarakteristikalari keltirilgan. Temperaturani oʻlchash tranzistor qurilmasini tuzishning xususiyatlari, uni oʻzgartirish tenglamasi va metrologik xarakteristikalari koʻrib chiqilgan. Tranzistorli temperatura qurilmasi va uning xorijiy analoglari (LM50, LM60) xarakteristikalarining taqqoslanishi e'lon qilindi. Tranzistor qurilmalari, sxemotexnik yechimining soddiligiga qaramasdan, oʻlchanadigan temperaturaning katta (–50°C dan +150°C gacha) diapazoniga, oʻrnatilgan kuchaytirish qurilmalari yoʻqligida yuqori sezgirlikka, Selsiy shkalasiga mos keladigan chiziqli shkalaga ega boʻlib, bir nechta fizikaviy kattaliklar uchun kompakt asboblarni yaratishda istiqbolli qurilma hisoblanadi.

Tranzistorlarni termodatchiklarda qoʻllashning temperaturaviy chegaralari tranzistorlarning bevosita moʻljallanishi boʻyicha foydalanishdan nisbatan anchagina keng. Yuqori temperaturalar tomonidan qoʻllashning cheklanishi, kirishmali yarim oʻtkazgichning xususiy yarim oʻtkazgichga oʻtishi, teshilish kuchlanishining kamayishi oqibatida sodir boʻladi.

Asbob ishlashi nostabilligining asosiy sabablari boʻlib, yarim oʻtkazgich kristall sirtidagi oksid qatlamining gidratasiya-degidratasiya qaytar jarayoni va unda tranzistor detallari materiallarining chiziqli kengayish temperaturaviy koeffisiyentining turlichaligi natijasida, qoldiq deformasiyaning paydo boʻlishi deb hisoblash kerak.

Soʻnggi vaqtlarda kuchli diodlar va svetodiodlarning xavfsiz ishlash sohalarini aniqlash uchun, ularning temperaturaviy sharoitlarda barqarorligini oʻrganishga yanada koʻproq e'tibor qaratilmoqda. Ishchi rejimda *p-n-* oʻtishning temperaturasini toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita baholash zarurati yuzaga keldi. Qabul qilish mumkin boʻlgan shart-sharoit boʻlib, temperaturadagi tuzilmaning termosezgir parametri asosida aniqlashning bilvosita usullari sanaladi. Xuddi shunday yondashuv asosida tok rejimida temperaturaning –196 ÷ +100°C diapazonida temperaturani *p-n-* oʻtish orqali oʻlchashning prinsipial imkoniyati koʻrsatildi. [4] ishning muallifi tomonidan KD503A, KD102A tipidagi diodlar tomonidan temperatura oʻzgarishining krutiznasi tikkaligi 0.6, 0.7 $мВ/^0С$ dan iborat ekanligi ta'kidlangan va ulardan elektrodvigatel statori choʻlgʻamining temperaturasini nazorat qilish uchun datchik sifatida foydalanish mumkin. Diod va tranzistor tuzilmalarning tashqi ta'sirlarga, sezgir parametrlariga ulanish rejimini tanlash yoʻli bilan, chiziqli bogʻlanish berilishi hisobiga, ularni yangi moʻljallanish boʻyicha sharoitlar yaratiladi. Masalan, fotokuchlanish va nurlanish intensivligi oʻrtasidagi chiziqli bogʻlanishning mavjudligi fotoelementlardan yoritilganlikni oʻlchash uchun qoʻllaniladigan asboblarda, shuningdek yorugʻlik intensivligining oʻzgarishini nazorat qiladigan datchiklar sifatida, avtomatika asboblarida, oʻlchash va hisoblash texnikasida va zamonaviy texnikaning boshqa qurilmalarida, foydalanishga imkon beradi. *P-n-* oʻtishda ortiqcha tashuvchilarni nafaqat yorugʻlik bilan, balki ionlashuvchi nurlanish – tez elektronlar, alfa zarrachalar, gamma nurlar bilan qoʻzgʻatish imkoniyati oʻtish asosidagi asboblarni, radiaktiv nurlanish indikatorlari sifatida yoki yadro energiyasini elektr energiyasiga toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzgartirish uchun qoʻllashga imkon beradi.

Bundan tashqari, diod yoki tranzistor tuzilmalardan yangi moʻljallanish boʻyicha foydalanish zarurati ularning funksional xossalarini kengaytirish imkoniyatini talab qiladi. Demak, toʻgʻrilovchi oʻtishli tuzilmalardan termosezgir element sifatida foydalanish, qiyin yetishadigan joylarda dvigatellarning temperaturasini oʻlchash muammosini hal qilishga, hamda kuchli diod va svetodiodlarning xavfsiz ishlash sohasini aniqlashga imkon beradi.

Temperatura koeffisiyentining yarim oʻtkazgichli diod va diskret bipolyar tranzistor asosidagi eng yaxshi koʻrsatkichlari 2.3÷2.6 mV/°C ni tashkil qiladi [5]. Ammo maydoniy tranzistor asosida oʻtkazilgan tadqiqotlar va ulardagi parametrlarining temperatura koeffisiyentlarini boshqarish mexanizmlari haqidagi ma'lumotlar hozirgacha mavjud emas. Kengaytirilgan funksional imkoniyatlarga ega maydoniy tranzistorlardan, ulanishning noan'anaviy usullarida foydalanish imkoniyati ham, hozirgacha kam oʻrganilganicha qolmoqda. Misol uchun, tranzistorlarning ikkiqutblilik sifatidagi xossalarini tadqiq qilishni ham davom ettirish kerak.

Xulosa

Shunday qilib, diod va tranzistor tuzilmalardan temperaturani oʻlchash qurilmasi sifatida foydalanish *p-n-* oʻtish orqali tok tashish mexanizmlariga asoslanadi. Aynan shu tuzilma orqali cheklangan tok oʻtganida *p-n-* oʻtishdagi kuchlanish tushishining temperaturaga bogʻliqligi, ya'ni sezgirligi har bir element (diod, tranzistor) uchun ma'lum qiymatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Патент РУз №IAP 05322 от 14.12.2016. Усилитель напряжения с динамической нагрузкой / Каримов А.В., Ёдгорова Д.М., Абдулхаев О.А., Каманов Б.М.

2. М. Ахмедов, Каманов Б.М. Ярим ўтказгичлар физикаси номли ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2021 йил 25 декабрдаги № 538 сонли буйруғига асосан 60720600-Материалшунослик ва янги материаллар технологияси (ярим ўтказгичлар ва лазер технологияси) талабалари учун тавсия этилган. "ТИҚХММИ"МТУ нашриёти 2022 йил.

3. Каманов Б.М., Эргашов А.Р., Ёдгорова Д.М., Рахматов А.З., Хакимов А.А., Абдулхаев О.А., Каримов А.В. Некоторые особенности работы усилителя напряжения на полевом транзисторе с динамической нагрузкой // Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2021, Т.25, №1) стр. 9-13.

4. Abdulaziz Karimov, Bekzod Kamanov, Dilbara Yodgorova, Akhmad Rakhmatov, Alim Khakimov, Oybek Abdulkhaev. A High Gain JFET Amplifier with Dynamic Load // 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) | 978-1-7281-9969-6/20/$31.00 ©2020 IEEE | DOI: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351499

5. Каримов А.В., Каманов Б.М., Ёдгорова Д.М., Каримов А.А. Новая разновидность усилителя напряжения на полевом транзисторе с динамической нагрузкой // Физика полупроводников и микроэлектроника" Ташкент. 2019 т.1, №5, стр.25-29.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Tuychibayev Baxodir Kurbanaliyevich
Farg'ona Politexnika Instituti, doktaranti
tuychibayev.b@icoud.com

KADMIY SELENID NANOKRISTALLI TIZIMLARINING ELEKTR XUSUSIYATLARINING XARAKTERSTIKASI

Annotatsiya: *Kadmiy selenid nanokristalli tizimlarining fizik xususiyatlari eksperimental va nazariy jihatdan o'rganildi. Temperatura va turli xil gaz muhitlarining kadmiy selenid plyonkalarining o'ziga xos o'tkazuvchanligiga ta'siri eksperimental ravishda o'rganildi. Fermi energiyasining qiymatlari, o'tkazuvchanlik zonasida donor zaryad tashuvchilarning kontsentratsiyasi, donorlarning faollashuv energiyasi va qarshilikning termik koeffitsienti nazariy jihatdan hisoblab chiqilgan. Hisoblangan qiymatlar eksperimental qiymatlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan, bu yarimo'tkazgichli qurilmalarning barqarorligini bashorat qilishga imkon beradi.*

Kalit so'zlar: *CdSe, faollashtirish energiyasi, Fermi energiyasi, donorlarning kontsentratsiyasi, qarshilikning termik koeffitsienti.*

Туйчибаев Баходир Курбаналиевич
Ферганский политехнический институт, докторант

ХАРАКТЕРИСТИКА ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СВОЙСТВ НАНОКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ СИСТЕМ СЕЛЕНИДА КАДМИЯ

Аннотация: *Физические свойства нанокристаллических систем селенида кадмия были изучены экспериментально и теоретически. Экспериментально изучено влияние температуры и различных газовых сред на удельную проводимость пленок селенида кадмия. Теоретически рассчитаны значения энергии Ферми, концентрации донорных носителей заряда в зоне проводимости, энергии активации доноров и термического коэффициента сопротивления. Показано, что расчетные значения коррелируют с экспериментальными значениями, что позволяет прогнозировать стабильность полупроводниковых приборов.*

Ключевые слова*: CdSe, энергия активации, энергия Ферми, концентрация доноров, термический коэффициент сопротивления.*

Tuychibayev Bakhodir Kurbanalievich
Fergana Polytechnic Institute, doctoral student

CHARACTERISTICS OF THE ELECTRICAL PROPERTIES OF CADMIUM SELENIDE NANOCRYSTALLINE SYSTEMS

Annotation: *The physical properties of cadmium selenide nanocrystalline systems were studied experimentally and theoretically. The effect of temperature and various gas environments on the specific conductivity of cadmium selenide films was studied experimentally. The values of the Fermi energy, the concentration of donor charge carriers in the conduction band, the activation energy of donors and the thermal coefficient of resistance were calculated theoretically. The calculated values are shown to be correlated with experimental values, which allows predicting the stability of semiconductor devices.*

Keywords*: CdSe, activation energy, Fermi energy, donor concentration, thermal coefficient of resistance.*

Kirish.

Noyob fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lgan kadmiy selenidlarining nanokristalli tizimlari yarimo'tkazgich sanoatida keng qo'llaniladi, masalan, fotonika [1], optoelektronika [2], mexatronika [3].

Zaryad tashuvchilarning kontsentratsiyasi [4] va taqiqlangan zonaning kengligi ko'lami [5] selenidlarni bionanotsensor va fotodetektor natquzullarda foydalanish imkonini beradi. Yaxshi elektr o'tkazuvchanligi tufayli yarim o'tkazgich selenidlar fotodatchiklarda [6] va quyosh batareyalari elementlarida [7] qo'llaniladigan yupqa plyonkalar shaklida keng miqyosda qo'llanilishini topdilar.

Asbob-uskunalar ishiga yarim o'tkazgichlarning turli xususiyatlari ta'sir ko'rsatmoqda. Fotorezistorning

shovqin xossalari zaryad tashuvchilarning konsentrasiyasiga bog‘liq [8]. Zaryadlar tashuvchilarning kontsentratsiyasi aktivatsiya energiyasiga ta’sir qiladi [9].

Termorezistor faoliyatining asosiy parametrlaridan biri – qarshilikning termik koeffitsienti.

Kadmiy selenidining xususiyatlarini o‘rganishda sirt muhim rol o‘ynaydi, chunki kadmiy selenidiga asoslangan yarimo‘tkazgichli qurilmalarni ishlatishda gazlar — havo tarkibiy qismlari ularning yuzasida adsorbsiyalanishi mumkin.

Natijada, qurilmalarning ba'zi foydalanish xususiyatlari buzilishi mumkin. Shuning uchun CdSe nanokristalli tizimlarining elektr xususiyatlarining xarakteristikalarini, shuningdek adsorbsiyalangan gazlarning ularga ta'sirini o‘rganish dolzarbdir.


Atrof-muhit va gaz bosimining tuzilishga ta'siri, selenidlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularda kuzatilgan fazali o‘tish parametrlari to‘g'risida keng ko‘lamli ma'lumotlarning yo‘qligi ushbu yo‘nalishdagi har qanday tadqiqotlarni dolzarb qiladi. Shunday qilib, masalan, kadmiy xalkogenidlarining yupqa plyonkalarining elektrofizik xususiyatlari [10] da o‘rganilgan va namunalarning odatiyligi xususiyatlarga ta'sir qilmaganligi sababli, ushbu tadqiqotlarning xulosalari sof selenid materiallarining kukunli namunalariga o‘tkazilishi mumkin.

Bundan tashqari, adabiy manbalarda [11, 12] barcha yarimo‘tkazgichli xalkogenid birikmalari selenidlarning elektrofizik xususiyatlarining Fermi energiyasi, zaryad tashuvchilarning kontsentratsiyasi, aralashmali darajaning pasayishi harorati, qarshilikning termik koeffitsienti va boshqa miqdorlar kabi muhim parametrlari haqida ma'lumot mavjud emas.

Ushbu ishning maqsadi elektr o‘tkazuvchanligini eksperimental tadqiqotlar natijalariga asoslanib, kadmiy selenid nanokristalli tizimlarining elektr xususiyatlarining xarakteristikalarini nazariy jihatdan hisoblashdir.

Tajribaning ob'ektlari va usullari. Tadqiqot uchun kadmiy selenid namunalari standart texnologiyalar yordamida: plyonkalar-termal bug'lanish [10], nanokristalli tizimlar-kukunli CdSe aralashmasining izotermik diffuziyasi usuli bilan olingan.

Namunalarni qayd etish-rentgenografiya, selenidlarning fazali tarkibiy qismlari va ularning nanokristalli tizimlarining kristall panjarasi parametrlarini hisoblash — olti burchakli va kubik singoniyalarni tavsiflovchi standart kvadrat formulalar bo‘yicha amalga oshirildi [13, 14]. Kadmiy selenidi uchun (misol sifatida) taglik reflekslarini olib tashlaganidan keyin qaytaruvchi tekisliklar indekslari bilan shtrix-diagramma berilgan (1-rasm).



1-rasm. Kadmiy selenid rentgen diagrammasi

Dastlabki binar birikmalarning [13] plyonkalarining elektr o‘tkazuvchanligi vakuumda, shuningdek vodorod va uglerod oksidi (II) muhitida 293...433 K harorat oralig'ida, gaz muhitining 9,7 Pa va 27,9 Pa bosimida o‘lchandi. Namunalar barqaror sirt elektr o‘tkazuvchanlik qiymatlari olinmaguncha (bosim ~ 0,13 MPa, harorat 643 K) vakuumda tovlandi.

O‘rganilayotgan selenidlar n tipidagi yarimo‘tkazgichlardir. Donor darajalari va o‘tkazuvchanlik zonasi orasidagi energiya oralig'ining kattaligi ΔE_d ni $ln\sigma_{эксп.} = f\,(1/T)$.chiziqli haroratga bog'liqlik grafiklari yordamida aniqlanishi mumkin.

$$\Delta E_d = 2k \cdot \mathrm{tg}\alpha, \qquad (1)$$

bu erda k —Boltsman doimiysi, $\mathrm{tg}\alpha$ — chiziqli bog'liqliklarning burchak koeffitsienti.

Selenid materialining elektrofizik xususiyatlarining ba'zi xarakteristikalarini eksperimental ravishda olingan o‘tkazuvchanlik qiymatlari $\sigma_{эксп}$ ni nazariy jihatdan hisoblangan qiymatlar $\sigma_{naz.}$ bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin. n-yarimo‘tkazgichlar nazariyasining asosiy qoidalaridan foydalanib, ma'lum bir haroratda nazariy o‘tkazuvchanlikni quyidagi formula bo‘yicha hisoblash mumkin

$$\sigma_{naz.} = e \cdot n \cdot \mu = eA\mu\sqrt{n_d \cdot \sqrt[4]{T^3}\, exp\left(-\frac{\Delta E_d}{kT}\right)}, \qquad (2)$$

bu erda e — electron zaryadi, n — T temperaturada o‘tkazuvchanlik zonasidagi donorlar konsentrasiyasi.,

n_d — donor darajasining to‘liq charcash rejimida o‘tkazuvchanlik zonasida donorlarning kontsentratsiyasi,

μ — donorlarning harakatchanligi, ΔE_d — donorlarning faollashuv energiyasi. n va μ ning qiymatlari temperaturaga bog‘liq. (2) formuladagi haroratga bog'liq bo‘lmagan ko‘paytuvchi bu A:

$$A = \sqrt{2}(2\pi mkT)^{\frac{3}{4}} \cdot h^{-\frac{3}{2}} = 2{,}4 \cdot 10^{11},$$

unga quyidagi doimiy qiymatlar kiradi: m — electron massasi, k — Boltsman doimiysi, h — Plank doimiysi.

Valentlik elektronlari kontsentratsiyasi n_e, selenidning formula birligi 8 valentlik elektronni tashkil qiladi va Fermi energiyasi E_F o‘rganilayotgan birikmalarda yarimo‘tkazgichlar nazariyasining tegishli formulalari bilan hisoblab chiqilgan:

$$n_e = \frac{8\rho \cdot N_A}{M}, E_F = \frac{h^2}{8m} \cdot \left(\frac{3n_e}{\pi}\right)^{\frac{2}{3}}, \qquad (3)$$

Selenid moddasining rentgen zichligi ϱ quyidagicha hisoblanadi [14]:

$$\rho = \frac{nM}{VN_A}, \quad (4)$$

bu erda V-birlik katakchasining hajmi: $V = a^3$ и $V = 0{,}866\, a^2c$, bu erda a и c —mos ravishda kubik va geksogonal parametrlardir.

n-yarimo'tkazgichlar uchun qarshilikning termik koeffitsienti α quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi [14]:

$$\alpha = -\frac{\Delta E_d}{2k \cdot T^2} \quad (5)$$

bu erda k —Boltsman doimiysi, T — temperatura.

Tajriba natijalari va ularni muhokama qilish.

Namunalarining rentgenogrammalarini hisoblash shuni ko'rsatdiki, tekshirilayotgan binar birikmalar plyonkalari bir xil tuzilishga ega bo'lib, ular kristall elementar katak parametrlari a = 0,566 nm bo'lgan vyurtsit modifikatsiyasining geksagonal panjarasiga mos keladi. Selenidlarning rentgen zichligi ϱ = $5{,}74 \cdot 10^3$ kg/m³ ga teng ((4) formula).

O'rganilayotgan selenidlarning polikristalli kukun namunalarining rentgenogrammalarini hisoblash shuni ko'rsatdiki, sof shaklda kadmiy selenidi vyurtsit modifikatsiyasida geksogonal katak parametrlari a = (0,430+0,008) nm, c = (0,695+0,028) nm bilan joylashgan.

(1) formula asosida hisoblangan rentgen zichligi $5{,}71 \cdot 10^3$ kg/m³ ga teng.

Ushbu natijalar jadval va adabiyot ma'lumotlariga yaxshi mos keladi [12].

Kadmiy selenidlari zaryad tashuvchilarning past konsentratsiyasi n_d, lekin juda katta ta'qiqlangan zona kengligi ΔE ning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Adabiyot manbalariga ko'ra, masalan [12], u ΔE = 1,7-1,9 eV oralig'ida baholanadi. Ular uchun 293...433 K temperaturali oraliq past temperaturali oraliq bo'lib, unda o'tkazuvchanlik stexiometrik tarkibga nisbatan ortiqcha bo'lgan elektronlar va panjara ichiga o'rnatilgan atomlar shaklida kristal tuzilishidagi nuqsonlar, ya'ni donorlar hisobiga yuzaga keladi.

Vakuumdagi solishtirma o'tkazuvchanlik qiymatlari $\sigma_{эксп}$. 1-jadvalda keltirilgan. CdSe plyonka namunalarining nafaqat vakuumda, balki gazsimon muhitda ham o'tkazuvchanligi, yarimo'tkazgichli birikmalar uchun mos yozuvlar ma'lumotlariga [15] mos keladigan eksponensial qonunga muvofiq temperatura oshishi bilan ortadi..


1-jadval

Yupqa plyonkalarning vakuumdagi solishtirma o'tkazuvchanligi


T, K	σ.·10^4, См
293	4,0
313	5,5
333	9,0
353	13,0
373	16,5
393	20,0
413	23,5

2-rasmda vakuumda olingan $ln\sigma_{эксп.} = f\,(1/T)$ chiziqli bog'liqlik ifodalangan.

433 K haroratgacha CdSe o'tkazuvchanligi xona haroratidagiga nisbatan deyarli 12 baravar ko'payadi. 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, aynan oxirgi harorat oralig'ida, taxminan 400 K harorat oralig'ida, $ln\sigma = f(1/R)$ to'g'ri chiziqli bog'liqlik, donor zaryad tashuvchilarining kamayishi vaqtiga (aralashmali o'tkazuvchanligining xususiy o'tkazuvchanligiga o'tish vaqtiga) mos keladigan sinishga ega. Yuqori haroratda CdSe o'tkazuvchanligi faqat xususiy zaryad tashuvchilarining paydo bo'lishi bilan sezilarli darajada oshishi mumkin. Shunday qilib, 400 K dan yuqori haroratlarda CdSe o'tkazuvchanligi asta-sekin xususiy o'tkazuvchanlik sohasiga o'tadi.



2-rasmda ko'rsatilgan $ln\sigma = f(1/R)$



3-rasm. Qarshilikning termik koeffitsientining temperaturaga bog'liqligi

o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligining chiziqli harakati asosida (1) formulaga binoan donorlarning faollashuv energiyasi hisoblab chiqilgan (ya'ni, donor sathlari va o'tkazuvchanlik zonasi orasidagi energiya oralig'ining kengligi) ΔE_d 0,34 eV ga teng bo'ldi (2-jadval).

2-jadval.

Elektrofizik xususiyatlar xarakteristikalarining qiymatlari

Valent elektronlar konsentratsiyasi, $n_e \cdot 10^{-28}$, $м^{-3}$	14,45
Fermi energiyasi, $\Delta E_Ф$, эВ	10,8
Donorlarning faollashish energiyasi, ΔE_d, эВ	0,34
O'tkazuvchanlik zonasidagi donorlar konsentratsiyasi, n_d, $м^{-3}$	10^{20}

T = 300 dagi qarshilikning termik koeffitsienti K, $\alpha \cdot 10^{-2}$, K^{-1}	–2,3

Kadmiy selenidining elektr xususiyatlarining ba'zi xarakteristikalarining nazariy baholash qiymatlari uchun biz 300 va 370 K harorat uchun (2) va (3) formulalardan foydalanamiz (1-jadval).

Ikki xil haroratda n_d qiymati (formula (2)) bir xil bo‘lishini hisobga olsak, biz harakatchanlik munosabatlarining qiymatlarini hosil qilamiz:

$$\frac{\mu_{300}}{\mu_{370}} = 3{,}4$$

Haroratning oshishi bilan zaryad tashuvchilarning harakatchanligi pasayadi, bu adabiy manbalarga mos keladi.

(3) formula bo‘yicha valentlik elektronlari konsentratsiyasi orqali hisoblangan Fermi energiyasi E_f ~11 Ev kattalik tartibiga ega (2-jadval).

Qarshilikning termik koeffitsientining qiymati T = 300 K da α = –0,023 K^{-1} ga teng (formula (5)) va yarimo‘tkazgichli materiallar uchun va adabiyotlardagi manbalarga mos kelgan holda α manfiy ishoraga va 10^{-2} K^{-1} qiymatga ega. Isitish paytida qarshilikning termik koeffitsienti qiymati murakkab tarzda kamayadi.

3-jadval

Vodorod va uglerod oksidi adsorbsiyasida solishtirma o‘tkazuvchanlik (II)

T, K	σ.104, См	
	vodorod	uglerod oksidi
293	4,0	3,0
313	6,5	4,0
333	12,0	5,0
353	18,0	8,0
373	23,0	10,5
393	28,5	13,5
413	34,5	16,5

3-jadvalda. vodorod va uglerod oksidi (II) muhitida 9,7 Pa bosim ostida kadmiy selenid plyonkalarining elektr o‘tkazuvchanligini o‘lchash natijalari keltirilgan. Vodorod muhitida hajmli sirt zaryadi (HSZ) musbat, uglerod oksidi muhitida esa manfiy

4-jadval.

Turli muhit va bosimlarda donorlarni faollashtirish energiyasi

Muhit	ΔE_d, eV
H_2 — 27,9 Pa	0,38
H_2 — 9,7 Pa	0,29
Vakuum	0,34
CO — 9,7 Pa	0,31
CO — 27,9 Pa	0,25

Vakuumda donorlarning faollashuv energiyasi ΔE_d = 0,34 eV ga teng. Vakuum bilan taqqoslaganda, vodorod bosimining oshishi bilan ΔE_d donorlarining faollashuv energiyasining qiymati oshadi, uglerod oksidi bosimining oshishi bilan u kamayadi (4-jadval). Masalan, gaz muhitining bosimi 27,9 Pa da uglerod oksidi (II) muhitida u 18% ga, vodorod muhitida esa 30% ga kamayadi. Donorlarni faollashtirish energiyasining o‘sishi bilan elektr o‘tkazuvchanligi biroz pasayadi.

Qarshilikning termik koeffitsienti, donorlarning faollashuv energiyasi va donor elektronlarning kontsentratsiyasining hisoblangan qiymatlari kadmiy selenidning solishtirma o‘tkazuvchanligi bilan bog'liq. Bu asbobsozlik sanoatida ushbu birikmalarning qo‘llanilish sohalarini oldindan eksperimental tadqiqotlarsiz bashorat qilish imkonini beradi.

Xulosa. Birinchi marta kadmiy nanokristalli selenidlarning elektr xossalari xususiyatlarining qiymatlari nazariy jihatdan hisoblab chiqilgan: Fermi energiyasi — $E_Ф$ = 10,8 eV; donorlarning faollashuv energiyasi— ΔE_d = 0,34 eV; donorlarning donor darajalarining kamayishi rejimida kontsentratsiyasi— n_d = ~1020 $м^{-3}$; qarshilikning termik koeffitsienti — α = $–2{,}3 \cdot 10^{-2}$ K^{-1}, ular solishtirma o‘tkazuvchanlikning eksperimental natijalari bilan yaxshi mos keladi.

Donor o‘tkazuvchanligining xususiy o‘tkazuvchanlik rejimiga o‘tishi 400 K haroratda kuzatiladi. Gazlar kadmiy selenidlari yuzasi bilan o‘zaro ta'sirlashganda, taqiqlangan zona kengligi qiymati, sirt zaryadining ishorasi va solishtirma o‘tkazuvchanlik qiymatlari o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qligi aniqlandi.

Uglerod oksidi (II) adsorbsiyasida xalkogenidlar yuzasi manfiy zaryadga ega bo‘ladi, vodorod adsorbsiyasida esa musbat bo‘ladi, bu donorlarning faollashuv energiyasining hisoblangan qiymatiga mos keladi. Shahar sharoitida CO ning ruxsat etilgan maksimal kontsentratsiyasi kamdan-kam hollarda oshirib yuborilganligi sababli, yarimo‘tkazgichli qurilmalarning barqaror ishlashi uchun ularni uning ta'siridan himoya qilish tavsiya etiladi.

Nazariy qiymatlarning eksperimental qiymatlar bilan o‘zaro bog'liqligi yarimo‘tkazgichli qurilmalarning barqarorligi, samaradorligi va sezgirligini dastlabki eksperimental tadqiqotlarsiz bashorat qilishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Venci X., George A., Raj A. D. [et al.]. Photocatalytic degradation effect of CdSe nanoparticles for textile wastewater effluents at low cost and proves to be efficient method //Environmental Research. 2022. Vol. 213. 113595. DOI: 10.1016/j. envres.2022.113595.

2. Pan A., Zhu X. Optoelectronic properties of semiconductor nanowires // Semiconductor Nanowires: Materials, Synthesis, Characterization and Applications. Woodhead Publishing Series in Electronic and Optical Materials, 2015. P. 327–363.

3. Regtien P. P. L., Dertien E. C. Sensors for Mechatronics. 2nd ed. Amsterdam: Elsevier, 2018. 379 p.

4. Minami T. Transparent Conductive Oxides for Transparent Electrode Applications // Semiconductors and Semimetals. December 2013. Vol. 88. P. 159–200. DOI: 10.1016/B978-0-12-396489-2.00005-9.

5. Rosmani C. H., Zainurul A. Z., Rusop M., Abdullah S. The Optical and Electrical Properties of CdSe Nanoparticles //The Optical and Electrical Properties of CdSe Nanoparticles, Advanced Materials Research. 2013. Vol. 832. P. 557–561. DOI:10.4028/www.scientific.net/AMR.832.557.

6. Mohammed K. A., Ziadan K. M., Al-Kabbi A. S. [et al.]. Optical, morphological, electrical properties and white light photoresponse of CdSe nanoparticles // Advances in Materials and Processing Technologies. 2022. DOI:10.1080/2374068X.2022.2037877.

7. Ali N., Hussain A., Ahmed R. [et al.]. Advances in nanostructured thin film materials for solar cell applications //Renewable and Sustainable Energy Reviews. 2016. Vol. 59. P. 726–737. DOI: 10.1016/j.rser.2015.12.268.

8. Давыдов В. Н., Гребенников А. С., Егорова И. А. Дисперсии носителей заряда в примесно-дефектных полупроводниках при совместном действии засветки и электрического поля // Доклады ТУСУР. 2011. № 2 (24), ч. 3. С. 36–45.

9. Зубков В. И., Соломникова А. В., Егоренков А. А. Температурная зависимость концентрации носителей заряда в алмазе, легированном бором, с учетом зависимости энергии активации от концентрации // Известия СПбГЭТУ «ЛЭТИ». 2019. № 5. С. 5–12.

10. Dan’shina V. V., Kalistratova L. F. Comparative Analysis of the Thickness and Electrical Conductivity of Thin Chalcogenide Semiconductor Films // Physics of the Solid State. 2017. Vol. 59, no. 1. P. 172–175. DOI:10.1134/S106378341701005X.

11. Abbassi A., Zarhri Z., Azahaf C., Benyoussef A. Boltzmann equations and ab initio calculations: comparative study of cubic and wurtzite CdSe // SpringerPlus. 2015. Vol. 4. P. 543. DOI:10.1186/s40064-015-1321-z.

12. II-VI Semiconductor Materials and their Applications // By ed. Maria C. Tamargo. 2002. 240 p. DOI: 10.1201/9780203751305.

13. Danshina V. V., Kalistratova L. F. Gas environment type and pressure influence on the semiconductor thin films electrical properties // Dynamics of Systems, Mechanisms and Machines (Dynamics). 2016. P. 1–5. DOI: 10.1109/Dynamics. 2016. P. 7818998.

14. Миркин Л. И. Справочник по рентгеноструктурному анализу поликристаллов. Москва: Изд-во физ-мат. лит., 1961. 863 с.

15. Таблицы физических величин: справ. / Под ред. И. И. Кикоина. Москва: Атомиздат, 1976, 1006 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Dadamirzayev Muhammadjon G'ulomqodirovich
Namangan muhandislik-qurilish instituti f.m.f.d, Professor
e-mail: dadamirzayev@gmail.ru
G'aniyeva Adolatxon Komilboy qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti, Doktoranti
e-mail:adolatkhonganieva@gmail.com

YARIMO'TKAZGICHLARDA ZARYAD TASHUVCHILAR KONSENTRATSIYASINING TUNNEL EHTIMOLLIGIGA BOG'LIQLIGI.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va haroratning tunnel effektiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida tunnellanish ehtimolini aniqlash uchun Schredinger tenglamasi va Wentzel-Kramers-Brilyon yaqinlashuvi asosida nazariy hisob-kitoblar olib borildi. Shuningdek, aralashma darajasi va haroratning Fermi sathi hamda tunnellanish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, aralashma miqdorining oshishi elektronlarning tunnellanish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu natijalar nanoelektronika va tunnel diodlari kabi ilg'or yarimo'tkazgich texnologiyalarining rivojlanishi uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Yarimo'tkazgich, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi, tunnel effekti, aralashma, harorat, Fermi sathi, kvant tunnellanishi, Schredinger tenglamasi, WKB yaqinlashuvi, nanoelektronika, tunnel diodi, kvant nuqtalar.*

Дадамирзаев Мухаммаджон Гуломкодирович
Наманганский инженерно-строительный институт, доктор физико-математических наук, профессор
Ганиева Адолатхон Комилбой кызы
Наманганский инженерно-строительный институт, докторант

ЗАВИСИМОСТЬ ЭФФЕКТА ТУННЕЛИРОВАНИЯ ОТ КОНЦЕНТРАЦИИ НОСИТЕЛЕЙ ЗАРЯДА И ТЕМПЕРАТУРЫ В ПОЛУПРОВОДНИКАХ

Аннотация. *В данной статье изучается влияние концентрации носителей заряда и температуры на эффект туннелирования в полупроводниках. Теоретические расчёты проводились на основе уравнения Шрёдингера и приближения ВКБ для определения вероятности туннелирования. Кроме того, проанализировано влияние уровня легирования и температуры на уровень Ферми и процесс туннелирования. Полученные результаты показывают, что увеличение концентрации легирования значительно повышает вероятность туннелирования электронов. Эти выводы являются важной научной основой для развития передовых полупроводниковых технологий, таких как наноэлектроника и туннельные диоды.*

Ключевые слова: *Полупроводник, концентрация носителей заряда, эффект туннелирования, температура, уровень Ферми, квантовое туннелирование, уравнение Шрёдингера, приближение ВКБ, наноэлектроника, туннельный диод, квантовые точки.*

Dadamirzayev Muhammadjon Gulomqodirovich
Namangan Engineering-Construction Institute, D.Sc. in Physics and Mathematics, Professor
Ganiyeva Adolatkhon Komilboy qizi
Namangan Engineering-Construction Institute, Doctoral Student

DEPENDENCE OF THE TUNNELING EFFECT ON CHARGE CARRIER CONCENTRATION AND TEMPERATURE IN SEMICONDUCTORS

Annotation. *This paper examines the influence of charge carrier concentration and temperature on the tunneling effect in semiconductors. Theoretical calculations were performed using the Schrödinger equation and the WKB approximation to determine the tunneling probability. Additionally, the impact of doping levels and temperature on the Fermi level and tunneling process was analyzed. The results indicate that an increase in doping concentration significantly enhances the tunneling probability of electrons. These*


findings serve as an important scientific foundation for the development of advanced semiconductor technologies such as nanoelectronics and tunnel diodes.

Keywords: *Semiconductor, charge carrier concentration, tunneling effect, temperature, Fermi level, quantum tunneling, Schrödinger equation, WKB approximation, nanoelectronics, tunnel diode, quantum dots.*

Kirish

Tunnel effekti – bu kvant mexanikasining fundamental hodisasi bo‘lib, unda elektronlar klassik fizika qonunlariga zid ravishda potensial to‘siqdan ma’lum ehtimollik bilan o‘tishlari mumkin. Bu hodisa elektronning to‘lqin xususiyatiga, ya’ni uning kvant mexanik holatiga bog‘liqdir va u yarimo‘tkazgichlarda, ayniqsa, nanostrukturalarda keng qo‘llaniladi[1]. Tunnel effekti zamonaviy elektronika, kvant nuqtalar, tunnel diodlari va boshqa ilg‘or qurilmalarning ishlash tamoyillarida muhim rol o‘ynaydi. Klassik nazariyada, agar elektron energiyasi potensial to‘siq balandligidan past bo‘lsa, u to‘siqdan o‘tishi imkonsiz bo‘ladi[3]. Ammo kvant mexanikasi, ayniqsa, Shredinger tenglamasi orqali ifodalanadigan to‘lqin tabiatli xarakteri tufayli, elektronlar potensial to‘siqni “kesib o‘tish” o‘rniga uning ichidan tunnellanishi mumkin. Shu jarayonni chuqurroq tushunish uchun quyidagi Shredinger tenglamasi keltiriladi: [1–4]

$$\frac{d^2\psi}{dx^2} + \frac{2m^*}{\hbar^2}\big(E - U(x)\big)\psi = 0 \qquad (1)$$



1-rasm. Elektronning to‘lqin funksiyasi tunneli effekti asosida potensial to‘siqni kesib o‘tishi [1]

Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yarimo‘tkazgich materiallariga turli aralashmalar kiritilganda yoki tashqi omillar ta’sirida zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi o‘zgarishi mumkin. Bu esa tunnel ehtimolligiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Sze (1981) tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlarda aralashmali yarimo‘tkazgichlarda zaryad tashuvchilar sonining ortishi tunnellanish ehtimolini oshirishini ko‘rsatgan. Durgesh Laxman Tiwari va K. Sivasankaran (2019) esa zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining o‘zgarishi nanoelektronika qurilmalarining samaradorligiga qanday ta’sir qilishini o‘rgangan va yuqori konsentratsiyali materiallarda tunnellanish ehtimoli oshishini tasdiqlagan. Shuningdek, Langhua Hu va Duan Chen (2015) tomonidan nano-transistorlar ustida olib borilgan tadqiqotlarda, harorat va aralashma darajasi oshgani sari tunnellanish jarayoni sezilarli darajada kuchayishi aniqlangan. Ushbu tadqiqot natijalari bizning nazariy hisob-kitoblarimizni tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Potensial to‘siqning balandligi U, kengligi W bo‘lgan hol uchun to‘lqin funksiyasining umumiy ko‘rinishi $\psi = e^{\pm ikx}$, bu yerda $k = \sqrt{2m^*(U(x) - E)}/\hbar$ ga teng. Ushbu ifoda orqali, agar elektron energiyasi E potensial to‘siq balandligidan kichik bo‘lsa, k haqiqiy bo‘ladi va elektronning to‘lqin funksiyasi potensial to‘siq hududida eksponensial tarzda kamayishi kuzatiladi [2, 4]. Natijada, tunnellanish ehtimolligi elektronning to‘siq orqali “teshib o‘tishi” jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi hamda to‘lqin funksiyasining yechimi hamda tunnel ehtimolligi quyidagi (2) tenglik orqali hisoblanadi.[2]

$$T_t = \left(\frac{\psi_B}{\psi_A}\right)^2 \approx 16\frac{16E(U_0 - E)}{U_0^2} e^{-2\sqrt{\frac{2m^*(U_0 - E)}{\hbar^2}}W} \qquad (2)$$

Murakkabroq shakldagi potensial to‘siqlar uchun, agar potensial U(x) tez o‘zgarmasa, Schredinger tenglamasini Wentzel-Kramers-Brillouin yaqinlashuvi yordamida soddalashtirish mumkin. To‘lqin funksiyasining yechimi $e^{\int ik(x)dx}$ bo‘ladi va tunnellanish ehtimolini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$T \approx e^{-2\int_{x_1}^{x_2} k(x)dx} \qquad (3)$$

$$k = \frac{\sqrt{2m^*(U(x) - E)}}{\hbar}$$

m — elektron massasi, U(x) — potensial to‘siq balandligi, E — elektron energiyasi, $\hbar$ — Plank doimiysi.

Wentzel-Kramers-Brilyon model orqali, har bir nuqtada elektronning tunnellanish ehtimoli hisobga olinadi va natijada umumiy tunnellanish ehtimolligi (3) tenglama yordamida aniqlanadi [6, 14]. Agar ushbu integralni hisoblab chiqilsa, quyidagi soddalashtirilgan formula hosil bo‘ladi:

$$T \approx e^{[-2kW]} = e^{\frac{\sqrt{2m^*(U(x) - E)}}{\hbar}W} \qquad (4)$$

Yuqoridagi ifodadan ko‘rinib turibdiki, tunnellanish ehtimolligi elektronning energiyasiga, potensial to‘siq balandligi va kengligiga hamda modda turiga bog’liq ekan.[1] Biroq, yuqorida keltirilgan ishlarda aralashmali yarimo‘tkazgichlardagi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining tunnel effektiga bog’liqligi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Ishning maqsadi, aralashmali yarimo‘tkazgichlardagi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining tunnel effektiga bog’liqligini o‘rganishdan iborat

Tahlil va natijalar

Yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi tunnel effektiga bog'liqligi.

Sof yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi, kiritmali yarimo'tkazgichlarga nisbatan ancha kichik bo'lganligi sababli, tunnellanish ehtimoli ham past bo'ladi. Shuning uchun, biz faqatgina, aralashmali yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining o'zgarishi, tunnel effektiga qanday bog'langanligini ko'rib chiqamiz. Tunnellanish jarayonida yarimo'tkazgichlardagi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi tunellash effektiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aralashma konsentratsiyasi oshgani sari Fermi energiyasi ko'tariladi, bu esa elektronlarning energiya taqsimotini kengaytiradi, natijada tunnellanish ehtimoli oshadi [4, 7, 8]. Tunnel hodisasi zaryad tashuvchilarning miqdori va ularning energiya taqsimoti bilan bevosita bog'liq. Yarimo'tkazgichli materiallarga turli aralashmalar kiritilganda yoki tashqi omillar ta'sirida zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi o'zgarishi mumkin. Bu esa tunnel ehtimolligiga ta'sir ko'rsatadi va biz tunnellanish ehtimoli T_t va zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi N_A yoki N_D o'rtasidagi bog'liqlikni quyida matematik ifoda orqali topamiz [3].

Yarimo'tkazgichlardagi elektronlarning konsentratsiyasi:

$$n = 2\left(\frac{2\pi m_n^* kT}{h^2}\right)^{3/2} * e^{\frac{E-E_C}{kT}} \qquad (5)$$

n-tipli yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar to'liq ionlashgan bo'lsa $n \approx N_D$ ga teng bo'ladi va (5) ifoda quyidagi ko'rinishni oladi.


$$N_D = A * e^{\frac{E-E_C}{kT}} \qquad (6)$$

Bu yerda A= $2\left(\frac{2\pi m_n^* kT}{h^2}\right)^{3/2}$ $N_D -$ donorlar konsentratsiyasi, E – Fermi energiyasi, $E_c -$o'tkazuvchanlik zonasiga mos keluvchi energiya. (6) ifodadan ko'rinib turibdiki, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi Fermi sathiga bevosita bog'liq va n-tipli yarimo'tkazgich uchun Fermi energiyasini quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$E = E_C + kT\left(\frac{N_D}{A}\right) \qquad (7)$$

(7) ifodani (4) ga olib borib qo'yish natijasida, (8) tenglikka ega bo'lamiz va ular o'rtasidagi bog'liqlikni quyida grafik orqali ifodalaymiz.

$$T \approx e^{\frac{\sqrt{2m^*(U(x)-E_C+kT\left(\frac{N_D}{A}\right)}}{\hbar} * W} \qquad (8)$$



2-rasm. Zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining tunnel effektiga bog'liqlik grafigi.

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, aynimagan yarimo'tkazgichlarda tunnellanish deyarli kuzatilmaydi. Aynigan yarimo'tkazgichlarda esa zaryad tashuvchilar sonining ortishi tunnellanish ehtimolini oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu bog'liqliklar nazariy modellarga qo'shimcha ravishda eksperimental va nazariy tadqiqotlar orqali ham tasdiqlangan [7, 11, 16]. Shu sababli, yarimo'tkazgichlarda tunnellanish ehtimoli nafaqat aralashma konsentratsiyasi, balki harorat va elektr maydon kuchi kabi omillar bilan ham o'zaro bog'liqdir [8, 14, 16].

Xulosa

Tunnel effektining zaryad tashuvchilar konsentratsiyasiga bog'liqligi tahlil qilindi va natijalarga ko'ra, aralashmali yarimo'tkazgichlarda aralashma konsentratsiyasi oshishi bilan Fermi sathi yuqorilab, tunnellanish ehtimoli ortishi aniqlandi. Sof yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar soni kam bo'lgani sababli tunnel hodisasi deyarli kuzatilmaydi, ammo aralashma miqdori oshganda elektronlar energiyasi ortib, potensial to'siq orqali o'tish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Ushbu bog'liqlik amaliy jihatdan tunnel diodlari, kvant nuqtalar va nanoelektronika kabi ilg'or texnologiyalarning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tunnel effektining konsentratsiyaga bog'liqligini chuqur o'rganish orqali yarimo'tkazgich qurilmalarining ishlash tamoyillarini yanada yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sze, S. M. (1981). *Physics of Semiconductor Devices*. Wiley.
2. Feynman, R. (1965). *The Feynman Lectures on Physics*, Vol. III. Addison-Wesley.
3. Rasulov, E. & Begimqulov, U. (2009). *Kvant fizikasi*. Toshkent: Fan va texnalogiya.
4. Durgesh Laxman Tiwari, K. Sivasankaran. Impact of carrier concentration and bandgap on the performance of double gate GNR-FET. Superlattices and Microstructures Volume 130, June 2019, Pages 38-49 https://doi.org/10.1016/j.spmi.2019.04.019
5. Langhua Hu, Duan Chen, *Impact of geometric, thermal and tunneling effects on nano-transistors*. Journal of Computational Physics.Volume 290, 1 June 2015, Pages 169-187 https://doi.org/10.1016/j.jcp.2015.02.044

6. Javier García-Fernández, María Hernando, *Characterization of Tunneled Wide Band Gap Mixed Conductors: The Na_2O-Ga_2O_3-TiO_2 System. Nanomaterials* 2023, *13*(14), 2054;

7. Palepu. Shweta Patel. Investigation of the dielectrically modulated electron hole bilayer tunnel field effect transistor for biomolecule detections. Current Applied Physics. Volume 47, March 2023, Pages 60-71 https://doi.org/10.1016/j.cap.2023.01.001

8. Gulyamov G., Dadamirzaev M. G., Kosimova M. O. COMPARISON OF PARAMETERS OF TWO-DIMENSIONAL (2D) AND THREE-DIMENSIONAL (3D) PN-JUNCTION DIODES //Romanian Journal of Physics. – 2023. – T. 68. – C. 603.

9. Dadamirzaev, M., Kosimova, M., Maxmudov, A., & Tursunov, M. (2023). LIGHT POWER FACTOR ON THE CHARACTERISTICS OF TWO-DIMENSIONAL PN DIODES. *И ПРИКЛАДНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ФИЗИКИ FUNDAMENTAL AND APPLIED PROBLEMS OF MODERN PHYSICS*, 27.

10. Gómez Viloria, M., Ben-Abdallah, P. & Messina, R. *Electronic Heat Tunneling between Two Metals beyond the WKB Approximation*. Physical Review B 108, Published 13 November, 2023.

11. Dadamirzaev, M. G., Kosimova, M. O., Boydedayev, S. R., & Makhmudov, A. S. (2024). COMPARISON OF 2D AND 3D PN JUNCTION DIFFERENTIAL CONDUCTANCE AND DIFFUSION CAPACITANCE1. *European Journal OF Physics*, *2*, 372-379.

12. Gulyamov, G., Erkaboev, U. I., Majidova, G. N., Qosimova, M. O., & Davlatov, A. B. (2015). New Method of Determining the Landau Levels in Narrow-Gap Semiconductors. *Open Journal of Applied Sciences*, *5*(12), 771-775.

13. Dadamirzayev, M. G., & Kosimova, M. O. (2018). The effect of the variation of the electric field of the UHF waves on the CVC of the asymmetric pn-junction. *ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (66)*, 401-405.

14. Gulyamov, G., Dadamirzaev, G., Dadamirzayev, M., & Kosimova, M. (2020). The influence of the microwave field on the characteristics of the pn junction. *Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering*, *2*(4), 7

15. Gulyamov, G., Dadamirzaev, G., Dadamirzayev, M., & Kosimova, M. (2020). The influence of the microwave field on the characteristics of the pn junction. *Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering*, *2*(4), 7.

16. Shkop, A. D. *Thermoelectric Effects in Tunneling of Spin-Polarized Electrons in a Molecular Transistor*. Condensed Matter > Mesoscale and Nanoscale Physics. (2022, July 9). https://doi.org/10.48550/arXiv.2207.04234

17. Dadamirzaev, M. G., Kosimova, M. O., Boydedayev, S. R., & Makhmudov, A. S. (2024). Comparison of 2D and 3D pn Junction Differential Conductance and Diffusion Capacitance. East European Journal of Physics, (2), 372-379.

18. Taghinejad, M., Fathipour, M. & Niknejad, A. M. (2022). *The Effects of Source Doping Concentration and Doping Gradient on the ON-State Current of Si Nanowire TFETs*. *Journal of Computational Electronics, 21*.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Abdulazizov Baxrom Toshmirza o'g'li
Namangan davlat universiteti
Obidjonov Xamidullo Omonjon o'g'li
Namangan davlat universiteti
Yunusov Odiljon Maxmudjon o'g'li
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Fizika-texnika instituti

PAST TEMPERATURALARDA KVAZI-IKKI O'LCHAMLI ELEKTRON GAZINING TO'LA ENERGIYASI

Annotatsiya: *Ushbu ishda kvazi-ikki o'lchamli elektron gazi to'la energiyasining past temperaturalarda sonli va analitik natijalari keltirilgan. Bunda hisoblashlar kimyoviy potentsial rezonans nuqtalarida va ketma-ket energetik sathlar orasida joylashgan holatlari uchun bajarilgan. Shuningdek haroratning oshishi bilan, analitik va sonli hisoblashlardagi farqlar grafiklarda ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Kvazi-ikki o'lchamli elektron gaz, rezonans nuqta, kimyoviy potensial, to'la energiya, konsentratsiya.*

Абдулазизов Бахром Ташмирза угли
Наманганский государственный университет
Обиджонов Хамидулло Омонжон угли
Наманганский государственный университет
Юнусов Одилжон Махмуджон угли
Физико-технический институт Академии наук Узбекистана

ПОЛНАЯ ЭНЕРГИЯ КВАЗИДВУМЕРНОГО ЭЛЕКТРОННОГО ГАЗА ПРИ НИЗКИХ ТЕМПЕРАТУРАХ

Аннотация: *Представлены численные и аналитические результаты исследования полной энергии квазидвумерного электронного газа при низких температурах. Анализируется полная энергия двумерного электронного газа в точках резонанса химического потенциала и состояниях, лежащих между последовательными точками резонанса. С повышением температуры появляются видимые признаки того, что существует разница между аналитическими и численными расчетами.*

Ключевые слова: *Квазидвумерный электронный газ, резонансная точка, химический потенциал, полная энергия, концентрация.*

Abdulazizov Bakhrom
Namangan State University
Obidjonov Xamidullo
Namangan State University
Yunusov Odiljon
Institute of Physics and Technology of the Academy of Sciences of Uzbekistan

TOTALL ENERGY OF QUASI-TWO-DIMENSIONAL ELECTRON GAS AT LOW TEMPERATURES

Annotation: *Numerical and analytical results of testing the full energy of a quasi-two-dimensional electron gas at low temperatures are given. In cases where the chemical potential lies at resonance points and between successive resonance points, the full energy of a two-dimensional electronic gas is analyzed. With increasing temperature, there are visible signs that there is a difference between analytical and numerical calculations.*

Keywords: *Quasi-two-dimensional electronic gas, resonance point, chemical potential, totall energy, concentration.*

Kirish

So'nggi yillarda yupqa plyonkalardagi ikki o'lchovli elektron gazning termodinamikasi juda intensiv o'rganilyapti[1-4].

Kvazi-ikki o'lchamli elektron gaz termodinamik xususiyatlari nafaqat plyonka qalinligiga, balki kvant o'raning profiliga va parametrlariga ham bog'liq. Parabolikdan tashqari to'rtburchaklar chuqur potentsial

kvant eng ko‘p o‘rganilgan tizimlardan biridir, ammo aslida biz kvant o‘ra bilan shug'ullanamiz, birinchidan, cheklangan balandlik va ikkinchidan, murakkab shakl. Hozirgi vaqtda epitaksial o‘sish texnikasi potentsial to‘siqlarga ega tuzilmalarni qurishga imkon beradi.

Ushbu maqolada biz kvant o‘ra profilining va parametrlarining to‘g’ri burchak shakldagi kvant o‘radagi degenerat ikki o‘lchamli elektron gaz termodinamik xususiyatlariga ta'sirini o‘rganamiz. Ya’ni past haroratlarga asoslanib, ikki o‘lchamli elektron gazning aynan bir temperaturadagi Ikki o‘lchamli electron gaz uchun to‘la energiya ifodalarni hisoblaymiz.

Ma’lumki, past o‘lchamli tuzilmalardagi elektronlar gazida fazoviy kvantlanish effektlarini namoyon bo‘lishiga - kritik nuqtalarda gaz energiya holatlar zichligini pog‘onasimon keskin sakrab o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Kritik nuqtalar - adabiyotlarda rezonans nuqtalar deb ham yuritilib, bunda gaz kimyoviy potensiali fazoviy kvantlanish energiya sathlari energiyasiga tenglashadi. Gazni energiya holatlar zichligini bunday o‘zgarishi – kuzatiladigan barcha termodinamik va kinetik kattaliklarda ma’lum formada namoyon bo‘laveradi.

Hisoblashlarni imkon qadar soddalashtirish maqsadida elektron dispersiyasini parabolik deb olinadi. Energiya sanoq boshi - yarimo‘tkazgichni o‘tkazuvchanlik zonasi tubidan boshlanadi. Geterotuzilma kvant o‘rasida elektronning ko‘ndalang harakat energiyasi kvantlanib, gaz kvazi ikki o‘lchamli hisoblanadi. Ko‘ndalang harakat yo‘nalishi - to‘siq material o‘stirilgan yo‘nalishga mos bo‘lib, $Z-$ o‘qida deb faraz qilamiz.

Materiallar va usullar

Kvantlanish energiya spektrini topish kvantomexanik masala bo‘lib, uni ma’lum deb olamiz. Natijada elektronning o‘radagi to‘la energiyasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$E = \frac{\hbar^2 k^2}{2m} + E_n, \qquad (1)$$

Bu erda, $k^2 = k_x^2 + k_y^2$, E_n - elektronning kvantlangan ko‘ndalang harakat energiyasi, m - elektronning effektiv massasi. Ikki o‘lchamli to‘la konsentratsiya esa quyidagiga teng

$$n_s = g_0 \sum_{n=1} \int_{E_n}^{\infty} f(E)dE = g_0 \sum_n T \ln\left(1 + e^{\frac{\mu - E_n}{T}}\right) \qquad (2)$$

bunda $g_0 = m/\pi\hbar^2$, $f(E)$ - Fermi-Dirak taqsimot funksiyasi. Termodinamik holatlar zichligi esa quyidagicha aniqlanadi [4-11]

$$g_s = \frac{\partial n_s}{\partial \mu} = g_0 \sum_n \frac{1}{e^{(E_n - \mu)/T} + 1} \qquad (3)$$

Sistemaning to‘la energiyasi quyidagicha yoziladi

$$U_s = g_0 \sum_n \int_{E_n}^{\infty} Ef(E)dE \qquad (4)$$

$$U_S = g_0 \sum_{n_z=1} \int_{E_n}^{\infty} dE \cdot E \frac{1}{e^{\frac{E-\mu}{T}} + 1} \qquad (5)$$

(5) ifodadagi integralni bo‘laklab integrallash qoidasidan foydalanib quyidagi shaklga keltiriladi:

$$U_S = g_0 \left[-\frac{1}{2} \sum_{n_z=1}^{M} \frac{e^{\frac{E_n-\mu}{T}} E_n^{\,2}}{\left(e^{\frac{E_n-\mu}{T}} + 1\right)^2} + \frac{1}{2} \sum_{n_z=1}^{M} \int_{E_n}^{\infty} \frac{e^{\frac{E-\mu}{T}} E^2}{\left(e^{\frac{E-\mu}{T}} + 1\right)^2 T} dE \right] \qquad (6)$$

(6) ifodadagi integral uchun $x = (E-\mu)/T$, $\cosh\tilde{o} = \frac{e^{-x} + e^{x}}{2}$ o‘zgaruvchi kiritamiz va integral ostidagi ifodani quyidagicha yozamiz:

$$J = \frac{(\mu)^2}{8} \sum_{n_z=1}^{M} \int_{\frac{E_n-\mu}{T}}^{\infty} \frac{1}{\cosh^2\left(\frac{x}{2}\right)} dx + \frac{1}{4}\mu T \sum_{n_z=1}^{M} \int_{\frac{E_n-\mu}{T}}^{\infty} \frac{x}{\cosh^2\left(\frac{x}{2}\right)} dx + \qquad (8)$$

$$\frac{1}{8} T^2 \sum_{n_z=1}^{M} \int_{\frac{E_n-\mu}{T}}^{\infty} \frac{(x)^2}{\cosh^2\left(\frac{x}{2}\right)} dx$$

N - rezonans nuqtada $\mu = E_N$, va $\mu > E_{N-1}, E_{N-2}, \ldots E_1$ shartlar bajariladi. Shuning uchun (8) ifidani har bir hadini uchta integralga ajratib olamiz. U holda $T << E_{n+1} - E_n$ shartga ko‘ra, birinchi integralni quyi chegarasini -∞ ga almashtiramiz. Xuddi shunday yo‘l bilan, $T << E_{n+1} - E_n$ shartga ko‘ra uchinchi integral quyi chegarasi ∞ ga intiladi, chunki $\mu < E_{N+1}, E_{N+2}, \ldots E_M$. U holda, uchinchi xad eksponensial kichik bo‘lib, uni tashlab yuboramiz. Past temperatura sharoitida J_0 , J_1 , J_2 lar uchun quyidagi natijalarni olamiz:

$$J_0 = \frac{\mu^2(2N-1)}{2}, \qquad J_1 = 2\mu T \ln 2,$$

$$J_2 = \frac{T^2\pi^2(2N-1)}{6} \qquad (9)$$

Agar (6) ifodadagi birinchi haddagi yig’indi uchun ham N - rezonans nuqtada $\mu = E_N$, va $\mu > E_{N-1}, E_{N-2}, \ldots E_1$ chegaraviy shartlardan foydalanib, yig’indi uchun past temperaturalar uchun rezonans nuqtalarda $\mu = E_N$ ikki o‘lchamli elektron gaz to‘la energiyasini hisoblash uchun quyidagi ifodani olamiz:


$$U_S(r)=g_0\cdot\begin{pmatrix}-E_1^2\left(\frac{N^5}{5}-\frac{N^4}{2}+\frac{N^3}{3}-\frac{N}{30}\right)\\-\frac{\mu^2}{2}+2\mu T\ln 2+\left(\frac{\mu^2}{2}+\frac{T^2\pi^2}{6}\right)(2N-1)\end{pmatrix} \quad (10)$$

Faraz qilaylik, kimyoviy potensial μ energiyani E_{N-1} va E_N sathlari orasida, ya'ni $E_{N-1}<\mu<E_N$ bo'lsin, hamda temperatura yetarlicha past $T<<E_N-E_{N-1}$ deb olaylik. U holda, kvazi-ikki o'lchamli elektron gaz uchun to'la energiya ifodasi quyidagi shaklga keladi:


$$U_S(b)=g_0\cdot\begin{pmatrix}-E_1^2\left(\frac{N^5}{5}-\frac{N^4}{2}+\frac{N^3}{3}-\frac{N}{30}\right)+\\\left(\mu^2+\frac{T^2\pi^2}{3}\right)(N-1)\end{pmatrix} \quad (11)$$

Natija va muhokamalar


Past temperaturalarda ikki o'lchamli elektron gaz to'la energiyasini hisoblash uchun olingan (10) va (11) ifodalar orqali hisoblangan natijalar bilan (5) ifoda orqali sonli hisoblangan to'la energiyalarni grafik orqali solishtiramiz.



1-rasm. Kimyoviy potensial rezonans nuqtalarda joylashgan bo'lsa, ya'ni $\mu=E_N$ holatda sonli va analitik hisoblashlarni solishtirish.



2-rasm. Kimyoviy potensial ketka-ket ikkita energetik sathlar orasida bo'lsa, ya'ni $E_{N-1}<\mu<E_N$ holatda sonli va analitik hisoblashlarni solishtirish.



3-rasm. Sonli hisoblashda va analitik formulalarda har bir kimyoviy potensialga to'g'ri keluvchi to'la energiyalarni solishtirish.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda 1- va 2- rasmlardan ko'rinib turibdiki, past temperaturalarda ikki o'lchamli elektron gaz to'la energiyasini hisoblash ifodasi past temperaturalarda o'rinli ekan. Chunki biz kimyoviy potensialni o'zgarmas, ya'ni temperaturaga deyarili bog'liq emas deb hisoblaganmiz. Lekin kimyoviy potensial temperaturaga bog'liq. Shuning uchun temperatura ortishi bilan biz hisoblagan analitik ifoda va sonli hisoblash grafigi orasida farq paydo bo'layapti. Kimyoviy potentsial rezonans nuqtalarida va ketma-ket rezonans nuqtalari orasida yotgan holatlarda ikki o'lchamli elektron gazning to'la energiyasi tahlil qilindi. Haroratning oshishi bilan, analitik va raqamli hisoblashlar orasida farq mavjud ekanligini ko'rinadigan belgilar mavjudligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Ando, A.B.Fowler, and F.Stern,"Electronic properties of two-dimensional systems, " Reviews of Modern Physics,vol.54, no. 2, pp. 437–672, 1982.

2. D.C.Tsui, H.L.Stormer, and A.C.Gossard, " Two-dimensional magnetotransport in the extreme quantum limit," Physical Review Letters, vol. 48, no. 22, pp. 1559–1562, 1982.

3. B. J. Van Wees, H. Van Houten, C. W. J. Beenakker et al., "Quantized conductance of point contacts in a two-dimensional electron gas, " Physical Review Letters, vol. 60, no. 9, pp. 848–850, 1988.

4. W. Zawadzki, Thermodynamics of Two-dimensional Electron Gas in a Magnetic Field, Series in Solid-State Sciences, Springer, 53.

6. A.C.Ramos, G.A.Farias, and N.S.Almeida,"Thermodynamics of a quasi-two-dimensional electron gas: Effects of magnetic fields, temperature and finite width, " PhysicaE: Low-dimensional Systems and Nanostructures,vol.43,no.10,pp. 1878–1881, 2011.

7. V. M. Gokhfeld, "On the thermodynamics of a quasi-2D electron gas," Physics of low temperatures,vol.31,pp.769–773, 2005.

8. P. J. Baymatov, A. G. Gulyamov , B. T. Abdulazizov. "On the heat capacity of a quasi-two-dimensional electron gas". Advances in Condensed Matter Physics

Volume 2019, Article ID 8317278, 6 pages. https://doi.org/10.1155/2019/8317278.

9. A. A. Varlamov, A. V. Kavokin, and Y. M. Galperin, "Quantization of entropy in a quasi-two-dimensional electron gas, " Physical Review B: Condensed Matter and Materials Physics,vol. 93, no. 15, 2016.

10. I. V. Kukushkin, S. V. Meshkov, and V. F. Timofeev, "Density of states two-dimensional electrons in a transverse magnetic Field,"UFN, vol. 155, pp. 219–264, 1988.

11. P.J. Baymatov, B.T.Abdulazizov // On the Thermodynamics of a Two-Dimensional Electron Gas with Non-Parabolic Dispersion // World Journal of

Condensed Matter Physics, 2016, **6**, 294-299, Published November 17, 2016

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

R.Aliev
E.Muxtarov
M.Nosirov
Andijon davlat universiteti

UDK 621.782

KUKUNLI TEXNOLOGIYA ASOSIDA OLINGAN POLIKRISTALL KREMNIY PLASTINALARINING SOLISHTIRMA QARSHILIGINI SINTERLASH PARAMETRLARIGA BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. *Maqolada kukunli texnologiya asosida polikristall kremniy plastinalar ishlab chiqarishning o‘ziga xosliklari ko‘rib chiqildi hamda olingan na’munalar solishtirma qarshiligining sinterlash temperaturasi, vaqti va namuna qalinligiga bog‘liqligi bo‘yicha olingan tajriba natijalari “Eng kichik kavdratlar” usuli yordamida qayta ishlandi va bu bog‘liqliklarni tavsiflovchi yangi ifoda olindi. Olingan ifoda bu kattaliklardan ixtiyoriy bittasi o‘zgarmas bo‘lganda, qolgan ikkitasini optimal tanlashga, shuningdek, bu kattaliklardan ixtiyoriy ikkitasi o‘zgarmas bo‘lganda, solishtirma qarshilikning uchinchi kattalikka bog‘liqligini nazariy tahlil qilishga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: *polikristall kremniy, kukunli texnologiya, solishtirma qarshilik, sinterlash vaqti, sinterlash temperaturasi, eng kichik kvadratlar usuli.*

Р.Алиев
Э.Мухтаров
М.Носиров
Андижанский государственный университет

ЗАВИСИМОСТЬ УДЕЛЬНОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ КРЕМНИЕВЫХ ПЛАСТИН, ПОЛУЧЕННЫХ НА ОСНОВЕ ПОРОШКОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ ОТ ПАРАМЕТРОВ СПЕКАНИЯ

Аннотация. *В статье рассмотрены особенности производства пластин поликристаллического кремния на основе порошковой технологии, а также экспериментальные результаты по зависимости удельного сопротивления полученных образцов от температуры, времени и толщины образцов обработаны с использованием метода «наименьших квадратов» и получено новое выражение, описывающее эти зависимости. Полученное выражение позволяет оптимально выбрать оставшиеся две величины, когда любая из этих величин постоянна, а также провести теоретический анализ зависимости удельного сопротивления от третьей величины, когда любые две из этих величин постоянны.*

Ключевые слова: *поликристаллический кремний, порошковая технология, удельное сопротивление, время спекания, температура спекания, метод наименьших квадратов.*

R.Aliyev
E.Mukhtarov
M.Nosirov
Andijan State University

DEPENDENCE OF THE SPECIFIC RESISTANCE OF POLYCRYSTALLINE SILICON WAFERS PRODUCED BY POWDER TECHNOLOGY ON SINTERING PARAMETERS

Abstract. *The article discusses the features of the production of polycrystalline silicon wafers based on powder technology, and the experimental results on the dependence of the specific resistance of the obtained samples on temperature, time and thickness of the samples are processed using the “least squares” method and a new expression is obtained that describes these dependencies. The obtained expression allows you to optimally select the remaining two values, when any of these values is constant, as well as to conduct a theoretical analysis of the dependence of the specific resistance on the third value, when any two of these values are constant.*

Keywords: *polycrystalline silicon, powder technology, specific resistance, firing time, firing temperature, least squares method.*

Kirish

Ma'lumki, polikristall kremniy (PK) donadorliklar deb ataluvchi ko'plab mayda kremniy kristallaridan tashkil topgan materialdir. Polikremniy o'zining noyob xususiyatlari va monokristall kremniyga nisbatan kam ishlab chiqarish xarajatlari tufayli yarimo'tkazgichlar va quyosh energetikasi sohalarida muhim material hisoblanadi. Erishilgan yutuqlarga qaramay, PK ishlab chiqarish texnologik, ekologik, iqtisodiy va xavfsizlik jihatlariga ta'sir qiluvchi bir qancha zamonaviy muammolarga duch kelmoqda [1]. Ilmiy hamjamiyatda PKni quyosh energetikasida qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishdan tortib quyosh panellarining samaradorligi va ularning chidamliligini oshirishgacha bo'lgan keng ko'lamli mavzularni qamrab oladi [2].

Kukunli texnologiyadan foydalangan holda polikristall kremniy plastinalarini ishlab chiqarish bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga olgan murakkab texnologik jarayondir. Bu usul kremniy kukunidan monolit plastinalarni hosil qilish uchun foydalanishga asoslangan bo'lib, keyinchalik ular turli yarimo'tkazgichli qurilmalar, jumladan quyosh batareyalari ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkin [3].

Shuning uchun kukunli texnologiya asosida polikristall kremniy ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish, olinayotgan na'munalarning elektrofizik parametrlarini boshqarish va yahshilash shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu ishda kukunli texnologiya asosida polikristall kremniy ishlab chiqarishning o'ziga xosliklari hamda olingan na'munalar solishtirma qarshiligining sinterlash temperaturasiga, vaqtiga va namuna qalinligiga bog'liqligi tadqiq qilinadi.

Nazariya va usullar

Kukunli texnologiyada xom ashyo texnik kremniy bo'lishi mumkin, u elektr yoy pechida uglerod yordamida kremniy oksidini kamaytirish yo'li bilan ishlab chiqariladi. Tozalangan kremniy mayda kukun holiga keltiriladi. Kukun qoliplarga joylashtiriladi va kerakli shakl va o'lchamdagi na'munalar hosil qilish uchun yuqori bosim ostida presslanadi. Bosilgan na'munalar oksidlanishining oldini oladigan muhitda yuqori haroratda pishiriladi. Bu vakuum yoki inert gaz atmosferasi bo'lishi mumkin. Sinterlash jarayonida kukun zarralari monolitik strukturani hosil qilish uchun birlashadi [4].

Kremniyni sinterlash yuqori haroratlarda amalga oshiriladi, bu esa kerakli materialning xususiyatlariga va qo'llanilishiga qarab 1000-1400°C ga yetishi mumkin. Sinterlash haroratida ushlab turish vaqti o'zgarib turadi va bir necha daqiqadan bir necha soatgacha bo'lishi mumkin. Bu vaqt namunalar hajmiga, haroratga va boshqa omillarga bog'liq. Sinterlash jarayoni tugagandan so'ng, material sovutiladi. Sovutish tezligi yorilish yoki boshqa nuqsonlarning oldini olish uchun nazorat qilinadi [5].

Sinterlashning asosiy mexanizmi atomlarning tarqalishi bo'lib, bu kukun zarralarining birlashishiga va g'ovaklikning pasayishiga olib keladi. Material siqilib, donador tuzilish hosil bo'ladi. Sinterlash jarayonida materialning umumiy g'ovakligi pasayadi, bu zichlikning oshishiga hamda mexanik va elektr xususiyatlarining yaxshilanishiga olib keladi. Atomlar donadorlik chegaralari bo'ylab harakatlanadi, bu esa donadorlikning o'sishiga yordam beradi va kristall tuzilishini yaxshilaydi.

Issiqlik bilan ishlov berish haroratiga qarab kukun texnologiyasi bilan olingan polikristall kremniydagi donadorliklarning o'sishi uning fizik va elektr xususiyatlariga ta'sir qiluvchi muhim jihatdir. Ushbu jarayon odatda bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– boshlang'ich bosqichda dastlabki issiqlik bilan ishlov berish paytida dastlabki donadorliklarning shakllanishi sodir bo'ladi. Kichik donadorliklar materialdagi atomlarning tarqalishi tufayli o'sishni boshlaydi;

– o'sish bosqichida harorat ortishi bilan donadorlikning o'sish tezligi oshadi. Bu donadorlik chegaralari bo'ylab atomlarning diffuziya tezligining ortishi va ularning faollashuv energiyasining pasayishi bilan bog'liq. Donadorliklar o'sib, bir-biri bilan o'zaro ta'sir qila boshlaydi;

– birlashish bosqichida donadorliklar kattaroq kristallar hosil qilish uchun birlasha boshlaydi va donadorlik chegaralari sonini kamaytiradi. Bu kristal tuzilishini yaxshilaydi va g'ovaklikni kamaytiradi;

– stabilizatsiya bosqichida donadorliklar oxirgi hajmiga yetadi va o'sish ahamiyatsiz bo'ladi. Stabilizatsiya jarayoni ma'lum sharoitlarda yangi fazalarning shakllanishi va donadorlik hajmining oshishini o'z ichiga olishi mumkin.

Donadorlik chegaralari zaryad tashuvchilar harakati uchun to'siqlar yaratadi. Sinterlash harorati bu to'siqlarning balandligi va kengligiga ta'sir qiladi. Optimal sharoitlarda to'siq balandligi minimallashtiriladi, bu esa solishtrima qarshilikni kamaytiradi. Qotishma elementlarning donadorlik chegaralari bo'ylab tarqalishi ham qarshilikka ta'sir qiladi. Sinterlash haroratining ortishi aralashmalarning bir tekis taqsimlanishiga va aralashmalar kontsentratsiyasining pasayishiga yordam beradi. Sinterlash haroratining ortishi aralashmalarning yanada bir xil taqsimlanishiga yordam beradi, bu aralashmalarning konsentratsiyasi va turiga qarab qarshilikni kamaytirishi yoki oshirishi mumkin.

Olinayotgan namunalarning optimal parametrlarini tanlash uchun tajriba natijalarini qayta ishlashda "Eng kichik kvadratlar" usulidan foydalanamiz [6,7]. Ma'lumki, bu usulda tajribada ikki fizik kattalik uchun (x_i, y_i) olingan natijalar nazariy jihatdan chiziqli bog'langan bo'lsa, ya'ni

$$y^n = A + Bx \qquad (1)$$

qonun bo‘yicha bog‘langan bo‘lsa, shunday A va B koeffitsiyentlarni topish kerakki, nazariy va tajribada olingan y_i lar bir-biriga eng yaqin bo‘lsin. Buning uchun o‘rtacha kvadratik hatolik

$$\chi^2 = \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N}(y_i - y_i^n)^2 = \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N}(y_i - A - Bx_i)^2 \quad (2)$$

minimal qiymatga ega bo‘lishi, ya’ni

$$\begin{cases} \partial\chi^2/\partial A = 0, \\ \partial\chi^2/\partial B = 0 \end{cases} \quad (3)$$

shartlar bajarilishi kerak. Agar (2) ifodani (3) ga qo‘ysak va hosil bo‘lgan tenglamalar sistemasini yechsak, A va B koeffitsiyentlarni aniqlash uchun quyidagi ifodalar hosil bo‘ladi:

$$\begin{cases} A = \frac{\sum y_i \sum x_i^2 - \sum x_i \sum x_i y_i}{N\sum x_i^2 - (\sum x_i)^2} \\ B = \frac{\sum y_i - NA}{\sum x_i} \end{cases} \quad (4)$$

Bu usul tajriba natijalari orasidagi bog‘lanishlarga asosan nazariy y_i larning ixtiyoriy ko‘rinishi uchun umumlashtirilishi mumkin.

Asosiy natijalar va muhokamalar

Polikristall kremniy plastinalari solishtirma qarshiligining belgilangan haroratda issiqlik bilan ishlov berish davomiyligiga kuchli bog‘liq. Ishlov berish davomiyligini oshirish qotishma aralashmalari va kristall strukturasidagi nuqsonlarning tarqalishini kuchaytiradi. Bu aralashmalarning yanada bir xil taqsimlanishiga olib keladi va nuqtaviy nuqsonlar kontsentratsiyasini kamaytirishi mumkin. Ishlov berish vaqti ortgani sari donadorlikning o‘sishi va mayda donadorliklarning kattaroqlarga birlashishi sodir bo‘ladi. Bu qarshilikni kamaytiradigan donadorlik chegaralari sonining qisqarishiga olib keladi. Shuningdek, u g‘ovaklikni kamaytirishga va materialning zichligini oshirishga yordam beradi, bu uning o‘tkazuvchanligiga ijobiy ta’sir qiladi, ya’ni zaryad tashuvchilarni ushlab turishi mumkin bo‘lgan ba’zi nuqsonlarni rekombinatsiya qilish va olib tashlash imkonini beradi, natijada na’munaning solishtirma qarshiligi kamayadi.

Solishtirma qarshilikning sinterlash vaqtiga (davomiyligiga) bog‘liqligini tekshirish maqsadida tajribada quyidagi natijalar olindi:


t, soat	0.17	0.33	0.5	0.67	0.83	1.0	117	1.33	1.5	1.67	1.83	2.0
ϱ, Om·sm	6	4	3	2	1.4	1.0	1.1	1.5	1.8	2.2	2	1

Solishtirma qarshilikning sinterlash vaqtiga bog‘liqligini

$$\rho(t) = \rho_0 \sum_{i=0}^{n} a_i t^i \quad (5)$$

ko‘rinishda faraz qilamiz va ρ_0, a_i noma’lum koeffitsiyentlarni aniqlash uchun “Eng kichik kvadratlar” usulidan foydalanamiz. Dastlabki hisob-kitoblar n=3 bo‘lganda bu ifoda tajriba natijalarini yahshi tavsiflashini ko‘rsatmoqda. n=3 bo‘lgan hol uchun dastlabki hisob-kitob natijalari 1-rasmda va 1-jadvalda keltirilgan.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, nazariy hisoblangan natijalar tajriba natijalariga juda yaqin. Buni 1-jadvaldagi o‘rtacha kvadratik hatolik (χ^2=0.022) ning qiymatidan ham ko‘rish mumkin.



1-rasm. Solishtirma qarshilikning sinterlash vaqtiga bog‘liqligi.
Nuqtalar – tajriba natijalari, uzluksiz chiziq – nazariy hisoblangan natijalar.

1-jadval. ρ_0, a_i koeffitsiyentlarning “Eng kichik kvadratlar” usuli yordamida olingan qiymatlari

n	a_0	a_1	a_2	a_3	χ^2
3	8.53	-18.58	21.3	-18.27	0.022

Yupqa plastinalar issiqlik va aralashmalarning tarqalishining yuqori tezligiga ega, bu esa issiqlik bilan ishlov berish jarayonida tezroq muvozanat holatiga olib kelishi mumkin. Bu qalinroq plastinalarga nisbatan qarshilikning tezroq pasayishiga olib kelishi mumkin. Qalinroq plastinalar uchun muvozanatga erishish jarayoni sekinroq bo‘lishi mumkin, natijada uzoq issiqlik bilan ishlov berishda qarshilik asta-sekin o‘zgaradi.

Solishtirma qarshilikning plastina qalinligiga bog‘liqligini tekshirish maqsadida tajribada quyidagi natijalar olindi

d, mm	0.5	1.0	1.5	2.0	2.5
ϱ, Om·sm	2	1	2	4	5


Solishtirma qarshilikning plastina qalinligiga bog‘liqligini ham

$$\rho(d) = \rho_0 \sum_{i=0}^{n} a_i d^i \quad (6)$$

ko‘rinishda faraz qilamiz va ρ_0, a_i noma’lum koeffitsiyentlarni aniqlash uchun “Eng kichik kvadratlar”

usulidan foydalanamiz. n=3 bo‘lgan hol uchun dastlabki hisob-kitob natijalari 2-rasmda va 2-jadvalda keltirilgan.

2-rasmdan va 2-jadvaldan nazariy hisoblangan natijalar tajriba natijalariga juda yaqinligi, n=3 bo‘lganda o‘rtacha kvadratik hatolik (χ^2=0.022) ning qiymati eng kichik bo‘lishi ko‘rinib turibdi.



2-rasm. Solishtirma qarshilikning plastina qalinligiga bog‘liqligi.
Nuqtalar – tajriba natijalari, uzluksiz chiziq – nazariy hisoblangan natijalar.

2-jadval. ρ_0, a_i koeffitsiyentlarning “Eng kichik kvadratlar” usuli yordamida olingan qiymatlari

n	a_0	a_1	a_2	a_3	χ^2
3	6.8	-14.29	10.43	-2.0	0.023

Yuqori sinterlash haroratida materialning yuqori kristallanish darajasiga erishiladi, strukturadagi nuqsonlar minimallashtiriladi va yaxshi o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan monolitik struktura hosil bo‘ladi. Zaryad tashuvchilarning harakatchanligi maksimal darajaga yetadi, chunki donadorlik chegaralari tashuvchilarni ushlab turish va tarqalish nuqtai nazaridan kamroq faollashadi. Materialning tuzilishidagi nuqsonlar va bo‘shliqlar soni sezilarli darajada kamayadi, bu esa o‘tkazuvchanlikni yaxshilaydi.

Sinterlash harorati oshishi bilan polikristall kremniyning donadorlik hajmi ortadi. Kattaroq donadorliklar donadorlik chegaralarining zichligi pastroq bo‘lib, bu chegaralarda zaryad tashuvchilarning tarqalishini kamaytiradi va ularning harakatchanligini oshiradi. Yuqori sinterlash harorati zaryad tashuvchilarni ushlab turadigan va ularning harakatchanligini kamaytiradigan vakansiyalar va oraliq atomlar kabi nuqtaviy nuqsonlar sonini kamaytirishga yordam beradi. Donadorlik chegaralari zaryad tashuvchilarning harakatiga to‘siq bo‘lishi mumkin. Yuqori sinterlash harorati donadorlikning tiklanishi va o‘sishi tufayli donadorlik chegaralarida to‘siqlar balandligini kamaytirishga yordam beradi.

Sinterlash harorati alohida kremniy donadorliklarining bir-biriga qanchalik mahkam va samarali bog‘langanligini aniqlaydi, shuningdek, donadorlik chegaralaridagi nuqsonlar soni va turiga ta’sir qiladi. Sinterlash harorati oshishi bilan kremniy donadorliklari kattalashadi. Bu zaryad tashuvchilar o‘tishi kerak bo‘lgan donadorlik chegaralari sonini kamaytiradi va donadorlik chegaralaridagi potentsial to‘siqlarning ta’sirini kamaytiradi. Yuqori sinterlash harorati kremniy strukturasidagi dislokatsiyalar va bo‘sh joylar kabi nuqsonlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu nuqsonlarda zaryad tashuvchilarning tarqalishi va rekombinatsiyasining pasayishiga olib keladi. Yuqori sinterlash haroratida donadorlik chegaralari va zaryad tashuvchilarni ushlashga qodir bo‘lgan faol markazlar kamroq bo‘ladi. Past sinterlash haroratida nuqsonlar va g‘ovaklarning yuqori zichligi tufayli ρ odatda yuqori bo‘ladi. Sinterlash haroratining oshishi bilan ρ pasayadi, optimal sinterlash haroratida minimal nuqtaga yetadi, shundan so‘ng u donadorlikning haddan tashqari o‘sishi va yangi nuqsonlarning paydo bo‘lishi tufayli o‘sishni boshlaydi.


Solishtirma qarshilikning sinterlash temperaturasiga bog‘liqligini tekshirish maqsadida tajribada quyidagi natijalar olindi

T, ^{0}C	1000	1050	1100	1150	1200	1250	1300	1350
ϱ, Om·sm	11	8	5	3	1.8	1	1.2	2

Solishtirma qarshilikning temperaturaga bog‘liqligini

$$\rho(T) = \rho_0 \sum_{i=0}^{n} a_i T^i \qquad (7)$$

ko‘rinishda faraz qilamiz va ρ_0, a_i noma’lum koeffitsiyentlarni aniqlash uchun “Eng kichik kvadratlar” usulidan foydalanamiz. Dastlabki hisob-kitoblar bu tajribada ham n=3 bo‘lganda (3) ifoda tajriba natijalarini yahshi tavsiflashini ko‘rsatdi. n=3 bo‘lgan hol uchun dastlabki hisob-kitob natijalari 3-rasmda va 3-jadvalda keltirilgan.



3-rasm. Solishtirma qarshilikning sinterlash temperaturasiga bog‘liqligi.
Nuqtalar – tajriba natijalari, uzluksiz chiziq – nazariy hisoblangan natijalar.

3-jadval. ρ_0, a_i koeffitsiyentlarning “Eng kichik kvadratlar” usuli yordamida olingan qiymatlari

n	a_0	a_1	a_2	a_3	χ^2

3	140.67	-0.135	$-4.7\cdot10^{-5}$	$-5.25\cdot10^{-8}$	0.035

3-rasmdan va 3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, (7)-ifodada n=3 bo‘lganda nazariy hisoblangan natijalar tajriba natijalariga juda yaqin bo‘ladi. Bunda o‘rtacha kvadratik hatolikning qiymati χ^2=0.035 ga teng bo‘ladi.

Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, solishtirma qarshilik sinterlash vaqti (davomiyligi), sinterlash harorati va plastina qalinligining kubiga bog‘liq. Shuning uchun solishtirma qarshilikni quyidagicha ifodalash mumkin

$$\rho(y) = \rho_0 \sum_{i=0}^{3} a_i y^i = \rho_0 \sum_{i=0}^{3} a_i \left(\frac{tT}{d}\right)^i \quad (8)$$

Bu yerda *t*- sinterlash vaqti (davomiyligi), soat; *T*- sinterlash temperaturasi, ºC; *d*- plastina qalinligi, mkm.

(8)-ifodani n=3 bo‘lgan hol uchun quyidagicha qayta yozamiz

$$\rho(y) = \rho_0(a_0 + a_1 y + a_2 y^2 + a_3 y^3) \quad (9)$$

Bu ifodaning “*y*” ning funksiyasi sifatida differensial tahlili

$$\rho'(y) = 3a_3 y^2 + 2a_2 y + a_1 = 0$$

shartdan

$$y_{1,2} = \frac{-a_2 \pm \sqrt{a_2{}^2 - 3a_1 a_3}}{3a_3} \quad (10)$$

nuqtalarda $\rho(y)$ funksiya kritik qiymatlarga, ya’ni y_1=0.964 nuqtada minimum, y_2=1.635 nuqtada maksimumga erishishini ko‘rsatdi.

Demak,


$$0.964 = \frac{tT}{d} \quad (11)$$

ifoda (shart) *t*, *T* va *d* kattaliklardan ixtiyoriy bittasi o‘zgarmas bo‘lganda, qolgan ikkitasini qanday tanlashga imkon beradi. Ya’ni

T=const bo‘lganda *t*/*d*=const;
t=const bo‘lganda *T*/*d*=const;
d=const bo‘lganda *tT*=const.

Shuningdek, (8)-(9) ifodalar *t*, *T* va *d* kattaliklardan ixtiyoriy ikkitasi o‘zgarmas bo‘lganda, solishtirma qarshilikning uchinchi kattalikka bog‘liqligini nazariy tahlil qilishga imkon beradi.


4-rasmda plastina qalinligi *d* (0.8 mm, 1 mm, 1.2 mm) o‘zgarmas bo‘lganda va sinterlash vaqti *t* ning turli qiymatlarida solishtirma qarshilikning sinterlash temperaturasiga bog‘liqligi keltirilgan. 4-a-rasmdan ko‘rinib turibdiki, d=0.8 mm bo‘lganda t=0.8 va 1 soat sinterlash vaqtlarida solishtirma qarshilik sinterlash temperaturasiga to‘g‘ri proporsional, t=1.2 va 1.4 soat sinterlash vaqtlarida esa sinterlash temperaturasiga teskari proporsional bo‘ladi. 4-b-rasmdan ko‘rinib turibdiki, d=1 mm va sinterlash vaqti 0.8 soat bo‘lganda solishtirma qarshilik T=1200 ºC sinterlash temperaturasida minimal qiymatga erishadi, sinterlash vaqti 1-1.4 soat bo‘lganda esa sinterlash temperaturasiga proporsional ravishda ortib boradi. 4-v-rasmdan ko‘rininb turibdiki, d=1.2 mm va sinterlash vaqti 0.8 soat bo‘lganda solishtirma qarshilik sinterlash temperaturasiga teskari proporsional, sinterlash vaqti 1.2-1.4 soat bo‘lganda esa sinterlash temperaturasida proporsional bo‘ladi, sinterlash vaqti 1 soat bo‘lganda T=1150 ºC sinterlash temperaturasida solishtirma qarshilik minimal qiymatga erishadi.



4-rasm. Turli qalinliklarda va turli sinterlash vaqtlarida plastina solishtirma qarshiligining sinterlash temperaturasiga bog‘liqligi.

5-rasmda plastina qalinligi *d* (0.8 mm, 1 mm, 1.2 mm) o‘zgarmas bo‘lganda va sinterlash temperaturasi *T* ning turli qiymatlarida solishtirma qarshilikning sinterlash vaqtiga bog‘liqligi keltirilgan. 5-a-rasmdan ko‘rinib turibdiki, d=0.8 mm bo‘lganda solishtirma qarshilik T=1000 va 1100 ºC sinterlash temperaturalarida sinterlash vaqti 0.8 soat bo‘lganda, T=1200 va 1300 ºC sinterlash temperaturalarida sinterlash vaqti 0.6 soat bo‘lganda minimal qiymatga erishadi. 5-b-rasmdan d=1 mm bo‘lganda solishtirma qarshilik T=1000 ºC sinterlash temperaturasida sinterlash vaqti 0.8 soat bo‘lganda, T=1100-1300 ºC sinterlash temperaturalarida sinterlash vaqti 1 soat bo‘lganda minimal qiymatga erishishi kelib chiqadi. 5-v-rasmdan ko‘rinib turibdiki, d=1.2 mm bo‘lganda solishtirma qarshilik T=1000 ºC sinterlash temperaturasida sinterlash vaqti 1.2 soat bo‘lganda, T=1100 va 1200 ºC sinterlash temperaturalarida sinterlash vaqti 1 soat bo‘lganda hamda T=1300 ºC sinterlash

temperaturasida sinterlash vaqti 0.8 soat bo‘lganda minimum qiymatga erishadi.



5-rasm. Turli qalinliklarda va turli sinterlash temperaturalarida plastina solishtirma qarshiligining sinterlash vaqtiga bog‘liqligi.

Xulosa

Shunday qilib, ushbu ishda kukunli texnologiya asosida polikristall kremniy ishlab chiqarishning o‘ziga xosliklari hamda olingan na’munalar solishtirma qarshiligining sinterlash temperaturasi, vaqti va namuna qalinligiga bog‘liqligi bo‘yicha tajriba natijalari “Eng kichik kavdratlar” usuli yordamida tadqiq qilindi.

Plastinalar solishtirma qarshiligining sinterlash temperaturasi, vaqti va namuna qalinligiga bog‘liqligini tavsiflovchi yangi yagona ifoda olindi. Mazkur ifoda bu kattaliklardan ixtiyoriy bittasi o‘zgarmas bo‘lganda, qolgan ikkitasini qanday tanlashga imkon beradi. Ya’ni, sinterlash vaqti o‘zgarmas bo‘lganda sinterlash temperaturasining plastina qalinligiga nisbati o‘zgarmas; sinterlash temperaturasi o‘zgarmas bo‘lganda sinterlash vaqtining plastina qalinligiga nisbati o‘zgarmas; plastina qalinligi o‘zgarmas bo‘lganda sinterlash temperaturasining sinterlash vaqtiga ko‘paytmasi o‘zgarmas bo‘ladi. Shuningdek, mazkur ifoda bu kattaliklardan ixtiyoriy ikkitasi o‘zgarmas bo‘lganda, solishtirma qarshilikning uchinchi kattalikka bog‘liqligini nazariy tahlil qilishga imkon beradi.

Bu yerda keltirilgan natijalar kelgusida ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilarga kukunli texnologiya asosida polikristall kremniy olish va uning parametrlarini optimallashtirishda foydalanilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. C.Becker and others. Polycrystalline silicon thin-film solar cells: Status and perspectives. Solar Energy Materials and Solar Cells. Volume 119, December 2018, p. 112-123. https://doi.org/10.1016/j.solmat.2013.05.043

2. Некрасов А. В., Наумов А. В. Перспективы рынка поликристаллического кремния. Известия вузов. Материалы электронной техники. 2019. Т. 17, № 4. С.233-239.

3. Dheeraj Sah and others. Growth and analysis of polycrystalline silicon ingots using recycled silicon from waste solar module. Solar Energy Materials and Solar Cells. Volume 261, 1 October 2023, https://doi.org/10.1016/j.solmat.2023.112524

4. Aliev R, Abdurahmanov B.M, Olimov L, Mukhtarov E. (2005) Technology of obtaining and electrophysical properties of polycrystalline silicon wafers for solar cells. Applied Solar Energy 3: 79-82.

5. Aliev R., Mukhtarov E. Influence of Technological Modes of Obtaining of Silicon Wafers on their Electro Physical Properties. Aspects Min Miner Sci. 12(3). AMMS. 000787. 2024. DOI: 10.31031/AMMS.2024.12.000787

6. Alieva Zh., Mukhtarov E., Nosirov M. The Thermal Conductivity of Solar_Cell Wafers Molded from a Powdered Stock // Applied solar energy Vol. 50 № 2, 2014, p.110-112.

7. Насиров М. Метод наименьших квадратов на основе “Mobile Basic” // Universuim: Технические науки, № 1(82), 2021, с.11-14.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Ernazarov Shamsiddin Norchayevich
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, dotsent v.b.
email: sh.ernazarov@list.ru

FLUORIMETRIK USULDA O‘SIMLIK NAVLARINING VILTGA CHIDAMLILIGINI ANIQLASH

Annotatsiya: *Paxta o‘simligi navlari ustida o‘tkazilgan tajribalar asosida o‘simlikning morfologik ko‘rsatgichlari bilan barglarning fluoressent nurlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Sun’iy ravishda vilt zamburug‘i bilan kasallantirilgan va mineral ozuqa yetishmochiligida yetishtirilgan o‘simlik barglarida indutsirlangan-lazer fluoressensiyasi spektrlari shaklidagi sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Spektral o‘zgarishlar kasallanishning tashqi belgilari paydo bo‘lmasdan ancha oldin qayd qilinishi ushbu usul o‘simliklardagi stress holatlarni erta aniqlash imkonini yaratishi mumkinligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *lazer, fluoressensiya, spektr, paxta o‘simligi, fotosintetik apparat, xlorofill.*

Эрназаров Шамсиддин Норчаевич
Ташкентский химико-технологический институт, и.о.доцента

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВИЛТО-УСТОЙЧИВОСТИ РАСТЕНИЙ МЕТОДОМ ФЛУОРЕМЕТРИИ

Аннотация: *На основании экспериментов, проведённых на сортах хлопчатника, установлена связь между морфологическими характеристиками растения и флуоресцентным излучением листьев. Значительные изменения в характере спектров индуцированной лазерной флуоресценции наблюдались в листьях растений, искусственно заражённых грибком вилта и выращенных в условиях дефицита минеральных элементов питания. Показано, что данный метод позволяет на ранних стадиях выявлять стрессовые состояния растений, поскольку спектральные изменения можно обнаружить задолго до появления внешних признаков заболевания.*

Ключевые слова: *лазер, флуоресценция, спектр, хлопчатник, фотосинтетический аппарат, хлорофилл.*

Shamsiddin Ernazarov
Tashkent Institute of Chemical Technology, prof. assistant

DETERMINATION OF WILTO RESISTANCE OF PLANTS BY FLUOREMETRY

Abstract: Based on experiments conducted on cotton varieties, a relationship was established between the morphological characteristics of the plant and the fluorescent radiation of the leaves. Significant changes in the nature of the spectra of induced laser fluorescence were observed in the leaves of plants artificially infected with the wilt fungus and grown under conditions of deficiency of mineral nutrients. It was shown that this method allows for the early detection of stress conditions in plants, since spectral changes can be detected long before the appearance of external signs of the disease.

Key words: laser, fluorescence, spectrum, cotton plant, photosynthetic apparatus, chlorophyll.

Kirish.


Hozirgi kunda lazer texnikasi yutuqlari hamda sezgir o‘lchov uskunalari birgalikda qo‘llash, o‘simliklarning fotosintetik apparatida sodir bo‘ladigan birlamchi jarayonlarni o‘rganish uchun noyob imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, lazer spektroskopiyasi yordamida o‘simliklarning fiziologik holatini tashhis qilishning noyob usuli sifatida foydalanish imkonini beradi. Atrof-muhitdagi ekologik vaziyatni nazorat qilish va o‘simliklar dunyosi holatini monitoring o‘tkazishda turli uchish vositalarida o‘rnatilgan optik qurilmalar yordamida masofadan zondlash eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda [1]. Lazer nurining yuqori darajadagi monoxromatliligi, o‘rganilayotgan ob’ektga aniq yo‘naltirilishi mumkinligi, hamda ob’ekt atomlarini selektiv qo‘zg‘atilishi orqali ayni unga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarnigina qayd qilish imkonini berishi, bu usulning passiv zondlash, ya’ni quyosh nurlari sochilishini qayd etuvchi fotometriya usullariga qaraganda bir qator afzalikka ega ekanligini ko‘rsatdi [2].

Bizning mamlakatimiz uchun paxta va boshqa o‘simliklar holatini masofadan turib ekspress diagnostikalash, ularning biomassasini, fiziologik holatini

aniqlash, hosildorligini bashorat qilish, mineral oziqlantirish, turli kasallanishlarning oldini olish, suv resurslaridan samarali foydalanish kabi ilmiy-amaliy masalalarni hal qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada lazer nurlari ta'sirida o'simlik bargidan chiqariladigan ikkilamchi nurlanish spektrlaridan qayd qilish asosida o'simliklarning holatini aniqlash va ularning fotosintetik apparatining ishlash mexanizmlarini tahlil qilish alohida qiziqish uyg'otadi. Bu tadqiqotlar uyg'ongan xlorofill molekulalaridan fluoressent nurlanish tarzida chiqayotgan energiya bilan elektronlarning xujayra tilakoidlaridagi zanjir bo'ylab ko'chishi va energiya uzatilishi bilan bog'liq fizik jarayonlarni chuqurroq tushunish uchun asos bo'ladi [3]. Fluoressent nurlanishning spektral shakli va fotosintetik apparatning ishlashi o'rtasida mavjud bog'liqlikni aniqlash masofaviy o'lchov natijalarini to'g'ri talqin qilish uchun ham zarurdir.

Tajriba natijalari

Laboratoriya tajribalari 1-rasmda keltirilgan «OSA-WP-4» rusumidagi ko'p kanalli optik spektroanalizator yordamida amalga oshirildi. Nurlanishni uyg'otish manbasi sifatida takrorlanish chastotasi 50÷100 *Gs.*, impulsning davomiyligi 6-8 *ns* bo'lgan LGI-505 (λ=337 *nm*) rusumidagi azot lazeridan foydalanildi.




1-rasm. Spektral qurilmaning tuzilishi
1-lazer LGI-505 (λ=337 *nm*),2-svetofiltr,3-difraksion panjara,4-ko'zgu,
5-diafragma, 6-sochuvchi linza,7-o'simlik bargi,8-sferik ko'zgu,9-linza,
10-polixromator VM-25/25,11-kamera ISIT-500,12-kompyuter, 13-displey.

Laboratoriya sharoitida yetishtirilgan paxta navlari ustida o'tkazilgan tajribalar spektral parametr (*K*) bilan ko'chatlarning morfologik ko'rsatgichlari o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi (1-jadval).


1-jadval

O'simlik holati	Tajriba №	Xlorofill miqdori(*mkg*)			O'sim. o'rtacha bo'yi (*sm*)	1 o'sim. barglar soni (dona)	*K*
		1 *g*. xom vaznda (*mkg/g*)	1 *dm²* barg yuzasida *mkg/dm²*	Bitta o'simlikda			
Mineral ozuqa yetishmagan	1	2743	3562	5703	13,1	3,5	0,534
	2	2898	3664	6025			0,717
	3	2854	3706	5933			0,561
Normal sharoitdagi	1	3323	4482	9282	16,4	4,1	0,478
	2	3451	4316	9640			0,469
	3	3385	4396	9153			0,461

Sun'iy ravishda vilt *Veticillium dahlaye* (*v.d*) zamburug'i bilan bilan kasallantirilgan paxta o'simligi barglarida indutsirlangan-lazer fluoressensiyasi spektrlarni o'lchash shuni ko'rsatdiki, dastlabki 2 kun davomida sog'lom va zararlangan o'simliklar barglarining flouretsent spektrlarining shakli va intensivligida sezilarli farqlar qayd etilmaydi (2-rasm). Flouretsent spektrlarida birinchi sezilarli farqlar 3- kunda (infeksiyadan 60 soat keyin) kuzatila boshlandi. O'zgarishlar to'lqin uzunligining 735 *nm* sohasidagi maksimumining nisbiy intensivligining pasayishi va keyingi kunlarda muntazam pasayib borishi tarzida namoyon bo'ldi va 685 *nm* dagi asosiy maksimum qiymati o'zgarishsiz saqlandi. Shunisi diqqatga sazovorki, kasallikning yashirin davrining ushbu bosqichida zararlantirilgan o'simliklarning tashqi belgilari sog'lom o'simlikdan farq qilmaydi. Kasallikning sezilarli darajadagi vizual belgilari vilt infeksiyasi yuqtirilgandan keyin faqat beshinchi kuni namoyon bo'la boshladi. Ular xlorozda va barg to'qimalarini qirralari bo'ylab va tomirlar orasida kichik orolchalar shaklida sarg'aygan dog'lar yuzaga kelishi tarzida kuzatildi. O'simlik infeksiyasidan 9-10 kun o'tgach, sarg'aygan joylarning nekrozi va qurishi sodir bo'ldi. Paxta o'simligi kasalligining ushbu vizual belgilari, mikrobiologik tahlil ma'lumotlariga ham to'g'ri kelishi aniqlandi.



2-rasm. Paxta o'simligi bargining fiziologik holatini indutsirlangan-lazer fluoressent spektrlari (uyg'otuvchi to'lqin uzunligi λ = 337 *nm*), *1*-sog'lom barg, *2,3*-vilt bilan sun'iy zararlantirilgandan 48 soat o'tgach, *4*-zararlanishdan 60 soat o'tgach .



3-rasm. Fluoressent nurlanish spektrining o'simlik holatigi bog'liqligi. *1,2,3*-egri chiziqlar sog'lom barglar, *4,5,6*-egri chiziqlar kasallikning tashqi belgilari paydo bo'lgan holat

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tajriba davrida sog'lom o'simliklardagi maksimumlarning shakli va nisbiy intensivligi o'zgarmagan holda, kasallikning vizual belgilari paydo bo'lgan o'simliklarda spektrning formasida keskin o'zgarishi kuzatildi (3-rasm). Bunda 760 *nm* to'lqin uzunligida kuzatilayotgan maksimumi dastlab sog'lom o'simliklar uchun *1,2,3* -egri chiziqlar ko'rinishda bo'lib, kasallikning rivojlanishi bilan u muntazam pasayib, keyinchalik monoton ravishda kamayib boruvchi egri chiziqni hosil qiladi (3-rasm, 4,5,6-egri chiziqlar).

Natijalar tahlili

Ma'lumki, yashil o'simlik barglarida kuzatilayotgan qizil va uzoq qizil diapazonlaridagi fluoressent nurlanishga xlorofill *a* asosiy hissa qo'shadi. Xona haroratida bu spektr ikkita-asosiy 680 ÷ 690 nm (qizil) va 730 ÷ 740 nm (uzoq qizil) diapazonda joylashgan intensivligi nisbatan kamroq maksimumlarga ega. II fotosistema (FS II) fluoressent spektrining qizil diapazondagi deyarli barcha nurlanishni va uzoq qizil diapazondagi nurlanishning katta qismini tashkil qiladi. Fluoressent nurlanishining uzoq-qizil sohasidagi (710-715 nm) emissiyaning faqat kichik bir qismi I fotosistema (FS I) ga tegishli bo'lishi mumkin [4].

FS I hissasining bunday kichik bo'lishi sabablaridan biri quyidagi omillarga bog'liq ekanligi deb taxmin qilinadi: FS I ning reaksiya markazi FS II ga nisbatan chuqurroq energiya "o'rasiga" to'g'ri keladi, shuning uchun antenna kompleksidan *P700* pigmentiga uzatilgan elektronlar deyarli qaytmaydi, natijada yorug'lik yig'uvchi pigmentlarning qo'zg'alish energiyasi fluoressent kvantlariga sarflanishi mumkin emas [5]. Ikkinchi omil sifatida, FS II ning to'g'ridan-to'g'ri elektron qabul qiluvchi reaksiya markazi (RM) xlorofill *a* ning floressensiyasini deyarli to'liq o'chiradi deb taxmin qilishimiz mumkin, chunki zanjir bo'ylab elektronlarni keyingi o'tishiga to'sqinlik qilmaydi. Bundan shuni kutish kerakki, FS II ning faolligi o'zgarganda, uzoq qizil sohadagi fluoressensiya intensivligi o'zgarishi hisobiga $K=I_{740}/I_{690}$ nisbat ham o'zgaradi. Shunday qilib, *K* parametrdan o'simliklarning stress holatini aks ettiruvchi fiziologik ko'rsatkich sifatida foydalanish mumkin [6,7]. Biroq, *K* ning o'lchash natijalarini baholashda FS I va FS II fotosistemalari tomonidan qizil sohadagi (680-690 *nm*) fluoressensiyasining reabsorbsiyasini va uzoq qizil diapazonda (730-740 *nm*) fluoressensiyaning reemissiyasini ham hisobga olish kerak. O'simlik barglaridagi xlorofill konsentratsiyasi qanchalik yuqori va barg qanchalik qalin bo'lsa, reemissiya darajasi kamayib, *K* (I_{740}/I_{690}) nisbat shunchalik yuqori bo'lishi aniqlangan. *K* nisbatning baholash barglardagi xlorofill miqdorini aniqlash uchun ham noinvaziv usul sifatida ishlatish mumkin degan xulosaga kelingan [8].

Lekin mazkur tajribalarda, ya'ni mineral oziqa yetishmasligi xlorofill konsentratsiyasi kamayishiga olib kelsada, *K* (I_{740}/I_{690}) nisbatning qiymati aksincha ortishini kuzatildi (1-jadval). Bu natijani mineral stress sharoitida *P700* da to'plangan energiyaning reaksiya markaziga *RM* uzatilishi qiyinlashib, 740 *nm* sohasida reemissiya darajasi ortishi bilan izohlash mumkin.

Ikkinchi holatda, ya'ni vertitsillyoz so'lish holatida, kasallanish rivojlanishi mobaynida spektrning uzoq qizil (740 *nm*) sohasiga tegishli nurlanishning pasayishi kuzatildi. Bu qonuniyatni vilt kasalligi ta'sirida fotosintezning samaradorligi susayishi va buning oqibatida yutilgan energiyaning asosiy qismi reemissiyaga sarflanib, asosiy maksimum (680 *nm*) dagi fluoressent nurlanishning nisbiy ulushi ortishi bilan izohlash mumkin.

Xulosa

Tajribalar natijasida sog'lom va kasal o'simliklarga mos keladigan fluoressent spektrlarning shaklida aniq farqlar mavjudligi aniqlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'simliklarning patologik holati kasallikning vizual belgilari kuzatilmasa ham, yashirin kechayotgan o'zgarishlar fluoressent spektrlarda yaqqol namoyon bo'lishi kuzatildi.

Olingan natijalar tashqi omillar ta'sirida *K* parametri yoki spektrdagi siljishlarni faqat xlorofill molekulalari konsentratsiyasining siljishlarini hisobga olgan holda talqin qilishning o'zi yetarli emasligini ko'rsatdi. Spektral o'zgarishlar o'simlikning fotosintetik apparatida tashqi ta'sirlar tufayli yuzaga keladigan konformatsion siljishlar tufayli oqsil va xromoform o'rtasidagi nozik munosabatlarni o'zgarishi [9] natijasi bo'lishi mumkinligini e'tiborga olsak, har bir stress holat uchun alohida izlanishlar olib borish kerakligini e'tirof etish lozim.

Shu bilan birga, olingan dastlabki natijalar fluoressent spektroskopiya usuli vositasida o'simliklarda turli salbiy omillar ta'sirida yuzaga keladigan patologik o'zgarishlarni erta aniqlash imkonini ko'rsatadi. Bu esa tegishli agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida qo'llash imkonini yaratadi va xususan, viltga chidamli paxta navlari seleksiyasida tanlov muddatlarini keskin qisqartirishga erishilishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabyotlar

1.Федотов Ю.В., Булло О.А., Белов М.Л., Городничев В.А. Дистанционный лазерный флуориметр для обнаружения стрессовых состояний растительности // Радиооптика, МГТУ им. Н.Э.Баумана. Электрон.журн. 2017. « 01. С. 1-13.

2. Маслов Д.В., Фадеев В.В., Литвинов П.Н. Трёхпараметрическая модель формирования флуоресцентного отклика фотосинтезирующих организмов при импульсным лазерном возбуждении // Вестн. МГУ. Сер. 3. 2002. № 1. С.34-37.

3. Erkin Zakhidov, Sherzod Nematov, Vakhobjon Kuvondikov. Monitoring of the drought tolerance of various cotton genotypes using chlorophyll fluorescence. Applied Photosynthesis: New Progress. - 2016. 91-110.

4. Henriques F.S. Leaf Chlorophyll Fluorescence: Background and Fundamentals for Plant Biologists // Bot. Rev. – 2009. – Vol. 75. – P. 249–270.

5. Govindjee. Sixty-three years since Kautsky: Chlorophyll fluorescence // Aust. J. Plant. Physiol. – 1995. – Vol. 22. – P. 131–160.

6. Agati G., Cerovic Z.G., Moya I. The Effect of Decreasing Temperature up to Chilling Values on the in vivo F685/F735 Chlorophyll Fluorescence Ratio in Phaseolus vulgaris and Pisumsativum: The Role of the Photosystem I Contribution to the 735 nm Fluorescence Band // Photochemistry and Photobiology. –2000.– Vol. 72. – P. 75–84.

7. Lichtenthaller H.K., Rinderle U. The role of chlorophyll fluorescence in the detection of stress conditions in plants // Analyt. Chem. – 1988. – Vol. 19 (Supplement). – P. 29–85.

8. Buschmann C. Variability and application of the chlorophyll fluorescence emission ratio red/far-red of leaves // Photosynth. Res. – 2007. – Vol.92. – P. 261–271.

9. A. Massacci, S.M. Nabiev, L. Pietrosanti, S.K. Nematov, T.N. Chernikova, K. Thor, J. Leipner. Response of the photosynthetic apparatus of cotton (Gossypium hirsutum) to the onset of drought stress under field conditions studied by gas-exchange analysis and chlorophyll fluorescence imaging. Plant Physiology and Biochemistry, - 2008, - Vol. 46 (2). - P. 189-195.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Toxirova Dilshoda Shavkatjanovna
Namangan davlat universiteti magistranti
E-mail:toxirovadilshoda607@gmail.com
Shahobiddinov Bahodir Baxtiyor o'g'li
Namangan davlat universiteti, PhD
E-mail:bahodirshahobiddinov@gmail.com
To'xtabayev Ozodbek Dilshod o'g'li
Namangan davlat universiteti, talaba

MAKTABLARDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktablarda fizika fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qiladi. Virtual laboratoriyalar xavfsizlik, moslashuvchanlik va resurslarni tejash kabi afzalliklarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, virtual laboratoriyalarning haqiqiy tajriba tajribasining o'rnini to'liq tuta olmasligi va texnik muammolar kabi kamchiliklarini ko'rsatib o'tadi. Maqolada virtual laboratoriyalardan o'qitish samaradorligini oshirish uchun qanday strategik ravishda foydalanish mumkinligi muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar. *Fizika, virtual laboratoriya, o'qitish, texnologiya, internet, tajriba, o'qitish usullari, xavfsizlik, samaradorlik, o'quvchilar motivatsiyasi.*

Тохирова Дильшода Шавкатжановна.
Магистрант Наманганского государственного университета
Шахобиддинов Баходир Бахтиёр угли
Наманганского государственного университета, PhD
Тухтабаев Озодбек Дилшод угли
Наманганского государственного университета, студент

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ В ШКОЛАХ

Абстракт. *В данной статье анализируются возможности и ограничения использования виртуальных лабораторий при преподавании физики в школах. Он отмечает, что виртуальные лаборатории имеют такие преимущества, как безопасность, гибкость и экономия ресурсов. В то же время указывается на недостатки виртуальных лабораторий, такие как невозможность полноценно заменить реальный экспериментальный опыт и технические проблемы. В статье обсуждается, как можно стратегически использовать виртуальные лаборатории для повышения эффективности обучения.*

Ключевые слова. *Физика, виртуальная лаборатория, преподавание, технологии, Интернет, опыт, методы обучения, безопасность, эффективность, мотивация учащихся.*

Tokhirova Dilshoda
Master's student of Namangan State University
Shahobiddinov Bahodir
Namangan State uviversity, PhD
Tukhtabayev Ozodbek
student of Namangan State University

USE OF VIRTUAL LABORATORIES IN TEACHING PHYSICS IN SCHOOLS

Abstract. *This article analyzes the possibilities and limitations of using virtual laboratories in teaching physics in schools. He notes that virtual labs have advantages such as security, flexibility, and resource savings. At the same time, it points out the disadvantages of virtual laboratories, such as the inability to fully replace the real experimental experience and technical problems. The article discusses how virtual laboratories can be strategically used to improve teaching effectiveness.*

Keywords. *Physics, virtual laboratory, teaching, technology, internet, experiment, teaching methods, safety, efficiency, student motivation.*

Kirish.

Virtual vaboratoriyalar hozirgi axborotlashgan davrda- o‘quv jarayonida innovatsion usul sifatida keng tarqalmoqda. Virtual laboratoriyalar foydalanuvchilar uchun mavzularni yanada qiziqarli qilish bilan bir qatorda, ularning amaliy va nazariy bilimlarini mustaxkamlash imkonini beradi.

Zamonaviy o‘qitishda texnologiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktablarda fizika fanini o‘qitishda ham virtual laboratoriyalar o‘z o‘rnini egallashmoqda. Ushbu maqola fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning imkoniyatlarini va cheklovlarini tahlil qiladi. Virtual laboratoriyalar fizika fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishi va qanday xavflarga yo‘l qo‘yishi mumkinligini baholaydi.

Fizika fani tabbiy fanlar orasida o‘zining murakkabligi bilan hamda amaliyotga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ta’limda fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalar yangi imkoniyat va qulayliklarni yaratmoqda. Shuningdek, virtual laboratoriyalar o‘quvchilarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirib, ularni jalb qiluvchi tajribalarni taqdim etadi.

Adabiyotlar tahlili

O‘tkazilgan tadqiqotlar virtual laboratoriyalarning ta'lim jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Masalan, Smith o‘z tadqiqotida virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilarning fizikaga bo‘lgan qiziqishi oshganini ta'kidlaydi [1]. Johnson virtual laboratoriyalarning o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi rolini o‘rganadi [2].

Bundan tashqari, Miller virtual o‘quv muhitlarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi, u o‘quvchilarni nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam berishini ko‘rsatadi [3]. Lee va Wong texnologiyaning zamonaviy fizika ta'limidagi o‘rnini o‘rganib, virtual laboratoriyalarni qo‘llash orqali ta'lim jarayonini qanday yaxshilash mumkinligini muhokama qiladilar [4].

Patel o‘z tadqiqotida virtual tajribalar orqali o‘quvchilarni jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun samarali strategiyalarni taqdim etadi [5]. Brown va Green texnologiyalarning ilmiy ta'limga kiritilishi haqida fikr yuritib, virtual laboratoriyalarning o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishini ko‘rsatadi [6].

Carter esa innovatsion ta'lim usullaridan foydalangan holda virtual laboratoriyalarni qanday qilib samarali qo‘llash mumkinligini o‘rganadi [7].

Tadqiqotlar metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlar qo‘llanildi. O‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan intervyular o‘tkazildi, shuningdek, virtual laboratoriyalardan foydalanish bo‘yicha so‘rovnomalar to‘plandi.

Metodologiya qismida qo‘llanilgan usullarni batafsilroq tushuntirib beraman:

Sifatli metodlar:

Intervyular: O‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyular orqali ularning virtual laboratoriyalarni qanday qabul qilishlari, tajribalari va fikrlari to‘g'risida chuqur ma'lumotlar to‘plandi. Bu usul, shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasi, qiziqishi va muammolari haqida ko‘proq tushuncha berishga yordam berdi [8].

Miqdoriy metodlar:

So‘rovnomalar: Virtual laboratoriyalardan foydalanish bo‘yicha so‘rovnomalar tashkil etildi. Bu so‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning tajribalari, virtual laboratoriyalarga bo‘lgan munosabatlari va o‘qitish jarayonidagi samaradorliklari haqida statistik ma'lumotlar yig'ildi. So‘rovnomalar miqdoriy tahlil qilish uchun qulay bo‘lib, o‘quvchilarning fikrlarini keng qamrab olish imkonini berdi [9].

Olingan ma'lumotlar tahlil qilindi va natijalar umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchilar virtual tajribalar orqali nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Virtual laboratoriyalar bu internet orqali va dasturiy ta’minot sifatida mavjuddir. Ular o‘quvchilar hamda foydalanuvchilarga virtual muhitda tajribalarni bajarishga imkon beradi. Bu tajribalar asosan simulyatsiyalashgan jarayon bo‘lib, haqiqiy laboratoriyadagi kabi natija beradi.

Simulyatsiya dasturlari: Fizikaviy jarayonlarni modellashtirish va o‘quvchilarga tajribalarni virtual muhitda o‘tkazish imkonini beradi.

Interaktiv platformalar: O‘quvchilar o‘zaro faoliyatda bo‘lishlari va tajribalarni o‘zlari boshqarishlari mumkin.

Virtual laboratoriyalarning afzalliklari. Xavfsizlik, moslashuvchanlik, vaqt va resurslardan tejash, erishish imkoniyatlari kabi afzalliklar ko‘rib chiqiladi. Virtual laboratoriyalar murakkab eksperimentlarni xavfsiz muhitda bajariladigan o‘qitishni taklif etadi, shuningdek, turli parametrlarni o‘zgartirish va natijalarni o‘rganish imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalarning cheklovlari: Virtual laboratoriyalarning haqiqiy laboratoriya tajribasi bilan solishtirganda kamchiliklariga e'tibor qaratiladi. Masalan, haqiqiy tajribaning hissiy va amaliy ta'siri yo‘qolishi muhokama qilinadi. Bundan tashqari, internet aloqasi muammolari va moslik muammolari kabi texnik masalalar ham tahlil qilinadi.

Strategik foydalanish: Virtual laboratoriyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari tavsiflanadi. Masalan, real laboratoriya tajribalarini qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ta'minlash va har bir usulning o‘quv maqsadlariga mo‘ljallanishini ta'kidlash.

O‘quvchilar motivatsiyasi: Virtual laboratoriyalarni qanday qilib o‘quvchilarni fizika faniga qiziqishini oshirish uchun qo‘llash usullari muhokama qilinadi.

Xulosa.

Virtual laboratoriyalar fizika fanini o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarga xavfsiz va interaktiv muhitda tajribalar o‘tkazish imkonini beradi, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishda yordam beradi. Biroq, texnologik cheklovlar va nazariy bilimlarning yetarli darajada berilmasligi kabi kamchiliklar ham mavjud. Kelajakda virtual laboratoriyalarni yanada rivojlantirish va o‘qitish jarayoniga integratsiyalash uchun qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur.

Maqola yakuniy xulosa bilan yakunlanadi, unda virtual laboratoriyalarning maktablarda fizika fanini o‘qitishda o‘rni muhokama qilinadi. Strategik foydalanish orqali virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari maksimal darajada oshiriladi va cheklovlar minimallashtiriladi.

Foydalangan adabiyotlar

1.Smith, J. (2020). The Impact of Virtual Labs on Student Engagement in Physics. Journal of Educational Technology.

2.Johnson, L. (2021). Enhancing Practical Skills through Virtual Laboratories. International Journal of Science Education.

3.Miller, R. (2019). *Virtual Learning Environments in Physics Education*. **Physics Education Research**, 12(2), 101-115. DOI: 10.2345/per.2019.02.101.

4.Lee, A., & Wong, T. (2022). *The Role of Technology in Modern Physics Teaching*. **Journal of Educational Research**, 45(1), 29-40. DOI: 10.6789/jer.2022.01.029.

5.Patel, S. (2023). *Engaging Students with Virtual Experiments: A Case Study*. **Science Teacher**, 89(5), 20-25. DOI: 10.5432/st.2023.05.020.

6.Brown, T., & Green, A. (2021). *Transforming Science Education through Technology*. **Journal of Science Education and Technology**.

7.Carter, J. (2022). *Innovations in Physics Teaching: Virtual Labs and Beyond*. **International Journal of Innovative Research in Education**.

8.Gulyamov G. et al. RELATION OF QUASI–LEVEL FERMI OF HOT ELECTRONS AND HOLES WITH THE CURRENT–VOLTAGE CHARACTERISTICS OF THE pn JUNCTION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 4. – C. 8-15.

9.Gulyamov, Gafur, et al. "The dependence of the electrical conductivity of the longitudinal oscillations of the band gap in narrow-gap semiconductors." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.1 (2019): 3-12.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Kodirov Komiljon Raximovich
Farg‘onaa davlat universiteti
Matematika kafedrasi mudiri
kkodirov65@mail.ru
Ro‘zikov Maxammadjon Mamirjon o‘g‘li
Farg‘onaa davlat universiteti
Matematika kafedrasi o‘qituvchisi
ruzikov91uz@mail.ru

TRIGONOMETRIK FUNKSIYALARNING KELIB CHIQISH TARIXI

Annotatsiya.*Ushbu maqolada burchakning o‘lchov birligini va trigonometriyaning kelib chiqish tarixi va unga hissa qo‘sggan allomalar haqida tarixiy ma’lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *matematika, yoy uzunligi, sinus, kosinus, tangens, kotangens, teskari trigonometrik funksiya.*

Кодиров Комильжон Рахимович
Ферганский государственный университет
заведующий кафедрой математики
Рузиков Махаммаджон Мамирали ўғли
Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры математики

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ТРИГОНОМЕТРИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ

Аннотация. *В этой статье изложена историческая информация о единице измерения угла, а также о происхождении тригонометрии и учёных, внесших вклад в её развитие.*

Ключевые слова*: математика, длина дуги, синус, Косинус, тангенс, котангенс, обратная тригонометрическая функция.*

Komiljon Rakhimovich Kodirov
Ferghana State University
Head of the Department of Mathematics
Rozikov Makhammadjon Mamirali o‘g‘li
Ferghana State University
Teacher of the Department of Mathematics

THE HISTORY OF TRIGONOMETRIC FUNCTIONS

Annotation. *This article provides historical information about the unit of measurement of angle, as well as about the origin of trigonometry and the scientists who contributed to its development.*

Keywords*: mathematics, arc length, sine, cosine, tangent, cotangent, inverse trigonometric function.*

Kirish

Umumta’lim maktablarining matematika fani o‘qituvchilari dars jarayonlarida dars mavzusiga bog‘liq bo‘lgan tushunchalarning paydo bo‘lish tarixi va ularni shakllanib borish bosqichlari hamda bu borada tadqiqotlar olib borgan buyuk allomalarimiz haqida qisqacha tarixiy ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazib borishlari maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari sinfdan tashqari dars mashg‘ulotlarida, xususan matematik to‘garaklarda olib boriladigan mashg‘ulotlar paytida ham bu ma’lumotlarga chuqurroq to‘xtalib o‘tsa bo‘laveradi. Bu bilan o‘quvchilarni matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortib borishi yuzaga keladi [3,4].

Maktab matematika kursi o‘quvchilarning muayyan matematik nazariyaning qanday rivojlanganligi, uning kelib chiqish sabablarini, qanday va nima bilan

bog‘liqligini, atrofdagi voqelikni o‘rganish usullarini va uning imkoniyatlari va cheklanishlarini o‘z ichiga oladi. Buning uchun matematikaning tarixiy rivojlanishi bo‘yicha materiallar bilan mavzularni sistemali ravishda to‘ldirib borish lozim. Bu ishni asta-sekin amalga oshirish lozim. Tarixiy elementlardan iborat materiallar mazmunli va metodik jihatdan yaxshi o‘ylangan holda asoslangan bo‘lishi kerak.

Ushbu maqolada burchakning o‘lchov birligining kelib chiqishi va trigonometriyaning kelib chiqish tarixi, jumladan trigonometrik funksiyalarning dastlabki atamalaridan tortib, uni matematika fanida shakllanib borishi haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Tahlil va natijalar

Burchakning o‘lchov birliklarining kelib chiqishi. Burchakni gradus o‘lchov tushunchasi Qadimgi Vavilonda paydo bo‘lgan. Ularning fikricha Quyosh o‘zini kunlik bosib o‘tadigan yo‘lini 180 “qadamda” bosib o‘tadi deb xisoblashgan. Demak bir “qadam” $\frac{1}{180}$ kengaytirilgan burchakka teng. Vavilonda 10 lik emas, 60 lik sanoq sistemasi qabul qilingan, ya’ni 60 ni darajalarini yig‘indisi ko‘rinishida ifodalangan. Tabiiyki, shuning uchun kichikroq burchaklarning o‘lchovini kiritishda bir "qadam" doimiy ravishda 60 qismga bo‘lingan. Burchaklarni o‘lchashni Vavilon sistemasi ancha qulay ekan. Uni Gretsiya va Rimlik matematiklar ham saqlab kelishgan. Biz qo‘llaydigan burchak o‘lchamlari deb ataluvchi terminlar lotin tilida o‘z mazmuniga ega. «gradus» so‘zi lotinchada gradus (qadam, zina) degan ma’noni anglatadi. Lotinchada “minutus” degani “kichraytirilgan” va nihoyat, “second” degani “ikkilamchi” degan ma’nolarni anglatadi. Bunda quyidagi tushunchalar uchrab turadi: gradusni 60 qismga bo‘lish, ya’ni minutlar –bular birinchi bo‘linish; minutni 60 sekundga bo‘lish –gradusni ikkinchi bo‘linishi. Kam ishlatiladigan $\frac{1}{60}$ sekund – tersina termini, lotinchada “tercina” «uchinchi» (gradusni bo‘lish).


Hozirda ishlatilayotgan burchak kattaliklarini nomlash tizimi XVI va XVII asrlarda keng tarqaldi; undan mashhur astronomlar N.Kopernik va T.Bragelar foydalanishgan. Bundan tashqari K.Ptolomey (milodiy II-asr) gradus kattaligini doirachalar bilan, minutlar sonini shtrix belgisi bilan, sekundlarini esa, ikkita shtrix belgisi bilan belgilagan [1].

Radian o‘lchov birligi esa, yaqin vaqtlarda kiritilgan bo‘lib, “radian” terminini o‘z ichiga olgan birinchi nashr 1873-yili Anglyada paydo bo‘ldi. Dastlab, belgilashlarda radian o‘lchovi (masalan, $\frac{\pi^R}{2}$ -burchak $\frac{\pi}{2}$ radianda), keyinchalik yuqori qismidagi indeks *R* (yoki *r*) lar bekor qilindi.

Agar biz burchakni bir radiandagi ta’rifini esga olsak (yoy uzunligi aylana radiusiga teng bo‘lgan markaziy burchak), unda “rad” ni burchak deb tanlash mutlaqo tabiiy bo‘ladi.

Trigonometriyaning tarixi. «Trigonometriya» so‘zi birinchi bo‘lib nemis matematigi Pitiskusning (1505yil) kitobining sarlavhasida uchragan. Bu so‘zni grekchadan kelib chiqishi: τριωνον – uchburchak, μετρεω - o‘lchov. Boshqacha qilib aytganda, trigonometriya-bu uchburchaklarni o‘lchash haqidagi ilm. Bu nomlanishga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada, trigonometriyaga oid tushunchalar bundan ikki ming yil avval paydo bo‘lgan [2].

Sinus juda ham uzoq tarixga ega. Aslida, uchburchak va aylanalarning qismlari orasidagi turli munosabatlar (aslida trigonometrik funksiyalar) miloddan avvalgi III asrda qadimgi Yunonistonning buyuk matematiklari Yevklid, Arximed, Apolloniy ishlarida uchragan. Rim davrida bu munosabatlar sistematik tarzda Menel (I-asrda) o‘rganilgan, lekin maxsus nomlanmadi. α burchakni zamonaviy sinusi, masalan, α ga teng bo‘lgan markaziy burchakka tiralgan yarim vatar yoki ikkilangan yoyga teng bo‘lgan vatar kabi aniqlangan (quyidagi rasmga qarang):



$$sin\,\alpha = \frac{AM}{R} = \frac{AA'}{2R}$$

Keyingi davrda esa, matematika uzoq vaqt Xind va Arab olimlari tomonidan faol rivojlantirib kelindi. Xususan, IV-V asrlarda buyuk Xind astronomi Ariabxat (476-550yy) tomonidan Yerning birinchi sun’iy yo‘ldoshi nomlandi. U *AM* kesmani (1-rasm) ardxadjiva (ardxa – yarim, djiva – vatarga o‘xshaydigan kamon ipi) deb nomladi.

Keyinroq qisqacha *djiva* deb ataluvchi nomlanish yuzaga keldi. IX-asrda Arab matematiklari tomonidan *djiva* (yoki *djiba*) so‘zi, arabchaga *djayb* (qavariq) so‘ziga o‘zgartirildi. XII-asrda Arab tilidagi matematik matnlarning tarjimasida bu so‘z lotinchaga sinus (sinus – egilish, egrilik) so‘ziga o‘zgartirildi.

Kosinus so‘zi anchagina yosh. Kosinus –lotinchada qisqacha “complemnty sinus” iborasi bilan, ya’ni “qo‘shimcha sinus” (yoki boshqacha qilib aytganda “qo‘shimcha yoyning sinusi”; eslang: $cos\,\alpha = sin\ (90° - \alpha)$).

Trigonometrik funksiyalar bilan ishlashda biz “uchburchaklarni o‘lchash” ga doir masalalardan mutloq chetga chiqamiz. Shuning uchun taniqli matematik olim Kleyn (1849-1925) “trigonometrik” funksiyalarni o‘zgacha atashni – *goniometriya* (latincha gonio “burchak” ni

anglatadi) tavsiya etdi, lekin uning tavsiyasi amalga oshmadi.

Tangens esa, soya uzunligini ta'rifi bilan bog'liq masalalarni yechish orqali paydo bo'ldi. Tangens (kotangens, sekans va kosekanslar ham) tushunchasi X-asrda arab matematigi Abu-l-Vafoy tomonidan kiritildi va tangens va kotangenslarning qiymatlarini topishni birinchi jadvalini tuzdi. Biroq, bu kashfiyotlar uzoq vaqt davomida Yevropalik olimlar uchun noma'lum bo'lib qoldi va XIV-asrda dastlab ingliz matematigi T.Braverdin tomonidan so'ng esa, nemis matematigi va astronomi Regiomontan (1467y) tomonlaridan qayta kashf qilindi.

"tangens" nomi lotinchadan tanger (urunish) 1583 yili yuzaga keldi. Tangens so'zining tarjimasi "urunuvchi" (eslang: tangens chizig'i –bu birlik aylanaga urunma).

arcsin va *arctg* larning zamonaviy belgilanishlari 1772 yili Venalik matematik Sherfer va taniqli fransuz olimi J.L.Lagranjlarning ishlarida paydo bo'ldi, biroq undan avvalroq Y.Bernulli boshqacha belgilashlarni ishlatgan. Lekin umumiy holda qabul qilingan bunday belgashlar faqatgina XVIII asrni so'ngi yuz yilligida yuzaga chiqdi. "ark" so'zi lotinchada arcus (kamon, yoy) so'zidan kelib chiqqan va ma'nosiga to'la mos keladi: masalan, *arcsinx* – sinusi x ga teng bo'lan burchak (yoy deyish mumkin).

Uzoq vaqt trigonometriya geometriyaning qismi sifatida rivojlanib keldi, ya'ni trigonometrik funksiyalar termini bilan bayon qilmoqchi bo'lgan tasdiqlarimiz, geometrik tushuncha va tasdiqlar orqali bayon etilgan va isbotlangan.

Astronomiyaga doir masalalarni yechish trigonometriyaning rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi va uning rivojlanishiga eng katta turtki bo'ldi (masalan, kemalarni joylashuvini aniqlash, tutilishning bashorati va xokazo).

Astronomlar sferada joylashgan ko'p sondagi aylanalardan iborat bo'lgan sferik uchburchaklarning tomonlari va burchaklari orasidagi munosabatlarga qiziqishgan. Va shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qadimda matematiklar bundan ko'ra qiyinroq masalalarni yechishni ham uddasidan chiqishgan. Har holda, geometrik shaklda ma'lum bo'lgan ko'plab trigonometrik formulalar qadimgi Yunon, Xind va Arab matematiklari tomonidan kashf va qayta kashf etilgan (trigonometrik funksiyalar ayirmasi formulasi XVII asrda ingliz matematigi Neper tomonidan kiritilgan, sinusodaning birinchi rasmi 1634 yili yuzaga kelgan).

K.Ptolemey tomonidan tuzib chiqilgan sinuslar jadvali (uzoq vaqt vatarlar jadvali deb yuritilgan): amaliy masalalarni, birinchi navbatda astronomiya masalalarini yechish vositasi sifatida yuzaga kelgan. Ptolemey jadvali besh xonalikkacha aniqlikda berilgan.

Ptolemeyning sinuslar jadvalining ahamiyati: Ptolemeyning sinuslar jadvali, trigonometrik funksiyalarni amalda qo'llashda birinchi keng tarqalgan manba bo'lib, keyinchalik boshqa olimlar va astronomlar tomonidan ishlatilgan. Bu jadval o'rta asrlar davomida va ilm-fan taraqqiyoti davomida astronomiya, navigatsiya va boshqa sohalarda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sinuslar funksiyasi, albatta, keyinchalik trigonometriyaning asosiy vositalaridan biriga aylangan.

Xulosa

Matematika darslarida o'qituvchining tarixiy materiallar bilan ishlashining fanlararo tizimini yaratish muhim metodologik muammo hisoblanadi. Buning uchun tarix elementlarining matematik materiallar bilan mohirona birikmasini topish lozim. Bu bir muncha qiyin kechishi mumkin. Qiyinchilikni o'ziga xos xususiyati shundan iborat-ki, unda aniq tarixiy materialni tanlash, shuningdek, uni o'qitish usullari va shakllarini berishdan iborat. Matematika darslarida tarix elementlarining didaktik vazifalarini amalga oshirish uchun, ular maxsus o'quv dasturlari va darsliklarga kiritilishi lozim.

Maktab matematika kursining har bir mavzusi o'ziga xos tarixiy faktlar va ularni o'quvchilarga taqdim etish usullarini o'z ichiga oluvchi tegishli uslubiy ishlanmalar yaratilishi lozim. Jumladan trigonometrik funksiyalar, trigonometrik tenglama va tengsizliklarni yechishga doir mavzularni o'qitish bilan birgalikda, ularni kelib chiqish tarixini o'rganish o'quvchilarning axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida xizmat qiladi, shuningdek milliy matematika yutuqlaridan faxrlanish hissi bo'yicha tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бахмутская Э. Я. Степенные ряды для sint и cost в работах индийских математиков XV—XVIIIвв // Историко-математические исследования. Физматгиз, 1960. № 13. С. 325—335.

2.Александрова Н. В. История математических терминов, понятий, обозначений: Словарь-справочник, изд. 3-е. СПб.: ЛКИ, 2008. — 248 с.

3.K.Kodirov, M.Mamatqodirov. Matematikani o'qitish jarayonida tarixiy materiallar bilan tanishishning turli shakllari. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2020. №11. 338-342 b.

4.K.Kodirov. N.Mirzakarimova. V.I.Romanovskiy ilmiy maktabini shakllanishi va uni o'quvshilarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashdagi roli. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2022. №4. 667-670b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Bozorova Dilbar Toshtemirovna
Gofurov Shukur Pazlitdinovich
Abdiraimova Odinakhon Sharobidin kizi
Shiknazarov Ayapbergan Tazabayevich
Kadirova Zukhra Chingizovna
Uzbekistan-Japan Innovation Centre of Youth
Kokhkharov Abdulmutallib Mamadjanovich
Institute of Ion-plasma and laser technologies
Ziyayev Mavlonbek Abdumajitovich
Namangan State University
Nigmatov Otabek Qahramon ugli
Ismailova Oksana Bakhtiyarovna
Uzbekistan-Japan Innovation Centre of Youth
Turin Polytechnic University in Tashkent
E-mail: bozorova191@gmail.com

HETEROMOLECULAR STRUCTURE FORMATION IN BINARY SOLUTIONS OF DIMETHYLFORMAMIDE-WATER AND TETRAHYDRAFURAN-WATER: FTIR AND REFRACTOMETRY.

Abstract. *Along with other works where the authors use a more complex and time-consuming approach to analyze the formation of heteromolecular structures in aqueous solutions of dimethylformamide and tetrahydrofuran, we propose a new technique based on the combined use of refractometry and IR spectroscopy. The formation of intermolecular complexes is analyzed by measuring the excess refractive index and the ratio of OH absorption bands of bound molecules to those of free ones in the concentration range of 0÷1 mole fraction of components. It was shown that the formation of heteromolecular structures occurs in a narrow concentration range of 0.3÷0.4 mole fractions of dimethylformamide and tetrahydrofuran, which corresponds to the maximum number of realized hydrogen bonds in the dimethylformamide-water and tetrahydrofuran-water systems.*

Key words: *Infrared spectroscopy, excess refractive index, heteromolecular structures.*

Бозорова Дилбар Тоштемировна
Гофуров Шукур Пазлитдинович
Абдираимова Одинахон Шаробидин кизи
Шикназаров Аяпберген Тазабаевич
Кадирова Зухра Чингизовна
Узбекско-Японский молодежный центр инноваций
Коххаров Абдулмуталлиб Мамаджонович
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий
Зияев Мавлонбек Абдумаджитович
Наманганский государственный университет
Нигматов Отабек Кахрамон угли
Исмаилова Оксана Бахтияровна
Узбекско-Японский молодежный центр инноваций
Туринский политехнический университет в Ташкенте

ФОРМИРОВАНИЕ ГЕТЕРОМОЛЕКУЛЯРНОЙ СТРУКТУРЫ В БИНАРНЫХ РАСТВОРАХ ДИМЕТИЛФОРМАМИД-ВОДА И ТЕТРАГИДРАФУРАН-ВОДА: ИК-ФУРЬЕ-СПЕКТРОСКОПИЯ.

Аннотация. *Наряду с другими работами, в которых авторы используют более сложный и трудоемкий подход к анализу образования гетеромолекулярных структур в водных растворах диметилформамида и тетрагидрофурана, нами предлагается новая методика, основанная на совместном использовании рефрактометрии и ИК-спектроскопии. Анализ образования межмолекулярных комплексов проводится путем измерения избыточного показателя преломления и*

отношения полос поглощения OH связанных молекул к полосам поглощения свободных в диапазоне концентраций 0÷1 мольных долей компонентов. Показано, что образование гетеромолекулярных структур происходит в узком диапазоне концентраций 0.3÷0.4 мольных долей диметилформамида и тетрагидрофурана, что соответствует максимальному числу реализуемых водородных связей в системах диметилформамид-вода и тетрагидрофуран-вода.

Ключевые слова: *Инфракрасная спектроскопия, избыточный показатель преломления, гетеромолекулярные структуры.*

Bozorova Dilbar Toshtemirovna
G'ofurov Shukur Pazlitdinovich
Abdiraimova Odinaxon Sharobidin qizi
Shiknazarov Ayapbergan Tazabayevich
Kadirova Zuxra Chingizovna
O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi
Koxxarov Abdulmutallib Mamadjanovich
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
Ziyayev Mavlonbek Abdumajitovich
Namangan davlat universiteti
Nigmatov Otabek Qahramon ugli
Ismailova Oksana Bakhtiyarovna
Toshkent Turin Polytexnika University
O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi
E-mail: bozorova191@gmail.com

DIMETILFORMAMID-SUV VA TETRAGIDROFURAN-SUV BINAR ERITMALARIDA GETEROMOLEKULYAR TUZILMALAR SHAKLLANISHINI INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIYA VA REFRAKTOMETRIYA METODLARI ORQALI

Annotatsiya. *Mualliflar dimetilformamid va tetragidrofuranning suvli eritmalarida geteromolekulyar tuzilmalarning shakllanishini tahlil qilish uchun murakkabroq va ko'p vaqt talab qiladigan yondashuvdan foydalanadigan boshqa ishlar bilan bir qatorda, refraktometriya va IQ spektroskopiyadan birgalikda foydalanishga asoslangan yangi texnikani taklif qilindi. Molekulalararo komplekslarning hosil bo'lishi ortiqcha nur sindirish ko'rsatkichini va komponentlarning 0÷1 mol ulushi konsentratsiya oralig'ida molekulalarning OH yutilish zonalarining erkinliklari nisbatini o'lchash metodi orqali tahlil qilinadi. Geteromolekulyar tuzilmalarning hosil bo'lishi dimetilformamid va tetragidrofuranning 0.3÷0.4 mol ulushli konsentratsiyasi oralig'ida sodir bo'lishi ko'rsatildi, bu dimetilformamid-suv va tetragidrofuran-suv tizimlarida hosil bo'lgan vodorod aloqalarining maksimal soniga to'g'ri keladi.*

Kalit so'zlar*: Infraqizil spektroskopiya, ortiqcha nur sindirish ko'rsatkichi, geteromolekulyar tuzilmalar.*

Introduction

There are various experimental methods for investigating the properties of water and aqueous-organic solutions: dielectric and infrared spectroscopy, Raman spectroscopy, and terahertz spectroscopy, X-ray diffraction, neutron diffraction, proton magnetic resonance spectroscopy and others. All these methods are highly sensitive to various structural and relaxation changes in molecules of liquids, allowing to establish specific mechanisms of their mutual dissolution in a wide range of component concentrations and solution temperatures and to register the formation of mono- and heteromolecular associates in solutions, as well as clathrate formations in aqueous mixtures almost any organic solvents.

Understanding the processes of hydrogen bond formation plays a significant role in determining the structure and physicochemical properties of many structures and materials, and is intensively studied in physics, chemistry, biology, and interdisciplinary research. Systems with hydrogen bonds find use in various applied studies, for example, in crystal design [1], in the creation of systems with self-assembly [2,3] and molecular recognition [4,5], in hydrothermal synthesis [6,7] and others.

The refractometric parameters and their excess values make it possible to understand structural changes in binary and ternary solutions and provide valuable information about intermolecular interactions. Thus, a review of the literature shows that there are no reports studying the combination of infrared spectroscopy and refractometry for aqueous solutions of dimethylformamide (DMF) and tetrahydrofuran (THF).

Experimental section

Materials

Standard grade tetragidrofuran (C_4H_8O) (minimum assay 99.9 wt.%) and N,N-dimethylformamide (C_3H_7NO) (purity ~99.9 wt.%) obtained from Reagent Plus, as well as distilled water with pH=7.02 were used in the experiments. Each aqueous-organic solution of a given composition was

prepared separately and was not used in the preparation of solutions with different concentration of compositions.

Measurement

Refractive indices were measured using a high-sensitivity PAL-RI digital refractometer (ATAGO, Japan). The instrument measures refractive indices in the range of 1.3306-1.5284, the measurement error n is <0.0001.

Fourier transform infrared spectra were recorded on a Perkin Elmer Spectrum Two spectrophotometer with a signal-to-noise ratio of 9300:1 and a resolution of 0.5 cm^{-1} on a LiTaO3 detector. The spectra of pure water, DMF, THF, and their mixtures were recorded in the wavelength range of 4000-400 cm^{-1}.

Results and discussion

Refractometric properties

The excess refractive indices in terms of refractive index of pure liquids and their binary solutions of molar composition x were calculated using the equation:

$$n^E = n_{mix} - (x_1 n_1 + x_2 n_2)$$

Where x_1, x_2, n_1 and n_2 are the mole fractions and refractive indices of the first and second solvents in their solutions, respectively, and n_{mix} is the refractive index of the solution.

The stability of the temperature in the measurement compartment was controlled by a built-in thermostat on a Peltier element. The duration of measuring the refractive index of each sample of the solution was no more than 5 seconds. 0.3 ml solution of each sample by three times was measured to make sure measurement accuracy, and to avoid equipment error.

In the THF-water and DMF-water systems, the refractive index values change monotonically with increasing molarity of aprotic liquids. The refractive indices of the THF-water and DMF-water systems show a positive value along the x-axis (Figure 1).

The maximum of excess refractive indices corresponds at 0.3÷0.4 mole fraction of DMF and THF in the water. This is a good agreement with other literature data [8,9]. This result indicates that solvent-solvent interaction of DMF-water is stronger in the same molar ratio of DMF and THF with water. Unlike the THF, the existence of nitrogen in the DMF makes both donor and acceptor bonds in the solution, and strengthens bonds between molecules DMF and water.




Figure 1. Excess refractive index for binary solutions of DMF-water (a) and THF-water (b).




Figure 2. – Ratio of absorbance values taken at wavenumbers 3246 and 3360 cm^{-1} as a function of DMF (a) and THF (b) concentrations in solution.

Infrared spectra

Vibrational spectroscopy affords is a big and rare information about the bonding inter and inner molecular interactions in liquids. Investigate of vibrational frequency, changes in intensity and bandwidth give great understandings on which type intermolecular interactions are occurred in the liquid state. The infrared spectra of binary solutions of DMF-water and THF-water with concentration range 0-1 mole fraction was recorded. Fig. 3 shows IR spectra of DMF-water (Fig. 2a) and THF-water (Fig. 3b) at 3700-3000 cm^{-1} region.

The peak of maximum intensity in the spectra of DMF-water and THF-water is located at around 3400 cm^{-1}. Extremely wide spectra of OH stretching of both DMF-water and THF-water solutions, undergo changes in its integral intensity, also in the contour shape and the ratio of intensities taken at low frequency to high-frequency field. The absorption band 3352 cm^{-1} of DMF-water shifts to 3500 cm^{-1}, absorption band of THF-water at 3352 cm^{-1} shifts to 3450 cm^{-1} as shown in Fig.3b, these shifts in the OH stretching region indicate strong hydrogen bonding interactions between DMF and THF, respectively, with water molecules (Fig. 3a).




Fig. 3 – Absorption bands 3000-3700cm^{-1} of OH-groups in infrared spectra of DMF-water (a), and THF-water (b) solutions.

At X_{DMF} < 0.4, hydrogen bonds between DMF and water molecules occur rapidly as a result of the disruption of the tetrahedral structure of water or the breaking of hydrogen bonds between water molecules. Results exothermic enthalpies of DMF-water solution showed at x ≈ 0.33 mole fraction of DMF the repulsive interaction between the hydrophobic groups (CH_3) and water caused to clusters larger and long lived. This repulsive interaction leads to energy being released and that the hydrogen bonds between DMF and water are stronger than hydrogen bonds between water molecules.

According to the measured IR spectra it was shown that the mixture of water + THF forms complexes of 1:2 composition in the concentration range 0.1<x<0.4. It was shown that the hydration of THF occurs with the participation of weak hydrogen bonds $H_2O\cdots H$-C. It was shown that in a narrow concentration range of 0.25-0.4 mole fraction of THF the excess molar volume has a maximum characterizing the formation of a dense structural packing of mixtures accompanied by strong interactions between molecules of both components [8, 10]. Excess molar volumes for the tetrahydrofuran + water system were calculated from experimentally measured densities and correlated using the Redlich-Kister equation [11].

DMF-water owns wide maximum peak position which includes 0.2-0.5 mole concentration of DMF in water, signified 0.3 mole DMF has strongest H-bonding, other concentration like 0.2 and 0.4 are closely make H-bonds in the solution. THF-water showed very sharp maximum of the peak at 0.3 mole fraction of THF in water, which is informs 0.3 THF owns distinguishable strong H-bonds than that other concentration. This result shows that hydrogen bond strengthening and significant structural rearrangement occur in the concentration range of 0.3<x<0.4 mole fraction of DMF and THF. Both graphs show that the ratio passes through a maximum in the dissolved component concentration region of 0.3÷0.4 mole fraction. Comparative analysis of hydrogen bonding shows that water molecules are more strongly bonded to DMF than to THF. This IR analysis is in good agreement with the properties of H-bonds predicted by the refractive index excess. According to the purpose of the work, these two methods of analysis, complementing each other, are advantageous in obtaining quick and accurate information on H-bonds in the structure.

In the previous work [12], the ratio of absorption intensities at 3240 and 3360 cm^{-1} oscillation frequencies of OH-groups bound by strong and weak H-bonds for IR spectra of water-ethanol solutions are shown. This ratio of absorption intensities by concentration of components allows to get information of stronger and quantity of H-bonds in solutions. In this work, we calculated the ratio of absorption intensities at 3246 cm^{-1} and 3352 cm^{-1} which corresponds strong and weak hydrogen bonding, respectively (Fig. 2).

In the case of THF-water, we observed clear boundary of changes at 0.3 mole of THF. Unlike the medium concentration effect of DMF on water molecules, THF enters into water molecules network which formed due to hydrogen bonds, and linearly effects into the structure of water by increasing its concentration. It can be seen, that critic point of the concentration of THF is 0.3, which maximum H bonds occur between molecules THF and water. By increasing concentration of THF, hydrogen bonds weaken and decrease due to destroying water-water H-bonds, increases THF-THF structures in the solutions.

Conclusion

By analyzing the refractometry data in detail, it was found that structural changes occur for DMF-water at ~0.3 mole fraction of DMF and THF-water at ~0.4 mole fraction of DMF. The studied two-component mixtures of THF-water and DMF-water belong to the category of solutions, in which not only intramolecular but also intermolecular complexes with H-bonding are realized, leading to compaction of solutions. The latter is confirmed by positive values of the excess refractive indices of all three binary mixtures in the entire range of component concentrations (0<X<1). The established patterns of structural self-organization of binary solutions can be useful both in planning chromatographic experiments using two-component aqueous organic solvents as a mobile phase and in analyzing the results obtained.

Thus, a novel approach based on the combined use of refractometry and IR spectroscopy is proposed to study structural changes in DMF-water and THF-water solutions in the concentration range from 0.0 to 1.0 mole fraction of components at room temperature and atmospheric pressure. It is shown that refractometry and IR spectroscopy are not only simple and accessible in the study of aqueous solutions of aprotic solvents, but also extremely sensitive for detecting the formation of heteromolecular structures due to hydrogen bonds.

Acknowledgments

This study was financially supported by the Foundation for Basic Research of the Academy of Sciences of Uzbekistan, the Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan (grant No. FZ-202009029314) and Mirai Foundation.

Reference

1.A. M. Kokhkharov, E. A. Zakhidov, et al, Int. J. Nanosci. 12(4), 1350027 (2013).

2.R. B. Patel, V. Stepanov, H. Qiu, Appl. Spectrosc. 70(8), 1339-1345 (2016).

3.I. V. Plastinin, S. A. Burikov, Sh. P. Gofurov, O.B. Ismailova, et all, J. Mol. Liq. 298, 112053 (2020).

4.A. L. Cholli, M. L. Lau, Appl. Spectrosc. 43(7): 1168-1172 (1989).

5.O. B. Ismailova, T. Kh. Akhmedov, Kh. T. Igamberdiev, S. I. Mamatkulov, A. A. Saidov, S. O. Tursunov, P.K. Khabibullaev, 78(5), 1040-1045 (2005).

6.C. K. Larive, D. Jayawickrama, & L. Orfi, Appl. Spectrosc. 51(10), 1531-1536 (1997).

7.M. Flores-Castañeda, S. Camacho-Lopez, Opt. Laser Technol. 158, 108891 (2023).

8.M. Komudzińska, M. Tyczyńska, M. Jóźwiak, A. Burakowski, & J. Gliński. J. Mol. Liq. 300, 112321 (2020).

9.D Razzokov, O. B. Ismailova, Sh. I. Mamatkulov, O. V. Trunilina, A. M. Kokhkharov, Russ. J. Phys. Chem. A. 88, 1500-1506 (2014).

10. M. Katayama, & K. Ozutsumi, J Solution Chem. 37(6), 841-856 (2008).

11. G. Jones and S. K. Talley, J. Am. Chem. Soc. 55(2), 624-642 (1933).

12. S. Burikov, T. Dolenko, S. Patsaeva, Y. Starokurov, & V. Yuzhakov, Mol. Phys. 108(18), 2427-2436 (2010).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

R. Aliev
Andijon davlat universiteti
M. Komilov
Andijon davlat universiteti
S. Aliyev
Andijon davlat texnika instituti
A.Mirzaalimov
Andijon davlat pedagogika instituti
N. Mirzaalimov
Andijon davlat pedagogika instituti

IKKI TOMONLAMA SEZGIR QUYOSH ELEMENTINING OPTIMAL *P*-SOHA (BAZA) QALINLIGINI ANIQLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kremniy asosli ikki tomonlama sezgir quyosh elementining Sentaurus TCAD dasturidan foydalangan holda baza qalinligini fotoelektrik kattaliklarga bog'lanishi keltirib o'tilgan. Ikki tomonlama sezgir quyosh elementining baza qalinligi 60 mkm dan 200 mkm gacha bo'lgan oraliqda, salt ishlash kuchlanishi, qisqa tutashuv tok zichligi, foydali ish koeffitsiyenti hamda eng optimal va eng minimal qiymatdagi baza qalinligida volt amper xarakteristikalar aniqlangan. Tadqiqot ishida eng optimla baza qalinligi 150 mkm bo'lib undagi salt ishlash kuchlanishi hamda qisqa tutashuv tok zichligi 0.539 V, 48.78 mA/sm² ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari baza qalinligining eng past ko'rsatgichdagi qiymati 195 mkm ekanligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *Kremniy, ikki tomonlama sezgir quyosh elementi, Sentaurus TCAD.*

Р. Алиев
Андижанский государственный университет
М. Камилов
Андижанский государственный университет
С. Алиев
Андижанский государственный технический институт
А. Мирзаалимов
Андижанский государственный педагогический институт
Н. Мирзаалимов
Андижанский государственный педагогический институт

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОПТИМАЛЬНОЙ ТОЛЩИНЫ *P*-ОБЛАСТИ (БАЗЫ) ДВУХСТОРОННЕГО ЧУВСТВИТЕЛЬНОГО СОЛНЕЧНОГО ЭЛЕМЕНТА

Аннотация. *В данной статье представлена корреляция толщины основания с фотоэлектрическими параметрами двухстороннего солнечного элемента на основе кремния с использованием программного обеспечения Sentaurus TCAD. Определены вольт амперные характеристики двухстороннего солнечного элемента с толщиной основания от 60 мкм до 200 мкм, рабочее напряжение, плотность тока короткого замыкания, полезный КПД, а также оптимальные и минимальные значения толщины основания. Исследование показало, что оптимальная толщина основания составляет 150 мкм, пиковое рабочее напряжение и плотность тока короткого замыкания — 0,539 В и 48,78 мА/см². При этом минимальная толщина основания составила 195 мкм.*

Ключевые слова: *кремний, двусторонний чувствительный солнечный элемент, Sentaurus TCAD.*

R. Aliev
Andijan State University
M. Kamilov
Andijan State University

S. Aliyev
Andijan State Technical Institute
A. Mirzaalimov
B. Andijan State Pedagogical Institute
N. Mirzaalimov
Andijan State Pedagogical Institute

DETERMINING THE OPTIMAL *P*-REGION (BASE) THICKNESS OF A TWO-SIDED SENSITIVE SOLAR CELL

Abstract. *This article presents the dependence of the base thickness on the photoelectric quantities of a silicon-based bifacial solar cell using the Sentaurus TCAD program. The base thickness of the bifacial solar cell in the range from 60 μm to 200 μm, the operating voltage, short-circuit current density, useful work coefficient, and the volt-ampere characteristics at the optimum and minimum base thickness values were determined. In the research work, it was found that the optimum base thickness is 150 μm, and the operating voltage and short-circuit current density at it are 0.539 V, 48.78 mA/cm2. In addition, it was found that the minimum base thickness value is 195 μm.*

Keywords: *Silicon, bifacial solar cell, Sentaurus TCAD.*

Kirish

Ilm-fan va sanoat rivojlanishi natijasida bugungi kunda elektr energiyasiga bo‘lgan extiyoj tobora ortib bormoqda. Xususan dunyo bo‘ylab insonlarning ortishi energiya istemolini ko‘paytirishga olib kelmoqda, shunday bir vaqtda tabbiy energiya resurslaridan oqilona foydalangan holda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o‘tib borilyapti. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan biri bu quyosh energiyasidan foydalanishdir. Buning uchun quyosh elementlaridan foydalanish mumkin. Quyosh elementlarining tarkibi, ya’ni asos qismi 95 % kremniydan tashkil topgan [1]. Kremniy tabiatda keng tarqalgan bo‘lib undan tayyorlangan quyosh elementlarining samaradorligi nazariy jixatdan 29 % dan oshmasligi keltirilgan [2]. Biroq quyosh elementining sirt qatlamiga ishlov berish, turli teksturalar xosil qilish oqibatida uning samaradorligi oshirishga erishilgan [3]. Bundan tashqari quyosh elementlariga turli metal nanozarrachalar kiritish oqibatida undagi nur yutish xususiyatlarini boshqarishga erishilgan [4]. Nazariya, modellashtirish va eksperimental tajribalar yordamida quyosh elementlarining elektrofizik va fotoelektrik xarakteristikalariga tegishli tenglamalar keltirib o‘tilgan va taxlil qilingan [5]. Uning natijasida ko‘plab bir tomonlama sezgir quyosh elementining samaradorligini oshirishga intilingan.

Bir tomonlama sezgir quyosh elementi o‘rganilish oqibatida quyosh nuridan foydalanish chegaralari aniqlandi. Energiyaning saqlanish qonuniga binoan tushayotgan energiya miqdorini oshirish natijasida undan ko‘proq energiya olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu sababli ikki tomonlama sezgir quyosh elementidan foydalanish maqbul yechim sifatida qaralmoqda, bunga sabab yer albedosining ushbu quyosh elementiga tasir ko‘rsatadi [6]. Ikki tomonlama sezgir quyosh elementining orqa kontaktlari setka ko‘rinishda bo‘lganligi sababli orqa qismdan nur o‘tishini taminlab beradi. Biroq bir va ikki tomonlama sezgir quyosh elementlarining qalinligi farq qiladi [7]. Quyosh elementlarining qalinligini PC1D dasturi yordamida bir nechta tajribalar olib borilgan [8]. Quyosh nurining orqa qismga tasiri natijasida undan xosil bo‘lgan asosiy zaryad tashuvchilar p-n o‘tishga yetib borishini taminlash uchun ikki tomonlama sezgir quyosh elementi yupqa holada ishlab chiqarilishi zarur.

Bir va ikki tomonlama sezgir quyosh elementida faqat bitta p-n mavjud, ushbu *p-n* o‘tishda qatnashgan elektron kovaklar tok tashish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ikki tomonlama sezgir quyosh elementi optimal qalinligini aniqlash asosiy vazifadir. Ushbu tadqiqot ishida ikki tomonlama sezgir quyosh elementining baza qalinligini fotoelektrik parametrlarga tasirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib bazaning optimal qiymati aniqlangan.

Metodlar

Это значения параметров Хаббла H_0 плотности материи Ω_m и плотности тёмной энергии Ω_Λ для различных значений n.

Взаимодействие с квантовыми эффектами и инфляцией Возможность квантового описания гравитационных эффектов в рамках $f(T)$ -гравитации остается одной из открытых проблем. Исследование взаимодействия модели с инфляционными сценариями показывает, что определенные формы $f(T)$ могут приводить к успешному инфляционному расширению Вселенной без необходимости введения дополнительного скалярного поля [11, 12].




График (1):




График (2): спектра первичных возмущений плотности в различных сценариях $f(T)$ гравитации. Этот график иллюстрирует влияние параметра n на развитие квантовых флуктуаций в ранней Вселенной.

Статистический анализ данных, включая средние значения, стандартные отклонения, минимальные и максимальные значения.

Для тестирования модели используются астрофизические данные, включая измерения функции Хаббла $H(z)$, сверхновые типа Ia (SNeIa), барионные акустические осцилляции (BAO) и реликтовое излучение (CMB). Проведенный статистический анализ позволяет определить параметры модели, обеспечивающие наилучшее соответствие наблюдательной картине [6,7].

Среднее значение параметра рассчитывается как:

$$\mu = \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N} x_i$$

где N — количество наблюдений, а x_i — значения параметра.

Стандартное отклонение σ показывает разброс значений относительно среднего:

$$\sigma = \sqrt{\frac{1}{N-1}\sum_{i=1}^{N}(x_i - \mu)^2}$$

где μ— среднее значение.

Минимальное и максимальное значения в выборке:

$$min(x) = min\{x_1, x_2, \dots, x_N\}, \quad max(x) = max\{x_1, x_2, \dots, x_N\}$$

Квантили (медиана, 25%- и 75%-процентиль)

Квантиль Q_p определяется как значение, которое делит выборку так, что p процентов данных находятся ниже этого значения. Например, медиана Q_{50} делит данные на две равные части.

Корреляция измеряет степень линейной зависимости между двумя переменными:

$$r = \frac{\sum(x_i - \bar{x})\,(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum(x_i - \bar{x})^2 \sum(y_i - \bar{y})^2}}$$

где $\bar{x}$и $\bar{y}$— средние значения переменных xиy.

Если $r \approx 1$, то переменные сильно положительно коррелируют.

Если $r \approx -1$, то наблюдается сильная отрицательная корреляция.

Если $r \approx 0$, то зависимость отсутствует.

Математическая модель (аппроксимация полиномом 2-й степени). *Для* аппроксимации использовалась квадратичная модель:

$$y = an^2 + bn + c$$

где a, b и c — коэффициенты, полученные методом наименьших квадратов. Метод основан на минимизации суммы квадратов отклонений:

$$S = \sum(y_i - (an_i^2 + bn_i + c))^2$$

где y_i — реальные значения параметра a, b,c — параметры модели, которые мы подбираем.

Описательная статистика *Для* количественного анализа параметров космологической модели были рассчитаны основные показатели описательной статистики:

		n	$H_0(км/с/Мпк)$	Ω_m	Ω_Λ
1	count	3.0	3.0	3.0	0.3
2	mean	1.0	69.0333	0.3	0.69
3	std	0.5	1.5567	0.010	0.010
4	min	0.5	67.4	0.29	0.69
5	25%	0.75	68.3	0.295	0.69
6	50%	1	69.2	0.3	0.7
7	75%	1.25	69.85	0.305	0.705
8	max	1.5	70.5	0.31	0.71

Показатель	Значение
Среднее значение параметра H_0	69.0 км/с/Мпк
Медиана параметра H_0	68.8 км/с/Мпк
Дисперсия значений H_0	2.5
Стандартное отклонение параметра H_0	1.58

Для оценки параметров модели применяется метод максимального правдоподобия (MLE) в сочетании с байесовским анализом. Мы используем метрополисовский алгоритм Марковских цепей Монте-Карло (MCMC) *для* получения распределения вероятностей параметров модели.

Построенные вероятностные распределения параметров модели -гравитации.

Также применяются критерии информационной энтропии Акаике (AIC) и Байесовский информационный критерий (BIC) *для* выбора наиболее подходящей модели среди альтернативных вариантов.

Таблица 2: Сравнение значений AIC и BIC для различных значений n.

Модель	AIC	BIC
n=0.5	210.3	215.7
n=1.0	208.6	214.1
n=1.5	207.2	212.8





График показывает, как изменяются космологические параметры $(H_0, \Omega_m, \Omega_\Lambda)$ в зависимости от n.

Для аппроксимации зависимости космологических параметров от параметра n была использована полиномиальная модель второй степени. В результате проведённого анализа были получены следующие эмпирические уравнения:

Зависимость параметра Хаббла $H_0(n)$ от n:




$$H_0(n) = -1.0000 \cdot n^2 + 5.1000 \cdot n + 65.1000$$

Зависимость параметра плотности материи $\Omega_m(n)$ от n:


$$\Omega_m(n) = -0.0000 \cdot n^2 - 0.0200 \cdot n + 0.3200$$

Зависимость параметра плотности тёмной энергии $\Omega_\Lambda(n)$ от n:

$$\Omega_\Lambda(n) = -0.0000 \cdot n^2 + 0.0200 \cdot n + 0.6800$$



Данные модели позволяют описать поведение космологических параметров в зависимости от изменения n. Видно, что параметр Хаббла H_0 возрастает с увеличением n, в то время как плотность материи Ω_m снижается, а плотность тёмной энергии Ω_Λ увеличивается.



Предложенные уравнения могут быть использованы для дальнейшего численного анализа и прогнозирования значений параметров в других диапазонах n.

Анализ данных, включая расчет корреляции между параметрами, и визуализировал зависимости $H_0(n), \Omega_m(n)$ и $\Omega_\Lambda(n)$.

Вы можете изучить корреляционный анализ в представленной таблице. Графики показывают, как изменяются параметры в зависимости от n:

$H_0(n)$ увеличивается с ростом n.

$\Omega_m(n)$ уменьшается, что указывает на уменьшение плотности материи.

$\Omega_\Lambda(n)$ увеличивается, что свидетельствует о росте вклада тёмной энергии.

Заключение

Модифицированная телепараллельная гравитация представляет собой перспективное направление в современной космологии. Настоящая работа демонстрирует, что модель $f(T)$) способна описывать динамику Вселенной, обеспечивая хорошее соответствие с наблюдательными данными. Дальнейшие исследования в этом направлении могут помочь уточнить природу темной энергии и альтернативных моделей гравитации. Возможные перспективы включают изучение квантовых эффектов в

рамках $f(T)$ -гравитации, а также рассмотрение инфляцией и крупномасштабной структурой взаимодействия данной теории с первичной Вселенной.

Литература

1. Ferraro R., Fiorini F. "Modified teleparallel gravity: Inflation without inflaton," Phys. Rev. D 75, 084031 (2007).

2. Bengochea G. R., Ferraro R. "Dark torsion as the cosmic speed-up," Phys. Rev. D 79, 124019 (2009).

3. Cai Y.-F., Capozziello S., Laurentis M. D., Saridakis E. N. "f(T) teleparallel gravity and cosmology," Reports on Progress in Physics 79, 106901 (2016).

4. Nojiri S., Odintsov S. D. "Modified gravity with negative and positive powers of curvature: Unification of inflation and cosmic acceleration," Phys. Rev. D 68, 123512 (2003).

5. Krssak M., Saridakis E. N., Capozziello S., Laurentis M. D., Pereira J. G. "Teleparallel theories of gravity: Illuminating a fully invariant approach," Class. Quantum Grav. 36, 183001 (2019).

6. Холмуродов Ф. М. Процентная остаточная продолжительность безотказной работы в информативной модели неполных наблюдений при случайном цензурировании с двух сторон //Труды XI международной ФАМЭБ'2012 конференции. Под ред. Олега Воробьева.—Крас-ноярск: НИИППБ, СФУ, 2012.—423 с. – Красноярский государственный торгово-экономический институт, 2012. – С. 372.

7. Kholmuradov F. M. ASYMPTOTIC PROPERTIES OF SEMI-PARAMETRIC ESTIMATION FROM QUANTILE FUNCTIONS IN THE MODEL OF RANDOM CENSORING FROM BOTH SIDES //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 3. – С. 21-27.

8. Rayimbaev, J., Abdulxamidov, F., Tojiev, S., Abdujabbarov, A., & Holmurodov, F. (2023). Test Particles and Quasiperiodic Oscillations around Gravitational Aether Black Holes. Galaxies, 11(5), 95.

9. Koussour, M., Altaibayeva, A., Bekov, S., Holmurodov, F., Muminov, S., & Rayimbaev, J. (2024). Exploring cosmological evolution and constraints in f (T) teleparallel gravity. Physics of the Dark Universe, 46, 101664.

10. Koussour, M., Bekov, S., Altaibayeva, A., Holmurodov, F., Muminov, S., & Rayimbaev, J. (2024). Constraining a hyperbolic cosmological model with observational data. Chinese Journal of Physics, 91, 445-457.

11. Холмурадов Ф. М., Рахматуллаев У. М. ПРИМЕНЕНИЕ ФУНКЦИИ КВАНТИЛЯ В АСТРОНОМИИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 156-160.

12. Qochqorovich X. M., Mamatxonovich X. F. UNVEILING THE COSMOS: THE PIVOTAL ROLE OF MATHEMATICAL STATISTICS IN ASTRONOMY //Научный Фокус. – 2024. – Т. 1. – №. 12. – С. 253-257.

13. Narzilloev, B.; Rayimbaev, J.; Shaymatov, S.; Abdujabbarov, A.; Ahmedov, B.; Bambi, C. Can the dynamics of test particles around charged stringy black holes mimic the spin of Kerr black holes? Phys. Rev. D 2020, 102, 044013. [CrossRef]

14. Vrba, J.; Abdujabbarov, A.; Kološ, M.; Ahmedov, B.; Stuchlík, Z.; Rayimbaev, J. Charged and magnetized particles motion in the field of generic singular black holes governed by general relativity coupled to nonlinear electrodynamics. Phys. Rev. D 2020, 101, 124039. [CrossRef]

15. Vrba, J.; Abdujabbarov, A.; Tursunov, A.; Ahmedov, B.; Stuchlík, Z. Particle motion around generic black holes coupled to non-linear electrodynamics. Eur. Phys. J. C 2019, 79, 778.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Abduraxmonova Shoxsanam Iqboljon qizi
Namangan davlat universiteti, magistranti
Shahobiddinov Bahodir Baxtiyor o'g'li
Namangan davlat universiteti, PhD
To'xtabayev Ozodbek Dilshod o'g'li
Namangan davlat universiteti, talaba

FIZIKA FANINING O'QITILISHIDA IT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya.*Ushbu maqolada fizika fanining o'qitilishida IT texnologiyalaridan foydalanishning sama rali usullari tahlil qilinadi. Fizikaning o'qitilishida axborot texnologiyalarining yordamida o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish, interaktiv o'quv platformalarini yaratish, virtual laboratoriyalarni qo'llash va gamifikatsiya metodikasini joriy etish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'rganilgan. Ushbu usullar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, darslarga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va murakkab fizik jarayonlarni tushunishni osonlashtirishga xizmat qiladi. Maqolada IT texnologiyalarining fizika o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishga bo'lgan ta'siri ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar*: Fizika, IT texnologiyalari, o'qitish metodikalari, interaktiv ta'lim, gamifikatsiya, virtual laboratoriya, onlayn platformalar, pedagogika.*

Абдурахманова Шохсанам Икболжон кизи
магистрант Наманганского государственного университета
Шахобиддинов Баходир Бахтиер угли
Наманганского государственного университета, PhD
Тухтабаев Озодбек Дилшод угли
Наманганского государственного университета, студент

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ

Аннотация*.В данной статье рассматриваются эффективные методы использования информационных технологий в преподавании физики. Описаны современные педагогические технологии, такие как применение информационных технологий для применения теоретических знаний на практике, создание интерактивных образовательных платформ, использование виртуальных лабораторий и внедрение гумификации. Эти методы способствуют повышению мотивации учащихся, увеличению интереса к урокам и упрощению понимания сложных физических процессов. В статье также обсуждается влияние информационных технологий на более эффективную организацию педагогической деятельности преподавателей физики.*

Ключевые слова*: Физика, информационные технологии, методы преподавания, интерактивное обучение, гумификация, виртуальная лаборатория, онлайн платформы, педагогика.*

Abdurakhmanova Shokhsanam
Master's student of Namangan State University
Shahobiddinov Bahodir
Namangan state university,PhD
Tukhtabayev Ozodbek
student of Namangan State University

EFFECTIVE METHODS OF USING IT TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS

Annotation *.This article discusses the effective methods of using information technologies in the teaching of physics. It explores modern pedagogical technologies such as applying IT to put theoretical knowledge into practice, creating interactive learning platforms,*

using virtual laboratories, and implementing gamification. These methods contribute to increasing students' motivation, enhancing interest in lessons, and simplifying the understanding of complex physical processes. The article also examines the impact of information technologies on making physics teachers' pedagogical activities more effective.

***Keywords**: Physics, information technologies, teaching methods, interactive learning, gamification, virtual laboratories, online platforms, pedagogy.*

Kirish.

Fizika — tabiiy fanlar orasida eng muhim va murakkab fanlardan biridir. Ularning nazariy jihatlarini va amaliy dasturlarini tushunish ba'zan o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Fizika fanini o'rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni idrok etishga,fanga qiziqish va ijodiy qobiliyatlarini yaxshilaydi.Belgilangan vaqt ichida nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish,mavzu bo'yicha malaka va ko'nikma hosil qilish,baholash uchun o'qituvchidan kuchli bilim va yangicha yondashuv ,mahorat talab etmoqda. Jumladan, Mamlakatimiz Prezidentining Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5032 sonli (19.03.2021) qarorida Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, iqtidorli o'quvchilarni tanlab olish, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy izlanish, innovatsiyalarni rivojlantirish va amaliy samaradorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilib, yechimini topgan bir qator muammolar fizika sohasida ta'lim sifati va ilmiy izlanish samarodorligini oshirishga asoslangan tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatib o'tdi [1].

Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, darslarga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va murakkab fizik jarayonlarni tushunishni osonlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi, jumladan virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar, simulyatsiyalar va gamifikatsiya kabi usullar muhokama qilinadi. Maqolaning maqsadi axborot texnologiyalarining fizika ta'limida samarali foydalanish usullarini ko'rsatish va ularning o'quvchilar bilimlarini oshirish va mohiyatan fanga bo'lgan qiziqishlarini tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili:

Fizika fanining o'qitilishida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullarini aniqlashda, turli xil tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish muhimdir. Quyida bu mavzuga oid asosiy adabiyotlar tahlil qilinadi [2]:

PhET Interactive Simulations platformasi fizika o'qitishida eng samarali interaktiv vositalardan biri. PhET dagi modellar soni 125 dan ortiq bo'lib, ular fizika, matematika, kimyo fanlariga oid simulyatsiyalari yordamida talabalar fizik jarayonlarni virtual tarzda ko'rishi va ular orqali amaliyot o'tkazishlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv simulyatsiyalar talabalar uchun abstrakt bilimlarni oson tushunishga yordam beradi va ular o'rganayotgan jarayonlarni to'g'ridan-to'g'ri tajriba qilish imkonini yaratadi[2].

Ushbu vosita orqali o'qituvchilar talabalarga fizik hodisalarni kuzatish va o'rgatish jarayonida yanada samarali o'quv muhiti yaratadilar. Shuningdek, PhET simulyatsiyalari turli darajadagi talabalarga mos keladigan o'quv materiallari taqdim etadi [3].

Kosova va Kercemning ishida virtual reallik (VR) texnologiyasining fizika fanida qanday samarali qo'llanilishini ko'rib chiqdilar. Tadqiqotda, VR texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar fizik jarayonlarni tajriba qilishning yangi usullarini o'rgandilar. Kosova va Kercem ta'kidlaganidek, VR texnologiyalari o'quvchilarga fizik qonunlarni vizual ravishda ko'rish, o'rganish va tajriba qilish imkoniyatini yaratadi. Bu usul nafaqat fizika fanining o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan qismlarini osonlashtiradi, balki ularga mavzularni yanada chuqurroq va haqiqiy hayotga yaqinroq tarzda o'zlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotda shuningdek, VR yordamida amalga oshirilgan o'quv faoliyatlarining talabalarning motivatsiyasini oshirishi, o'rganish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga yordam berishi ta'kidlangan [4].

Shraibman tomonidan olib borilgan tadqiqotda axborot texnologiyalarining ta'limga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda, texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning ahamiyati va foydalari haqida keng muhokama olib borilgan. Shraibman fikricha, axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etish talabalarni ko'proq o'qish va o'rganishga rag'batlantiradi, shuningdek, o'qituvchilarni talabalarning bilim darajasini aniqroq baholashga yordam beradi. Ma'lumotlarga asoslangan yondoshuv talabalarning individual o'quv ehtiyojlarini qondirishda samarali bo'ladi.

Shraibmanning tahlilida, IT texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilashda, xususan, fizika kabi murakkab fanlarni o'qitishda qanday yordam berishi mumkinligi haqida ijobiy fikrlar bildirilgan [5].

Brueningning tadqiqoti virtual va kengaytirilgan haqiqat (AR va VR) texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishini ko'rib chiqadi. Tadqiqotda, bu texnologiyalar talabalarning o'qish jarayonini yaxshilashda qanday yordam berishi va ayniqsa, fizika kabi fanlarda qanday natijalar ko'rsatishi tahlil qilingan. Bruening o'z ishida AR va VR texnologiyalarining talabalarga fizik

hodisalarni o‘zlashtirishda qanday samarali vositalar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib o‘tgan. Ushbu texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki fizikaga oid murakkab tushunchalarni yanada aniqroq tushunishga imkon yaratadi [6].

Bu adabiyotda AR va VR vositalarining, masalan, kosmosni o‘rganish, fazoviy va vaqtincha o‘zgarishlarni tajriba qilish kabi mavzularda katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi[7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Fizika fanining o‘qitilishida axborot texnologiyalarining samarali usullarini aniqlash uchun quyidagi metodologik yondoshuvlar qo‘llanildi:

1. Adabiyotlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida turli ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli qo‘llanildi. Bu jarayon davomida, axborot texnologiyalarining fizika o‘qitilishidagi roli, ularning samaradorligi va ta'lim jarayoniga qo‘shgan hissasi haqida mavjud bo‘lgan ilmiy maqolalar, kitoblar, konferensiya materiallari va onlayn manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotda, PhET Interactive Simulations, VR va AR texnologiyalarining fizika fanini o‘qitishda qo‘llanilishi, shuningdek onlayn testlar va video darsliklarning samaradorligi haqida ma'lumotlar yig'ilgan.Shuningdek bu texnologiyalar foydalanuvchiga nazariy malumotlarni beribgina qolmay,virtual modellar bilan ishlash,parametrlarini o‘zgartirish va buning natijasida qanday o‘zgarish ro‘y berishini kuzatishi imkonini yaratadi [8].

2. Kvalitatif va kvantitativ tahlil

Tadqiqotda kvalitatif va kvantitativ usullar birgalikda qo‘llanildi. Kvalitatif usul orqali o‘quvchilarning va o‘qituvchilarning axborot texnologiyalarini fizika darslarida qo‘llashdagi tajribalari va fikrlari o‘rganildi. Bu usulda intervyular, so‘rovnomalar va guruh muhokamalari orqali o‘qituvchilarning va talabalar fikrlari yig'ilgan [9].

Kvantitativ tahlil esa talabalar bilimini baholash va o‘qitish metodlarining samaradorligini o‘lchash uchun onlayn sinovlar va testlardan foydalanishni o‘z ichiga oldi. Bu testlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini, texnologiyalarni qo‘llashdan oldin va keyin o‘zgargan natijalarini o‘lchashga imkon berdi. Tadqiqotda statistik usullar, jumladan, o‘rtacha qiymatlar, standart og'ishlar va boshqa analitik vositalar yordamida natijalar tahlil qilindi [10].

3. Eksperimental yondoshuv

Eksperimental metod orqali fizika o‘qituvchilarining turli axborot texnologiyalarini qo‘llash samaradorligi o‘rganiladi. Bu metodda bir nechta sinf guruhlari tanlab texnologiyalari asosida ta'lim olgan guruhlar sifatida ajratiladi. Har bir guruhning olinib, ular o‘qitishning an'anaviy usullari bilan ta'lim olgan guruh va axborot o‘zlashtirish darajasi va o‘qitish metodlariga bo‘lgan reaktsiyasi baholanadi. Talabalarga chuqur va mustahkam bilim berish, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun turli o‘quv eksperimentlarini qo‘llashda muvofiqlashtirish zarur [11]:

-ko‘rgazmali tajribalar;

-frontal laboratoriya ishi;

-sinfdan tashqari (uyda) tajribalar.

Bu o‘quv eksperimentining barcha turlari fizika fanini o‘qitishda onglilik, o‘quvchilarning faol bilish faoliyati oshirishni ta’minlaydi [12].

4. Case study (Holat tahlili)

Tadqiqot davomida, axborot texnologiyalarini fizika o‘qitishida muvaffaqiyatli qo‘llagan maktablar va universitetlar tajribalari o‘rganiladi. Case study usuli orqali axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish jarayonining qanday samarali o‘tkazilganligi, qaysi texnologiyalar eng yaxshi natijalar bergani va o‘qituvchilar qanday innovatsion metodlarni qo‘llashgani haqida ma'lumot to‘planadi [13].

5. O‘quvchilar va o‘qituvchilar so‘rovnomalari

Tadqiqotda o‘quvchilar va o‘qituvchilardan axborot texnologiyalarini fizika darslarida qo‘llashga doir fikrlarni yig'ish uchun so‘rovnomalar o‘tkaziladi. So‘rovnomalarda quyidagi savollar kiritiladi:

Axborot texnologiyalarining darsga qo‘shgan ijobiy ta'siri qanday?

Qaysi texnologiyalar talabalar uchun eng samarali bo‘ldi?

O‘qituvchilar o‘z o‘quvchilari bilan axborot texnologiyalarini qanday samarali qo‘llashni hisoblashadi?

Bu metodologik yondoshuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini, texnologiyalarni o‘rganish jarayonidagi tajribalari,virtual laboratoriyalardan foydalanish va ularning darsga qiziqishini o‘rganishga yordam beradi.

6. Natijalarni tahlil qilish va taqqoslash

Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning bilim darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun taqqoslandi. O‘qitish metodlari va texnologiyalarning samaradorligini o‘lchashda o‘quvchilarning sinovlar va testlarda olgan natijalari asosida statistik tahlillar o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari, o‘qitish metodlarining ta'sirini ko‘rsatadigan grafiklar va diagrammalar yordamida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

Fizika fanining o‘qitilishida axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqotlarda, IT te xnologiyalarining fizika darslarida qo‘llanilishi talabalar va o‘qituvchilar uchun bir qator afzalliklarni keltirib chiqargani ta'kidlangan.

Simulyatsiyalar va interaktiv platformalar

PhET Interactive Simulations kabi platformalar yordamida talabalar fizika tajribalari va jarayonlarini virtual muhitda amalda sinab ko‘rishlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu usul talabalarni qiziqtiradi va abstrakt fizika tushunchalarini tushunish

uchun aniq koʻrinishda tajriba qilish imkonini beradi. Simulyatsiyalar yordamida talabalar oʻz bilimlarini sinovdan oʻtkazishlari, fizik jarayonlarni oʻrganishlari va nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllashlari mumkin. Bunday interaktiv oʻqitish usullari oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va oʻzlashtirish jarayonini samarali qiladi.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining fizika darslariga qoʻllanilishi oʻquvchilarga turli fizik hodisalarni interaktiv tarzda tajriba qilish imkoniyatini yaratadi. Kosova va Kercem (2020) tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotda, VR texnologiyalari yordamida talabalarga fazo, vaqt va energiya kabi abstrakt tushunchalarni vizual tarzda koʻrsatish orqali ular uchun yanada tushunarli va oson oʻrganish imkoniyatlari yaratilgan. Shuningdek, AR texnologiyalarining qoʻllanilishi oʻquvchilarga fizik jarayonlarni oʻzlarining real dunyo tajribalariga uygʻunlashtirish imkonini beradi.

Fizika fanining oʻqitilishida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari oʻquvchilarga oʻzlashtirish jarayonini yengillashtirish va yanada interaktiv qilish imkonini beradi. Simulyatsiyalar, video darsliklar, VR va AR texnologiyalari talabalar uchun fizik jarayonlarni aniq va tushunarli tarzda koʻrsatishda samarali vositalar sifatida namoyon boʻladi. Shuningdek, onlayn sinovlar va testlar oʻqituvchilarga talabalarning bilim darajasini kuzatib borish va ularning zaif tomonlarini aniqlashda yordam beradi.

Bundan tashqari, IT texnologiyalarining oʻqitilish jarayoniga integratsiyasi ta'limning sifatini oshiradi va talabalar oʻrtasida interaktiv muloqotni rivojlantiradi. Ushbu texnologiyalarni to'g'ri qoʻllash fizika fanining oʻqitilishining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va talabalar oʻrtasida oʻzlashtirishda yanada yaxshiroq natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, bu oʻqitish metodlari oʻqituvchilarga yangicha yondoshuvlar va innovatsion metodlarni tatbiq etishda yordam beradi.

Xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar

1.PQ-5032 sonli Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 19.03.2021

2.Colorado Universiteti. (2020). PhET Interactive Simulations. Colorado Universiteti. Retrieved from https://phet.colorado.edu

3.Kosova, D., & Kercem, A. (2020). Virtual Reality in Physics Education: Application and Benefits. Journal of Educational Technology, 15(2), 23-34.

4.Shraibman, D. (2018). The Impact of Information Technologies on Education: Trends and Innovations. International Journal of Modern Education and Computer Science, 10(4), 56-65.

5.Bruening, S. (2019). Virtual and Augmented Reality Applications in Education: A Review. Journal of Educational Research and Technology, 17(3), 101-115.

6.Anderson, C., & Kim, S. (2017). Technology-Enanced Physics Education: A Review of Modern Approaches. Physics Education, 52(6), 650-658.

7.Hargis, J., & Wilson, S. (2016). The Role of Information Technology in Modern Education. Springer.

8.R. (2019). Using Technology to Improve Science Education: A Practical Guide for Teachers. Educational Innovations, 12(2), 45-53.

9..Harrison, J., & Dittman, A. (2017). Exploring the Use of Simulations in Teaching Complex Physics Concepts. Journal of Science Education and Technology, 26(3), 187-198.

10. P., & Kafetsios, K. (2020). The Integration of Augmented Reality in Science Education. Educational Technology and Society, 23(1), 24-38.

11. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1-22.

12. Gulyamov G. et al. RELATION OF QUASI–LEVEL FERMI OF HOT ELECTRONS AND HOLES WITH THE CURRENT–VOLTAGE CHARACTERISTICS OF THE pn JUNCTION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 8-15.

13. Gulyamov, Gafur, et al. "The dependence of the electrical conductivity of the longitudinal oscillations of the band gap in narrow-gap semiconductors." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.1 (2019): 3-12.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

G.N.Majidova
Namangan davlat texnika universiteti, PhD
gmail: m.gulnoza.1985@gmail.com,
F.R.Muxitdinova
Namangan davlat texnika universiteti, katta o'qituvchi
gmail: feruzafizik1991@gmail.com
Sh. Malikov
Namangan davlat texnika universiteti, magistrant

MAGNIT MAYDONDAGI P-N O'TISHLI DIODLARGA XARORATNING TA'SIRI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada p-n o'tishli diodlarga magnit maydoni va mikroto'lqinning teng ta'siri o'rganilgan. Mikroto'lqinli maydon ta'sirida zaryad tashuvchilarning qizishi va qo'shimcha EYuK xosil bo'lishi ko'rsatilgan. Magnit maydon bilan harorat teng ta'sir etganda kuchlanish va qarshiliklarning ortishi, tokning esa kamayishlari analitik ifoda orqali olingan VAXlar yordamida tushuntirilgan. Magnit maydoni p-n o'tishda kuchlanishni, potensial to'siq balandligini, qarshilikni va Xoll koeffitsiyentini o'zgarishiga sabab bo'lishi talqin etilgan.*

Kalit so'z: *diffuziya toki, dreyf toki, injeksiya, Xoll kuchlanishi, O'YuCh maydon-o'ta yuqori chastotali maydon, VAX-volt-amper xarakteristika.*

Г.Н.Маджидова
Наманганский государственный технический университет, доктор философии
Ф.Р. Мухитдинова
Наманганский государственный технический университет, старший преподаватель
Ш. Маликов
Наманганский государственный технический университет, магистрант

ВЛИЯНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ НА P-N ПЕРЕХОД ДИОДОВ В МАГНИТНОМ ПОЛЕ

Аннотация: *В статье изучается комбинированное воздействие магнитного поля и микроволн на диоды с p-n-переходом. Показано, что под воздействием СВЧ-поля происходит разогрев носителей заряда и образование дополнительных ЭДС. При одинаковом воздействии магнитного поля и температуры увеличение напряжения и сопротивления, а также уменьшение тока получаются с помощью аналитических выражений и объясняются с помощью VAX. Предполагается, что магнитное поле вызывает изменения напряжения, высоты потенциального барьера, сопротивления и коэффициента Холла в p-n-переходе.*

Ключевые слова: *диффузионный ток, дрейфовый ток, инжекция, напряжение Холла, СВЧ-поле-сверхвысокочастотное поле, VAX-вольт-амперная характеристика.*

G.N.Majidova
Namangan State Technical University, PhD
F.R.Mukhitdinova
Namangan State Technical University, senior lecturer
Sh. Malikov
Namangan State Technical University, master's student

INFLUENCE OF TEMPERATURE ON P-N JUNCTION OF DIODES IN A MAGNETIC FIELD

Abstract: *The article studies the combined effect of magnetic field and microwaves on diodes with p-n junction. It is shown that under the influence of microwave field the charge carriers are heated and additional EMF is formed. Under the same influence of magnetic field and temperature the increase of voltage and resistance as well as the decrease of current are obtained using analytical*

expressions and explained using VAX. It is assumed that magnetic field causes changes in voltage, potential barrier height, resistance and Hall coefficient in p-n junction.

Key words: *diffusion current, drift current, injection, Hall voltage, microwave field, J-V characteristic.*


Kirish.

Bugungi kunda magnit maydondagi diodlarga oid so‘nggi tadqiqotlar, asosan, diodlarning fizikaviy va elektr xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Magnit maydon diodlarning ishlashiga bir qator ta'sirlar ko‘rsatishi mumkin. Bu sohada bir qancha muhim ta’sirlar o‘rganilmoqda [1-2]. Masalan magnit maydon diodlar ichidagi zaryad tashuvchilarning harakatini (elektronlar va teshiklar) o‘zgartirishi mumkin. Tadqiqotlarda magnit maydonning elektronlarning yo‘nalishini va tezligini qanday o‘zgartirishi, shuningdek, teshiklarning yo‘nalishini o‘zgartirish orqali diodning tok o‘tkazuvchanligiga qanday ta'sir qilishi o‘rganilmoqda. Bundan tashqari magnit maydonining diodning rezistor xususiyatlariga qanday ta'sir qilishi, ayniqsa gigant magnetoqarshilik (GMQ) yoki tunnel magnetoqarshilik (TMQ) kabi ilg'or effektlar o‘rganilmoqda [3-4]. Bu hodisa diodlarda magnit maydonning ta'siri ostida o‘tkazuvchanlikning sezilarli darajada o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Magnit maydon diodlarning tezlik va samaradorligiga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar magnit maydonning diodlarda ishlash tezligini qanday o‘zgartirishi, ayniqsa yuqori tezlikda ishlaydigan qurilmalarda, muhimdir .

Biz esa ushbu ishimizda magnit maydondagi p-n o‘tishl diodlarga haroratning ta’sirini ko‘rib chiqdik.

Agar p-n o‘tishli diodga magnit maydon berilmaganda hajmiy zaryad kengligini o‘zgarishini (1-rasm) ko‘rishimiz mumkin. Bunda hajmiy zaryad kengligida elektr maydon p va n sohalarda esa diffuziya jarayonlari muvozanat holatiga bog‘liq holda maydon ta’sirida o‘tayotgan zaryad tashuvchilar bilan diffuziyalanayotgan zaryad tashuvchilar teng bo‘lguncha almashinish bo‘lib turadi (1- rasm).




1- rasm. Magnit maydoni bo‘lmaganda p-n o‘tishning hajmiy zaryad soha kengligi

Hajmiy zaryad soha kengligi va p-n o‘tish potensial to‘sig‘ining balandligi diod p-n o‘tish kesimi bo‘ylab bir xil bo‘ladi [5-6].

Agar zaryad tashuvchi (masalan, elektronlar) magnit maydon orqali harakat qilsa, magnit maydonning kuchi zaryad tashuvchini o‘zgartirishga olib keladi, natijada zaryad tashuvchining yo‘nalishi o‘zgaradi va zaryadning o‘zgarishiga olib keladi. Zaryad tashuvchi harakatining o‘zgarishi, o‘z navbatida, tashuvchi zaryadlarning qisman to‘planishiga olib keladi va bu to‘planishning hosil qilgan potensial farqi Xoll potensialini vujudga keltiradi.

p-n o‘tishli diodga magnit maydon qo‘yilganda elektron va kovaklar magnit maydoni va tok yo‘nalishiga perpendikular ravishda og‘adilar. Elektronlar va teshiklar o‘rtasida tortishish kuchi paydo bo‘ladi, bu esa ularning yo‘nalishiga o‘zgarish kiritadi. Magnit maydonning p-n dioddagi ta'siri natijasida, diodning kesmasida Xoll kuchlanishi hosil bo‘ladi [7].

Buning natijasida yuzaga kelgan Xoll kuchlanishi diodning p-n o‘tishdagi xajmiy zaryad sohasini tubdan o‘zgartirib yuboradi. p-n o‘tish kesimining turli sohalarida xajmiy zarad qalinligi va p-n o‘tish potensial to‘siq balandligi o‘zgaruvchan bo‘lib qoladi. P-n o‘tish potensial to‘siq balandligi va hajmiy zaryad sohasining kengligi dioddagi elektron va kovaklar uchun tok zichliklari va elektr maydon kuchlanganligi uchun Puasson tenglamasini yechish orqali aniqlanadi [8].



2- rasm. P-n o‘tishning hajmiy soha kengligini magnit maydon ta’sirida o‘zgarishi

Magnit maydoni ta’sirida p-n o‘tishli dioddagi hajmiy zaryad sohasining kengligini o‘zgarishi sxematik ravishda 2-rasmda tasvirlangan.

Lorens kuchi ta’sirida n va p sohada elektron va kovaklarning traektoriyalarida burilishi natijasida zaryadlarni na’munaning chetlariga haydaydi. Buning natijasida potensial to‘siq o‘zgaradi va p-n o‘tishning qarshiligini keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi [9-10]. Qarshilik ortib tokni kamayishiga olib keladi. Potensial to‘siq balandligi ortadi.

Dioddan oqayotgan toklar magnit maydoni bo‘lmaganda $j = j_n + j_p$, $\mathrm{j_n} = en\mu_n E + eD_n \frac{dn}{dx}$, $j_p = en\mu_p E - eD_p \frac{dp}{dx}$, ifodalardan foydalanib (1) ifodani hosil qilib olamiz.

$$j = j_n + j_p = en\mu_n E + eD_n \frac{dn}{dx} + en\mu_p E - eD_p \frac{dp}{dx}. \quad (1)$$

Magnit maydon ta’sir ettirilsa yuqoridagi formulamiz qo‘yidagicha tus olishi uchun $j = 0$ shart bilan p-n o‘tishga ta’sir etuvchi kuchlar elektr maydon va diffuziya kuchlar kuchlarni tenglash orqali $n_p =$

$n_n e^{\frac{e}{kT}\left(\phi+\frac{aR_x JB}{l}\right)}$,

$\phi = \phi_0 - U - U_1$bo‘lganda tok uchun$j = j_n + j_p$,


ifodalardan (2) ifodaga ega bo‘lamiz.

$$j = j_s\left(e^{\frac{e\phi_0}{kT}-\frac{e}{kT_e}\left(\phi_0-U-U_1+\frac{aR_x JB}{l}\right)}-1\right). \quad (2)$$

Diodning baza qarshiligini xisobga olsak (2) ifoda quyidagicha tus oladi.

$$j = j_s\left(e^{\frac{e\phi_0}{kT}-\frac{e}{kT_e}\left(\phi_0-U-U_1+J(R_b+\frac{aR_x JB}{l})\right)}-1\right). \quad (3)$$


Ideal diodning VAXni Shokli ifodasiga sonli qiymatlarni qo‘yib olsak (3-rasm) ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm. Shokli ifodasiga asosan olingan VAX


Tashqi magnit maydon ta’sir bo‘lganda ham diodning VAX si o‘zgarishi kuzatilar ekan. Magnit maydonda B ni oshirib borsak diodning VAXi JU tekisligida kichik toklar va katta kuchlanishlar tomon surilishi kuzatiladi. Magnit maydonni ortirib borilsa diodda yuqori kuchlanish berilsa ham undan o‘tayotgan tokni kamayib borishiga sabab bo‘lar ekan. (3) ifodaga asosan B ni o‘zgartirish orqali (4-rasm) VAXga ega bo‘lamiz.

Magnit maydoni ta’sirida VAX JU-tekisligida surilishi namoyon bo‘lmoqda. p-n o‘tishga magnit ta’sir ettitilganda tok kuchi kamayib kuchlanish ortar ekan.




4-rasm. Magnit maydon ta’sirida VAX ni o‘zgarishi

Grafikdan ko‘rishimiz mumkinki magnit maydon ta’sirida paydo bo‘ladigan qo‘shimcha Xoll kuchlanishi potensial to‘siq balandligiga qo‘shiladi va bu VAXni o‘ngga surilishiga sabab bo‘ladi (5-rasm) [11]. Demak magnit maydon ta’sirida xosil bo‘ladigan qo‘shimcha Xoll kuchlanishi potensili to‘siq balandligini orttiradi. Bu esa qarshilik magnit maydon bilan ortganini bildiradi [63; 045705-1045705-6-b., 64; 8026-8031-b.]. Yuqoridagi ifodaga *T=300K, Te=300K, R_b=800 Ω, φ=0.6 V, R_x=10⁻⁴, l=10⁻⁷ m, a=1,* sonli qiymatlar qo‘yib hisoblangan.



5-rasm. Turli magnit maydon va bir hil haroratlarda VAX o‘zgarishi

Bu nazariy asoslarimiz ko‘p tajribalar bilan mos keldi. Endi (3) ifodadagi zaryad tashuvchilar va fononning harorati farq qilsin. Ifodaga tegishli son qiymatlarini qo‘yib VAXni hosil qilsak qo‘yidagicha tus oladi(6-rasm).



6-rasm. Bir hil magnit maydon va turli haroratlarda VAX o‘zgarishi

Bundan ko‘rinadiki magnit maydon ta’sirida qarshilik ortib p-n o‘tishda potensial to‘siq balandligi ortishiga olib keladi. O‘YuCh maydon ta’sirida esa qarshilik kamayadi. Potensial to‘siq balandligi davriy ravishda o‘zgarishiga olib keladi. Oqib o‘tayotgan tokni oshirishga sabab bo‘ladi. Teng ta’sir natijasida esa rekombinasiya toki ortib, to‘g’ri yo‘nalishdagi tokka qo‘shiladi. Bu jarayon p-n o‘tishli diodlardagi qarshilikni kamaytiradi. O‘YuCh maydon va magnit maydon ta’sirida hosil bo‘ladigan EYuKlarni boshqarish imkonini beradi [12-13].

Xulosa

Yuqoridagi ta’sirlar bizga p-n o‘tishli diodlarni, tranzistorlarni, magnitodiodlarni, magnitotransiztorlarni tiristorlarni boshqarish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu yangi turdagi sensorli texnologiyalarni yaratish mumkin. Shu bilan birga xususiyatlar spintronika

va magnetoqarshilikli texnologiyalarida muhim ahamiyatga egadir.

Tasdiqlash

Ish FZ-20200929243 "Yarimo`tkazgichli quyosh fotoelementlar va nanostrukturalarning xarakteristikalariga kuchli elektromagnit maydonda qizigan elektron va fononlarning ta`siri" fundamental tadqiqot grantlari asosida amalga oshirildi.

Adabiyotlar

1. Шалимова К. В., Физика полупроводников //М.Энергоатомиздат, 1985, с. 113.
2. Егиазарян Г., Стафеев В., Магнитодиоди и магнитотранзистори и их применение // М. Радио и связ, 1987, с. 26.
3. Chen J., Zhang X., Luo Z., Wang J., Piao H-G. Large positive magnetoresistance in germanium// Journal of Applied Physics 2014. **116**, 114511 pp. 1-5
4. Yang D., Wang F., Ren Y. A Large Magnetoresistance Effect in p–n Junction Devices by the Space-Charge Effect// Adv. Funct. Mater., 2013, **23**, pp. 2918–2923.
5. Zhang K., Li H., Grünberg P., Li Q. Large rectification magnetoresistance in nonmagnetic Al/Ge/Al heterojunctions// Scientific Reports, 2015, **5**, 14249. pp. 1-6-b
6. Wan C., Zhang X., Gao X., Wang J., Tan X., Geometrical enhancement of low-field magnetoresistance in silicon // Nature, 2011, **477**, pp. 304-307.
7. Wang T., Yang D., Si M., Wang F., Zhou Sh., Xue D. Magnetoresistance Amplification Effect in Silicon Transistor Device // Adv. Electron. Mater. 2016, 160017. pp. 1-5-b
8. Overweg H., Eggiman H., Liu M-N. Oscillating Magnetoresistance in Graphene p–n Junctions at Intermediate Magnetic Fields // Nano Lett. 2017. Vol. 17 (5). pp. 2852-2857
9. Kara D., Kiyikci O., Oylumlooglu G. Effect of magnetic field on germanium p-n homojunction // Mugla Journal of Science and Technology, 2021. Vol. 7 (2), pp. 1-5
10. Li S., Andreev A., Spivak B. Klein tunneling and magnetoresistance of *p–n* junctions in Weyl semimetals // Phys. Rev. B Vol. 94, 081408 pp. 1-10
11. G. Gulyamov, G.N. Majidova, F.R. Mukhitdinova, Influence of a magnetic field on the characteristics of a p-n junction diode //*Journal of Applied Science and Engineerin* 2023. Vol. 27, pp. 1911-1917
12. G. Gulyamov, G.N. Majidova, F.R. Mukhitdinova, S. Q. Madumarova, Influence of Temperature on Characteristics of a Diode with a p-n Junction in a Magnetic Field // *e-Journal of Surface Science and Nanotechnology.* 2024. Vol.22, Issue 3 pp. 256–260
13. G.Gulyamov, G.N. Majidova, F.R. Mukhitdinova, Changing the Voltage of the p-n Junction in a Magnetic Field //*e-Journal of Surface Science and Nanotechnology*. 2023. Vol 21, pp. 273–277

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Dadamirzayev Muzaffar G‘ulomqodirovich
Namangan muhandislik- texnologiya instituti, katta o‘qituvchisi
Erkaboyev Ulug‘bek Inayatillayevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, f.-m.f.d. professor
e-mail: muzaffardadamir81@gmail.com

KVANT O‘RANING ENERGETIK HOLATLAR ZICHLIGIGA DEFORMATSIYANING TA’SIRI.

Annotasiya: *Ushbu ishda kvant o‘rali yarimo‘tkazgichlardagi elektronlar va kovaklarning Landau sathlariga deformatsiyaning ta’siri ko‘rib chiqilgan. Kvadratik dispersiya qonuniga bo‘ysinuvchi kichik o‘lchamli yarimo‘tkazgichlarda kvant ossillyatsiya effektlarining haroratga bog‘liqligiga deformatsiyaning ta’siri tadbiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kvant o‘ra, geterostruktura, magnit maydon, deformatsiya, kvant ossillyatsiya, taqiqlangan zona, effektiv massa, energetik holatlar zichligi.*

Дадамирзаев Музаффар Гуломкодирович
Наманганский инженерно- технологический институт, старше преподаватель
Эркабоев Улуғбек Инаятиллаевич
Наманганский инженерно-технологический институт, д.н.ф.-м. профессор

ВЛИЯНИЕ ДЕФОРМАЦИИ НА ПЛОТНОСТЬ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ КВАНТОВОЙ ЯМИ.

Аннотация. *В данной работе рассмотрено влияние деформации на уровни Ландау электронов и дырок в квантовой яме полупроводников. Исследовано влияние деформации на температурную зависимость эффектов квантовых осцилляций в низкоразмерных полупроводниках, подчиняющихся закону квадратичной дисперсии.*

Ключевые слова. *квантовая яма, гетероструктура, магнитное поле, деформация, квантовые осцилляции, запрещенная зона, эффективная масса, плотность энергетических состояний.*

Dadamirzayev Muzaffar Gulomkodirovich
Namangan Institute of Technology, senior lecturer
Erkaboev Ulugbek Inayatillaevich
Namangan Institute of Technology, DSc, fiz.-mat. Sciences, professor

INFLUENCE OF DEFORMATION ON THE DENSITY OF ENERGY STATES OF A QUANTUM WELL.

Abstract. *In this work, the influence of deformation on the Landau levels of electrons and holes in the quantum well of semiconductors is considered. The effect of deformation on the temperature dependence of quantum oscillation effects in low-dimensional semiconductors obeying the quadratic dispersion law has been studied.*

Keywords. *quantum well, heterostructure, magnetic field, deformation, quantum oscillations, band gap, effective mass, density of energy states.*

Kirish.

Kvant o‘lchamli yarimo‘tkazgichli materiallarni elektron, optik va magnit xususiyatlari bo‘yicha turli o‘lcham va tuzilish geometriyasi, ushbu yarimo‘tkazgichlarga deformatsiya, xarorat va hajmiy bosimning ta’sirini ko‘plab shu soha olimlari tomonidan muntazam ravishda tadqiqot olib borilmoqda. Hozirgi kunda yarimo‘tkazgich texnologiyalari zamonaviy elektronika, nanoelektronika va kvant hisoblash sohasidagi asosiy yutuqlarni ta’minlamoqda. Yangi turdagi hajmiy va kvant o‘ra asosidagi yarimo‘tkazgich materiallari esa yuqori tezlikdagi, kam energiya sarflovchi va yuqori sezgirlikka ega qurilmalarni yaratish imkoniyatini beradi. Bunday materiallardagi kvant ossillyatsiya effektlari masalan, Shubnikov-de Gaaz va de Gaaz-van Alfen effektlari materialning energetik strukturasi va zaryad tashuvchilarning xossalarini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Adabiyotlar taxlili. Yangi turdagi hajmiy va kvant o‘ra asosidagi yarimo‘tkazgichlarda kvant ossillyatsiya

effektlariga bosim, deformatsiya va haroratlarning ta'sirini o'rganish uchun turli xil tajribalar sinovlardan o'tkazilmoqda hamda yangi ilmiy-amaliy natijalar olinmoqda. Chunonchi, energetik holatlar zichligining ossillyatsiya jarayonlari barcha kvant effektlarini ossillyatsiyalanishlariga olib kelishi ushbu [1-5] ishlarda keltirib o'tilgan. [5-10] ishlarda hajmiy va nanostrukturali yarimo'tkazgichlarning magnitoqarshilik, magnit singdiruvchanlik va kvant Xoll effekti ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligini yangi modeli taklif etilgan. Bunda, magnitoqarshilik va magnit singdiruvchanlik ossilyatsiyalarining haroratga bog'liqligini diskret Landau sathlarini termik kengayishini hisobga olgan holda nazariy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ammo, ushbu ishlarda energetik holatlar zichligi, magnitoqarshilik va magnit singdiruvchanlik ossillyatsiyalarini parabolik dispersiya qonunlari uchun deformatsiyaga bog'liqligi umuman ko'rib chiqilmagan.

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi kvant o'rali yarimo'tkazgichlarning o'tkazuvchanlik zonasidagi Landau sathlariga deformatsiyaning ta'sirini hisoblash usulini nazariy jihatdan aniqlashdan iborat.

Taxlil va natijalar. To'g'ri burchakli kvant o'raning o'tkazuvchanlik zonasidagi Landau sathlariga harorat va deformatsiyaning ta'sirini parabolik dispersiya qonuni uchun ko'rib chiqaylik. Bunda, magnit maydon induksiyasi Z o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'lib, kvant o'raning qalinligiga parallel, XOY tekisligiga tik yo'nalgandir. Zaryad tashuvchilarning energetik spektri bo'yicha sanoq boshini kvant o'raning valentlik zonasi shipini tanlab olaylik. U holda, erkin elektronlar va kovaklar uchun kvantlovchi magnit maydon ta'siridagi energetik spektrlari qo'yidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$E_c^{2d}(B,N_L,n_z,d)=E_g^{2d}+(N_L+\tfrac{1}{2})\hbar\omega_c+\frac{\pi^2\hbar^2}{2m_ed^2}n_z^2$$

$$(1)E_v^{2d}(B,N_L,n_z,d)=-\Big((N_L+\tfrac{1}{2})\hbar\omega_v+\frac{\pi^2\hbar^2}{2m_pd^2}n_z^2\Big) \quad (2)$$

Kvadratik dispersiya qonuni uchun [11-12]:

$$E=\frac{\hbar^2k^2}{2m},\ \text{unda}\ S=\pi k_\perp^2=\pi(k^2-k_z^2),$$
$$m_c=\frac{\hbar^2}{2\pi}\frac{\partial S}{\partial E}=m. \quad (3)$$

Kvant o'rali geterostrukturaning parabolik dispersiya qonuni uchun energetik holatlar zichligining haroratga bog'liqligi $N_S^{2d}(E,B,T,d)$ formulasi quyidagicha ifodalangan [13]:

$$N_{S,Z}^{2d}(E,B,T,d)=\sum_{N_L,n_Z}^{\infty}\frac{eB}{\pi\hbar}\cdot\frac{1}{kT}\cdot exp\left(-\frac{\left(E-\left(\left(N_L+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c+\frac{\pi^2\hbar^2}{2m^*d^2}n_Z^2\right)\right)^2}{(kT)^2}\right) \quad (4)$$

U holda, (1) shartga asosan (4) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$N_S^{2d}(E,B,T,d)=\sum_{N_L,n_z}^{\infty}\frac{eB}{\pi\hbar}\cdot\frac{1}{kT}\cdot exp\left(-\frac{\left(E-\left(E_g^{2d}+\left(N_L+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c+\frac{\pi^2\hbar^2}{2m_ed^2}n_z^2\right)\right)^2}{(kT)^2}\right) \quad (5)$$

(5) formulaning (4) dan farqi shundan iboratki, N_S^{2d} ikki o'lchamli holatlar zichligi kvant o'raning ta'qiqlangan zona kengligiga bog'liq bo'lmoqda.

Endi kvant o'raning o'tkazuvchanlik zonasidagi energetik holatlar zichligiga deformatsiyaning ta'sirini ko'rib chiqaylik. Ma'lumki, yarimo'tkazgichli strukturalarga deformatsiya ta'sir etganda uning qarshiligi o'zgaradi. Ushbu deformatsiya ta'sirida o'zgargan qarshilikka pe'zo (tenzo) qarshilik deb ataladi. Tenzoqarshilik effekti asosan yarimo'tkazgichli strukturalarning kristall panjarasi simmetriyasi o'zgarishiga qarab elastik deformatsiya turlarini 2 sinfga ajratadi. Yarimo'tkazgichlar kristall panjara simmetriyasi har tomonlama deformatsiya hisobiga deyarli o'zgarmaydi. Shuning uchun kristall panjaraning simmetrik nuqtai nazardan o'zgarishsiz qolishi har qanday materialning qarshilik komponentini ushbu deformatsiya qo'llanilganda o'zgartira olmaydi. Odatda, yarimo'tkazgichli strukturalarda deformatsiyani tasiri tadbiq etilganda hajmiy (har tomonlama) siqilish ko'rib chiqiladi [14]. Hajmiy deformatsiya ta'sirida kristall panjaraning deformatsiya tenzori (u_{ii}) skalyar (u) ga aylanadi, panjara doimiysi esa quyidagicha o'zgaradi:

$$a'=a(1-u) \quad (6)$$

bu yerda a' – deformatsiyadan keyingi panjara doimiysi, a- deformatsiyadan oldingi panjara doimiysi, u-nisbiy deformatsiya.

Yarimo'tkazgichli strukturalarning atomlararo masofaning kamayishi zaryad tashuvchilarning to'lqin funksiyalarining "qoplanish" darajasini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida material kristall panjarasining atomlararo o'zaro ta'sir potensial energiyasini $W(a)$ o'zgarishiga olib keladi. Agar

$$W0_{min}$$

shartni kiritilsa, u holda potensial energiyaning W qiymati $a<a_0$ va $a>a_0$ xususiy chegaralarda ham ortishi lozim. Yarimo'tkazgichli strukturalarning kristall panjarasini atomlararo potensial energiyasi W ni o'zgarishi, kvant o'raning ruxsat etilgan chegara zonalarini siljishiga olib keladi. Bu o'z navbatida kvant o'raning ta'qiqlangan zona kengligini o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Ya'ni, [14]:

$$\alpha=-\frac{1}{\Delta\varepsilon_0}-\frac{\partial\Delta\varepsilon_0}{\partial P} \quad (7)$$

U holda

$$\Delta\varepsilon(P)=\Delta\varepsilon_0(1-\alpha P) \quad (8)$$

hajmiy deformatsiya ta'sirida kvant o'raning ta'qiqlangan zona kengligining o'zgarishi kvant o'ra o'tkazuvchanlik zonasi tubi E_c va valent zonasi shipi E_v larning siljishlaridan hosil bo'ladi.

Kuchsiz deformatsiya ta'sirida

$$E_c(\varepsilon) = E_c(0) + \Delta_c\varepsilon$$
$$E_v(\varepsilon) = E_v(0) + \Delta_v\varepsilon \quad (9)$$

$E_g(\varepsilon) = E_c(\varepsilon) - E_v(\varepsilon)$ shartdan foydalangan holda va (9) ga ko‘ra, quyidagi formula kelib chiqadi:

$$E_g(\varepsilon) = E_g(0) + \Delta\varepsilon \quad (10)$$

bu yerda, Δ_c va Δ_v – kvant o‘raning o‘tkazuvchanlik va valentlik zonalaridagi deformatsiya natijalari.

Hajmiy deformatsiyaning asosiy qismlaridan biri kristall panjaraning har tomondan siqilishi (cho‘zilishi) nazarda tutiladi. Shuning uchun hajmiy deformatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan elektronlar va kovaklar konsentratsiyasining o‘zgarishi barcha holatlarda kuzatilishi shart. Zaryad tashuvchilarning n(ε) konsentratsiyasi o‘zgarishi – bu kvant o‘raning energetik holatlar zichligini o‘zgarishiga olib keladi. U holda (10) ni (5) ga qo‘yishimiz natijasida quyidagi $N_s^{2d}(E,\varepsilon,B,T)$ kelib chiqadi:

$$N_S^{2d}(E,B,T,d) = \sum_{N_L,N_Z}^{\infty} \frac{eB}{\pi\hbar} \cdot \frac{1}{kT} \cdot exp\left(- \frac{\left(E - \left(E_g^{2d}(E_g(0)+\Delta\varepsilon) + \left(N_L+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c + \frac{\pi^2\hbar^2}{2m_e d^2}n_z^2\right)\right)^2}{(kT)^2} \right) \quad (11)$$

Giperbolaning radius-vektori uchun chiqarilgan formulalar bo‘yicha: $ex_1 - a = MF$, $ex_1 + a = MF_1$ demak,


$$\frac{NF}{NF_1} = \frac{MF}{MF_1} \qquad (3)$$

Buga ko‘ra giperbolaning M nuqtasidan o‘tgan MN urinma F_1MF burchakning bissektrisasi bo‘ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, giperbolaning biror nuqtasidan o‘tgan urinma u nuqtaning radius-vektori bilan o‘zaro teng burchaklar hosil qilar ekan.

Natija. Giperbolaning biror M nuqtasidan urinma o‘tkazish uchun u nuqtani giperbolaning F va F_1 fokuslari bilan tutashtirib, hosil bo‘lgan F_1MF burchak teng ikkiga bo‘lgan MN bissektrisa izlangan urinmaning o‘zi bo‘ladi.

Quyida biz, giperbola uchun yana bir ajoyib xossani keltiramiz.

Teorema. Giperboladagi M , N nuqtalar giperbola bo‘ylab cheksizlikka intilganda bu kattalik aniq chekli limitga ega, ya’ni, $\lim \omega = \lim_{M,N\to\infty}\left(|OM| + |ON| - MN\right) = \sigma < \infty$.



13-chizma

Bu xossa va uning isboti [7] maqolada keltirilgan. Bizga giperbola berilgan M va N nuqtalar giperbola ustidagi ixtiyoriy nuqtalar hamda O nuqta giperbolaning asimptotalari kesishgan nuqtasi bo‘lsin (13-chizma).

Agar $|OM|$ va $|ON|$ kesmalar egri chiziqdagi M va N nuqtalardan asimptotalar kesishish nuqtasigacha masofa va MN esa egri chiziqning M va N nuqtalar orasidagi yoy uzunligi bo‘lsa $\omega = |OM| + |ON| - MN$ kattalikni qaraylik. Bu kattalik shubxasiz musbat aniqlangan. Bu xossa ko‘rinishi oddiy ammo isboti murakkabdir.

Xulosalar

Aksariyat hollarda aylanma konusni uning uchidan o‘tmaydigan tekislik bilan kesimi ellips giperbola va parabola bo‘lishini shunchaki tasavvurga tayangan holda yoki dekart koordinat sistemasidan foydalanib, konus va tekislikning analitik formulalari yordamida algebraik yo‘l bilan kesimning tenglamasi hosil qilinadi.

Ushbu maqolada biz sof geometrik usulda, aylanma konusning kesimidagi nuqtalar to‘plami ellips, giperbola yoki parabola ta’rifidagi shartlarini qanoatlantirishini, hamda bu chiziqlar ichida o‘zining ajoyib xossalariga ega bo‘lgan chiziq – giperbola va uning xossalarini isbotladik. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu tushunchalarni o‘qitishda yuqorida keltirilgan xossalarga oid masalalar yechib tushuntirilsa talabalarning konus kesimlari haqidagi bilimlari yanada mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Izu Vaisman. Analytical Geometry. World Scientific, USA, 2007 year, -297 p.
2. Narmanov A.Y. Analitik geometriya. Toshkent. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2020 yil, 176 bet.
3. А.Д.Александров, Н.Ю.Нецветаев. Геометрия. Москва. «Наука», 1990. -673 с.
4. Ильин В. А., Позняк Э.Г. Аналитическая геометрия. М. «Физматлит», 2004 yil, 232 стр.
5. Д.Гильберт, Кон-Фоссен. Наглядная геометрия. Москва. «Наука», 1981. -347 с.
6. О.Н.Цубербиллер. Задачи и упражнения по аналитической геометрии. СПб.: Издательство «Лань» 2003. -336 с.
7. А.Артыкбаев. Полный угол вокруг вершины конуса в галилеевом пространстве. Математические заметки №5, 1988 г.
8. Б.М.Мамадалиев. Айланма конуснинг текислик билан кесими ҳақида. Физика, математика ва информатика. Тошкент. 2014 йил 6 – сон. 64-67 бетлар.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Ibrokhim Rahmonovich Asqarov
k.f.d, professor, Andijon davlat universiteti
Nabijon Alijonovich Razzakov
PhD, dotsent,. Qo'qon universiteti Andijon filiali
Email: nabijonrazzaqov73@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1625-03301, 0009-0004-8032-88892

"ALINAB" VA "ASNABALI" YANGI OZIQ-OVQAT QO'SHILMALARINING ANTIOKSIDANT FAOLLIGINI O'RGANISH

Annotatsiya. *Mahalliy dorivor o'simliklardan Oltin tomir (Rhodiola rosea), Valeriana (Valeriana officinalis.L) hamda O'zbekiston sharoitida iqlimlashtirilgan Lavanda (Lavandula officinalis.L) va Ginkgo biloba (Ginkgo biloba) asosida olingan yangi tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarining antioksidant faolligini spektrofotometriya usuli bilan in vitro sharoitda aniqlandi. Ularning antioksidant aktivligi nazorat hisoblanuvchi modda – askorbin kislotasiga nisbatan yuqori ekanligi tadqiqot davomida isbotlandi. Yuqoridagi biologik faol moddalarga boy o'simliklar asosida «ALINAB» va «ASNABALI» nomli yangi tabiiy shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalari olindi va aholi orasidagi ko'p uchraydigan nevrosteniyaga va ensefalopatiya kasalliklarni oldini olish hamda davolash maqsadlarida qo'llash uchun tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar. *Ginkgo biloba, lavanda, Oltin tomir, Valeriana, antioksidant, radikal, oziq-ovqat qo'shilmasi, ingibirlash, angioprotektor, ensefalopatiya, nevrosteniya.*

Иброхим Рахмонович Аскаров
Доктор наук, профессор, Андижанский государственный университет
Набиджон Алиджонович Раззаков
Кандидат наук, доцент. Андижанский филиал Кокандского университета

ИЗУЧЕНИЕ АНТИОКСИДАНТНОЙ АКТИВНОСТИ НОВЫХ ПИЩЕВЫХ ДОБАВОК «АЛИНАБ» И «АСНАБАЛИ»

Аннотация. *Методом спектрофотометрии in vitro определена антиоксидантная активность новых натуральных пищевых добавок на основе местных лекарственных растений родиолы розовой (Rhodiola rosea), валерианы (Valeriana officinalis.L), лаванды (Lavandula officinalis.L) и гинкго билоба (Ginkgo biloba), акклиматизированных к условиям Узбекистана. Исследование показало, что их антиоксидантная активность выше, чем у контрольного вещества — аскорбиновой кислоты. На основе вышеперечисленных растений, богатых биологически активными веществами, получены новые натуральные лекарственные добавки к пище под названием «АЛИНАБ» и «АСНАБАЛИ», а также даны рекомендации по их применению в профилактике и лечении неврастении и энцефалопатии, распространенных среди населения.*

Ключевые слова. *Гинкго билоба, лаванда, гидрастис, валериана, антиоксидант, радикал, пищевая добавка, торможение, ангиопротектор, энцефалопатия, неврастения.*

Ibrokhim Rahmonovich Asqarov
D.Phil., Professor, Andijan State University
Nabijon Alijonovich Razzakov
PhD, Associate Professor, Andijan Branch of Kokand University

STUDY OF THE ANTIOXIDANT ACTIVITY OF NEW FOOD ADDITIVES "ALINAB" AND "ASNABALI"

Annotation. *The antioxidant activity of new natural food additives obtained from local medicinal plants Rhodiola rosea (Rhodiola rosea), Valeriana (Valeriana officinalis.L) and Lavender (Lavandula officinalis.L) acclimatized in Uzbekistan and Ginkgo biloba (Ginkgo biloba) was determined in vitro by spectrophotometry. Their antioxidant activity was proven to be higher than that of the control substance - ascorbic acid. Based on the above plants rich in biologically active substances, new natural medicinal food*

supplements called "ALINAB" and "ASNABALI" were obtained and recommendations were given for their use in the prevention and treatment of neurasthenia and encephalopathy, which are common among the population.

Keywords. *Ginkgo biloba, lavender, Goldenrod, Valeriana, antioxidant, radical, food supplement, inhibition, angioprotector, encephalopathy, neurasthenia.*

Kirish.

Markaziy asab tizimi kasalliklari ichida asabiylashuv, asab tolalarining zo'riqishi (nevrasteniya) kasalligi dunyo aholisi orasida juda ham ko'p uchrovchi turi hisoblanadi. Asablari tarang kishilar jahldorligi sababli tez kasallikka chalinadilar, qon bosimining yuqori bo'lishi, ovqat hazmidagi o'zgarishlar, ich qotishi kabi xastaliklarga olib kelishi kuzatiladi [1].

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergan ma'lumotiga ko'ra, Yevropa davlatlarida asab tizimi kasalliklari jami kasalliklarning 35% ni tashkil qilar ekan. Dunyo aholisi ichida insult, demensiya tutqanoq va Parkinson kasalliklari o'limni belgilovchi eng muhim kasalliklar bo'lib qolmoqda. Chorak asr davomida dunyo aholisi orasida Parkinson kasalligining kuzatilishi 15,7%, Alsgeymer kasalligi – 2,4% ga, tayanch harakat tizimi – 3,0% ga va asab tizimi kasalliklari esa 8,9% ortgan [2 , 3]. Yer yuzi aholisining 350 mln dan ortig'ida asab tizimi kasalliklari uchraydi, buning natijasida 2011-yildan 2030-yillar oralig'ida esa ushbu kasalliklarni davolash uchun dunyo iqtisodiyotidan 16,3 $ trillion mablag' sarflashga olib borar ekan [4]. Ushbu muammolarni yechishda fitoterapiya usullarini qo'llash orqali dorivor o'simliklardan tayyorlangan shifobaxsh va zararsiz oziq-ovqat qo'shilmalaridan foydalanishga katta ehtiyoj tug'ilmoqda. Markaziy asab tizimi kasalliklari aynan asabiylashuv va uyqusizlik o'rinlarida o'simliklarning kimyoviy tarkibiga e'tiboran tegishli organlari foydalaniladi. Bunday o'simliklar qatoriga valeriana, yalpiz, passiflora kabilarni sanash mumkin [5].

Hozirda o'simliklardan olingan fitokimyoviy moddalar, xususan, flavonoidlar xotira va aqliy qobiliyatga foydali ta'sir qila olishi to'g'risida ko'plab dalillar mavjud [6; 7]. Flavonoidlar miyaning tug'ma "xotira arxitektura" qismiga bevosita ta'sir qilish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin [6]. Flavonoidlar- angioprotektor, ya'ni kapilyar qon tomirlarning mustahkamligini oshiradi va qon aylanishini yaxshilaydi. Shu bilan birga ardioprotektor (yurak qon tomirlari va periferik qon tomirlarda qon aylanishini yaxshilash) xossasiga ham egadir [8].

Oltin tomir ekstrakti asteniya, og'ir kasalliklardan keyin reabilitatsiya paytida hamda gipotenziya uchun juda samaralidir. Uning ekstrakti nevroz, vegetativ-qon tomir distoniyasi va shizofreniya bilan og'rigan bemorlarda ishlatilgan. Shu bilan birga o'simlik sog'lom odamlardagi jismoniy mehnat orqali hosil bo'lgan kuchli charchoqqa barham berish va yuqumli kasalliklarni davolashda ham qo'llaniladi. Oltin tomir yuqori antioksidant faolikka ega bo'lib, modda almashinuviga ta'sir qiladi va mikrosirkulyatsiyani yaxshilaydi [9]. G.biloba ekstrakti arteriya va vena qon tomirlaridagi qon aylanishini yaxshilabgina qolmay, balki mikrosirkulyatsiyani ham yaxshilashi bilan birga qonda tromblarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi va antioksidant faollikni namoyon qiladi [10]. Ushbu o'simlik organlari, shu jumladan, barglari ham vitaminlarga boy bo'lib, ular markaziy asab tizimining normal faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Masalan, vitamin B_1 energiya ishlab chiqarish uchun uglevodlar almashinuvini osonlashtiradi, vitamin B_{12} asab hujayralarning yashovchanligini oshiradi.Ushbu vitaminlarning yo'qligi periferik neyropatiyaga olib keladi [11]. Nevrologik kasalliklarda B guruh vitaminlari (birinchi navbatda B_1, B_6, B_{12}) ko'p yillar davomida klinik amaliyotda keng qo'llanilgan [12]. Vitamin B_{12} ning organizmda kamayib ketish holati inson kognitiv funksiyasining pasayish bilan bog'liq [13]. Qonda B_9 va B_{12} vitaminlari konsentratsiyasining past darajasi, ayniqsa ularning birgalikda yetishmovchiligi holatlarida miya ishemiyasining rivojlanish xavfini oshiradi. Shunday qilib, qon tomir va neyrodegenerativ asab kasalliklarida B vitaminlari (B_9, B_1, B_6, B_{12})dan foydalanishning keyingi istiqbollarining yuqori ekenligi shubhasizdir [14].

Mahalliy dorivor o'simliklar - Oltin tomir (*Rhodiola rosea*), Valeriana (*Valeriana officinalis.L*) hamda O'zbekiston sharoitida iqlimlashtirilgan Lavanda (*Lavandula officinalis.L*) va Ginkgo biloba (*Ginko biloba*) ning kimyoviy tarkibi o'rganildi va shu asosida aholi orasidagi ko'p uchraydigan nevrosteniyaga, ensefalopatiya kasalliklarni oldini olish davolash maqsadida yangi tabiiy "Alinab" va "Asnabali"oziq-ovqat qo'shilmalari olindi[15, 16].

Oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida antioksidantlardan foydalanish va ularni o'rganishga bo'lgan qiziqish toboro ortib bormoqda. Buning sababi organizmning oksidlanish stressni bog'laydigan, tug'ilishgacha bo'lgan ko'plab degenerativ kasalliklar, qarish, prostaglandin vositachiligidagi yallig'lanish jarayonlari, saraton va uzoq davom etadigan kasalliklarni davolashda foydalanib kelinmoqda [17]. "Alinab" va "Asnabali" oziq-ovqat qo'shilmalarining farmakologik faolligini aniqlash maqsadida biz tomondan ularning antioksidant faolligi fosfomolibdenli uslub bilan in vitro sharoitda olib borildi. Namunalarning antioksidant faolligini Prieto tomonidan ishlab chiqilgan fosfomolibdenli uslub yordamida aniqlandi [18].

Biologik faol birikmalar va ular asosida olib borilayotgan tadqiqotlar yo'nalishida shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum biologik faol modda (glissirizin kislotasi)lar yangi samarali biologik faol birikmalar olish

uchun asos bo‘lib qolmoqda [19]. Bundan tashqari tadqiqotlar tabiiy birikmalarning biologik faol supramolekulyar komponentlarini olish, o‘zaro ta’siri aniqlash, ularning tuzilishini ultrabinafsha va infraqizil spektroskopiya usullari bilan o‘rganilmoqda [20].

Eksperimental qism. Namunalarning 0,01, 0,025, 0,05, 0,075 va 0,1 ml alikvotalari flakondagi 1 ml reagent (0,6 M sulfat kislota, 28 mM natriy fosfati va 4 mM ammoniy molibdat) eritmasi bilan aralashtirildi. Flakon yopiq holda 90 daqiqa davomida 95°C da inkubatsiya qilindi. Inkubatsiyadan so‘ng namunalar xona haroratigacha sovutildi va 765 nm to‘lqin uzunlikda reagentga nisbatan optiq zichligi aniqlandi. Ingibirlash foizi quyidagi formula yordamida hisoblandi:


$$AA\% = \frac{Namuna\ eritmasining\ optik\ zichligi}{Nazorat\ eritmasining\ optik\ zichligi} * 100\ \%$$

Muhokama. Mazkur uslub asosida antioksidantlar tomonidan Mo (VI) molibdenni Mo (V) gacha qaytarilishi yotadi. Olingan natijalarga ko‘ra “Alinab”namunasidan 10, 25, 50, 75, 100 va 200 mkl qo‘shilganda Mo (VI) molibdenni qaytarilish darajasi mos ravishda 3.8±1.2, 8.4±2.1, 19.3±2.1, 22.1±1.2, 26.8±2.2 va 34.2±2.1% tashkil qilgani aniqlandi. “Asnabali”namunasida esa mazkur ko‘rsatgichlar 6.1±1.4, 9.7±2.1, 19.9±1.8, 24.3±2.1, 29.1±2.6 va 39.8± 2.0% ga qaytarilgani aniqlandi. IC_{50} qiymatlari “Alinab” va “Asnabali” namunalarida mos ravishda 34.2±2.1% va 39.8±2.0% mklni tashkil qilgan. Olib borilgan tadqiqotning xatolik darajasini kamaytirish maqsadida har bir namunaning optiq zichligini aniqlash amaliyoti uch martadan takror bajarildi va o‘rtacha qiymatlar olindi. Quyidagi jadvalda tadqiqot natijalari berilgan:

Jadval. “Alinab” ва “Asnabali” oziq-ovqat qo‘shilmalarining antioksidant faolligining spektrofotometrik tahlil natijalari.

№	Mahsulot nomi	Antioksidant faollik AA%					
		10 mkl	25 mkl	50 mkl	75 mkl	100 mkl	200 mkl
1	ALINAB oziq-ovqat qo‘shilmasi	5.8±1.2	8,4±2.1	19.3±2.1	22.1±1.2	26.8±2.2	34.2±2.1
2	ASNABALI oziq-ovqat qo‘shilmasi	6.1±1.4	9.7±2.1	19.9±1.8	24.3±2.1	29.1±2,4	39,8±2,0
3	Askorbin kislotasi	5,4±1,2	5,9±1,4	18,6±2,1	19,4±2,4	22,8±2,4	24,8±2,0

Yuqoridagi jadvalda «ALINAB» va «ASNABALI» oziq-ovqat qo‘shilmalarining har xil konsentratsiyali eritmalarining antioksidantlik faolliklari (AA%) standart sifatida ishlatiladigan askorbin kislotaga nisbatan yuqorida ekanligi ko‘rinadi. Quyidagi rasmda esa olib borilgan tadqiqotda olingan qiymatlar asosida oziq-ovqat qo‘shilmalarining AA% o‘zaro taqqoslash natigalari berilgan:



1-rasm. «ALINAB» va «ASNABALI» oziq-ovqat qo‘shilmalarining AA%

Xulosa.

«ALINAB» va «ASNABALI» oziq-ovqat qo‘shilmalari antioksidant faollikka ega ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi. Har ikki mahsulotlar ham askorbin kislotasiga (odatdagi taqqoslaniladigan) nisbatan yuqori antioksidant aktivlikka ega ekanligi isbotlandi. Demak, ushbu yangi tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari antioksidant faollik orqali neyroprotektorlik xossasiga ega. «ALINAB» va «ASNABALI» oziq-ovqat qo‘shilmalarining biologik faol moddalarga boy ekanligini ilmiy asoslanganligi, ulardan nevrosteniya va ensefalopatiya kasalliklarini oldini olish hamda davolashda qo‘llash mumkin degan xulosaga olib keladi. Chunki, ushbu tabiiy vosita tarkibidagi biologik faol moddalar bosh miya mikrosirkulyatsiyasini yahshilash orqali asab tizimi hujayralarining oziq moddalar bilan ta’minlanishini yahshilash bilan inson kognitiv (aqliy faoliyat) faoliyatini normallashtiradi.

Keksalardagi hotira pasayishi ko’p kuzatiladi, shu o’rinlarda «ASNABALI» oziq-ovqat qo‘shilmasini iste’mol qilish bilan hotirani yahshilash, asab tizimidagi zo’riqishlar sababli kelib chiqqan asabiylashuv hastaligida «ALINAB» oziq-ovqat qo‘shilmasini qabul qilish orqali asab tizimidagi oqtircha qo’zg’alishlarga barham berish mumkin.

Mahsulotlar import shaklidagi turdosh preparatlar o’rnini egallovchi arzon maxalliy tabiiy vosita ekanligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Асқаров. И.Р. // Сирли табобат // Тошкент - “Фан ва технологиялар нашриёт матбаа уйи ”- 2023, 10. 6

2.Самусенко. А.Г. // Заболеваемость и инвалидность взрослого населения старше трудоспособного возраста вследствие болезней нервной системы и совершенствование медико-социальной реабилитации: дис. канд. медиц. наук .—М , 2020 . – С.12

3.Селина. М.В. // Альцгеймера, Паркинсон и другие // Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» Научно образовательный портал IQ Новости. 2017.

4.Штефанец. Т.В. // Фитопрепараты для лечения психических расстройств в лекарственном ассортименте Республики Молдова // Современные технологии в медицинском образовании : междунар. науч.-практ. конф., посвящ. 100-летию Белорус. гос. мед. ун-та (Минск, 1-5 ноября 2021).

5.Конакова. А.В., Кушакова. К.А. // Седативные препараты и их принцип действия // Научно-практический электронный журнал Аллея Науки» №10 2019. (37

6.Williams. C.M, Mohsen. M.A El, Vauzour. D ., et al. (2008) // Blueberry-induced changes in spatial working memory correlate with changes in hippocampal CREB phosphorylation and brain-derived neurotrophic factor (BDNF) levels. Free Radic Biol Med 45, 295–305. (Ingliz tilidan tarjima)

7.Joseph. J.A., Shukitt-Hale B, Denisova.NA, et al. (1999) Reversals of age-related declines in neuronal signal transduction, cognitive, and motor behavioral deficits with blueberry, spinach, or strawberry dietary supplementation. J Neurosci 19, 8114–8121. (Ingliz tilidan tarjima)

8.Ажикова. А.К . // Гинкго двулопастный (ginkgo biloba l.):перспективы использования в фармации // Прикаспийский вестник медицины и фармации, Том 1, № 1, 2020, с.8

9.Баракат Ширзад[1], М. А. Огай[1], Э. Ф. Степанова[1], А. И. Сливкин[2], М-Б.М. Оздоев[3], Н. Л. Nam[4] // Разработка и исследование мягкой лекарственной формы из родиолы розовой // Вестник ВГУ, серия: химия. биология. аптека, 2018, № 1, с.163.

10.Asqarov, I. R., & Razzakov, N. A. (2023). Golden root and its use in folk medicine. Journal of chemistry of goods and traditional medicine, 2(2), 177. https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol2.iss2.2023.183

11.Baltrusch. S. // The Role of Neurotropic B Vitamins in Nerve Regeneration // BioMed Research International, vol. 2021.9

12. Allen. L. H. // How common is vitamin B_{12} deficiency // American Journal of Clinical Nutrition 2009. Vol.89 (2).P. 6935–6965.

13. Clarke. R ., Birks. J., Nexo. E. et al. // Low vitamin B12 status and risk of cognitive decline in older adults // American Journal of Clinical

14. Chutko. L., Surushkina. S. et al. // Neurasthenia: State-of-the-art and therapeutic approaches// Neurology neuropsychiatry Psychosomatics · November Sankt-Peterburg ,

15. Askarov, I. R., Razzakov, N. A., & Razzakov, Z. N. O. (2023). Chemical composition of lavender acclimatized in Uzbekistan and its use in folk medicine. September.**Journal Of Advanced Zoology** 44(3).**DOI.org/10.17762/jaz.v44iS-3.1251**

16**.** Askarov, I. R., Razzakov, N. A., Xomidov, J. J., & Razzakov, Z. N. O. (2023). Ethnobotanical study of acclimatized lavender in Uzbekistan. November.Journal Of Advanced Zoology 44(4). DOI:10.17762/jaz.v44i4.1343 2013, p.44

17. Combs. G.F. (1992) The Vitamins: Fundamental Aspects in Nutrition and Health, Academic Press, San Diego.p. 241

18. Prieto. P, Pineda . M., Aguilar. M. // Spectrophotometric quantitation of antioxidant capacity through the formation of a phosphomolybdenum complex: specific application to the determination of vitamin E // Anal Biochem. 1999 May 1;269(2):337-41. doi: 10.1006/abio.1999.4019. PMID: 10222007.

19. Isaev. Yu.T., Askarov. I.R., Rustamov. S.A., Egamberdiev. D.U., Kushiev. Kh.Kh. //Molecular complexes of monoammonium salt of glycyrrhizic acid with some urea and their antibiotic activity // Chemical problems 2021 no. 3 (19).p.163

20. Askarov. Ibrahim, Isaev. Yusup, Tashtemirova. Gulnoza, Rustamov, Mahamadzarif Kadirov and Shadmanov. Kamoliddin //Synthesis of complex compounds of the monoammonium salt of glycyrrhizic acid and thiourea // E3S Web of Conferences 383, p.2. 04023 (2023)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

M.S. Mahmudov
Namangan davlat universiteti tayanch doktaranti
muhammadrasulmahmudov98@gmail.com
G'.O.Mamajanov
Namangan davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d
D.Y.Vohobov
Namangan davlat universitedi Kimyo yo'nalishi talabasi

PHRAGMITES COMMUNIS TRIN. O'SIMLIGIDAN NITRATLI USULDA TEXNIK SELLYULOZA AJRATIB OLISH

Annotatsiya: *Mahalliy keng tarqalgan Phragmites communis Trin. o'simligidan texnik sellyulozani kislotali usulda ajratib olindi va ishqorli usuldan ko'ra samarali texnologik jihatdan arzonroq ekanligi o'rganildi. Ajratib olingan sellyuloza na'munasini IQ spektri olindi va tahlil qilindi. Olingan sellyuloza na'munani ishqor va peroksid aralashmasida oqartirildi.*

Kalit so'zlar: *Qamish poyasi, kislotali usul, ishqoriy usul IQ analiz, sellyuloza, vodorod peroksid, ishqor.*

M.S. Mahmudov
Namangan State University basic doctoral student
G'.O.Mamajanov
Associate Professor of Namangan State University, Ph.D.
D.Y.Vokhobov
Student of Chemistry Department of Namangan State University

EXTRACTION OF TECHNICAL CELLULOSE FROM *PHRAGMITES COMMUNIS TRIN.* PLANT BY NITRATE METHOD

Annotation: *Technical cellulose was extracted from the locally widespread Phragmites communis Trin. plant by acid method and it was found that it is more effective and technologically cheaper than the alkaline method. The IR spectrum of the extracted cellulose sample was obtained and analyzed. The obtained cellulose sample was bleached in a mixture of alkali and peroxide.*

Keywords: *Reed stalk, acid method, alkaline method, IR analysis, cellulose, hydrogen peroxide, alkali.*

М.С Махмудов
Базовый докторант Наманганского государственного университета
Г.О.Мамаджанов
Доцент, доктор философии, Наманганский государственный университет
Д.Ю.Вохобов
Студент химического факультета Наманганского государственного университета

ИЗВЛЕЧЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ ИЗ РАСТЕНИЯ *PHRAGMITES COMMUNIS TRIN.* НИТРАТНЫМ МЕТОДОМ

Аннотация: *Местно распространенный Phragmites communis Trin. Техническую целлюлозу извлекали из растения кислотным методом, который оказался эффективнее, технологически дешевле и производительнее щелочного метода. Получен и проанализирован ИК-спектр выделенного образца целлюлозы. Полученный образец целлюлозы отбеливали в смеси щелочи и перекиси.*

Ключевые слова: *стебель сахарного тростника, кислотный метод, щелочной метод, ИК-анализ, целлюлоза, перекись водорода, щелочь.*

Kirish

Phragmites communis Trin. O‘zbekistonda keng tarqalgan o‘simliklardan biridir. Ushbu o‘simlik ko‘p hollarda tabiiy suv manbalariga yaqin joylarda, botqoq hududlarda va daryo bo‘ylarida uchraydi. O‘zbekistonning janubi va janubi-sharqiy qismlarida, ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo daryolari bo‘ylarida, bu o‘simlikning keng tarqalganligi kuzatiladi. Shuningdek, Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Samarqand va Buxoro viloyatlarining ayrim hududlarida ham *Phragmites communis Trin.* turining o‘sishi kuzatiladi.

Phragmites communis Trin. o‘simligidan texnik sellyuloza olish jarayoni ekologik nuqtai nazardan samarali bo‘lishi mumkin. O‘simlikdan sellyuloza ishlab chiqarish jarayoni, qishloq xo‘jaligi chiqindilari sifatida mavjud bo‘lgan resurslardan foydalanishni anglatadi. Bu o‘z navbatida tabiatga zarar keltirmasdan yuqori sifatli texnik materiallarni olishga imkon beradi. *Phragmites communis Trin.* ning sellyuloza ishlab chiqarishga qo‘llanilishi, ko‘plab foydali ekologik natijalarni beradi:

1. Tabiiy resurslardan foydalanish: O‘simlik ko‘p miqdorda o‘sadi va tezda yangi biomassani ishlab chiqaradi, bu esa qayta ishlash jarayonida samaradorlikni oshiradi.

2. Chiqindilarni kamaytirish: *Phragmites communis Trin.* qishloq xo‘jaligi va sanoat chiqindilarini kamaytirishda yordam beradi, chunki uning ko‘p miqdordagi biomassasi ekologik jihatdan foydalidir[1].

Phragmites communis Trin. o‘simligidan texnik sellyuloza olish jarayonining ekologik ta’siri ham ijobiy hisoblanadi. Ushbu o‘simlikdan sellyuloza olish jarayoni, umuman olganda, sanoatdagi boshqa materiallardan ko‘ra kamroq energiya va kimyoviy moddalardan foydalanishni talab qiladi. Bu jarayonda ishlatiladigan kimyoviy moddalar (masalan, xlorid kislota yoki natriy gidroksid) zarur miqdorda, ortiqcha ifloslanishni keltirib chiqarmasdan ishlatiladi. Ekologik jihatdan, *Phragmites communis Trin.* ning o‘simlik materiallari qayta ishlanadigan va tabiatga zarar keltirmaydigan resurslar sifatida ishlatiladi[2].

Adabiyotlar sharxi

Phragmites communis Trin. o‘simligi o‘zining yuqori sellyuloza miqdori bilan ajralib turadi. O‘simlikning turli qismlaridan (poya, barg, ildiz) yuqori sifatli texnik sellyuloza ajratib olish mumkin. Biokimyoviy tarkibida asosan **selluloza**, **lignin**, **polisaxaridlar** va boshqa organik moddalar mavjud. Sellyuloza o‘simlik materiallarining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, uning miqdori 20-30% atrofida bo‘ladi. Lignin esa o‘simlikning qattiqligini ta’minlash bilan birga, sellyulozaning ajratilishi jarayonida alohida e’tibor talab qiladi. **Lignin** tarkibi yuqori bo‘lgan o‘simliklardan sellyuloza olish jarayoni ko‘proq kimyoviy ishlov berishni talab qiladi. O‘simlikdan ajratib olingan sellyuloza holati jihatidan turli shakllarda uchraydi. Sellyuloza sanoatda ko‘p tarmoqlarda qo‘llaniladi, ularning har biri o‘ziga xos talablar va xususiyatlarga ega:

1. **Qog‘oz sanoati:** *Phragmites communis Trin.* o‘simligidan olingan texnik sellyuloza, ayniqsa, qog‘oz ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Bu material yuqori sifatli qog‘ozlar, karton va boshqa qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi. Olingan sellyuloza, tabiiy ravishda yuqori yelimlash xususiyatlariga ega bo‘lib, qog‘ozni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

2. **Biomassa va bioyoqilg‘ilar:** *Phragmites communis Trin.* o‘simligidan olingan sellyuloza bioyoqilg‘ilar ishlab chiqarish uchun ham ishlatilishi mumkin. O‘simlikning yuqori sellyuloza tarkibi, uni bioenergiya va bioyoqilg‘ilar uchun ajoyib manbaga aylantiradi. Bu o‘z navbatida, ekologik toza energiya ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlaydi[3].

3. **Bioplastik va kompozit materiallar:** Texnik sellyuloza o‘simliklardan bioplastik ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Bioplastiklar tabiiy manbalardan olingan, ekologik toza va qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan materiallardir. Ushbu materiallar sanoatning turli tarmoqlarida, jumladan qadoqlash va qurilish sanoatida foydalanishga yaroqlidir.

4. **Matolar va tekstil sanoati:** Sellyuloza shuningdek, tekstil sanoatida ham ishlatiladi. *Phragmites communis Trin.* o‘simligidan olingan sellyuloza, asosan, **viskoza matolarini** ishlab chiqarishda ishlatiladi. Viskoza tolasining mustahkamligi va yengilligi uni zamonaviy matolar va kiyim-kechaklar ishlab chiqarish uchun keng foydalaniladi.

Phragmites communis Trin. o‘simligidan texnik sellyuloza olish jarayoni ekologik jihatdan samarali hisoblanadi. O‘simlik o‘zi tez o‘sib, ko‘plab qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan (botqoq hududlaridan va qirg‘oqlardan) qayta ishlanadigan material sifatida ishlatiladi. Bu jarayon chiqindilarni kamaytirish va resurslarni barqaror tarzda ishlatishning ekologik foydaliligini ta’minlaydi. Ushbu o‘simlikdan olingan materiallarning tabiiy parchalanish xususiyatlari ham ekologik jihatdan foydalidir, chunki ularni qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish oson[4].

Metodika va usullar

Hozirgi kunda o‘simlik xomashyolaridan sellyuloza olishning bir necha usullari mavjud bo‘lib har birining o‘ziga xosligi va olingan sellyulozani sifati bilan farqlanadi. Quyida shu metodlarning bir nechtasini ko‘rib chiqamiz.

1. Mexanik usul-bu usulda sellyuloza ajratib olish 2 bosqichdan iborat:

a. O‘simlik materialini tayyorlash: Xom ashyo, odatda, maydalash yoki presslash orqali maydalanadi.

b. Fazaviy ajratish: Mexanik energiya yordamida sellyuloza tolalari ajratiladi, ammo lignin va gimisellyuloza ajralmaydi.

Mexanik usulda olingan sellyuloza qisman toza, lekin lignin va gemisellyuloza qolishi tufayli sifat past bo‘ladi[6].

2. Kimyoviy usullar

Kimyoviy usullar sellyuloza ajratishda samarali bo‘lib, yuqori sifatli mahsulot hosil qilishni ta’minlaydi. Quyida har bir kimyoviy usulning bosqichlari va kimyoviy moddalarning aniq miqdorlari keltirilgan.

a) Ishqorli usul (Kaliy gidroksidi yoki natriy gidroksidi bilan). Daslab o‘simlik xomashyosini tayyorlash. Bunda o‘simlik na’munalari yuvilib, quritiladi. Keyin esa kimyoviy ishlov beriladi. Kaliy gidroksidi (KOH) yoki natriy gidroksidi (NaOH) eritmali (1 kg xomashyo uchun 5-10 litr NaOH 3-7% li eritmasi sarflanadi) qo‘llanadi. Ishqor eritmasiga solingan o‘simlik na’munasi 100-120°C haroratda 2-6 soat davomida ishlov beriladi. Bu jarayonda na’muna tarkibidagi lignin va gemisellyuloza ajratilgach, qolgan tarkibni tozalash uchun suv bilan yuviladi. So‘ngra vodorod peroksidning 3-5%li eritmasi bilan oqartirish uchun 24-72 soatga qoldiriladi. Olingan na’muna yuvib quritilganda sellyuloza namunasi olinadi. Olingan sellyuloza yuqori sifatli, lekin ba’zan qo‘shimcha tozalash zarur bo‘ladi.

b) Kislota bilan ishlov berish (Sulfat yoki sulfit usullari) da ham dastlab o‘simlik na’munalari yuvilib, suv yordamida 3 soat davomida 90-100 °C haroratda qizdiriladi. Keyingi bosqichda xomashyoga sulfat kislotasi (H_2SO_4) yoki natriy sulfit (Na_2SO_3) (1 kg xomashyo uchun 4-5 litr H_2SO_4 ning 3% li eritmasidan) bilan ishlov beriladi. Bu jarayonda o‘simlik xomashyosi 120-150 °C harorat va yuqori bosim ostida 3-5 soat davomida qaynatiladi. Kislotali ishlov berishdan so‘ng xomashyo suv bilan yuvib quritiladi. So‘ng oqartirish uchun vodorod peroksidning 3-5% li eritmasiga 24-72 soatga qoldiriladi. Kislotali usulda olingan sellyuloza yuqori sifatli va toza, ammo kislotalar chiqindilari va energiya sarfi yuqori bo‘ladi[7].

3. Biologik usul-bu usulda fermentlar bilan ishlov beriladi. O‘simlik xomashyosi tayyorlanib ferment (laktaza, pektinaza, ligninaza) eritmasiga(1 kg o‘simlik xomashyosi uchun 0.51% miqdorda) qo‘llanadi. Ferment bilan ishlov berilgan xomashyo fermentdan tozalanib mikroorganizmlar yordamida lignin va gemisellyuloza ajratiladi. Jarayon davomiyligi: 24-72 soat davomida harorat 25-40°C oralig‘ida bo‘lishi kerak. Biologik usulda olingan sellyuloza yuqori sifatli va toza, lekin jarayon uzoq davom etadi va fermentlarning narxi qimmat[8].

Tahlil natijalari

Yuqorida bir necha tur metodlar va ulardan kutiladigan natijalar haqida yoritildi. Bular anchayin eskirgan usul hisoblanib energiya tejamkor va kam vaqt talab qiladigan metodlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda biz nitratli usul bilan sellyuloza ajratib oldik. Bunda o‘simlik na’munasi olib kelinib tegirmonda maydalandi va uni elakdan o‘tkazilib, 5-15 mm uzunlikdagi o‘simlik xomashyosini tarozida 31.15 gr na’munasi tortib olindi. Na’muna 2 litrli kolbaga solinib 1,5 l HNO_3 ning 3% li eritmasi quyilib 3 soatga 80-90°C haroratga qo‘yildi. Bunda tarkibidagi qo‘shimchalardan va qisman lignindan tozalandi. Na’munamiz 3 soat davomida qizdirilgandan keyin bir necha bor suv bilan yuvilib quritish shkafiga 3 saotga 85°C haroratga qo‘yib quritildi. Quritilgan namunani massasi 19.73 grni tashkil etdi. So‘ng uchta idishga 5 gr dan na’muna tortib olinib tegishli tartibda 1-kolba 2% li, 2-kolba 4% li va 3-kolba 6% li ishqor (NaOH) eritmasiga 2 soat davomida 70-80°C haroratga qizdirish uchun qo‘yildi. Ishqoriy ishlov berishdan so‘ng har bir ko‘lbadagi na’munalar alohida yuvilib yana quritish shkafiga 3 saotga 85°C haroratga qo‘yildi. Bunda tarkibidagi namlik yo‘qolganidan keyin oqartirish uchun oqartiruvchi (1% li vodorod peroksid, 3% li ishqor) aralashmaga 60-70°C haroratda qo‘yildi, natijada texnik sellyuloza hosil bo‘ldi.



a




b



c


***1-rasm. a*-2%li ishqor bilan ishlov berilgan texnik sellyuloza, *b*-4%li ishqor bilan ishlov berilgan texnik sellyuloza, *c*-6%li ishqor bilan ishlov berilgan texnik sellyuloza**

Oqartirishdan o‘tgan na’muna yuvilib quritildi va tayyor texnik sellyuloza olindi (1-rasm). Olingan na’munalar IQ analizda spektri o‘rganilib Mikrofibrillal sellyuloza bilan o‘xshashligi solishtirildi.




2-*rasm*. 2% foizli ishqor na'munasida olingan sellyuloza IQ spektri

3328 nmdagi sohada signal berdi. Bundan ko'rinadiki O-H bog'lari mavjudligi 2800-2900 nmda esa sp^3 gibridlanganda C-H bog'ining mavjudligini ko'rildi. 1028 nmda C-O-C bog'I borligi ma'um bo'ldi.



***3-rasm*. 4% foizli ishqor na'munasida olingan sellyuloza IQ spektri**

4% li ishqorda ishlov berib olingan sellyulozada na'munasida ham sellyulozaga xos bo'lgan sohalarda signallar bergan. Lekin 2% li ishqordagi namunadan farqli 2360 nmda C≡C bog'i kusiz signal bergan.



***4-rasm*. 6% foizli ishqor na'munasida olingan sellyuloza IQ spektri**

6% li na'munamizda Yuqoridagi ikkita na'munadan farqli 2360 nm dagi sohada C≡C bog'ini kuchli signal berib namoyon qilgan.

1-jadval. Olingan sellyuloza na'munalari spektrlarini solishtirish jadval

№	Ishqor konsentratsiyasi	Mikrofibrillar sellyuloza bilan o'xshashligi (%)
1	2% li NaOH eritmasi	95,3%
2	4% li NaOH eritmasi	95,5%
3	6% li NaOH eritmasi	87 %

Olingan sellyuloza na'munalarning IQ spektorlari natijalari tahlil qilindi va yuqoridagi jadvalda o'zaro solishtirildi.

Xulosa

Phragmites communis Trin. o'simligidan texnik sellyuloza olish jarayoni, ekologik nuqtai nazardan ham iqtisodiy samarali bo'lib, uning sanoatdagi qo'llanilishini yanada kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdi-ki, ishqorning konsentratsiyasi 4% dan 6% ga o'zgarganda olingan na'muna mikrofibrillar sellyulozaga nisbatan o'xshashligi keskin kamaygan.

Nitratli usulning avzalligi shundaki ishqoriy usuldan ko'ra tozaroq bo'lgan sellyuloza olish imkonini beradi. Bundan tashqari bu usul boshqa usullardan ko'ra iqtisodiy samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ali, R., Zhang, Y., & Chen, L. (2020). Biochemical composition and potential of Phragmites communis Trin. for cellulose production. Journal of Industrial Ecology, 15(3), 320-330.

2. Smith, J., & Li, H. (2018). Environmental impact and sustainable use of plant biomass in cellulose production. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 78, 123-132.

3. Kumar, S., & Gupta, R. (2017). Comparison of chemical methods for cellulose extraction from agricultural residues. Carbohydrate Polymers, 157, 1012-1021.

5. Zhang, J., & Chen, F. (2021). Evaluation of cellulose extraction techniques from Phragmites communis Trin. Environmental Technology, 42(6), 746-755.

6. Lee, J., & Park, H. (2016). Effect of alkaline and acid pretreatment on the cellulose yield from lignocellulosic biomass. Bioresource Technology, 218, 1-7.

7. Tiemann, T., & Wang, X. (2019). Impact of chemical pre-treatments on the cellulose yield from grass species. Industrial Crops and Products, 128, 97-104.

8. Doliyev, G.A. (2018). Advances in the extraction of cellulose from natural fibers and its industrial applications. Scientific Journal of Material Science, 10(3), 227-239.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Nazarov N.I.
Buxoro davlat universiteti
Beknazarov H.S.
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti
Mirzoyeva G.A.
Buxoro muhandislik texnologiya institutiakademik litseyi
Gmail:nazarov.nurullo@list.ru

KROTONILIDENIMIN-O-BENZOY KISLOTANING RUXLI TUZI YORDAMIDA BARQARORLASHTIRIGAN POLIVINILXLORID KOMPOZITSIYASINING TERMIK TAHLILI

Annotatsiya: *Krotonilidenimin-o-benzoy kislotasining (KBK) ruxli tuzi sintez qilindi. Sintez qilingan tuzning xossalari termogravimetrik usulda tahlil qilindi. KBK ning ruxli tuzi polivinixloridga termostabilizator sifatida qo'llanildi va sanoatda qo'llalaniladigan stabilizator bilan taqqoslanganda unga nisbatan yuqori termobarqarorlikka ega ekanligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *PVX, termostabilizator, TGA, DTA, Zn-KBK.*

Назаров Н.И.
Бухарский государственный университет
Бекназаров Х.С.
Ташкентский научно-исследовательский институт химической технологии
Мирзаева Г.А.
Академический лицей при Бухарском инженерно-технологическом институте

ТЕРМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОМПОЗИЦИЯ ПОЛИВИНИЛХЛОРИДА, СТАБИЛИЗИРОВАННОГО ЦИНКОВОЙ СОЛИ КРОТОНИЛИДЕНИМИН-О-БЕНЗОЙНОЙ КИСЛОТЫ

Аннотация: *Синтезирована цинковая соль кротонилиденимин-о-бензойной кислоты (КБК). Свойства синтезированной соли изучены термогравиметрическим методом. Цинковая соль КБК использована в качестве стабилизатора поливинилхлорида и определено, что она обладает более высокой термостабильностью, чем используемые промышленные стабилизаторы.*

Ключевые слова:: *ПВХ, термостабилизатор, ТГА, ДТА, Zn-КБК.*

Nazarov.N.I.
Bukhara state University
Beknazarov Kh.S.
Tashkent research Institute of chemical technology
Mirzoyeva G.A.
Academic Lyceum at Bukhara Engineering Technological Institute

THERMAL ANALYSIS OF A COMPOSITION OF POLYVINYL CHLORIDE STABILIZED BY THE ZINC SALT OF CROTONYLIDENIMINE-O-BENZOIC ACID

Abstract*: The zinc salt of crotonylideneimine-o-benzoic acid (CBA) was synthesized. The properties of the synthesized salt were studied by thermogravimetric method. Zinc salt KBC has been used as a stabilizer for polyvinyl chloride and has been determined to have higher thermal stability than commercial stabilizers used.*

Key words: *PVC, heat stabilizer, TGA, DTA, Zn-KBK.*

Kirish.

Polivinilxlorid (PVX) ko'plab kompozit materiallarning asosi bo'lib, termoplastik polimerlar orasida ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Hozirgi vaqtda PVX dan ishlab chiqariladigan polimerlar qurilish materiallari bozorining 69 foizini

tashkil etadi. PVX asosida olingan polimer mahsulotlar qurilish, qadoqlash, tashqi qoplamalar, derazalar, mebel jihozlari, kiyim-kechak, poyabzal va boshqa turli sohalarda foydalanish uchun tobora ko‘proq ishlab chiqarilmoqda. PVX kimyoviy moddalar va erituvchilarga nisbatan barqaror, lekin quyosh nuri va issiqlik ta`siriga chidamli emas. Bundan ko‘rinadiki PVX asosida olingan polimerlarning turli agressiv holatlarga barqarorligini oshirib, ularning yaroqlik muddatini oshiradigan stabilizatorlar ishlab chiqarish barcha mamlakatlarda muhim yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Polivinilxloridni uzoq sinovlar va tadqiqotlar natijasida inson salomatli uchun xavfsizligi aniqlangan [1].


Navoiyazot AJ tomonidan ishlab chiqarilgan savdo markasi SG-5 bo‘lgan PVX olindi. Organik erituvchilar sifatida etanol, dimetilformamid (DMFA) va toluoldan foydalanildi. Barcha erituvchilar “chda” sinfli spektroskopik toza yoki taklif qilingan usullar bilan tozalangan erituvchilar hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Polivinilxlorid (PVX) xalq xo‘jaligi va sanoatda keng tarqalgan polimer bo‘lib, uning ishlab chiqarilishi polietilen va polipropilendan keyin uchinchi o‘rinda turadi [2]. Bu iqtisodiy jihatdan tejamkor, juda ko‘p qirrali va ko‘plab qurilish ishlarida, kanalizatsiya va drenaj quvurlari va turli ekstruziya asosida olinadigan profillarda qo‘llaniladi [3]. Biroq, PVX yuqori haroratda vodorod xlorid (HCl) ajralib chiqishi bilan parchalanishi ma’lum, bu esa parchalanish jarayonini tezlashtiradi. Hosil bo‘lgan polimer tarkibidagi uglerod atomlari orasida konyugatsiyalangan qo‘sh bog‘lar soniga qarab sariq, to‘q sariq, qizil, jigarrang va nihoyat qora rangga ega bo‘ladi [4]. Tarkibida metal saqlagan yog‘ kislotalari[5], qo‘rg‘oshinli stabilizatorga qaraganda xavfsizroq sanaladi, ammo ularning barqarorlashtiruvchi ta’siri odatda qo‘rg‘oshin tuzlariga qaraganda past bo‘ladi. Ilmiy izlanishlar natijasida ba’zi o‘simliklardan olinadigan yog‘ kislotalari asosida olingan kalsiy va rux tuzlari, PVX uchun xavfsiz termostabilizatorlar ekanligi aniqlanib qo‘llanilgan [6]. PVX uchun ekologik toza termostabilizatorlarni yaratishda, Mohamed va boshqalar [7] PVX ning parchalanish jarayonini oldini olish maqsadida kroton tiobarbitur kislota (KTBK) va jigarrang tiobarbitur kislota (jigTBK) ning havodagi termobarqarorlik qobiliyatini o‘rgandilar. Ushbu birikmalar PVX ga termostabilizatorlar sifatida qo‘llanilgan va uning samaradorligi hisobiga vodorod xlorid gazi ajralishi kuzatilmagan induksion davrini (Ts) o‘lchash yo‘li bilan, destruksiyaga uchragan polimerning rangsizlanish darajasi, shuningdek, doimiy potensiometrik titrlash usuli bilan o‘lchangan degidroxlorlanish tezligi bilan teng darajada baholangan.

Tadqiqot metodologiyasi. *Zn-KBK oligomerining sintezi.* Rux tuzining etanoldagi issiq eritmasi (10 ml) sekinlik bilan 10 ml KBK eritmasiga 1:2 molyar nisbatda qo‘shiladi va aralashtirib turgan holda eritma suv hammomida 2 soat davomida aralashtiriladi, natijada metall kompleksi cho‘kmaga tushadi. Hosil bo‘lgan cho‘kma vakuumli nasos yordamida ajratiladi so‘ngra olingan kompleks vakuumli eksikatorda suvsiz kalsiy xlorid ustida saqlab quritiladi. Hosil bo‘lgan kompleks birikma qattiq holatda havoda barqaror bo‘lib, DMFA va DMSO da eriydi. Polivinilxloridning PVX –C-6346 M markali namunasining 100 g massasiga nisbatan 3,16 g bo’r, 2g Zn-KBK termostabilizatori, 0,15g stearin kislotasi qo’shib, PVX ning kompozitsiyasi tayyorlandi[8-9].

Zn-KBK bilan stabilizatsiyalangan PVX namunasining termik barqarorligi SHIMADZU firmasining DTG-60 turdagi termogravimetrik analizatorida (TGA) baholandi. O‘rtacha massasi 6 mg ga teng bo‘lgan namuna 50 °C dan 800 °C gacha argon atmosferasida qizdirildi (qizdirish tezligi 10 °C/min, argon oqimining tezligi 80 ml/min). Differensial termogravimetrik analizatorida (DTA) tahlili SHIMADZU firmasining DTG-60 turdagi modelida bajarildi. O‘rtacha massasi 6 mg ga teng bo‘lgan namuna 50 °C dan 800 °C gacha argon atmosferasida qizdirildi (qizdirish tezligi 10 °C/min, argon oqimining tezligi 80 ml/min).

Tahlillar va natijalar. Zn-KBK bilan stabilizatsiyalangan polivinilxloridning derivatogrammasi 1-rasmda keltirilgan bo‘lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig‘i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko‘rsatadiki, TGA egri chizig‘i asosan 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig‘ida amalga oshadi. 1-parchalanish oralig`i 20,29-233,34 $^0$C temperaturada sodir bo‘ldi bunda massa o‘zgarishi 0,263mg 5,307%, 2-parchalanish oralig`i 233,34-354,68 ^{0}C temperaturada sodir bo‘ldi, bunda massa o‘zgarishi 2,721mg 54,903%, 3-parchalanish oralig`i 354,68 -719,63 ^{0}C temperaturada sodir bo‘ldi, bunda massa o‘zgarishi 1,288mg 25,989%.



1-Rasm. Zn-KБK-bilan stabilizatsiyalangan PVX kompozitsiyasining termik tahlil derivatogrammasi

Bu derivatogrof tadqiqotlar natijasidan ko‘rinadiki 2-parchalanadigan oraliqda intensiv parchalanish jarayoni sodir bo‘lib, asosiy massaning kamayishi 233-354 ^{o}C oralig‘ida kuzatiladi, unda asosiy massaning 54,903 % ya’ni

massaning 2,721mg yo‘qoladi. 719 °C dan keyin o’zgarish kuzatilmaydi.

Xulosa.

Krotolidenimin-o-benzoy kislota ruxli tuzi sintez qilindi. Sintez qilingan namuna PVX ga termostabilizator sifatida qo‘llanildi. Stabillangan PVX ning termik tahlili o‘rganildi. Termogramma ma’lumotlariga muvofiq, krotolidenimin-o-benzoy kislota ruxli tuzi PVX kompozitsiyasining termik barqarorligini yaxshiladi. Ushbu termostabilizator (2mass%) bilan barqarorlashtirilgan PVX uchun Ti tegishlicha 233 °C va 354 °C ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Минскер К.С., Федосеева Г.Т. Деструкция и стабилизация поливинилхлорида – Химия, 1979, 272

2. Yoshioka T, Kameda T, Leshige M, Okuwaki A (2008). Dechlorination behaviour of flexible poly(vinyl chloride) in NaOH/EG solution. Polym. Degrad. Stab., 93: 1822-1825.

3. Van Es DS, Steenwijk J, Frissen GE, van der Kolk H.C, van Haveren J, Geus J.W, Jenneskens LW (2008). The compatibility of (natural) polyols with heavy metal- and zinc- free poly(vinyl chloride): Their effect on rheology and implications for plate-out. Polym. Degrad. Stab., 93: 50-58.

4. Sabaa MW, Mohamed RR (2007). Organic thermal stabilizers for rigid poly(vinyl chloride). Part XIII. Eugenol (4-allyl-2-methoxy-phenol). Polym. Degrad. Stab., 92: 587-595

5. Файзуллина Г. Ф., Маскова А. Р., Аминова Г. К., Мазитова А. К. Стабилизация поливинилхлоридных композиций солями пальмитиновой кислоты // Электронный научный журнал «Нефтегазовое дело». 2017. №4.-С.69-83.

6. Folarin OM (2008). Thermal stabilization of poly(vinyl chloride) by Ximenia americana (Wild Olive) and Balanites aegyptiaca(Betu) seed oils and their derivatives. PhD Thesis, Chemistry Department, University of Agriculture, Abeokuta Nigeria.

7. Mohamed N.A, Sabaa M.W, Khalil Kh.D, Yassin A.A (2001). Organic thermal stabilizers for rigid poly(vinyl chloride) 111. Crotonal and cinnamal thiobarbituric acids. Polym. Degrad. Stab., 72: 53-61.

8. Назаров Н.И., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т., Ширинов Г.К. Новые комплексные соединения в качестве термостабилизаторов поливинилхлорида // Композиционные материалы научно-технический и производственный журнал. -2021. -№4.-С.3-7

9. Назаров Н.И., Бекназаров Х.С., Мирзоева Г.А. Кротонилиденимин-о-бензойной кислотанинг калцийли тузи ёрдамида барқарорлаштириган поливинилхлориднинг термик таҳлили //“Наманган давлат Университети илмий ахборотномаси” Наманган-2022 йил №6-сон -Б.177-182 (02.00.00., №18)

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Mamatvaliyev Ibrohimjon Tolib o'g'li
Namangan to'qimachilik sanoati instituti mustaqil izlanuvchisi
Email: mamatvaliyevibrohimjon@mail.ru
Abdumajidov Anvar Abdumalikovich
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti
Email: anvarshohv@mail.ru
Nabiyeva Iroda Abdusamatovna
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti professori

UO'K 633.854.434

CANNABIS SATIVA L O'SIMLIGIDAN TOLA OLISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Cannabis Sativa L o'simligidan tola olish jarayoni kinetikasini to'g'ri tadqiq qilish asosida to'qimachilik sanoati uchun xomashyo ishlab chiqarish taklif etilgan. O'simlik tolasiga dag'allik beruvchi yondosh moddalar ishqor ta'sirida toladan chiqarilgan, ishlov berilgan tola sifat ko'rsatkichi etib, tola tarkibidagi lignin miqdori belgilab olingan. Olingan tadqiqot natijalari Respublikamiz yengil sanoatining barcha sohalarida qo'llash imkoni mavjud bo'lgan xomashyo turlarini yaratish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Cannabis Sativa L o'simligi, tabiiy tola, natriy gidroksid, lignin, qaynatish.*

Маматвалиев Иброхимджон Толиб угли
Наманганский институт текстильной промышленности, исследователь
Абдумажидов Анвар Абдумаликович
Доцент Ташкентского института текстильной и легкой промышленности
Набиева Ирода Абдусаматовна
Профессор Ташкентского института текстильной и легкой промышленности

ВОЗМОЖНОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ВОЛОКОН ИЗ CANNABIS SATIVA L.

Аннотация: *Резкое увеличение спроса на новые виды природного сырья обуславливает рост интереса к технической конопле. Растение конопли возделывается на протяжении тысяч лет как волокнистое, зерновое и лекарственное растение. Однако, поскольку волокно, получаемое из растения грубое, его применение в текстильной промышленности не получило широкого распространения. Учитывая вышеизложенные данные, в данной статье предлагается производство сырья для текстильной промышленности на основе надлежащего изучения кинетики извлечения волокна из растения Cannabis Sativa L. Дополнительные вещества придающие волокну растения грубость, удаляются из волокна под воздействием щелочи, обработанное волокно подвергается обработке и определяется количество лигнина в волокне как показатель его качества. Полученные результаты исследований позволяют создавать сырье, которое может быть использовано во всех отраслях легкой промышленности нашей Республики.*

Ключевые слова: *растение Cannabis Sativa L, натуральное волокно, гидроксид натрия, лигнин, кипячение.*

Mamatvaliyev Ibrohimjon Tolib ogli
Namangan Institute of Textile Industry Independent Researcher
Abdumajidov Anvar Abdumalikovich
Associate Professor of Tashkent Institute of Textile and Light Industry
Nabiyeva Iroda Abdusamatovna
Professor of Tashkent Institute of Textile and Light Industry

OPPORTUNITIES FOR OBTAINING FIBER FROM CANNABIS SATIVA L.

Abstract: *The sharp increase in the demand for new types of natural raw materials is causing an increase in interest in technical Cannabis. The Cannabis plant has been cultivated for thousands of years as a fiber, grain, and medicinal plant. However, since the fiber*

obtained from the plant is coarse, its use in the textile industry has not been widespread. Taking into account the above data, this article proposes the production of raw materials for the textile industry based on a proper study of the kinetics of fiber extraction from the Cannabis Sativa L plant. The coagulants that give the plant fiber its coarseness are removed from the fiber under the influence of alkali, the treated fiber is treated, and the amount of lignin in the fiber is determined as an indicator of its quality. The results of the research obtained allow the creation of raw materials that can be used in all sectors of the light industry of our Republic.

Keywords: *Cannabis Sativa L plant, natural fiber, sodium hydroxide, lignin, boiling.*

Kirish.

XXI asrga kelib, global barqaror rivojlanishga erishish va uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun tabiiy tolalardan foydalanish tobora ortib bormoqda. Bu borada lub tolalari oilasiga kiruvchi o‘simliklardan tola olish va ularning sifatini yaxshilash texnologiyalarini ishlab chiqish, hamda ishlab turgan texnologiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda lub tolalaridan to‘qimachilik kompozit materiallari [1], elektrokimyo [2], qurilish sanoatida qo‘llaniladi, bunga asosiy sabab esa ushbu tolalarning yuqori darajada mexanik mustahkamlikka ega bo‘lishi, deformatsiya xossasining pastligi, naxrining arzonligi, hamda inson tanasiga ta’sir etmasligidadir [3]. Ammo lub tolalarining olovbardoshlik xossalari juda past bo‘lib, tez alangalanish xususiyati mavjud. Ular issiqlik ta’sirida tez alangalanadilar va katta miqdorda issiqlik hosil qilishadi [4].

Adabiyot tahlili. Paxta tolasi yengil sanoatning eng ko‘p foydalaniladigan xomashyosi bo‘lishiga qaramasdan, lub tolalari oilasidan zig‘ir, kanop, cannabis va jut o‘simliklari tolalaridan mahsulot turlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi. Ammo ko‘plab sohalarda ushbu o‘simliklardan olingan tolalarni samarali qayta ishlash texnologiyalarining yo‘qligi, ulardan foydalanishda cheklovlarni yuzaga keltirmoqda. Misol uchun kanop va cannabis o‘simliklaridan olingan tolalar qayta tiklanuvchi alternativ xomashyo sifatida bioyoqilg‘i, biodizel va biospirt ishlab chiqarish uchun taklif etilgan bo‘lsada, yog‘och asosli tabiiy tolalarning taklif etayotgan xossalari bo‘yicha hali-ham sanoat miqyosida ushbu tolalar qo‘llanilib kelinmoqda. Bunga yaqqol sabab qilib, kanop va cannabis tolalarining termomexanik, kimyoviy va strukturaviy xossalari haqida ma’lumot yetishmasligini ko‘rsatish mumkin [5]. Ushbu tolalarning murakkab tarkibi, funktsional xossalari va tuzilishini o‘rganish, ularni qayta tiklanuvchi resurs sifatida qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Kanop va cannabis tolalari tarkibidagi yuqori qutbli funktsional guruhlar vodorod bog‘larini hosil bo‘lishini ta’minlashi, hamda tolalarning sellyuloza I struktura zanjiridagi 6-OH···O-3 tipidagi malekolalar aro vodorod bog‘lari, 2-OH···O-6 va 3-OH···O-5 tipidagi ichki malekulalar aro vodorod bog‘lari zanjirning ikki tarafida ham mavjudligi, ularni paxta tolasiga qaraganda fizik-mexanik xossalarining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi [6]. Vodorod bog‘larining tabiati va xossalari turli xil sellyuloza allomorflari orasida farq qiladi [7].

Bir qator olimlar [8] tomonidan cannabis o‘simligi chiqindilarini qayta ishlash bo‘yicha izlanishlar olib borilgan bo‘lib, 3D chop etish qurilmalarining (printer) iplari-polilaktid (PLA) poliefirini cannabis po‘stlog‘i bilan mustahkamlangan kompozit asosida ishlab chiqarish texnologiyalari yaratilgan. Cannabis o‘simligi po‘stlog‘idan olingan mikrotolalar ishqorli eritmada (Na_2CO_3) olingan bo‘lib, polilaktid poliefiri bilan 20 ga 80 % nisbatdagi kompozitsiyada shakllantirilgan, natijada, hosil bo‘lgan iplarning mustahkamligi 8% ga ortgan. Qolaversa, ipning termomexanik xususiyati bir necha marta yaxshilangan. Polilaktid poliefiri past qattiqlik darajasiga ega ekanligi va termomehanik jarayonlarga barqaror emasligi sababli, 100% PLA dan tayyorlangan iplarga nisbatan, cannabis o‘simligi po‘stlog‘i kompozitsiyasi asosidagi iplarni qayta ishlash jarayonida 3 marotabagacha olib borish mumkinligi uning yana bir ustunligi hisoblanadi. So‘ngi yillarda cannabis o‘simligi po‘stlog‘i bir qancha termoplastik biokompozitlarning bioto‘ldiruvchilar sifatida foydalanilmoqda [9]. Ushbu biologik to‘ldiruvchi o‘z xususiyatlari bilan 0,02 mm diametrli kimyoviy tolalar olish imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga tolaning fizik va termomexanik xossalarini yaxshilaydi. Yuqori bosimda chop etish imkoniyati natijasida, o‘lchamlarni yuqori aniqlikda bosish imkoniyatiga erishiladi.

Texnik kannabisning tola olish jarayoni va unga ishlov berish usullari, shuningdek, ularning sifatini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Bunday texnologik jarayonlar, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi va sanoatning yangi imkoniyatlarini yaratadi [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishining ob’yekti Cannabis Sativa L o‘simligidan olingan tola hisoblanadi. O‘simlikdan tola olish va tola tarkibidagi yondosh moddalardan tozalash maqsadida ishqorli qaynatish jarayoni olib borildi. Qaynatish jarayoni o‘yuvchi ishqorning 2-20% li konsentratsiyalarida, 60-120^{o}C harorat oralig‘ida va 10-70 daqiqa mobaynida olib borildi. Qayta ishlov berilgan tolaning sifat ko‘rsatkichi-tola lignin miqdori bilan ifodalanib, ISO 21436:2020 xalqaro standarti bo‘yicha tekshirildi.

Tahlillar va natijalar.

Cannabis Sativa L eng tez o‘suvchi o‘simliklardan biri bo‘lib, paxta bilan solishtirganda, 1 gektardan 4

barobar ko‘p hosil olish imkoniyati mavjud, qolaversa, o‘simlikni yetishtirish uchun qishloq xo‘jaligining kimyoviy moddalari nisbatan kamroq ishlatiladi, hamda ushbu o‘simlik suvni ancha kam talab qiladi. Foydalanish jarayonida **zararlangan** yerlarni tiklash uchun tuproqdan kadmiy va boshqa zaharli moddalarni chiqarib olishda foydali bo‘lib, 110 kun ichida o‘simlik 3-4 metrga yetadi va bu bir mavsumda bir nechta hosil olish imkonini beradi. Jahonda 40 dan ortiq davlatlarda texnik kannabisdan sanoat maqsadlarida foydalanib kelinmoqda. Cannabis Sativa L tolasidan tayyorlangan mahsulotlar qog‘oz, mato va biokompozitlar, an’anaviy materiallarga qaraganda 4 baravar tezroq biodegradatsiyalanadi, bu esa ularni ekologik jihatdan maq’bul qiladi.

Barcha tabiiy tolalar kabi Cannabis Sativa L o‘simligi tolalari asosiy uchta komponentdan tashkil topgan: sellyuloza, lignin va sellyuloza va ligninni bir biriga geterogen bog‘lar orqali bog‘lovchi polisaxaridlar (pektin va gemisellyuloza). O‘simlik tarkibidagi har bir fibrillari o‘ziga xos-qatlamsimon tuzilishga ega bo‘lib, ular uch qatlamda shakillangan bo‘ladi. Ushbu qatlamsimon tolaning o‘rta qatlami uzun zanjirli sellyuloza molekulalaridan hosil bo‘lgan, taxminan 10-30 nm diametrli spiral orientatsiyali o‘ralgan hujayra mikrofibrillalaridan iborat bo‘lib, birinchi qatlamga nisbatan sellyuloza miqdori jihatdan ko‘proq, qolgan komponentlar miqdori bo‘yicha kamroq tuzilishga ega bo‘ladi. Ikkinchi darajali hujayra qatlamidagi amorf faza lignin, gemisellyuloza va ba’zi hollarda pektindan tashkil topgan bo‘ladi. Shuning uchun odatda ushbu tolalarni yuqori kristallikka ega bo‘lgan ya’ni sellyuloza, lignin va polisaxaridlar kompozitli kristallikka ega bo‘lgan tolalar sifatida qaraladi.

Yuqordidagi ma’lumotlarni hisobga olgan holda Cannabis Sativa L o‘simligidan tola olish va yondosh moddalarni eritib, toladan chiqarish maqsadida o‘yuvchi ishqor bilan (NaOH) ishlov berildi.

Cannabis Sativa L o‘simligi umumiy biomassasiga nisbatan 21-24% lignin saqlaydi, uning tolasi tarkibida esa 10% gacha lignin moddasi mavjud bo‘ladi. Tadqiqotlarda o‘yuvchi ishqor konsentratsiyasining tola lignin miqdoriga ta’siri o‘rganildi, natijalar 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

Cannabis Sativa L o‘simligi tolasi tarkibidagi lignin miqdoriga NaOH konsentratsiyaning ta’siri

NaOH konsentratsiyasi, %	Tola lignin miqdori, %	Jarayon muhiti (pH)	Jarayon davomiyligi, daqiqa	Harorat, ^{o}C
2	9,5	9	30	70
4	8,9	9	30	70
6	8,0	9	30	70
8	7,1	10	30	70
10	6,9	10	30	70
12	6,5	11	30	70

Natijalardan ko‘rinib turibtiki, ishqor konsentratsiyasi ortib borishi bilan tola tarkibidagi lignin miqdorining kamayishi kuzatilmoqda. Bunga sabab, ishqor moddasi tola tarkibida sellyuloza va lignin moddalari aro lignin-uglevod kompleks bog‘larini uzishidadir. Cannabis Sativa L o‘simligi tolasidan ligninni ajratib olishda NaOH ning 8% konsentratsiyasi eng maq’bul qiymat deb tanlab olindi, konsentratsiyaning 8% dan ortib borishi bilan lignin miqdorining kamayishi kuzatilsada, yuqori ishqoriy muhitda sellyulozaning destruktsiyasi ham shiddat bilan boradi va natijada tolaning fizik-mexanik xossalarining pasayib ketishi kuzatiladi.


Tadqiqotlarning keyingi bosqichida jarayon haroratining tola sifat ko‘rsatgichiga ta’siri tadqiq etildi (1-rasm).



1-rasm. Cannabis Sativa L o‘simligi tolasi tarkibidagi lignin miqdoriga jarayon haroratining ta’siri

(Izoh: Ishqor konsentratsiyasi – 8%, jarayon davomiyligi – 30 daqiqa)

Jarayon harorati ortib borishi bilan ligninning uglevod bilan o‘zaro bog‘larini parchalanishi kuzatilmoqda. Lignin moddasining ichki molekulalar aro bog‘arining uzilishi esa uni erib, toladan eritma tarkibiga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Jarayon harorati 100^{o}C bo‘lganda, tola lignin miqdorining 28% ga kamayishi kuzatildi. Ammo tola tarkibidagi lignin miqdori hali ham yuqori qiymatga ega ekanligi, uning dag‘al bo‘lishiga olib kelib, ushbu toladan to‘qimachilik sanoatida qo‘llash imkoniyatini cheklaydi. Izlanishlarimizda jarayon davomiyligini tadqiq etish orqali tola sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash belgilab olindi (2-rasm).



2-rasm. Cannabis Sativa L o‘simligi tolasi tarkibidagi lignin miqdoriga jarayon davomiyligining ta’siri

(Izoh: Ishqor konsentratsiyasi – 8%, jarayon harorati – 100°C)

2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibtiki, ishqoriy muhitda va yuqori haroratda ishlov berish daomiyligini ortib borishi bilan lignin miqdori kamayib borishi kuzatilmoqda. Ammo uzoq vaqt davomida tolaning ushbu sharoitda bo‘lishi uning fzik-mexanik xossalarining pasayishiga olib keladi. Ishlov berilgan tolalar sirka kislotasining 2 g/l li eritmasida neytrallanadi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida Cannabis Sativa L o‘simligidan tola ajratib olish uchun qaynatish jarayonini NaOH ning 8 % li eritmasida, 100°C haroratda, 60 daqiqa davomida olib borish tavsiya etildi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot Cannabis Sativa L o‘simligidan tola olish va tolaga ishlov berish jarayonlarini o‘rganildi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Cannabis Sativa L o‘simligi nafaqat yuqori sifatli tola manbai bo‘lib, balki qayta ishlash imkoniyatlari va ekologik barqarorligi bilan ham ajralib turadi. O‘simlik tolasi sellyuloza va yondosh moddalar: lignin, gemisellyuloza va pektin moddalaridan tashkil topgan. Yondosh moddalar sellyuloza mikrofibrillarining amorf qismlarini to‘ldirib turishi bilan, tolaga dag‘allik va sarg‘imtir tus beradi. Cannabis Sativa L o‘simligidan tolasidan yondosh moddalarni chiqarish uchun o‘yuvchi ishqor bilan qaynatish jarayoni amalga oshirildi va quydagi sharoit taklif etildi: o‘simlikdan ekologik havfsiz usulda tola olish uchun NaOH ning 8% li eritmasida, 100°C haroratda, pH-10 muhitda, 60 daqiqa davomida ishov beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.S. Heo, J. Eom, Y.-H. Kim, S.K. Park. Recent progress of textile-based wearable electronics: a comprehensive review of materials, devices, and applications. Small, 14 (2018), p. 1703034

2. L. Manjakkal, A. Jain, S. Nandy, S. Goswami, J.Tiago Carvalho, L. Pereira,

C.H. See, S.C. Pillai, R.A. Hogg. Sustainable electrochemical energy storage devices using natural bast fibres. Chem. Eng. J., 465 (2023), Article 142845

3. A. Karimah, M.R. Ridho, S.S. Munawar, D.S. Adi, Ismadi, R. Damayanti,

B. Subiyanto, W. Fatriasari, A. Fudholi // A review on natural fibers for development of eco-friendly bio-composite: characteristics, and utilizations

4. R. Moriana, F. Vilaplana, S. Karlsson, A. Ribes. Correlation of chemical, structural and thermal properties of natural fibres for their sustainable exploitation

Carbohydr. Polym., 112 (2014), pp. 422-431

5. V Fiore, T Scalici, F Nicoletti, G Vitale, M Prestipino, A Valenza. A new eco-friendly chemical treatment of natural fibres: Effect of sodium bicarbonate on properties of sisal fibre and its epoxy composites. Composites Part B: Engineering 85, 150-160

6. Comprehensive Natural Products Chemistry. Reference Work. Editors-in-Chief: Sir Derek Barton, Koji Nakanishi and Otto Meth-Cohn. 1999

7. O‘Sullivan. Hydrogen bonding in wood-based materials. // Carbohydrate Polymers. 1997

8. M.D.H. Beg, K.L. Pickering, John O. Akindoyo, C. Gauss Recyclable hemp hurd fibre-reinforced PLA composites for 3D printing. Journal of Materials Research and Technology. Volume 33, November–December 2024, Pages 4439-4447

9. Xianglian Xiao a b c, Venkata S. Chevali a, Pingan Song a, Dongning He d,

Hao Wang a Polylactide/hemp hurd biocomposites as sustainable 3D printing feedstock Composites Science and Technology Volume 184, 10 November 2019, 107887

10. A.A.Abdumajidov, I.T.Mamatvaliyev Current trends in scientific research development. roceedings of II International Scientific and Practical Conference. Boston 2024, ISBN 978-1-73981-122-8.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Samandarov Elyor Shonazar o'g'li
Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktaranti
E-mail: samandarove6@gmail.com
Ibragimov Aziz Bakhtiyarovich
Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori
E-mail:aziz_ibragimov@mail.ru.
Yakubov Yuldosh Yusupboevich
Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti labaratoriya mudiri. Professor
E-mail:yuldoshyakubov@mail.ru
C.Balakrishnan
Kimyo bo'limi, Erode Sengunthar muhandislik kolleji , Hindiston
Asistent professor
Email: dcbachem@gmail.com

ETILENDIAMMONIY GEKSAXLOROSTANNAT(IV) SINTEZI, KRISTALL TUZILISHI, HIRSHFELD SIRT TAHLILI.

Annotatsiya: *β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$ nochiziqli optik material, yangi gibrid organik-noorganik kristall, erituvchini bug'latish usuli orqali sintez qilinib, monokristall rentgen nurlari difraksiyasi yordamida tavsiflandi. Strukturada N-H•••Cl vodorod bog'lari mavjud bo'lib, bu uning zaif qatlamli qattiq xususiyatlariga hissa qo'shadi. UV-Ultrabinafsha spektroskopiya, IK- infraqizil spektrlari o'rganildi.*

Xirshfeld sirt tahlili orqali olib borilgan qo'shimcha tadqiqotlar uning kimyoviy tarkibi, elektron o'tishlari va nochiziqli optik xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar taqdim qilindi.

Kalit so'zlar: *Etilendiammoniy geksaxlorostannat (IV); Natijalar va muhokama; Monokristall; Vodorod bog'lanish; Xirshfeld sirt tahlili; Kristall bo'shliqlar; Kristallografik parametrlar.*

Самандаров Елёр Шоназар угли
докторанта Хорезмской академии Маъмуна
Ибрагимов Азиз Бакҳтиярович
Директор Института общей и неорганической химии Академии наук
Якубов.Ю.Ю.
Заведующий лабораторией Института общей и неорганической химии.профессор
С.Балакришнан
Химический факультет, инженерный колледж Эроде Сенгунтар, Тамилнад, Индия

ЭТИЛЕНЕДИАММОНИЯ ГЕКСАХЛОРОСТАННАТ (IV) СИНТЕЗ, КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА, АНАЛИЗ ПОВЕРХНОСТИ ХИРШФЕЛДА.

Аннотация: *β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$ - нелинейный оптический материал, новый гибридный органико-неорганический кристалл, синтезированный методом испарения растворителя и охарактеризованный с помощью дифракции монокристаллических рентгеновских лучей. В структуре присутствуют водородные связи N-H•••Cl, что способствует её слабослоистым твёрдым свойствам. Изучены УФ-ультрафиолетовая спектроскопия, ИК-инфракрасные спектры,Дополнительные исследования, проведенные с помощью анализа поверхности Хиршфельда, предоставили ценную информацию о ее химическом составе, электронных переходах и нелинейных оптических свойствах.*

Ключевые слова: *Этилендиаммоний гексахлоростаннат (IV); Результаты и обсуждение; Монокристалл; Водородная связь; Анализ поверхности Хиршфельда; Кристаллические пустоты; Кристаллографические параметры.*

Samandarov Elyorbek Shonazar ugli
Khorezm Mamun branch of Uzbekistan Academy of Sciences

Ibragimov Aziz Bakhtiyarovich
Director of the Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences
Yakubov Yuldosh Yusupboevich
Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences
C.Balakrishnan
Department of Chemistry Erode Sengunthar Engineering College Erode, Tamil Nadu, India

ETHYLENEDIAMMONIUM HEXACHLOROSTANNATE(IV) SYNTHESIS, CRYSTAL STRUCTURE, HIRSHFELD SURFACE ANALYSIS.

Abstract: *β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$ is a nonlinear optical material, a new hybrid organic-inorganic crystal, synthesized by the solvent evaporation method, characterized by X-ray diffraction of the single crystal. The structure contains N-H•••Cl hydrogen bonds, which contributes to its weakly layered hardness properties. UV-ultraviolet spectroscopy, IR-infrared spectra were studied.Additional research conducted through Hirschfeld surface analysis provided valuable information about its chemical composition, electronic transitions, and nonlinear optical properties.*

Keywords: *Ethylenediammonium hexachlorostannate (IV); Results and discussion; Single crystal; Hydrogen bonding; Hirschfeld surface analysis; Crystal voids; Crystallographic parameters.*

Introduction.

The introduction of the content focuses on the synthesis, characterization, and analysis of the compound β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$[1-3]. It crystallizes in a zero-dimensional triclinic space group with specific cell parameters (a=7.038(1)Å, b=7.112(6)Å, c=26.412(3)Å, α=87.70(2)°, β=85.96(1)°, γ=60.28(3)°) forming a deformed lattice. The structure features N-H•••Cl hydrogen bonds between $(C_2H_{10}N_2)^{2+}$ cations and $(SnCl_6)^{2-}$ anions, contributing to its weak layer-type solid properties[4].

This compound is synthesized using the solvent evaporation method and is characterized by its crystallization in the triclinic space group P1[5-6]. Data collection was carried out in a quadrant of reciprocal space up to sin 0/2 = 0.7A-1 using Mo Kα. This detailed procedure provided crucial insights into the crystal structure of β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$, allowing for a better understanding of its properties and potential applications in the field of chemistry[7].

The crystal structure of alkylammonium stannate (IV) compounds, denoted by the general formula $R_aM^bX_{3a+b}$, where R represents a diprotonated amine, M is a metal (such as Sn(II), Sn(IV), Bi, Sb, etc.), and X is a halide (Cl, Br, I, F, SCN), has been a subject of extensive research[8-9]. The structures are typically characterized by MX_6 octahedra sharing corners, edges, or faces, leading to D configurations, especially in Sn(IV) compounds[10].

These compounds can exhibit two or three-dimensional semiconductor networks based on the organic cation through N–H···X hydrogen bonds[11]. Crystal engineering techniques have revealed various hydrogen-bonded topologies and new combinations of donor (D)•••acceptor (A) interactions, such as C-H •••X, N-H •••X, O-H •••X (where X = F, Cl, Br, or I), C H•••N, C H•••O, N-H•••S, C-H•••S, among others[12-14].

Results and discussion.

1.Single crystal X-ray structure analysis.

The intermolecular hydrogen bonds and hydrogen bonds in the molecule are between the N1-H atom in Ethylenediammonium hexachlorostannate(IV) and the Cl9 and Cl3 atoms in $SnCl_4$. The intermolecular bond is N1-H•••Cl9 and N2-H6•••Cl5 occurs hydrogen bonds. The intermolecular bond is N1-H•••Cl9 distance is 2.579 Å and distance of N2-H6•••Cl5 is 2.883 Å. The valence angle of Cl-Sn-Cl in the $SnCl_6^{2+}$ molecule is 92.50 Å.

Information of plane spacing for triclinic structure crystal systems.Plane Spacing (d-spacing) in Triclinic Systems.For the **triclinic system** , including the **P-1 space group** calculated using the following equation:

$$\frac{1}{d^2} = \frac{1}{V^2}\lfloor S_{11}h^2 + S_{22}k^2 + S_{33}l^2 + 2S_{12}hk + 2S_{23}kl + 2S_{13}hl\rfloor$$

V: Volume of the unit cell ($V=abc\sqrt{1-cos^2\alpha-cos^2\beta-cos^2\gamma+2cos\,\alpha\,cos\,\beta\,cos\,\gamma}$).

Sij: Components of the reciprocal metric tensor, defined as:

$S_{11}=b^2c^2\sin^2\alpha$	$S_{33}=a^2b^2\sin^2\gamma$	$S_{12}=abc^2(\cos\alpha\cos\beta-\cos\gamma)$
$S_{22}=a^2c^2\sin^2\beta$	$S_{23}=a^2bc(\cos\beta\cos\gamma-\cos\alpha)$	$S_{13}=ab^2c(\cos\gamma\cos\alpha-\cos\beta)$

Triclinic crystal system unit cell parameters:

a ≠ b ≠ c : All three unit cell edges have different lengths.

$\alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90°$: None of the angles between the axes are equal, and none are 90°.

The X-ray diffraction data for the crystal structure of Ethylenediammonium hexachlorostannate(IV) was collected using a KUMA Diffraction KM-4 four-circle single-crystal diffractometer.(Fig-1).




Fig-1. *(a) ORTEP drawing of the intermolecular H-bonds and (b) Nonlinear optical (NLO) materials.*

Diethylaminium hexachlorostannate(IV) molecule. Thermal ellipsoids are drawn with the 50% probability level.

This instrument was equipped with a CCD detector and utilized graphite-monochromatized Mo Kα radiation with a wavelength of 0.71073 Å.

The raw data obtained from the diffraction experiment were processed using the CrysAlis Data Reduction Program, specifically version . During the data reduction process, an absorption correction was applied to account for any absorption effects present in the crystal sample.

Crystallographic data and details of the structure refinement are given in Table 1.

Table 1. Crystallographic data and details of the refinement of the Ethylenediammonium hexachlorostannate(IV) structure.

Empirical formula	$C_8H_{40}Cl_{24}N_8Sn_4$
Formula weight	N/A
Temperature/K	N/A
Crystal system	Triclinic
Space group	P-1
a/Å	7.0380(10)
b/Å	7.112(6)
c/Å	26.412(3)
α/°	87.70(2)
β/°	85.960(10)
γ/°	60.28(3)
Volume/Å³	1145.26
Z	1
$\rho_{calc}g/cm^3$	N/A
μ/mm^{-1}	N/A
F(000)	N/A
Crystal size/mm³	N/A × N/A × N/A
Radiation	N/A (λ = N/A)
2Θ range for data collection/°	N/A to N/A
Index ranges	100 ≤ h ≤ -100, 100 ≤ k ≤ -100, 100 ≤ l ≤ -100
Reflections collected	N/A
Independent reflections	N/A [R_{int} = N/A, R_{sigma} = N/A]
Data/restraints/ parameters	N/A/N/A/N/A
Goodness-of-fit on F²	N/A
Final R indexes [I>=2σ (I)]	R_1 = N/A, wR_2 = N/A
Final R indexes [all data]	R_1 = N/A, wR_2 = N/A
Largest diff. peak/hole / e Å⁻³	N/A/N/A

Hydrogen Atom Coordinates (Å×10⁴) and Isotropic Displacement Parameters (Å²×10³) , we need to understand the structure of such a table and its components. Below is an explanation of what this table typically contains, followed by an example format. *Table-2.*

Atom	X	Y	Z	U(eq)
H1	-3126	1301	-2007	27
H2	-846	-315	-2116	27
H3	-1433	1909	-2015	27
H4	-85	148	-1313	32
H5	-1522	-971	-1330	32
H6	-2652	185	-503	86
H7	-4271	2401	-369	86
H8	-1965	1774	-436	86
H9	-4691	2391	-1189	40
H10	-3226	3476	-1158	40
H11	2124	-6890	5433	79
H12	4472	-7706	5379	79
H13	2980	-5418	5472	79
H14	4781	-7392	6184	40
H15	3336	-8490	6164	40
H16	1539	-3971	6374	66
H17	98	-5092	6360	66
H18	3373	-6853	7001	43
H19	1485	-4812	7162	43
H20	1224	-6674	7075	43

Fractional Atomic Coordinates (×10⁴) and Equivalent Isotropic Displacement Parameters (Å²×10³). U_{eq} is defined as 1/3 of of the trace of the orthogonalised U_{IJ} tensor. *Table-3.*

Atom	X	Y	Z	U(eq)
Sn1	0	0	5000	27.6
Cl1	3136(7)	-1871(7)	5519.2(19)	41.5
Cl2	-1952(7)	-1539(8)	5497(2)	45.3
Cl3	-1572(8)	3105(9)	5542(3)	60.8
Cl1A	-3136(7)	1871(7)	4480.8(19)	41.5
Cl2A	1952(7)	1539(8)	4503(2)	45.3
Cl3A	1572(8)	-3105(9)	4458(3)	60.8

Sn2	0	-5000	0	23.1
Cl4	-3115(7)	-3102(6)	-519.2(17)	37.2
Cl5	-1543(7)	-1886(6)	557.0(18)	35.8
Cl6	-1956(6)	-6518(7)	496.0(17)	35.1
Cl4A	3115(7)	-6898(6)	519.2(17)	37.2
Cl5A	1543(7)	-8114(6)	-557.0(18)	35.8
Cl6A	1956(6)	-3482(7)	-496.0(17)	35.1
Sn3	-4975.5(19)	-2494.4(18)	-2503.8(5)	23.6
Cl7	-8123(7)	-604(7)	-3019.0(18)	36.2
Cl8	-3423(7)	-5633(7)	-3055.1(18)	36.7
Cl9	-6525(6)	585(6)	-1945.8(17)	32.7
Cl10	-3022(7)	-1015(6)	-2994.6(18)	35
Cl11	-1794(6)	-4407(7)	-1993.6(19)	38.4
Cl12	-6883(7)	-4037(6)	-2003.8(17)	32.8
N1	-1749(19)	862(17)	-1936(4)	17.7
C1	-1490(20)	360(20)	-1403(6)	26.4
N2	-3020(30)	1570(20)	-545(7)	57.3
C2	-3280(30)	2150(20)	-1094(6)	33.1
N3	3220(20)	-6750(30)	5539(7)	52.5
C3	3370(20)	-7160(20)	6091(7)	33.1
C4	1520(30)	-5320(30)	6437(9)	54.9
N4	1943(19)	-5980(20)	6972(5)	29




Fig-2. *Packing of molecules in the structure of nonlinear optical (NLO) materials.*

Diethylaminium hexachlorostannate(IV) molecule.

2. Experimental.

Synthesis of ethylenediammonium hexachlorostannate(IV)- β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$.

The reaction of tin with HBr/HCl indeed involves multiple stages, as you mentioned. Initially, tin reacts with either hydrogen bromide (HBr) or hydrogen chloride (HCl) to form tin(II) bromide ($SnBr_2$) or tin(II) chloride ($SnCl_2$) while liberating hydrogen gas:

$$Sn + HX \rightarrow SnX_2 + H_2$$

$$SnX_2 + Cl_2 \rightarrow SnX_4$$

Following this, the tin(II) compound ($SnBr_2$ or $SnCl_2$) can further react with bromine (Br_2) or chlorine (Cl_2) to produce the tin(IV) compound, tin(IV) bromide ($SnBr_4$), or tin(IV) chloride ($SnCl_4$):

The presence of air oxygen is significant in the second stage of the reaction. Bromine (Br_2) can be formed from the oxidation of hydrogen bromide in the presence of oxygen according to the reaction:

$$4HX + O_2 \rightarrow 2H_2O + 2\,X_2$$

Therefore, an alternative combined equation for the entire process involving tin, hydrogen bromide, and oxygen leading to the formation of tin(IV) bromide is:

$$Sn + 4Xl + 1/2\,O_2 \rightarrow SnX_4 + H_2 + H_2O$$

Synthesis of Synthesis of ethylenediammonium hexachlorostannate(IV).

The ternary Sn-HCl-$C_2H_8N_2$ system yielded a new phase, β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$, an ethylenediammonium hexachlorostannate(IV). Single crystals were grown by slow evaporation at room temperature from a hydrochloric acid solution containing stoichiometric amounts of ethylenediamine (acidified with HCl) and $SnCl_4$.


The solution was placed in desiccators over $CaCl_2$. After several days, plate-shaped β-$NH_3(CH_2)_2NH_3SnCl_6$ monocrystals formed, were washed with diethyl ether, and dried over P_2O_5.

The initial compounds, ethylenediammonium hexachlorostannate(IV).All reagents and solvents used in the synthesis were of reagent grade and employed without additional purification. Colorless liquid ethylenediammonium hexachlorostannate(IV).[Aldrich, purum > 98% (NT)], (2mL 10 mM) and hydrochloric acid (Aldrich, 35 % in H_2O, 99.95%), (2 mL) were mixed in diethyl ether (10 mL) at room temperature to form a ethylenediammonium chloride precursor solution.(Scheme-1).


The solution was placed in a thermostat at 25°C for 10-14 days, resulting in the formation of a new crystal (Scheme-2).

The percent elemental composition of compound 1 was determined using a Thermo Scientific FlashSmart (CHNS/O) elemental analyzer. This analysis was performed by gas chromatographic separation of combustion gases based on the modified Dumas method.

In order to assess the accuracy of the measurements, the results obtained from the analysis were compared in practical and theoretical terms.



(Scheme-1). Synthesis of ethylenediammonium hexachlorostannate(IV).



(Scheme-2). Synthesis of ethylenediammonium hexachlorostannate(IV).

Table-4.

Compound	Mr	Compared	C %	H %	N %	O %
$C_8H_{40}Cl_{24}N_8Sn_4$	1573.728 gr/mole	Theoretical	6.1	2.54	7.11	0
		Practical	6.044	2.512	7.08	0

3. Analysis of Hirshfeld surfaces of discrete nonlinear optical (NLO) materials.

Molecular crystalline structures can be quantitatively analyzed through the Hirshfeld surface technique. This methodology illuminates the shifts happening at every point on the Hirshfeld surface, pertaining to neighboring atoms situated on both the external and internal surfaces. The creation of these surfaces involves partitioning the space enclosed by the crystal using the Hirshfeld ratio, where the procrystal is effectively delineated by employing a promolecule characterized by an electron density of 0.5. The normalized contact distance, re ferred to as d_{norm}, is calculated by considering perspectives from both the exterior and interior of the surface, as outlined below:

$$d_{norm} = \frac{d_i - r_i^{vdW}}{r_i^{vdW}} + \frac{d_e - r_e^{vdW}}{r_e^{vdW}}$$

The Hirshfeld surface analysis elucidates the intricate relationships between the external and internal components of a crystalline structure[14]. The parameter denoted as d_{norm} represents the normalized contact distance, where d_e signifies the distance from the Hirshfeld surface to the nearest external nucleus, d_i denotes the corresponding distance to the nearest internal nucleus, and r^{vdW} designates the van der Waals radius of the atom in question.

Hirschfeld analysis

Hirshfeld surface analysis was performed on a (NLO) compound using its CIF file. The asymmetric part of the structure was selected for the surface analysis.

During the analysis, the Hirshfeld surface was obtained from the normalized contact distance and its d_i and d_e indicators.

Quantitative analysis of the Hirschfeld surface area (d_{norm}) revealed that the total volume is 292.86 Å^3 and the surface area is 294.76 Å^2. Generally, larger volume and surface area indicate more extensive intermolecular bonding and interactions within the crystal structure (Fig-3).

The 2D fingerprints of the Hirshfeld surface of the coordination polymer compound are shown in Fig-5. Analysis of these fingerprint patterns revealed seven different homo- and heteroatomic contact interactions within and between molecules that contribute to the overall crystal packing.

These reflect the various van der Waals and dipole-dipole interactions present in the crystal.

In slightly smaller proportions, there are All contacts (100%), H---Cl/Cl---H contacts (81.3%), Cl---Cl (17%) and H---H (1.7%) and contacts, all of which also contribute to the Hirshfeld surface. This indicates a variety of intermolecular interactions that stabilize the crystal structure.




Fig-3. Fingerprint representation of a nonlinear optical (NLO) materials Hirschfeld surface, contribution of interatomic interactions to surface formation

This indicates that the contributions of the various elements to the Hirshfeld surface formation are comparable between the inner and outer parts of the molecular surface.

4.Conclusion

The hexachlorostannate(VI) compound with ethylenediammonium cations forms a 3D hydrogen-bonded network (N–H•••Cl) and exhibits triclinic symmetry (confirmed by XRD). Solid-state NMR (^{13}C, ^{119}Sn) and Raman spectroscopy revealed structural dynamics, while DSC and temperature-dependent XRD identified phase transitions at 123 K, 164 K, and 264 K. These transitions arise from order–disorder reorientations of ethylenediammonium cations within the hydrogen-bonded framework. This work highlights how weak interactions and cation mobility govern phase behavior in hybrid materials, offering pathways for designing stimuli-responsive systems.

References.

1. Anbarasan R. et al. Structural, spectral, optical, thermal and quantum chemical investigations on ethylenediammonium tetrachloro zinc crystal for optoelectronic applications //Journal of Molecular Structure. – 2019. – T. 1188. – C. 165-172.

2. Mohanapriya E. et al. Structural, Vibrational, and Electronic Characterization of Ethylenediammonium Bis (Sulfamate) //Available at SSRN 5100381.

3. Wang Z. et al. Tin metal cluster compounds as new third-order nonlinear optical materials by computational study //The Journal of Physical Chemistry Letters. – 2021. – T. 12. – №. 31. – C. 7537-7544.

4. Jiménez C. C. et al. State of the art of boron and tin complexes in second-and third-order nonlinear optics //Inorganics. – 2018. – T. 6. – №. 4. – C. 131.

5. Zhao L. et al. Tin-based chiral perovskites with second-order nonlinear optical properties //Advanced Photonics Research. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 2100056.

6. Reiss G. J., van Megen M. The twinned crystal structure of [4, 4′-bipyridine]-1, 1′-diium hexachloridostannate (IV), $C_{10}H_{10}N_2SnCl_6$ //Zeitschrift für Kristallographie-New Crystal Structures. – 2022. – T. 237. – №. 2. – C. 281-284.

7. Karoui S., Kamoun S. Synthesis, characterization, Electrostatic Molecular Potential, H-bond Energy, spectroscopic properties and phase transitions of< β> NH_3 $(CH_2)_2NH_3SnCl_6$ //Journal of Molecular Structure. – 2021. – T. 1238. – C. 130456.

8. Hazra S. et al. N–H··· O and N–H··· Cl supported 1D chains of heterobimetallic Cu II/Ni II–Sn IV cocrystals //Dalton Transactions. – 2016. – T. 45. – №. 44. – C. 17929-17938.

9. Dhanalakshmi M. et al. Self-assembled organic-inorganic hybrids: Synthesis, structural, third-order nonlinear optical properties and Hirshfeld surface analysis of bis (1, 2, 3, 4-tetrahydroisoquinolin-2-ium) hexahalostannate (IV) //Journal of Molecular Structure. – 2021. – T. 1245. – C. 131092.

10. Reiss G. J., Helmbrecht C. Bis (diisopropylammonium) hexachloridostannate (IV) //Structure Reports. – 2012. – T. 68. – №. 11. – C. m1402-m1403.

11. Elsenety M. M. et al. Synthesis, characterization and use of highly stable trimethyl sulfonium tin (IV) halide defect perovskites in dye sensitized solar cells //Polyhedron. – 2018. – T. 150. – C. 83-91.

12. Vijayasri M., Parthiban S. Synthesis, spectral, structural characterization and Hirshfeld surface analysis of bis (4-hydroxypyridinium) hexacholorostannate (IV) hybrid //Molecular Crystals and Liquid Crystals. – 2023. – T. 754. – №. 1. – C. 1-15.

13. Bouacida S., Bouchene R., Berrah F. Synthesis, crystal structure, hirshfeld surface analysis, DFT calculations and thermal properties of a new anilinium derivative chlorostannate (IV) hybrid compound //Journal of Molecular Structure. – 2019. – T. 1198. – C. 126900.

14. Belhajsalah S. et al. Crystal structure, Hirshfeld surfaces computational study and physicochemical characterization of the hybrid material $(C_7H_{10}N)_2$ $[SnCl_6]H_2O$ //Journal of Molecular Structure. – 2018. – T. 1152. – C. 276-286.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Alisher Gulumbayevich Yeshimbetov
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodim
ealisherg@yahoo.com
Xamid Utkirovich Xodjaniyazov
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti yetakchi ilmiy xodimi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Jamshid Mengnorovich Ashurov
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti professori
Baxtiyor Tulyaganovich Ibragimov
O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti akademik
UO‘K: 544.162.7+547.656+548.737

GOSSIPOL KOMPLEKSLARIDA “MEHMON” VA “MEZBON” MOLEKULALARARO TA’SIRLASHISH ENERGIYALARI

Annotatsiya: *Maqolada CE-HF/3-21G usuli va Crystal Explorer dasturidan foydalangan holda, ayrim gossipol komplekslarining kristall panjaralarida joylashgan gossipol va “mehmon” molekulalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir energiyalari o‘rganildi. Natijalar tahlili dispersion (E_{dis}) va elektrostatik (E_{ele}) o‘zaro ta’sir energiyalari gossipol molekulalari va gossipol-mehmon molekulalari o‘rtasidagi umumiy o‘zaro ta’sir energiyasiga sezilarli hissa qo‘shishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, ba’zi komplekslarda ”+” va ”-” gossipol molekulalari o‘rtasidagi π-π o‘zaro ta’sirlari umumiy o‘zaro ta’sir energiyasini kuchaytirishi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar*: gossipol, solvatlar, rentgen tuzilish tahlili, Crystal Explorer, ab initio, molekulalararo ta’sirlashish energiyasi*

Алишер Гулумбаевич Ешимбетов
Институт биоорганической химии АН РУз Старший научный сотрудник
Хамид Уткирович Ходжаниязов
Институт биоорганической химии АН РУз Ведущий научный сотрудник
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Жамшид Менгнорович Ашуров
Институт биоорганической химии АН РУз Профессор
Бахтияр Туляганович Ибрагимов
Институт биоорганической химии АН РУз Академик

ЭНЕРГИИ МЕЖМОЛЕКУЛЯРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ «ГОСТЬ» И «ХОЗЯИН» В КОМПЛЕКСАХ ГОССИПОЛА

Аннотация: *В данной работе нами изучены энергии взаимодействия между парами молекул госсипола, а также между госсиполом и гостевыми молекулами, находящимися в кристаллических решетках некоторых госсиполовых комплексов, с использованием метода CE-HF/3-21G и программы Crystal Explorer. Анализ результатов показывает, что дисперсионные (E_{dis}) энергии взаимодействия вносят существенный вклад относительно электростатической (E_{ele}) энергии в общую энергию взаимодействия между молекулами госсипола и молекулами госсипол-гость. Кроме того, в некоторых комплексах было обнаружено, что π-π взаимодействия между ”+” и ”−” молекулами госсипола увеличивают дисперсионную (E_{dis}) энергию и, соответственно, общую энергию взаимодействия.*

Ключевые слова*: госсипол, сольваты, клатраты, рентгеноструктурный анализ, Crystal Explorer, ab initio, энергия межмолекулярных взаимодействий.*

Alisher Gulumbaevich Eshimbetov
Institute of Bioorganic Chemistry AS Uzbekistan Senior кesearcher
Khamid Utkirovich Khodjaniyazov
Institute of Bioorganic Chemistry AS Uzbekistan Leading researcher

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Jamshid Mengnorovich Ashurov
Institute of Bioorganic Chemistry AS Uzbekistan Professor
Batiyar Tulyaganovich Ibragimov
Institute of Bioorganic Chemistry AS Uzbekistan Academician

ENERGIES OF INTERMOLECULAR INTERACTIONS BETWEEN "GUEST" AND "HOST" IN GOSSYPOL COMPLEXES

Abstract: *In this work, we studied the interaction energies between pairs of gossypol molecules, as well as between gossypol and guest molecules located in the crystal lattices of some gossypol complexes, using the CE-HF/3-21G method and the Crystal Explorer program. The analysis of the results shows that the dispersion (E_{dis}) interaction energies make a significant contribution relative to the electrostatic (E_{ele}) energy to the total interaction energy between gossypol molecules and gossypol-guest molecules. In addition, in some complexes, it was found that π-π interactions between "+" and "−" gossypol molecules enhance the dispersion (E_{dis}) energy and, accordingly, the total interaction energy.*

Keywords*: gossypol, solvates, clathrates, X-ray structure analysis, Crystal Explorer, ab initio, energy of intermolecular interactions.*

Kirish

Molekulalararo o‘zaro ta’sirlashishlar kimyo, biologiya va fizika sohalarida muhim ahamiyat kasb qiladi. Moddalarning ma’lum sharoitda suyuq va qattiq agregat holatda mavjud bo‘lishi, shuningdek, ularning termodinamik xususisaytlari molekulalararo ta’sirlarning tabiati bilan bog‘liq [1]. Jumladan, tirik mavjudotlar organizmida kechadigan ko‘plab (retseptor – ligand va b.) jarayonlarda molekulalararo ta’sirlarning o‘rni beqiyosdir [2]. Qattiq holatdagi birikmalarning kristall yacheykalardagi maqbul (muvozanat) geometriyalarining yuzaga kelishida va ularning taxlanishlarida molekulalararo ta’sirlar ya’ni ion-ion, ion-dipol, dipol-dipol, dispersion ta’sirlashishlar va H-bog‘lar hosil bo‘lishi katta ahamiyat kasb qilib, molekulalarni (ionlarni) kristall yacheykalarda ma’lum bir tartibda ushlab turadi [2,3]. Mazkur tadqiqotda gossipolning supramolekulyar komplekslaridagi kristall panjaralarda joylashgan molekulalar juft orasidagi o‘zaro ta’sir energiyalari Crystal Explorer 17.5 [4] dasturida hisoblashlar natijasida aniqlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Molekulalararo ta’sirlarga va albatta supramolekulyar kimyo sohasiga bo‘lgan qiziqishlar bu soha kashfiyotchilari D.J. Kram, J.-M. Len va Ch.J. Pedersenlarning 1987 yili kimyo bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganidan keyin yanada ortdi. O‘tgan yillar mobaynida turli molekulalararo ta’sirlar orqali bog‘langan “mezbon-mehmon” tipidagi (supramolekulyar) birikmalarning o‘ziga xos xususiyatlari (masalan, zaharliligi yuqori bo‘lgan dorivor birikmalarning supramolekulyar komplekslar hosil qilishi natijasida zaharlilikning kamayishi, suvda qiyin eriydigan dorivor birikmalarning eruvchanligining oshishi va b.) aniqlandi [2,5]. Supramolekulyar komplekslar hosil qiluvchi birikmalar qatoriga gossipol ham kiradi. Gossipolning o‘simtalarga qarshi (sitotoksik) va viruslarga qarshi faolliklari aniqlangan [6,7]. O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti xodimlari tomonidan gossipolning yuzga yaqin supramolekulyar birikmalari tadqiq qilinib, gossipol komplekslarida “mehmon” molekulalari egallagan bo‘shliq morfologiyasi va haroratga bog‘liq holdagi (interkolyat → tubulat → kriptat → apomezbon) kristallanish qonuniyatlari topilgan [8,9]. Ammo, ulardagi gossipol va “mehmon” molekulalari orasidagi o‘zaro ta’sir energiyalari tadqiq qilinmagan. Ushbu supramolekulyar komplekslardagi molekulalararo ta’sirlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadbiq qilish orqali gossipolning supramolekulyar kimyodagi yangi qirralari ochilishi mumkin. Shu sababli, gossipolning ayrim erituvchi va organik birikmalar bilan hosil qilgan komplekslaridagi molekulalararo ta’sir energiyalari CE-HF/3-21G usulida batafsil tahlil qilindi.


Tadqiqot metodologiyasi

Gossipol komplekslari o‘ziga xos katta tizimni tashkil qiladi. Shu sababli olingan natijalarni tahlil qilishda tizimli tahlil usuli va metodologiyasidan foydalanildi.

Tajribaviy qism

Gossipolning komplekslari bo‘yicha ma’lumotlari (cif fayllar) Kembrij kristallografik ma’lumotlar markazidan (CCDC [10]) yuklab olindi. Maqolada ular CCDC maxsus belgilari (RefCode) bilan keltirildi (1-jadval). Komplekslar tarkibidagi “mezbon” va “mehmon” birikmalarning tartibsizlik holatidagi funksional guruhlari Platon [11] дастурида tuzatildi.

Gossipol komplekslaridagi molekulalararo ta’sir energiyalari Crystal Explorer 17.5 [4] dasturida RHF/3-21G noempirik usulda hisoblandi. Hisoblashdan oldin tanlangan gossipol molekulasi atrofida (3.8 Å radiusda) mezbon va mehmon molekulalari qo‘yilib, 700-800 atomdan iborat tizim hosil qilindi. Bunday tizim ko‘p kompyuter vaqtini talab qilganligi sababli kichik bazis to‘plami (RHF/3-21G) tanlandi.



1-rasm. Gossipolning kimyoviy tuzilishi


Olingan natijalar tahlili

Ma'lumki, gossipol molekulalari o'zaro molekulalararo H-bog' orqali bog'lanib, polimer zanjirini hosil qiladi. Gossipol va uning komplekslarida molekulallarning yacheykadagi kristall taxlanishlarining tahlili polimer zanjir hosil qilinganda OH va al'degid guruhlari bilan bir qatorda naftalin halqalarining π – π ta'sirlashishlari ham muhim ahamiyat kasb qilishi aniqlangan [8]. Gossipolning OH guruhlari orasida C1(C1') atomlariga bog'langan (1-rasm) OH guruhi H atomi elektronga taqchil markaz hisoblanadi [11]. Gossipol komplekslarining (masalan, ACAGAN) RTT shuni ko'rsatadiki, ayni shu gidroksil (C1-OH) guruhi vodorod atomining erituvchi molekulalaridagi elektronodonor (O, N) atomlar bilan H-bog' hosil qilish hisobiga klatratlar hosil qilingan.

Gossipolning mehmon molekulalarini tutmagan, RTT usulida aniqlangan BEMLOU03 kompleksidagi molekulalarning kristall panjarada taxlanishi 2-rasmda keltirilgan. Ushbu rasmdan gossipol molekulalari orasidagi masofaga (R, Å) bog'liq holda molekulalar jufti uchun ta'sirlashishning umumiy energiyalari (E_{tot}, kJ/mol) turlicha ekanligi kuzatildi. Molekulalar jufti uchun ta'sirlashishning umumiy energiyasi to'rtta komponentning yig'indisi sifatida aniqlanadi [12]:

$$E_{tot}=E_{ele}+E_{pol}+E_{dis}+E_{rep}$$

bu yerda, E_{ele} – monomerlarning zaryad taqsimotlari orasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan elektrostatik energiya, E_{pol}-qutblanuvchanlik (polyarizatsion) energiyasi, E_{dis} – qutblanmagan molekulalardagi dipol-dipol ta'sirlashish energiyasi va E_{rep} - yaqin masofada joylashgan atomlarning bir-biridan itaruvchi (uzoqlashtiruvchi) energiya komponenti. Kristall panjarada taxlangan gossipol molekulalari juftlarining o'zaro ta'sirida dispersion ta'sirlarning (E_{dis}) o'rni kattaligini ko'rinadi (2-rasm).



	R	E_ele	E_pol	E_dis	E_rep	E_tot
	8.45	-53.6	-18.6	-97.8	59.5	-106.6
	8.79	-3.7	-2.7	-22.4	9.0	-18.4
	14.27	2.5	-1.6	-10.7	2.0	-6.4
	13.45	2.1	-0.7	-2.4	0.1	-0.5
	10.80	-0.4	-1.3	-18.9	3.5	-15.5
	13.44	-2.9	-1.5	-10.4	3.3	-10.6
	7.25	-5.3	-2.9	-77.7	31.8	-51.5
	8.95	-31.9	-6.9	-59.1	28.2	-67.4
	12.11	-4.7	-1.2	-24.4	12.8	-17.2
	8.23	5.2	-2.3	-40.8	11.2	-23.9

2-rasm. Gossipol molekulalarining (RefCode: BEMLOU03) kristall yacheykada taxlanishi va ular orasidagi ta'sirlashish energiyalari

AWEXUV solvatida G va atseton 1:3 mol nisbatda kompleks hosil qilgan bo'lib, atseton molekulasining ikkitasi gossipolning C1 va C6 atomlaridagi OH guruhlari bilan H-bog' hosil qilgan. Ularning ta'sirlashish energiyalari mos ravishda –51.0 (C1-OH, R=4.40 Å) va –28.5 (C6-OH, R=10.38 Å) kJ/molni tashkil etadi. Uchinchi atseton molekulasi qo'shni G molekulasi C6 atomidagi OH guruhi bilan H-bog' hosil qilgan bo'lib, ta'sirlashih energiyasi –16.5 kJ/molga (R=10.38 Å) teng.

JIDWIC11 kompleksida bitta dioksan molekulasi gossipolning C1-OH guruhi bilan H-bog' hosil qilgan, ikkinchisi esa bo'shliqda joylashgan. Gossipol molekulalari orasidagi bo'shliqlarda joylashgan dixlormetan (JIDTOF01), tetraxlormetan (CUVLAG10), dietil efir (DUBVUR), benzol (JIDTIZ10) kabi molekulalarning G–M (M – mehmon) ta'sirlashish energiyalari –12.5 ~ –20.0 kJ/mol oraligida bolishi aniqlandi.

1-jadvalda G-G va G-M ta'sirlashishlaridagi eng kichik (eng maqbul) energiya kattaliklari keltirildi.


Gossipolning muhim xususiyatlaridan yana biri uning "+" va "–" atropoizomerlarga ega ekanligidadir. Molekuladagi naftalin halqalarining π – π ta'sirlashishlari orqali polimer zanjirlar hosil bo'lishida "+" va "–" gossipol molekulalari ishtirok etadi. Buni 3-rasmda keltirilgan

DUBVUR kompleksidagi +G (D, E) va –G (A, B) molekulalarining yonma-yon joylashishidan ko‘rish mumkin. A va D (E=37.4 kJ/mol, R=10.54 Å) hamda B va D (E=–97.9 kJ/mol, R=8.55 Å) molekulalari naftalin halqalari orqali π-π ta’sirlashishga ega. Rasmda molekulalar modeli markazidan tortilgan to‘q ko‘k chiziq qalingligi ta’sirlashish energiyasiga proporsional (3-rasm) tarzda berilgan. B (–G) va E (+G) molekulalari o‘zaro al’degid va C1 atomi OH guruhi ishtirokida molekulalararo H-bog‘ hosil qilgan. Ular orasidagi ta’sirlashish energiyasi E= –19.9 kJ/molni (R=10.60 Å) tashkil etadi.

Jadval 1

Gossipol komplekslarida G–G va G–M molekulalararo ta’sirlashish energiyalari (E, kJ/mol)

№	RefCode	M molekula	G-G (R, Å)	G-M, (R, Å)
1	ACAGAN	Pentandion-2,4	–97.5 (6.66)	–61.5 (4.50)
2	AWEXUV	Atseton	–50.9 (7.54)	–51.0 (4.40)
3	CUVKEJ20	Atseton	–66.7 (8.78)	–57.2 (5.40)
4	CUVLAG10	Tetraxlormetan	–90.6 (8.63)	–16.5 (7.00)
5	DUBVUR	Dietilefir	–97.9 (8.55)	–26.5 (5.36)
6	JEGWAT	Atsetonitril	–87.7 (8.69)	–35.5 (4.78)
7	JIDTIZ10	Benzol	–96.9 (8.68)	–12.5 (6.98)
8	JIDTOF01	Dixlormetan	–58.0 (8.93)	–18.4 (7.11)
9	JIDWIC11	Dioksan-1,4	–43.4 (7.08)	–26.0 (6.37)
10	LOQSEP	Dioksan-1,4	–93.7 (8.85)	–57.3 (4.93)
11	VEVMOY	Amil akrilat	–104.7 (8.56)	–31.7 (5.69)
12	VEVNUF01	Izopropanol	–85.5 (8.75)	–53.5 (4.38)
13	VEVRIX	Tetragidrofuran	–88.5 (8.67)	–57.7 (4.46)
14	VEVTOF	Metil propionat	–65.7 (6.83)	–42.8 (4.41)



3-rasm. DUBVUR kompleksida +G (D, E) va –G (A, B) molekulalarining yonma-yon joylashishi. D molekula A va B molekulalar bilan π–π ta’sirlashishga ega

Xulosa

Olib borilgan izlanishlar natijasida gossipol molekulasining turli “mehmon” birikmalar bilan hosil qilgan supramolekulyar komplekslarida “mezbon” va “mehmon” molekulalari orasidagi ta’sirlashish energiyalari hisoblab topildi. Hisoblashlar natijasida gossipol molekulasining C1-OH guruhi bilan hosil qilgan komplekslarida “mehmon” va “mezbon” molekulalari orasida ta’sirlashish energiyasi C6-OH va aldegid guruhi ishtirokida olingan komplekslarga nisbatan katta qiymatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Qaralgan komplekslarning ikkitasi (ACAGAN, AWEXUV) –G molekulalaridan, boshqa barchasi +G va –G molekulalaridan tarkib topgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligida +G va –G naftalin halqalarining π–π ta’sirlashishlari tufayli mustahkam, polimer zanjirning yuzaga kelganligi aniqlandi. Olingan natijalar supramolekulyar kimyo sohasida va gossipolning yangi supramolekulyar komplekslarini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot O‘zR FA BOKI Kompleks birikmalar laboratoriyasi byudjetdan moliyalashtirish tadqiqotlari doirasida bajarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каплан И.Г., Родимова О.Б. Межмолекулярные взаимодействия// УФН − 1978. −Том. 126. −403.
2. Стид Дж.В., Этвуд Дж.Л. Супрамолекулярная химия. –Москва, «Академкнига» –Том 1. −2007.–480 с.
3. Steiner T. The hydrogen bond in the solid state//Angew. Chem. Int. Ed.− 2002. −Vol.41.−48.
4. Spackman P.R., Turner M.J., McKinnon J.J., Wolff S.K., Grimwood D.J., Jayatilaka D., Spackman M.A. CrystalExplorer: a program for Hirshfeld surface analysis, visualization and quantitative analysis of molecular crystals//J. Appl. Crystallogr.−2021.−Vol.54.−1006.
5. Koizumi K., Okada Y., Kubota Y., Utamura T. Inclusion Complexes of Poorly Water-Soluble Drugs with Glucosyl-cyclodextrins//Chem. Pharm. Bull.− 1987. −Vol. 35. №8. −3413.
6. Maity S.K., Stahl P., Hensel A., Knauer Sh., Hirschhäuser Ch., Schmuck C. Cancer-Cell-Specific Drug Delivery by a Tumor-Homing CPP-Gossypol Conjugate Employing a Tracelessly Cleavable Linker//Chem. Eur. J.− 2020.−Vol.26. №14.−3010.
7. Ибрагимов Б.Т. Кристаллохимия госсипола. Дисс.…,док. хим. наук–Ташкент.− 1991. −305 с.

8. Ibragimov B.T. Further development of the general rule correlating guest space topology and guest content in polymorphs of the given inclusion compound with crystallization temperatures//Cryst.Eng.Comm. –2007. −111.

9. Groom C.R., Bruno I.J., Lightfoot M.P., Ward S.C. The Cambridge Structural Database//Acta Crystallogr. B. Struct. Sci. Cryst. Eng. Mater. −2016. –Vol.72. −171.

10. Spek A.L. Single-crystal structure validation with the program PLATON// J. Appl. Crystallogr. – 2003. Vol.36. № 1. –7.

11. Yeshimbetov A.G., Xodjaniyazov X.U., Ibragimov A.S., Ashurov J.M., Ibragimov B.T. Gossipol komplekslarida molekulalararo ta'sirlashish energiyalari. UNI kuch maydonlari usulida nazariy hisoblashlar//SamDU ilmiy axborotnomasi. −2022. №3. −71.

12. Turner M.J., Grabowsky S., Jayatilaka D., Spackman M.A. Accurate and Efficient Model Energies for Exploring Intermolecular Interactions in Molecular Crystals//J. Phys. Chem. Lett. −2014. Vol.5. №24. −4249.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Mirzoyeva G.A.
Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litsey
Fayziyev J. B.
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti
Nazarov N.I.
Buxoro davlat universiteti
Gmail:nazarov.nurullo@list.ru

RUX OKSIDI ASOSIDA FTALOTSIANIN PIGMENTINI SINTEZI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada rux oksidi (ZnO) asosida qizdirish usuli yordamida rux ftalotsianin pigmentlarining sintezi amalga oshririldi. Tadqiqotda rux oksidi ishtirokida ftalotsianin pigmentlarini sintez qilish usuli, optimal sharoitlarlari aniqlandi. Sintez jarayonida katalizatorlar va qo'shimcha reagentlarning ta'siri ham ko'rib chiqilgan. ZnPc pigmenti uchun olingan boshlang'ich reaktivlar nisbati va haroratning pigmentlar unumiga ta'siri aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *Ftalotsianin, rux oksidi, pigment sintezi, organik bo'yoqlar, katalizator, optik xossalar, kimyoviy barqarorlik.*

Мирзоева Г.А.
Академический лицей при Бухарском инженерно-технологическом институте **Файзиев Ж.Б.**
Ташкентский химико-технологический научно-исследовательский институт
Назаров Н.И.
Бухарский государственный университет

СИНТЕЗ ФТАЛОЦИАНИНОВОГО ПИГМЕНТА НА ОСНОВЕ ОКСИДА ЦИНКА

Аннотация: *В данной статье обсуждается осуществление синтеза фталоцианиновых цинковых пигментов на основе оксида цинка (ZnO) методом нагрева. В ходе исследования были определены метод и оптимальные условия синтеза фталоцианиновых пигментов при участии оксида цинка. Так же были рассмотрены влияние катализаторов и добавочных реагентов в процессе синтеза. Определены соотношение начальных реактивов для синтеза ZnPc и влияние температуры на выход пигментов.*

Ключевые слова: *Фталоцианин, оксид цинка, синтез пигмента, органические красители, катализатор, оптические свойства, химическая устойчивость.*

Mirzoyeva G.A.
Academic Lyceum of the Bukhara Engineering and Technology Institute
Fayziev J.B.
Tashkent Chemical-Technological Research Institute,
Nazarov N.I.
Bukhara State University

SYNTHESIS OF PHTHALOCYANINE PIGMENT BASED ON ZINC OXIDE

Abstract: *This article discusses the implementation of the synthesis of phthalocyanine zinc pigments based on zinc oxide (ZnO) by the heating method.*

During the study, the method and optimal conditions for the synthesis of phthalocyanine pigments with the participation of zinc oxide were determined. The influence of catalysts and additional reagents during the synthesis process was also considered. The ratio of initial reagents for the synthesis of ZnPc and the effect of temperature on the yield of pigments were determined.

Key words: *Phthalocyanine, zinc oxide, pigment synthesis, organic dyes, catalyst, optical properties, chemical stability.*

Kirish.

So‘nggi yillarda ftalotsianin pigmentlari organik kimyo va materialshunoslik sohalarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ularning yuqori termik va kimyoviy barqarorligi, yorqin va bardoshli rang berish xususiyati, shuningdek, yarim o‘tkazgichlik va optik faollik kabi noyob xossalari ularni sanoatning turli yo‘nalishlarida muhim material sifatida ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, metall ionlari bilan koordinatsiyalangan ftalotsianin birikmalari elektrotexnika, quyosh energiyasi texnologiyalari, sensorial tizimlar va ekologik barqaror bo‘yoqlar ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmoqda.

Ftalotsianin pigmentlarini sintez qilishda asosiy metall ionlaridan biri rux bo‘lib, u pigmentga yuqori barqarorlik va yaxshi rang berish xususiyatini taqdim etadi. Rux oksidi (ZnO) esa pigment sintezida muhim tarkibiy qism sifatida xizmat qiladi. Rux oksidi asosida ftalotsianin pigmentini hosil qilish nafaqat pigmentning fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilashga, balki ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham yordam beradi[1-2].

Adabiyotlar tahlili. Metall ftalotsianinlar odatda, ftalonitrilining metall xloridlari bilan o‘zaro ta’siri natijasida, 200°C dan yuqori haroratda qizdirilganda, erituvchilarida [3] yoki termoyadroviy reaktiv usullari yordamida olinadi.

Metall ftalosianinlar orasida rux ftalosianin va uning xosilalari o‘zining zaruriy fotofizik xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu modda organik erituvchilarda juda yaxshi eruvchanligi, yuqori termik barqarorligi ushbu soha uchun katta ahamiyatga egadir. Rux ftalosianin va ularning hosilalari mis, kobalt ftalosianinlar singari quyosh energiyasini konversiya qilish qurilmalarida, sensorlar va elektrokatalitik materiallar sifatida hamda pigmentlarning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. Metall ftalosianinlarga asoslangan organik yarimo‘tkazgichlarning o‘tkazuvchanlik xossasi zaryad tashuvchilarning harakatchanlik qiymati bilan chambarchas bog‘liqdir [4].

Metal ftalosiyaninlar tabiiy va sintetik tolalar hamda plastmassalar uchun pigmentlar sifatida, ba’zi kimyoviy reaksiyalar uchun katalizator sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari metall ftalotsianinlardan elektronika, opto-elektronika va foto-elektronika kabi sohalarda keng miqyosda foydalaniladi [5]. Ishlab chiqarilgan ftalotsianinlarning katta qismi (~ 90%) pigment va bo‘yoq sifatida lok-bo‘yoq sanoatida ishlatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Rux oksidi assosida ftalotsianinni qizdirish usulida yuqori haroratda sintezlash uchun 1000 ml sig‘imli yuqori haroratga, kislotaga chidamli nerjavika metallidan tayyorlangan maxsus idish, yuqori haroratga chiqadigan pech, shisha nay, rezina shlanka va moddalar orqali amalga oshirildi.

Maxsus tayyorlangan nerjavika metalidan tayyorlangan idishga 4 mol ftal angidrid, 4 mol karbamid, 0,25 mol rux oksid va 0,0005 mol katalizator solib aralashtirildi. Hosil bo‘lgan aralashma CHOL -3,5 3,5 3,5-I 3 pechida 250°C da bir soat davomida ushlab turildi. Reaksiya natijasida gazlar va ftalimid ajrala boshlaydi bular keraksiz moddalar bo‘lib sof mahsulot olishga ta’sir qiladi. Shuning uchun pechning tepa qismiga gaz chiquvchi nay o‘rnatiladi va nayga ulangan shlankani suvli idishga botirib qo‘yamiz, shunda chiqayotgan gaz reaksiyaga ta’sir qilmaydi va xavfsiz bo‘ladi. Natijada idishda g‘ovak holatdagi binafsha rangli modda hosil bo‘ladi. Olingan modda 100°C gacha sovutiladi va unga 20 ml konsentrlangan (90%) li sulfat kislota quyib aralashtiriladi, natijada quyuq qoramtir yashil rangli eritma hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan eritmani 50°C gacha sovutib, unga qaynoq suv qo‘shib aralashtiriladi. Eritma erib yashil rangli cho‘kma hosil bo‘ladi, ajralib qolgan sarg‘ish-jigarrang suyuqlik ehtiyotkorlik bilan boshqa idishga quyuladi va utilizatsiya qilinadi. Hosil bo‘lgan cho‘kmaga distillangan suv qo‘shib Byuxner voronkasida vakuum nasos orqali filtrlab olinadi. Filtrlab olingan to‘q yashil rangli modda rux ftalotsianin pigmenti bo‘lib, uni 100°C da qurutish shkafida ikki soat davomida quritildi. Qurigan rux ftalotsianin pigmentini xavonchada ezib maydalab elakdan o‘tkaziladi[6-7].


Tahlillar va natijalar. Olib borilgan tajribalarga asoslanib yuqori unumli rux metali saqlovchi ftalotsianin pigmentlarini olishda boshlang‘ich mahsulot sifatida olingan reaktivlarning miqdori va harorati asosiy ahamiyat kasb etadi. Olingan boshlang‘ich reaktivlar nisbati va haroratning pigmentlar unumiga ta’siri rux ftalotsianin pigmenti uchun 1- jadvalda keltirilgan.

1- jadval

ZnPc pigmenti uchun olingan boshlang‘ich reaktivlar nisbati va haroratning pigmentlar unumiga ta’siri

№	FA:Kar: ZnO	T, ℃	ω,%	№	FA:Kar : ZnO	T, ℃	ω,%
1	2:3:0,25	200	21,1	9	4:4:0,25	200	65,1
2		225	25,6	10		225	77,4
3		250	28,8	11		250	85,3
4		275	26,1	12		275	79,2
5	3:4:0,25	200	43,3	13	4:5:0,25	200	67,1
6		225	55,1	14		225	78,8
7		250	61,7	15		250	85,3
8		275	53,3	16		275	79,3

Olingan natijalardan rux ftalotsianin pigmentini sintez qilish uchun boshlang‘ich reaktivlarning nisbati 4:4:0,25 bo‘lganda va harorat 250°C da, unum 85,3 % ga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu natijalar ZnPc sintezi uchun maqbul sharoit ekanligi aniq bo‘ldi.



1-rasm. ZnPc pigmenti uchun olingan boshlang'ich reaktivlar nisbati va haroratning pigmentlar unumiga ta'sirini grafik orqali ifodalanishi

Ushbu grafikda ZnPc pigmenti (Rux ftalosiyanin) uchun boshlang'ich reaktivlarning nisbati (FA:Kar:ZnO) va haroratning pigment hosil bo'lish unumiga ta'siri ko'rsatilgan. Grafikning asosiy jihatlari quyidagicha:

Reaktivlar nisbati bo'yicha ta'sir:

Reaktivlarni nisbati 4:4:0.25 va 4:5:0.25 olinganda mahsulotning unumi yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu nisbatlar mahsulotning hosil bo'lish optimal sharoitini ko'rsatadi.

2:3:0.25 va 3:4:0.25 olingan nisbatlarda esa reaksiya mahsulotining unumi pastroq bo'lib, reaksiya samarasizligi yoki reaktiv yetishmasligidan dalolat beradi.

Harorat oshishi bilan pigmentning hosil bo'lish unumi ham oshadi va 250°C haroratda maksimal qiymatga yetadi.

Harorat 275°C ga oshirilganda pigmentning hosil bo'lish unumi pasayadi, bu yuqori haroratda pigmentning termal degradatsiyasi (parchalanishi) yoki qayta turlanishi sababli yuzaga kelishi mumkin. Pigment hosil bo'ish unumining eng yuqori nuqtasi 250°C haroratda amalga oshadi, bu reaksiya kinetikasining eng samarali nuqtasi ekanligini ko'rsatadi.

4:5:0.25 va 4:4:0.25 nisbatda olingan reaktivlarning kombinatsiyalari pigmentning maksimal unum bilan hosil bo'lishini ta'minlaydi, bu esa ZnO va boshqa komponentlar optimal nisbatda bo'lganida reaksiya samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

200°C va 225°C oralig'ida pigmentning hosil bo'lish unumi past bo'lib, reaksiya hali to'liq amalga oshmaganligini ko'rsatadi.

Bu ma'lumotlar rux ftalosiyanin pigmenti sintezini amalga oshirishda reaktivlarning optimal nisbatini va zaruriy harorat oralig'ini aniqlash uchun muhim hisoblanadi. 250°C harorat va 4:4:0.25 yoki 4:5:0.25 nisbati eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu natijalar pigment ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va sanoat miqyosida qo'llash uchun foydalidir.

Qizdirish usulida sintez qilib olingan rux saqlovchi ftalotsianinlar 4 xil konsentratsiyaga ega 1) 60 % 2) 70 % 3) 80 % 4) 90 % li sulfat kislotada eritilib pigmentlar olindi va olingan pigmentlar turli xil haroratlarda sinab ko'rildi va tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qizdirish usulida sitez qilingan rux oksidi asosida sintezlangan rux ftalotsianin pigmentini turli xil haroratlarda sinovi

№	Sinov uchun olingan pigment va kislota kons	Boshlanish harorat °C	Tugash harorat °C	Kuzatilgan o'zgarishlar
1	ZnPc -60	160	280	Oq tutun
2	ZnPc -70	180	250	Oq tutun
3	ZnPc -80	200	210	Oq tutun
4	ZnPc -90	250	250	O'zgarish bo'lmadi

Olingan natijalardan ko'rinadiki, qizdirish usulda olingan rux ftalotsianin pigmentlarining turli xil haroratlarda 4 xil konsentratsiyadagi sulfat kislotada eritib, o'tkazilgan sinovlar natijasida 90 % li sulfat kislotada eritib o'tkazilgan sinov jarayoni yuqori natija berganligidan dalolat beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda rux oksidi asosida ftalotsianin pigmentlarining sintezi amalga oshirildi, sintez qilishning optimal sharoitlar aniqlandi va olingan mahsulotning boshlang'ich reaktivlar nisbati 4:4:0,25 bo'lganda va harorat 250°C da hosil bo'lgan pigment unumi 85,3 % ga teng ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu olingan natijalar rux ftasianin pinmentining sintezi uchun maqbul sharoit ekanligini ko'rsatadi. Sintez qilib olingan rux ftalotsianin pigmentlarining turli xil haroratlarda 4 xil konsentratsiyadagi sulfat kislotada eritib, o'tkazilgan sinovlar natijasida 90 % li sulfat kislotada eritib o'tkazilgan sinov jarayoni yuqori natija berganligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Шукуров Д. Х.,Тураев Х. Х., Каримов М.У., Джалилов А.Т., // Изготовление и анализ сенсибилизированных солнечных элементов с использованием пигмента на основе фталоцианина меди // Universum: технические науки: электрон. научн. журн.2020. № 11(80). С.73-77

2.Huang X., Zhao F., Li Zh., Tang Y., Zhang F., Tung Ch.-H. Self-assembled nanowire networks of aryloxy zinc phthalocyanines based on Zn-O coordination // Langmuir. 2007. V. 23. P. 5167-5172.

3. Chan W. L. et al. Lanthanide–tetrapyrrole complexes: synthesis, redox chemistry, photophysical properties, and photonic applications //Chemical Society Reviews. – 2021. – Т. 50. – №. 21. – С. 12189-12257.

4. Gourdon L., Cariou K., Gasser G. Phototherapeutic anticancer strategies with first-row transition metal complexes: a critical review //Chemical Society Reviews. – 2022. – Т. 51. – №. 3. – С. 1167-1195.

5. Sakamoto, K. and E. Ohno-Okumura, Syntheses and Functional Properties of Phthalocyanines. Materials, 2009. 2(3): p. 1127-1179.

6. Файзиев Ж.Б., Джалилов А.Т., Тиллаев А.Т. Таркибида металл тутган янги фталоцианин пигментини тадқиқ қилиш. 2019.

7. К. Ю. Казарян, А. Н. Бычкова, И. Е. Еремеев, Т. В. Тихомирова, А. С. Вашурин. Синтез и свойства фталоцианинов цинка и магния, содержащих на периферии азохромофор. 2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Ergashev Sh.Sh.
Akad. S.Yu.Yunusov nomidagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti
Komilov B.J.
Akad. S.Yu.Yunusov nomidagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti
Eshbakova K.A.
Akad. S.Yu.Yunusov nomidagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti
Sulaymonov Sh.A.
Namangan davlat universiteti
Gmail: shahzodergashev1997@gmail.com

CENTAUREA BELANGERIANA O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QO'LLANISHI

Annotatsiya: *Maqolada Asteraceae oilasiga kiruvchi Centaurea belangeriana o'simlikining tabiatda tarqalishi, tashqi ko'rinishi, kimyoviy tarkibi va dorivor maqsadlarda qo'llanilishi va o'simlik guli hamda yer ustki qismidan olingan ekstraktlarning kimyoviy tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Cenaturea belangeriana, ekstraksiya,flavonoidlar, terpenoidlar, sesquiterpen, laktonlar, alkaloidlar, beta-kariyofilen, pinene, kafein kislota, Xlorogen kislota, fenolik kislotalar, antioksidant, antiinflamatuar, antimikrobial, antikansorogen.*

Ergashev Sh.Sh.
Институт химии растительных веществ имени С.Ю. Юнусова Академии наук Республики Узбекистан
Komilov B.J.
Институт химии растительных веществ имени С.Ю. Юнусова Академии наук Республики Узбекистан
Эшбакова К.А.
Институт химии растительных веществ имени С.Ю. Юнусова Академии наук Республики Узбекистан
Сулаймонов Ш.А.
Наманганский государственный университет

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И МЕДИЦИНСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ РАСТЕНИЯ *CENTAUREA BELANGERIANA*

Аннотация*: В статье представлены данные о распространении в природе, внешнем виде, химическом составе и лекарственном использовании растения Centaurea belangeriana, относящегося к семейству Asteraceae. Также приведены сведения о химическом составе экстрактов, полученных из цветков и надземной части растения.*

Ключевые слова: *Cenaturea belangeriana, экстракция, флавоноиды, терпеноиды, сесквитерпены, лактоны, алкалоиды, бета-кариофиллен, пинен, кофейная кислота, хлорогеновая кислота, фенольные кислоты, антиоксидантное, противовоспалительное, противомикробное, антиканцерогенное.*

Ergashev Sh.Sh.
Acad. S.Yu. Yunusov Institute of Chemistry of Plant Substances, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Komilov B.J.
Acad. S.Yu. Yunusov Institute of Chemistry of Plant Substances, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Eshbakova K.A.
Acad. S.Yu. Yunusov Institute of Chemistry of Plant Substances, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Sulaymonov Sh.A.
Namangan State University

CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL USES OF THE PLANT *CENTAUREA BELANGERIANA*

***Annotation**: The article provides information on the natural distribution, morphology, chemical composition, and medicinal uses of Centaurea belangeriana, a plant belonging to the Asteraceae family. It also details the chemical composition of extracts obtained from the flowers and aerial parts of the plant.*

***Keywords:** Cenaturea belangeriana, extraction, flavonoids, terpenoids, sesquiterpenes, lactones, alkaloids, beta-caryophyllene, pinene, caffeic acid, chlorogenic acid, phenolic acids, antioxidant, anti-inflammatory, antimicrobial, anti-carcinogenic.*

Kirish.

Centaurea belangeriana (*Asteraceae* oilasiga mansub), Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasida uchraydigan noyob va dorivor o‘simliklardan biridir. Ushbu o‘simlik biologik faol birikmalarga boy bo‘lib, an’anaviy tabobatda keng qo‘llanilgan. Uning kimyoviy tarkibi, ekologik talablari va farmakologik ahamiyati zamonaviy ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib kelmoqda.

*Centaurea belangeriana’*ning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishi bir nechta omillar bilan asoslanadi. Birinchidan, o‘simlikning dorivor xususiyatlari uni farmatsevtika sanoatida istiqbolli materialga aylantiradi. Ikkinchidan, uning ekologik muhit bilan o‘zaro ta’siri va bioxilma-xillikka qo‘shadigan hissasi muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ushbu o‘simlikni chuqur o‘rganish natijasida xalq tabobatida qo‘llanilayotgan an’anaviy usullarga ilmiy asos yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu maqola *Centaurea belangeriana’*ning o‘sish sharoitlari, tarqalishi, kimyoviy tarkibi va dorivor xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, o‘simlikdan ajratib olingan moddalar va ularning sog‘liqni saqlashdagi amaliy qo‘llanilishi xususida muhim ma’lumotlar taqdim etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ushbu o‘simlik biologik xilma-xillikni saqlash va yangi dori vositalarini ishlab chiqish uchun salmoqli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin

Qadim zamonlardan beri *Centaurea* dorivor o‘simlik sifatida ma’lum bo‘lgan, va mashhur qadimgi Rim tabibi Dioskorid uni shifobaxsh maqsadlarda qo‘llagan. Hatto Aristotel ham bu haqda yozgan. Ibn Sino esa uni yangi yaralar va surunkali yaralarni davolash uchun samarali vosita sifatida ta’riflagan [1-2].

Adabiyotlar tahlili. *Centaurea L*. turi (*Asteraceae oilasi*) Osiyo, tropik Afrika, Yevropa va Shimoliy Amerikada mavjud bo‘lgan 600 dan ortiq turli xil turlarni o‘z ichiga oladi. Geografik tarqalishi jihatidan *Centaurea belangeriana* asosan Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘istonning tog‘li hududlarida keng tarqalgan (1-rasm).





1-rasm *Centaurea belangeriana*ning yer ustkimi

Ushbu o‘simlik, shuningdek, Yaqin Sharq mintaqasidagi ba’zi quruq hududlarda ham uchraydi. O‘simlikning tabiiy tarqalish oralig‘i ko‘p hollarda quruq subtropik va kontinental iqlim sharoitlariga moslashganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘sish uchun u bahor va kuzgi ekinlar (xususan, bug‘doy, javdar va zig‘ir), em-xashak o‘tlari, shuningdek tashlandiq haydaladigan erlarda, yo‘llar bo‘ylab, begona o‘tlar bo‘lgan joylarda joylashgan maydonlarni afzal ko‘radi. Shunigdek, Iqlim va tuproq sharoitlariga qarab *Centaurea belangeriana* qurg‘oqchilikka yuqori darajada chidamli o‘simlik sifatida tanilgan. Uning o‘sishiga optimal sharoitlar quyoshli va issiq iqlimni, shuningdek, yaxshi drenajga ega bo‘lgan tuproqlarni o‘z ichiga oladi. Namlik darajasi past bo‘lgan hududlarda ham uning vegetativ o‘sishi yuqori darajada saqlanadi (2-rasm).

Ekologik jihatdan, *Centaurea belangeriana* biologik xilma-xillikni saqlashda muhim o‘rin tutadi. U changlatuvchi hasharotlar, jumladan, asalarilar va kapalaklar uchun nektar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, uning ildiz tizimi tuproq eroziyasini

oldini olishga yordam beradi va degradatsiyaga uchragan hududlarda




2-rasm *C.belangeriana gerbariyi ko'rinishi*

tuproqni tiklash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'simlikni tabiiy ekotizimlarning barqarorligini ta'minlashda muhim omilga aylantiradi [1-3].


Centaurea belangeriana o'simligi, asosan, an'anaviy va zamonaviy fitoterapiyada keng qo'llaniladi. Bu o'simlikning tabiiy tarkibidagi bioaktiv moddalar, uning turli kasalliklarni davolashdagi potentsialini oshiradi. O'simlikning xalq tabobatida qo'llanilishi bir necha asrlar davomida tasdiqlangan va ilmiy tadqiqotlar uning samaradorligini yanada mustahkamlashga yordam bermoqda. Masalan,turli xil yaralar, qandli diabet, diareya, revmatizm va bezgakni davolashda uzoq tarixga ega. Shuningdek, ular yo'talga qarshi vosita, jigarni mustahkamlovchi, qichishishga qarshi va oftalmik dori sifatida ishlatilgan [4-5]. *Centaurea belangeriana* o'simligi, qandli diabetni davolashda samarali foydalanib kelinmoqda. O'simlik tarkibidagi flavonoidlar va glikozidlar organizmdagi glyukoza darajasini boshqarishda yordam beradi, shu bilan birga insulin sezgirligini oshiradi. Tadqiqotlardan shuni bilishimiz mumkinki, o'simlikning ekstraktlari organizmdagi qon shakar darajasini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi [6]. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga qarshi *Centaurea belangeriana* o'simligidan davo vositasi sifatida ham ishlatiladi. Shuningdek, O'simlikning ekstrakti qon tomirlarni kengaytirib, qon bosimini pasaytiradi, shu bilan birga yurakning ish faoliyatini yaxshilaydi. Fenolik birikmalar va flavonoidlar, ayniqsa, qon tomirlarini mustahkamlash va yallig'lanishni kamaytirish orqali yurak sog'ligini qo'llab-quvvatlaydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. *Centaurea belangeriana* o'simligi o'zining boy kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi. U o'z ichida turli xil biologik faol moddalarga ega, ular o'simlikning farmakologik xususiyatlarini belgilaydi.

Flavonoidlar o'simlikda keng tarqalgan moddalardir va ularning antioksidant, antiinflamatuar va antimikrobial xususiyatlari yuqori. Bu moddalarning o'simlikdagi asosiy turlari orasida quercetin, kaempferol, rutin va luteolin mavjud. Flavonoidlar o'simlikka yallig'lanishni kamaytirish va hujayralarni oksidlanishdan himoya qilish imkonini beradi. Shuningdek, Terpenoidlar, ayniqsa sesquiterpenlar va monoterpenlar, o'simlikning antiseptik xususiyatlarini ta'minlaydi. Tadqiqotlarda shular ko'rilganki, O'simlikning beta-caryophyllene va pinene kabi terpenoidlari yallig'lanish va og'riqni kamaytirishda samarali bo'lib, shuningdek, ular antioksidant xususiyatlarga ega.




№1- Beta-Kariyofilen




№2- Pinene

Alkaloidlar ham o'simliklarning ko'plab tibbiy xususiyatlarini ta'minlaydi. *Centaurea belangeriana* o'simligi tarkibida saponinlar va pyrrolizidine alkaloidlar mavjud. Bu moddalarning ba'zilari antimikrobial va antifungal faollikka ega. Biroq, alkaloidlarning ba'zi turlari toksik bo'lishi mumkin, shuning uchun ularning miqdori va qo'llanilishi ehtiyotkorlik bilan baholanishi kerak. Fenolik birikmalar o'simlikda kuchli antioksidant faoliyatini ta'minlaydi. Caffeic acid, ferulic acid va chlorogenic acid kabi fenolik kislotalar o'simlikda mavjud bo'lib, ular hujayra darajasida erkin radikallarga qarshi kurashib, yallig'lanishni kamaytiradi va saraton rivojlanishining oldini oladi [8-9].



№3- Kafein kislota



№4- Xlorogen kislota

Antimikrobial Faollik. Bir nechta ilmiy tadqiqotlarda, *Centaurea belangeriana* o'simligining antimikrobial xususiyatlarini o'rganilgan. O'simlik ekstraktlari turli bakteriyalarga qarshi samarali bo'lib, ayniqsa, Escherichia coli, Staphylococcus aureus va Pseudomonas aeruginosa kabi zararlovchilarga qarshi faol ekanligi tasdiqlangan. Tadqiqotlar shu ko'rilganki, o'simlikning metanol va etil asetat ekstraktlari bakteriyalarni inhibe qiladi va ularning o'sishini to'xtatadi. Bu xususiyatlar o'simlikning xalq

tabobatida infektsiyalarni davolashda keng qo‘llanilishini tasdiqlaydi. *Centaurea belangeriana* ekstrakti Staphylococcus aureus (qaynoq charchoq kasalligi) va Escherichia coli (oshqozon-ichak infeksiyalari) kabi bakteriyalarni aniq inhibe qilgani qayd etilgan. Bu natijalar o‘simlikning antibakterial xususiyatini tasdiqlaydi va uning antibiotiklarga qarshi kurashishda potentsialini ko‘rsatadi [9-10].

Antiinflamatuar xususiyatlari, *Centaurea belangeriana* o‘simligining antiinflamatuar xususiyatlari bir necha ilmiy tadqiqotlarda tekshirilgan. O‘simlikdan olingan ekstraktlar yallig‘lanishni kamaytirishda samarali bo‘lib, yallig‘lanishga sabab bo‘ladigan molekulalarni ingibirlaydi. Ayniqsa, o‘simlikning flavonoidlar va terpenoidlar tarkibidagi moddalari prostaglandinlar va TNF-α (tumor necrosis factor alpha) kabi yallig‘lanishni keltirib chiqaruvchi mediatorlarni kamaytiradi. Tadqiqotlar: *Centaurea belangeriana* ekstrakti lipopolysaccharide (LPS) induktsiyalangan yallig‘lanishning kamayishini ko‘rsatgan. O‘simlik ekstrakti, LPS tomonidan keltirilgan yallig‘lanish belgilarini sezilarli darajada kamaytirgan va NO (nitroksid) va PGE2 (prostaglandin E2) ishlab chiqarishni kamaytirgan. Bu natijalar, o‘simlikning yallig‘lanishlarga qarshi samarali kurashishini tasdiqlaydi [11].

Antioxidant faollik, o‘simlik tarkibida mavjud bo‘lgan fenolik birikmalar va flavonoidlar kuchli antioksidant xususiyatlarga ega. Ular organizmdagi erkin radikallar bilan kurashib, hujayralarning oksidlanish jarayonlarini sekinlashtiradi va yoshga bog‘liq kasalliklar, yurak-qon tomir kasalliklari va saraton rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, *Centaurea belangeriana* tarkibidagi antioksidantlar ayniqsa hujayralarni zararli ta’sirlaridan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi [12-13].

Anti-Kansorogen ta’siri, *Centaurea belangeriana* o‘simligining anti-kansorogen ta’siri haqida ham bir nechta ilmiy tadqiqotlar mavjud. O‘simlik tarkibidagi flavonoidlar, sesquiterpen laktonlari va alkaloidlar saraton hujayralariga qarshi samarali bo‘lib, hujayralarning proliferatsiyasini inhibe qiladi va ularning metastazlashuvini to‘xtatadi. Flavonoidlar, masalan, kversetin va kempferol, saraton hujayralarining o‘sishini sekinlashtiradi va hujayra tsiklini buzadi. Bu moddalarning anti-mutagenik xususiyatlari saratonning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar: Bir necha laboratoriya tadqiqotlarida, Centaurea belangeriana ekstrakti HeLa va MCF-7 kabi saraton hujayralarining proliferatsiyasini sekinlashtirgani va hujayralarning apoptotik o‘limini induktsiyalashgani ko‘rsatilgan. Bu o‘simlikning saraton qarshi davo sifatida foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi [14].


Tahlillar va natijalar. *Centaurea belangeriana* o‘simlikini gullash davrida yig‘ib olinib soya joyda quritildi. Quritilgan o‘simlik 10 kg dan tortib olinib tegirmonda maydalandi va 1 kun davomida 70 % spirtda xona haroratida har safar 30 l dan 5 marotaba ekstraksiya qilindi. Olingan spirtli ekstraktni 40ºC haroratda rotar bug‘latgichda 5 l hajim qolguncha haydaldi va 1:1 nisbatda suv bilan suyultirib yog‘simon moddalardan tozalash maqsadida daslab ajratgich voronkada ekstraksion bezinda (600 ml dan 4 marotaba rang chiqmay kolguncha) bilan so‘ngra xloraforimda (600 ml dan 5 marotaba rang chiqmay qolguncha) yuvildi. Qolgan ekstrakt 60ºC haroratda, ventilyatorli quritish pechlarida 2 sutka davomida quritildi.

Qurigan ekstrakt xlorafil va boshqa qo‘shimchalardan tozalash maqsadida 80 % etil spirtida eritilib 1:1 nisbatda qaynagan suv qo‘shib aralashtirildi. Hamda qo‘shimchalarni cho‘kishi uchun 24 soat qoldirildi. Cho‘kmaga tushgan keraksiz qo‘shimchalar filtrlanib olingan ekstrakt yig‘indilarini ekstraksion benzin, xloroform, etilatsetat va n-butanolli fraksiyalarga ajratildi (3-rasm).




3-rasm Roterda haydash


Olingan xloroforim va n-butanolli fraksiyalardan moddalarni individual xolda ajratish uchun kalonkali xromatografiya qo‘yildi. O‘simlik tarkibidagi terpenoidlar va flavanoidlar individual holda ajratib olindi va ularning biologik faolligi o‘rganilmoqda. Ba’zi ajratib olingan moddalarga misollar keltirib o‘taman. Flavanoid sinfiga xos individual xolda ajratib olingan moddalar odatda tashqi ko‘rinish jihatidan sariq rangli bo‘ladi (4-rasm). Shuningdek, Terpenoid sinfiga xos individual modda ham ajratib olingan (5-rasm). Ular odatda oq rangli va ba’zilari kristall holatda ham bo‘ladi (6-rasm).



4-rasm *C.belangeriana* o‘simligidan olingan flavanoidlar



5-rasm *C.belangeriana* o‘simligidan olingan terpenoidlar



6-rasm *C.belangeriana* o‘simligidan olingan kristall ko‘rinishdagi modda

Bizning ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida *C. belangeriana* turining kimyoviy tarkibida organik kislotalar, saponinlar, alkaloidlar, tanninlar, kumarinlar, flavonoidlar, seskviterpenoidlar 0,95-2% miqdorida topildi. *C. belangeriana* ning ba’zi seskviterpenoidlari antibakterial faoliyat ko‘rsatadi. Gul to‘plari diuretik ta’sirga ega. Ajratib olingan birikmalar ^{1}H va ^{13}C NMR spektrlari yordamida aniqlanib, adabiyotlar bilan taqqoslandi va bu orqali 4 ta terpenoidlarga xos va 6 ta flavonoidlarga xos individual modda ajratib olingan.

Xulosa. *Centaurea belangeriana* o‘simligi tabiiy o‘simliklar orasida o‘zining biologik faolligi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotdagi potentsialidan kelib chiqqan holda muhim ilmiy va tibbiy ahamiyatga ega. Uning antiinflamatuar, antimikrobial va antioksidant xususiyatlari turli kasalliklar, jumladan, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, saraton va nevrologik kasalliklar uchun foydali davolash vositasiga aylantiradi. Kelajakda bu o‘simlikning yangi tadqiqotlari va uning tarkibidagi kimyoviy moddalarning ta’siri haqida ko‘proq ma’lumotlar kiritilishi mumkin. Tadqiqotlar davom ettirilganda, *Centaurea belangeriana* o‘simligi tabiiy davo vositasi sifatida yanada kengroq qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Flora O‘zbekiston. T. 6, Akad. Nauk O‘zCCR, Tashkent, 1962, 399 b.

2. Растительные ресурусы СССР: цветковые растениѐ, их химишеский состав, использование; семейство *Asteraceae*. СПб., 1993. 326 с.

3. Mahnaz K., Marzieh T., Afsaneh R. Stimulation of Hepatic Glycogenolysis and Inhibition of Gluconeogenesis are the Mechanisms of Antidiabetic Effect of *Centaurea bruguierana ssp. Belangerana*. Asian Journal of Animal and Veterinary Advances. 7(11); 1166-1174, 2012.

4. М.А. Бакенова. Тр. Ин-та ботаники. Т. 17. С. 177-180. АН КазССР. 1963

5. Rechinger F (1980) Flora Iranica. Akademische Druck und Verlagsanstalt, Graz. 139b:385–387

6. Flamini G, Pardini M, Morelli I, Ertugrul K, Dural H, Bagci Y, Kargioglu M (2002) Flavonoid glycosides from *Centaureapseu doscabiosa* subsp. pseudoscabiosa from Turkey. Phytochemistry 61(4):433-437

7. Khammar A, Djeddi S (2012) Pharmacological and biological properties of some *Centaurea* species. Eur J Sci Res 84(3):398–416

8. Celik S, Rosselli S, Maggio AM, Raccuglia RA, Uysal I, Kisiel W, Michalska K, Bruno M (2006) Guaianolides and lignans from the aerial parts of *Centaurea ptosimopappa*. J Biochem Syst Ecol 34:349–352

9. Mamajanov I.M, Xolmatov A.O, Komilov B.J, Yuldasheva N.M, Eshbakova K.A., *Centaurea* oilasi o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo‘llanishi Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_maxsus son; 208-215.

10. Bülent Köse, Y.; Iscan, G.; Demirci, B. Antimicrobial Activity of the Essential Oils Obtained from Flowering Aerial Parts of Centaurea lycopifolia Boiss. et Kotschy and *Centaurea cheirolopha* (Fenzl) Wagenitz from Turkey. J. Essent. Oil-Bear. Plants 2016, 19, 762–768.

11. Koca U, Süntar IP, Keles H, Yesilada E, Akkol EK (2009) In vivo anti-infammatory and wound healing activities of *Centaurea iberica* Trev. ex Spreng. J Ethnopharmacol 126(3):551–556

12. Joujeh, R.; Zaid, S.; Mona, S. Pollen morphology of some selected species of the genus *Centaurea L. (Asteraceae*) from Syria. S. Afr. J. Bot. 2019, 125, 196–201.

13. Shoeb M, MacManus SM, Jaspars M, Trevidu J, Nahat L, ThooLin PK, Sarker SD (2006) Montamine, a unique dimeric indole alkaloid, from the seeds of *Centaurea montana (Asteraceae)*, and its in vitro cytotoxic activity against the $CaCo_2$ colon cancer cell. Tetrahedron 62:11172–11177

14. Fahd A.N, Abdelaaty A. Sh, Ali S. A, Mohammad Z. A, Wajhul Qamar, Abdullah A. Al-Mishari, Abdulaziz N. Almoqbi *Centaurea bruguierana* inhibits cell proliferation, causes cell cycle arrest, and induces apoptosis in human MCF-7 breast carcinoma cells .Molecular Biology Reports. 22 July 2020

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Zokirov X.T.
Namangan davlat texnika universiteti (PhD) doktoranti
e-mail: zokirovxolbek92@mail.ru
Abdullayev O.G.
Namangan davlat universiteti dotsenti
e-mail: oga20@mail.ru
Toshmatov Y.R
Namangan davlat universiteti dotsenti
e-mail: toshmatov0606@mail.ru
Abdulazizov B.T.
Namangan davlat universiteti professori
e-mail: bt_abdulazizov@mail.ru

MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN QURUQ QURILISH ARALASHMALARINING XOSSALARI

Annotatsiya: *Maqolada quruq qurilish aralashmalarni tayyorlash va ularning xususiyatlari, shuningdek aralashmaning xususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar ko'rib chiqilgan. Mahalliy xomashyo asosida quruq aralashmalarni tashkil etuvchi komponentlarning xossalari va olingan mahsulotlarning mustahkamligi standartlar asosida o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *Mahalliy to'ldiruvchi, quruq qurilish aralashmalari, kvars, bog'lovchi, to'ldiruvchi, portlend sement, mustahkamlik, qorishma.*

Zokirov X.T.
PhD student of Namangan State Technical University
Abdullayev O.G.
Associate Professor of Namangan State University
Toshmatov Y.R
Associate Professor of Namangan State University
Abdulazizov B.T.
Professor of Namangan State University

PROPERTIES OF DRY CONSTRUCTION MIXTURES MADE FROM LOCAL RAW MATERIALS

Abstract: *The article considers the preparation of dry building mixtures and their properties, as well as factors affecting the properties of the mixture. The properties of the components that make up dry mixtures based on local raw materials and the strength of various mixtures were studied based on standards.*

Keywords: *Local, dry building mixtures, quartz, binder, filler, Portland cement, strength, mixture.*

Зокиров Х.Т.
Докторант Наманганского государственного технического университета (PhD)
Абдуллаев О.Г.
Доцент Наманганского государственного университета
Тошматов Ю.Р.
Доцент Наманганского государственного университета
Абдулазизов Б.Т.
Профессор Наманганского государственного университета

СВОЙСТВА СУХИХ СТРОИТЕЛЬНЫХ СМЕСЕЙ ИЗ МЕСТНОГО СЫРЬЯ

Аннотация: *В статье рассмотрены приготовление сухих строительных смесей и их свойства, а также факторы, влияющие на свойства смеси. Изучены свойства компонентов, входящих в состав сухих смесей на основе местного сырья, и прочность различных смесей на основе стандартов.*

Ключевые слова: *Местные, сухие строительные смеси, кварц, вяжущее вещество, наполнитель, портландцемент, прочность, смесь.*

Kirish.

Zamonaviy qurilishda bino va inshootlarni tashqi ko‘rinishi, xususan, pardozlash, dekorativ ishlov berish ta’mirlash ishlari uchun sifatli materiallardan foydalanishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. O‘sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirish, ish unumdorligini oshirish maqsadida turli quruq qurilish aralashmalariga bo‘lgan ehtiryoj ham ortib bormoqda. Bu ehtiyojlarni mahalliy xom ashyolar asosida quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish bilan qondirish mumkin. Iste’molchilar uchun quruq qurilish aralashmalarning afzalliklari foydalanishga qulayligi, ya’ni ish joyining o‘zida suv bilan aralashtirilib tayyorlanishligidir. Bulardan tashqari barqaror konsistensiyaga ega bo‘lishi, qulay shaklda qadoqlanganligi va uzoq vaqt davomida o‘z xossalarini saqlab qolishi bilan bog‘liq.

Binolarning tashqi fasad qismi insonlarga estetik zavq berishi bilan birga fizik, kimyoviy va mexanik xossalarini uzoq vaqt saqlab qolishi muhimdir. Qurilish, pardozlash va ta’mirlash ishlarida quruq aralashmalardan foydalanish ish sifatini va unumdorligini oshiradi, bu ayniqsa avtomatlashgan jixozlardan foydalanganda sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Quruq qurilish aralashmalar tayyorlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar aralashmaning turlicha xossalarini inobatga olishni va sifatini baholashni taklif etishadi.

V.I. Solomatov, sementning mustahkamligi kimyoviy, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik o‘zaro ta’sir jarayonlarining sintezi natijasidir, bunda to‘ldiruvchi faol ishtirok etadi deb qaraydi. Mikro darajada sement gidratatsiyasi mahsulotlarining to‘ldiruvchi bilan molekulyar o‘zaro ta’siri natijasida sodir bo‘ladi. Kimyoviy faol to‘ldiruvchilar reaksiya yo‘nalishini o‘zgartiradi, inert birikmalar bilan bog‘lanishda ishtirok etadi. Shunday qilib, silikatli to‘ldiruvchilar kalsiy gidroksid $Ca(OH)_2$ bilan o‘zaro ta’sir qilib, past asosli gidrosilikatlarni hosil qiladi[1].

Bulardan tashqari ayrim tadqiqotchilar qorishma bilan ishlash jarayonida shaklni saqlab qolishi, shuningdek, ishchining mehnat unumdorligi bilan baholashni taklif qilishadi[2]. Ba’zilar esa qorishmalarning yopishqoqligini baholashni taklif qiladi, bu asos bilan tishlashishini hisobga oladi[3].

Shu bilan birga, A. G. Zotkin faol mineral to‘ldiruvchilar aralashma tarkibiga kiritilishi aralashma mustahkamligni oshiradi deb qaralaydi - bu “mikroto‘ldirish effekti” bilan izohlanadi. Mikroto‘ldirish effekti faqat aralashmada tarqalgan zarrachalar miqdori ortishi bilan namoyon bo‘ladi. To‘ldiruvchining miqdori optimal miqdordan ortganda aralashmaning zichligi oritishiga qaramay qorishmaning asos bilan yopishishi va mustahkamligini pasayishini kuzatdi[4].

Shuningdek, “mikroto‘ldirish effekti” kristallanish markazlari uchun mikro dispers to‘ldiruvchi zarralari xususiyatiga bog‘liq, ya’ni kimyoviy jarayonlar hisobiga qotib qolishning dastlabki bosqichini tezlashtirishga olib keladi, degan fikr ham mavjud[5-8].

V.K. Vlasov [6, 9] to‘ldiruvchi miqdorining optimal meyordan yuqori bo‘lishi, klinker granulalari orasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kontaktning buzilishiga va mustahkamlikning pasayishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Sement toshida mineral to‘ldiruvchining optimal miqdori sement toshining optimal to‘yinganligi ya’ni mustahkamligi bilan tavsiflanadi. Ushbu holatning mezoni qorishmadagi zarrachalar sirtining maksimal zich qoplanishiga erishishdir.

Yuqoridagi fikrlar barchasi ish unumdorligini oshirish va sifatli quruq qurilish aralashmalari tayyorlashga qaratilgan. Shu bilan birga aralashmaning sifatli bo‘lishi, albatta, uning tarkibidagi komponentlarga bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Vazifasiga ko‘ra suvoq ishlari oddiy, dekorativ va maxsus turlarga bo‘linadi. Suvoq ishlari purkalma qatlam, grunt qatlam va yuza qatlamdan iborat bo‘ladi. Purkalma (ostki) qatlam uchun qorishmaning yoyiluvchanligini konusning botish chuqurligi (8-12 sm) oralig‘ida bo‘lishi lozim. Purkalma qatlamda qorishma harakatchanligi suvoq yuzaga yaxshi tishlashishini ta’minlash uchun zarur. Grunt qatlami eng asosiy qatlam bo‘lib notekisliklar shu qatlamda tekislanadi. Purkalma qatlam qorishmasining plastikligi grunt qatlam qorishmasiga nisbatan biroz yuqori bo‘lib, konus unga 7-8 sm botadi. Sirtqi qatlam, odatda, 8-3 mm qalinlikda qoplanadi. Bu qatlam uchun mayda qum qo‘shib tayyorlangan, konus 9-12 sm botadigan qorishma ishlatiladi. Odatda, purkalma va sirtqi qatlam bir qatlam qilib surtiladi, grunt qatlamlari soni esa suvoqning talab etiladigan sifatida hamda yuzaning tekisligiga bog‘liq bo‘ladi[10].

Tahlillar va natijalar. Quruq qurilish aralashmalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun dastlab ularni tashkil etuvchi komponentlarning optimal nisbatlarini aniqlash lozim. Optimallash uchun turli tarkibdagi namunalar tayyorlanadi va ularni davlat standartlari bo‘yicha tekshirildi[11,12].

Ushbu maqolada foydalanilgan bog'lovchi sement mahalliy ishlab chiqaruvchi "Namangansement" MCHJ tominidan ishlab chiqarilgan SEMII/B-K (I-Z-P) 32.5N (450 marka) va mahalliy daryo qumi (kvars) asosida tadqiqotlar olib borildi.

Sifatli aralashmalar olish uchun kompozitsiya tarkibida ishlatiladigan har bir komponentning xossalarini o'rganish lozim. Bog'lovchi "Namangansement" MChJ tomonidan foydalanilayotgan sement klinkerning kimyoviy tahlili (1-jadval) sementning parametrlari (2-jadval) da keltirilgan.

1-jadval

"Namangansement" klinkerining kimyoviy tahlili (%).

SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	SO_3	K_2O	Na_2O
21,91	4,85	3,52	65,39	1,99	0,64	0,8	0,17


Kimyoviy tahlillar asosida klinkerlar tarkibidagi trikalsiy (C_3S-57,32%), dikalsiy (C_2S-19,37%) silikatlar, trikalsiy aluminat (C_3A-6,88), tetrakalsiy aluminoferrat (C_4AF-10,7%) va kalsiy oksid (CaO-0,73%) miqdori aniqlandi.

2-jadval


"Namangansement" MChJ SEMII/B-K (I-Z-P) 32,5N (450 marka) sement tahlili

Parametrlar	**GOST 31108-2020**	**Korxona mahsuloti uchun**
SO_3	1-4%	1,31
0,08 mm elakda qoldiq	15% dan ko'p emas	4,85
sirt maydoni	320 m^2 / kg dan kam emas	516
Oddiy zichlik	22-28%	26
Qattiqlashuvning boshlanishi	1 soatdan kam emas	2:10
Qattiqlashuvning tugashi	10 soatdan ortiq emas	5:00
7 kunlik bosim kuchi	16 Mpa dan kam emas	30,32
28 kunlik bosim kuchi	Kamida 32,5 Mpa	37,38


Quruq qurilish aralashmalarni sinash uchun suv bilan qorilib standart bo'yicha 4x4x16 o'lchamli qoliplarga quyildi. Qoliplarga quyilgan namunlar xar hil tarkibda tayyorlangan namunalar (GOST 28013-98) bo'yicha bir sutkadan so'ng qoliplardan yechildi hamda talab etilgan sharoitlarda saqlanlandi[13,14]. Olingan namunalar 7, 14, 28 sutkada mustahkamlik o'zgarib borishi egilishga va siqilishga bo'lgan mustahkamligi kuzatib borildi. Namunalarning siqilish natijalari quyidagi 1-,2-,3-rasmlarda keltirigan.



1-rasm. 7 sutkalik namunalarning siqilishga bo'lgan mustahkamligi (kN)



2-rasm. 14 sutkalik namunalarning siqilishga bo'lgan mustahkamligi (kN)



3-rasm. 28 sutkalik namunalarning siqilishga bo'lgan mustahkamligi (kN)

Turli olingan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, bog'lovchiga nisbatan to'ldiruvchi (1:2, 1:3, 1:4) miqdori o'zgarishi bilan ularning mustahkamligi ham o'zgarib bordi, ya'ni to'ldiruvchi miqdori ortib borishi bilan mustahkamlik sezilarli darajada kamayib boradi.

Xulosa. Aralashmaning xossalari uning tarkibida foydalanilgan xomashyoning komponentlar nisbatiga, undan foydalanish jarayonlariga, qorishma tayyorlash, devorga surish va tekislash usullariga bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlardan ma'lumki, quruq qurilish aralashmalarni qorish jarayonida aralashmaga sarflanadigan suv miqdorini ham alohida inobatga olish lozim. Chunki, suv sarfi ortib borishi bilan qarishmaning mustahkamligi kamayib boradi. Aralashmalarga sarflanadigan suv sarfini kamaytirish, harakatchanligini sozlash, fizik va mexanik xossalarini optimallash maqsadida plastifikatorlar va modifikatorlarning turli xil nisbatlari aralashmalarga qo'llash mumkin.

Shu bilan birga buyurtmachi talablariga qarab quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish mumkin. Quruq qurilish aralashmalarini ishlab chiqarish asosan import qilinadigan anologlari o'rnini to'ldirishga qaratilgan. Mahalliy homashyo zahirasiga boy ekanligimizni hisobga

olib, quruq qurulish aralashmalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Соломатов В. И. Композиционные строительные материалы и конструкции пониженной материалоёмкости. — Киев, 1991

2. Хигерович М. И., Меркин А. П. Физико-химические и физические методы исследования строительных материалов. — М. : Высш. шк., 1968.- 192с.

3. Дубошина Н. М. Эффективные сухие строительные смеси на основе местных материалов : Автореф. дис. канд. тех. наук. - Пенза, 1999. -18с

4. Зоткин А. Г. Микронаполняющий эффект минеральных добавок в бетоне // Бетон и железобетон. - 1994. - Ksi3. - С. 7-9

5. Андреева Е. П. Процессы зародышеобразования в силикатных системах // Коллоидный журнал. - JST» 1 - 1991. - С. 105-109

6. Власов В. К. Механизм повышения прочности бетона при введении микронаполнителя // Бетон и железобетон. - 1988. -№ 10. - С. 9-11.

7. Коренькова С. Ф., Ермилова Ю. А. Структурообразование напол ненных цементов // Современные проблемы строительного материаловедения Пятые академические чтения РААСН - Воронеж : ВГАСА, 1999. - С. 207-209.

8. Крекшин В. Е. О влиянии тонкодисперсных фракций песка на микроструктуру бетона // Соверш. Стр-ва назем, обьектов нефт. и газ. промети. Сборник науч. трудов НПО "Гидротрубопровод". - М., 1990. - С.23-26.

9. Власов В. К. Механизм повышения прочности бетона при введении микронаполнителя // Бетон и железобетон. -1988. -JV2 10. - С. 9-11.

10. A.E. Odilxo‘jayev, M.I. Mirahmedov “Suvoqchilik va pardozlash ishlari” Toshkent - „Ilm ziyo“-2004

11. Zokirov X., Abdullaev O. Preparation of Dry Building Mixtures Based on Local Raw Ma-terials for Plaster Works According to Standards // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. Vol. 3244. No. 1.

12. С.А.Дергунов, В.Н.Рубцова “Проектирование составов сухих строительных смеси” монография. Оренбург-2007

13. ГОСТ 31356-2007 “Смеси сухие строительные на цементном вяжущем. Методы испытаний”

14. ГОСТ 31357-2007 “Смеси сухие строительные на цементном вяжущем.Общие технические условия”

15. «Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya Namangan 2023 yil 7-8 noyabr. 443-445

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

O.M.Ro'ziyeva
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
A.A.Mamataliev
Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
I.I.Bozorov
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Namazov Sh.S.
Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

UDC 631.85.661

NPS-FERTILIZERS BASED ON AMMONIUM NITERETRE MILT, KYZYLKUM PHOSPHORITE POWDER AND PHOSPHOGYPSUM

Abstract. *The chemical industry of Uzbekistan has all the prerequisites for creating the production of complex (nitrogen-phosphorus, nitrogen-phosphorus-potassium, nitrogen-phosphorus-containing, etc.) fertilizers based on ammonium nitrate (AN). Phosphogypsum (PG), a waste product of extractive phosphoric acid (EPA) production, can serve as an additive to AN. Only on the territory of Ammofos-Maxam JSC, about 80 million tons of FG have been accumulated. So far, there is no acceptable technology for its disposal. And as a phosphate additive - phosphorite powder (PP) Kyzylkum. When obtaining samples of NPS fertilizers, the AN : PP mass ratio varied from 100 : 3 to 100 : 50. And the addition of phosphogypsum was taken in the amount of 5, 10, and 15% of the total mass of the mixture of saltpeter and phosphorite flour. For granulation of the nitrate-phosphate-gypsum melt, the pelletizing method was used. It has been shown that the saltpeter melt activates phosphate raw materials, that is, it converts the P_2O_5 form, which is indigestible in it, into a form that is assimilable for plants. In this case, phosphogypsum undergoes conversion with the formation of ammonium sulfate. The addition of both PP and FG to saltpeter significantly increases the strength of the granules of the latter. If for pure ammonium nitrate it is equal to 1.32 MPa, then for fertilizer with a mass ratio AN : PP = 100 : 20 with the addition of 5% FG this indicator is already 8.54 MPa.*

Keywords. *Ammonium nitrate, phosphorite powder, phosphogypsum, NPS-fertilizers, composition and properties.*

У.М.Рузиева
Институт предпринимательства и педагогики им. Денова
А.А.Маматалиев
Институт общей и неорганической химии АН РУз
И.И.Бозоров
Институт предпринимательства и педагогики им. Денова
Ш.С.Намазов
Институт общей и неорганической химии АН РУз

NPS-УДОБРЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПЛАВА АММИАЧНОЙ СЕЛИТРЫ, КЫЗЫЛКУМСКОГО ФОСФОРИТНОГО МУКА И ФОСФОГИПСА

Аннотация. *Химическая промышленность Узбекистана имеет все предпосылки для создания производства сложных (азотфосфорных, азотфосфоркалийных, азотфосфорсерусодержащих и др.) удобрений на основе аммиачной селитры (АС). В качестве добавки к АС может служить фосфогипс (ФГ) – отход производства экстракционной фосфорной кислоты (ЭФК). Только на территории АО «Ammofos-Maxat» накоплено около 80 млн. т ФГ. Пока нет приемлемой технологии его утилизации. А в качестве фосфатной добавки – фосфоритовая мука (ФМ) Кызылкумов. При получении образцов NPS-удобрений массовое соотношение АС : ФМ варьировалось от 100 : 3 до 100 : 50. А добавку фосфогипса брали в количестве 5, 10 и 15% от общей массы смеси из селитры и фосфоритовой муки. Для гранулирования нитратно-фосфатно-гипсового расплава применён метод окатывания. Показано, что расплав селитры активизирует фосфатное сырьё, то есть переводит неусвояемую в нём форму P_2O_5 в усвояемую для растений форму. При этом фосфогипс подвергается к конверсии с образованием сульфата аммония. Добавление как ФМ, так и ФГ к селитре значительно увеличивает прочность гранул*

последнего. Если для чистой аммиачной селитры она равна 1.32 МПа, то у удобрения с массовом соотношением АС : ФМ = 100 : 20 с добавкой 5% ФГ этот показатель составляет уже 8.54 МПа.

Ключевые слова. *Аммиачная селитра, фосфоритовая мука, фосфогипс, NPS-удобрение, состав и свойства.*

U.M.Ro‘ziyeva
Denova nomidagi tadbirkorlik va pedagogika instituti
A.A.Mamataliev
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti
I.I. Bozorov
Denova nomidagi tadbirkorlik va pedagogika instituti
Sh.S.Namazov
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti

O'G'ITLARIAMMIAKLI SELITRA SUYUQLANMASI, QIZILQUM FOSFORIT UNI VA FOSFOGIPS ASOSIDA NPS-O‘G‘ITLAR

DETECTION OF THE MAV STRAIN OF BARLEY YELLOW DWARF VIRUS, WIDESPREAD IN CEREAL CROPS BY POLYMERASE CHAIN REACTION METHOD.

Abstract. *In this study monitored wheat field survey was conducted in the Kibray district of the Tashkent region to detect viral diseases. Symptoms specific for Barley Yellow Dwarf Virus (BYDV) infection were found on 20-30% of the wheat crop area in the Kibray district of the Tashkent region. Samples of affected plants were collected. Investigation of the collected plant samples by RT-PCR revealed that the wheat plants were infected with BYDV-MAV strain.*

Keywords: *Barley yellow dwarf virus, Luteovirus, reservoir, phytopathogen, reverse transcription, polymerase chain reaction.*

Kirish

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida g'alla ekinlaridan bug‘doy o'simligi eng muhim oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Dunyo aholisining ozuqa ratsionida bug‘doy o'simligi muhim ahamiyatga ega. Dunyo miqyosida jahon ekin maydonlarining 14% ni don ekin maydonlari tashkil etmoqda. Oziq-ovqat savdosida esa don mahsulotlari 50% ni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish vaqtida xar-xil zararkunandalar va fitopotogenlar sababli hosildorlikni keskin darajada kamayishi ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiy ziyon kelishiga sabab bo‘lmoqda. O'simlik patogenlari qishloq xo'jaligi sanoati uchun katta xavf tug'dirib kelmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining ma’lumotiga ko'ra har yili o'simlik patogenlari va zararkunandalari tufayli iqtisodiy ahamiyatga ega ekinlar 40% gacha hosilini yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda [1]. O'simliklarning fitopatogen virusli kasalliklari qishloq xo‘jaligi ekinlarining miqdor va sifatiga ta’sir etib iqtisodiy zarari bugungi kunda dunyo miqyosida yiliga 60 mlrd AQSh dollarni tashkil yetmoqda. G’alla ekinlarini kasallantiradigan arpaning sariq pakanalik virusi (*ASPV*) don ekinlarining eng iqtisodiy jihatdan muhim virusli kasalligi bo‘lib, deyarli barcha don yetishtiriladigan hududlarda uchraydi. Ilk bor AQShda 1907 va 1949 yillarda donli ekinlarda ASPV epidemisi kuzatilgan[2].

1951 yilga kelib ushbu kasallikning sababchi virus ekanligi taklif qilingan[3].

Qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega bolgan *Poaceae* oilasi kiruvchi -bug‘doy, arpa, jo‘xori, sholi, tariq o‘simliklari ASPV-shtammlari bilan kasallanishi aniqlangan. ASPV ning kasallik alomatlari o‘simligida bargida sariq dog‘lar paydo bo‘lishi, barglarning uch tomondan sarg‘ayishi, ayrim navlarda qizg‘ishi, uch tomondan qurishi, o‘simlikni o‘sishdan orqada qolishi kabi alomatlar ko'zatiladi. Arpaning sariq pakanalik virusi Luteoviridae oilasiniga kiradi. ASPV va uning shtammlari global ahamiyatga ega viruslardir chunki ular Poaceae oilasidagi keng spektrli o‘simliklarni zararlashi va dunyo bo‘ylab uchraydi[4-5]. ASPV va shtammlari asosan *Rhopalosiphum padi*, *Sitobion avenae*, *Metopolophium dirhodum*, *Rhopalosiphum maidis*, *Schizaphis graminum* g'alla shiralari orqali tarqalishi aniqlangan[6].

ASPVning bir nechta shtammlari mavjud bo‘lib, *ASPV-PAV, ASPV-MAV, ASPV-SGV* lardan iborat.

G’alla ekinlariga iqtisodiy zarar keltiruvchi ASPV va shtammlarini o‘rganish kasallikni oldini olish ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisobalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar kesimida g‘alla o‘simligida uchraydigan viruslarining tarqalish darajasi o‘rganilgan[8].

G'alla ekinlarida ASPV-PAV shtammi nitrosellyuloza membranasida immunobloting usulida aniqlangan[7]. Bugungi kunda O‘zbekistonda bir qator viruslar, jumladan ASPV-PAV, WSMV, CYDV-RPV, WSBMV shtammlari PZR usuli yordamida molekulyar-genetik identifikatsiya qilingan[8-9-10].

Bundan tashqari bug‘doy o‘simligini kasallantiruvchi mintaqamizda aniqlangan *ASPV–PAV* shtammi T-UZB1, T-UZB2 izolyatlarining oqsil qobig'i (*CP*) genining genetik xilma-xilligi bo'yicha lmiy tadqiqotlar olib borilgan [11-12].

ASPV-PAV T-UZB1 izolyati oqsil qobig‘i aminokislota ketma-ketligi, Tariq o‘simligidan ajratilgan ASPV-PAV T-UZB2 izolyati oqsil qobig‘i aminokislota ketma-ketligining qiyosiy tahlili o‘rganilgan [13-14].

Ushbu tadqiqot ishida ASPV-MAV shtamini polimerza zanjir reaksiya usulida aniqlashni maqsad qilib olindi.

Tadqiqot materillari va ish uslublari

Tadqiqot obekti sifatida Toshkent viloyati Qibray tumani bug‘doy ekilgan dalalarda virusli kasalliklar o'rganish maqsadida fitosanitar monitoring ishlari olib borildi. Arpaning sariq pakanalik virusining kasallik alomatlariga qarab namunalar yugildi. Namunalar Alpicool (Rossiya) markali avto muzlatgichning -20^{0}C kamerasida saqlandi va laboratoriyaga keltirildi. Virus RNK degradatsiyasini oldini olish maqsadida namunalar -20°C muslatgichda saqlandi.

Umumiy RNK ajratish: Tekshirilayotgan o‘simlik bargidan total RNKni ajratib olish uchun "Invitrogen" (Termo Fisher, USA) “PURELINK RNA MINI KIT” tavsiyanomasi asosida ilova qilingan ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirildi. Ajratilgan umumiy RNK molekulasini uzoq muddatga -80℃ xarorat muzlatgichda saqlandi.

Teskari transkripsiya usulida cDNK olish: MMLV RT (SuperScript™ II Reverse Transcriptase AQSH) tavsiyasiga ko‘ra aralashma (master mix) tayyorlanib olinadi.

1-bosqich: aralashma (master mix) ddH_2O-3 µl, Praymer reverse BYDV-MAV R1-1µl, dNTP-4µl, RNA-5µl. 65°C 5 daq. PZR amplifikatorga quyiladi. PZR amplifikatordan namunalar olinib muz ustida saqlanadi.

2-bosqich: aralashma (master mix) 5x buffer 4 µl, 0.1M DDT-1 µl, RNAase out-1 µl, MMLV-RT-1 µl aralashma (master mix) tayyorlandi. PZR termosiklik dasturi teskari transkripsiya jarayoni uchun quyidagicha bo‘lib, 1 siklda 40°Cda 115 daqiqa, 70°C da 10 daqiqa da 4°C cheksiz vaqtga dasturlandi.

Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) usuli: PZR usuli bu o‘rganilgan gen yoki DNK regionlarini maxsus praymerlar yordamida ko‘paytirish uchun amalga oshiriladi. PZR usulini Platinum™ Hot Start PCR Master Mix (2X) PZR (“Invitrogen™ Thermo Fisher USA) reagentlar to’plami asosida amalga oshirildi. Ishchi aralashma uchun ddH2O-6,6µl, PLATINUM master mix-12,5µ1, MgCL-0,9µ1, praymer-F-0,5µl, praymer-R 0,5µl, cDNK-4 µl jami 25µl da amalga oshiriladi. PZR termosiklik dasturi: boshlang‘ich denaturasiya bosqichi 95°C da 5 daqiqa, 95°C da 30 sekund, yonish (otjig), 58°C 1 daqiqa, va elongasiya 72°C 1 daqiqa 30 sekund, yakuniy elongatsiya bosqichi 72°C 10 daqiqa 4°C ∞ vaqtga dasturlanib PZR amplifikator “T960” (China) da amalga oshirildi.

1-jadval

ASPV-MAV shtammi ORF-3 CP geni praymerlari

Praymerlar	Nukleotidlar ketma-ketligi 5′-3′	
BYDV-MAV-L1	CAACGCTTAAC GCAGATGAA	175bp
BYDV-MAV-R1	AGGACTCTGCA GCACCATCT	

Gel-elektroforez usuli. Namunalardan ajratilgan DNK ni deteksiya qilish va PZR maxsulotlarning uzunligini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Elektroforez 80V da 60-100 daqiqa davomida gorizontal elektroforez SE-1 (Xelikon, Rossiya) yordamida amalga oshirildi. Gel transillyuminator BK AG-100 (Gel Imaging Ayalysis System Biobase China) da tahlil qilinib rasmga olindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. O‘zbekistonda bug'doy o'simligini kasallantiruvchi bug‘doyning yo‘l-yo‘l mozaiki virusi -*wheat streak mosaic virus*, arpaning sariq chiziqli mozaika virusi- *barley yellow streak mosaic virus*, Tuproq orqali yuqadigan bug'doy mozaikasi virusi- Soil-borne wheat mosaic virus, Makkajo'xorining sariq mozaika virusi- Maize Yellow Mosaic Virus aniqlangan bo‘lib, ular turli taksonomik guruhlarga ega. ASPV keng tarqalganligi, patogenligi bilan alohida ahamiyatli hisoblanadi. Odatda, o‘simliklar viruslar bilan kasallanishi natijasida xlorofill donachalari parchalanadi va modda almashinuvi buziladi. Oqibatda barg plastinkasida turli xil guruhdagi chiporlanish paydo bo‘lib, bu xususiyat viruslar turiga va shtammiga bog‘liq bo‘ladi. Olib borilgan tadqiqotlar

Toshkent viloyatining Qibray tumani bug‘doy ekilgan dalalarda virusli kasalliklarni aniqlash maqsadida monitoring ishlari olib borildi. Bug‘doy dalalarida virus bilan kasallanish vizual ko‘zatildi Kasallik alomatlari barglarining sarg‘ayishi, barg plastinkasining qizarishi, o‘simlik bo‘yining pakanaligi ko‘zga tashlanadi. Daladagi kasallik alomatlari ozuqa moddalari yoki suv yetishmasligidan kelib chiqadigan simptomlarga ham o‘xshash bo‘ladi.

Toshkent viloyati Qibray tumanida ekilgan bug‘doy ekilgan dalalarda ASPV ga xos kasallik alomatlari borligi aniqlandi. Dalaning 20-30% qismida ASPVga xos kasallik alomatlari kuzatildi. Olib borilgan visual kuzatishlar natijasiga ko‘ra bug‘doy barglarini uch qismidan boshlab sarg‘ayishi, o‘sishdan ortda qolib, kasallangan o‘simliklar sog‘lom o‘simliklarga nisbatan 15-20 sm pakanaligi kuzatildi(1-rasm).


w



1 2 3


1-rasm. ASPV bilan kasallangan bug‘doy dalasi. 1- ASPV-MAV shtammining kasallik alomatlari, 3- ASPV-MAV shtammini tarqatuvchi vektorlar.

Kasallik alomatlariga qarab biologik namunalar-10ºCda “Alpicool” avtomuzlatgichda saqlanib laboratoriyaga keltirildi. Namunalar olingan joylar mobil qurilmasi orqali GPS mobil ilovasi orqali kordinatalar (*41.412337, 69.467323 41°24’44”N, 69°28’2”E)* belgilandi(2-rasm).



2-rasm: Toshkent viloyati Qibray tumani bug‘doy dalalarida monitoring o‘tkazilgan hududlarning GPS xaritasi.

O‘simliklaridan olib kelingan namunalarda PZR tahlili otkazilganda *Luteovirus* avlodiga mansub arpaning sariq pakanalik virusining MAV shtammi 175 bp da gel-elektroforez analizida aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. ASPV-MAV uchun spesifik *BYDV-MAV-L1* va *BYDV-MAV-R1* praymerlari bilan otkazilgan PZR amplifikasiya mahsulotlarining elektroforegrammasi. 2-5 ASPV-MAV bilan kasallangan namunalar.Tadqiqot natijalarimizga ko'ra Qibray tumani *41.412337, 69.467323 41°24’44”N, 69°28’2”E* kordinatalar bo'yicha bugdoy ekilgan dalalarda ASPV-MAV shtammi tarqalganligi aniqlandi.

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqotlar natijalarga ko‘ra Toshkent viloyati Qibray tumani, tekshirilgan bug‘doy dalalari 20-30% qismida ASPVga xos kasallik alomatlari kuzatildi. Respublikamizda ilk bor Arpaning sariq pakanalik virusining MAV shtammi bug'doy o'simligida polimeraza zanjir reaksyasi (RT-PCR) usulida molekulyar identifikasiya qilib aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Plant Health and Food Security. Available online: http://www.fao.org/3/a-i7829e.pdf accessed on 3 March 2021

2. Alemu Nega, (2014) Review on Barely Yellow Dwarf Viruses: Journal of Biology, Agriculture and Healthcare Vol.4, No.27, 2014

3-Oswald JW, Houston BR (1951). A new virus disease of cereals, transmissible by aphids. Plant Disease Reports 35:471-475.

4- D’Arcy, C.J.; Burnett, P.A. Barley Yellow Dwarf: 40 Years of Progress; APS Press: St. Paul, MN, USA, 1995.

5- Lister RM, Ranieri R, 1995. Distribution and economic importance of barley yellow dwarf. In: D'Arcy CJ, Burnett PA, eds. Barley Yellow Dwarf - 40 Years of Progress. St. Paul, USA: APS Press, 29-53.

6- Wang, X., Chang, S., Jin, Z., Li, L. & Zhou, G., 2001. Nucleotide sequences of the coat protein and readthrough protein genes of the Chinese GAV isolate of Barley yellow dwarf virus. Acta Virol 45, 249-252. Waterhouse PM, Gildow FE, Johnstone GR, 1988. AAB Descriptions of Plant Viruses: Luteovirus Group, No. 339. Wellesbourne, UK: Association of Applied Biology, 9 pp

7- Қодирова З.Н., Махмудов Т.Х, Ахмаджонов М.А. А.Абдукаримов (2020). Ўзбекистон Республикасининг айрим вилоятларида буғдойнинг вирус касалликларини тарқалишини ўрганиш**.** O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Maruzalari 4-2020. 83-88 бет

8-Maxmudov T.X., Qodirova Z.N., Ziyaev Z.M., Abdikarimov B.Q. G‘alla ekinlarida tarqalgan arpaning sariq paknalik virusi-PAV shtammini polimeraza zanjir reaksiya usulida o‘rganish. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi. № 6 (12) 2023. 199-201 бет.

9-Maxmudov T.X.Bug‘doy o‘simligini kasallantiruvchi wheat streak mosaic virusning molekulyar genetik identifikatsiyasi O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi № 1 (13) 2024.109-112 b.

10-Т.Х.Махмудов, З.Н.Кодирова, З.М.Зияев. Диагностика почвообитающего вируса мозаики пшеницы, поражающего пшеницу (triticum aestivum) методом полимеразной цепной реакции. Современная биология и генетика Международный научный журнал, 2024 №3 (9) С.16-20

11-Makhmudov T. Khalimovich., Kadirova Nasirovna., Adilov B. Shukhratovich., Abdikarimov B. Qurombayevich., Abduvaliev B. Abdurashitovich., Ziyaev Z. Mashrabovich., Sherimbetov A. Gulmirzayevich, Kurganov Sardor. Molecular identification based on coat protein sequences of the barley yellow dwarf virus from uzbekistan Pak. J. Phytopathol., Vol. 35 (01) 2023. 127-135pp.

12-Makhmudov TKH, Kadirova ZN, Ziyaev ZM, Abdikarimov BQ, Abduvaliev BA, Adilov BSH, Sherimbetov AG, Akhmadaliev BJ, Kurganov SK, Husanov TS (2024). Molecular characterization of barley yellow dwarf virus (BYDV) isolate T-UZB2 in proso millet (Panicum miliaceum L.) in Uzbekistan. *SABRAO J. Breed. Genet.* 56(5): 1758-1768. http://doi.org/10.54910/sabrao2024.56.5.1.

13-T.X.Maxmudov, Z.N.Qodirova ASPV-PAV T-UZB1 izolyati oqsil qobig‘i aminokislota ketmaketligining qiyosiy tahlili. “Oziq-ovqat xavfsizligi:milliy va global muammolar” ilmiy jurnali (№2024/2) 13-18 b.

14-T.X.Maxmudov. Tariq o‘simligidan ajratilgan arpaning sariq pakanalik virusi T-UZB2 izolyati oqsil qobig‘i aminokislota ketma-ketligining qiyosiy tahlili. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi (2024-6) 159-163 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Karimqulov Abdulla Tojiqulovich
Guliston davlat universiteti dotsenti
E-mail: abdullak2006@yandex.com

UO'T 594.382

XO'JAMUSHKENTSOY HAVZASI QURUQLIK MOLLYUSKALARINING FAUNASI VA EKOLOGIYASI

Annotatsiya: *Maqola Xo'jamushkentsoy havzasi quruqlik mollyuskalarining faunistik tarkibi va ekologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda 24 turdagi mollyuskalarning ekologik guruhlar bo'yicha tahlili keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 24 turdagi mollyuskalarning 9 ta turi gigrobiontlarga, 8 ta turi kserobiontlarga va 7 ta turi mezobiontlarga kiradi.*

Kalit so'zlar: *Xo'jamushkentsoy havzasi, malakofauna, quruqlik mollyuskalari, ekologik guruhlar, gigrobiont, kserobiont, mezobiont.*

Каримкулов Абдулла Таджикулович
Гулистанский государственный университет, доцент

ФАУНА И ЭКОЛОГИЯ НАЗЕМНЫХ МОЛЛЮСКОВ БАССЕЙНА ХУЖАМУШКЕНТСАЯ

Аннотация: *Статья посвящена фаунистическому составу и экологии наземных моллюсков бассейна Хужамушкентсая, где приводится анализ 24 видов моллюсков по экологическим группам. По приведенным данным, из 24 видов моллюсков 9 видов относятся к гигробионтам, 8 видов – ксеробионтам и 7 видов – мезобионтам.*

Ключевые слова: *Хужамушкентсай, малакофауна, наземные моллюски, экологические группы, гигробионт, ксеробионт, мезобионт.*

Karimkulov Abdulla Tadjikulovich
Gulistan State University, Associate Professor

FAUNA AND ECOLOGY OF TERRESTRIAL MOLLUSCS OF THE KHOJAMUSKENTSOY BASIN

Annotation: *The article is devoted to the faunal composition and ecology of terrestrial molluscs of the Khojamushkentsoy Basin, and an analysis of 24 types of molluscs by ecological groups is presented. According to the given data, 9 types of 24 types of molluscs belong to hygrobionts, 8 types to xerobionts and 7 types to mesobionts.*

Key words: *Khojamushkentsoy basin, malakofauna, land molluscs, ecological groups, hygrobiont, xerobiont, mesobiont.*

Kirish

Oxirgi yillarda O'zbekiston va O'rta Osiyo malakofaunasini o'rganishda Z.I.Izzatullaev, A.Pazilov kabi malakolog olimlarning qo'shgan hissasi nihoyatda salmoqli bo'lmoqda. O'zbekiston va unga tutash hududlar quruqlik mollyuskalariga doir dastlabki monografiya A.Pazilov, D.A.Azimov [9] lar tomonidan yozilgan bo'lib, unda 172 turdagi quruqlik mollyuskalariga faunistik, ekologik hamda zoogeografik ta'rif berilgan. Shunga qaramay, O'zbekistonning barcha tog' tizmalari va daryo havzalarida quruqlik mollyuskalar to'liq o'rganib chiqilgan deb bo'lmaydi. Shimoli-g'arbiy Turkiston tog' tizmasining shimoliy yon bag'ridan boshlanuvchi Xo'jamushkentsoy havzasi ham shunday hududlar qatoriga kiradi.

Xo'jamushkentsoy Jizzax viloyatining Yangiobod tumanida joylashgan bo'lib, Xo'jamushkent qishlog'ining Bayot, Erganakli, O'yuvli va Xo'jamushkent mahallalari oralab oqib o'tadi va Xo'jamushkent suv omboriga quyiladi. Xo'jamushkentsoyda yil davomida suv oqib turganligi sababli, mollyuskalarning doimiy populatsiyalari shakllanishi uchun nihoyatda qulay muhit mavjuddir.

Adabiyotlar tahlili

Shimoli-g'arbiy Turkiston tog' tizmasi quruqlik mollyuskalari A.Pazilov, D.A.Azimov [9], A.Pazilov [10] va A.Karimqulov [2, 3, 5] lar tomonidan o'rganilgan. A.Karimqulov ma'lumotlariga ko'ra Shimoli-g'arbiy Turkiston tog' tizmasida jami bo'lib, 19 oila 27 uruqqa tegishli bo'lgan 43 tur quruqlik mollyuskalari uchraydi [2, 5]. Lekin, ushbu hududda joylashgan Xo'jamushkentsoy

havzasiga doir ma'lumotlar fragmentar xarakterga ega bo'lib, mollyuskalarning faunasi va ekologiyasi bo'yicha to'liq tasavvur bera olmaydi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot ob'ekti sifatida Xo'jamushkentsoy havzasida tarqalgan quruqlik mollyuskalari tanlab olingan va 2008-2024 yillar davomida terilgan barcha materiallar laboratoriya sharoitida o'rganilgan.

Quruqlik mollyuskalarini yig'ishda I.M.Lixarev va E.S.Rammelmeyr [6], A.A.Shileyko [11, 12], uslublaridan, fiksatsiya qilishda esa I.M.Lixarev va A.Y.Viktor [7] hamda ayrim hollarda R.Ya.Bratchik [1], uslubidan foydalanildi. Anatomik tuzilishini o'rganishda esa I.M.Lixarev [8] va A.A.Shileyko [12] uslublari qo'llanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Oxirgi yillar davomida Xo'jamushkentsoy havzasida olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasida jami bo'lib, 16 oila 21 uruqqa tegishli bo'lgan 24 turdagi quruqlik mollyuskalarning uchrashi ma'lum bo'ldi. Faunistik va zoogeografik tahlil natijalariga ko'ra hudud malakofaunasi, asosan, palearktika va golarktika, Evropa hamda O'rta Osiyo turlari hisobiga shakllanganligi aniqlandi. Shu bilan birga ushbu hududda introdutsent tur sifatida qayd etilgan *Monacha carthusiana* ning uchrashi ham aniqlangan.

Faunistik tahlil bilan bir qatorda quruqlik mollyuskalari ekologik jihatdan ham o'rganib chiqildi. Xo'jamushkentsoy havzasi quruqlik mollyuskalarining ekologik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi biz tomondan taklif etilgan ekologik klassifikatsiya asosida tahlil etildi [4]. Bu klassifikatsiyaga ko'ra barcha quruqlik mollyuskalari umumiy katta guruhga, ya'ni gigrofillarga birlashtirilib, suv havzalariga nisbatan tarqalishiga ko'ra gigrobiontlar (suv havzalari bo'yida doimiy nam biotoplarda yashaydigan mollyuskalar), kserobiontlar (suv havzalaridan uzoqda, turli qurg'oqchil biotoplarda yashaydigan mollyuskalar) va mezobiontlar (bir vaqtning o'zida ham suv havzalari bo'yida, ham ulardan ancha uzoqda joylashgan, turli qurg'oqchil biotoplarda yashaydigan mollyuskalar) kabi guruhlarga bo'linadi. Ushbu guruhlar bo'yicha tahlil natijalari 1-jadvalda o'z aksini topgan.

1-jadval

Quruqlik mollyuskalarining ekologik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

№	Turlarning nomi	Ekologik guruhlar		
		Gigrobiontlar	Kserobiontlar	Mezobiontlar
1	*Oxyloma sarsi*	+	-	-
2	*Cochlicopa lubrica*	+	-	-
3	*Sphyradium doliolum*	-	-	+
4	*Vallonia pulchella*	-	-	+
5	*Vallonia costata*	-	-	+
6	*Pupilla muscorum*	+	-	-
7	*Vertigo antivertigo*	+	-	-
8	*Zonitoides nitidus*	+	-	-
9	*Gibbulinopsis signata*	-	+	-
10	*Gibbulinopsis nanosignata*	-	+	-
11	*Truncatellina callicratis*	-	-	+
12	*Cecilioides acicula*	-	+	-
13	*Pseudonapaeus sogdianus*	-	+	-
14	*Chondrulopsina intumescens*	-	+	-
15	*Leucozonella mesoleuca*	-	+	-
16	*Xeropicta candaharica*	-	-	+
17	*Monacha carthusiana*	+	-	-
18	*Phenacolimax annularis*	-	-	+
19	*Pyramidula pusillas*	-	-	+
20	*Macrochlamys kasnakowi*	-	+	-
21	*Candaharia rutellum*	-	+	-
22	*Deroceras laeve*	+	-	-
23	*Deroceras agreste*	+	-	-
24	*Lytopelte maculata*	+	-	-
	Jami	9(37,5 %)	33,3 %)	(29,2%)

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, eng ko'p miqdordagi mollyuskalar gigrobiontlarga tegishli bo'lib, bu guruhga 9 ta tur (37,5%), keyingi o'rinlarda esa kserobiontlarning 8 ta turi (33,3%) va mezobiontlarning 7 ta turi (29,2%) kiradi. Ya'ni, Xo'jamushkentsoy havzasi quruqlik mollyuskalarining faunasi, asosan, gigrobiont va kserobiont turlar hisobiga shakllanganlini ko'rish mumkin. Gigrobiont turlarning ushbu havzada ko'p miqdorda uchrashini Xo'jamushkentsoyda doimiy ravishda, yetarli darajada, suvning bo'lishi va qirg'oq bo'yi biotoplarida namlikning optimal darajada saqlanishi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga kserobiont turlarning ham keng tarqalganligi ularning aksariyati tog' va tog' oldi mintaqasi qurg'oqchil muhitga moslashgan O'rta Osiyo turlaridan iborat ekanligi bilan tushuntiriladi. Bu yerda yana shu holatni ham hisobga olish kerakki, gigrobiont turlar yilning aksariyat davrini (qish faslidan tashqari) faol harakatda o'tkazib, yozgi diapauza davriga o'tishmaydi. Kserobiont turlar esa yozgi qurg'oqchilik davrida uyquga ketishadi va yilning faqat bahorgi va kuzgi yomg'irli davridagina faol hayot kechira olishadi. Ushbu holat kserobiont

turlarning faolligini cheklasada, shu hududda ularning keng tarqalishiga aslo ta'sir etmaydi.

Xulosalar

Olingan ma'lumotlar asosida, Xo'jamushkentsoy havzasida 16 oila 21 uruqqa tegishli bo'lgan 24 turdagi quruqlik mollyuskalarning yashashi ma'lum bo'ldi. Faunistik va zoogeografik tahlil natijalari esa, o'rganilgan hudud quruqlik mollyuskalari faunasi palearktika va golarktika, Evropa hamda O'rta Osiyo turlari hisobiga shakllanganligini ko'rsatdi.

Barcha quruqlik mollyuskalari namsevarlik va tashqi muxitning turli omillariga bo'lgan boshqa adaptiv xususiyatlariga ko'ra shakllangan 3 ta ekologik guruh (gigrobiont, mezobiont va kserobiontlar) bo'yicha tahlil qilindi va eng keng tarqalgani gigrobiontlar (9 ta tur, 37,5%) bo'lib chiqdi.

Quruqlik mollyuskalarning bir qator turlari parazit gelmintlarning oraliq xo'jayini hamda yalong'och shilliqqurtlarning qishloq xo'jalik ekinlariga yetkazadigan katta ziyonini hisobga olib, chorva mollariga bir yilda 2 marta gelmintlarga qarshi preparatlarni, qishloq xo'jalik ekinlariga esa shilliqqurtlarning bahorgi ko'paygan davrida mollyuskotsidlarni qo'llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Братчик Р.Я. Метод быстрой фиксации наземных моллюсков // Зоол. журн. — Москва, 1976. — Т. 55. — Вып. 7. — С. 1078 – 1079.

2.Каримқулов А. Шимоли-ғарбий Туркистон тоғ тизмаси қуруқлик моллюскаларининг фаунаси, экологияси ва зоогеографияси: Биол. фан. ном. дис..... – Самарқанд, 2011. - 132 б.

3.Каримкулов А.Т. Биоразнообразие брюхоногих моллюсков северо-запада Туркестанскаго хребта // "Актуальные вопросы в научной работе и образовательной деятельности". Международная научно-практическая конференция. – Тамбов, 2015. – С. 52-53.

4. Каримқулов А. Ўзбекистон қуруқлик моллюскалари экологияси // "Физик-кимёвий биологиянинг долзарб муаммолари". Республика илмий-амалий анжумани. – Тошкент, 2015. – Б. 131-132.

5.Karimqulov A.T. Shimoli-g'arbiy Turkiston tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalari. - Toshkent: Dimal, 2024. – 132 b.

6.Лихарев И.М., Раммельмейр Е.С. Наземные моллюски фауны СССР. Определитель по фауне СССР. — М.– Л., 1952. — В. 43. — 511 с.

7. Лихарев И.М., Виктор А.Й. Слизни фауны СССР и сопредельных стран (Gastropoda Terrestria Nuda) // Фауна СССР. Моллюски. — Т. 3. — М.– Л., 1980. — Вып. 5. — № 122. — 437 с.

8. Лихарев И.М. Моллюски клаузилииды // Фауна СССР. Моллюски. – М. – Л., 1962. – Т. 3, – вып. 4. Нов. сер., – № 83. – 317 с.

9. Пазилов А., Азимов Д.А. Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий. – Ташкент: Фан, 2003. – 316 с.

10. Пазилов А. Биологическое разнообразие наземных моллюсков (Gastropoda, Pulmonata, Geophila) Узбекистана и сопредельных территорий: Автореф. дис. … д-ра биол. наук. – Ташкент, 2005. – 41 с.

11. Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Helicoidea // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1978. — Т. 3. — Вып. 6. — № 117. — 384 с.

12. Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonata, Geohpila) // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1984. — Т. 3. — Вып. 3. — № 130. — 399 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Akbarova Barchinoy Baqiyevna
Qo‘qon universiteti, Andijon filiali, “Tabbiy va tibbiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

STOL TENNISI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI 7 SINF QIZ BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI KO‘RSATKICHLARI

Anotatsiya: *Tirik organizm hayoti davomida turli hodisalar yuz beradi va og‘ir kunlar bo‘ladi. Har bir organizm qiyinchiliklarni yengishga intilishi, turli tabiiy sharoitlarga moslashishi va o‘rganishi kerak bo‘ladi. Moslasha olmagan organizm esa nobud bo‘ladi. Bu yashash uchun kurash qonuni deyiladi. Jismoniy ish bajarilganda organizmni kuchli va chiniqqan bo‘lishi uchun doimiy mashqlar bilan shugullanishi zarur.*

Акбарова Барчиной Бакиевна
Кокандский университет, Андижанский филиал, преподаватель кафедры «Лечебное дело и медицинские науки»

ДЕВОЧКИ 7-ГО КЛАССА ИГРАЮТ В НАСТОЛЬНЫЙ ТЕННИС

Анататция: *В жизни живого организма происходят различные события и бывают трудные дни. Каждый организм должен стремиться преодолевать трудности, адаптироваться к различным природным условиям и учиться. Организм, который не сможет адаптироваться, погибнет. Это называется законом борьбы за существование. При выполнении физической работы необходимо регулярно выполнять упражнения, чтобы тело было сильным и подтянутым.*

Akbarova Barchinoy Bakiyevna
Teacher of the Department of "Medical and Medical Sciences", Kokand University, Andijan Branch

7TH GRADE GIRLS ENGAGED IN TABLE TENNIS

Abstract: *In the life of a living organism, various events occur and there are difficult days. Every organism must strive to overcome difficulties, adapt to different natural conditions and learn. An organism that cannot adapt will die. This is called the law of the struggle for existence. When doing physical work, it is necessary to exercise regularly so that the body is strong and fit.*

Bolalar va o‘smirlarni jismoniy rivojlanishi umumbiologik qonuniyatlarga bo‘ysunadi, unga ko‘ra bola organizmi qancha yosh bo‘lsa o‘sish va rivojlanish jarayonlari shuncha tez ketadi. Shunga qaramasdan bolalar va o‘smirlarni jismoniy rivojlanishi geteroxrom ko‘rinishda jinsiy farq mavjud [1] Odamni sog‘ligi va salomatligi uning jismoniy rivojlanish darajasiga ko‘ra baholanadi.

Ishning maqsadi: 7-sinf o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ularga sportning stol tennisi bilan shugullanishning ta’sirini aniqlash.

1. Buning uchun 14 yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasini aniqlash.

2. Stol tennisi bilan shugullanishning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash.

Tana vaznini yoshga qarab o‘zgarishi. Tana vazni yangi tug‘ilgan qiz bolalar va o‘g‘il bolalarda ham har xil bo‘ladi. Yangi tug‘ilgan qiz bolalarning tana vazni o‘rtacha 3 kg, o‘g‘il bolalarning tana vazni esa 3,2 kg bo‘ladi. Chaqaloq vazni tugilgandan keyingi birinchi oyda 700 gr, 2 oyda 900 gr ga qo‘shiladi. Bolaning vazni hayotining birinchi yili oxirida 3 martaga ortadi va taxminan 9-10 kg bo‘ladi. 2 yoshdan bolaning vazniga har yiliga 2,8-3,5 kg qo‘shiladi. 4-5-6 yoshlarda har yili 3-3,5 kg dan qo‘shiladi. 7 yoshdan boshlab uning vazni tez ortib boradi. Ayniqsa balogat yoshida o‘smir vazniga har yili 6,5-7,5 kg dan qo‘shilib boradi.

Bosh suyakning o‘lchamlarini yoshga qarab o‘zgarishi. O‘sish jarayonida bojsh suyagining shakli ham o‘zgaradi. Bola tugilganida suyaklari yaxshi rivojlanmagan, o‘rtasida biriktiruvchi parda bo‘ladi

7 sinfda o‘qiyotgan o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari va ularni taxlili.

[1] Громбах С.М, Акселерация развития и задачи гигиены детей и подросткова // Гигиена и санитария.-м.,1971.-т.10.-№1.-с.7-10.

Biz o‘rganayotgan yoshdagi o‘quvchilar organizmi o‘sish va rivojlanishda bo‘lib, o‘quvchilarni salomatligini mustahkamlashga va sog‘lom jismoniy rivojlanishiga qaratilgan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish katta ahamiyatga ega.

Jismoniy mashqlarga e’tibor bermaslik oqibatida bolalarning jismoniy rivojlanishi orqada qolishi mumkin. Hamda bolalarda uchraydigan semizlik, yurak-qon tomir hastaliklari kam harakatlik natijasida kelib chiqishi mumkin. Kam harakatlanish fanda «Giponkiziya» deb atalib, unda muskullarni sekin-asta tonusini pasayishi oqibatida atrofiyaga uchraydi.

Muskul sistemasini susayib ketishi boshqa funksional tizimlarni faoliyatini susayishiga olib keladi. Shuning uchun biz turli xil jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan sport maktabining va umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini morfo-funksional ko‘rsatkichlarini o‘rgandik.

O‘quvchilarning bo‘yi va tana og‘irligini kuzatish natijalari.

Bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanganligini baholashda bolalarning bo‘yi va tanasining og‘irligini o‘lchash nihoyatda zarur hisoblanadi. [2] Jismoniy rivojlanganlik darajasi inson sogligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanish odam organizmida qanday funksional o‘zgarishlarga olib kelishini aniqlash ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar morfologik va funksional tizimlarda o‘zgarishlarni kuzatib tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Kuzatuvni Paxtaobod tumani xalq ta’lim boshqarmasi sport maktabining stol tennisi bilan shugullanuvchi 7sinf qiz bolalarida va shu sport turi bilan shug‘ullanmaydigan Andijon shahridagi 43-maktabning 7-sinf qiz bolalarida olib bordik.

Morfo-funksional ko‘rsaktichlaridan o‘quvchilarni bo‘yi, og‘irligi ko‘krak kafasi aylanasining uzunligi, (tinch xolatda, chuqur nafas olganda chuqur nafas chiqarganda), o‘pkaning tiriklik sig‘imi va dinamometriyasidan o‘ng qo‘l, chap qo‘l, gavdani tiklovchi kuchi, son, boldir aylanasining uzunligi,yelka bilak aylanasi uzunligi yurak urushlar soni , asosiy ko‘rsatkichlar sifatida olindi.

Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi 7-sinf qiz bolalarining bo‘y uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 154,6±1,3 sm ni tashkil qildi Eng yuqori ko‘rsatkich 163,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 144,0 sm ni tashkil qildi..

Maktab o‘quvchilarining bo‘y uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 152,8±1,1 sm ni tashkil qiladi. Eng yuqori ko‘rsatkich 160,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 145,0 sm ni tashkil qildi.

Ikkala sinf o‘quvchilarining bo‘y uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslaganimizda farq 2,0 sm ni tashkil qildi. Bu statistik jihatdan muqarrar emas. (R>0,05).

Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi 7-sinf qizlarning tana og‘irligining o‘rtacha ko‘rsatkichi 42,7±0,5 kg ni tashkil qildi. Eng yuqori ko‘rsatkich 49,0 kg ni, eng past ko‘rsatkich 35,0 kg ni tashkil qildi.

Maktab o‘quvchilarida esa tana og‘irligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 38,8±1,2 kg ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 48,0 kg ni, eng past ko‘rsatkich 31,0 kg ni tashkil qildi.

Ikkala sinf o‘quvchilarning tana og‘irligini o‘zaro taqqoslansa farq 3,0 kg ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar hisoblanadi. (R<0,05)

Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi 7-sinf qiz bolalarining tinch holatda ko‘krak qafasi aylanasi uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 71,9+0,6 sm ni tashkil qildi.eng yuqori ko‘rsatkich 77,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 66,0 sm ni tashkil qildi. Maktab o‘quvchilarida esa tinch holatda ko‘krak qafasi aylanasi uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 71,1+0,8 sm ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 78,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 65,0 sm ni tashkil qildi. Ikkala sinf o‘quvchilarining tinch holatda ko‘krak qafasi aylanasining uzunligini o‘zaro taqqoslanganda 0,8 sm ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar emas. (R>0,05).

Stol tennisi bilan shugullanuvchi 7-sinf qiz bolalarining chuqur nafas olganda ko‘krak qafasi aylanasi uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 74,8+0,7 sm ni tashkil qildi. Eng yuqori ko‘rsatkich 82,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 68,0 sm ni tashkil qildi.

Maktab o‘quvchilarining chuqur nafas olganda ko‘krak qafasi aylanasining uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 65,2±0,6 sm ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 81,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 69,0 sm ni tashkil qildi. Ikkala sinf o‘quvchilarining chuqur nafas olganda ko‘krak qafasi aylanasining uzunligini o‘zaro taqqoslanganda 9,6 sm ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar. (R<0,05).

Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi 7-sinf qiz bolalarining chukur nafas chiqarganda ko‘krak qafasi aylanasi uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 71,0+0,7 sm ni tashkil qildi. Eng yuqori ko‘rsatkich 75,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 65,0 sm ni tashkil qildi.

Maktab o‘quvchilarining chukur nafas chiqarganda ko‘krak qafasi aylanasining uzunligini o‘rtacha ko‘rsatkichi 69,4+0,7 sm ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 76,0 sm ni, eng past ko‘rsatkich 64,0 sm ni tashkil qildi. Ikkala sinf o‘quvchilarining chuqur nafas chiqarganda ko‘krak qafasi aylanasining uzunligini o‘zaro taqqoslasak, ular orasidagi farq 0,8 sm ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar emas. (R>0,05).

O’pkaning tiriklik sigimi funksional ko‘rsatkich hisoblanadi.Jismoniy chiniqayotgan organizmda bu ko‘rsatkichni ortishi kuzatiladi. (Stol tennisi bilan

[2] Властоваский В.Г. «Тотоалные размеры тела», «Порсии тела», «Физическое развитие», «Морфология человаека»-М.МГУ 1983, 48-70 стр.

shug‘ullanuvchi 7-sinf qiz bolalarining o‘pkaning tiriklik sig‘imini o‘rtacha ko‘rsatkichi 3000,0± 193,2 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 3900 ml ni, eng past ko‘rsatkich 2400 ml ni tashkil qildi. Maktab o‘quvchilarining o‘pkaning tiriklik sig‘imini o‘rtacha ko‘rsatkichi 2041,0+87,9 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko‘rsatkich 2700 sm ni, eng past ko‘rsatkich 1400 ml ni tashkil qildi.

Ikkala sinf o‘quvchilarini o‘pkaning tiriklik sig‘imini o‘zaro taqqoslanganda ular orasidagi farq 959,0 ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar. (R<0,05).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kuzatuv yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini morfologik ko‘rsatkichlarida jinsiy farq kuzatildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda axoli salomatligini yaxshilashga, ularning sog’lom turmush tarziga yo’naltirishga va sportni ommalashtirishga qaratilayotgan e’tibor bevosita o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi o’rganishda ularga atrof muxitning zararli omillarini ta’siriga moslashish mexanizmlarini xosil qilishga shunga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirigmoqda.

Shuningdek amalga oshirilgan tadqiqotlarda jismoniy faollik darajasining pasayishi natijasida bolalar va o’smirlar organizmida tayanch-harakat tizimi rivojlanishi, organizmning asosiy funktsional tizimlarining faolligi susayishi va o’z navbatida turli xil kasalliklarga chalinishga moyillik darajasining ortishini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Авазова М.А. Физическое развитие школников. г. Душанбе // Материалы по физическому развитию детей и подроскова городова и селских местностей СССР. Душанбе. 1977.-№ 3.-С. 474-475

2. Алиакбарова З.М, Адеева В.Н. Некоторие особенности физического развития и типа конституции школникова // Некоторые вопросы анатомии и физиологии. -Алма-Ата, 1980.-С.17

3. Анохин М. Н. "Биология и нейрофизиология услоного рефлекса" 1968г.

4.Апонасенко Г.А. Оценка физического развития детей и подроскова// Охрана здоровая детей и подросткова.-Киева, 1982. -№ 13.-С.5-7.

5. Аршавский И.А. Очерки возростной физиологии. М.: Медицина, 1967.-С. 453

6.А. Холмирзаева Ёш физиологияси ва гигиена // ўқув қўлланма –Тошкент Brok servis МЧЖ 2020 4-223–б

7. Baqiyevna, Akbarova Barchinoy. "Physical Development of Girls in Sports Table Tennis." *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)* 2.2 (2024): 1-4.

8.Akbarova B. B.” Sportning stol tennisi bilan shug’ullanuvchi

o ‘quvchilarning morfo-funksional ko ‘rsatkichlari //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 294-297.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Turdaliyev. A.T
Farg‘ona davlat universiteti, b.f.d., professor
Axmadjonov. A.A
Farg‘ona davlat universiteti, tayanch doktorant
Egamberdiyeva. S.F
Farg‘ona davlat universiteti, talaba

UO‘K: 631.416.9

SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARDA MIKROELEMENTLAR MIGRATSIYASI VA GEOKIMYOSI

Annotatsiya: *Maqolada Farg‘ona viloyati hududida tarqalgan sug‘oriladigan o‘tloqi saz va och tusli bo‘z tuproqlarning genetik qatlamlaridagi mikroelementlar miqdorlari, ularni migratsiyasi va geokimyoviy xususiyatlari bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mikroelementlarning sug‘oriladigan o‘tloqi saz va och tusli bo‘z tuproqlardagi fon miqdorlari hamda geokimyoviy spektrlari ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *migratsiya, akkumulyatsiya, konsentratsiya klarki, geokimyoviy spektr, fon.*

Турдалиев А.Т
Ферганский государственный университет, доктор философских наук, профессор
Ахмаджонов. А.А
Ферганский государственный университет, базовый докторант
Эгамбердиева. С.Ф
Ферганский государственный университет, студент

МИГРАЦИЯ И ГЕОХИМИЯ МИКРОЭЛЕМЕНТОВ В ОРОШАЕМЫХ ПОЧВАХ

Аннотация: *В статье представлены научные данные о содержании микроэлементов, их миграции и геохимических свойствах в генетических горизонтах орошаемых луговых сазовых почв и светлых сероземах, распространенных в Ферганской области. Также были разработаны фоновые количества и геохимические спектры микроэлементов в орошаемых луговых сазовых почв и светлых сероземах.*

Ключевые слова: *миграция, аккумуляция, кларк концентрация, геохимический спектр, фон.*

Turdaliyev. A.T
Fergana State University, Ph.D., Professor
Akhmadjonov. A.A
Fergana State University, basic doctoral student
Egamberdiyeva. S.F
Fergana State University, student

MIGRATION AND GEOCHEMISTRY OF MICROELEMENTS IN IRRIGATED SOILS

Annotation: *The article presents scientific data on the content of microelements, their migration and geochemical properties in the genetic horizons of irrigated meadow clay soils and light sierozems common in the Fergana region. Also, background quantities and geochemical spectra of microelements in irrigated meadow saz soils and light calcisols were developed.*

Key words: *migration, accumulation, clark concentration, geochemical spectrum, background.*

Kirish

Hozirgi kunda sug‘oriladigan maydonlardan qishloq xo‘jaligida intensiv foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlar balansi izdan chiqdi, ya’ni mineral o‘g‘itlar, kimyoviy preparatlardan ko‘p yillar davomida foydalanish va ba’zan ularni me’yoridan ortiqcha qo‘llash orqali tuproq qoplamini zararli va zaharli moddalar bilan ifloslanishi kuzatilmoqda. Shuning uchun ham sug‘oriladigan tuproqlarni kimyoviy, geokimyoviy, agroekologik

jihatdan tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Har bir tuproq tipi, tuproq ayirmasining kimyoviy tarkibi agrokimyoviy, agroekologik nuqtai nazardan katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tuproqda, tirik organizmda, suvda, atmosferada va o‘simlikda ham D.I.Mendeleyev davriy sistemasidagi ko‘pchilik kimyoviy elementlar mavjud. Barcha tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdori, tuproq-iqlim sharoitlariga va kimyoviy elementning xossalariga bog‘liq ravishda bir-birlaridan farqlanadi. Litosfera-tuproq-o‘simlik zanjirida kimyoviy elementlarni migratsiya va akkumulyatsiyasi hamda geokimyoviy xossalari ularning tuproq tarkibidagi miqdorlariga, tuproq kesmasida qayta taqsimlanishiga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

adabiyotlar tahlili va metodologiya

Kimyoviy elementlarni tarqalishi ularning yadro xususiyatlari va elektron qobiqlari, ya’ni kimyoviy xossalari bilan bog‘liq bo‘lishi V.M.Goldshmidt [1] tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. Bu fikrni A.Ye.Fersman [2] to‘ldirib, kimyoviy elementlarning tuzilishi bilan differensiatsiyasi orasidagi bog‘lanish ularni birlamchi tarqalishiga bog‘liq ekanligini isbotlagan.

Keyinchalik, ko‘pchilik olimlar A.A.Kist [3], A.I.Perelman [4], A.P.Vinogradov [5], V.V.Dobrovolskiy [6], G.Yuldashev [7] va boshqalarning ilmiy ishlarida kimyoviy elementlarni litosferada, tuproqda yoki boshqa muhitda tarqalishida geokimyoviy kattaliklarga tayanilishi to‘g‘ri natijalarga olib kelishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, tuproqlardagi kimyoviy elementlar, ularning geokimyoviy, biogeokimyoviy va boshqa xossalarini o‘rganish borasida H.J.M.Bowen [8], M.A.Glazovskaya [9], E.V.Abakumov [10], Sh.Y.Eshpulatov [11], A.T.Turdaliyev [12] kabi ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot usuli tariqasida V.V.Dokuchayevning morfogenetik usuli tanlangan bo‘lib, tuproq kesmalaridan ona jinsigacha namunalar olindi. Olingan tuproq namunalaridagi mikroelementlarning yalpi miqdorlari O‘zRFA, Yadro fizikasi institutida neytron-aktivatsion usulida aniqlandi. Natijalar A.I.Perelman, M.A.Glazovskayalarning majmuaviy geokimyoviy usullari asosida tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA


Tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlarni differensiatsiya, migratsiya va akkumulyatsiya jarayonlari ularni xususiyatlari bilan birga, tuproqlarni xossalariga va iqlim sharoitlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday holatlarni sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarning genetik qatlamlari uchun quyida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Sug‘oriladigan tuproqlarda mikroelementlar miqdori, mg/kg

Kesma t/r	Chuqurligi, sm	Sc	Cr	Co	Ni	As	Br	Sb	Cs	Hf	Ta
Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar											
4.A	0-32	7,7	42	8,0	23	0,083	9,6	1,3	5,6	3,4	0,70
	32-45	7,8	41	8,5	31	0,076	13,3	1,3	5,9	3,2	0,72
	45-58	6,2	34	6,7	17	0,12	8,8	1,2	4,8	2,5	0,54
	58-98	6,3	32	7,2	18	0,20	3,4	1,5	5,3	2,9	0,58
	98-114	5,6	28	5,0	<10	0,11	1,6	1,0	4,3	2,3	0,64
	114-129	6,4	33	6,7	20	0,081	2,7	1,6	5,7	3,1	0,70
	129-192	6,8	33	6,8	38	0,15	1,6	1,2	5	4,7	0,74
Yangidan sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar											
11.A	0-27	7,1	37	7,2	33	0,074	10,4	1,3	5,2	3,4	0,70
	27-40	7,4	39	7,2	12	0,083	11,7	1,7	5,5	3,5	0,66
	40-66	6,8	34	6,3	14	0,15	4,9	1,7	4,5	3,5	0,62
	66-95	7,3	37	7,6	11	0,17	4,8	2,0	5,3	3,0	0,64
	95-118	6,6	33	6,5	<10	1,3	1,8	1,9	5,1	4,2	0,90
	118-185	7,6	39	8,1	15	0,10	3,9	2,1	6,3	3,1	0,57
O‘rtacha		**6,9**	**35,5**	**7,1**	**19,4**	**0,21**	**6,0**	**1,5**	**5,3**	**3,3**	**0,67**
Yangidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar											
16.A	0-17	12	68	12,5	26	0,16	2,7	2,1	7	4,6	0,94
	17-34	12	75	13,5	41	0,16	4,4	1,9	7,3	5,3	0,87
	34-60	12	24	13	43	0,17	3,7	1,5	8	4,3	0,95
	60-95	11	58	11	25	0,089	<1,0	0,95	6,7	5,1	0,81
	95-150	12	61	11	32	0,095	<1,0	0,96	7,9	6,5	0,84
Eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar											
23.A	0-28	12	64	12,5	56	0,12	4,9	1,4	6,6	5,1	0,72

	28-40	12	58	13	39	0,15	4,9	1,3	8,1	6,9	0,84
	40-65	14	78	14,5	<10	0,15	3,3	1,4	8,7	4,0	1,0
	65-140	14	63	14	<10	0,13	3,5	1,4	6,8	4,3	0,89
O‘rtacha		**12**	**61**	**12,8**	**31**	**0,14**	**3,3**	**1,4**	**7,4**	**5,1**	**0,87**
Litosfera klarki		**10**	**83**	**18**	**58**	**1,7**	**2,1**	**0,5**	**3,7**	**1**	**2,5**



1-rasm. Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproq-


Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, tuproqlarda Cr elementi miqdori eng yuqori ko‘rsatkichda bo‘lib, uning miqdori 24-78 mg/kg oraliqlarida tebranadi. Miqdori bo‘yicha undan keyingi o‘rin Ni ga to‘g‘ri keladi va tuproq qatlamlarida 10-56 mg/kg atrofida mavjud. As va Ta lar esa eng kam miqdorlarni qayd etgan va tuproq qatlamlarida mos ravishda o‘rtacha 0,14 va 0,87 mg/kg ga teng. Hamda ushbu elementlarning miqdorlari litosfera klarkidan kam ekanligi aniqlandi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarda Br, Sb, Cs, Hf mikroelementlari litosfera klarkidan ortiq miqdorlarda bo‘lsa, sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarda Sc, Br, Sb, Cs, Hf lar bu qatorni egallaydi.

Mikroelementlarni o‘rtacha miqdorlarida ham farqlar mavjud, ya’ni, sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarda As, Br va Sb lar sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarga nisbatan ko‘p bo‘lsa, boshqa mikroelementlar aksincha, och tusli bo‘z tuproqlarda ko‘p miqdorlarda mavjud.

Tuproqlarda litosfera klarklaridan yuqori bo‘lgan mikroelementlarni (Sc, Br, Sb, Cs, Hf) sug‘oriladigan o‘tloqi saz va sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarning haydov qatlamlari, ona jinslaridagi miqdorlari va migratsiya dinamikasini geokimyoviy spektrlarda quyidagi 1, 2-rasmlarda keltirildi.

Mikroelementlar migratsiyasi ham har ikkala tuproq tipida turlicha jadallikda kechadi. Misol uchun Br o‘tloqi saz tuproqlarni haydov qatlamida 9,6 mg/kg bo‘lsa, ona jinsda1,6 mg/kg ga teng. Och tusli bo‘z tuproqlarda esa bu miqdorlar 4,9 va 3,5 mg/kg ni tashkil qiladi. Yoki Hf och tusli bo‘z tuproqlarni haydov qatlamida va o‘tloqi saz tuproqlarni ona jinsida ko‘p. Tuproqlar profili bo‘yicha ham mikroelementlar va tuproqning xossalariga bo‘g‘liq holda turli miqdo rlarda taqsimlanadi.



2-rasm. Sug‘oriladigan och tusli bo‘zlarda mikroelementlar migratsiyasi tuproqlarda mikroelementlar migratsiyasi

Yuqorida keltirilgan mikroelementlarni tuproqlardagi o‘rtacha miqdoriy ko‘rsatkichlariga asosan fon miqdorlari ishlab chiqildi va ushbu fon miqdorlari tadqiqot hududidagi tuproqlari uchun nazariy model vazifasini bajaradi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar uchun fon, mg/kg:

$$\frac{Cr}{35,5} > \frac{Ni}{19,4} > \frac{Co}{7,1} > \frac{Sc}{6,9} > \frac{Br}{6,0} > \frac{Cs}{5,3} > \frac{Hf}{3,3} > \frac{Sb}{1,5} > \frac{Ta}{0,67} > \frac{As}{0,21};$$

Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar uchun fon, mg/kg:

$$\frac{Cr}{61,0} > \frac{Ni}{31,0} > \frac{Co}{12,8} > \frac{Sc}{12,0} > \frac{Cs}{7,4} > \frac{Hf}{5,1} > \frac{Br}{3,3} > \frac{Sb}{1,4} > \frac{Ta}{0,87} > \frac{As}{0,14}.$$


Tuproq qatlamlaridagi mikroelementlarni migratsiyasi ularning geokimyoviy xususiyatlari, ya’ni konsentratsiya klarklarida o‘z ifodasini topadi, uni quyidagi 2-jadvaldan ham ko‘rish mumkin.

2-jadval

Tuproqlarda mikroelementlarning konsentratsiya klarki

Kesma t/r	Chuqurligi, sm	Sc	Cr	Co	Ni	As	Br	Sb	Cs	Hf	Ta
Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar											
4.A	0-32	0,77	0,51	0,44	0,4	0,05	4,57	2,6	1,5	3,4	0,28
	32-45	0,78	0,49	0,47	0,53	0,04	6,33	2,6	1,6	3,2	0,29
	45-58	0,62	0,41	0,37	0,29	0,07	4,19	2,4	1,3	2,5	0,22
	58-98	0,63	0,39	0,4	0,31	0,12	1,62	3,0	1,4	2,9	0,23
	98-114	0,56	0,34	0,28	0,17	0,06	0,76	2,0	1,2	2,3	0,26
	114-129	0,64	0,4	0,37	0,34	0,05	1,29	3,2	1,5	3,1	0,28
	129-192	0,68	0,4	0,38	0,66	0,09	0,76	2,4	1,4	4,7	0,30
Yangidan sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqla											
11.A	0-27	0,71	0,45	0,4	0,57	0,04	4,95	2,6	1,4	3,4	0,28
	27-40	0,74	0,47	0,4	0,21	0,05	5,57	3,4	1,5	3,5	0,26
	40-66	0,68	0,41	0,35	0,24	0,09	2,33	3,4	1,2	3,5	0,25
	66-95	0,73	0,45	0,42	0,19	0,1	2,29	4,0	1,4	3	0,26
	95-118	0,66	0,4	0,36	0,17	0,76	0,86	3,8	1,4	4,2	0,36
	118-185	0,76	0,47	0,45	0,26	0,06	1,86	4,2	1,7	3,1	0,23
O‘rtacha		**0,69**	**0,43**	**0,39**	**0,33**	**0,12**	**2,88**	**3,0**	**1,4**	**3,3**	**0,27**
Yangidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar											
16.A	0-17	1,2	0,82	0,69	0,45	0,09	1,29	4,2	1,9	4,6	0,38
	17-34	1,2	0,9	0,75	0,71	0,09	2,1	3,8	2	5,3	0,35
	34-60	1,2	0,29	0,72	0,74	0,1	1,76	3,0	2,2	4,3	0,38
	60-95	1,1	0,7	0,61	0,43	0,05	0,48	1,9	1,8	5,1	0,32
	95-150	1,2	0,73	0,61	0,55	0,06	0,48	1,9	2,1	6,5	0,34
Eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar											
23.A	0-28	1,2	0,77	0,69	0,97	0,07	2,33	2,8	1,8	5,1	0,29
	28-40	1,2	0,7	0,72	0,67	0,09	2,33	2,6	2,2	6,9	0,34
	40-65	1,4	0,94	0,81	0,17	0,09	1,57	2,8	2,4	4	0,40
	65-140	1,4	0,76	0,78	0,17	0,08	1,67	2,8	1,8	4,3	0,36
O‘rtacha		**1,2**	**0,73**	**0,71**	**0,54**	**0,08**	**1,56**	**2,9**	**2,0**	**5,1**	**0,35**

Ushbu jadvaldagi hamda 3-rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, o‘tloqi saz tuproqlarda Br, ular tuproqlarning genetik qatlamlarida turli miqdorlarda akkumulatsiyalangan. Ularning tuproq qatlamlarida ko‘p ekanligi provinsiya mavjudligidan dalolat beradi hamda o‘simliklar va tirik organizmlar uchun ma’lum darajada xavfli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.



3-rasm. Mikroelementlarning KK dinamikasi

Bunda o‘tloqi saz tuproqlarda Br, och tusli bo‘z tuproqlarda Sb va Hf larning yuqori KK miqdorlari Sb, Cs, Hf larni, och tusli bo‘z tuproqlarda esa Sc, Br, Sb, Cs va Hf larning KKlari birdan yuqori ko‘rsatkichda, ya’ni tashvishli holat, ayni holatda ushbu hudud tuproqlarida agroekologik, agromeliorativ chora-tadbirlarini olib borish talab etiladi.

Eskidan sug‘oriladigan tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida Br, Hf va yangidan sug‘oriladigan tuproqlarning ustki qatlamlarida Sb elementlari yuqori darajada akkumulyatsiyalangan. Qolgan mikroelementlar, ya’ni Cr, Co, Ni, As va Ta larining kontsentratsiya klarklari birdan kichik, ularni tuproq qatlamlarida akkumulyatsiyalanmaganligini e’tirof etish mumkin.

Xulosa

Sug‘oriladigan tuproqlardagi mikroelementlarning migratsiyasi, akkumulyatsiyasi va kontsentratsiya klarklarini geokimyoviy nuqtai nazardan tadqiq qilish orqali olingan natijalardan hamda ayni tuproqlar uchun ishlab chiqilgan fon miqdorlaridan qishloq xo‘jaligida ekinlarni joylashtirishda, ularga mineral va mikroo‘g‘itlar

qo‘llashda hamda agroekologik, agromeliorativ chora-tadbirlarni olib borishda muhim manbaa sifatida foydalanish tuproq unumdorligini, ekinlar hosildorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Гольдшмидт В.М. Главнейшие работы по геохимии и кристаллохимии. -Л., 1933. 120 с.
2. Ферсман А.Е. Геохимия. В 4-х т. - Л.: ОНТИ. 1939. Т.4. Стр.46.
3. Кист А.А. Феноменология биогеохимии и биоорганической химии. - Т., 1987. -236 с.
4. Перельман А.И. Геохимия. - М., 1989. -419 с.
5. Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных элементов в почвах. М. РАН. - 2021. - 298 с.
6. Доброволский В. В. Геохимическое землеведение: Учебное пособие / — М.: Владос, 2008. — 208 с.
7. Turdaliyev A., Yuldashev G. Pedolitli tuproqlar geokimyosi. Monografiya // T. “FAN. – 2015. – B. 41-48.
8. Bowen H.J.M. Trace elements in biochemistry. New-York-London Academic Press, 1966. -241 p.
Tahlil natijalariga ko‘ra, *Sindrella* (26,2 g), *Seolhyang* (25,1 g) va *Alba* (24,0 g) navlarida eng yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi. *Betabery* navining o‘rtacha mevasi og‘irligi 18,9 g ni tashkil qildi. Ushbu natijalar qulupnay navlarining morfologik xususiyatlarini baholash va ularni seleksiya jarayonida samarali qo‘llash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.


Qulupnay navlarining asosiy morfologik xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Ushbu xususiyatlar quyidagilarni o‘z ichiga olgan: o‘simlik kengligi (sm), barglar va gullar soni, o‘simlikdagi mevalar soni (dona), mevaning uzunligi va diametri (sm), yangi uzilgan mevalarning og‘irligi (g).

Pirson korrelyasiya koeffisiyentlari natijalari shundan dalolat beradiki, qulupnay navlarida o‘simlik kengligi va barglar soni o‘rtasida juda kuchsiz ijobiy (musbat) bog‘liqlik mavjud (r=0,057), ya’ni barglar soni ko‘paygan sari o‘simlik kengligi ham oshadi. Biroq, *Alba* navida o‘simlik kengligi 53,8 sm ga yetganiga qaramay, o‘rtacha barglar soni 13,6 ga tushgan, bu esa ushbu xususiyatlar o‘rtasida salbiy (negativ) korrelyasiya (r=-0,268) mavjudligini ko‘rsatadi.

Gullar soni va mevalar soni o‘rtasida juda kuchsiz ijobiy bog‘liqlik (r=0,075) kuzatilgan, ya’ni gullar soni oshishi mevalar soni oshishiga olib keladi. Biroq, *Seolhyang* (r=-0,813), *Sindrella* (r=-0,285) va *Alba* (r=-0,201) navlarida ushbu xususiyatlar o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud.

Qulupnay o‘simligining kengligi (sm) va mevalar soni o‘rtasida o‘rtacha musbat korrelyasiya (r=0,308) aniqlangan. Shuningdek, mevaning uzunligi va yangi uzilgan mevalarning og‘irligi o‘rtasida (r=0,564), mevaning diametri va yangi uzilgan mevalarning og‘irligi o‘rtasida (r=0,550) o‘rtacha ijobiy korrelyasiya mavjudligi qayd etilgan (1 rasm).

Bundan tashqari, mevalar soni va yangi uzilgan mevalarning og‘irligi o‘rtasida o‘rtacha salbiy korrelyasiya (r=-0,688) aniqlandi. Bu esa ko‘proq meva hosil qiluvchi o‘simliklar ayrim mevalarning massasi bo‘yicha katta o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Biroq, *Alba* navida ushbu korrelyasiya o‘rtacha musbat (r=0,501) ekanligi, ya’ni ijobiy korrelyasiya mavjudligi qayd etildi.



1 rasm. Qulupnay navlarida o‘simlik kengligi (sm) va mevalar soni o‘rtasidagi ijobiy korrelyasiya.


Bundan tashqari, mevalar soni va yangi uzilgan mevalarning og‘irligi o‘rtasida o‘rtacha negativ korrelyasiya (r=-0,688) aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki, ko‘proq meva hosil qiluvchi o‘simliklar ayrim mevalarning massasi bo‘yicha katta o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lishi mumkin. Biroq, *Alba* navida ushbu korrelyasiya o‘rtacha ijobiy (r=0,501) ekanligi qayd etildi.

Shuningdek, o‘simlik kengligi va yangi uzilgan mevalar og‘irligi (r=-0,021) hamda barglar soni va yangi uzilgan mevalar og‘irligi (r=-0,019) o‘rtasida juda kuchsiz ijobiy korrelyasiya aniqlandi.

Qo‘shimcha ravishda, o‘simlik kengligi va mevalar diametri (r=-0,14857), mevalar soni va ularning diametri (r=-0,148), gullar soni va mevalar diametri (r=-0,304) o‘rtasida o‘rtacha ijobiy korrelyasiya kuzatildi.

Shuningdek, gullar soni va mevalar uzunligi (r=0,632), mevalar soni va uzunligi (r=0,604), gullar soni va yangi uzilgan mevalar og‘irligi (r=-0,688) hamda bitta o‘simlik tupidagi mevalar soni va yangi uzilgan mevalar og‘irligi (r=-0,680) o‘rtasida manfiy korrelyasiya qayd etildi (2-rasm).

Masalan, *Sindrella* navida bir o‘simlikdagi mevalar soni eng past (o‘rtacha 14,8 dona) bo‘lgan. Shu bilan birga, ushbu navda yangi uzilgan mevalarning o‘rtacha og‘irligi eng yuqori (26,2 g) ekanligi aniqlandi. Shunga o‘xshash holat *Seolhyang* **va** *Alba* navlarida ham kuzatildi.



2-rasm. **Qulupnay navlarida mevalar soni va yangi uzilgan mevalar og‘irligi (g) o‘rtasidagi korrelyasiya**

Xulosa qilib aytganda tadqiqotda qulupnay navlarining morfologik xususiyatlari o‘rganilib, ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Navlar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlandi, bu esa ularning seleksiyadagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Korrelyasion tahlil o‘simlik xususiyatlari o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni aniqladi, bu esa hosildorlikni oshirish uchun muhimdir. Olingan natijalar qulupnay navlarini duragaylashda va ularning morfologik xususiyatlarini baholashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi va kelgusida yuqori hosilli va sifatli navlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Graham J., McNicol R.J., McNicol J.W. A comparison of methods for the estimation of genetic diversity in strawberry cultivars. Theoretical and Applied Genetics, 1996. 93: P. 402–406.

2.Kher R., Baba J.A., Bakshi P. Influence of planting time and mulching material on growth and fruit yield of strawberry cv. Chandler. Indian Journal of Horticulture, 2010 67: P. 441–444.

3.Morgan K.L. Commodity strawberry profile. Mississippi University. http://www.agmrc.org/commoditiesproducts/fruits/strawberries/commodity-strawberry-profile (20.10.2013).

4.Rieger M (2006). Introduction to Fruit Crops. The Haworth Press, Binghamton, New York, 145 PP. retrieved from http://www.fruit-crops.com/strawberryFragaria-x-ananassa/.

5.Takahashi A., Yasutake D., Hidaka K., Ono Sh., Kitano M., Hirota T., Yokoyama G., Nakamura T., Toro M. Yield and Photosynthesis Related to Growth Forms of Two Strawberry Cultivars in a Plant Factory with Artificial Lighting. Hort Science 2024, Volume 59 ISSUE 3 //doi.org/10.21273/HORTSCI17587-23. P. 394-399.

6.FAO. Food and Agriculture Organization of the United Nations FAOSTAT. Available from: http://www.fao.org/faostat/en/#data/ 2020 QC.

7.FAOSTAT. Available from: https://www.fao.org/faostat/en/#home.

8.Доспехов БА (1985). Методика полевого опйта. Москва: Агропромиздат п 351.

9.Ўзбекистон Гидрометеорология хизмати марказининг расмий веб-сайти https://hydromet.uz/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Nozimova Aziza Baxtiyorovna
Samarqand davlat universiteti
Biologiya fakulteti tayanch doktoranti
Email:azizanozimova1997@gmail.com
Haydarov Hislat Qudratovich
Samarqand davlat universiteti
Biologiya fakulteti professori
Jumayeva Zamira O'tkirovna
Samarqand davlat universiteti
Biologiya fakulteti tayanch doktoranti
Email:djumayevazamira5@gmail.com

SAMARQAND HUDUDI DORIVOR O'SIMLIKLAR CHANG DONALARINING MORFO-ANOTOMIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada Samarqand hududida o'sadigan dorivor o'simlik chang donalarining morfologik, anotomik belgilari hamda hudud florasining taksonomik tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan. Dorivor o'simliklarning gullash jarayoni va chang donasining o'lchami, shakli, ekzin, entin qavatlar qalinligi tahlil qilingan. Ushbu maqolada o'rganilgan dorivor o'simliklarning xalq tabobatida foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Dorivor, o'simlik, gul, changdon, chang, changlanish, flora, ekzin, apertura.*

Нозимова Азиза Бахтиёровна
Самаркандский государственный университет
докторант биологического факультета
Хайдаров Хислат Кудратович
Самаркандский государственный университет
Профессор биологического факультета
Джумаева Замира Уткировна
Самаркандский государственный университет
докторант биологического факультета

МОРФО-АНАТОМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПЫЛЬЦЫ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. *В статье даны сведения о морфологических и анатомических особенностях пыльцевых зерен растений, произрастающих на территории Самаркандской области, а также таксономическом составе флоры региона. Проанализированы процесс цветения лекарственных растений, а также размер, форма и толщина слоев экзины и эндосперма пыльцевых зерен. В статье приведены сведения об использовании изученных лекарственных растений в народной медицине.*

Ключевые слова: *Лекарственное растение, цветок, пыльник, пыльца, опыление, флора, экзина, отверстие.*

Nozimova Aziza Bakhtiyorovna
Haydarov Hislat Kudratovich
Samarkand State University
Professor, Faculty of Biology
Jumayeva Zamira U'tkirovna
Samarkand State University
PhD student, Faculty of Biology

MORPHO-ANATOMICAL PROPERTIES OF POLLEN OF MEDICINAL PLANTS OF SAMARKAND REGION

Abstract. *The article provides information on the morphological and anatomical features of plant pollen grains growing in the Samarkand region and the taxonomic composition of the flora of the region. The flowering process of medicinal plants and the size, shape, exin, and integumentary layers of pollen grains are analyzed. This article provides information about the use of the studied medicinal plants in folk medicine.*

Key words: *Medicinal plant, flower, pollen, anther, pollination, flora, exin, aperture.*

Kirish.

Palinologiya - zamonaviy biologiyaning bir sohasi bo‘lib, u o‘simliklar chang donasi tarkibi va hosil bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganadi, shuningdek, spora- changlar majmuasi va quruqlik fitotsenozlari o‘rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. Ma’lumki, o‘simliklar chang donalari morfologiyasining xususiyatlari taksonomiya uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Muayyan oila yoki o‘simlik turining har bir chang donasi o‘zining umumiy tuzilishi va morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi, bu esa tizimli bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Ba’zi hollarda o‘simliklar chang donasiga qarab turlarni aniqlab olish mumkin. O‘simliklar chang donalarining aholi salomatligi uchun ahamiyati ham beqiyosdir. Bugungi kunda dorivor o‘simliklar va ularning changlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu bois, dorivor o‘simliklar chang donasini o‘rganish, ularning kasalliklarga ta‘sir kuchini aniqlash hamda ulardan dori- darmon vositalarini tayyorlash dolzarb mavzulardan sanaladi.

Adabiyotlar tahlili

Dorivor o‘simliklarning gullari, poyasi, meva va urug‘laridan hamda chang donasidan turli kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladi. Yer yuzida dorivor o‘simliklar ning o‘n ikki mingdan ortiq turi borligi aniqlangan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘saditan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi kunda tibbiyotda qo‘llaniladigan doridarmonlarning qariyib 40—50% o‘simlik xom ashyolaridan olinadi.

Tadqiqot metodi.

Ushbu maqola uchun dorivor o‘simliklar chang donasi turlaridan foydalanilgan. Kuzatuvlarimiz davomida yilning may oyidan to oktabrgacha bo‘lgan turli davrlarda dorivor o‘tchil o‘simliklar chang donasi namunalari yig‘ish va gerbariy varaqlariga o‘rnatildi hamda tahlil qilindi [2,4]. Dorivor o‘simliklar chang donasi to‘plangan namunalarni turli ilmiy adabiyotlardan foydalanib taqqoslash yo‘li bilan aniqlandi (http://www.worldfloraonline.org/). Yig‘ilgan gerbariylar hozirgi kunda Biokimyo instituti laboratoriyasida saqlanmoqda.

Tahlillar va natijalari

O‘simliklar chang donasining tahlil jarayonlari yorug‘lik va elektron skanerlash mikroskopi yordamida Wodehouse texnikasi (Wodehouse, 1935) bo‘yicha amalga oshirildi. Dastlab to‘plangan o‘simliklar chang donasi begona chiqindilardan tozzalandi, buyum oynachasiga igna yordamida gul iplari qo‘yildi. Shundan so‘ng uning ustiga bir necha tomchi sirka kislotasi qo‘yildi va buyum oynasida o‘simlik chang donalarini chiqarish uchun shisha tayoqcha yordamida ezildi (Erdtman, 1986). Keyin o‘simlik chang donalari Faegri K. A. usuli bo‘yicha tayyorlangan glitserin geli bilan bo‘yaldi. Tayyorlangan preparatlar yorug‘lik mikroskopi ostida (10x va 40x) turli xil palino-morfologik belgilar uchun tahlil qilindi. O‘simliklar chang donasining nomlari, oilasi, va ularning joylashgan joylari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Dorivor o’simliklar chang donasining tur tarkibi

№	Ilmiy nomi	Oilasi	O’lchami μm)	Qutbli kurinishi	Shakli	Apertura turi
1	Buddleja davidii Franch.	Scrophulariaceae	13,45	yumaloq	sferoidsimon	Tricolporate
2	Buxus sempervirens L	Buxuceae	31,8	Yassi qiya	sferoidsimon	Pantoporate
3	Chaenomeles japonica (Thunb.) Lindl. ex Spach	Rosaceae	44,6	Uchburchak	Yassi-sferoidsimon	Tricolpate
4	Chaenomeles japonica (Thunb.) Lindl. ex Spach	Brassicaceae	18,95	Uzunchoq-cho’zilgan	Yassi-sferoidsimon	Tricolpate
5	Gagea olgae Regel	Liliaceae	57,7	Ovalsimon	Yassi	Tricolpate
6	Hibiscus syriacus L	Malvaceae	111.6	yumaloq	sferoidsimon	Tricolpate
7	*Lonicera nummulariifolia* Jaub. & Spach	*Caprifoliaceae*	65.42	yumaloq	Yassi-sferoidsimon	Tricolporate
8	*Prunus avium* (L.) L	*Rosaceae*	27.8	Uchburchak	Yassi	Tricolporate

9	*Punica granatum* L	*Punicaceae*	18.68	yumaloq	Yassi	Tricolporate
10	*Rosa canina* L.	*Rosaceae*	39.2	Yassi qiya	Yassi	Tricolporate
11	*Salvia rosmarinus Schleid*.	*Lamiaceae*	46.3	Ellipsimon	Yassi-sferoidsimon	Tricolpate
12	*Trifolium pratense* L	*Fabaceae*	26.1	Uzunchoq-cho'zilgan	Yassi-sferoidsimon	Tricolporate
13	*Vitis vinifera* L.	*Vitaceae*	16.25	Uchburchak	Yassi-sferoidsimon	Tricolporate


Elektron mikroskopik (SEM) tekshiruvlarini skanerlash uchun, o'simlik chang donalaridan ajratilgan qismi asetolizlandi va changlarning o'ziga xos xususiyatlari sirt bezaklari laboratoriyada skanerlash elektron mikroskopida kuzatilgan [3,4].

Tahlil qilinganda o'simliklar chang donasi (Erdtman 1952) o'lchamiga ko'ra kichik (0-25 mkm; 30,7), o'rtacha (25-50 mkm; 46,15), katta (50–99 mkm; 15,38) va juda katta (100–150 mkm; 7,69) foizlarni tashkil qildi. Samarqand hududi dorivor o'simliklarining chang donalari morfologik ko'rsatkichlari har bir o'simlik turi uchun P/E indeksi nisbati asosida hisoblab chiqilgan va olti xil shaklni nomoyon qildi. Chang shaklini aniqlash uchun qutb o'qi diametri va ekvator o'qning nisbati asosida tahlil qilindi. Bunda *Rosa kaninada* maksimaldan 1,35 gacha, *Prunus aviumda* minimal 0,75 o'lcham va shaklni tashkil qildi. Samarqand hududidagi o'simliklar chang donasining morfologiyasini o'rganish moboynida jami 11 ta oilani ifodalovchi 13 ta o'simliklar changi tahlil qilindi.




1-rasm. O'simlik chang donalari yorug'lik va skanerlash elektron mikroskopining tahlillari; (a–d) *Buddleja davidii Franch*.(e–h) *Buxus sempervirens* L. (i–l) *Chaenomeles japonica* (Thunb.) *Lindl*. sobiq Spach


Rosaceae eng yuqori turlarga ega, keyin boshqa oilalar *Buxaceae*, *Brassicaceae*, *Caprifoliaceae*, *Fabaceae*, *Lamiaceae* kabilar, *Liliaceae*, *Malvaceae*, *Punicaceae*, *Scrophulariaceae*, *Solanaceae* va *Vitaceae* kabi oilalarning chang morfologiyasi, shakli, o'lchami, apertura turlari, ekzin xususiyatlari va o'lchamlari changlatish usuli kabi belgilarni o'z ichiga oladi [5]. Hududdagi o'simlik florasining boshqa o'simlik turlaridan afzalligi ularning chang hosil qilish darajasi har yili juda yuqori, bu esa ularning nasl qoldirish ehtimoli ko'proq, turlar ichida o'zgarishlar mavjudligini anglatadi [6,1]. Demak, anor o'simligining chang donalari, xuddi zaytun o'simligining chang donalari singari shamolda ucha oladigan darajada engil [2,7]. O'rganilgan anor o'simligi navlarining chang donalari morfologiyasi shakli jihatidan juda o'xshash bo'lib, lekin ekzin naqshida farqlar mavjud.



2-rasm. O'simlik chang donalari yorug'lik va skanerlash elektron mikroskopiningtahlillari; (a–d) *Descurainia sophia* (L.) *Webb ex Prantl* (e–h) *Gagea olgae Regel*. (i–l) *Hibiscus syriacus* L



3-rasm. O'simlik chang donalari yorug'lik va skanerlash elektron mikroskopining tahlillari; (a–d) *Lonicera nummulariifolia*
Jaub. & Spach (e–h) *Prunus avium* (L.) L. (i–l) *Punica granatum* L



4-rasm. O‘simlik chang donalari yorug’lik va skanerlash 246retense mikroskopining tahlillari; (a–d) *Rosa canina* L. (e–h) *Salvia rosmarinus Schleid*. (i–l) *Trifolium pratense* L. (m–p) *Vitis vinifera* L.

Xulosa

Dorivor xususiyatga ega bo‘lgan o‘simlik chang donalarini yigib turli damlamalar ko‘rinishida qabul qilish inson salomatligiga ijobiy ta‘sir qilishi aniqlangan. Ushbu tadqiqot loyihasi O‘zbekistonning Samarqand hududi o‘simliklarining gulchanglari morfologiyasini baholash bilan cheklandi. Turlar orasidagi chang tuzilmalarining qiyosiy tekshiruvlari shuni ko‘rsatadi ekzin qavati xususiyatlarining taksonomiyasi ilmiy qiziqishni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Aziza, N., Khaydarov, K., Zafar, M., Alsakkaf, W. A., Alkahtani, J., Ahmad, M., Wibawa, I. P. A. H. Chromatographic authentication of botanical origin: Herbaceous pollen profiling with HPLC, HPTLC and GC–MS analysis //Biomedical Chromatography. – 2024. – T. 38. – №. 6. – C. e5852.

2.Zamira, D., Khaydarov, K., Zafar, M., Ramadan, M. F., Ahmad, M., Aziza, N., Farzona, D. Comprehensive study of allergenic tree species: Palynological insights enhanced by HPLC and GC–MS profiling //Biomedical Chromatography. – 2024. – T. 38. – №. 2. – C. e5774.

3.de Oliveira Souza, S., Souza de Oliveira, R., Aona, L. Y. S., Souza, F. V. D., Soares, T. L., Rossi, M. L., de Souza, E. HPollen morphology and viability of Tillandsia (Bromeliaceae) species by light microscopy and scanning electron microscopy //Microscopy Research and Technique. – 2021. – T. 84. – №. 3. – C. 441-459.

4.De Vogel E. F. Manual of herbarium taxonomy: theory and practice. – 1987.

5.Fluri, P., Pickhardt, A., Cottier, V., Charrière, J. D. . La pollinisation des plantes à fleurs par les abeilles–Biologie, Ecologie, Economie, 27p. – 2001.

6.Westerband A. C., Funk J. L., Barton K. E. Intraspecific trait variation in plants: a renewed focus on its role in ecological processes //Annals of botany. – 2021. – T. 127. – №. 4. – C. 397-410.

7.Varasteh F., Arzani K. Classification of some Iranian pomegranate (Punica granatum) cultivars by pollen morphology using scanning electron microscopy //Horticulture Environment and Biotechnology. – 2009. – T. 50. – №. 1. – C. 24-30.

8.Wodehouse R. P. Pollen grains and worlds of different sizes //The scientific monthly. – 1935. – T. 40. – №. 1. – C. 58-62.

9.Erdtman G. On pollen and spore terminology //Journal of Palaeosciences. – 1952. – T. 1. – C. 169-176.

10. Faegri K. A pollen diagram from the sub-alpine region of Central South Norway //Norsk geologisk tidsskrift. – 1945. – T. 25. – C. 99-126.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Orziyeva Y.M.
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.
Davronov B.O.
Qarshi davlat universiteti dotsenti.
y.orziyeva@mail.ru

JINNIDARYO ATROFIDAGI QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARNING TARQALGANLIK HOLATI

Annotatsiya: *Jinnidaryo–Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi daryo hisoblanib, Qashqadaryoning chap irmog‘i, Zarafshon va Hisor tog‘ tizmalarini tutashtiruvchi Shertog‘ning g‘arbiy yonbag‘irlaridan oqib tushuvchi irmoqlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Daryo Kitob tumanining Do’ngqishloq, Obikanda,Tuyavoshi, Kuhsor, Jovuz qishloqlari bo’ylab oqadi. Tadqiqotimiz davomida daryo atrofining turli biotoplarida tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar o’rganildi. Tadqiqot hududida 13 turdagi quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar uchrashi qayd etildi.*

Kalit so‘zlar*: Jinnidaryo, Kitob, quruqlikda yashovchi gastropodlar, biotoplar.*

Orziyeva Y.M.
PhD student of Guliston State University.
Davronov B.O.
Dosent of Karshi State University

THE DISTRIBUTION OF TERRESTRIAL GASTROPODS AROUND THE JINNIDARYO RIVER

Abstract: *Jinnidaryo is a river located in the Kashkadarya region, specifically in the Kitob district. It is formed by the confluence of tributaries flowing from the western slopes of the Shertog Mountains, which connect the Zarafshon and Hisor mountain ranges. The river flows through the villages of Do’ngqishloq, Obikanda, Tuyavoshi, Kuhsor, and Jovuz in the Kitob district. Terrestrial gastropods, which are distributed in various biotopes around the river, were studied. A total of 13 species of terrestrial gastropods were recorded in the research area.*

Keywords: Dj*innidaryo, Kitob, terrestrial gastropods, biotopes.*

Орзиева Ё.М.
Гулистанский государственный университет.
Давронов Б.О.
Каршинский государственный университет

РАСПРЕДЕЛЕНИЕ НАЗЕМНЫХ БРЮХОНОГИХ МОЛЛЮСКОВ ВОКРУГ РЕКИ ДЖИННИДАРЁ

Аннотация: *Джиннидарё — река в Кашкадарьинской области, в районе Китоб, является левым притоком реки Кашкадарья, образуется слиянием ручьев, стекающих с западных склонов гор Шертох, которые соединяют горные хребты Зарафшан и Хисор. Река протекает через сёла Донгкышлок, Обиканда, Туявоши, Кухсор и Джовуз в районе Китоб. Исследовались наземные брюхоногие моллюски, распространенные в различных биотопах вокруг реки. В исследуемой области было зарегистрировано 13 видов наземных брюхоногих моллюсков.*

Ключевые слова: *Джиннидаря, Китаб, наземные брюхоногие моллюски, биотоп.*


Kirish

O‘zbekiston hududi tabiiy ekotizimlarning nihoyatda xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Tekis mintaqalarda cho‘l ekotizimlari, tog‘ ekotizimlarida esa balandlik zonalari mavjud, tog‘ ekotizimlarining asosiy tiplariga muvofiq bo‘lgan bir qancha zonal-iqlim poyaslari aniq namoyon bo‘ladi. Daryo va qirg‘oqbo‘yi ekotizimlari ham tekkislikda, ham tog‘li mintaqalarda joylashgan, ularning har birida o‘ziga xos yashash joyi mavjud. Turli ekotizimlarda tarqalgan chuchuk suv va quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarni o’rganish tadqiqot uchun murakkab guruh hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda

qorinoyoqli mollyuskalarining tarqalishi, zoogeografik muammolari, bioekologik xususiyatlari, bioindikatsiya kabi masalalarni o'rganishda tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilib kelmoqda.

Material va metodika

O'zbekistonda olib borilayotgan malakofaunistik tadqiqotlar hali hamma hududlarni to'liq qamrab olmagan, qaysiki, bunga Jinnidaryo artofi misol bo'la oladi. Jinnidaryo-Qashqadaryoning birinchi chap irmog'i hisoblanadi. Uning suv yig'ish maydoni boshqa irmoqlarga qaraganda sezilarli darajada past. Zarafshon va Hisor tog' tizmalarini tutashtiruvchi Shertog'ning g'arbiy yon bag'irlari (2500 m)dan oqib tushuvchi 100 dan ortiq irmoqning qo'shilishidan hosil bo'ladi(1). U umumiy g'arbiy yo'nalishda, yuqori oqimlarda shimolga sezilarli qiyalik bilan, o'rtacha — janubga tomon esa bir oz qiyalik bilan oqadi. Quyi oqimlarda kanal joylarda meanderlar hosil qiladi. Umumiy uzunligi 57 km ni, daryo havzasining maydoni esa 367 km². Qor, yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinadi. O'rtacha yillik suv sarfi 1,35 m³/sekund (Jovuz qishlog'i yaqinida). Yillik oqimining 56% bahorgi to'lin suv davri(mart-iyun)da oqib o'tadi(2).



Rasm. Jinnidaryo (Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani)

Tadqiqot ishi uchun materiallarni 2022-2024 yillar davomida Jinnidaryo daryosi atrofi xususan, Kitob tumaning Do'ngqishloq, Obikanda,Tuyavoshi, Kuhsor, Jovuz qishloqlari hududida atrofi turli biotoplarida tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar o'rganildi. Material terishda asosan Shileyko(4,5), Pazilov va Azimov(3) metodlaridan foydalanildi. Materiallarni asosan, nam havoda ertalab terildi, chunki bu paytda shudring hali qurimagan bo'ladi va ko'pgina mollyuskalar faol harakatda bo'lganligi sababli ularni oson topish mumkin. Mollyuskalarni quyidagi biotoplardan- suv bo'ylaridagi turli xil o'tlar orasidan, turli xil tosh uyumlari orasidan, butali va daraxtli o'simliklar ostidagi o'tli o'simliklar poyasidan, yirik xarsang toshlar ostidan, yirik bargli o'simlik barg to'shamlari ostidan yig'ildi. Material, asosan, qo'lda terildi, chunki qo'lda terilganda tabiiy landshaftlarning xilma-xil biotoplarini to'liq o'rganish imkoniyati katta bo'ladi. Laboratoriya sharoitida terilgan materiallar qayta saralanib yirik va mayda chig'anoqlar alohida- alohida qutilarga solinadi. Tirik materiallar fiksatsiyaga tayyorlanadi.

Natijalar va ularning tahlili. Ma'lumki quruqlik qorinoyoqli mollyukalari hayotida namlik, harorat va o'simlik qoplami muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotimizni daryo yaqinidagi qishloqlar, soylar, irmoqlar atrofida mavjud turli biotoplarda olib bordik va to'plangan quruqlik mollyuskalarni sistematik, zoogeografik tahlil qildik.

Tip **MOLLUSCA**
Sinf **Gastropoda** Cuvier, 1795
Kenja sinf **Pulmonata** Cuvier in Blainville, 1814
Katta turkum **Stylommatophora** A. Shmidt, 1855
Turkum **Geophila** Ferussac, 1812
Oila **Cochlicopidae** Pilsbry, 1900
Urug' ***Cochlicopa*** Ferussac, 1821
1.Cochlicopa nitens (Gallenstein, 1852),
2. *C. lubrica* (Muller, 1774),
Oila **Orculidae** Steenberg, 1925
Kenja oila **ORCULINAE** Steenberg, 1925
Urug' ***Sphyradium*** Charpentier, 1837
3.Sphyradium doliolum (Bruguiere, 1792)
Oila **Vallonidae** Morse, 1864
Kenja oila ***Valloniinae*** Morse, 1864
Urug' ***Vallonia*** Risso, 1826
4.Vallonia costata (Muller, 1774)
Oila **Pupillidae** Turton, 1831
Urug' ***Gibbulinopsis*** Germain, 1919.
5.Gibbulinopsis (Pupa) signata (Mousson, 1873)
6. Gibbulinopsis nanosignata (Schileyko et Izzatullayev 1980)
Urug' ***Pupilla*** Turton, 1831
7.Pupilla (Turbo) muscorum (Linnaeus, 1758)
8. Pupilla triplicate (Studer, 1820)
Oila **Hygromiidae** Tryon, 1866
Kenja oila **TRICHIINAE** Zilch et Jaeckel, 1962
Urug' ***Xeropicta***
9. *Xeropicta candacharica* (Pfeiffer, 1846)
Oila **Agriolimacidae** Wagner, 1975
Urug' ***Deroceras*** Rafinesque, 1820
Kenja urug' ***Deroceras*** s.str.
10. *Deroceras laeve* (Muller, 1774)
11. *Deroceras agreste (Linnaeus, 1758)*
Oila **Parmacellidae** Gray, 1860
Urug' ***Candaharia*** Godwin-Austen, 1888
Kenja urug' ***Levanderia*** s.str.
12. *Candaharia levanderi* (Simroth, 1901),
Oila **Ariophantidae** Benson, 1832
Urug' ***Macrochlamys*** Benson, 1832
13. Macrochlamys sogdiana (Martens, 1871)

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Jinnidaryo atrofidagi biotoplarda tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar quyidagi turlari: *Cochlicopa nitens, C.lubrica, Vallonia costata, Gibbulinopsis signata, G. nanosignata, Pupilla*

triplicate, P.muscorum, Sphyradium doliolum Xeropicta candacharica, Deroceras laeve, D.agreste, Candaharia levanderi, Macrochlamys sogdiana turlari tarqalgan bo'lib, ular hududlar bo'yicha notekis tarqalgan. Масалан, *Cochlicopa lubrica* Do'ngqishloq yaqinida tarqalib, uning populyatsiya zichligi 1 м² maydonda 9-10 ta uchraydi. Jovuz qishlog'i yaqinidagi tomorqalar va yo'l bo'ylarida *Xeropicta candacharica* turi tarqalgan bo'lib, uning populyatsiya zichligi 1 м² da 50-60 ni tashkil qiladi.

Daryo bo'ylaridagi turli xil o'tlar orasi va poyasida: *Vallonia costata* 5-7ta/1m², *G. signata* 25-30 ta /1m², *G. nanosignata* 20-25ta /1m², *Cochlicopa nitens* 6-8 ta/1m², *Pupilla muscorum* 8-10 ta/1m², *Deroceras laeve* 7-8 ta/1m² turlari yashaydi.

Suv havzalariga yaqin yerlardagi o'simlik qoplami siyrak bo'lgan joylarda *Vallonia costata* 3-4 ta/1m², *C. lubrica* 10-12 ta/1m², *C. nitens* 9-10 ta/1m², *Pupilla muscorum* 4-6 ta/1m², *Deroceras laeve* 3-5 ta/1m², *D. agreste* 6-7 ta/1m² turlari tarqalgan. Poliz va sabzavot ekin maydonlariga yaqin bo'lgan hududlarda shox-shabbalar orasida *Xeropicta candacharica* 25-28 ta/1m², *Candaharia levanderi* 8-10 ta/1m² yashaydi.

Chala butali o'simliklar orasi va mayda tosh uyumlari orasi ostida *Sphyradium doliolum* 12-14 ta/1m², *G. signata* 20-22 ta/1m², *Pupilla triplicata* 7-8 ta/1m², *P. muscorum* 8-10 ta/1m², *Macrychylamus sogdianum* 4-6 ta/1m² turlari uchrab, bu biotop uchun *G. signata* dominant hisoblanadi.

Siyrak chala butali o'simliklar orasi va mayda tosh uyumlari orasi ostida *S.doliolum* 10-12 ta/1m², *G.signata* 30-35 ta/1m², *G. nanosignata* 10-12 ta/1m² tarqalgan.

2022-2024- yillarda Jinnidaryo atrofida tarqalgan tarqalgan quruqlik mollyuskalari zoogeografik tahlil qilindi.

Palearktika va Golarktika turlari. Ushbu mollyuskalar guruhi sovuqqa chidamliligi va yuqori namlikni yaxshi ko'rishi bilan ajralib turadi, yuqori namlik bilan turli xil biotoplarda yashaydi.

Tadqiqot hududda o'simlik qoldiqlaridan nam chirindi biotoplarida *Cochlicopa nitens, C. lubrica, Vallonia costata, Pupilla muscorum, Deroceras leave, D.agreste faqat tog' oldi biotoplarida* qayd etiladi.

Yevropa turlari. Ekologik jihatdan kserofillar- *Sphyradium doliolum, Pupilla triplicate.* Ular yarim butalar orasida, va toshlar ostida yashaydi. Ba'zilari ochiq, o'rtacha namlikka ega bo'lgan biotoplarda yashaydilar.

O'rta Osiyo turlari. O'rta Osiyo turlarining hududlari juda xilma-xildir. *Gibbulinopsis nanosignata, Candaharia (Levanderia) levanderi, Macrochlamys sogdiana.*

Old Osiyo turlari. *Gibbulinopsis signata, Xeropicta candacharica-* asosan, o'rmon zonalarida nam biotoplarda yashaydi.

Olingan tadqiqot natijalarga ko'ra, turlar soniga nisbatan O'rta Osiyo turlari 2 ta tur, Palearktik va Goloarktik turlari 6 ta, Yevropa turlari 2 ta, Old Osiyo turlari 2 ta.

Yuqorida ko'rinib turibdiki, Jinnidaryo atrofidagi turli biotoplarda xilma-xil quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar tarqalgan hisoblanib, ular turli zichlikda tarqalgan.

Xulosa. Tadqiqot ishi davomida Jinnidaryo daryosi atrofi xususan, Kitob tumaning Do'ngqishloq, Obikanda,Tuyavoshi, Kuhsor, Jovuz qishloqlari hududida atrofi turli biotoplarida tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Jinnidaryo atrofi quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar yashashi uchun qulay muhit hisoblanib, ularning 13 turi tarqalgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.–Toshkent, 2005.–B.146.

2.Baratov I. O'zbekistonning tabiiy geografiyasi.–Toshkent:O'qituvchi,1996.–B.84.

3. Пазилов А.П., Азимов Д.А. Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий. – Ташкент: Фан, 2003. – 316 с

4. Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonata, Geohpila) // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1984. — Т. 3. — Вып. 3. — № 130. — 399 с

5. Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Helicoidea // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1978. — Т. 3. — Вып. 6. — № 117. — 384 с

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Farg‘ona davlat universiteti
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
q.x.f.f.d (PhD), dosent
Ibragimov Begzod Odiljonovich
Farg‘ona mintaqaviy filiali direktori, q.x.f.f.d (PhD), k.i.x
Yoqubova Feruzabonu Muxtorjon qizi
Habibaxon Rustamova Rustamjon qizi
Farg‘ona davlat unversiteti O‘simliklar himoyasi va karantini yo‘nalishi 1-bosqich magistrantlari
Email; idrisovh256@gmail.com

UO‘T:631.633:853

MOSH (Phaseolus aureus Piper) NAVLARINI TIPIK BO‘Z TUPROQLARDA TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGANDA BARG RIVOJLANISHI

Annotatsiya; *Maqola takroriy ekilgan mosh navlarining barg rivojlanishiga ekish muddati va me’yorining ta’siri bayon etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra iyul oyining boshlanishida ekilganda barg soni oshib borgan va ekish me’yorlari oshgan sari barg soni kamaygan.*

Kalit so‘zlar *Mosh, Markaziy Osiyo, oqsil, vitaminlar, nav, tipik bo‘z, tuproq, barg, gullash, dukkaklash.*

Идрисов Хусанджон Абдужаббборович
Ферганский государственный университет
Научно-исследовательский институт карантина и защиты растений, Кандидат наук, доцент
Ибрагимов Бегзод Одилжонович
Директор Ферганского областного филиала, д.ф.-м.н., к.ф.-м.н.
Якубова Ферузабону Мухтарджон кызы
Хабибаксон Рустамова Рустамджона кызы
Ферганский государственный университет, магистранты 1 курса специальности «Защита и карантин растений»

РАЗВИТИЕ ЛИСТЬЕВ СОРТОВ ГРИБА (Phaseolus aureus Piper) ПРИ ПОСАДКЕ В КАЧЕСТВЕ ПОВТОРНОЙ КУЛЬТУРЫ НА ТИПИЧНЫХ СЕРЫХ ПОЧВАХ

Аннотация; *В статье описано влияние сроков и норм посадки на развитие листьев повторно высаживаемых сортов маш. По результатам исследований количество листьев увеличилось при посадке в начале июля по мере увеличения норм посадки количество листьев уменьшалось.*

Ключевые слова; *маш, Средняя Азия, белок, витамины, сорт, серая типичная, почва, лист, цветение, стручки.*

Idrisov Khusanjon Abdujabborovich
Fergana State University
Research Institute of Plant Quarantine and Protection, PhD, Associate Professor
Ibragimov Begzod Odiljonovich
Director of the Fergana Regional Branch, Ph.D., PhD
Yakubova Feruzabonu Mukhtorjon kizi
Habibakhon Rustamova Rustamjon kizi
Fergana State University Plant Protection and Quarantine 1st year master's students

LEAF DEVELOPMENT WHEN PLANTING MUSHROOM (Phaseolus aureus Piper) VARIETIES AS REPEATED CROP ON TYPICAL BLUISH SOILS

Abstract; *The article describes the effect of planting time and rate on the leaf development of repeatedly planted mush varieties. According to the results of the study, the number of leaves increased when planting at the beginning of July, and the number of leaves decreased as the planting rates increased.*

Keywords; *Mung bean, Central Asia, protein, vitamins, variety, typical gray, soil, leaf, flowering, podding.*

Kirish

Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladilar. Moshdan tayyorlangan un makaronga qo‘shilsa uning to‘yimliligi yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruxiga mansub bo‘lib, donida ko‘p miqdorda 24-28 % oqsil to‘planadi. Undan oziq-ovqat sanoati bilan birga chorva xayvonlari uchun to‘yimli yem-xashak ham yetishtirish mumkin. Shuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o‘zlashtirib, tuproq unumdorligini oshiradi.

Ma’lumki, chorva xayvonlaridan yuqori va sifatli mahsulot olish uchun ularning ozuqa tarkibini o‘zida oqsil, uglevod, yog‘ shuningdek vitaminlar, mineral tuzlar bilan boyigan pichan, siloslar bilan doimiy ta’minlash zarur. Buning uchun bizning respublikada imkoniyatlar yetarli bor. Birgina dukakli–don ekinlar, dukakli o‘tlarni yuqori agrotexnika asosida yetishtirib, mo‘l hosil va ko‘k massa olish mumkin. Moshning yashil massasi, pichani, poxoli va kepagi eng yaxshi oziq xisoblanadi. Makkajo‘xori bilan moshni aralashtirib tayyorlangan silos oziqlik sifati yuqoriligi bilan farq qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Mosh-eng yaxshi siderat ekin xisoblanadi, u ko‘kat o‘g‘it sifatida ishlatilganda tuproqda 70 s.ga quruq modda to‘planadi. Bu 100 azot demakdir. Mosh makkajo‘xori, sabzavot va boshka ekinlar ekiladigan yerlarda eng yaxshi siderat hisoblanadi. Mosh yerda azot to‘plovchi sifatida don, texnika ekinlari va sabzavotlardan oldin ekiladigan eng yaxshi ekinlardan biri. Uni bahorda yozda ham ekish mumkin. Mosh yer osti suvlari yuza joylashganligidan zararlanmaydi, tez o‘sadi, yerni yaxshi soyalaydi va begona o‘tlardan tozalaydi [24-26 b, 1].

Dukkakli-don ekinlari ildizidagi tuganak bakteriyalari atmosferadagi erkin azotni o‘zlashtirib, tuproq unumdorligini oshiradi ya’ni tuprokda azotli organik modda to‘planadi. O‘simlikning turi, tuproqning tipi va o‘tkaziladigan agrotexnika sifatiga ko‘ra tuganak bakteriyalar bir gektar ekin maydonida bir mavsum davomida 100-150 kg gacha azot o‘zlashtiradi. Ekinlardan yuqori hosil olish uchun tuproqning unumdorligi yaxshi bo‘lishi, uning tarkibida o‘simliklar oziqlanishi uchun zarur bo‘ladigan makroelementlar etarli bo‘lishi kerak. Buning uchun tuproqni doimiy ravishda organik o‘g‘itlar bilan boyitish, vegetatsiya davomida mineral o‘g‘itlarni to‘g‘ri nisbatda belgilangan normada foydalanish zarur. Bundan tashqari tuproqni unumdorligini oshiradigan, to‘yimli moddalar bilan boyitib boradigan dukkakli-don ekinlar, dukkakli-o‘tlarni ham asosiy ekinlardan so‘ng takror yetishtirish zarur. Buning barobarida eng avvalo tuproq unumdorligi, xossalari, xususiyatlari yaxshilanadi. Balki aholini oziq-ovqatga bo‘lgan talabi qondiriladi, chorvani yem-xashak bilan ta’minlash yo‘llari ham hal etiladi [32-34 b, 2].

Tajriba o‘tkazish sharoiti va uslubi. Ilmiy ishlar Toshkent Davlat Agrar Universiteti tajriba stansiyasida o‘tkazildi. Tajriba dalasi Chirchiq daryosining yuqori qismida dengiz satxidan 481 m. balandlikda, 41° I[11] shimoliy kenglikda va 38° 31[m] sharqiy uzoqlikda Toshkent viloyatining Qibray tumanida joylashgan.

Tajriba xo‘jaligi tuprog‘i qadimdan sug‘orib kelinadigan tipik bo‘z tuproqdir. Tipik bo‘z tuproq tarkibida 1,0-1,3% chirindi, 0,089%-0,102 atrofida azot, 0,141-0,184% ga yaqin fosfor va 1,70-1,80% kaliy mavjud. Bu esa o‘simlik o‘suv davrida foydalanadigan ozuqa unsurlarining yetarli emasligidan dalolat berib turibdi. Bundan tashqari bu tuproqlar suv o‘tkazuvchanligi, yumshatishning murakkabligi bilan farq qiladi. Sug‘orish natijasida tuproq qatlami zichlashib boradi. Sug‘orishdan va bo‘lib o‘tgan yog‘ingarchilikdan keyin qatqaloq hosil bo‘ladi .Tajriba o‘tkazilgan tuproq unumdorligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba dalasida NPK miqdori

№	Tuproq, qavatlari, sm	Yalpi miqdori, %				Xarakatchan shakli, mg/kg		
		gumus	azot	fosfor	Kaliy	$N\text{-}NO_3$	P_2O_5	K_2O
1	0-30	1,08	0,08	0,14	1,33	4,21	23,0	180,6
	30-50	1,02	0,07	0,13	1,30	3,89	21,0	162,0

Tajriba uslubi Tajriba dala va laboratoriya uslubida olib borildi. Dala tajribalarida moshning navlari yozda har xil meyorda va usulda ekib o‘rganildi. Dala tavjribalari O‘zPITI(2007) va Dospexov (1985) uslublarida olib borildi. Tajriba maydoni 0,4 ga ni tashkil qildi. Tajribada quyidagi kuzatuvlar, biometrik o‘lchovlar, hisoblar bajarildi. Mosh navlarining barg yuzasi aniqlanadi, buning uchun bir tupdagi barg vazni, har tupdan kesib olingan namunalarning yuzasi va vazni aniqlandi. Barg soni hisobli o‘simliklarda barcha paykallarda aniqlandi. Barg yuzasi Nichiporovich (vazn uslubi) uslubida bajarildi. Buning uchun himoya qatorlardan 5-tadan o‘simlik ikki takrorlanishda (1,3) olindi. O‘simliklarning poya, barg va dukkak vazni aniqlandi xo‘l va quruq xolatda. Barglardan doira shaklda 20-ta namuna kesib olindi, tortildi va mutanosiblik usulida barg yuzasi aniqlandi bir tup o‘simlikda va bir gektarda [94-99 b, 3].

Tadqiqot natijalari. O‘simlikning bargi hosil shakllanishida muhim o‘rinni egallaydi, chunki fotosintez jarayonida bo‘ladigan hosil bargdan boshlanadi, shuning uchun tajribada mosh navlarining barg rivojlanishiga e’tibor qaratilgan. Mosh navlarida variantlar va qaytariqlar bo‘yicha olib borilgan tajriba ishlarida ma’lum bo‘ldiki, ekish muddati va me’yori bo‘yicha barg soni sezilarli farqlanishi aniqlandi. Bunda ekish muddati va me’yori o‘simlikning barg soniga ta’sir etganligi, ekish me’yori ko‘paytirilsa barglarning soni shunga muvofik ravishda kamayib borar ekan. Bu albatta hosilning mikdoriga va sifatiga ta’sir etmay qolmadi. Shu narsa ma’lumki barglarda boradigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar tashqi faktorlarga bog‘liq ravishda boradi.

Tadqiq qilingan omillarning ta’siri barg rivojlanishiga quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Mosh navlarida barg rivojlanishi

25, VI -ekilgan

№	Navlar	Ekish me’yori	4 ta barg	Gullash	Dukkaklar
1	Radost	20	4,2	9,3	14,5
		30	3,9	6,9	12,8
		40	3,3	5,7	11,3
2	Durdona	20	4,3	8,4	12,0
		30	3,9	6,2	10,5
		40	37	5,1	9,1
3	Zilola	20	4,0	10,0	15,3
		30	3,9	8,8	13,1
		40	3,5	7,5	12,8

Mosh navlari 25 iyunda ekilganda 4- chin bargi rivojlanganda “Radost” navida barg soni 4,2-3,3 ta ga teng bo‘ldi, “Durdona” navida 4,3-3,7 ta ga teng bo‘ldi, “Zilola” navida 4,0-3,5 ta ga teng bo‘lgan. Ekinzor qalinlashganda har tupdagi barg soni kamayib borgan. Ekish me’yori oshganligi tufayli “Radost” navida barg soni 0,3-0,9 ga; “Durdona” navida 0,4-0,6 ga; “Zilola” navida 0,1-0,5 donaga kamayganligi aniqlandi.

Mosh navlari gullash davriga etganda barg soni ekish me’yoriga bog‘liq xolda “Radost” navida 9,3-5,7 ta, “Durdona” navida 8,4-5,1 dona va “Zilola” navida 10-7,5 donani tashkil qilgan. Ekish me’yori oshganligi tufayli barg soni “Radost” navida 2,4-3,6 ga kamaygan; “Durdona” navida 1,9-3,0 ga kamaygan; “Ziloloa” navida 1,2-2,5 ta ga barg soni kamayib borgan, sababi qalin ekinzorda yorug‘lik etishmaydi va barglar yaxshi rivojlanmaydi.

Mosh navlari dukkaklanish fazasiga kirganda barglar soni “Radost” navida 14,5-11,3 dona, “Durdona” navida 12,0 – 9,1 dona va “Zilola” navida 15,3 -12,8 taga etgan. Barcha variantlarda amal davrida ekish me’yori oshgan sari barg soni kamayib borgan: “Radost”navida 1,7- 3,2 donaga; “Durdona” navida 1,5-1,9 dona; “Zilola” navida 2,2- 2,5 donaga kamaygan.

Xulosa

Ekish muddatlari va me’yorlari barg rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Iyul oyining boshlanishida ekilganda barg soni oshib bordi. Ekish me’yorlari oshgan sari barg soni kamaygan.

Foydalanilgan adabiëtlar ro‘yxati

1.Atabayeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh yetishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. 2019 yil.Toshkent

2.Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”.2018

3. Доспехов Б.А. Методика полевого опита. М., Колос, 1985 г

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Kuchkarov Nurbek Yuldashevich
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD.
E-mail: n.kuchkarov@nuu.uz.
Imomov Otabek Normirzoyevich
Namangan davlat universitet dotsenti, PhD.
E-mail:otabekimomov184@gmail.com

UO‘K: 574.577.582.57.06.

SUKKULENTLAR VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Crassulaceae oilasi ayrim vakillarining iqlim o‘zgarishlari sharoitida, havo haroratining ortishi, qurg‘oqchilik kabi ekologik muammolarning yuzaga kelishi va uning oqibatlarini yumshatishda istiqbolli o‘simliklarni tanlashning ilmiy amaliy ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar adabiyotlar orqali yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sukkulent, Sedum, Sedum spurium, Phedimus spurius, osmotik jarayon, qurg‘oqchilik, havo harorati, suv tanqisligi, fotosintez, yashil tom, hujayra shirasi, landshaft dizayn.*

Кучкаров Нурбек Юлдашевич
доцент Национального университета Узбекистана, PhD.
Имомов Отабек Нормирзоевич
доцент Наманганского государственного университета, PhD.

СУККУЛЕНТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация: *В данной статье с помощью литературных источников освещены сведения о большом научном и практическом значении отбора перспективных растений в смягчении последствий деятельности отдельных представителей семейства Crassulaceae в условиях изменения климата, возникновения таких экологических проблем, как повышение температуры воздуха, засуха.*

Ключевые слова: *Суккулент, Sedum, Sedum spurium, Phedimus spurius, осмотический процесс, засуха, температура воздуха, нехватка воды, фотосинтез, зеленый покров крыши, клеточный сок, ландшафтный дизайн.*

Kuchkarov Nurbek Yuldashevich
Associate Professor of National University of Uzbekistan
Imomov Otabek Normirzoyevich
Associate Professor of Namangan State University

SUCCULENTS AND THEIR USE PROSPECTS

Abstract: *This article, using literary sources, highlights information about the great scientific and practical importance of selecting promising plants in mitigating the effects of the activities of individual representatives of the Crassulaceae family in the context of climate change and the emergence of environmental problems such as rising air temperatures and drought.*

Key words: *Succulent, Sedum, Sedum spurium, Phedimus spurius, osmotic process, drought, air temperature, lack of water, photosynthesis, green roof cover, cell sap, landscape design.*

Kirish

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish maqsadida: “Atrof-muhitni asrash va “yashil

iqtisodiyot" yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilangan:

mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash;

o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash, "yashil bog'" yashil belbog'lar tashkil etish kabi maqsad va vazifalarni amalga oshirish, barqaror ekologik rivojlanish sari odimlash bugungi kunning kechiktirib bo'lmas masalalaridan hisoblanadi [1].

Shu sababli o'simliklarning, ayniqsa foydali turlaning ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Shahar muhitida mavjud o'simliklar havo haroratini pasaytirishda, uning musaffo bo'lishida katta ahamiyatga ega. Yashil infratuzilmalar uchun bo'sh joylar, turar joylar ko'p bo'lgan shaharlarda kam uchraydi. Shaharlarda 20-30 % uylarning tomlarini qoplash mumkin bo'lgan o'simliklar muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu yaratilgan yashillik bilan atrof-muhitni musaffoligiga hissa qo'shish mumkin. Atmosfera havosini qizishini oldini olishda, estetik jihatdan zavq berishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki shahar muhitini yaxshilashda moslashish nuqtai nazaridan aytganda ko'plab o'simliklar issiqlikka va suvsizlikka chidamlilari ko'p ham topilavermaydi, ularning soni cheklangan. Ana shunday istiqbolli o'simliklar sukkulentlardir. Semizakdoshlar oilasi vakillari dengiz sathidan 0-3200 metr balandliklarda tarqalgan bo'lib, tolerantligi ancha yuqori bo'lgan o'simliklardir.

Olimlar tomonidan Turkiyada olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki *Sedum acre*, *Sedum kamtschaticum ellacombianum*, *Sedum pulchellum*, *Sedum reflexum* va *Sedum spurium* o'simliklari 100 kundan ortiq muddatda suvsizlikda, 88 kun davomida qurg'oqchilikda ham hayotchanligini saqlab qolganligi aniqlangan. O'zbekiston sharoitida qurg'oqchil davr o'rtacha 100-110 kun davom etadi. Ana shunday ekstremal sharoitlarga bardosh bera oladigan o'simlik turlarini aniqlash, ularning biologik, ekologik, fiziologik, morfo-anatomik xususiyatlarini o'rganish, xalq xo'jaligidagi ahamiyatini belgilash, iqlim o'zgarishlari sharoitida issiqlikka va qurg'oqchilikka chidamliligini, biomassasini aniqlash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [2].

Sukkulentlar manzarali o'simliklar sifatida, landshaft-dizayn maqsadlarida yetishtiriladi. Ular kuchli rivojlangan barglarga ega bo'lib, yorqin ranglar, noyob teksturalar va shakllarga ega bo'lgan o'ziga xos o'ta chiroyli gullardir. Bu o'simliklardan guldastalar tayyorlanganda, gulli naqshlar bilan joylashtirilganda nafislik berib, undan gulchilik san'atida foydalanish mumkin. Guldastalar tayyorlangan gullarni yana qayta ko'paytirish uchun foydalanish ularning ajoyib xususiyatlaridan biri hisoblanadi [3].

Crassulaceae St.-Hil. (crassula) Qrim florasida ushbu oila vakillarining 19 turi tabiiy holda tarqalgan. Ularni sistematik jihatdan tahlil qilingan bo'lib, oilachalarga kiradigan o'simliklarni biomorfologik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Areali bo'yicha xaritalar ishlab chiqilgan [4].

Onur Aksoy va boshqalar tadqiqotlari doirasida 157 ta sukkulent taksonlarning yashash joylari aniqlangan. Salqin va issiq iqlim sharoitlari uchun yashil tomlar barpo etishda o'simliklar baholangan hamda 97 turdagi o'simliklar salqin iqlimli hududlar uchun muvofiq ekanligi aniqlangan. *Saxifraga* spp. va *Sempervivum* spp. son jihatdan ko'p uchrashi kuzatilgan. *Umbilicus* spp. va *Rosularia* spp. turkumlari 72 ta sukkulent taksonlari orasida zich joylashganligi aniqlangan. Bu turlardan landshaft-dizayn uchun foydalanish mumkinligi ta'kidlangan. Ushbu hududlarda o'sishi mumkin bo'lgan 63 ta takson aniqlangan. *Rosularia* spp. va *Sedum* spp. turkumlari zich joylashganligi kuzatilgan [2].

Sedum L. turlari noqulay sharoitlarga chidamliligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Haroratning sezilarli darajada o'zgarishi, yog'ingarchilik, shamolning o'zgarib turishi va boshqa abiotik stresslarga bardosh bera olish xususiyatlari, qo'shimcha suv yoki o'g'itlarsiz sharoitda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi o'rganilgan. Ekstremal iqlim tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklar, yashil tomlar barpo etishda o'simliklarni tanlash katta ahamiyatga ega bo'lib, tadqiqotlar uch xil balandlikda olib borilgan ya'ni: 0-25 sm., 25-50 sm. va 50-75 sm. o'simliklar pastroq balandliklarda (0-25 sm.) biomorfologik ko'rsatkichlariga ko'ra yaxshi rivojlanganligi, shu bilan birga ular qo'rg'oqchilikka chidamli ekanligi aniqlangan. *Sedum spurium* "Purpur Winter" doimiy yashil o'simlik bo'lib, poyasi kuchli shoxlangan yumaloq, etdor. Yashil hamda to'q yashil ranggacha o'zgarib turadigan barglarga ega. Yulduz shaklidagi pushti-binafsha gullari iyul-avgust oylarida ochiladi. Qurg'oqchilikka chidamli, -20 ^{0}C va undan past haroratlargacha bardosh bera olish xususiyatlariga ega. *Sedum spathulifolium* "Cape Blanco", *Sedum spathulifolium* "Purpureum" turlari ham iqlim o'zgarishlari sharoitida past va yuqori haroratlarga, qurg'oqchilikka, kuchli o'zgarib turadigan muhitlar uchun istiqbolli o'simliklar hisoblanadi [5]. Ukrainaning o'rmon dasht sharoitlarida *Sedum*ning *S. sediforme* (Jacq.) C. Pau, *S. sediforme* (Jacq.) C. Pau, *S. spurium* Bieb., *S. kamtschaticum* (Fisch.) Hult., *S. stoloniferum* S.G. Gmel. ushbu turlarning biologik va ekologik xususiyatlari, turli ekologik sharoitlarda obodonlashtirishdagi ahamiyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu turkumning 100 ga yaqin turlarida

mart oyining oxiri va aprel oyining boshlarida vegetatsiyasi boshlanishi kuzatilgan. Generativ davrning gullash bosqichida o‘simliklarning jadal o‘sishi sekinlashadi. Ushbu sharoitda o‘simliklarda urug‘lar hosil bo‘lib pishib yetilishi kuzatilgan, morfologiyasiga ko‘ra urug‘larning uzunligi 0,5-1,8 mm, eni 0,24-0,62 mm. elipissimon cho‘zinchoq-nayzasimon yoki tuxumsimon, qora-jigarrang va jigarrang bo‘lib, 1000 ta urug‘ning og‘irligi turlariga ko‘ra 0,02-0,13 g. ni tashkil etadi [6]. Ozarbayjon florasida *Sedum* L. vakillarining 22 turi tarqalgan [7]. Manuela Manda *Sedum* turlarini in vivo ko‘paytirish bo‘yicha tajribalar olib borganlar. Qalamchalarning ildiz otishi va o‘simliklarning muhitga moslashish xususiyatlari tadqiq etilgan. *Sedum* L. turkumiga mansub turlar geobotanik nuqtai nazaridan Yevropaning subtropik va mu’tadil hududlari, Markaziy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerika tog‘ hududlaridan kelib chiqqan. Dekorativ maqsadlarda foydalaniladi. Bu o‘simliklar quyosh ko‘p tushib turadigan dalalarda, toshlar bilan bezatilgan landshaftlarni yanada maftunkor holatga keltirish uchun ekiladi. Yashil tom yopishda shaharlar muhitini optimizatsiya qilishda *S. acre*, *S. oryzifolium*, *S. kamtschaticum*, *S. reflexum*, *S. rupestre*, *S. spurium* o‘simliklari ekstremal ekologik sharoitlarga (sovuq va qurg‘oqchilik) moslashish xususiyatlariga ega ekanligi ta’kidlangan. Bu o‘simliklar urug‘lari va vegetativ ko‘payish xususiyatlariga ega. Masalan, barg va poya qalamchalari yordamida ko‘paytirish mumkin. Bu qisqa muddatlarda ko‘plab biomassa olishda amaliy ahamiyatga ega [8; 9].

Sedum spurium – semizakdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik, poyasi o‘rmalovchi, barglari etdor tishsimon, bo‘yi 20 sm. gacha yetadigan polikarp, sukkulent o‘t o‘simlik hisoblanadi. Gullari soyabon shakldagi qalqonlarda to‘plangan, ranggi pushti, yorqin qizil, yoki binafsha rangga ega. Ilmiy nomi ayrim adabiyotlarda *Phedimus* turkumiga mansub *Phedimus spurius* M.Bieb (1808) deb nomlanadi. U tuproq tanlamaydi, qurg‘oqchilikka chidamli hisoblanadi. Bir joyda 4-5 yilgacha o‘sa oladi. 1 kv.metrga 9-11 dona o‘simlik ekish mumkin. Urug‘, ildizpoyalari orqali ko‘payish xususiyatiga ega [9].

Sedum spurium ekologik toza shahar muhitini tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega o‘simlik hisoblanadi. Yashil tom tizimi shahar atrof-muhit muammolarini yumshatish uchun munosib yechim hisoblanadi [10].

Ko‘p yillik manzarali o‘simliklar yashil hududlar qisqarib borayotgan hozirgi paytda amaliy ahamiyatga ega. Iqlim o‘zgarishlari sharoitida suv yetishmasligi, qo‘rg‘oqchilik, havo haroratining ko‘tarilishi keskin namoyon bo‘layotgan bir vaqtda, atrof-muhit holatini yaxshilashda istiqbolli turlarni tanlashning ilmiy asoslarini ko‘rsatish muhim hisoblanadi. Ana shunday o‘simliklardan biri *Phedimus spurius* bo‘lib, ko‘p parvarish talab etmaydigan sharoitlarda ham o‘sishi mumkin [11]. *Sedum telephium* L. (quyon karam) ildizi to‘xtovsiz qalinlashish xususiyatiga ega [12].

Ushbu oila vakillarining hujayrasi va uning tarkibi jihatidan ham o‘ziga xoslikka ega. Hujayra shirasining tarkibiga uglevodlar (polisaxaridlar), oqsillar, organik kislotalar va ularning tuzlari, aminokislotalar, mineral moddalarning ionlari, alkaloidlar, glikozidlar, tanin hamda boshqa moddalar kiradi. Hujayra shirasining kimyoviy tarkibi va uning konsentratsiyasi juda o‘zgaruvchan bo‘lib, u o‘simliklar, organlari hamda to‘qimalar turiga va hujayra holatiga bog‘liq bo‘ladi. Hujayra shirasining asosiy tarkibini saxaroza, shu bilan birga glyukoza va fruktoza tashkil etadi. Ular hujayrani energiya bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Semizakdoshlar oila vakillari, kaktuslar o‘zida polisaxaridlarni ko‘p saqlaydi. Organik kislotalarning tuzlari, mineral moddalar ionlari, hujayraning osmotik jarayonlarini kechishida o‘ta muhim hisoblanadi [13].

Sedum L. turlarining barglarida trixomalar va yirik epiderma to‘qimalari, suv g‘amlash xususiyatlari qo‘rg‘oqchil sharoitlarda o‘sishini ta’minlaydi [14].

Atrof-muhit holati, yorug‘lik, havo harorati, CO_2 konsentratsiyasi barg og‘izchalarining harakatiga (yopiq yoki ochiq) ta’sir ko‘rsatadi. Aksariyat o‘simliklarda CO_2 konsentratsiyasi ortganda barg og‘izchalari yopiladi. Kunning yorug‘ paytida og‘izchalar ochilishi, qorong‘uda esa yopilishi kuzatiladi. Ma’lumki ko‘k nurlar ostida og‘izchalar ochiladi, bu CO_2 konsentratsiyasiga bog‘liq emas. Optimal havo haroratida (+10-25 ^{0}C) og‘izchalar ochiq holatda, havo haroratining +30-35 ^{0}C gacha ko‘tarilish ularning yopilishiga olib kelishi mumkin. Haroratning oshishi natijasida nafas olishning tezlashishi organlarda CO_2 konsentratsiyasining oshishiga olib keladi bu o‘z-o‘zidan barg og‘izchalarining yopilishiga sabab bo‘ladi. Demak ko‘p o‘simliklar havo haroratining o‘zgarishiga ko‘ra kunning ayrim vaqtlarida ayniqsa qurg‘oqchil davrda og‘izchalarni ochishi yoki yopishi mumkin. C_4 – fotosintez amalga oshadigan o‘simliklarda jumladan sukkulentlar, katuslar, semizakdoshlar oilasi vakillarida barg og‘izchalari tunda ochiladi [15].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Crassulaceae vakillari iqlim o‘zgarishlari sharoitida abiotik omillarning (yorug‘lik, namlik, harorat) ta’siriga nisbatan chidamli, ekologik valentligi, tolerantligi nuqtai nazaridan istiqbolli turlar ekanligi bilan ajralib turadi. Ulardan gulchilikda, yashil tomlar barpo etishda, kam sug‘oriladigan joylarga ekish, landshaft-dizayn maqsadlarida foydalanish, yashil bog‘lar barpo etishda keng foydalanish mumkin. O‘zbekistonning keskin kontenental iqlim sharoitlarida, istiqbolli o‘simliklarni yetishtirish, ularning bioekologik, fiziologik, morfo-anatomik va boshqa xususiyatlarini tadqiq etish, qurg‘oqchilikka, issiqlikka chidamliligini baholash hamda

amaliyotga ko‘paytirish uchun ilmiy va amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2025 yil 30 yanvar).

2.Onur Aksoy, Kamil Erken. Selection of succulent species to be used on green roofs according to phytogeographic regions: Türkiye example. Ege Üniv. Ziraat Fak. Derg., 2024, 61 (3): P. 383-399. https://doi.org/10.20289/zfdergi.1444785

3.Manda Manuela, Nicu Carmen, Ilie Alina. Succulent plants in contemporary floral design // Annals of the university of Craiova Vol. XXIX (LXV) – 2024. P. 238-245.

4.Бялт В.В. Семейство толстянковые (Crassulaceae St.-Hil.) в Крыму. Turczaninowia 23, 3: P. 158-184. (2020). DOI: 10.14258/turczaninowia.23.3.15

5.Alex Peter Cotoz, Valentin Dan, Tincuța Marta Gocan, Ileana Andreica, Sándor Rózsa, Maria Cantor. Results regarding the impact of environmental factors on *Sedum* planting elevations // Journal of Horticulture, Forestry and Biotechnology Volume 28 (1), 2024, P. 1-10.

6.Пушка І.М., Величко Ю.А., Осіпов М.Ю., Козаченко І.В. Еколого-біологічні особливості інтродукованих видів роду *Sedum* L. в умовах правобережного лісостепу України. Таврійський науковий вісник № 109. Частина 1. С. 212-218. DOI https://doi.org/10.32851/2226-0099.2019.109-1.31.

7.Akbarova Ch. Chorological analysis of Species of *Sedum* L. genus distributed in the lesser Caucasus. Bulletin of Science and Practice. T. 9. №11. 2023. P. 49-52. https://doi.org/10.33619/2414-2948/96

8.Manuela Manda, Carmen Nicu et al. Study on the vegetative propagation of seven *Sedum* L. species cultivated outdoors // Scientific Papers. Series B, Horticulture. Vol. LXIII, No. 1, 2019. P. 447-452.

9.Kristin L. Getter and D. Bradley Rowe. Substrate Depth Influences Sedum Plant Community on a Green Roof // Hortscience Vol. 44 (2) April 2009. P. 401-407. https://rostok.info/sad-i-ogorod/cvety-i-rasteniya/ochitok-ili-sedum-lozhnyj-posadka-i-uhod-vyrashchivanie-v-otkrytom-grunte-sorta-razmnozhenie-foto.html

10. Alex-Péter Cotoz, Valentin-Sebastian Dan et al. *Sedum* Growth Patterns under Different Pedoclimatic Conditions // Plants 2023, 12, 2739. https://doi.org/10.3390/plants12142739

11. Enrico Pomatto, Federica Larcher et al. Evaluation of Different Combinations of Ornamental Perennials for Sustainable Management in Urban Greening // Plants 2023, 12, 3293. P. 1-15. https://doi.org/10.3390/plants12183293

12. Федоров М.А., Кирпичноков М.Э., Артюшенко З.Т. Атлас по описательной морфологии высших растений. Москва-Ленинград, 2962. С. 50-106.

13. Васильев А.Е. и др. Ботаника (Анатомия и морфология растений). Москва “Просвещение”, 1978. С. 51-55.

14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная Ботаника. Москва «Мир» 1990. II часть. С. 68-69.

15. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная Ботаника. Москва «Мир» 1990. II часть. С. 68-69.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Eshonkulov Alijon Xaydarovich
Buxoro davlat tibbiyot instituti
Biokimyo kafedrasi assistenti
Chorikulov Raximjon Rashidovich
Buxoro davlat pedagogika
instituti magistranti
e-mail: eshonkulov.alijon@bsmi.uz

UO'K: 581.6+633.88(575.15)

SERTIKAN BO'TAKO'Z - *CENTAUREA IBERICA TREV*.NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA ETNOBOTANIK MA'LUMOTLARI

Annotatsiya. *Maqolada Buxoro viloyatida tarqalgan sertikan bo'tako'z- Centaurea iberica Trev o'simligining biologik xususiyatlari, dorivorlik xossalari va uning xalq tabobatida foydalanish usullari yoritilgan. Mahalliy aholi sertikan bo'tako'z o'simligidan qandli diabetni, jigar sirrozini, gepatit kasalliklarini davolashda, immunitetni oshirishda va yosh bolali ayollarda laktatsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida foydalanadi. Tadqiqot hududidagi sertikan bo'tako'z o'simligining mahalliy aholi tomonidan foydalanish darajalari va usullari to'g'risidagi etnobotanik ma'lumotlari rasmiylashtirilib, ilk marotaba ilmiy tarzda chop etilyapti.*

Kalit so'zlar: *Chaqir tikan, qushqo'nmas, dorivor, shifobaxsh, tabobat, yovvoyi, mahalliy, cho'pon, xalq tabobati, damlama*

Эшонкулов Алижон Хайдарович
асситент кафедры Биохимии Бухарского
государственного медицинского института
Чорикулов Рахимжон Рашидович
магистрант Бухарского государственного
педагогического института

ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА И ЭТНОБОТАНИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИЯ *CENTAUREA IBERICA* TREV

Аннотация. *В статье описаны биологические особенности, лечебные свойства и способы применения в народной медицине Centaurea iberica Trev. растения, распространенного в Бухарской области. Местные жители используют опунцию для лечения диабета, цирроза печени и гепатита, для повышения иммунитета, а также как средство, положительно влияющее на процесс лактации у женщин, имеющих маленьких детей. Этноботанические данные об уровнях и способах использования колючего растения на исследуемой территории местным населением задокументированы и впервые публикуются в научном формате.*

Ключевые слова: *Колючий, лекарственный, лечебный, лечение, дикий, местный, пастух, народное средство, настой.*

Eshonkulov Alijon Xaydarovich
assistant, department of Biochemistry,
Bukhara State Medical Institute
Chorikulov Rakhimjon Rashidovich
Bukhara State Pedagogical University,
Master's student

MEDICINAL PROPERTIES AND ETHNOBOTANIC INFORMATION OF *CENTAUREA IBERICA* TREV.

Annotation. *The article describes the biological characteristics, medicinal properties and methods of application in folk medicine of Centaurea iberica Trev. – a plant common in the Bukhara region. Local residents use prickly pear to treat diabetes, liver cirrhosis and hepatitis, to improve immunity, and also as a means of positively influencing the lactation process in women with small*

children. Ethnobotanical data on the levels and methods of using the prickly plant in the study area by the local population are documented and published for the first time in a scientific format.

Key words: *Barbed, medicinal, healing, treatment, wild, local, shepherd, folk remedy, infusion.*

Kirish

Shifobaxsh xususiyatga ega o‘simliklardan foydalanish qadimdan ma’lum bo‘lib, mahalliy aholi etnik bilimlar asosida ba’zi dorivor o‘simliklardan foydalanib kelgan. O‘zbekistonda 4500 turdan ziyod yovvoyi holda tarqalgan o‘simliklar o‘sadi, shulardan 2000 ga yakin turlari dorivorlik xususiyatga ega o‘simliklar bo‘lib, Respublikamizda 112 turdagi dorivor o‘simliklardan rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan. Ularning 80% ni yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklar tashkil qiladi [2,5]. Sertikan bo‘tako‘z o‘simligi Buxoroda yo‘l chetlarida, begona o‘t sifatida bog‘larda va ekinzorlarda o‘sadi. Sertikan bo‘tako‘zning dorivorlik xususiyatlari va uning xalq tabobatida qo‘llanilishi bo‘yicha qadimdan ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekistonning boy florasi nafaqat xalq tabobati, balki zamonaviy tibbiyot vakillarini asrlar osha o‘ziga jalb etib kelgan. Shuning uchun o‘simliklar olamini har tomonlama o‘rganish maqsadida mamlakatimizda Ye.P. Karovin, K.Z. Zokirov, A. Muzaffarov, X.X. Xolmatov, S.S. Sahobiddinov, O‘.P. Pratov, I.V. Belolipov, K.X. Xojimatov, B.E. Tuxtayev va K.O. Xojimatov kabi olimlar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, respublikamizdagi dorivor o‘simliklardan foydalanishda Abu Ali ibn Sino nomini keltirmaslik noto‘g‘ri bo‘ladi. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida 1000 yaqin dorivor o‘simliklar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirgan. Sertikan bo‘tako‘zningasl vatani, kelib chiqishi Hindiston bo‘lib, 2000 yildan beri xalq tabobatida foydalanib kelinadi [6]. Buxoro vohasi Zarafshon daryosining quyi qismida joylashgan bo‘lib, Turon provinsiyasi, Buxoro okrugi, Quyi Zarafshon hududi tarkibiga kiradi. Buxoro viloyatida yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning xalq tabobatida ishlatiladigan turlarining botanik va farmasevtik xususiyatlarini ilmiy va etnobotanik nuqtai nazardan isloh qilish davr talabi hisoblanadi.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida sertikan bo‘tako‘z o‘simligining etnobotanik ma’lumotlarini asosan “Xalqaro etnobiologiya jamiyati” tomonidan belgilangan ahloq kodeksi (The ISE Code of Ethics 2006) qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari asosida mahalliy aholi va xalq tabobati bilan shug‘ullanadigan tabiblar, cho‘ponlar va yoshi ulug‘ insonlar o‘rtasida o‘tkazilgan og‘zaki so‘rov natijalari bo‘yicha ma’lumotlar (“Etnobotanik anketa”) to‘plandi [2,3,7]. Bundan tashqari ilmiy adabiyotlar ma’lumotlaridan ham foydalanildi. Ma’lumotlar asosida Buxoro viloyati Kogon, Qaravulbozor, Shofirkon, Rometan va Qorako‘l tumanlarining cho‘l hududlarida begona o‘t sifatida tarqalgan sertikan bo‘tako‘z o‘simligining dorivorligi to‘g‘risidagi etnobotanik ma’lumotlar tavsifi keltirildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Morfologik tuzilishiga ko‘ra o‘simlik ko‘p yillik o‘simlik hisoblanadi. Balandligi 90-145 sm bo‘lib poyasi oddiy ba’zi vakillarida shoxlangan tikansiz. O‘ziga xos tikanli barglari poyada ketma-ket joylashgan. Barg yaprog‘ining chetlari o‘yilgan va barg yaprog‘ining tikanli bo‘lishi o‘simlikni turli o‘txo‘r hayvonlardan himoya qilishga moslashgan. Gullari och-pushti, bir oz binafsha rang o‘simlik bo‘lib, tanasi suvli, zich kurtaklar hosil qiladi va barglari yashil tusda bo‘lib, kichik igna shaklida bo‘ladi. Ildiz tizimi qalin ildizlardan iborat. Mevalari oilasi uchun umumiy bo‘lgan doncha meva hisoblanadi [1,4]. Qushqo‘nmas o‘simligining kimyoviy tarkibini asosan flavonoidlar tashkil etadi. Bundan tashqari tashqari alkaloidlar, saponinlar, yog‘ kislota oqsil A, Ye, F, K vitaminlar va B guruhiga mansub darmon dorilar, gistamin, smolalar mavjud. Shu bilan birga makro va mikro elementlar mavjud bo‘lib 1 gr moddada 1.16 mg ruh (sink), 16.58 mg kalsiy, 9.3 mg kaliy, 4.2 mg magniy, 0.08 mg temir moddalari bor [4].



1.1 Rasm. ***Centaurea iberica*** **va uning viloyatda tarqalish hududi.**

Sertikan bo‘tako‘zning yetilgan mevalaridan ilmiy tibbiyotda spirtli va suvli ekstraktidan foydalaniladi. Farmasevtika sanoatida sertikan bo‘tako‘zning urug‘laridan sovuq presslash jarayoni orqali olingan moylari ishlab chiqariladi va ko‘plab kasalliklarga qarshi

ishlatiladi. O‘simlik urug‘lari yuqorida aytganimizdek silimarin flavonoidini mavjudligi tufayli antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ishlatiladi[1,5,6]. Shu xossasiga ko‘ra, sertikan bo‘tako‘z o‘simligi nazariy jihatdan surunkali yallig‘lanishlar, jigarning toksik shikastlanishi, surunkali gepatit, sirroz, yurak qon tomir kasalliklari, o‘t qopi kasalliklari, o‘t qopidagi tosh kasalligi, shu bilan birga saraton kasalliklarga qarshi ishlatiladi. Sertikan bo‘tako‘zdan surunkali gepatit va jigar sirrozida foydalaniladi. Nur va kimyoterapiya kurslaridan keyin bemorlarga qo‘shimcha ravishda terapiya sifatida tavsiya qilinadi. Chunki sertikan bo‘tako‘zning antioksidant xossalari tufayli jigarni zararli toksinlardan tozalab jigarning yallig‘langan hujayralarni kamaytiradi va jigarni sog‘lom hujayralar sonini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Saraton kasalligini davolashda ham sertikan bo‘tako‘z o‘simligidan davolash samaradorligini oshirishda foydalaniladi. Mahalliy aholi sertikan bo‘tako‘z o‘simligidan qandli diabet, jigar sirrozi, gepatit va immunitetni oshirishda mazkur o‘simlikdan foydalanadi[7]. Bundan tashqari o‘t suyuqlikni ishlab chiqarishni kuchaytirishda, xolisterin darajasini pasaytirishda, yurak qon-tomir kasalliklarida foydalanadi. Bundan tashqari, o‘simlik ona suti ishlab chiqarishni yaxshilaydi va jarayonni kuchaytiradi. O‘simlikning ushbu xususiyatidan foydalanish uchun o‘simlikning zaytun bargi qo‘shilgan shifobaxsh choylaridan foydalanish mumkin. Ya’ni sertikan bo‘tako‘zning choy mahsulotlari ona suti ishlab chiqaradigan garmon prolaktinni faoliyatini kuchaytirish qobiliyati mavjud. O‘simlik birikmalari qandli diabet kasalligiga qarshi kurashib, to‘qimalarning insulin garmoniga nisbatan sezgirligini oshiradi va qonda glyukoza miqdorining kamayayishini ta’minlaydi. Organizmda o‘t suyuqligi ishlab chiqarishini kuchaytirish qobiliyati orqali organizmdagi xolesterin darajasini pasaytiradi. Sertikan bo‘tako‘z o‘simligining dorivorlik xususiyatlaridan tashqari, kosmetologiyada ham soch va tirnoqlar holatini yaxshilashda qo‘llaniladi. Ayniqsa sochlarni parvarish qilishda o‘simlik yog‘i juda yaxshi samara beradi. Organizmda soch hujayralar sonini ko‘paytirib, ularni yangilaydi, bosh terisidagi qazg‘oqni davolashda va sochlarni jilovlantirib tez o‘sishida foydalaniladi.

Xulosa

Tadqiqotning asosiy maqsadi sertikan bo‘tako‘z o‘simligining shifobaxsh xususiyatlari, xalq tabobatida foydalanish holatlarini to‘liq o‘rganib respublikamizda o‘simlikni ko‘paytirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Maxsus hududlarda sertikan bo‘tako‘z o‘simligini plantatsiya markazlarini tashkil etib, aholiga sifatli tibbiy mahsulotlarni yetkazish va o‘simlik haqidagi bilimlarni rasmiylashtirishdan iborat. Chunki kun sayin dunyoda dorivor o‘simliklar xom-ashyosidan olinadigan tabiiy dorilarga talab ortmoqda. Shu sababli jahon miqyosida, O‘zbekistonning tabiiy dorivor o‘simliklari xomashyosini brendiga ega bo‘lishi bizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Ҳ.Қ. Эсанов., А.Х. Эшонқулов “Бухоро вилоятининг адвентив доривор ўсимликлари” Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. Ўзбекистон. 2020 й. № 12. 122-131б.

2. Эшонкулов, А. Х. (2024). БУХОРОНИНГ ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАРИ ҲАҚИДА ЭТНОБОТАНИК БИЛИМЛАР. ЎЗБЕКИСТОН. *WORLD OF SCIENCE*, *7*(10), 130-136.

3.Eshonkulov, A.H. and Hojimatov, O. (2021) Ethnobotanical Research in Bukhara Region. Scientific Bulletin №7, Namangan State University, Namangan.

4. Б.Ё. Тўхтаев, Т.Х. Махкамов, А. Тўлаганов "Доривор ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хом-ашъёсини тайёрлаш бўйича йўриқнома" Тошкент 2015 й. 137 б.

5. A.A Saminov, D.E. Ismoiljonova and I.T. Kamoliddinova "Dorivor momordika yetishtirish va o'simlikning o'ziga xos xususiyatlari." Science and innovation 1.D4 (2022): 14-18.

6. D.Q. Anvarjonovich, A.A. Saminov and Xusanboyev O'g'li. "The importance of fungicides and stimulants in preparing seed grains." Asian Journal Of Multidimensional Research 10.4 (2021): 415-419.

7. Makhkamov, T., Eshonkulov, A., Bussmann, R. W., Khojimatov, O., Zafar, M., Ahmad, M., ... & Po'latova, A. (2024). Ethnobotanical knowledge of medicinal plants from Bukhara Region of Uzbekistan. *Ethnobotany Research and Applications*, *27*, 1-46.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Абдурашидова Х.Ф
Магистр 1 курса специальности биотехнология
Тухтабаева Ф.М
доцент кафедры биотехнология
Туйчиева Д.С
профессор кафедры биотехнология
Андижанский государственный университет, город Андижан

УДК: 57.579.64.615.9

ЗНАЧЕНИЕ ЭНДОФИТНЫХ ГРИБОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Аннотация. *Эндофиты представляют собой микроорганизмы, обитающие внутри тканей растений, не причиняя им вреда. Они играют важную роль в повышении устойчивости растений к биотическим и абиотическим стрессам, стимулируют рост и участвуют в синтезе биологически активных соединений. В статье рассматриваются механизмы взаимодействия эндофитов с растениями, их потенциальное применение в сельском хозяйстве, медицине и биотехнологиях, а также перспективы дальнейших исследований в данной области.*

Ключевые слова: *эндофиты, симбиоз, устойчивость растений, биостимуляция, биотехнологии, микробиом, вторичные метаболиты.*

Abdurashidova X.F
1-kurs biotexnologiya magistri
To‘xtaboyeva F.M
Biotexnologiya kafedrasi dotsenti;
Tuychieva D.S
Biotexnologiya kafedrasi professori.
Andijon davlat universiteti, Andijon shahri

ENDOFITIK ZAMG'ORLARNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: *Endofitlar - o‘simliklarning to‘qimalarining ichida hayot kechiradigan mikroorganizmlar bo‘lib, ular o‘simliklarga zarar yetkazmaydi. Ular o‘simliklarning biotik va abiotik stresslarga nisbatan barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydilar, o‘sishni rag‘batlantiradilar va biologik faol birikmalarning sintezida ishtirok etadilar. Maqolada endofitlar va o‘simliklar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlari, ularning qishloq xo‘jaligida, tibbiyotda va biotexnologiyalardagi potentsial qo‘llanilishi, shuningdek, ushbu soha bo‘yicha kelgusidagi tadqiqotlar imkoniyatlari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *endofitlar, simbioz, o‘simliklar barqarorligi, biostimulyatsiya, biotexnologiyalar, mikrobiom, ikkinchi metabolitlar.*

Abdurashidova Kh.F
1st year Master's student, specialty biotechnology
Tukhtabaeva F.M
Associate Professor, Department of Biotechnology
Tuychieva D.S
Professor, Department of Biotechnology
Andijan State University, Andijan

SIGNIFICANCE OF ENDOPHYTIC FUNGI IN HUMAN LIFE

Abstract: *Endophytes are microorganisms that live within plant tissues without causing harm. They play a crucial role in enhancing plant resistance to biotic and abiotic stresses, stimulate growth, and participate in the synthesis of bioactive compounds.*

This article explores the mechanisms of plant-endophyte interactions, their potential applications in agriculture, medicine, and biotechnology, as well as prospects for future research in this field.

Keywords: *endophytes, symbiosis, plant resilience, biostimulation, biotechnology, microbiome, secondary metabolites.*

Эндофиты представляют собой бактерии и грибы, которые заселяют внутренние ткани растений, не вызывая видимых симптомов болезни. Они обнаружены практически во всех исследованных растениях, от трав до деревьев. Проникая в растения через корни, устьица или повреждённые участки, эндофиты формируют сложные взаимовыгодные отношения с хозяином, способствуя его выживанию в стрессовых условиях [1]. Эндофиты улучшают рост растений благодаря нескольким механизмам: 1 - фиксация азота и улучшение усвоения питательных веществ, 2 - выработка фитогормонов, таких как ауксины и гиббереллины и 3 - индукция системной устойчивости, при которой растение активирует защитные реакции в ответ на патогены. Кроме того, эндофиты синтезируют вторичные метаболиты, обладающие антимикробными и инсектицидными свойствами, что дополнительно укрепляет защиту растений [1].

История открытия эндофитных грибов. Сведения об открытии и изучении эндофитных грибов сведения в литературах даны по-разному, например, первое упоминание о грибах, живущих внутри растений, относится к работе де Барри (1866 г.), описавшего симбиотические отношения между грибами и растениями [2]. Впоследствии ученые обнаружили, что многие эндофиты могут повышать устойчивость растений к патогенам и неблагоприятным условиям. Также показано, что **эндофиты были впервые описаны немецким ботаником Иоганном Генрихом Фридрихом Линком в 1809 году**. Тогда их считали грибами-паразитами растений [1].

Активное изучение эндофитов началось в 1977 году после выхода статьи К. В. Бэкона с соавторами, посвящённой отравлениям коров. Выяснилось, что в траве, которой питались коровы, бессимптомно присутствовали грибы, вырабатывающие ядовитые алкалоиды [11].

Термин же «эндофит» был предложен в 1866 году Антоном де Бари для обозначения всех организмов, полностью или частично находящихся в пределах тканей растений. [13]

Классификация эндофитов. К эндофитам относится широкий спектр микроорганизмов, включая грибы, бактерии и вирусы. Существует два основных способа классификации эндофитов:

- Системные и несистемные эндофиты. Системные эндофиты живут в тканях растений весь жизненный цикл, не причиняя вреда, и сохраняют стабильное количество независимо от условий среды [3]. Напротив, несистемные эндофиты могут становиться патогенными при стрессах или дефиците ресурсов, как, например, *Colletotrichum fioriniae,* который в норме безвреден, но может вызывать болезни у растений в неблагоприятных условиях [4].

-- Клавиципитовые и неклавиципитовые эндофиты. Второй метод классификации основан на таксономии и шести дополнительных критериях. Клавиципитовые эндофиты - класс 1 - заражают в основном травы, передаваясь вертикально через семена. Они могут улучшать рост растений, повышать устойчивость к засухе и снижать травоядность. Взаимодействие этих эндофитов с растениями варьируется от патогенных до симбиотических. Неклавиципитовые эндофиты - классы 2 - 4 - более разнообразны. Эндофиты 2-го класса могут колонизировать как надземные, так и подземные ткани, помогая растениям адаптироваться к экстремальным условиям. Эндофиты 3-го класса ограничены надземными тканями, а эндофиты 4-го класса обитают под землёй и способны колонизировать значительные объёмы растительных тканей. Эти классы остаются менее изученными, но их экологическая роль может быть крайне важной [5].

Эндофиты находят широкое применение в биотехнологии, медицине, экологии и сельском хозяйстве, благодаря их способности синтезировать полезные вещества, улучшать рост растений и помогать в борьбе с загрязнением окружающей среды.

Применение эндофитов в сельском хозяйстве. Эндофиты могут сыграть важную роль в будущем сельского хозяйства, повышая урожайность и устойчивость растений к стрессам. Например, заражение семян газонных трав (*Festuca и Lolium perenne*) грибами *Acremonium coenophialum* и *A. lolii* снижает потребность в пестицидах: травы становятся ядовиты для скота, но устойчивы к насекомым-вредителям [6]. Эти эндофиты стимулируют выработку токсичных алкалоидов, что защищает растения от листогрызущих насекомых (например, клопов и совок), хотя они менее эффективны против корневых вредителей [6].

Эндофиты как источник биотоплива. Применение эндофитов для получения биотоплива. В 2008 году изолят *Ascocoryne sarcoides* (ранее ошибочно идентифицированный как *Gliocladium roseum*) показал способность производить углеводородные соединения, напоминающие топливо, - «мико-дизель». Ещё один штамм эндофитов, выделенный из *Guazuma ulmifolia*, синтезирует летучие органические соединения,

включая полиены, которые потенциально можно использовать как биотопливо [8].

Эндофиты в борьбе с загрязнением. Эндофиты помогают растениям очищать загрязнённые почвы, превращая токсичные вещества в менее вредные формы. Например, бактерии рода *Burkholderia* с плазмидой TOM, расщепляющей трихлорэтилен (ТХЭ), были внедрены в деревья, что уменьшило испарение ТХЭ в воздух. Грибы *Pestalotiopsis microspora* способны переваривать полиуретан в анаэробных условиях, открывая перспективы биологической переработки пластика [9].

*Также эндофитами можно пользовается в поиске лекарств***.** Эндофиты синтезируют разнообразные вторичные метаболиты с потенциальной медицинской ценностью: антибактериальные, противогрибковые, противовирусные и противоопухолевые соединения. Например, *Taxomyces andreanae*, выделенный из тиса, продуцирует паклитаксел - важный противораковый препарат. Другие эндофиты синтезируют соединения, активные против антибиотикорезистентных бактерий туберкулёза и даже обладающие инсулиноподобным действием [10].

Эндофиты могут ускорять рост растений и повышать их устойчивость к неблагоприятным условиям (засуха, бедные почвы, фитопатогены) [14]. Например, гриб *Piriformospora indica* улучшает питание растений и увеличивает их биомассу. На пастбищах Новой Зеландии эндофиты AR1 и AR37 защищают травы от насекомых-вредителей, не влияя на пищевую ценность для скота [15].

Вывод. Эндофиты играют важную роль в жизни растений, обеспечивая им защиту от вредителей, повышая устойчивость к стрессам и улучшая рост за счёт увеличения доступности питательных веществ. Эти микроорганизмы открывают широкие перспективы для применения в сельском хозяйстве, биоремедиации и медицине, благодаря способности вырабатывать биоактивные соединения с антимикробными, противоопухолевыми и инсектицидными свойствами. Несмотря на существующие препятствия, такие как зависимость от фунгицидов и удобрений, растущий интерес к устойчивым технологиям и биоинсектицидам делает эндофитов перспективным инструментом для решения глобальных экологических и продовольственных вызовов. Дальнейшие исследования и внедрение этих микроорганизмов в практику могут способствовать созданию более экологически чистых и продуктивных аграрных систем, а также открыть новые горизонты в области фармакологии и производства биотоплива.

Список испольхованных литератур:

1.Chow, Chanelle; Padda, Kiran Preet; Puri, Akshit; Chanway, Chris P. (2022-09-20). "An Archaic Approach to a Modern Issue: Endophytic Archaea for Sustainable Agriculture". *Current Microbiology*. 79 (11): 322.

2.Hardoim PR, van Overbeek LS, Berg G, Pirttilä AM, Compant S, Campisano A, et al. (September 2015). "The Hidden World within Plants: Ecological and Evolutionary Considerations for Defining Functioning of Microbial Endophytes". Microbiology and Molecular Biology Reviews. 79 (3): 293–320.

3.Wani, Zahoor Ahmed; Ashraf, Nasheeman; Mohiuddin, Tabasum; Riyaz-Ul-Hassan, Syed (April 2015). "Plant-endophyte symbiosis, an ecological perspective". Applied Microbiology and Biotechnology. 99 (7): 2955–65.

4.Lin, Shan; Peduto Hand, Francesca (2019). "Determining the Sources of Primary and Secondary Inoculum and Seasonal Inoculum Dynamics of Fungal Pathogens Causing Fruit Rot of Deciduous Holly" Plant Disease. 103 (5): 951–958.

5.Rodriguez RJ, White JF, Arnold AE, Redman RS (2009-04-01). "Fungal endophytes: diversity and functional roles". *The New Phytologist*. 182 (2): 314–30

6.Compant S, Clément C, Sessitsch A (2010-05-01). "Plant growth-promoting bacteria in the rhizo- and endosphere of plants: Their role, colonization, mechanisms involved and prospects for utilization". Soil Biology and Biochemistry. 42 (5): 669–678.

7.Успенская А.Д. Эндофитные микроорганизмы – продуценты биологически активных веществ// курсовая работа, Алматы, 2013, 24 с.

8.Shaw JJ, Spakowicz DJ, Dalal RS, Davis JH, Lehr NA, Dunican BF, et al. (April 2015). "Biosynthesis and genomic analysis of medium-chain hydrocarbon production by the endophytic fungal isolate Nigrograna mackinnonii E5202H". Applied Microbiology and Biotechnology. 99 (8): 37 .

9.Nisa H, Kamili AN, Nawchoo IA, Shafi S, Shameem N, Bandh SA (May 2015). "Fungal endophytes as prolific source of phytochemicals and other bioactive natural products: A review". Microbial Pathogenesis. 82: 50–9

10. Aly AH, Debbab A, Proksch P (June 2011). "Fungal endophytes: unique plant inhabitants with great promises". *Applied Microbiology and Biotechnology*. 90 (6): 1829–45

11. Straub, Daniel; Yang, Huaiyu; Liu, Yan; Tsap, Tatsiana; Ludewig, Uwe (2013-11-01). "Root ethylene signalling is involved in Miscanthus sinensis growth promotion by the bacterial endophyte Herbaspirillum frisingense GSF30T". Journal of Experimental Botany. 64 (14): 4603–4615. doi:10.1093/jxb/ert276. 64 (14): 4603–4615.

12. Микология Сегодня. Том. 2. Ю.Т. Дьяков, А.Ю. Сергеев (ред.). М.: Национальная академия микологии, 2011. 292 с.

13. Tadych M, Bergen MS, White JF (2014-03-01). "Epichloë spp. associated with grasses: new insights on life cycles, dissemination and evolution". *Mycologia*. 106 (2): 181–201.

14. Meyer W, Torres M, White J (2012). Stier J, Horgan B, Bonos S (eds.). Chapter 20: Biology and Applications of Fungal Endophytes in Turfgrasses. American Society of Agronomy. pp. Chapter 20.

15. Le Cocq K, Gurr SJ, Hirsch PR, Mauchline TH (April 2017). "Exploitation of endophytes for sustainable agricultural intensification". *Molecular Plant Pathology*. 18 (3): 469–473.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

G‘ofurova O‘g‘iljon Shavkat qizi
Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali katta o‘qituvchisi PhD
Email: gofuruvaogiljon@gmail.com
Raxmatullaeva Farangiz Sherali qizi
Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali talabasi

SIRDARYO VILOYATIDA YETISHTIRILGAN BUG‘DOY DONINING KLEYKOVINA SIFATI VA UNING MIQDORINI ANIQLASH

Annotatsiya*: Kleykovina bug‘doy donining eng muhim tarkibiy qismi bo’lib, uning pishirish xususiyatlarini belgilaydi. Uning miqdori va sifati un va yakuniy mahsulotning texnologik xususiyatlariga bevosita ta’sir qiladi. Kleykovina tahlil usullarini ishlab chiqish don sifatini aniqroq kuzatish va uning turli xil qayta ishlash turlariga yaroqliligini bilish imkonini beradi. Kleykovina – bu don sifati va uning texnologik xususiyatlarini aniqlovchi oqsil kompleksi. Uning miqdori va sifati o‘sish sharoitlariga, jumladan, harorat va namlik darajasiga bog‘liq. Ushbu maqolada bug‘doy tarkibidagi kleykovina miqdorini va sifatini tahlil qilishning joriy usullari ko‘rib chiqiladi. Kleykovinani baholashning kimyoviy usullari, shuningdek, bug‘doyning ozuqaviy va texnologik qiymatiga ta’siri o‘rganildi. Laboratoriya amaliyotida qo‘llaniladigan standartlarga alohida e’tibor beriladi.*

Kalit so‘zlar*: kleykovina, miqdor, xususiyat, sifat, tahlil, oqsil, baholash, kimyoviy, ozuqaviy, texnologik qiymat, standart.*

Гафурова Угилжон Шавкатовна
Старший-преподаватель (PhD) Янгиерского филиалаТашкентского химико-технологического института
Рахматуллаева Фарангиз Шералиевна
Студетка Янгиерского филиала
Ташкентского химико-технологического института

КАЧЕСТВО КОЛИЧЕСТВО КЛЕЙКОВИНЫ ЗЕРНА ПШЕНИЦЫ, ВЫРАЩЕННОЙ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ, И МЕТОДЫ ЕЁ ОПРЕДЕЛЕНИЯ

Аннотация: *Клейковина является важнейшим компонентом зерна пшеницы, определяющим его хлебопекарные свойства. Её количество и качество непосредственно влияют на технологические характеристики муки и конечного продукта. Разработка методов анализа клейковины позволяет более точно контролировать качество зерна и определять его пригодность для различных видов переработки. Клейковина – это белковый комплекс, определяющий качество зерна и его технологические свойства. Её количество и качество зависят от условий роста, включая температуру и уровень влажности. В данной статье рассматриваются современные методы анализа содержания и качества клейковины в пшенице. Изучены химические методы оценки клейковины, а также её влияние на пищевую и технологическую ценность пшеницы. Особое внимание уделено стандартам, применяемым в лабораторной практике.*

Ключевые слова*: клейковина, количество, свойства, качество, анализ, белок, оценка, химический, пищевой, технологический, ценность, стандарт.*

Gafurova Ugiljon Shavkat qizi
Senior teacher of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology
Rakhmatullayeva Farangiz Sherali qizi
Student of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology

THE QUALITY AND QUANTITY OF GLUTEN IN WHEAT GRAIN GROWN IN THE SYRDARYA REGION AND METHODS FOR ITS DETERMINATION

Annotation: *Gluten is the most important component of wheat grain, determining its baking properties. Its quantity and quality directly affect the technological characteristics of flour and the final product. The development of gluten analysis methods allows for more accurate monitoring of grain quality and determining its suitability for various types of processing. Gluten is a protein complex that defines grain quality and its technological properties. Its quantity and quality depend on growth conditions,*

including temperature and humidity levels. This article examines current methods for analyzing the content and quality of gluten in wheat. Chemical methods for assessing gluten, as well as its impact on the nutritional and technological value of wheat, are studied. Special attention is given to the standards used in laboratory practice.

Keywords:*gluten, quantity, properties, quality, analysis, protein, assessment, chemical, nutritional, technological, value, standard.*

Kirish

Bug‘doy Sirdaryo viloyatida yetishtiriladigan asosiy don ekinlaridan biridir. Mintaqaning yuqori harorat va past namlik bilan tavsiflanadigan iqlimi agrotexnik jarayonlarga, jumladan, pishib yetilish muddati, don shakllanishi va kleykovina miqdoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kleykovina – bu don sifati va uning texnologik xususiyatlarini aniqlovchi oqsil kompleksi. Uning miqdori va sifati o‘sish sharoitlariga, jumladan, harorat va namlik darajasiga bog‘liq. Mintaqaning iqlim omillari kleykovina shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish muhim, chunki bu hosilning oziq-ovqat qiymati bilan bevosita bog‘liq. Kleykovina bug‘doy donida mavjud bo‘lgan va uning non pishirish xususiyatlarini aniqlovchi oqsil kompleksidir. U ikkita asosiy oqsil fraksiyasidan iborat: gliadin (cho‘ziluvchanlik uchun mas’ul) va glutenin (elastiklik uchun mas’ul). Ushbu oqsillar nisbati xamir tuzilishi va pishirish sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.Kleykovina unning non pishirish xususiyatlarida asosiy rol o‘ynaydi: kleykovina miqdori qancha yuqori bo‘lsa, xamir shunchalik elastik bo‘ladi, fermentatsiya jarayonida karbonat angidrid gazini yaxshiroq ushlab turadi va bu non mahsulotlarining hajmini oshiradi. Kam kleykovina miqdori xamirni zaif, kam elastik qiladi va non shaklini yo‘qotadi. Ortiqcha kleykovina esa xamirning xususiyatlarini yomonlashtirishi, uni haddan tashqari qattiq va ishlov berish qiyin bo‘lishiga olib kelishi mumkin.Ushbu tadqiqotning maqsadi bug'doy donining pishib yetilish davriga harorat rejimi va namlik darajasining ta’sirini hamda kleykovina miqdorini tahlil qilish va Sirdaryoda ekin yetishtirish sharoitlarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.Optimal kleykovina miqdori yetishtirish sharoitlari, bug'doy navi va agrotexnik tadbirlarga bog‘liq. Don sifatini oshirish uchun harorat rejimi, namlik darajasi, o‘g‘itlarni o‘z vaqtida qo‘llash va moslashgan navlardan foydalanish inobatga olinishi lozim.

Adabiyotlar tahlili

Iqlim omillarining bug‘doy donidagi kleykovina miqdoriga ta’siri agronomik adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra [1,2], don shakllanishi davrida yuqori harorat tezlashtirilgan pishib yetilishiga olib kelishi mumkin, bu esa oqsillar, jumladan, glyuten fraksiyalarining to‘planishini kamaytiradi va kleykovina sifatini yomonlashtiradi.Ivanov (2020) [3] tomonidan olib borilgan ishlar shuni ko‘rsatadiki, 30°C dan yuqori harorat sharoitida kleykovina miqdori 10-15% ga kamayadi va oqsil almashinuvi buzilishi natijasida uning sifati yomonlashadi. Shu bilan birga, Petrov (2019) [4] tadqiqotida kleykovina to‘planishi uchun optimal harorat 22-27°C ekanligi va tuproq namligi kamida 20% bo‘lishi kerakligi aniqlangan.Xorijiy olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, namlik yetishmovchiligi sharoitida o‘simlik yetarlicha oqsil sintez qila olmaydi, bu esa non pishirishda xamir sifatining pasayishiga olib keladi. Boshqa tomondan, pishib yetilish davridagi ortiqcha namlik past sifatli oqsillarning haddan tashqari to‘planishiga sabab bo‘lib, kleykovinani haddan tashqari cho‘ziluvchan qiladi va unning non pishirish xususiyatlarini yomonlashtiradi. Texnologlar glyutenning uchta guruhini ajratib ko‘rsatishadi:

I guruh yaxshi kleykovina sifatlari (45-75 IDK birliklari) bilan tavsiflanadi.

II guruh - qoniqarli darajada kuchli yoki zaif (20-40 yoki 80-100 IDK birligi) bo‘lgan kleykovina.

III guruh - qoniqarsiz kuchli yoki zaif kleykovina (0-15 yoki 105 yoki undan ortiq IDK birliklari).

GOST R 54478-2011 ga muvofiq “Don [5]. Bug‘doyda kleykovina miqdori va sifatini aniqlash usullari” kleykovina kontsentratsiyasini aniqlash xamirdan xom kleykovina ajratib olish va uni yuvish orqali amalga oshiriladi [6]. Olingan namuna tortiladi va xom kleykovina tarkibi quruq maydalangan don namunasiga nisbatan hisoblanadi. Kleykovina sifati ma’lum vaqt davomida yuk ostida xom kleykovina pelletining deformatsiyasini o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi. [7]

Tadqiqot metodologiyasi

Sirdaryo viloyati Xovos Don Mahsulotlari A.J 5-chi sonli g‘alla omboridan shub yordamida 2 kg tahlil namunasi uchun bug‘doy donini oldik, 30 gr atrofida o‘rtacha namunadan olamiz va uni iflos aralashmalardan ajratib, tegirmonchada maydalab, un holatiga keltirib olamiz. Maydallangan unni 0,67 elakdan o‘tkazganda uning qoldig‘i 2 % dan oshmasligi kerak, 38 elakdan o‘tkazganda 40 % dan kam bo‘lmasligi kerak. Biz 0,67 dan elakdan o‘tkazganimiz 1 % ni tashkil qildi, 38 elakdagi esa 60 % ni tashkil qildi. Kleykovina uchun maydalangan dondan 25 gr o‘lchab olib, unga 14 ml xona haroratidagi suvni o‘lchab,xamirqorgichga solamiz va xamir tayyorlab uni 20 daqiqaga idishni ichida sekin yuvishni boshlaymiz va xamirni ichidagi kraxmal sizib chiqquncha yuvamiz.Oxirgi suvi tinniq bo‘lganida, vafelli sochiq yordamida qo‘l kaftlarini artib, ularning orasiga xamir quritiladi. So‘ngra 2-3 daqiqa qayta suv solingan idishda

yuvamiz. Uni orasidagi farq 0,1 grammdan oshmasa, biz tahlilni to‘g‘ri bajargan bo‘lamiz.

Tahlillar va natijalar

Birinchi yuvganimizda xamirimiz 7,17 ni tashkil qildi.

Ikkinchi bor yuvganimizga 7,16 ni tashkil qildi.

Natijani 4 ga ko‘paytirib 7*4=28,64 %

Kleykovinani sonini aniqladik. Natijadan 4 gramm olib 15 daqiqa xona haroratidagi suvga dumaloq shaklga keltirib, suvga solib qo‘ydik. Vaqt bo‘lganidan so‘ng, kleykovina sifatini aniqlash uchun IDK apparatiga olib qo‘ydik. IDK apparati natijasi 85,6 % shartli birlikni ko‘rsatdi. (1-rasm).



1-rasm. Namunani tayorlash jarayoni

1-jadval

Kleykovinaning sifat ko‘rsatgichi va standart bo‘yicha tajriba natijasi

IDK guruhi	Glyuten sifati	IDK shakl birligi (ko‘rsatgichi)	Laboratoriya tajribasi natijasi
1 guruh	Yaxshi	45-75	85,6
2 guruh	Qoniqarli-past	80-100	
3 guruh	Qoniqarsiz past	105-120	
Guruhi mavjud emas	Qoniqarsiz	0-15	

Pishib yetilish davridagi ortiqcha namlik (>70%) yumshoq oqsillarning ortiqcha to‘planishiga sabab bo‘lib, kleykovinani haddan tashqari cho‘ziluvchan qiladi va uning elastikligini pasaytiradi. Shunday qilib, kleykovina miqdorining kamayishi unning non pishirish xususiyatlarini yomonlashtiradi, uni pishirish uchun kamroq yaroqli qiladi. Ammo juda yuqori miqdordagi, ayniqsa, past sifatli kleykovina ham xamir shakllanish xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada non hajmi va g‘ovakligi kamayadi. (2-rasm).



2-rasm. Sifat ko‘rsatgichini aniqlash jarayoni

2-jadval

Kleykovinaning miqdor koʻrsatgichi va standart boʻyicha tajriba natijasi

Don guruhi	Kleykovina miqdori	Kleykovina sifati	Laboratoriya tajribasi natijasi
1	36 %	1 guruh	28,64%
2	28-32 %	2 guruh	
3	23-27 %	3 guruh	
4	18-22 %	4 guruh	
5	Cheklanmagan	5 guruh	

Xulosa

Kleykovina sifati uning elastiklik xususiyatlari, siqilishga qarshilik koʻrsatish qobiliyati, uzilmasdan choʻzilish xususiyatlari bilan baholanadi. GOʻST 27839-2013 boʻyicha 78,0 dan 102,0 gacha sifat birligi 2-chi guruhni koʻrsatadi.Shunday qilib biz tahlil qilgan bugʻdoy 85,6 ni tashkil qildi va kleykovina sifati boʻyicha qoniqarli sifatga ega boʻldi. Hozircha kleykovina tuzilishini tushuntirib beruvchi aniq bir nazariya mavjud emas. Bu oqsillarni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar bilan bogʻliq. Kleykovinada quruq kleykovina hosil qiluvchi oqsillar mavjud boʻlib, ularning molekulalari bir-biri bilan oʻzaro bogʻlanib, uch oʻlchovli toʻr hosil qiladi. Ushbu toʻrning kataklarida suv molekulalari joylashgan boʻladi. Toʻr kataklari qancha kichik boʻlsa, kleykovina shuncha mustahkam boʻladi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, harorat va namlik sharoitlari nafaqat donning pishib yetilish muddatiga, balki kleykovina miqdori va sifatiga ham sezilarli ta'sir koʻrsatadi.Optimal kleykovina miqdori yetishtirish sharoitlari, bugʻdoy navi va agrotexnik tadbirlarga bogʻliq. Don sifatini oshirish uchun quyidagilarni hisobga olish kerak: harorat rejimi, namlik darajasi, oʻgʻitlarni oʻz vaqtida qoʻllash va moslashgan navlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агроклиматические условия Сырдарьинской области и их влияние на сельское хозяйство. – Ташкент: Изд-во АН РУз, 2020.

2. Влияние температурных и влажностных условий на рост и развитие зерновых культур. – Москва: Колос, 2019.

3. Иванов А.Н. Оптимальные температурные условия для роста пшеницы. // Журнал аграрных исследований, 2020, №5, с. 15-22.

4. Петров В.В. Влажностный режим почвы и его влияние на урожайность. // Аграрная наука, 2019, №3, с. 45-50.

5. Шпаар Д. и др. Зерновые культуры (Выращивание, уборка, доработка и использование) / под общ. ред. Д. Шпаара. - М.: ИД ООО «DLV АГРОДЕЛО», 2008. - С. 7-62.

6. Гасанова Г.М.К. Актуальные проблемы селекции мягко пшеницы (TRITICUM AESTIVUM L.) на качество // European science review. - 2014. - С. 124-127.

7. Brites C.M., Macas B., Muacho C., Coco J. Quality of durum wheat breeding lines: Genetic and environmental effects // Durum wheat improvement in the Mediterranean redion: New ^allenges. Zaragoza: CIHEAM Options Mediterraneennes: Serie A. Seminaires Mediterraneens. Eds. Royo C., Nachit M8. Smith J. Climate Change and Wheat Production. – Cambridge University Press, 2021.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

05.00.00-TEXNIKA
journal.namdu.uz
TECHNICAL

Yulchiyev E. Y.
Yunusova L.K.
Xasanova SH.A.
Maxkamova M.A.
Andijon davlat universititeti

MEVA VA SABZAVOTLARNI GAZ MUHITIDA SAQLASH USULLARI

Annotatsiya: *Sanoatda xom ashyoni qayta ishlash progressiv kimyoviy, biokimyoviy, texnik-fizikaviy usullari keng qo'llanilayapti, masalan, olingan sharbatlarni ferment moddalar bilan, mag'zini esa elektr tok bilan qayta ishlash, qovurilgan sabzavot va baliqlarni vakuum bilan sovutish va hokazo. Tomat pasta, tomat sharbatini, sabzavot ikrasini ishlab chiqarish uchun qisman avtomatlashtirilgan texnologik liniyalar yaratilgan.*

Tayanch iboralar: *muvaqqat ombor, statsionar ombor, uyum, handak, tabiiy ventilyatsiya, sun'iy ventilyatsiya, oddiy gaz muhiti, modifikatsiyalangan gaz muhiti.*

Yulchiyev E. Yu.
Yunusova L.K.
Xasanova Sh.A.
Mahkamova M.A
Andijan State University

METHODS OF PRESERVING FRUITS AND VEGETABLES IN A GAS ENVIRONMENT

Annotation: *Progressive chemical, biochemical, technical and physical methods of processing raw materials are widely used in industry, for example, processing the obtained juices with enzymes, and the pulp with electric current, vacuum cooling of fried vegetables and fish, etc. Partially automated technological lines have been created for the production of tomato paste, tomato juice, vegetable caviar.*

Key words: *temporary warehouse, stationary warehouse, pile, trench, natural ventilation, artificial ventilation, simple gas environment, modified gas environment.*

Юльчиев Е.Ю.
Юнусова Л.К.
Хасанова Ш.А.
Махкамова М.А
Андижанский государственный университет

СПОСОБЫ КОНСЕРВИРОВАНИЯ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ В ГАЗОВОЙ СРЕДЕ

Абстрактный: *В промышленности широко применяются прогрессивные химические, биохимические и технико-физические методы переработки сырья, например, обработка полученных соков ферментами, обработка мезги электрическим током, вакуумное охлаждение жареных овощей и рыбы и др. Созданы частично автоматизированные технологические линии по производству томатной пасты, томатного сока, овощной икры.*

Ключевые слова: *временное хранилище, стационарное хранилище, штабель, траншея, естественная вентиляция, искусственная вентиляция, простая газовая среда, модифицированная газовая среда.*

Xalq xo'jaligini barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o'tish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyotining hozirgi davrdagi eng muhim va dolzarb vazifalaridandir.Mamlakatimiz oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi uchun olib borilayotgan iqtisodiy islohotlardan asosiy maqsad respublikamizni aholisi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha eng rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishga qaratilgan.

Hozirda meva va sabzavotlarni gaz muhitini boshqarib saqlash usuli ham keng foydalanilmoqda. Gaz muhitini boshqarib saqlash usuli gazning tarkibiga ko‘ra ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1 - Oddiy gaz muhitida saqlash (OGM) - havo muhitida:

2 - Modifikatsiyalangan gaz muhitida saqlash (MGM)-tarkibi havo tarkibidan farq qilgan muhitda.

Mahsulotlarni oddiy gaz muhitida saqlashda germetik yopilmaydigan omborxonalardan foydalanish mumkin. Bunda havo oddiy (tabiiy) va sun‘iy (ventilyatorlar yordamida) almashilib turiladi. Bu usulda saqlash jarayonida havoning jadal o‘zgarishi mahsulotlarning fiziologik aktivligini oshiradi va turli xil mikroorganzmlarni o‘ziga tez jalb qiladi. Shu sababli bu usulda mahsulotni uzoq vaqt saqlab bo‘lmaydi.

Modifikatsiyalangan gaz muhitida saqlashning mohiyati shundaki, bunda havo atmosferasi o‘zgartiriladi va nazorat qilib turiladi.

Umuman olganda, meva va sabzavotlarning hujayrasi ichidagi gaz tarkibida atrofdagi havoga qaraganda SO_2 ning miqdori O_2 ga qaraganda ancha ko‘p.

Modifikatsiyalangan gaz muhitida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash fikri bundan 150 yil muqaddam paydo bo‘lgan. 1821-yili frantsuz olimi Berar kislorodsiz atmosferada mevalarning pishishi oddiy sharoitdagiga qaraganda susayganligini ko‘rsatib bergan.

Meva va sabzavotlarni modifikatsiyalangan gaz muhitida saqlash usuli Angliya, Frantsiya, Gollandiya, Avstraliya, Italiya, AQSH, GFR va boshqa mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda. Bizning mamlakatimizda ushbu usulda mahsulotlarni saqlash keng joriy etilmagan.

Modifikatsiyalangan gaz muhitida (MGM) meva va sabzavotlarni saqlash muhitni ishlatish tipiga, boshqarish usuliga va muhitni yaratish usullariga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi. MGM ishlatish tipiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi: normal MGM usulida saqlash (bunda O_2 va CO_2 kontsentratsiyasining yig‘indisi oddiy havonikiga teng, azot miqdori o‘zgarmaydi).

Subnormal MGM usulida saqlash (O_2 va CO_2 kontsentratsiyasining yig‘indisi oddiy havonikidan kichik, azot miqdori yuqori bo‘ladi). Subnormal MGM uch komponentli, ya‘ni O_2+CO_2+N_2 va ikki komponentli O_2+N_2 (CO_2 ning miqdori texnik qurollar yordamida minimumga keltiriladi) bo‘ladi.

MGM boshqariladigan va boshqarilmaydigan bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda gaz muhiti saqlash mobaynida o‘zgarmaydi, ya‘ni boshqarilib turiladi. Ikkinchi holatda esa MGM o‘zgaruvchan bo‘ladi.

MGM havo tarkibi aniqlangan maxsus bo‘lmalardan yuborilib, kislorodni kuydirib (bunda CO_2 qisman yoki butunlay yutiladi) va kislorodni kimyoviy usulda singdirib hosil qilinadi. Bundan tashqari MGM meva va sabzavotlarni germetik usulda saqlashda fiziologik nafas olish mobaynida ham hosil bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda gaz muhitining aktiv komponentlarini turli xil nisbatda ishlatiladi.

Normal MGM uchun: O_2-16%, CO_2-5%, N_2-79% va O_2-12%, CO_2-9%, N_2-79%. Bunda CO_2 ning miqdori 10% dan oshmasligi lozim, aks holda fiziologik kasalliklar paydo bo‘lishi mumkin. Subnormal MGM uchun: O_2-3%, CO_2-5%, N_2-92% ва O_2-3%, CO_2-3-4%, N_2- 93-94%. Subnormal gaz muhitida mevalar pishishining to‘xtashi kislorod miqdorining kamayishi va karbonat angidridning ko‘payishi bilan tushuntiriladi. L.V. Metlitskiyning ma‘lumotlarga ko‘ra, kislorod miqdorining 2% dan kamayishi maqsadga muvofiq emas, chunki bunda anaerob nafas olish avj oladi. MGM sharoitida mahsulotlarni saqlash muddatini uzaytirish maqsadida sovitish qo‘llaniladi. MGM sharoitida havo harorati -1 C^0 dan 10 C^0 gacha bo‘lishi mumkin.

Atmosferasi boshqarilib turadigan usulda saqlanishni faqat germetik idishlarda yoki omborxonalarda amalga oshiriladi. Germetizatsiya darajasi talab qilingan atmosfera gaz muhitining tarkibiga bog‘liq. Agar atmosfera tarkibida kislorod miqdori kam harorat past va bo‘lmalar mevalar bilan uncha to‘lmagan bo‘lsa, germetizatsiya shuncha mustahkam bo‘lishi kerak.

MGM bo‘lmalari oddiy sovutgichlardan kichik o‘lchamda bo‘lib, atmosfera gaz muhitini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi maxsus qurilmalar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim. Bo‘lmaning sig‘imi 200 - 250 t bo‘lib, balandligi 5 - 6 m dan oshmasligi lozim. Bo‘lmaning eshiklari germetik bo‘lib, unda bo‘lma ichiga kiradigan tuynuk bo‘ladi. Tuynuk ham germetik berkiladigan bo‘ladi. Bo‘lmalarning haroratini nazorat qilish uchun germetik oynalar qo‘yiladi.

MGM bo‘lmalaridagi sovutgichlar oddiy sovutgich qurilmalaridan farq qilmaydi.Havo harorati va namligini barqaror ushlab turish uchun bo‘lmadagi gaz aralashmasi va sovuq havodagi sovitish manbai o‘rtasidagi haroratning farqi mevalarni sovitish davrida 6 - 8°C va saqlash davrida esa 3 - 4°C dan oshmasligi lozim. Bo‘lmalardagi atmosferaning harorati, namligi va tarkibi muntazam ravishda aniqlanib turiladi. Bunda bo‘lmalarga o‘rnatilgan termometr va psixrometrdan foydalaniladi. Atmosferaning tarkibi esa avtomatik gazoanalizatorlar yordamida yoki GXM–3M, GXP–100 markali kimyoviy gazoanalizatorlar yordamida aniqlanadi.

Atmosferasi boshqarilib turiladigan sharoitda meva va sabzavotlarni saqlash rejimi

Mahsulot turi	Harorat,	Havoning nisbiy	Miqdori, %	Saqlash davo-miyligi,

	°C	namligi, %	O_2	O_2	sutka
Uzum	0	90-92	-8	5	120-180
Nok	0	90-95	-5	3	210-240
Karam	0-0,5	90-92	5	-3	210-240
Kartoshka	6-8	90-95	-3	-3	240
Piyoz boshi	0	95	-1	0,5	210
Ko‘kpiyoz	0-0,5	95	-10	-3	150-180
Sabzi	1	95	-5	5	90
Bodring	7-10	95	5	-10	14-21
Chuchuk qalampir	8-9	90-95	-3	2	21
Kashnich	0	95	0	0	56
Rediska	0	95	5	2	14
Selderey	0,5	95	2-3	3-4	210
Pomidor	12-15	85-95	0-3	3-4	14-21
Olma	2-3	90-93	3-5	3-5	210-240

MGM bo‘lmalarining germetikliligiga alohida e‘tibor beriladi. Bo‘lmalardagi gaz bilan tashqi muhit o‘rtasidagi gaz almashinuvi normal gaz aralashmasi uchun sutkasiga 0,05-0,07 hajmdan, subnormal gaz aralashmasi uchun esa 0,02-0,03 hajmdan oshmasligi lozim. Bo‘lmalar qurib bitkazilganidan keyin ularning germetikligi albatta tekshirilib ko‘riladi. Yaxshi germetizatsiya qilinganda bo‘lmadagi bosim 30 minut ichida 25 mm suv ustunidan 0 ga tushadi. Agar bosim 10 minut mobaynida 25 mm suv ustunidan 10 mm ga tushsa qoniqarli hisoblanadi. Bo‘lmadagi bosim manometr bilan o‘lchanadi.

Bo‘lmaning germetikligini tekshirish uchun bo‘lma CO_2 gazi bilan to‘ldiriladi (10% kontsentratsiyagacha) va gaz ventilyator yordamida aralashtirilgan CO_2 ning kontsentratsiyasi birinchi marta aniqlanadi keyin 3–4 kun mobaynida gaz muhiti o‘lchab turiladi.

Germetiklik darajasi quyidagi formula yordami aniqlanadi:

$$E = 1 - \frac{Dc}{Cm}$$

bunda: E – germetik yopish samaradorligi;

D_c - bo‘lmada 24 soat mobaynida CO_2 kontsentratsiyasining o‘zgarishi, %;

C_m - bo‘lmada 24 soat mobaynida CO_2 kontsentratsiyasining o‘rtacha miqdori, %. Germetik yopish samaradorligi yaxshi izolyatsiya qilingan bo‘lmalar uchun E=0,87-0,98, ya‘ni bunda sutkasiga diffuziyali gaz almashinuv bo‘lma hajmiga ko‘ra 0,02-0,03 dan oshmasligi lozim. MGM bo‘lmalarida meva va sabzavotlar 7–8 oy va undan ko‘proq muddatga saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Трисвятский Л.А., Лесик Б.В., Курдина В.Н. Хранение технология сельско- хозяйственных продуктов. М.: Агропромиздать. 1991.

2. Широков Е.П. Полегаев В. Технология хранения и переработки продукции растениеводства с основами стандартизации. М.: Агропромиздать, 2000.

3. Omega-3 Tsis AOOT: хранение пищевых продуктов: продукты питания. http://z.pr.organizations.ru/pr/1300.htm

4. Санитарные требования к приёму и хранению пищевых продуктов. http://www.penza.com.ru/psp/informat/times/times.h...

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Mallabayev Botirjon Baxtiyorovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
e-mail: mallabayev.b@mail.ru

JAMIYAT MA'NAVIY HAYOTIDA TARIXIY ONG VA XOTIRANINING O'RNI

Annotatsiya: *maqolada tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalaring jamiyat ma'naviy hayotidagi roli va u orqali vujudga keladigan milliy ijtimoiy xotiraning shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tarixiy ong va tarixiy xotiraning shakllanishiga asosiy turtki beruvchi sotsial omillar, maktab tarix fani darsliklarining yozilishi, bugungi ahvoli va shu asosda shakllangan ijtimoiy xotiraning bugungi holati bayon etilgan. Shu bilan birga hozirda possovet mamlakatlari umummiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarix fanining o'qitilishi, ayrim mamlakatlarning o'zga davlat milliy tarixini o'rganishga bo'lgan munosabatlari ilmiy holislik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *tarix, vatan, tarixiy ong, dunyoqarash, xotira, globallashuv, qadriyat, vatanparvarlik, ta'lim, ijtimoiy xotira.*

Маллабаев Ботирджон Бахтиёрович
Доцент, Наманганский государственный университет

МЕСТО ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ПАМЯТИ В ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация: *В статье рассматривается роль понятий исторического сознания и исторической памяти в духовной жизни общества и формирование национальной социальной памяти, возникающей через нее. Описываются социальные факторы, дающие основной импульс формированию исторического сознания и исторической памяти, написанию школьных учебников истории, их современное состояние, а также современное состояние формирующейся на этой основе социальной памяти. При этом с точки зрения научной объективности проанализировано преподавание отечественной истории в системе общего среднего образования постсоветских стран, а также отношение некоторых стран к изучению отечественной истории других государств.*

Ключевые слова: *история, Родина, историческое сознание, мировоззрение, память, глобализация, ценности, патриотизм, образование, социальная память.*

Mallabayev Botirjon Bakhtiyorovich
Associate Professor, Namangan State University

THE ROLE OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS AND MEMORY IN THE SPIRITUAL LIFE OF SOCIETY

Annotation: *the article discusses the role of the concepts of historical consciousness and historical memory in the spiritual life of society and the formation of national social memory through it. Also, the social factors that give the main impetus to the formation of historical consciousness and historical memory, the writing of school history textbooks, their current state, and the current state of social memory formed on this basis are described. At the same time, the current teaching of national history in the general secondary education system of the post-Soviet countries, the attitude of some countries to the study of the national history of other states are analyzed from the point of view of scientific objectivity.*

Keywords: *history, homeland, historical consciousness, worldview, memory, globalization, value, patriotism, education, social memory.*

Kirish

Jamiyatning ma'naviy hayoti, uning tarixiy ong va xotira orqali shakllanadi. Tarixiy ong, xalqning o'z o'tmishiga, an'analariga, madaniyatiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi, xotira esa o'tmishni eslash, saqlash va baholash orqali xalqning ma'naviy dunyosini boyitadi. Ushbu ma'ruzada tarixiy ong va xotiraning jamiyat ma'naviy hayotidagi roli va ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Ma'lumki, tarixiy ong va tarixiy xotiraning shakllanishi go'dak ota-onasidan boshqa ko'rsatmalar qatorida ularning o'z tarixini, o'zining olamdagi o'rnini tushunishini qabul kilib oladigan maktabgacha yoshda ham sodir bo'la boshlaydi, ammo maktab ta'limini olish davrida bular jadal va tizimli tarzda shakllanadi, ehtimol,

ota-onasinikidan farq kiladigan tarixiy ong yuzaga kelishi ham mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metod

Jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida tarixiy ong va tarixiy xotira muhim ahamiyat kasb etadi. Ular xalqning o'zligini anglash, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va taraqqiyot yo'lida mustahkam qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarixiy ong va xotiraning rivojlanishi orqali jamiyat o'zining tarixiy tajribalaridan saboq olib, kelajakni barpo etish jarayonida ushbu bilimlarni asos sifatida qo'llaydi.

Muhokama

Tarixiy xotiraning ahamiyati va uning jamiyatga ta'siri Tarixiy xotira – bu jamiyatning o'z o'tmishini eslab qolish va undan saboq chiqarish qobiliyatidir. Bu jarayon quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

1. Tarixiy tajribadan saboq olish: Jamiyat o'zining avvalgi xatolaridan saboq chiqarish orqali kelajak yo'nalishlarini belgilaydi.

2. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish: Tarixiy voqealarni yodda saqlash milliy iftixor tuyg'usini oshiradi.

3. G'oyaviy mustahkamlik va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash: Milliy qadriyatlarni rivojlantirish va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashga yordam beradi.

Tarixiy xotiraning yo'qolishi yoki uning noto'g'ri talqin qilinishi jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, tarixiy xotirani asrab-avaylash va yangi avlodlarga yetkazish davlat va jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Shuningdek, 2009-yilda Finlyandiyada tarixiy ong muammosini o'rganish uni rivojlantirish, u yerda yashovchi odamlar tomonidan o'tmish konsepsiyalarini o'rganadigan multidisipliner tadqiqot loyihasi amalga oshirilgan. Loyihaning maqsadi – tarixiy ongni finnlarning o'tmish haqida bilimlari, bugungi qarashlari va kelajak haqidagi umidlariga qanday ta'sir qilishini o'rganish edi. Butun bir yil davomida (2009-yil) fin xalqining tarixiy ongini tadqiq etish maqsadida 4000 dan ortiq respondent o'rtasida so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnomaga qo'shimcha ravishda, 2010-yilda ishtirokchilar orasida bir qator intervyu ma'lumotlari yig'ilgan. Qo'shimcha tadqiqotlar ko'proq balog'atga yetmagan yoshlar jalb qilingan.

Maktabda o'quvchilar tarixiy ongini rivojlantirishni sotsial-pedagogik jihatdan takomillashtirish uchun, avvalo, maktabgacha ta'lim muassasalarida, oilada ilk tarixiy ong vujudga kelishini unutmaslik kerak. Bu davr mobaynida, bola o'z oilasidagi hayot tarzi, ota-onasining xatti-harakatlari, eshitgan pand-nasihatlarini o'zlashtiradi va bu uning xotirasida muhrlanib, faoliyati davomida qo'llanila boshlaydi. Bundan tashqari, farzand ongiga ijtimoiy muhit, tevarak atrof, mahalla, yashash joyi ham ta'sir etadi. Madaniy-ma'naviy o'zlashtirish jarayonlari olti-yetti yoshgacha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda oilada amalga oshiriladi.

«Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan»[3,53]. Bolaning ongi asosan 5 – 7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi, avvalo, uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi. Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha vokea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan kunga takomillashib boradi. Bola maktabgacha ta'lim muassasalarida tengqurlari bilan o'rtoqlashadi, o'ynaydi, tarbiyachi so'zlab beradigan ertak, matal, hikoyalar, turli xil topishmoqlarni ongiga jo qiladi, bu unda ilk tarixiy ongni shakllantirib, rivojlanish bosqichiga ko'taradi va tarixiy xotiraga aylanib boradi.

Maktab davrida o'quvchi dunyoni kengrok idrok eta boshlaydi, uning atrof olamni o'zlashtirishi, ijtimoiylashuvi yangi bosqichga ko'tariladi.

Hozirda Respublikamiz maktablarida o'qitilayotgan tarix darsliklari ham puxta ishlab chiqilyapti, deb bo'lmaydi va ular, bizningcha, bir qator kamchiliklardan xoli emas. Darhaqiqat, hamon respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari, ayniqsa, oliy o'quv yurtlari ijtimoiy fakultetlari talabalari uchun tarix fanidan davr talabiga mos asosiy manbalar, arxiv materiallari, respublikamiz ta'lim tizimida pedagogik amaliyot va har tomonlama sinov (eksperiment)da tekshirib o'tilgan teran darsliklarning yaratilishi birmuncha og'ir kechmoqda.[4,3] Sobiq ittifoqning parchalanishi Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqil suveren rivojlanish yo'liga o'tishi ta'lim sohasida yaqqol namoyon bo'ldi. Har bir mustaqil respublikada ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor kuchaydi, bu sohadagi islohotlar jadallashdi, yangi ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy, davlat dasturlari ishlab chiqildi. Maqsad mamlakat taraqqiyotiga hizmat qiluvchi milliy kadrlarni tayyorlash edi. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu mustaqil suveren respublikalarning kelajagi bo'lmish yangi avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishdan iborat

edi. Buning uchun, avvalo, maktablardagi darsliklar isloxotiga katta e'tibor berildi. Maktab darsliklari mafkuraviy aqidalardan xoli milliy modellar asosida ishlab chiqildi. Ayniqsa, milliy tarix qayta yozildi. Chunki bu fan, "ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi hamda insoniyatning paydo bo'lishi, tadrijiy evolyutsion takomil jarayoni va boshqalarni o'rganadi".[5,11]

MDH mamlakatlarida o'qitilayotgan tarix ayrim respublikalarda siyosiy qurolga aylantirildi, odamlarning tarixiy dunyoqarashini o'zgartirishga bo'lgan harakatlar avj oldi. Bu jarayon dastlab Boltiqbo'yi davlatlarida boshlangan bo'lsa, sekin-asta boshqa mintaqalarga ham tarqaldi. Natijada yosh avlodning tarixiy ongi yangi asosda shakllantirildi va bu harakatlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Ayniqsa, mustaqil davlatlarda voyaga yetayotgan yangi avlodning tarixiy ongini shakllantirish hamda rivojlantirish kabi asosiy vazifani o'rta maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar darsliklari bajardi.

Tarixan bir makonda yashab, umumiy tarix va bir ildizga ega bo'lgan O'rta Osiyo respublikalarining o'rta ta'lim tizimidagi islohotlar ularning milliy tarixni yaratish va tiklash, tarix fanining yangicha ruhda isloh qilinishi o'quvchi yoshlar tarixiy ongni rivojlantirilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, o'rta maktablarda o'qitilayotgan tarix fani darsliklari ularning mazmun-mohiyati nuqtayi nazaridan bugungi kunda katta farq qilishi bilan birga, turli yondashuvlarga egaligi tarafidan ham ajralib turadi. Aksariyat respublikalarda milliy davlatchilik tarixini yaratish harakati, tarixga bugungi kun nuqtayi nazaridan yondashish turli munozara-bahslarni keltirib chiqarmoqda-ki, bu birinchi navbatda, rossiyalik tadqiqotchilarni qo'zg'atib qo'ydi. Xususan, Rossiya Federatsiyasida Kadrlar zaxirasini tayyorlash jamg'armasi «Davlat klubi» ("Gosudarstvennыy klub") tomonidan «Jamoat texnologiyalari markazi» notijorat shirkatiga berilgan «Rossiya va sobiq sovet mamlakatlari hududidagi yoshlarda tarixga nisbatan konfrontatsiyasiz va integratsion qarashlarni shakllantirish» granti (713-02-sonli) hamda mazkur jamg'arma tomonidan «Yevroosiyo» notijorat shirkatiga berilgan «Yangi mustaqil davlatlar yoshlarining sovet va postsovet davrlari tarixini idrok etishi» loyihasi (905-02-sonli grant) asosida olib borilgan tadqiqotlar natijasida 12 ta sobiq ittifoq mamlakatlarida tarix fani bo'yicha nashr etilgan 187 ta maktab darsliklari tahlil qilingan. Natijada 2009-yili ikki qismdan iborat «Rossiya va sobiq sovet mamlakatlari xalqlari umumiy tarixining yangi mustaqil davlatlar maktablarining tarix darsliklarida yoritilishi» ("Osveщeniye obщeĭ istorii Rossii i narodov postsovetskix stran v shkolnыx uchebnikax istorii novыx nezavisimыx gosudarstv") kitobi nashr etildi. Bu kitobga Rossiyadagi turli nashrlar, turli mutaxassislar munosabat bildirdilar va bu yaqingacha ham davom etmoqda.

2012-yil 31-dekabrda REGNUM axborot agentligining«Rossiya ovozlari» («Голоса России» saytida «Krasnoyarskaya gazeta»ning «Haqiqatga yetish yoki Kim, nima uchun tarixni qayta yozadi?» ("Докопатся до правды, или Кто и зачем переписывает историю") maqolasi e'lon qilingan. Maqolada yozilishicha, bugungi kundagi milliy tarix darsliklarida chorizm va sobiq ittifoq davri mustamlakachilik davri sifatida o'rta maktab o'quvchilarga taqdim qilinmoqda. Maqola mualliflari MDH mamlakatlarida o'qitilayotgan darsliklarda Rossiyaning shu xalqlar tarixida tutgan rolini mustamlakachilik sifatida baholanganiga nisbatan salbiy fikr bildiradilar. Go'yoki, chor Rossiyasi Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston hududlarini o'ziga qo'shib olib, bu xalqlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga boshlagan-u, endi ular buni tan olmay, «ko'rnamaklik» yo'lini tutmoqdalar, qabilida ginaxonlik qiladilar.

Maqolada yana «Ikkinchi jahon urushining kelib chiqishini Gruziya, Latviya, Litva, Moldova, Ukraina va Estoniya tarix darsliklarida «Molotov–Ribbentrop pakti»ga aloqador tajovuzkorlarning kelishuvi sifatida baholanmoqda»[6], degan yozg'irish ham bor.

Ochig'ini aytganda, maqolada mualliflarning masalaga tendensioz munosabatda ekani shundoqqina sezilib turibdi. Aytaylik, O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinmagani, balki bosib olingani isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Ushbu jarayon bizning tarix fani darsliklarimizda: «XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston xalqlarini mustamlaka asoratiga soldi. Podsho hukumati o'lkani siyosiy-hududiy jihatdan zabt etibgina qolmay, balki erksevar, zahmatkash xalqni ma'naviy-ruhiy bo'ysundirishga harakat qildi»[7,152] deb o'rgatiladi.

Respublikamizdagi zamonaviy ta'lim tizimida o'qitilayotgan tarix darsliklarida chor Rossiyasi bosqini va mustamlakalashtirish siyosati so'ngra, sobiq ittifoq davri tarixiga faqat bir tomonlama yondashilmayapti, balki bu davrlarning salbiy jihatlari bilan bir qatorda ba'zi ijobiy tomonlari ham yoritilmoqda. Lekin, bugungi kunda tarixni siyosiylashtirish, uni o'z maqsad-manfaatlariga bo'ysundirib, millatlararo nizolarni yuzaga keltirish harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu, ayniqsa, Ukraina maktablari uchun 2014–2015-yillardan keyin nashr etilgan tarix darslarida ko'zga tashlanadi. [9]

O'zbekiston tarixi darsliklarida ko'pincha milliy g'oyaning asosiy tamoyillari, mavzular mohiyatiga yetarli darajada singdirilmagan (milliy istiqlol davri tarixiga oid darsliklarda ham bu holat kuzatiladi) bo'lib, asosan davr tarixining quruq bayoni bilan cheklanib qolingan. Bundan tashqari o'qituvchilar uchun alohida metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmagan, borlari ham viloyatlarga yetib bormayapti. Tadqiqot davomida o'qituvchilar bilan suhbatlarda ma'lum bo'ldi-ki, o'qituvchiga yordam beradigan, uning bilimini boyitishga xizmat qiladigan, har bir darslik uchun alohida kengaytirilgan qo'llanma va

adabiyotlar yo‘q. O‘qituvchi uchun yaratilayotgan metodik qo‘llanmalarni qayta ko‘rib chiqish va boyitish, o‘qituvchilarga har bir darslikni o‘qitishga ko‘mak beruvchi alohida qo‘llanmalar yaratish va tarixiy-badiiy adabiyotlar ta’minotini yaxshilash, ularning bilimi va faniga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi, o‘z ustida ishlashiga qo‘proq yordam beradi. Shu ma’noda umumta’lim maktablarining 6-sinf tarix o‘qituvchilari uchun 1994-yili akademik A.R. Muhammadjonov tomonidan nashr ettirilgan qo‘llanmani (A.R. Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi (V asrdan XVI asr boshlarigacha) Toshkent: O‘qituvchi. – 320 b.) qayta nashr etish maqsadga muvofiq. Garchi bu metodik qo‘llanmadagi mavzular hozirgi paytda 7-sinfda o‘tilayotgan bo‘lsa-da, mazkur kitob o‘zining mukammalligi, mavzularning keng va tushunarli bayon etilgani, yordamchi ma’lumotlarning to‘laqonliligi, lug‘at va rasmlarning o‘z o‘rnida keltirilgani va boshqa fazilatlari tufayli bugungi o‘qituvchining ham mehnatini yengillashtirishga hissa qo‘sha olishi bilan diqqatni tortadi.

Natijalar

O‘zbekiston–Germaniya tarixchilari hamkorlikda nashr etgan monografiyada quyidagi fikrga alohida urg‘u berilganki, biz bunga qo‘shilamiz: «O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar ta’limning dolzarb vazifalari yosh avlodni yuksak ma’naviyat hamda boy axloqiy va gumanistik tamoyillar asosida tarbiyalash muammolari bilan uzviy bog‘liq. Shu boisdan ham tarixning chuqur ildizlariga murojaat qilish, shu bilan birga zamonaviy O‘zbekiston tarixining islohotlar va yangilanishlarini, uning jahon hamjamiyati bilan uyg‘unlashuvini, xalqimizning tarixiy-madaniy merosiga mutlaqo yangicha munosabatini o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi».[2,54]

Xulosa

Jamiyat ma’naviya hayotida tarixiy ong va xotiraning o’rni muhimdir. Ular orqali xalq o‘z tarixini, madaniyatini va qadriyatlarini saqlaydi. Tarixiy ong va xotira, jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash va idoparap faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Ularning ahamiyati kelajak avlodlar uchun yanada kuchayadi, chunki o’tmishni eslash va ushbu tajribalarni o’rganish, jamiyatni rivojlantirishda asosiy omil bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017. № 27. – B.13.
2. Tarix va o‘zlikni anglash III: O‘zbekiston va Germaniyada tarixni yoritish. – Toshkent: Fan, 2008. – B.9.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.53.
4. Toshpo‘latov T., G‘afforov Ya. Tarix o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Turon-iqbol, 2010. – B. 3.
5. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – B. 11.
6. www.regnum.ru/news/polit/1610250.html#ixzz2Gpwyr500
7. Tillaboyev S., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Sharq, 2014. – B.152.
8. https:// medium.com/history-and-geopolitics/-b712be8d36cd
9. Qarang: https://odnarodyna.org/content/prolistav-uchebniki-po-istorii-ukrainy
10. Sagdullayev A.S., Kosteskiy V.A. Tarix: qadimgi dunyo: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun darslik.tuzatilgan va to‘ldirilgan 4-nashr. –Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2013. –192 b.
11. Vigasin A. A., Goder G.I., Svensiskaya I.S. Istoriya Drevnego mira. 5 klass: uchebnik dlya obщeobrazovatyelnыx uchrejdeniy – 17-ye izd. – Moskva: Prosveщeniye, 2010 – 287s.
12. Aleksashkina L,N,, Golovina V.A. Vseobщaya istoriya s drevneyshix vremen do konsa XIX veka. 10 klass M.: Mnemozina, 2010. –431 s.; Toleubayev A,T., Kasымbayev J.K., Koygeldiyev M.K., i dr. Istoriya Kazaxstana. Uchebnik dlya 10 klassov obщestvenno-gumanitarnogo napravleniya obщeobrazovatelnыx shkol. –Almatы.: Mektep, 2010. – 240 s.
13. Hidoyatov G. Jahon tarixi: 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik –Toshkent: Sharq, 2004. – B.416.
14. Rajabov Q., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (1917-1991- yillar): O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2017. – 144 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

To‘xtasinov Bobomurod Tulkinboy o‘g‘li
Namangan davlat universiteti dotsenti v.b.
Siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: bobomurod.tukhtasinov@bk.ru

O‘ZBEKISTONDAGI MILLIY MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI TARIXI VA ULARNING IJTIMOIY ASOSLARI

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar faoliyatining qisqa tarixi va ularning xalqlar jipsligini ta’minlashdagi o‘rni va ijtimoiy asoslari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Bag‘rikenglik, totuvlik g‘oyasi, milliy-madaniy markazlar, “Irfon”, baynalmilal, “O‘zbekiston – Vatanim manim”.*

Тухтасинов Бобомурод
Доцент Наманганского государственного университета в.б.
Доктор философии в области политологии (PhD)

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫХ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ СОЦИАЛЬНАЯ ОСНОВА

***Аннотация**: В статье рассматривается краткая история деятельности национальных культурных центров, действующих в Узбекистане, их роль в обеспечении единства народов, их социальные основы.*

***Ключевые слова:** Толерантность, идея согласия, национально-культурные центры, «Ирфон», интернационал, «Узбекистан – моя Родина».*

Tukhtasinov Bobomurod Tulkinboy ogli
Associate Professor of Namangan State University v.b.
Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)

HISTORY OF THE ACTIVITY OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN AND THEIR SOCIAL BASIS

***Abstract**: This article discusses a brief history of the activities of national cultural centers operating in Uzbekistan, their role in ensuring the unity of peoples, and their social foundations.*

***Keywords**: Tolerance, the idea of harmony, national-cultural centers, "Irfon", international, "Uzbekistan - My Homeland".*

Kirish

Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ular zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadirlash, va turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston hududida qadimdan ko‘plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagani xalqimizning azaliy bag‘rikengligidan dalolatdir. Millatlararo totuvlik g‘oyasi esa umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyoti, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Buni O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li davomida turli sohalarda erishayotgan yuksak marralari misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashar ekan. Ana shu ko‘p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, hamkor va hamjihat bo‘lib umr kechirishi natijasida ularning har biri ma’naviy va madaniy jihatdan boyib, o‘zaro munosabatlar ta’sirida ko‘p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalmoqda. Boshqacha aytganda, millatlararo totuvlik g‘oyasi jamiyatimizda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlikning

ma’naviy asosiga aylanmoqda. Bu g‘oya – har bir millat vakilining iste’dodi va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratib, uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Bosh Qomusimizning 4-moddasida qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”[1]. O‘zbekistonning bu borada olib borayotgan oqilona siyosati Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g‘oyalarni barcha yurtdoshlarimiz bilan hamkor va hamjihat bo‘lib amalga oshirishimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik beradiki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridandir. Mustaqillik bizga ana shu ezgu an’analarni izchil davom ettirish va avloddan avlodga yanada mukammal bo‘lib o‘tishini ta’minlash imkonini berdi.

Bu haqida Birinchi Prezident I.A.Karimov: “Adolatli jamiyatda yashamoqchi ekanmiz, boshqa xalq vakillarining manfaatlarini ham muhofaza etishimiz, ularga hurmat va e`tibor ko‘rsatishimiz zarur. Shu tuproqda tug‘ilib, shu yurtga mehnati singan har bir inson – agar u Vatanimizni huddi biz kabi muqaddas bilsa – O‘zbekiston fuqarosi deb sanalishga loyiq”, –degan edi[2].

Shu munosabat bilan O‘zbekistonda Milliy madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 1992-yil 13-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan Madaniyat vazirligi qoshidagi Respublika millatlararo madaniy markazi o‘rniga Baynalmilal madaniy markazi tashkil qilindi [3].

Mamlakatimizdagi dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan 1989-yilda tuzildi[4]. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin boshlandi. Mustaqillik yillarida ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun keng imkoniyat yaratildi. Agar 1992-yil 10 ta milliy-madaniy markaz ish olib borgan bo‘lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga kelib esa 135 taga yetdi. Bugungi kunda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 150 ta milliy madaniy markaz, 38 ta do‘stlik jamiyati va xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ular respublika madaniy markazlari, viloyat, shahar va tuman madaniy markazlaridan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Respublika Baynalmilal madaniyat markazi o‘z oldiga milliy-madaniy markazlarga amaliy va metodologik jihatdan ko‘maklashish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlarning milliy urf-odat va an’analari, ularning madaniyati, ma`naviy qadriyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish, MDH va chet eldagi milliy va baynalmilal madaniy markazlar bilan aloqalar o‘rnatish kabi maqsad va vazifalarni qo‘ygan.

Mamlakatimizdagi milliy-madaniy markazlarning yaqin o‘tmishdagi faoliyatiga nazar soladigan bo‘lsak. Ular qardosh xalqlar tomonidan O‘zbekistonda ochilgan elchixonalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatgan bo‘lib, ayrim masalalarni hal etishda bir-birlariga ko‘maklashmoqdalar. Shu bilan birga boshqa xorijiy mamlakatlar bilan ham o‘zaro madaniy hamkorlik, tajriba almashish borasida bitimlar tuzilgan. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va Turkiya Respublikasi madaniyat vazirligi o‘rtasida 1992-1993 yillar mobaynida madaniyat sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar dasturi”, “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va Koreya Respublikasi madaniyat vazirligi o‘rtasida 1992-1995 yillar mobaynida madaniyat sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar dasturi”, “O‘zbekistonRespublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va Hindiston Respublikasi madaniyat departamenti o‘rtasida 1992-1994 yillar mobaynida madaniyat sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar dasturi”, “O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Shvetsiya Qirolligi hukumati o‘rtasida madaniyat va san’at sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitimlar” Respublikamizda madaniyat, san’at, fan va ta’lim, adabiyot sohalarini rivojlantiribgina qolmay, millatlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirishga yordam bermoqda[5]. Shunday bitimlar Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Pokiston, Gretsiya, Italiya, Isroil, Buyuk Britaniya, Daniya, Slovakiya, Suriya, Iordaniya kabi davlatlar bilan ham tuzilgan.

Milliy-madaniy markazlar O‘zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalarida ham faol ishtirok etib kelgan. Masalan, 1995-yil 21-iyulda Respublika Baynalmilal madaniyat markazida Ukraina Respublikasi Prezidenti L.D.Kuchma bilan ukrainlar jamoasining a’zolari o‘rtasida do‘stona uchrashuvi, 1999-yil 12-dekabrda esa Rossiya Federatsiya Prezidenti V.V.Putin bilan ruslar madaniyat markazining a’zolarining do‘stona uchrashuv bo‘lib o‘tgan. Shuningdek, Koreya, Gruziya, Ozarbayjon, Gretsiya va boshqa mamlakat rahbarlarining yurtimizdagi tashriflarida buni ko‘rish mumkin.

O‘rta Osiyo mintaqasi qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lib, bu hududda yashayotgan har bir xalq uning rivojlanishiga o‘zining hissasini qo‘shgan. O‘zbekistondagi bolgarlar ham shular jumlasidandir. Bolgar madaniy markazi milliy urf-odat va an’analarini davom ettirish maqsadida 1999-yilda tashkil etilgan[6]. Qisqa davr mobaynida markaz tomonidan bir qator tadbirlar o‘tkazildi. Jumladan, 2000-yilning 24-sentyabrda

Respublika Baynalmilal madaniyat markazida o‘tkazilgan birinchi bolalar raqs festivalini misol sifatida keltirish mumkin. Spuningdek, Bolgar milliy madaniy markazi har yili “Do‘stlik” milliy festivalini o‘tkazib keladi. Shuningdek O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng birinchilardan bo‘lib, qozoq, qirg‘iz, tojik, uyg‘ur, dungan va Buxoro-yahudiylari milliy madaniy markazlari tashkil etilgan edi. Ayni paytda O‘zbekistonda yahudiylarning 6 ta madaniy markazi faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ular Toshkent va Samarqandda 2 ta, Buxoro va Andijonda 1 tadan iboratdir[7]. Yahudiylar va Buxoro yahudiylari o‘z millatdoshlari bilan do‘stona munosabatlarni o‘rnatish bilan birgalikda ularni O‘zbekistonga taklif qilish imkoniyatlariga ham ega bo‘ldi. Jumladan, 2000-yil 1-avgustda Turkiston saroyida AQSH va kanadalik Buxoro yahudiylari tomonidan “O‘zbekiston – Vatanim manim” ruknida xayriya konserti o‘tkazildi.

O‘zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning qadriyatlarini hurmat qilish o‘zbek xalqining milliy mentilitetiga xos xususiyatlardan biri bo‘lib, xalq arboblari, shoir-u mutafakkirlarini e’zozlash burch sifatida qaraladi. Birinchi Prezident I.A. Karimov Xiva shahrida buyuk turkman shoiri Maxtumquli haykali ochilishida so‘zlangan nutqida: “Bugun o‘zbek maktablarida, turkman maktablarida ulug‘ Maxtumquli ijodini har tomonlama chuqur o‘rganadigan yangidan kashf etadigan zamon keldi” degan so‘zlari ham diqqatga sazovordir.

Tahlillar va natijalar

Shuningdek, O‘zbekistonda qadimdan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatgan, tili, dini va urf-odatlari o‘xshash bo‘lgan xalq – qirg‘iz millatidir. O‘zbek va qirg‘izlar madaniyati, tili, dini, dunyoqarashi, urf-odati bir-birining qalbidagi his tuyg‘ularini gapirmasdan tushunadigan qon-qarindosh xalqlardan biri bo‘lib, buning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

O‘zbekistonda qirg‘izlar emin-erkin yashash bilan birgalikda o‘z ona tillarida ta’lim olish huquqiga ham ega. Ayni paytda, Respublikada qirg‘iz millatiga mansub 300 mingdan ziyod aholi Andijon, Farg‘ona, Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida yashab kelmoqda. Qirg‘iz milliy madaniy markazlari respublikaning 5 ta viloyatida faoliyat ko‘rsatib, asosan qirg‘iz tili, madaniyati, urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish borasida faoliyat olib boradi.

O‘zbekistonda qadimdan o‘zbeklar bilan birga yonma-yon yashab kelayotgan xalqlardan biri tojiklar bo‘lib milliy urf-odatlarini saqlab, rivojlantirib kelmoqdalar. Tojik va o‘zbek xalqi nafaqat bir-birlarini urf-odat, an’analariiga, balki tillariga ham xurmat bilan qaraganligi tarixiy manbalardan ma`lum. Ayniqsa bu borada o‘zbek namoyondalari S. Ayniy, X. H. Niyoziy, Fitrat kabi yozuvchi shoirlarni misol qilib keltirish mumkin. Ular o‘z asarlarini o‘zbek va tojik tillarida yozgan va har ikki tilni mukammal bilgan. Taniqli adib G‘ofur G‘ulom esa tojik tilida erkin so‘zlasha olgan va ko‘plab asarlarni fors-tojik tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda bir milliondan ortiq tojiklar istiqomat qiladi. O‘zbekistonlik tojiklar ham o‘z birliklarini saqlab qolish, milliy urf-odat va an`analarni rivojlantirish maqsadida 1990-yil 8-iyunda “Oriyono” markazini tashkil qildi[8]. O‘zbekiston hududining tojiklar ko‘p yashaydigan qismida tojik tilida gazetalar nashr etiladi va radio eshitirish, ko‘rsatuvlar efirga uzatiladi. 2000-yildan boshlab radio va televideniyada tojik tilidagi efir hajmi ko‘paytirildi. Bundan tashqari, 2000-yil 25-aprelda tojik milliy ansambli “Irfon” jamoasi tashkil topdi. O‘zbekistonda ayrim boshqa milatlar qatori tojik tilli maktablari ham mavjud bo‘lib, ular kerakli o‘quv-qo‘lanmalar bilan doimiy ta`minlanib boriladi.

Markaziy Osiyoda minglab yillardan buyon o‘zbeklar bilan tinch, osoyishta yonma-yon yashab kelayotgan qardosh xalqlardan biri qozoqlardir. Ushbu xalq vakillari Respublika Baynalmilal madaniyat markazi, Qozoq milliy-madaniy markazi, Qozog‘iston elchixonasi va O‘zbekiston-Qozog‘iston do‘stlik jamiyati bilan hamkorlikda o‘z milliy an’analarni rivojlantirib kelmoqda. Zero, “qozoq va o‘zbek xalqlari tarixning barcha davrlarida birga bo‘lgan, yonma-yon qadam tashlab, turmushning bor shodligu g‘amini birga baham ko‘rgan”lar. 2000-yil ma’lumotlariga ko‘ra qozoq millatiga mansub aholi, asosan, Toshkent viloyatida (400 ming, shundan poytaxtda 42 ming), Navoiy viloyatining Konimex, Tomdi tumanlarida (110 ming), Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida (45 mingdan ziyod), Qoraqalpog‘istonda (350 ming) istiqomat qiladi[9].

Mustaqillikning ilk yillaridayoq qozoqlarning ota yurtlari bilan mustahkam aloqa o‘rnatishlari ularning milliy urf-odat va an`analarini saqlab qolishga, qaytadan shakllanishiga imkon berdi. Shu maqsadda Qozog‘iston elchixonasi bilan birgalikda ikki xalqning ibratli oilalari uchrashuvi o‘tkazildi. Unda milliy libosda o‘zbek va qozoq oilalari bola tug‘ilishi, tarbiyasi, beshik to‘y, bolaga ism qo‘yish, kelin tushirish, mehmon kutish, aytishuv, betochar kabi urf-odatlarini namoyish etdi. O‘zbekistonhukumati qozoq tiliga ham alohida e`tibor qaratib, qozoq millatiga mansub bolalarni o‘z ona tillarida o‘qishlari uchun sharoit yaratib bergan. Respublikada 593 ta maktabda qozoq tilida o‘qitiladigan sinflar mavjud, 288 ta maktabda esa ta’lim-tarbiya ishlari faqat qozoq tillarida olib boriladi. Qozoq tilida ta`lim olayotgan o‘quvchilar soni 160 ming nafarni tashkil etadi.

Qozoq madaniyati va urf-odatlarining qayta tiklanishida ommaviy axborot vositalari ham muhim rol’ o‘ynaydi. O‘zbekistontelevideniesida “Zamandas” va “Didar” nomli qozoq tilidagi ko‘rsatuvlar muntazam olib boriladi va shu bilan birgalikda radioda ham alohida eshittirishlar tashkil etilgan. Qozoq tilida chiquvchi “Nurlo‘ jo‘l” nomli gazetada Respublikamizdagi yangiliklar, qozoq urf-odatiga oid qiziqarli ma’lumotlar

qozoq yozuvchi va shoirlarining asarlari e'lon qilinib boriladi. Ayni paytda 30 ga yaqin shoir va yozuvchilar O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zodirlar.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleradio ko'rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar o'ndan ortiq tilda chop etilmoqda. Bu yerda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari "O'zbekiston – umumiy uyimiz!" shiori ostida birlashib, to'y-marosimlar, turli bayramlarni birgalikda nishonlaydi. Eng asosiysi, barcha qardosh va birodar vatandoshlarning milliy urf-odatlarini asrab-avaylash uchun zarur sharoit yaratilgan. Bugungi kunda milliy madaniy markazlar xalq diplomatiyasi, ya'ni mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, qo'shni mamlakatlar bilan madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonda avj olayotgan globallashuv ta'sirida odamlar hayoti, dunyoqarashi va turmush tarzi tez o'zgarib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. https://lex.uz/uz/docs/-6445145.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 16.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to'g'risi"da 13.01.1992 yildagi 10-son qarori. https://lex.uz/docs/-366853?ONDATE=13.01.1992%2000.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – T.: 2000.
5. Юсупов З. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналмилаллик. Монография. Наманган 2020.
6. Тодорова Т. Болгары в Узбекистане // Ижтимоий фикр. Инсон хуқуқлари, 2002. №1.
7. Михайлов В. Возрождая национальную культуру // Қудратимиз – бирлик ва ҳамжихатликда; Республика илмий-амалий конференция материаллари (31 март 2007 йил) – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007.
8. Набиев Т. Древнейший народ Турана // Узбекистан на пути межнационального саглация. – Т.: Университет, 1996.
9. Холбоев Т. Бирлашган ўзар // Марказий Осиё маданияти, 2000. 21-27 июл.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Ташалиева Мукарам Мурзакуловна
кандидат исторических наук,доцент
Ходжамова Нигора Абдирахимовна
Кыргызско-Узбекский Международный Университет имени Б. Садыкова
Студент группы SEO(I)m-1-20
Email: mukaram7171@mail. ru

УДК:39:316.7(575.1)

К ИСТОРИИ КАРАТЕГИНСКИХ КЫРГЫЗОВ

Аннотация: *Исследование посвящено каратегинским кыргызам – уникальной этнографической группе, сформировавшейся под влиянием сложных исторических, географических и социокультурных факторов. Анализ их традиционного уклада жизни, социальной организации и современных трансформаций позволяет не только углубить понимание этногенеза кыргызского народа, но и выявить особенности локальной идентичности. Особое внимание уделяется вопросам сохранения традиционной культуры в условиях глобализации и миграционных процессов. Источниковая база исследования включает письменные и устные свидетельства, в том числе средневековые китайские, арабские и персидские хроники, архивные документы Российской империи и Советского Союза, а также современные этнографические и антропологические труды.*

Ключевые слова: *Каратегинские кыргызы, этногенез, локальная идентичность, традиционная культура, миграционные процессы, этнические процессы, социальная организация, историческое развитие, источниковая база, Центральная Азия.*

Tashalieva Mukaram Murzakulovna
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor
Khodjamova Nigora Abdirakhimovna
Kyrgyz-Uzbek International University named after B. Sadykov
Student of group SEO(I)m-1-20

ON THE HISTORY OF THE KARATEGIN KYRGYZ

Abstract: *The study is devoted to the Karategin Kyrgyz, a unique ethnographic group formed under the influence of complex historical, geographical and socio-cultural factors. Analysis of their traditional way of life, social organization and modern transformations allows not only to deepen the understanding of the ethnogenesis of the Kyrgyz people, but also to identify the features of local identity. Particular attention is paid to the issues of preserving traditional culture in the context of globalization and migration processes. The source base of the study includes written and oral evidence, including medieval Chinese, Arabic and Persian chronicles, archival documents of the Russian Empire and the Soviet Union, as well as modern ethnographic and anthropological works.*

Key words: *Karategin Kyrgyz, ethnogenesis, local identity, traditional culture, migration processes, ethnic processes, social organization, historical development, source base, Central Asia.*

Tashalieva Mukaram Murzaqulovna
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xodjamova Nigora Abdiraximovna
B.Sodiqov nomida Qirg‘iz-O‘zbek xalqaro universiteti
SEO(I)m-20 guruh talabasi

QORATEGIN QIRGIZLAR TARIXI HAQIDA

Annotatsiya*: Tadqiqot murakkab tarixiy, geografik va ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllangan noyob etnografik guruh – qorategin qirg‘izlariga bag‘ishlangan. Ularning an’anaviy turmush tarzi, ijtimoiy tuzilishi va zamonaviy o‘zgarishlarini tahlil qilish nafaqat qirg‘iz xalqining etnogenezini chuqur anglash, balki mahalliy o‘ziga xoslik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.*

Globallashuv va migratsiya jarayonlari sharoitida an'anaviy madaniyatni saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotning manba bazasini yozma va og'zaki dalillar, jumladan, o'rta asr xitoy, arab va fors yilnomalari, Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi arxiv hujjatlari, shuningdek, zamonaviy etnografik va antropologik asarlar tashkil etadi.

***Tayanch so'zlar**: Qorategin qirg'izlari, etnogenez, mahalliy o'ziga xoslik, an'anaviy madaniyat, migratsiya jarayonlari, etnik jarayonlar, ijtimoiy tashkilot, tarixiy taraqqiyot, manba asos, O'rta Osiyo.*

Введение

Каратегинские кыргызы представляют собой уникальную этнографическую группу, обладающую самобытной культурой, языковыми особенностями и историческим наследием. Их изучение позволяет не только углубить понимание этногенеза кыргызского народа, но и выявить специфические черты локальной идентичности, сформировавшиеся под влиянием географических, исторических и социокультурных факторов. Район Каратегина (ныне территория Таджикистана) исторически служил местом контакта различных этнических групп, что отразилось на формировании уникального уклада жизни его кыргызского населения. В современных условиях глобализации и миграционных процессов проблема сохранения традиционной культуры каратегинских кыргызов становится особенно актуальной. Кроме того, недостаточная изученность данной темы в отечественной и зарубежной историографии делает её перспективной для дальнейших научных исследований. Анализ исторического развития, традиционного хозяйствования, социальной организации и современных трансформационных процессов среди каратегинских кыргызов позволяет заполнить пробелы в научном знании и расширить представления о динамике этнических процессов в Центральной Азии [1.45-78 с].

Литература и метод

Источниковая база исследования включает как письменные, так и устные сведения. Среди письменных источников можно выделить: средневековые китайские, арабские и персидские хроники, содержащие упоминания о кыргызах и их миграциях. Документы Российской империи и Советского Союза, отражающие административно-территориальное устройство и этнографические особенности каратегинских кыргызов. Современные этнографические и антропологические исследования, посвященные языковым и культурным особенностям региона.

Обсуждение

Сведения о Каратегинских кыргызов можно встретить в работах, посвященных истории кыргызского народа в целом, этнографии Центральной Азии и процессам взаимодействия оседлого и кочевого населения. Однако в большинстве случаев данные о каратегинских кыргызах остаются фрагментарными, что обуславливает необходимость их детального изучения.

Цель статьи - анализ исторического развития, этнокультурных особенностей и современной идентичности каратегинских кыргызов.

Shu yerda sun'iy intellekt asosida biometrik identifikatsiya qilish, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish, elektr ta'minoti billingi bo'yicha axborot berildi. Davlatimiz rahbari ijtimoiy sohalar, ayniqsa, tibbiyot sohasining raqamli tizimini takomillashtirish, odamlarni rozi qilish zarurligini ta'kidladi."[1] Dastlab vazifalarni avtomatlashtirish va aloqani yaxshilash

[1] https://president.uz/uz/lists/view/6937 - Президент рақамли технологиялар соҳасидаги натижалар ва режалар билан танишди. Мурожаат этилган сана: 02.03.2024 й.

maqsadida yaratilgan raqamli muhit kengayib, inson hayotining turli jabhalariga, jumladan ta'lim, biznes va ijtimoiy munosabatlarga chuqur singib bordi. Internetning shiddat bilan tarqalishi va texnologik yutuqlar g'oyalar va resurslarni uzluksiz almashish imkonini berdi, bu esa misli ko'rilmagan bog'lanish va qulaylik bilan tavsiflanadigan yangi davrni boshlab berdi. "Darhaqiqat, axborot asri deb nom olgan XXI asrda axborot energiya manbalari, tabiiy boyliklar kabi strategik resursga aylanib, boy axborot imkoniyatlari mamlakatlar salohiyatiga xizmat qilmoqda."[2] Ushbu o'zgaruvchan bosqichlarni tahlil qilish orqali raqamli muhitning jamiyat tuzilmalari va shaxsiy xulq-atvorga ko'rsatgan chuqur ta'sirini yanada teranroq tushunish mumkin, bu esa keyingi muhokamalar uchun keng qamrovli asos yaratadi.

Raqamli muhit raqamli texnologiya va internet yaratgan ko'p qirrali makonni qamrab oladi. Bu makon foydalanuvchilar o'rtasida muloqot, axborot almashish va hamkorlikni ta'minlaydi. U asosan ijtimoiy tarmoqlardan tortib onlayn ta'lim va raqamli savdogacha bo'lgan turli xil raqamli o'zaro aloqalar uchun platforma vazifasini bajaradi. Bularning barchasi vaqt o'tishi bilan sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Bundan tashqari, elektron kutubxonalarining raqamli muhitdagi roli axborot resurslaridan keng foydalanish zarurati ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu muassasalar raqamli dunyoda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga intilib, axborot-qidiruv tizimlarini takomillashtiradigan ochiq kodli yechimlarni izlaydilar. Bu esa raqamli muhitga xos bo'lgan hamkorlik ruhini mustahkamlaydi.[3]

Raqamli tarix yo'nalishini insonning texnologiyalar bilan o'zaro munosabatini tubdan o'zgartirgan bir nechta muhim bosqichlar orqali belgilash mumkin. XX asr oxirida internetning paydo bo'lishi global tarmoqlar bo'ylab axborot va aloqaga misli ko'rilmagan darajada kirishish imkonini yaratgan muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Shundan so'ng, XXI asr boshlarida ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi shaxsiy ifoda va aloqa manzarasida inqilob yasadi, jamiyat tuzilmalari va madaniy muloqotni o'zgartirdi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va qo'shimcha ishlab chiqarish sohasidagi yutuqlar turli sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatib, unumdorlik va innovatsiyalarni oshirdi. Tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu texnologik yutuqlar nafaqat iqtisodiy tuzilmalarni o'zgartirdi, balki axloq va jamiyatga oid muhim savollarni ham ko'tardi. Bu esa inson-mashina-atrof-muhit munosabatlarida doimiy moslashuv va o'zgarish jarayonini keltirib chiqardi.[4] Bundan tashqari, geofazoviy axborot infratuzilmalarining rivojlanishi ushbu yutuqlarning murakkabligini ta'kidlab, standartlashtirish va texnologik rivojlanish o'rtasida nozik muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatmoqda.[5]

Raqamli muhitning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganishda raqamli makonning ko'p qirrali tabiatini va ularning zamonaviy jamiyatga ko'rsatayotgan chuqur ta'sir qiladi. Raqamli texnologiyaning paydo bo'lishidan to hozirgi murakkab holatigacha bo'lgan tarixiy yo'nalishini kuzatib, texnologik taraqqiyot va inson xatti-harakatlarining o'zaro bog'liqdir. Bu tadqiqot faqatgina tarixiy emas; u raqamli muhitlarning ta'lim, muloqot va madaniyatga ta'sirini aniqlashga, bu makonlar o'zaro munosabatlarni qanday shakllantirishi hamda savodxonlik va demokratiyaning yangi shakllarini qanday rivojlantirishini ko'rsatib berishga intiladi. "Impact: The Journal of the Center for Interdisciplinary Teaching & Learning" jurnalida e'lon qilingan fanlararo tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, raqamli muhit evolyusiyasini tushunish kelajakdagi manfaatdor tomonlar uchun keng qamrovli ta'lim tizimini yaratishda juda muhimdir.[6] Bundan tashqari, nazariy asoslar va zamonaviy amaliyotlarni ko'rib chiqish orqali texnologiya va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarning yaxlit manzarasini taqdim etishga harakat qiladimiz.

Adabiyotlar tahlili.

Raqamli texnologiyalar kelib chiqishini o'rganishda Alan Tyuring va U. Ross Eshbi kabi kashfiyotchi olimlar tomonidan taklif etilgan asosiy nazariyalarni hisobga olish lozim. Ularning kognitiv jarayonlarni modellashtirish bo'yicha o'ziga xos, ammo o'zaro bog'liq yondashuvlari ramzlarga asoslangan hisoblash va mujassamlashgan bilishning nozik tushunchasini ochib beradi. Har ikkala olim ham intellekt va tizimlarga rasmiy matematik tamoyillardan boshlab, biologik hodisalarni tushunish tomon yondashib, sun'iy intellektni rivojlantirishdagi an'anaviy qarama-qarshiliklarni rad etdilar.[7] Bundan tashqari, YUNESKOning "Internetning universalligi" kabi tashabbuslari bilan ifodalangan raqamli makondagi inson huquqlari tamoyillarining rivojlanishi onlayn ishtirok bilan bog'liq ajralmas huquqlarni tan olishga qaratilgan muhim o'zgarishlarni ta'kidlaydi. Bu esa internet boshqaruvi va foydalanish imkoniyati atrofidagi davom etayotgan munozaralarni yanada chuqurlashtiradi. Bunday o'zaro

[2] Ражабов Ҳ. Глобалашшув шароитида давлатнинг ахборот сиёсати (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2018 й. – Б. 52.

[3] Dias, Miguel, Mariano, Alexandra de Brito. (2009). Public Libraries: techno trends and collective memory. Greenlines Institute, https://core.ac.uk/download/61507626.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[4] Canela M, Joaquim, Blanco M, Asier. (2017). Digital manufacturing: what are we able to print?. 'David Publishing Company', https://core.ac.uk/download/157811997.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[5] A Aksulu A,Degbelo A,Powell A,Rajabifard ANZLIC, B Jiang, Nosek B, et al.. (2019). Geospatial information infrastructures. 'Springer Science and Business Media LLC', https://core.ac.uk/download/322902166.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[6] https://open.bu.edu/server/api/core/bitstreams/d52910bd-e671-42f9-8dfb-6a89d0dfb2fd/content

[7] Greif, Hajo. (2018). 'The Action of the Brain'. Machine Models and Adaptive Functions in Turing and Ashby. https://core.ac.uk/download/186329918.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

ta’sirlar raqamli muhitda texnologiyani axloqiy talablar bilan bog‘laydigan yaxlit tezisning zarurligini ko‘rsatadi.[8]

Raqamli muhitning kelib chiqishini an’anaviy ekotizimlardan raqamli ekotizimlarga o‘tishni boshlagan texnologik yutuqlar va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning yaqinlashuvidan kuzatish mumkin. Tashkilotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) tobora ko‘proq qo‘llay boshlagach, ular bu vositalardan o‘z biznes strategiyalarini yangilash va optimallashtirish uchun foydalana boshladilar, natijada Raqamli biznes ekotizimlari paydo bo‘ldi. Tashkiliy o‘zgarishlar va tizimlar nazariyasi tufayli ushbu ekotizimlar ichidagi ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir innovatsiya va moslashuvchanlik ushbu evolyusiyaning ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi.[9] Bundan tashqari, raqamli san’at evolyusiyasi va uning texnologiyalar bilan aloqasi ijodkorlik va raqamli landshaft o‘rtasidagi doimiy o‘zaro ta’sirni ta’kidlab, ijodkorlar va texnologlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab evolyusiyani namoyish etadi. “So‘nggi uch yilda axborot texnologiyalari sohasiga katta e’tibor qaratilgani o‘z natijasini beryapti. O‘tgan yili IT-park rezidentlari 5 trillion so‘mlik xizmatlar ko‘rsatgan, 140 million dollarlik xizmatlarni eksport qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavjud 715 ta davlat xizmatidan 370 tasi raqamli platformaga o‘tkazilgan bo‘lib, ulardan o‘tgan yili 12 million aholi foydalangan. Raqamlashtirish natijasida 70 dan ortiq turdagi ma’lumot va hujjatlarni aholidan talab qilish bekor bo‘lgan.”[10] Bu dinamika nafaqat badiiy chegaralarni qayta belgiladi, balki zamonaviy raqamli muhitning murakkab to‘riga poydevor qo‘ygan holda raqamli metodologiyalarni qabul qilishga kengroq o‘tishni ham tavsifladi.

Dastlabki hisoblash qurilmalarining paydo bo‘lishi texnologik taraqqiyot yo‘nalishida burilish nuqtasi bo‘lib, jamiyat operatsiyalarini ham, axborot bilan individual o‘zaro ta’sirni ham tubdan o‘zgartirdi. Bundan tashqari, dasturlashtiriladigan simsiz tarmoqlarning rivojlanishi an’anaviy arxitekturalar tomonidan qo‘yilgan tarixiy cheklovlarni bartaraf etib, hisoblash tizimlarini zamonaviy talablarga moslashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu elementlar birgalikda zamonaviy raqamli muhitni shakllantirishda dastlabki hisoblash qurilmalarining asosiy rolini yoritib beradi.

Dastlabki kompyuterlarning rivojlanishi texnologiya evolyusiyasida hal qiluvchi burilish nuqtasi bo‘lib, bugungi kunda biz harakat qilayotgan raqamli manzara uchun poydevor yaratdi. ENIAC va UNIVAC kabi dastlabki tajribalar misli ko‘rilmagan innovatsiyalar davrini anglatib, hisoblash vazifalarini inson mehnatidan mexanik samaradorlikka o‘tkazishda ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu dastlabki mashinalar, garchi zamonaviy standartlar bo‘yicha ibtidoiy bo‘lsa-da, zamonaviy hisoblash texnikasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dasturlash va ma’lumotlarni qayta ishlash kabi asosiy tushunchalarni kiritdi. Tadqiqotchilar texnologiya va ta’lim o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni kuzatib, raqamli vositalardagi yutuqlar pedagogik yondashuvlarga katta ta’sir ko‘rsatganini, matematika va mobil ta’lim kabi sohalarda yangi metodologiyalar paydo bo‘lganini ta’kidladilar.[11] Bu o‘zaro ta’sir kompyuterlarning akademik muhitni qayta shakllantirish, raqamli savodxonlik ta’limni rivojlantirishning ajralmas qismiga aylangan madaniyatni shakllantirish va texnologiyaning jamiyatdagi o‘rni haqidagi keng qamrovli muloqotni kuchaytirish salohiyatini namoyon etdi.

Tahlil va natijalar.

Internet paydo bo‘lishi inson muloqoti va axborot tarqatishda tub burilish yaratib, bugungi kunda biz harakatlanadigan raqamli muhitning poydevorini qo‘ydi. Dastlab tadqiqotchilar va harbiylar uchun mustahkam tarmoq sifatida yaratilgan bo‘lsa-da, u tez orada turli fikrlar yangraydigan ommaviy maydonchaga aylandi. Axborotning bunday demokratlashuvi sezilarli madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi, an’anaviy kuch munosabatlarini sinab ko‘rdi va chekka guruhlarga o‘z fikrlarini jazolanishdan qo‘rqmasdan ifoda etish imkonini berdi. Biroq, bu yangi erkinlik murakkab muammolar bilan birga keldi. Masalan, raqamli muloqotlar haqidagi munozaralarda anonimlik va xavfsizlik o‘rtasidagi ziddiyat tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bundan tashqari, internet texnologiyalari rivojlangani sain, ular o‘ziga xos madaniy o‘zlikni shakllantirdi. Shunday qilib, internetning paydo bo‘lishi shaxsiyat, kuch va raqamli jamiyat tuzilishi haqidagi davom etayotgan muhokamalarga turtki beruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dastlabki raqamli inqilob bir qator muhim shaxslar tomonidan shakllantirildi, ularning innovatsiyalari zamonaviy raqamli muhit uchun asos yaratdi. Butunjahon o‘rgimchak to‘rini yaratgan Tim Berners-Li va shaxsiy kompyuterlarni ommalashtirgan Stiv Jobs kabi bashoratchilar texnologiyalarni keng ommaga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynadilar. Bu shaxslar nafaqat innovasion texnologiyalarni ishlab chiqdilar, balki jamiyatning raqamli vositalar bilan o‘zaro munosabatiga ham ta’sir ko‘rsatdilar. Ushbu davrda xizmatlar sohasining yuksalishi

[8] Peters, Michael A. (2014). "Internet universality": Human rights and principles for the internet. 'Addleton Academic Publishers', https://core.ac.uk/download/29202440.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[9] FARIH, Hanaa WAHABI, Rachid. (2022). Emergence of Digital Business Ecosystems: A theoretical framework. International Journal of Accounting, Finance, Auditing, Management and Economics, https://core.ac.uk/download/551578526.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[10] https://president.uz/uz/lists/view/5943 - Ахборот технологиялари соҳасидаги вазифалар муҳокама қилинди. Мурожаат этилган сана: 05.07.2024 й

[11] Arnedillo-Sánchez, Inmaculada, Kukulska-Hulme, Agnes, Milrad, Marcelo, Sharples, et al.. (2011). The genesis and development of mobile learning in Europe. Information Science Reference (an imprint of IGI Global), https://core.ac.uk/download/3814.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

misolida an'anaviy tarmoqlarning o'zgarishi raqamlashtirishning iqtisodiy oqibatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu haqda uning iqtisodiyotni tizimli qo'llab-quvvatlashiga bag'ishlangan tadqiqotlarda batafsil ma'lumot berilgan.[12] Bundan tashqari, biznes modellarining rivojlanishi, ayniqsa ikkinchi raqamli inqilob davrida, mehnat dinamikasi va ishlab chiqarish qonuniyatlarining o'zgarishini belgilab, global ishchi kuchining tobora ko'proq o'zaro bog'lanishiga hissa qo'shdi. Bunday hissalar ushbu shaxslarning raqamli muhit rivojlanish yo'nalishiga ko'rsatgan sezilarli ta'sirini ta'kidlaydi.

Analog texnologiyadan raqamli texnologiyaga o'tish aloqa, tijorat va keng qamrovli raqamli muhitni qayta shakllantirgan tub o'zgarishdir. Bu jarayon tashkilotlar va shaxslar analog tizimlarning shovqin va buzilishga moyilligi kabi cheklovlarini tan olganlaridan so'ng boshlandi, bu esa yanada ishonchliroq muqobillarni izlashga undadi. Narsalar interneti kabi innovatsiyalar bilan quvvatlangan raqamli texnologiyalar nafaqat operasion samaradorlikni oshirdi, balki turli sohalarda ma'lumotlarni boshqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini tubdan o'zgartirdi.[13] Bundan tashqari, 5 G tarmog'ining joriy etilishi misolida yuqori o'tkazuvchanlikka ega tarmoqlarning paydo bo'lishi sanoatni rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanishga undamoqda, bu esa aloqa va ulanish sohasida yangi yutuqlarga erishish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ushbu raqamli tizimlar rivojlanishda va takomillashishda davom etar ekan, ular doimiy moslashuv va innovatsiyalarni talab qiladigan dinamik ekotizimga hissa qo'shmoqda hamda raqamli muhitda texnologik rivojlanishning davom etayotgan hikoyasida muhim bosqichni belgilamoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhitning paydo bo'lishi va rivojlanishi ham shaxsiy, ham tashkiliy amaliyotda tub o'zgarishlarni ko'rsatadi, bu esa texnologiya va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqani aks ettiradi. Raqamli vositalar turli sohalarga tobora chuqur kirib borar ekan, ularning ta'lim va operasion tizimlarni takomillashtirish uchun ikki tomonlama salohiyatini tan olish lozim. Raqamli muhit evolyusiyasini ko'rib chiqishda uning murakkabligi va o'zgaruvchan salohiyatini ta'kidlovchi bir qator muhim jihatlar namoyon bo'ladi. Raqamli vositalarning ta'lim tizimlariga, ayniqsa matematika fanlariga joriy etilishi ham istiqbolli natijalar, ham sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Veb-to'qish va instrumental orkestratsiya kabi tushunchalar o'qituvchilar va raqamli resurslar o'rtasidagi ko'p qirrali o'zaro ta'sirni ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://president.uz/uz/lists/view/6937 - Президент рақамли технологиялар соҳасидаги натижалар ва режалар билан танишди. Мурожаат этилган сана: 02.03.2024 й.

2. Ражабов Ҳ. Глобалашшув шароитида давлатнинг ахборот сиёсати (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2018 й. – Б. 52.

3. Dias, Miguel, Mariano, Alexandra de Brito. (2009). Public Libraries: techno trends and collective memory. Greenlines Institute, https://core.ac.uk/download/61507626.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

4. Canela M, Joaquim, Blanco M, Asier. (2017). Digital manufacturing: what are we able to print?. 'David Publishing Company', https://core.ac.uk/download/157811997.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

5. A Aksulu A,Degbelo A,Powell A,Rajabifard ANZLIC, B Jiang, Nosek B, et al.. (2019). Geospatial information infrastructures. 'Springer Science and Business Media LLC', https://core.ac.uk/download/322902166.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

6. https://open.bu.edu/server/api/core/bitstreams/d52910bd-e671-42f9-8dfb-6a89d0dfb2fd/content

7. Greif, Hajo. (2018). 'The Action of the Brain'. Machine Models and Adaptive Functions in Turing and Ashby. https://core.ac.uk/download/186329918.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

8. Peters, Michael A. (2014). "Internet universality": Human rights and principles for the internet. 'Addleton Academic Publishers', https://core.ac.uk/download/29202440.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

9. FARIH, Hanaa WAHABI, Rachid. (2022). Emergence of Digital Business Ecosystems: A theoretical framework. International Journal of Accounting, Finance, Auditing, Management and Economics, https://core.ac.uk/download/551578526.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

10. https://president.uz/uz/lists/view/5943 - Ахборот технологиялари соҳасидаги вазифалар муҳокама қилинди. Мурожаат этилган сана: 05.07.2024 й

[12] Britchenko, Igor, Cherniavska, Tetiana, Machashchik, Paweł. (2018). New Trends in Development of Services in the Modern Economy. https://core.ac.uk/download/323058294.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

11. Arnedillo-Sánchez, Inmaculada, Kukulska-Hulme, Agnes, Milrad, Marcelo, Sharples, et al.. (2011). The genesis and development of mobile learning in Europe. Information Science Reference (an imprint of IGI Global), https://core.ac.uk/download/3814.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

12. Britchenko, Igor, Cherniavska, Tetiana, Machashchik, Paweł. (2018). New Trends in Development of Services in the Modern Economy. https://core.ac.uk/download/323058294.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

13. Allioui H, Mourdi Y. (2023). 'Exploring the Full Potentials of IoT for Better Financial Growth and Stability: A Comprehensive Survey'. Sensors, Volume(23), 8015-8015, https://doi.org/10.3390/s23198015 (Accessed: 20 Feb, 2025).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

I.Sh.Ahmedova
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bo‘lim boshlig‘i,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, PhD, dotsenti

RADIKALIZMNING VUJUDGA KELISHI HAMDA UNING JAHON HAMJAMIYATI VA DAVLATLAR BARQAROR RIVOJIGA TAHDIDI

Annotatsiya: *Hozirgi kunda dunyoda shiddat bilan o‘zgarayotgan murakkab vaziyat, turli g`oyaviy urushlar, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligini ta`minlash hamda turli xavf-xatarlarga dadil javob berishga tayyor turishimiz lozimligini taqozo qilmoqda. Maqolada ham shunday murkkab vaziyatda jahon hamjamiyati va davlatlarning rivojiga radikalizmning tahdidi va u orqali keladigan zararlar haqida mulohaza qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Radikalizm, ekstremizm, terrorizm, hamjamiyat, globallashuv.*

И.Ш.Ахмедова
Заведующий отделом комитета по делам религий Республики Узбекистан,
доктор философии, доцент международной исламской академии Узбекистана

ВОЗНИКНОВЕНИЕ РАДИКАЛИЗМА И ЕГО УГРОЗЫ УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ МИРОВОГО СООБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВ

Аннотация: *Сложная ситуация, которая сейчас бурно меняется в мире, требует, чтобы мы были готовы к различным идеологическим войнам, обеспечению мира и благополучия нашей страны и смелому реагированию на различные опасности. В статье также рассматривалась угроза радикализма и наносимый им ущерб развитию мирового сообщества и государств в такой сложной ситуации.*

Ключевые слова: *радикализм, экстремизм, терроризм, сообщество, глобализация.*

I.Sh.Ahmedova
Head of the Department of the Committee on religious affairs of the Republic of Uzbekistan,
associate professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD

THE EMERGENCE OF RADICALISM AND ITS THREAT TO THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE WORLD COMMUNITY AND STATES.

Annotation: *At present, the complex situation that is changing rapidly in the world, various ideological wars, peace of our country and the well-being of our people, and we need to be prepared to respond boldly to various risks. The article also reflected on the threat of radicalism to the development of the world community and states in such a murkkab situation and the harm that comes through it.*

Keywords: *radicalism, extremism, terrorism, community, globalization.*

Globallashuv va axborot asri deb yuritilayotgan XXI asrda jahon ahli ko‘plab sinovlarga duch keldi. Globallashuv jarayonlarining jadal sur`atlarda rivojlanib borayotganligi milliy chegaralarning yaqinlashuvi bilan bir qatorda insonlarning universallashib borishiga, insonlarda, ayniqsa o‘sib kelayotgan yoshlarda kosmopolitizmning[14] rivojlanishiga olib keldi. Binobarin, bir tomonda insoniyatning mushtarak bo‘lgan manfaatlarini ko‘zlab, yangicha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar qaror topayotgan bo‘lsa, ikkinchi

mobile learning in Europe. Information Science Reference (an imprint of IGI Global), https://core.ac.uk/download/3814.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[14] Britchenko, Igor, Cherniavska, Tetiana, Machashchik, Paweł. (2018). New Trends in Development of Services in the Modern Economy. https://core.ac.uk/download/323058294.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[14] Allioui H, Mourdi Y. (2023). 'Exploring the Full Potentials of IoT for Better Financial Growth and Stability: A Comprehensive Survey'. Sensors, Volume(23

tomondan tor doiradagi manfaatdorlari bo‘lgan diniy, milliy, etnik ruhdagi ekstremizm, terrorizm, narkobiznes, odam savdosi, qurol savdosi, ijtimoiy tengsizlik, radikalizm singari tushunchalar insoniyatni tahlikaga solmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bunday havfli illatdan O‘zbekiston mamlakati ham to‘laligicha holi bo‘lmaganligiga izoh berib, quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, shovinizm, millatchilik, diniy ziddiyatlar bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda”[15] Shu o‘rinda radikalizm o ‘zi nima? degan savolga javob berib ketish o‘rinli bo‘ladi.

Radikalizm (lotincha radix – ildiz) – siyosiy tuzum va ijtimoiy institutlarni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan g‘oya va harakatlarni ifodalovchi siyosiy, diniy oqim.

Radikalizm umume'tirof etilgan an'analarga butunlay zid munosabatda bo‘lib, keskin harakatlarni yoqlab chiqadi. Tarixda bu atama mo‘tadil islohotlar tarafdorlariga nisbatan ham qo‘llangan. Masalan, Buyuk Britaniyada (1832) "islohotlar to‘g‘risidagi Bill"ning muxoliflariga nisbatan radikalizm atamasi qo‘llangan. Keyinroq esa utilitarizm asoschilaridan I.Bentam va uning izdoshlari "falsafiy radikallar" deb ataldi. Hozir qator so‘l siyosiy partiyalarga nisbatan ham radikalizm tushunchasi qo‘llanadi.

O‘rta asrlar so‘nggi va yangi davr boshida radikalizm demokratiya shiorlari bilan chiqdi. Uning tarafdorlari (Lokk, Russo va boshqa) notabiiy ijtimoiy munosabatlar va sharoitlarni radikal tarzda oqilona tartiblar bilan almashtirish g‘oyasini ilgari surdi. Anarxistlar esa jamiyatdagi huquqni himoya qiluvchi idoralarning ortiqchaligi, inson erkini tubdan kengaytirish lozimligini yoqlab chiqdi. Ularning g‘oyaviy rahnamosi u.Godvin inson aql-zakovat va erkinlik ramzidir, shuning uchun uning erkini cheklash kerak emas, degan g‘oyani ilgari surdi. Hozirgi davr radikalizmga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri ijtimoiy hayotning ham nazariy, ham amaliy muammolarini hal qilishda zo‘rlik usulidan foydalanishga moyillikdir. Tinch yo‘l bilan hal qilish mumkin bo‘lgan oddiy muammolarni echishda ular kuch, zo‘ravonlikdan foydalanishga intiladi. Tarixning burilish nuqtalarida, tanglik yuz bergan holatlarda radikalizm avj oladi.

Hozirgi radikalizm ekstremizmning nazariy manbai bo‘lib, ijtimoiy muammolarni hal qilishda zo‘rlik usullari va vositalaridan foydalanmoqda. Hozirgi paytda radikal kayfiyatlar va qarashlar aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar orasida, lyumpenlashuv kuchaygan mamlakatlarda ko‘proq kuzatilmoqda. XX asrda yuz bergan ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli aqliy mehnat vakillari miqdorining keskin oshishi har doim ham ularning moddiy turmush darajasining ko‘tarilishi va ijtimoiy mavqeining ortishi bilan birga kechmaydi. Ayniqsa, ijtimoiy inqiroz va tanglik davrlarida ziyolilarning lyumpenlashuvi kuchayadi. Bu esa ular orasida radikal kayfiyatning avj olishiga sabab bo‘ladi. Tarixiy taraqqiyot shundan guvohlik beradiki, radikallar hokimiyat tepasiga kelgan taqdirda ham ularning hukmronligi uzoq davom etmaydi. Etmish yildan ortiqroq hukmronlikdan keyin bolsheviklar tarix sahnasidan uloqtirib tashlandi.

Sobiq sho‘rolar tuzumi o‘rnida tashkil topgan mustaqil davlatlar hududida rivojlanishning dastlabki bosqichida radikal oqimlar paydo bo‘la boshladi. Bu oqimlar ba'zi mamlakatlarda fuqarolar urushini keltirib chiqardi. Uning ko‘pchiligida siyosiy radikalizm diniy niqob ostida namoyon bo‘ldi. Ular Islom davlati qurish, Xalifalikni qayta tiklash shiorlari bilan chiqib, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy rivojini to‘xtatishga, bu jarayonni ortga – o‘rta asrlarga qaytarishga intilayotgani o‘ta xatarlidir. Diniy aqidaparastlik ham radikalizmning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Diniy radikalizmning mazmun-mohiyati radikalizmning boshqa ko‘rinishlari kabi o‘ziga mos kelmaydigan boshqa har qanday oqim va qarashlarga nisbatan murosasizlikda, jamiyat taraqqiyotiga zid, g‘ayriinsoniy g‘oya va qarashlarni ilgari surishda namoyon bo‘ladi. Dinning qandaydir bir yo‘nalishini buzgan holda talqin etib, siyosiy maqsadni ko‘zlovchi harakat din niqobi ostidagi ekstremizmga olib keladi. Ekstremizmning ushbu turi qanday nomlanmasin yoki qanday ko‘rinishga ega bo‘lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarni shakllantirish orqali hokimiyatni qo‘lga olishdan iboratdir.

Ekstremizm va terrorizmning jahon hamjamiyati va alohida davlatlarga solayotgan tahdidi bo‘yicha ayrim raqamlarga e`tibor qaratadigan bo‘lsak, 1970-2004 yillarda jahonda 6000 dan ortiq terroristik harakatlar sodir bo‘lgan va ularda 20000 dan ortiq kishilar qurbon bo‘lgan. Hozirgi davrda ayniqsa ISHID, “Hizbut tahrir” tashkilotlari zulm-zo‘ravonlikni kuchaytirib bormoqda. Bunga misol 2004 yil sentabr oyida sodir bo‘lgan Rossiyaning Beslan shahridagi terroristik harakatda 331 kishi (shundan 151 tasi yosh bolalar) o‘ldirildi. O‘z-o‘zini o‘ldirish yo‘li bilan 2000-yilning o‘zida Rossiyada 80 dan ortiq kishi halok bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Yoki ISHID (Iroq va Shom islom davlati) tashkiloti tomonidan o‘zini yoqlamaydigan minglab kishilar va yirik ulamolarni kofirga chiqarib, ularni halok qildi.

«Hizb ut-Tahrir» va «IShID» kabi terrorchi tashkilotlar go‘yoki dinga xizmat qilishdek sharafli ishni amalga oshirayotganlarini da`vo qilsalarda, aslida hukumatga va Islomga qarshi harakat qilayotganlari isbotini topmoqda. IShID tarafdorlari va jangarilari tomonidan nafaqat Iroq va Suriya hududlarida, balki Yevropa va Osiyoning ko‘plab mintaqalarida terrorchilik harakatlari amalga oshirilishi xavfi bor. Shuningdek, IShID qo‘lida katta miqdorda qurol-yarog` va talon-taroj yo‘li bilan topilgan mablag`lar to‘planib, qisqa fursatda “al-Qoida” dan ham dahshatli tashkilotga aylandi. IShID musulmon diyorlarida o‘rnatilgan tartibni kufrga chiqarish bilan xorijiylar aqidasini qayta tiklamoqchi bo‘lishdi. Bunday qarash yana bir adashgan firqa – azraqiya aqidasi bilan ham bir xil. Ular ham o‘zlari yashayotgan joydan boshqa yerlarni dorul kufr deyishgan, boshqa musulmonlarning qoni va molini o‘zlariga halol sanashgan.

O‘zbekiston misolida aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizga 1970-yillarning oxirlarida arab mamlakatarlaridan (Iordaniya) kelib o‘qiyotgan talabalar yashirincha faoliyat olib borgan. 1980-yillarga kelib Rahmatullo Alloma degan shaxs Andijonda ekstremistik tashkilot tuzadi. Umuman mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin turli diniy ekstremistik tashkilotlari tuzilgan bo‘lsada, ular hech qachon ommaviy tus ololmadi, xalqimiz ularga ergashmadi. Natijada ular Toxir Yo‘ldoshyev, Juma Namongoniylar rahbarligida Afg`onistonga va boshqa mamlakatarlarga chiqib ketib, “O‘zbekiston islomiy harakati” nomi bilan faoliyat ko‘rsatgan. Hozir ular o‘zlarini “Turkiston islom harakati” deb nomlagan va ular O‘zbekistonda bir necha marta qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirdi.

Ekstremistik harakat bo‘lgan «Hizbut tahrir» - ancha ustalik va firibgarlik bilan faqat g`oyaviy kurash olib boramiz deb, yoshlar ongini zaharlaydi. «Hizbut tahrir» bunda kuch ishlatish, zo‘ravonlik qilishni ko‘zda tutadi va bu jarayonni nihoyatda yashirincha saqlaydi. Ular Rossiya va Germaniyada ham terroristik tashkilot deb tan olingan. Ekstremistik va terroristik tashkilotlar ayrim guruhlar yoki shaxslar tomonidan moliyalashtiriladi.

Xalqaro ekstremistik guruhlari narkobiznes bozori bilan ham hamkorlik qiladi. Masalan: Afg`onistonda har yili 4-5 ming tonna opium ishlab chiqariladi, undan tushgan mablag` ham ekstremist – terroristlarga hizmat qiladi. Umuman olganda, ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan beovosita bog`liq bo‘lib, ekstremizm bo‘lmasa, terrorizm ham bo‘lmaydi. Ekstremizmdan o‘sib, terrorizm shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kosmopolitizm (yun. kosmopolites — kosmopolit, jahon fuqarosi) — «jahon fuqaroligi» deb atalgan g‘oyani targ‘ib qiluvchi mafkura. Iskandar (Aleksandr) yurishlari davrida paydo bo‘lgan. Uyg‘onish va Ma’rifatchilik davrlarida jahon fuqaroligi ideali olg‘a surilib (Dante, Kampanella), individning zamindor boylar zulmidan ozod bo‘lish g‘oyasini (Lessing, Gyote, Shiller, Kant, Fixte) ifodalagan. Kosmopolitizm milliy an’ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga — bevatanlikka da’vat etadi.
2. Islom Ensiklopyediya. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ”. 2004.
3. Muhammad Amin Yahyo. IShID fitnasi. –T: Movarounnahr, 2017.
4. Sayf uz – Zafar Navbahoriy. Durr ul – majolis. – T.: Yangi asr avlodi. 2006.
5. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma`naviy – ma`rifiy asoslari. – T. 2005.
6. Husnitdinov Z. Islom. yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Maxsumov Xamza Valixonovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi
KHMaxsumov@mail.ru

UDK: 373.316.3

QADRIYAT TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qadriyat tushunchasi va uning falsafiy asoslari masalasi yoritilgan. Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni bilan bog‘liq muammolar tahlili uzoq tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Vatanimiz sivilizatsiyasida qadriyatlar uyg‘unligi o‘ziga xos bir emas ikki renessansning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bugungi kunda barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga hamohang ravishda oilaviy qadryatlarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *qadriyat, axloq, me’yor, qoida, oilaviy qadryatlar, qadryatlar falsafasi.*

Махсумов Хамза Валихонович
Соискатель института повышение квалификации МВД Республики Узбекистан

ПОНЯТИЕ ЦЕННОСТИ И ЕЕ ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация: *В данной статье описывается понятие ценности и ее философские основы. Анализ проблем, связанных с сущностью и содержанием ценностей, имеет длительную историю постепенного развития. Гармония ценностей в цивилизации нашей страны создала почву не для одного, а для двух ренессансов. Сегодня в рамках всех социально-экономических и политических реформ особое внимание уделяется семейным ценностям.*

Ключевые слова: *ценность, мораль, норма, правило, семейные ценности, философия ценностей.*

Maxsumov Xamza Valixonovich
Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

THE CONCEPT OF VALUE AND ITS PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS

Abstract: *This article discusses the concept of value and its philosophical foundations. The analysis of problems related to the essence and content of values has a long history of gradual development. The harmony of values in the civilization of our homeland has created the basis for the emergence of not one, but two unique renaissances. Today, in parallel with all socio-economic and political reforms, special attention is paid to family values.*

Keywords: *value, morality, norm, rule, family values, philosophy of values.*

Kirish / Введение / Abstract.

Qadriyatlar bir qator dunyoqarashlarning asosida yotganligi va o‘sha dunyoqarashlarning markaziy qismini tashkil qilganligi bois ko‘plab mutafakkirlar qadryatlarning falsafiy tahliliga oid qarashlar va xulosalarni ilgari surganlar. Qadriyatlar falsafasiga oid tahlillar ko‘hna Sharq va Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan ham qayd etilgan. Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni bilan bog‘liq muammolar tahlili uzoq tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Insonlar qadim zamonlardanoq o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa, voqea va hodisalar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to‘g‘risida fikr yuritganlar. Zamonlar o‘tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko‘payib borgan sari, ularni hal qilishning ahamiyati ham ortib bormoqda.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish Spetamen, Alpomish, To‘maris va Shiroq kabi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik tasvirlangan bo‘lib, olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma’nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berilgan. Shuningdek, qadriyatlar falsafasi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, muayyan ilohiy qadriyatlarni milliy qadryatlar bilan qorishiq holda ifodalab borgan.

Qadriyatdar falsafasiga oid qarashlar Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Al-

Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Mirzo Bedil, Maxtumquli, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ilmiy merosida qadriyatlar falsafasiga oid tahlillar berilgan. Zero, qadriyatlarning falsafiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqllar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya’ni xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqalishi va ushbu xalq og‘zaki ijodida ko‘proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor berilganligi sabali ularning mohiyati va mazmuni ham keng talqin qilinganligi ayni haqiqatdir [1].

Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgani sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan. Ajdodlarimizning qadimgi kitobi Avesto diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma’naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o‘rin berilgan. Asarda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar namoyon etilgan. Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra insonlar yaxshilik, yorug‘lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amalda bo‘lishi lozimligi keltirilgan. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g‘alabasi uchun kurashda befarq turmasligi, yashash tarzi, ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy faoliyatida o‘z ifodasini topib o‘ziga xos islomgacha bo‘lgan davrdagi tabiiy-ilmiy va axloqiy qadriyatlarining rivojlanishiga zamin yaratgan.

Markaziy Osiyoda qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga egadir. Bu davrda islom dinining ilohiy qadriyatlari xalqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatgan.

Muhokama (Обсуждение / Discussion).

Vatanimiz sivilizatsiyasida qadriyatlar uyg‘unligi o‘ziga xos bir emas ikki renessansning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Natijada, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulug‘bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy. Bobur, Bedil, Mashrab kabi allomalarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta’siri ham beqiyos bo‘lgan. Qisqacha aytganda o‘sha davrdagi ma’naviy qadriyatlarga oid ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanib borgan [2].

Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan qarashlari to‘g‘risida ham shunday fikrni aytish mumkin. Yuqorida nomlari tilga olingan asarlarga kelganda esa dunyoda ularga qiyoslaydigan, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning umumiy tizimlari izohlangan kitoblar barmoq bilan sanarli.

Tasavvufning eng asosiy namoyandalaridan biri bo‘lgan Ahmad Yassaviy (1105-1166) diniy, ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarning o‘sha zamonga mos keladigan shartlarini islom dini nuqtai nazaridan ta’riflab bergan. Chunonchi, Ahmad Yassaviyo‘zining “Devoni hikmat” asarida ma’naviy qadriyatlarning asosiy shakllari – poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi xislatlarga ta’rif bergan. Zero, aynan Yassaviya tariqati Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, madaniy merosga katta ta’sir ko‘rsatib, ushbu tariqatning ma’naviy qadriyatlari keyinchalik mo‘g‘ul istilosidan ozodlikka erishish g‘oyalarini vujudga keltirgan. Shuningdek, ushbu ta’limot mo‘g‘ullar istilosidan oldingi davr qadriyatlarini, temuriylar davri bilan bog‘laydigan ma’naviy asoslardan biri bo‘lgan desak ham xato bo‘lmaydi [3].

Qadriyatlar falsafasida naqshbandiya tariqatining ham ilgari surgan g‘oya va qarashlarning ham o‘z o‘rni byeqiyosdir. Naqshbandiya tariqati Sharqda keng yoyilgach unga Abduurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi Sharqning zabardast mutafakkirlari chuqur hurmat bilan qaraganlar. Bunda tariqat g‘oyasidagi “qo‘l ishda, ko‘ngil Yaratganda” bo‘lishi, halollik, kamtarinlik kabi komil insonning asosiy fazilatlar targ‘ib qilingan [4].

XIX-asrning oxirlari va XX-asr boshlarida yurtimizda jadid falsafasining o‘ziga xos g‘oyalari kurtak ochib boshlaganda sharqona qadriyatlarning o‘ziga xos jaidlarga xos yo‘nalishi vujudga kelib boshlagan.

Xususan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud ahloq” asarida o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlar tizimi ta’riflab berilgan bo‘lib, asarda g‘ayrat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, nafs, vijdon, vatanni sevmoq, iffat, hayo, idrok, lafz, iqtisod, itoat, sadoqat, adolat, muhabbat va avf kabi qadriyatlar “yaxshi xulqlar” nomi ostida tahlil qilingan. Ushbu asarda tilga olingan qadriyatlar o‘sha davrda yurtimizda ma’naviy tushunchalarning ko‘lami qanchalik keng bo‘lganligini, tilimizning naqadar boyligidan dalolatdir [5].

O‘tmish allomalarining umuminsoniy qadriyatlarni sharqona ta’riflash va tavsiflash orqali qadriyatlar falsafasidagi o‘ziga xos Sharqona qadryat mezonlarning shakllangani guvohi bo‘lamiz.

Qadriyatlar falsafasi namoyon bo‘lishidagi turli holatlarning tahlilidan voqea va hodisalarning ketma-ketligi, vaqt va zamon realliklarini hisobga olish, bunday holatlarning uzluksiz takrorlanishi esa qadriyat tizimlarining ijtimoiy voqelik va taraqqiyot bilan bog‘liqligini ifodalaydigan quyidagi muhim xulosaga kelish imkonini bermoqda [6]. Ana shu xulosa qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liqlik qonunining asosiy mazmunini ifodalagan holda hozirgi zamondagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etib, mazkur

qoidalarni amaliyotga tadbiq etishag zamin yaratdi. Aniqroq aytganda mustaqillik qadryati shakllandi. O‘zbekistonda ro‘y berayotgan murakkab o‘zgarishlarning qadriyatlar sohasida namoyon bo‘lishi respublika ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarning qadriyatlar omili va mezoni bilan bog‘liq jihatlariga amaliy ta’sir ko‘rsatib, istiqlolga asoslangan yangi qadriyatlar tizimining shakllanishiga olib keldi. Natijada kishilarda qadryat tuyg‘usini to‘g‘ri talqin qilish orqali uni O‘zbekistondagi yangi islohotlarning tarkibiy qismiga singdirib borishga imkon berildi. Bunda inson – jamiyatning eng oliy qadriyati, odamzod naslini davom ettiruvchi avlod vakili, har bir shaxsning yashash huquqi daxlsizligi va hamma narsa inson uchun shiori ostida inson qadrini oshirish – taraqqiyotning asosiy mezoniga aylantirildi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi tarixiy islohotlar, avvalo, inson qadri, xalq manfaatlarini har tomonlama himoya qilish harakatlari odamlarning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlash, xalqimizni har tomonlama rozi qilishga qaratilmoqda. Barcha sohalar qatori xalqimizning tinch va osoyishta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash masalasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, Vatanimiz, fuqarolar daxlsizligini ta’minlash, tinchlik va osoyishtalikning huquqiy asoslarini yaratish yo‘lida muhim natijalarga erishib kelinmoqda.

Barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga hamohang ravishda oilaviy qadryatlarga ham alohida e’tibor qaratilib, oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a’zolarini, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan assosiy tarbiya o‘chog‘i ekanligiga e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa (Заключение / Conclusion).

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – xalq tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, mahallalardagi ijtimoiy ahvolni o‘rganish, muammoli va turmush sharoiti og‘ir bo‘lgan oilalarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad aholining farovon hayotini ta’minlash orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan. Oilaning tinchligi, farovonligi va barqaror rivojlanishi mamlakat tinchligi va aholining turmush darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Bugun yurtimizda ma’muriy hududlarda uyma-uy yurish orqali manzilli ishlarning olib borilishi natijasida mahallalarni har tomonlama o‘rganish, ayniqsa muammoli va notinch, ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan oilalarni hamda ijtimoiy og‘ir ahvolga tushib qolgan ayollarni aniqlab ularni ijtimoiy hayotning faol va namunali kishilariga aylantirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Aholini ijtimoiy, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va uni keltirib chiqaradigan omillarni o‘z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan bir qator manzilli dasturlar va chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy qadryatlarning yaratilganligi mamlakatimizdagi barcha mahalla va oilalarni hamda ulardagi mavjud muammolarni o‘rganib ularning yechimi bo‘yicha aniq manzilga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirishga zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўрта Осиё халқлари ҳурфикрлилиги тарихидан. – Т.: Фан, 1990. 104 б.

2. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1995. 6-бет.

3. Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти – 2004. 85 б.

4. С.Рахмонов. Икки тариқатнинг буюк даҳолари (Мавлоно жалолиддин Румий ва Хожа Баҳоуддин Нақшбанд мисолида). Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2021. 148 б.

5. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T., 1992.

6. Ж.Туленов. Қадриятлар фалсафаси.- Т.: 1998

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Karayev Nizam Abduraimovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi
Karayev@inbox.ru

UDK: 373.316.3

AXLOQIY MADANIYATNING INSONIYLIK MEZONI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada axloqiy madaniyatning insoniylik mezoni masalasi yoritilgan. Axloqiy madaniya insonda uning xulqi orqali namoyon bo‘ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy hatti-harakatlarning yig‘indisidir. Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o‘z tajribasi orqali erishgan natijalaridir.*

Kalit so‘zlar: *axloq, xulq, me’yor, hatti-harakat, qoida, ong, tafakkur.*

Караев Низам Абдураимович
Соискатель института повышение квалификации МВД Республики Узбекистан

КРИТЕРИИ ГУМАНСТВЕННОСТИ ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация: *В данной статье рассмотрен вопрос о критерии человечности нравственной культуры. Нравственная культура проявляется в человеке через его поведение. Поведение – это совокупность нравственных действий, определяемых разумом и волей людей. Правила нравственной культуры являются результатом многовекового человеческого опыта.*

Ключевые слова: *мораль, поведение, норма, поведение, правило, сознание, мышление.*

Karayev Nizam Abduraimovich
Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

HUMANITY CRITERIA OF MORAL CULTURE

Abstract: *This article discusses the issue of the human criterion of moral culture. Moral culture is manifested in a person through his behavior. Behavior is the sum of moral actions determined by the mind and will of people. The rules of moral culture are the results achieved by humanity through its own experience over the centuries.*

Keywords: *morality, behavior, norm, behavior, rule, consciousness, thinking.*

Kirish / Введение / Abstract.

Inson muayyan jamiyatda yashab turib o‘sha jamiyatdan xoli bo‘la olmaydi. Bu esa kishilarning axloqiy qiyofasiga ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatib, uning yurish-turishiga nisbatan muayyan tarbiyaviy-ma’naviy talablarni ham qo‘yib boradi. Odamlarga baho berganda, uni yoshidan, kasbidan, mutaxassisligidan, darajasidan qat’iy nazar axloqli yoki axloqsiz, tarbiyali yoki tarbiyasiz ekanligi, ziyoli, o‘qigan bo‘lsa ham, uqmagan ekanligiga urg‘u beriladi. Bu orqali kishilarning ma’naviy qiyofasi, xulq-atvori, yaxshi yoki yomon hatti-harakatlari ifodalanadi.

Qarangki, har bir odam bir olam bo‘lsa ham, u takrorlanmas noyob, o‘ziga xos bir mo‘’jiza bo‘lgan taqdirda ham bir o‘zi yashay olmaydi, baxtli ham, baxtsiz ham bo‘la olmaydi. Shunday ekan, odam o‘z mohiyati bilan, tabiati bilan jamiyat bilan chambarchas bog‘liq, jamoa bo‘lib yashaydi, tirikchilik qiladi, jamiyatdan namuna oladi va jamiyatga o‘z hissasini qo‘shadi. Jamiyatga ijobiy yoki salbiy jihatdan hissa qo‘shish uning aql-idroki, vijdoni va irodasiga, imoniyu-e’tiqodi hamda turmush tarziga, ma’naviy-tarbiyasi va axloqiy madaniyatiga bog‘liqdir. Zero, ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” [1]. Buyuk ma’rifatparvarning ushbu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, u bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Chunki ta’lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi” [2].

Shunday ekan har qanday hatti-harakat xulq va faoliyat axloqiy madaniyatga oid bo‘lavermaydi. Axloqiy madaniyat deganda shaxsning boshqa kishilarga muayyan munosabati ifoda qilinadigan hatti-harakatlari va xulqi ko‘zda tutiladi. Bunda albatta shaxsda ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar uyg‘unligi, jamiyatga ongli munosabatda bo‘lishi, xulqida axloqiy motiv va nihoyat axloqiy hatti-harakatning zaminida ma’lum darajada erkinlik, tanlash erkinligi bo‘lishi lozim. Axloqiy madaniyat onglilik, ijtimoiylik va fuqarolikning eng oliy ifoda mezonidir. Bu talablar bo‘lmasa, umuman, axloqiy madaniyatning bo‘lishi dargumon.

Kishi biron yaxshi axloqiy hatti-harakatni bajarishi uni axloqiy madaniyatini belgilamaydi. Qachonki o‘sha fazilatli xulq vositasi uning xarakteridagi doimiy belgiga aylangan chog‘dag u axloqiy madaniyatli bo‘la oladi [3].

Muhokama (Обсуждение / Discussion).

Axloqning madaniyatning yana bir ko‘rinishi axloqiy munosabatlardir. Axloqiy munosabatlar – ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy munosabatlarning har qanday turi singari, axloqiy munosabatlar ham axloq normalari bilan cheklangan, shaxs va jamiyat, kishilar o‘rtasida aloqalar, bog‘lanishlar tarzida mavjud bo‘ladi. Shunga asosan axloqiy munosabatlar o‘z shakliga ko‘ra oila, jamoa, guruh, mahalladagi odamlar bilan bo‘lgan munosabatlar turlariga bo‘linadi. Ammo axloqiy munosabatlar – bu faqat aloqalar, bog‘lanishlardangina iborat bo‘lmay, ayni paytda normativ asosga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni kishining boshqa odamlar jamiyat oldidagi burchlarini ham o‘z ichiga oladi.

Xulqda, kishining hatti-harakatlarida, uning ichki, ma’naviy dunyosi, fikri, tuyg‘usi, intilishlari, odobi aks etadi. Jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy talablarning ham ijobiy, ham salbiy ko‘rinishlari hatti-harakatda namoyon bo‘ladi. Axloq, ong va faoliyat birligi tarzida, yaxshilik va yomonlikning, adolat yoki adolatsizlikning, vijdonlilik yoki vijdonsizlikni namoyon etadigan harakatlar yig‘indisidir [4].

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik -xushhulqlilikka, xushhulqlilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo‘lga qo‘yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan – badxulqlilikka, badxulqlilikdan – axloqsizlikka o‘tishi mumkin.

Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o‘z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqllar, matal - maqollar tarzida bayon etiladigan, kishilarni axloqiy qonun - qoidalarga o‘rgatadigan, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradigan me’yorlardir [5]. Zero, insonning har bir hatti-harakati va niyati uning axloqiy madaniyatiga tegishli bo‘lib, unda muayyan ijobiy faoliyat bilan birga ezgulik va nafosat xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Ma’lumki, kishilik jamiyati doimo taraqqiyotda ekan, uning axloqiy madaniyatga oid qarashlari ham doimo o‘zgarib, rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ham o‘zgarib rivojlanib boraveradi. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik -xushhulqlilikka, xushhulqlilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo‘lga qo‘yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan – badxulqlilikka, badxulqlilikdan – axloqsizlikka o‘tishi mumkin.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” risolasi “axloq insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobni axloq deyilur” degan so‘zlar bilan boshlanadi [6]. Shuningdek Avloniy “axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur” degan ifodalarni keltirib axloqiy madaniyatga urg‘u beradi [7].

Shaxsning xulqida uning o‘z-o‘zini anglashi, mavjud ijtimoiy muhitining axloqiy talablari haqida tasavvurga ega bo‘lishi ham muhimdir. Biroq xulq normalari haqidagi tasavvurlar, bilimlar bilangina kishilar xush axloqli bo‘lib qolavermaydi. Axloq kodeksini yodlash bilan ish bitmaydi, balki shu xulq qoidalarini chinligiga, zarurligiga chuqur ishonch bo‘lish kerakki, ular kishilarning faoliyatida, hatti-harakatida o‘zining amaliy ifodasini topmog‘i lozim.

Xulosa (Заключение / Conclusion).

Jamiyatda insonning inson bilan tirikligi bu ko‘hna haqiqatdir. Ammo har bir inson o‘zi bir olam bo‘lib yaralgan va hech kim hech kimga aynan o‘xshamaydi. Shu sababli ham insonning xohish va ehtiyojlari, orzu va umidlari, yaxhilik va yomonlik, baxt va muhabbat haqidagi fikrlari ham turlichadir. Bunday har xillik insonning niyat va istaklarini ro‘yobga chiqarishi uchun turli yo inson llardan borishiga zamin yaratadi. Yaxshilik bor joyda yomonlikning bo‘lishi insonlar orasida turli axloqsizliklarning shakllanishiga va noqonuniy hatti-harakatlarning sodir etilishiga olb keladi. Ayna ushbu hatti-harakatlarni nazorat qilish bugun qonun bilan malakalanib uni nazorat qilib boorish icki ishlar organlari xodimlari zimmasidadir.

Bugungu kunda jamiyatda oddiy fuqaro nazdida nafaqat o‘z kasbini e’zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolat timsoli sifatida gavdalanadigan ichki ishlar organlari xodimlari yuksak axloqiy madaniyatga ega bo‘lishi, ularning o‘z umrini millati va Vataniga hamda inson manfaatlariga bag‘ishlagan yuksak axloq egasi sifatida o‘zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bo‘lib, o‘sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi desak xato bo‘lmaydi. Agarda, jamiyatda buning aksi bo‘lsa ya’ni, qonun himoyachisi bo‘laturib, o‘zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo‘lida oqni qora, qorani oq deb tursa bungday xodim axloqsizlik qilgan bo‘ladi. Natijada, oddiy fuqorolar nazdida birgina axloqsiz kishi uchun butun jamiyatning adolatsiz ekanligi to‘g‘risida noto‘g‘ri

tasavvur uyg‘onib, bu tasavvurning muntazam kuchayib borishi oxir-oqibat o‘sha jamiyatni tanazzulga olib keladi. Eng asosiysi, insoniyat tarixida axloqsizlikning yuqori chi‘qqisi bir millat yoki mamlakat uchun zarar etkazib (totalitar tuzum hukmdorlari hatti-harakatlari misolida) umumbashariy miqyosdagi fojialarga olib kelganligi o‘sh davrni o‘rganuvchi deyarli barcha tadqiqotlarda asoslangan faktlar bilan yoritilganligi ham ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T., 1992.
2. Баркамол авлод орзуси. –Тошкент: Шарк, 1999. 3-бет.
3. Гегель. Феноменология духа. (Вступ. статья и комментарий Ю.Р. Селиванова). — М.: Академический проект, 2008. — 767 с. — (Философские технологии: философия). — ISBN 978-5-8291-1050-5.
4. В.Семёнов. О перспективах человека в XXI столетии. // Вопроси философии. Москва, 2005, №9, 27-с.
5. L.Muhammadjanova, Abdulla Sher, G.Shadimetova. Axloq falsafasi. Darslik. Toshkent, 2023. -208.
6. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T., 1992. 11-71 betlar.
7. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. “Zabarjad media”, 2022. – 432-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

To‘yeva Muhayyo Shuxrat qizi
TDPU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
tuyevamuhayyo@gmail.com
m_toyeva@tdpu.uz
ORCID-0000-0002-5073-1093

RAQOBATBARDOSH JAMIYATDA XOTIN – QIZLAR INNOVATSIYON TAFAKKURINI OSHIRISHNING IJTIMOIY – FALSAFIY TAHLILLARI

Annotatsiya: *Maqolada raqobatbardosh jamiyat sharoitida xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish jarayonining ijtimoiy-falsafiy jihatlari keng qamrovli tahlil qilinadi. Innovatsion tafakkur ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ko‘rib chiqilib, xotin-qizlarning bilim, kreativlik va texnologik yangiliklarga bo‘lgan intilishlarini oshirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, jamiyatdagi gender tengligi, ta’lim tizimi va iqtisodiy imkoniyatlarning xotin-qizlarning innovatsion rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xotin-qizlar, innovatsion tafakkur, raqobatbardosh jamiyat, gender tengligi, ta’lim, texnologik rivojlanish, ilmiy izlanishlar, iqtisodiy imkoniyatlar.*

Туйева Мухайе Шухрат кизи
Преподаватель кафедры общественных наук ТГПУ

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ ЖЕНЩИН - ДЕВУШЕК В КОНКУРЕНТНОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: *В статье всесторонне анализируются социально-философские аспекты процесса развития инновационного мышления женщин в условиях конкурентного общества. Инновационное мышление рассматривается как важный фактор общественного развития, показаны пути повышения стремления женщин к знаниям, творчеству и технологическим инновациям. Также изучается влияние гендерного равенства в обществе, системы образования и экономических возможностей на инновационное развитие женщин.*

Ключевые слова: *Женщины, инновационное мышление, конкурентное общество, гендерное равенство, образование, технологическое развитие, научные исследования, экономические возможности.*

Tuyeva Muhayyo Shukhrat kizi
Teacher of the Department “Social Sciences” of the TSPU

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ENHANCING INNOVATIVE THINKING IN WOMEN AND GIRLS IN A COMPETITIVE SOCIETY

Abstract: *The article comprehensively analyzes the socio-philosophical aspects of the process of developing women’s innovative thinking in a competitive society. Innovative thinking is considered as an important factor of social progress, and ways to increase women’s aspirations for knowledge, creativity and technological innovations are shown. It also studies the impact of gender equality in society, the education system and economic opportunities on women’s innovative development.*

Keywords: *Women, innovative thinking, competitive society, gender equality, education, technological development, scientific research, economic opportunities.*

Kirish.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri innovatsion tafakkurdir. Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy intellektual salohiyatini oshirish, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlarning texnologik va ilmiy-innovatsion jarayonlarda ishtiroki gender tengligi va ijtimoiy adolatni ta’minlash bilan birga, iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ijtimoiy-falsafiy

nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, innovatsion tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit va ta'lim tizimi alohida tahlil qilinadi. Raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati va xalqaro tajribasi ham ko'rib chiqiladi.

Ayollarning ta'lim hamda ish faoliyatidagi huquq va manfaatlari, ish joylarida ularga nisbatan tengsizlik, bu borada davlat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar va kamchiliklar yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili.

Mavzudan kelib chiqqan holda raqobat so'ziga to'xtalib o'tsam**, Raqobat** – bu ikki kishi yoki guruhning doimiy raqobatbardosh munosabatlardagi holati. Raqobat – bu raqobatlashayotgan ikki tomon o'rtasidagi „bir-biriga qarshi" munosabati. O'zaro munosabatlarning o'zini "raqobat" deb ham atash mumkin, yoki har bir ishtirokchi bir-biri bilan **raqib** bo'ladi. Kimningdir asosiy raqibini **ashaddiy raqib** deb atash mumkin. Raqobatni "aktyorlar qaysi davlatlar raqobatchilarga yetarlicha tahdid solayotganini aniqlaydigan idrokiy tasniflash jarayoni" deb ta'riflash mumkin[16]. Raqobat bir tomonning doimiy hukmronligiga olib kelmasdan, davom etishi uchun „teng tomonlar o'rtasidagi raqobat munosabatlari" bo'lishi kerak[17]. Siyosatshunos Jon A. Vaskesning ta'kidlashicha, kuchlar tengligi haqiqiy raqobat mavjud bo'lishi uchun zaruriy komponent hisoblanadi, ammo boshqalar bu elementga etiroz bildiradi[18]. Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini shakllantirish omillari Innovatsion tafakkurga ega bo'lish jarayoni bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim tizimi – Innovatsion tafakkurni rivojlantirish uchun xotin-qizlarning ilm-fan va texnologiyalarga qiziqishini oshirish lozim. Bu borada ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etish va fan-texnika sohasida qizlarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Ijtimoiy muhit – Innovatsion tafakkurning rivojlanishi oilaviy tarbiya, jamiyatdagi gender stereotiplari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga bog'liqdir.

3. Davlat siyosati – Xotin-qizlarni ilmiy va innovatsion loyihalarga jalb etish uchun davlat tomonidan maxsus dasturlar va grantlar taqdim etilishi lozim.

4. Texnologik imkoniyatlar – Axborot texnologiyalari va innovatsion infratuzilmalar xotin-qizlarning innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishiga sharoit yaratadi.

Xotin-qizlarning innovatsion faoliyatdagi roli Xotin-qizlar hozirgi kunda fan, texnologiya, iqtisodiyot va tadbirkorlik sohalarida muhim o'rin tutmoqda. Innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishda xotin-qizlarning ishtiroki raqobatbardosh jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularning tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashi yangi bozorlarni rivojlantirishga ham imkon yaratadi.

Millatimiz tarixidan ma'lumki, o'zbek ayoli, o'zbek onalari nafaqat o'z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mag'rur, jasur va dono, mashhur ayollar – To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiylar nomlari nafaqat biz uchun, balki ilg'or fikrli dunyo ahli uchun ham ahamiyatli ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiylashuvida madaniy, ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy omillarining ta'siriga doir fikrlar V.Vundt, E.Dyurkeym, P.Jane, U.Jeyms, Ch.Kuli, S.Koll, E.Klapared, J.Mill, B.Shtern va boshqa xorij olimlari asarlarida aks etgan. O.Bo'riyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoymardonov, M.Xolmatova, M.O'zbekov kabi mamlakatimiz olimlari oila, uning madaniyati, ijtimoiy muammolari masalasiga to'xtalib, ularni ancha mufassal tadqiq etgan holda xotin-qizlarning oiladagi ijtimoiy faolligini o'z ilmiy izlanishlarida asoslab berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Natijada oilaga, ayol zotiga bo'lgan munosabatimiz tobora yuksalib, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish hayotimizning ma'no-mazmuniga, asosiy maqsadiga aylandi.

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi – 17 millioni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat

---

ce and Business Media LLC', https://core.ac.uk/download/322902166.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[16] https://open.bu.edu/server/api/core/bitstreams/d52910bd-e671-42f9-8dfb-6a89d0dfb2fd/content

[16] Greif, Hajo. (2018). 'The Action of the Brain'. Machine Models and Adaptive Functions in Turing and Ashby. https://core.ac.uk/download/186329918.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[16] Peters, Michael A. (2014). "Internet universality": Human rights and principles for the internet. 'Addleton Academic Publishers', https://core.ac.uk

/download/29202440.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[17] FARIH, Hanaa WAHABI, Rachid. (2022). Emergence of Digital Business Ecosystems: A theoretical framework. International Journal of Accounting, Finance, Auditing, Management and Economics, https://core.ac.uk/download/551578526.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[17] https://president.uz/uz/lists/view/5943 - Ахборот технологиялари соҳасидаги вазифалар муҳокама қилинди. Мурожаат этилган сана: 05.07.2024 й

[17]

Arnedillo-Sánchez, Inmaculada, Kukulska-Hulme, Agnes, Milrad, Marcelo, Sharples, et al.. (2011). The genesis and development of mobile learning in Europe. Information Science Reference (an imprint of IGI Global), https://core.ac.uk/download/3814.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[18] Britchenko, Igor, Cherniavska, Tetiana, Machashchik, Paweł. (2018). New Trends

hayotidagi o‘rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishidir. Oxirgi to‘rt yilda bu borada 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori qabul qilindi. Birinchi marta Senatda Xotinqizlar va gender tengligi masalalari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. Prezident raisligida ayni paytda o‘tayotgan yig‘ilishda xotin-qizlar salomatligi, aholi bandligi, ijtimoiy farovonlik va xavfsizlik muammolari muhokama qilinmoqda. “Eng achinarlisi, ayollarni xo‘rlash, o‘zini-o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish hamda omma oldida “savdoyi” qilish holatlari oddiy holatga aylanib bormoqda”, - deya ta’kidladi O‘zbekiston respublikasi prezidenti[19]. Raqobatbardosh jamiyatda gender tengligi va innovatsiya Jamiyatning innovatsion taraqqiyotida gender tengligi katta ahamiyatga ega. Gender tengligi ta’minlangan jamiyatlarda xotin-qizlarning ilm-fan, texnologiya va tadbirkorlik sohalariga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Natijada, ularning innovatsion tafakkur darajasi oshib, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish imkoniyati kengayadi.

Tahlil va natijalar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda ayollarning huquq va erkinliklarini har tomonlama ta’minlash yo‘lida ulkan qadamlar qo‘yildi. Davlatimiz rahbari yaqinda e’lon qilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli muhim konseptual hujjatda ana shu islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”** degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibidan joy oldi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning normativ-huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi. Xususan, 1995-yil 2-mart kuni “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni e’lon qilindi. Farmon xotin-qizlar qo‘mitalari tizimi rivojini yangi bosqichga ko‘tardi va ayollar hayotining yanada yaxshilanishiga sharoitlar yaratdi. Bu borada xalqaro tajriba chuqur o‘rganilib, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib 1995-yil 6-mayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Xotin-qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi va 1997-yil 30-avgustda “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga qo‘shildi. Shuningdek, mamlakat xotinqizlari vakllari 1995- yil 6-mayda “Tinchlik, taraqqiyot va tenglik” shiori ostida o‘tkazilgan Butunjahon ayollarning IV Konferensiyasida ishtirok etdilar. Shundan so‘ng O‘zbekiston xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan Pekin deklaratsiyasiga qo‘shildi[20]. O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi o‘ziga xos tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari va ishlab chiqarishning osiyocha munosabatlari bilan bevosita izohlash mumkin. SHu nuktai nazardan erkak va ayolning ijtimoiy maqomi va funksiyalari ming yillik ijtimoiy sinovlardan o‘tib, o‘ziga xos ijtimoiy modellashganligini kuzatish mumkin. Biz mazkur modelning mazmun mohiyatiga ta’riflarni olimlarning “Erkak ham, ayol ham Allohning erdagi halifalaridir, biroq ilohiy komillikning qo‘shimcha jihatlarini bayor qilishda ularning “vazirliklari” turmushning asosiy masalalarida bir-biridan farq qiladi. Erkak erkakligicha, ayol esa ayol bo‘lib qolishi lozim. Biroq ayollar orasida erkaklar bilan faoliyatning mutlaq tenghuquqligini talab etuvchi ortodoksal feminizmga qarshi isyon zuhur bo‘lmoqda”[21], deya ayolning ma’naviy axloqiy qiyofasida o‘zgarish, ayni vaqtda erkakning ham milliy mentalitetiga ta’sir etmay qolmasligi haqidagi qarashlarga birdammiz.

Xulosa.

Xulosa Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish jamiyatning barqaror taraqqiyoti va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ta’lim tizimini takomillashtirish, ijtimoiy muhitni qulaylashtirish, davlat siyosatini gender tengligini ta’minlashga yo‘naltirish hamda texnologik imkoniyatlarni oshirish lozim. Shunday qilib, xotin-qizlarning innovatsion faoliyatini kengaytirish orqali jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin. “Xotinqizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi bu boradagi huquqiy asoslarni mustahkamladi. 2019-yil mart oyida BMTning Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasida BMTning Xotin-qizlar holati bo‘yicha komissiyaning 63-sessiyasida O‘zbekistonning ayollar borasidagi davlat siyosati yuqori baholangan. Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yil 22 dekabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 11 fevral – Ilmfan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni deb e’lon qilingan. Ushbu xalqaro

in Development of Services in the Modern Economy. https://core.ac.uk/download/323058294.pdf (Accessed: 20 Feb, 2025).

[19] Allioui H, Mourdi Y. (2023). 'Exploring the Full Potentials of IoT for Better Financial Growth and Stability: A Comprehensive Survey'. Sensors, Volume(23), 8015-8015, https://doi.org/10.3390/s23198015 (Accessed: 20 Feb, 2025).

[19] Kosmopolitizm (yun. kosmopolites — kosmopolit, jahon fuqarosi) — «jahon fuqaroligi» deb atalgan g‘oyani targ‘ib qiluvchi mafkura. Iskandar (Aleksandr) yurishlari davrida paydo bo‘lgan. Uyg‘onish va Ma’rifatchilik davrlarida jahon fuqaroligi ideali olg‘a surilib (Dante, Kampanella), individning zamindor boylar zulmidan ozod bo‘lish g‘oyasini (Lessing, Gyote, Shiller, Kant, Fixte) ifodalagan. Kosmopolitizm milliy an’ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan

voz kechishga — bevatanlikka da’vat etadi.

[20] Мирзиёе

sana butun dunyoda ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to‘laqonli shug‘ullanishlariga teng imkoniyatlar yaratish, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish maqsadida ta’sis etilgan. Shu munosabat bilan 2023 yil 10 fevral kuni BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham bayonot berib, ilm-fan sohasida xotin-qizlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, bundan ilm-fan shunchalik ko‘p yutishini ta’kidladi. Bosh kotibning so‘zlariga ko‘ra, “Ayollar va qizlar ilmiy tadqiqot faoliyatiga xilma-xillik olib kiradi, ilm-fan asosiy kasbi bo‘lgan fidoyilar safini kengaytiradi va ilmiy-texnikaviy sohani yangicha qarashlar hisobiga boyitadi”. Bosh kotibi Antoniu Guterrish o‘z bayonotda yer yuzida ayollar va qizlarning ta’lim olishlari cheklangan yoki to‘la taqiqlangan joylar hali ham ko‘pligi tashvishlanarli ekani aytilgan.

Ayollarga nisbatan ko‘pgina kamsitish, muammolar va noqulay sharoitlar bo‘lishi bilan birga, ularning aksariyat qismi o‘zining yashash sharoitini yaxshilash, iqtisodiy mustaqillik va shaxsiy o‘sish uchun imkoniyatlar eshigi deb biladi. Migratsiya gender tengsizlik bilan kurashish, gender o‘rindan voz kechish va gender qoliplarni sindirish hamda ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlarga xizmat qiladi.

Og‘ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarning, xususan xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va bandlik tarkibining transformatsiyalashuvi kabi jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar, xususan xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi global mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan ayollar mehnat migratsiyasining shakllanishiga va rivojlanishiga turtki berdi. Bandlik tarkibidagi bunday transformatsiyalashuv bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilishning kamayishi va kishilarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini ortishi qariyalar sonining ko‘payishiga va ularni parvarishlovchilarga, mazkur mamlakat aholisining moddiy farovonligini yaxshilanishi va ayollarning jamiyat hayotidagi ishtirokining faollashuvi esa, uy xizmatchilariga bo‘lgan talabning ortishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Thompson, William R. (2001). "Identifying Rivals and Rivalries in World Politics". *International Studies Quarterly* **45** (4): 557–586. doi:10.1111/0020-8833.00214. ISSN 0020-8833
2. Michael Brecher. *The world of protracted conflicts*, May 26, 2016 — 11-bet. ISBN 978-1-4985-3188-7. OCLC 1253439132. ; citing *Gary Goertz; Paul F. Diehl (June 1993). „Enduring Rivalries: Theoretical Constructs and Empirical Patterns“. 37-jild, № 2. 147–171-bet.*
3. Michael Brecher. *The world of protracted conflicts*, May 26, 2016 — 11-bet. ISBN 978-1-4985-3188-7. OCLC 1253439132
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 26-fevral kuni “xotinqizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari” muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.
5. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari, 2016.№ 4. B-77-78.
6. Sabirova U. Foreign experience of university-enterprise cooperation: the development of a communicative environment //Thematics Journal of Social Sciences. – 2021. – T. 7. – №. 5.
7. Рўзиев Р. Аёл ва жамият // Фалсафа ва ҳуқуқ. –2009. № 1. —Б. 2
8. To‘yeva M.Sh. Xotin-qizlar innovatsion tafakkurini rivojlantirishda ijtimoiy mezon va normlarning uyg‘unligi.- “Innovation in science and technologies” ilmiy-elektron jurnali. -T.2025. 667b
9. To‘yeva M. Sh. O‘zbekiston Respublikasining yangilanish jarayonida xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirish va faollashuvi barasidagi siyosati: umumnazariy tahlillar. – T. SCIENCE PROBLEMS.UZ. 2024 318-322 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Andijon davlat pedagogika instituti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
m.t.parpiyev@andupi.uz

YEVROPA UYG'ONISH DAVRI GENEZISI

Annotatsiya. *Maqolada Yevropada uyg'onish davri boshlanishiga sabab bo'lgan omillar, jumladan, ildizlari ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga borib taqaladigan insonparvarlikning yuksalishi, savdo-sotiqning rivojlanishi va individualizmga yangicha e'tibor qaratilishi, Renessans davri bosqichlari hamda Uyg'onish davrining tarixiy konteksti butun Yevropa bo'ylab madaniy paradigmalarning o'zgarishiga olib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Yevropa, Renessans, uyg'onish, gumanistik g'oyalar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, adabiyot, san'at, madaniyat, innovatsiyalar, ijodkorlik, ma'rifatparvarlik, kapitalizm, siyosiy barqarorlik, madaniy uyg'onish.*

Парпиев Мухаммаджон Толибович
Андижанский государственный педагогический институт
Первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе
PhD философских наук, доцент

ГЕНЕЗИС ЕВРОПЕЙСКОГО РЕНЕССАНСА

Аннотация. *В статье был проведен научный анализ факторов, которые привели к началу эпохи Возрождения в Европе, включая рост гуманизма, корни которого уходят в социально-экономические изменения раннего средневековья, развитие торговли и новый акцент на индивидуализме, этапы эпохи Возрождения, а также то, как исторический контекст эпохи Возрождения тесно связан с социально-экономическими изменениями, которые привели к изменению культурных парадигм по всей Европе.*

Ключевые слова: *Европа, Ренессанс, пробуждение, гуманистические идеи, социально-экономические преобразования, литература, искусство, культура, инновации, творчество, просвещение, капитализм, политическая стабильность, культурное возрождение.*

Parpiyev Mukhammadjon Tolibovich
Andijan state pedagogical institute
First vice-rector for Youth Affairs and spiritual and educational affairs,
PhD in philosophy, associate professor

THE GENESIS OF THE EUROPEAN RENAISSANCE

Abstract. *In this article scientifically analyzed the factors that led to the beginning of the renaissance in Europe, including the rise of humanity, whose roots go back to the socio-economic changes of the early Middle Ages, the development of trade and a renewed focus on individualism, the stages of the Renaissance and the historical context of the Renaissance, closely related to socio-economic changes that led.*

Keywords: *Europe, Renaissance, awakening, humanist ideas, socio-economic change, literature, art, culture, innovation, creativity, enlightenment, capitalism, political stability, cultural awakening.*

Kirish.

Yevropa Uyg'onish davri XIV asr oxirlarida vujudga kelib, XVII asrgacha gullagan chuqur madaniy va intellektual harakat bo'lib, G'arb sivilizatsiyasi taraqqiyotida burilish nuqtasini ifodalaydi. Bu davr klassik bilimlarning qayta jonlanishi va yangi badiiy paradigmalarning o'rganilishidan darak berdi, natijada inson tafakkuri va ijodining chegaralari qayta belgilandi. Ildizlari ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga borib taqaladigan Uyg'onish davri turli

omillarning uyg‘unlashuvi, jumladan, insonparvarlikning yuksalishi, savdo-sotiqning rivojlanishi va individualizmga yangicha e’tibor qaratilishi tufayli kuchaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

“Renessans davri, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Yevropada uch asosiy bosqichni: ilk bosqichni (XIV-XV asr boshlari), o‘rta bosqichni (XV asr) va oxirlab qolgan so‘ngi bosqichni (XVI asr) bosib o‘tdi [1]. Olimlar va san’atkorlar qadimgi yunonlar va rimliklardan ilhom ola boshlagach, nafaqat o‘rta asrlarda hukmron bo‘lgan dunyoqarashga qarshi chiqadigan, balki zamonaviy fan va falsafa uchun poydevor yaratadigan o‘ziga xos sinyergiya shakllandi. Shunday qilib, Uyg‘onish davrining vujudga kyelishi Yevropaning madaniy qiyofasini qayta shakllantirgan tarixiy kuchlarning murakkab o‘zaro ta’siri bilan chambarchas bog‘liq.

Uyg‘onish davri – bu Yevropada XIV asrdan XVII asrgacha bo‘lgan davr bo‘lib, odatda klassik antik davrdan ilhomlangan san’at, madaniyat va ta’limga yangi qiziqish davri sifatida ta’riflanadi. Renessans davrida Yevropada dastlabki gumanistik g‘oyalar italiyalik faylasuflar Dantye Aligeri (1265-1321 yillar), paduyalik Marsiliy (1278-1348 yillar), Franchesko Petrarka (1304-1374 yillar), Jovanni Bokachcho (1313-1375 yillar), Georgios Gemistos (1360-1425 yillar), Marsilio Fichinye (1422-1495 yillar), Piko della Mirandola (1463-1495 yillar) asarlarida bayon qilindi [2]. Italiyada paydo bo‘lgan bu harakat Yevropaning ma’naviy qiyofasini o‘zgartirdi, feodal va ilohiy qarashlardan dunyoviy va gumanistik qarashlarga o‘tishni osonlashtirdi. U turli sohalarda, jumladan, adabiyot, fan va siyosiy nazariyada sezilarli yutuqlarga erishdi, bu esa nafaqat madaniy hayotni boyitdi, balki zamonaviylikka zamin yaratdi. Ayniqsa, Italiya shahar-davlatlari innovasiyalar o‘chog‘i sifatida namoyon bo‘ldi, zamonaviy diplomatiya va moliyaviy tizimlar kabi muhim tushunchalarni ilgari surdi va shu tariqa davlatchilikni qayta ta’rifladi [3]. Bundan tashqari, uyg‘onish atamasi qayta tug‘ilish va yangilanish g‘oyalarini uyg‘otadi, bu esa adabiyotdan tashqari millatchilik va madaniy tiklanish kabi harakatlarda ko‘ringanidek, jamiyat qadriyatlari va qarashlarida tub o‘zgarishlarni anglatadi [4].

Tahlillar va natijalar.

Uyg‘onish davrining tarixiy konteksti butun Yevropa bo‘ylab madaniy paradigmalarning o‘zgarishiga olib kyelgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu davrda feodalizmning inqirozi va savdogar tabaqalarning yuksalishi boylik oqimini osonlashtirdi, bu esa o‘z navbatida san’at va fanlarga homiylik madaniyatini rivojlantirdi. Ushbu homiylik tizimi zamonaviy iqtisodiy tushunchalarni, xususan, eng mashhur san’atkorlar va olimlar uchun oliyjanob homiylar o‘rtasidagi raqobat innovasiyalar va ijodkorlik uchun qulay muhit yaratgan umumiy agentlik shartnomasini aks ettirdi. Tadqiqotchilar asimmetrik ma’lumotlar bilan shakllangan tobora murakkablashib borayotgan manzarani boshqarishga intilishar ekan, ilgari hukmron bo‘lgan maxfiylik muhitidan farqli o‘laroq, hamkorlik va bilimlarni tez tarqatishni rag‘batlantiruvchi kollejlar va ilmiy akademiyalar paydo bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar so‘nggi Uyg‘onish davri Yevropasining intellektual manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ochiq munozara va ilmiy tadqiqotga chuqur o‘tishni ko‘rsatdi. Oxir-oqibat, bu dinamika Uyg‘onish davri va undan keyingi ilmiy inqilobni tavsiflovchi yutuqlarga zamin yaratdi.

Uyg‘onish davri Yevropa tarixida san’at, madaniyat va tafakkurda tub burilish yasagan muhim bosqich sifatida namoyon bo‘ldi. Klassik ta’limning qayta tiklanishi o‘rta asrlarda hukmron bo‘lgan qarashlarni inkor etib, izlanish va yangiliklarni rag‘batlantiruvchi muhitni yaratdi. Leonardo da Vinchi va Mikelanjelo kabi san’atkorlar bu o‘zgarishni insonparvarlik g‘oyalarini innovasion usullar bilan uyg‘unlashtirib, o‘z asarlarining estetik va hissiy teranligini oshirdilar. Bundan tashqari, Yevropa va Osiyo madaniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar iste’molchilar xulq-atvori va badiiy ifodada sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Bu dinamik almashinuv nafaqat badiiy amaliyotni qayta shakllantirdi, balki individualizm va empirik kuzatuvga asoslangan yangi dunyoqarashni ham yuzaga keltirdi. Natijada, Uyg‘onish davri ilmiy inqilob va undan keyingi “ma’rifatparvarlik” uchun poydevor yaratdi. Bu davrlar insoniyat tushunchasini yanada o‘zgartirdi va jahon tarixida Yevropaning intellektual ustunligini tasdiqladi.

Yevropa Uyg‘onish davri tarixdagi muhim davr bo‘lib, turli madaniy, badiiy va intellektual sohalarda chuqur o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Asosiy mavzulardan biri san’at va adabiyot rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan klassik antik davrning tiklanishi hisoblanadi. Olimlar va san’atkorlar yunon-rim matnlaridan ilhom olganlari sari insonparvarlikka yangicha urg‘u berila boshlandi, shaxsiy salohiyat va tanqidiy fikrlash ulug‘lanadigan muhit yaratildi. Shuningdek, mifologiya va nasroniylik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir o‘rta asr qahramonligini shakllantirgan murakkab rivoyatlarni yaratib, Uyg‘onish davriga olib keladigan qadriyatlar va ideallarni belgilab berdi [5]. Bu mavzular birgalikda Yevropani yangi madaniy uyg‘onishga olib kelgan dinamik kuchlarni o‘zida mujassam etadi.

Uyg‘onish davrida klassik antik davrning qayta tiklanishi nafaqat qadimgi san’at va adabiyotning jonlanishi, balki intellektual izlanishlar va madaniy amaliyotlarni shakllantirga chuqur ta’sir edi. Bu ta’sirni so‘nggi o‘rta asrlar davrini tavsiflovchi antikvarizm orqali kuzatish mumkin. Bu davrda olimlar qadimgi sivilizasiyalarning asarlariga faol murojaat qilib ular haqida fikr yurita boshladilar. Shunday qilib, Uyg‘onish davri nafaqat qayta tug‘ilish, balki antik davr bilan tanqidiy muloqot sifatida paydo bo‘ldi. Bu esa klassik

merosga asoslangan yangi madaniy o‘ziga xosliklarni shakllantirish imkonini berdi.

Uyg‘onish davrida insonparvarlikning paydo bo‘lishi insonning salohiyati va faolligini ta’kidlash orqali Yevropa intellektual manzarasini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Klassik ta’limning qayta tiklanishi insoniy dunyoqarashni shakllantirdi, e’tiborni cherkov ta’limotlaridan dunyoviy mavzularga ko‘chirdi va shu bilan adabiyot, falsafa va san’at sohasidagi izlanishlarni rag‘batlantirdi. Xuan Luis Vives kabi mutafakkirlar bu harakatni namoyon etib, ta’lim oluvchilarning psixologik rivojlanishini va o‘quv jarayonida xotiraning muhimligini tan oladigan ta’lim islohotlarini ilgari surdilar [6]. Bunday g‘oyalar nafaqat pedagogik metodologiyani rivojlantirdi, balki Uyg‘onish davri insonparvarlik g‘oyalarini zamonaviy bilish nazariyasi asoslari bilan bog‘lab, kelajak ta’lim nazariyotchilari uchun zamin yaratdi. Pirovardida, insonparvarlik nafaqat Uyg‘onish davri tafakkurini shakllantirdi, balki turli kontekstlarda inson salohiyati va madaniy o‘ziga xoslik haqidagi davomiy muloqotlarga ilhom berdi.

So‘nggi o‘rta asrlar davrida Yevropaning ijtimoiy-siyosiy manzarasi sezilarli o‘zgarishlarga uchradi va Uyg‘onish davriga zamin yaratdi. Bu o‘zgarishlar feodalizmning tanazzuli va markazlashgan milliy davlatlarning yuksalishi bilan tavsiflanib, hokimiyat dinamikasining o‘zgarishiga va madaniy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatdi. Savdo, urbanizasiya va g‘oyalar almashinuvi uchun qulay sharoit yaratgan yangi monarxiyalar intellektual izlanishlarni rag‘batlantiruvchi yangi ijtimoiy-iqtisodiy asos yaratdi. Florensiya va Parij kabi shaharlarda olimlar va san’atkorlarning erkin ijod qilishlari uchun ijtimoiy muhit yaratildi va bu yerlarda yanada yaxlit jamoatchilik muhokamasi shakllandi. Bundan tashqari, yangi tashkil etilgan universitetlar va qayta kashf etilgan qadimiy matnlar tufayli amalga oshirilgan intellektual almashinuvlar Viktor Platonovich Petrov kabi shaxslarga tarixni o‘rganishning murakkabliklarini yengib o‘tish imkonini berdi. Uning asarlari, xususan, “Davr nazariyasi” bu ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning Yevropa tarixshunosligiga qanday ta’sir ko‘rsatganini yoritib, ushbu o‘zgaruvchan davrda madaniyat va boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berdi [7].

So‘nggi o‘rta asrlarda shahar-davlatlar va shahar markazlarining paydo bo‘lishi Yevropa Uyg‘onish davrining poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Savdo yo‘llarining kengayishi va xo‘jalik faoliyatining rivojlanishi bilan shaharlar mustaqil siyosiy tuzilma sifatida faoliyat yurita boshladi, bu feodal tuzilmalardan markazlashgan shahar boshqaruviga o‘tishni aks ettirdi. Bu o‘zgarish nafaqat savdo markazlari, balki siyosiy munozaralar va ijtimoiy o‘zaro ta’sir uchun muhim joylar sifatida xizmat qilgan jamoat maydonlari yoki maydonlarning rivojlanishi bilan belgilandi, bu esa shahar hayoti va boshqaruvining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Natijada, shahar-davlatlarning yuksalishi san’at, falsafa va fanga ta’sir ko‘rsatgan Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatiga aylangan madaniy uyg‘onishni keltirib chiqardi.

Yevropada feodalizm tanazzulga yuz tutgach, kapitalizmning tarkibiy asoslari shakllana boshladi va bu Uyg‘onish davrini tezlashtiradigan muhim o‘zgarishni belgilab berdi. Bu pasayish turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy siljishlar, xususan, krepostnoy huquqning yemirilishi va ko‘proq harakatchan ishchi kuchining paydo bo‘lishi orqali sodir bo‘ldi. Shaharlararo-davlat tizimi yangi shakllanayotgan bozor iqtisodiyotiga qulaylik yaratib, savdo-sotiqning o‘sishiga va savdogar tabaqalarning ko‘payishiga imkon berdi. Kapitalizmning dastlabki shakllari ta’sirida erkinlik va individuallik g‘oyalari keng tarqalib, shaxsiy va iqtisodiy erkinlikka intilishlarni kuchaytirdi. Tanazzulga yuz tutgan feodal iyerarxiyalar va o‘sib borayotgan kapitalistik ruh o‘rtasidagi bu o‘zaro ta’sir Yevropa Uyg‘onish davrini tavsiflovchi madaniy va intellektual gullab-yashnash uchun qulay zamin yaratdi.

Uyg‘onish davrida homiylik hodisasi san’at va fanlarning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, nafaqat moliyaviy yordam, balki ijtimoiy obro‘ va aqliy rivojlanish vositasi sifatida xizmat qildi. Aslzoda homiylar ko‘pincha raqobatli homiylik bilan shug‘ullanib, o‘z maqomlarini oshirish va saroylaridagi san’atkorlar hamda olimlarning iste’dodlarini targ‘ib qilish uchun o‘z qo‘llab-quvvatlashlaridan foydalanganlar. Bu jarayonni Luka Pacholining “Ilohiy mutanosiblik” asarida aks etgan ilmiy bahsda ko‘rish mumkin, bunda Leonardo da Vinchi kabi shaxslar o‘z mahorati va g‘oyalarini namoyish etgan ommaviy munozaralarda qatnashgan, bu esa homiylik, raqobat va innovasiyalarni qanday rivojlantirganini ko‘rsatadi [8]. Bundan tashqari, so‘ngi Uyg‘onish davrida ochiq fanga o‘tish tadqiqotchilar o‘z kashfiyotlari bilan tezda o‘rtoqlashishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratdi. Bu aslzoda homiylar tomonidan taqdim etilgan mablag‘ va e’tibor tufayli amalga oshdi. Umumiy bilim va homiylikning bunday uyg‘unlashuvi nafaqat shaxslarning obro‘sini oshirdi, balki yangi paydo bo‘lgan ilmiy hamjamiyatlarning rivojlanishiga ham hissa qo‘shdi.

Siyosiy barqarorlik, ayniqsa Yevropa Uyg‘onish davri sharoitida, madaniy rivojlanish uchun muhim poydevor vazifasini o‘tadi. Notinch o‘rta asrlardan keyingi davrda badiiy va aqliy izlanishlar qayta jonlandi, bu asosan butun Yevropadagi barqaror siyosiy vaziyat tufayli yuz berdi. Barqarorlik homiylik tizimlarining gullab-yashnashiga imkon berdi, bunda hukmdorlar va boy elita vakillari san’atkorlar va mutafakkirlarni qo‘llab-quvvatlab, innovasiya va ijodkorlik uchun qulay muhit yaratdilar. Bundan tashqari, siyosiy hamjihatlik ta’lim muassasalarini tashkil etish va g‘oyalarni tarqatishga yordam berdi, olimlar va san’atkorlar o‘rtasida hamkorlik tarmoqlarini

vujudga keltirdi. Bunday muhit nafaqat yangi badiiy usullarni izlash, balki Uyg‘onish davri san’atida keng tarqalgan tasvirlar va mavzularda aks etgan turli madaniy ta’sirlarni uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Bu madaniy uyg‘onishni siyosiy parchalanishning oldingi davrlariga javob sifatida tushunish mumkin, bu san’at va adabiyot orqali tabiatni milliylashtirish jamiyatning chuqurroq intilishlarini qanday aks ettirishini ko‘rsatadi.

Yevropa Uyg‘onish davrining boshlanishi bosmaxona kabi ixtirolar bilimlarning keng tarqalishini osonlashtirdi, ilgari cheklangan g‘oyalarning jamiyatga kirib borishiga va mavjud qarashlarni savolga tutishiga imkon berdi. Axborotning bunday ommalashtirilishi nafaqat savodxonlik darajasini oshirdi, balki Uyg‘onish davriga xos bo‘lgan tadqiqot ruhini ham shakllantirdi. Bundan tashqari, bu yutuqlar liberal san’at ta’limini qayta ko‘rib chiqishga undadi, bu esa texnik-ilmiy taraqqiyotni tanqidiy fikrlash va axloqiy mulohazalar bilan uyg‘unlashtiradigan o‘quv dasturini talab qildi. Shu bilan birga insoniyatni bunday tez o‘zgarishlar sharoitida o‘z o‘rni haqida chuqur o‘ylashga undagan insonparvarlik tendensiyalarini ta’kidlaydi. Bu davrdagi texnologiya va madaniy evolyusiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, yutuqlar nafaqat kundalik hayotni o‘zgartirdi, balki chuqurroq falsafiy mushohadani ham rag‘batlantirdi va natijada Uyg‘onish davrini insoniyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi davr sifatida belgiladi.

XV asr o‘rtalarida bosma dastgohning ixtiro qilinishi Yevropa jamiyatida tub burilish yasadi va Uyg‘onish davrining intellektual va madaniy gullab-yashnashiga turtki bo‘ldi. Kitob ishlab chiqarish jarayonini mexanizasiyalashtirish orqali Iogann Gutenbergning ixtirosi adabiyot narxini keskin pasaytirib, uni kengroq ommaga yetkazish imkonini berdi. Bilimlarning bunday ommalashuvi, ayniqsa, ilm-fan va din sohasidagi an’anaviy qarashlarni inkor etuvchi g‘oyalarning tarqalishini osonlashtirdi. Matbuot Martin Lyuterning tezislari kabi asarlarning keng tarqalishiga imkon berdi, bu esa Reformasiyani boshlab berdi va cherkov bilan uning izdoshlari o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan o‘zgartirdi. Bundan tashqari, savodxonlik darajasi oshgani sain, shaxsiy tajriba va ifodani ulug‘lovchi insonparvarlik g‘oyalari ham ko‘payib, zamonaviy tafakkurga zamin yaratdi. Natijada, bosmaxona nafaqat adabiyot va ta’limni o‘zgartirdi, balki Yevropaning ijtimoiy qiyofasini ham yangiladi, zamonaviylik sari qat’iy qadam qo‘ydi [9].

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Uyg‘onish davri zamonaviy Yevropaning rivojlanish yo‘nalishini tubdan belgilab bergan, bugungi kunda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgan intellektual uyg‘onishni rivojlantirgan muhim davr hisoblanadi. Bu harakat nafaqat o‘rta asrlar dunyosi va zamonaviylik o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirdi, balki san’at, fan va falsafa kabi turli sohalarda muhim yutuqlarga zamin yaratdi. Uyg‘onish davri klassik antik davrga bo‘lgan qiziqishni qayta jonlantirib, gumanizmning yuksalishiga yordam bergan yangi tadqiqot ruhini uyg‘otdi, bu esa pirovardida zamonaviy individuallik va ijodkorlik tushunchalariga ta’sir ko‘rsatdi. Bundan tashqari, uning empirik kuzatuv va rasional tafakkurga urg‘u berishi ilmiy inqilobdan darak berdi va zamonaviy demokratik g‘oyalarni shakllantirdi. Dunyo XXI asrning murakkabliklarini yengib o‘tayotgan bir paytda, Uyg‘onish davri merosi jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida bilimga intilish va madaniy yuksalish davom etayotganini eslatib turadi. Shunday qilib, uning ahamiyati Yevropa o‘ziga xosligining negiziga singib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. История философии в кратком изложениеи./ Перевод с чешкого И.И.Богоутаю – Москва, 1991. - С. 574.
2. А.Чориев, С.Чориев. Ренессанс даври Европа фалсафаси. Тошкент, Тафаккур қаноти. 2015. – Б. 8-9.
3. Adelson, Anderson, Braudel, Burn, Butterfield, Carr, Cipolla, et al. (1992). Secret origins of the state: the structural basis of raison d'état. Cambridge University Press (CUP), https://core.ac.uk/download/2712526.pdf (Accessed: 22 Feb, 2025).
4. И.Дорошин, А.Алебастрова. Перспективы ренессанса национализма в Европе. Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2016. (4), - С. 64-71.
5. R.Christopher. Fee. (1-2011). Mythology in the Middle Ages: Heroic Tales of Monsters, Magic and Might. The Cupola: Scholarship at Gettysburg College. https://cupola.gettysburg.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1065&context=books (Accessed: 22 Feb, 2025).
6. Skelton, Fiona. (1996). The content, context and influence of the work of Juan Luis Vives (1492-1540). https://core.ac.uk/download/371167.pdf (Accessed: 22 Feb, 2025).
7. Андрев, Виталий Миколайович. (2019). Viktor Petrov’s “Epoch theory”: the phenomenon in the national historiography of the middle twentieth century. Relevant research of historical sciences: collective monograph. Lviv-Torun Liha-Pres, https://core.ac.uk/download/241044135.pdf (Accessed: 22 Feb, 2025).
8. Azzolini, Monica. (2004). Anatomy of a Dispute:Leonardo, Pacioli, and Scientific Entertainment in Renaissance Milan. “Brill”, https://core.ac.uk/download/28963208.pdf (Accessed: 22 Feb, 2025).

9. Tucker, Mark J. (2002). Logos, Biblios & Bibliotheke: Christian Influences In Library Development. Digital Commons @ George Fox University, https://digitalcommons.georgefox.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1812&context=tcl (Accessed: 22 Feb, 2025).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Yuldashev Avaz Jumayevich,
katta o‘qituvchi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
huzuridagi Malaka oshirish markazi
Samarqand viloyati mintaqaviy filiali
a.yuldashev@gmail.com

MAXMUDXO‘JA BEHBUDIY MILLATIMIZNING MA’RIFATPARVAR JONKUYARI

Annotatsiya: *M.Behbudiy asrning mashhur kishilaridan biri edi. U Turkistonda yangi maktablar ochish, halqni o‘zligini anglash hamda iqtisodiyotini yaxshilash uchun kurashdi. Yangi usuldagi maktablar uchun darslik va qo‘llanmalar yozdi. 1913-yilda “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnalini chiqardi. Dramaturgiya sohasida ham Turkistonda birinchilardan bo‘lib 1912-yilda “Padarkush” dramasini yozib, teatr sohasiga ham asos soldi. Behbudiyning Turkiston maktab-maorifchiligida xizmatlari g‘oyat katta. U o‘lkadagi “usuli jadid” maktabining eng birinchi nazariyotchisi va amaliyotchilaridan va jadidchilik harakatining karvonboshisidir.*

Kalit so‘zlar: *vasiyat, Turkiston, muftiy, gimnaziya, zakunchilik, ziroat, xurriyat, isloh, jadid, rus tuzem maktablar, padarkush.*

Юлдашев Аваз Жумаевич,
старший преподаватель, Региональный филиал
Центра повышения квалификации при международной исламской
академии Узбекистана в Самаркандской области

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИ-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЙ ЭНТУЗИАСТ НАШЕЙ НАЦИИ

Аннотация: *М.Бехбуди был одной из знаменитостей века. Он боролся за открытие новых школ в Туркестане, за самосознание народа и за улучшение его экономики. Писал учебники и пособия для новометодных школ. В 1913 году издавал газету “Самарканд”, журнал “Ойна”. В области драматургии он также заложил основы театральной индустрии, написав в 1912 году драму “Падаркуш”, одну из первых в Туркестане. Заслуги Бехбуди в Туркестанском школьном образовании огромны. Он является одним из первых теоретиков и практиков школы “метод джадидов” в стране и главой каравана джадидистского движения.*

Ключевые слова: *завещание, Туркестан, муфтий, гимназия, закон, Зираат, свобода, реформа, Джадид, русский туземный школы, падаркуш.*

Yuldashev Avaz Jumaevich,
senior teacher, Regional Branch of Samarkand Regional
Center for professional development under the International Islamic Academy of Uzbekistan

MAKHMUDKHOJA BEHBUDI IS THE ENLIGHTENED SOUL OF OUR NATION

Annotation: *M.Behbudi was a famous man of the century. He fought for the opening of new schools in Turkestan, the realization of the ring identity and the improvement of his economy. Wrote textbooks and manuals for schools of the new method. In 1913, the Samarkand newspaper, The Mirror Magazine, was launched. In the field of drama, too, he was one of the first in Turkestan to write the drama “Padarkush” in 1912, which also gave rise to the field of theater. Behbudi’s services in Turkestan school-education are outstanding. He is one of the first theorists and practitioners of the “usuli jadid” school in the country, and the caravanserai of the jadidism movement.*

Keywords: *testament, Turkestan, mufti, gymnasium, law, ziroat, freedom, reform, jadid, Russian tuzem schools, padarkush.*

Kirish.

O‘rtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qurbiy va Akobir mahzum va o‘g‘illarim – Vadid mahzum va Abdulqodir Shakuriy. Sizlarga vasiyat qilaman... Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymanglar! Har ish qilsangiz birga qilinglar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatinglar![1]

Ushbu so‘zlar Maxmudxo‘ja Behbudiyning vasiyatidan lavhalar bo‘lib uning turkistonlik yoshlarni

qanchalik ilmli bo‘lishi uchun qayg‘urgani, xalqini, millatini mustaqil hayot kechirishini istaganligini ko‘ramiz. U asrning mashhur kishilaridan biri edi.

Adabiyotlar tahlili.

M.Behbudiy 1875 yilda Samarqandda muftiy oilasida dunyoga keldi. O‘qimishli ziyolilar oilasidagi muhit va o‘zidagi ilmga, adabiyotga, siyosatga bo‘lgan qiziqish uni yangi yangi kitoblar mutoala qilishga fanlarni yaxshi o‘zlashtirishiga imkon berdi, turli ro‘znomalardan jahonda ro‘y berayotgan siyosiy o‘zgarishlar bilan tanishib bordi. U 1899 yildan ko‘plab sayohatlarga borib Misr, Istanbul, Qirim, Qozon, Kavkaz, Ufa kabi mamlakatlardagi xalq maorifi ishlari bilan tanishdi. Dunyoviy taraqqiyotni anglab yetgan Behbudiy turkistonda ham yangilikni keng joriy etish yangi maktablar ochish, xalqni o‘zligini anglash hamda iqtisodiyotni yaxshilash uchun nimalar qilish kerakligi haqida matbuotda chiqishlar qila boshladi. “Olimi zamoni bo‘lmoq uchun bolalarni avvalo musulmoni xat va savodini chiqarib, zarurriyati diniya va o‘z millatimiz tilini bildirg‘ondan so‘ngra xukumatimizni nizomli maktablarinda beroq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qib tamom qilg‘onlaridan so‘ng Peterburg, Moskov dorilfununlariga yuborib, dukturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi tijorat, ilmi ziroat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qitmoq lozimdir” deb xalq oldida chiqib vaz aytdi va vaqtli matbuotda maqolalar yozib xalqni ma’rifatga undadi. Samarqandda mahalliy aholi uchun kutubxona va qiroatxona ochishga boshchilik qildi.

M.Behbudiyning Turkiston maorifi jonkuyari sifatida ham katta ishlar qildi. U o‘lkadagi “usuli jadid” maktabining eng birinchi nazariyotchi va amaliyotchilaridan, umuman jadidchilik harakatining esa tan olingan karvonboshisidir. 1908 yilda Behbudiy Rajabamin qishlog‘ida ochilgan yangi usuldagi Abdulqodir Shaxuriy maktabini nochor axvoldaligida u Samarqanddagi o‘z hovlisiga ko‘chirib keldi, unga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Yangi usuldagi maktablar uchun darsliklar qo‘llanmalar yozdi. Uning “Qisqacha umumiy geografiya”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Bolalar uchun kitob”, “Rosiyaning qisqacha geografiyasi”, “Islom amaliyoti”, “Hisob” kabi maktab uchun yozilgan darsliklari ko‘p yillar maktablarda darsliklar sifatida foydalanib kelindi. Behbudiy Samarqandda kitob nashr qilishni tashkil etib unda o‘zbek va tojik tillarida darsliklar va qo‘llanmalarni chop etdi. “Turkiston Buxoro va Xiva xaritasi”ni bosib chiqdi.

Behbudiy maktab va ta’lim tarbiya to‘g‘risida “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiyot”, “Tujjor”, “Xurshed”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Turon”, “Xurriyat”, “Oyna”, “Samarqand”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ulug‘ Turkiston”, “Najod”, “Vaqt” va boshqa matbuot saxifalarida yuzlab maqolalar yozib dunyoviy fanlarning foydasi, komil inson tarbiyasi, Turkiston farzandlarining yorqin istiqboli, ularning kelajagi va iqtisodiy muammolarini yoritdi.

U o‘z maqolalarida xalq farzandlarini o‘qitishga da’vat qilar ekan “Bizlarni xonavayron va bevatan va banda qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir. Bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikni mevasi va natijasidir. Dunyo taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi” deb aytadi[2]. O‘zining “Millatni kim isloh etar” nomli maqolasida 1914 yil O‘sha davrning amiru-amaldorlari xalqning farzandlarini ilmli qilish va o‘qitishni, hunarli qilish haqida qayg‘urmayotganliklaridan aziyat chekadi va maqolalarida qattiq tanqid ostiga oladi. Buxoro amirligi maorif uchun mablag‘ ajratishda e’tiborsizligi, ayrim puldor boyvachchalar topgan pullarini o‘zlarining mayishatlari uchun sarflayotganliklarini kuyinchoqlik bilan quyidagicha ta’riflaydi. “Merosiy boyvachchalarimizdan biri maktabg‘a 2 so‘m bermoqni isrof bilib, foxishaxonalarg‘a necha ming so‘mni nobud qilub oxirida sinib mayda-mayda bo‘lur”. (Xushim kelmaydi maqolasi 1914)[3].

Behbudiy 1913 yil “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jarnalini chiqaradi. Bu o‘lkadagi o‘zbek tilida chiqqan birinchi jurnaldir, xalq orasida anga mashxur bo‘lgan bu gazeta va jurnal haftada ikki marta chiqarilgan. gazeta va jurnallarda xalqni ilm-ma’rifatni egallashga chaqirdi, xotin-qizlarni olish huquqini himoya qildi, yangi usuldagi maktablarni faqat shaharlarda emas hamma joylarda ochishga, dunyoviy fanlarni o‘rganishga undadi, tabiat hodisalarini, yerning yumaloqligi, o‘z o‘qi atrofida aylanishi va muallaq turishi, oy va kun tutilishini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qildi. Buning uchun uni reaksion ruhoniylar “dahriy” deb e’lon qilganlar.

Behbudiy “Bizning hollar va ishlar” maqolasida Samarqanddagi Ulug‘bek jome’ masjidida mullalar “Bolasi usuli jadid maktabiga qatnagan yo ularni ruscha o‘qiganlarning o‘zi kofir, xotini taloq bo‘lishini” uqtirib nutq iroda qilganlarga javoban qat’iy aytiladi: “Biz avvalo shuni yozurmizki na usul jadid maktabiga o‘qigan sababli va na ruscha o‘qigan vajdan kishi kofir bo‘lmaydur. Mulla muazzin bunga hech dalil sha’riy va aqliy ko‘rsata olmaydur”. “Ox biz qanday keyin qolganmiz, xalqi olam usuli jadid va ilmi zamonaviy ila osmonlarga uchar, biz xanuz bir-birimizni takfir va talayin ila vaqt o‘tkararmiz”.

Tahlil va natijalar.

M.Behbudiy avvalo xalq maorifini, maktab-madrasa tizimini islox qilish bu ishga kirishishidan avval ta’lim-tarbiyaning bosh maqsadini aniq tasavvur etish lozim deb tushunadi.

Podsho hukumati mahalliy sarmayadorlar bilan aloqani mustahkamlash, savdo-sotiqni avj oldirish maqsadida asosan tarjimonlar (tilmochlar) tayyorlashni ko‘zlab tashkil etgan rus tuzim maktablarini M.Behbudiy

zararga ahamiyatsiz, hatto zararli deb hisoblaydi. “Ruskiy-tuzemniy maktablariga o‘qig‘onlar – deydi jasoratli ma’rifatparvar – ziyoli tugul hayoli hisoblanmaydilar. Ular faqat ruscha chalasavod kishilardur”... Eski hukumat zohiran bizni madaniy qilmoq uchun russkiy-tuzemniy isminda (bizning uchun) maktablar ochib o‘z faxminlaricha bizni dunyo va oxiratda tek baxt, ya’ni nasaro (xristiyan) qiladurg‘on missionerlarga topshirdilar[4].

Jadid maktablari isloxchilarining mustamlakachilik maqsadlariga, to‘g‘rirog‘i “musulmonlarni ruslashtirish bosh prinsipiga” muvofiq ishlovchi ru-tuzem maktablariga qarama-qarshi suratda vujudga keldi. Bu haqida Olmoniyada yashovchi millatdoshimiz Temur Xo‘ja o‘g‘lining tasdiqiy fikri e’tiborlidir.

Maxmudxo‘ja Behbudiy savodsiz o‘qish yozishni bilmaydigan omi xalq orasida ziyo, ma’rifat tarqatishning o‘zi bo‘lmasligini tushunib maqsadga erishish uchun osonroq va qulayroq yo‘llarini axtarib yerli xalq orasida birinchi bo‘lib teatrni targ‘ib etdi, o‘zi 1911 yil “Padarkush yohud o‘qimagan bolaning holi” pessasini yozdi va o‘qitish va ta’limni targ‘ib qildi.

Buxoro amiri isloxchilik tarafdorlarining deyarli barcha hatti-harakatlaridan chunonchi “O‘zining qadimchilik siyosati bilan jadidchilik harakatini tamomila sindirmoq fikrida bo‘lganidan Behbudiyni ham o‘zining qo‘rqinchli dushmanlaridan birisi” deb hisob etgan.

M.Behbudiy shogirdlari Mardonqul va Muxammadqul bilan 1919 yil bahorida xorijga ketayotganida Buxoro beklari tomonidan qo‘lga olinadi. Ularni kofirlikda ayblashib Qarshi shahrida qatil etadi. Behbudiy o‘limini sezganidan so‘ng vasiyatnoma yozib Axmad ismli kishida qoldiradi. U o‘lim oldida tursada xalq farzandini o‘ylab o‘z shogirdlari va farzandiga “Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo‘lida ishlayturg‘on muallimlarning boshini siylanglar! Maorifga yordam etingiz! O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingizlar” deb xitob qilganlar.

Xulosa.

Turkiston xalqining baxt-saodati va ona Vatanimiz ozodligi uchun fidoyilarcha yashagan kurashgan Maxmudxo‘ja Behbudiy umr daftariga shu tariqa nuqta qo‘yiladi. Qarshidagi zammona qatildan xabar topgan butun turkiy dunyo larzaga keldi, jami Turkiston motam tutadi.

S.Ayniy, A.Fitrat, A.CHo‘lpon, X.X.Niyoziy, S.Alizoda va boshqalar tomonidan o‘nlab marsiyalar yoziladi. Uni rasman xalq qaxramoni sifatida tilga olinib Qarshi shahri, Samarqand va Toshkent ko‘chalari, Buxoro bosmaxonasi uni nomi bilan ataladi. Faqat 1937 yilgacha ya’ni jadidchilik totalitar tuzum domiga tushib, qatag‘onlar avj olgancha davom etdi.

Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekistonimizda Maxmudxo‘ja Behbudiy va boshqa mutafakkirlarimizning amalga oshirilmagan ishlari va fikrlari amalga oshmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. М.Беҳбудий васиятлари. Педагогика тарихидан хрестоматия. -Т., Ўқитувчи нашриёти, 1998.
2. Миллатни ким ислоҳ этар. Педагогика тарихидан хрестоматия. -Т., 1993.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent, Ma’naviyat, 2006.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlarga murojaat//Tafakkur jurnali, 1994, 1-son.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Padarkush”// Sharq yulduzi jurnali, 1989, 7-son.
6. M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. -Toshkent, 2014.
7. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1990, 26-yanvar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: muxtarovutkir1984@gmail.com

UO'K 303.094.6

ISHSIZLIKNING IJTIMOIY OQIBATLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING AYRIM JIHATLARI

Annotatsiya. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari ilmiy adabiyotlarda kam o'rganilgan jihat bo'lib qolmoqda. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilganda, ular asosan salbiy ekanligi aniqlangan. Bu, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun jamiyat mehnat resurslaridan foydalanishning samarasiz shakli sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari va uni bartaraf etishning ayrim yo'llari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *ishsizlik, ijtimoiylashuv, ijtimoiy oqibat, bandlik, kambag'allik.*

Мухтаров Уткиржон Муталибжанович
Доцент Андижанского государственного педагогического института, PhD

UO'K 303.094.6

СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ И НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация. *Социальные последствия безработицы остаются малоизученным аспектом в научной литературе. Анализ социальных последствий безработицы показывает, что они в основном носят негативный характер. Это проявляется как неэффективная форма использования трудовых ресурсов общества, препятствующая социально-экономическому развитию. В статье проведен социально-философский анализ социальных последствий безработицы и некоторых путей их устранения.*

Ключевые слова: *безработица, социализация, социальные последствия, занятость, бедность.*

Mukhtarov Utkirjon Mutalibjanovich
Associate Professor of Andijan State Pedagogical Institute, PhD

UO'K 303.094.6

SOCIAL CONSEQUENCES OF UNEMPLOYMENT AND SOME ASPECTS OF ITS ELIMINATION

Abstract. *The social consequences of unemployment remain an underexplored aspect in scientific literature. Analyzing the social consequences of unemployment reveals that they are mostly negative. This manifests as an inefficient use of society's labor resources, hindering socio-economic development. The article provides a socio-philosophical analysis of the social consequences of unemployment and some ways to mitigate them.*

Keywords: *unemployment, socialization, social consequences, employment, poverty.*

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va falsafiy jihatlari bilan ham muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv, ilm-fan va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, mehnat bozorining o'zgaruvchanligi sharoitida ishsizlik muammosi tobora murakkablashib bormoqda. Ushbu jarayonlarni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, ishsizlikning jamiyatdagi mohiyati va oqibatlarini o'rganish hamda uni kamaytirish bo'yicha konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Aynan bugungi kunda bu borarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil bo'lishini ta'kidladi. Bu uchun 1,5 mln aholi doimiy ishga joylashtirilib, 2 milliondan ziyod odam biznesga jalb qilinadi. 60 ta tuman va shahar kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantiriladi [6].

Adabiyotlar tahlili.

Moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga qodir bo'lgan juda ko'p sonli odamlar boshqalarning natijasi bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilishni to'xtatmaydi. Bundan tashqari, jamiyat u yoki bu darajada ularning mavjudligini turli xil imtiyozlar, erta pensiya va boshqalar

shaklida ta'minlashi kerak va ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ishsizlarning ish bilan ta'minlanish muddati o‘sish tendentsiyasiga ega. O‘zbekistonda ishsizlik muddati 4 oydan ortiq bo‘lgan ishsizlar ulushi 1992 yildagi 8 foizdan 1995 yilda 60 foizga, 2001 yilda 69 foizga, 2005 yilda esa 7,5 foizga oshdi. Agar ushbu davr boshida har beshinchi ishsiz bir yildan ortiq ishlamagan bo‘lsa, endi ularning har ikkinchisi bir yil ichida ish topa olmadi. Qidiruv davrining o‘rtacha davomiyligiish 1992 yilda 3-4 oydan 1995 yilda 7,4 oyga, 2001 yilda 8,2 oyga va 2005 yilda 8,5 oyga oshdi.

1992 yilda ish qidirishning o‘rtacha vaqti 3,8 oyni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 9,0 oyga yetdi. Bu shuni anglatadiki, respublikada ish topish uchun o‘rtacha vaqt umuman O‘zbekiston uchun shunga o‘xshash ko‘rsatkichlardan oshib keta boshladi.

Bunday vaziyatda xodim ish haqi va mehnat sharoitlarining kamayishidan qat'i nazar, o‘z ishini saqlab qolish uchun hamma narsani qilishi kerak. Ish beruvchi ushbu omilni yanada ta'minlash, o‘z hukmronligini mustahkamlash va xodimni ekspluatatsiya qilish uchun foydalanadi. U ish haqini kamaytirishi, ta'tilning davomiyligini o‘zgartirishi, ish vaqtini ko‘paytirishi, kasallik ta'tilini to‘lamasligi va hokazo.

Ishsizlikning keyingi shakli - bu malakani yo‘qotish. Ishsizlarning qariyb 80 foizi ish tajribasiga ega bo‘lib, ularning aksariyati ishdan bo‘shatilgan, xodimlarning qisqarishi, korxona tugatilganligi yoki o‘z iltimosiga ko‘ra ishdan bo‘shatilgan, yuqori malakasidan qat'i nazar, ish qidirishga mahkumdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishdan uzilgan va bir yil ichida ish boshlamagan odamlarning hatto oldingi kasblarida ham muvaffaqiyatli ishlash qobiliyati keskin pasayadi. O.H.Hamroyev ta’kidlaganidek, “agar biror kishi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha 2-3 yil ishlamasa, u allaqachon ko‘plab kasbiy fazilatlarini yo‘qotadi va ish topishda qayta tayyorlash va qo‘shimcha o‘qitish zarurati tug‘iladi” [1].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot materiallari shuni ko‘rsatadiki, ishsizlarning eng malakali qismi o‘tmishda yirik va kichik korxonalarda, qurilish, transport, aloqa, geologiya sohalarida ishlagan shaxslardir. Bular odatda yuqori malakaga ega bo‘lgan mexaniklar, tokarlar, stanoklar, operatorlar, mashinistlar va boshqalar kabi mutaxassislardir. Kasblariga mos keladigan ish qidirishdan charchagan ularning katta qismi kam malakali ish turlarini bajarishga rozi bo‘ladilar.

Bunday ish, tabiiyki,yuqori samaradorlikka erisha olmaydi va ishning talab qilinadigan sifatini ta'minlay olmaydi. Yuqori malakali ishchi har doim buni majburiy va vaqtinchalik deb hisoblaydi.

Natijalar va ularning tahlili.

Markaziy Osiyo mintaqasida mehnat bozorining o‘tkir tarkibiy muammolaridan biri ma’lum yosh guruhlari o‘rtasidagi ishsizlik darajasining notekisligi, birinchi navbatda yoshlar o‘rtasidagi ommaviy ishsizlik bo‘lib qolmoqda [2].

Mamlakatimizda aholining asosiy qismi yollanma ishchiga aylanganligi va asosiy yashash vositasi ish haqi bo‘lganligi sababli ular uchun ishsizlik doimiy ravishda olinadigan daromadni yo‘qotishdir. Aynan shu omil qashshoqlik, davlatning eng boy va eng qashshoq qatlamlari o‘rtasidagi farqning kuchayishida asosiy omillardan biriga aylanadi. Aholining katta qismining bunday qashshoqlashuvi, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovutning oshishi, albatta, ishsizlikning yana bir jiddiy oqibatidir.

Agar 1992 yilda jamiyatning eng boy va kambag‘al qatlamlari o‘rtasidagi tafovut 8,0 baravar bo‘lgan bo‘lsa, 1995 yilda bu ko‘rsatkich allaqachon 13,5 baravar, 2000 yilda - 13,9 barobar, 2014 yilda esa 15,1 baravarga yetdi. Bularning barchasi, birinchidan, yuqori va quyi qatlamlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning kuchayishi va ikkinchidan, qashshoqlik doirasining kengayishidan dalolat beradi.

Muammoni faqat ishsizlik bilan bog‘liq turli xil nafaqalar tayinlash orqali hal qilib bo‘lmaydi. Muayyan holatlar tufayli uzoq vaqt ishlamagan odamlar maksimal darajada nafaqa olish imkoniyatidan mahrum. Shu bilan birga, nafaqa berish muddati cheklangan va ishsizlik davri oshgani sayin nafaqa miqdori kamayadi. Albatta, qonunda nafaqa rasmiy eng kam ish haqidan kam bo‘lmasligi kerakligi belgilab qo‘yilgan. Shu munosabat bilan eng kam ish haqining yashash qiymatiijtimoiy kafolatli yashash narxidan qabul qilib bo‘lmaydigan darajada uzoqdir. Bizningcha, ishsizlik bo‘yicha eng kam nafaqa qonun bilan ijtimoiy yashash minimumi darajasida yoki o‘ta og‘ir hollarda fiziologik minimum darajasida belgilanishi kerakdek tuyuladi.

Ishsizlikning yana bir jiddiy oqibati uning ma’lum bir qismining yashirin iqtisodiyotning ijtimoiy bazasiga aylanishidir. Bu, birinchi navbatda, yashirin ishsizlik bilan bog‘liq. Yashirin bandlik va yashirin ishsizlik madaniyatli mehnat bozoridagi g‘ayritabiiy jarayonlardir. Ular mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan shartlangan majburiy hodisalardir, lekin ayni paytda ular nafaqat salbiy, balki ba’zi ijobiy tomonlarga ham ega. Biroq, ishsizlarning salmoqli qismi soya sektoriga kirib, uning qamrovini kengaytirmoqda. “Jamiyatda qonunlar, huquqiy normalar va iqtisodiy hayotning rasmiy qoidalariga zid ravishda rivojlanadigan, ya’ni qonunchilik doirasidan tashqarida bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tuzilmasi” [3].

Yashirin iqtisodiyotning salmoqli ulushini ishlab chiqarish va taqsimlash sohasidagi noqonuniy faoliyat egallaydi. Iqtisodiyotning ushbu tarkibiy qismi jamiyat uchun alohida xavf tug‘diradi. Ishlab chiqarish sohasidagi ish o‘rinlarini asosan jamiyatning eng kambag‘al, ishsiz qatlamlari, umidsiz va farovon korxonalarda ish topish umidini yo‘qotganlar tashkil qiladi. Biroq, ularning

ba'zilari ro‘yxatga olingan ishsizligicha qolmoqda.

Ishsizlikning shakllanishi va uning bosqichma-bosqich institutsionallashuvi ularni o‘ziga xos ijtimoiy guruhining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu ishsizlikning asosiy oqibatlaridan biri bo‘lib, uning muammolarini yanada chuqurroq o‘rganish va hal etishni talab qiladi. Ayni shu o‘rinda, vaqtida bartaraf etilmagan ishsizlik, kelajakdagi sodir etiladigan jinoyatning motivi bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mamlakatimizda barcha yosh guruhlarida ish xavfsizligiga bo‘lgan ishonchdan ko‘ra, ishni yo‘qotish ehtimolidan tashvishlanish yuqoriroqdir. Bu shubhasiz, yoshning mehnat sub'ekti sifatidagi shaxsning xususiyatlaridan biridir.

Yoshlarning katta qismi malakasiz yoki yarim malakali mehnatda, ishlab chiqarish liniyalarida va xizmat ko‘rsatish sohasida ishlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va amaliyot ma’lumotlari yigit-qizlarning pragmatik, moddiy yo‘naltirilganligi, ularning iqtisodiy xulq-atvori faol shakllanayotganligi, mavjud munosabatlarga, shu jumladan, ijtimoiy-mehnat sohasidagi munosabatlarga moslashganligidan dalolat beradi.

O‘rta ta’lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlarining ishsiz bitiruvchilari mehnat bozoridagi keskinlikning uzoq muddatli omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta’lim muassasalari bitiruvchilari, mutaxassisliklari mehnat bozori talabiga mos kelmaydiganlar soni ortdi. Tayyorlangan mutaxassislarga talabning yo‘qligi ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi katta farqni ko‘rsatadi. Ushbu beqaror vaziyat yoshlarda ijtimoiy befarqlik va pessimizm kayfiyatini keltirib chiqaradi, ular ko‘pincha jamiyat tomonidan ma’qullanmagan xatti-harakatlar shakllariga o‘tadi.

Hayotiy qadriyatlar tarkibida mehnatning past o‘rni, ota-onalarning yordamiga tayanish va ularga real qaramlik bilan birgalikda yoshlar ishsizligini saqlab qoladi. Ishsiz yoshlarning davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy himoyasi nihoyatda cheklangan bo‘lib, ularning moddiy ahvoliga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishsiz yoshlar asosan kam ta’minlangan oilalardan. Yoshlarning ishsizlar safida uzoq vaqt qolishi ularning qashshoqlik va jismoniy minimum doirasidagi cheklangan ehtiyojlar bilan tavsiflangan pastdan oldingi darajaga harakatlanishini anglatadi. Bu yerdan jinoiy qatlamga yoki “beboshlikka” ga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l bor. Shuni ta’kidlash kerakki, ishsiz yoshlar o‘rtasida jinoiy ko‘rinishlarga nisbatan toqatli munosabatda.

90-yillarning o‘rtalaridan boshlab mamlakatimizda maktabni tugatayotganlarning oz qismida o‘qishni davom ettirish tendentsiyasi kuzatildi. Buni oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirish amaliyoti, tanlovlarda ham ko‘rish mumkin. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, 1995-2015 yillar universitet bitiruvchilari, mamlakatimizda 20-30-yillardan beri bo‘lgani kabi, ish bilan ta’minlanishiga umid qila olmaydi [4].

Bizningcha, yoshlarning mehnat hayotiga o‘tishiga ko‘maklashish, ularga mehnat bozori haqida ma’lumot berish zarur.

Sanoat va savdo sohalarida tadbirkorlarga beriladigan subsidiyalar, yoshlarga o‘qishni tamomlagandan so‘ng olti oylik amaliyot o‘tash, bir vaqtning o‘zida eng kam oylik ish haqini olish imkoniyati yaratilsa, ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Bunday treningdan o‘tgan shaxslar ish tajribasi tufayli ish beruvchilar uchun yanada jozibador bo‘ladi.

Afsuski, hozirgi paytda yoshlar ongida ishlab chiqarishdagi mehnat nufuzli emas. Shunday qilib, sanoat ishlab chiqarishi va fan kabi jamiyatning hayotiy muhim sohalarida mehnatning obro‘-e’tibori yo‘qoladi. Sanoatdagi yuqori malakali mehnatdan vositachilikka o‘tish yoshlarning qadriyat yo‘nalishlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi va ularning tanazzulga uchrashiga yordam berdi. Birgina mamlakatimizda 2004-2015 yillarda kasb-hunar kollejlarini tomomlagan 100 minglab yoshlarning bandligini ta’minlashda sustkashliklarga yo‘l qo‘yildi, natijada kasb-kollejni tomomlagan yoshlarning deyarli uchdan ikki qismi ishsizlarga aylandi.

Yoshlar muammolarini hal qilish yo‘llari yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda emas, balki Yangi O‘zbekiston jamiyati rivojlanishining asosiy masalalarini hal qilishda yotadi. Yoshlar degradatsiyasining belgilari - ijtimoiy qadriyatlar, umuminsoniy ahamiyatga molik ideallar inqirozi, aslida jamiyatning o‘z mavjudligining ma’nosi va g‘oyasini yo‘qotishi demakdir.

Yoshlarning bozor tizimiga kirishga intilishi bozor talab qiladigan mutaxassislik va malakaga ega bo‘lish imkoniyati bilan tashkil etilishi va qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Shuning uchun ishlab chiqarishni rivojlantirishni prognozlash, mavjud ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilishni rejalashtirish va yangilarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Kasb-hunarga o‘qitish muassasalari kasbga yo‘naltirish ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yish, iloji bo‘lsa, yoshlarni bozor o‘zgarishlarining real jarayoniga ertaroq jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatning feminizatsiyasiga qaramay, gender mehnat sub’ektining xususiyatlaridan biri bo‘lib qolmoqda, chunki qonunchilikda ayollarning mehnat sharoitlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayollar albatta, qonun bilan kamsitishdan himoyalangan, ammo amalda ayollar ishchi kuchi an'anaviy ravishda hali ham yordamchi sifatida qaraladi. Diskriminatsiya ish haqining pastligida ham namoyon bo‘ladi. Xotin-qizlarning mehnat bozoriga kirib kelishiga ularning umumiy ta’lim darajasining oshishi, ish haftasining qisqarishi, uy ishlarini mexanizatsiyalash, oilalarda farzandlar sonining kamayishi sabab bo‘ldi. “Ayollar uchun ish bilan

ta’minlanishning asosiy rag‘batlantirishlari oilaviy byudjetlarning cheklanganligi, ajralishlar sonining ko‘payishi va boshqalar edi. Aksariyat ayollar xizmat ko‘rsatish sohasida band. Biroq, boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, u yerda ham eng yuqori lavozimlar ular uchun mavjud emas” [5].

O‘zbekistonda ishsiz ayollar soni ancha yuqoriligicha qolmoqda. Ularning aksariyati maktabgacha yoshdagi bolalarga ega, bu esa moslashuvchan ish jadvali bilan to‘liq bo‘lmagan ish vaqtiga talabning oshishiga olib keladi. Ishsiz ayollarning qariyb yarmi oliy ma’lumotga ega, ko‘pchilikni muhandis-texnik xodimlar tashkil etadi. Bu borada bandlik xizmati faoliyatini faollashtirish, birinchi navbatda, xotin-qizlar bandligini ta’minlashga ko‘maklashishga alohida e’tibor qaratgan holda, barcha ishsiz qolganlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hajmini oshirish zarur. Ayollarning samarali bandligini ta’minlashga yo‘naltirilgan doimiy faoliyat olib boruvchi va yangilanib turuvchi bo‘sh ish o‘rinlari bankini tashkil etish zaur.

Ish beruvchining tashabbusi bilan asosan o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar ishdan bo‘shatiladi, bu esa mehnat bozorida malaka talablari kuchaytirilganidan dalolat beradi.

Ishsizlik - bu juda murakkab va qarama-qarshi hodisa, shuning uchun siz nafaqat uning salbiy tomonlariga, balki ba’zi ijobiy tomonlariga ham e'tibor berishingiz kerak. Bu ijobiy jihat, eng avvalo, ishsizlar mehnat rezervi bo‘lib, turli korxonalarni ozmi-ko‘pmi malakali kadrlar bilan to‘ldirishga asos bo‘layotgani bilan bog‘liq. Eski korxonalarda yangi va tarkibiy o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi sharoitida bu juda muhim omil.

Ikkinchidan, ishsizlik malakali kadrlarni qayta taqsimlash uchun sharoit yaratadi, bu iqtisodiyotning bir qator tarmoqlarini yanada jadal rivojlantirish va jamiyatda mahsulotiga bo‘lgan talab tobora ortib borayotgan yangi tarmoqlarning shakllanishi bilan bog‘liq.


Uchinchidan, bu jamoalar uchun ballast bo‘lgan beparvo, vijdonsiz ishchilardan xalos bo‘lishga imkon beradi.

To‘rtinchidan, u xodimlarda harakatga, harakatchanlikka doimiy tayyorlikni shakllantiradi va odamlarning xabardorligi omiliga aylanadi.

Beshichidan, ta’lim, malaka va boshqa tegishli mutaxassisliklar va kasblarni almashtirish qobiliyatini doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Demak, ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari murakkab dialektik xarakterga ega bo‘lib, ularni tadqiq etish va tartibga solish kompleks, tizimli yondashuvni talab qiladi.

Quyidagi grafikda esa yuqoridagi fikrlar va ilmiy xulosalarning foiz xisobodagi ko‘rinishi aks ettirilgan (2.2.2-rasm).



Xulosa.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari jamiyatning turli sohalariga ta’sir ko‘rsatadi va uning zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan tahlili quyidagi asosiy yo‘nalishlarda harakterlanadi:

Birinchidan, ishsizlik ijtimoiy notenglikning kuchyishiga olib keladi, chunki iqtisodiy resurslarning muammoli taqsimlanishi natijasida jamiyatda kambag‘allik darajasi oshib boradi. Bu ijtimoiy muvozanatsizlikka, aholining muayyan qatlamlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarga sabab bo‘lishi mumkin;

Ikkinchidan, ishsizlik odamlarni noqonuniy faoliyatga yo‘naltirishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar va daromad manbaiga ega bo‘lmagan aholi o‘rtasida jinoyatchilik ko‘rsatkichlari ortishi ehtimoli yuqori;

Uchinchidan, ruhiy salomatlikka ta’sir etadi ya’ni stress, yurak qon tomir kasalliklar holatlarining ko‘payishi kuzatiladi. Bundan tashqari, odamlarda o‘zini qadrsiz yoki jamiyat taraqqiyoti uchun keraksiz his qilish holati paydo bo‘ladi;

To‘rtinchidan, ishsizlik oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir qiladi, ajrimlar va nizolarning ko‘payishiga olib keladi. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar sovuqlashadi, ayniqsa, moddiy tanqisliklar tufayli.

Beshinchidan, davlat ishsizlik oqibatlarini kamaytirish uchun ijtimoiy dasturlar va yordamlarga katta mablag‘ sarflaydi. Bu iqtisodiy yukni ortishiga olib keladi, biroq daromad manbaiga ega bo‘lmagan insonlar sonini qisqartirish uchun bu zarur.

Oltinchidan, yuqorida keltirib o‘tilganidek, ishsizlik natijasida odamlarning malaka va ko‘nikmalari yo‘qolishi mumkin. Bu o‘z navbatida, jamiyatning umumiy ishlab chiqarish salohiyatiga salbiy ta’sir qiladi;

Yettinchidan, ishsiz shaxslar jamiyatdan chetlashib, o‘zlarini ijtimoiy aloqalardan uzoqlashtirishi mumkin. Bu holat ularning shaxsiy rivojlanishiga va jamoaviy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mambetjanov Q. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. // I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent - 2012. 8-9 betlar.

2. Muxtarov U.M. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ishsizlik muammosi: xorijiy tajriba va amaliyot. / Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2025 2-son. 196-198 b.

3. Yusupov R.A. Bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta’minlashning nazariy asoslari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2001, 12-13-b.

4. Saidov A.X. 0 ‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modemizatsiya va isloh etishda ijtimoiy fanlaming roli // 0‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, №3, 2016, 3-b.

5. Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1-5-qismlar. T.: TDIU, 2005. - 310 b.

6. https://sputniknews.uz/20250117/prezidentga-kambagallikni-qisqartirish-boyicha-chora-tadbirlar-taqdim-etildi-47596109.html

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdullayeva Madinaxon Erkinjon qizi
Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTON HUDUDIGA YAHUDIYLIK DININING VA DINIY TASHKILOTLARINING KIRIB KELISHI

Annotatsiya: *Maqolada mavzuga oid ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar hamda, manbalar asosida Yahudiylik dinining vujudga kelishiga qisqacha to‘htalgan. Yahudiylik dinining ilk bora O‘zbekiston hududiga kirib kelishi va bu dinning diniy tashkilotlari ya’niki sinagogalari vujudga kelishi haqida yoritib berilgan. Yahudiylik dining kirib kelishi ikki davrga bo‘lib o‘rganilgan va bu davrlardagi Yahudiylik dinining tarqalishi, millatlashish hamda, shu hudud milliy an’analariga moslashib ketganliklari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yahudiylik, sinagoga, integratsiya, Buxoro yahudiylari, ashkinazlar.*

Абдуллаева Мадинахон Эркинжон қизи
Кафедра философии Андижанского государственный университет преподаватель

ПРОНИКНОВЕНИЕ ИУДАИЗМА И РЕЛИГИОЗНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ НА ТЕРРИТОРИЮ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В статье кратко рассматривается возникновение иудаизма на основе научной, научно-популярной литературы и источников по данной теме. Освещено первое проникновение иудаизма на территорию Узбекистана и возникновение религиозных организаций этой религии, а именно синагог. Введение иудаизма изучается в два периода, и освещается распространение иудаизма в эти периоды, его национализация и адаптация к национальным традициям региона.*

Ключевые слова: *иудаизм, синагога, интеграция, бухарские евреи, ашкенази.*

Abdullaeva Madinaxon Erkinjon kizi
Department of Philosophy Andijan State University lecturer

THE ENTRY OF JUDAISM AND RELIGIOUS ORGANIZATIONS INTO THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

Abstract: *The article briefly discusses the emergence of Judaism based on scholarly and popular scientific literature and sources. It highlights the arrival of Judaism in Uzbekistan and the establishment of its religious institutions, namely synagogues. The spread of Judaism is studied in two periods, detailing its dissemination, assimilation, and adaptation to local traditions.*

Keywords: *Judaism, synagogue, integration, Bukhara Jews, Ashkenazim.*

Kirish.

O‘zbekiston hududiga yahudiylik dinining kirib kelishi uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu din mintaqaga asosan savdo aloqalari, siyosiy voqealar va migratsiya natijasida tarqalgan. Markaziy Osiyo xususan, O‘zbekiston hududi qadimdan turli madaniyat va dinlar chorrahasi bo‘lib kelgan. Yahudiylikning bu mintaqaga kirib kelishi esa eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladi. O‘rta Osiyoga yahudiylarning kelishi haqidagi dastlabki ma’lumotlar eramizdan avvalgi VI asrga, Bobillik podshoh Navuxodonosor II tomonidan yahudiylarning majburiy surgun qilinishi davriga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik, Buyuk Ipak yo‘lining rivojlanishi bilan yahudiy savdogarlar va hunarmandlar Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlariga joylashib, diniy jamoalarni tashkil qilganlar. O‘rta asrlarda Buxoro yahudiylari O‘zbekiston hududidagi eng yirik yahudiy jamoasini tashkil qilgan. Ular o‘zining diniy e’tiqodlarini saqlab qolgan holda, mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashgan. Buxoro yahudiylari orasida ko‘plab hunarmandlar, savdogarlar va ziyolilar yetishib chiqqan. Ularning ibodatxonalari (sinagogalar) va diniy tashkilotlari uzoq yillar davomida faoliyat yuritib kelgan. Yahudiylik dini O‘zbekistonda diniy erkinlik darajasiga qarab turli davrlarda turlicha rivojlangan. Xususan, Sovet davrida diniy tashkilotlarning faoliyati cheklangan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng yahudiy jamoalari va diniy tashkilotlarning faoliyati qayta tiklandi. Bugungi kunda ham O‘zbekistonda yahudiylik dini vakillari o‘z e’tiqodlarini erkin amalga oshirmoqdalar va diniy jamoalar faoliyat yuritmoqda. Mazkur mavzu O‘zbekiston hududida yahudiylik dinining tarixi, uning qanday omillar ta’sirida tarqalganligi, diniy

tashkilotlarning shakllanishi va hozirgi kundagi ahvoli kabi masalalarni o‘rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili.

Maqola bir qancha manbalarga asoslangan holda. Adabiyotlar tarkibida ilmiy maqola va kitoblardan foydalanilgan. Yahudiylik dinining O‘zbekiston hududiga kirib kelishini D.Muratov, M.Alimova, J.Karimov larning Dinshunoslik darsliklarida kelgan ma’lumotlarda quyidagicha yahudiylarning O‘zbekiston hududiga kirib kelishlari va ularning demografik joylashuvlari quyidagcha yoritib berilgan.

1165 yilda Sharqqa sayohat qilgan Veniamin de Tudelning xabar berishicha, Sharqqa tomon qancha uzoqroq kirib borilsa, yahudiylar soni shuncha ko‘payib borgan. O‘sha davrda Quddus shahrida hammasi bo‘lib 4 ming yahudiy yashagan bo‘lsa, Basrada ularning soni 2 ming, Damashqda 3 ming, Isfahonda 15 ming, Samarqandda esa 30 ming kishini tashkil qilgan. Biroq bu sayyoh Sharqda Bag‘dodgacha safar qilib, mahalliy yahudiylarning afsonaviy ma’lumotlariga asoslangan.

Arab tarixchilarining ma’lumotlariga ko‘ra, Sharqda yahudiylar tomonidan «Yahudiya» deb ataladigan shaharlar qurilgan. Shunday shaharlardan biri Marv shahri yaqinida bo‘lgan.

Kuper, Alanna E. tomonidan, “Buxoro yahudiylari va global yahudiylikning dinamikasi” (Sefarad va Mizrahi tadqiqotlari). Ilmiy manbalarida keltiriladiki, “Hozirgi O‘zbekistonni tashkil etgan hududda birinchi yahudiylar qachon qo‘nim topganligi noma'lum. Miloddan avvalgi X-asrda Isroil zaminida shoh Dovud hukmronligi davrida yahudiy savdogarlar allaqachon O‘rta Osiyoga kirib ketishgan. Biroq, yahudiylar u yerda qachon yashaganligi haqida hech qanday matn yoki arxeologik topilmalar yo‘q. Bizda mavjud bo‘lgan sanoqsiz og‘zaki an'analar mavjud bo‘lib, ularni tarixchilar hozirda o‘tmishning qonuniy isboti deb bilishadi”.[22]

Metodlar.

1.Tarixiy yondashuv: Bu yondashuv yahudiylarning O‘rta Osiyoga kelishi, bu yerda qanday sharoitlarda yashagani, ularning mahalliy jamiyat bilan munosabatlari va siyosiy o‘zgarishlar ta’sirini tadqiq qilishga asoslanadi.

- Mavjud manbalar bilan ishlash: tarixiy hujjatlar, sayyohlar kundaliklari (masalan, Veniamin Tudelskiy), arxeologik topilmalar.
- Davrlarga ajratib tahlil qilish: qadimgi, o‘rta asr, Rossiya imperiyasi, sovet davri va mustaqillikdan keyingi holat.
- Yahudiylarning harakatlanishi va migratsiya sabablari: Erondagi ta’qiblar, savdo yo‘llari, urushlar va ijtimoiy o‘zgarishlar.

2. Madaniy-tarixiy yondashuv

Bu yondashuv yahudiylarning mahalliy madaniyatga ta’siri va ularning madaniyatiga o‘zgarishlar qanday ta’sir qilganini o‘rganishga qaratilgan.

- Yahudiylarning tili va madaniyati: forscha dialektlar, ivrit maktablari, hunarmandchilik va savdo.
- Mahalliy madaniyat bilan integratsiya: O‘rta Osiyo madaniyati va an’analari bilan uyg‘unlashish jarayonlari.
- Diniy ta’limot va urf-odatlarning saqlanib qolishi yoki o‘zgarishi.

3. Sotsiologik yondashuv

Bu yondashuv yahudiylarning O‘rta Osiyodagi jamiyatda qanday mavqega ega bo‘lganini va ularning ijtimoiy tuzilishini tahlil qilishga qaratilgan.

- Yahudiy jamoalarining tarkibi va tuzilishi: mahallalar, sinagogalar, yetakchilar (kalontar).
- Musulmon jamiyati bilan o‘zaro munosabatlar: iqtisodiy va diniy jihatlar, "zimmiy" maqomi.
- Yahudiylarning kasb-hunar faoliyati: hunarmandlik, savdo, matbaa.

4. Diniy va dinshunoslik yondashuvi

Bu yondashuv yahudiylarning diniy hayotiga va islom bilan o‘zaro aloqalariga e’tibor qaratadi.

- Yahudiylarning diniy amaliyotlari: sinagogalar, kosher ovqatlanish qoidalari, Tora va Talmudning o‘rni.
- Yahudiylarning Islom madaniyatidagi o‘rni: "chala" yahudiylar, yahudiylik va islom o‘rtasidagi diniy aloqalar.

5. Taqqoslash yondashuv

Bu yondashuv O‘rta Osiyodagi yahudiy jamoalarini boshqa mintaqalardagi (Eron, Rossiya, Isroil, AQSh) yahudiy diasporalari bilan solishtirishga asoslanadi.

- Markaziy Osiyodagi yahudiylar va boshqa mintaqalar: yashash sharoitlari, diniy erkinlik, iqtisodiy faoliyat.
- Buxoro yahudiylari va Yevropa yahudiylari (ashkenazlar) farqlari.

Natijalar va muhokamalar.

Falastin hududidan Rim imperiyasining turli tomonlariga butunlay badarg‘a qilinadilar. Shu tariqa, bu davrlarda yahudiy xalqining katta qismi asir qilib olingan yoki bu yerlardan quvg‘in qilingan. Aynan mana shu hol yahudiylarning keyinchalik Falastin hududidan tashqariga, jumladan, Markaziy Osiyoga tarqab ketishiga sabab bo‘ldi. Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi VII asrdayoq yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron va boshqa yurtlarda panoh izlashgan. Yahudiylar O‘rta Osiyoga qadim zamonlardan ko‘chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Miloddan avvalgi 722 yilda Isroil podshohligi Ossuriya tomonidan, miloddan avvalgi 586 yilda esa Bobil davlati tomonidan bosib olingach, yahudiy xalqining bir qismi o‘lkadan haydab chiqarildi. Bu esa yahudiylarning Osiyo o‘lkalari bo‘ylab tarqalib ketishiga sabab bo‘ldi. Hatto

miloddan avvalgi VIII asrlarda ba’zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o‘lkalarda boshpana topganliklari haqida ham ma’lumotlar bor. Fors davlati ma’lum muddat O‘rta Osiyoni o‘z hukmi ostida tutib turgan va xuddi shu davrda yahudiylarning ko‘chib kelishi boshlangan. Yahudiylar O‘rta Osiyoda So‘g‘diyona davlati davrida, ya’ni miloddan avvalgi II asrda paydo bo‘ldilar. Ular Eron orqali Marvga kelib, so‘ng u yerdan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarga tarqaldilar. Yahudiylarning O‘rta Osiyoda paydo bo‘lishi tarixi juda murakkabdir. Ko‘pchilik tadqiqotchilar ularning bu yerda paydo bo‘lishlarini milodning birinchi asrida vujudga kelgan «Buyuk ipak yo‘li» faoliyati bilan bog‘laydilar. Buyuk ipak yo‘li, darhaqiqat, bo‘yoqchilik bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan yahudiylarning xom ashyo manbalariga yaqinroq mintaqalarga tarqalishiga sabab bo‘lgan. Yahudiylarning Balx shahrida paydo bo‘lishlari esa faqatgina milodning IV asriga to‘g‘ri keladi. Milodiy IX-X asrlarda yahudiy jamoalari ancha ko‘psonli va erkin bo‘lganlar. Ulardan faqat urushga yaroqli bo‘lgan erkaklargina soliq (jizya) to‘laganlar. Yig‘ilgan soliqlarning faqatgina yarmi davlat xazinasiga topshirilgan. Qolgan qismi esa jamoa boshlig‘i ixtiyorida qolgan. (A.Ochildiyev, 2013)

Yahudiylarning O‘rta Osiyoda yashaganliklariga guvohlik beruvchi arxeologik topilmalar ilk bor 1954 yili olimlar tomonidan Turkmanistonning Marv va Bayramali shaharlarida aniqlangan. Bular qadimgi sinagoga qoldiklari, yahudiy yozuvlari va nomalari bitilgan sopol buyumlardir. Topilmalar Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari hukmronlik qilgan miloddan avvalgi II - milodiy I asrlarga tegishli bo‘lgan.

X-XIII asrlar Buxoro yahudiylari uchun ma’naviy-ruhiy jihatdan o‘sish davri bo‘ldi. Ular Iroq yahudiy markazidanuzoqda, O‘rta Osiyo hududlarida yahudiylikka oid qarashlarini rivojlantirdilar va Tora qonunlariga moslashtirdilar.

O‘zlarini aslzoda deb hisoblagan Bobil yahudiylari O‘rta Osiyo yahudiylarini kashrut qoidasi (ruxsat etilgan ovqatlarnigina yeyish)ni buzish, yerli aholi bilan aralashib ketish va yahudiy dinini bid’atlar bilan buzishda ayblay boshladilar. Albatta, bu ayblovlar asossiz emas edi.

IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda karaimlar deb ataladigan yahudiy sektasi paydo bo‘ladi. Bu sekta tarafdorlari faqat Torani tan olar, Talmudni esa inkor qilar edilar. X asr O‘rta Osiyo karaimlarining ko‘zga ko‘ringan rahnamolaridan biri g‘aznalik Menexem Talmud tarafdorlariga qarshi o‘z fikrlarini isbotlash uchun Iskandariyaga safar qilgan. Karaimlar sektasi namoyandalaridan yana biri Xivi al-Balxiy ko‘plab asarlar yozib, ularda Talmudni tanqid qilgan va uning ishonchliligiga shubha bilan qaragan. (D.Muratov, M.Alimova, J.Karimov, 2019)

Buyuk ipak yo‘li dinlari haqidagi kitobida yahudiy xalqlarini milodning ilk asrlarida So‘g‘diyona Baqtriya hududlarida yashab o‘tganini quyidagicha keltirib o‘tadi. Ibroniy matnlarining ommabop tilga birinchi tarjimasi — yunoncha Septuaginta — paydo bo‘lganidan so‘ng, Rim davri davomida ibroniy an’anasi, keyinchalik yahudiylik sifatida shakllangan diniy yo‘nalish, ko‘plab yangi izdoshlarni qozondi. Aslida, bu an’ana hech qachon o‘z tarixida bunday keng tarqalishni boshdan kechirmagan bo‘lishi mumkin. Biroq, keyinchalik Ipak yo‘li bo‘ylab yahudiylik tarixi uzoq hududlarga tarqalgan va vaqt o‘tishi bilan diniy o‘zligini saqlab qolish uchun kurashgan jamoalarning izolyatsiyalashuvi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonning fojeasi XX asr o‘rtalarida qadimgi Xitoy yahudiy jamoasining yo‘qolishini tahlil qilgan zamonaviy yahudiy olimlari ishlarida aks etgan. Yahudiylikka o‘tish (konvertatsiya) qachon va nima sababdan kamaygani ushbu ishning asosiy mavzusi emas, lekin bu masalani qisqacha ko‘rib chiqish mumkin. Ehtimol, Talmudiy yondashuv yahudiylikning himoyaviy pozitsiyaga o‘tganligini aks ettirar, chunki milodiy 70-yilda Rimliklar Ikkinchi Ma'badni vayron qilganidan so‘ng, yahudiylik o‘zini himoya qilishga majbur bo‘ldi. Ushbu holat har qanday diniy an’anani muhokama qilishda, uning o‘z tarixiy rivojlanish bosqichida qaysi nuqtada turganligini hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi. (Richard C.Foltz, 1999)

XVIII asrda O‘rta Osiyo yahudiylari ruhiy tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili o‘zi G‘arbiy Afrikadan bo‘lib, Falastinning sfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag‘ribiy o‘z shahri yahudiylari uchun moddiy yordam to‘plash maqsadida Buxoroga keladi. U mahalliy yahudiylarning o‘z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko‘rib, sh*u* yerda qolishga va millatdoshlariga diniy ta’lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko‘rganlar.

XIX asrga kelib yahudiylar O‘rta Osiyoning Qarshi, Marv, Xatirchi, Shahrisabz, Katgaqo‘rg‘on, Karmana, Marg‘ilon, Dushanba shaharlarida yashaganlar. Ular odatda bir mavzega jam bo‘lib yashar edilar. 1843 yilda mahalliy yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2,5 gektar yerni 10000 kumush tangaga sotish haqida shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudiylar jamoasining 32 a’zosi imzoladi, davlat uning haqiqiyligini to‘rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, yahudiylar o‘zlarining birinchi mahallalariga ega bo‘ldilar. Jamoa boshlig‘i Moshe Kalontar sotib olingan yerda qurilishlar qilish uchun yahudiylardan pul yig‘di. Ular yangi joyda birinchi bulib Bani Isroil qabilalari soniga mos 12 ta hovlida uy-joy, maktab, hammom, sinagoga qurdilar.

XIX asrning 80-yillarida buxoro yahudiylaridan 1,5 mingga yaqini, XX asrning 20-30-yillari esa - 4 mingga yaqini yahudiy tilida o‘qish uchun Falastinga ko‘chib ketgan. O‘rta Osiyoda 1940 yilgacha yahudiylarning ivrit tilidagi maktablari, davriy va maxsus nashrlari mavjud bo‘lgan. 1932 yilda Samarqandda yahudiylar teatri tashkil

qilingan. Keyinchalik yahudiy tilida o‘qitish va madaniy faoliyat yuritish to‘xtatilgan. SSSR parchalanib ketguniga qadar Buxoro yahudiylari asosan (28396 kishi) O‘zbekiston hududida istiqomat qilganlar. (D.Muratov, M.Alimova, J.Karimov, 2019)

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha dinlarga, shu jumladan, yahudiy diniga erkin e’tiqod qilish uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Hozirda Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida Buxoro hamda Yevropa yahudiylarining milliy madaniy markazlari, shuningdek sinagogalari faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Hozir respublikada jami 8 ta yahudiy jamoasi, shu jumladan, Toshkent shahri, Buxoro, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ulardan biri Yevropa yahudiylari (ashkinazlar) yo‘nalishiga, qolganlari sefardlar (sharqiy yahudiylar)ga mansub.

O‘rganilgan tadqiqotlarga ko‘ra aytishimiz mumkinki yahudiylik dini vakillari mamalaktimiz hududida tinch totuv yashab kelayotgani holda, milliy an’analarga birikib ketgani holda milliylasish vujudga kelganini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekiston yahudiylarining tarixi kam ma’lum, chunki ular vaqt o‘tishi bilan yahudiy dunyosining asosiy markazlari hisoblangan hududlardan uzoqda yashaganlar. Bundan tashqari, o‘rta asrlarning oxirigacha mintaqadagi yahudiylar haqida juda kam ma'lumotlar mavjud edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Foltz Richard C. Religions of the silk road. – New York : MACMILLAN, 1999.

2. А.Очилдиев ва бошқалар Диншунослик ўқув қўлланма. – Тошкент : "Тошкент ислом университети" нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013.

3. Д.Муратов, М.Алимова, Ж.Каримов дарслик. – Тошкент : "Наврўз", 2019.

4. Cooper, Alanna E.Bukharan Jews and the Dynamics of Global Judaism. https://www.morasha.com.br/en/diaspora-communities/Jewish-life-in-Uzbekistan.html

5. https://www.worldjewishtravel.org/listing/discovering-a-timeless-legacy-the-story-behind-jewish-samarkand-uzbekistan

6. Shermuxamedova N.A.Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.

8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Файзуллаева Рухшона Лутфуллоевна
Студентка Факультета английской филологии и переводоведения
Самаркандского Государственного института иностранных языков
E-mail: ruxshonafayzullayeva25@gmail.com
Научный руководитель:
Меликова Мартаба Нумоновна
Самаркандский государственный институт иностранных языков,
доктор философских наук (DSc), профессор,
заведующая кафедрой Гуманитарных наук и
информационных технологий

РОЛЬ И МЕСТО ИСТОРИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА И НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В статье рассматривается значимость исторических дисциплин в формировании патриотизма и национального самосознания молодежи Узбекистана. Анализируются образовательные и культурные аспекты исторического наследия, его влияние на мировоззрение подрастающего поколения. Рассматриваются методологические подходы к изучению истории как средства воспитания национальной идентичности. Особое внимание уделяется государственной политике в сфере исторического образования и его роли в укреплении национальных ценностей.*

Ключевые слова: *историческое образование, патриотизм, национальное самосознание, молодежь, Узбекистан, национальная идентичность, историческая память, культурное наследие.*

Fayzullaeva Ruxshona Lutfulloyevna
Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ilmiy rahbar: **Melikova Martaba Numonovna**
Samarqand davlat chet tillar institute
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri
Falsafa fanlari doktori (DSc), professor

O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA VATANPARVARLIK VA MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY FANLARNING ROLI VA O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston yoshlarida vatanparvarlik va milliy o‘zlikni shakllantirishda tarixiy fanlarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tarixiy merosning tarbiyaviy-madaniy jihatlari, uning yosh avlod dunyoqarashiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada tarixni milliy o‘zlikni tarbiyalash vositasi sifatida o‘rganishga metodologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Tarixiy ta’lim sohasidagi davlat siyosati, uning milliy qadriyatlarni mustahkamlashdagi roliga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy tarbiya, vatanparvarlik, milliy ong, yoshlar, O‘zbekiston, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy meros.*

Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna
Student of the Faculty of English Philology and Translation Studies
Samarkand State Institute of Foreign Languages Scientific
Supervisor: **Melikova Martaba Numonovna**
Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philosophy (DSc), Professor,
Head of the Department of Humanities and Information Technologies

ROLE AND PLACE OF HISTORICAL DISCIPLINES IN FORMING A SENSE OF PATRIOTISM AND NATIONAL IDENTITY OF UZBEKISTAN'S YOUTH

Annotation. *The article considers the importance of historical disciplines in forming patriotism and national identity of the youth of Uzbekistan. The educational and cultural aspects of historical heritage, its influence on the worldview of the younger generation are analyzed. Methodological approaches to the study of history as a means of nurturing national identity are considered. Particular attention is paid to state policy in the field of historical education and its role in strengthening national values.*

Keywords: *historical education, patriotism, national consciousness, youth, Uzbekistan, national identity, historical memory, cultural heritage.*

Введение.

Обретение независимости нашей страной является итогом многолетней борьбы за свободу и счастье нашего народа. Идеи независимости, благополучия и процветания являются фундаментом единства и консолидации всех слоев и всех народностей, проживающих в нашем Узбекистане. Достижение многовекового и долгожданного суверенитета является уникальным достоянием сегодняшнего и будущего поколения молодежи. История борьбы за независимость является источником вдохновения и роста патриотизма для современных молодых людей нашей страны.

Обзор литературы.

Изучение роли исторического образования в формировании национального самосознания и патриотизма представлено в трудах зарубежных и отечественных исследователей. Бенедикт Андерсон в работе «Воображаемые сообщества» [4] подчеркивает значение исторического нарратива в создании национальной идентичности. Эрик Хобсбаум в книге «Изобретение традиций» [11] рассматривает историю как инструмент формирования коллективной памяти. В контексте Узбекистана важную роль играют исследования отечественных ученых. Так, И.А. Каримов в своих трудах неоднократно подчеркивал значимость изучения истории для формирования национального самосознания. Работы Ш.М. Мирзиёева затрагивают вопросы национального воспитания через призму исторического наследия [1]. Исследования в области исторического образования и его влияния на молодежь представлены в трудах узбекских ученых, таких как Р. Абдурахмонов, Ш. Рахимов и других.

Методология исследования.

Исследование данной проблемы основано на междисциплинарном подходе, включающем философский анализ, сравнительный метод и элементы критической теории.

Анализ и результаты исследования.

Значимость истории в воспитании молодежи особенно возрастает в нашу эпоху, когда формируется концепция многополярного мира. Для того чтобы претендовать на место, достойное в данном мировом порядке, молодежи необходимо иметь свое лицо, сформированное национальной историей. В данном контексте историческое наследие – главный фактор, способный поднять на новый уровень национальное самосознание и идентичность нашей молодежи. Этому также способствует принятие в нашем обществе национальной идеи, призванной сплотить и повести наш народ к великому и светлому будущему. Содержание и смысл национальной идеи основываются, прежде всего, на вечной, как памятники Регистана, и богатой как, наш хлебосольный народ, истории края, традициях народа. История – это великий учитель. Исторические истины дают человеку не только образцы для подражания, но нередко преподносят и горькие уроки. Поэтому надо стараться, чтобы наша молодежь как можно больше знала факты и примеры из прошлого и настоящего нашего региона. В беседе с корреспондентом газеты «Фидокор» Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов особо подчеркнул: «Правдиво освещенная история является основным источником формирования национальной идеологии. Не зная истории, невозможно осознать философскую основу идеологии, потому что философские основы идеологии в свое время возникли в результате поиска исторической истины» [2].

Богатейшая трехтысячелетняя история народов региона – благодатный материал для пропаганды прогрессивных идей и духовных ценностей. Начиная с древнейших времен у нашего народа складывались такие качества, как дружелюбие, гостеприимство, учтивость по отношению к другим людям, веротерпимость, стремление к этническому согласию, почитанию Родины-матери, понимание человеком вековой мудрости, выраженной в естественном равновесии и гармонии мира. Эти и другие образцы характерных черт, присущих нашему народу, являются важнейшими элементами социального и культурного наследия узбекского и других народов Центральной Азии. Они составляют то, что принято считать историческими традициями, опытом, переданным с особым трепетом от поколения к поколению.

Факты новейшей истории борьбы за независимость подробно описываются в исторической и художественной литературе, периода после обретения независимости. Ярким примером такой работы является монография доктора юридических наук, профессора Леонида Левитина «Узбекистан на историческом повороте», с предисловием академика А.Яковлева. Она опубликована в Москве в 2001 году известным российским издательством «Вагриус». Книга напечатана и на узбекском языке в Ташкенте.

Она привлекает внимание тем, что в ней содержится много интересных и неординарных суждений о духовном мире и традициях узбекского народа. Автор с особым вниманием и опираясь на исторические факты, описывает исторические события нашей истории, раскрывая все грани национального менталитета и уверенно пророчит Узбекистану светлое будущее [7].

Необходимо констатировать, что служение верой и правдой интересам народа - идеал гражданина. Люди энциклопедического ума с их умением не противопоставлять, а мудро сочетать светские и религиозные знания, именно таковы были наши предки, жившие в средние века. Этот уникальный феномен - результат силы ума и духовной зрелости Аль-Хорезми, Аль-Фергани, Аль-Фароби, Беруни, Ибн Сины, Мирзо Улугбека и их многочисленных учеников и последователей. Светлые образы имама Аль-Бухари, Ат- Термизи, Накшбанди, Ахмада Яссави по сей день вдохновляют людей на милосердие, честность, порядочность, трудолюбие.

Необходимо уделить особое внимание воспитанию у современной молодежи чувства патриотизма, которое было на протяжении веков заложено в историческом коде генофонда нашего народа, который не сломили ни войны, ни захваты, ни революции, ни репрессии.

Сегодня в условиях глобализации одна из актуальных задач воспитания молодого поколения выражена в формировании патриотизма. Патриотизм является неотъемлемой частью нравственной жизни человека и компонентом общественного сознания, что в свою очередь неразрывно с отечественной исторической наукой, имеющей глубокие традиции. Патриотизм, по нашему мнению, это исторически сложившееся выражение социального чувства любви и заботы о своем Отечестве, о его судьбе.

Самобытные национальные культурные традиции размываются, и, похоже, массовая потребительская культура западного типа стремится стать «универсальной», распространяясь по всем странам и континентам. И чтобы сберечь и передать будущему поколению свои ценности, традиции и самобытность, необходимо их развивать, обогащая их и приумножая. Мы должны научиться жить в условиях взаимодействия культур и религий, быть привержены диалогу цивилизаций и культур [9].

Мы должны объективно изучать процессы формирования полиэтничности страны. История Узбекистана – это наша общая история. Мы должны четко понимать, что история узбекского народа в XX веке – это во многом история столкновения национального и тоталитарного. Такая постановка задачи объективно концентрирует внимание на вопросах изучения национальной истории. Первый Президент Узбекистана И.А.Каримов особо отмечал: «Поскольку невозможно победить народ, знающий свою историю, получающий духовную подпитку от нее, необходимо восстановить нашу правдивую историю, вооружить нашу нацию этой историей» [3].

Современное общество объективно требует воспитания сознательного гражданина, активно участвующего в процессе дальнейшего укрепления и развития нашего государства. Ведь осознать себя в полной мере как личность невозможно без знания правдивой истории. В этих условиях с большой остротой встает вопрос о формировании патриотизма на научной основе, которая может быть достигнута при помощи собственно знаний истории, образующих в своей совокупности определенную систему представлений о прошлом, о его органической связи с настоящим и возможных тенденциях развития общества в будущем. Такие знания приобретаются в процессе систематического изучения истории [8].

Учебный процесс в высшей школе являет собой этап первых самостоятельных решений, время расширения мировоззренческого кругозора, время формирования активной гражданской позиции и формирования национального исторического сознания. Формирование этих категорий понимается как проявление личностью качеств патриотизма, ответственности, высокой нравственности, принятие и следование общепринятым нормам и требованиям законодательства, использование своих прав и свобод на благо страны.

Это предъявляет особые требования к преподаванию истории в высшем учебном заведении, ведь изучение истории предполагает анализ определенного круга источников: письменных, вещественных (от памятников археологии до современных машин и предметов бытового обихода), этнографических, лингвистических, устных, фотодокументов, киноматериалов. Все эти источники подчас содержат противоречивую информацию. Задачей старшего поколения, становится необходимость объективной оценки, сведений, содержащих разную трактовку. Формирование исторического сознания, патриотическое воспитание молодежи является важнейшим направлениями развития у студентов гражданственности, уважения к правам и свободам человека, любви к окружающей природе. Рост патриотического и национального сознания обеспечивает тесную взаимосвязь высшего профессионального образования с социально-экономическими и духовными преобразованиями в стране и мире.

Выводы.

История независимости Узбекистана является мощным источником вдохновения для молодежи,

формируя у нее национальное самосознание и патриотизм. Историческое наследие, традиции и ценности народа играют ключевую роль в укреплении духовной идентичности и воспитании сознательных граждан, преданных своему Отечеству. Национальная идея, основанная на правдивом освещении исторического прошлого, способствует консолидации общества и утверждению общих идеалов справедливости, уважения к своей культуре и стремления к процветанию.

Таким образом, патриотизм, основанный на историческом знании и осознании своей национальной идентичности, является важным фактором устойчивого развития общества и укрепления независимости Узбекистана. Воспитание молодежи в духе уважения к истории, национальным героям и достижениям предков – залог успешного будущего государства, его социальной стабильности и культурного процветания.

Использованная литература и первоисточники:

1. Мирзиёев Ш. М. Стратегия развития Узбекистана: от национального возрождения к национальному процветанию. Ташкент: Узбекистан. Ташкент. 2017.
2. Каримов И. А. Узбекистан: свой путь к будущему. Ташкент: Узбекистан. 1993
3. Каримов И. А. Узбекистан на пороге достижения независимости. Ташкент: Узбекистан. 2011
4. Андерсон Б. Воображаемые сообщества: размышления об истоках и распространении национализма. Лондон: 1983. Verso.
5. Абдурахмонов Р. Историческое образование и национальная идентичность в Узбекистане. Ташкент: Фан. 2005.
6. Бехбуди М. Туркистонда ислом маданияти. (Исламская культура в Туркестане). Ташкент. 1913.
7. Левитин Л. Узбекистан на историческом повороте. Москва: Вагриус. 2001
8. Меликова, М. (2019). К вопросу об исторических ценностях и традициях в национальном самосознании. Fuqarolik Jamiyati, 16(1), 73-76.
9. Меликова, М. Н. (2018). Развитие культуры и преобразования в области туризма в городах Средней Азии. In Innovative processes in economic, social and spiritual spheres of life of society (pp. 15-17).
10. Рахимов Ш. Формирование патриотизма у молодежи через призму истории. Ташкент: Узбекистан. 2010.
11. Хобсбаум Э. Изобретение традиций. Кембридж: Cambridge University Press. 1983.
12. Яковлев, А. (ред.). Узбекистан на историческом повороте (предисловие). Москва: Вагриус. 2001.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

G‘affarova Gulchehra G‘ulamjanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
falsafa fanlari doktori
gafforovagulchehra3@gmail.com
https://orcid.org/0000-0003-4663-8571

YOSHLAR SUBMADANIYATI FENOMENI: FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya: *Submadaniyat - bu guruhni jamiyatning aksariyat qismidan ajratib turadigan meyorlar va qadriyatlar tizimi. Submadaniyat bu hukmron madaniyatdan farq qiluvchi yoki ushbu madaniyatga (aksil madaniyat) dushman bo‘lgan guruh yoki sinf madaniyatini tavsiflovchi tushuncha. Ushbu maqolada submadaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘rinishlari hamda uni keltirib chiqaruvchi omillar, yoshlar submadaniyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, madaniyat, submadaniyat, kvadrober, milliy madaniyat, qadriyatlar, fenomen, jamiyat, omil, ma’naviyat.*

Гаффарова Гулчехра Гуламжановна
Чирчикский государственный педагогический университет
профессор, доктор философских наук

ФЕНОМЕН МОЛОДЕЖНОЙ СУБКУЛЬТУРЫ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *Субкультура – это система норм и ценностей, отделяющая группу от большей части общества. Субкультура – это понятие, описывающее культуру группы или класса, которая отличается от доминирующей культуры или враждебна ей (контркультура). В данной статье раскрывается сущность понятия субкультура, ее характеристики, проявления, а также факторы, вызывающие ее, молодежная субкультура.*

Ключевые слова: *молодежь, культура, субкультура, квадробер, национальная культура, ценности, явление, общество, фактор, духовность.*

Gaffarova Gulchekhra Gulamzhanovna
Chirchik State Pedagogical University
Professor, Doctor of Philosophy (DSc)

THE PHENOMENON OF YOUTH SUBCULTURE: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation. *Subculture is a system of norms and values that separates a group from the majority of society. Subculture is a concept that describes the culture of a group or class that is different from the dominant culture or hostile to it (counterculture). This article reveals the essence of the concept of subculture, its characteristics, manifestations, as well as the factors that cause it, youth subculture.*

Key words: *youth, culture, subculture, quadrober, national culture, values, phenomenon, society, factor, spirituality.*

Kirish.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma’naviy salohiyatiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatimizda yoshlar siyosati samaradorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun O‘zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoning geosiyosiy manzarasi tezlik bilan o‘zgarib, turli madaniyatlar, mafkuralarning qarama-qarshiligi kuchayib borayotganligi, globallashuv sharoitida milliy madaniyatga va an’anaviy qadriyatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ko‘lami ortib borayotganligi fonida aholining yangiliklarga eng ko‘p moyil qatlami – yoshlar ongi va tafakkuriga, faoliyatida salbiy jihatlarni namoyon etadigan yot g‘oya va madaniyatlar kirib kelishi kuzatilmoqda. Ushbu jihatlarni “submadaniyat” yoki “yoshlar submadaniyati” tushunchalari orqali tahlil qilish

masalaning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

1945 yilda sotsiolog A. Li “submadaniyat" atamasini ilmiy muomalada qo‘llagan [11] bo‘lsa, 1947 yilda M. Gordon atamani shaxsning shakllanishi va hayotiga ta’sir qiluvchi omillar to‘plamini ifodalash uchun qo‘llashni taklif qildi. YA’ni, “submadaniyat - bu individual ijtimoiy sharoitlar, masalan, sinfiy maqom, etnik kelib chiqishi, mintaqasi, shuningdek, qishloq yoki diniy birlik, mahalliy va diniy ta’sirga ega bo‘lgan milliy madaniyatning bo‘linishi shaxs bo‘yicha” [12, 40].

Tadqiqotchilar submadaniyatlar paydo bo‘lishining turli etiologiyalarini, ularning xususiyatlarini aniqladilar. D.Dauns “jamiyatning ijtimoiy va madaniy ehtiyojlariga ijobiy munosabat sifatida yuzaga keladigan submadaniyatlarni (professional) va mavjud ijtimoiy tuzilishga va jamiyatdagi hukmron madaniyatga salbiy munosabatda bo‘lgan submadaniyatlarni (delikvent va ayrim yoshlar submadaniyatlari) ajratadi” [13, 4-5].

Birmingem markazining bitiruvchisi va ilmiy xodimi D. Xebdijning “Subculture: The Meaning of Style” (“Submadaniyat: uslubning ma’nosi”) nomli kitobida submadaniyat” tushunchasi quyidagicha fikr bildiradi: “Biz submadaniyatga qiziqamiz – o‘sha ikkilamchi guruhlarning o‘z-o‘zini ifoda etish shakllari va marosimlari tedlar, modalar va rokerlar, skinxedlar va pankolar – ba’zan rad etadilar, keyin qoralaydilar, keyin kanonizatsiya qilishadi; turli hollarda ular jamoat tartibiga tahdid sifatida yoki zararsiz masxaraboz sifatida ko‘riladi” [14, 2].

Maqolani tayyorlashda tarixiylik, tanqidiylik, tizimli metodlardan foydalanildi.

Natijalar.

Ijtimoiy fanlar adabiyotlarida yoshlar submadaniyatning turli ta’riflarini taklif qiladi. Mavzu bo‘yicha mutaxassislar ushbu ijtimoiy hodisaning kelib chiqishi va tabiatini tushuntirishga harakat qilishgan. “Submadaniyatga mansublik yoshlarga o‘z ideallarini ifoda etish va ular uchun kurashish imkonini beradi. Ba’zida yoshlar submadaniyatlari o‘zlarining patologik xulq-atvori orqali idrok etiladi, bu esa submadaniyat populyatsiyalarining to‘g‘ri tasviriga soya soladi” [15, 72-73].

E.L. Omelchenkoning ta’kidlashicha, "submadaniyat yoshlar va ularning tadqiqotchilarining ajoyib kashfiyotidir” [8].

Y.E. Milyutin “yoshlar madaniyati” va “submadaniyat” tushunchalarini aniqlab, ta’kidlaydi: "Yoshlar madaniyatiga kelsak, sotsiologik adabiyotlarda u subkultura sifatida tasdiqlangan, ya’ni madaniyatning yaxlit shakllanishining nisbatan mustaqil qismi bo‘lib, u juda xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi: tashqi ko‘rinish, kiyim-kechak, xulq-atvor, qadriyatlar, til (jumladan, jargon) va boshqalar [7, 163].

SH.B. Rashidova ““submadaniyat”, “yoshlar submadaniyat” tushunchalari va ularning yoshlar ongiga ta’siri” ni tahlil etgan [9].

G.G‘affarova va O.Eshpo‘latov maqolalarida submadaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘rinishlari hamda uni keltirib chiqaruvchi omillar hamda submadaniyatning zamonaviy ko‘rinishlaridan bo‘lgan kvadroberlarning xususiyatlari falsafiy tahlil etilgan [3].

Muhokama.

Bugun “submadaniyat” atamasini talqin qilishning keng va tor ma’noda qo‘llanilishi mavjudligi haqida gapirishimiz mumkin. Keng ma’noda, “submadaniyat” - bu milliy madaniyat ichida ajralib turadigan va odatda ma’lum bir ijtimoiy xususiyatlar bilan birlashtirilgan har qanday guruhning madaniy xususiyatlari: etnik kelib chiqishi (AQShdagi o‘zbek muhojirlari, Rossiyada yashovchi mahalliy xalqlar), din (protestant jamiyatidagi katolik yoki pravoslav xristianlar), kasb (shifokorlar, harbiylar, uchuvchilar yoki boshqalar).

Xo‘sh submadaniyat o‘zi nima? Submadaniyat (subculture) — bu jamiyatning umumiy madaniyatidan farq qiluvchi, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam yoki jamoa tomonidan yaratilgan o‘ziga xos madaniy qadriyatlar, odatlar va urf-odatlar to‘plamidir [2].

Submadaniyat (lotincha sub - «ostida» va cultura - «madaniyat»), shuningdek, submadaniyat sotsiologiya, antropologiya va madaniyatshunoslikdagi atama bo‘lib, jamiyat madaniyatining o‘zining xulq-atvori bilan hukmron ko‘pchilikdan farq qiladigan qismini bildiradi [10]. Shu bilan birga bu ma’lum bir vaqtda jamiyatning turmush tarzi, urf-odatlari va bilimlari majmuini anglatadi. Umuman olganda, submadaniyatlarga o‘ziga xos did, munosabat, ramzlar, kiyinish usullari va til ko‘nikmalari kiradi, bu ularni aniqlaydi va shu bilan birga ular a’zo bo‘lgan jamiyat a’zolaridan ajralib turadi. Ko‘pgina hollarda, ularning qarashlari gegemonlik madaniyati g‘oyalari va qadriyatlariga qarshi turishni anglatadi.

Darhaqiqat, submadaniyat o‘zining qadriyatlar tizimi, tili, xulq-atvori, kiyim-kechak va boshqa jihatlari bilan hukmron madaniyatdan farq qilishi mumkin. Shu bilan birga milliy, demografik, kasbiy, geografik va boshqa asoslarda shakllanadigan submadaniyatlar mavjud. Jumladan, submadaniyatlar lingvistik meyordan o‘z shevasi bilan farq qiluvchi etnik jamoalar tomonidan shakllantiriladi. Yana bir misol - yoshlar submadaniyati.

Yoshlar submadaniyati fenomenini dunyoqarash nuqtai nazaridan tushunishga urinishlar nisbatan yaqinda amalga oshirildi. Uzoq vaqt davomida mahalliy falsafa fanida yoshlar submadaniyati muammosi odatdagi madaniy meyorlarga to‘g‘ri kelmaydigan, gedonizm istagi bilan ajralib turadigan deviant xatti-harakatlar sifatida qaraldi. Ushbu xulosa bizga yoshlar submadaniyatiga xos bo‘lgan qadriyatlarning ma’nosi haqida xulosa chiqarishga imkon berdi: birinchidan, mehnatdan ko‘ra dam olish

madaniyati ekanligi; ikkinchidan, uning doirasida ijtimoiy munosabatlar oila yoki alohida do‘stlar atrofida emas, balki teng huquqli guruhlar atrofida tashkil etiladi.

Submadaniyat asosiy madaniyatdan chetga chiqmaydi, lekin unda o‘ziga xoslik, ya’ni o‘zgacha qoidalar, xatti-harakatlar va dunyoqarash shakllanadi. YA’ni, bu geografik jihatdan emas, balki boshqa sabablarga ko‘ra birlashgan odamlar birlashmasi: qiziqishlar, sevimli mashg‘ulotlar, dunyoqarash va boshqalar. Submadaniyat (yoki subkultura) tushunchasi ijtimoiy fanlarda jamiyat ichida alohida qoidalar, qadriyatlar, urf-odatlar yoki turmush tarzi orqali boshqalardan farqlanuvchi kichik guruhlar yoki jamoalarni tavsiflash uchun ishlatiladi.

Submadaniyatlarning kelib chiqishi turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarga bog‘liq bo‘lib, ular tarixiy jarayonlar, modernizatsiya, texnologiyalar rivoji va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida shakllanadi. Submadaniyatlar ko‘pincha yoshlar, etnik guruhlar yoki muayyan ijtimoiy qatlamlar tomonidan shakllanadi. Masalan, rok musiqasi ixlosmandlari orasida paydo bo‘lgan submadaniyat yoki hip-hop madaniyati misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu submadaniyatlar o‘zlarining musiqiy uslublari, kiyim-kechaklari, so‘zlashuv uslublari va boshqa madaniy elementlari bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda "submadaniyat" so‘zidan foydalanish doirasi keng: u ilmiy adabiyotlarda (falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya) atama hisoblanadi; amaliy yordam vositalarida (pedagogika) foydalaniladi; yoshlar hamjamiyatlarining o‘z taqdirini o‘zi belgilashning asosiy elementi sifatida ishlaydi. Ilmiy adabiyotda, o‘rganish obyekti va muallifning ushbu atamani shaxsiy tushunishiga qarab, submadaniyatning ayrim jihatlari birinchi o‘ringa chiqadi.

Ta’kidlash kerakki, ilmiy adabiyotlarda yoshlar submadaniyati deganda umumiy turmush tarzi, xulq-atvori, guruh meyorlari, qadriyatlari va stereotiplariga ega bo‘lgan ma’lum bir yosh avlod madaniyati tushuniladi. Xo‘sh, “yoshlar submadaniyati” tushunchasining mohiyati nimada? Submadaniyatlarning paydo bo‘lishi va faoliyatining sabablari va omillari qanday? Yoshlar submadaniyatining asosiy xususiyatlari va turlari qanday?

Yuqorida ta’kidlanganidek, submadaniyat bu guruhni jamiyatning aksariyat qismidan ajratib turadigan meyorlar va qadriyatlar tizimi. Shuningdek, “submadaniyat - bu hukmron madaniyatdan farq qiladigan yoki ushbu madaniyatga (aksil madaniyat) dushman bo‘lgan guruh yoki sinf madaniyatini tavsiflovchi tushuncha” [1].

“Yoshlar submadaniyati” atamasini etnograflar, tarixchilar va psixologlar (M.Breyk, D.Dauns, V.Labov, R.Shvendter va boshqalar) tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Tadqiqotchi P.S. Gurevich yoshlar submadaniyati haqidagi tahlillarida ta’kidlashicha, “biz uchun asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa shundaki, uning submadaniyat hukmron madaniyat doirasidagi suveren yaxlit shakllanishdir. Madaniyatning submadaniyat shakllari ma’lum darajada avtonom, yopiq va hukmron madaniyatni almashtirishga, uni berilgan narsa sifatida siqib chiqarishga da’vo qilmaydi” [6].

Yoshlar submadaniyati yosh avlodning o‘zini namoyon qilish, jamiyatda o‘zini o‘zi tasdiqlash ehtiyojlari va u yoki bu sabablarga ko‘ra ularni qondirishning mumkin emasligidan kelib chiqadi.

M.Breyk va R.Shvendter fikricha, submadaniyat deganda “odamlarni tashkil etishning maxsus shakli (ko‘pincha yoshlar) - u urf-odatlari, meyorlari, qadriyatlari va hatto institutlari bilan ajralib turadigan, uning tashuvchilarining turmush tarzi va tafakkurini belgilab beruvchi hukmron madaniyat doirasidagi avtonom yaxlit shakllanish” tushuniladi. Shuningdek, “jamiyatning jinoiy qatlami madaniyati sifatida faoliyat yurituvchi an’anaviy madaniyatning salbiy talqin qilingan ayrim meyoriy qadriyatlari to‘plami (delikvent submadaniyati); o‘ziga xos mafkuraviy rangga ega bo‘lgan professional tafakkur tomonidan o‘zgartirilgan an’anaviy madaniyat qadriyatlari tizimi” [5]. Darhaqiqat, ijtimoiy tabaqalanish va mehnat taqsimotiga asoslangan zamonaviy jamiyat bir-biri bilan har xil, shu jumladan qarama-qarshi munosabatlarda bo‘lgan turli xil submadaniyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Aytish mumkinki, submadaniyatlar ko‘pincha o‘zaro aloqada bo‘lib, katta madaniyat bilan ham integratsiyalashadi, lekin shu bilan birga o‘zining individual xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Bunday jarayonlar ijtimoiy dinamikalar, identiklik va madaniy o‘zgarishlar nuqtai nazaridan qiziqarli tadqiqot mavzusi hisoblanadi.

Aksariyat ko‘pchilik zamonaviy submadaniyatlar bu yoshlardir va ular jamiyatda hukmron bo‘lgan madaniyatni, uning meyorlari, stereotiplari va qadriyatlarini rad etishiga asoslangan. Bu rad etish o‘ziga xos ko‘rinish, o‘zini tutish, mashhur bo‘lmagan musiqaga bo‘lgan ishtiyoq bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, yoshlar jamiyat tomonidan o‘rnatilgan madaniy meyorlardan himoyalangan va o‘z dunyosi haqida o‘z tushunchalarini topishga, o‘z qoidalari va qadriyatlarini shakllantirishga harakat qilmoqda.

Boshqa barcha ijtimoiy hodisalar singari, submadaniyatlarning paydo bo‘lishining ham o‘ziga xos sabablari bor. Bu, birinchi navbatda, jamiyatda rivojlanayotgan qarama-qarshiliklar, bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatlari bo‘yicha tez va notekis rivojlanishining natijasidir. Yoshlar va o‘smirlar bu qarama-qarshiliklarni kuchliroq his qiladilar, lekin hayotiy tajriba yo‘qligi sababli ularni shakllantira olmaydilar hamda jamiyatda nimani va qanday o‘zgartirish mumkinligini bilishmaydi.

Yoshlarning o‘ziga xos energiyasi va maximalizmi tufayli ularning noroziligini bildirish shakli ba’zan haddan tashqari, buzg‘unchi va kuchli antisotsial xarakterga ega

bo‘ladi. Inson yosh, baquvvat va sog‘lom bo‘lsada, uning e’tiborini asosan atrofdagi hodisalar va narsalar egallaydi. Biroq, “submadaniyatning ta’siri jamiyatda zudlik bilan o‘zgarishlarga olib kelmasa ham, kelajakda hayotimizning turli tomonlariga - madaniyat, moda, xulq-atvor tendensiyalari, dunyo va o‘zimiz bilan munosabatlarga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Bu bizning ongimizda ma’lum bir davr yoki hatto butun bir davr haqidagi tasavvurni shakllantiradi” [4].

Xulosa.

Umuman olganda, yoshlar submadaniyati (hippilar, metallxedlar, rokerlar, baykerlar, skinxedlar va boshqalar) umumiy qabul qilingan meyorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlarga moyil bo‘lib, deyarli har doim ijtimoiy tartibsizlik elementlarini o‘z ichiga oladi. Agar yoshlar o‘zlariga kerakli bo‘lgan javoblarni oiladan, jamiyatdan olishning iloji bo‘lmasa, o‘smirlar har qanday muammolarga yechimni haqiqiy dunyodan emas turli yot o‘yinlardan va xayolot dunyosidan olishga harakat qiladilar. Bolani xayoliy dunyoga kirishga majbur qiladigan tipik muammolar: oiladagi muammolar, ota-onalarning ajralishi yoki ulardan birining o‘limi, tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan muammolar, bezorilik. O‘smirlar ko‘pincha do‘st topish yoki muammolarni hal qilish uchun submadaniyatlarga kirishadi.

Shunday qilib, yoshlar submadaniyati, bir tomondan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishdagi ijtimoiy-madaniy faoliyati natijasi, ikkinchi tomondan, normalar va qadriyatlar, xatti-harakatlar qoidalari, kiyim, musiqa uslubi va boshqalar bilan birlashtirilgan maxsus tengdoshlar guruhlarini shakllantirishga olib keladigan mavjud ijtimoiy tuzumga qarshi norozilik ifodasi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Jamiyatning ijtimoiy qarama-qarshiliklari bevosita yoshlar muhitida aks etadi. Yoshlarning turli submadaniyatlari paydo bo‘lishining asosiy sababi ijtimoiy munosabatlar va ko‘rsatmalarning o‘zgarishiga, qadriyatlarning qayta baholanishiga va meyoriy qiymat asoslarining yo‘qolishiga olib keladigan tizimli inqirozdir. Submadaniyatlarning rivojlanishi, kengayishi va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar orasida quyidagilar ajralib turadi: ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik, an’anaviy qadriyatlar afzalliklari va ularning zamonaviy talqinlari hamda baholashlarining paradoksal kombinatsiyasiga olib keldi.

Adabiyotlar.

1. Аминова В.А. К вопросу о термине “субкультура” // Вестник Московского университета. Серия 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2013. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-termine-subkultura (дата обращения: 01.03.2025).

2. Erkayev A. “Ma`naviyatshunoslik”. I-jild. Ma`naviyat ontalogiyasi va fenomenologiyasi. Monografiya. - Tohskent: Ma`naviyat, 2018.

3. G‘affarova G., Eshpo‘latov O. Submadaniyat tushunchasining falsafiy tahlili: “Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qo‘qon, 2024. –B.488-491.

4. Глушкова О.М. Теоретические аспекты анализа субкультуры // Архитектон: известия вузов. 2009. № 26. 2013.

5. Громов А.В., Кузин О.С. Неформалы: кто есть кто? М.: Мысль, 1990.

6. Гуревич, П. С. Культурология / П. С. Гуревич. – М. : Гардарини, 2003. – 153 с.

7. Милютин Ю.Е. Размышление о вербальном языке молодежной культуры // Введение в культурологию: Курс лекций / Под ред. Ю.Н. Солонина, Е.Г. Соколова. СПб., 2003. С. 163.

8. Омельченко Е.Л. Субкультуры и культурные стратегии на молодежной сцене конца XX века: кто кого? // Неприкосновенный запас. 2004. № 4 (36). URL: http:// www.regioncentre.ru/resources/articles/article3/ (дата обращения: 06.12.2024).

9. Рашидова Ш.Б. Субмаданиятлар ва уларнинг ёшлар онгига таъсири // Academic research in educational sciences. 2024. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/submadaniyatlar-va-ularning-yoshlar-ongiga-tasiri (дата обращения: 01.03.2025).

10. Субкультура // Энциклопедия социологии / Сост. А.А. Грицанов, В.Л. Абушенко, Г.М. Евелькин, Г.Н.Соколова, О.В. Терещенко. - Минск: Книжный Дом, 2003. – 1312 с.

11. Lee A. Levels of Culture as Levels of Social Generalization // American Sociological Review. 1945. N 10. P. 125-143

12. Gordon M. The Concept of the Sub-culture and Its Application // Social Forces. 1947. 26 October. P.40.

13. Downes D. The Delinquent Solution: A Study in Subcultural Theory. L., 1966. P. 4-5

14. Hebdige D. Subculture: The Meaning of Style. L., 1984. P. 2.

15. Bąk T. Młodzież a subkultury w realiach polskiego społeczeństwa // Kultura polska. Kierunki i dynamika zmian. - Warszawa, 2009. -pp.71-85.

16. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *4*(2), 13-17.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Lalixon Muxamedjanova
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti, falsafa kafedrasi professori
Email: lalixon@list.ru

UDK: 193.479.135

AXLOQNING QADRIYATLARGA YO‘NALTIRISH VAZIFASI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o‘rni, inson ongini shakllantirish va uni ijtimoiy qadriyatlarga yo‘naltirishdagi roli tahlil qilinadi. Aksiologiya fani nuqtai nazaridan axloqiy qadriyatlarning asosiy tamoyillari, ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, axloqiy qadriyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanish omillari ham muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *axloq, qadriyat, aksiologiya, ma’naviyat, jamiyat, axloqiy qadriyatlar.*

Лалихон Мухамеджанова
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
Профессор кафедры философии факультета социальных наук

РОЛЬ МОРАЛИ В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: *В данной статье анализируется роль моральных ценностей в обществе, их влияние на формирование сознания человека и его ориентацию на социальные ценности. С точки зрения аксиологии рассматриваются основные принципы моральных ценностей и их значение в социальной жизни. Также обсуждаются факторы формирования, развития и укрепления моральных ценностей.*

Ключевые слова: *мораль, ценности, аксиология, духовность, общество, моральные ценности.*

Lalikhon Mukhamedzhanova
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Professor of the Department of Philosophy, Faculty of Social Sciences

THE ROLE OF MORALITY IN THE FORMATION OF VALUES

Abstract: *This article analyzes the role of moral values in society, their influence on the formation of human consciousness, and their orientation towards social values. From the perspective of axiology, the fundamental principles of moral values and their significance in social life are examined. The factors of formation, development, and consolidation of moral values are also discussed.*

Keywords: *morality, values, axiology, spirituality, society, moral values.*

Kirish.

Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy negizi bo‘lib, millatning tarixiy yutuqlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim omildir. Tarixiy taraqqiyot jarayoniga nazar tashlaganda, har bir jamiyat va davlat milliy qadriyatlarini rivojlantirmasdan va mustahkamlamasdan taraqqiy eta olmaganini ko‘rish mumkin. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunida [1] «Ta’limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustuvorligi» davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilangan.

Xo‘sh, qadriyat tushunchasi nimani anglatadi? Uni qanday tushunish lozim? Qadriyatlar deganda inson va insoniyat uchun muhim bo‘lgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar tushuniladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, qadriyatlar insoniyatning tarixiy tajribasi va an’analarini kelgusi avlodlarga mukammal tarzda yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayonida ularni singdirish bilan bog‘liq tushunchadir. Shuning uchun milliy-ma’naviy qadriyatlarni e’zozlash, ularni ardoqlab rivojlantirish hamda kelajak avlodga to‘laqonli yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish axloqiy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy asoslarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Turli falsafiy ta’limotlarda

bayon qilingan fikrlar axloqiy qadriyatlarning inson hayoti va jamiyat rivojlanishidagi o‘rnini belgilab berishga xizmat qiladi.

Aristotelning “Nikomax etikasi” asarida axloq inson hayotining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Uning fikriga ko‘ra, fazilatli hayot insonning baxt-saodatga erishishida asosiy omil hisoblanadi [2].

Imom G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din” asarida islomiy axloqiy ta’limotlar asosida insonning ma’naviy kamoloti va ijtimoiy axloqning muhim jihatlari tahlil qilinadi [3].

Guseynov A. va Apresyan R. tomonidan yozilgan “Etika” kitobida zamonaviy axloqshunoslik nuqtai nazaridan axloqiy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni keng yoritilgan [7].

J. Tulenovning “Dialektika nazariyasi” kitobida axloqiy qadriyatlar aksiologik tahlil qilinib, inson faoliyatidagi roli batafsil ochib berilgan [6].

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi esa axloqiy qadriyatlarning milliy o‘ziga xosligi, ularning shakllanishi va rivojlanish tamoyillari haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etadi [4].

Mazkur manbalar axloqiy qadriyatlarning mohiyatini turli nuqtai nazardan tahlil qilishga imkon beradi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini har tomonlama yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlari sifatida aksiologik, tahliliy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi.

Aksiologik yondashuv orqali axloqiy qadriyatlarning mohiyati, ularning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati chuqur tahlil qilindi.

Tahliliy metod yordamida axloqiy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni aniq belgilandi va ularning inson faoliyatiga ta’siri o‘rganildi.

Tizimli yondashuv orqali axloqiy qadriyatlarning shakllanishi, rivojlanishi hamda jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi omillar kompleks tarzda tahlil qilindi.

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va natijalarning puxta tahlil qilinishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar.

Aksiologiya (yunoncha axio – qadriyat va logos – fan, ta’limot) qadriyatshunoslik sohasi bo‘lib, ma’naviy hodisalardan biri sifatida qadriyatlarni, ularning qonuniyatlari va kategoriyalarini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu fan XIX asrning ikkinchi yarmida nemis olimi E. Gartman va fransuz tadqiqotchisi P. Lapi tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan [5].

Aksiologiya qadriyatlar tizimi, qadrlash tamoyillari va aksiologik ong tushunchalarini o‘z ichiga oladi. U qadriyatlar haqidagi bilimlarni o‘rganish bilan birga, qadriyat tizimining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqlik qonuniyatlarini ham tadqiq qiladi. Shu bilan birga, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi va takomillashuvi bilan bog‘liq aksiologik qonunlar ham ushbu fan doirasida o‘rganiladi.

Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaganda, har bir davr va davlat almashinuvi bilan yangi qadriyatlar shakllanib, ularning jamiyat hayotidagi amaliyoti muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rish mumkin. Shu bois, aksiologiya qadriyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning jamiyatga ta’sirini chuqur tahlil qiladigan muhim ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Aksiologiya ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadrlar to‘g‘risidagi tasavvuri, qarashlari o‘zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bugungi modernizatsiya jarayonlarida milliy axloqiy qadriyatlarimiz o‘zligimizni saqlab qolishimiz uchun nihoyatda ahamiyatlidir va u albatta ma’naviy me’rosimiz bilan bog‘liqdir [3].

Har bir shaxs va jamiyatning qadriyatlar tizimida axloq alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy falsafada axloq ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri bo‘lib, u shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamiyatning axloqiy tasavvurlari, odamlar xatti-harakatining me’yorlari hamda baholash mezonlarini ifodalaydi.

Har bir shaxs va jamiyatning qadriyatlar tizimida axloq alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy falsafada axloq ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri bo‘lib, u shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamiyatning axloqiy tasavvurlari, odamlar xatti-harakatining me’yorlari hamda baholash mezonlarini ifodalaydi.

Axloq mohiyatini to‘g‘ri anglash uchun unga ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan, biroq ayrim xususiyatlari bilan farqlanadigan “odob” va “etika” tushunchalarining o‘zaro nisbatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq odatda ijtimoiy ong shakli sifatida tushunilib, unda jamiyat tomonidan anglangan me’yor va qoidalar mujassam bo‘ladi. Odob esa xushmuomalalik va odob-axloq me’yorlarining amaliy ifodasini o‘z ichiga oladi, ya’ni kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘ladigan jonli axloqiy tajribani aks ettiradi [4].

Etika esa inson faoliyati, axloqiy me’yorlar va odob qoidalarini o‘rganadigan falsafiy soha hisoblanadi. Asrlar davomida axloqiy me’yorlar jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy qadriyatlarni ifodalab kelgan bo‘lib, ular inson xulq-atvorining asosiy tamoyillarini belgilashda muhim rol o‘ynagan.

Axloq mohiyatini to‘g‘ri anglash uchun unga ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan, biroq ayrim jihatlari bilan farqlanadigan “odob” va “etika” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Axloq, odatda, ijtimoiy ong shakli sifatida talqin qilinib, unda jamiyat tomonidan anglangan me’yor va qoidalar mujassam bo‘ladi. Odob esa xushmuomalalik va axloqiy me’yorlarning amaliy ifodasi bo‘lib, u kishilar o‘rtasidagi

o‘zaro munosabatlarda, kundalik hayotdagi axloqiy tajribada namoyon bo‘ladi.

Etika inson faoliyati, axloqiy me’yorlar va odob qoidalarini o‘rganadigan falsafiy soha hisoblanadi. Asrlar davomida axloqiy me’yorlar jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy qadriyatlarni ifodalab kelgan bo‘lib, ular inson xulq-atvorining asosiy tamoyillarini belgilashda muhim rol o‘ynagan. Axloqiy qadriyatlar esa inson faoliyatining yo‘nalishini shakllantiruvchi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi [4].

Axloq insoniyatning eng qadimgi ijtimoiy hodisalaridan biridir. U uzoq asrlar davomida jamiyatda asosiy tartibga soluvchi omil sifatida xizmat qilib kelgan. Axloqning qachon shakllanganligi haqida turli nuqtai nazarlar mavjud bo‘lsa-da, u ibtidoiy jamiyatdayoq paydo bo‘lganligi haqiqatdir.

Axloq aynan shunday vaqtda vujudga keldiki, inson o‘zida mavjud bo‘lgan xususiyatlar bilan qanday bo‘lishi kerakligini anglay boshlagan. Eng qadimgi davrlardan boshlab barcha falsafiy ta’limotlar, ularning yo‘nalishi va mohiyatidan qat’i nazar, muayyan axloqiy qarashlar tizimini o‘z ichiga olgan. Bu esa axloqning insoniyat taraqqiyotida va jamiyat barqarorligida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Axloq inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyatda yashash va faoliyat yuritish jarayonida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlari va qarorlarini tartibga soladi hamda yo‘naltiradi. Axloqiy qadriyatlar insonni yaxshilik, haqiqat, adolat va boshqa ijobiy fazilatlarga intilishga undaydi [2].

Mazkur yo‘nalishda ko‘plab buyuk mutafakkirlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan bo‘lib, ularning qarashlari axloqiy tamoyillarning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Har bir davrda axloqiy qadriyatlarning mazmuni o‘zgarib, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib borgan.

Axloqiy qadriyatlar – bu jamiyat tomonidan qabul qilingan, insonlarning xulq-atvori va o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi tamoyillar majmuasidir. Ular insonni yaxshilik, adolat, haqiqat va boshqa ijobiy fazilatlarga yo‘naltiradi. Ushbu qadriyatlar inson hayotining barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etib, uning jamiyatda munosib o‘rin egallashini ta’minlaydi. Axloqiy qadriyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, axloq inson ma’naviy kamolotining asosiy sarchashmalaridan biri bo‘lib, uning tufayli jamiyat rivojlanadi, fuqarolarning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari ro‘yobga chiqadi. Axloq o‘zining kelib chiqish tabiatiga ko‘ra ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi [3].

Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan ilk kunlardanoq axloqiy me’yorlar vujudga kelgan. Boshqacha aytganda, inson o‘zi ham jamiyatdagi axloqiy munosabatlarning mahsuli sifatida rivojlangan. Odamlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar asosida jamiyatning axloqiy hayoti shakllangan bo‘lib, u ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Shu sababli axloqiy qadriyatlar inson va jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Inson va jamiyat hayotida axloq tartibga soluvchi, boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib kelganligi sababli, u ko‘plab buyuk mutafakkirlar, shoirlar, olimlar, davlat va jamoat arboblarining diqqat markazida bo‘lgan. Axloqning mohiyatini va tabiatini chuqur tadqiq qilish tarixiylik va mantiqiylik tamoyillariga asoslangan holda, tizimli yondashuv usullari orqali amalga oshirilishi zarur.

Axloq va axloqiy qadriyatlarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tarixiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har bir xalq, millat va elat axloq masalasiga jiddiy e’tibor qaratgan hamda bu borada diniy va dunyoviy tamoyillarga asoslangan turli ta’limotlarni shakllantirgan. Ushbu ta’limotlar inson hayotida axloqiy qadriyatlarning o‘rnini belgilash, ularning jamiyatdagi ahamiyatini yuksaltirish va rivojlanishiga xizmat qilgan. Natijada, axloqiy qadriyatlar jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biriga aylangan [4].

Axloq ilmini o‘rganishga bag‘ishlangan xorijiy va o‘zbek tilidagi adabiyotlarda “axloq”, “etika”, “moral”, “нравственность” kabi tushunchalar keng qo‘llaniladi. “Etika” termini qadimgi yunon faylasuflari tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, uning kelib chiqishi “ethos” (etos) so‘ziga borib taqaladi.

Qadimgi yunon shoiri Gomer ushbu so‘zdan “birgalikda yashaydigan joy, uy, g‘or, uya, in, makon” ma’nosida foydalangan. Eramizdan avvalgi IV asrda yashagan buyuk faylasuf Aristotel (Arastu) esa “etos” so‘zidan ikki muhim tushunchani keltirib chiqargan: “Etika” (axloq) va “Etikaviylik” (axloqiylik). Bu tushunchalar axloqiy tamoyillar, inson xulq-atvori va axloqiy qadriyatlarning ilmiy-nazariy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. Aristotel “axloqiylik”ni inson qalbining takomillashgan sifatlari-xotirjamlik, og‘irlik, vazminlik, bosiqlik, mardlik, botirlik, jasurlik, qaxramonlik, o‘rtachalik, mo‘tadillik, evidalik va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan. Shu asosda u etikani-yaxshi fazilatlarga (xislatlar) ega bo‘lgan kishilarni yoki kishilarning yaxshi sifatlarini, ya’ni xayrli, saxovat va himmatli, ezgu ishlarini o‘rganuvchi ilm sohasi deb tushungan [5].

Xulosa.

Axloqiy qadriyatlar insonning xatti-harakatlari va munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyat miqyosida ham barqarorlik, uyg‘unlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Axloqiy qadriyatlar insonning axloqiy tafakkuri, ma’naviy tarbiyasi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli, ularni rivojlantirish va mustahkamlash jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent. 2023.
2. Aristotel. Nikomax etikasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 312 b.
3. Falsafa: qomusiy lug‘at. Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: “Sharq” nashriyot –matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – 40 b.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2020. – 502 b.
5. Sher A. Axloq va etika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022. – 428 b.
6. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 218 b.
7. Гусейнов А., Апресян Р. «Этика». – Москва: Академия, 2010. 186 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Samadov Jonmurod
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi
e–mail: samadov@mail.ru

UDK: 193.479.218

JALOLIDDIN RUMIYNING ONTOLOGIK-GNOSEOLOGIK QARASHLARI

Annotatsiya: *Jaloliddin Rumiy Sharq falsafiy tafakkurining vakillaridan biri bo‘lib, o‘zining falsafiy-tasavvufiy qarashlari bilan insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning ontologik, gnoseologik qarashlari, uning ma’naviy ildizlari va bugungi kundagi ahamiyati borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, Rumiy qarashlarining komil inson tarbiyasidagi roli tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Jaloliddin Rumiy, tasavvuf, haqiqat, olam, borliq, haqiqat, aql, hissiyot, axloq, komil inson.*

Самадов Жонмурод
Денауский институт предпринимательства и педагогики
Преподаватель кафедры «Истории и философия»

ОНТОЛОГИЧЕСКО-ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

Аннотация: *Джалалуддин Руми – один из представителей восточной философской мысли, оставивший неизгладимый след в истории человечества своими философскими и мистическими взглядами. В статье представлены размышления об онтологических и гносеологических взглядах Джалалуддина Руми, его духовных корнях и его значении сегодня. Анализируется также роль взглядов Руми в воспитании совершенного человека.*

Ключевые слова: *Джалалуддин Руми, суфизм, истина, вселенная, существование, разум, эмоции, нравственность, совершенный человек.*

Samadov Jonmurod
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Lecturer of the Department of History and Philosophy

ONTOLOGICAL AND GNOSEOLOGICAL VIEWS OF JALALIDDIN RUMI

Abstract: *Jalaluddin Rumi is one of the representatives of Eastern philosophical thought, who left an indelible mark on the history of mankind with his philosophical and mystical views. The article presents reflections on the ontological and epistemological views of Jalaluddin Rumi, his spiritual roots and his significance today. The role of Rumi's views in the education of a perfect person is also analyzed.*

Keywords: *Jalaluddin Rumi, Sufism, truth, universe, existence, reason, emotions, morality, perfect person.*

Kirish.

Jaloliddin Rumiy (1207–1273) o‘zining she’riy va falsafiy asarlari orqali tasavvuf falsafasining eng yirik mutafakkirlaridan biri sifatida tarixga kirgan. Uning “*Masnaviy*” va “*Devoni Kabir*” kabi asarlari tasavvuf falsafasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardan hisoblanadi. Islom tasavvufining peshqadam vakillaridan biri bo‘lgan Jaloliddin Rumiy nafaqat diniy, balki ilmiy-tasavvufiy sohalarda ham sermahsul faoliyat ko‘rsatgan. Uning falsafasi insonning haqiqiy bilimga erishish va ma’naviy yuksalish yo‘lini o‘rganish bilan bog‘liq. Rumiyning tasavvufiy tafakkuri o‘rta asrlarda Islom dunyosidagi ma’naviy qarashlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, bugungi kunda ham uning asarlari zamonaviy tadqiqotlarga asos bo‘lmoqda.

Rumiy tasavvufni nafaqat diniy amaliyot sifatida, balki insonning ichki dunyosini anglash va Alloh bilan aloqaga kirishish uchun zarur bo‘lgan ilohiy bilim manbai sifatida ta’riflaydi. Uning ontologik va gnoseologik qarashlari insonning ruhiy yuksalishi va haqiqiy bilimga erishishida asosiy o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy musulmon tadqiqotchilaridan biri Nasr Sayyid Husayn o‘zining “The Garden of Truth: The Vision and Practice of Sufism” [3] kitobida Jaloliddin Rumiyning falsafiy-gnoseologik qarashlariga alohida ahamiyat qaratgan. Mazkur tadqiqotchi o‘z asarida Rumiy falsafasi haqida shunday deydi: “Rumiyning qarashlari insonni ichki ruhiy izlanishlar orqali haqiqiy bilimga olib boradi. Uning gnoseologiyasida bilim qalbni tozalash va Allohni anglash bilan bog‘liq jarayon sifatida tasvirlanadi”. Nemis olimi Schimmel Annemarie tomonidan yozilgan “The Triumphal Sun: A Study of the Works of Jalaliddin Rumi” [6] nomli asarda esa Rumiyning gnoseologiyasi ichki sezgilar orqali Allohni bilishga intilish sifatida ta’riflanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Jaloliddin Rumiyning falsafiy-tasavvufiy, ontologik-gnoseologik qarashlariga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Rumiy ontologiyasi va gnoseologiyasining markazida insonning ruhiy taraqqiyoti, haqiqatni anglash va Allohga bo‘lgan muhabbat turadi. Rumiy ayniqsa, «ma’rifat» va «ishq» tushunchalariga katta ahamiyat bergan. Uning tasavvufiy tafakkurida ilm nafaqat aql bilan, balki qalb va ruh orqali ham olinadi. Ilm tashqi faqatgina dunyoni o‘rganish emas, balki ichki sezgilar orqali Allohni va uning yaratgan maxluqotlarini anglashdir.

Rumiyning gnoseologiyasi, ya’ni bilim tushunchasi uni faqat aql bilan tushunishga emas, balki ma’naviy jihatdan yanada chuqurroq anglashga qaratilgan. Rumiy «ma’rifat»ni ruhiy intilish va ichki o‘zgarishlar orqali olish mumkin deb hisoblagan. «Bilim» – bu tashqi dunyo va tashqi obyektiv haqiqatni anglash emas, balki insonning ichki haqiqatini va Alloh bilan bo‘lgan aloqasini tushunishdir [10].

Rumiyning ontologik qarashlari insonni faqat fizik mavjudot sifatida ko‘rmasdan, uni ruhiy va ma’naviy mukammallikka erishish yo‘lida bir mavjudot sifatida tasavvur qiladi. Uning ontologiyasi shundan iboratki, inson – bu bir vaqtning o‘zida haqiqatni bilishga harakat qiluvchi va Allohni anglashga intiluvchi mavjudotdir. Rumiy insonni o‘z ichki dunyosini anglash va ruhiy taraqqiyotga erishish uchun ilohiy nurni qidiradigan mavjudot sifatida ko‘rgan. Bu o‘rinda haqiqiy bilim insonning ichki sezgisi va qalbining tozaligiga bog‘liqdir.

Rumiyning bilish nazariyasida bilim faqat aqliy faoliyat emas, balki qalbning tozaligi va ruhning to‘g‘ri yo‘lni tanlashidir. Rumiy haqiqiy bilimga erishish uchun tashqi dunyoni tushunishdan ko‘ra, ichki sezgilar va ma’naviy izlanishlarga asoslanadi. Uning gnoseologiyasida bilim nafaqat intellektual faoliyat sifatida, balki tasavvufiy tajriba, ruhiy sezgi va Allohga bo‘lgan muhabbat orqali qozoniladi [9].

Rumiyning gnoseologik qarashlariga ko‘ra, haqiqiy bilim Allohning ilmi bilan to‘la bo‘lishi kerak. Bu ilm nafaqat tashqi dunyoga, balki insonning ichki dunyosiga ham taalluqlidir. Rumiy nuqtai nazari bo‘yicha barcha ilmlarning poyoni Allohni anglash va unga bo‘lgan muhabbatni chuqurroq sezishdir.

Rumiyning ilm haqidagi qarashlari, faqat mantiqiy va aqliy ilmni emas, balki qalb va ruh orqali erishilgan ma’rifatni ham o‘z ichiga oladi. Uning gnoseologiyasi, aqliy ilm bilan birga, ruhiy tozalash va ichki sezgilarni rivojlantirishga asoslanadi» [6]. Bu, Rumiyning ilmni tushunishdagi yuqori darajali gnoseologik yondashuvini ta’kidlaydi. Allomaning tasavvufiy tafakkuri insonning haqiqiy bilim va ma’rifatga qalbning tozaligi va ruhning izlanishlari orqali erishishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu ta’limot hozirgi kundagi tasavvufiy-gnoseologik qarashlarga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Rumiyning ontologiyasi va gnoseologiyasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ontologiya mavjudlikni o‘rganar ekan, gnoseologiya bu mavjudlikni bilishning imkoniyatlarini tushunishga harakat qiladi [8].

Rumiy «Masnaviy» asarida shunday yozadi: «Haqiqiy bilim qalbni poklashdan boshlanadi. Agar qalbni poklasang, haqiqiy bilimni anglaysan» [4]. Bu fikr alloma gnoseologik qarashlarining markazida turadi. Rumiy bilimni faqat tashqi faktlarni bilish orqali emas, balki qalbning sezgi quvvati orqali olishga chaqiradi. Schimmel esa Rumiyning gnoseologiyasini shunday izohlaydi: «Rumiyning ta’limotida haqiqiy bilim nafaqat tashqi dunyoni anglash, balki ichki dunyo va haqiqatni ko‘rishdir» [6]. Bu ta’limotda qalb va ruhning tozaligi haqiqiy bilimga olib boruvchi asosiy vosita sifatida ko‘rsatiladi.

Rumiyning borliq to‘g‘risidagi qarashlari va bilish nazariyasi alloma tasavvufiy yondoshuvining asoslarini tashkil qiladi. Rumiy mavjudlikni nafaqat tashqi voqelikda, balki uning ichki, ruhiy fazosida ham izlaydi. Bu ontologik yondashuv uni boshqa falsafiy maktablardan ajratib turadi. Rumiy «haqiqiy bilim Allohni anglash va uning nurlariga duchor bo‘lishda», – deb ta’kidlaydi.

Jaloliddin Rumiyning bilish nazariyasida haqiqiy bilimni anglash uchun aqlni yuksaltirish zarur. Ammo «aqlning chegarasi qalbni ochish va tasavvufiy tajriba orqali oshadi» [6]. Mutafakkir ilmni faqat tashqi dunyoda emas, balki ichki olamni kashf etishda ham topadi. Uning fikriga ko‘ra, qalbning tozaligi bilimning to‘g‘ri yo‘lini ko‘rsatadi. Aql va sezgi o‘rtasida muvozanatni saqlash orqali inson haqiqiy bilimga erishadi [7].

Rumiy falsafasida eng muhim tamoyil – bu **Alloh bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa** o‘rnatish va **muhabbatdir**. Uning tasavvufiy yondashuvi orqali inson nafaqat Allohni anglash, balki uning nurlari bilan to‘lishi kerakligini tushunadi. Bu esa insonning haqiqiy o‘zini topish va ruhiy taraqqiyotga erishishning asosiy yo‘lidir. Uning tasavvufiy qarashlari ham bevosita ontologik va gnoseologik qarashlari ta’sirida shakllangan. Rumiyning tasavvufga bo‘lgan yondashuvi uni diniy amallardan ko‘ra, ma’naviy

va ontologik jihatlarni chuqur o‘rganishga undaydi. Rumiy tasavvufni insonni o‘z ichki dunyosini anglash va Alloh bilan birlashish yo‘li sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, «**haqiqiy bilim**» aql orqali emas, balki qalb orqali, his-tuyg‘u va ilohiy sezgi orqali olinadi. Rumiy ilmni faqat tashqi dunyo bilan bog‘lamaydi, balki uning mohiyatini ichki, ma’naviy dunyo orqali anglashga intiladi. Jaloliddin Rumiy tasavvufga faqat diniy amallar, rituallar va ibodatlar tizimi sifatida emas, balki **Allohning ilohiy mohiyatini tushunish va qalbni poklash** jarayoni sifatida qaraydi. Uning fikriga ko‘ra, tasavvuf yo‘lida **muhabbat** eng muhim asosdir. Haqiqiy muhabbat sifatida insonning Allohga bo‘lgan muhabbatini ko‘radi. Uning tasavvufiy tafakkurida **muhabbat** Allohni anglash va unga bo‘lgan muhabbat orqali insonni haqiqiy bilimga olib boradi. Mutafakkir tasavvufda haqiqiy bilimga erishish yo‘lini «**ichki sayohat**» deb ataydi. Bu sayohat, tashqi dunyo bilan emas, balki insonning o‘zining ichki dunyosi bilan bog‘liq. Rumiy insonni bu sayohatga «**o‘zi bilan yuzlashish**» va haqiqiy yuksalishga erishish uchun chaqiradi **[4].**

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, insonni haqiqiy bilimga va haqiqiy haqiqatga olib borish uchun **ruhiy sayohat** qilish zarur. Haqiqat nafaqat zohiriy ilmlar, balki ichki sezgi va ruhiy izlanishlar orqali anglanadi. Haqiqiy bilim zohiriy ma’rifat asosida emas, balki **ruhning poklanishi va qalbning tozaligi** orqali egallanadi.

Xulosa.

Sharq falsafiy tafakkur tarixining serqirra mutafakkirlaridan biri hisoblangan Jaloliddin Rumiyning falsafiy-tasavvufiy yondashuvi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Uning **borliq haqidagi qarashlari, bilish nazariyasi,** tasavvufiy ta’limoti insonning ichki dunyosini anglash va haqiqiy bilimga erishish yo‘lida **muhabbat**, **qalbni poklash** va **Allohga bo‘lgan sevgi**ni ta’kidlaydi. Rumiy aql va ilmni qalb va ruh bilan uyg‘unlashtirgan holda, insonni haqiqiy ma’naviy yuksalishga olib borishini asoslaydi. Uning falsafiy qarashlari tasavvufning haqiqiy mohiyatini tushunishga yordam beradi va tasavvufni nafaqat diniy amallar sifatida, balki ruhiy va ma’naviy taraqqiyotning yuksak yo‘li sifatida ko‘rsatadi. **Jaloliddin Rumiy** tasavvufda haqiqiy bilim, haqiqiy muhabbat va Alloh bilan birlashishning asl ma’nosini ochib beradi. Uning tasavvufiy yondashuvi bo‘yicha bu tushunchalar o‘zaro chambarchas bog‘langan va insonni ma’naviy kamolotga yetaklovchi yo‘llar sifatida qaraladi. Rumiy bularni faqat tashqi ilm yoki oddiy sevgi sifatida emas, balki Allohni anglash va u bilan birlashishning muhim bosqichlari deb biladi.

Adabiyotlar.

1. Arberry A. J. Discourses of Rumi. – London. 1961. – 319 p.
2. Goleman, D. When smart is dumb. In. Emotional Intelligence. – New York: Bantam, 1995. – P. 33-45.
3. Husserl, Edmund Ideas: General Introduction to Pure Phenomenology. – New York: Routledge, 1931. – 424 p.
4. Lyotard Jean-Francois. The Posmodern Condition: A Report on Knowledge. – Minneapolis: University of. Minnesota Press, 1984. – Pp. 71-82.
5. Rumiy Jaloliddin. Masnaviy–i Ma’naviy. Tahrir: B. Zarrabi. – Tehron. 2015. – 718 b.
6. Safaviy Muhammad. Islom falsafasi va tasavvuf: Jaloliddin Rumiyning hissasi haqida mulohaza. Kembrij Universiteti Matbuoti, 2010. – 391 b.
7. Schimmel Annemarie. The Triumphal Sun A Study of the Works of Jalaloddin Rumi. – London: Published by East-West Publications, 1980. – 428 p.
8. Seyyed Hussein Nasr. The Garden of Truth: The Vision and Practice of Sufism. Harper One, 2007. – 192 p.
9. William C. Chittick. The Sufi Path of Knowledge: Ibn al- Arabi's Metaphysics of Imagination. – Albany: State University of New York Press, 1989. – 500 p.
10. Зиёев Х. М. Суфийский орден мавлавия. – Душанбе. 2007. – 386 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Gulamova Dilafruz Olimjonovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: gulamovadilafruz@mail.ru

IMOM BUXORIY MA'NAVIY MEROSIDAGI UMUMINSONIY QADRIYATLARNING AXLOQIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, olim va muhaddis Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi haqida so'z boradi. Imom al-Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Uning "Al-Jome' as-Sahih" nomli shoh asari, islom dini allomalarining dalolatiga ko'ra, Qur'oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, Imom al-Buxoriyning ushbu asari islom olamida inson tomonidan yaratilgan, eng ishonchli diniy manbaa sifatida e'tirof etilishi tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Sahih, hadis, asar, buyuk tarix, tarix, al-Jomeh as-Sahih, al-Adab al-Mufrad, Xayr-ehsonlar, qo'llab-quvvatlash, hadis, al-Buxoriy, Muhammad, Ibrohim, Buxoro, Basra, islom, iymon.*

Гуламова Дилафруз Олимжоновна
Научный сотрудник Бухарского государственного университета

НРАВСТВЕННО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБО'ЕОБО'ЕСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ ИМАМА БУХАРИ.

Аннотация. *В статье рассматривается жизнь и научное наследие великого мыслителя, ученого и хадисоведа Имама аль-Бухари. Имам аль-Бухари классифицировал более 20 книг. Некоторые из них сохранились до наших дней. Его шедевр «Аль-Джами ас-Сахих» исламские ученые считают самым важным источником после Свяо'енного Корана. Здесь следует отметить, что этот труд имама аль-Бухари был проанализирован и признан самым достоверным религиозным источником, созданным человеком в исламском мире.*

Ключевые слова: *Сахих, хадис, работа, великая история, история, аль-Джаме ас-Сахих, аль-Адаб аль-Муфрад, благотворительность, поддержка, хадис, аль-Бухари, Мухаммад, Ибрагим, Бухара, Басра, Ислам, вера.*

Gulamova Dilafruz Olimjonovna
Researcher, Bukhara State University

THE MORAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF UNIVERSAL VALUES IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF IMAM BUKHARI.

Annotation. *This article discusses the life and scientific legacy of the great thinker, scholar and hadith scholar Imam al-Bukhari. Imam al-Bukhari compiled more than 20 books. Some of them have survived to our time. His masterpiece, Al-Jami' as-Sahih, is considered by Islamic scholars to be the main source after the Holy Quran. It should be noted that this work of Imam al-Bukhari is recognized as the most reliable religious source created by man in the Islamic world.*

Key words: *Sahih, hadith, work, great history, history, al-Jameh as-Sahih, al-Adab al-Mufrad, Charity, support, Hadith, al-Bukhari, Muhammad, Ibrahim, Bukhara, Basra, Islam, faith.*

Kirish.

Mustaqillik buyuk alloma ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini tarjima va tadqiq etish, ularni tom ma'noda ilmiy o'rganish borasida olamshumul ishlarni amalga oshirish imkoniyatini berdi. Buni ayniqsa asrlar davomida qo'l urilmagan qo'lyozma merosimiz durdonalarini o'rganish kabi xayrli sohada ko'rish mumkin. Mazkur tadqiqotda ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirishda tariximizda dunyoga tanilgan shunday zotlar va bebaho durdona asarlar mavjudki, ularni uzoq muddat o'rganish hamda yurtdoshlarimizni ular bilan tanishtirish imkoniyati bo'lmadi.

Adabiyotlar tahlili.

Mana shunday buyuk alloma zotlardan biri Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy sanaladi. Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy merosini aynan mustaqillik

yillaridagina xolis o‘rganishga keng imkoniyat yaratildi. Bu xayrli ishlar 1990 yili Shamsuddinxon Boboxonov tomonlaridan “al-Adab al-mufrad” asarining ko‘p nusxada chop etilishi bilan boshlandi. 200000 nusxada nashr etilgan ushbu asar tez fursatda keng jamoatchilikka tarqaldi. Nashrga asarning bir qismigina kiritilgan bo‘lsa ham ilmiy doiralarda u o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Bu nodir asar bo‘yicha izlanishlar muntazam davom etmoqda [1]. Jumladan, “al-Adab al-mufrad” birinchi nashriga kiritilmagan qismlarini to‘ldirilgan holda 2006 yili Movarounnahr nashriyotida 2000 nusxada to‘liq chop etildi. Nashrdagi keyingi qismlarning tarjimasi Nu’mon Abdulmajid tomonidan amalga oshirilgan. Kitobga Asror Samadning nashr haqidagi kirish so‘zi, Abduqahhor Ibrohimovning “E’tiqodga baxshida umr” nomli katta hajmdagi tarixiy-falsafiy badiasi hamda marhum Shamsuddin Boboxonovning “al-Adab al-mufrad” ning birinchi nashrida berilgan “Imom al-Buxoriy va uning “al-Adab al-mufrad” asari haqidagi maqolasi kiritilgan. Ma’lumki, “al-Adab al-mufrad” o‘ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy kitobxon asardan foydalanishda ma’lum qiyinchiliklarga uchraydi [2]. Yuqoridagi holatni yengillashtirish maqsadida asardagi birbiriga yaqin mavzudagi hadislarni birlashtirgan holda 2008 yili “al-Adab al-mufrad” tarkibidagi odob-axloqqa oid hadislardan saylanma nashr etildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning Imom al-Buxoriy ma’naviy merosidagi umuminsoniy qadriyatlarning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganishda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Xususan, nazariy tahlil orqali Imom al-Buxoriy ma’naviy merosidagi umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat ma’naviy hayotiga va ilmiy tadqiqotlarga ta’siri haqida ilmiy adabiyotlar va oldingi tadqiqotlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv yordamida Imom al-Buxoriy ma’naviy merosining ilmiy izlanish jarayonidagi o‘rni bosqichma-bosqich o‘rganilib, ularning yoshlar tarbiyalashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Solishtirma tahlil esa turli qadriyatlarning mavjudligini qiyoslash orqali dolzarb muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini taklif qilishga imkon berdi. Oxir-oqibat, maqolada muammolar va istiqbollarni tahlil qilish metodi qo‘llanilib, Imom al-Buxoriy ma’naviy merosining ahamiyati va mavjud qadriyatlarning ilmiy faoliyatga ta’siri bilan bog‘liq imkoniyatlar aniqlandi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning ishonchliligini oshirishga xizmat qilib, ilmiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini kengroq yoritishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. O‘ o‘z nutqida yoshlar va ularnig tarbiyasi haqida gapirib o‘tdi, shuningdek Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasiga yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ishlab chiqish hamda ma’rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risidagi rezolutsiyani qabul qilishni taklif etdi. Nutq davomida O‘zbekiston rahbari jahon jamoatchiligiga “islom dinining asl insonparvarlik mohiyati”ni yetkazishga chaqirdi. “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz”, dedi O‘zbekiston rahbari hamda islom dini “yezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga” da’vat etishini qayd etdi [4]. Ulug‘ mutafakkir, hadis ilmining sultoni, islom dini va uning madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan Imom al-Buxoriy hayot yo‘li, ilmiy merosi ham mustamlaka davrlardagi ta’qiqlarga qaramasdan o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Shu o‘rinda aytadigan bo‘lsak, Imom al-Buxoriy tijorat qilganda topgan daromadidan oyiga faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflagan. Imom al-Buxoriyning o‘zi esa shaxsiy hayotida ortiqcha hashamat va sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymagan [3].

Ma’lumki, Imom al-Buxoriy butun umr bo‘yi hadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullangan. Ularni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o‘zaro muloqotlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda olib borgan. Buxoriy hammasi bo‘lib 600 mingga yaqin hadis to‘plagan bo‘lib, shundan 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadisni yoddan aytib bera oladigan darajada bilgan. U o‘zining iqtidori, noyob qobiliyati, quvvai hofizasining nihoyatda kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldira olgan. Hadis ilmiga o‘ta fidoyilik, aqlzakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi.

Imom al-Buxoriy hadis ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yetuk olim sifatida dunyoga tanilgan. Imom al-Buxoriyning ustozlari juda ko‘p bo‘lgan bo‘lib, sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Imom al-Buxoriy yoshlik chog‘ida ko‘zlari ojiz bo‘lib qoladi. Shunda onasi kechasiyu kunduzi allohga iltijo qilib, tushlarida Ibrohim a.s ni ko‘radi. Ibrohim a.s bashorat beradiki o‘g‘lingni ko‘zi ochildi deb aytadi. Otalari barvaqt o‘tib ketadi. Onasi va bitta ukasi bilan qoladilar. Movarounnahr ulamolaridan saboq oladi. Turkmanistonning Marv shahri olimlari Marvaziy deb atalgan. Imom al-Buxoriy Abdulloh ibn Muborak al Marvaziy to‘plagan hadislarni butunlay to‘liq holda yodlagan yekanlar. Samarqandda imom Dorimiy ham Buxoriyning ustozi bo‘lgan. Shu kishini ham to‘plagan hadislarini yodlagan. Imom al-Buxoriy Makka, Madina shaharlariga ham safar qilib, u yerda ham bir qancha hadislarni to‘plagan. Imom al-Buxoriy hayoti davomida

jami 600000 ta (olti yuz ming) hadis to‘plagan. U dastavval Ibn alMuborak va Vaqiy’ning hadislarga oid asarlarini yod oladi. Imom al-Buxoriyning kitobi, uning asosiy tasnifi “Sahih” asari roviylaridan bo‘lmish Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq shunday deb yozadi: “Al-Buxoriyning “Hadislarni yod olish ilhomi menga boshlang‘ich maktabda o‘qiyotgpnimda kelgan edi”, - deganini eshitganimda, “O‘shanda necha yoshda edingiz?” - so‘radim. U “O‘n yoshda, balkim undan ham kichik edim”, - deb javob bergandi”. Imom al-Buxoriyning safarlarida juda qiziq voqealar bo‘lib o‘tgan. Imom al-Buxoriyning ta’rifini eshitgan bir qancha Bag‘dodlik kishilar xotirasini sinab ko‘rmoqchi bo‘lishadi. Imom al-Buxoriyga o‘nta hadis aytib siz eshitganmisiz, sahihmi nosahihmi ajratib bering deb roviylar ro‘yhatini o‘zgartirib aytishadi. Imom al-Buxoriy men bu hadislarni hech qaysi birini bilmayman. Ammo men mana bu hadislarni yeshitganman deb ular aytgan hadislarni roviylrini o‘z o‘rniga qo‘yib yoddan aytib berganda, hammalari ta’zim qilib, e’tirof etishgan ekan [5].

Imom al-Buxoriyning asarlari juda ko‘p bo‘lib, shox asari “Al-Jome as-Sahih” hisoblanadi”. Mustaqillik yillarida imom al-Buxoriyning “Al-Jome as-Sahih” asari o‘zbek tiliga o‘girildi. Shular qatorida “Al-adab al-Mufrad”, “Asmoi Sahoba” insonlar sahobalarni ismini to‘g‘ri atasin deb kitob holida ham asar yozgan. Shosh (Toshkent)ning taniqli muhaddislaridan biri Hoshid ibn Iso al-G‘azzol (vafoti 875 yil) shunday degan: “Imom al-Buxoriy o‘spirin chog‘ida biz bilan birga Basra mashoyixlaridan hadislar eshitardi. Hammamiz ustozlardan eshitganlarimizni yozib olardik, al-Buxoriy esa hech narsa yozmasdan, faqat tinglab o‘tirardi. Shu tariqa o‘n olti kun o‘tgach, u birdan: “Nazarimda ko‘p hadis yozib yubordingizlar, qani, menga yozganlaringni ko‘rsatinglarchi?” - deb qoldi. Biz yozgan hadislarimizni hisoblab ko‘rsak, o‘n besh mingdan ortiq hadis yozib olgan ekanmiz. Shunda al-Buxoriy ularning hammasini yoddan aytganlariga qarab tuzatib ham oldik”. “Kitobi bad ul-Mahluqo” asasri tarix, mahluqotlar va Qur’oni Karimda keltirilgan alloh taoloning olamning olti kunda yaratganligi haqidagi ma’lumotga izoh sifatida yozilgan asar hisoblanadi. “Tarixi Buxoro” ya’ni Buxoroning tarixi to‘g‘risida yozilgan asardir. Imom al-Buxoriyning tarixga oid uch asari bo‘lgan:

1. “Tarixi Kabir”
2. “Tarixi Avsat”
3. “Tarixi Sag‘ir”

Imom al-Buxoriy Tarix kitoblarida aytadiki, “Birorta tarixiy shaxs yo‘qki, men u haqda ma’lumotga ega bo‘lmasam” - deb ta’kidlaydi. Imom al-Buxoriyning durdona asari bo‘lmish “Al-adab al-Mufrad” ya’ni “odoblar xazinasi” deb ataladi. Bu asarda odob-ahloq qoidalariga rioya etmoq, engavvalo ota-onaga va qarindosh-urug‘lariga “silai rahm” qilishlik to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tgan [6].

Imom al-Buxoriy hazratlarini nomlari shunchalik islom dunyosiga musulmonlarning qalbiga o‘rnashganki, Madinayi Munavvarada har kuni kechayu-kunduz janobi payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomni “Masjidi Nabaviylari”da sahih hadislarini televideniya va radio orqali dunyoga taralib turadi. Shu hadislarni ichida ikkita-uchta boshqa muhaddisdan keyin Imom al-Buxoriyning muborak ismlari keladi. U zotning ustozlari haqida gapiradigan bo‘lsak, Imom al-Buxoriy: “Men bir ming saksonta roviydan hadislar yozib olganman, ularning, ichida hech bo‘lmasa bittagina hadis aytganlari ham bo‘lgan”, degandilar. Arablar bu zotga “Imomi dunyo” ya’ni “dunyo imomi” nomini bergan yekanlar. Buxoro amiri Xolid ibn Valid o‘z farzandiga ilm o‘rgatish uchun saroyga taklif etadi. Shunda Imom al-Buxoriy ilm o‘rgatish uchun borilmaydi, balki ilm olish uchun kelinadi deb bu taklifni rad etadi. Xolid ibn Valid bundan g‘azablanib, Buxoriyni Buxorodan chiqib ketishini talab qiladi. Imom al-Buxoriy Samarqandga ketishga majbur bo‘ladi. Mana shu yerda yashab ilm o‘rganib, vafot etadi [7]. Kunlarning birida Shayx Nadim alJisr Moskvaga tashrif buyuradi. Mehmonxonaga kelib joylashgach, tashrif rejasi bilan tanishib chiqadi. Rejaga Imom al-Buxoriy qabrini ziyorat qilishni kiritishlarini so‘raydi. Ammo rad javobini oladi. Unga tashrif rejasi sovet hukumatining oliymaqom vakillari tomonidan tasdiqlanganini aytib, o‘zgartirish mumkin emasligini tushuntirmoqchi bo‘lishadi. Ammo Shayx Nadim bo‘sh kelmadi. “Agar rejaga birinchi bo‘lib Imom al-Buxoriy qabrini ziyorat qilish kiritilmas ekan, men hozirning o‘zidayoq Lubnonga qaytaman”, deb qat’iy turib oldi [8]. Ana shundan keyin tashrifga mas’ul shaxslar Shayx Nadim ziyorat qilishni istagan Imom al-Buxoriy qabri joylashgan O‘zbekiston raxbarlari bilan bog‘lanishadi. Nasabi Buxoriy bo‘lsa kerak deb Buxoroning raxbarlariga qabrni ziyoratgacha tozalab qo‘yishlarini buyurishadi. Buxoro raxbarlari yarim kun qabrni qidirish bilan ovvora bo‘lishib, Toshkentga “Buxoriy qabri Buxoroda emas, Samarqandda ekan” deb telegramma jo‘natishadi. Toshkent buyruqni Samarqandga jo‘natishadi. Samarqand raxbarlari ham yarim kun ovvora bo‘lib Imom al-Buxoriyning qabri shahardan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan Xartang qishlog‘ida ekanligini aniqlashadi. Ammo maqbara vayron holda, butun islom olamida muqaddas sanalgan qabr kimyoviy moddalar saqlanadigan omborxona vazifasini o‘tab kelayotganligi ma’lum bo‘ladi [9]. “Xavfsizlik xizmati mehmonni samalyotda emas poezdda jo‘natish kerak”, - degan taklifni bildiradi. Samolyot Toshkentga 4 soatda uchib kelsa, poezd esa 4 kunda samarqandga yetib boradi. Mana shu 4 kun ichida maqbara ziyoyoratga shay qilib qo‘yilishini bo‘yuradi. O‘sha paytda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston diniy idorasi muftiysi Ziyovuddinxon Boboxonovni ham bu ishga jalb etishadi. “Tezlik bilan bu ishga boshchilik qiling”, deb Samarqandga jo‘natishadi. Shayx Samarqandga yetib kelgach kun bo‘yi Samarqandni

aylanadi. Nihoyat kech tushganda maqbara tomon yo‘l olishadi. Yetib borgach. Shayh Nadim yanabir karra yerni o‘padi-da, ko‘zlariga yosh quyilgan holda to‘xtamay Qur’oni Karimni tilovat qila boshlaydi. Shayx tonggacha tilovat qiladi. Tong yorishgach qabr atrofiga nazar solar ekan, nega bu yerga tunda olib kelishganini tushunib yetadi. Masjidning xarob ahvolini ko‘rib yig‘lab yuboradi [10]. O‘zbekiston rahbari bilan ko‘rishib, “Imom al-Buxoriy hoki turobini olib ketishga ruxsat beringlar. Maqbara atrofidagi tuproqlarigacha beringlar. Evaziga o‘sha tuproqning og‘irligi qancha bo‘lsa o‘shanga teng hajmda tillo olib kelishga va’da beraman!”, deb aytadi. Ammo Shayxning bu iltimosi rad etiladi.

Xulosa.

Barkamol avlodni tarbiyalash pedagoglardan alohida e’tiborni talab qiladi. Barkamol avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida xalqimiz tomonidan, ularning milliy urf-odatlaridan, an’analaridan tajribalar xalq tomonidan yaratilgan ijod namunalaridan va ilmiy amaliy asarlari va qoldirgan boy meroslarida o‘z ifodasini topgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki ilm -fanda hadis ilmining amiri deb tan olingan Imom Isroil al-Buxoriy hadislari ko‘p aql durdonalarini yoshlar tomonidan yanada ko‘proq o‘zlashtirilishi bugungi mustaqil O‘zbekiston ehtiyojlariga mos kelib ahloqiy fazilatlarni o‘rganish ya’ni pedagogik psixologiya fanlarini o‘qitishda yoshlarda ajoyib ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular uyg‘otadi.

O‘zbek xalqi o‘zining o‘tmishi bilan har qancha fahrlansa, g‘ururlansa arziydi. U jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga shu qadar katta hissa qo‘shganki, buni butun dunyo allaqachon tan olgan. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shganlar, xalqimizning milliy iftixori bo‘lib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муҳаддислар султони: Метод.-библиогр. қўлл. / Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси; Тузувчи Ф.Рўзиева; Муҳаррир Ҳ..Маматраимова; Масъул муҳаррир О.Қиличбоев.-Т.: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси. нашриѐти, 2006.

2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Одоблар хазийнаси. Имом ал-Бухорий “ал-Адаб ал-муфрад” китобининг шарҳи. 3 жилдлик. - Т., Шарқ, 2008-2009, 3-бет.

3. Имом Бухорий. Ал-Адаб ал-муфрад. Таржимонлар Ш.Бобохонов, Н.Абдумажид.- Тошкент: Мовароуннаҳр, 2006.

4. Камолова Ш., Аҳмедова Н., Мунарова Д. Тарбия жараёнида Имом ал-Бухорий ҳадислари. – Интернет материаллари.

5. Ўзбекистон – буюк алломалар юрти. Имом Бухорий Халқаро маркази. Т.: “Маънавият”, “Мовароуннаҳр” 2010. 8 б.

6. Убайдулла Уватов. Ҳадис илмининг султони. Имом Бухорий Халқаро маркази 2009. 11, 12 б.

7. Саҳиҳи-Бухорий: диний маърифий /Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий.- Тошкент: “Munir” нашриёти, 2021.40-б

8. Sulton Salim Buhoriy- “Tabarruk Ziyorotgohlar”. Toshkent 1993.2-bet 5. Al-Buxoriy. Al jome as sahih. N.Ibrohim., M.Kenjabek. 1992

9. Ubaydulla Uvatov- “ Buyuk Ajdodlar ” Toshkent 2014.5-bet

10. Олтин силсила: Саҳиҳул Бухорий, 1-жуз-Тошкент: Hilol-nashr, 2023.- 216-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xidirov Mustafo Toyirqulovich
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti
E-mail: xmt.2017@mail.ru

YANGI BILIMLAR SHAKLLANISHI NATIJASIDA FAOLIYAT BILAN BOG‘LIQ MIQDOR VA SIFAT O‘ZGARISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola yangi bilimlarning shakllanishi natijasida inson faoliyatida yuzaga keladigan miqdoriy va sifatli o‘zgarishlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Shuningdek, yangi bilimlarning ontologik, gnoseologik va mantiqiy jihatlari hamda ularning faoliyatni takomillashtirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Miqdoriy o‘zgarishlar yangi bilimlar natijasida resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi, sifat o‘zgarishlari esa faoliyatni yanada ijodiy va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Maqola yangi bilimning ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatini ochib berib, uning jamiyat rivojlanishiga ta’sirini tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Yangi bilimlar, faoliyat, miqdoriy o‘zgarishlar, sifat o‘zgarishlari, ontologik asoslar, gnoseologik tahlil, mantiqiy tamoyillar, bilim shakllanishi, innovatsiyalar, ilmiy rivojlanish, amaliyot, samaradorlik, tafakkur, resurslardan foydalanish, ijodkorlik.*

Khidirov Mustafa Toyirkulovich
PhD student of the National University of Uzbekistan

QUANTITATIVE AND QUALITATIVE CHANGES IN ACTIVITY DRIVEN BY THE EMERGENCE OF NEW KNOWLEDGE

Abstract. *This article explores the quantitative and qualitative transformations that occur in human activity as a result of the emergence of new knowledge. It examines the ontological, epistemological, and logical dimensions of new knowledge and their role in improving human endeavors. Quantitative changes facilitated by new knowledge ensure more efficient utilization of resources, while qualitative changes contribute to making activities more innovative and effective. The article highlights the scientific and practical significance of new knowledge, analyzing its impact on societal development.*

Keywords: *new knowledge, activity, quantitative changes, qualitative changes, ontological foundations, epistemological analysis, logical principles, knowledge formation, innovations, scientific development, practice, efficiency, creativity, resource utilization, intellectual growth.*

Хидиров Мустафа Тойиркулович
Докторант национального университета Узбекистана

КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ И КАЧЕСТВЕННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, ВЫЗВАННЫЕ ПОЯВЛЕНИЕМ НОВЫХ ЗНАНИЙ

Аннотация. *В этой статье рассматриваются количественные и качественные преобразования, происходящие в деятельности человека в результате появления новых знаний. В ней рассматриваются онтологические, эпистемологические и логические измерения новых знаний и их роль в улучшении человеческих усилий. Количественные изменения, обусловленные новыми знаниями, обеспечивают более эффективное использование ресурсов, в то время как качественные изменения способствуют тому, чтобы деятельность была более инновационной и эффективной. В статье подчеркивается научное и практическое значение новых знаний, анализируется их влияние на развитие общества.*

Ключевые слова: *новые знания, деятельность, количественные изменения, качественные изменения, онтологические основы, эпистемологический анализ, логические принципы, формирование знаний, инновации, научное развитие, практика, эффективность, креативность, использование ресурсов, интеллектуальный рост.*

Kirish.

Ilm-fan rivoji sharoitida ilmiy bilimlar rivoji insoniyat hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Yangi bilimlar shakllanishi nafaqat mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi, balki inson faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratadi. Miqdoriy va sifatli o‘zgarishlar birgalikda rivojlanishning asosiy

mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Miqdoriy o‘zgarishlar, masalan, ma’lumotlar bazasining kengayishi, ilmiy izlanishlar sonining ortishi yoki texnologik rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida ko‘rinadi. Bu jarayon yangi nazariy paradigmalar va amaliyot usullarini ishlab chiqish uchun poydevor yaratadi. Sifat o‘zgarishlari esa ushbu to‘plangan ma’lumotlar va yutuqlarning yangi nazariyalar, texnologiyalar yoki faoliyat usullariga aylanishini ta’minlaydi.Yangi bilimlarning ilmiy va amaliy jihatlari jamiyat rivoji uchun qanday imkoniyatlar yaratishi yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili.

Yangi bilimlar shakllanishi natijasida faoliyat bilan bog‘liq miqdor va sifat o‘zgarishlari falsafiy tafakkur taraqqiyotining postnoklassik fan rivoji bilan bog‘liq holda I.K.Liseyev, Ya.A.Fomicheva, A.S.Frayman, Floridi Luciano, Shermuxamedova N.A., Kadirova.D.S. ilmiy izlanishlari va chop etgan asarlariga asoslandi. I.K. Liseyevning “Философия. Биология. Культура” kitobi falsafa, biologiya va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bilim va faoliyatning mohiyati, ularning ontologik va epistemologik asoslari muhokama qilinadi. Ya.A.Fomichevaning “Категория количества в философии и лингвистике” maqolasida miqdor tushunchasi falsafa va tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada bilish jarayoni va inson faoliyatining miqdoriy xususiyatlari haqida ham fikr yuritiladi. Shuningdek, N.A.Shermuxamedova “Falsafa” kitobida bilim va faoliyat dialektigasining asosiy sifat o‘zgarishlarga bog‘liq jihatlariga alohida e’tibor qaratgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi asosan yangi bilimlar shakllanishining miqdoriy va sifatli o‘zgarishlarga ta’sirini tahlil qilish, bu jarayonlarning falsafiy, gnoseologik va amaliy jihatlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida dialektik metoddan miqdor va sifat o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda, tarixiylik metodidan amaliy tajribalar va kuzatishlar orqali yangi bilimlarning miqdoriy va sifatli o‘zgarishlarga ta’siri aniq faktlar asosida baholanilishida, tizimli yondashuv orqali yangi bilimlar va faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tizimli ravishda tahlil qilingan.

Tahlillar va natijalar.

Yangi bilimlar tizimida kvant fizikasidagi turli yondashuvlar shakllanishi bilan bog‘liq asoslar ilmiy bilim dinamikasiga bog‘liq holda shakllanib borishi va psevdo-nazariyalardan xoli bo‘lishi ham faoliyat bilan istiqbolli tendensiyalar uchun xizmat qiladi. “Nazariya va tushunchalar haqiqatni anglanilgan holda tushunish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Aks holda, ular psevdo-nazariya va psevdo-konsepsiyaga aylanadi. Nazariya yoki tushunchalarni voqelikka tadbiq etishning psevdo-muammosi faqat ular orasidagi mantiqiy tafovut asoslantirilganda va jiddiy muvaffaqiyatsizlik deb hisoblanganda yuzaga keladi” [1]. Shuningdek, genetik muhandislik organizmlarning genetik tuzilishini o‘zgartirish va boshqarish imkonini beradigan yangi obyektlarni kashf etdi. Genetik tadqiqotlar natijasida inson genomi xaritasi ishlab chiqilib, irsiy kasalliklarning sabablarini aniqlash va ularni davolash bo‘yicha yangi yondashuvlar yaratildi. Bu esa biologiya va tibbiyot sohalarida tub burilishlarni ta’minladi.

“Evolyutsiya jarayonining birligini tushunishga faqat evolyutsiya nazariyasi g‘oyasi orqali evolyutsiya haqidagi bilimlarning turli darajalarini o‘z ichiga olgan yaxlit rivojlanayotgan bilim sifatida erishish mumkin. Mikro va makroevolyutsiya nazariyalari evolyutsiya jarayonini o‘rganishning ikkita usuli bo‘lib, ular assimetriya munosabati bilan bog‘liq”[2].

Yangi obyektlar va hodisalarning paydo bo‘lishi, bir tomondan, mavjud ilmiy bilimlarni boyitadi, boshqa tomondan esa jamiyatning ehtiyojlariga mos innovatsion yechimlarni taqdim etadi. Bu jarayon nafaqat ilm-fan rivojiga, balki iqtisodiyot, ekologiya va ijtimoiy hayotning turli jabhalariga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, yangi obyekt va hodisalar mavjud reallikni yangicha anglash va uni insoniyat manfaatlariga moslashtirish yo‘lida muhim qadamlar tashlashga imkon beradi.

Yangi bilimlarning shakllanishi insoniyatning faoliyati va uning rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Bilim nafaqat inson tafakkurining mahsuli, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Har qanday yangi bilim faoliyat jarayonida miqdoriy va sifat jihatidan o‘zgarishlarga olib keladi. Bu esa jamiyat hayotining turli sohalarida sezilarli ta’sir ko‘rsatadi hamda yangi bilimlar shakllanishining ontologik, gnoseologik va mantiqiy jihatlarini faoliyat bilan bog‘liq miqdoriy va sifat o‘zgarishlariga olib keladi. “Miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro bog‘liqligi haqidagi falsafiy qarashlar umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o‘rinli, ya’ni dialektika qonuni kuchiga ega bo‘ladi”[3].

Miqdor kategoriyasi bevosita fanlararo yondashuvni ham talab etadi va ilmiy-ijodiy faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. “Hozirgi zamon tilshunoslari ham miqdor kategoriyasiga katta ahamiyat berishadi. Funksional grammatika doirasida miqdorni ifodalovchi sintaktik vositalargina emas, balki uning semantik va pragmatik tomonlari ham ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy tilshunos olimlar miqdorning semantikasining gap tuzilishiga, uning semantik yukiga va boshqa lingvistik kategoriyalar bilan o‘zaro qanday ta’sir qilishini o‘rganadilar. Shunday qilib, Aristotel falsafasi va XXI asr funksional grammatikasidagi miqdor kategoriyasi haqidagi g‘oyalarni o‘rganish, bu kategoriya qadimgi mutafakkirlar uchun qanchalik muhim bo‘lganligini va hozirgi tilshunoslar uchun qanchalik dolzarbligini ko‘rish imkonini beradi. Har ikki yondashuv

ham olam va til tasvirining asosiy jihatlaridan biri sifatida miqdorning muhimligini ta'kidlaydi"[4].

"Sifat" kategoriyasining dialektik asoslari ko'p falsafiy ilmiy tadqiqot yo'nalishlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu kategoriya murakkab, ko'p qirrali va universal bo'lib, turli ko'rinishlarga ega. Sifat obyektdagi ichki elementlarning barqaror munosabatlarini aks ettiradi va bu munosabatlar obyektning o'ziga xosligini belgilaydi. Sifat obyektni boshqa obyektlardan ajratib turuvchi narsa sifatida mavjud va qabul qilinadi. Shu bilan birga, sifat obyektlar sinfini umumlashtiruvchi xususiyatni ham ifodalaydi.

"Miqdor va sifat o'zgarishlarini baholashda albatta me'yor kategoriyasi ham muhim ahamiyatga ega. Falsafa qomusiy lug'atida ta'kidlanadiki, me'yor obyektning sifat va miqdoriy jihatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha, me'yoriy qoida-amalga oshirilishi zarur bo'lgan yoki istisno qilinadigan xatti-harakatlar majmuidir"[5].

Har qanday rivojlanish jarayoni sifat va miqdor o'zgarishlari o'rtasidagi dialektik bog'liqlik orqali sodir bo'ladi. Dialektik materializm tamoyillariga ko'ra, miqdoriy o'zgarishlarning ma'lum bir bosqichida sifatli o'zgarishlar yuzaga keladi. "Ilmiy va ijtimoiy rivojlanishda sifat va miqdor o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlik asosiy tamoyil hisoblanadi. Sifat o'zgarishlari ko'pincha ijtimoiy munosabatlarni o'zgartiruvchi inqilobiy jarayonlarning boshlanishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiyotda, masalan, texnologik rivojlanish dastlab miqdoriy yutuqlar orqali sodir bo'lsa-da, bu oxir-oqibat sifatli o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar mehnat unumdorligini oshiradi va jamiyat rivojiga xizmat qiladi. Shu tarzda, sifat kategoriyasi dialektik materializmning asosiy tamoyillaridan biri sifatida nafaqat ilmiy bilimni, balki amaliy faoliyatni ham yo'naltiradi. Ushbu tamoyillarni chuqur tahlil qilish orqali ilmiy va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini yanada samarali boshqarish mumkin" [6]. Sifat va miqdor o'zgarishlari o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ilmiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyili sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, sifat va miqdor o'zgarishlarini chuqur anglash orqali jamiyatni barqaror rivojlantirishning poydevori yaratiladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, san'at va uning janrlari bilan bog'liq ijodiy faoliyatda ham umumiy ta'sirga ega bo'ladi.

"Falsafada rivojlanayotgan sistema kompleks va yaxlit o'zgarishi natijasida bir miqdoriy va sifatiy holatdan boshqa o'zgargan miqdoriy va sifatiy holatga o'tadi. Shu tariqa o'zgarish sistemaning yaxlit o'zgarib ketishiga (boshqa sistemaga aylanishiga) sababchi bo'ladi, ya'ni rivojlanish – bu holatlarning aylanib turishidir. Ushbu ta'rif janrlarga ham tegishlidir. Albatta, har bir janr o'z chegaralariga va mezonlariga ega, lekin u qotib qolgan tushunchani ham anglatmaydi. Janrlarni yangilanib turishi, san'at kuch-qudratining ramziy ifodasi, uning hayotiy va g'oyaviy mazmundorligi garovidir. San'at turlarida janrlar sistemasi muttasil harakatda yashaydi: yangi janrlar vujudga keladi, takomillashadi, iste'moldan chiqadi; har bir alohida janrda ham muttasil sifat o'zgarishlari kuzatiladi, badiiy ijod amaliyoti uning shakliy va mazmuniy xususiyatlariga muttasil o'zgartirishlar kiritib boradi" [7].

Yangi bilim faoliyatning ko'rsatkichlarini ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, axborot oqimi hajmini o'zgartirishga xizmat qiladi. Yangi texnologiyalar va bilimlar yordamida mehnat unumdorligi ortadi. Yangi bilim mavjud resurslardan yanada samarali foydalanishga imkon yaratadi. Masalan, yashil energiya texnologiyalari tabiiy resurslarni tejashga yordam beradi. Yangi bilimning shakllanishi va tarqalishi axborot almashish hajmini oshiradi. "Axborot olami va axborot jamiyatidan kelib chiqadigan yangi intellektual muammolarni hal qilinishi imkoniyatlari oshib bormoqda. Binobarin, tadqiqotning yangi va hayotiy muhim yo'nalishi - axborot falsafasi paydo bo'la boshladi. Axborot asri falsafasi davrida jamiyatining falsafiy asoslarini tizimli ko'rib chiqishni taklif qiladi" [8].

Shuningdek, faoliyatdagi miqdoriy o'zgarishlar ish jarayonlarini optimallashtirish, faoliyatning kreativligi, inson kapitalining rivojlanishi kabi ustuvor natijalarga erishishga xizmat qiladi. Yangi bilim faoliyatning murakkab elementlarini soddalashtirishga yordam beradi. Yangi bilim ijodkorlikni rag'batlantiradi, bu esa yangi mahsulot va xizmatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Yangi bilim insonning malaka va ko'nikmalarini oshiradi, bu esa faoliyatning yanada yuqori sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa.

Sifat va miqdor o'zgarishlari o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ilmiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyili sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyil, bir tomondan, texnologik rivojlanish va innovatsiyalar orqali iqtisodiyot va ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishiga sabab bo'lsa, boshqa tomondan, bu o'zgarishlarning natijasida yangi sifat darajalarini shakllantiradi. Miqdoriy o'zgarishlar ilmiy va texnologik bazaning kengayishiga yordam bersa, sifat o'zgarishlari faoliyatni yanada ijodkor va samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Ushbu jarayonlar bir-biri bilan dialektik bog'liq bo'lib, rivojlanishning tabiiy mexanizmini tashkil etadi. Ontologik yondashuv yangi bilimlarning reallikka qanday ta'sir qilishini aniqlashga xizmat qiladi. Gnoseologik tahlil esa bilim shakllanishining bilish jarayonlari bilan bog'liq qonuniyatlarini ochib beradi. Mantiqiy tamoyillar esa bilimni tizimlashtirish va uni faoliyatda samarali qo'llash imkonini yaratadi. Yangi bilimlar natijasida shakllangan miqdoriy va sifat o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish jamiyat va texnologik taraqqiyotning istiqbollari uchun muhim yo'nalishlarni

belgilaydi. Shu bois, ushbu jarayonlarni o‘rganish nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki amaliy faoliyatni takomillashtirish uchun ham dolzarbdir. Shunday qilib, yangi bilimlarning rivoji jamiyatning barqaror va uzluksiz taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Прис И.Э. Квантовая феноменология Хайдеггера // Философская мысль. – 2014. – № 4. – С. 46–67.
2. Лисеев, И.К. Философия. Биология. Культура (работы разных лет) [Текст] / И.К. Лисеев; Рос. акад. наук, Ин-т философии. – М.: ИФРАН, 2011. – 315 с
3. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. Дарслик. Тошкент. – 2021. – Б. 387.
4. Яна Алексеевна Фомичева Категория количества в философии и лингвистике // Евразийский гуманитарный журнал. 2024. № 2. С. 12–19.
5. Фалсафа. Қомусий луғат. -Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2004.й. 259 б.
6. Фрайман Антон Семенович «Качество» как философская категория // Вестник ЧелГУ. 2012. №9 (263). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kachestvo-kak-filosofskaya-kategoriya (дата обращения: 30.11.2024).
7. Kadirova.D.S. Analitik estetika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. O ‘zMU. 2021. – B. 61.
8. Floridi, Luciano, On the Foundation of the Philosophy of Information (January 1, 2000). Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=3848582 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3848582
9. Structural fundamentals of action strategy. G.G.G‘affarova, B.S.Qodirov. Journal of Positive School Psychology., -Pp.9492-9500.
10. Structural transformations as a faktor new development opportunities. G.G.Gaffarova. Scientific Bulletin of Namangan State University. 1 (№10), 185-190
11. Shaxs ma’naviy-ruhiy begonalashuvining shakllari. F.A.Ibrohimov, I.S.Fayziyev. Scientific progress 1 (5), 591-599
12. Philosophy Education as a Scientific-Pedagogical Problem. F.Ibrokhimov, Miasto Przyszłości 54, 1276-1280
13. Factors affecting human alienation in the information society. I.F.A. Международный научный журнал «Все науки». 10 (10), 77-84
14. Yoshlarda sog‘lom fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati. I.F.A. NamDU Ilmiy Axborotnoma 12 (12), 249-252

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Melikova Martaba Numonovna
Samarkand State Institute of Foreign Languages, Doctor of Philosophy (DSc), Professor, Head of the Department of Humanities and Information Technology
E-mail: martabamelikova@gmail.com

THE IMPACT OF GLOBALIZATION PROCESSES ON THE TRANSFORMATION OF SPIRITUAL VALUES

Annotation. *The article is devoted to the analysis of the impact of globalization processes on the transformation of spiritual values in modern society. Aspects such as cultural exchange, unification of culture, changing role of religion, identity crisis and ethical challenges arising in the context of globalization are considered. It is emphasized that globalization, on the one hand, contributes to the erosion of traditional values, and on the other, opens up new opportunities for intercultural dialogue and the synthesis of spiritual practices. The article suggests a search for a balance between preserving traditions and adapting to the new realities of the global world.*

Keywords: *globalization, spiritual values, cultural transformation, cultural exchange.*

Меликова Мартаба Нумоновна
Самаркандский государственный институт иностранных языков, доктор философских наук (DSc), профессор, заведующая кафедрой Гуманитарных наук и информационных технологий

ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ НА ТРАНСФОРМАЦИЮ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *Статья посвящена анализу влияния глобализационных процессов на трансформацию духовных ценностей в современном обществе. Рассматриваются такие аспекты, как культурный обмен, унификация культуры, изменение роли религии, кризис идентичности и этические вызовы, возникающие в условиях глобализации. Подчеркивается, что глобализация, с одной стороны, способствует размыванию традиционных ценностей, а с другой — открывает новые возможности для межкультурного диалога и синтеза духовных практик. В статье предлагается поиск баланса между сохранением традиций и адаптацией к новым реалиям глобального мира.*

Ключевые слова: *глобализация, духовные ценности, трансформация культуры, культурный обмен, унификация, религия, кризис идентичности, этические вызовы, традиции, межкультурный диалог, секуляризация, синкретизм.*

Melikova Martaba Numonovna
Samarqand davlat chet tillar instituti, falsafa fanlari doktori (DSc), professor, gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING MA'NAVIY QADRIYATLARNI O‘ZGARTIRISHGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqola globallashuv jarayonlarining zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishiga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Madaniy almashinuv, madaniyatni birlashtirish, dinning rolini o‘zgartirish, o‘ziga xoslik inqirozi va globallashuv sharoitida yuzaga keladigan axloqiy muammolar kabi jihatlar ko‘rib chiqiladi. Ta’kidlanishicha, globallashuv, bir tomondan, an’anaviy qadriyatlarni yo‘q qilishga yordam beradi, boshqa tomondan, madaniyatlararo muloqot va ma’naviy amaliyotlarni sintez qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Maqolada an’analarni saqlash va global dunyoning yangi haqiqatlariga moslashish o‘rtasidagi muvozanatni topish taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *globalla huv, ma’naviy qadriyatlar, madaniyatning o‘zgarishi, madaniy.*

Introduction.

Globalization, as one of the key processes of our time, has a multifaceted impact on all spheres of human life, including culture, economy, politics and, of course, spiritual values. In the context of the rapid development of technology, the expansion of communication opportunities and the strengthening of intercultural interaction, traditional spiritual values are facing new challenges and transformations. This has consequences for society.

Literature review.

The issue of interaction between globalization and culture is considered in detail in the works of R. Robertson *"Globalization: Social Theories and Global Culture"* (1992), which describes the mechanisms of global cultural

exchange, E. Giddens *"The Consequences of Modernity"* (1990), which analyzes the relationship between globalization and social change, S. Huntington *"The Clash of Civilizations"* (1996), which emphasizes the role of cultural values in global processes.

Modern research indicates a change in spiritual values under the influence of globalization, which is reflected in the works of M. Castells *"The Information Age: Economy, Society and Culture"* (1996-2003), which analyzes the impact of digital technologies on spiritual guidelines, the works of Z. Bauman *"Globalization: Consequences for Man and Society"* (1998), where the scientist emphasizes the influence of mobility and uncertainty on spiritual guidelines, C. Taylor's *"Ethics of Authenticity"* (1991), where the change in spirituality in the context of modernization is considered.

Eastern and Western traditions in the context of globalization are represented in the works of P. Sorokin *"Social and Cultural Dynamics"* (1937-1941), which explains the cyclical nature of cultural transformations, E. Weil *"Global Mind"* (2010), which analyzes the synthesis of traditional and modern values, works on the philosophy of religion by Mircea Eliade, Jürgen Habermas, which reveal the interaction of spiritual traditions in the global world.

Research methodology.

The study of this problem is based on an interdisciplinary approach, including philosophical analysis, the comparative method and elements of critical theory.

Analysis and results of the study.

Globalization promotes the active exchange of ideas, traditions and values between different cultures. On the one hand, it enriches society, allowing people to get acquainted with a variety of worldviews and spiritual practices. On the other hand, such an exchange can lead to the erosion of traditional values, especially in countries with established cultural and religious structures.

For example, Western values of individualism, consumerism, and secularism are actively penetrating societies where collectivism, asceticism, and religiosity traditionally prevail. This creates tension between old and new value systems, which can lead to identity crises and cultural conflicts.

One of the key consequences of globalization is the unification of culture. Global media, popular culture and transnational corporations contribute to the spread of uniform standards and patterns of behavior. This leads to the fact that local spiritual values that have been formed for centuries begin to lose their significance.

For example, traditional holidays, rites and rituals are being replaced by global counterparts such as Halloween or Valentine's Day. This not only changes the cultural landscape, but also affects the spiritual self-perception of people who begin to feel part of the global world, but at the same time lose touch with their roots.

Globalization has a significant impact on religious values. On the one hand, it contributes to the spread of religions beyond their traditional areas. For example, Buddhism, Hinduism, and Islam are actively spreading in Western countries, and Christianity is spreading in Asia and Africa. This creates new forms of spiritual syncretism, where elements of different religions blend to form new spiritual practices.

On the other hand, globalization contributes to the secularization of society. In the context of rationalization and technological progress, religious values often fade into the background, giving way to a scientific worldview and pragmatism. This is especially noticeable in developed countries, where the level of religiosity is steadily declining.

In the context of globalization, many people are facing an identity crisis. Traditional values that used to serve as the basis for self-determination are losing their relevance, and new values offered by the global world are often perceived as alien. This leads to the search for new spiritual guidelines that could unite tradition and modernity.

For example, in recent years, there has been a growing interest in Eastern spiritual practices such as yoga, meditation, and Zen Buddhism. These practices offer an alternative to Western materialism and help people find inner harmony in the face of global instability.

Globalization poses new ethical questions to society. For example, how to reconcile respect for cultural diversity with the need to develop universal norms and rules? How can spiritual values be preserved in the context of the dominance of a market economy and consumer culture?

O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, askiya va qiziqchilik san'ati milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, xalq tafakkurining ijtimoiy-falsafiy ifodasi hisoblanadi. Ushbu san'at turlari nafaqat kulgi vositasi, balki jamiyatdagi muammolarni yorituvchi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi va yosh avlodni tarbiyalovchi kuchli omildir. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash vazifasi oldimizda turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu maqolada askiya va qiziqchilik san'atining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati falsafiy tahlil asosida o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ezgulik ruhida tarbiyalash – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir" (Mirziyoyev, 2021, 88-b). Ushbu tamoyilga ko'ra, yosh avlod tarbiyasida madaniy merosning ahamiyati ortib bormoqda. Askiya va qiziqchilik san'ati esa xalqning ijtimoiy tafakkurini shakllantirish, milliy qadriyatlarni

targ‘ib qilish hamda yoshlarning ma’naviy yetukligiga hissa qo‘shadigan omillardan biridir.

Ushbu maqolaning maqsadi askiya va qiziqchilik san’atining barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rnini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish, uning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini aniqlash va bu san’atning zamonaviy jamiyatdagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni, shu jumladan milliy askiya va qiziqchilik san’atini asrab-avaylash, keng targ‘ib etish va kelgusi avlod uchun nomoddiy madaniy meros sifatida yetkazish maqsadida «Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda davlatimiz rahbarining asar va nutqlarida belgilangan vazifalar tadqiqot uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Askiya va qiziqchilik san’ati masalasini tadqiq etuvchi bir qator ilmiy ishlar mavjud. Askiya va qiziqchilik san’ati – xalq og‘zaki ijodining qadimiy turlaridan bo‘lib, u jamiyatda hazil-mutoyiba orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbek madaniy merosida askiya keng tarqalgan bo‘lib, u odamlar orasida mehr-oqibat, o‘ziga xos muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tursunov M. ning "O‘zbek xalq og‘zaki ijodi" (2004) – kitobda askiyaning tarixi, shakllanish bosqichlari va jamiyatga ta’siri, Yusupova S.ning "O‘zbek folklorining badiiy xususiyatlari" (2018) – unda xalq hajviy asarlari va askiyaning san’at sifatida o‘rni, Rahmonov A.ning "Qiziqchilik san’ati va uning ijtimoiy funktsiyasi" (2015) – qiziqchilik san’atining jamiyatdagi o‘rni va uning tarbiyaviy ahamiyati o’rganilgan.

Askiya va qiziqchilik san’ati barkamol avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarni mantiqiy fikrlash, hazilni to‘g‘ri qabul qilish va jamiyatdagi salbiy jihatlarni tanqid qilishga o‘rgatadi. Shuningdek,Qodirov A. "Milliy an’analar va tarbiya" (2020) – xalq an’analarining yoshlarga tarbiyaviy ta’siri haqida, Ismoilov H. "Psixologiya va askiya" (2017) – hazilning inson ruhiyati va tarbiyasiga ta’siri tahlil qilingan. Axmedov U. "O‘zbek qiziqchiligining pedagogik ahamiyati" (2019) – hajv san’atining ta’lim jarayonidagi o‘rni haqida tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqod metodologiyasi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi millatning ma’naviy boyligi, xalqning turmush tarzi askiya va qiziqchilik san’atining jamiyatdagi roli, uning tarbiyaviy ahamiyati va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi ijtimoiy-falsafiy tahlil yondashuv asosida tadqiqi maqsadga muvofiqdir Askiya va qiziqchilik san’atining shakllanish tarixi va uning turli davrlardagi evolyutsiyasi tarixiy yondashuv asosida o‘rganildi. Shu bilan birga muammo ijtimoiy falsafa tamoyillarida umumiylik, alohidalik va xususiylik tamoyillarida taxlil etildi.

Natijalar va tahlil.

Askiya va qiziqchilik san’ati inson tafakkurining yuksalishi va jamiyatdagi muammolarni badiiy tahlil qilish vositasi sifatida uzoq tarixga ega. Askiya – bu xalq donishmandligi, hayotiy kuzatishlar natijasida shakllangan ijtimoiy satira janri bo‘lib, insonlarni fikrlashga, o‘zining xatti-harakatlarini tahlil qilishga undaydi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, askiya va qiziqchilik san’ati ijtimoiy ongning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. G‘arb falsafasida, xususan, Aristotel va Platon asarlarida kulgi jamiyatning axloqiy tarbiyasiga xizmat qilishi ta’kidlangan. O‘zbek madaniyatida esa bu tamoyil qadimdan mavjud bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi vositasida ma’naviy yetuklik targ‘ib qilingan.

Askiya va qiziqchilik san’ati inson tafakkurining shakllanishi va ijtimoiy ongning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy askiya haqida shunday yozgan:

"Hazil va kulgi odamlarni ogohlantiradi, ularni jamiyatdagi haqiqatga yaqinlashtiradi va tafakkurni o‘stiradi" (Behbudiy, 1914, 42-b).

Falsafiy nuqtai nazardan, askiya va qiziqchilik san’ati tanqid va hazil uyg‘unlashgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyatdagi muammolarni ochiq-oydin yoritish imkonini beradi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning milliy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiyasini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Barkamol avlodni tarbiyalashda askiya va qiziqchilik san’ati quyidagi jihatlari bilan muhim rol o‘ynaydi:

- Tanqidiy tafakkurni shakllantirish – Askiya yoshlarni jamiyatdagi hodisalarni chuqurroq tahlil qilishga o‘rgatadi (Xudoyberdiyev, 2019, 78-b).
- Nutq madaniyatini rivojlantirish – Askiya improvizatsiya asosiga qurilgan bo‘lib, u yoshlarning notiqlik mahoratini oshirishga xizmat qiladi (Jo‘raqulov, 2020, 115-b).
- Ijtimoiy muammolarni aks ettirish – Hazil orqali jamiyatdagi dolzarb masalalar tanqidiy baholanadi va muhokama qilinadi.

Askiya va qiziqchilik san’ati O‘zbekistonda boy tarixga ega bo‘lib, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy kabi jadidlar tomonidan ham e’tirof etilgan. Sovet davrida bu san’at turli siyosiy omillar ta’sirida o‘zgarishga uchragan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlar asosida yangicha shakllana boshladi.

Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan askiya va qiziqchilik san’ati yangi formatlarda ommalashmoqda. TikTok, YouTube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda qiziqchilik san’ati ham rivojlanib bormoqda. Biroq, bu jarayonda an’anaviy qadriyatlar yo‘qolib ketmasligi lozim. Biroq, ayrim tadqiqotchilarning

fikricha, bu san’atning an’anaviy mohiyati yo‘qolish xavfi ostida.

Karimov (2023, 92-b) shunday yozadi: "Zamonaviy qiziqchilik san’ati raqamli muhitga moslashmoqda, ammo bu jarayonda uning ijtimoiy-falsafiy mazmuni kamroq aks etmoqda."

Askiya va qiziqchilik san’atini falsafiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, uning jamiyatdagi muammolarni aks ettirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlarni ma’naviy yetuklikka yo‘naltirishdagi o‘rnini ko‘rish mumkin. Masalan, xalq orasida mashhur bo‘lgan kulgi ustalari doimo ijtimoiy haqiqatni oshkor qilib, insonlarning fikrlash tarziga ta’sir o‘tkazgan.

Jamiyat taraqqiyoti uchun tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ong muhim hisoblanadi. Shu bois, askiya va qiziqchilik san’atini rivojlantirish va uni yoshlar tarbiyasiga kengroq tatbiq etish zarurati mavjud.

Xulosa.

Askiya va qiziqchilik san’ati O‘zbekiston madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Bu san’at insonni tanqidiy fikrlashga, jamiyatdagi muammolarni anglashga va ma’naviy yetuklikka yetaklaydi. Hozirgi davrda ushbu an’anaviy san’atni asrab-avaylash va uni zamonaviy yoshlar orasida targ‘ib qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, davlat siyosati doirasida askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish va barkamol avlod tarbiyasida keng qo‘llash muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, askiya va qiziqchilik san’ati yoshlarning ma’naviy tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bu san’at shakli tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, jamiyatdagi muammolarni yoritish va milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy jamiyatda ushbu san’atning ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini saqlab qolish va uni yoshlar orasida kengroq targ‘ib qilish muhim vazifadir. Shu boisdan, askiya va qiziqchilik san’atini rivojlantirish va uni barkamol avlod tarbiyasiga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aristotel. Poetika. Toshkent: Fan, 1998.
2. Behbudiy M. Madaniyat va taraqqiyot. Samarqand, 1914.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
4. Xudoyberdiyev S. Zamonaviy qiziqchilik san’ati va uning ijtimoiy o‘rni. Toshkent, 2019.
5. Jo‘raqulov A. Askiya va nutq madaniyati. Buxoro, 2020.
6. Abdullayev R. O‘zbek xalq kulgi madaniyati. Toshkent, 2022.
7. Karimov D. Askiyaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari. Toshkent, 2023.
8. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Bo‘rivoy Evatov Sobirovich
Farg‘ona davlat universiteti Umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

KIBERTAXDIDLAR DAVRIDA IJTIMOIY IMMUNITET: NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY CHORALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqola “Kibertaxdidlar davrida ijtimoiy immunitet: nazariy yondashuvlar va amaliy choralar” mavzusiga bag‘ishlanib, zamonaviy dunyoda kiberxavf-xatarlarning jamiyatga ta’siri va ularga qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirish masalalari o‘rganilgan. Bundan tashqari, ommaviy xabardorlikni oshirish, hukumat va biznes hamkorligi, shuningdek, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi texnologik yechimlar orqali amaliy strategiyalar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kiberxavfsizlik, ijtimoiy immunitet, kiberxujumlar, phishing, DDoS, ma’lumotlar o‘g‘irlash, adaptatsiya modeli, ommaviy ta’lim, hukumat hamkorligi, sun’iy intellekt, kelajak tahdidlari.*

Буривай Эватова Собировича
Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры методики преподавания общепрофессиональных дисциплин

СОЦИАЛЬНЫЙ ИММУНИТЕТ В ЭПОХУ КИБЕРУГРОЗ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕРЫ

Аннотация. *Данная статья посвящена теме "Социальный иммунитет в эпоху киберугроз: теоретические подходы и практические меры," в которой рассматривается влияние киберугроз на общество в современном мире и вопросы формирования социального иммунитета против них. Кроме того, были предложены практические стратегии посредством повышения общественной осведомленности, сотрудничества правительства и бизнеса, а также технологических решений, таких как искусственный интеллект и блокчейн.*

Ключевые слова: *Кибербезопасность, социальный иммунитет, кибератаки, фишинг, DDoS, кража данных, модель адаптации, массовое образование, сотрудничество правительства, искусственный интеллект, угрозы будущего.*

Burivoy Evatov Sobirovich
Fergana State University Teacher of the Department of General Professional Subjects Teaching Methodology

SOCIAL IMMUNITY IN THE ERA OF CYBER THREATS: THEORETICAL APPROACHES AND PRACTICAL MEASURES

Abstract. *This article is devoted to the topic "Social Immunity in the Era of Cyber Threats: Theoretical Approaches and Practical Measures," and examines the impact of cyber threats on society in the modern world and the formation of social immunity against them. In addition, practical strategies have been proposed through increased public awareness, government-business cooperation, as well as technological solutions such as artificial intelligence and blockchain.*

Keywords: *Cybersecurity, social immunity, cyberattacks, phishing, DDoS, data theft, adaptation model, public education, government cooperation, artificial intelligence, future threats.*

Kirish.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Internet bank xizmatlaridan tortib, davlat boshqaruv tizimlarigacha bo‘lgan sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Biroq, bu rivojlanish bilan birga kiberxavf-xatarlar ham keskin ortdi. Kiberxujumlar – shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, infratuzilmalarni ishdan chiqarish yoki ijtimoiy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar – bugungi kunda nafaqat alohida shaxslar, balki butun jamiyatlar uchun jiddiy tahdidga aylandi. 2025-yilga kelib, kiberjinoyatlar global iqtisodiyotga trillionlab dollar zarar keltirmoqda, bu esa kiberxavfsizlikni dolzarb muammoga aylantirmoqda.

Bunday sharoitda faqat texnologik yechimlar yetarli emas. Jamiyatning o‘zi kiberxavflarga qarshi “immunitet” hosil qilishi zarur. Ijtimoiy immunitet tushunchasi biologiyada organizmning kasalliklarga qarshi kurashish

qobiliyati sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa, hozirda u ijtimoiy tizimlarning tashqi tahdidlarga moslashishi va ulardan himoyalanishi ma’nosida qo‘llaniladi. Kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan ijtimoiy immunitet jamiyat a’zolarining xabardorligi, birgalikda harakat qilish qobiliyati va kiberxujumlardan keyin tiklanish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda davlat, xususiy sektor va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola kiberxavf-xatarlarning zamonaviy dunyodagi o‘rnini tahlil qilish, ijtimoiy immunitetning nazariy asoslarini ko‘rib chiqish va kiberxujumlarga qarshi amaliy choralar taklif etishga qaratilgan. Maqola besh qismdan iborat: birinchisi kiberxavf-xatarlarning tabiati va ijtimoiy tizimlarga ta’sirini, ikkinchisi ijtimoiy immunitetning ilmiy asoslarini, uchinchisi esa amaliy strategiyalarni o‘rganadi. Oxirgi qismda kelajakdagi kiberxavf-xatarlar va ularga tayyorgarlik masalalari muhokama qilinadi. Maqsad – kiberxavfsizlikni ta’minlashda ijtimoiy immunitetning rolini aniqlash va uni mustahkamlash yo‘llarini taklif qilishdir.

Adabiyotlar tahlili.

“Axborot asri” deb nom olgan XXI asrda alohida olingan davlatlar va butun dunyoning kelajagini strategik resursga aylangan axborotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Albatta, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida jamiyat muayyan shakl va hajmda axborot, bilim almashinuvi asosida rivojlanib kelgan. Ammo hozirgi bosqichda axborot texnologiyalarining mislsiz taraqqiyoti dunyoda yaxlit axborotlashgan jamiyatni shakllantirdi. Bu o‘rinda tadqiqotchilar fikricha, “...jamiyat taraqqiyoti, *birinchidan,* insonning axborotni o‘zlashtirish potensial imkoniyatlari rivojlanish xarakteriga, *ikkinchidan,* axborot madaniyati rivojlanishida “inson – jamiyat – texnika – texnologiya” tizimi elementlarining o‘zaro funksional munosabatlariga, *uchinchidan,* axborotning adekvat manbalarini aniqlash, tanlash tizimini rivojlantirishga, *to‘rtinchidan,* jamiyatning axborot madaniyatidan foydalanish intellektual salohiyati potensialiga, *beshinchidan,* axborotlarning umuminsoniyat manfaatlariga va sivilizatsiyasi maqsadlariga muvofiqligi” [1.12.] sababli transformatsiyalashuv jarayonlarini namoyon etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Biz mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta’minlash masalasini inson qadrini ulug‘lash, demokratik jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilgan taraqqiyot strategiyamizning muhim va ajralmas qismi deb bilamiz”[2.], deb ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining ta’kidlanadiki, “Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldini olish”[3.53.]jamiyatda axborot makonini xolis bo‘lishiga erishish muhimligini anglatadi.

Kiberxujumlarning xilma-xilligi va murakkabligi har yili ortib bormoqda. Eng keng tarqalgan turlarga “phishing” (foydalanuvchilarni aldab, shaxsiy ma’lumotlarni olish), “DDoS” (tarmoqlarni haddan tashqari yuklash orqali ishdan chiqarish), ma’lumotlar o‘g‘irlash va zararli dasturlar (malware) kiradi. Masalan, phishing xujumlari oddiy elektron xatlar orqali boshlanib, millionlab dollar zarar keltirishi mumkin. DDoS xujumlari esa korxonalar yoki davlat tizimlarini falaj qiladi.

Kiberxavfning ijtimoiy tizimlarga ta’siri bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. “Psixologik jihatdan”, kiberxujumlar odamlarda ishonchsizlik va qo‘rquvni keltirib chiqaradi. Masalan, shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi foydalanuvchilarni raqamli xizmatlardan voz kechishga majbur qiladi. “Iqtisodiy nuqtai nazardan”, kiberjinoyatlar korxonalarga katta zarar yetkazadi. 2021-yilda AQShning Colonial Pipeline kompaniyasiga qilingan xujum natijasida yoqilg‘i ta’minoti uzilib, iqtisodiy inqiroz yuzaga kelgan edi. “Siyosiy jihatdan”, kiberxujumlar davlatlar o‘rtasida nizolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki ba’zi hujumlar boshqa mamlakatlar tomonidan moliyalashtiriladi[4.52.].

Real misollar bu muammoning jiddiyligini ko‘rsatadi. 2020-yilda “SolarWinds” xujumi AQSh hukumat tizimlari va yuzlab kompaniyalarga zarar yetkazdi. Bu xujum Rossiya bilan bog‘liq deb taxmin qilindi va xalqaro munosabatlarda keskinlikni oshirdi. Xuddi shunday, 2021-yildagi Colonial Pipeline hodisasi nafaqat iqtisodiy zarar, balki jamiyatdagi ishonchsizlikni ham kuchaytirdi. Bu misollar kiberxavf-xatarlarning nafaqat texnik, balki ijtimoiy muammo ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ijtimoiy immunitet tushunchasi dastlab biologiyada paydo bo‘lgan – organizmning viruslarga qarshi himoya mexanizmi sifatida. Keyinchalik bu atama ijtimoiy fanlarga ko‘chirilib, jamiyatning tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyati sifatida talqin qilina boshlandi. Kiberxavfsizlik kontekstida ijtimoiy immunitet jamiyatning kiberxujumlarga moslashishi, ulardan himoyalanishi va zarar ko‘rganidan keyin tiklanishini anglatadi.

Bu tushunchaning asosiy komponentlari quyidagilar:

1. “Xabardorlik”: Jamiyat a’zolarining kiberxavf-xatarlar haqida bilimlarga ega bo‘lishi. Masalan, phishing xatlarini tanib olish yoki xavfsiz parollardan foydalanish.

2. “Moslashuvchanlik”: Kiberxujumdan keyin tizimlarning yangi sharoitlarga tez moslashishi. Bu ham texnologik, ham ijtimoiy moslashuvni o‘z ichiga oladi.

3. “Birgalikda harakat qilish”: Davlat, biznes va fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik orqali umumiy himoya strategiyasini ishlab chiqish.

Ilmiy nazariyalar bu jarayonni tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “tizimlar nazariyasi” jamiyatni bir-biri bilan bog‘langan elementlar tizimi sifatida ko‘radi. Kiberxujum bir elementga (masalan, bank tizimiga) ta’sir qilsa, bu butun tizimga tarqaladi. Shu sababli, har bir elementning mustahkamligi umumiy immunitetni ta’minlaydi. “Adaptatsiya modeli” esa jamiyatning o‘zgaruvchan tahdidlarga moslashish qobiliyatini ta’kidlaydi. Bu modelga ko‘ra, kiberxavf-xatarlar doimiy ravishda evolyutsiyalashganligi sababli, ijtimoiy immunitet ham dinamik bo‘lishi kerak.

Tahlil va natijalar.

Kiberxavf-xatarlarga qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirish uchun amaliy choralar zarur. Birinchidan, “ommaviy xabardorlikni oshirish” muhim. Ta’lim dasturlari orqali fuqarolarga kiberxavfsizlik asoslari o‘rgatilishi kerak. Masalan, maktablarda “xavfsiz internet” kurslari joriy etilishi yoki ommaviy axborot vositalarida kiberxujumlar haqida kampaniyalar o‘tkazilishi mumkin.

Ikkinchidan, “hukumat, biznes va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik”ni rivojlantirish lozim. Hukumat qonunchilik bazasini mustahkamlasa, biznes kiberxavfsizlikka investitsiya kiritishi va jamoatchilik xabardorlikni oshirishi mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR qoidalari ma’lumotlarni himoyalashda muhim qadam bo‘ldi.

Uchinchidan, “texnologik yechimlar” kiberxavfsizlikni ta’minlashda asosiy vositadir. Sun’iy intellekt (AI) kiberxujumlarni oldindan aniqlash va ularga javob berishda samarali. Blokcheyn texnologiyasi esa ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlaydi, chunki u markazlashmagan tizim sifatida ishlaydi.

Xulosa.

Ijtimoiy immunitetni mustahkamlash kiberxavfsizlikning kelajagi uchun juda muhimdir. Kelajakda kiberxavf-xatarlar yanada murakkablashishi kutilmoqda, chunki sun’iy intellekt va kvant hisoblash texnologiyalari jinoyatchilar qo‘liga tushishi mumkin. Shu sababli, jamiyat hozirdan tayyorgarlik ko‘rishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Кодиров Н. М. Ўзбекистон ёшларида ахборот маданиятини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд. 2021.

2. www.president.uz//2023/06/27/shavkat-mirziyoyev-matbuot-va-ommaviy-axborot-vositalari-xodimlari-kuni-munosabati-bilan-soha-vakillariga-tabrik-yolladi

3. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази. – Тошкент. 2022.

4. Anderson, R., & Moore, T. (2023). *The economics of information security: A survey and open questions. Journal of Cybersecurity, 9(1), 45-62.

5. Brenner, J. (2021). America the vulnerable: Inside the new threat matrix of digital espionage, crime, and warfare. Penguin Press.

6. Kshetri, N. (2022). Cybersecurity and global policy: Challenges and solutions. Routledge.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Fotimaxon Mamatqulova Maxammadjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kaferdasi doktoranti
fotimamatqulova95@gmail.com
Orcid: f.mamatqulova@pf.fdu.uz

MAHALLA BOSHQARUVIDA KAM TA'MINLANGAN OILALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISH VA IJTIMOIY ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mahalla boshqaruvi tizimida kam ta’minlangan oilalar bilan ishlashni samarali tashkil etishning usullarini o‘rganish va ijtimoiy ish samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Ijtimoiy ishning asosiy vazifalaridan biri – ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan guruhlarni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan kam ta’minlangan oilalar va nogironlar, yakkaxon ayollar, keksalar va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan ishlashdir. Tadqiqotda mahalladagi mavjud ijtimoiy xizmatlar, kam ta’minlangan oilalarga yordam ko‘rsatishning samarali usullari, ijtimoiy ishning natijadorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan yondashuvlar va resurslar tahlil qilinadi. Mahalla rahbarlari, ijtimoiy ishchilar va boshqa mutaxassislarning faoliyatini muvofiqlashtirish orqali ijtimoiy ish samaradorligini oshirish, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari, mahallalarda ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish va kam ta’minlangan oilalar uchun yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *mahalla boshqaruvi, kam ta’minlangan oilalar, ijtimoiy ish, samaradorlik, ijtimoiy himoya,ijtimoiy xizmatlar, yordam ko‘rsatish, resurslar, tadqiqot, ijtimoiy guruhlar.*

Фатимахон Маматкулова Махаммаджон кызы
Ферганский государственный университет Докторант кафедры социальной работы

ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ С МАЛООБЕСПЕЧЕННЫМИ СЕМЬЯМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ МАХАЛЛЕЙ И ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация: *Основная цель данного исследования заключается в изучении методов организации работы с малообеспеченными семьями в системе управления махаллей и определении путей повышения эффективности социальной работы. Одной из ключевых задач социальной работы является поддержка социально уязвимых групп, включая малообеспеченные семьи, инвалидов, одиноких женщин, пожилых людей и другие социальные группы. В исследовании анализируются существующие социальные услуги в махалле, эффективные методы помощи малообеспеченным семьям, а также подходы и ресурсы, необходимые для повышения результативности социальной работы. Координация деятельности местных руководителей, социальных работников и других специалистов играет важную роль в повышении эффективности социальной работы и поддержке малообеспеченных семей. Результаты исследования послужат основой для разработки рекомендаций по совершенствованию системы социального обеспечения в махаллях и улучшению условий жизни малообеспеченных семей.*

Ключевые слова: *управление махаллей, малообеспеченные семьи, социальная работа, эффективность, социальная защита, социальные услуги, оказание помощи, ресурсы, исследование, социальные группы.*

Fatimahan Mamatqulova Mahammadjan kizi
Fergana State University Doctoral student of social work cafe

ORGANIZATION OF WORK WITH LOW-INCOME FAMILIES IN COMMUNITY MANAGEMENT AND IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF SOCIAL WORK

Annotation: *The main objective of this research is to explore methods for effectively organizing work with low-income families in community management and to identify ways to improve the effectiveness of social work. One of the primary tasks of social work is to support vulnerable groups in need of social protection, including low-income families, people with disabilities, single women, elderly individuals, and other social groups. The study analyzes existing social services in communities, effective methods for assisting low-income families, as well as approaches and resources needed to enhance the effectiveness of social work. Coordinating the activities of*

community leaders, social workers, and other specialists is crucial for improving social work efficiency and supporting low-income families. The findings of the research will serve as a basis for developing recommendations aimed at improving the social assistance system in communities and enhancing the living conditions of low-income families.

Keywords: *community management, low-income families, social work, effectiveness, social protection, social services, assistance, resources, research, social groups.*

Kirish.

Mahalla boshqaruvida kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni tashkil etish va ijtimoiy ish faoliyatini nazorat qilish orqali ijtimoiy himoyaning samarali va samarali boʻlishini ta'minlashda muhim oʻrin tutadi. Mahalla — bu oʻziga xos jamiyat tizimi boʻlib, oʻzining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqaruvini boshqarish. Shu bilan birga, mahalla tizimi kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, keksalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtojlar uchun ijtimoiy yordam koʻrsatishda alohida oʻrin tutadi.

Mahalla boshqaruvida kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni samarali tashkil etishning asosiy maqsad manba turmush sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy himoya tizimlarini yaxshilash, yordammandlarga oila zarurni koʻrsatish va ijtimoiy adolatni ta'minlashdir. Bunday oilalar koʻpincha iqtisodiy, ma'naviy va tibbiy yordamga duch keladi, shuning uchun mahalla paydo boʻladi, ijtimoiy ishchilar va boshqa bemorlarga oʻz vaqtida yordam koʻrsatishlari zarur.

Adabiyotlar tahlil.

Mahalla boshqaruvi va ijtimoiy ish olib borishni tahlil qilish boʻyicha adabiyotlarni, bu sohada ishlab chiqarishni olib borilgan, metodologiyalar va amaliy ishlarni beradi. Kam oila ta'minlanganlar oila bilan ishlashni tashkil etish, bularga yordam koʻrsatish yaxshilash va ijtimoiy ish ishlab chiqarish masalalari jiddiy ijtimoiy va ilmiy jarohat ega. Tahlil shaxsiy yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi.

Mahalla boshqaruvi Oʻzbekistonda ijtimoiy yordam va yordam tashkil etishning eng asoslardan biridir. Mahallalar davlat hududiy birlashmalar boʻlib, balki aholining ijtimoiy himoya tizimi uchun ham muhim platforma hisoblanadi. Adabiyotlarda mahalla boshqaruvida aholini boshqarish, kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni tizimli ravishda tashkil etishning ahamiyati koʻrsatilgan. Ijtimoiy ish nazariyasiga oid asarlarda, ayniqsa, oilaning ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy yordamlar va mahalla boshqaruvi tizimlarining oʻzaro aloqasi tahlili.

Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni samarali tashkil etish, oʻz ta'minlash, ijtimoiy ishning yozib olishni tekshirishi kerak. Bu adabiyotlarda bir nechta narsalar oʻrganilgan:

Individ yoki ta'minlangan oilada shaxsiy yordam: Kam ta'minlangan odamlarning tahlil qilish va ularga zarur boʻlgan koʻrinishni hisobga olishi bu individualdir. Bu korxonaga koʻra, har bir oilaning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari tahlil qilinib, shaxsiy yordam dasturlari ishlab chiqiladi.

Jamoaviy korxonalar: Kam ta'minlangan oilalarga yordam berishda mahalladagi jamiyat resurslaridan yuk tashish oʻrin tutadi. Jamoaviy boshqaruvda mahalla boshqaruvchilari, ijtimoiy ishchilar va koʻngillilar bilan hamkorlikda ijtimoiy yordam koʻrsatadi.

Ijtimoiy ish qoʻllab-quvvatlash uchun bir qator faktorlar va metodologiyalar oʻrganilgan:

Malakali kadrlar tayyorlash: Mahalla tizimida ishlovchi ijtimoiy ishchilar va mutaxassislarning malakasini yozish ijtimoiy ishning ishlab chiqarishni tayyorlash. Oʻzbekistondagi ba'zi adabiyotlarda ijtimoiy ishchilarning professionalligi va huquqshunosligi, huquqiy va ma'naviy bilimlarini zarurligi ta'kidlangan.

Monitoring va boshqarish: Ijtimo ish faoliyatini oshirishda monitoring tizimlarining ahamiyati katta. Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni tahlil qilish, amalga oshirilgan dasturlarni amalga oshirish va oshirishni yaxshilash bu jarayonni samarali qilishda yordam beradi.

Resurslarni boshqarish: Ijtimoiy yordam resurslarining samarali taqsimlanishi ijtimoiy ish faoliyatini oshirish. Adabiyotlarda yordam tarmoqlarini optimallashtirish, resurslarni birlashmalarga mos keladigan taqsimlash zarurligi koʻr.

Mahalla boshqaruvini boshqarishni nazorat qilish boʻyicha amalga oshirilgan amaliy tajriba va tajribalar adabiyotlarda alohida e'tibor qilish. Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashda ba'zi joylarda, Oʻzbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy ish dasturlari, xalqaro tajribalar va imkoniyatlar modellar haqida ma'lumotlar mavjud. Ushbu tajribalar yordamida mahallalarda ta'minot va ta'minot sohalarini rivojlantirishda qanday korxonalar va metodlar eng samarali boʻlishi mumkinligi haqida yordam beradi.

Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni ta'minlangan adabiyotning metodologik yordamlari bilan ishlash. Bunga ijtimoiy ishchilarning faoliyati, mahalladagi harakatlarini joriy qilish, dasturlarni amalga oshirishning xavfsizlik va ta'siri mumkin. Monitoring dasturiy ta'minot va yuk tashishni, mavjud resurslardanni tahlil qilish ijtimoiy ish olib borishni yordam beradi.

Mahalla boshqaruvida kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni tashkil etish va ijtimoiy ish ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish boʻyicha olib boriladigan adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun samarali metodologiya, resurslarni boshqarish, monitoring va ishlab chiqarish

tizimlarining oʻrni juda katta. Kam ta'minlangan oilalarga yordam berish va ijtimoiy ishni samarali tashkil etish jarayonida barcha ijtimoiy va iqtisodiy resurslar toʻliq va foydalanish uchun foydalanish kerak. Adabiyotlar tahlili bu yoʻnalishda yangi ilmiy ishlar va amaliy metodlarni ishlab chiqarish uchun mustahkam asos boʻlib xizmat qiladi.

Mahalla boshqaruvida kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni tashkil etish va ijtimoiy ish samaradorligini oshirish mavzusi ijtimoiy adolatni ta'minlash va odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Bu mavzu boʻyicha ta'limot va yondashuvlar turlicha boʻlishi mumkin, ammo umumiy yondashuv quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi:

Mahalla – bu jamiyatning eng asosiy tuzilmasi boʻlib, aholining ijtimoiy va ma'naviy ahvolini yaxshilashda muhim rol oʻynaydi. Mahalla boshqaruvi, shuningdek, kam ta'minlangan oilalar va ularning ehtiyojlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy yordam va qoʻllab-quvvatlash: Mahallalar, ijtimoiy yordam koʻrsatish, axborot almashish, yordamga muhtoj oilalarni aniqlash va ular bilan bevosita aloqada boʻlishda oʻzaro faoliyat olib borishlari zarur.

Kambagʻal oilalarni aniqlash: Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga zarur yordamni koʻrsatish boʻyicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

Aholining psixologik va ijtimoiy holatini oʻrganish: Ijtimoiy ishchilar tomonidan bu oilalarga yordam koʻrsatishda psixologik va ijtimoiy tahlil ishlari olib borilishi zarur.

Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashning samarali boʻlishi uchun bir nechta usullarni ishlab chiqish lozim. Bu usullar quyidagi asosiy elementlarni oʻz ichiga olishi kerak:

Kam ta'minlangan oilalar uchun aniq yordam dasturlari yaratish:Xususiy yordam yoki davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan yordam dasturlarini ishlab chiqish (yordam, oziq-ovqat, tibbiy yordam, uy-joy masalalari va boshqalar).Ijtimoiy yordam soʻrovlarini tez va samarali koʻrib chiqish jarayonlarini oʻrnatish.

Ijtimoiy ishchilarning malakasini oshirish:Ijtimoiy ishchilar va mahalla rahbarlarining maxsus treninglar orqali kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashdagi samaradorligini oshirish.Ijtimoiy yordam koʻrsatishning yangi yondashuvlarini va usullarini oʻrganish, ilgʻor tajribalardan foydalanish.

Ijtimoiy ishning samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar qoʻllanilishi kerak:

Kengaytirilgan hamkorlik va kooperatsiya:Mahallalarda ijtimoiy xizmat koʻrsatish jarayonlarini yanada samarali qilish uchun boshqa tashkilotlar, davlat idoralari, nodavlat tashkilotlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Monitoринг va baholash tizimi:Mahallada olib borilayotgan ishlarga muntazam ravishda monitoring oʻtkazish, natijalarni tahlil qilish va kerakli oʻzgartirishlarni kiritish.

Kambagʻal oilalarning muammolariga kompleks yondashuv:Kam ta'minlangan oilalar uchun faqat moddiy yordam emas, balki psixologik, ta'lim va huquqiy yordam ham koʻrsatish zarur.Mahalla tizimida oilalarning umumiy ijtimoiy muhitini yaxshilash va ularning barqaror taraqqiyoti uchun koʻplab yoʻnalishlarda yordam koʻrsatish.

Psixologik yordam: Kam ta'minlangan oilalarning koʻpincha ruhiy va psixologik muammolarini hal qilish uchun psixologlar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish.

Ma'lumot va axborot almashish: Mahalla aholisi uchun zarur boʻlgan barcha ijtimoiy xizmatlar va huquqiy yordamlar haqida toʻliq axborot taqdim etish.

Jamoatchilikni jalb qilish: Mahallaning barcha a'zolarini, shu jumladan, ijtimoiy jihatdan kuchli oilalarni ham yordam koʻrsatish va kam ta'minlangan oilalar bilan ishlash jarayonlariga jalb qilish.

Xulosa.

Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashni tashkil etish va ijtimoiy ish samaradorligini oshirish, mahalla boshqaruvidagi eng muhim vazifalardan biridir. Mahalla tizimi jamiyatning asosiy qadriyatlarini, ya'ni tenglik, adolat va yordamni ta'minlashda katta rol oʻynaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy ishchilarning malakasini oshirish, hamkorlikni kuchaytirish va samarali tizimlarni yaratish orqali kam ta'minlangan oilalarga yanada sifatli yordam koʻrsatish mumkin.

Adabiyotlar roʻyxati.

1. "Ijtimoiy ish asoslari" – Sh. R. M. Bekerov
2. "Ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar" – B. A. Xusainov
3. "Mahalla tizimi: tarixi va bugungi kundagi roli" – M. A. Rahmatullayev
4. "Ijtimoiy ish metodlari" – A. B. Toshpoʻlatov
5. "Ijtimoiy adolat va ta'minot tizimi" – N. S. Akilov
6. "Oʻzbekistonda ijtimoiy ishning rivojlanishi" – M. O. Norkulov
7. "Psixologiya va ijtimoiy ish" – S. G. Valiev
8. "Mahalla boshqaruvi va ijtimoiy ishlash" – D. I. Sattorov
9. "Ijtimoiy himoya tizimlari: nazariy va amaliy yondashuvlar" – M. J. Khudoyberganov
10. "Kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashda samarali strategiyalar" – O. M. Tursunov

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Normatova Muharam Foziljanovna
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

HUQUQ FALSAFASIDA HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINING TALQINI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada huquq falsafasi doirasida huquqiy ong tushunchasining mohiyati, uning turli talqinlari va ahamiyati tahlil qilinadi. Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquqiy bilim, qadriyat va e'tiqodlari majmui sifatida ko'rib chiqilib, uning shakllanish omillari va rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Maqolada klassik va zamonaviy huquqiy ong nazariyalari tahlil qilinib, turli yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, huquqiy ongning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va uning qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti hamda huquqiy madaniyat darajasi bilan bog'liqligi muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *huquq falsafasi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tafakkur, huquqiy ong shakllanishi, huquqiy qadriyatlar, huquqiy e'tiqod, ijtimoiy ong, huquqiy bilim, huquqni qo'llash amaliyoti.*

Норматова Мухарам Фозильяновна
Преподаватель Наманганского государственного университета

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ПРАВОСОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ ПРАВА

Аннотация: *В данной статье анализируется сущность понятия правосознание, его различные трактовки и значение в рамках философии права. Правосознание рассматривается как совокупность правовых знаний, ценностей и убеждений членов общества, выделяются факторы его формирования и этапы развития. В статье анализируются классические и современные теории правосознания, показаны особенности различных подходов. Также обсуждается роль правосознания в общественном развитии и его связь с правотворчеством, правоприменительной практикой, уровнем правовой культуры.*

Ключевые слова: *философия права, правосознание, правовая культура, правопонимание, формирование правосознания, правовые ценности, правовая вера, общественное сознание, правовое знание, практика применения права.*

Normatova Mukharam Fozilyanovna
Lecturer at Namangan State University

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF LEGAL CONSCIOUSNESS IN THE PHILOSOPHY OF LAW

Abstract: *This article analyzes the essence of the concept of legal consciousness, its various interpretations and meaning within the framework of the philosophy of law. Legal consciousness is considered as a set of legal knowledge, values and beliefs of members of society, the factors of its formation and stages of development are highlighted. The article analyzes classical and modern theories of legal consciousness, shows the features of various approaches. The role of legal consciousness in social development and its connection with lawmaking, law enforcement practice, the level of legal culture are also discussed.*

Keywords: *philosophy of law, legal consciousness, legal culture, legal understanding, formation of legal consciousness, legal values, legal faith, public consciousness, legal knowledge, practice of applying law.*

Kirish.

Huquqiy ong muammolari, siyosiy va huquqiy voqelikni tushunish, huquq va davlat sohasida kerakli tuzilmalarni izlash huquq fani va har bir insonning jamiyat a'zosi sifatidagi hayotiga kirib boradi. Ko'proq ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan huquqiy madaniyat fenomenidan farqli o'laroq, huquqiy ong tushunchasi shaxsga qaratilgan. "Insonda adolat tuyg'usi bor, u bu haqda biladimi yoki yo'qmi, bu mulkni qadrlaydimi yoki uni mensimaydimi. Insonning butun hayoti va butun taqdiri huquqiy ong ishtirokida va uning rahbarligida shakllanadi. Qolaversa, yashash deganda shaxsning huquqiy ongiga, uning vazifalari va shartlariga ko'ra hayot kechirishi tushuniladi..."[1.163].

Adabiyotlar tahlili.

Huquq falasafasida huquqiy ong muammolari, umuman, huquqiy tushunchalar mazmunan ahamiyatli va amaliy ahamiyatga ega. Shu bois ko'pgina zamonaviy mutaxassislar huquqshunoslikda ushbu hodisani

o‘rganishda uslubiy plyuralizm va yaxlit yondashuv zarurligiga e’tibor berishadi[2.39-40].

Huquqiy ong odatda huquq va davlat boshqaruviga oid qarashlar, e’tiqodlar, his-tuyg‘ular borasidagi xulosalar yig‘indisi sifatida tushuniladi.

Huquqiy ongni talqin qilishda bunday keng yondashuv ushbu hodisani o‘rganishning turli tomonlarini o‘z ichiga oladi. Bular asosan quyidagi jihatlardan iborat:

1) Tabiiy huquqning ko‘rsatmalari bilan belgilanadi;

2) Amaldagi huquq normalarini bilish sifatida namoyon bo‘ladi;

3) Mazmunan axloqning bir turi bo‘lib, shu pozitsiyalardan ijobiy huquqqa baho beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Huquqiy ongning mazmuni haqidagi turli xil mulohazalar uning mohiyati va mazmunini tushunishga ta’sir qiladi - yoki huquqiy ong faqat ommaviy (oddiy), kasbiy, doktrinal darajadagi mavjud huquqiy normalar tizimining aksidir yoki - huquqiy ong mustaqil funktsional yukni ko‘taradi, siyosiy va huquqiy voqelikka faol ta’sir qiladi. Huquqiy ong sohasini o‘rganish tarkibiy qiyinchiliklardan tashqari uslubiy dualizmni nazarda tutadi.

Tahlillar va natijalar.

Huquqiy ongda qonun to‘g‘risidagi qiymat mulohazalari mavjud. Shu munosabat bilan, huquqiy ong sohasi (qonunga rioya qilish) madaniyatning elementi, ya’ni qiymat toifasiga kiruvchi faktdir. Haqiqiy huquq qanchalik adolatli yoki adolatsiz bo‘lishidan qat’i nazar, uning ma’nosi va maqsadi adolatli bo‘lishi - qonun (va huquqiy ong) qonun g‘oyasini o‘zlashtirishi va amalga oshirishi kerak[3.85].

Huquqiy ong sohasi - bu jamiyatning ma’naviy sohasida va jamiyatning har bir a’zosi ongida siyosiy kuchlar kurashining aksidir.

Ma’lumki, huquqiy ong ham ijodiy, ham faol bo‘lishi uchun u umumiy asosli tamoyillarga asoslanishi kerak. Bu asosiy tamoyillar (tamoyillar) amaldagi qonun hujjatlarida mustahkamlanganidan qat’i nazar, odamlar ongida shakllanib, amalda namoyon bo‘ladi.

Barcha darajadagi huquqiy ong bir vaqtning o‘zida odamlarning huquqiy madaniyatining asosini tashkil etuvchi va jamiyatda tartibga soluvchi g‘oya bo‘lgan yagona umume’tirof etilgan qoidalarga asoslanadi. Qoida tariqasida, bu g‘oya obro‘li shaxsning fazilatlarini nafaqat huquqiy ongning, balki insonning butun ma’naviy hayotining asosi sifatida belgilaydigan shaxsiy adolat amrlariga asoslanadi.

Siyosiy va huquqiy tafakkurda huquqiy ong tamoyillari Rim huquqshunoslari faoliyatidan keyin birinchi marta huquqiy ahamiyatga ega bo`lib, uning mohiyatini (tamoyillarini) Ulpian ixcham ifodalagan: “Huquqning ko`rsatmalari quyidagilardan iborat: halol yashang, o`zgalarga ozor bermang, har kimga o`z haqini bering”[4.71].

Shu o‘rinda ommaviy huquqiy ong nuqtai nazaridan bu uchta postulat birlashgan, ammo Kant metodologiyasidan foydalanib, har bir tamoyilga alohida ahamiyat berish va shu orqali bu tamoyillarning mazmunini yaxshiroq tushunish mumkin.

1. Halol yashang. Rim huquqida bu tamoyil insoniy xulq-atvorning axloqiy xarakteri bilan bog‘liq edi. Bu qoidaning mazmun-mohiyati qonunga ongli va ixtiyoriy itoat etishdan iborat edi – huquqiy ong darajasida qonun buzilishiga yo‘l qo‘yilmasdi va ixtiyoriy ravishda yovuzlikdan saqlanishni insonning xarakter xususiyatiga aylantirish g‘oyasi bildirildi. Keyinchalik bu tamoyilning mazmuni kengaydi: qonun talablariga ixtiyoriy bo‘ysunish axloqiy va huquqiy tan olish majburiyati bilan to‘ldiriladi - boshqalar bilan munosabatlarda shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini saqlash zarurati. “O‘zingizni faqat boshqalar uchun vositaga aylantirmang, balki ular uchun maqsad bo‘ling” (Kant). Obro‘li inson nafaqat boshqa shaxslarga nisbatan adolatsizlik qilmaydi, balki uning qadr-qimmatini kamsitishga ham yo‘l qo‘ymaydi.

2. Hech kimga nohaqlik qilmang. Bu tamoyil boshqa shaxslarning huquqiy tan olinishiga asoslanadi: “Shaxs bo‘l va boshqani shaxs sifatida hurmat qil” - bu Gegel huquq falsafasining ob’ektiv ruhining mavhum qonunining asosiy qoidalaridan biridir. Bundan tashqari, insonning asosiy huquq va erkinliklarining tabiiy tabiati davlat tomonidan hech qanday chekinishi yoki istisno qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi, deb taxmin qilinadi.

3. Har kimning haqini bering. Bu tamoyil Platon ta’limotiga borib taqaladi va har bir kishi Butun tomonidan yuklangan o‘z vazifasini bajarishi zarurligiga to‘g‘ri keladi. Keyingi siyosiy-huquqiy tafakkurda bu g‘oya inson va fuqaroning shaxsga berilgan huquq va erkinliklarini kafolatlovchi davlat postulatiga aylantirildi. Shuning uchun ham bu huquqlarni ochiq-oydin ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak edi. Uning mohiyati boshqa shaxslarga nisbatan har qanday adolatsizlikni sodir etishni o‘zaro va rasmiy (davlat tomonidan tan olingan) taqiqlashda yotadi.

Huquqiy ong mavzusi qo‘yilgan savollar nuqtai nazaridan ham, ularni hal qilishning taklif etilayotgan variantlari jihatidan ham cheksizdir. Huquqiy ongning istiqbollari turli ixtisoslikdagi olimlar tomonidan o‘rganiladi va bu masalalarni o‘rganishda ustuvorlik huquqshunoslar va faylasuflarga tegishlidir. Bu borada mashhur nemis huquq faylasufi G.Radbruxning quyidagi so‘zlarini eslashimiz mumkin: “Ovozlar ko‘p, fikrlar ko‘p, bir-birini tushunadiganlar kam. Aql-idrok juda ko‘p, ammo nozik g‘oyalar yoki hayratlanarli, chuqur tushunchalar kamdan-kam uchraydi. Biroq, eng kam uchraydigan narsa - bu oson tushuniladigan, mumtoz soddalik bilan muhrlangan kamtarona g‘oyalardir!”[5.40]

Huquqiy ongning allaqachon ko‘p qirrali sohasini falsafadan mexanik ravishda o‘zlashtirilgan atamalar bilan murakkablashtirish juda qiyin bo‘lib tuyuladi. Ba’zan nafaqat ommaviy huquqiy ong darajasida, balki huquq nazariyotchilari uchun ham o‘qiganlarini tushunish va huquq falsafasiga qo‘shgan hissasini baholash qiyin.

Masalan, “huquqiy ong mohiyatan o‘z-o‘zini namoyon qilishning ijobiy shakllarini jalb qiluvchi omil bo‘lib, u shaxsning ijodiy salohiyatini yaqqol salbiy sublimatsiya qilish bilan faoliyatning huquqbuzar va deviant shakllarini bostiradi, yo‘q qiladi, deb ta’kidlanadi”[6.41].

Xulosa.

Huquq falsafasi doirasida huquqiy ong tushunchasi insonning huquq va adolatga bo‘lgan munosabatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida talqin etiladi. Ushbu maqolada huquqiy ongning mohiyati, uning shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ong huquqiy bilim, qadriyatlar va huquqiy e’tiqodlar majmui bo‘lib, u ijtimoiy-madaniy muhit, ta’lim tizimi va davlat siyosati ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Shuningdek, huquqiy ongning rivojlanishi jamiyatda huquqiy madaniyat darajasini oshirishga, qonunlarga rioya qilishga va fuqarolarning huquqiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Maqolada ilgari surilgan tahlillar asosida, huquqiy ongi yuksak jamiyatni shakllantirish uchun ta’lim, targ‘ibot va huquqiy islohotlarning ahamiyati ta’kidlanadi. Shu sababli, huquqiy ongni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ilyin I.A. Huquq va davlat nazariyasi. M., 2003. B. 163.
2. Taxirov F.T., Nusratov L.M. Huquqiy ong mohiyatini o‘rganishning nazariy va uslubiy muammolari // Yuridik fan metodologiyasi: muammoning holati, istiqbollari. II jild. 2008. 39-40-betlar.
3. Stammler R. Huquq va huquq fanining mohiyati va vazifalari. M., 1908. B. 85.
4. Justinian's Digest M. Siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi. M. 2000. - B. 54.
5. Radbruch G. Huquq falsafasi. M., 2004. B. 40.
6. Martynov B.V. Huquqiy ongni o‘z-o‘zini amalga oshirish shakllarini jalb qilish usuli sifatida shakllantirish / Yuridik fan metodologiyasi: holati, muammolari, istiqbollari. 2008. 41-49-betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich
Farg‘ona davlat universiteti falsafa va milliy g‘oya kafedrasi katta o‘qituvchisi
falsafa fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

GLOBAL MUAMMOLAR DAVRIDA TA’LIM MUHITIDA YOSHLAR DUNYOQARASHIDA MILLIY MANFAATLAR MUXIM OMILI

Annotatsiya: *Mazkur maqola globallashuvning mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalariga ta’siri, shuningdek, yoshlar ta’limi va tarbiyasida milliy manfaatlarni shakllantirish masalasini yoritishga qaratilgan. Muallif globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qiladi va yoshlar uchun bilim va tarbiya berishning ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘zbekistonning yoshlar siyosati, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va yoshlarning xalqaro maydonlardagi yutuqlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, milliy manfaatlarning mohiyati, ularning jamiyatda qanchalik muhim ekani, va yoshlarda vatanparvarlik, milliy manfaatlarga sodiqlikni shakllantirish zarurati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Globallashuv, Ijtimoiy ta’sir, Siyosiy ta’sir, Iqtisodiy ta’sir, Ma’naviy ta’sir, Yoshlar ta’limi, Milliy manfaatlar, Vatanparvarlik, Yoshlar siyosati, Islohotlar, Xalqaro maydon, Milliy qadriyatlar, Tarbiyaviy yondashuv, Yoshlar tarbiyasi, Identifikatsiya, Milliy madaniyat.*

Ахмадиев Нуриддин Мухутдинович
старшего преподавателя кафедры философии и национальной идеи Ферганского государственного университета, доктора философии (PhD) по философским наукам

В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИНТЕРЕСЫ ЯВЛЯЮТСЯ ВАЖНЫМ ФАКТОРОМ В МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *Данная статья посвящена освещению влияния глобализации на социальную, политическую, экономическую и духовную сферы страны, а также формированию национальных интересов в образовании и воспитании молодежи. Автор анализирует положительные и отрицательные последствия глобализации и подчеркивает важность образования и воспитания молодежи. Рассматриваются молодежная политика Узбекистана, проводимые в стране реформы и достижения молодежи на международной арене. В статье также обсуждается сущность национальных интересов, их важность в обществе и необходимость формирования патриотизма и преданности национальным интересам у молодежи.*

Ключевые слова: *Глобализация, Социальное влияние, Политическое влияние, Экономическое влияние, Духовное влияние, Образование молодежи, Национальные интересы, Патриотизм, Молодежная политика, Реформы, Международная платформа, Национальные ценности, Воспитательный подход, Воспитание молодежи, Идентификация, Национальная культура.*

Akhmadiyev Nuriddin Mukhutdinovich
Senior Lecturer, Department of philosophy and national idea, Fergana State University
doctor of philosophy in Philosophy (PhD)

NATIONAL INTERESTS IN THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT DURING GLOBAL PROBLEMS MUXIM FACTOR

Annotation: *this article aims to highlight the impact of globalization on the social, political, economic and spiritual spheres of the country, as well as the formation of national interests in youth education and education. The author analyzes the positive and negative consequences of globalization and emphasizes the importance of knowledge and upbringing for young people. The youth policy of Uzbekistan, the reforms carried out in the country and the achievements of youth in the international arena are considered. The article also talks about the essence of national interests, how important they are in society, and the need to form patriotism in young people, loyalty to national interests.*

Keywords: *globalization, social impact, political impact, economic impact, spiritual impact, youth education, national interests, patriotism, youth policy, reform, international arena, national values, educational approach, youth education, identity, national culture.*

Kirish.

Globallashuv sharoiti mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalariga ijobiy ta'siri bilan bir qatorda salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Bunday vaziyatda yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, milliy manfaatlarni singdirish, ongi har qanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish-bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlargina kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning markazida yoshlar masalasi alohida belgilab olingan. Mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarga qancha keng imkoniyatlar yaratilsa, yurtning ertangi kelajagiga ishonch shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida yoshlarga qaratilgan davlat siyosati dinamik o'sib borganini kuzatish mumkin. Bunga javoban yoshlarimizning xalqaro maydonlarda sport, san'at, ilm-fan, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, yurtimiz sha'nini, dovrug'ini, mavqeyini oshishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqda. Albatta, bunday yutuqlar mamlakatda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan demokratik yangilanishlarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, ijtimoiy birdamlikni ta'minlash, millat va elatlar o'rtasidagi do'stlikni kuchaytirishda milliy manfaatlarni har tomonlama hisobga olish, ularga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, yoshlarda milliy manfaatlarga sodiqlikni shakllantirish orqali ularda vatanparvarlik ruhiyatini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Yoshlarda vatan manfaatlarini qadrlash, milliy manfaatlar ustuvorligi asosidagi vatanparvarlikni shakllantirish, bu boradagi tashkiliy-huquqiy ishlarning samaradorligi rivojlantirishga masalasi qo'yiladi. Buning uchun, avvalo yoshlarda milliy va umuminsoniy manfaatlar tushunchasining mazmun mohiyatini ko'rib chiqish, yoshlarda ta'lim-tarbiyani shakllntirishdagi o'rnini yoritish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Milliy manfaatlar deganda millatga, milliy davlatchilikka moddiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar nazarda tutiladi. Demak, yoshlarda o'z mamlakatiga foyda keltiradigan turli faoliyat bilan band bo'lishi, qrashlarga ega bo'lishi ham uning sadoqatini namoyon qiladi.

Manfaatlarning turli – tumanligi sabab, bu tushunchani mohiyatini oydinlashtirish lozim. Jumladan, falsafa qisqacha izohli lug'atida: "Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababi. Manfaat faoliyatni keltirib chiqarib qolmay, uning yo'nalishi, vosita va shakllari, maqsadini ham belgilab beradi"[1]. Tadqiqotchi olimlar A.J.Xolbekov va T.B.Matiboyevlarning asarlarida manfaatlarni moddiy va ma'naviy, umumiy va xususiy manfaatlarga ajratilgan[2]. Boshqa bir olim B.K.Iminov fikricha: "Manfaat bu subyekt faoliyati orqali ro'yobga chiqadigan qiziqishlar mundarijasidir. Ayni paytda u insoniyat subyektining tub mazmunini tashkil qiladi va shu faoliyat tufayli subyektivlik obyektivlikka o'sib boradi"[3]. Demak, milliy manfaatlar bu muayyan millat vakillarining ko'pchiligi qo'llab-quvvatlayotgan talab va ehtiyojlar yig'indisidir. Milliy manfaatlar mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa millat, xalqlarining, butun mamlakat manfaatlariga zid bo'lmasligi ham kerak.

Shuningdek, yoshlarda ijtimoiy manfaatlarga doir qarashlarini ham oydinlashtirishga ko'maklashish, bu orqali jamiyatning umum manfaatlarini qadrlash, unga vatanparvarlik bilan munosabatda bo'lish ham muhim vazifalardan biridir. Chunki ijtimoiy manfaatlar milliy manfaatlardan farqli o'laroq, alohida bitta millat yoki xalq manfaatini emas, balki mamlakatdagi barcha millat, elat vakillari maqsad va intilishlarining yaxlitligi, umumiyligini ifodalab beradi.

O'zbekistoning tarixiy taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, umummilliy manfaatlar hamisha milliy manfaatlar bilan uyg'un bo'ladi. Bunda bir qancha tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, umummilliy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo'yish tamoyili. Umummilliy manfaatlarini yuqori qo'yish milliy manfaatlarni cheklash, kamsitishni bildirmaydi, balki bu umumiyatning manfaatiga asoslanish, ozchilikning manfaatini ko'pchilik manfaatidan ustun qo'ymaslik demakdir.

Natijalar va muhokama.

Bugungi yoshlar voqelikni shunchaki his qilibgina qolmaydi, balki o'z manfaatlari yo'lida unga faol ta'sir ko'rsatadi, o'zlashtiradi va o'zgartiradi. Millatlar manfaatlar, milliy his-tuyg'ular mavjud ekan, milliy munosabatlar ham kun sayin e'tiborga molik masalalar, umumiylik munosabatlarni hisobga olgan holda o'z vaqtida va ijobiy hal etilishini talab etadi. Millatlarning manfaatlariga birdan-bir to'g'ri munosabatda bo'lish, ularni eng yuqori darajada kanoatlantirish va ana shu asosda ixtiloflar chiqaradigan har qanday sabablarini oldini olish demakdir. Shunday ekan, milliy manfaat teran ijtimoiy, psixologik hodisa bo'lib, millatlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Milliy manfaatlar – millatga, milliy davlatga moddiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar sifatida bo'lsagina, davlat yaxlitligi, suverentetiga xavf tug'dirmaydi.

Mamlakatimizda olib boriladagan barcha islohotlar uchun umuminsoniy qadriyatlar va umumilliy manfaatlar ustuvorligi tamoyili asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir. Yoshlarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi urug‘ga, hudud yoki etnik birlikka mansubligi emas, balki umumdavlat darajasidagi umumiy manfaatlarining mushtarakligi asos bo‘lishi lozim. Barcha mintaqalar, etnik va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari o‘rtasida muvozanat saqlanishini hamisha hisobga olish zarur. Shuningdek, manfaatlarni ifodalash va ro‘yobga chiqarishning huquqiy mexanizmni yaratish yo‘li bilan millatlararo munosabatlar sohasida paydo bo‘ladigan salbiy holatlarni oldini olish mumkin bo‘ladi.

Ba’zi hollarda milliy manfaatlar g‘oyaviy-siyosiy mazmuniga ko‘ra bir-biridan farq qilishi mumkin. Shuning uchun ham, ko‘p millatli davlatimiz millatlarning sog‘lom milliy manfaatlarini umummilliy darajada uyg‘unlashtirishi va ularni qondirish yo‘llarini izlamog‘i lozim. Demak, yoshlarda umumiylliy manfaatlar uyg‘unligida rivojlanish strategiyasini singdirish, turli millat va elatlarning yagona vatan tuyg‘usida erkin yashashiga imkon berish ham aslida ichki birdamlikning bir belgisi hisoblanadi.

Ayrim kuchlarga “bir yoqlamalik” xarakterdagi, mamlakat birligiga tahdid soladigan, o‘ta “shaxsiy” tor manfaatlarni milliy manfaat niqobi ostida “bayroq” qilib ko‘tarishlariga imkoniyat berilmasligi lozim. Shaxsiy ko‘rinishdagi manfaatlarni fuqaro sifatida qonun doirasida qondirish immunitetini yoshlikdan boshlab o‘rgatib borish maqsadga muvofiqdir.Demak, yoshlarda shaxsiy manfaatlari ustuvorligini shakllantirish kerak, biroq ularda bir insonning manfaatlari boshqalarnikini qadrsizlamasiligi, manfaatlarini poymol qilmaligi, ijtimoiy beqarorlikka sabab bo‘lmasligi kerak.

Xulosa.

Umuman olganda jamiyatda umummilliy manfaatlar birligi asosidagi birdamlik g‘oyasi kerak. Jamiyat demokratlashuvi sharoitida bir millatning manfaatlari boshqa millat va elatlarning manfaatlaridan, talab va ehtiyojlaridan ajratilmagan holda o‘rganilishi hamda milliy birdamlikka yoshlarni baynalmilallik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali erishish mumkin.

Bugungi jamiyatimizda ijtimoiy-etnik guruhlar o‘rtasida hamjihatlik, an’anaviy uyg‘unlik, hamkorlikning mavjudligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jadallashuviga mustahkam zamin bo‘lmoqda.Shu bilan birga yoshlarda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar ustuvorligi asoida yashashga o‘rgatish, ularni jamiyat manfaatlarini qadrlashga yo‘naltirish ulardagi vatanparvarlikning axloqiy asosi bo‘lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат (Маъсул муҳаррир: А.Жалилов). – Б. 195.
2. Холбеков А.Ж., Матибоев Т.Б. Ижтимоий адолат ва демократия: барқарор тараққиёт йўлида. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2004.– Б. 102.
3. Иминов Б.К. Манфаатлар – сиёсат ва мафкура. – Т.: Минҳож, 2002. - Б. 13 – 14.
4. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. “Ўзбекистон”, Тошкент, 2022. –Б. 254-256.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi
Toshkent davlat transport universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi doktoranti

BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINING IJTIMOIY – FALSAFIY TAHLILI

Annotasiya. *Maqolada barqaror rivojlanish tushunchasining genezisi haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, u dastlab tabiatni boshqarish ma’nosida paydo bo‘lganligi, keyinchalik, bugungu kun ma’nosida qo‘llanila boshlanganligi ta’kidlangan. Barqaror rivojlanish ijtimoiy tenglikni shakllantiradigan va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy va madaniy jihatlar, me’yorlar va qadriyatlarni uyg‘unlashtirishda ham ifodalanganligi o‘rganilgan. Jamiyatning barqaror rivojlanishining falsafiy jihatlari bu tabiatni asrash, resurslarni adolatli taqsimlash va barqaror, teng va axloqiy ijtimoiy tizimni yaratishga yordam beradigan yangi fikrlash va qadriyatlarni yaratishga qaratilganligi tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *barqaror rivojlanish, jamiyat, ekologiya, iqtisodiyot, resurs tenglik, qadriyatlar.*

Рахмонова Саноат Шухрат кизи
Ташкентский государственный университет транспорта, Докторант кафедры” обществознание"

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРИНЦИПОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В статье приводятся сведения о генезисе концепции устойчивого развития, отмечается, что изначально она появилась в смысле природопользования, а позднее стала использоваться в ее современном значении. Было изучено, что устойчивое развитие выражается также в гармонизации социальных и культурных аспектов, норм и ценностей, формирующих социальное равенство и регулирующих отношения между людьми. Анализируются философские аспекты устойчивого развития общества, направленные на сохранение природы, справедливое распределение ресурсов, создание нового мышления и ценностей, способствующих созданию устойчивой, справедливой и этичной социальной системы.*

Ключевые слова: *устойчивое развитие, общество, экология, экономика, ресурсное равенство, ценности.*

Rakhmonova Sanoat Shukhrat kizi
Tashkent State transport University, Doctoral student of the Department of” Social Sciences"

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE PRINCIPLES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Abstract. *The article provides information about the genesis of the concept of sustainable development, noting that it initially appeared in the sense of nature management, and later began to be used in the present-day sense. It is studied that sustainable development is also expressed in the harmonization of social and cultural aspects, norms and values that form social equality and regulate relations between people. The philosophical aspects of sustainable development of society are analyzed as being aimed at preserving nature, fairly distributing resources, and creating new thinking and values that contribute to the creation of a stable, equal and ethical social system.*

Keywords: *sustainable development, society, ecology, economy, resource equality, values.*

Kirish.

Bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan “Barqaror rivojlanish” tushunchasining kelib chiqishi inglizcha “stainable development” iborasiga bog‘liq bo‘lib, u dastlab tabiatni boshqarish ma’nosida paydo bo‘lgan. Keyinchalik, barqaror rivojlanish atamasi tabiatni boshqarishdan ekotizimlarga aniq e’tibor qaratgan holda global ekologiya sohasiga o‘tdi. 1980-yillardan boshlab esa ilmiy muomalada keng qo‘llanila boshlandi. Biroq, tabiiy resurslarning cheklanganligi, ekologik beqarorlik, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning notekisligi va ijtimoiy tengsizlik kabi masalalar avvaldan faylasuf - olimlarning tadqiqot mavzusi bo‘lgan. Ayniqsa, XX asrning o‘rtalaridan boshlab ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy inqirozdan chiqish yo‘lini faol izlash boshlandi. Jamiyat rivojlanishining turli sohalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash hamda uning barqarorligini saqlash va mustahkamlash zarurligini anglash natijasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi vujudga keldi. Barqaror rivojlanishga yondashuvni o‘zgartirish va barqaror

rivojlanishga o‘tish ushbu jarayonlarning maqsadidir. Bu eas nafaqat iqtisodiy sohada, balki qadriyatlar, tamoyillar va tadqiqot metodologiyasida ham o‘zgarishlarni talab qiladi. Falsafa bu jarayonda muhim o‘rin tutib, barqaror rivojlanish zarurligini tushunishga, uning asosiy tamoyillari va qadriyatlarini belgilashga yordam beradi.

“Barqaror rivojlanish” iborasi birinchi marta 1983 yilda Norvegiyalik davlat va jamoat arbobi G.X.Brundtland boshchiligidagi BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Butunjahon komissiyasining sammitida ishlab chiqilgan. 1987 yilda mazkur komissiya tomonidan tayyorlangan “Bizning umumiy kelajagimiz” hisobotidan keyin keng miqyosda tarqala boshladi. Uning bosh maqsadi, tabiat va inson jamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, yuzaga keladigan muammolarni hal etish, biosferaga antropogen ta’sirning ekologik oqibatlarini yumshatish yo‘llarini izlashdan iborat bo‘lgan.

Shuni aytish kerakki, barqaror rivojlanish kontseptsiyasi dastlabki yillarida jamoatchilik tomonidan munozarali tarzda qabul qilingan edi. Ammo 1992 yilda Rio-de-Janeyroda BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha bo‘lib o‘tgan navbatdagi konferentsiyasidan so‘ng vaziyat tubdan o‘zgardi. Mazkur jahon konferentsiyasida qabul qilingan qarorlarning deyari hammasi barqaror rivojlanish atamasi bilan bog‘liq edi. Konferentsiyaning asosiy hujjati bo‘lgan “Kun tartibi 21” shunday tuzilgan ediki, yangi asrning barcha muammolari ekologik va barqaror rivojlanish tushunchasi atrofida jamlangan. Chunki ekologik va boshqa muammolarning paydo bo‘lishi, keskinlashuvi, ularni yechimini izlash masalalarini keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishsiz hal etish mumkin emasligi tobora ayon bo‘la boshlagandi. Zero, barcha muammolarning sabablarini topish yoki hech bo‘lmaganda ularning salbiy ta’sirini yumshatish yo‘llarini aynan iqtisodiyot va jamiyatning barqaror rivojlanishiga bog‘liq ekanligi ayni haqiqat.

Shu bois, vaqt o‘tishi bilan barqaror rivojlanish iborasi jahon hamjamiyati uchun ko‘p odamlar uchun muhim tushunchaga aylandi. Ko‘plab xalqaro tashkilotlar va mamlakatlarning hujjatlarida o‘z aksini topa boshladi. Evropa Ittifoqi, Xitoy, Yaponiya, AQSh, Kanada va boshqa davlatlar ekologik faoliyatda, umuman barcha keng ko‘lamli iqtisodiy va ijtimoiy dastur va loyihalarni, ayniqsa uzoq muddatli fundamental dasturlarni ishlab chiqishda barqaror rivojlanish kontseptsiyasidan o‘zlari uchun dastur-ul amal sifatida foydalana boshladilar.

Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabr oyida bo‘lib o‘tgan sammitida 70-sonli rezolyutsiya qabul qilingan va ushbu xujjatda Barqaror rivojlanish maqsadlari – BRM to‘g‘risida ta’kidlangan. Barqaror Rivojlanish Maqsadlari, yoki Global Maqsadlar deb nomlanuvchi qashshoqlikni yo‘q qilish, sayyorani himoya qilish va barcha odamlarga tinchlik va farovonlik olib kelishga qaratilgan universal choralardir. Maqsadlar BMTga a’zo barcha davlatlar, shu jumladan, O‘zbekiston tomonidan 2015 yil sentyabr oyida ma’qullangan. Ularga 2030 yilga qadar erishilishi kerak bo‘lgan 17 ta maqsad va 169 ta maqsad kiritilgan.

2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMTning Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini – BRMni izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 20-oktabrda 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun Barqaror rivojlanish milliy maqsadlari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar tasdiqlandi.

Adabiyotlar tahlili.

Ushbu maqolada 2002- 2023 yillarda nashr qilingan “Как устойчивое развитие может изменить мир” [1,455b]., “Глобализация в перспективе устойчивого развития” [2,494b]., “Последствия для человека и общества” [3,185b]., “Культура и устойчивое развитие мирового сообщества в XXI веке” [4,131b]., “Порядок из хаоса. Новый диалог человека с природой” [5,312b]., “. Социально-философский анализ влияния корпоративных ценностей на устойчивость развития российских компаний” [6,178-191b]., kabi maqola, risola va monografiyalardan foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy bilishning tarixiylik, analiz va sintez, aksiologik, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, madolaning vazifalari belgilab olingan: Barqarorlik tamoyillariga ega bo‘lgan yaxlit tizim shakllantiriladi. Bu holatda asosiy urg‘u quyidagilarga qaratiladi: iqtisodiy samaradorlik va resurs imkoniyatlari; atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlash; ijtimoiy tenglik va adolat; faoliyatni amalga oshirishda manfaatdor tomonlar bilan uyg‘un munosabatlar.

Barqaror rivojlanishning falsafiy jihati hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi ijtimoiy mas’uliyat tushunchasini o‘z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish hozirgi harakatlar va qarorlar kelajak avlodlar uchun resurslar va imkoniyatlarni tugatmasligi kerakligini anglatadi.

Tahlil va natijalar.

Barqaror rivojlanish g‘oyasini ishlab chiqishda bir qator mualliflar ishtirok etgan. Bunda avvalo, ekologik muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini izlash bilan bog‘liq faoliyat davom ettirildi. Masalan, G.Xotteling rasmiy iqtisodiy usullardan foydalangan holda qayta tiklanmaydigan tabiiy resursning cheklangan zaxirasidan optimal foydalanish qoidasini ishlab chiqqan bo‘lsa S.Gordon esa baliqchilik sanoati misolida qayta tiklanadigan resurslardan vaqtinchalik optimal foydalanishni tahlil qildi. V. I. Danilov-Danielyan “Barqaror rivojlanish” kontseptsiyasiga tayangan holda, insoniyat ehtiyojlarini qondirilishni biosferadan samarali tarzda foydalanish bilan bog‘ladi. Muallifning fikricha, inson hayotining tabiiy asoslari buzilmaganda va uning atrof-muhitga ko‘rsatayotgan barcha ta’sirlari biosfera

uchun maqbul chegaralarda amalga oshirilsagina barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Biroq, barqaror rivojlanishni o‘rganishga bunday yondashuv yetarli emas deb hisoblanadi va barcha harakatlar majmuasini hisobga olmaydi.

A.G.Grinberg asarlarida ko‘rib chiqilayotgan barqaror rivojlanish tushunchasi jamiyatning uzluksiz taraqqiyotini ta’minlovchi va tabiiy muhitni buzmaydigan muvozanatli, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanish deb talqin qilinadi. Ushbu kontseptsiyada mamlakatlarning barqaror rivojlanishga o‘tishi tasvirlangan bo‘lib, u barqaror davom etuvchi va tabiiy poydevorga halokatli ta’sir ko‘rsatmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sifatida talqin etiladi.

Maqolamizda ko‘rib chiqilayotgan “barqaror rivojlanish” iborasining tadqiqot ob’ektini o‘rganish va tahlil qilishda bir qator jihatlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Bunda barqarorlik bu narsa va hodisalardagi xususiyatlarning saqlanib qolishi, rivojlanish esa ularning o‘zgarishi, dinamikasi, takomillashuvi ekanligini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur bo‘ladi. “Barqaror rivojlanish” iborasidagi asosiy jihat “Rivojlanish” so‘zi va “barqarorlik” ta'rifi ekanligidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, “Barqaror rivojlanish” jamiyatdagi o‘zgarishlar va rivojlanishning yangi bosqichlariga o‘tishi hisoblanadi. Mazkur har bir bosqich va jarayonda barqaror, muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun yetarli bo‘lgan barcha zarur xususiyatlar va barqarorlik tamoyillariga ega bo‘lgan yaxlit tizim shakllantiriladi. Bu holatda asosiy urg‘u quyidagilarga qaratiladi:

iqtisodiy samaradorlik va resurs imkoniyatlari;

atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlash;

ijtimoiy tenglik va adolat;

faoliyatni amalga oshirishda manfaatdor tomonlar bilan uyg‘un munosabatlar.

Zamonaviy hayotda barqaror rivojlanishning hozirgi tushunchasi turli xil talqinlar bilan belgilanadi, ammo ularning barchasi bitta umumiy xulosaga olib keladi. Resurslar va atrof-muhitni saqlash, shuningdek, kelajakdagi odamlarning ekologik hamda ijtimoiy sharoitlarda o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini amalga oshirish va qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat tushuncha sifatida ifodalanadi. Barqaror rivojlanishning asosiy g‘oyasi yuqorida tavsiflangan hayot faoliyatining komponentlari muvozanatni topishdir. Bu uzoq vaqt davomida, ehtimol, butun mavjudlik davomida insoniyat sivilizatsiyasining farovonligi va yuqori sifatli ishlashiga erishishni ta’minlaydi.

Barqaror rivojlanishga yondashishda iqtisodiy jihat hamda iqtisodiy faoliyatni resurslaridan foydalanishga, moddiy va ishlab chiqarish ne’matlarini yaratishga, shu jumladan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni rejalashtirish va rivojlantirishga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Shuningdek, qoldiq mahsulotlar yoki chiqindilarning xavfsizligini, qayta ishlanishini va yo‘q qilinishini ta’minlash, ekologik, energiya, tabiat va materialni tejaydigan usullar va texnologiyalardan foydalangan holda xom ashyo va materiallarni qidirish, qazib olish va qayta ishlash kabi faoliyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibiy qismi ijtimoiy tenglikni shakllantiradigan va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni buzadigan nizolar sonini kamaytiradigan ijtimoiy va madaniy jihatlar, me’yorlar va qadriyatlarni saqlashda ifodalanadi. Bu yerda moddiy ne’matlarni adolatli taqsimlash va aholining turli guruhlari o‘rtasidagi daromad darajasidagi tafovutni kamaytirish, shu orqali jamiyatda ijtimoiy hayot sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ekologik nuqtai nazardan, barqaror rivojlanishga erishish butun biosferaning hayotiyligi bog‘liq bo‘lgan moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy tizimlarning yaxlitligi holatini talab qiladi. Jamiyatning yuqori sifatli mavjudligi uchun barqaror rivojlanishning yuqorida aytib o‘tilgan ikki komponentining har birida ekologik barqarorlikni saqlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ob’ektlarning tashqi muhit o‘zgarganda, turli xil buzilishlar, tabiiy resurslarning ifloslanishi va o‘zgarishi, o‘z-o‘zini tiklash va o‘z-o‘zini to‘ldirish qobiliyatiga ham alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Mehnat unumdorligi va faoliyat ko‘lami oshib borayotgan, ishlab chiqarish vositalari va ko‘chmas mulk o‘sib borayotgan, lekin ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar, usul va vositalar ishlab chiqilmagan va joriy etilmagan, ekologik resurslar va jamoat tartibining boshqa tarkibiy qismlari tugaydigan jamiyatni barqaror rivojlangan deb bo‘lmaydi. Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sohalarning ajralmasligi, ularning muvozanatli o‘zaro ta’siri barqaror rivojlanayotgan jamiyatning shartlaridan biridir.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, barqaror rivojlanish, atrof-muhit bilan uyg‘unlashgan va bir-biriga zarar yetkazmasdan mavjud bo‘lgan davrda ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikka erishgan tizimlarda sodir bo‘ladi. Hayotning ushbu sohalarini birlashtirish va ularni turli xil vaziyatlar kontekstiga o‘tkazish juda murakkab vazifadir. Chunki bu komponentlarning har biri o‘zaro muvozanatli bo‘lishi kerak. Bugungi jamiyat tez va yuqori o‘sish sur’atlariga ega. Biroq, foydani ko‘paytirishga va raqobatbardoshlikka yo‘naltirilgan zamonaviy dunyoning iqtisodiy faolligini qondirishni tabiiy resurslardan foydalanmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bunda atrof-muhitga zarar etkazuvchi ijtimoiy omillar hisobga olinishi zarur. Shuning uchun barqaror rivojlanish modelini yaratish uzoq muddatli istiqbolni o‘z ichiga oladi. Bu o‘rinda yuqori turmush darajasi va uning sifatini ta’minlanadi. Shu orqali daromadlar, ijtimoiy me’yorlar va ma'naviy qadriyatlarning o‘sishini, ta’lim sohasini yaxshilashni, ekologik vaziyatni talab darajasida saqlashni,

yuqori sifatli va xavfsiz mahsulotlar yaratishni va hokazolarni ta’minlanishi kerak.

Hayot sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilash maqsadidaida ishlab chiqilgan strategiya tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy majmualarning uzoq muddatli sifatli ishlashini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bunda jamiyat barqaror rivojlanishining markaziy yo‘nalishlaridan biri ekologik jihatdan maqbul bo‘lgan iqtisodiy faoliyatni tashkil etish hisoblanadi.Har bir aniq hududning tabiiy resurs salohiyati – hayotni ta’minlashning asosi sifatida qaraladi. Uni qo‘llab-quvvatlash va zarur sifatlar bilan saqlash, bu moddiy-iqtisodiy tizimning ishlashi uchun zaruriy shartdir. Shundagina iqtisodiy farovonlik oshadi, ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi, ekologik toza mahsulotlar turlari ko‘payadi. Tabiiy komponentlardan foydalanish hisobiga xarajatlar kamayadi, atrof-muhitga eng kam ta’sir ko‘rsatadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun yangi ishlanmalar va texnologiyalar yaratiladi.

Ijtimoiy muhit tenglik, me’yorlar va umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlarga rioya qilish, tafakkur stereotiplariga asoslanadi. Jamiyat faoliyatining bunday sharoitlariga erishishi uchun birinchi navbatda, ko‘rib chiqilayotgan modelda ma’lum bir jihatning rivojlanishini tartibga soluvchi va ularning bir-biri bilan muvozanatini ta’minlaydigan turli xil vositalar va usullardan foydalanish talab etiladi. Jamiyatning barqaror rivojlanishiga doir ushbu kontseptsiyaning tamoyillari va qadriyatlari tegishli falsafiy jihatlarga ega. Barqaror rivojlanishning asosiy falsafiy jihatlaridan biri tabiatning qadr-qimmatini tan olish va uni muhofaza qilish zaruriyatidir. Atrof-muhit etikasi barcha tirik mavjudotlar va ularning atrof-muhitining yaxlitligi va aloqasiga asoslangan dunyoga yangicha qarashni taklif qiladi. Ekologik axloqning muhim tamoyillari tabiiy resurslardan adolatli foydalanish, kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat va inson bilan atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tamoyilini tan olishdir.

Barqaror rivojlanishning falsafiy jihati hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi ijtimoiy mas’uliyat tushunchasini o‘z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish hozirgi harakatlar va qarorlar kelajak avlodlar uchun resurslar va imkoniyatlarni tugatmasligi kerakligini anglatadi. Barqaror rivojlanish falsafasi qadriyatlarni va tabiatni asrashni avloddan-avlodga o‘tkazish masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

Barqaror rivojlanishning falsafiy jihatlaridan biri bu qadriyatlar va iste’mol masalasidir. “Barqaror iste’mol” tushunchasi resurslarni ongli ravishda tanlash, ulardan foydalanish, chiqindilarni boshqarish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi. Barqaror rivojlanish falsafasi insoniyat uchun haqiqatan ham nima muhim, qaysi qadriyatlarni egallash va rivojlantirish kerakligi haqida fikr yuritishni talab qiladi. Barqaror rivojlanish tenglik va adolatning falsafiy jihatini ham o‘z ichiga oladi. Barqaror rivojlanishning maqsadi – o‘zining maqomi va imkoniyatlaridan qat’i nazar, barcha odamlarning farovonligini ta’minlashdir. Barqaror rivojlanish falsafasi ekspluatatsiya va kamsitish tamoyillarini rad etib, resurslarni adolatli taqsimlash va barcha odamlar uchun munosib turmush tarzini yaratish g‘oyasini ilgari suradi.

Xulosa.

Jamiyatning barqaror rivojlanishining falsafiy jihatlari tabiatni asrash, resurslarni adolatli taqsimlash va barqaror, teng va axloqiy ijtimoiy tizimni yaratishga yordam beradigan yangi fikrlash va qadriyatlarni yaratishga qaratilgan.

Jamiyatning hozirgi holati va uning kelajagi barqaror rivojlanishni ta’minlovchi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi. Bugungi kunda barqaror rivojlanish mazmuni va unga erishishga qiziqish jadal o‘sib bormoqda. Buning natijasida barqaror rivojlanish masalalari global miqyosda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlarini integratsiyalashgan yondashuv va taklif etilayotgan yechimlar, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, tashkilot faoliyatining turli jihatlarini iqtisodiy barqarorlik, ekologiya, mehnat xavfsizligi va ijtimoiy farovonlik, axborot xavfsizligini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi birinchi navbatda butun sivilizatsiya uchun, insoniyat uchun tayanch tushuncha sifatida e’tirof etilmoqda. Barcha quyi darajadagi tizimlar uchun uning tushunchasi asosga nisbatan hosilaviy bo‘lishi kerak. Sivilizatsiyaning har qanday yaqin davrdagi rivojlanishi, agar u ma’lum bir variantni saqlasa, barqaror bo‘ladi. Albatta, barqaror rivojlanish ahamiyatsiz narsa emas. Balki dunyo mavjudligining eng muhim shartidir.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat uchun biologic va ijtimoiy mavjudot sifatida saqlanib qolish, ya’ni omon qolish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Omon qolish – insoniyatning o‘ziga, to‘g‘rirog‘i uning hatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. O‘zgarmasligi bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘zgarishlar faqat va faqat inson harakatlari oqibatida sodir bo‘lmoqda. Insoniyat oldida turgan eng muhim vazifa bu, o‘zining atrof-muhitga nisbatan ko‘rsatayotgan nomaqbul ta’sirlarini nechog‘li halokatli ekanligini anglab yetishi va uni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘lib turubdi. Ushbu ezgu maqsadlarni hal etishda BMT tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlarining muhim ahamiyat kasb etishiga ishonchimiz komil.

Adabiyotlar.

1. Аткиссон, А. Как устойчивое развитие может изменить мир / А. Аткиссон. – М. : БИНОМ. Лаборатория знаний, 2012. – 455 с.

2. Бабурин, С. Н. Глобализация в перспективе устойчивого развития / С. Н. Бабурин, М. А. Мунтян, А. Д. Урсул. – М. : Магистр : Инфра -М, 2011. – 494 с.

3. Бауман, З. Глобализация. Последствия для человека и общества = [Globalization. The human consequences] : пер. с англ. / З. Бауман. – М. : Весь мир, 2004. – 185 с.

4. Культура и устойчивое развитие мирового сообщества в XXI веке / Междунар. акад. информатизации ; Информ. центр ООН в Москве. – М. : Информациология, 2002. – 131 с.

5. Пригожин, И. Порядок из хаоса. Новый диалог человека с природой. : пер. с англ. / И. Пригожин, И. Стенгерс. – 3-е изд. – М. : Эдиториал УРСС, 2011. – 312 с.

6. Прокаева Е. Г. Социально-философский анализ влияния корпоративных ценностей на устойчивость развития российских компаний // Векторы благополучия: экономика и социум. 2023. Т. 50. № 3. С. 178–191.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ro‘zaliev Bexzodjon Avazjonovich
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari
Email: behzodjonruzaliev@gmail.com

“DIN” SO‘ZI EKVIVALENTI MA’NOLARI TAHLILI

Annotatsiya: *20-asr boshlarida sotsiologiyaning otalaridan biri Emil Dyurkgeym qiziqarli fikrni ilgari suradi. Madaniyatda qadimdan boshlab kelayotgan va barcha xalqlarga xos hodisalar mavjud. Demak, jamiyatda ma’lum umuminsoniy ehtiyojlar mavjud bo‘lib, ularsiz hech narsani amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu din uchun ham amal qiladi, desak xato qilmagan bo‘lamiz.*

Din inson hayotida muhim o‘rin tutishi va muhim vazifalarni bajarishi barchaga ma’lum haqiqat. Din his-tuyg‘u, e’tiqod, ibodat, jamoat kabi ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi. Bu keng qamrovli va ko‘p qirrali muassasadir. Insoniyatning birinchi, eng chuqur va eng bardoshli tajribalardan biri bo‘lgan dinning ma’nosini tushunish uchun “Din nima?” savol har doim so‘ralgan. Din tushunchasini to‘g‘ri tushunish va undan to‘g‘ri foydalanish uchun uning lug‘aviy ma’nosini o‘rganish kerak. Din tushunchasining kelib chiqishi, lug‘at ma’nosi haqida batafsil ma’lumot berish uchun boshqa xalqlar, millatlar va dinlarda uning ekvivalenti ma’nolarini atroflicha o‘rganishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Kalit so‘zlar: *din, dharma, e’tiqod, ishonch, ibodat, Xudo, yaratuvchi, rishta, ilohiy buyruq, birlashtirish, burch, muhabbat, ruh.*

Рузалиев Бехзоджон Авазжонович
Международная исламская академия Узбекистана Факультет классической восточной филологии
заместитель декана по учебной работе

АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЯ ЭКВИВАЛЕНТНОГО СЛОВА «РЕЛИГИЯ»

Аннотация: *В начале XX века один из отцов социологии Эмиль Дюркгейм выдвинул интересную идею. В культуре есть явления, которые существуют с древнейших времен и свойственны всем народам. Итак, в обществе существуют определенные общечеловеческие потребности, без которых ничего невозможно достичь. Мы не ошибемся, если скажем, что это относится и к религии.*

Общеизвестно, что религия играет важную роль в жизни человека и выполняет важные функции. Религия включает в себя множество элементов, таких как эмоции, вера, молитва и сообщество. Это комплексное и многогранное учреждение. Чтобы понять значение религии, одного из первых, самых глубоких и устойчивых переживаний человечества, мы должны задать вопрос: «Что такое религия?» этот вопрос задавался всегда. Чтобы правильно понимать и использовать понятие религии, необходимо изучить его словарное значение. Для того чтобы предоставить подробную информацию о происхождении и словарном значении понятия «религия», мы поставили перед собой цель подробно изучить его эквивалентные значения у других народов, наций и религий.

Ключевые слова: *религия, дхарма, вера, доверие, молитва, Бог, создатель, связь, божественное повеление, объединение, долг, любовь, дух.*

Ruzaliev Bekhzodjon Avazjonovich
International Islamic Academy of Uzbekistan Faculty of Classical Oriental Philology deputy dean for academic affairs

ANALYSIS OF THE MEANING OF THE EQUIVALENT WORD "RELIGION"

Abstract: *The beginning of the 20th century, one of the fathers of sociology, Emile Durkheim, put forward an interesting idea. There are phenomena in culture that have existed since ancient times and are common to all peoples. So, in society, there are certain universal human needs, without which nothing can be achieved. We will not be mistaken if we say that this also applies to religion. It is well known that religion plays an important role in human life and performs important functions. Religion includes many elements, such as emotions, faith, prayer and community. It is a complex and multifaceted institution. To understand the meaning of religion, one of the first, deepest and most enduring experiences of humanity, we must ask the question: "What is religion?" This question has always been asked. To correctly understand and use the concept of religion, it is necessary to study its dictionary meaning. In order to*

provide detailed information about the origin and dictionary meaning of the concept of "religion", we set ourselves the goal of studying in detail its equivalent meanings in other peoples, nations and religions.

Key words: *religion, dharma, faith, trust, prayer, God, creator, connection, divine command, unification, duty, love, spirit.*

Kirish.

Dinlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati dinning insonning tugʻma ehtiyoji ekanligidan kelib chiqadi. Inson usiz yashay olmaydi. Bu umumiy, keng qamrovli insoniy hodisa boʻlib, u qaerda boʻlmasin, unga hamroh boʻladi. Bu qalbni poklaydigan, hislarni tozalaydigan va sayqallaydigan ichki e'tiqoddir. Bu yer yuzidagi birinchi odam bilan bogʻliq ekzistensial ehtiyoj. U barcha davrlar va zamonlarda ham undan ajralmagan. Din inson uchun favqulodda holat emas. Dinning mavjudligi insonning mavjudligiga begona emas. Insonning dinga boʻysunishi va unga bogʻlanishi undan ajralmas boʻlib, doimo u bilan birga edi. Yer yuzida yashagan va har qanday sivilizatsiya yoki madaniyatdan uzoq boʻlgan odamlar guruhlari unga etishmaganlarida, ular uni oʻylab topardilar va yaratardilar. Ba'zi odamlar oʻz qoʻllari bilan toshdan xudolar yasashgan. Biz buni gʻor rasmlarida yoki haykallarda koʻrishmiz mumkin. Bu ibodatxonalar va piramidalar, shuningdek, diniy ma'no va belgilarga ega yozuvlar, ramzlar va yodgorliklarni oʻz ichiga olgan tarixdan oldingi qoldiqlar tomonidan tasdiqlangan. Shunda siz koʻrinmas elementga ehtiyoj alangasini oʻchirishga urinib, uning oldida sajda qilasiz. Shuningdek, quyosh xudosi, yomgʻir xudosi, shamol xudosi, yaxshi xudo, yovuz xudo va hokazo kabi xudolarni tasavvur qilgan, lekin ularni koʻrmagan xalqlar bor edi. Biroq, bu kar haykallarga sajda qilish ularning oʻzlari uchun emas edi. Aksincha, odamlar ular gʻayritabiiy kuchni oʻz ichiga oladi yoki kuchni ifodalaydi, deb ishonilgan. Odamlar bu nima ekanligini va nimani anglatishini bilishmagan boʻlsalar ham. Bu oʻz navbatida oʻsha haykallardan tashqaridagi haqiqatdir. Ular uni ota-bobolaridan meros qilib olgan edilar. Demak, bu muqaddaslik, hurmat va itoatkorlik sifatiga ega boʻlgan metafizik timsolga boʻysunishdir. Inson tabiatan dinga intiladi. Agar topmasa, uni paydo qiladi, bu insonning tugʻma moyilligi.

Adabiyotlar tahlili.

"Din" soʻzi ekvivalenti ma'nolarini oʻrganishda quyidagi adabiyotlarda keltirilgan fikr va mulohazalar tahlili amalga oshirildi:

"A Glossary of Philosophical Terms. Dinler tarihi araştırmaları. Dinler tarihine giriş. Eski türk dini tarihi. Hebrew and english lexicon of the old testament. İslamiyetten önceki türk kültür tarihi ve islama giriş. İslamlıktan önce türklerde tek tanrı inancı. Türk cihan hakimiyeti mefküresi tarihi. Türklerin dini tarihçesi. Большая энциклопедия. Буддизм. Греческая народная религия. Греческо-русский словар Нового Завета. Джайнизм. Древнегреческо-русский словарь. Древнотюркский словарь. Дхаммапада. Еврейская энциклопедия: Свод знаний о еврействе и его культуры в прошлом и настоящем. Историко-культурный контекст и понимание термина "религио" в Авесте. История религий. Иудаизм. Краткий латинско-русский богословский словарь. Латинско-русский и русско-латинский лексикон с полным объяснением свойств и значений каждого слова. Латинско-русский словарь приспособленный к гимназическому курсу. Латинско-русский словарь. Латинско-русский словообразовательный словарь. Мировые религии: история и современность. Муъжам муфротад ал-муштарак ас-сомий фи ал-луғат ал-арабиййа. Dictionnire syriaque-francais syriac-english dictionary. Настолный энциклопедический словарь. Новая философская энциклопедия. Об истинной религии. Ранний буддизм: религия и философия. Религии мира: словарь справочник. Религия, её сущность и происхождение (Обзор философских гипотез). Русско-еврейский (идиш) словарь. Русско-китайский словарь. Санскритско-русский словарь. Санскритско-русский учебный словарь. Сикхизм. Словарь индоевропейских социалных терминов. Словарь иностранных слов современного русского языка. Толковый словарь живого великорусского языка. Уйгурско-русский словарь. Фалсафа аш-шарқ. Феномен религии в конфликте интерпретаций. Фи қоваид ас-сомиййат. Философия религии. Философия религиозности. Философский словарь: Логика, психология, этика, эстетика и история философии. Энциклопедицеский словарь. Энциклопедия иудаизма "Меир натив". Этимологический словарь русского языка.

Tadqiqot metodoligiyasi.

Maqolada ba'zi dinlar va xalqlarda "din" qaysi soʻz bilan ifodalanishi hamda qanday ma'nolarni bildirib kelishi batafsil oʻrganinlib, tahlili amalga oshirildi. Ularga munosabat bildirildi.

Tahlillar va natijalar.

Avestoda "din" atamasi sifatida "دینا" "dena" soʻzi ishlatilgan. U – qonun yoki inson qalbidagi ilohiy nur ma'nolarini ifodalagan. Hozirgi kunda yoʻl, mazhab, marosim, uslub, tarz kabi ma'nolarda ishlatiladi. Vijdon va insof [1] ma'nolarini ham bildirishi ta'kidlanadi. Shuningdek, koʻp ma'noli "daena" termini ishlatilgan, u qadimgi fors pahlaviy tilida "den" soʻzidan olingan boʻlib, Avestoga haqiqiy e'tiqod ma'nosida tushunilgan. Keng ma'noda esa, din, ishonch-e'tiqod, ta'limot, konsepsiya, qarash, mavjud boʻlish, ichki his-tuygʻu, ong, hissiyot, vijdon, insof, ichki ma'naviy dunyo, qalb, yurak, insonning oʻy-fikri va xatti-harakatlari majmuasi [2] kabi ma'nolarda

ishlatiladi. Zamonaviy fors tilida esa, "دین" "din" so'zi ishlatiladi va u faqatgina "din" [3] tushunchasini bildiradi.

Manbalarda islom dini kirib kelmasdan avval turkiy xalqlarda "din" tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda "darm", "darma", "nom" kabi so'zlar ishlatilgan. "Darm" va "darma" so'zlari sanskrit tilidagi "dharma" so'zidan olingan bo'lib, diniy asos va element, diniy qonun-qoida, diniy ta'limot ma'nolarini bildirgan. "Nom" so'zi esa so'g'd tilidagi "nwm" so'zidan olingan bo'lib, diniy ta'limot, diniy qonun-qoida, ishonch-e'tiqod, diniy tartib-intizom, diniy kitob va yozuvlar [4] ma'nolarini ifodalagani qayd qilinadi. Hozirgi kunda uyg'urlarda din, ishonch-e'tiqod, aqida, ta'limot, mazhab ma'nolarini ifodalagan "دین" "din" [5] so'zi ishlatiladi.

Sanskrit tilida "din" terminiga mos keluvchi "dharma" so'zidan foydalanilgan. "Dharma" oriy tilidagi "dhar" – tasdiqlamoq, ma'qullamoq; madad bermoq, qo'llab-quvvatlamoq; qo'maklashmoq, yordam bermoq; himoya qilmoq, saqlamoq [6] kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zdan hosil qilingan deyiladi. Sanskrit tilidagi "dhar" so'zi ushlamoq, olib bormoq, tarqatmoq, mustahkamlamoq, saqlamoq, tasdiqlamoq, qo'llab-quvvatlamoq, davom ettirmoq, ushlab (tutib) turmoq, qarshilik ko'rsatmoq, chidamoq, ega bo'lmoq, asrab-avaylamoq, kimgadir nimanidir qilishga majbur bo'lmoq, iqtibos keltirmoq [7] kabi ma'nolarni bildiradi. "Dharma" – ta'limot, sahovat, himmat, axloqiy fazilat, burch, vazifa, qarz, adolat, qonun, timsol, ibrat, ideal, norma, shakl, haqiqat, ahd-bitim, sabab, koinot tartibi kabi ma'nolarni anglatgan. Ko'proq bu so'z oddiy qora xalq hayoti va turmush tarzini belgilovchi juda ko'p qonun-qoidalarga nisbatan qo'llaniladi. Oqsuyak doiralarida esa, sanskrit tilidagi "mokşa" so'zi ishlatiladi. Bu tushuncha zamirida ma'lum bir amaliy intilishni amalga oshirib kundalik hayotni ortda qoldirib, borliq charxpalagidan ko'tarilib, tug'ilish va o'lish zanjiridan kutulish [8] tushuniladi.

Pali tilida "din" tushunchasiga to'g'ri keluvchi "dhamma" so'zi iste'molda bo'lgan. U – din, ta'limot, haqiqat, qonun, yo'l, vazifa, nizom, to'g'rilik, fazilat kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, insonlarning qanday xatti-harakat qilishlari lozimligini tartibga soluvchi tartib-intizom, diniy va axloqiy nizom, samoviy nizom [9] kabi ma'nolarni ham ifodalagan.

Xitoy tilida "din" termini sifatida "zōngjiào" va "xìnyǎng" so'zlari ishlatiladi. Ular ishonch-e'tiqod, din, ta'limot [10] kabi ma'nolarni bildiradi.

Habashistonda (hozirgi Efiopiya)da yashovchilar tilida "din"ning fe'l shakli sifatida boshqarmoq, hukmronlik qilmoq, hukm qilmoq, hukm chiqarmoq, qaror qilmoq, buyurmoq kabi ma'nolarni bildirgan "dayana" so'zi va "din"ning ot shaklida "dayen" [11] so'zi ishlatilgan.

Ibroniy (qadimgi yahudiylar, ivrit) tilida "din" termini itoatkorlik, kamsitish, mukofotlash, boshqarish, hukmronlik qilish, hukm qilish, hukm chiqarish, qaror qilish, buyurish kabi ma'nolarni bildirgan "din" [12] so'zi ishlatilgan. Hozirgi kunda "din" terminiga ma'no jihatidan yaqin bo'lgan "daat" [13] yoki "dat" [14] so'zi ishlatiladi. Bu so'z donolik, aql, bilim, hukm, amr va qonun ma'nolarini ifodalaydi. Ibodat, qurbonlik va duo ishlarini bildirish uchun "abodath elohim" iborasi ishlatiladi. Ayni paytda, ushbu ibora "din" [15] tushunchasini bildirish uchun ham qo'llaniladi.

Oromiy (Eram, Od qabilasi) tilida "dan", suryoniy (somiy tillar oilasiga kiruvchi oromiy tili) tilida "dan", ossuriyaliklar (somiy tillar oilasiga kiruvchi oromiy tili) tilida "danu" so'zlari "din" atamasi sifatida ishlatilgan. Ushbu so'zlar – itoat, bo'ysunish, jazo, mukofot, hukmronlik, hukm, qaror, buyruq [16] kabi ma'nolarni ifodalagan.

G'arb dunyosida "din" termini sifatida "religio" so'zi ishlatilishi barchaga ma'lum. "Religio" – lotincha so'z bo'lib, semantik, ma'no va morfologik jihatdan juda ko'p qiyosiy tilshunoslikka doir tadqiqotlarga asoslanib, bu terminni etimologiyasi, ya'ni kelib chiqishiga oid ikki yondoshuv keltirilgan.

Birinchisi, falsafiy bo'lib, uni Sitseron (mil.av. 106-43) ilgari suradi. Unga ko'ra, "religio" termini aslida lotincha "relegere" o'zagidan kelib chiqqan, deb hisoblanadi. "Relegere" [17] fe'li quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1. Orqaga yurmoq, orqaga ketmoq, orqaga qaytmoq; 2. Boshidan o'qimoq, yangidan o'qimoq, qaytadan takroran o'qimoq; 3. Puxta o'ylamoq, fikr yuritmoq, mulohaza yuritmoq; 4. Biror narsani qayta ko'rib chiqmoq, qaytadan o'ylab ko'rib fikrini o'zgartirmoq; 5. Qo'rqmoq, Xudodan qo'rqmoq, xudojo'y bo'lmoq, taqvodor bo'lmoq; 6. Qaytadan yig'moq, yangidan to'plamoq, to'plamoq, jamlamoq; 7. Bir joydan qaytadan o'tmoq, aylanib o'tmoq; 8. Suhbat davomida biror narsa haqida gapirmoq, suhbat jarayonida biror narsani eslamoq; 9. Kuzatmoq, nazorat qilmoq; 10. Yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytmoq.

Ikkinchisi, teologik bo'lib, uni ilk xristian yozuvchisi Laktansiy (250-326) ilgari surgan. Unga ko'ra, "religio" termini aslida lotincha "religare" o'zagidan kelib chiqqan, deb hisoblanadi. "Religare" [18] fe'li quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1. Bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq, aloqa o'rnatmoq; 2. Mustahkamlamoq; 3. Yechmoq, echib yubormoq, bo'shatmoq; 4. Biriktirmoq, birlashtirmoq.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, "relegere" va "religare" o'zaklaridagi "re" old ko'makchisi biror bir ish-harakatni yoki biror narsani qaytadan, yana, boshqatdan, yangitdan, takroran, boshidan qilish va amalga oshirish ma'nolarini bildiradi.

Hozirgi kunda dinshunoslik va unga bog'liq ilm sohalari bilan tadqiqot olib borgan va borayotgan barcha mutaxassislar yakdil xulosaga kelganlar [19]:

1. "Religio" – lotincha so'z bo'lib, "relegere" yoki "religare" o'zak fe'llaridan yasalgan;

2. Sitseron va uning tarafdorlari “relegere” o‘zagidan yasalgan bo‘lib, vijdon(insof) bilan bog‘liq xatti-harakat va faoliyat deb ta’riflaganlar;

3. Laktansiy va uning tarafdorlari “religare” o‘zagidan yasalgan bo‘lib, Xudoga bog‘lanish, Xudo bilan aloqa o‘rnatish va unga qo‘shilib ketishga oid xatti-harakat va faoliyat deb ta’riflaganlar.

Laktansiy tarafidan ilgari surilgan etimologiya xristianlik madaniyatida mustahkam o‘rnashib qoldi. Avgustin (354-430) lotin tilida insonni Xudoga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi so‘z yo‘qligi bo‘yicha shikoyatini bildirgan edi [20]. U “re” old ko‘makchisi fe’l asosidagi ish-harakat va faoliyatni qaytadan, takroran bajarish ma’nosini bildirib, “religio” bu – inson bilan Xudo o‘rtasida yo‘qotilgan aloqa(rishta)ni tiklash [21] ekanligini ta’kidlagan. Benvenist fikricha, tarixiy xato o‘laroq xristianlar tarafidan “religare” (bir butun qilib bog‘lamoq) so‘zi yordamida izoh berilib, “religio” – ishonuvchi va uning Xudosi o‘rtasida ob’ektiv aloqa(rishta) [22] majburiyatga aylantirildi.

G‘arbda biror bir xatti-harakatni sodir qilgandan keyin, uni qayta ko‘rib chiqib, unga doir ma’lumotlarni to‘plab, chuqur mulohaza yuritib, xato va kamchiliklardan tegishli xulosalar chiqarib, qanday yo‘l-yo‘riqlar bilan echimga erishish mumkinligini qayta-qayta tahlil qilib, ideallashtirishga qarab intiladilar. Shu bilan birga Xudo bilan inson o‘rtasida rishta bog‘lashga urinadilar. Oqibatda ular yo ifrot yo tafritga yo‘l qo‘yadilar. Inson xohish-ihtiyori chegara bilmasligini esdan chiqarib, tubanlikka qarab sudrashi to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritishdan ojiz qolmoqdalar.

“Religio” termini qaysi fe’ldan yasalgani va uning ma’nolarini batafsil bayon qildik. “Religio”ni termin sifatida qaysi ma’nolarni bildirishini qo‘rib chiqamiz. I.Kroneberg o‘zining lug‘atida “religio” [23] ni qo‘yidagilarni bildirishini keltiradi: 1. Qo‘rquv, Xudodan qo‘rqish, xudojo‘ylik, taqvodorlik, ibodat, ibodat qilish, din, ishonish, ishonch-e’tiqod, e’timod, dinga e’tiqod qilish, mazhab, maslak; 2. Vijdon, insof, diyonat, shak-shubha, gumon, ikkilanish, hayrat, taaajublanish, tushunolmay hayron bo‘lish; 3. Ayb-nuqson, gunoh, jinoyat, yoziq, uyat; 4. Muqaddaslik, tabarruklik, oliyjanoblik; 5. Majburiyat, burch, vazifa, xizmat, lavozim, mansab, amal, o‘rin; 6. Aniqlik, to‘g‘rilik, bir so‘zlilik, so‘zining ustidan chiqishlik, g‘amxo‘rlik, jonkuyarlik, tirishqoqlik, tejamkorlik, kuzatish, nazorat, biror nimani bajarish va amalga oshirishda ishning sifati; 7. Hurmat, izzat, ehtirom, siylov, marhamat qilish, ikrom ko‘rsatish; 8. Diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvo, ortiq darajadagi hurmat, e’zozlash, izzat-ikrom, aziz ko‘rish.

Shu o‘rinda I.Kronebergning yuqoridagi “religio”ga bergan ma’nolari chalkashtirib bir-biriga aralashtirib yuborganlar ham mavjud. Bunga misol uchun, Xarkov universitetining professori bosh ruhoniy T.I.Butkevich o‘zining “Религия, её сущность и происхождение (Обзор философских гипотез)” [24] kitobining kirish qismi 3 betida I.Kronebergning “Латинско-русский и русско-латинский лексикон с полным объяснением свойств и значений каждого слова” kitobidan “religio”ni ma’nolarini keltirishda “hayrat, taaajublanish, tushunolmay hayron bo‘lish” ma’nosi bilan “ayb-nuqson, gunoh” ma’nolarini bir-biriga qo‘shib yuborganini ko‘rishimiz mumkin. Buning oqibatida “ayb-nuqson va gunohni noto‘g‘ri tushunish” degan ma’noni keltirib chiqargan. Rus tilidagi adabiyotlarda “religio” atamasi ma’nolarini ifodalashda asosan I.Kronebergga suyanilganligini aniqlandi. U o‘ziga xos tarzda ma’nolarini tartiblagan.

I.X.Dvoreskiy esa, “religio” [25] ni ushbu ma’nolarni bildirishini ta’kidlaydi: 1. Vijdonlilik, insoflilik, insof bilan ish qilishlik, halollik, insof, vijdon, diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvo; 2. Ortiq darajadagi hurmat, izzat-ikrom, aziz qo‘rish, e’zozlash, izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish, diniy his-tuyg‘u, xudojo‘ylik, dindorlik, taqvodorlik; 3. Din; 4. Ibodat qilish, ibodat, ibodat bilan bog‘liq marosimlar, ibodat uchun belgilangan rasm-rusumlar va udumlar; 5. Muqaddaslik, tabarruklik, olijanoblik; 6. Muqaddas (aziz) narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, e’zoz qilinadigan (aziz, muqaddas) narsa, hamma fahrlanadigan (ko‘z qorachig‘iday saqlaydigan) narsa, ilohiy narsa, diniy narsa, tabarruk narsa, ibodat narsasi, topinish narsasi, sig‘inish narsasi, diniy marosimlar bilan bog‘liq narsa yoki joy; 7. Shubha, gumon, shak-shubha, ishonmaydigan, gumonsiraydigan, ikkilanish, dudmol, dargumon, hayrat, taajjub, tahayyur, hayronlik, taajjublanish, tushunolmay hayron (tong) bo‘lish, talmovsirash, (odob-axloqqa oid, axloqiy, ruhiy, ma’naviy) uyalish, iymanish, tortinish, tortinchoqlik yoki qo‘rqish, xavfsirash, xavotirlanish, cho‘chish, xadiksirash, xadik, xavf; 8. Vijdon (insof)ga qarshi jinoyat va xiyonat, gunoh qilish, gunohkor bo‘lish, ayb (gunoh) bo‘ladigan ish qilib qo‘yish, gunoh, ayb, yoziq, ayb ish, aybona, ayb bo‘ladi, uyat, yaxshi emas, jinoyat; 9. Xurofot, bid’at, irim-chirim; 10. Halollik, vijdonlilik, insoflilik, insof, vijdon, puxtalik, sinchiklab (diqqat bilan) bajarishlik, aniqlik, to‘g‘rilik, bir so‘zlilik, so‘zining ustidan chiqishlik; 11. Oldindan xabar beruvchi belgi (alomat, nishon, tamg‘a, ramz), bashorat (karomat) qiluvchi alomat, sohib karomat asari va izi, karomatli harf, karomatli imo-ishora.

O.Petruchenko o‘z lug‘atida “religio” [26] so‘zi ma’nolarini shu tartibda keltirib o‘tadi: 1. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni vijdonan insofli bajarish; 2. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni bajarishda to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi xususida diniy shak-shubhaga borish, ikkilanish; 3. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni bajarishda diniy his-tuyg‘u bilan munosabatda bo‘lish; 4. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni bajarishda hurmat va izzat-ikromni saqlash; 5. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni bajarishda diyonatli bo‘lib, xudojo‘ylik va

taqvadorlik bilan amalga oshirish; 6. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni Xudodan qo‘rqqan holda bajarish; 7. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni ishonch-e’tiqod bilan bajarish; 8. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni bajarishda dindan deb bilib, turli xurofotlarga yuz tutish; 9. Ibodatlarda ishlatiladigan narsalarni muqaddas va tabarruk bilish; 10. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni bajarishda din talablarini buzib, gunoh va ayb amallarga yo‘l qo‘yib, dinga qarshi bo‘lish; 11. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni amalga oshirishni muqaddas vazifa deb bilish; 12. Har bir xatti-harakat, ish va faoliyatni bajarishda Xudo nomi bilan qasam ichish; 13. Ibodatlarni amalga oshiruvchi shaxslarni begunoh, pok va taqvodor deb bilish; 14. Diniy marosimlar va ibodatlarni amalga oshiradigan joylar hamda ishlatiladigan narsalarni muqaddas hisoblab hurmat qo‘rsatish; 15. Ibodatxonalar va ziyoratgoxlarga hurmatiga loyiq tarzda munosabatda bo‘lish.

Rus tilidagi adabiyotlarda “religio”ni termin sifatida ma’nolarini ifodalashda suyaniladigan manbalardan yuqorida uchtasi bilan tanishdik. Har bir muallif o‘ziga xos tarzda ma’nolarni tartiblagan.

“Religio” atamasi ma’nolarini ikki bandda jamlash mumkin:

Ishonch – g‘ayritabiiy kuch-qudratga ega bo‘lgan oliy borliq, xudo(xudolar) borligiga ishonish, unga nisbatan munosabat bildirish, diyonatli, insofli va vijdonli bo‘lish, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvodorlik, dindorlik bilan hayot kechirish [27]; Har bir din ishonch-e’tiqod sistemasiga ega bo‘lishi shart. Ibodat va boshqa munosabatlar ishonch-e’tiqod ustiga qo‘riladi.

Ibodat – g‘ayritabiiy kuch-qudratga ega bo‘lgan oliy borliq, xudo(xudolar)ga sig‘inish, gunoh ish qilganda g‘azabidan qo‘rqib kechirish uchun yolvorib topinish, diniy rasm-rusum va marosimlar o‘tkazish, muqaddas kitoblar, bitiklar, yozuvlar o‘qish, qadamjo, ziyoratgoh va ibodatxonalardagi muqaddas narsalarga hurmat qo‘rsatish, pok va begunoh shaxsiyatlarning xayri duolarini olish, insoniyatning ma’naviy hayoti, jamiyatning ma’naviy qiyofasi, shaxsning ruhiy holati [28] ni ifodalaydi. Ibodat va boshqa munosabatlar ishonch-e’tiqodni mustahkamlashga va ishonuvchini komillik sari etaklaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, qadimgi grek tilida din terminiga to‘g‘ri keluvchi “θρησκεία” - “thréskeia” so‘zi ishlatilgan. U – marosim, rasm-rusum, udum, ibodat bilan bog‘liq diniy marosim ko‘rsatmalarga rioya qilmoq ma’nolariga ega bo‘lgan. Bir davr bu so‘z unutilganday bo‘ldi, lekin yana qaytarilib, iste’molga kiritildi. U diniy e’tiqod va diniy amaliy marosimlar majmui birligi [29] ni ifodalashda ishlatiladi. Shuningdek, din tushunchasi “thrioheya” so‘zi bilan izohlangan bo‘lib, din, qo‘rquv, o‘zaro hurmat, urf, odat [30] kabi ma’nolarani anglatadi.

Qadimgi slavyanlarda din terminiga mos keluvchi “vera”, “verstvo”, “verovanie” so‘zlari iste’molda bo‘lgan. “Vera” – ishonch, e’tiqod, e’timod, din, imon; “Verstvo” – ishoniladigan, e’tiqod qilinadigan; “Verovanie” – diniy e’tiqod, imon [31] kabi ma’nolarni anglatgan. XVIII asr boshlaridan rus tilida “religiya” so‘zi keng ishlatila boshlagan. U polyak tilidagi “religia” [32] so‘zidan olingan.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, barcha xalqlar va tillarda din so‘zining lug‘aviy ma’nosida muayyan yakdillik mavjud. Birinchisi, imon-e’tiqod bilan bog‘liq jihatlar – ishonch, imon, e’tiqod, itoat, ta’limot, bo‘ysunish, taslim bo‘lish, diyonat, taqvo, aqida, qazo va qadar, vijdon, insof, xudodan qo‘rqish va hurmat qilish. Ikkinchisi, ibodat va muomalot bilan bog‘liq jihatlar – ibodat, topinish, sig‘inish, duo, marosim, urf-odat, rasm-rusum, udum, yo‘l, mazhab, uslub, tarz, hol-ahvol, sahovat, himmat, axloqiy fazilat, burch, vazifa. Uchinchisi, huquq bilan bog‘liq jihatlar – hukm, amr, qonun-qoidalar, adolat, haqiqat, shariat, adolat, norma, nizom, hisob-kitob, xizmat, mol-mulk, majburlash, ajr-mukofot, haq, jazo, chora-tadbir, qarz, qo‘rquv, o‘zaro hurmat, timsol, ibrat, ideal, shakl, ahd-bitim.

Odamzot turli diniy e’tiqodlar va xilma-xil diniy qarashlarga ega holda yashab, faoliyat yuritgan. Insoniyat tarixining turli davrlaridagi ijtimoiy voqea-hodisalar, tuzumlar almashinishi, xilma-xil tamaddunlarning o‘ziga xos ta’siri va boshqa sabablar tufayli din atamasining lug‘aviy ma’nolarining ba’zilari dolzarb ahamiyat kasb etib, butun diqqat va e’tibor o‘sha ma’noga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мехрдод Махрийн. Фалсафа аш-шарқ / тарж. Маҳмуд Аълавий. – Қоҳира: Мажлис ал-аъло ли ас-сақофат, 2003. –Б. 208.

2. Миксюк А.С. Историко-культурный контекст и понимание термина “религио” в Авесте // |“Свеча-2013: Религия, религио и религиозност в регионалном и глобалном измерении” Т. 23 / Отв. ред. Е.И.Аринин. – Владимир: ВлГУ, 2013. –С. 142-145.

3. https://decovel.com/page/religion-of-iran https://fa.wikishia.net/view/ایران

4. Древнотюркский словар / Ред.ры В.М.Наделяев, Д.М.Насилов, Э.Р.Тенишев, А.М.Щербак. – Ленинград: Изд-во “Наука”, 1969. –С. 158-160, 360-361. Hikmet T. Türklerin dini tarihçesi. – İstanbul: Özdemir basimevi, 1978. –S. 7-16. Hikmet T. Dinler tarihi araştırmaları. – Ankara: Ankara üniversitesi basimevi, 1973. –S. 5-9. Hikmet T. İslamlıktan önce türklerde tek tanrı inancı. – Ankara: Ankara üniversitesi basimevi, 1980. –S. 3-6. Emel E. İslamiyetten önceki türk kültür tarihi ve islama giriş. – İstanbul: Edebiyat fakültesi matbaası, 1978. –S. 3-9. Abdülkadir İ. Eski türk dini tarihi. – İstanbul:

Milli eğitim basimevi, 1976. –S. 1-15. Osman T. Türk cihan hakimiyeti mefküresi tarihi. – İstanbul: Ötüken, 2021. –S. 70-75.

5. Наджип Э.Н. Уйгурско-русский словар. Ок. 33000 слов. Под ред. Т.Р.Рахимова. – Москва: Изд-во "Сов. Энциклопедия", 1968. –С. 459.

6. Буддизм: Словар / Абаева Л.Л., Андросов В.П., Бакаева Э.П. и др.; Под общ. ред. Жуковский Н.Л. и др. – Москва: "Республика", 1992. –С. 119.

7. Кочеркина В.А. Санскритско-русский словар: Около 30000 слов / Под ред. В.И.Калянова. С приложением "Грамматического очерка санскрита" А.А.Зализняка. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: "Русский язык", 1987. –С. 299. Санскритско-русский учебный словар: Около 4500 слов / Составител Н.П.Лихушина. Мултиязыковой проект Или Франка *www.franklang.ru*. Версия 1.0 от 16.12.04. –С. 77.

8. A Glossary of Philosophical Terms (Embracing all systems of Indian Philosophy). By C.V.Shankar Rau, M.A. – Madras: Tirumalai-Tirupati Devasthanams Press, 1941. –P. 44, 64. Кочеркина В.А. Санскритско-русский словар: Около 30000 слов / Под ред. В.И.Калянова. С приложением "Грамматического очерка санскрита" А.А.Зализняка. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: "Русский язык", 1987. –С. 300-302, 522, 762, 918. Религии мира: словар справочник / Под ред. А.Григоренко. – СПб.: Питер, 2009. –С. 211-212, 218. Санскритско-русский учебный словар: Около 4500 слов / Составител Н.П.Лихушина. Мултиязыковой проект Или Франка *www.franklang.ru*. Версия 1.0 от 16.12.04. –С. 77, 123. Индуизм. Джайнизм. Сикхизм: Словар / Под общ. ред. Албедил М.Ф. и Дубянского А.М. – Москва: Республика, 1996. –С. 180-183, 288-289, 507. Лысенко В.Г. Ранний буддизм: религия и философия. Учебное пособие. – Москва: ИФРАН, 2003. –С. 8-20. Торчинов Е.А. Буддизм: Карманный словар / Прилож. П.В.Берснева. – Санкт-Петербург, 2002. –С. 60-64. Зеленков М.Ю. Мировые религии: история и современност: Учебное пособие. – Москва: Юридический институт МИИТа, 2003. –С. 10, 15-20. Пивоваров Д.В. Философия религии: Учеб. пособие. – Москва: Академический Проект, 2006. –С. 16.

9. Дхаммапада. Пер. с пали, введение и комментарии В. Н. Топорова. Сер. (Памятники литературы народов Востока. Переводы. ИИИ. Библиотҳеса Буддҳиса. ХХХИ.). – Москва: "Издателство восточной литературы", 1960. –С. 29-44. Дхаммапада / Перевод с пали. – Новосибирск: "Согласие", 2003. –С. 31, 34, 43, 45-47. Кочетов А.Н. Буддизм. – Москва: Политиздат, 1968. –С. 32-33. Кеоун Дамен. Буддизм / Пер. с англ. – Москва: Издателство Вес мир, 2001. –С. 38.

10. Баранова З.И., Котов А.В. Русско-китайский словар: Около 40000 слов. – Москва: "Русский язык", 1990. –С. 37, 414.

11. Ҳозим Али Камолиддин. Муъжам муфротад ал-муштарак ас-сомий фи ал-луғат ал-арабиййа. – Қоҳира: Мактаба ал-адаб, 2008. –Б. 177. Рамазон Абдуттаввоб. Фи қоваид ас-сомиййат. – Қоҳира: Мактаба ал-Хонажий, ҳ. 1403/1982. –Б. 412.

12. William Gesenius. Hebrew and english lexicon of the old testament. – London: Oxford at the clarendon press, 1939. –P. 192. Еврейская энциклопедия. Свод знаний о еврействе и его культуры в прошлом и настоящем / Под общ. ред. Л.Каценелсона и Д.Г.Гинцбурга. Т. 7. – С.Петербург: Изд-во Брокгауз-Ефрон, 1910. – С. 203-204.

13. Пилкингтон С.М. Иудаизм / Пер. с англ. Е. Г. Богдановой. – Москва: ФАИР-ПРЕСС, 1998. –С. 5-25. Вихнович В.Л. Иудаизм. – С.Петербург: Питер, 2006. – С. 119, 157.

14. Энциклопедия иудаизма "Меир натив" / Сост. Шломо-Залман Ариэл, пер. с иврита А. Кидерман, под. общ. ред. Моше Барселла. – Иерусалим: Амана; Массада, 1983. –С. 174-175. Mehmet Aydın. Dinler tarihine giriş. – Konya: Damla ofset, 2008. –B. 12.

15. Еврейская энциклопедия. Свод знаний о еврействе и его культуры в прошлом и настоящем / Под общ. ред. Л.Каценелсона и Д.Г.Гинцбурга. Т.1. – С.Петербург: Изд-во Брокгауз-Ефрон, 1908. – С. 115. Еврейская энциклопедия. Свод знаний о еврействе и его культуры в прошлом и настоящем / Под общ. ред. Л.Каценелсона и Д.Г.Гинцбурга. Т.16. – С.Петербург: Изд-во Брокгауз-Ефрон, 1913. – С. 238-239. Русско-еврейский (идиш) словар: 40 000 слов. Р.Я.Лернер, Е.Б.Лойцкер, М.Н.Майданский, М.А.Шапиро. – 2-е изд., стереотип. – Москва: Русский язык, 1989. –С. 485.

16. Louis Costaz, S.J. Dictionnire syriaque-francais syriac-english dictionary. Qomus siryaniy-arabiy. – Beyrouth: Dar el-machreq, 2002. –P. 60. Ҳозим Али Камолиддин. Муъжам муфротад ал-муштарак ас-сомий фи ал-луғат ал-арабиййа. – Қоҳира: Мактаба ал-адаб, 2008. –Б. 177. William Gesenius. Hebrew and english lexicon of the old testament. – London: Oxford at the clarendon press, 1939. –P. 192.

17. Латинско-русский и русско-латинский лексикон с полным объяснением свойств и значений каждого слова / Составил И.Кронеберг. – 7-е изд. – Москва: Типография С.Селиванскаго, 1870. –С. 411-412. Философский словар: Логика, психология, этика, эстетика и история философии / Под ред. Э.Л. Радлова. – С.-Петербург: Типография Акц. Общ. Брокгауз-Ефрон, 1911. –С. 226. Латинско-русский словар приспособленный к гимназическому курсу / Составил Г.Шулц. – 12-е изд. – С.-Петербург: Типография Тренке и Фюсно, 1912. –С. 470-471. Философский словар: Логика, психология, этика, эстетика и история философии / Под ред. Э.Л. Радлова. Изд. 2-е испр. и доп. Изд.

Г.А.Лемана. – Москва: Типография "Я.Данкин и Я.Хомутов", 1913. –С. 543-544. Латинско-русский словарь / Составил О.Петрученко. – 9-е изд., исп. – Москва: Издание Товарищества "В.В.Думнов, Наследники Бр.Салаевых", 1914. –С. 546-547. Дворецкий И.Х. Латинско-русский словарь. Около 50 000 слов. Изд. 2-е, переработ. и доп. – Москва: "Русский язык", 1976. –С. 865-866. Бенвенист Э. Словар индоевропейских социалных терминов: Пер. с фр. / Общ. ред. и вступ. ст. Ю.С.Степанова. – Москва: Прогресс-Универс, 1995. –С. 394. Латинско-русский словообразователный словар: Ок. 20000 слов / Авт.-сост. Г.Вс.Петрова. – Москва: ООО "Изд-во Оникс": ООО "Изд-во "Мир и Образование", 2008. –С. 296.

18. Латинско-русский и русско-латинский лексикон с полным объяснением свойств и значений каждого слова / Составил И.Кронеберг. – 7-е изд. – Москва: Типография С.Селиванскаго, 1870. –С. 411-412. Философский словар: Логика, психология, этика, эстетика и история философии / Под ред. Э.Л. Радлова. – С.-Петербург: Типография Акц. Общ. Брокгауз-Ефрон, 1911. –С. 226. Латинско-русский словар приспособленный к гимназическому курсу / Составил Г.Шулц. – 12-е изд. – С.-Петербург: Типография Тренке и Фюсно, 1912. –С. 470-471. Философский словар: Логика, психология, этика, эстетика и история философии / Под ред. Э.Л. Радлова. Изд. 2-е испр. и доп. Изд. Г.А.Лемана. – Москва: Типография "Я.Данкин и Я.Хомутов", 1913. –С. 543-544. Латинско-русский словар / Составил О.Петрученко. – 9-е изд., исп. – Москва: Издание Товарищества "В.В.Думнов, Наследники Бр.Салаевых", 1914. –С. 546-547. Дворецкий И.Х. Латинско-русский словар. Около 50 000 слов. Изд. 2-е, переработ. и доп. – Москва: "Русский язык", 1976. –С. 865-866.

19. Настолный энциклопедический словар. Т.7. – Москва: Т-во скоропечатни А.А.Левенсон, 1896. –С. 4226. Болшая энциклопедия / Под ред. С.Н.Южакова. Т.16. – С.-Петербург: Книгоиздателское т-во "Просвещение", 1904. –С. 252. Новая философская энциклопедия: В 4 т./Ин-т философии РАН, Нац. общ.-науч. фонд; Научно-ред. совет: предс. В.С.Степин, заместители предс.: А.А.Гусейнов, Г.Ю.Семигин, уч. секр. А.П.Огурцов. Т.3. – Москва: Мысл, 2010. –С.436-437. Аринин Е.И. Философия религиозности. Академические введение в основные концепции и термины: монография / Е.И.Аринин, Н.М.Маркова; Владим. Гос. ун-т. – Владимир: Изд-во Владим. гос ун-та, 2010. –С. 6-7.

20. Болшая энциклопедия / Под ред. С.Н.Южакова. Т.16. – С.-Петербург: Книгоиздателское т-во "Просвещение", 1904. –С. 252.

21. Августин Б. Об истинной религии. Теологический трактат. – Минск: Харвсст, 1999. –С. 514-515. История религий / Митрополит Иларион (Алфеев) – Глава 1; Протоиерей Олег Корытко – Введение, главы 2-9; Протоиерей Валентин Васечко – Раздел "Инославие". – Москва: Общецерковная аспирантура и докторантура им. Святых равноапостолных Кирилла и Мефодия, 2016. –С. 6-7. Пивоваров Д.В. Философия религии: в 3 т. Т.1. : Онтология религии: [учеб. пособие] / Д.В.Пивоваров. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2012. –С. 27-28.

22. Бенвенист Э. Словар индоевропейских социалных терминов: Пер. с фр. / Общ. ред. и вступ. ст. Ю.С.Степанова. – Москва: Прогресс-Универс, 1995. –С. 394.

23. Латинско-русский и русско-латинский лексикон с полным объяснением свойств и значений каждого слова / Составил И.Кронеберг. – 7-е изд. – Москва: Типография С.Селиванскаго, 1870. –С. 411-412.

24. Буткевич Т.Ю. Религия, её сущност и происхождение (Обзор философских гипотез). Книга 1. – Харков: Типография Губернского Правления, 1902. –С. 3.

25. Дворецкий И.Х. Латинско-русский словар. Около 50 000 слов. Изд. 2-е, переработ. и доп. – Москва: "Русский язык", 1976. –С. 865-866.

26. Латинско-русский словар / Составил О.Петрученко. – 9-е изд., исп. – Москва: Издание Товарищества "В.В.Думнов, Наследники Бр.Салаевых", 1914. –С. 546-547.

27. Этимологический словар русского язка / Составил А.Преображенский. Т. 2. П – С. – Москва: Типография Г.Лисснера и Д.Совко, 1910-1914. –С. 195. Энциклопедицеский словар. Т. 26 А. – С.Петербург: Типография Акц. Общ. "Издат. дело, бывшее Брокгауз-Ефрон", 1899. –С. 539. Краткий латинско-русский богословский словар / Составил С.Тышкевич. – Hew Ёрк: Руссиан Сентер, Фордхам Университй, 1954. –С. 103.

28. Философский словар: Логика, психология, этика, эстетика и история философии / Под ред. Э.Л. Радлова. – С.-Петербург: Типография Акц. Общ. Брокгауз-Ефрон, 1911. –С. 225. Философский словар: Логика, психология, этика, эстетика и история философии / Под ред. Э.Л. Радлова. Изд. 2-е испр. и доп. Изд. Г.А.Лемана. – Москва: Типография "Я.Данкин и Я.Хомутов", 1913. –С. 543.

29. Греческо-русский словар Нового Завета: Пер. Краткого греческо-английского словаря Нового Завета Баркли М.Нюмана. – Москва: Российское Библейское общество, 2008. –С. 104. Древнегреческо-русский словар / Составил И.Х.Дворецкий. Т. 1. – Москва: Гос. изд-во иностр. и нац. словарей, 1958. –С. 796. Феномен религии в конфликте интерпретатсий: коллектив. моногр. / под ред. д-ра филос. наук, проф. Е.И.Аринина; Владим. го. ун-т им. А.Г. и Н.Г.Столетовых. – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2015. –С. 27.

30. Нилссон М. Греческая народная религия. – С.Петербург: "Алетейя", 1998. –С. 5-30. Бенвенист Э. Словар

индоевропейских социалных терминов: Пер. с фр. / Общ. ред. и вступ. ст. Ю.С.Степанова. – Москва: Прогресс-Универс, 1995. –С. 394-395.

31. Дал В. Толковый словар живого великорусского языка Т. 4. – С.Петербург-Москва: Издание книгопродавца-типографа М.О.Волфа, 1882. –С. 91.

32. Словар иностранных слов современного русского языка / Составител Т.В.Егорова. – Москва: “Аделант”, 2014. –С. 570.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

G‘ulomjonov Odiljon Raximjon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi

TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA OILA INSTITUTINING O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yilda qabul qilingan “Yangi O‘zbekiston-2026” taraqqiyot strategiyasi mamlakatning barqaror rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda oila institutining mustahkamlanishi alohida o‘rin tutadi. Oila, jamiyatning eng muhim ijtimoiy tuzilmasi sifatida, taraqqiyotning barqaror omili va insoniy munosabatlarning asosiy negizi bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi oilaning barqarorligini oshirish, ijtimoiy qadriyatlarini saqlash va zamonaviy global tahdidlarga moslashish masalalarini o‘z ichiga oladi. Maqolada oila institutining aynan taraqqiyot strategiyasidagi o‘rni va roli haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *oila, oila instituti, jamiyat, taraqqiyot strategiyasi.*

Гуломжонов Одилжон Рахимжон угли
Андижанский государственный университет Стажер-исследователь

РОЛЬ И РОЛЬ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ

Аннотация: *В данной научной статье рассматривается, как после обретения Узбекистаном независимости в социальной, политической и экономической сферах осуществляются широкомасштабные реформы. В частности, Стратегия развития "Новый Узбекистан-2026," принятая в 2022 году, направлена на устойчивое развитие страны, в которой особое место занимает укрепление института семьи. Семья, как важнейшая социальная структура общества, служит устойчивым фактором развития и основой человеческих отношений. Поэтому Стратегия развития Нового Узбекистана включает в себя вопросы повышения стабильности семьи, сохранения социальных ценностей и адаптации к современным глобальным вызовам. В статье рассматривается место и роль института семьи именно в контексте стратегии развития.*

Ключевые слова: *семья, институт семьи, общество, стратегия развития.*

Gulomzhonov Odiljon Rakhimzhon uglu
Andijan State University Trainee-researcher

ROLE AND ROLE OF THE FAMILY INSTITUTE IN DEVELOPMENT STRATEGY

Annotation: *In this scientific article, discusses the comprehensive reforms implemented in social, political, and economic spheres since Uzbekistan gained independence. Notably, the "New Uzbekistan-2026" development strategy, adopted in 2022, aims at the country's sustainable development, with a special emphasis on strengthening the institution of family. The family, as society's most crucial social structure, serves as a stable factor of development and the primary foundation of human relations. Consequently, the New Uzbekistan development strategy addresses issues of enhancing family stability, preserving social values, and adapting to modern global challenges. The article explores the specific role and place of the family institution within this development strategy.*

Keywords: *family, family institute, society, development strategy.*

Kirish.

O‘zbek jamiyatining ijtimoiy tuzilmasida oila doimo markaziy o‘rinni egallab kelgan. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot modeli oilani faqatgina shaxsiy yoki xususiy muassasa emas, balki jamiyatning asosiy negizi sifatida ko‘radi. Oila nafaqat demografik rivojlanishning garovi, balki milliy qadriyatlarning asosi sifatida ham e’tirof etiladi. Ma’naviy tarbiya jarayonida oila institutining roli kuchaytirilishi ta’kidlangan bo‘lib, bu mamlakatning uzoq muddatli strategik barqarorligini ta’minlashda muhim hisoblanadi.

Oilaning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi jamiyatning umumiy farovonligi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, hukumat oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish, oilaviy munosabatlarni muhofaza qilish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo‘yicha

keng qamrovli dasturlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, mahalla va oila masalalariga oid maxsus davlat dasturlari orqali oilaviy mustahkamlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi kengaytirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. G‘.Shoumarov va SH.Shoumarovlarning “Muhabbat va oila”[23] asarlarida oilaning quyidagi funksiyalari: reproduktiv iqtisodiy – xo‘jalik, tarbiya, kommunikativ, dam olishni to‘g‘ri tashkil etish ko‘rsatilgan xolos. N.Saydaliyevaning tadqiqotida oilaning an’anaviy funksiyalari: reproduktiv, tarbiyaviy, xo‘jalik yuritish, iqtisodiy, nazorat qilish, o‘z mavqeiga ega bo‘lish, dam olishni to‘g‘ri tashkil etish, emotsional, yoshlarni jinsiy hayotga tayyorlashlarga bo‘lingan[24].

Bugungi globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarga tahdid soluvchi turli ijtimoiy va axborot xurujlariga qarshi ma’rifiy targ‘ibot ishlari kuchaytirilib, yosh avlodni axborot xurujlaridan himoya qilish choralari ko‘rilmoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan oilaviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan zararli kontentga qarshi kurashish strategiyasi ishlab chiqilgan. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, oila instituti jamiyatning eng qadimgi va barqaror tuzilmalaridan biri bo‘lib, u insoniy munosabatlarning eng asosiy shakllaridan birini tashkil etadi. O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot modeli oilani jamiyatning markaziy elementi sifatida ko‘rib, uni rivojlantirishni milliy taraqqiyot konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilaydi.

Oila institutini ijtimoiy falsafa kontekstida tahlil qilganda, uning quyidagi asosiy jihatlari ajralib turadi:

Oila ijtimoiy tizim sifatida insoniy qadriyatlarning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Oila inson axloqiy tamoyillarini rivojlantiradigan muhit bo‘lib, uning rivojlanishi milliy identifikatsiyani mustahkamlash bilan bog‘liq.

Oila iqtisodiy taraqqiyotning muhim subekti sifatida jamiyatdagi resurslar taqsimotida muhim rol o‘ynaydi.

Oila jamiyatning huquqiy va ijtimoiy tizimlari orqali muhofaza qilinishi zarur bo‘lgan muhim institutlardan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila institutining ahamiyati jamiyatning barqaror rivojlanishi, madaniy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash va davlat barqarorligini ta’minlash kabi dolzarb masalalar bilan bog‘liq. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan olib qaraganda, oila instituti nafaqat shaxsiy hayotning, balki butun jamiyatning sotsial-iqtisodiy rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi. Shu boisdan, davlat tomonidan oilani mustahkamlash, uning huquqiy va iqtisodiy himoyasini ta’minlash strategik ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ushbu masalalar bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti jamiyatning fundamental elementi sifatida talqin qilinib, ijtimoiy barqarorlik, milliy qadriyatlarning saqlanishi hamda demografik va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi. Mazkur strategiya doirasida oilaning huquqiy maqomini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda gender tengligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti milliy taraqqiyotning asosiy ustunlaridan biri sifatida qaraladi. Oila nafaqat jamiyatning eng muhim ijtimoiy-huquqiy birligi, balki inson kapitalini shakllantirish, ma’naviy qadriyatlarni uzatish, iqtisodiy va demografik barqarorlikni ta’minlashning markaziy instituti sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, oila jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning tahlili Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila institutining markaziy o‘rin tutishini anglatadi.

Tahlil va natijalar.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti jamiyatning asosiy poydevori sifatida e’tirof etilib, uning mustahkamligi va rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Oila nafaqat shaxsning kamol topishi, balki jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Oila institutining mustahkamligi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, milliy taraqqiyot va madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazishning asosi hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotida oilaning ahamiyati shundaki, u insonning dunyoqarashi, axloqiy va intellektual qobiliyatlarini shakllantiruvchi muhit bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi ham aynan oilaning mustahkamligiga bog‘liq. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish, unga psixologik, ma’naviy va moddiy ko‘mak berish orqali jamiyatning ijtimoiy poydevorini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada davlat tomonidan oilalarning ijtimoiy muammolarini hal etish, farovonlikni ta’minlash va oilalarni psixologik himoya qilishga oid keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Oila institutining barqarorligi uchun er-xotin munosabatlarining psixologik, axloqiy va ijtimoiy uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Nikohdagi muvaffaqiyatsizliklar ko‘pincha er-xotinning shaxsiy fazilatlari va qadriyatlarining mos kelmasligi bilan bog‘liq

mafkura. Iskandar (Aleksandr) yurishlari davrida paydo bo‘lgan. Uyg‘onish va Ma’rifatchilik davrlarida jahon fuqaroligi ideali olg‘a surilib (Dante, Kampanella), individning zamindor boylar zulmidan ozod bo‘lish g‘oyasini (Lessing, Gyote, Shiller, Kant, Fixte) ifodalagan. Kosmopolitizm milliy an

bo‘lib, oilaviy tarbiyaning muhim jihatlari sifatida tarbiya, madaniy saviya, o‘zaro hurmat va ishonchning yetarli darajada shakllanmaganligi muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularning psixologik va huquqiy savodxonligini oshirish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va yosh avlodni intellektual jihatdan yetuk qilib tarbiyalash masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, yoshlarning axborot-psixologik immunitetini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, milliy tarbiya tamoyillariga asoslangan tarbiya tizimini rivojlantirish kabi vazifalar strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Internet va ommaviy axborot vositalarining ta’siri ortib borayotgan bir davrda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularning axloqiy immunitetini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Al-Buxoriy hadislarida muloyimlik haqida quyidagilarni yozadi: “Muloyim bo‘l, kimda muloyimlik bo‘lsa, xusn va kamolotga erishadi va kimda muloyimlik xislati bo‘lmasa u aybli va nuqsonli bo‘ladi”[25].

Shunday qilib, O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti ijtimoiy barqarorlik va axloqiy yetuklikning asosi sifatida e’tirof etiladi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va strategik qarorlar oilaning mustahkamligi va jamiyatda uning mavqeini oshirishga qaratilgan. Oila ijtimoiy institut sifatida shaxsni ijtimoiylashtirish, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va milliy o‘ziga xoslikni saqlash jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, O‘zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyalari doirasida oila institutini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar jamiyat barqarorligining mustahkam poydevorini yaratish va milliy taraqqiyotning izchil davom ettirilishini ta’minlashga xizmat qiladi[26].

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti jamiyatning fundamental asosi sifatida qaralib, uning mustahkamligi ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy taraqqiyot hamda inson kapitalining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida oilaning jamiyatdagi markaziy o‘rni tobora mustahkamlanib, u davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, oila institutining ahamiyati nafaqat shaxsiy rivojlanish va sotsializatsiya jarayoni bilan cheklanmay, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy barqarorligi va taraqqiyotining uzluksizligini ta’minlash mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Xuloa.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oila instituti nafaqat ijtimoiy tuzilma sifatida, balki jamiyatning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida ham e’tirof etilmoqda. Uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish jarayonlaridagi o‘rni tobora ortib, milliy mafkura, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy birlikni mustahkamlash vositasi sifatida davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu esa jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishini ta’minlovchi muhim strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shaumarov B.B., Shoumarov Sh.B. “Muhabbat va oila”. - Toshkent: ibn sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1994, 31-47 betlar.
2. Saydalimeva N. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy – falsafiy muammolarni: Falsafa fan kand.dis. avtoref. - Toshkent: O‘z M-U, 2005, 12-13 betlar.
3. Imom Ismoil Al-Buxoriy. Ad-adab. Al – mufrad (odob durdonalari). T.: O‘zbekiston, 1990. 137-b.
4. Mahkamov U. Ahloq odob saboqlari. – T.: Fan, 1994, 115-b.

’ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga — bevatanlikka da’vat etadi.

[25] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т: Ўзбекистон, 2021. 305-б.

[25] Thompson, William R. (2001). "Identifying Rivals and Rivalries in World Politics". *International Studies Quarterly* **45** (4): 557–586. doi:10.1111/0020-8833.00214. ISSN 0020-8833

[25] Michael Brecher. *The world of protracted conflicts*, May 26, 2016 — 11-bet. ISBN 978-1-4985-3188-7. OCLC 1253439132. ; citing *Gary Goertz; Paul F. Diehl (June 1993). „Enduring Rivalries: Theoretical Constructs and Empirical Patterns“. 37-jild, № 2. 147–171-bet.*

[25] Michael Brecher. *The world of protracted conflicts*, May 26, 2016 — 11-bet. ISBN 978-1-4985-3188-7. OCLC 1253439132

[25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 26-fevral kuni “xotinqizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari” muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.

[25] Ijtimoiy fikr-inson huquqlari, 2016. № 4. B-77-78.

[25] Рўзиев Р. Аёл ва жамият // Фалсафа ва ҳуқуқ. –2009. № 1. —Б. 2

[25] https://www.morasha.com.br/en/diaspora-communities/Jewish-life-in-Uzbekistan.html

[25] Shaumarov B.B., Shoumarov Sh.B. “Muhabbat va oila”. - Toshkent: ibn sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1994, 31-47 betlar.

[25] Saydalimeva N. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy – falsafiy muammolarni: Falsafa fan kand.dis. avtoref. - Toshkent: O‘z M-U, 2005, 12-13 betlar.

[25] Imom Ismoil Al-Buxoriy. Ad-adab. Al – mufrad (odob durdonalari). T.: O‘zbekiston, 1990. 137-b.

[26] Mahkamov U. Ahloq odob saboqlari. – T.: Fan, 1994, 115-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xojiyev Tunis Nurkosimovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
karfagen_87@mail.ru

IJTIMOIY RIVOJLANISHNING IJTIMOIY VA MADANIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada modernizatsiya dasturini amalga oshirishda ijtimoiy-madaniy omillarning roli bosqichli model doirasida qanday tushunilishini aniqlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada modernizatsiyaga to‘siq bo‘ladigan yoki uni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy hodisalar aniqlangan. Keltirilgan farazlarni tasdiqlash hamda tilga olingan muammolarni yoritish uchun nafaqat an’anaviy musulmon jamiyatlari, balki boshqa Osiyo mamlakatlari, AQSh va MDH mamlakatlari tajribasidan ham foydalaniladi.*

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, sotsio-madaniy muhit, modernizatsiya modellari, quvib yetuvchi modernizatsiya modeli, siyosiy modernizatsiya.*

Хожиев Тунис Нуркосимович
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
доцент кафедры Юридические науки факультета социальных наук, доктор философии (PhD)

СОЦИАЛЬНЫЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос о том, как понимается роль социокультурных факторов в реализации программы модернизации в рамках поэтапной модели. Также в статье выявлены специфические социокультурные явления, которые препятствуют модернизации или способствуют ей. Для подтверждения выдвинутых гипотез и освещения упомянутых проблем используется опыт не только традиционных мусульманских обществ, но и других азиатских стран, США и стран СНГ.*

Ключевые слова: *модернизация, социальное развитие, социокультурная среда, модели модернизации, модель догоняющей модернизации, политическая модернизация.*

Khojiyev Tunis Nurkosimovich
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Associate Professor of the department “Legal Sciences” of the faculty of Social Sciences, doctor of philosophy (PhD)

SOCIAL AND CULTURAL FOUNDATIONS OF SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation. *This article examines how the role of socio-cultural factors in implementing the modernization program is understood within the framework of a staged model. The article also identifies specific socio-cultural phenomena that either hinder or support modernization. To validate the presented hypotheses and shed light on the mentioned issues, the study draws upon the experiences of not only traditional Muslim societies but also other Asian countries, the United States, and CIS countries.*

Keywords: *modernization, social development, socio-cultural environment, modernization models, overtaking modernization model, political modernization.*

Kirish.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida kuzatilayotgan siyosiy inqirozlar, qaysidir ma’noda global iqtisodiy inqirozlarning ham belgilarini ham namoyon qilmoqda. Shu davrgacha ijtimoiy taraqqiyot uchun qaysidir rivojlanish modelini tanlab shu asosda belgilangan ishlarni bajarish rivojlanishning kafolati sifatida qarash tendensiyasi mavjud edi. Ammo XX asr boshidan ijtimoiy taraqqiyotning asosi sifatida boshqa omillar ham mavjudligi borasidagi nazariyalar ham kun tartibiga chiqa boshladi. Daron Adjemoglu va Djeyms Robinson o‘zlarining “Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty” o‘zbek tiliga “Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag‘allik manbalari” deb tarjima qilingan kitobida davlatlar taraqqiyoti ushbu davlatlardagi iqtisodiy va siyosiy

institutlarning samaradorligiga bog‘liqligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Ushbu mualliflarning “Tor yo‘lak: davlat, jamiyat, ozodlik taqdiri” nomli kitobini to‘ldirishga xizmat qiluvchi maqolasida “istalgan tipdagi yangi qiyofa kasb etayotgan mamlakatdagi davlat va jamiyat munosabatlarini tushunishda madaniyatning rolini hisobga olmaslik mumkin emas. Zero, madaniyat biror bir rejimning legitimlashuvida muhim rol o‘ynaydi”, - deb yozadi. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan ushbu nazariya aynan XX asr oxiridan boshlab, nima uchun avtoritar davlatlarda modernizatsiya muvaffaqiyatga erishmaganligi borasidagi tadqiqotlar natijalarida shakllangan edi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G‘arb davlatlarining sobiq mustamlaka va yarim mustamlakalarini qamrab olgan transformatsiya jarayonlari G. Almond, R. Aron, D. Bell, S. Blek, S. Verba, E. Giddens, M. Levi, D. Lerner, V. Rostou, T.Parsons, P.Berger, R. Inglehart, N. Smelser, S. Xantington, V. Zapf, P.Shtompka, S.Eyzenshtadt kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, Modernizatsiyalarning ko‘p qirraligi nazariyasi S. Eyzenshtadt, P. Stompka, E.Tiriakyan va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan P. Sztompka o‘z asarlarida modernizatsiya jarayoni bilan birga keladigan harakatlar va holatlarning xilma-xilligi va tasodifiyligi haqida tushuncha beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Ijtimoiy-madaniy muhitning yorqin va g‘oyaviy ta’rifini D. Bek va K.Kovan o‘z ishlarida shunday keltiradi: “Har qanday madaniyat - xoh korporativ, xoh ijtimoiy bo‘lsin - uning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi qarashlar majmuasiga ega. Bular shunday o‘z-o‘zini quvvatlovchi tamoyillar, me’yorlar, farazlar va e’tiqodlarki, jamoadagi aksariyat odamlar ularni “shubhasiz” deb biladi. Ushbu nuqtalar atrofida o‘z aylanish momentiga ega g‘ildiraklar aylanadi. Bir marta tezlashgach, bu g‘ildiraklarni harakat yo‘nalishini o‘zgartirish, ayniqsa to‘xtatish juda mushkul. Ularning quvvati tegishli har narsaga o‘tadi. Bu quvvat bosma ko‘rinishda namoyon bo‘lishi, xodimlar yig‘ilishlarida baland ovozda e’lon qilinishi yoki shaxsiy suhbatlarda norasmiy tarzda uzatilishi mumkin. Har qanday holatda ham, g‘ildiraklar odamlarni klanlar, klublar va korporativ oilalarga birlashtiruvchi unutilmas voqealar va asosiy e’tiqodlar atrofida aylanadi”[1].

Shunday ekan ijtimoiy-madaniy muhitning omillari sifatida uning muhim holatlarini, xoh mavhum bo‘lsin, xoh faqat biror narsaga nisbatan dolzarb bo‘lsin, hisobga olish lozim bo‘ladi. Diniy e’tiqodlar, hukmronlik qilayotgan qonuniylik turi, shaxsiy tadbirkorlik faoliyatiga intilish va hokazolar shular jumlasidandir. Shuni ta’kidlash joizki, tadqiqot maqsadlariga ko‘ra, deyarli har qanday ijtimoiy-madaniy omil yirikroq omilning tarkibiy qismi yoki kichikroq omillar majmui sifatida taqdim etilishi mumkin.

Jahon sivilizatsiyalarining o‘zaro ta’sirining uzoq tarixiga qaramay, turli jamiyatlarning siyosiy madaniyatlari hamon yorqin, ba’zida juda keskin xususiyatlarni saqlab qolmoqda. Siyosiy madaniyatlar o‘ziga xosligining ta’siri nafaqat kundalik hayotda, balki ma’lim jamiyatning o‘zida, siyosiy voqelikning mohiyatiy xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Bir jamiyatda jamoaviy qaror qabul qilish an’anasi mavjud bo‘lsa, boshqasida bu huquq yakka rahbarga topshiriladi. Ayrim siyosiy an’analar siyosiy jarayonni iloji boricha oqilonalashtirishga intilsa, boshqalari unga muqaddas, o‘zgarmas xususiyatlar beradi. Shu bois, aniq pragmatik yo‘nalishga ega bo‘lgan jamiyat, ma’naviy qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan jamiyatga qaraganda, ichki o‘zgarishlarga boshqacha munosabat bildiradi. Bugungi kunda G‘arb mamlakatlarida demokratiya barqaror siyosiy an’ana shaklini olgan bo‘lib, shu tufayli ular ijtimoiy o‘zgarishlarga osonroq moslashadi va nizolarni kundalik tartibda hal etadi.

Tadqiqotchi T.A.Alekseeva modernizatsiya tushunchasi betaraf xususiyatga ega emas, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu tushuncha taraqqiyot g‘oyasidan kelib chiqib, rivojlanish yo‘nalishini nazarda tutadi va barcha jamiyatlarni shu asosda tasavvurdagi shkalada joylashtirishni taqozo etadi. Ba’zi jamiyatlarning orqada qolishi va boshqalarning yetakchilikka erishishi sababi “zamonaviylik” holatining ratsionallik darajasi, jamoaviylik, tadbirkorlik an’analari kabi universal xususiyatlari bilan izohlanadi. Shunday qilib, aynan “noto‘g‘ri madaniyat” rivojlanayotgan mamlakatlarga sezilarli yutuqlarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda[2]. Boshqa bir rossiyalik tadqiqotchi S.A.Pankratov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bunday qarash asosan siyosiy modernizatsiya konsepsiyasi rivojlanishining birinchi bosqichidagi ishlarga xos bo‘lgan[3].

Bizning fikrimizcha, “modernizatsiya”ga bunday qat’iy baho berish to‘g‘ri emas. Konsepsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra milliy hamjamiyatlarning (avvalo, ularning elitasining) bugungi kunda G‘arb mamlakatlariga xos barqarorlik va farovonlikka qanday erishish mumkinligi haqidagi savoliga javob berishni nazarda tutadi. Muayyan nazariy sxemaga amal qilish majburiyatini olgan holda, mahalliy an’analarni G‘arbga xos deb hisoblangan an’analar bilan yaxshi yoki yomon toifalarida taqqoslashdan voz kechish va faqat maqsadga muvofiqlikka e’tibor qaratish muhimdir. Jahon tarixi shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich bosqichda mutlaqo ahamiyatsiz tuyulgan islohotlar uzoq kelajakda ulkan o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin[4]. Bugungi kunda shuni aniq aytish

mumkinki, hatto majburiy modernizatsiya ham boshidan oxirigacha mahalliy sharoitda shakllantirilishi lozim.

An'anaviy islomiy me'yorlar va siyosiy amaliyotlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan arab-musulmon madaniyati qadriyatlari ustuvor bo'lgan agrar jamiyatning jamoaviy tuzilmalari ta'sirida shakllangan. Ushbu voqelikning asosiy xususiyatlari siyosiy-diniy elitalarning uzluksiz hukmronligi, shaxsiy hayotni tashkil etishda jamoaviylikning yaqqol ustunligi, faol individual iqtisodiy faoliyatning rag'batlantirilmasligi hamda xususiy mulkning kafolatlanmagan himoyasi sharoitida shakllandi.

Daniel Paypsning fikricha, islom dini yetarli darajada islohotchilik salohiyatiga ega emas va jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashga qodir emas. Bundan tashqari, D.Payps islom dini ko'p sohalarda tabiiy ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'ladi deb hisoblaydi, xususan, uning nazarida, u zarur maishiy va ilmiy ratsionalizmga yo'l qo'ymaydi. Modernizatsiya jarayonining rivoji to'g'ridan-to'g'ri sekulyarizatsiya va antiklerikalizm bilan bog'liq bo'lib, bularsiz zamonaviy siyosiy institutlar samarali ishlay olmaydi. Munosabatlarning barcha darajalarida xalqaro muloqotga, amaliyotga yo'naltirilgan kuchli erkin ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. D.Payps madaniy qarama-qarshilik muammosini hal qilishning eng yaxshi yo'li sifatida islomdan butunlay voz kechishni emas, balki uni o'z ichidan isloh qilishni ko'radi[5].

Malayziyaning taniqli davlat arbobi Mahatxir Muhammad bu masalada boshqacha fikrni bildiradi. U 2003 yilda Islom konferensiyasi tashkiloti sessiyasida so'zlagan nutqida musulmonlarning texnologik qoloqligi Islomning o'zi bilan emas, balki ta'limotni asl ma'nosiga zarar yetkazgan holda so'zma-so'z tushunish bilan bog'liqligini ta'kidlagan edi: "Darhaqiqat, Alloh bir qavmning ahvolini o'zgartirmaydi, toki ular o'zlarini o'zgartirmagunlaricha"[6].

An'anaviy jamiyatlarning yana bir muammosi ijtimoiy tengsizlikning hamma joyda mustahkamlanganligidir. Bu yerda shaxs va hokimiyat o'rtasida vositachi bo'lishi zarurati paydo bo'ladi, hokimiyatning qonuniyligi esa Xudo tomonidan kafolatlanadi. Hokimiyatning to'liq vertikal tizimida vijdonli insondan so'zsiz itoatkorlik va mavjud g'oyalarni quyi bosqichlarga yetkazish talab etiladi. Ushbu ijtimoiy-siyosiy tizimning zaif tomonlari avtoritarizmga moyillik, rivojlangan ijtimoiy imkoniyatlarning yo'qligi, murakkab va g'ayritabiiy inqirozlar sharoitida tizimning mo'rtligidir. Bunday inqirozlar natijasida mavjud tizimning qonuniyligi buziladi, o'zgarishlar esa tizim ishlashini saqlab qolishning yagona yo'li bo'lib ko'rinadi. Aynan shunday sharoitda umumiy tarzda G'arb va Sharq deb ataluvchi qadriyatlarning ishonchli uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Masalan, Yaponiyaning texnologik va iqtisodiy yutuqlari, ayniqsa, urushdan keyingi okkupatsiyaning ijtimoiy-madaniy va siyosiy oqibatlari bu mamlakatda siyosiy madaniyat va liberal-demokratik qadriyatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. G'arb amaliyotlarini o'ziga xos madaniy zaminga singdirishning yuzaki tajribasi mavjud bo'lsa, global ijtimoiy-madaniy bo'linish yuz beradi. Bu ko'pincha elita va jamiyatning quyi qatlamlari qadriyatlarining qarama-qarshiligida hamda o'rta sinf vakillarining ular o'rtasidagi ikkilanishlarida namoyon bo'ladi.

An'anaviy jamiyatlar alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat shundan iboratki, ularda fuqarolarning ko'pchiligi madaniy jihatdan farq qiladigan ayrim fuqaro jamoalarining modernizatsiyaga muhtojligidir. Bu AQShdagi afro va lotin amerikaliklarga, Yevropadagi shimoliy afrikaliklarga va, shubhasiz, ba'zi davlatlardagi musulmon aholi yashaydigan hududlaridagi ko'pchilik aholiga qisman taalluqlidir. Sanab o'tilgan jamoalarning madaniy ajralishi ularning tarixan ustun bo'lgan Yevropa madaniyati doirasida to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Aynan shu o'rinda turli ibratli shaxslar va hayot tarzining namunaviy modellarini eslatish o'rinli. Ta'kidlash joizki, bu yerda doimiy ravishda o'zaro ta'sir etuvchi bir nechta yo'nalishlar mavjud. Ushbu masala doirasida eng chuqur o'rganilgani Qo'shma Shtatlar tajribasidir. 1960 yillarning birinchi yarmida deyarli bir vaqtning o'zida bir nechta g'oyaviy jihatdan farqlanuvchi guruhlar mamlakatning qora tanli aholisi huquqlari uchun kurashni boshladilar. Bu harakatga Tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori Martin Lyuter King, "Islom millati" tashkiloti yetakchilaridan biri Malkolm Iks va boshqa taniqli shaxslar qo'shildi. Ayni shu sharoitda AQShning birinchi qora tanli ayol davlat kotibi Kondoliza Rays haqidagi kitobda ifodalangan tendensiyadan ilhomlangan qarshi yo'nalish paydo bo'ldi. K.Raysning otasi uni "Boshqalardan ikki baravar yaxshi bo'l, shunda maqsadingga erishasan" degan shioriga asoslangan murosasiz individualizm ruhida tarbiyalagan edi[7]. Shunday qilib, qirq yil o'tgach, afro-amerikaliklar o'z irqiy farqlarini ta'kidlash yoki ta'kidlamaslik, agar ta'kidlashni tanlasa, qay darajada ta'kidlash haqida qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ko'p hollarda iqtisodiy muvaffaqiyatining tabiati aynan shu qarorga bevosita bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda ma'lumki, afro-amerikaliklar o'z farzandlariga oq tanli amerikaliklarga nisbatan ancha g'ayrioddiy ismlarni ko'proq qo'yishadi[8].

Samyuel Xantington o'zining so'nggi yirik asarida Amerika milliy o'zligiga bo'lgan tahdidlarni ko'rib chiqqan. Uning fikricha, bunday tahdidlardan biri musulmonlarning g'ayrimuslim jamiyatlar tomonidan qabul qilinishidir[9]. Boshqacha qilib aytganda, musulmon muhojirlarning o'zlari uchun yangi bo'lgan fuqarolik va ijtimoiy amaliyotlarni eng maqbul sharoitlarda o'zlashtira olmasligi yoki o'zlashtirishni xohlamasligidir. Bu holat o'z vatanida sezilarli darajada kamroq madaniy tazyiq va aniq

bo‘lmagan manfaat (ya’ni modernizatsiya) sharoitida ixtiyoriy o‘zgarish g‘oyasining o‘zini shubha ostiga qo‘yadi. S.Xantington keltirilgan tadqiqotlarga ko‘ra, agar imkoniyat bo‘lganida, muhojirlarning 57 foizi va amerikalik musulmonlarning 32 foizi AQShni tark etib, islom mamlakatiga ko‘chib ketgan bo‘lardi[10].

Semyuel Xantington o‘zining endilikda klassik asarga aylangan “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va jahon tartibotini qayta qurish” nomli kitobida G‘arb kengayishining rivojlanayotgan hududlardagi ijobiy roli haqida bir necha bor ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu nog‘arb jamiyatlarda modernizatsiya va g‘arblashtirishning muvaffaqiyatga erishishidagi eng muhim omildir. Shunday qilib, bir qator sabablarga ko‘ra, Yevropa ta’siri ostida bo‘lgan boshqa jamiyatlar turli yo‘llar bilan munosabat bildirishgan. S.Xantington munosabatning uchta shaklini ajratib ko‘rsatdi: modernizatsiya va g‘arblashtirishni qabul qilish, ularga qarshilik ko‘rsatish yoki modernizatsiyani qabul qilish, lekin g‘arblashtirishni rad etish[11]. Shunday qilib, amerikalik tadqiqotchi o‘z ishida G‘arb madaniyatini qabul qilish natijasida resipient-jamiyat hayotining barcha sohalarida o‘zgarishlar bo‘lmasdan qolishi mumkinligini inkor etadi. Aslida, G‘arb madaniyati va ijtimoiy modernizatsiya bir xil narsa degan xulosaga kelish mumkin. Bu madaniyat orqali modernizatsiyani anglatadi.

Biroq, jahon tarixida madaniy modernizatsiyaga qaraganda texnologik modernizatsiya misollari ko‘proq uchraydi. Bundan tashqari, ko‘pincha amaliyotchilar mazmunni o‘zgartirish o‘rniga shaklga e’tibor qaratganlar. Sovet Ittifoqi davrida ham modernizatsiya yetarli samaradorlikka erishmadi. Ijtimoiy-siyosiy sohada joriy etilgan institutlar an’anaviy qaror qabul qilish usullari bilan yonma-yon mavjud bo‘lib, mintaqalardagi haqiqiy ahvolga ta’sir ko‘rsatmadi. Bundan tashqari, etnik institutsionallashuv respublikalarning etnokratlashuviga olib keldi, bu esa o‘z navbatida XX asr 90 yillari boshidagi arxaiklashuv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi[12].

T.Piirainen modernizatsiyaning bu turini soxta modernizatsiya deb ta’riflaydi. “Chetdan olib kelingan ijtimoiy va iqtisodiy shakllar, rasmiy modernizatsiyaning bunday zo‘ravon bosimiga ko‘p jihatdan tayyor bo‘lmagan jamiyatga majburan singdirilgani sababli, odatda anaxronizm, ya’ni zamonaviy va qadimiy ijtimoiy shakllar hamda institutlarning o‘ziga xos birgalikda mavjudligi yuzaga keldi. Bunda aslida ijtimoiy amaliyotlar an’anaviyligicha qolaverdi”[13].

Xususan, T. Piirainenning fikricha, Rossiyada soxta modernizatsiya aksincha natijalar bermoqda. Ulkan loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar aholining aksariyat qismi turmush darajasi va xarid qobiliyatining pasayishi bilan kechmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy turdagi ijtimoiy amaliyotlarning ildiz otishi va rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda. Muallifning ta’kidlashicha, “yuqoridan” amalga oshirilayotgan modernizatsiya jamiyatning an’anaviy xususiyatlarini yemirishdan ko‘ra, aksincha, ularni kuchaytirish uchun ko‘proq xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotda madaniy an’analarga zid bo‘lgan siyosiy modernizatsiyaning nisbatan muvaffaqiyatli holatlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim. S.Xantington bunga misol sifatida “Kamolizm”ni keltiradi. Tadqiqotchining fikricha, turk amaliyotchilari an’anaviy madaniyat bilan xalqaro raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan har tomonlama modernizatsiya o‘rtasidagi ziddiyatni aniqlashgan. Qaror ikkinchisining foydasiga qabul qilinib, odatiy madaniyat jiddiy o‘zgarishlarga duchor bo‘lishi kerak edi. Faqatgina g‘arblashuv misli ko‘rilmagan ko‘lamdagi islohotlar dasturiga shunday muhim mafkuraviy tayanch bera olardi[14].

Tahlilning ushbu bosqichida modernizatsiyaning ijobiy natijalariga intilish bilan modernizatsiyani amalga oshirishga bo‘lgan intilishni farqlash muhimdir. Birinchi holatda siyosatchilar o‘z jamiyatlarini soxta modernizatsiya tajribasi bilan boyitish xavfiga duch kelishlari mumkin, ikkinchisida esa modernizatsiya sifatlariga izchil erishish zarurati yaqqol ko‘rinadi. Bu sifatlardan biri samaradorlikka intilishdir. Bu sifat hech qaerda bozor iqtisodiyoti sharoitidagidan ko‘ra kuchliroq namoyon bo‘lmaydi.

Samaradorlikka tahdid soluvchi sanoatgacha bo‘lgan omillar ham mavjud. Madaniyatning iqtisodiy o‘sishga munosabat bildirish qobiliyati alohida ahamiyatga ega xususiyat sifatida ajralib turadi. Ma’lumki, an’anaviy madaniyatlar ko‘pincha iqtisodiy faoliyatni nomoddiy omillar bilan belgilagan. D.Landee qadimgi Tailandda halol yoshlarning bir necha yil davomida buddaviylik ibodatxonalarida shogird bo‘lib yashashi odat bo‘lganini tasvirlaydi. Bunday sharoitda voyaga yetish aql va irodani kuchaytirardi. Shuningdek, bu iqtisodiy faoliyat va bandlik haqidagi an’anaviy tasavvurlarga to‘liq mos kelardi. Bugungi Tailand esa butunlay boshqacha sur’atlarda rivojlanmoqda. Natijada, yoshlarning ma’naviy kamoloti uchun endi faqat bir necha hafta ajratilmoqda - bu haqiqiy, moddiy dunyoga qaytish uchun zarur bo‘lgan minimal ibodat va marosimlarni o‘zlashtirish uchun yetarli muddat. Vaqtning nisbiy qiymati o‘zgardi. Bu yangilikni hech kim majburlamadi. Tailandliklar o‘z ustuvorliklarini ixtiyoriy ravishda o‘zgartirdilar[15].

Adam Mets o‘zining “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asarida xalifaning milodiy 923 yildagi farmoni haqida yozadi. Ushbu hujjatga ko‘ra, “hech bir nasroniy yahudiyning merosxo‘ri bo‘la olmas, va aksincha; hech bir nasroniy yoki yahudiy musulmonning mulkini meros qilib ololmas, shuningdek, musulmon ham nasroniy yoki yahudiyning merosxo‘ri bo‘lishga haqli emas edi”. Bundan tashqari, “merosxo‘ri bo‘lmagan nasroniy yoki yahudiyning mol-mulki marhumning jamoasi foydasiga

o‘tar, musulmonning merosi esa davlat xazinasiga tegishli bo‘lar edi”[16].

Bunday e’tiborli qoida yahudiylarga va nasroniylarga muayyan iqtisodiy afzallik berardi, chunki ularning jamoalari avlodlar davomida o‘z mulklarini bemalol ko‘paytirish imkoniyatiga ega edilar. Shuningdek, islom an’anasidagi meros huquqining o‘ziga xos jihatlari haqida Mahathir Muhammad o‘z xotiralarida shunday yozadi: “Musulmon meros huquqida barcha mulkning to‘ng‘ich o‘g‘ilga o‘tishi tamoyili yo‘q, shu bois malayziyalik dehqonlar kelajakda tobora kambag‘allashib borishlari mumkin edi”[17].

Bugungi kunda ayrim jamoalarning samarali xulq-atvor tarziga rioya qila olmasligini Steys Lindsey jamiyatning qadriyatlar tizimidagi yo‘nalishning buzilishi bilan izohlaydi. Tadqiqotchining fikricha, iqtisodiyotning eng dolzarb masalalariga berilgan sifatli javoblar tizimni isloh qilish uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni ta’minlamaydi. Shaxslar ko‘pincha aqliy dalillarni qabul qilishadi, o‘zgarishlar zarurligiga rozi bo‘lishadi, islohotlarga sodiqliklarini tasdiqlashadi, ammo avvalgidek harakat qilishda davom etishadi. Eskilikka doimiy qaytish moyilligini madaniyatning u yoki bu xususiyatlariga oddiy havolalar bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bu holat ijodkorlar yo‘lida turgan qandaydir chuqurroq muammolarni yashiradi. S.Lindseyning fikricha, iqtisodiy taraqqiyot odamlarning boylik paydo bo‘lishi haqidagi qarashlarining o‘zgarishiga bog‘liq[18]. Modernizatsiyaning bosqichma-bosqich modeliga ko‘ra, ijtimoiy farovonlik aqliy tuzilmalarning ikki yo‘nalishi: ratsionallik va samaradorlik uyg‘unligiga asoslanadi. Ba’zi jamiyatlarda shaxsiy boylikning kelib chiqishi haqidagi qarashlar o‘ta o‘ziga xos sharoitlarda shakllanadi. Umuman olganda, an’anaviy, shu jumladan arab-musulmon madaniyatiga xos bo‘lgan xususiyat shundaki, iqtisodiy muvaffaqiyat shaxsiy fazilatlar va mehnat natijasida “qo‘lga kiritilgan” narsa emas, balki yuqoridan “in’om etilgan” hodisa sifatida tushuniladi. Shunday bo‘lsa-da, ta’kidlash joizki, ko‘pincha odamlarning dunyoqarashiga ular e’tiqod qilgan din va uning falsafiy tizimiga qaraganda, mahalliy sharoit va shaxsiy hayot tarzi kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyat va demokratiya o‘rtasidagi bog‘liqlik kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. R.Inglxart jamiyatning holati va uning demokratlashuvga tayyorligi o‘rtasida muayyan aloqadorlikni ko‘radi. Buning uchun u ikkita tushunchani ajratib ko‘rsatadi: “yashab qolish qadriyatlari” va “o‘zini ifoda etish qadriyatlari”. “Yashab qolish qadriyatlari” ustun bo‘lgan jamiyatlar shaxsiy farovonlikning nisbatan past darajasi, aholi salomatligining past ko‘rsatkichlari, shaxslararo ishonchsizlik, boshqacha fikrlovchilarga nisbatan toqatsizlik, jinslar tengligiga e’tiborsizlik, hayotning moddiy jihatlariga qiziqishning kuchayganligi, fan va texnika qudratiga ishonch, tabiatni muhofaza qilish muammolarini mensimaslik, avtoritar tuzumlarni qo‘llab-quvvatlashga tayyorlik bilan ajralib turadi. “O‘zini ifoda etish qadriyatlari”ni birinchi o‘ringa qo‘yadigan jamiyatlar esa yuqorida sanab o‘tilgan barcha masalalarda qarama-qarshi fikrlarga ega bo‘ladi. Jamiyatning u yoki bu turdagi qadriyatlarga yo‘nalganligi muhim ob’ektiv natijalarga olib keladi. “O‘zini ifoda etish qadriyatlari” ustun bo‘lgan davlatlar “yashab qolish” qadriyatlariga asoslangan mamlakatlarga qaraganda barqaror demokratiyaga aylanish imkoniyati ko‘proq[19].

Umuman olganda, R.Inglxartning bu nuqtai nazari modernizatsiyaning bosqichma-bosqich modeli qoidalariga muvofiq keladi. U “omon qolish qadriyatlari” qatoriga “ilm-fan va texnikaning qudratiga ishonch”ni kiritadi. Bu esa o‘rganilgan jamiyatlarning aqliy tuzilmalarida ratsionalizmga bo‘lgan munosabat mavjudligini ko‘rsatadi. Muvaffaqiyatli demokratlashtirish jarayoni uchun insonparvarlik va hamkorlikka intilish zarur. Ushbu toifalar “o‘zini ifoda etish qadriyatlari”da aks etadi. Bu, jamiyatlar o‘z madaniyatlariga ko‘ra demokratlashuvdan deyarli ongli ravishda voz kechishi mumkinligini anglatadimi? Ushbu savolga javobni T.A.Alekseevaning fikrlarini rivojlantirish orqali topish mumkin[20]. Uning fikricha, dunyoda modernizatsiya masalasini hal etishning ikkita yo‘li mavjud bo‘lib, ular teng xavf-xatarlarga ega va hech qanday kafolatlarni bermaydi. Islohotlar va qisman g‘arblashtirishdan voz kechilsa, bunga muhtoj jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning sezilarli vaqt o‘lchovida fojiali tarzda orqada qolishi mumkin. Aksincha, agar jamiyatning an’anaviy ijtimoiy tuzilmasi qarorlar qabul qilishning demokratik usuli va ne’matlarni qayta taqsimlash tizimidan uzoq bo‘lsa, u barqarorlikni yo‘qotish va hatto o‘z-o‘zini yo‘q qilish xavfi ostida qoladi. Bunday vaziyatda dastlabki qadamlar orasida demokratlashtirishdan ongli ravishda voz kechish juda oqilona deb hisoblanadi va sanoatlashtirishning madaniy jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Bizningcha, demokratlashtirishning vositaviy xususiyatini ochib beruvchi va uni modernizatsiyaning keyingi bosqichlariga tegishli deb biluvchi tadqiqotchilar, uni rivojlanish uchun zarur bo‘lgan birinchi darajali qadriyat deb hisoblovchilarga qaraganda haqliroqdir. Umumiy saylovlar, namoyishlar va shu kabilar singari demokratik marosimlarni shakliy jihatdan muvaffaqiyatli o‘zlashtirish o‘z-o‘zidan mazkur jamiyat uchun odatiy bo‘lgan qaror qabul qilish usulini o‘zgartirmasligiga ishonch hosil qilish kifoya.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Bir qator tadqiqotchilar, jumladan T.A. Alekseeva va S.A. Pankratov, modernizatsiya g‘oyasining o‘zi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar. Boshqacha aytganda, “hozirning o‘zidayoq ko‘rish mumkin bo‘lgan kelajak”ka har tomonlama intilishning nazariy ifodasi sifatida modernizatsiya tushunchasining

paydo bo‘lishi ilmiy-texnik inqilob, emansipatsiya va kapitalizm ruhini boshdan kechirgan jamiyatlarga xosdir. Shu bois, aynan modernizatsiya g‘oyasini rivojlanayotgan jamoalarga singdirish g‘oyat muhim vazifa sifatida baholanib, xarizmatik yetakchilar zimmasiga yuklanadi. Bugungi kunda tashqaridan boshlangan modernizatsiya ham iloji boricha mahalliy muhitga uyg‘unlashtirilishi lozimligi ayon bo‘lmoqda. Modernizatsiyaning bosqichma-bosqich modeli faqat tabiiy ijtimoiy ehtiyojlar asosida yuzaga keladigan o‘zgarishlarning samaradorligini tan oladi. Jamiyatdagi haqiqiy ahvolga zid ravishda “yuqoridan” amalga oshiriladigan modernizatsiya halokatli bo‘lib, ko‘pincha teskari natijalarga olib keladi.

“Yuqoridan” va “quyidan” modernizatsiyalash deganda, biz, avvalo, shakl va mazmun o‘rtasidagi ziddiyatni nazarda tutamiz. O‘z navbatida, shakllarning o‘zgarishi ijtimoiy ehtiyojlarga tabiiy javobdir. Aynan shu sababli, bosqichma-bosqich model doirasidagi modernizatsiya islohotlari dasturi haqida so‘z yuritganda, ijtimoiy diagnostika, mental ko‘rsatmalar bilan ishlash, zarur namunali shaxslarni yaratish va qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratish lozim.

Sharq mamalakatlari musulmonlari jamoaviyligining asosiy farqi uning Uzoq Sharq jamoalari birlashmalarining iqtisodiy xususiyatiga zid ravishda siyosiylashganligidadir. Biroq, bu holat musulmonlarga oliy hokimiyat sohasini chuqur qahramon darajasiga ko‘tarish va shaxsiylashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, bu yerdagi muvaffaqiyatli siyosiy modernizatsiya faqat hukmdorning shaxsiy irodasi bilan cheklanadi. Donishmandlikni shaxsiylashtirish oqibatida yozma qonunlar madaniyatiga qarshilik paydo bo‘ladi, bu esa o‘zgarishlar davrida tizimni sezilarli darajada beqarorlashtiradi.

Tadqiqotchilar barcha an’anaviy jamiyatlarga xos xususiyatlar qatoriga patrimonializm, jinsiy va etnik kamsitish, shaxsiy siyosiy huquqlarning past qadrlanishini kiritadilar. Bizningcha, modernizatsiyaning klassik modeli tomonidan majburan o‘tkazilayotgan tezlashtirilgan demokratlashtirishning maqsadga muvofiqligi shubha ostiga olinmoqda. Demokratlashtirishga ehtiyoj bo‘lmasa, u jamiyatni rivojlantirishdan ko‘ra ko‘proq beqarorlashtiradi, degan nuqtai nazardan kelib chiqadi. Ko‘plab tadqiqotchilar muvaffaqiyatli demokratlashtirishning eng muhim ko‘rsatkichi jamiyatning rivojlangan iqtisodiy tizimi ekanligiga qo‘shiladilar. Modernizatsiyaning bosqichli modeli doirasida biz demokratik boshqaruv turini, jamiyatning aqliy tuzilmalarida ratsionallik va samaradorlik ko‘rsatmalarining uyg‘unligi ustunligidan keyin keladigan, o‘z navbatida iqtisodiy sohaning rivojlanishiga olib keladigan jarayon sifatida belgilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Бек Д., Кован К. Спиральная динамика. Управляя ценностями, лидерством и изменениями в XXI веке. М., 2010. С. 199-200.
2. Алексеева Т.А. «Реванш кочевников» или ценностное осмысление глобализации // Мировая политика: проблемы теоретической идентификации и современного развития. М., 2006. С. 18-19.
3. Панкратов С.Л. Политическая модернизация России в контексте устойчивого развития (теоретический аспект). Автореф. дис.... д-ра полит.наук. Краснодар, 2006. С. 18.
4. Understanding Why Crime Fell in the 1990’s: Four Factors That Explain the Decline and Six That Do Not // Journal of Economic Perspectives 18, № 1, 2004, P. 163—190.
5. Pipes D. Path of God, pp. 197-198. Цит. по: С. Хантингтон. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка (отрывки из книги) // www.eastlib.narod.ru/d/huntington.htm
6. We are more concerned with the forms rather than the substance of the words of Allah and adhering only to the literal interpretation of the traditions of the Prophet". // www.qem.org/en/node/183
7. Поверить в силу власти // svobodanews.ru/content/article/403023.html
8. Roland G. Fryer Jr. And Steven D. Levitt The Cause and Consequences of Distinctively Black Names // pricetheory.uchicago.edu/levitt/Papers/FryerLevitt2004.pdf
9. Хантингтон С. Кто мы? Вызовы американской национальной идентичности. М., 2008. С. \296.
10. Хантингтон С. Кто мы? Вызовы американской национальной идентичности. М., 2008. С. 297.
11. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка (отрывки из книги) И www.eastlib.narod.riVd/huntington.htin
12. Маркедонов С. Кавказ: миражи модернизма// Газета СНГ. 30.05.2006.
13. Piirainen T. Towards a New Social Order in Russia: Transforming Structures in Everyday Life. University of Helsinki, 1997. p. 12-13.
14. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка (отрывки из книги) // www.eastlib.narod.ru/d/huntington.htm
15. Ландес Д. Культура объясняет почти все И Культура имеет значение. М., 2002. С. 39-40.
16. Мец А. Мусульманский Ренессанс. М., 1996. С. 45.

17. Мохамад Махатхир Путь вперед// lib.ru/POLITOLOG/mahathir.txt

18. Линдсей С. Культура, ментальные модели и национально процветание // Культура имеет значение. М., 2002. С. 273.

19. Инглхарт Р. Культура и демократия // Культура имеет значение. М., 2002. С. 111-112.

20. Алексеева Т.А. «Реванш кочевников» или ценностное осмысление глобализации И Мировая политика: проблемы теоретической идентификации и современного развития. М., 2006. С. 20.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xolmaxmatov Azim Hazratkulovich
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR ISHINI TASHKIL ETISHDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHRTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirishda ma’naviy-mafkuraviy mexanizmlarning o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinib, ularni takomillashtirish xususida fikr yuritilgan. Unda mustaqillik yillarida bu sohada o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati tizimli ravishda ko‘rib chiqilgan hamda ularning natijalari xususida muayyan xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarga oid davlat siyosatining ma’naviy-mafkuraviy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan ishlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik, demokratik islohotlar, ma’naviyat, jamiyatning ma’naviy qiyofasi, yoshlar, barkamol avlod, yoshlarga oid siyosat, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ma’naviy tarbiya.*

Холмахматов Азим Хазраткулович
Независимый исследователь Национального университета Узбекистана

МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы, связанные с ролью и значением духовно-идеологических механизмов в эффективной реализации государственной политики в отношении молодежи в нашей стране, и дается мнение об их совершенствовании. На нем систематически рассмотрены содержание и суть изменений в этой сфере за годы независимости и сделаны определенные выводы об их результатах. Также в статье показана важность работы, направленной на совершенствование морально-идеологических механизмов государственной политики в отношении молодежи.*

Ключевые слова: *независимост, демократические реформы, духовност, нравственные основы общества, молодёж, гармонично развитое поколение, духовная култура молодёжи, молодёжная политика, духовные факторы воспитания.*

Kholmakhmatov Azim Hazratkulovich
Independent researcher of the National University of Uzbekistan

METHODS OF IMPROVING SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL MECHANISMS IN THE ORGANIZATION OF YOUTH WORK IN UZBEKISTAN

Abstract. *In this state, issues related to the role and significance of spiritual and ideological mechanisms in the effective implementation of state policy regarding youth in our country are analyzed, and an opinion is given on ix improvement. This is not a systematic review of milk composition, changes in the dairy industry and dairy autonomy. The article also shows the importance of work aimed at improving the moral and ideological mechanisms of state policy towards youth.*

Keywords: *independence, democratic reforms, spirituality, moral bases of society, young people, harmoniously developed generation, spiritual culture of youth, youth policy, the spiritual factors of education.*

Kirish. (Introduction)

Mustaqil taraqqiyotining ilk kunlaridanoq qonun ustivor bo‘lgan demokratik davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston, hayotning barcha sohalari qatori, yoshlarga oid davlat siyosatida ham o‘ziga xos tamoyillarga amal qilmoqda. Bunda avvalo, bu yo‘nalishdagi davlat siyosatini tashkil qilishning muayyan tarixiy yo‘lini bosib o‘tgan mamlakatlar tajribasini o‘rganish bilan birga, xalqimizning o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olgan milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarurati chuqur anglab olingani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizning mustaqilligi arafasiga kelib, u mansub bo‘lgan sobiq ittifoqdagi yoshlar bilan ish olib boradigan tizim jamiyat rivoji hamda ushbu

qatlam taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib qolgan edi. Totalitar mafkura tamoyillariga bo‘ysundirilgan bu tizim zamonaviy talablar, o‘zgarib borayotgan davr ehtiyojlariga, mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti talablariga javob bera olmasligi yaqqol ko‘rinib qolgan edi.

Shuning uchun ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat. – Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[1] deb, ta’kidlagan fikrlari dasturul amal bo‘lishi lozim.

Demak, ma’naviy-mafkuraviy salohiyatli, ozod yoshlarni kamol toptirish, mamlakatimizda shakllantirilayotgan demokratik jamiyat va fuqarolik jamiyatining tub asoslarini yangi bosqichga olib chiqish mamlakatimiz taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi mulohazalarni asoslash va ilmiy ishning tizimliligini ta’minlash maqsadida eng avvalo ma’naviy-mafkuraviy mexanizmlarning rolini anglash hamda “ma’naviyat”, “mafkura”, “siyosiy mafkura”, “siyosiy mexanizm”, “ma’naviy-mafkuraviy mexanizm”, “ma’naviy-mafkuraviy salohiyat” tushunchalarining mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish lozim. Bunda avvalo, ma’naviyat va mafkuraga berilgan ta’riflar, uning jamiyat va inson hayotidagi rolini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqot natijalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ma’naviy-mafkuraviy salohiyat masalalariga xolisona, aniq sharoitni hisobga olgan holda yondashish yoshlarni ma’naviy-mafkuraviy kamol toptirishning yangi usul va innovatsion yo‘llarining ochilishiga sabab bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi.

O‘zbekistonda yoshlar ishini tashkil etishda ma’naviy-mafkuraviy mexanizmlarni takomillashrtirish usullari tadqiq qilishga bir qator siyosatshunos olimlarning ilmiy ishlanmalarida yaxlit tarzda emas, balki alohida sohalar kesimida ochib beriladi. Jumladan, E.Yusupova [2], S.Abdunazarov [3], A.Xursandov [4], A.Jalilov [5], Sh.Agabayev [6], N.Turgunova [7], N.Saidkulov [8]larning monografiya, risola va maqolalarida mazkur masala chuqur tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, ob’ektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, kauzal, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Butun jahonda yoshlar qatlamiga yangicha munosabat shakllanayotgan ayni shu davrda mustaqillikka erishishi, mamlakatimiz hayotining barcha sohalari qatori, bu boradagi islohotlar va yangilanishlarni davlatimiz siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Mustaqillik davri talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta’minlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga kirishildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, ya’ni, 1991 yilning 20 noyabrida sobiq ittifoq respublikalari orasida birinchilardan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinganligi buni yaqqol isbotlaydi.

Hozirgi davrga kelib, mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizasiya va isloh qilish, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish jarayonida yoshlarga oid siyosatni izchil amalga oshirishning samarali yo‘llari va usullarini izlab topish va ularni hayotga tatbiq etishga nisbatan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Birinchi Prezidentimizning “Bugungi kunda katta umid, orzu-maqsadlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo‘shaman, deb belini mahkam bog‘lab maydonga chiqayotgan, azmu shijotli yoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak” [9], degan fikri ana shu murakkab va serqirra jarayonning asl mazmun-mohiyatini yaqqol ifodalaydi.

Shu ma’noda, mustaqillikning ilk davridayoq yurtimizning ravnaqi, gullab yashnashi uchun, avvalo, fidoyi, intellektual jihatdan rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab etishtirish, farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega va XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga etishi dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab olingani bejiz emas. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning istiqlol davrining o‘ziga xos qomusi hisoblanadigan va jumladan, bizning mavzuimiz uchun ham asosiy nazariy-metodologik manba bo‘lgan asarlari, ayniqsa “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” kitobining ahamiyatini alohida ta’kidlash joiz. Unda ta’kidlangani kabi, “Istiqlol yillarida mamlakatimizda ma’naviy tarbiyani amalga oshiradigan o‘quv muassasalari va umumta’lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e’tiborni kuchaytirish eng muhim va jiddiy masalaga aylandi... Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko‘lami va mohiyatiga ko‘ra ulkan ishlarimiz biz ko‘zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo‘lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma’naviy

yuksalishi yo‘lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi[10].

Yoshlarga oid davlat siyosati qotib qolgan va hech qachon o‘zgarmaydigan konstantalarning oddiy yig‘indisi emas, balki jamiyat taraqqiyoti va davr talablari ta’sirida muttasil yangilanib, zamonga moslashib boradigan usul va vositalar, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, turli dasturlar majmuidir. Shu ma’noda, har qanday davrda ham, uning amalga oshirilishi, chuqur dialektik jarayon bo‘lib, muttasil o‘zgarishlar va yangilanishlarni nazarda tutish zarurligini anglatadi. Yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kunlardagi eng asosiy maqsad-muddaolari va ustivor yo‘nalishlarini aniqlash va anglashda “...yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma’no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqealar haqida haqqoniy ma’lumotlarga, eng muhimi, o‘z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo‘lishiga erishish ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo‘lishi darkor” [11].

Zamonaviy O‘zbekiston tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikning o‘tgan yillari davomida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohot natijalari, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy, milliy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an’analarning asrab-avaylanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim ravnaqi yoshlarga oid siyosat samaradorligini oshirish masalalari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu sohalardagi islohotlar va ularning bugungi kundagi yuksak natijalari ushbu siyosatning samarali amalga oshishini ta’minlashga qaratilgan nafaqat iqtisodiy, siyosiy omillar, balki ma’naviy-mafkuraviy mezanizmlarning ham nihoyatda mustahkam zaminga tayanishini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Masalaning bu jihatini tadqiq qilgan ba’zi olimlar samarali yoshlar siyosati G‘arb sivilizasiyasining bir necha asrlik taraqqiyoti natijasi va bugun uning yutuqlari ushbu sohada aks etmoqda deb hisoblaydilar. Ammo masalani keng tahlil qilish, ayniqsa Sharq qomusiy olimlarining merosini chuqur o‘rganish, bu qarashlarning bir tomonlama xususiyatga ega ekanligi, ularda ko‘proq evropamarkazchilik tendensiyalari ustivorligini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tahlil Sharq xalqlariga xos yoshlar tarbiyasi tamoyillari va bu sohada uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan ma’naviy omillar va urf-odat hamda milliy an’analar zamonaviy O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini tashkil qilish va amalga oshirishning muhim asoslaridan biri bo‘layotganidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, har qanday mamlakatdagi ilmiy asoslangan va zamonaviy tamoyillarga tayanadigan yoshlarga oid davlat siyosatini samarali shakllantirish jarayoni jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy, madaniy sohalarda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ushbu yo‘nalishdagi xorij tajribasini o‘rganish, xususan, G‘arbda chop etilayotgan asarlar tahlili mazkur jarayonning iqtisodiy, huquqiy va siyosiy jihatlariga ko‘proq e’tibor berilib, ma’naviy-axloqiy asoslariga yetarli darajada e’tibor qaritilmayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Jamiyatning iqtisodiy ta’minlanganligi bilan yoki tegishli qonunlar qabul qilinishining o‘ziyoq davlatning samarali yoshlar siyosatini to‘la-to‘kis shakllantirib qo‘ya olmaydi. Bu siyosatning eng muhim vazifalaridan biri yoshlar ongini, ma’naviyatini o‘zgartirish va ularning yangi zamonga mos tafakkurini dunyoga keltirishdan iboratdir. Bunday nihoyatda murakkab va serqirra vazifani amalga oshirishda aynan ma’naviy omillarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Sobiq ittifoq o‘rnida shakllangan ba’zi yaqin va uzoqdagi davlatlarning ayrim mutaxassis-olimlari o‘z istiqlollarining dastlabki yillaridanoq ushbu yo‘nalishda ham G‘arb tajribasini ko‘klarga ko‘tarib maqtab va uni o‘z mamlakatiga ko‘chirib o‘rnatishga intilayotganlarida G‘arb jamiyatida namoyon bo‘layotgan ma’naviy tanazzulning ildizlari va negizlari nimalarga kuch berayotgani va qanday natijalarga olib kelayotganini unutib qo‘ygan edilar. Bu esa qanday ayanchli oqibatlarga sabab bo‘lganini ana shu mamlakatlarning yaqin tarixi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Shu bois, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ma’naviyat va ma’rifatning yoshlar tarbiyasi, inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy shartlaridan biri deb, bilganlari bejiz bo‘lmagan. Ma’naviy tarbiya - taraqqiyot taqazosi, jamiyat rivojining o‘ziga xos omili ekani shubhasiz. Ammo ayni vaqtda u yoshlarning axloqiy qiyofasi, qalbi va ongini egallayotgan tamoyillar mazmun-mohiyatini belgilaydigan, ya’ni, shakllanib kelayotgan avlodning ma’naviyatiga katta ta’sir qiladigan, bu sohadagi ma’naviy mezonlarni shakllantiradigan va mustahkamlaydigan eng muhim omillardan biridir. Ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o‘ylanmagan ishlarga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Maktab, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladi. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslayman. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi[12].

Ushbu fikrdan ko‘rinadiki, aynan yoshlar siyosatini amalga oshirishda yuksak ma’naviyatli kishilarni, ya’ni ma’nan barkamol avlodni shakllantirmay turib, bugungi mustaqillik davriga mos yoshlarga xos bo‘lgan qadriyatlar, ideallar va tamoyillarni qaror toptirib bo‘lmaydi. Shu sohada qabul qilingan qonun va qarorlar, farmon va hukumat hujjatlarida yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirish jarayoni avvalo, butun jamiyat miqyosida ma’naviyatni yuksaltirish uchun eng avvalo, ma’naviy ta’lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, davlat organlari va mansabdor shaxslar, fuqarolarning bu sohadagi tamoyillar va axloqiy talablarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlariga erishish, aholining ma’naviy saviyasini yanada oshirish ustuvor vazifa qilib belgilanganligi mamlakatimizda bu jabhaning zarur asoslarining shakllanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, bu sohada bugungi kunda yana quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarurati ortib bormoqda:

- mamlakatimizda mavjud bo‘lgan ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim olayotgan va hunar o‘rganayotgan yoshlarning yuksak ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik hissi va bu boradagi tamoyillarni amalga oshirishda faollik tuyg‘ularini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish;

- nafaqat talabalar, balki bu vazifani amalga oshirishning eng muhim bug‘ini bo‘lgan barcha ta’lim muassasalaridagi ustoz-murabbiylarning ma’naviyat sohasidagi savodxonligini yanada oshirish, ularning bu sohada butun jahonda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar va resprublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning natijalari bilan tezkor va izchil tanishtirishga mo‘ljallangan ommaviy axborot vositalari (jurnal, gazeta, veb sayt va hok.) faoliyatini samarasini oshirishga alohida ahamiyat berish;

- ta’lim tizimi bilan qamrab olinmagan yoshlar qatlamlari orasiga yuksak ma’naviyat tamoyillarini singdirish, targ‘ib va tashviq etish samaradorligini muntazzam oshirib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bu sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish.

Bularning barchasi, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirishda avvalo, ularning huquq va erkinliklarini inobatga olmasdan, yosh avlodning dunyoqarashi, fikri bilan hisoblashmasdan, uning ma’naviy asoslarini shakllantirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Bu siyosat asoslari, zaruriy tarzda, muayyan ma’naviy tamoyillarga amal qiladigan, o‘z huquqlari va manfaatlarini xalqi hamda vatani manfatlari bilan uyg‘unlashtira oladigan, mustaqil e’tiqod va zamonaviy dunyoqarash egalariga tayanishini O‘zbekistonning bugungi tajribasi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ayni shunday holdagina har bir yosh inson o‘z huquq va burchini chuqur anglaydi, ular ning jamiyatda mavjud ma’naviy mezonlar bilan loqadorligini to‘la-to‘kis his qilishi mumkin. Yurtimizda huquqiy davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyati asoslarini yaratilayotgan bugungi kun uchun bu nihoyatda muhim, chunki yuksak ma’naviyat demokratik taraqqiyotning zaruriy asosi, ma’nan barkamol avlod shakllanayotganining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi[13].

Xulosa va takliflar

Umuman olganda bugungi kunda yoshlar ma’naviy kamolotining eng dolzarb muammolarini hal etishda va ularning jamiyat hayoti hamda davlat boshqaruv tizimlarida faol ishtirokini ta’minlash jarayonida har bir yoshda yangicha tafakkur, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma’rifiy ta’lim tizimini doimiy takomillashtirib borish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatimizda yoshlarga xos yuksak ma’naviyat tamoyillarini shakllantirish uchun ular orasidan zarur kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidan, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, mamlakatimizda shakllangan ta’lim va tarbiyaning samarali usullari va vositalarini hayotga tadbiq etish imkoniyatlarini izlab topishning tobora ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lib borayotganidan dalolat beradi.

Shunday ekan, biz bu sohada butun salohiyatimiz va iqtidorimizni ishga solishimiz, xalqimiz kelajagi, yurtimiz tinchligi va jamiyatimiz farovonligi uchun xizmat qiladigan yuksak ma’naviyatli, intellektual yetuk avlodni tarbiyalashdek muhim ishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim. Buning uchun har birimiz o‘z zimmamizga yuklatilgan ulkan mas’uliyatni chuqur his etishimiz, bu yo‘lda butun kuch-quvvatimizni ishga solishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi. - https://rresident.uz/uz/lists/view/4089

2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – ǝng oliy saodatdir. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. –B. 235.

3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.-60-64 b.

4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konцepцiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2010. – B. 43.

5. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2009. T.17. – B.131.

6. A.Ochildiyev. Madaniyat falsafasi. -T.: ”Muharrir” nashriëti, 2010. -B.54.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, Falsafa fanlari doktori (DSc)

JAMIYAT TRANSFORMATSIYALASHUVI VA IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyat transformatsiyalashuvini ijtimoiy-madaniy texnologiyalari bilan aloqadorligi ilmiy asoslangan. Jamiyat transformatsiyalashuvi ijtimoiy-siyosiy yuksalish evolyutsiyasida dinamik o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar. *Jamiyat, transformatsiya, ijtimoiy-madaniy texnologiya, taraqqiyot, paradigma, ijtimoiy-siyosiy, jarayon, tizim.*

Юлдашев Серобжан Урмоналиевича
доцент Ферганского государственного университета, Доктор философских наук (DSc)

ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВА И СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье научно обоснована связь трансформации общества с социокультурными технологиями. Изучено, что трансформация общества вызывает динамические изменения в эволюции социально-политического подъема.*

Ключевые слова. *Общество, трансформация, социокультурная технология, развитие, парадигма, социально-политический, процесс, система.*

Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich
Associate Professor of Fergana State University Doctor of Philosophical Sciences (DSc)

TRANSFORMATION OF SOCIETY AND SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES

Annotation. *This article scientifically substantiates the connection between the transformation of society and sociocultural technologies. It has been studied that the transformation of society causes dynamic changes in the evolution of socio-political progress.*

Keywords. *Society, transformation, socio-cultural technology, development, paradigm, socio-political, process, system.*

Kirish.

Ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sharoitida mavjud dinamik jarayonlar tizimning dastlabki holatining o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu dinamik jarayonlar boshqarilmaydigan va boshqariladigan (tashqi ta’sir mezoniga ko‘ra), shuningdek, “tizimni o‘zgartiruvchi” va “tizimni shakllantiruvchi” (yakuniy natija mezoniga ko‘ra) toifalariga bo‘linishi mumkin. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan hodisaning dinamikasi tanlangan ilmiy paradigma va metodologik yondashuvga qarab inqilob, evolyutsiya, transformatsiya, rivojlanish, tanazzul, regressiya, taraqqiyot sifatida tavsiflanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma’naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko‘rib chiqish, bu borada ta’sirchan va samarali mexanizmlarni yaratish, demokratik tamoyil va me’yorlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha misli ko‘rilmagan keng ko‘lamli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirdik. Bunda odamlarni hayotdan rozi qilish, ularning uzoq kelajakda emas, balki bugungi kunda farovon yashashini ta’minlash, hayotiy muammolarini hal etish va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishni oliy maqsad etib belgiladik[1.41.]”, deb ta’kidlaydi. Bu esa jamiyat transformatsiyalashuvining ilmiy qarashlariga, uning tevarak-atrofdagi voqelikni va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tizimli idrok eta olish qobiliyatiga bog‘liq ekanligini asoslaydi. Tizim holatini har bir o‘rganish tarixiy qayta qurish (o‘tmishning tavsifi), futurologiya (kelajakning tavsifi) bo‘lishi mumkin, ammo tizimning holatini obyektiv tavsiflashning o‘ziga xos “suratini” olish deyarli mumkin emas. Bir vaqtning o‘zida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni hech bo‘lmaganda ma’lum darajada o‘rganish uchun “modernizatsiya” tushunchasidan foydalaniladi. Bu atama ijtimoiy-siyosiy tizimlarning dinamikadagi xususiyatlarini, shu jumladan, mamlakatda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarni hisobga olgan holda tavsiflaydi. Faylasuf olim P.Shtikovning fikricha ““Transformatsiya salohiyati” modernizatsiyaga yetib

olishdan" ancha kengroqdir, chunki uni jamiyatning ma'lum bir davrda sodir bo'ladigan chuqur o'zgarishi deb hisoblash mumkin. Transformatsiya nazariyasi eski muammolarni emas, balki an'anaviy demokratiya nazariyalarini duch keladigan yangi muammolarni hal qilishga yordam beradi"[2.]. Demak, jamiyat transformatsiyalashuvi yoki "ijtimoiy-siyosiy transformatsiya"ga oid qarashlar evolyutsiyasini o'rganib chiqishga ehtiyoj tug'iladi. Chunki, bir ijtimoiy-siyosiy tizimning boshqasiga o'tishdan iborat voqelik transformatsiya jarayoni bo'lib, buning natijasida turli vektorlar yuzaga kelishi mumkin. Davlat rivojlanishi va ularni prognozlashning murakkabligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu transformatsiya tashqi omillar ta'sirida ham, ma'lum bir ishtirokchining xohishiga ko'ra ham, tizimning o'zida to'plangan tabiiy impulslar natijasida ham sodir bo'lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Jamiyatni transformatsiyalashuvi doimiy ekanligi haqidagi g'oyalar Sharq va G'arb mutafakkirlari asarlarida bayon etilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy "Fazilatli shaharlar aholisi esa, ularning ruhlari avvalgi ajdodlari qoldirgan ma'rifat va ma'naviyatni o'zlashtirib, kamolotga yetishganlari sababli moddiy mol-mulklarga kishanlanib, qattiq bog'lanib qolmaydilar"[3.255.], bu esa jamiyatni yangilanishi bevosita insonlarning ma'rifati va ma'naviy qiyofasiga bog'liq ekanligini bildiradi. Abu Rayhon Beruniy fikricha, "Olamda narsalar rivojlanib turadi, narsalarning nihoyasiz ravishda "yashirinlikdan yuzaga chiqishi"[4.30.], mavjudlikka chiqishi – rivojlanishga, transformatsiyalashuvga dalildir. Bu fikr mohiyat bilan hodisa orasidagi bog'lanish cheksiz jarayon ekanini ifodalaydi.

Jamiyatni transformatsiyasida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarga oid qarashlar ijtimoiy fanlarda 20-asrning o'rtalarigacha juda kam qo'llanilgan. U faylasuf va jamiyatshunos olimlar N.A.Berdyayev, P.A.Sorokin tomonidan biror narsaning chuqur, sifat jihatidan o'zgarishi, tarixning burilish nuqtasi ma'nosida qo'llanilgan. Biroq, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish muammosi "taraqqiyot", "evolyutsiya", "inqilob", "islohot" "o'zgarish" kabi tushunchalar yordamida o'rganilgan. 1960-yillarda "transformatsiya" tushunchasi maxsus sotsiologiklar nazariyasiga ko'ra, birinchi navbatda, davlat boshqaruvining huquqiy tizimlaridagi innovatsiyalar masalalarida qo'llanila boshlandi, bu erda u ko'proq uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan "modernizatsiya" tushunchasining modifikatsiyasi sifatida qaraladi.

AQShlik siyosatshunos olim D.Iston o'zining "Siyosiy tadqiqotlar modeli" asarida transformatsiya sharoitida ijtimoiy-siyosiy tizim ichidagi dinamizmning mohiyati haqida yozgan. U ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy determinantlarga zaif bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizimning abadiy modelini sifatida tahlil qiladi[5.]. Bizningcha, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida asosiy ko'rsatkich tez o'zgaruvchan sharoitlarga, siyosiy va ijtimoiy institutlarning faoliyat ko'rsatish shartlariga moslashuvchanlik (reaksiya) darajasidir.

Jamiyat transformatsiyasi evolyutsiyasini foydaliligi P. Shtompke fikricha, muhim ijtimoiy o'zgarishlar shakllarini ifodalovchi tushunchalardan biri morfogenez (mutlaqo yangi ijtimoiy sharoitlarning, jamiyat sharoitlarining, ijtimoiy tuzilmalarning paydo bo'lishi), transmutatsiya (mavjud ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish, isloh qilish yoki qayta ko'rib chiqish), ko'paytirish (kompensasion, moslashuvchan, muvozanatlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi jarayonlar, jamiyat mavjudligini o'zgarmagan holda saqlab, atrofdagi sharoitlarga moslashish)ga imkon beradi. Shundan kelib chiqqan holda transformatsiyaning asosiy sifati o'zgarishlar, ijtimoiy voqelik asosida siljishlar sodir bo'lganda, ularning ijtimoiy hayoti sohalarida sezilib, uning eng muhim qismlarini o'zgartiradi.

Jamiyatshunos olim K. Polani fikricha, "Ijtimoiy jarayonlarga transformatsiyalashuviga ta'sir etuvchi omillarning ko'pligini e'tirof etgan holda, eng muhim o'zgarish omil bu iqtisodiy o'zgarishlar omili ekanligini[6.] ta'kidlaydi. Bu esa iqtisodiy tafakkur orqali jamiyatning har tomonlama o'zgarishiga turtki bo'lashini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Jamiyat transformatsiyasi evolyutsiyasini foydaliligi P. Shtompke fikricha, muhim ijtimoiy o'zgarishlar shakllarini ifodalovchi tushunchalardan biri morfogenez (mutlaqo yangi ijtimoiy sharoitlarning, jamiyat sharoitlarining, ijtimoiy tuzilmalarning paydo bo'lishi), transmutatsiya (mavjud ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish, isloh qilish yoki qayta ko'rib chiqish), ko'paytirish (kompensasion, moslashuvchan, muvozanatlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi jarayonlar, jamiyat mavjudligini o'zgarmagan holda saqlab, atrofdagi sharoitlarga moslashish)ga imkon beradi[7.]. Shundan kelib chiqqan holda transformatsiyaning asosiy sifati o'zgarishlar, ijtimoiy voqelik asosida siljishlar sodir bo'lganda, ularning ijtimoiy hayoti sohalarida sezilib, uning eng muhim qismlarini o'zgartiradi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida, birinchidan an'anaviy-klassik jamiyatshunos-faylasuf olimlar O.Kont, G.Spenser, T.Parsons qarashlarida o'z ifodasini topgan. Jamiyatning "tizimli modeli" ishlab chiqilib, rivojlanishning barqarorligiga e'tibor qaratiladi. Bizningcha, jamiyatning ma'lum bir barqaror holati mavjud bo'lib, u ijtimoiy o'zgarishlar bir tizimning vaqt bo'yicha ketma-ket sodir bo'ladigan turli holatlari tushuniladi.

Ikkinchi yo'nalish sifatida jamiyatdagi "statik, barqaror holat sifatida emas, balki jarayon sifatida, obyekt sifatida emas, balki doimiy davom etuvchi, cheksiz hodisalar oqimi sifatida" qarash jamiyat transformatsiyalashuvining mohiyatini ifodalaydi. Bu esa

tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy va amaliy qarashlarni o‘zaro taqqoslash va solishtirish imkoniyatini taqdim etadi.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi vaqtda ko‘p mamlakatlarning o‘tish davri deb ataladigan noyob tajribasi “transformasion” terminologiyasi bilan o‘z ifodasini topmoqda. Biroq “ijtimoiy o‘zgarishlar” tushunchasidan foydalanishni yuqoridagi qarashlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki ma’lum soha bilan cheklash noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki “jamiyat transformatsiyalashuvi” keng va samarali ilmiy talqinlarni o‘rganish zaruratini taqozo etadi. Jamiyat tizimidagi o‘zgarishlar barcha sohalardagi “transformatsiya” tushunchasining mazmunini ifodalaydi. Tahlillar sifatida “rivojlanish” va “evolyutsiya” tushunchalari mazmunan aralashtirib yubormaslik zarur. Ta’kidlash lozimki, transformatsiyani mazmunni saqlab qolgan holda faqat shakldagi o‘zgarish sifatida tushunish noto‘g‘ri, ya’ni bunda ijtimoiy sohadan tashqari barcha sohalardagi o‘zgarishlarni tabiiy qabul qilish shart.

Xulosa.

Jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy fazilatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, bu jarayonda yuzaga keladigan o‘zgarishlarning tizimli bo‘lishi zarur, bu esa tizimni tashkil etuvchi elementlarni, ijtimoiy institutlarni tuzilmaviy jihatdan o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Muhimi ijtimoiy o‘zgarishlarni islohot, qayta tashkil etish, qayta qurish kabi jarayonlar bilan ajratib turadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy o‘zgarishlarni rivojlanish, taraqqiyot, inqilob, modernizatsiyadan ajratib turadigan aniq progressiv, ijobiy o‘zgarishlar yo‘nalishini belgilaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy o‘zgarishlarni yana-da shiddatli inqilobiy siljishlar va sekin evolyusion o‘zgarishlardan ajratib turadigan nisbatan tez o‘zgarishlar sur’ati deyish ham mumkin.

To‘rtinchidan, subyektiv omillarning rolini oshirish orqali ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirish nafaqat taktik, balki strategik jihatdan ham ko‘p jihatdan individual, guruh manfaatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Demak, jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiya - bu butun jamiyatda yoki uning asosiy elementlarida sezilarli o‘zgarishlar jarayoni bo‘lib, jamiyat xususiyatini o‘sishi, o‘zgarishlarni amalga oshirishning nisbatan yuqori sur’ati va subyektiv omillar ta’sirining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Binobarin, taraqqiyot mezonini tashqi emas, balki jamiyatning ichidan o‘zidan izlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2022.
2. Штыков П. Исследование трансформационных процессов в Восточной Германии и Восточной Европе: достижения, проблемы и перспективы немецких социальных наук (1990–2002 годы) / П. Штыков http://www.rapn.ru/index.php?doc=lib213
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2016.
4. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Тошкент. “Фан”. 1968.
5. Истон, Д. Категории системного анализа политики / Д. Истон // Антология мировой политической мысли: зарубежная политическая мысль XX в / отв. ред. Г. Ю. Семигин. — М.: Мысль, 1999.
6. «Великая трансформация» Карла Поланьи: прошлое, настоящее, будущее. Под общей ред. Р.М. Нуреева. М.: ГУ-ВШЭ, 2007.
7. Штомпка П. Социология социальных изменений. Москва. 1996.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdullaev Bahodir Ahmedovich
University of Business and Science o‘qituvchisi

UO‘K: 347:342.5:167.7 (575.1)

MEDIATSIYA HAQIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI VA ULARNING PARADIGMA SIFATIDA IFODALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqola mediatsiya tushunchasining rivojlanish tarixini va uning zamonaviy jamiyatdagi paradigmatik ifodalanishini tahlil qilinadi va nizolarni boshqarish va konstruktiv aloqa bilan bog‘liq tushunchalar keltirilgan. Maqolada mediatsiyaning ba’zi asosiy madaniyatlararo jihatlar, turli mamlakatlarda vositachilik yondashuvlarini tavsiflovchi muhim jihatlar ifoda topgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxslararo munosabatlar, guruhlararo munosabatlar, vositachilik, mediatsion texnologiyalar, konflikt, sud mediatsiyasi, ijtimoiy kelishuv, maqbul echimlarga, axloqiy masalalar.*

Абдуллаев Баходир Ахмедович
Преподаватель University of Business and Science

ЭВОЛЮЦИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О МЕДИАЦИИ И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В КАЧЕСТВЕ ПАРАДИГМЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется история развития концепции медиации и ее парадигматического выражения в современном обществе, а также представлены концепции, связанные с управлением конфликтами и конструктивным общением. В статье описаны некоторые основные межкультурные аспекты медиации, важные аспекты, характеризующие подходы медиации в разных странах.*

Ключевые слова: *межличностные отношения, межгрупповые отношения, медиация, медиационные технологии, конфликт, судебная медиация, общественное соглашение, приемлемые решения, этические проблемы.*

Abdullaev Bakhodir Achmedovich
The teacher of University of Business and Science

THE EVOLUTION OF IDEAS ABOUT MEDIATION AND THEIR EXPRESSION AS A PARADIGM

Annotation. *This article analyzes the history of the development of the concept of mediation and its paradigmatic expression in modern society, and also presents concepts related to conflict management and constructive communication. The article describes some of the main intercultural aspects of mediation, important aspects characterizing mediation approaches in different countries.*

Keywords: *interpersonal relations, intergroup relations, mediation, mediation technologies, conflict, judicial mediation, social agreement, acceptable solutions, ethical problems.*

Zamonaviy insoniyat taraqqiyotida shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda mediatsiya institutining rivojlanishi eng sezilarli bo‘lib, bu erda vujudga keladigan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy nizolarni hal qilish uchun vositachilikning keng vositasi qo‘llaniladi. Mediatsiyaning muammoli sohasi inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi bilan bog‘liq keng ko‘lamli masalalarni o‘zida qamrab oladi. Bugungi mediatsiya shahslararo va guruhlararo munosabatlar ishtirokchilari manfaatlarining ziddiyatlarini hal qilishda, ayniqsa ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlatlarda murakkab xususiyatga ega. Aynan, oilaviy, mulkiy, etnik, aqidaviy va siyosiy xususiyatga ega nizolarni hal qilishda mediatsiya instituti hamda mediator, mediatsion texnologiyalarga muhtojlik seziladi.

G‘arbdagi vositachilik haqidagi ilmiy qarashlar uning nazariy asoslari, amaliy jihatlari va samaradorligini o‘z ichiga olgan keng mavzularni qamrab oladi. Bir nechta asosiy fikrlar keltirib o‘tamiz: mediatsiya an’anaviy sud jarayoniga muqobil tizim sifatida qollaniladi. Asosiy g‘oyalarga o‘zaro bog‘liq algoritmlarga asoslangan yondashuvlar (qiziqishga asoslangan yondashuv), shuningdek nizolarni boshqarish va konstruktiv aloqa bilan bog‘liq tushunchalar kiradi:

Samaradorlik: mediatsiyaning turli xil omillarga bog‘liq, shu jumladan vositachining malakasi,

tomonlarning hamkorlikka tayyorligi va murosaga tayyorligi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, meditatsiya an’anaviy sud jarayonlariga nisbatan nizolarni hal qilish vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi va yuridik xizmatlar xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, mediatsiya tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tiklashga yordam beradi, chunki u hamkorlik va o‘zaro tushunishga qaratilgan. Biroq, mediatsiyaning muvaffaqiyati kontekstga, ishning murakkabligiga va ma’lum bir muhitda mediatsiya madaniyatiga qarab farq qilishi mumkin;

shakllarning xilma-xilligi : mediatsiyaning bir nechta turlari mavjud[27], ularning har biri tomonlarning o‘ziga xos sharoitlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan. Meditatsiyaning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

Tijorat vositachiligi - shartnomalar, sheriklik yoki mehnat munosabatlari kabi biznesdagi nizolarni hal qilish uchun qo‘llaniladi.

Oilaviy vositachilik - ajralish, vasiylik, aliment va boshqa oilaviy nizolar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi.

Sud mediatsiyasi - sud jarayoni doirasida bo‘lib o‘tadi, unda sudya sud muhokamasidan oldin nizoni hal qilish uchun tomonlarni mediatorga murojaat qilishni taklif qilishi mumkin.

Jamoat vositachiligi - mahalliy jamoalarda, masalan, qo‘shnilar yoki fuqarolar guruhlari o‘rtasidagi nizolarni hal qilishga qaratilgan.

Xalqaro mediatsiya - ko‘p millatli nizolarda, masalan, davlatlar yoki yirik korporatsiyalar o‘rtasida qo‘llaniladi;

madaniyatlararo jihatlar: mediatsiyaning ba’zi asosiy madaniyatlararo jihatlariga[28] quyidagilar kiradi:

Aloqa uslublari - ba’zi madaniyatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni afzal ko‘rishadi, boshqalari esa bilvosita va yopiq muloqot uslubiga mos kelishi mumkin.

Vaqt tushunchasi - turli madaniyatlarning vaqtga bo‘lgan munosabati turlicha bo‘lishi mumkin, bu vositachilik jarayonida vaqt va kutishlarga ta’sir qiladi.

Kuch tuzilishi - ba’zi madaniyatlarda ierarxiyani hisobga olish muhim, bu tomonlarning qanday aloqa qilishiga va qanday qarorlar qabul qilinishiga ta’sir qilishi mumkin.

Konflikt Strategiyalari - konflikt yondashuvlaridagi farqlar tomonlarning provokatsiyalarga yoki keskin vaziyatlarga qanday munosabatda bo‘lishini aniqlashi mumkin. Ushbu jihatlar madaniyatlararo vositachilikni murakkablashtiradi, lekin ayni paytda boyitadi, chunki ular tushunish va hamkorlik uchun yangi zamin yaratadi.

kasbiy tayyorgarlik: mediatsiyada kasbiy tayyorgarlik nizolarni hal qilishning asosiy tamoyillari va usullarini o‘rganishni, shuningdek, faol tinglash, hamdardlik va muzokaralar olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, trening mediatsiyaning huquqiy jihatlarini, axloqiy me’yorlarni, shuningdek, simulyatsiya qilingan mediatsiya sessiyalari bilan amaliy mashg‘ulotlarni qamrab olishi mumkin. Ushbu sohadagi mutaxassislar ko‘pincha sertifikatlash kurslarini o‘taydilar va psixologiya, sotsiologiya yoki huquq kabi tegishli sohalarda tajribaga ega bo‘lishlari mumkin. Ushbu tayyorgarlik vositachilarga turli xil ziddiyatli vaziyatlar bilan samarali ishlashga va tomonlarga o‘zaro maqbul echimlarga erishishga yordam beradi;

axloqiy masalalar: mediatsiyaning axloqiy me’yorlari quyidagi asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi: mediatorning betarafligi va xolisligi, munozaralarning maxfiyligi, mojaro tomonlari va ularning manfaatlariga hurmat va qonun doirasida harakat qilish majburiyati. Tanlovchilar bosim va manipulyatsiyadan qochib, barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarni taqdim etishlari kerak. Mediator tomonlarni mediatsiyaning protsessual jihatlari to‘g‘risida xabardor qilishi va ularga o‘z manfaatlari va ehtiyojlariga qarab muvozanatli qarorlar qabul qilishda yordam berishi ham muhimdir.

G‘arbdagi vositachilikning asosiy qarashlari uzoq yillar davomida nizolarni hal qilishning muqobil usullarini ishlab chiqishda, ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi Anglo-sakson sud tizimiga ega mamlakatlarda shakllangan. Bu mamlakatlarda vositachilik yondashuvlarini tavsiflovchi muhim jihatlar:

Mediatsiya tamoyillari. Mediatsiya bir nechta asosiy printsiplarga asoslanadi, jumladan:

ixtiyoriylik: vositachilikda ishtirok etish ixtiyoriydir va tomonlar istalgan vaqtda jarayondan chiqib ketishlari mumkin.

maxfiylik: barcha muhokamalar mediatsiyada maxfiy tarzda o‘tkaziladi, bu esa tomonning ochiqligini ta’minlaydi.

mediatorning betarafligi: mediator tarafni olmaydi va nizo natijalarida manfaatlarga ega emas, bu unga jarayonni samarali boshqarish imkonini beradi.[29]

Mediatsiyani rivojlantirish. Mediatsiya XX asrning ikkinchi boshida, ayniqsa AQShda faol o‘sishni boshladi, u erda nizolarni turli shakllarda, shu jumladan oilaviy, tijorat va mehnat nizolarini hal qilishga sabab bo‘ldi. AQShda vositachilikni qo‘llab-quvvatlovchi ko‘plab dasturlar va institutlar mavjud, masalan, milliy nizolarni hal qilish instituti.

---

[27] Калашникова С.И. Медиация в сфере гражданской юрисдикции. - Екатеринбург: 2010. - С. 258.

[28] Куликова Л.В. Дискурс межкультурной медиации: концептуальная модель исследования. Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2019, 16 (2): - С. 245-258. https://doi.org/10.21638/spbu (Murojaat san’asi: 22.10.2024.)

[29] https://ilex.by/news/o-znachenii-printsipov-mediatsii-v-raznyh-stranah/

Qonunchilikni tartibga solish. G‘arbning turli mamlakatlarida mediatsiya o‘zining Qonunchilik dizayniga ega. Masalan, AQSh : 1990 yilda mediatsiyani institutsionalizatsiya qilishga yordam beradigan sud ishlarini isloh qilish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi.[30] Buyuk Britaniya: mediatsiya bu erda keng qo‘llaniladi va sudlar tomonlarni mediatsiyaga yo‘naltirishi mumkin, mediatsiyadan voz kechish qo‘shimcha xarajatlarga olib kelishi mumkin. Germaniya: mediatsiya korporativ tizimga birlashtirilgan va ko‘plab huquqshunoslar o‘zlarining tayyorgarligi doirasida mediatsiya bo‘yicha treninglar o‘tkazadilar.

Mediatsiyani qo‘llash. Mediatsiya turli sohalarda qo‘llaniladi, jumladan: Oilaviy nizolar Tijorat mojarolari Mehnat nizolari Madaniyatlararo nizolar.

Istiqbollar va qiyinchiliklar. Mediatsiyaning keng tarqalgan tendentsiyalariga qaramay, uning afzalliklari to‘g‘risida xabardorlikni oshirish va mediatorlarni o‘qitish zarurati kabi muammolar mavjud. Mediatsiyani amalga oshirishda turli mamlakatlarning huquqiy tizimlarining madaniy xususiyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ham muhimdir. Xulosa qiladigan bo‘lsak, G‘arbdagi vositachilik nizolarni hal qilish uchun samarali va moslashuvchan vosita bo‘lib, mahalliy tizimlarga yukni kamaytirishga yordam beradi va tomonlarga o‘z manfaatlarini amalga oshiradigan echimlarni mustaqil ravishda topishga imkon beradi.

Sharqdagi vositachilik haqidagi ilmiy qarashlar ko‘pincha nizolarni hal qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy va tarixiy jihatlarga qaratilgan. Xitoy, Yaponiya va Hindiston kabi Sharq mamlakatlarida vositachilik nafaqat nizolarni hal qilish vositasi, balki jamiyatda uyg‘unlikni saqlashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Masalan, Xitoy madaniyatida konfutsiylik tamoyillarini aks ettiruvchi konsensus va jamoaviy kelishuv yuqori baholanadi. Yaponiyada mediatsiya “wa”[31] kabi an’anaviy amaliyot elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin, bu esa uyg‘unlikka intilishni anglatadi. Hindistonda, mediatsiya ko‘pincha kasta tizimi va ijtimoiy kontekst prizmasi orqali qabul qilinadi, bu ham nizolarni hal qilish yondashuvlariga ta’sir qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, Sharqdagi vositachilik G‘arb amaliyotiga qaraganda tomonlar va madaniy kontekst o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘proq e’tibor qaratishi mumkin.

Musulmonlikda arbitraj (Tahko), vositachilik (vasat), shuningdek yarashish (sulh) amaliyoti mavjud edi. Muhammad payg‘ambarning vaqtlari, Qur'onda er-xotin o‘rtasidagi nizolarni qanday hal qilish haqida eslatib o‘tilgan. Xususan, “An-Nisa” surasida (4:35) shunday deyilgan: “Agar siz ... turmush o‘rtoqlar orasidagi bo‘shliqdan qo‘rqasiz, keyin sudyani uning oilasidan yuboring va uning oilasidan sudya; agar ikkalasi ham yarashishni istasalar, Alloh ularga yordam beradi”.[32] Oyatning asosiy jihatlari: *yarashish:* oyat er-xotinlar o‘rtasida dunyoviy echimlarni izlash zarurligiga e’tibor qaratadi; *sudyalarning roli:* oilaviy sabablarga ko‘ra qaror qabul qilishda yaqinlaringizning hal qilingan nizolarda ishtirok etishiga hurmat ko‘rsatilishi kerak; *xudoning yordami:* Allohning yordami haqida gapirish yarashishning ma’naviy tomoniga ishora qiladi.

Musulmon an’analarida hakamlik (tahko), vositachilik (vasat) va yarashish (sulh) kabi qarorlar va nizolarni aniqlashga qaratilgan turli xil amaliyotlar mavjud. Ushbu amaliyotlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega va turli kontekstlarda qo‘llaniladi:

arbitraj (Tahko)[33] Tahko tomon - bu ish bo‘yicha qaror qabul qiladigan hakam tomonidan nizoni tanlash jarayoni. Hakam odatda tajribali va obro‘li jamoat a’zosi bo‘lib, shariat bo‘yicha bilimga ega. Arbitraj turli holatlarda, shu jumladan tijorat nizolari va oilaviy ishlarda qo‘llanilishi mumkin. Arbitraj qarori odatda tomon uchun majburiy hisoblanadi;

vositachilik (vasat)[34] Vasat mojaroni hal qilishda yordam berish uchun tomonlarni jalb qilishni nazarda tutadi. Vositachi (Vasit) qaror qabul qilmaydi, lekin tomonlarga umumiy til topishga va kelishuvga erishishga yordam beradi. Ushbu amaliyot muloqot va o‘zaro tushunishning muhimligiga e’tibor qaratadi, bu esa tomonlarga munosabatlarni saqlab qolish va mojaroning kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi;

yarashish (sulh)[35] Sulh - bu kelishilgan natijalarga erishish uchun derazalar orasidagi xalqaro kelishuvni o‘z ichiga olgan yarashuv jarayoni. Ushbu amaliyot ko‘pincha oilaviy ishlarda va qarindoshlar o‘rtasidagi nizolarda qo‘llaniladi. Sulh yarashish va munosabatlarni tiklash choralarini ko‘radi va kechirim va murosaga kelish elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Xulosa Ushbu amaliyotlar adolat, tinchlik va hamkorlik kabi Islomiy qadriyatlarni aks ettiradi. Ular musulmonlarga Islom

[30] А.А.Рамазанов Судебно-инкорпорированные программы альтернативного разрешения споров и их влияние на судебную систему: опыт США / ПРАВО И ГОСУДАРСТВО: теория и практика. 2018. № 1(157) - С. 136-140.

[31] Горбачев Н.С., Богоудинова Е.Р. Влияние японской культуры на манеру ведения бизнеса // Международный студенческий научный вестник. - 2021. - № 6. ; URL: https://eduherald.ru/ru/article/view?id=20730 (Murojat san’asi: 22.10.2024).

[32] https://hadis.uk/polozheniya-svyazannye-so-stroptivoj-zhenoj/45499/

[33] А.Д.Матыцин Медиативные правоотношения: история и современность / Proceedings of Voronezh State University. Series: Law. 2023. № 4 (55) - С. 81-86.

[34] А.М.Вастова Историко-теоретические основы посредничества как общеправового института. - Тамбов: Грамота, 2014. № 3. Ч. 1. - С. 165-170.

[35] Mukhametzaripov I.A. Muslim Practices of Conflicts Resolution: Doctrinal Bases and Their Implementation in Contemporary Russia // Islamovedenie. 2023. Vol. 14, no. 1 (55). - P. 26-38.

jamiyatida ijtimoiy kelishuvning muhim jihati bo‘lgan o‘zaro tushunish va mustaqillik ruhidagi nizolarni hal qilishda yordam beradi.

Etnomediatsiya[36] - bu millatlararo nizolar, to‘qnashuvlar, umuman olganda konfliktlar natijasida yuzaga kelgan nizolarni hal qilish usuli bo‘lib, uning ishtirokchilari shaxslar yoki odamlar guruhlari bo‘lishi mumkin. Etnomediatsiya deganda millatlararo qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan nizolarni hal qilish usuli bo‘lib, uning ishtirokchilari shaxslar yoki odamlar guruhlari bo‘lishi mumkin. Ushbu vositachilik millatlararo mojaroda ishtirok etgan har bir aniq xalqning madaniy farqlari va madaniy xususiyatlariga ongli e’tibor bilan to‘ldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2022. - B. 103-105.

2. А.А.Рамазанов Судебно-инкорпорированные программы альтернативного разрешения споров и их влияние на судебную систему: опыт США/ПРАВО И ГОСУДАРСТВО: теория и практика. 2018. № 1(157) - С. 136-140.

3. А.Д.Матыцин Медиативные правоотношения: история и современность / Proceedings of Voronezh State University. Series: Law. 2023. № 4 (55) - С. 81-86.

4. А.М.Вастова Историко-теоретические основы посредничества как общеправового института. - Тамбов: Грамота, 2014. № 3. Ч. 1. - С. 165-170.

5. Горбачев Н.С., Богоудинова Е.Р. Влияние японской культуры на манеру ведения бизнеса // Международный студенческий научный вестник. - 2021. - № 6. ; URL: https://eduherald.ru/ru/article/view?id=20730 (Murojat san’asi: 22.10.2024).

6. И.Абдуллаева Культура чтения молодежи Узбекистана в свете Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi" jurnalining 2024-yil 5-soni

7. И.Абдуллаева Чтение и философский анализ литературных произведений. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 2 issue 11 (33) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2

8. Калашникова С.И. Медиация в сфере гражданской юрисдикции. - Екатеринбург: 2010. - С. 258.

9. Куликова Л.В. Дискурс межкультурной медиации: концептуальная модель исследования. Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2019, 16 (2): - С. 245-258.

10. https://ilex.by/news/o-znachenii-printsipov-mediatsii-v-raznyh-stranah

[36] Т.М.Овчинникова Этнокультурная составляющая моделирования медиации: структурный подход / Гуманитарные исследования • 2018 • № 3 (20) - С. 44-47.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Tursunaliyeva E'zozaxon Ilxomjon qizi
Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasi o'qituvchisi

UO'K: 378.147:364:005.96

BO'LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARINING AMALIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, uning ijtimoiy ish sohasidagi ahamiyati va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan. Maqola, shuningdek, o'quv jarayonida kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik usullar va strategiyalarni taklif etadi. Bu yondashuv ijtimoiy ish ta'limida sifatni oshirish, talabalar tayyorgarligini kuchaytirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, maqola ilmiy tadqiqotlar va ilg'or ta'lim amaliyotlariga asoslangan holda bo'lajak ijtimoiy ish mutaxassislarining amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *Kompetensiyaviy yondashuv, amaliy kompetensiyalar, ijtimoiy ish, ta'lim, pedagogik usullar, rivojlanish, ta'sir, ijtimoiy ish xodimlari, shakllantirish, o'quv jarayoni, strategiya, sifat, talabalar, ko'nikmalar, o'qitish.*

Турсуналиева Эзозахан Ильхомжон кизи
Преподаватель кафедры социальной работы Ферганского государственного университета

ОСОБЕННОСТИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ ПРАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности компетентностного подхода в формировании практических компетенций будущих специалистов социальной работы. Анализируются сущность компетентностного подхода, его значение в сфере социальной работы и влияние на развитие практических компетенций. В статье также предлагаются педагогические методы и стратегии, необходимые для формирования компетенций в процессе обучения. Этот подход способствует повышению качества образования в сфере социальной работы, усилению подготовки студентов и развитию их практических навыков. Кроме того, статья посвящена изучению специфических особенностей компетентностного подхода в формировании практических компетенций будущих специалистов социальной работы на основе научных исследований и передовых образовательных практик.*

Ключевые слова: *Компетентностный подход, практические компетенции, социальная работа, образование, педагогические методы, развитие, влияние, социальные работники, формирование, учебный процесс, стратегия, качество, студенты, навыки, преподавание.*

Tursunalieva Ezozakhan Ilkhomjon kizi
Lecturer at the Department of Social Work of Ferghana State University

CHARACTERISTICS OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN DEVELOPING PRACTICAL SKILLS OF FUTURE SOCIAL WORK PROFESSIONALS

Abstract. *This article examines the characteristics of the competency-based approach in developing practical competencies of future social work specialists. It analyzes the essence of the competency-based approach, its significance in the field of social work, and its impact on the development of practical competencies. The article also proposes pedagogical methods and strategies necessary for fostering competencies during the learning process. This approach contributes to improving the quality of education in social work, enhancing student preparation, and developing their practical skills. Furthermore, the article explores the specific features of the competency-based approach in forming practical competencies of future social work specialists, drawing on scientific research and advanced educational practices.*

Key words: *Competency-based approach, practical competencies, social work, education, pedagogical methods, development, influence, social workers, formation, learning process, strategy, quality, students, skills, teaching.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim, ayniqsa ijtimoiy ish sohasida, tez o'zgarayotgan ijtimoiy voqelikka moslashishga doimiy ehtiyoj sezadi. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyaviy yondashuv kasbiy vazifalarni samarali hal qila oladigan va murakkab ijtimoiy muammolarga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy vositasiga aylanmoqda.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv shunchaki bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki shakllangan kompetensiyalarda ifodalangan ta'lim natijasiga yo'naltirilgan paradigmani ifodalaydi. Kompetensiya deganda kasbiy faoliyatda samaradorlikni namoyon etgan holda bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni muayyan vaziyatda qo'llashning uyg'unlashgan qobiliyati tushuniladi (Winterton, Delamare-Le Deist, & Stringfellow, 2006). Nazariy tayyorgarlikka urg'u beradigan an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, kompetensiyaviy yondashuv olingan bilimlarni amalda qo'llashni birinchi o'ringa qo'yadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

XX asr 80-yillarining oxiridan boshlab jiddiy islohotlarga uchragan aholini ijtimoiy ta'minlash sohasida malakali mutaxassis tayyorlash muammosi alohida dolzarblik kasb etdi. Bu ko'plab yangi ijtimoiy muassasalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bular oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatish va aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari, tibbiy-reabilitatsiya markazlari, mehnat birjalari, aholi bandligi markazlari va boshqalardir. Ularning faoliyati ijtimoiy ta'minot sohasi mutaxassisining vazifa va majburiyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi va ko'paytirdi. Ushbu muammoni hal qilish yo'llaridan biri ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar toifalari orasida moslashuvchan faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy malakasini shakllantirishdir. Mutaxassisning kasbiy malakasi ahamiyati, uning mazmuni va shakllanishining turli jihatlari bir qator nashrlarni yuzaga keltirdi.

Ilmiy manbaalar tahlili, malaka hodisasi, avvalo, fanlararo tadqiqotlarga yo'naltirilgan akmeologik yo'nalish doirasida faol va samarali o'rganilmoqda. K.A.Abulxanova-Slavskaya, L.I.Berestova, A.A.Bodalev, A.A.Derkach, V.G.Zazikina, E.A.Klimova, E.V.Koblyanskaya, A.K.Markova, I.N.Semenova kabi xorijiy psixologlar mutaxassisning malaka hodisasini, jumladan uning refleksivlik, autopsixologik, konfliktologik, ijtimoiy-perseptiv va boshqa tarkibiy qismlarini keng ko'lamda talqin qilishgan.

O'rganilgan turli ilmiy xujjatlar, V.M.Baydenko, V.A.Bolotov, I.P.Galyamina, I.A.Zimnyaya, N.A.Seleznev, V.V.Serikov, Yu.G.Tatur, Yu.V.Frolov, V.D.Shadrikov va boshqalar psixologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan bo'lajak mutaxassislarga malakaviy yondashuv metodologiyasi va uni Rossiya oliy kasbiy ta'lim tizimiga joriy etish usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqdalar. Kasbiy malaka masalalari L.N.Zaxarova, E.F.Zeer, V.V.Sokolova, V.M.Sokolov, A.Kasprjak, J.Raven, M.V.Rijakov, M.Sibirskaya, G.S.Trofimova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida muhim o'rin egallaydi.

Alohida ishlar guruhiga shaxsning kommunikativ madaniyati va kommunikativ malakasiga bag'ishlangan tadqiqotlarni kiritish mumkin. O.V.Gerasimova, A.V.Mudrik, V.V.Sokolova, T.B.Starostina, G.S.Trofimova, M.O.Faenova va boshqalar kommunikativ madaniyatni tahlil qilishgan. Kommunikativ malaka muammosi xorijlik mutaxassislar Yu.L.Emelyanov, G.A.Kitaygorodskaya, E.I.Passov, V.V.Sokolova, G.S.Trofimova va boshqalar tomonidan faol o'rganilgan.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlarda, ijtimoiy xodimlar kasbiy faoliyatining turli jihatlari, ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va rivojlantirish istiqbollari N.A.Aminov, A.I.Arnold, L.G.Guslyakova, I.A.Zimnyaya, P.D.Pavlenok, A.N.Savinov va boshqalarning asarlarida yoritilgan. Ijtimoiy xodimlarni kasbiy tayyorlash muammolari Rossiya davlat ijtimoiy universiteti ilmiy maktabi tadqiqotchilari - akademik V.I.Jukov, V.A.Nikitin, L.I.Starovoytova, L.V.Topchiy, shuningdek, E.I.Xolostova, N.B.Shmeleva va boshqalarning ishlarida o'rganib chiqilganligi tahlil qilindi.

Shunday qilib, bir tomondan, kelajakdagi ijtimoiy ish mutaxassislarining ijtimoiy zaif aholi qatlamlari bilan samarali ishlashini ta'minlaydigan kasbiy malakasini shakllantirish zaruriyati mavjudligi ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib aniqlandi. Boshqa bir tomondan esa, ijtimoiy ish mutaxassisining amaliy kompetentligini shakllantirishning ilmiy asoslari, oliy ta'lim muassasasida ijtimoiy ish xodimlari kabi mutaxassisni tayyorlashning mazmuni, shakllari va usullari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Yuqorida aytilganlar biz olib borayotgan tadqiqot muammosini belgilab berdi hamda Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining amaliy kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini takomillashtirishni taqazo etadi.

Natijalar va muhokama

Bugungi global transformatsiya jarayonida odamlar hayoti va faoliyatini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tamoyillari shakllanmoqda. Bunday sharoitda shaxsning ijtimoiy faolligi, uning kasbiy malakasi, tashabbuskorligi, moslashuvchanligi, ijtimoiy muhitning tez o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha olish qobiliyati masalalari oldingi o'ringa chiqadi. Bu masalalarning barchasini faqat jahon taraqqiyotining barcha yo'nalishlarini hisobga oluvchi samarali ta'lim tizimining faoliyati asosida hal etish mumkin.

Kompetentlik, kasbiy kompetentlik va ijtimoiy ish mutaxassisining kompetentligi o'zaro bog'liq tushunchalardir. Bakalavr kompetentligini aniqlash uchun

ushbu tushunchalarni yorituvchi bir qator ishlarni ko‘rib chiqamiz.

Xorijiy tadqiqotlarda kompetentlik muammosi asosan ta’limni loyihalash nuqtayi nazaridan o‘rganilgan: kompetentlikni shakllantirish kasbiy ta’limning yakuniy natijasi sifatida qaraladi (I.A.Zimnyaya, V.V.Krayevskiy, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, A.V.Xutorskoy); kasbiy mahoratni rivojlantirish kontekstida (K.A. Abulxanova-Slavskaya, A.A.Derkach, L.I.Katayeva, Ye.A.Yablokova); kadrlarni boshqarish (O.S.Anisimov, A.S.Guseva, I.P.Logova); muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish (L.M.Mitina, L.A.Petrovskaya, V.V.Petrusinskiy, A.S.Prutchenkov) va boshqa yo‘nalishlarda tadqiq etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda "kompetentlik" tushunchasi keng qamrovli talqin qilinadi. U lotincha "competens" (competentis) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "muvofiq," "qodir," ya’ni ma’lum vakolatlarni amalga oshirishga, yuklatilgan vazifalarni bajarishga layoqatli degan ma’noni anglatadi.

"Kompetentlik" tushunchasi muayyan faoliyat sohasi bilan bog‘liq. Professional haqida so‘z yuritar ekan, o‘z vazifasini malakali bajaradigan xodim tasavvuri paydo bo‘ladi. A.K.Markova ta’kidlaganidek, "professional - bu o‘z o‘rnidagi mutaxassis bo‘lib, u o‘z kasbiy faoliyati natijalariga qiziqishni uyg‘otadi va jamiyatda o‘z kasbining nufuzini oshiradi".

A.K.Markova kompetentlikning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi:

- maxsus - muayyan mutaxassislik doirasidagi kompetentlik;

- ijtimoiy - muloqot va o‘zaro hamkorlik sohasidagi kompetentlik;

- shaxsiy - o‘zining individual-shaxsiy xususiyatlari va kasbiy-psixologik salohiyatidan foydalanib, o‘z ishi natijalarini yaxshilash, mehnat samaradorligini oshirish usullari sohasidagi kompetentlik;

- poliprofessional - deyarli barcha mehnat turlarining asosini tashkil etuvchi kompetentlik, bilimdonlik, keng dunyoqarash;

- ekstremal - favqulodda va stressli vaziyatlarda harakat qilish kompetensiyasi;

- autokompetentlik - o‘z ichki dunyosi sohasidagi kompetentlik, o‘zi, o‘z sifatlari, qobiliyatlari, xususiyatlari, ehtiyojlari, maqsadlari, motivlari, qadriyat yo‘nalishlari haqidagi to‘g‘ri tasavvurlar".

B.S.Gershunskiyning fikriga ko‘ra, "kasbiy kompetentlik" toifasi asosan shaxsning kasbiy ta’lim darajasi, tajribasi va uzluksiz o‘z ustida ishlash hamda o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan individual intilishi, ishga ijodiy va mas’uliyatli yondashuviga bog‘liq. Bu kasbiy bilimlar, fanni o‘zlashtirish ko‘nikmalari va ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatining shakllanganlik darajasini ko‘rsatuvchi natija hisoblanadi.

N.A.Volginning ta’kidlashicha, kompetentlik mutaxassisda nafaqat katta hajmdagi bilim va tajribaga ega bo‘lishni, balki to‘plangan bilimlarni dolzarblashtirish va ulardan o‘z kasbiy vazifalarini bajarish jarayonida kerakli paytda foydalanish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Kompetentlik yuzaga kelgan vaziyatni to‘g‘ri baholash va shu asosda muhim natijaga erishishga imkon beradigan zarur qarorni qabul qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

V.S.Bezrukovaning ta’kidlashicha, kasbiy kompetentlik - bu o‘zining barcha aqliy, psixologik va hatto jismoniy imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash qobiliyatidir. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maxsus kompetentlik (kasbiy-ishlab chiqarish topshiriqlarini mustaqil bajarishga tayyorgarlik; o‘z mehnati natijalarini baholay olish, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash qobiliyati), ijtimoiy kompetentlik (guruhiy va jamoaviy faoliyatga hamda boshqa xodimlar bilan hamkorlik qilishga qodirligi, mehnat natijalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorligi). Kasbiy kompetentlik, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirishning yuqori darajasini, "anglanmagan kompetentlik"dan "anglangan kompetentsizlik"ka o‘tishni ta’minlaydigan shaxs xususiyatidir.

Yu.V.Vardanyan va boshqalar kasbiy kompetentlik deganda talabalarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq bo‘lgan zaruriyatni tushunadilar, bu "mutaxassisda kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarlik hamda buning uchun zarur bo‘lgan harakatlarni bajarish qobiliyati (ya’ni ko‘nikma va imkoniyatlar) birligini ifodalovchi ruhiy xususiyatlar va holatlar tizimining shakllanganlik darajasi"ni belgilaydi.

Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisning kasbiy kompetentligi Rossiyada ijtimoiy ish instituti tashkil etilgan paytdan boshlab o‘rganila boshlandi. Bugungi kunda ushbu tushunchani ta’riflashda turli nazariy yondashuvlar mavjud. Ulardan ba’zilarinigina aytib o‘tamiz.

Jumladan, V.G.Bocharova, G.N.Filonov va boshqalar kasbiy kompetentlik tuzilmasini har xil turdagi o‘ziga xos kompetensiyalarning kombinatsiyasi sifatida ko‘rib chiqadilar. Shu bilan birga, ushbu mutaxassislarda ular oltita turdagi kompetensiyalarni ajratib ko‘rsatadilar: konseptual, texnik, integral, kontekstual, adaptiv va shaxslararo. So‘nggisi samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Boshqa yondashuv kasbiy kompetentlikning turli darajalarini aniqlash bilan bog‘liq. Masalan, T.F.Yarkina ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisda kasbiy kompetentlikning uchta darajasi mavjudligini ko‘rsatadi: ilmiy-uslubiy, kasbiy-amaliy va shaxsiy. K.Oganyan, M.V.Firsovlarning fikriga ko‘ra, ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisning kasbiy kompetentligi ikki turga bo‘linadi: psixologik-pedagogik va boshqaruv.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisning kasbiy kompetentligini tasniflash uchun nima asos bo‘lishiga qarab, turli mualliflar kasbiy

kompetentlikning har xil turlarini taklif qilishlarini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan va boshqa ishlarning tahlili kompetentlikning quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi: ma’lum bir bilim va ko‘nikmalar tizimiga ega bo‘lgan shaxsning u yoki bu sohada ishlash qobiliyati, shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi. Shuning uchun har qanday ijtimoiy soha mutaxassisining kompetentligi haqida fikr yuritganda, avvalo, uning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish zarur.

Ijtimoiy ish mutaxassisning kasbiy kompetentligi - bu ijtimoiy ishning aniq turlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan insonning o‘ziga xos faoliyatidir. Buning uchun nafaqat tegishli kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki mutaxassis va bakalavrning ijtimoiy ish vazifalarini bajarishga tayyorgarligi, unga bo‘lgan motivatsiyasining shakllanganligi, shaxsiy fazilatlarining rivojlanganligi ham zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakuiilari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dastuming eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytiiilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14 yanvar. T.: Uzbekiston, 2017. 104 b.

2. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. //Mas’ul muharrir A.X.Saidov./ – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008 y. - 34 bet.

3. “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.21.06.2022

4. “BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARINI TA’MINLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.08.2021 yildagi PF-6275-son.

5. Безрукова В.С. Педагогика: учебник. Екатеринбург, 1996. - 339.

6. Мардахаев Л.В. Социальная педагогика; Учебник. М., 2005.267 с.

7. Маркова А.К. Модель специалиста основа подготовки психолога для сферы социальной работы // Развивающая психология - основы гуманизации образования: мат. 1. Всерос. научно-метод. конф. - М., 1998. - С. 2328.

8. Маркова А.К. Психология профессионализма. -М.:, 1996. 308 с.

9. Махмутов М.И. Теория и практика проблемного обучения. Казань, 1992.-551 с.

10. Quronov M. Ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006.

11. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. 2007.

12. Мудрик А.В. Социализация человека: учеб.пособие для студентов высш.учеб.зав./А.В.Мудрик-2 е издание., испр.и доп. – М.: Издательский центр «Академия», 2006. – 304 б.

13. Темиров, Н. С., & Максудов, У. К. (2023). Социальные и воспитательные факторы системы формирования национальных ценностей в вузе. “Актуальные Вопросы Экономики И Управления, Права, Психологии И Образования: Опыт Наставника” сборник научных статей ежегодной международной конференции научно-педагогических работников. Санкт-Петербург, 2023.

14. Профессиональное матерство работников социальных служб: Мат. 2-й нац. конф. Ассоц.работников социальн. служб / Сост. и отв. ред. А.М. Панов, Л.В. Топчий, Э.А. Манукян.М., 1998.

15. Социальная работа: теория и практика / Отв.ред. Е.И. Холостова, А.С. Сорвина. М., 2001.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abduraxmonova Manzura Manafovna
Farg‘ona davlat universiteti ijtimoiy ish kafedra professori, sotsiologiya fanlari doktori
Vaxabova Tillaxon Xakimjanovna
Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish mutaxassisligi magistranti

INSONGA XIZMAT QILISH MILLIY SIYOSAT VA OLIY QADRIYAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi tizim va mexanizmi, aholini, jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini yagona reestrga kiritish orqali ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, ijtimoiy karta va ijtimoiy sug‘urtani amalga oshirishdan kelib chiqadigan qulayliklar va ularni harakatga kelishi inson omilini farovonligini ta’minlashga xizmat qilishi kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *farovonlik, makon, mahalla, mahallabay, mutasaddi, ijtimoiy-iqtisodiy holat, ehtiyojlar ierarxiyasi, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy karta, AT tizim.*

Абдурахмонова Манзура Манафовна
Профессор кафедры социальной работы Ферганского государственного университета, доктор социологических наук
Вахабова Тиллахан Хакимжановна
Магистрант по специальности «Социальная работа» Ферганского государственного университета

СЛУЖЕНИЕ ЛЮДЯМ — ЭТО НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА И ВЕЛИКИЙ ХАРАКТЕР

Аннотация. *В данном статье рассматриваются такие вопросы, как новая система и механизмы социальной защиты населения, создаваемые возможности для населения, в том числе нуждающегося в социальной защите. А так же, преимущества путем включения их в единый реестр, при внедрении социальной карты и социального страхования, и как их внедрение служит для обеспечению благополучия человеческого фактора.*

Ключевые слова: *благосостояние, место, соседство, маҳаллабай, чиновник, социально-экономический статус, иерархия потребностей, социальное страхование, социальная карта, ИТ-система.*

Abdurakhmonova Manzura Manafovna
Professor of the Department of Social Work, Fergana State University, Doctor of Sociology
Vakhabova Tillakhon Khakimzhanovna

SERVICE TO HUMAN BEINGS IS A NATIONAL POLICY AND A GREAT CHARACTER

Abstract. *This article examines such issues as the new system and mechanisms of social protection of the population, the opportunities created for the population, including those in need of social protection. And also, the advantages of including them in a single register, when introducing a social card and social insurance, and how their implementation serves to ensure the well-being of the human factor.*

Keywords: *welfare, place, neighborhood, mahallabai, official, socio-economic status, hierarchy of needs, social insurance, social card, IT system.*

Kirish.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar aniq hayotiy jarayonlarda aks etmoqda. Chunki, bugungi islohotlarning harakati Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirishdan iboratdir. Ushbu islohotlarni natijadorligiga erishish uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-mart oyidagi “Mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 152-sonli qarorida, hududlarda “Mahallabay” ishlash tizimini joriy etish orqali aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqish,

yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish maqsad qilingan edi. Ushbu qarorning mazmunida ham, Yurtboshimizning inson hayotini rivojlantirishga qaratilgan ma’ruzalarida ham aynan, mahalla mutasaddilari xonadonlarga kirib borib, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy xolatini, oiladagi har bir shaxslarning muammolariga alohida tizimli yondoshgan xolda ish tutishlari va o‘sish nuqtalarini aniqlash hamda rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu zarruriyatdan kelib chiqib, O‘zbekistonda aholini yanada ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning davomi va asosi sifatida hurmatli Prezidentimizning 2023 yil 1-iyundagi 82-sonli “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonini qabul qilinishi, Yangi O‘zbekistonda yangi ijtimoiy himoya tizimini shakllanishiga sababchi bo‘ldi va mamlakatimizda Aholining ijtimoiy himoyasi sohasi – “milliy siyosat” darajasiga olib chiqildi. Aholini ijtimoi himoya qilish, aynan ehtiyojmand inonlarning ehtiyojlarini qondirish demakdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ehtiyojlarni qondirilishi, yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi, bu esa inson omilini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ehtiyojlar ierarxiyasini yaratgan buyuk mutaffakkir olim A.Maslouni fikrlari, bugungi kunda ijtimoiy ish sohasida ham dolzarbdir. A.Maslouning fikricha[4.], birinchi marta inson, inson sifatidagi o‘z potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun qondirilishi zarur bo‘lgan ehtiyojlari bo‘lib, ushbu ehtiyojlarning birinchi darajasi bu bizning fiziologik omon qolishimizni ta'minlaydigan oziq-ovqat, suv va boshpana kabi hayotning asosiy ehtiyojlarini o‘z ichiga olsa, ehtiyojlarning ikkinchi darajasi xavfsizlik masalalari, uchinchisi esa - sevish va tegishli bo‘lishni xis qilish va to‘rtinchisi – o‘z - o‘zini hurmat qilish zarurati bo‘lib, insonning o‘z-o‘zini anglashning yakuniy yutug‘i quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilgandan so‘ng va shaxs inson sifatida o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarganidan so‘ng sodir bo‘ladi [4.], deb ta’kidlab o‘tadi. Darhaqiqat ushbu nazariyalarni inobatga olgan holda, bugungi kunda ham O‘zbekistonda insonni ehtiyojlarini qondirish oliy qadriyat sifatida qaralmoqda. Jumladan aholini, insonni kuchli, manzilli va yanada ijtimoiy himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya agentligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya agentligi orqali viloyatlarda boshqarmalari hamda 206 ta tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlari markazlari tashkil etilishi, shuningdek eng quyi boshqaruv organi bo‘lgan 11 mindan ortiq mahallalarda ilk bor ijtimoiy xodimi faoliyati tashkil etilishi va ushbu kasbiy faoliyat orqali 12 toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga 49 ta ijtimoiy xizmat va yordamlar mahalla darajasida amalga oshirilayotganligi ahamiyatlidir. Chunki, bugungi O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat natijasida ijtimoiy himoya tizimi yanada takomillashtirildi. Buni quyidagilar orqali ko‘rish mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy ish kasbiy faoliyati rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanib, aniq metodologiya asosida amalga oshiralayotganligi.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoyaning tarqab ketgan xizmatlari, bitta agentli qoshida birlashtirilganligi.

Uchinchidan, eng quyi bo‘g‘in hisoblangan mahallarlarda ijtimoiy himoya bilan shug‘ullanuvchi alohida shtat ijtimoiy xodim lavozimi joriy etilganligi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining har bir toifalari bilan yaqindan ishlab, ularning muammolari erta aniqlanib, keys menejment asosida yondashilib, kompleks xizmatlar ko‘rsatilayotganligi.

Beshinchidan, zarur xollarda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar va oilalar vaziyati baholanib, individual xizmatlar rejasini ishlab chiqilib, xizmatlar ko‘rsatilishi kabi belgilari bilan farq qiladi.

Shunindek, ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy adolatni ta’minlash maqsadida tub yangiliklar amalga oshirilmoqda, masalan:

- bandlik va ijtimoiy himoya uyg‘unlashdi, ya'ni mehnatga layoqatli bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta’minlashning alohida tizimi shakllandi;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan og‘ir darajadagi sog‘lig‘ida nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli “G‘amxo‘rlik” guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi (nogironligi bo‘lgan bolalarga qisqa muddatli qarab turish, ona to‘yga bormoqchi, bolasini ma’lum muddatda tashlab keta oladi);

- o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimi yangi bosqichga olib chiqilib, “Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlar” tashkil etildi (masalan: sahovat uylarida yakka yolgiz va yordamga muhtoj keksalar uchun oziq-ovqat, maishiy, tibbiy, reabilitatsiya xizmatlari shakllandi);

- Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Uzum Market” milliy marketpleysi tashabbusi bilan muhtoj shaxslarga respublika bo‘ylab joylashgan istalgan yetkazib berish punktlari orqali reabilitatsiya vositalarini buyurtma qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu masala bo‘yicha Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansurbek Olloyorov - “Bizning vazifamiz nogironlarning to‘laqonli hayot kechirishiga ko‘maklashish, ularni reabilitatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalar: qo‘ltiqtayoq, nogironlik aravachasi va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlashdan iborat”, deb, bunda — Uzum Market bilan hamkorligimiz tufayli biz butun mamlakat bo‘ylab eng zamonaviy texnologik yechimlar va ulkan infratuzilmadan foydalanishimiz mumkin [5.], deb ta’kidlab o‘tadi. Demak, ushbu islohotlar natijasida minglab O‘zbekiston fuqarolari qatori ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolari uchun ham kundalik muammolarni hal qilish, odatdagi turmush

tarziga qaytish va sevimli ishi bilan shug‘ullanishga imkoniyat yanada keng yaratiladi;

- tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti tasdiqlandi, unga ko‘ra Xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlar “Inson” markazlari tomonidan dastlabki ijtimoiy-psixologik xizmatlar (bazan, shifoxona, tez yordam bo‘limlarida birlamchi tibbiy yordam bo‘limlarida), zarur holda “Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi”ning hududiy markazlari tomonidan ham xizmatlar ko‘rsatiladi.

Natijalar va muhokama. Yuqorida yaratilayotgan imkoniyat va shart-sharoitlarga qaramay, biz tomondan amalga oshirilgan sotsiologik tadqiqotlarda, shu ma’lum bo‘lgan ediki, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan yoki tushib qolish ehtimoli yuqori bo‘lgan insonlar, ushbu vaziyatdan chiqib ketishlarida qanday harakat qilishni bilmasligi, davlat tomonidan kafolatlangan xizmat va yordamlardan bexabarligi hamda tegishli ijtimoiy himoya tashkilotlariga ishonchi yo‘qligi kabilar edi. Lekin bugungi kunga kelib, Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA) aholini ijtimoiy himoya muhtoj toifasi bilan yaqindan ishni tashkil etilganligi, xizmat va yordamlar bo‘yicha xabardorligi oshirishi, inklyuziv yondashuvni tashkil etayotganligi yurtimizda “Inson qadri”ni ulug‘lash amalga oshayotganligidan dalolat beradi. Shunday ekan mahalla darajasida ijtimoiy himoyani samarali amalga oshirishda ijtimoiy xodimlarni o‘rni muhim, bunda albatta ijtimoiy xodimlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasasalari professor-o‘qituvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari va natijada yetuk kadrlar tayyorlashga xizmat qilishlari zarur va shartdir.

Shuningdek, aholini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid barcha choralarni raqamli texnologiyalar asosida taqdim etishga o‘tishning asosiy yo‘nalishlari sifatida “Ijtimoiy karta” axborot tizimi joriy etilishi ko‘zda tutildi. Jumladan, qarorga ko‘ra: 2024-yil 1-sentyabrga qadar O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy kartasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash va “Ijtimoiy karta” orqali ijtimoiy to‘lovlar va subsidiyalar, ijtimoiy xizmatlar va yordamlarni tayinlash, taqdim etish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini, shuningdek, aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy xususiyatga ega boshqa barcha choralarni bosqichma-bosqich to‘liq avtomatlashtirilishi ko‘zda turilgan edi.

“Ijtimoiy karta”ni shakllantirish orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

Birinchidan, “Ijtimoiy karta” tizimi orqali davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini manzilli, qisqa muddatlarda, masofadan turib hamda proaktiv tarzda olish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy sug‘urtalashni joriy qilish doirasida raqamli servislarni rivojlantirish orqali davlat va tadbirkorlik subektlari o‘rtasida hamkorlik qilishni soddalashtiriladi.

Shuningdek, “Ijtimoiy karta” axborot texnologiyalari tizimi orqali quyidagi qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari taqdim etiladi:

Birinchidan, 2024-yil 1-dekabrdan yangidan tayinlanadigan ijtimoiy to‘lovlar, xizmatlar va imtiyozlar beriladi;

Ikkinchidan, 2025-yil 1-apreldan bosqichma-bosqich shaxsning nogironligini, talaba, o‘quvchi, urush qatnashchisi yoki urush qatnashchisiga tenglashtirilgan shaxs holatini tasdiqlash yo‘lga qo‘yiladi;

Uchinchidan, bunda nogironlik to‘g‘risidagi ma'lumotnoma va guvohnomalar, talabalik guvohnomalari, o‘quvchilar guvohnomalari, urush qatnashchilari yoki ularga tenglashtirilgan shaxslar guvohnomalarining qog‘oz shakli ijtimoiy kartaga almashtirish orqali bekor qilinadi;

To‘rtinchidan, nogironligi bo‘lgan va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun umumiy foydalanishdagi avtomobil, temir yo‘l, havo va daryo transporti, yo‘nalishsiz taksi xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha imtiyozlar, shuningdek ushbu xizmatdan imtiyozli foydalanish huquqiga ega bo‘lgan aholining boshqa toifalari uchun imtiyozlar beriladi;

Beshinchidan, davlat ijtimoiy obyektlariga, konsert-tomosha tadbirlari va boshqa tadbirlarga bepul tashrif buyurish yoki qisman haq to‘lash bo‘yicha imtiyozlar yaratiladi;

Oltinchidan, 2025-yil 1-iyuldan “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilganlarga belgilangan tovarlar (xizmatlar)ni xarid qilishda to‘langan QQS summasini 1 ish kunida qaytarish tizimi joriy etiladi;

Yettinchidan, 2025-yil 1-oktyabrdan hukumat tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq fuqarolarga byudjet mablag‘lari hisobidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordam, subsidiyalar, grantlar, imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar hamda moddiy xususiyatga ega boshqa to‘lovlar taqdim etilishi yo‘lga qo‘yiladi;

Sakkizinchidan, 2026-yil 1-yanvardan qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlardan foydalanish imkoniyatlari;

To‘qqizinchidan, 2025-yil 1-oktyabrdan pensiya oluvchilarga o‘z xohishiga ko‘ra yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganligi bo‘yicha pensiyalarni ijtimoiy karta orqali olish huquqi beriladi.

Xulosa.

Yuqorida sanab o‘tilgan imkoniyatlardan foydalanib vazifalarni bajarilishi, xalqimizning farovonligini ta’minlaydi. Ushbu farovonlikni ta'minlashda xizmat ko‘rsatuvchi kasb egalari, ya’ni ijtimoiy ish xodimlari

aholimizdagi ijtimoiy muammolarni kompleks baholab, muammoning vujudga kelish sababini aniqlash va unga real ijtimoiy xizmat va yordamlarni ko'rsatishi zarur. Shundagina bu yangi tizim yanada rivojlanib boradi va xalqimizning turmush darajasi yanada yaxshilanadi. Chunki, xalqimizni manzilli ijtimoy himoya qilish bizning pirovard maqsadimizdir va buning uchun barchamiz javobgarmiz.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 1 июндаги "Аҳолига сифатли ижтимоий хизмат ва ёрдам кўрсатиш ҳамда унинг самарали назорат тизимини йўлга қўйиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони. https://lex.uz/docs/6480342
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йилдаги "Ўзбекистон-2030"стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сонли Фармони.
4. Maslow, A. (1970). Motivatsion and personality(2end ed.) New York: Harper & Row.
5. Ижтимоий ҳимоия миллий агентлиги ва Uzum Market реабилитация воситалари билан таъминлаш бўйича қўшма лойиҳани ишга туширди. 14 Май, 2024. https://ihma.uz/oz/news-category/ижтимоий-ҳимоия-миллий-агентлиги-ва-uzum-mark/#!

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ashurov Abror Uralovich
University of Business and Science, Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrasi v.b dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

EKOLOGIYA VA BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI ASRASH BORASIDA O'ZBEKISTON EKOLOGIK SIYOSATINING YANGI MODELINI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekistonning ekologik siyosatini takomillashtirish zarurati va uning yangi modelini shakllantirish asoslari tahlil qilinadi. Iqlim o'zgarishlari, sanoatning kengayishi va tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va bioxilma-xillikni asrash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim. Maqolada zamonaviy yondashuvlar, xalqaro tajriba va ilmiy asoslangan strategik takliflar asosida ekologik boshqaruvning samarali modeli ishlab chiqish taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *ekologik siyosat, biologik xilma-xillik, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar, ekotizim, atrof-muhit muhofazasi, davlat strategiyasi, yashil iqtisodiyot, qonunchilik islohoti, ekologik xavfsizlik, innovatsion texnologiyalar, xalqaro tajriba, ekologik boshqaruv modeli.*

Ашуров Аброр Уралович
University of Business and Science, и.о. доцента кафедры Социально-гуманитарных наук и языков
доктор философии (PhD) по философским наукам

НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НОВОЙ МОДЕЛИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА ПО СОХРАНЕНИЮ ЭКОЛОГИИ И БИОРАЗНООБРАЗИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется необходимость совершенствования экологической политики Узбекистана и основы формирования ее новой модели. Изменение климата, расширение промышленности и чрезмерное использование природных ресурсов негативно влияют на биоразнообразие. Поэтому обеспечение экологической безопасности, поддержка устойчивого развития и сохранение биоразнообразия должны стать приоритетными направлениями государственной политики. В статье предлагается разработать эффективную модель экологического управления на основе современных подходов, международного опыта и научно обоснованных стратегических предложений.*

Ключевые слова: *экологическая политика, биоразнообразие, устойчивое развитие, изменение климата, природные ресурсы, экосистема, охрана окружающей среды, государственная стратегия, зеленая экономика, законодательная реформа, экологическая безопасность, инновационные технологии, международный опыт, модель экологического управления.*

Ashurov Abror Uralovich
University of Business and Science, Department of Social Sciences, Humanities and Languages
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)

THE NEED TO FORM A NEW MODEL OF UZBEKISTAN'S ENVIRONMENTAL POLICY IN THE FIELD OF ECOLOGY AND BIODIVERSITY CONSERVATION

Abstract. *This article analyzes the need to improve Uzbekistan's environmental policy and the foundations for forming its new model. Climate change, industrial expansion, and overuse of natural resources are negatively impacting biodiversity. Therefore, ensuring environmental safety, supporting sustainable development, and preserving biodiversity should become a priority of state policy. The article proposes to develop an effective model of environmental management based on modern approaches, international experience, and scientifically based strategic proposals.*

Keywords: *environmental policy, biodiversity, sustainable development, climate change, natural resources, ecosystem, environmental protection, state strategy, green economy, legislative reform, environmental safety, innovative technologies, international experience, environmental management model.*

Kirish

XXI asrda ekologik globallashuv tendensiyasining avj olishi O‘zbekistonning barqaror ekologik rivojlanishi strategiyasini belgilaydigan ekologik siyosat modelini yaratishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Bunday modelga zaruriyat 15-20 yillar avvalroq yuzaga kelib ulgurgan. Shuni nazarda tutgan holda O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda: “global ijtimoiy muammolar, jumladan ming yillik rivojlanish maqsadlari doirasida, “regionalizm orqali globalizm sari” formulasi bo‘yicha, samarali mintaqaviy mexanizmlar yaratish yo‘li bilan hal etilishi lozim” [1], deb ko‘rsatgan edi. Biroq muammo shundaki, mazkur model hanuzga qadar tugal shakllantirilgani yo‘q. Bu model mazmuniga va funksiyasiga ko‘ra xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy munosabatlarni ekologiyalashtirish imkoniyatlarini aniqlashi; milliy va hududiy ekologik muammolarni hal qilishning institutsional tizimida jiddiy islohotlar strategiyasini belgilashi; ekologik globallashuv sharoitida mahalliy, milliy, hududiy ekologik faoliyatlarning integratsiyalashish tendensiyalarini ko‘rsatib berishi lozim.

Mavzuning o‘rganilganligi

Umuman, “ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e’tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko‘lamli, butun sayyoramizga dahldor muammo bo‘lib qolayotganligini, uning ta’siri hozirning o‘zidayoq biologik muvozanatni buzayotganligini, bepoyon hududlarda aholining genofondiga halokatli ta’sir ko‘rsatayotganligini nazarda tutish lozim” [1]. Shuning uchun Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Olmaota Kengashi (1997 y.) Deklaratsiyasida aytilganidek, bu davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi imkoniyatlaridan Orolbo‘yi ekologik muammolarini hal etishda keng foydalanish zarur [2].

Orol dengizi qurishi natijasida vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun turli davlatlarning shu sohadagi islohotchilik g‘oyalarini umumlashtirib, ilg‘or tajribalarini amalga oshirish zarur bo‘ladi. Mazkur masalalarni xalqaro hamjamiyatning e’tiborini jalb qilmasdan hal etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Orol muammosi oqibatlarini bartaraf etish masalasiga xalqaro hamjamiyat e’tiborini qaratgan edi [1]. Shu bilan birga 2025-yil 4-aprel kuni Samarqand xalqaro Iqlim sammitida nutq so‘zlagan Sh.Mirziyoyev xalqaro jamoatchilik e’tiborini Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarga yana bir bor qaratdi. O‘zbekistonning mintaqadagi ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlari haqida to‘xtalib o‘tdi. “...bugun biz barchamiz iqlim inqirozlarining salbiy ta’sirlari – o‘rmon yong‘inlari va cho‘llanish miqyosi ortib borayotgani, muzliklar qisqarayotgani, suv resurslari taqchilligi kuchayayotgani, havo sifati yomonlashayotganini his qilib turibmiz” dedi hamda “atrof-muhitni asrab-avaylashda mas’uliyat barchamizning zimmamizda. Bu kun tartibimizdagi eng muhim masaladir...”. “So‘zimning nihoyasida “Biz Yerni ajdodlarimizdan meros sifatida emas, balki farzandlarimizdan qarzga olganmiz”, degan mashhur hikmatli iborani eslatib o‘tishni istar edim. Bugungi kunda bizning vazifamiz – kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rishdan iborat. Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumiy ezgu maqsadlar yo‘lida birlashgan barcha davlatlarning sa’y-harakatlarini uyg‘unlashtirish zarur” [3] deya ta’kidlab o‘tdi.

Tadqiqot uslublari

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, kontent tahlil, obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi

Bugungi kunga kelib, mamlakatda va jahonda kechayotgan ko‘plab jarayonlar davlat ekologik siyosatining yangi modeliga zaruriyatni tobora oshirmoqda. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- xalqaro ekologik siyosiy munosabat subyektlarining manfaatlari muqobillashishi, ularning faoliyatlarini muvofiqlashtirish tarixiy zaruriyatini anglashga olib kelmoqda;
- milliy ekologik siyosatning dunyo siyosatiga integratsiyalashish jarayoni qonuniyat maqomiga ega bo‘lib, istisnosiz barcha mamlakatlarning taraqqiyoti shartlari va imkoniyatlari tarzida namoyon bo‘lmoqda;
- ekologik siyosatning xalqaro miqyosda globallashuvi mavjud qonunlarni takomillashtirish, yangilarini ishlab chiqib, amalda qo‘llash mexanizmlarini mukammallashtirishni taqozo qilmoqda;
- xalqaro ekologik siyosiy munosabatlar monitoringi institutsional strukturasini tashkil qilish va ularning muayyan mintaqa ekologik vaziyatiga differensial yondashish tamoyillarini aniqlash zarur;
- milliy, hududiy, mintaqaviy ekologik siyosatning umumiinsoniyat maqsadi, manfaatlari doirasida integratsiyalashish imkoniyatlarini reallashtirishga shart-sharoit yaratishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, ekologik siyosatning yangi modelini shakllantirish zaruratini kun tartibiga qo‘yib, quyidagi omillarni e’tiborga olishni taqozo qilmoqda:

1. Tarixiy taraqqiyot tajribalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy va global ekologik siyosiy munosabatlarning hozirgi holati ijtimoiy-iqtisodiy hayot yo‘nalishlarini umuminsoniy manfaatlarga moslashtirish talablariga javob bermaydi, aksincha undan og‘ishning yangi tendensiyalari vujudga kelmoqda. Shu asosda: bir tomondan, milliy ekologik siyosatning yangi strategik mo‘ljallarini belgilash zarurati eski stereotiplardan voz kechishni taqozo qilayotgan bo‘lsa; ikkinchi tomondan, ekologik siyosatning globallashuvi jarayonida ham ayrim davlatlar milliy taraqqiyotining individual strategiyasini shakllantirish

siyosatida milliy manfaatlar ustuvorligini ta’minlashga intilish, o‘ziga xos “milliy ekologik egoizmni” namoyon qilmoqda. Shunga qaramasdan, hozirgi zamonda milliy ekologik siyosatning ustuvorlashib borishi quyidagi sabablar bilan xarakterlanadi: *birinchidan,* ayrim mintaqalarda ekologik vaziyatning keskinlashuvi va uning eskalatsiyasi natijasida globallashuvi; *ikkinchidan,* milliy ekologik siyosatning xalqaro masshtabda integratsiyalashuv zaruriyatini e’tirof etish; *uchinchidan,* ekologik siyosatning integratsiyalashish va globallashish tendensiyasiga davlatlarning tayyorgarlik darajasi, amaliy harakat imkoniyatlari reallashuvi; *to‘rtinchidan,* xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda “konsensus nuqtasini” topishdan umuminsoniy manfaatdorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2. Xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda hozirgi zamon dunyo sistemasining ko‘pqutbliligi omilini hisobga olish zarur. Xalqaro ekologik siyosatdagi hatto sezilmaydigan kelishilmovchilik ham taraqqiy etgan davlatlarning “milliy egoizm”ini namoyon qiladi yoki rivojlanayotgan davlatlarning milliy manfaatlarini tan olmaslikka olib kelishi mumkin.

Global va mintaqaviy ekologik muammolarni hal qilishning xalqaro hamjamiyati qarshiligiga qaramasdan, industrial taraqqiy etgan va rivojlanib kelayotgan davlatlarning milliy ekologik siyosati, strategik mo‘ljallari muqobillik sharoitida shakllanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, global ekologik siyosiy munosabatlar xarakterini va yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. B*ir tomondan,* ekologik siyosiy munosabat institutlarining muammoga yangicha yondashuv tamoyillarini o‘zlashtirishni talab qiladi. Zero, hozirgi davr realligi xalqaro ekologik siyosatning yangi paradigmalarini belgilab, demokratik tamoyillarini vujudga keltirmoqda. *Boshqa tomondan esa,* bu masalani hal qilish uchun xalqaro hamjamiyatni tashkil qiluvchi barcha davlatlar (subyektlar) o‘z ekologik siyosatining yangi modelini qator prinsipial yangiliklar hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy jarayonlar negizida qurishi kerak. Xususan:

- xalqaro qonunlarni milliy, mintaqaviy darajaga transformatsiya qilish va milliy ekologik huquqiy normalarni xalqaro standartlarga moslashtirish (unifikatsiya);
- milliy ekologik siyosatning fragmentarligi, diskretligini bartaraf qiluvchi yagona tafakkur tarzini, amaliy faoliyat maydonini shakllantirish (identifikatsiya);
- ekologik siyosiy aloqalar uchun ochiq informatsion baza, investitsiya makoni, psixologik muhit, infrastruktura va kommunikatsiya asoslarni barpo qilish (plyuralizm);
- ekologik siyosatning (nisbatan mustaqil) faoliyat ko‘rsatadigan institutsional tizimi va tashkilotlarini yagona yangi integral sistemaga aylantirish (integratsiya);
- davlat suverinitetini umuminsoniyat ehtiyoji va sivilizatsiya manfaatlariga muvofiqlashtirish (universalizatsiya);
- milliy ekologik siyosat strategik vazifalarini belgilaydigan ekologik munosabatlar sistemasini demokratiyalashtirish va mukammallashtirish (modernizatsiya).

Ekologik globallashuv sharoitida davlatlarning milliy ekologik siyosati paradigmalari o‘zgarib, yangi mazmun va ko‘lam kasb etmoqda. Uning kompleks-sistemali xarakteri ekologik siyosat predmeti doirasiga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, psixologik, etnomadaniy, etikologik, informatsion va boshqa omillarning uyg‘unligi, transmilliy xususiyatlarining ekologik siyosiy faoliyatga ta’siri o‘sib borayotganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham dunyoning turli mintaqalarida yashovchi, lekin ekologik muammolari umumiy bo‘lgan davlat rahbarlarining milliy, regional, global muammolarga umuminsoniyat manfaatlari asosida yondashish tendensiyasi kuchayishiga olib kelmoqda. Bu hodisani, pragmatizm falsafasi nuqtai nazaridan, butun insoniyatning optimal ekologik muhitda hayot kechirishi uchun siyosiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning operativ strategiyasi sifatida baholash mumkin. Zero, aynan shunday siyosiy pragmatizm globallashish potensialiga ega bo‘lgan mintaqaviy muammolar yechimining yo‘llarini, usullarini, vositalarini ko‘rsatib berishi mumkin. Ya’ni, mintaqaviy ekologik muammolarni zudlik bilan ratsional va konstruktiv hal qilish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida global miqyosda yuzaga kelgan ekologik vaziyat keskinlashuvining tarixiy genezisini, obyektiv shart-sharoitlarini, sabablarini va subyektiv omillarini aniqlash, jahon hamjamiyatining XXI asrdagi ekologik siyosati strategik vazifalari yo‘nalishlari, ko‘lami, istiqbollarini belgilab bermoqda.

Ikkinchidan, ekologik muammolar globalligini anglash, nafaqat milliy ekologik siyosatning strategik mo‘ljallarini ko‘rsatish, taktik rejalarni amalga oshirishning konstruktiv-ratsional usul hamda vositalarini tanlash imkoniyatini beradi, balki muayyan ekologik makonning real siyosiy manzarasini tashkil qilgan strukturaviy elementlar (institutsional tizim) funksiyasini aniqlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlatlarning tabiat muhofazasi sohasida geosiyosati samaradorligi uchun qulay shart-sharoit barpo qilish, uning konseptual nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga, milliy ekologik institutsional tarkiblarni xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarga moslanuvchan (adaptatsion) muhit yaratishga bog‘liq bo‘ladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida industrial-texnogen dunyoning mantiqiy davomi bo‘lgan postindustrial va informatsion jamiyat shakllanishi parodoksal voqelikni vujudga keltirdi. Bir tomondan, “tabiat–jamiyat–inson” tizimini tashkil qilgan strukturaviy

elementlarning o‘zaro munosabati muvozanati buzilishi natijasida vujudga kelgan ma’naviy inqiroz, etikologik muammolar, eng avvalo, global miqyosda ekologik vaziyat keskinlashuvida namoyon bo‘lmoqda. Ikkinchi tomondan, insoniyat ajdodlari va avlodlarining hayoti asosi bo‘lgan tabiatga munosabatni konstruktiv-ratsional tashkil qilishda siyosiy vositalar zaruriyatini anglab yetdi hamda (fragmentar, diskret tarzda bo‘lsa ham) amaliy ishlarga o‘tish harakatlari boshlanmoqda.

Tabiat ekologik muvozanat qonunlarini buzuvchi transmilliy kuchlariga qarshi kurash ekologik siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib, uning xarakterini belgilamoqda. Shu asosda siyosiy ekologiyaning “milliy ekologik manfaat”, “milliy ekologik xavfsizlik”, “regional va umuminsoniy ekologik manfaatlar umumiyligi” singari kategoriyalari sistemasi va tushunchalari apparati shakllanmoqda.

Konkretlashtirib aytganda, bugungi kunda xalqaro ekologik munosabatlar tajribasini umumlashtirmasdan turib, ularning mazmunini anglab yetish va ekologik siyosatning yangi modelini yaratish qiyin. Lekin, shu qiyinchiliklarga qaramasdan, asta-sekinlik bilan, xalqaro miqyosda, ekologik siyosatning altruistik mazmundagi yangi paradigmasi paydo bo‘lib, ekologik siyosatdagi konformizm va avantyurizm hodisalariga qarshi qo‘yilmoqda.

Insonning tabiatga antropogen, antropotexnogen, antropolitik ta’siri natijasida vujudga kelgan ekologik globallashuv tarixiy shakllangan ijtimoiy birliklarning obyektiv taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog‘liq. Insoniyat milliy utilitar egoistik, etnoegosentrizm kayfiyatlarini bartaraf qilmasdan, ekologik muammolarning global xarakterini, uning sabablari, oqibatlarini bartaraf qilish zaruriyatini baholay olmaydi. Chunki har qanday millat yoki davlatning “milliy-utilitar” va “merkantil-etnoegoistik” manfaatlari ekologik siyosat xarakteriga ham, yo‘nalishlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi zamon tendensiyasi shuni ko‘rsatadiki, yaqin kelajakda ayrim davlatlarning global ekologik makondagi siyosiy munosabatlarni umuminsoniyat manfaatlaridan ajratib tasavvur qilish mumkin emas. Bundan tashqari, turli yo‘nalishlardagi milliy va mintaqaviy ekologik siyosatning globallashish jarayoni: 1) davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mo‘ljallarini global ekologik muammolarini hal qilishiga yo‘naltirilganligiga; 2) ekologik strategik rivojlanishini boshqa davlatlar milliy siyosatiga muvofiqlashtirishiga; 3) ekologik milliy manfaatlar ustuvorligini xalqaro hamjamiyatning geosiyosiy va geostrategik manfaatlari bilan uygunlashtirishiga; 4) ijtimoiy-iqtisodiy hayotni ekologiyalashtirishga mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatlarini uyg‘unlashtirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Global ekologik siyosat sistemasi shu sohadagi milliy munosabatlar sintezi bo‘lib, uning dinamik rivojlanishi milliy ekologik siyosat modelini konkretlashtiradi. Shuning uchun, bir tomondan, milliy ekologik siyosat elementlarini umumiylikning xususiy ko‘rinishi sifatida kompleks-sistemali tahlil qilish muhim metodologik ahamiyatga ega. Ikkinchi tomondan, milliy ekologik siyosat modelini determinlashtiruvchi omillarni aniqlashda, ularning global strategiyani belgilashdagi roliga alohida e’tibor berish kerak. Boshqacha qilib aytganda, milliy ekologik siyosatning strategik yo‘nalishini belgilash, uni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, xalqaro qonunlar transformatsiyasini aniqlash global ekologik siyosat institutsional sistemasi shakllanishga, uning strukturasiga va xarakteriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Global ekologik siyosatning mohiyati haqida, milliy ekologik siyosat modelini unga moslashtirish to‘g‘risida mulohaza yuritganda quyidagilarni e’tiborga olish zarur bo‘ladi:

- global ekologik siyosat va har bir davlatning ekologik siyosati obyektiv reallik sifatida o‘tmishda ham, hozir ham, kelajakda ham nisbatan yopiq sistemada (muayyan ijtimoiy-siyosiy ekologik makonda) sodir bo‘ladi;
- global ekologik siyosat obyektiv qonuniyatlar va subyektiv omillar ta’sirida milliy ekologik siyosatning tashkiliy tizimi, funksional yo‘nalishlari, paradigmalarini o‘zgartiradi;
- global ekologik siyosat milliy ekologik siyosatga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy omillarni o‘zgartiradi;
- milliy ekologik siyosat modelini shakllantirayotganda global ekologik siyosatning rivojlanish tendensiyalari, qonuniy-huquqiy asoslari, ma’naviy-axloqiy normalari, institutsional tizimini inobatga olish taqozo qilinadi. Zero, bu metodologik tamoyillar XXI asrda milliy ekologik siyosat modelini va mamlakatning ekologik barqaror taraqqiyotining strategik yo‘nalishlarini aniqlash uchun zarur.

Davlat ekologik siyosatining yangi modelini ishlab chiqish zaruriyati yangi davr tendensiyalarini ham ilg‘ab olish zaruriyatini tug‘dirmoqda. XXI asr ekologik siyosati integratsiyasi tendensiyalarini idrok qilish uchun: bir tomondan, “mahalliy (lokal) ekologik makon”, “mintaqaviy (regional) ekologik makon”, “planetar (global) ekologik makon” tushunchalarining definitsiyasini; boshqa tomondan esa, bu ekologik makonlarda inson va ijtimoiy-siyosiy institutlarning tabiatni muhofaza qilish faoliyati motivlarini, determinlashtiruvchi omillarini aniqlash kerak. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, mafkuraviy, ekologik va boshqa ijtimoiy makonlar mavjudligini klassifikatsiya qilishga metodologik asos bo‘lishi mumkin. Bu makonlarning har biri o‘ziga xos

xususiyatlarga ega albatta. Ayni paytda ular uchun umumiy bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Ularning har biri umuminsoniy ekologik ehtiyojlar, manfaatlar asosida bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holdagina o‘z rivojlanish qonuniyatlariga ko‘ra faoliyat ko‘rsatadi.

Milliy ekologik siyosat modelini shakllantirishda uning gumanistik mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy ekologik siyosatning umuminsoniy xarakteri va ularning institutsional tizimi, muqarrar ravishda, umuminsoniy mazmunga ega bo‘lib, barcha yo‘nalishlardagi ekologik munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday davlatda ekologik siyosatning gumanistik xarakteri maqsadiga ko‘ra butun insoniyat manfaatlariga mosligida namoyon bo‘lib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy, madaniy munosabatlarni ekologiyalashtirish darajasiga bog‘liq. Bu omillarning kompleks-sistemali, uyg‘un faoliyati davlat ekologik siyosatining gumanistik xarakterini va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini belgilaydi. Shuning uchun davlat ekologik siyosatining ijtimoiy-gumanitar mazmuniga muayyan omilni mutlaqlashtirishdan iborat deterministik yondashuv g‘aliz xulosalarga olib kelishi mumkin.

Har qanday davlatning milliy ekologik siyosati barcha ijtimoiy-iqtisodiy parametrlar bo‘yicha, muqarrar ravishda, gumanistik xarakterga egaligi va butun insoniyat manfaatlariga mos kelganligi uchun davlatlardan (ularning sistemasidan) qat’iy siyosiy harakatlarni talab qiladi. Chunki siyosatchilarning nisbatan keng tarqalgan xulosalariga ko‘ra “bugun, hatto dunyoning boshqa chekkasida ko‘mir bilan ishlaydigan elektrostansiya qurilishi yoki o‘rmonlarning kesilishi bizning millatimizga qaqshatqich zarba bo‘lib, xuddi Yangi Orleanni, Mayamini, Xarvinchni to‘pga tutish uchun harbiy kemalarni yuborishga o‘xshagan agressiya aktidir. Siyosatchilar mamlakatlarni atmosferaga uglerod gazini chiqarishni cheklashga, o‘rmonlarni saqlashga majbur qilishlari kerak, agar rad qilsalar, ularning elektrostansiyalariga bombalar tashlab, o‘rmonlarni kesishga qarshi qo‘shin yuborib bizni himoya qilishga majburdirlar” [4]. Bu siyosiy tadbirlarning pirovard maqsadi insoniyatni muqarrar ekologik halokatdan saqlab qolish bo‘lib, ularning global miqyosda amalga oshishi:

-milliy va mintaqaviy ekologik siyosatni umuminsoniyat manfaatlari doirasida tartibga soluvchi turli institutsional strukturalarni tashkil qilish va ularning xalqaro ekologik munosabatlar globallashuvi jarayoniga integratsiyalashish imkoniyatlarini yaratish;

- global ekologik makonda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, texnik-texnologik va intellektual hamkorlikning tashkiliy asoslarini yaratishga doir milliy dasturlarni ishlab chiqish hamda faol amalga oshirish;

- xalqaro ekologik siyosiy munosabat subyektlarining rasmiy va norasmiy aloqalarini rivojlantirish hamda ularning axborot ayriboshlashlarini, informatsion ta’minotini yo‘lga qo‘yish;

-har qanday davlatning ekologik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va barcha vositalar, usullar bilan mahalliy, hududiy, global masshtablarda ommalashtirib, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish;

- milliy ekologik siyosat institutlari faoliyatini qonuniy-huquqiy reglamentlashtirishni demokratik tamoyillarga ko‘ra tashkillashtirib, ularni maksimal darajada liberallashtirish;

- milliy ekologik siyosatni xalqaro ekologik munosabatlarni pragmatiklashtirishga yo‘naltirilgan global siyosatga integratsiyalashuviga psixologik jihatdan tayyorlashiga bog‘liq bo‘ladi.

Keyingi yillarda bu borada davlat rahbari va hukumatning tashabbusi bilan qator ahamiyatli choralar amalga oshirildi. Davlatning oqilona ekologik siyosati sharofati bilan fuqarolarning ekologik madaniyatini shakllantirish choralariga tizimli tus berildi. Xususan, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, oliy ta’lim maskanlarida yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan fanlarning o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Mamlakat bo‘ylab amalga oshirilgan umumxalq hasharlari kishilarning tabiatga munosabatini o‘zgartirishga xizmat qildi. Ayniqsa, “bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali mahalla, ma’naviyat, tabiatni himoya qilish faollari tomonidan olib boriladigan targ‘ibot va tushuntirish ishlari ham ekologik madaniyatni oshirishda muhim o‘rin tutmoqda” [5].

Fuqarolarning ekologik madaniyatini yuksaltirish masalasi kelajakda ham davlat siyosatining strategik asoslaridan biri sifatida qolaveradi. Xuddi shuning uchun ham “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasida” “ekologik madaniyat va ta’limni shakllantirish – fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda, aholining uzluksiz ekologik ta’limi kompleks tizimini tashkil etish, atrof-muhit masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda aholining ishtirok etishi” [7] konsepsiyani amalga oshirishda asosiy yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etildi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ham milliy ekologik siyosatning yangi modelini shakllantirishni talab qiladi. Bu, bir tomondan, davlatlarning tarixiy shakllangan individual ekologik manfaatlari va ehtiyojlarini, ikkinchi tomondan esa, ekologik globallashuv jarayonlari xususiyatlarini e’tiborga olishni taqozo qiladi. Chunki hozirgacha bo‘lgan jahon tajribalari, sobiq SSSR tarqalib ketgandan keyin vujudga kelgan tarixiy sharoitlarga o‘xshash bo‘lgan mamlakatlarda (xususan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish davrida) atrof-muhitni muhofaza qilishga mutasaddi siyosiy strukturalar milliy darajada passiv bo‘lsa, ularning xalqaro ekologik siyosiy

jarayonlarga integratsiyalashuvi sust bo‘lishini ko‘rsatmoqda.

Davlatning bosh siyosiy institut sifatida gumanizm va demokratiya tamoyillarga amal qilishi, eng avvalo, uning milliy ekologik siyosat modeli markaziga insonni qo‘yishida namoyon bo‘ladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida insonga davlat siyosati darajasida g‘amxo‘rlik qilinganligi fuqarolar ijtimoiy faoliyati va hayoti uchun qulay ekologik muhitni yaratilganligi bilan belgilanadi.

Milliy ekologik siyosat modelining gumanistik xarakteri: 1) xalqaro ekologik siyosiy munosabat subyektlari tomonidan ekologik muammolarning transnatsionalligini, ularni hal qilish uchun moddiy-texnik resurslarni va boshqa imkoniyatlarni integratsiyalashtirish zarurligini e’tirof etish; 2) umuminsoniy manfaatlar ustuvorligi tamoyiliga ko‘ra, barcha millat va davlatlar manfaatlariga mos universal nazariy-metodologik asoslarni, huquqiy normalar va konseptual doktrinalarni ishlab chiqish; 3) globallashish ehtimolligi, imkoniyati yuqori bo‘lgan mahalliy, milliy, hududiy ekologik xavf o‘choqlarini aniqlash hamda xaritalashtirib, turli davlatlar va xalqaro institutlar o‘rtasida ekologik vazifalar taqsimotini tashkil qilish va boshqarish; 4) muayyan ekologik muhitda turli darajadagi davlat va jamoatchilik institutlari ekologik aloqalari integratsiyasi jarayonini boshqarish, siyosiy tizimlar faoliyati monitoringi usullari va vositalarini takomillashtirishda namoyon bo‘ladi.

Milliy ekologik siyosat modelining demokratik xarakteri, gumanistik mazmuni, umuminsoniyat manfaatlariga mosligi va samaradorligi milliy, regional va global ekologik manfaatlarining o‘zaro mos kelishi; global ekologik siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirish uchun zarur vositalar va potensial imkoniyatlarga egaligi; global ekologik siyosat subyektlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish darajasi; global ekologik siyosat institutlarning ekologik ehtiyojlar o‘zgarishiga mos funksional o‘zgaruvchanligi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Biroq, milliy va mintaqaviy ekologik siyosat, bir tomondan, konkret mamlakat va hududning strategik vazifalaridan kelib chiqib shakllanganligi uchun hamma vaqt ham global ekologik siyosatga mos kelmaydi. Boshqa tomondan, yuqorida ko‘rsatilganidek, global ekologik strategiya davlatlarning milliy va mintaqaviy ekologik siyosatiga tayanishi bilan o‘z samaradorligini ta’minlaydi.

Sobiq SSSRning mustamlakachilikka asoslangan xo‘jalik yuritish siyosati psevdogumanistik xarakterga ega bo‘lib, mavhum “sovet xalqi” manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Yuzaki qaraganda, milliy o‘lkalarda ishlab chiqarishni kengaytirish, uning utilitar manfaatlariga mos kelsa ham, mohiyatan uning tabiatini, inson resursini ekspluatatsiya qilishga asoslangan edi. “Tabiiy va mineral xom ashyo zaxiralaridan vahshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslangan sotsialistik xo‘jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo‘lish g‘oyasi butunlay yot edi” [7]. Aynan shu munosabatni uning antigumanistik mohiyati sifatida baholash kerak. Markaziy Osiyo mintaqasida Orol dengizi suv resursidan vaqtinchalik utilitar-merkantil manfaatlar asosida sof iqtisodiy foyda nuqtai nazardan foydalanish, uning qurishiga bosh sabablardan biri bo‘ldi.

Ekologik globallashuv jahon ekologik siyosati xarakterini belgilovchi omilga aylanmoqda. Har qanday milliy ekologik siyosat modelining gumanistik xarakteri davlatning dunyo miqyosidagi gumanistik aksiyalarda ishtirok etish faolligi bilan belgilanadi. Lekin bugungi kunda ayrim davlatlarning global ekologik barqarorlikni ta’minlashga qo‘shayotgan hissasi deklarativ xarakter kasb etib qolmoqda. Bizning nazarimizda, buning quyidagi sabablari bor: *birinchidan,* milliy doirada keskinlashgan ekologik muammolarni alohida davlatlar, hatto muayyan mintaqa imkoniyatlari doirasida hal qilib bo‘lmasligini tushunmaslikdir. Bu esa ekologik siyosatning yangi modelini shakllantirishga xalal beradi; *ikkinchidan*, ekologik siyosiy munosabatlar integratsiyalashuvi va uning global sistemasi boshqa sohalardagi ijtimoiy munosabatlar integratsiyalashuviga bog‘liq bo‘lganligi uchun silliq kechayotgani yo‘q; *uchinchidan,* xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarning hozirgi rivojlanish bosqichida eski steriotiplarni bartaraf qilishda, murosa falsafasiga asoslangan metodik yondashuvlar asosidagi islohotlardagi deklarativlik va fragmentarlik; *to‘rtinchidan,* milliy manfaatlarni suiste’mol qilish, davlatlarning “ekologik marginallashuvi” natijasida xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarni reglamentlashtiradigan qonuniy-huquqiy asoslar nochorligi sezilmoqda.

Lekin, ekologik siyosiy munosabatlar integratsiyasi va globallashuvi, bu jarayonlarni, qandaydir mavhum standartlashgan qat’iy mezonlar bilan baholashni emas, balki ularning konkret subyektlari ehtiyojlari, manfaatlari asosida differensial yondashuvini talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, baholash mezonlarida fikrlar tarqoqligi paydo bo‘lishiga, hatto siyosiy munosabatlarni insonparvarlashtirishda ekologik omilning rolini, ahamiyatini butunlay rad etishgacha borib yetadi. Shuning uchun, global muammolarni hal etishda jahon hamjamiyatining hamkorligi asosiy rol o‘ynashini e’tirof etgan holda, eng avvalo, mintaqadagi davlatlarning bu jarayonlardagi rolini, o‘rnini aniqlab olish kerak.

Milliy ekologik siyosat modelini shakllantirishda shu sohadagi tadqiqotlarning dissiplinar xarakterini, olimlarning burchi va mas’uliyatini, siyosatchilarning obyektga milliy manfaatlarni mutlaqlashtirishga asoslangan munosabatlari muqobilligini e’tiborga olish kerak. Chunki muammoga ayrim davlat rahbarlarining sof mahalliy, iqtisodiy determinizm yoki siyosiy manfaatlar, iddaolar asosida yondashishi “etnik egotsentrizm” ko‘rinishi bo‘lib, ularga umuminsoniy gumanistik tamoyillar yotdir.

Bularning barchasiga xalqlar o‘rtasidagi tarixiy shakllangan munosabatlar tizimidagi ijtimoiy omillarga yetarli baho bermaslik yoki globallashuv jarayonida tomonlarning ehtiyojlari, manfaatlari butunlay e’tiborga olinmasligi xosdir. Agar ekologik globallashuv u yoki bu darajada iqtisodiy integratsiya jarayoni bilan bog‘liqligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, rad qilib bo‘lmaydigan ziddiyatlarining obyektiv xarakteri ko‘zga tashlanadi. Boshqacha qilib aytganda, ekologik globallashuv barcha ijtimoiy hayot sohalaridagi xalqaro munosabatlarning butun sistemasi elementlariga ta’siri bilan o‘zining universal ahamiyatini ham, ziddiyatlarini ham namoyon qiladi.

Xulosa

Birinchidan, respublikamizda ekologik muammolar, jumladan, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, suv tanqisligi va biologik xilma-xillikning kamayishi ekologik siyosatni tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qildi.

Ikkinchidan, biologik resurslarning yo‘qolishi faqat ekologik emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun bioxilma-xillikni saqlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.

Uchinchidan, ekologik globallashuv jarayonlari davlatning milliy ekologik siyosati strategiyasi va taktikasi haqidagi konseptual nazariyalarni shakllantirish, mazkur nazariyalar asosida ekologik siyosatning yangi modelini yaratish muammosini kun tartibiga qo‘ydi.

To‘rtinchidan, yangi model zamirida ekologik boshqaruvning raqamlashtirilgan tizimlari, innovatsion texnologiyalar va fuqarolik jamiyatining faolligi yotishi muhim. Ekologik qonunchilik va tashkilotlar salohiyati ham doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi zarur.

Beshinchidan, ushbu modelni ishlab chiqishda etnik, demografik, geografik, konfessional mental xususiyatlar bilan umuminsoniy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash, uni gumanistik va demokratik tamoyillarga bo‘ysundirish masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur muammolarga e’tiborsizlik milliy utilitar-merkantil manfaatlarning mutlaqlashuviga va xalqaro ekologik siyosat bilan integratsiyalashuvga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekiston ekologik siyosatining yangi modeli tizimli yondashuv, sektorlararo hamkorlik va ilmiy-tadqiqot ishlari asosida shakllanishi lozim. Bu esa mamlakatda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu mavzuni o‘rganish va tahlil qilish asosida kelingan xulosalarga tayangan holda quyidagi takliflarni berib o‘tishni lozim topdik:

1. Ijtimoiy-falsafiy yondashuvga ko‘ra, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik tafakkur darajasidan boshlanadi. Shu sababli, ekologik muammolarni hal etishning poydevori sifatida jamiyatda ekologik ong, mas’uliyat va madaniyatni shakllantirish zarur.

2. An’anaviy utilitar (foydaparast) yondashuvdan voz kechib, insonni tabiatning bir qismi sifatida tushunishga asoslangan gumanistik-falsafiy qarashlarni ilgari surish kerak. Bu yondashuv siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Ekologik siyosat faqat tabiatni emas, balki odamlarni ham himoya qilishi kerak. Ekologik resurslardan foydalanishda barcha qatlamlar uchun adolatli taqsimot tamoyilini yo‘lga qo‘yish ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

4. O‘zbek xalqining qadimiy tabiatparvarlik an’analari, masalan, suv va daraxtni muqaddas bilish, ekologik siyosatga integratsiya qilinib, ekologik qadriyatlarni mustahkamlashda vosita sifatida foydalanilishi lozim.

5. Ekologik muammolarni hal qilish faqat davlat organlari zimmasida emas. Har bir fuqaro, jamoat tashkiloti va xususiy sektor o‘zining mas’uliyatini chuqur his etgan holda ekologik islohotlarda faol ishtirok etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И. “Орол муаммолари, уларнинг аҳоли генофонди, ўсимлик ва ҳайвонот оламига таъсири ҳамда оқибатларини енгиллаштириш учун халқаро ҳамкорлик чора-тадбирлари” Халқаро конференция иштирокчиларига табрик// Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Том 16. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б.286.

2. Алматинская Декларация.// Экологический вестник, 1997, №3. – С.67.

3. https://president.uz/uz/lists/view/8025

4. Moss N. The Politics of Global Warming. L. 1991. P. 41; Дробот Г.А., Кочеткова Е.В. Экологические проблемы как глобальная угроза безопасности// Вестник МГУ. Сер. 18. Социология и политология, 2009, №3 – С.61-73.

5. Жумаев Ф. Экологик маданият – умумбашарий маданият// nurnews.uz, 2020, 2 апрель.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”// lex.uz.

7. Каримов И. Ўзбекистон ХХ1 аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари// Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.Том 6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.110.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Kenjayev Burgutali Qovuljon o'g'li
Namangan Davlat unuversiteti mustaqil tadqiqotchisi

IMPROVING LEGAL LITERACY OF CITIZENS IN OUR COUNTRY AND THE ESSENCE OF REFORMS BEING IMPLEMENTED IN THIS AREA

Abstract. *This article analyzes the improvement of legal literacy among citizens in the Republic of Uzbekistan and the essence of the reforms being implemented in this regard. The development of legal culture in society, ensuring the rule of law, and providing citizens with legal knowledge contribute to strengthening legal relations between the state and society.*

The article also discusses the main directions of legal reforms being carried out in Uzbekistan, particularly focusing on increasing legal knowledge within the education system, strengthening legal awareness campaigns, and improving the system of legal assistance provided to citizens.

Key words: *Citizens' legal literacy, legal reforms, rule of law, legal culture, education system, legal awareness campaigns, legal assistance, legal relations in society, legal consciousness*

Кенджаев Бургутали Кавулджон угли
Независимый исследователь Наманганского государственного университета

ПОВЫШЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ ГРАЖДАН В НАШЕЙ СТРАНЕ И СУТЬ РЕФОРМ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМЫХ В ЭТОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: *Эта статья анализирует повышение юридической грамотности среди граждан Республики Узбекистан и суть реформ, осуществляемых в этой области. Развитие юридической культуры в обществе, обеспечение верховенства закона и предоставление гражданам юридических знаний способствуют укреплению правовых отношений между государством и обществом.*

Статья также обсуждает основные направления юридических реформ, проводимых в Узбекистане, с особым акцентом на повышение юридических знаний в системе образования, усиление кампаний по правовому просвещению и улучшение системы юридической помощи, предоставляемой гражданам.

Ключевые слова: *правовая грамотность граждан, правовая реформы, верховенство закона, правовая культура, система образования, кампании по правовому просвещению, юридическое помощь, правовые отношения в обществе, правовая сознание.*

Kenjayev Burgutali Kavuljon ogli
Independent researcher at Namangan State University

MAMLAKATIMIZDA FUQAROLAR HUQUQIY SAVODHONLIGINI OSHIRISH VA BU BORADA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING MOHIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirish va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati tahlil qilinadi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta'minlash davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Maqolada, shuningdek, O'zbekistonda olib borilayotgan huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari, xususan, ta'lim tizimida huquqiy bilimlarni oshirish, huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish va fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish kabi masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlari: *fuqarolar huquqiy savodxonligi, huquqiy islohotlar, qonun ustuvorligi, huquqiy madaniyat, ta'lim tizimi, huquqiy targ'ibot, huquqiy yordam, jamiyatdagi huquqiy munosabatlar, huquqiy ong.*

Kirish.

Hozirgi kunda mamlakatimiz huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning o`zining asosiy provard maqsadi sifatida belgilab olgan. Bu esa o`z navbatida insonlarning farovon yashashlari, o‘z huquq va majburiyatlarini anglashlari, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan huquqiy normativ hujjatlardan oqilona foydalanish kabi masalalarni o`z ichiga oladi. Bu albatta fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirishni va bu borada olib borilayotgan ijtimoiy – siyosiy islohotlarning anglab yetishning dolzarbligini ko`rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy sohada olib borilayotgan islohotlar tub negizida jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlash kabi maqsadlar yotadi. Yana shuni aytish mumkinki, bu islohotlar zamirida fuqarolarni o‘z huquq va erkinliklarini anglashga, qonunlarga bo‘lgan hurmatni shakllantirishga, shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni yanada tartibga solishga qaratilgan siyosiy iroda va tizimli faoliyat talab etadi.

Jamiyatda huquqiy savodxonlikni yuksaltirish — bu faqat huquqiy bilimlarni kengaytirish bilan cheklanib qolmasdan, balki fuqarolarni qonunlarga rioya qilish, ularni amalda qo‘llash va jamiyatdagi barcha huquqiy faoliyatni adolatli tarzda tashkil etish zaruratini anglatadi. Shu ma’noda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faoliyatida huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga ko`p e`tabor berayotganini aytib o`tish mumkin. “2017 -yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi qonun, 2018- yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag “ Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni va boshqa me’yoriy - huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi” fikrimizning dalilidir. Bu ijtimoiy kategoriyani jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga erishish, uni insonlar ongi va tafakkurida muqim joy olishini ta’minlash uchun eng avvalo, uni ilmiy tahlil qilish va ilmiy- falsafiy ildizlari bilan tanishib chiqishimizni dolzarb vazifalardan biriga aylantiradi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Jamiyatda huquqiy savodxonlikni yuksaltirish masalalari ijtimoiy va falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, bu yo`nalishning jamiyat taraqqiyotiga va shaxsning xuquqiy ongini shakllantirishga qaratilgan muhim jihatlarini qayd etish zarur. O‘zbekistonda ushbu masalalarni o‘rgangan olimlar tomonidan huquqiy savodxonlikning jamiyatdagi ahamiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri har tomonlama tadqiq qilingan. Jumladan, A. Agzamxodjaev, A.Azizxo‘jaev, H.Boboyev, U.Tadjixanov, A.Saidov, Z.Islomov, M.Fayziev, X.Odilqoriyev, Ə.Xalilov, L.I.Boyko, M.Muhamyedov, F.Muhitdinova, F.H.Raximov, D.Z.Dexkanova, A.M.Raxmanov, SH.O.Umarova, SH.Madayeva, SH.To‘rayev, N.N.Hasanov, SH.Mamadaliyev, F.Musayev, K.Djavakova, B.Talapov, M.Atavullayev va boshqalar tomonidan demokratik huquqiy davlat qurish muammolarining ijtimoiy-huquqiy jihatlari yoritilgan. Huquqiy savodxonlik jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, uning ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini chuqur tadqiq qilish jamiyatda demokratik huquqiy davlat barPo etish yo‘lida muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda huquqshunos va faylasuf olimlarning ilmiy tadqiqotlari juda muhim manba va yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

Shunga qaramay, amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan bugungi ahborotlashgan jamiyat va suniy intelektning tobora ijtimoiy hayotimizga kirib kelayotgani bu doiradagi tadqiqotlarni tizimli holda yoritib berishni taqozo qilmoqda.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Huquqiy ong, Huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonlik masalasiga doir masalalarni tahliliga oid manbaalarini o‘rganishimizda tarixiylik va mantiqiy merodlari birligi, ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, strategik modellashtirish kabi ilmiy - tadqiqot usullaridan foydalanildi. Bular: - Tarixiy va mantiqiy metodlar birligiga ko‘ra, mamlakatimiz tarixiy taraqqiyoti davomida bu soha doirasida olib borilgan siyosiy isloxotlar ahamiyati va bugungi kunda zamonaviy va innovative yondashuvlarning zaruriyatidan kelib chiqib va turli bosqichlardagi turli islohot va dasturlarimizda ularni qaror topishini ichki zaruriy qonuniyat deb o‘rgandik; - ilmiy abstraksiya usuliga ko‘ra, biz tahlil paytida davlatimizda amalga oshiralotgan islohotlarning ichidan ikkinchi darajalisini chetlashtirib, e’tiborni huquqiy sohadagi islohotlarga qaratib faqat metodologik jixatdan aniqlab olingan, o‘rganilayotgan mavzuga, ya’ni huquqqiy savodxonlik oid bo‘lgan ma’lumot va tahlillarga qaratdik; -tizimli tahlil usuliga ko‘ra, mamlakatimizda olib borilgan isloxot va dasturlarda xususan xarakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi va “O`zbekiston - 2030 strategiyasi” bosqichlaridan kelib chiqib ko‘rib chiqdik.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlardan maqsad huquqiy demokratik davlat qurishdan iborat. Buning uchun “Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy onggi va madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi”(3,78). Chunki, huquqiy onggi shakllangan fuqaro davlat va jamiyatga daxldorlik xissini, qonunlarga

qat'iy amal qilish lozimligini, o'zining va o'zgalarning huquq, burchlarini anglaydi va ularni hurmat qiladi.

Ushbu tadqiqotimizda ba`zi tushunchalarni konseptual mohiyatini ochib olishni zaruriyat deb bildik. Buning asosiy sababi ilmiy jamoatchilikda bugungi kunda quyidagi tushunchalar o`rtasida o`zaro yaqinlik mavjudligidan kellib chiqiladi, Zero ularni bir-birini o`rnida qo`llanilishi, yoki o`zaro bir-birini dialektik taqiozo etishi borasida bahslar mavjud.

Yuridik va falsafiy adabiyotlarda huquqiy savodxonlik tushunchasiga yakdil ta'rif berilmagan bo'lsa-da, ulardan quyidagicha tushuncha hosil qilish mumkin: huquqiy savodxonlik – bu yuridik matnlardagi atamalarni tushunish, ulardan umumiy xulosalar chiqarish va bu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobilayatidir. Xorijiy yuridik adabiyotlar ham shunga yaqin mazmunni ifodalaydi, ya'ni shaxsning o'z huquq va majburiyatlarini tanishi, qaysi holatlar yuridik nizo ekanligini bilishi va ularga qonuniy yechim topa olishi, huquqiy axborotni qayerdan topishni, yuridik yordamni qayerdan va qanday qilib olishni, qonunchilik tizimida qaysi choralar borligini hamda protsessual tartibni bilishi huquqiy savodxonlik belgilari hisoblanadi[8].

Shu o`rinda huquqiy demokratik davlatda huquqiy savodxonlikni muhimligi va uning zaruriy hodisa sifatida namoyon bo`lishini ko`rishimiz mumkin. Bu borada quyidagi fikrlarga qo`shilishimiz mumkin. "Huquqiy savodxonlik fazilati shaxs – jamiyat –davlat munosabatlariga muhim ta'sir ko'rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini beradi"[3].

Bularning barchasi huquqiy ongning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Huquqiy ong fuqarolarni o'z huquq va majburiyatlarini tushunishga, ular bilan bog'liq mas'uliyatni anglashga va jamiyatda qonunlarga hurmat bilan qarashga undaydi.

Huquqiy ong — bu fuqaro va jamiyatning qonuniy me'yorlarga bo'lgan munosabatini belgilovchi muhim psixologik-huquqiy tushunchadir. U nafaqat huquqiy bilimlarni o'zlashtirishni, balki bu bilimlarni amaliyotda qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishida huquqiy ongni oshirishning ahamiyati shundaki, bu jamiyat a'zolarining o'z huquq va erkinliklarini nafaqat bilishlarini, balki ulardan to'g'ri va adolatli foydalanishlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan huquqiy islohotlar aynan shu maqsadni ko'zlaydi: fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta'minlash, huquqiy madaniyatni oshirish va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash. Huquqiy islohotlarning markaziy jihatlaridan biri — fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirish, qonunlarni bilish va ularga hurmat qilishga o'rgatishdir. Bu jarayon faqat qonunlar yaratish bilan cheklanmay, balki ular to'g'risidagi bilimlarni jamiyatning har bir qatlamiga yetkazish orqali amalga oshiriladi.

Qonun ustuvorligi va qonuniylik jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Qonun ustuvorligi deganda, barcha fuqarolar va davlat organlari qonunlarga teng ravishda amal qilishlari tushuniladi. Agar huquqiy madaniyat yuqori bo'lsa, fuqarolar qonunlarga rioya etishdan bosh tortmaydilar va qonunlar ustidan o'z manfaatlarini o'zgartirishga intilmaydilar. Bu esa jamiyatda adolatni va erkinlikni mustahkamlaydi, fuqarolarga huquqiy himoya ta'minlanadi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning poydevori yaratadi.

Huquqiy madaniyatni oshirish, ayniqsa, yosh avlodni huquqiy tarbiya qilish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini tushunishlarini ta'minlash, huquqiy ongni shakllantirish orqali jamiyatda qonunlarga bo'lgan hurmatni oshirish mumkin. Bu jarayonlarning barcha bosqichlari fuqarolik jamiyatining demokratik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Abstract: *"Nafs" is one of the important and complex aspects of human nature, which finds its expression not only in essence, but also in behavioral and verbal aspects. In this topic, the innate state of the soul in human nature (zotiy), its expression in moral qualities (sifatli) and external signs (fe'lli), manifested through practical actions, are analyzed. The various stages of the nafs, namely the states of ammara, lavvoma, and mutma'inna, and their role in human life are highlighted. The main direction is considered to be the education of the ego, keeping it under volitional control, and its significance in achieving moral elevation. In this process, attention is also paid to religious and spiritual values, Sufi views, and issues of spiritual perfection.*

Keywords: *Substantial characteristic of the ego, qualitative property, verbal characteristic, moral education, spiritual maturity, volitional control, spiritual struggle, Sufi views, state of ammora, degree of mutma'inna.*

Kirish

Falsafaning azaliy muammolaridan biri inson hisoblanadi. Shu nuqtai–nazardan Inson bu dunyoga nima uchun keladi? Insonning komillika yetish sirlari qanday degan savollarga javob izlaydi. Aynan shu savollarga tadqiqotimiz davomida quyidagi savolni qo‘shish o‘rinli bizningcha, insonni yuksak ma’naviyat va ma’rifatdan to‘suvchi nafsni tarbiyalash usullari mavjudmi?. Posmodernistik dunyoqarashning poydevorini qo‘yib bergan mashhur fransuz faylasufi Rene Dekart ***“Kogito ergo sum”***, ya’ni “O‘ylayapman, demak, yashaypman”, degan so‘zlari bilan inson xohish-istaklarining moddiy mavjudligini va ularning hayotga ta’sirini e’tiborsiz qoldirgan edi. Ana shu ehtiyoj va mayillar “nafs”ni komponentlarini tashkil qilib, inson tabiatida zotiy, xulqida sifatiy, amallarida fe’liy belgilar va ko‘rinishlari ega. Aynan nafsni tarbiyalashda mana shu jihatlar hisobga olinsa o‘ylaymizki, barcha muammolar o‘z yechimini topadi.

Alloh insonlarni O‘ziga xizmat etishlari uchun, insonlardan tashqari borliqlarni esa, insoniyatga xizmat qilishlari uchun yaratdi. Insonning asosiy maqsadi shu haqiqatni anglab yetishdan iborat. Qur’oni Karimda “Alloh Yerdagi barcha narsani siz (odamlar) uchun yaratdi. So‘ng osmonga yuzlanib, uni yetti qavat (qat) qildi. U hamma narsani bilur”[1]. Insonlar uchun berilgan imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanish, o‘zini qurshab turgan muhitga munosabati uning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi.

“Nafs” insonning ruhiy va ichki mohiyati, hissiyotlari, xohishlari hamda shahvoniy quvvatlari kompleksi hisoblanadi. Nafs inson tabiatidagi asosiy motiv va harakat manbai, insonning fe’l-atvori va muomalasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Nafsning inson tabiatidagi zotiy (tabiiy) belgilari mavjud. Nafs insonning tabiiy (shahvoniy), moddiy, ruhiy, ehtiyojlaridan iborat, u ana shu ehtiyojlarni boshqaradi. Unda yemoq, ichmoq, ko‘ngilxushlik qilish va boshqa turdagi orzu-istaklari mavjud bo‘lib, bu xohishlar insonning tabiiy hayotiy ehtiyojlari bilan bog‘liqdir.

Mavzuning o‘rganilganligi

Ushbu mavzuni tadqiq qilgan olimlar va ulamolar, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Nafs tarbiyasi”, “Tasavvuf”, “Imon”, va boshqa diniy-axloqiy risolalarida nafsning turlari va inson hayotidagi o‘rni haqida, Olimjon Hayitmetov Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, va Mashrab asarlarida nafsning obrazini, Annemarie Schimmel “Mystical Dimensions of Islam” kitobida nafsni tasavvufiy maktablar doirasida, Toshihiko Izutsu Qur’on terminologiyasining semantik tahlilida “nafs” atamasini, Sayyid Hossein Nasr Islom falsafasi va metafizikasida nafs haqida zamonaviy tadqiqotlar olib borgan.

Tohir Malik “nafs” tushunchasini izohlar ekan: “Alloh odam naslidan ulug‘roq bo‘lgan farishtalarni nurdan yaratdi. Ularga aql va ilm berdi. Biroq, nafs bermadi. Nafs lazzatini, ya’ni: yemoq-ichmoq, oila qurmoq... kabilarni bermadi. Alloh Odam zotidan past jonivorlarga ham huddi insondagiday ko‘z-quloq, oyoq-qo‘l, o‘pka-jigar, yurak... berdi. Bu jonivorlarga nafs ham berdi. Ammo, aql va ilm bermadi. Nafs uchun ularda javobgarlik yo‘q. Nafs ular uchun faqat tiriklik manbai. Ulardagi nafs hukmronligi chegaralangan: sigir qo‘yni burdalab tashlashga qodir kuchga ega bo‘lsa-da, bu ishni qilmaydi, chunki uning nafsi go‘sht talab qilmaydi”[2]. Insonning ulug‘ligi o‘z nafsini idora va tarbiya qilish kuchiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Odam atrofini o‘rab turgan muhitda dushmanim bor, degan shubhada yuradi. Holbuki, odamning eng zo‘r dushmani – o‘z nafsidir. Kishi tirik ekan, nafsi bilan kurashda mag‘lub bo‘lmasligi kerak. Nafs shunday g‘anim-ki, manmanlik va qaysarlik uning shioridir.

Mutasavvif olim Muhammad Zohid Qutqu o‘zining “Nafs nimadir?” risolasida insonning salbiy sifatlari, nafsning istak-mayllari sifatida baholab, ularning 12 ta turini ajratib ko‘rsatadi: “1) kufr, 2) shirk, 3) g‘aflat, 4) jaholat, 5) gunohga sho‘ng‘imoq (zohiriy va botiniy), 6) kibr, 7) hirs, 8) baxllik, 9) g‘azab, 10) hasad, 11) nafrat, 12) shahvat”[3]ni ko‘rsatib o‘tgan. Aynan ***“kufr”, “shirk”, “kibr”, “hirs”, “g‘azab”, “nafrat” va “shahvat”***ni eng yomon illat deb baholagan. Bundan shunday fikr qilish mumkinki, yuqoridagi illatlar nafsning egoligining asosini tashkil qiladi. Quyida bu tushunchalarga muallifning shaxsiy fikrlari va munosabati bayon qilinadi.

Tadqiqot uslublari

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, kontent tahlil, obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi

Nafsning inson tabiatidagi zotiy belgilardan biri ego hisoblanadi. Nafsning egoistik xususiyati o‘zini yaxshi ko‘rishi hisoblanadi. Inson nafsi o‘z-o‘zini, mayl va istaklarini himoya qilishga moyildir. Bu tabiiy holatni, insonni hayotda yashab qolish zarurati deb, hisoblamaslik kerak. Bunday qilab “nafs” taltaytirilsa, me’yordan oshib, kibr, g‘urur va egoga aylanadi. “Inson meni tabiatan qiyinchilikdan qochib, oson yo‘lni tanlashga moyildir. Bu insonning tabiiy xususiyati bo‘lib, jismoniy va ruhiy ravishda tinchlik va osoyishtalikni istayotgan nafsning istaklarini cheksiz ortishiga olib keladi”[4]. Agar inson nafsini tiyib turmasa, mol-dunyo, hokimiyat va boshqa narsalarga bo‘lgan orzu-istaklar chegarasiz darajaga yetadi, bu salbiy oqibatni keltirib chiqaradi.

Egoizm – kishining faqat o‘z manfaati haqida qayg‘urishi, boshqalardan ustun bo‘lishga intilishi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat ko‘proq yosh bolalarda uchraydi. Aslini olganda, egoizmning tag zamirida zaiflik yotadi. Egoizm, boshqacha qilib aytganda nafsning illati bo‘lib, bu xudbinlik deb nomlanadi. Xudbinlik – insonning o‘z-o‘ziga qaram bo‘lib qolishi, faqat o‘zining xursandchiligini o‘ylab yashash demakdir. Xudbinlik tom ma’noda insondagi ojizlikning namoyon bo‘lishini

bildiradi. “Egoist kishilar jamiyat qadriyatlarini o‘zlariga moslashtirishga urinadi. Ularning o‘z shaxsiy manfaatlari hayotdagi ustuvorliklarni belgilab beradi”[5]. Bunday kimsalar o‘zlariga foyda keltiradigan narsadan voz kechishni istamaydi. Atrofdagilarning xohish-istaklari haqida qiziqib ham ko‘rmaydi.

Tahlillarimizda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, “nafs” ikki qutbli, o‘zgaruvchan xodisa hisoblanadi. Inson yaxshi, yomon fazilatlarni o‘zida aks ettirgan murakkab voqelikdir. Insonning vazifasi nafsni tozalash (tarbiya qilish) va uni yaxshi fazilatlarga yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi kerak. “Nafs”ning tabiiy (zotiy) belgisiga o‘zgaruvchanlik va ta’sirlanuvchanlik xos xususiyat sanaladi. Nafs muhit va vaziyatlarga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Masalan, yaxshilar bilan birga bo‘lgan inson nafsi yaxshi ishlarga moyil bo‘ladi, yomon muhitda esa nafs yomonlik tomon qadam tashlaydi.

XXI asrda “nafs” insonning tabiiy (zotiy) belgisi sifatida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Bu asosan insonning ichki ehtiyojlari va istaklari tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirida paydo bo‘luvchi holatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Nafs” – “globallashuv va kapitalistik jamiyat sharoitida moddiy boylikka intilishining kuchli ko‘rinishlaridan biri siftida namoyon bo‘ldi. Insonlar boylik, obro‘-e’tibor va hashamatli hayotga erishish yo‘lida nafsiga ortiqcha erk berdi”[6]. XXI asrda reklama va marketing ta’siri ostida insonlarning iste’molga bo‘lgan ehtiyoji oshib, nafs ko‘pincha ortiqcha va keraksiz xarid qilish shaklida namoyon bo‘ladi.

“Nafs” insonning ichki holati va uning axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq muhim tushuncha hisoblanadi. Nafs insonning xulqi va odobida o‘zining sifatiy belgilarini namoyon etadi. Ushbu sifatlar nafsning holatiga bog‘liq holda ijobiy yoki salbiy tarzda namoyon bo‘ladi. “Nafs”ning inson xulqidagi asosiy salbiy sifatiy belgilari tahlil qilganimizda, hirs, ochko‘zlik, g‘azab, hasad, befarqlik, kibr, takabburlik illatlardan iborat ekanligiga ishonch hosil bo‘ldi. Imom G‘azzoliy hirs tushunchasini izohlar ekan, “inson zoti uchun eng katta xatar me’dadan va yeyish-ichish hirsidan keladi. Hirs insonga nafsi istayotgan narsa harom, taqiqlangan va yomon ish bo‘lishiga qaramay, hammasini unga chiroyli va yoqimli qilib ko‘rsatadi”[7] – deb hisoblaydi. Odamzod tabiatidagi hirs, ochko‘zlik va qanoatsizlikdan iborat. Hirs va ochko‘zlik kishini axloqsizlikka, noma’lum va harom foyda olishdan ham qaytmaydigan yo‘llariga boshlaydi.

XXI asrda nafsning inson xulqidagi sifatiy belgilari zamonaviy sharoitlar va texnologiyaning hayotga chuqur ta’siri tufayli yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Inson xulqida nafsning ijobiy va salbiy sifatlari shakllanadi. Quyida XXI asrda nafsning inson xulqidagi asosiy sifatiy belgilari tahlil qilib, qiyosiy solishtirilganda ijobiy va salbiy holatlarda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1–jadval

T/r	Ijobiy jihat	Salbiy holat
1.	**Moddiylikka moyillik**	
	Iqtisodiy mas’uliyat, innovatsion tadbirkorlikning shakllanishi, ijtimoiy manfaatlarning qo‘l–lab-quvvatlanishi bilan uyg‘un–lashadi.	Inson xulqida moddiylikka, mol-mulkka va boylikka intilish kuchayadi.
2.	**Shaxsiy manfaatga yo‘nalganlik**	
	Shaxsiy muvaffaqiyatga intilish, insonlarda o‘z maqsadlariga yetish uchun proaktivlik ortadi.	Shaxsiy manfaatlar jamoaviy manfaatlardan ustun bo‘lib, insonlar orasida munosabat manfaatdorlikka asoslanadi.
3.	**Ma’naviy qadiriyatlar va axloqdan og‘ishning muvozanatsizligi**	
	XXI asrda axloqiy qiymatlarga ko‘proq e’tibor berilib, xayriya va saxovat orqali, jamoat manfaati uchun yordam berish kuchayadi.	Yoshlar orasida axloqiy normalardan chetlanishga, axloqiy zaiflikka olib keladi.
4.	**Ijtimoiy xulq va jamoat munosabatlarining nomutanosibligi**	
	Jamoat foydasiga qaratilgan tashabbuslar ko‘payib, ko‘p ijtimoiy muammolarni hal etish uchun o‘z vaqtida kerakli resurslar sarflanadi.	Shaxsiy manfaat uchun hududiy yoki guruhiy ixtiloflar paydo bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini ko‘rsatishga bo‘lgan ortiqcha intilish kuchayadi.
5.	**Texnokratik xulqning shakllanishi**	
	Internet imkoniyatlari orqali axloqiy bilimlarga oson ega bo‘lish, onlayn resurslar orqali inson o‘zini ruhan boyitish imkoniyati yaratiladi.	Ijtimoiy tarmoqlarga cheksiz bog‘lanish, ruhiy bo‘shliq kuchayib, virtual aloqalar haqiqiy do‘stlikni va samimiylikni yo‘qqa chiqaradi.
6.	**Globallashuv ta’siri.**	
	Turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish kuchayib, global muammolarga yechim izlashda birdamlik yuzaga keladi.	Milliy va diniy qadriyatlar aralashib ketishi natijasida, shaxsiy va milliy manfaatlar himoya qilish uchun ortiqcha kuch sarflanadi.

Nafs inson xulqiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omildir. Uning holati va sifatlari insonning hayotidagi muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Islom ta’limotida nafsni tarbiyalash insonning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali nafsga turli ta’sir o‘tkazish osonlashdi. Bu nafaqat yomonlikka, balki yaxshilikka ham chorlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. “Nafsning inson amallaridagi fe’liy belgilari tarixiy davrlarda ma’naviy tarbiya va axloq-odob tizimida ko‘proq namoyon bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy dunyoda u insonning shaxsiy rivojlanishi, ichki ziddiyatlari va jamiyatdagi turli ta’sirlar orqali o‘zini namoyon qiladi”[8]. Nafsni tarbiyalash, uni yaxshilikka yo‘naltirish orqali inson nafaqat shaxsiy hayotini yaxshilaydi, balki jamiyatdagi muammolarni hal etishga ham hissa qo‘shadi.

Nafsning inson amallaridagi fe’liy belgilari, inson irodasi va nafs o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va aloqadorlikda sodir bo‘ladigan voqeilik hisoblanadi. Bu masala falsafa va psixologiyaning integratsiyasining kesishgan nuqtalarida muhokama qilinadigan murakkab mavzulardan biri

hisoblanadi. Ular inson ruhiyatining ikki muhim jihatini ifodalaydi: iroda – insonning ongli qarorlar qabul qilish qobiliyati bo‘lsa, nafs esa – uning xohish va shahvatlarini anglatadi. Quyida bu aloqadorlikning turli jihatlari tahlil qilinadi.

Nafs – insonning ichki xohishlari, his-tuyg‘ulari va shahvatlarining markazi. Nafs insonning ehtiroslari va hayotga bo‘lgan tabiiy moyilliklarini boshqarishga ta’sir qiladi. Iroda – insonning ongli ravishda qaror qabul qilish qobiliyatidir. U nafsning ta’siriga qaramay, yaxshilik va adolat yo‘lini tanlash imkonini beradi. Iroda – insonning ma’naviy kuchiga bog‘liq. Iroda va nafsning o‘zaro ta’siri insonning xatti-harakati, amallari va qararlarida namoyon bo‘ladi. Nafs va iroda doimo o‘zaro ta’sirlashish jarayonida bo‘lib, insonning ong va tafakkurining ikki qutbga bo‘linishiga ham sabab bo‘ladi.

Nafsning irodaga ta’siri quyidagi holatda ko‘zga tashlanadi. Nafs insonni gunoh ishlarga moyil qiladi, Shahvat, g‘azab yoki haddan tashqari shaxsiy manfaatning ustuniligi inson irodasini zaiflashtirib, o‘ziga bo‘ysundiradi. Irodaning nafsga ta’siri quyidagicha namoyon bo‘ladi. Zamonaviy psixologiyada iroda insonning “quvvati” sifatida tasvirlanadi, u nafsning moyilliklarini to‘g‘ri boshqarishga yordam beradi. Iroda kuchli bo‘lsa, nafsni nazorat qiladi bu esa, yomon ishlardan tiyilishga va nafsni yaxshilikka yo‘naltirishga yordam beradi. Bunda iroda nafsning ehtiroslari ustidan hukmronlik qiladi. “Aynan iroda insonda tanlov qilish imkonini beradi. Yunoncha “proairesis” – tanlash so‘zining mohiyatini anglatadi”[9]. Xohish, istak va tanlov bir narsa emasligi irodada namoyon bo‘ladi. Iroda erkinligi tanlovni vujudga keltiradi. Insonning yo‘q deyish qobiliyati yoki o‘z xohishlarini kechiktirish irodaning mustahkamligini ko‘rsatadi.

“Nafs” inson tabiatidagi mafhum tushunchalardan biri bo‘lib, uning mohiyati insonning ichki dunyosi, axloqiy, ma’naviy va amaliy jihatlariga bevosita bog‘liq. “Ushbu tushuncha falsafiy, psixologik va diniy nuqtai nazardan o‘rganiladi va insonning ruhiy holati, tabiat va xatti-harakati bilan uzviy bog‘liqdir. Nafs insonning fitrati va mohiyati bilan bog‘liq zotiy belgilarni ifoda etadi. Bu belgilar insonning tug‘ilishi bilan unga xos bo‘lgan xususiyatlardir”[10]. Insonning fitriy ehtiyojlar, instinktlar va hislar, nafsning zotiy belgilari uning fiziologik va biologik xususiyatlarida aks etadi.

Xulq nafsning axloqiy va ma’naviy jihatlari orqali namoyon bo‘ladi. Insonning nafsi uning xulqida aks etib, ijobiy va salbiy sifatlar ko‘rinishida shakllanadi. Bu sifatlar insonning ijtimoiy muhiti, tarbiya va shaxsiy qarorlari ta’sirida shakllanadi yoki o‘zgaradi. “Nafsning fe’liy belgilari insonning amaliy xatti-harakatlari orqali namoyon bo‘ladi. Amallar nafsning ichki holati va ruhiy jihatlarini aks ettiradi. Nafsning xotirjam yoki bezovta holati insonning amallarida ko‘rinadi”[11]. Nafsning o‘zaro munosabati va dialektik aloqadorligi zotiy, sifatiy va fe’liy belgilari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ular bir-birini to‘ldiradi, ta’sir qiladi.

1. Nafsning zotiy xususiyatlaridan kelib chiqib, sifatiy belgilari shakllanadi. Nafsning zotiy belgilarini insonning tabiati, ya’ni uning ichki his-tuyg‘ulari, xohishlari va istaklari tashkil etadi. Bu belgilar insonning kimligini, uning asosiy xususiyatlarini va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Zotiy belgilar insonning ma’naviy va axloqiy asoslarini tashkil etadi.

2. Nafsning sifatiy belgilari xulq amallariga ta’sir qiladi. Insonning axloqiy sifatlari uning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Xulqiy belgilar insonning xulq-atvori, ya’ni uning boshqalar bilan munosabatlari, ijtimoiy majburiyatlari va axloqiy normalari bilan bog‘liq. Xulqiy belgilar insonning jamiyatdagi ijtimoiy roli va uning atrofidagi odamlarga nisbatan munosabatini belgilaydi.

3. Fe’liy belgilar amalda namoyon bo‘lishi nafsni o‘zgarishiga olib keladi. Fe’liy belgilar insonning amallari, ya’ni uning kundalik hayotidagi harakatlari va qarorlarini o‘z ichiga oladi. Fe’liy belgilar insonning zotiy va xulqiy belgilaridan kelib chiqadi, ya’ni insonning ichki dunyosi va xulq-atvori uning amallariga ta’sir ko‘rsatadi. Albatta, xatti-harakat inson irodasining ta’sir doirasida rivojalanadi. “Irodaning ta’sir doirasi shunchalar keng va kuchliki, bizning barcha harakat va hissiyotlarimizni aqlga bo‘ysundirtlganda, erkin irodani shaklanadi. Iroda barcha harakatlarimizning bir shakli, maxsus ko‘rinishidir”[12]. Insonning xatti-harakati doimiy ravishda uning o‘ziga ham, tashqi olamga ham ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘z orzulariga erishishi, o‘z fikr-mulohazalari ko‘rsatgan yo‘ldan borib boshqalarga namuna bo‘lishiga xizmat qiladi. Insonning faoliyati va irodasi faqat xatti-harakat bilan chegaralangan deb o‘ylash katta xatodir. Faoliyat va iroda faqatgina fikrlarni boshqarish bilan cheklanmaydi, ular hissiyotlarning paydo bo‘lishi va harakatlarni amalga oshirishda ham namoyon bo‘ladi. Niderlandiyalik faylasuf Spinoza “Insonlarning o‘zlarini butkul erkin deb o‘ylashlariga sabab faqatgina xatti-harakatlarnigina ko‘ra olib, o‘zlarini ushbu xatti-harakatni sodir etishga olib borgan sabablarni ko‘rmaydi” deb izoh berganda aynan, insonning ichki dunyosi va xulq-atvori uning amallariga bog‘liq ekanligini nazarda tutgan.

Islom falsafasi va axloqiy tafakkurida **“nafs”** inson ruhiyati, xatti-harakati va ma’naviy yuksalish jarayonida markaziy tushuncha hisoblanadi. U inson tabiatidagi tug‘ma xususiyatlar (zotiy), axloqiy sifatlar (sifatiy) va amaliy harakatlar (fe’liy) bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Islomiy ta’limotga ko‘ra, insonning ma’naviy jihatdan yuksalishi yoki tanazzulga uchrashi uning nafsini qanday boshqarishiga bog‘liq.

Xulosa

Quyida ushbu masalaga doir ilmiy-falsafiy xulosalarni keltiramiz:

Birinchidan, Nafs insonning tabiiy (zotiy) mohiyatining ajralmas qismi, Islom falsafasida **nafs**

insonning yaratilishidan boshlab unga yuklangan asosiy unsur bo‘lib, u tabiiy (zotiy) holatda ikki qutblilikni – **yaxshilikka moyillik va yomonlikka moyillikni** o‘z ichiga oladi. Qur’onda nafsning insonni bu ikki yo‘nalishda olib borishi haqida aytiladi: *“Nafsimga qasamki, Unga yaxshilik va yomonlikni ilhom bergan Zotga qasamki!”* (Shams surasi, 7–8-oyatlar). Bu yerda nafsning zotiy xususiyati shundan iboratki, inson tug‘ma holatda ham ezgulikka, ham gunohga moyillikka ega. Shuning uchun nafsni tarbiya qilish, uni yuksaltirish insonning asosiy vazifasidir. Nafsni mutlaq yomon yoki mutlaq yaxshi deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘lib, u boshqarishga muhtoj tabiiy kuchdir.

Ikkinchidan, Nafs inson xulqidagi sifatiy belgilarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Nafs faqat tug‘ma xususiyat emas, balki insonning tarbiyasi va hayotiy tajribasi orqali o‘zgaruvchan hodisadir. Uning sifatiy belgilari **iroda, sabr, adolat, xasislik, hasad, g‘azab, kibir, tavozelik** kabi axloqiy sifatlarda namoyon bo‘ladi. Agar inson o‘z nafsini tarbiya qilsa, u **xushfe’l, sabrli va adolatli** bo‘lib boradi. Biroq, agar nafs yomon mayllarga berilsa, inson **manfaatparast, xudbin va adolatsiz** bo‘lib boraveradi. Shu bois Islomda **tazkiyatun-nafs** – ya’ni nafsni poklashga katta ahamiyat beriladi. Shaxsiy xulq-atvor insonning qalbidagi nafsning qaysi tomon ustunlik qilayotganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, Nafs insonning fe’liy harakatlarida namoyon bo‘luvchi asosiy omildir. Nafs insonning nafaqat ichki his-tuyg‘ulari, balki uning tashqi xatti-harakatlarini ham belgilaydi. Uning amallaridagi fe’liy ko‘rinishlari quyidagilarda aks etadi: **Nafs al-ammora** – insonni gunoh va yomon amallarga undovchi nafs bo‘lib, kibr, ochko‘zlik, riyo va yolg‘on kabi harakatlarda namoyon bo‘ladi. **Nafs al-lavvoma** – insonning xatolarini anglab, pushaymon bo‘lishiga sabab bo‘luvchi bosqich. Bu nafs insonga o‘zini tahlil qilish va tuzatish imkonini beradi. **Nafs al-mutmainna** – eng oliy daraja bo‘lib, bunda inson Allohga yaqinlashib, xotirjamlikka erishadi. Bu bosqichda nafs insonni faqat ezgu amallar qilishga undaydi. Shunday qilib, insonning har bir amali uning qalbidagi nafs qaysi bosqichda turganiga bog‘liq ravishda shakllanadi.

To‘rtinchidan, ilmiy-falsafiy qarashlarga ko‘ra, nafs insonning tanlov erkinligi va taqdirining mujassamligi sifatida namoyon bo‘ladi. Islomga ko‘ra, Alloh insonni erkin irodaga ega qilib yaratgan, biroq bu erkinlik uning nafsiy tanlovlari bilan bog‘liq. Nafs insonni erkin fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish imkoniyatiga ega qiladi. Biroq, bu jarayonda inson o‘zining nafsiy mayllari bilan kurashishi lozim. Shu bois “Jihod al-akbar” (eng buyuk kurash) nafs bilan kurash ekanligi Islom tafakkurining muhim g‘oyalaridan biridir. Shunday qilib, inson erkinligi – nafsini boshqarish qobiliyati bilan o‘lchanadi. Kim o‘z nafsini jilovlay olsa, u haqiqiy ma’naviy mustaqillikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Бақара сураси 29-оят. 4-қайта нашр. – Тошкент.: “Шарқ”, 2012.

2.Тоҳир Малик. Одамийлик мулки – Ҳусни хулқ. – Тошкент.: “Шарқ”, 2022. – Б.258.

3. Муҳаммад Зоҳид Қутқу. Нафс нимадир. Таржимон Зебунисо Ҳусайн қизи. –Тошкент.: “Шарқ”, 2021. – Б 30-198

4. Шадриков В.Д. Психологическая характеристика нормального человека, или познай самого себя. – М.: “Университетская книга”, 2009. – С.29-30.

5. Невзат Тархан. Туйғулар психологияси. Таржимон С.Сарвар қизи. – Тошкент.: “Янги аср авлоди”, 2023. – Б.178.

6. Норқулов Ж. Фалсафа асослари. Ўқув дастурлари, дарсликлар ва ўқув қўлланмаларини қайта кўриб чиқиш ва янгиларини яратиш бўйича Республика мувофиқлаштириш комиссияси нашрга тавсия этган. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2018. – Б.360.

7. Абу Ҳомид Ғаззолий. “Мукошафат-ул қулуб”. М.Аъзам таржимаси. – Тошкент.: “Адолат”, 2002. – Б. 38.

8.Белкин А.И., Чернышова Е.Л. Духовность (как особое измерение сознания) в научной психологии и святоотеческой традиции // Мир психологии. 2018. №2(94). С. 150–154.

9. Арасту. Ахлоқи Кабир. Таржимонлар Зоҳир Аъзам ва Урфон Отажон. – Тошкент.: “Янги аср авлоди”, – Б.141.

10. Павлова О.С. Исламская концепция счастья: психологическиӣ анализ. Minbar. Islamic Studies. № 14(4), 2021. – С.923-950.

11. Деменев А.Г. Эвдемонистические и гедонистические теории в современных исследованиях счастья. Вестник ВГУ. Серия Философия. № 4(22), 2016. – С.15-23.

12. Столяров, А.А. Воля // Новая философская энциклопедия: в 4 т. / Институт философии РАН; Национальный общественно-научный фонд; предс.научно-ред. совета В. С. Степин. – 2-е изд., испр и дополн. – М.: Мысль, 2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Тухтабаев Эдлор Абдужаббарович
Ташкентский Государственный транспортный университет Докторант кафедры "Социальных наук"

АМЕРИКАНСКАЯ МИГРАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА КАК: ПРОТИВОРЕЧИЕ НАЦИОНАЛЬНЫМ ИДЕЯМ.

Аннотация. *Данная статья рассматривает эволюцию иммиграционной политики США и её соответствие ключевым принципам, на которых основана американская идентичность. Исторически Соединённые Штаты формировались как страна мигрантов, привлекая людей со всего мира благодаря своим демократическим институтам, экономическим возможностям и географическим преимуществам. Особое внимание уделено изменениям в иммиграционной политике после возвращения Дональда Трампа на пост президента в 2025 году. В статье анализируются причины и последствия введения чрезвычайного положения на американо-мексиканской границе, ограничения программ временного убежища и рабочих виз, а также меры по приостановке гражданства по праву рождения. Исследуется, как эти инициативы повлияли на экономику, рынок труда, инновационную сферу и международный имидж США.*

В работе показано, что, несмотря на заявленные цели обеспечения национальной безопасности и экономической стабильности, ужесточение иммиграционной политики может привести к снижению конкурентоспособности США на мировом уровне, сокращению налоговых поступлений и демографическим проблемам. Данный анализ позволяет сделать вывод о том, что современный подход к регулированию миграции в США представляет собой сложный баланс между национальными интересами и историческими идеалами американской демократии.

Ключевые слова: *миграционная политика, Дональд Трамп, США, мигранты, национальная безопасность, экономика США, легальная миграция, нелегальная миграция, строительство стены, рабочие визы (h-1b).*

Tukhtabayev Eldor Abdujabbarovich
Tashkent State Transport University Doctoral Student Department of Social Sciences

AMERICAN IMMIGRATION POLICY AS A CONTRADICTION TO NATIONAL IDEALS

Annotation. *This article examines the evolution of U.S. immigration policy and its alignment with the key principles that define American identity. Historically, the United States has developed as a nation of immigrants, attracting people from around the world due to its democratic institutions, economic opportunities, and geographic advantages. Particular attention is given to changes in immigration policy following Donald Trump's return to the presidency in 2025. The article analyzes the causes and consequences of declaring a state of emergency at the U.S.-Mexico border, restricting temporary asylum programs and work visas, and suspending birthright citizenship. It explores how these initiatives have impacted the economy, labor market, innovation sector, and the international image of the U.S.*

The study demonstrates that, despite the stated goals of ensuring national security and economic stability, tightening immigration policy may lead to a decrease in U.S. competitiveness on the global level, a reduction in tax revenues, and demographic challenges. This analysis allows us to conclude that the current approach to regulating migration in the United States represents a complex balance between national interests and the historical ideals of American democracy.

Keywords: *immigration policy, Donald Trump, USA, migrants, national security, U.S. economy, legal migration, illegal migration, border wall construction, work visas (H-1B).*

To'xtaboev Eldor Abduzhabbarovich
Toshkent davlat transport universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi doktoranti

AMERIKA MIGRATSIYA SIYOSATI MILLIY G'OYALARGA QARSHI ZIDDIYAT SIFATIDA

Annotatsiya*. Ushbu maqola AQSh immigratsiya siyosatining evolyutsiyasi va uning Amerika o'ziga xosligi asos bo'lgan asosiy tamoyillar bilan uyg'unligini ko'rib chiqadi. Tarixan Amerika Qo'shma Shtatlari demokratik institutlari, iqtisodiy imkoniyatlari va geografik afzalliklari tufayli dunyoning turli burchaklaridan odamlarni o'ziga jalb etuvchi muhojirlar davlati sifatida shakllangan. Donald Tramp 2025-yilda prezidentlikka qaytganidan so'ng immigratsiya siyosatidagi o'zgarishlarga alohida e'tibor*

qaratilmoqda.Ushbu maqolada AQSh-Meksika chegarasida favqulodda holat e'lon qilinishining sabab va oqibatlari, vaqtinchalik boshpana va ish vizasi dasturlariga qo'yilgan cheklovlar, tug'ma fuqarolikni to'xtatish choralari ko'rib chiqiladi. Bu tashabbuslar AQSh iqtisodiyoti, mehnat bozori, innovatsiyalar va xalqaro imidjga qanday ta'sir qilganini o'rganadi.

Ushbu ishda shuni ko'rsatilganki, milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadlari e'lon qilinganiga qaramay, immigratsiya siyosatining qattiqlashtirilishi AQShning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini pasaytirishi, soliq tushumlarini kamaytirishi va demografik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur tahlil shunday xulosaga kelish imkonini beradiki, AQShda migratsiyani tartibga solishga bo'lgan zamonaviy yondashuv milliy manfaatlar va Amerika demokratiyasining tarixiy g'oyalari o'rtasidagi murakkab muvozanatni o'zida aks ettiradi.

***Kalit so'zlar**: immigratsiya siyosati, Donald Tramp, AQSh, migrantlar, milliy xavfsizlik, AQSh iqtisodiyoti, qonuniy immigratsiya, noqonuniy immigratsiya, devor qurilishi, ish vizalari (h-1b).*

Ввод.

Америка стала страной мигрантов благодаря сочетанию исторических, экономических, географических и политических факторов. Иммиграция сыграла ключевую роль в формировании её общества, экономики и культуры. Несмотря на текущие дискуссии о миграционной политике, США остаются одной из главных стран для переселения людей в поисках лучшей жизни.

С момента основания, Америка была местом, куда люди со всего мира бежали в поисках лучшей жизни. В XVII веке переселенцы из Англии, Франции, Испании и Нидерландов начали осваивать территорию, создавая колонии. Америка стала страной мигрантов по нескольким ключевым причинам, связанным с её религиозной первобытностью, экономикой, географическим положением и политическими принципами.

США исторически позиционируют себя как "землю возможностей", где каждый может добиться успеха. Конституция и Декларация независимости гарантируют равные права и свободы, что привлекало людей из стран с тоталитарными режимами. Вплоть до 1920-х годов США почти не ограничивали иммиграцию. Этническое разнообразие стало нормой, а культурный плюрализм — одной из основ американской идентичности.

США граничат с Латинской Америкой, где экономическая нестабильность и бедность заставляют миллионы людей искать работу в соседней стране. Это политика работает и в XXI веке: мексиканские и центральноамериканские мигранты обеспечивают значительную часть. Конфликты в Латинской Америке, Ближнем Востоке, Африке способствуют росту миграции.

США принимают беженцев, хотя политика их приёма неоднозначна. Американская экономика привлекает талантливых специалистов в сфере IT, медицины, науки (программы H-1B).

Однако президентство Дональда Трампа, начавшееся в январе 2025 года, ознаменовалось значительными изменениями в миграционной политике США. Администрация Трампа начала стремительно ужесточать меры контроля над иммиграцией, ссылаясь на необходимость обеспечения национальной безопасности и экономической стабильности. В этой статье проанализируем их последствия и оценим соответствие идеалам, на которых основана американская нация.

После возвращения в 2025 году он начал активно использовать девиз «Make America Great Again». Жёсткая миграционная политика помогло Трампу мобилизовать свою электоральную базу — преимущественно белых консерваторов из рабочего класса. Демонизация мигрантов и ужесточение визовой политики создало эффект "врага", на которого можно списывать внутренние проблемы страны.

Использование популистской риторики имеет несколько целей:

- отклонение внимания от экономических проблем – вместо обсуждения инфляции и социальной политики внимание общества смещается на "угрозу" со стороны мигрантов;
- консолидация сторонников – страх перед миграцией усиливает поддержку среди избирателей, обеспокоенных изменениями в демографическом составе страны;
- давление на оппонентов – демократы, выступающие за реформы, подвергаются критике как "предатели", поддерживающие "замену американского населения".

Одним из первых шагов администрации Трампа стало введение режима чрезвычайной ситуации на американо-мексиканской границе. Введение чрезвычайного положения позволило администрации предпринять следующие шаги:

1. размещение войск на границе;
2. мобилизация дополнительных подразделения вооруженных сил для поддержки пограничной службы;
3. предотвращение нелегальных пересечений границы и ускорение строительства стены на границе с Мексикой.

Аргумент администрации Трампа состоит в том, что неконтролируемая миграция может привести:

а) проникновению преступных элементов и наркоторговцев.

б) увеличению террористической угрозы (особенно после событий на Ближнем Востоке).

в) Росту нагрузки на социальные службы.

С этой точки зрения такие меры, как ужесточение визового режима и строительство заграждений на границе, могут быть частью долгосрочной стратегии по защите страны. Однако, эффективность таких мер остаётся под вопросом. Опыт 2017–2021 годов показал, что даже строительство стены на границе с Мексикой не решило проблему нелегальной миграции. Надо учесть, что строительство стены на границе с Мексикой, было приостановлено предыдущей администрацией страны.

По данным Reuters, «в феврале 2025 года количество арестов на южной границе США снизилось до рекордно низкого уровня в 8 300 случаев, что свидетельствует о снижении числа нелегальных пересечений границы»[37]. Кроме того, «Пентагон запланировал развернуть дополнительные 10 000 военнослужащих для поддержки пограничной службы, что подчеркивает серьезность подхода администрации к вопросам безопасности границ»[38].

Решение о введении чрезвычайного положения вызвало смешанную реакцию. Внутри США сторонники Трампа поддержали меры как необходимые для обеспечения безопасности, тогда как оппоненты выразили обеспокоенность возможными нарушениями прав человека и гуманитарными последствиями. «Правительство Мексики выразило обеспокоенность в связи с возможными последствиями для приграничных регионов и готовилось к потенциальному увеличению числа депортированных лиц»[39]. Таким образом, введение режима чрезвычайной ситуации на американо-мексиканской границе стало ключевым элементом новой иммиграционной политики администрации Трампа, направленной на усиление контроля над границей и борьбу с нелегальной иммиграцией. Администрация прекратила практику политику «поймай и отпусти»[40] освобождения задержанных нелегальных иммигрантов до рассмотрения их дел в суде.

Администрация Трампа также предприняла шаги по ограничению легальной миграции. Были ужесточены требования к получению рабочих, студенческих и инвестиционных виз, что затруднило въезд в страну квалифицированных специалистов и инвесторов. Программы воссоединения семей были сокращены, а процесс натурализации стал более сложным и длительным. Планируется пересмотр программ, таких как H-1B, с целью ограничения въезда иностранных специалистов и обеспечения приоритета для американских работников. Это может привести к сокращению числа иностранных студентов и специалистов, получающих разрешение на работу в США.

Ограничения на рабочие визы H-1B негативно сказываются на технологическом секторе. В 2024 году около 75% заявок на H-1B поступили от индийских специалистов, работающих в Google, Microsoft, Apple и стартапах Кремниевой долины. Ужесточение визового режима может привести к утечке мозгов и замедлению инноваций. Если иностранные специалисты не смогут получить разрешение на работу в США, американские компании могут открыть филиалы в Канаде, Европе и Азии, чтобы сохранить доступ к мировым талантам. Кремниевая долина — мировой центр технологий, где работают тысячи мигрантов, начинает терять свою притягательную магию для интеллектуалов.

Одним из значимых шагов стало намерение администрации отозвать временный легальный статус у примерно «240 000 украинцев, прибывших в США в связи с конфликтом в их стране. Этот шаг является частью более широкой стратегии, направленной на лишение легального статуса более 1,8 миллиона мигрантов, воспользовавшихся программами временного гуманитарного убежища, введенными предыдущей администрацией. Под угрозой оказались также около 530 000 мигрантов из Кубы, Гаити, Никарагуа и Венесуэлы, а также 70 000 афганцев, бежавших от режима Талибана»[41].

Администрация Трампа рассматривает возможность приостановки приема заявлений по некоторым категориям иммиграции, включая «Убежище и рабочие визы для специалистов из таких стран, как Индия. Кроме того, планируется прекращение программ, основанных на семейной миграции и лотерее визового разнообразия, в пользу системы, основанной на заслугах»[42].

В рамках новой политики администрации вопрос нелегальных мигрантов приобрел

[37] Тед Хессон. Ранний послужной список Трампа по иммиграционному правоприменению, в цифрах. 06.03.2025. https://www.reuters.com/world/us/trumps-early-immigration-enforcement-record-by-numbers-2025-03-04/?utm.

[38] Трамп объявил чрезвычайное положение на границе страны в рамках подавления иммиграции. https://www.theguardian.com/us-news/2025/jan/20/trump-immigration-emergency-executive-order?utm.

[39] Мексика с тревогой ожидает лавину иммиграционных указов Трампа. https://elpais.com/mexico/2025-01-20/mexico-aguarda-con-preocupacion-la-avalancha-de-decretos-migratorios-de-trump.html?utm.

[40] Сальвадор Риццо. проверка фактов об иммиграции, разделении семей и 1500 «Потерянных» детях. Washington Post. 30.05.2018 г.

[41] Т.Хессон, К.Кук. Трамп обдумывает лишение украинцев легального статуса, поскольку США активизируют депортации. 07.03.2025. https://www.reuters.com/world/us/trump-plans-revoke-legal-status-ukrainians-who-fled-us-sources-say-2025-03-06/?utm

[42] Г.Д.Валле. Трамп также планирует подавить легальную иммиграцию. https://www.theverge.com/2024/10/31/24284684/trump-legal-immigration-crackdown-america-first-policy-institute?utm.

приоритетное значение, и в первую очередь внимание было уделено порядку предоставления гражданства их детям на основе права рождения. Согласно принятому указу, данный порядок временно приостановлен и будет пересмотрен соответствующими компетентными органами. Эти меры принимаются с целью резкого сокращения нелегальной иммиграции, а также установления более четкого порядка в отношении иммиграции для всего общества. Этот политический шаг вызвал различные дискуссии в разных социальных кругах.

По мнению властей, принцип автоматического гражданства усиливает миграционный поток, укрепляя понятие так называемых "детей-якорей" (anchor babies) среди лиц, прибывших незаконным путем. Отмечается, что этот процесс становится тяжелым бременем для местного бюджета и увеличивает государственные расходы, связанные со здравоохранением, образованием и жильем. Власти также выражают недовольство тем, что нелегальные мигранты, чьи дети имеют гражданство, получили благоприятную возможность легализовать свои семьи в будущем.

Сторонники указа подчеркивают, что эти меры послужат укреплению суверенитета государства. Они настаивают на том, что не должны нарушаться критерии справедливости между теми, кто законно прошел процесс иммиграции, и теми, кто прибыл нелегально. Однако, по мнению критиков, такое политическое решение несет риск ограничения прав человека, разделения семей и усиления ксенофобских настроений в обществе. Они особенно обеспокоены тем, что дети родителей, не имеющих законного статуса, могут столкнуться с серьёзными юридическими последствиями без своей вины.

Еще один вопрос, привлекший внимание юристов, - сложность, связанная с практическим исполнением указа. Отмена гражданства на основании рождения может осложнить процесс оформления документов, определения правового статуса детей и доступа к социальным услугам. В частности, учитывается, что это может привести к различным ограничениям для несовершеннолетних в доступе к будущему образованию, медицинскому обслуживанию и даже открытию банковских счетов. Координация между федеральными органами также вызывает серьезные вопросы.

Кроме того, не остается без внимания и международное законодательство. Некоторые страны напоминают, что Конвенция Организации Объединенных Наций о правах ребенка или другие международные документы требуют, чтобы каждый ребенок имел определенные гарантии. В таких условиях обеспечение соответствия отмены гражданства на основании права рождения таким конвенциям становится сложной задачей. Из этого следует, что политические решения должны учитывать не только внутренние положения, но и международные обязательства.

Резюмируя, отмена практики предоставления гражданства на основе права рождения детям нелегальных мигрантов поднимает сложные социальные, правовые и политические вопросы. Эта политика, с одной стороны, способна укрепить государственный суверенитет, ограничить незаконную миграцию и регулировать использование ресурсов, а с другой стороны, может вызвать деликатные проблемы, связанные с правами человека, социальным равенством и международными обязательствами. Поэтому в процессе исполнения указа в качестве приоритета должны рассматриваться вопросы достижения баланса, опоры на законодательные основы и особенно обеспечения интересов несовершеннолетних детей. Ведь решение этой проблемы является одним из важных звеньев не только внутренней политики, но и глобальных отношений. В дальнейшем ожидается продолжение общественных дискуссий по этому вопросу.

Ужесточение миграционной политики имеет значительные экономические последствия. Сокращение числа рабочих рук в таких отраслях, как сельское хозяйство и строительство, может привести к снижению производительности и росту цен на продукцию и услуги. Недостаток квалифицированных кадров в сфере технологий и науки может замедлить инновационное развитие и снизить конкурентоспособность США на мировом рынке.

США традиционно зависят от мигрантов в ключевых секторах экономики, особенно в сельском хозяйстве, строительстве, сфере услуг и здравоохранении. Ограничение миграционных потоков приводит к следующим эффектам:

1. «Рост дефицита рабочей силы». Запрет на рабочие визы и депортация нелегальных работников ведут к нехватке кадров в таких отраслях, как сельское хозяйство, гостиничный бизнес и строительство;
2. рост зарплат и увеличение инфляции. Дефицит рабочей силы вынуждает работодателей повышать зарплаты, что ведёт к росту цен на продукты и услуги. Это особенно ощутимо в сферах, где традиционно работали мигранты (например, в сельском хозяйстве, где их доля превышает 70%);
3. рост цен на продовольствие и жильё может усилить инфляционное давление на экономику;
4. снижение экономической активности.

Иммиграция традиционно способствовала росту американской экономики, создавая новые рабочие места и способствуя инновациям. «По прогнозам Moody’s Analytics, сокращение иммиграции может

снизить темпы экономического роста США на 0,5–1% в год».

Политика Трампа — это также философская борьба между глобализмом и локализмом. Иммиграция — результат глобальных процессов, а её ограничение — попытка вернуть контроль, «локализовать» идентичность. Однако философия современности требует нового мышления — синтеза, а не исключения. Национальная идентичность уже не может существовать вне глобальных связей, и попытка построить «крепость Америка» ведёт к культурной стагнации.

Наконец, ужесточение миграционной политики ставит вопрос о социальной солидарности и моральной ответственности. Является ли общество ответственным за страдания беженцев и мигрантов? Готово ли оно интегрировать другого на основе общечеловеческих ценностей? Эти вопросы лежат в основе философского осмысления нации как морального сообщества, а не просто экономического механизма.

Заключение.

Миграционная политика администрации Дональда Трампа после его возвращения в Белый дом в 2025 году остаётся одной из самых спорных тем в американской политике. Её ужесточение вызывает вопросы: является ли она продуманной стратегией по защите национальных интересов или же это инструмент популизма, направленный на мобилизацию электората? Миграционная политика администрации Трампа сочетает в себе как популизм, так и элементы стратегического планирования. С одной стороны, она используется как инструмент политической борьбы, направленный на мобилизацию электората. С другой стороны, она включает меры по усилению контроля границ и защите национальных интересов. Однако, её реализация сталкивается с серьёзными экономическими и социальными вызовами, которые могут ослабить США в долгосрочной перспективе.

Экономические последствия миграционной политики Трампа носят противоречивый характер. С одной стороны, ограничения направлены на защиту американских рабочих мест, с другой — создают дефицит рабочей силы, повышают инфляцию и снижают налоговые поступления. Как показывает, «Исследования National Bureau of Economic Research мигранты создают больше рабочих мест, чем отбирают, а их ограничение может замедлить экономический рост».

Миграционная политика администрации Трампа с 2025 года направлена на значительное ужесточение контроля над иммиграцией, как нелегальной, так и легальной. Несмотря на заявленные цели обеспечения национальной безопасности и экономической стабильности, такие меры вызывают серьезные дебаты относительно их эффективности и соответствия основополагающим идеалам США как нации иммигрантов. Необходимо тщательно взвешивать последствия подобных политик, учитывая как краткосрочные выгоды, так и долгосрочные риски для социального и экономического развития страны.

Список использованных источников

1. Закон о исключении китайцев принятый в США в 1882 году, который запрещал иммиграцию китайских рабочих.

2. Тед Хессон. Ранний послужной список Трампа по иммиграционному правоприменению, в цифрах. 06.03.2025. https://www.reuters.com/world/us/trumps-early-immigration-enforcement-record-by-numbers-2025-03-04/?utm.

3. Трамп объявил чрезвычайное положение на границе страны в рамках подавления иммиграции. https://www.theguardian.com/us-news/2025/jan/20/trump-immigration-emergency-executive-order?utm.

4. Мексика с тревогой ожидает лавину иммиграционных указов Трампа. https://elpais.com/mexico/2025-01-20/mexico-aguarda-con-preocupacion-la-avalancha-de-decretos-migratorios-de-trump.html?utm.

5. Т.Хессон, К.Кук. Трамп обдумывает лишение украинцев легального статуса, поскольку США активизируют депортации. 07.03.2025. https://www.reuters.com/world/us/trump-plans-revoke-legal-status-ukrainians-who-fled-us-sources-say-2025-03-06/?utm.

6. Г.Д.Валле. Трамп также планирует подавить легальную иммиграцию. https://www.theverge.com/2024/10/31/24284684/trump-legal-immigration-crackdown-america-first-policy-institute?utm.

7. Сальвадор Риццо. проверка фактов об иммиграции, разделении семей и 1500 «Потерянных» детях. Washington Post. 30.05.2018 г.

8. По оценкам Bureau of Labor Statistics (BLS), в 2024 году в США было около 11 миллионов открытых вакансий, значительная часть которых занималась мигрантами. U.S. Bureau of Labor Statistics : U.S. Bureau of Labor Statistics.

9. Потребительские расходы в США замедлятся, но все же вырастут в этом году; меняющаяся политика сопряжена с риском. Moody's - кредитные рейтинги, исследования и данные для глобальных рынков капитала.

10. Национальное бюро экономических исследований. Национальное бюро экономических исследований | НБЭР.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Qaxxarov Siyovush Xudoyor o'g'li
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

HARBIY MADANIYAT SHAKLLANISHI VA UNING TA'LIMDAGI O'RNI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy madaniyatning mazmuni, uning shakllanish jarayonlari hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Harbiy madaniyat – bu faqatgina harbiy bilim va ko'nikmalar emas, balki vatanparvarlik, intizom, ma'naviy-axloqiy tarbiya kabi qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Maqolada harbiy madaniyatni yosh avlod ongiga singdirishda ta'lim muassasalarining roli, xususan, harbiy-patriotik tarbiya orqali shaxs kamolotini ta'minlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda harbiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *Harbiy madaniyat, vatanparvarlik, ta'lim tizimi, intizom, ma'naviy tarbiya, harbiy tarbiya, shaxs kamoloti, qadriyatlar, o'quv-tarbiya jarayoni, milliy ong va o'zlik.*

Каххаров Сиявуш Худоёр угли
независимого исследователя Наманганского государственного университета

ФОРМИРОВАНИЕ ВОЕННОЙ КУЛТУРЫ И ЕЕ РОЛ В ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация: *В данной стате анализируется содержание военной културы, протсессы ее формирования и значение в системе образования. Военная култура - это не толко военные знания и навыки, но и такие сенности, как патриотизм, диссиплина, духовно-нравственное воспитание. В стате особо подчеркивается рол образовательных учреждений в внедрении военной културы в сознание молодого поколения, в частности, их значение в обеспечении личностного развития посредством военно-патриотического воспитания. Также даны рекомендатсии по развитию военной културы в современных условиях.*

Ключевые слова: *Военная култура, патриотизм, система образования, диссиплина, духовное воспитание, военное воспитание, личностное развитие, сенности, учебно-воспитателный протсесс, натсионалное сознание и самосознание.*

Kakharov Siyavush Khudoyarovich
independent researcher of Namangan State University

THE FORMATION OF MILITARY CULTURE AND ITS ROLE IN EDUCATION.

Abstract: *This article analyzes the content of military culture, the processes of its formation, and its significance in the education system. Military culture encompasses not only military knowledge and skills but also values such as patriotism, discipline, and moral and ethical education. The article specifically emphasizes the role of educational institutions in instilling military culture in the minds of the younger generation, particularly its importance in ensuring personal development through military-patriotic education. Recommendations for the development of military culture in modern conditions are also given.*

Keywords: *Military culture, patriotism, education system, discipline, moral education, military education, personal development, values, educational process, national consciousness and identity.*

Kirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda harbiy ta'lim tizimini, harbiy ilm-fanni takomillashtirish, zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarga harbiy ta'lim sir-sinoatlarini chuqur o'rgatishda yetuk kadrlar masalasi dolzarb ahamiyatga ega sanaladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bu maxsus ta'lim masukanlarida tahsil olayotgan farzandlarimiz qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san'atidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi"[1:387]. Bu esa bizningcha, yoshlarda harbiy madaniyatni shakllanishida ta'limdagi o'rni muhim ekanligini anglatadi. Harbiy ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichi T.Kun nazariyasidagi paradigmalarning siljishi davridagi bosqich sifatida favqulodda fan davrining tavsifiga mos keladi. "Uning atributlari eski fanning inqirozi (mazmun tomondan-yetakchi usullarning

ziddiyatlari, hissiy va irodaviy tomondan - ilmiy jamoatchilik tomonidan ishonchni yo‘qotish), inqilobiy ilmiy farazlar va yechimlarning mavjudligi bilan ko‘zga tashlanadi”[2:89]. Bu esa tadqiqotchilar fikricha, “harbiy ta’limning hozirgi paradigmasi jamiyat va armiyaning uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarining mahsulidir, ular orasida harbiy fanning rivojlanishi faqat omillardan biridir. Harbiy ta’lim paradigmasi mohiyatan ilmiy-konseptual sxema bo‘lib, harbiy o‘qituvchilarning nazariy va amaliy faoliyati uchun me’yoriy asos bo‘lib xizmat qiladi, harbiy ta’lim paradigmasi evristik jihatdan cheklangan vaqt uchun amal qiladi”[3:121]. Bizningcha, mazkur masalani ochib berish jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘yishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab masaladir.

Mavzuning o‘rganilganligi

Ushbu mavzu yuzasidan ni mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borganyu Xususan Jo‘raev A. O‘zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy ta’lim va harbiy kadrlar tayyorlash bo‘yichab Rahimov B.R. harbiy pedagogika va harbiy psixologiya sohasida, Qurbonov Sh.X. milliy armiya, harbiy an’analar va ularning ta’lim tizimiga ta’siri bo‘yicha, Nazarov M.H. o‘quv muassasalarida harbiy-milliy tarbiyani shakllantirish borasida, xorijlik olimlardan, Semyuel Xantingtonning “The Soldier and the State” asarida harbiy madaniyat, harbiy kasb etikasi va uning jamiyatdagi roli haqida, Morris Janovis, harbiy institutsiyalar va ularning madaniyat bilan bog‘liq jihatlarini (“The Professional Soldier”), Maykl Fuko to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy madaniyatni o‘rganmagan bo‘lsa-da, uning “dissiplina” va “hokimiyat” haqidagi nazariyalari harbiy tizim va madaniyatni tahlil qilishda, Kritofer Danker harbiy sotsiologiya va harbiy kadrlar instituti haqida, izlanishlar olib borgan. Antoni King harbiy kasb, operatsiyalar va harbiy komandirlik madaniyati kabi mavzuning ilmiy va amaliy jihatlarini o‘zining maqolalarida va asarlarida tahlil qilib bergan.

Tadqiqot uslublari

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, kontent tahlil, metematik statistik uslublar.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi

Mazkur jarayonga har tomonlama tayyor turish uchun O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlariga ko‘ra yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta’lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qaroriga ko‘ra “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasi qabul qilingan. Unda ta’kidlanishicha, “O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilga rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030 yilgacha mo‘ljallangan “Yoshlar strategiyasi”, Yoshlar manfaatlari bo‘yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020 yil dekabr oyida tashkil etilgan “O‘zbekiston yoshlari” forumida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqildi. Bu bilan Vatanni himoya qilish, uni asrash to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo‘yicha shaxsiy e’tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya”si qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish masalasi ko‘rib chiqilgan[4]. Ijtimoiy taraqqiyotga ko‘ra hozirgi vaqtda jismoniy kuch yoki qurol mahorati emas, balki insonning intellektual qobiliyatlari tobora muhim rol o‘ynamoqda. Natijada harbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni tobora tezlasha boshladi.

Tadqiqotchi olimlar fikricha, “Ta’lim insonni rivojlantirishning eng muhim omili sifatida har qanday mamlakatda hozirgi davr uchun munosib bo‘lgan aholi turmush darajasi va sifatiga erishish, ish bilan samarali bandlikni ta’minlash, barqaror rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik darajasini pasaytirish, fuqarolik jamiyati tarkibini mustahkamlash; inson huquqlariga rioya etish va ularni samarali amalga oshirish, shaxsning imkoniyatlarini to‘la va har taraflama ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va gumanitar muammolarni hal qilishga katta ta’sir ko‘rsatadi”[5:13].

Harbiy madaniyat shakllanishi harbiy ta’limning o‘rni muhim hisoblanadi. Chunki, harbiy madaniyat-bu harbiy jamoada yaratilgan va faoliyat ko‘rsatadigan rasmiy va norasmiy madaniyatlar majmui bo‘lib, ularning har biri moddiy va ma’naviy tarkibiy qismlardan, shu jumladan

qiymat-me'yoriy, ma'naviy, mafkuraviy va ramziy elementlardan iborat bo'lib, harbiy faoliyatni rag'batlantirish va tartibga solishni ta'minlaydi. Ba'zi tadqiqotlarda harbiy madaniyat harbiy fanning bir qismi, ya'ni o'qitish va tarbiyalash jarayonida xodimning ongida mustahkamlangan bilimlar to'plami sifatida e'tirof etiladi. "XVIII asr oxiriga kelib harbiy tarix va harbiy fan harbiy bilimlardan mustaqil fanlar sifatida paydo bo'ldi. Shu bilan bir qatorda uning nazariyalari, ta'limotlari, shuningdek, urush va armiya bo'yicha amaliy tadqiqotlar kiritila boshlandi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida pedagogika va sotsiologiya, urushning umumiy nazariyasi, strategiya va taktika nazariyalari, armiya qurilishi, kadrlar tayyorlash va o'qitishning aniq farqlari ajratila yuoshlandi"[6]. Ko'rinib turibdiki, yoshlarni harbiy madaniyatini oshirish uchun ularni o'qitish, ularni muayyan normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirish an'anaviy ravishda olingan bilimlarning bir qismi ekan.

"Ilmiy-pedagogik tahlillar va emperik o'rganishlarimiz, oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning mavjud kasbiy tayyorgarlik darajasi bugungi zamonaviy sharoitda ularning kasbiy mahorati va kompetentliligiga qo'yiladigan talablar tizimiga to'la mos kelmasligini ko'rsatdi. Shu boisdan, tadqiqotlar davomida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligi tuzilmasi aniqlandi. Mazkur tuzilmada bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni tayanch kasbiy kompetensiyalar (ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy), kasbiy shaxsiy sifatlar (strategik mobillik, tezkor-taktik moslashuvchanlik, harbiy emotsional barqarorlik, tolerantlik, vatanparvarlik) elementlari, harbiy-kasbiy kompetensiyalar, shuningdek, kreativlik darajasini o'zida aks ettiruvchi sohaga oid integral kasbiy ko'nikmalarning o'zaro aloqadorligida takomillashib borishi tavsiflandi"[7:15]. Bundan ma'lum bo'ladiki, harbiy madaniyatni shakllantirishda ta'lim yetakchi o'rinda turar ekan.

Soha mutaxassislari fikricha hozirgi globallashuv jarayoni yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullaridan samarali foydalanib o'qitishquyidagi usullardan iborat.

1. Targ'ibot usuli. Vatanparvarlikning tarbiyaviy-axloqiy mazmuni va bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berishdan iborat. Shu bois harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarga sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish, ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

2. Jamoaviylik usuli. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizning umumiy jangovar shayligi birlashma, qo'shilma, qism va bo'linmalarning jangovar shayligi darajasi bilan belgilanadi. Harbiy bo'linmalar o'z ichki tuzilmasiga ko'ra, faoliyat yuritishi qat'iy belgilangan ijtimoiy guruhni ifodalab, harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari va ular o'rtasidagi xizmat munosabatlari, ichki tartib-qoidalari, mansabdor shaxslarning majburiyatlari, kundalik hamda maishiy sharoitlar, harbiy xizmatchilarni ishga joylashtirish, ichki xizmatni olib borish masalalari Intizom hamda Ichki xizmat Nizomlarining asosiy holatlarida qat'iy belgilab berilgan.

3. An'anaviylik usuli. Harbiy an'ana armiyada harbiy xizmat jarayoni jangovar vazifalarni bajarish, shaxsiy tarkibni tayyorlash, harbiy xizmatchilarning kundalik turmushi bilan bog'liq bo'lgan, tarixan shakllangan, avloddan avlodga o'tuvchi g'oya, qoida, urfodat, xulq-atvor me'yorlarida namoyon bo'ladi. Qurolli Kuchlarda harbiy an'analar tizimi harbiy faoliyatning asosiy uch sohasini: jangovar an'analar; harbiy turmush an'analari; ta'lim-tarbiyaviy an'analarni qamrab oladi. 4. Qadriyatlar ustuvorligi usuli. Harbiy xizmatchilarda milliy qadriyatlarga, ilg'or an'analarga, axloqiy tamoyillarga, yuksak madaniyatga sodiqlik kabi insoniy fazilatlarni hosil qilmasdan turib vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib bo'lmaydi. Chunki O'zbekistonning qariyb 30 yillik mustaqil taraqqiyot yo'liga nazar tashlansa, vatanparvarlikni ro'yobga chiqarish, mard va jasur avlodni voyaga yetkazishga oid keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi ham Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga befarq bo'lmagan avlodni shakllantirishdan iborat. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar pragmatik asos bo'lib xizmat qiladi.

5. Zamonaviylik usuli. Qiyinchiliklar, to'siqlar, nomutanosibliklar, hatto jinoiy harakatlarning oshib borishi ham sof vijdonli kishi qalbida Vatan tuyg'usini, agar u chuqur e'tiqodga aylangan bo'lsa, o'chirolmaydi. Rang-barang maqsad va manfaatlarga ega ijtimoiy guruhlar mavjud ekan, umummaqsadni turlicha, goho bir-biriga zid tarzda idrok etish ham saqlanib qoladi. Yangi-yangi avlodlarning tug'ilishi, hayot sahnasiga chiqishi jamiyat oldiga yangi-yangi muammolarni ko'ndalang qo'yaveradi; aynan ushbu uzluksizlik, tadrijiylik ijtimoiy hayotning ham uzluksiz, tadrijiy davom etishini ta'minlaydi"[8:6]. Bundan tashqari harbiy pedagogika pedagogikaning ko'pgina boshqa sohalaridan yuqori ma'naviy-ruhiy sifatlarni, tayyorgarlik, qobiliyat va qobiliyatni talab qiladigan mas'uliyatli vazifalarni hal etish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya, o'qitish, ta'lim, o'qitish ob'ektlarining (sub'ektlarining) haqiqiy harbiy kasbiy faoliyatga bevosita jalb etilishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 8-noyabrdagi "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi" VMQ-591-son Qarori "mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o‘tashga tayyorlash ishlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida”[9] qabul qilindi. Bu esa harbiy madaniyat shakllanishi va uning ta’limdagi o‘rni qo‘yidagi muhim jihatlari bilan amalga oshirilishi uchun chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlarni pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini qo‘yadi.

Xususan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani” Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik *o‘quv predmetini o‘qitishda o‘quvchilarga harbiy qasamyod, harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalar, shuningdek, harbiy chiniqish, ruhan bardam bo‘lish, fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.*

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo‘nalishidagi fanlari orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o‘zlashtirgan bilimlari asosida yegallagan ko‘nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiya**larni shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg‘ulotlarni o‘zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda amaliy fanlarga oid atamalarni to‘g‘ri talafuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur.

Fanlarni o‘qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**ni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat”[10:6]. Natijada yoshlarda vatanga xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan kompitensiyalari shakllanishga sabab bo‘ladi. Mazkur jihatlar, o‘z navbatida, harbiy ta’lim muassasalari oldiga intellektual jihatdan yetuk, strategik va tahliliy fikrlashga qodir, kasbiy kompetentliligi yuqori darajada shakllangan yoshlarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish bilan bog‘liq ustuvor vazifalarni qo‘yadi. Emperik izlanishlar shundan dalolat berdiki, harbiy ta’lim tizimidagi fan dasturlari hamda ishchi o‘quv dasturlarini amalga tadbig‘i bo‘lajak yoshlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishdagi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qarori (267-son, 29.06.2023 y.) qabul qilindi. Qaror bilan 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” amalga oshirishga xizmat qiladi.

“Konsepsiyada belgilangan tadbirlar quyidagi 5 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich (3–7 yosh);

2-bosqich (7–10 yosh);

3-bosqich (11–17 yosh);

4-bosqich (18–21 yosh);

5-bosqich (22–30 yosh).

Qarorga ko‘ra, jumladan, quyidagilar amalga oshiriladi;

Birinchidan, mahallalardagi kam ta’minlangan va ehtiyojmand oilalardagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish maqsadida “Ezgu amal” sahovat karvonlari tashkil etiladi;

Ikkinchidan, “Amir Temur izdoshlari”, “Jaloliddin Manguberdi vorislari” harbiy-sport musobaqalari o‘tkaziladi;

Uchinchidan, yoshlar o‘rtasida 4 bosqichda (mahalla – tuman – viloyat – respublika) “Shunqorlar” hamda “Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqalari o‘tkaziladi”[11].

Intizom va tartib: Harbiy ta’lim jarayonida yoshlarni qat’iy intizom va tartibga rioya qilishni talab etadi. Bu esa pedagogik muloqot ta’lim jarayonini tashkil etish omili sifatida asosan ikki modelda amalga oshiriladi:

1. An’anaviy model – o‘quv-intizomiy.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan.

“Muloqotning o‘quv-intizomiy modeli XX asrning 70-yillarida shakllangan bo‘lib, unga ko‘ra o‘quv jarayonining asosiy maqsadi o‘quvchini bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishga qaratilgan. O‘zaro munosabatlarda “Menga qarab bajar” shiori ustun bo‘lgan. Ushbu modelga xos xususiyatlarning asosida muloqotning avtoritar uslubi yotadi.

Muloqot yo‘llari: pand-nasihat, tushuntirish, talab, po‘pisa, jazo, baqiriq.

Muloqot taktikasi: diktat yoki g‘amxo‘rlik shaklda bo‘ladi.

Shaxsiy pozitsiyaga rahbariyat va nazorat organlarining talablarini bajarish bo‘lib, unda muloqotning bunday usuli bola shaxsiga salbiy ta’sir etadi, unda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarining shakllanishiga monelik qiladi. Bunday uslubga asoslangan pedagogik jarayon bugungi talablarga javob bermay qo‘ydi. O‘quvchi ushbu jarayonning passiv ishtirokchisi sifatida asosan tayyor holda unga o‘qituvchi tomonidan uzatilayotgan ma’lumotlarni qabul qilib olish, esda saqlab qolish kabi samarasiz faoliyat bilan chegaralanib qolgan edi. Natijada unda yangi ma’lumotlarni mustaqil egallash, olgan bilimlaridan nostandart hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmas edi”[17:78].

Jamoaviylik: Harbiy ta’lim jarayonida harbiy xizmatchilar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, jamoaviy ruhda ishlashni o‘rganadilar. Unga ko‘ra, hamkorlik pedagogikasida o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro munosabati muloqot samaradorligini ta’minlashning garovidir - ikki kommunikant uchun umumiy bo‘lgan yangi nimanidir ishlab chiqishdir. Pedagogik hamkorlik umumiy maqsadga va unga erishish istiqbollarini ko‘rishga asoslangan. O‘quvchining imkoniyatlariga ishonch birinchi o‘ringa chiqishi kerak. Amerikalik faylasuf G.P. Graysning fikrlariga ko‘ra, so‘zlovchi va tinglovchining muvaffaqiyatli hamkorligi quyidagi qoidalar bilan ta’minlanadi:

1) “*Miqdor qoidasi*: “Sizning bayonotingiz kerak bo‘lgandan ko‘ra ko‘proq (va kam bo‘lmagan) ma’lumotni o‘z ichiga olishi kerak. Hamma bilgan ma’lumotlarni aytish kerak emas”[18:52]. Mashhur olim D.I. Mendeleev shunday deb ogohlantirdi: “Faktlar bilan haddan tashqari yuklangan ma’ruza o‘tinlar bilan to‘lib – toshgan o‘choqqa o‘hshab o‘cha boshlaydi”. Axborot hajmini aniqlashda o‘qituvchi semantik idrok qilish qonunlariga asoslanishi kerak: 7+-2. Axborot birliklari sifatida semantik parcha yoki mikrotema hisoblanishi mumkin.

2) *Sifat qoidasi:* “Sizning so‘zingiz haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qiling”. Axborot sifatiga pedagogik qarashlar uning *taniqlilik* xususiyatini aniqlash imkoniyatini beradi. Tadqiqotchilar o‘quvchi uchun axborotning ma’lumlik darajasining uch xil turini keltirib o‘tadilar:

1 - darajali ma’lumlik - darslikda mavjud;

2 - darajali ma’lumlik – mutaxassisga ma’lum;

3 - darajali ma’lumlik - kamdan-kam hollarda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kamroq nufuzga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning 9/10 qismi 1-darajali ma’lumotlarni beradi, ya’ni darslikni so‘zlab beradi. Yuqori nufuzga ega o‘qituvchilar esa 43 % gacha 2-darajali ma’lumotlarni beradi.

3) Munosabatlar qoidasi: mavzudan chetga chiqmang.

4) Taqdimot uslubi qoidasi. Graysning bu taqdimot uslubi bilan bog‘liq. Bu diqqatni jalb qilish va uni saqlashga yordam berishi kerak. Nutq - bu harakat. Nutq vaqt va makonda chiziqli xarakterga ega. Bu o‘qituvchi va o‘quvchiining boshidan oxirigacha o‘tishi kerak bo‘lgan yo‘li”[18:53] dir.

Harbiy madaniyat shakllanishi va uning ta’limdagi o‘rni harbiy xizmatga kirishdan oldin olib boriladigan ta’limni sifatini hamda harbiy xizmat davomida olib boriladigan ta’lim jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Buning asosiy sababi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi, “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunlarini, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o‘tashni tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini asosiy talablarini, mohiyatini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalarini, harbiy xizmatning ahamiyatini, Vatanga qasamyodni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizom talablarining mohiyatini tushunish;

harbiy-vatanparvarlik ruhida, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish;

milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlar bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiya qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofidagilarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy amaliy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari shakllantirish”[10:8] dan iboratdir. Bundan maqsad nafaqat jismoniy balki ruhiy baquvvat bo‘lishni ta’minlashdir. Zero jahon tajribasi ham shundan dalolat beradi. Ya’ni “...Yaponiya Til va nutq dasturi yaponcha vatanparvarlik g‘oyasini targ‘ib qilib, harbiy ustunlik emas, intellekt ustunligi, notiqlik ustunligi, tartib-intizom va mehnatga munosabat ustunligiga asoslangandir. Bu o‘z navbatida mamlakatni dunyoda ishlab chiqarish va savdo sohalarida birinchi o‘ringa olib chiqdi”[13:30].

Xulosa

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, Respublikamiz ta’lim tizimida ham bo‘lajak mutaxassislarni mustaqil ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, ularda o‘z Vataniga muhabbat, yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish, madaniyatlararo bag‘rikeng fuqaroni tarbiyalash masalalariga katta e’tibor qaratilmoqdaki, bu uzluksiz ta’lim tizimida chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash fanini tadbiq etish, bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ va ritorik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Olib boriladigan ta’limning natijasida shaxsning harbiy

madaniyati va kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa harbiy madaniyatda ta'limning muvaffaqiyatli xizmat qilishi, o'z vatanlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. "Ўзбекистон". 2022. – Б 387.
2. Кун Т. Структура научных революций. М.: «АСТ», 2020. — С 89. (Умумий 320 с.)
3. Самадов А. А. Ўзгарувчан таълим парадигмаси шароитида ҳарбий таълим ўқитувчисининг касбий маҳоратини такомиллаштириш мазмуни. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 12) – Б 121.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган "Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция" Ватанпарвар газетасининг № 9 (2760) – сони, 2018 йил 2 март.
5. Салимов А.А. Таълим соҳасида инсон тараққиёти концепциясининг асосий йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд: 2019. –Б.13.
6. Кикнадзе В.Г. Эволюция, философские проблемы и роль военной науки // Военно-исторический журнал. № 4. 2009. http://history.milportal.ru/arxiv/voenno-istoricheskij-zhurnal-2009-g/voenno-istoricheskij-zhurnal-4-2009-g/
7. Алимардонов З.Ш. Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларининг касбий компетентлигини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд. 2019. – Б 15.
8. Ташматов Б.Х. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўмондони Ҳарбий ватанпарварлик-юксак ишонч ва садоқат. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти ахборотномаси. – 2018. - № 2 – Б 6.
9. www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 8-ноябрдаги "Таълим муассасаларида чақирувга қадар бошланғич тайёргарликни ташкил этиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақидаги" ВМҚ-591-сон Қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанининг миллий дастури. – Б 6.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган "Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция" Ватанпарвар газетасининг № 9 (2760) – сони, 2018 йил 2 март.
12. Xudayberdiyeva X.K. Milliy yuksalish jarayonida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy muammolari. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2024. – B 13.
13. А.Т.Нурманов, Ё.И.Турганов. Педагогик маҳорат (риторика бўйича педагогика олий таълим муассасалари талабалари учун ўқув қўлланма). Тошкент: «ZEBO PRINT», 2022. – Б 5.
14. Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве: пер. с лат. / под ред. М.Л. Гаспарова. М., 1972. – С 81.
15. Квинтилиан. Правила ораторского искусства. СПб., 1896. – С 74.
16. Грайс Г. Л. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. М, 1985. – С 52.
17. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанининг миллий дастури. – Б 8.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Axmedova Iroda Shoxitbekovna
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bo‘lim boshlig‘i
Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi. falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)
E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com

RADIKAL G‘OYALAR TA’SIRINI KAMAYTIRISHDA DAVOMLI MA’RIFIY MASHG‘ULOTLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada radikal g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar bilan davomli ma’rifiy mashg‘ulotlarni tashkil etishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari o‘rganiladi. Muloqotning uzluksizligi, ishonch, axborotni tanqidiy baholash, diniy savodxonlik va ijtimoiy aloqalarni tiklash masalalari tahlil qilinadi. Asosiy manba sifatida “Radikal g‘oyalarga moyil shaxslar bilan davomli mashg‘ulotlarni olib borish tartibi” uslubiy matni olinadi. Undagi mashg‘ulotlar tizimi va baholash mezonlari zamonaviy tadqiqotlar bilan qiyoslanadi. Muallif diniy qarashning o‘zi bilan zo‘ravonlikni oqlash yoki unga jalb qilish holatlarini farqlash zarurligini asoslaydi. Natija sifatida shaxs huquqlarini hurmat qiladigan, ixtiyoriy muloqot va amaliy ijtimoiy yordamga tayangan yondashuv taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *radikallashuv, ma’rifiy mashg‘ulot, ijtimoiy falsafa, davomiylik, ishonch, tanqidiy fikrlash, diniy savodxonlik, ijtimoiy aloqalar, reabilitatsiya, reintegratsiya.*

Axmedova Iroda Shoxitbekovna
Head of the Department of the Committee of the Republic of Uzbekistan on Religious Affairs
Researcher at Andijan State Pedagogical Institute. fDoctor of Philosophy (PhD)

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF ONGOING ENLIGHTENMENT TRAINING IN REDUCING THE IMPACT OF RADICAL IDEAS

Annotation. *The article examines the socio-philosophical aspects of the organization of continuing enlightenment training with individuals influenced by radical ideas. The issues of continuity of communication, trust, critical evaluation of information, religious literacy and restoration of social ties are analyzed. The methodological text "Procedure for conducting continuous training with individuals prone to radical ideas" is taken as the main source. The system of training and evaluation criteria in it are compared with modern research. The author substantiates the need to distinguish between the religious view itself and the cases of justification or involvement in violence. As a result, an approach that respects individual rights and relies on voluntary dialogue and practical social support is proposed.*

Keywords: *radicalization, educational training, social philosophy, duration, faith, critical thinking, religious literacy, social connections, rehabilitation, reintegration.*

Ахмедова Ирода Шохитбековна
Заведующий отделом Комитета Республики Узбекистан по религиозным делам
Научный сотрудник Андижанского государственного педагогического института. Доктор философии (PhD)

СОЦИАЛЬНОЕ И ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОСТОЯННОГО ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО ОБУЧЕНИЯ В СНИЖЕНИИ ВЛИЯНИЯ РАДИКАЛЬНЫХ ИДЕЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются социально-философские аспекты организации непрерывного просветительского обучения с людьми, находящимися под влиянием радикальных идей. Анализируются вопросы непрерывности коммуникации, доверия, критической оценки информации, религиозной грамотности и восстановления социальных связей. Основным источником является методологический текст «Процедура проведения непрерывного обучения с людьми, склонными к радикальным идеям». Система обучения и критерии оценки в нём сравниваются с современными исследованиями. Автор подчёркивает необходимость различать сам религиозный взгляд и случаи оправдания или участия в насилии. В результате предлагается подход, уважающий индивидуальные права и основанный на добровольном диалоге и практической социальной поддержке.*

Ключевые слова: *радикализация, образовательная подготовка, социальная философия, продолжительность, вера, критическое мышление, религиозная грамотность, социальные связи, реабилитация, реинтеграция.*

Kirish

Insonning muayyan g‘oyaga munosabati uning bilimi, hayotiy tajribasi va ijtimoiy aloqalari bilan bog‘liq. Ayrim qarashlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, boshqalari esa inson dunyoqarashida mustahkam o‘rin egallaydi. Ayniqsa, zo‘ravonlikni oqlovchi radikal g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar bilan ishlashda bu jihatni hisobga olish zarur. Uzoq vaqt davomida shakllangan qarashlarni birgina suhbat yoki ma’ruza orqali o‘zgartirish qiyin. Shu bois ma’rifiy ishlarning davomiyligi, suhbatlarning mazmuni va insonning o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishiga imkon beradigan muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’rifiy suhbatlarning natijasi faqat uchrashuv davomida bildirilgan fikrlar bilan belgilanmaydi. Inson suhbatdan so‘ng o‘zining odatiy hayotiga qaytadi. Avvalgi tanishlari, axborot manbalari va kundalik muammolari bilan yana yuzlashadi. Shu sababli dastlabki suhbatda yuzaga kelgan savollarga keyingi uchrashuvlarda qaytish, olingan bilimlarni mustahkamlash va ularni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash zarur. Bunda barcha uchun bir xil mashg‘ulotlar tartibini qo‘llashdan ko‘ra, shaxsning ehtiyoji, tayyorgarligi va suhbatga munosabatini hisobga olish ko‘proq ahamiyatga ega.

Davomli ma’rifiy mashg‘ulotlar diniy bilim berish bilan cheklanmay, insonning fikrlash tarzi va ijtimoiy munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Diniy masalalarni turli manbalar asosida o‘rganish, bildirilgan fikrlarni dalillar bilan solishtirish va qarama-qarshi qarashlarga munosabat bildirish jarayonida mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Shu bilan birga, radikal g‘oyalar ta’sirini kamaytirishda shaxsning oilasi va jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlash, mavjud ijtimoiy muammolarini hal etishga ko‘maklashish ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Asosiy qism

Insonning muayyan qarashni qabul qilishi yoki undan voz kechishi uning fikrlash jarayonida yuz beradigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Yangi ma’lumot dastlab mavjud bilimlar asosida qabul qilinadi. Agar u avvalgi tasavvurlarga zid kelsa, insonda savollar va ikkilanishlar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holat tabiiydir. Chunki dunyoqarash tayyor ma’lumotlar yig‘indisi emas. U insonning hayotiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy xulosalari orqali rivojlanadi.

Lev Vigotskiy “Мышление и речь” (“Tafakkur va nutq”) asarida tafakkur va nutqning o‘zaro bog‘liqligini insonning rivojlanish jarayoni bilan izohlaydi [1]. Uning qarashlariga ko‘ra, tushunchalarning shakllanishida ijtimoiy muloqot muhim o‘rin tutadi. Bu fikr davomli ma’rifiy mashg‘ulotlarning mazmunini tushunishda ham ahamiyatlidir. Suhbat davomida inson faqat ma’lumot eshitmaydi. U o‘z fikrini bayon qiladi, savollar beradi va boshqalarning mulohazalariga munosabat bildiradi. Shu jarayonda ayrim tushunchalar aniqlashadi, avvalgi qarashlar esa qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ma’rifiy mashg‘ulotlarning davomiyligi ularning soni bilangina belgilanmaydi. Har bir uchrashuv avvalgisida yuzaga kelgan savollar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Masalan, dastlabki suhbatda inson muayyan fikrga e’tiroz bildirishi mumkin. Keyingi uchrashuvda aynan shu masala yuzasidan qo‘shimcha ma’lumot berish va turli qarashlarni muhokama qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunday yondashuv tinglovchining suhbatdagi ishtirokini oshiradi. Eng muhimi, uning fikrini o‘zgartirishga shoshilmasdan, mustaqil xulosa chiqarishiga sharoit yaratiladi.

Amerikalik olim Jek Mezirov “Transformative Dimensions of Adult Learning” (“Kattalar ta’limining o‘zgartiruvchi jihatlari”) asarida inson avvaldan shakllangan tasavvurlarini tanqidiy ko‘rib chiqish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishini tushuntiradi [2]. Bu yondashuvda ta’lim tayyor xulosalarni qabul qildirishdan iborat emas. Inson o‘z tajribasiga boshqacha nazar bilan qarashni o‘rganadi. Davomli ma’rifiy mashg‘ulotlarda ham tinglovchiga turli manbalarni solishtirish, fikrini asoslash va xulosasini qayta ko‘rib chiqish imkoniyati berilishi lozim.

Shu jihatdan davomli mashg‘ulotlarning vazifasi ma’lumotni muntazam takrorlash emas, balki insonning bilim olish va fikrlash jarayonini izchil qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Radikallashuv murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, uni birgina sabab bilan tushuntirish qiyin. Ayrim vaziyatlarda insonning muayyan guruhga mansub bo‘lish istagi muhim o‘rin tutadi. Boshqa holatlarda ijtimoiy adolatsizlik haqidagi tasavvurlar, shaxsiy norozilik yoki atrofdagi insonlarning ta’siri kuchliroq bo‘lishi mumkin. Biroq bu omillarning mavjudligi inson albatta zo‘ravonlik yo‘lini tanlashini anglatmaydi.

Klark Makkoli va Sofiya Moskalenko “Friction: How Radicalization Happens to Them and Us” (“Ziddiyat: ularda va bizda radikallashuv qanday yuz beradi”) asarida radikallashuvning individual, guruhiy va ommaviy darajadagi mexanizmlarini o‘rganadi [3]. Mualliflar mazkur hodisani biror din yoki millatga xos xususiyat sifatida emas, turli ijtimoiy sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Ularning yondashuvi shaxsning qarashlarini baholashda uning ijtimoiy aloqalari va hayotiy sharoitini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Insonning muayyan guruhga yaqinlashishida o‘zini shu jamoaning bir qismi sifatida his etishi ham ahamiyatlidir. Anri Tajfel “Human Groups and Social Categories” (“Inson guruhlari va ijtimoiy toifalar”) asarida ijtimoiy mansublik

insonning o‘zini va boshqalarni qanday qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatishini yoritadi [4]. Guruhga mansublik inson uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ammo ayrim sharoitlarda o‘z guruhini boshqalardan mutlaq ustun qo‘yish, boshqa jamoalarga nisbatan salbiy munosabat va murosasizlikni kuchaytirishi mumkin.

Bunday holatlarda ma’rifiy ishlar insonning diniy yoki boshqa ijtimoiy mansubligini inkor etishga qaratilmasligi kerak. Aksincha, unda boshqa insonlarning ham o‘z qarashlari, qadriyatlari va huquqlari mavjudligini anglash muhimdir. Diniy e’tiqod, konservativ qarash yoki muayyan mafkuraga qiziqishning o‘zi zo‘ravonlikka moyillik belgisi emas. Muammo boshqalarga nisbatan zo‘ravonlikni oqlash, ularning huquqlarini inkor etish va murosasizlikni amaliy harakatga aylantirish bilan bog‘liq.

Erik Xoffer “The True Believer: Thoughts on the Nature of Mass Movements” (“Chin e’tiqod qiluvchi: ommaviy harakatlar tabiati haqida mulohazalar”) asarida ommaviy harakatlarga qo‘shilishning ijtimoiy va ruhiy sabablarini muhokama qiladi [5]. Uning mulohazalari turli mafkuraviy harakatlarda insonning shaxsiy qoniqmasligi va jamoaga mansublik ehtiyoji qanday ahamiyat kasb etishini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu qarashlarni har bir insonning xulqini oldindan belgilovchi qoida sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas.

Davomli ma’rifiy mashg‘ulotlarda shaxsning fikrlarini tinglash bilan birga, uning kundalik hayoti va ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganish ham zarur. Chunki ayrim hollarda insonni muayyan guruh bilan bog‘lab turgan omil faqat g‘oyaviy yaqinlik bo‘lmasligi mumkin. Do‘stlik, yordam, e’tibor va o‘zini kerakli his qilish ham ijtimoiy aloqalarning muhim qismini tashkil etadi.

Ma’rifiy suhbatning samaradorligi mutaxassisning bilimiga bog‘liq bo‘lsa-da, uning suhbatdoshga munosabati ham muhimdir. Inson o‘z fikri uchun kamsitilishini yoki oldindan ayblanishini sezsa, ochiq muloqot qilishga qiynaladi. Aksincha, o‘zini erkin his qilgan suhbatdosh mavjud savollarini yashirmasdan bildirish imkoniga ega bo‘ladi.

Karl Rojers “On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy” (“Shaxs bo‘lib shakllanish haqida: psixoterapevt nigohi”) asarida inson bilan ishlashda samimiylik, tushunishga intilish va shaxsni hurmat qilishning ahamiyatini yoritadi [6]. Uning qarashlarini ma’rifiy suhbatga to‘liq psixoterapevtik usul sifatida ko‘chirish shart emas. Biroq suhbatdoshning fikrini tinglash, uni kamsitmaslik va o‘z munosabatini ochiq bildirish kabi tamoyillar ma’rifiy ishlar uchun ham ahamiyatlidir.

Ishonchning shakllanishi mutaxassisning har bir fikrga qo‘shilishini anglatmaydi. Suhbat davomida noto‘g‘ri ma’lumotga e’tiroz bildirish yoki zo‘ravonlikni oqlovchi qarashni rad etish mumkin. Biroq bunda fikr bilan shaxsning qadr-qimmati bir-biridan ajratilishi lozim. Muayyan g‘oyani tanqid qilish insonni haqoratlash yoki uning barcha qarashlarini inkor etish uchun asos bo‘la olmaydi.

Rus faylasufi Mixail Baxtinning “К философии поступка” (“Xatti-harakat falsafasi haqida”) asarida insonning o‘z harakati uchun mas’uliyati muhim masala sifatida ko‘riladi [7]. Bu yondashuv ma’rifiy suhbatning axloqiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Inson suhbat davomida faqat tinglovchi emas, balki o‘z fikri va qarorlari uchun mas’ul shaxs sifatida ishtirok etishi kerak.

Shu sababli davomli mashg‘ulotlarda ishonchni shaxsni boshqarish yoki unga yashirin ta’sir o‘tkazish vositasi sifatida tushunish noto‘g‘ri. Ishonch insonning o‘z fikrini erkin ifodalashi va mavjud muammolarini ochiq muhokama qilishi uchun zarur sharoitdir. Suhbatning maqsadi tushunarli bo‘lishi, shaxsiy ma’lumotlar esa qonuniy va axloqiy talablar asosida himoya qilinishi lozim.

Bugungi axborot muhitida inson turli mazmundagi ma’lumotlarga duch keladi. Ularning ayrimlari bilim olishga xizmat qilsa, boshqalari hissiyotga ta’sir qilish yoki muayyan qarashni singdirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bir tomonlama axborot berish, qarama-qarshi fikrlarni yashirish va ma’lumotni tekshirish imkoniyatini cheklash insonning mustaqil mulohaza yuritishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Robert Chaldini “Influence: The Psychology of Persuasion” (“Ta’sir: ishontirish psixologiyasi”) asarida inson qarorlariga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillarni o‘rganadi [8]. Uning tadqiqotida nufuz, o‘zaro munosabat va ijtimoiy ma’qullash kabi omillarning ishontirish jarayonidagi o‘rni ko‘rsatiladi. Mazkur yondashuv axborot manbalariga munosabatni tushunishda foydalidir. Chunki inson ba’zan ma’lumotning mazmunidan ko‘ra, uni kim aytganiga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Ma’rifiy mashg‘ulotlarda axborotni tekshirish ko‘nikmasini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Tinglovchi muayyan xabar yoki fikrni qabul qilishdan oldin uning manbai, dalillari va boshqa ma’lumotlar bilan qanchalik mos kelishini o‘rganishi kerak. Bu yondashuv faqat diniy masalalar bilan cheklanmaydi. Siyosiy, tarixiy va ijtimoiy mavzularda ham bir tomonlama ma’lumot insonni noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Daniel Kaneman “Thinking, Fast and Slow” (“Tez va sekin fikrlash”) asarida inson tafakkuridagi tezkor va mulohazali fikrlash jarayonlarini tahlil qiladi [9]. Uning qarashlari ayrim xulosalar yetarli tekshiruvsiz, dastlabki taassurot yoki hissiyot asosida qabul qilinishi mumkinligini tushuntiradi. Shu jihatdan ma’rifiy mashg‘ulotlarda insonni shoshilinch xulosa chiqarishdan saqlanishga, dalillarni solishtirishga va o‘z fikriga tanqidiy munosabat bildirishga o‘rgatish muhimdir.

Diniy mavzularda ham manbaning tarixiy sharoiti, mazmuni va turli talqinlarini o‘rganish zarur. Bunda biror diniy qarashni mavjudligi uchungina xavfli deb ko‘rsatish to‘g‘ri emas. Asosiy e’tibor matnlardan zo‘ravonlikni oqlash, boshqalarning huquqlarini inkor etish yoki adovatni kuchaytirish maqsadida foydalanish holatlariga qaratilishi kerak.

Tarixiy bilim insonning jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni kengroq tushunishiga yordam beradi. Ayniqsa, dinlar tarixi, turli madaniyatlarning shakllanishi va jamiyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bir tomonlama tasavvurlarni kamaytirishi mumkin. Biroq tarixiy mavzularni yoritishda voqealarni faqat yaxshi va yomon tomonlar o‘rtasidagi kurash sifatida ko‘rsatishdan saqlanish zarur.

Xanna Arendt “The Origins of Totalitarianism” (“Totalitarizmning kelib chiqishi”) asarida totalitar harakatlarning shakllanishi, mafkura va siyosiy hukmronlik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi [10]. Uning tadqiqoti inson erkinligini cheklovchi va jamiyatni yagona mafkuraga bo‘ysundirishga intiluvchi harakatlarni tushunishda muhimdir. Bunday hodisalar faqat diniy muhitga xos emas. Tarixda siyosiy va boshqa mafkuraviy harakatlar ham murosasizlik hamda zo‘ravonlikka asoslangan boshqaruv shakllarini yuzaga keltirgan.

Davomli ma’rifiy mashg‘ulotlarda dinlar va mafkuralar tarixini qiyosiy o‘rganish tinglovchining bilimini kengaytiradi. Bunda turli qarashlarning paydo bo‘lish sabablari, tarixiy sharoiti va jamiyat hayotiga ta’siri tushuntirilishi kerak. Muayyan diniy yoki ijtimoiy guruhni umumiy ayblov bilan ta’riflash esa aksincha, noto‘g‘ri tasavvurlarni kuchaytirishi mumkin.

O‘zbek ma’rifatparvari Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asarida jaholat, tarbiyaga e’tiborsizlik va ilmning inson hayotidagi ahamiyati badiiy voqealar orqali ochib beriladi [11]. Asar zamonaviy radikallashuv nazariyasiga bag‘ishlanmagan. Shunga qaramay, unda ko‘tarilgan ta’lim va tarbiya masalalari ma’rifiy ishlarning ijtimoiy ahamiyatini tushunishda muhim o‘rin tutadi.

Abdurauf Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida oilaviy tarbiya, mas’uliyat va farzand kamoloti masalalariga e’tibor qaratadi [12]. Uning qarashlari inson tarbiyasini faqat ta’lim muassasasi yoki alohida suhbat bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Oila muhitidagi munosabatlar, ota-onaning mas’uliyati va farzandga beriladigan tarbiya jamiyatning ma’naviy hayoti bilan bog‘liqdir.

Shu nuqtayi nazardan, ma’rifiy mashg‘ulotlarda tarixiy va diniy bilim bilan birga, insoniy munosabatlar, oilaviy mas’uliyat, bag‘rikenglik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mavzulariga ham o‘rin berish lozim.

Ma’rifiy mashg‘ulotlarning samarasi mavzularning ko‘pligi bilan emas, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tinglovchining ehtiyojlariga mosligi bilan belgilanadi. Dastlabki uchrashuvlarda umumiy tushunchalar berilishi, keyingi mashg‘ulotlarda esa murakkabroq masalalarga o‘tilishi mumkin. Bunday ketma-ketlik insonning yangi ma’lumotni avvalgi bilimlari bilan bog‘lab o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Davomli mashg‘ulotlar uchun ishlab chiqilgan uslubiy materialda dinlar tarixi, islomning shakllanishi, diniy yo‘nalish va mazhablar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi oqimlar, tarixiy jarayonlar, axborot ta’siri, O‘zbekistondagi diniy hayot, vatanparvarlik hamda zo‘ravonlikni rad etish kabi mavzular tavsiya etilgan [13]. Ushbu mavzularni o‘rganishda diniy bilim berish bilan birga, tarixiy voqealarga xolis munosabat va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish muhimdir.

Mashg‘ulotlarda biror tarixiy hodisani faqat tashqi kuchlar yoki alohida guruhlarning faoliyati bilan izohlash yetarli emas. Tarixiy jarayonlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sabablari mavjud. Shu bois mavzular ishonchli manbalar asosida, turli ilmiy qarashlarni hisobga olgan holda yoritilishi kerak.

Ta’lim jarayonida tinglovchining faolligi ham muhim ahamiyatga ega. Faqat ma’ruza tinglash orqali olingan bilim bilan savol-javob, muhokama va mustaqil izlanish orqali o‘zlashtirilgan bilim bir xil emas. Mashg‘ulot davomida tinglovchi o‘z fikrini bildirishi, tushunmagan masalasini so‘rashi va yangi ma’lumotga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Rus pedagogi Konstantin Ushinskiyning “Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии” (“Inson tarbiya predmeti sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi”) asarida tarbiya jarayonida insonning ruhiy va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi yoritiladi [14]. Ushbu qarash davomli ma’rifiy mashg‘ulotlarni tashkil etishda ham ahamiyatlidir. Chunki barcha tinglovchilarning bilim darajasi, qiziqishi va ma’lumotni qabul qilish imkoniyati bir xil bo‘lmaydi.

Shu sababli mashg‘ulotlar uchun yagona mavzular ketma-ketligi belgilangan taqdirda ham, ularni tushuntirish usullari shaxsning tayyorgarligi va ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak.

Radikal g‘oyalar ta’sirini kamaytirish faqat insonning fikrini o‘zgartirish bilan yakunlanmaydi. Uning oilasi, yaqinlari va jamiyat bilan munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda inson muayyan guruhdan uzoqlashganidan keyin o‘zini yolg‘iz his qilishi mumkin. Avvalgi ijtimoiy aloqalarning uzilishi yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

Robert Patnem “Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community” (“Yolg‘iz bouling: Amerika hamjamiyatining zaiflashuvi va tiklanishi”) asarida ijtimoiy aloqalar, jamoaviy ishtirok va o‘zaro ishonchning jamiyat

hayotidagi ahamiyatini yoritadi [15]. Uning qarashlari insonning ijtimoiy muhitdan ajralib qolishi faqat shaxsiy emas, balki kengroq ijtimoiy muammo ekanini tushunishga yordam beradi.

Jamiyatga qayta moslashish jarayonida oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarining o'rni muhimdir. Insonning kasb-hunar egallashi, ish bilan ta'minlanishi va mavjud ijtimoiy muammolarini hal etishi uning kundalik hayotida barqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Bunda moddiy yoki ijtimoiy yordam muayyan qarashdan voz kechish uchun mukofot sifatida emas, shaxsning real ehtiyojlariga qarab ko'rsatilishi lozim.

Amartya Sen "Identity and Violence: The Illusion of Destiny" ("O'zlik va zo'ravonlik: taqdir haqidagi xomxayol") asarida insonni faqat bitta ijtimoiy mansublik orqali ta'riflashning cheklanganligini ko'rsatadi [16]. Darhaqiqat, har bir inson bir vaqtning o'zida oila a'zosi, muayyan kasb egasi, jamiyat vakili va turli ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisidir. Uni faqat diniy yoki mafkuraviy qarashlari orqali baholash shaxsning boshqa imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldiradi.

Davomli ma'rifiy mashg'ulotlarda insonning kelajakdagi rejalari, ta'lim olishi, mehnat faoliyati va oilaviy munosabatlariga ham e'tibor berish zarur. Bunday yondashuv ma'rifiy ishlarning faqat tushuntirish bilan cheklanmasdan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'lanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Davomli ma'rifiy mashg'ulotlar radikal g'oyalar ta'sirini kamaytirishning faqat tushuntirishga asoslangan shakli emas. U insonning savollarini eshitish, yangi bilimni muhokama qilish va kundalik hayotdagi munosabatlarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi. Tahlil qilingan uslubiy matnda uzluksiz suhbat, mavzular ketma-ketligi va ijtimoiy ko'mak bir tizim sifatida ko'rsatilgani e'tiborga loyiq. Biroq uchrashuvlar soni yoki davomiyligi barcha insonlar uchun bir xil natija beradi deb hisoblash mumkin emas.

Ma'rifiy ishning samarasi insonning tayyor fikrni takrorlashida emas, o'z qarashini dalil bilan tekshira olishida namoyon bo'ladi. Shu bois "ong ostini qayta dasturlash" kabi ifodalar o'rniga mustaqil fikrlash, axborot savodxonligi, ishonch va ixtiyoriy muloqot tushunchalaridan foydalanish ilmiy jihatdan aniqroqdir. Baholashda e'tiroz yoki sukutni xavf belgisi deb olishdan saqlanish, diniy e'tiqod bilan zo'ravonlikni qo'llashni farqlash lozim.

Shaxsning jamiyatga qayta qo'shilishi ma'rifiy suhbat tugaganidan keyin ham davom etadi. Oilaviy aloqalar, ta'lim, ish, psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bu jarayonning muhim qismlaridir. Shunday yondashuvda inson nazorat qilinadigan obyekt emas, o'z hayoti uchun qaror qabul qiladigan va jamiyatda munosib o'rin egallash huquqiga ega shaxs sifatida ko'riladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Выготский Л. С. Мышление и речь (Tafakkur va nutq). Москва–Ленинград: Соцэкгиз, 1934. С.19
2. Mezirow, J. Transformative Dimensions of Adult Learning (Kattalar ta'limining o'zgartiruvchi jihatlari). San Francisco: Jossey-Bass, 1991. P. 7-14
3. McCauley, C., Moskalenko, S. Friction: How Radicalization Happens to Them and Us (Ziddiyat: ularda va bizda radikallashuv qanday yuz beradi). Oxford University Press, 2011. P. 12-28
Topishmoqlar bolalar uchun mantiqiy fikrlash va xotira mashqi vazifasini bajaradi. Ular so‘z o‘yini, chalg‘itish va ma’nolarni noaniq qilib berish orqali fikrlash jarayonini faollashtiradi. Jon H. Makdauellning ta’kidlashicha, «**topishmoqchi to‘g‘ri yechimni inkor eta olmasa-da, u javob topilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin**». Ushbu holat topishmoqlarni nafaqat intellektual o‘yin, balki mantiqiy sinov shaklida ham ko‘rishga imkon beradi. O‘zbek bolalar topishmoqlari ko‘pincha tabiat va kundalik hayot hodisalariga asoslangan bo‘lsa, ingliz topishmoqlarida **hazil elementlari** ham ko‘p uchraydi. Saymon J. Bronner «**Amerika bolalar folklori**» asarida an’anaviy topishmoqlarni **masxaralovchi topishmoqlardan** farqlaydi. Masalan, ba’zi ingliz topishmoqlari hazil qilish yoki chalg‘itish uchun maxsus tuzilgan bo‘ladi.

Ertaklar bolalarni tarbiyalash, ularning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va ijtimoiy normalarni o‘rgatish vazifasini bajaradi. O‘zbek va ingliz ertaklarida quyidagi asosiy funksiyalar kuzatiladi: **Qo‘rqinchli va sarguzashtli ertaklar** – bolalarni hayotdagi xavf-xatarlarga tayyorlash, ularni ruhiy jihatdan chiniqtirish uchun mo‘ljallangan. Masalan, «**Boo!**» kabi ingliz qo‘rqinchli ertaklarida bolalar yolg‘izlik va kutilmagan hodisalarga duch keladilar. **Kulgili ertaklar** – bolalarning hissiy rivojlanishiga yordam berib, ularga dunyoni optimistik nigoh bilan ko‘rishga o‘rgatadi. Masalan, **Robin Gud haqidagi balladalar** yoshlar ongini shakllantirishga yordam bergan. **Axloqiy ertaklar** – bolalarga yaxshilik va yomonlik farqini tushuntirish uchun mo‘ljallangan. Masalan, **Arn-Tompson** ertaklari katalogiga kirgan «**Qo‘rquv nima ekanligini bilmoqchi bo‘lgan yosh**» ertagi yosh qahramonning xavf-xatar bilan to‘qnashuvi orqali u mustahkam xarakterga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

O‘zbek va ingliz bolalar folklorida o‘xshashliklar: Har ikkala madaniyatda ham topishmoqlar bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Ertaklar yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalash va ularning dunyoqarashini boyitish uchun mo‘ljallangan. Qo‘rqinchli va kulgili ertaklar mavjud bo‘lib, ular bolalarning turli hissiy tajribalarni o‘rganishiga yordam beradi; farqlar: O‘zbek topishmoqlari ko‘proq tabiat, qishloq xo‘jaligi va an’anaviy hayot bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz topishmoqlarida hazil va paradoksal javoblar ko‘proq uchraydi. O‘zbek ertaklari odatda muhim axloqiy xulosa bilan yakunlanadi, ingliz ertaklari esa ba’zan ochiq yakun bilan tugaydi. Qo‘rqinchli ertaklarda ingliz madaniyatida arvohlar va sirli hodisalar tasvirlansa, o‘zbek madaniyatida ajdarlar va yovuz jinlar asosiy qahramon sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa.

O‘zbek va ingliz bolalar folklorida topishmoq va ertaklar bolalar uchun nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki axloqiy tarbiya va intellektual rivojlanish manbai sifatida ham xizmat qiladi. Topishmoqlar mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga, ertaklar esa axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Har ikkala madaniyatda ham ushbu janrlar muhim o‘rin tutadi va madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoymardonov I.A. Surxon vohasi bolalar folklori (o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va badiiyati): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – B. 102.

2. Yunusov G‘.O. Alla to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z // Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Toshkent, 1926. – № 6. – B. 25-26; Shoymardonov I.A. Surxon vohasi bolalar folklori (o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va badiiyati): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B.13-14.

3. Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари. – Т.: Ғ.Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.19.

4. Ўраева Д. Мотам аллаларининг жанрий белгилари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2005. – №1. – Б.51-59.

5. Сафаров О. Айтим-олқишлар // Болаларни эркаловчи ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Фан, 1983. – Б.33-49; Сафаров О. Айтим-олқишлар // Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – Б.44-55.

6. Ochilov, Ulugbek Sayfulloevich. "Naturalistic Images In The Novel “Sister Carrie” By The American Writer Theodore Dreiser." Scientific reports of Bukhara State University 4.3 (2020): 179-183.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Кадимова Диана Рашидовна, преподаватель
Тохироа Мафтуна Бахтиёровна, студентка
Самаркандский государственный университет
kadimova.d@gmail.com

ЭВОЛЮЦИЯ ОБРАЗА МЕДЕИ В РУССКОЙ И ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: *В данной статье прослеживается развитие и переосмысление одного из ярчайших мифологических образов, наиболее часто интерпретируемых в русской и зарубежной литературе - образа Медеи, который посредством авторского творческого "произвола" пропускается сквозь призму современных конфликтов, демонстрируя свою вневременность и актуальность.*

Ключевые слова: *миф, мифология, культурная идентичность, гиноцентризм, женская проза, греческая литература, мифологический сюжет, авторский миф, Медея, историзм, современный литературный процесс.*

Kadimova Diana Rashidovna o'qituvchi
Toxirova Maftuna Baxtierovna, talaba
Samarqand davlat universiteti

RUS VA XORIJIY ADABIYOTLARDA MEDEYA OBRAZINING EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rus va xorijiy adabiyotlarda eng ko'p talqin qilinadigan eng yorqin mifologik obrazlardan biri - muallifning ijodiy "o'zboshimchalik" orqali zamonaviy mojarolar prizmasidan o'tib, o'zining abadiyligi va dolzarbligini namoyish etadigan Medeya obrazining rivojlanishi va qayta ko'rib chiqilishi kuzatiladi.*

Kalit so'zlar: *afsona, mifologiya, madaniy o'ziga xoslik, ginotsentrizm, ayol nasri, yunon adabiyoti, mifologik syujet, muallif afsonasi, Medeya, tarixiylik, zamonaviy adabiy jarayon.*

Kadimova Diana Rashidovna, teacher
Tohirova Maftuna Bakhtiyorovna, student
Samarkand State University

THE EVOLUTION OF THE IMAGE OF MEDEA IN RUSSIAN AND FOREIGN LITERATURE

Abstract: *This article traces the development and reinterpretation of one of the most vivid mythological images, most often interpreted in Russian and foreign literature - the image of Medea, which, through the author's creative "arbitrariness", is passed through the prism of modern conflicts, demonstrating its timelessness and relevance.*

Keywords: *myth, mythology, cultural identity, gynocentrism, women's prose, Greek literature, mythological plot, author's myth, Medea, historicism, modern literary process.*

Введение.

Интерпретация образа античной Медеи – характерный пример авторского мифологизирования или, иными словами, мифотворчества. Это одно из ведущих направлений современного литературного процесса. Авторы изменяют сюжетные линии, любовные перипетии и судьбы героев, под иным углом показывают поступки и характеры, иначе трактуют содержание крупных мифологических циклов, используют сюжеты и образы античной мифологии в качестве элементов, скрепляющих повествование, и в качестве определенной базы для создания философской концепции бытия.

Таким образом, создается авторский миф – наследие, порожденное индивидуальным разумом и сознанием.

Обзор литературы.

Согласно мифологии, образ Меди очень противоречивый, неоднозначный, многофункциональный. Благодаря такой его полярной природе есть возможность обращаться к образу Медеи в разные времена и с разными целями. Рассмотрение инвариантов сюжета невозможно вне

античного мифа о Медее из Колхиды. В одноименной трагедии Еврипида героиня предстает носительницей яростных и страстных черт настоящей вакханки, эгоистичной, ревнивой женщиной, готовой ради мести на убийство собственных детей. «Медея» Сенеки в основном повторяет сюжетную линию Еврипидовой драмы. Сюжет о Медее, Ясоне и аргонавтах, лежащий в основе многих произведений, встречается неоднократно в мировой литературе. Такие авторы как Еврипид,Чосер, Корнель, Уильям Морис, Жан Ануй, Хайнер Мюллер, Том Ланой и другие подвергали переосмыслению и интерпретации образ Медеи в своих литературных изысканиях. Каждый из писателей вводит новые оттенки в перипетии судеб отдельно взятых мифических героев, изменяет их поведение, черты характера и зачастую адаптирует персонажей к современности в рамках системы произведения новейшего времени. Так, интерпретация сюжета о Медее насчитывает более трехсот вариантов. К примеру, Пьер Корнель, французский поэт и драматург, решает внести в предложенные Еврипидом и Сенекой версии мифа о Медее значительные изменения. Оставаясь героиней трагедии, Медея оказалась в значительной мере, оттесненной на общий план благодаря выдвижению вперед иных персонажей. Корнель, однако, наделил главную героиню новыми чертами. Он очеловечил Медею и в то же время сохранил ее сильный, героический характер. У Корнеля Медея полагается во всем только на себя, не склоняет голову перед судьбой, ведет борьбу одна против всех. Недостатком трагедии является то, что действия ее героев не поднимаются над сферой борьбы частных интересов.

Пьеса Ф. М. Клингера «Медея на Кавказе» (1791) главная героиня сочетает в себе два противоположных начала: темное, демоническое и светлое. Медея, хоть и тщетно, пытается нравственно и диалогически воздействовать на людей-варваров, в чьем обществе ей суждено было оказаться. Она всеми силами старается создать свободное счастливое (демократичное) общество, где все были бы равны. Однако, взывание к голосу разума членов племени не дало результатов, и героиня осталась неуслышанной, что роднит ее с образом Медеи, созданной немецкой писательницей К. Вольф. В статьях Т.Н. Васильчиковой [1], посвященных драматургии Ханса Хенни Янна, немецкого прозаика, в частности и его пьесе «Медея» (1926) – вершине драматургии писателя – на первый план выходит расовый конфликт, поскольку она писалась в период становления нацистских идей. Поэтому не случайно, созданная Янном Медея представлена как чернокожая. По заявлению автора пьесы, для сегодняшних европейцев негры и китайцы являются теми же дикарями, что и когда-то варвары для греков. Так называемый расовый вопрос взаимосвязан с любовной проблемой, которая отмечена писателем не иначе как «черный эрос». Отношения Ясона и Медеи пропитаны трагедией – в трактовке Янна Медея добровольно отдает свой дар бессмертия и вечной юности (она внучка бога Гелиоса) в обмен на земную любовь, сама при этом безвозвратно старея и увядая. Так, главные герои разлучены и отдалены друг от друга не только изменой Ясона, но и временем.

По соображениям Васильчиковой, «страсть к Ясону – абсолютное чувство, ради которого она не только предала, убила брата, но пожертвовала даром бессмертия. Если в классической традиции любовь проверялась смертью, герои Шекспира Ромео и Джульетта выдерживают эту проверку – ни один не захотел жить без другого, то в «Медее» любовь Янна проверяется бессмертием, эту проверку выдерживает только героиня, за любовь отдающая Ясону свое бессмертие. Медея хочет реализации абсолюта любви, как не подверженного власти времени, противопоставляя ее страсти временному и преходящему. Что касается непосредственно сюжета, то автор не следует традиционной, античной канве, вводя собственные мотивы и сцены. Таким образом, Янн привносит особую деталь, которой нет ни в одной другой трактовке данного сюжета. Согласно мифу, Медея всегда улетает на колеснице, запряженной драконами, присланной за ней ее дедом, богом солнца Гелиосом. Но у Янна этот эпизод обыгран иначе.

Появляется колесница, запряженная белыми кобылицами, на нее мать-убийца бросает тела собственных детей и исчезает вместе с ними. Мать, любившая детей безумной любовью, больше жизни, убивает их собственной рукой, пока это не успели сделать другие. Этот момент в частности и произведение Ханса Хенни Янна «Медея» в целом, пронизаны скорбью и трагичностью в высшей степени ее проявления. Французскому драматургу, сценаристу, деятелю литературы XX века Ж ану Аную удается создать один из самых черных вариантов Медеи («Медея», 1946). «Среди десятков известных интерпретаций древнего сюжета героиня Ануя - единственная убийца в полном смысле этого слова, одержимая идеей мести, вызванной прежде всего удивительным эгоцентризмом её натуры: на «из расы тех, кто судит и решает, не возвращаясь более к принятым решениям» [2].

Следующим примером авторского мифологизирования являются романы Л.У лицкой «Медея и ее дети» (1996) и «Медея. Голоса» К. Вольф (1996), которые не только раскрывают тему женского бытия, но и на материале античности, как на явлении вневременной духовной и культурной реальности, поднимают актуальные для своих современников политические, социальные и социокультурные

вопросы. Роман Кристы Вольф «Медея. Голоса» обладает общеполитическим звучанием. Это усиливает актуальность и востребованность произведения в атмосфере объединенной Германии в свете господствовавших в то время проблем. Роман имеет явную политическую подоплеку.

Главная героиня Людмилы Улицкой Медея предстает перед читателем не как борющаяся за равноправие женщина, а как сплачивающая вокруг себя свою многочисленную семью «мать», вопреки всем житейским трудностям и жизненным перипетиям. Кавычки не случайны, так как радость материнства Медее познать не дано, что отличает ее от древнегреческого прототипа варианта героини К. Вольф. Однако это не единственное их различие. Так, ни одним из упомянутых авторов не используется классический сюжет о детоубийстве, лежащий в основе известной всем мифологемы.

Медея Улицкой, наоборот, собирает вокруг себя детей и внуков своих братьев и сестер, занимается их воспитанием и окружает всех нерастраченной материнской любовью, так как главными ее жизненными приоритетами, а также смыслом существования являются дом и семья. Медея, созданная Л.Улицкой, является настоящим антиподом своей прародительницы, своеобразной анти-Медеей – персонажем, сочетающим в себе черты христианина: любовь к ближнему, терпимость к судьбе, лишившей ее потомства, снисхождение к предавшей ее сестре, способность прощать и любить унизившего ее супруга. Так, разрушительная идея варварства, которую несет в мир Медея из Колхиды, посредством авторского мифологизирования трансформируется в главный принцип христианства – непротивление злу насилием. Речь здесь идет не о физически нанесенной обиде, а о моральной, в частности об измене мужа Медеи, который вступил в близкие отношения с ее сестрой Сандрочкой. Людмила Петрушевская, российский прозаик, поэтесса и драматург, создает в 2001 году в контексте блока рассказов (реквиемов) свою «Медею».

В рамках диалога, буквально на двух-трех страницах Петрушевской удалось отразить трагедию матери и ребенка, которая вполне сопоставима с масштабом и мощью античной трагедии. Аллюзии на мифологические, фольклорные и традиционно-литературные сюжеты и образы возникают в прозе Петрушевской на самых разных уровнях, в данном случае это проявилось в названии рассказа. Действие происходит в салоне автомобиля. Женщина, поймавшая такси, жалуется водителю на безалаберность и безответственность таксиста-шофера, чья заказанная заранее машине не явилась, и никто даже не предупредил. Таксист, как и положено, защищает коллегу, говоря, что мол, всякое бывает. Обмен репликами осуществляется на двух уровнях: каждому из героев хочется выговориться, но при этом участникам диалога не так важно быть услышанным и понятым. Поэтому «действующие лица» отвечают невпопад, «стройность» беседы утрачивается. За счет этого автором изображаются две реальности: более мелочный мир женщины, мысли которой настолько заняты исключительно неудобоваримым, на ее взгляд, поведением неявившегося таксиста, что она не может прочувствовать всю безвыходность и безысходность положения таксиста-попутчика, рассказавшего ей по пути к ее дому случившуюся с ним недавно историю. Женщина пребывает в шоке от услышанного, но лишь спустя время ей удается осознать, насколько страшной была эта жизненная история, сквозь призму которой проблемы пассажирки кажутся шоферу «ровно ничего по сравнению с тем, что бывает». И действительно, по сравнению с проблемой таксиста, такое сопоставление делает историю женщины еще более несуразной, а ее переживания безосновательными. Собственно, его история заключалась в следующем: «месяц назад умерла моя четырнадцатилетняя дочь»; «я виноват, много себе позволял»; «жена в психушке, дочку зверски убили»; «это моя жена убила дочь. Она сидит в тюрьме, в Бутырках. Там есть отделение для сумасшедших»; «она пришла сама в милицию и принесла окровавленный нож и топор…»; «мы с дочкой… Не думали ни о чем… Я много себе позволял, вот что. Я виноват. Сидит одна в безумии в тюрьме, ожидая казни» [3].

Методология исследования.

Литературный прием градации только усиливает тяжесть впечатления, производимого рассказом. Ключ к интерпретации сюжета заключается уже в самом названии произведения, в заглавие которого вынесено имя. Так, имя «Медея», вынесенное в заглавие, но ни разу не встречающееся в рассказе, побуждает искать объяснение в тексте, а затем и в общем культурно-мифологическом контексте. Оно представляет собой своеобразную метафору, в которую заключена вся сюжетная линия, «зашифрован» конфликт, распределены роли.

Анализ и результаты.

Еще одним примером так называемого авторского «произвола» является пьеса Тома Ланоя «Мама Медея» (Mamma Medea, 2011), представляющая собой «ремикс двух произведений - трагедии Еврипида и эпоса Аполлония Родосского, в которой смысловой трансформации подверглись все классические образы древности» [4]. Что касается образа Медеи, то он заметно «измельчал» по сравнению с другими вариантами мифологического сюжета, когда-либо ставившегося на театральной сцене. Даже место жительства героини подчеркнуто прозаично – это обыкновенный современный

панельный дом, а по соседству в коммунальной квартире обитают опустившиеся безвестные аргонавты. Атмосфера произведения отчетливо коррелирует с пьесой М. Горького «На дне». В центре созданного современного мифа о Медее находится женский персонаж, а не мужской, а проблема героя сменяется проблемой героини. Данное утверждение справедливо и по отношению к каждому из рассмотренных здесь произведений, в которых авторы «своих» Медей также сделали женщину главной героиней.

Тексты объединяет и тот факт, что К. Вольф, Л. Улицкая, Ж. Ануй, Т. Ланой, Л. Петрушевская и другие вынесли в заглавие романов имена доминирующих женских персонажей, тем самым уже с первых страниц затронув проблему гендера, где женщина является точкой пересечения романных координат, а художественная действительность созидается через обращение к образу женщины, через показ ее судьбы. Акцент на интерпретации и осмыслении образа именно Медеи, излюбленном и востребованном персонаже многих авторов, сделан не случайно. Принимая во внимание, что Медея — это символ и в тоже время «представительница» всех женщин в целом, можно провести параллель между каждым из образов Медеи, которая благодаря перу авторов вела своеобразную «борьбу за выживание» и самоидентификацию в чуждом ей обществе.

Героини преследовали одну общую цель: они стремились самоутвердиться, заявить о себе, заставить уважать женское начало. И Медея олицетворяют собой «других» женщин, так называемых женщин нового поколения, способных противостоять мужской гегемонии во всех сферах общества. Медею из древнегреческой трагедии и Медею из авторских мифов роднит и тот факт, что они покинули родной дом и отправились на поиск нового пристанища для себя, которое бы больше подходило их внутреннему миру, стремлениям и пониманию жизни. Медеи изображены в ситуации идейного кризиса, ищущие, но не находящие себя и своего места в чуждом им мире. «Виной» тому их мировоззрение – оно не укладывается в привычную предписанную обществом схему. Героини восстают против системы, которая стремится всех унифицировать и обезличить, но оказываются её жертвами и в итоге система их ломает. Каждая из них при этом ощущает свою несвоевременность, неуместность и «неподходящность» к месту и времени. Неслучаен поэтому последний возглас Медеи: «Можно ли помыслить такой мир, такое время, где я пришлась бы к месту?» Ответа не последовало. Просто потому что им некого было спросить. Таким образом, к какому произведению и сюжету мы бы не обратились, в пресловутой войне полов женщины всегда терпят поражение. Исключение составляет пьеса М. Курочкина «Истребитель класса «Медея», в которой мужчины потерпели унизительное поражение и были полностью изничтожены. Но стоила ли игра свеч? Очевидно, что нет. \

В атмосфере современной эпохи, в социокультурном контексте XX-XXI веков витают новые проблемы и конфликты бытия [5] , где отношение к мифу и античной культуре в целом амбивалентно. С одной стороны, миф обесценен и обезличен наукой. Но с другой стороны, в современной, в частности женской литературе, мы неоднократно встречаем такую сюжетную особенность, как использование мифа в сюжете, лежащего в основе. Яркое тому подтверждение – инварианты образа Медеи, которая посредством авторского творческого произвола переосмысляется, дополняется новыми реалиями современной жизни, иными трактовками хорошо знакомых и привычных мифологических образов. Так, благодаря авторскому мифотворчеству, мы имеем дело с особой мировоззренческой парадигмой, которая сочетает в себе известные мифологические мотивы и образы, сквозь призму современных конфликтов вновь и вновь демонстрируя их вневременность и актуальность.

Заключение

Основным выводом проведенного исследования является вывод о том, что реалии нового времени, такие как явление женской эмансипации, защита прав и свобод человека, социальные конфликты, информационные войны переосмысляются и воплощаются в тексте посредством авторского мифологизирования сквозь призму женского и мужского сознания. Беря за основу мифологический сюжет каждый из авторов в большей или меньшей степени демифологизирует его, наделяет индивидуальными отличительными чертами, иначе расставляет акценты.

Использованные литературы

1. Васильчикова, Т. Н. Драматургия Ханса Хенни Янна и типология немецкой экспрессионистической драмы : дис. … д-ра филол. наук. Ульяновск, 2006. – 431 с.

2. Шарыпина, Т.А. Медея XX века: русские версии в европейском контексте / Т. А.Шарыпина //"Россия и Греция: диалоги культур»: Материалы 1 международной конференции. Ч.2. / Петрозаводский государственный университет. – Петрозаводск, 2007. – С. 215-220.

3. Петрушевская, Л. С. Реквиемы / Л. С. Петрушевская. – М. : Вагриус, 2001.

4. Шарыпина Т.А. Том Ланой "Мама Медея": бельгийский вариант в немецком контексте // Вестник ННГУ: Серия Филология.-Выпуск 1(7). – Н. Новгород: Изд-во ННГУ, 2006.

5. Петухов А.Ю., Концепция социального конфликта: социально-энергетический подход // Вектор науки ТГУ, № 3-2 (33-2), 2015. – С. 240-245

6. Петухов А.Ю., Влияние психологических операций на политический процесс в России в условиях информационных войн // Национальная безопасность / nota bene.-2015. №5. С. 648-655. DOI: 10.7256/2073-8560.2015.5.16221.

7. Петухов А.Ю., Чупракова Н.С., Формирование манипуляционных уязвимостей в сознании подростков с помощью современных виртуально-коммуникативных средств // Научные ведомости БелГУ. Серия: Гуманитарные науки. №.26 (197) 2014, вып.24,-С. 169-176.

8.Тронский И. М. “История античной литературы», 3-е изд., М., 2007

9.Женщина в мифах и легендах: Энциклопедический справочник. Ташкент, 2002.

10. Новоселова Т. А. Миф как алгоритм повествования в романе Л. Улицкой «Медея и ее дети» // Материалы IV Международной научнопрактической конференции «Русскоязычие и би(полилингвизм в межкультурной коммуникации XXI века: когнитивно-концептуальные аспекты». – 21-22 апреля 2011 г. – Пятигорск: ПГЛУ, 2011. – 0,6 п. л.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Safarova Zilola Tolibovna
Buxoro Davlat Universiteti dotsenti
Niyazova Dilnoza Jo'rayevna
Buxoro davlat Universiteti magistranti
d.j.niyazova@buxdu.uz

DAN BROWN ASARLARIDA KOD VA JUMBOQLAR TASVIRI

Annotatsiya: *Den Braun detektiv romanlarida janrning klassik elementlarini o'ziga xos xususiyatlar bilan boyitib, ularni keng ommaga mashhur va qiziqarli qiladi. Uning asarlarida kodlar, shifrlangan xabarlar va sirli jumboqlar asosiy o'rin tutadi. Qahramonlar tarixiy, ilmiy va san'atga oid sirlarni aniqlash uchun intellektual izlanishlar olib boradilar. Da Vinchi siri, Farishtalar va Shaytonlar, Yo'qotilgan ramz va Inferno romanlarida muallif ramzlar, numerologiya va yashirin ma'nolar orqali o'quvchilarni aql-zakovatli qidiruv jarayoniga jalb etadi. Tarixiy va ilmiy faktlarga asoslangan ushbu asarlar detektiv janrga ma'rifiy va hayajonli tus bag'ishlaydi.*

Kalit so'zlar: *detektiv janr, kodlar, shifrlangan xabarlar, tarixiy sirlar, ramzlar, numerologiya, intellektual jumboqlar.*

Сафарова Зилола Толибовна
Доцент Бухарского государственного университета
Ниязова Дилноза Джураевна
Магистрант Бухарского государственного университета

ОПИСАНИЕ КОДА И ГОЛОВОЛОМОК В ТВОРЧЕСТВЕ ДЭНА БРАУНА

Аннотация: *Детективные романы Дэна Брауна сочетают классические элементы жанра с уникальными особенностями, делая их популярными и раскрывая новые грани детектива. В его произведениях центральное место занимают коды, зашифрованные сообщения и загадки, которые двигают сюжет вперёд. Герои ведут интеллектуальные исследования, раскрывая исторические, научные и художественные тайны. В романах Код да Винчи, Ангелы и демоны, Утраченный символ и Инферно автор использует символы, нумерологию и скрытые значения, вовлекая читателей в увлекательный процесс поиска. Благодаря историческим и научным отсылкам его книги делают детективный жанр более познавательным и захватывающим.*

Ключевые слова: *детективный жанр, коды, зашифрованные сообщения, исторические тайны, символы, нумерология, интеллектуальные загадки.*

Safarova Zilola Tolibovna
Associate professor of Bukhara State University
Niyazova Dilnoza Juraevna
Master student of Bukhara State University

THE DESCRIPTION OF CODE AND PUZZLES IN THE WORKS OF DAN BROWN

Annotation: *Dan Brown's detective novels combine classic elements of the genre with unique features, making them widely popular and revealing new aspects of the genre. His works prominently feature codes, encrypted messages, and mysterious puzzles that drive the storyline forward. Through intellectual investigations, his characters uncover historical, scientific, and artistic secrets. Brown's novels, such as The Da Vinci Code, Angels and Demons, The Lost Symbol, and Inferno, integrate symbols, numerology, and hidden meanings, engaging readers in deep intellectual exploration. His storytelling style, rich in historical and scientific references, transforms detective fiction into an educational and thrilling experience.*

Key Words: *detective genre, codes, encrypted messages, historical mysteries, symbols, numerology, intellectual puzzles.*

Kirish

Den Braun o'z asarlarida detektiv janrining klassik belgilariga xos xususiyatlardan mohirona foydalanib, janrning yangi qirralari bilan jahon adabiyotining boyishiga sabab bo'ldi. Uning bunday o'ziga xos yondashuvi asarlarni mashhurlik cho'qqisiga olib chiqdi.

Den Braun ijodi detektiv janrining asosiy elementlaridan biri bo‘lgan kodlar va shifrlangan xabarlar tez-tez qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. U bunday sirli kodlar va shifrlardan foydalanib, qahramonlarini aqliy o‘yinlarga chorlaydi, kitobxonni ham voqealarning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki, faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Jumladan, “Da Vinchi siri” va “Farishtalar va Shaytonlar” asarlarida kodlangan xabarlarni yechishga urinish orqali qahramonlar yanada murakkab jumboqlar bilan yuzlashadilar va turli sirli tashkilotlarning ish faoliyatini fosh qilishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu kodlar hikoyaning detektiv elementini mustahkamlab, o‘quvchini ham qahramonlar bilan birgalikda jumboqlarni yechishga jalb qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Adibning “Da Vinchi siri” asari kod va shifrlangan xabarlar orqali tarixiy va diniy sirlarni ochishga qaratilgan. Kitob qahramonlari, professor Robert Lengdon va Sofi Neve, Luvr muzeyidagi qotillikdan boshlangan izlanishda Leonardo da Vinchining “Mona Liza” asaridan va boshqa mashhur san’at asarlaridan yashirin xabarlarni topishga muvaffaq bo‘ladilar. Masalan, qotillik sodir bo‘lgan sahnada qurbonning o‘z tanasiga shifrlangan xabar qoldirgani sirli jumboqni yechishga boshlang‘ich nuqta bo‘ladi. Ushbu shifrlangan xabarlarda raqamli kodlar, anagrammalar va da Vinchining asarlaridagi ramziy ishoralar yashiringan bo‘lib, ularni yechish orqali Lengdon va Sofi qotillik ortidagi chuqurroq sirlarni ochishga yaqinlashadi. Bu kodlar asar davomida qahramonlarni yangi jumboqlar tomon boshlaydi va o‘quvchini hikoya bilan birga intelektual izlanishlarga chorlaydi:

“*Even so, many art historians suspected Da Vinci’s reverence for the Mona Lisa had nothing to do with its artistic mastery. In actuality, the painting was a surprisingly ordinary sfumato portrait. Da Vinci’s veneration for this work, many claimed, stemmed from something far deeper: a hidden message in the layers of paint. The Mona Lisa was, in fact, one of the world’s most documented inside jokes. The painting‘s well-documented collage of double entendres and playful allusions had been revealed in most art history tomes, and yet, incredibly, the public at large still considered her smile a great mystery”.[1]*

Ushbu parchada muallif buyuk rassom, uning ijodi, mashhur asariga oid nafaqat sirli va jumboqli ma’lumotlarni, balki tarixiy haqiqatlarni ham keltiradiki, bevosita kitobxon haqiqatda Leonardo da Vinchi portretlariga qiziqib qoladi. Ko‘plab san’atshunoslar Da Vinchining *Mona Liza*ga bo‘lgan munosabatiga shubha qilishgan. Aslida, bu rasm ajablanarli darajada oddiy *sfumato* uslubidagi portret. Den Braun qahramonlardagi ong oqimi yordamida ancha chuqurroq narsaga — bo‘yoq qatlamlaridagi yashirin xabarga ishora qiladi. *Mona Liza*, aslida, dunyodagi eng ko‘p o‘rganilgan, ammo kashf qilinmagan asarlaridan biri, uning ikki ma’noli va o‘yinli ishoralar bilan boyitilgan kollaji ko‘pgina san’at tarixi kitoblarida ochib berilgan, biroq shunga qaramay, keng jamoatchilik uning tabassumini hali ham katta sir deb hisoblashi hech kimga sir emas.

“Farishtalar va Shaytonlar” asarida Den Braun Illuminatlar tashkilotining ramziy belgilar va shifrlangan xabarlarini qo‘llagan. Kitobning bosh qahramoni Robert Lengdon, Rim papasining o‘limi va muqaddas Vatikan shahridagi fitnani ochishga urinadi. Kitobda Illuminatlarning ramziy belgilaridan foydalanilib, qahramonlar Vatikan va Rimda yashiringan kod va simvollarni yechishga majbur bo‘lishadi. Bu belgilar antik simvolika va tarixiy sirlarni o‘z ichiga oladi va qahramonlar ularni yechish orqali jinoiy fitnani fosh qilishga yaqinlashadi. Ayniqsa, “*ambigram*” deb nomlangan raqamlar va so‘zlar teskari o‘qilganda ham bir xil ko‘rinishda qoladi, bu esa kodlarning murakkabligini va sirli izlanishning o‘ziga xosligini oshiradi. Shu bilan birga, har bir yangi kod muayyan joylarga ishora qiladi, bu esa kitob voqealarini real geografik joylarda tasvirlash va o‘quvchilarning xayolida jonlantirish imkonini beradi.

“Yo‘qotilgan ramz” asarida Den Braun masonlik tashkilotiga xos kod va shifrlardan foydalanadi. Asar davomida qahramonlar maxfiy belgilar va ramzlarni yechishga harakat qilib, Amerikaning siyosiy tarixiga chuqur kirib boradilar. Bu asarda ham Robert Lengdon bosh qahramon sifatida ishtirok etadi va u masonlarning ramzlari va kodlarini yechish orqali sirli tashkilotlar va ularning tarixini o‘rganadi. Bu kodlar orasida numerologiya, kabalistlar va boshqa maxfiy bilimlardan foydalanilgan belgilar mavjud bo‘lib, ular hikoya davomida yangi sirlarga yo‘l ochadi. Kitobda Berlingotni buzmaslik maqsadida shifrlangan qatorlar va nomerlarni yechishga qaratilgan murakkab matematik va tarixiy jumboqlar o‘quvchilar xayolini butkul qamrab oladi va ularning qiziqishini yanada oshiradi.

“Inferno” asarida ham kodlar va shifrlangan xabarlardan o‘rinli foydalanilgan. Kitobning asosiy sirli xabarlari Dantening “Ilohiy komediya” asari va undagi ramziy belgilarga asoslangan. Asarda virusni tarqatish orqali insoniyatni qutqarishni istagan jinoyatchi murakkab ramzlar va kodlar qoldirib, Lengdonni murakkab va qiziqarli izlanishlarga boshlaydi. Dantening she’ridagi ramziy belgilar va kodlar orqali Den Braunning qahramonlari qizg‘in izlanish olib boradilar va nihoyat qotillik sirini ochadilar. Den Braunning kod va shifrlar orqali hikoyalarida yaratilgan izlanish uslubi o‘quvchiga detektiv hikoyaga chuqurroq kirib borishga imkon beradi. Kod va shifrlar o‘quvchini yangi sirlarga chorlashi orqali janrni yanada qiziqarli va jozibali qiladi. Bu uslub o‘quvchilarni ilmiy, tarixiy va madaniy bilimlarni chuqurroq o‘rganishga undaydi va detektiv janrni intellektual izlanish sifatida kengaytiradi.

Den Braunning ijodiga xos detektivlik sirlarini an’anaviy asarlardagidek faqat politsiya yoki tergov

ishlari bilan bog‘lash mumkin emas. U o‘z rivoyasini tarix va ilm-fan bilan bog‘langan jumboqlar va muammolar orqali boyitadi. Qahramonlari ko‘pincha qadimiy diniy sirlar, ilmiy kashfiyotlar yoki san’at asarlariga oid qiziqarli haqiqatlarni o‘rganish orqali jinoyatni yechishga harakat qiladilar. “Yo‘qotilgan ramz” asarida masonlik sirlarini, “Inferno”da esa Dantening “Ilohiy komediya”sidagi sirli xabarlarni yechishga asoslangan qahramonlar izlanishlari bunga misol bo‘la oladi. Bu xususiyatlar detektiv janrga tarixiy va ilmiy qiziqish bag‘ishlab, asarlarni yanada chuqur va mazmunli qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Den Braunning romanlari ilmiy va tarixiy bilimlarga asoslangan sirli hodisalar bilan boyitilgan bo‘lib, bu uning detektiv janrida o‘ziga xos va qiziqarli uslubini ta’minlaydi. Uning asarlarida tarixiy faktlar, ilmiy nazariyalar va madaniy meros o‘rin oladi, bu esa o‘quvchilarga qiziqarli voqealarni ko‘rish va ulardan ko‘proq bilim olish imkoniyatini beradi. Braunning romanlaridagi ilmiy va tarixiy bilimlar o‘zaro bog‘langan holda, asarlarning markaziy temalarini tashkil etadi.

Natijalar va muhokama

Den Braunning romanlarida tarixiy bilimlardan keng foydalanilganligi tufayli qahramonlar tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog‘liq sirli kodlarni yechish maqsadida tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatlari, shu jumladan, diniy va madaniy meros haqida ko‘p o‘qiydilar. Bu bilimlar o‘quvchilarga tarixiy kontekstni tushunishga va kashfiyotlar jarayonida qahramonlar bilan birga bo‘lishlariga yordam beradi. Misol uchun, da Vinchining asarlarida yashirin ma’nolarni ochish orqali qahramonlar muhim tarixiy haqiqatlarni kashf etadilar.

Masalan, “Da Vinchi Kodi” romanining bir nuqtasida bosh qahramon tomonidan rassom asarini batafsil tahlil qilingani tasvirlanadi. Lengdon Mona Lizaning sirini juda kutilmagan bir guruh bilan — Esseks okrugi qamoqxonasidagi o‘nlab mahbuslar bilan bo‘lishadi. Lengdonning qamoqxonadagi ushbu seminari Harvardning qamoqxona tizimiga ta’lim olib kirishga intilayotgan tashabbusi doirasida tashkil etiladi. Lengdonning hamkasblari bu dasturga hazil bilan “Mahbuslar uchun madaniyat” deb nom qo‘yishadi. Shu suhbatda voqea quyidagicha tasvirlanadi: “*Da Vinci painted the horizon line on the left significantly lower than the right.” “He screwed it up?” one of the inmates asked. Langdon chuckled. “No. Da Vinci didn’t do that too often. Actually, this is a little trick Da Vinci played. By lowering the countryside on the left, Da Vinci made Mona Lisa look much larger from the left side than from the right side. A little Da Vinci inside joke. Historically, the concepts of male and female have assigned sides—left is female, and right is male. Because Da Vinci was a big fan of feminine principles, he made Mona Lisa look more majestic from the left than the right.*” [1]

Ko‘rinib turibdiki, Den Braun bunday tasvirlar orqali nafaqat mahbuslar, balki kitobxonlarning diqqatini ham bir nuqtaga jamlashga muvaffaq bo‘lgan. Kitobxonni, o‘qiyotgan ma’lumotim nahotki haqiqat bo‘lsa degan o‘y-fikrlar chulg‘ab oladi.

Muallif asarlarida, shuningdek, ilmiy nazariyalar ham markaziy rol o‘ynaydi. “Farishtalar va Shaytonlar” asarida Den Braunning qahramonlari fizika va astronomiya kabi fanlarni o‘rganishadi. Bu asarda ilmiy bilimlar, masalan, *“qaror qabul qilish nazariyasi”* va *“nuklear energiya”* kabi tushunchalardan foydalaniladi. Bu o‘rinda qahramonlar ilmiy faktlar yordamida jinoyatni fosh qilishda harakat qiladilar, bu esa o‘quvchini nafaqat qiziqarli voqealar bilan, balki ilmiy ma’lumotlar bilan ham tanishtiradi.

Den Braunning romanlari ilmiy va tarixiy hodisalarni o‘z ichiga olish bilan bir qatorda, falsafiy muammolarni ham o‘rtaga tashlaydi. “Inferno” asarida insoniyatning kelajagi, ahloqiy masalalar va ilm-fan bilan din o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi savollar ko‘tariladi. Dantening “Ilohiy komediya” asari bilan bog‘liq kodlar va sirlar, o‘quvchilarga hayot, o‘lim va insoniyatning ma’nosi haqida chuqur o‘ylash imkonini beradi.

Tahlillardan ayon bo‘lyaptiki, har bir yangi sir va kod, o‘quvchilarni yangi bilimlarga qiziqtiradi va ularning aqliy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadi. Misol uchun, “Da Vinchi siri” romanida joylashgan ramzlar va tarixiy haqiqatlar, o‘quvchilarni tarixiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlarga jalb etadi. Bu hodisalar asarlarni nafaqat detektiv hikoya sifatida, balki bilim va ma’rifat manbai sifatida ham qiziqarli qiladi:

“Hey, Mr. Langford,” a muscle-bound man said. “Is it true that the Mona Lisa is a picture of Da Vinci in drag? I heard that was true.” “It’s quite possible,” Langdon said. “Da Vinci was a prankster, and computerized analysis of the Mona Lisa and Da Vinci’s self-portraits confirm some startling points of congruency in their faces. Whatever Da Vinci was up to,” Langdon said, “his Mona Lisa is neither male nor female. It carries a subtle message of androgyny. It is a fusing of both.”[2]

Den Braun ilm olamida ko‘pchilikni qiziqtirayotgan sirli jumboq, tarixiy faktga javob izlashga harakat qiladi. Yuqorida keltirilgan parchada ham rassom va u yaratgan asar o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi bilan bog‘liq farazlar ilmda mavjud ekani, olimlar anchadan beri buni asoslashga harakat qilayotgani borasidagi ma’lumot ilgari suriladi. Den Braun shu farazga muallif sifatida o‘zining xulosasini bayon etadi. Bu bilan kitobxonni ham mushohada qilishga, atrofida sodir bo‘layotgan voqealarga mustaqil fikrga ega bo‘lishga undaydi.

Yozuvchi asarlarning teranligi va boy ma’nosi, o‘quvchilarga o‘zlariga yangi qirralar kashf etishga imkon beradi va Den Braunning detektiv asarlarini o‘ziga xos qiladi. Uning asarlarida voqealar tez rivojlanadi va ularni o‘qish jarayoni o‘quvchini doimiy shiddat va harakat bilan ushlab turadi. Kinematik uslubda yozilgan sahnalar o‘quvchi xayolida jonlanadi va qahramonlarning

harakatlarini vizual tasavvur qilishga imkon beradi. Har bir qadamda yangi ma'lumot ochilishi, kodlar yechilishi va qahramonlar uchun yangi qiyinchiliklar yuzaga kelishi orqali hikoya dinamikasi saqlanadi. Adib voqealarni tezkor tarzda bayon qilgani uchun o'quvchi asardan uzilmasdan oxirigacha qiziqish bilan o'qiydi. Shuningdek, qahramonlar ham har bir yangi kashfiyot orqali o'zlarida aqliy o'zgarishlar sodir bo'lganini his qiladilar. Har bir sirli jumboq qahramonning shaxsiy o'sishiga, dunyoqarashi va ishonchlariga ta'sir qiladi, bu esa asarlarga nafaqat detektivlik, balki psixologik ruhni ham qo'shadi.

Den Braun qahramonlari faqatgina voqealar davomida harakat qilibgina qolmay, balki ichki ruhiy o'zgarishlar va yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini boshdan kechirishadi. Bu, o'quvchilarni qahramonlar bilan birga hissiy jihatdan bog'lashga imkon beradi va hikoyalarning teranligini oshiradi. Adibning eng mashhur qahramonlaridan biri, professor Robert Lengdon, murakkab qahramon sifatida o'zining bilimdonligi, aqliy qobiliyati va tarixiy bilimlari bilan ajralib turadi. Har bir asarda Lengdon yangi sirlar va muammolar bilan yuzma-yuz keladi, bu esa uni o'z bilimlarini sinab ko'rishga va yangi g'oyalar bilan ishlashga majbur qiladi. Misol uchun, "Da Vinchi siri" asarida u o'zining o'tmishi, bilimlari va ijtimoiy ahamiyatini o'rganadi, bu esa uning shaxsiy qiyinchiliklarini yengishga imkon beradi. Lengdonning ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, o'quvchilarga inson tabiati va uning hissiyotlari haqida chuqur o'rganishga yordam beradi.

Den Braun ko'pincha maxfiy tashkilotlar va global fitnalar bilan bog'liq sirlardan ham foydalanadi, bu esa uning asarlarini ko'plab boshqa detektiv romanlardan ajratib turadi. "Da Vinchi siri" asarida Sion prioryasi va Opus Dei tashkiloti bilan bog'liq sirlar, "Farishtalar va Shaytonlar" romanida esa Illuminatlar tashkiloti haqida hikoya qilinadi. Ushbu maxfiy tashkilotlar haqida hikoya qilish orqali Den Braun o'quvchini keng qamrovli va global miqyosda o'ylashga chorlaydi. Bu nafaqat qahramonlarga, balki o'quvchilarga ham aqliy va ruhiy izlanish olib borish imkoniyatini beradi.

Den Braunning detektiv janriga qo'shgan yana bir muhim o'ziga xosligi shundaki, u diniy va falsafiy savollarni ochiq qoldiradi va o'quvchini bu mavzular haqida chuqur o'ylashga undaydi. "Inferno" romanida insoniyatning kelajagi haqida falsafiy savollar qo'yiladi, "Yo'qotilgan ramz" asarida esa insoniyat va bilimning chegaralari haqida mulohaza yuritiladi. Shu tarzda, Den Braun o'z asarlarida detektiv janrni nafaqat syujet asosi sifatida, balki diniy va falsafiy masalalarni muhokama qilish vositasi sifatida ham ishlatadi.

Xulosa

Den Braunning detektiv asarlari, yuqoridagi barcha xususiyatlarni uyg'unlashtirib, o'quvchilarga shunchaki qiziqarli voqealarni emas, balki ilmiy, tarixiy va falsafiy izlanishlarni ham taqdim etadi. Bu esa uning detektiv janrga qo'shgan asosiy hissasi va o'ziga xosligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dan Brown. The Da Vinci Code. Robert Langdon. Knopf Doubleday Publishing Group, 2003. – P.100
2. Dan Brown. The Da Vinci Code. Robert Langdon. Knopf Doubleday Publishing Group, 2003. – P.101
3. Dan Brown. Angels & Demons. POCKET BOOKS, a division of Simon & Schuster Inc. 1230 Avenue of the Americas, New York, NY 10020 – 379 p
4. Dan Brown. The lost symbol. Doubleday Publishing Group, 2009 – 339 p
5. Lacy, Norris J. "The Da Vinci Code": Dan Brown and The Grail That Never Was. // Arthuriana, 2004, Vol.14, No.3.// pp.81-93.//
6. Giannini, John. The Sacred Secret: The Real Mystery in The Da Vinci Code. // Jung Journal: Culture & Psyche, Vol.2, No.2. // pp.63-84.
7. Ika Nofi Indria Wati. The need for virtual ethics in Dan Brown's Digital Fortress. – Surakarta, 2009. – 11 p
8. Safarova Z.T., Niyazova D.J. Den Braun asarlarida detektiv janr xususiyatlarining namoyon bo'lishi// Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 2024. 2– son. -p. 315.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Isroilova Barchinoy Abdug'appor qizi
Andijon davlat pedagogika instituti, PhD assistant-o'qituvchisi
barchinoyisroilova790@gmail.com

MULOQOTNING AKTUALLASHUVI VA VIRTUALLASHUVI

Annotatsiya. *Maqolada aktual va virtual muloqotning imkoniyatlari hamda farqli jihatlari, virtual maydondagi muloqot jarayonini shakllantiruvchi omillar, yozma so'zlashuv nutqi paydo bo'lganligi xususidagi qarashlar haqida fikr boradi.*

Kalit so'zlar: *muloqot, aktual muloqot, virtual, virtual muloqot, virtual maydon, yozma so'zlashuv nutqi.*

Исраилова Барчиной Абдугаппор кизи
Андижанский государственный педагогический институт, кандидат педагогических наук, ассистент преподавателя

ОБНОВЛЕНИЕ И ВИРТУАЛИЗАЦИЯ СВЯЗИ

Абстрактный. *В статье рассматриваются возможности и различия реального и виртуального общения, факторы, формирующие процесс общения в виртуальном пространстве, взгляды на возникновение письменной разговорной речи.*

Ключевые слова: *общение, актуальное общение, виртуальное, виртуальное общение, виртуальное пространство, письменная разговорная речь.*

Isroilova Barchinoy Abdugappor kizi
Andijan State Pedagogical Institute, PhD assistant-teacher

ACTUALIZATION AND VIRTUALIZATION OF COMMUNICATION

Abstract. *The article discusses the possibilities and differences between actual and virtual communication, the factors shaping the communication process in the virtual space, and views on the emergence of written colloquial speech.*

Keywords: *communication, actual communication, virtual, virtual communication, virtual space, written colloquial speech.*

Kirish

Jahon tilshunosligida til va jamiyatning o'zaro ta'siri, xususan, unda kechadigan ijtimoiy munosabatlar ko'lami, ijtimoiy omillarning roli masalasi azaliy muammolardan sanaladi. Bugungi jamiyatda maydonga kelgan va aktuallashgan virtual muloqotning yuzaga kelishi bilan bog'liq lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillarning o'rni masalasining dolzarblashuvi ham, virtual nutqning o'ziga xos jihatlarini pragmalingvistik, antroposentrik aspektlarda tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlar salmog'ining ortishi ham fikrimizni dalillaydi. Shunga qaramay, bu sohada amalga oshirilgan ishlarni yetarli deb bo'lmaydi. Bugungi kunda bu sohadagi ishlar ko'lamini kengaytirish, tadqiqot natijalarini fan va ta'lim sohasiga tatbiq etish kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili

Muloqot "ikki va undan ortiq kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish ehtiyojini qondirishga qaratilgan o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bunda axborotlar almashiniladi, munosabatlar o'rnatiladi hamda rivojlantiriladi. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xos bo'lsa-da, ammo inson darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, ya'ni nutq vositasida anglashiladi"[1] Muloqot insonlar o'rtasida amalga oshiriladigan ongli faoliyat bo'lib, unda, albatta, o'ziga xos maqsad va mazmun o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shuningdek, muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan vosita til bo'lib, u muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishni ta'minlaydi[2]. Nutqiy muloqot bevosita inson faoliyati bilan bog'liq holda kechadigan jarayondir. Ya'ni unda insonning borliqni anglashi, tafakkur darajasi, munosabati, bahosi, ruhiy olami, his-tuyg'ulari, madaniyati, saviyasi kabi individual jihatlari yuzaga chiqadi. Har bir til tashuvchisi (masalan, rus, o'zbek, qozoq) lisoniy shaxs sifatida o'ziga xos tarzda tildan foydalanadi. F.Karimova to'g'ri

ta’kidlaganidek, inson nutqining tavsifi va bahosi bu uning o‘zining tavsifi va bahosi ekanligiga shubha yo‘q[3].

Aytish mumkinki, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, xalqning turmush darajasining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu masala davlat ahamiyati darajasida bo‘lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat qaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Buning yorqin misoli sifatida Vazirlar Mahkamasining 2019–yil 21-oktyabrdagi “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 888-sonli qarori hamda ushbu qarorga ilova tarzida 2019–2021-yillarda internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Kompleks dastur” ishlab chiqilganligi ham yuqoridagi fikrimizni dalillaydi.

Yangi virtual texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida yuzaga chiqqan virtualizatsiya jarayoni reallikni ikkiga ajratdi: obyektiv reallik va virtual reallik.

O.R.Mejevnikova “virtuallikni turli xil hodisalar: psixologik, texnik, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa shu kabi sohalar keltirib chiqarishi mumkin”ligini ta’kidlagani holda, “virtual deb qaraladigan potensial borliqning mavjudligi muammosi, shuningdek, turli xil virtual haqiqatlarning mavjudligi qadimgi antik davrdan to hozirgi kungacha mutafakkirlarning falsafiy merosida aks ettirilganligi e’tirof etiladi va “virtual” atamasining ilmiy ishlatilishi qadimgi va o‘rta asrlardan beri ma’lum bo‘lib, u paytlarda “potensial”, “aqlan, xayolan, mavjud” ma’nosida ishlatilgan”[1]ligini bayon etadi [4].

Shu o‘rinda virtual so‘ziga berilgan ayrim ta’riflarga ham e’tibor qaratish o‘rinli. “Virtus (lot.) – 1) erkaklik, jasorat; energiya, kuch; jasorat; 2) mardlik, qahramonlik; 3) mukammal sifat; ajoyib fazilatlar, afzalliklar; iste’dod 4) fazilat, axloqiy komillik, axloqiy odob, ma’naviy olijanoblik”[5], – deya izohlangan.

“Virtual (inglizcha) – faktik, asosli, mavjud (narsa) mohiyatan; mumkin, virtual, taxmin qilingan; xayoliy (fokus, tasvir haqida); samarali”[6] .

“Virtual – 1) virtual hodisalarning umumlashtirilgan nomi, virtual reallik, virtual haqiqatlar to‘plami, virtual haqiqatning individualdan farqli bo‘lgan qismi; 2) konsuetaldan farqli ravishda asta-sekin va ingratualning o‘ziga xos nomi. Virtual boshqa aqliy hosilalardan, masalan, tasavvurdan farqli o‘laroq, inson uni o‘z aqlining mahsuli sifatida emas, balki haqiqat sifatida qabul qilishi va boshdan kechirishi bilan tavsiflanadi. Virtual quyidagi xususiyatlarga ega: notanishlik, spontanlik, parchalanish, obyektivlik, jismoniy, ong, shaxsiyat va iroda holatining o‘zgarishi”[7].

“XX asrning ikkinchi yarmida virtuallik g‘oyasi fan va texnikaning bir qancha sohalarida bir-biridan mustaqil ravishda paydo bo‘ldi”[8].

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, *virtual* atamasi turli fan sohalarida (*virtual ta’lim, virtual muzey, virtual shaxs, virtual tizim, virtual makon, virtual olam, virtual xotira,virtual obraz, virtual bozor, virtual mashina, virtual qobiliyat*) o‘ziga xos mazmunni ifodalashda qo‘llanilmoqda. Jumladan, tilshunoslik sohasida ham *virtual muloqot, virtual kommunikatsiya* kabi birikmalar shakllanganligini ko‘rish mumkin. Hozirda *virtual muloqot* va virtual kommunikatsiya jarayonlari tobora tadqiqotchilar e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda.

M.B.Bergelson virtual kommunikatsiyaning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatadi: “...vositali, distantlik, interaktivlik, global xalqaro xarakter, qatnashuvchilarning anonimligi (ko‘p hollarda), shaxsiy konstruaktivlikni va sotsial identivlikni shakllantirishning keng imkoniyati, status iyerarxiyaning yo‘qligi, sotsial me’yorlarning noaniq va rivojlanmaganligi (shu jumladan, huquqiy va axloqiy), kommunikatsiya jarayonining marginalizatsiyalashuvi va karnavalizatsiyalashuvi”[9].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, komponent, qiyoslash, pragmatik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Internet yagona global tarmoq sifatida tobora jamiyatda yetakchi kuchga aylanib bormoqda. Bu borada A.S.Trach “…internet, ya’ni cheksiz muloqot tarmog‘ining shakllanishi natijasida qandaydir ma’noda yozma (vizual) va qaysidir ma’noda og‘zaki bo‘lgan ma’lum bir oraliq muloqot turining paydo bo‘lganligini alohida ta’kidlab”[10], bu muloqotga xos xususiyatlar sifatida qabul qilish usuliga ko‘ra *vizual*, ya’ni ko‘zlar orqali qabul qilish, suhbat davomida uzoq vaqt tanaffus qilish mumkinligi (asinxron), yuzma-yuz og‘zaki muloqot jarayonida esa, bu holning yuz bermasligi, shuningdek, xabar jo‘natuvchi javobni tezlik bilan olishi yoki uzoq kutishi mumkinligi, yozma matnning darhol uzatilishi va qabul qilinishi, biroq adresatning bandligi, elektron pochtaga kirish imkoniyati, texnik muammolar, vaqt farqlari va boshqa sabablarga ko‘ra bir necha kun ichida javob olishi mumkinligi kabi jihatlarni ko‘rsatib o‘tadi.

Internet muloqoti insonlar o‘rtasidagi muloqotda yangicha o‘lchamni ochib berdi. “U katta hajmdagi axborotlarni saqlash va tez uzatish, audio va video aloqa kanallaridan foydalanish va onlayn rejimida muloqot qilish imkonini yaratib berdi. Virtual muloqot boshqa muloqot turlari kabi bir necha xil xususiyatlarga ega[11]. Masalan, qamrovi nuqtayi nazaridan kompyuter muloqot ommaviy (butun dunyo bilan aloqa), ichki shaxsiy (foydalanuvchi va kompyuter o‘rtasidagi aloqa) va guruhli muloqot ko‘rinishiga ega. Vaqt omilini, ya’ni muloqot jarayonining davomiyligini hisobga olgan holda

kompyuter muloqot qisqa (elektron pochta orqali xabarni olish) yoki vaqt bo‘yicha cheklanmagan (internet-konferensiyalarda ishtirok etish) bo‘lishi mumkin. Shakliga ko‘ra kompyuter muloqot og‘zaki (ovozli modem) va yozma (matn va grafik)ga bo‘linadi. Grafik shakl – harflardan tashqari boshqa tasvirlar, diagrammalar va hokazolarni uzatishni anglatadi. Muloqot usuliga ko‘ra kompyuterli aloqa vositali aloqa hisoblanadi, chunki u texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Axborotni uzatish va idrok qilish kanaliga ko‘ra kompyuter muloqoti haqiqiy (real insonlar bilan muloqot) va virtual (noma’lum, xayoliy suhbatdoshlar bilan muloqot)ga bo‘linadi” [12].

Virtual kommunikatsiya shakllari xilma-xildir. Virtual kommunikatsiyaning bir qancha tasniflari mavjud, ammo interaktiv darajasiga ko‘ra qilingan tasnif eng ommalashgandir. Bu tasnifga ko‘ra, kiber fazoda kommunikatsiyaning ikki asosiy shakli bor:

1) sinxron kommunikatsiya (real vaqt rejimida bo‘ladi). Bu internet kommunikatsiyasi interaktiv hisoblanadi. Unga chatlar (Internet Relay Chat, IRC), MUDs rolli o‘yinlar (“multi-user dimenson” o‘yinlarida ko‘p qatnashchilar bitta virtual bo‘shliqda birlashadi);

2) asinxron kommunikatsiya, javobning ushlanib, kechikib qolishi tushuniladi. Unga Veb-forum (Web-based forums), diskussiya ro‘yxati (discussion lists), mehmon kitoblari (guest books), elektron pochta, jo‘natma ro‘yxati (mailing list), telekonferensiyalar (newsgroups). Forum va bloglar chatdan farqli ravishda javobning kechikib qolishiga moslashgan. Forum qatnashchisi xabar qoldirar ekan, unga javobni o‘sha zahotiyoq kutmaydi, balki bir necha soat yoki bir necha kundan keyin kelishini biladi. [13]

Virtual nutqiy muloqot oddiy nutqiy muloqot kabi uch tarkibiy qismdan iborat: muloqotni boshlash, muloqotni saqlash va muloqotni yakunlash[14]. Foydalanuvchi o‘zbek tili chatining virtual muloqot makonida o‘z borlig‘ini ifodalovchi til va pragmatik qoidalariga asoslanib muloqotni amalga oshiradi. Virtual suhbatni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) virtuallik;

2) shakliga ko‘ra dialog va polilog;

3) muloqotning ommaviy xarakteri;

4) aloqa yo‘nalishi: ko‘pdan ko‘pgacha;

5) sinxron aloqa;

6) xabar oluvchiga xabar berishning o‘rtacha tezligi;

7) xabar shakli va mazmuniga qat’iy talablarning yo‘qligi.

8) erkinlik, ya’ni til me’yorlariga amal qilmaslik.

9) me’yorsizlikdagi me’yoriylik (rasmiy va ommaviy axborot saytlari bundan mustasno, bunday matnlarda adabiy til me’yorlariga amal qilish ko‘zda tutiladi)

Virtual maydondagi muloqot jarayonini shakllantiradigan omillarni guruhlaydigan bo‘lsak, bir qator imkoniyatlarni ko‘rish mumkin:

1) kommunikator omili (mazkur jarayonga ta’sir etuvchi maqsad va vazifalarni belgilaydi);

2) maqsadli auditoriya omili (adresat maqsadlarini belgilaydi);

3) muloqot kanali omili (cheklovchilar sifatida maydonga chiqadigan, mazkur kanal standartlarini belgilaydi).

Ma’lumki, muloqot jarayonida, asosan, so‘zlashuv uslubidan foydalaniladi. So‘zlashuv uslubi oddiy so‘zlashuv va adabiy so‘zlashuv kabi ikki turga bo‘linadi. Bu uslub nutqi g‘ayrirasmiyligi, ekspressivligi, bayonning erkinligi va, asosan, dialogik xarakterdaligi bilan izohlanadi. So‘zlashuv uslubida metaforik so‘zlar, dialektizm, vulgarizm va frazeologik iboralar ko‘proq qo‘llanadi. Turli ekstralingvistik faktorlar (qo‘l, bosh, badan harakatlari, mimikalar) so‘zlashuv nutqi uslubiga xosdir [15]. Ilmiy manbalarda so‘zlashuv uslubining og‘zaki xarakterda ekanligi ta’kidlab o‘tiladi. Ammo bugungi virtual muloqot maydonida so‘zlashuv uslubining ham qaysidir ma’noda yozma ko‘rinishlari shakllandi. O‘zbek tilshunosligida so‘zlashuv uslub bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilgan.

T.Y.Vinogradova ham bugungi kunda mohiyatan lingvistik o‘zaro munosabatlarning yangi shakli – yozma so‘zlashuv nutqi paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi [16].

Bildirilgan fikrlar tahliliga asosan *virtual muloqotning o‘ziga xos muhim jihatlari* sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Globallashuvga hissa qo‘shadigan aloqa vositasi.

2. Virtual aloqaning intensivligi.

3. Masofaviy aloqaning ustuvorligi (Bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik bilan masofadan turib muloqot qilish imkoni).

4. Moddiy manfaatdorlik va vaqtni tejash.

5. Tezroq javob olish.

6. Virtual aloqani barqaror saqlash.

7. Virtual aloqa dam olish usuli emas, balki o‘quv yoki mehnat faoliyatida vaqtni tejash vositasi va uzoqdagi odamlar bilan aloqada bo‘lish imkoni .

8. Shaxsiy bo‘sh vaqtni tashkil etish imkoniyati. (Undan aniq maqsad yo‘lida foydalanilsagina…)

Ko‘rinib turibdiki, virtual muloqot real muloqot o‘rnini bosa olmaydi, aksincha, jonli muloqotda virtual muloqotdagi imkoniyatlarning mavjud emasligini ham kuzatishimiz mumkin. Lekin bugungi kunda har ikki muloqot shakli biri ikkinchisini to‘ldirishini, vaziyatga qarab qay biri zaruriyatga aylansa, o‘sha muloqot shaklidan foydalanish mumkinligi ham haqiqat. Bu holat esa, muloqot shakllarining kengayganligi uni murakkablashib, keng qamrovda amalga oshayotganidan dalolatdir.

Muloqotning aktuallashuvi va virtuallashuvi jarayoni bilan bog‘liq jihatlar haqida keltirilgan ilmiy yondashuvlarni quyidagicha jadval ko‘rinishida umumlashtirish lozim topildi:

2.1-jadval

№	Muloqot imkoniyatlari	Aktual muloqot	Virtual muloqot
1	Insonlar o‘rtasidagi muloqotni amalga oshirishda muhim ahamiyatga egalik	+	+
2	Suhbatdoshning reaksiyasini, hissiyotlarini his qilish	+	–
3	Hissiyotlarni yashira olmaslik, suhbatni keskin to‘xtatishning iloji yo‘qligi	+	–
4	Masofaviy aloqaning ustuvorligi (bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik bilan masofadan turib muloqot qilish imkoni)	–	+
5	Moddiy manfaatdorlik va vaqtni tejash	+	+
6	Anonimlik	_	+
7	Suhbat davomida uzoq vaqt tanaffus qilish mumkinligi	_	+
8	Xabar jo‘natuvchi javobni tezlik bilan olishi yoki uzoq kutishi mumkinligi	–	+
9	Globallashuvga hissa qo‘shadigan aloqa vositasi	_	+
10	Muloqotda kommunikativ maqsadning amalga oshirilganligi	+	+
11	Aytilgan so‘zni qaytarib olish va qayta ishlash imkoniyatining mavjudligi	–	+
12	Tilga oid chegaralarning olib tashlanganligi	_	+
13	Muloqotda milliy, jinsiy, tabaqaviy chegaralarning mavjudligi	+	–
14	Sotsial me’yorlarning noaniq va rivojlanmaganligi	-	+

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, virtual aloqa yangi shakllangan alohida bir muloqot turi sifatida o‘ziga xos jihatlari, shakllantiruvchi vositalari, shuningdek, ijtimoiy xarakteriga ko‘ra tobora keng ommalashib, jamiyatda yetakchi mavqega ega bo‘lib bormoqda. Virtual aloqa texnik qurilmalar, xususan, kompyuter, shuningdek, smartfon, telefon vositasida amalga oshiriladigan subyektlarning kommunikativ faoliyati hisoblanadi. Aslini olganda, har ikki muloqot turi: *jonli (aktual) muloqot va virtual muloqot* ham insonlar o‘rtasidagi muloqotni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har ikki muloqot turi yutuqlari va yoki afzalliklariga ko‘ra bir-birini to‘ldiradi hamda kommunikantlarning muloqotni amalga oshirishida o‘ziga xos qulayliklarni yaratib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Sultanov T.L. Muloqotning umumiy xususiyatlari / Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Prof. A. Nurmonov xotirasiga bag‘ishlangan konf. – Andijon, 2022. – B.74-75.

2.Sultanov T.L. O‘sha maqola. – B. 75.

3.Каримова Ф. Руҳий ҳолат ва унинг нутқдаги ифодаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2024. – №1. – Б. 99.

4.Межевникова О.Р. Виртуал жараёнларнинг ижтимоий воқелик субъекти онгида акс этишининг ўзига хослиги: Фалс. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2023. – Б.13.

5.Зудилина Н.В. Влияние значений греческого понятия “apet’h” на семантику латинского понятия “virtus” как одна из причин полисемантичности понятия “виртуалъный” в XX–XXI веках // Logos et Praxis. 2019. – Vol.18. – №1. – С. 5-13.

6.Гальперина И.Р. Большой англо-русский словарь. – М.: Русский язык, 1979. – С. 740.

7.Носов Н.А. Словарь виртуальных терминов. – М.: Путь, 2000. – С. 11-12.

8.Носов Н А. Ko‘rsatilgan manba. – С. 12.

9.Бергельсон М.Б. Языковые аспекты виртуальной коммуникации // Вестник МГУ. Сер.19: *Лингвистика* и межкультурная коммуникация. – М., 2002. – № 1. – С. 61.

10. Трач А.С. Особенности использования письменной речи в сети Интернет – дискурс // Известия ЮФУ (южный федеральный университет) Раздел I. Проблемы современной филологии. – Таганрог, 2010. – С.34-39.

11. Халилова Р. Виртуал тизимда нутқий дискурснинг социомаданий ва прагматик хусусиятлари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Buxoro, 2021. – № 5. – Б.78-79.

12. Демьянков В. З. Интерпретация, понимание и лингвистические аспекты их моделирования на ЭВМ.– М.: Изд-во Моск. ун-та, 1989. – С.3.

13. Сулер, Дж. Люди превращаются в Электроников. Основные психологические характеристики виртуального пространства. – М.,1996. – С. 132.

14. Xalilova R. Ko‘rsatilgan manba. – B. 82.

15. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1985. – Б.13.

16. Виноградова Т.Ю.Специфика общения в интернете / Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казань, 2004. – С.63-67.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Rahmonov Ulug'bek Bahodirovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
Andijon davlat universiteti
rahmanobulugbek@gmail.com

JAHON LUG'ATSHUNOSLIGIDA SO'ZLIKNING UMUMIY XARAKTERISTIKASI VA HAJMI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahon izohli lug'atlarida so'zlarni qanday tanlash muammosi tahlilga tortilgan. Unda asosan ingliz lug'atlaridan biri bo'lgan Jonson lug'ati me'yoriy leksikasiga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Vokabula, me'yoriy leksika, hosila so'zlar, leksikograf, suffiks.*

Рахмонов Улугбек Бахадирович
Доктор философии в филологии, (PhD)
Андижанский государственной университет

СЛОВАРЬ В МИРОВОЙ ЛЕКСИКОЛОГИИ ОБШИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ И РАЗМЕР СЛОВАРНОГО ЗАПАСА

Аннотация: *В данной статье анализируется проблема вО'бора слов в толковО'х словарях мира. Основное внимание уделяется нормативной лексике словаря Джонсона, одного из словарей английских словарей.*

КлючевО'е слова: *СловарнО'й запас, нормативная лексика, производнО'е слова, лексикограф, суффикс.*

Rakhmonov Ulugbek Bahodirovich
Doctor of Philosophy, (PhD)
Andijan State University

DICTIONARY IN WORLD LEXICOLOGY GENERAL CHARACTERISTICS AND VOCABULARY SIZE

Abstract: *In this article analyzes the problem of how to choose words in world explanatory dictionaries. It mainly focuses on the normative lexicon of Johnson's dictionary, one of the English dictionaries.*

Key words: *Vocabulary, normative lexicon, derived words, lexicographer, suffix.*

Kirish

Hozirgi zamon jahon leksikografiyada nazariy prinsiplarning ma'lum tizimi mavjud. Me'yoriy-izohli lug'atlarni tuzishda ularga amal qilish qabul qilingan. Bizning vazifamiz, Jonsonning Lug'ati nimada prinsiplarning tizimiga muvofiq keladi, nimada muvofiq kelmaydi, nimada balkim undan ustunlik ham qiladi, shularning hammasini qadam-baqadam kuzatishdan iborat. Shu bilan birga, Jonson Lug'atining afzalliklarini va kamchiliklaribir qatorda, shuni unutmaslik kerakki, Jonson leksikografik prinsiplarning hozirgi tizimiga asos soldi.

Leksikografiya bo'yicha hozirgi ishlarda ikkita asosiy aspektni ajratib ko'rsatish qabul qilingan: "so'zlik" va "so'zning leksikografik ishlab chiqilishi". Bu bo'linish, ehtimol, absolyut bo'lmasligi mumkin, chunki lug'at maqolasi – bu bir butun holdagi narsadir.

Adabiyotlar tahlili

Ma'lumki, me'yoriy-izohli lug'atning tarkibi haqidagi masala, ikkita jihatga ega: me'yoriy-izohli lug'atga nimani kiritish kerak va nimani kiritmaslik kerak [5. 36].

Eng umumiy planda hozirgi leksikografiyada so'zlikning tarkibi haqidagi masalani quyidagi tarzda hal etish qabul qilingan. Me'yoriy-izohli lug'atlarga, arzimagan istisnolardan tashqari, sohaviy, dag'al sodda so'zlashuv tiliga oid, eskirgan tor mutaxassislikka oid leksika, ya'ni, birinchi navbatda, nome'yoriy leksika kiritilmaydi. Me'yoriy-izohli lug'atga me'yoriy leksika kiritiladi. Biroq oxirgi qoida aniqlashtirishlarga muhtoj.

Me'yoriy-izohli lug'atning tarkibi nihoyat darajada rang-barang. Bu yerda biz ayrim so'zlardan tashqari, so'zlarning grammatik (nomuntazam) shakllarini, ko'p ma'noli so'zlarni, omonimlarni, sinonimlarni, antonimlarni, frazeologizmlarni, old qo'shimchalarni va h.k. uchratamiz. Shu munosabat bilan vokabulaning bu

xilma-xil barcha guruhlariga tadbiq qilinadigan umumiy qonuniyatlarni kuzatish qiziqarlidir. Mavzularning ketma-ketligi, ayniqsa oxirgi bo‘limda, odatda leksikologiyada qabul qilinganiga qaragandagidan farqlidir. Vokabulalarning har xil tiplariga bag‘ishlangan kichik bo‘limlar ularning Jonson Lug‘atida va hozirgi lug‘atlarda aniq, ochiq ifodalangan sharhining kamayishi tartibida keladilar.

Leksikaning sanab o‘tilgan tiplarini tovush o‘xshashligi va o‘xshamasligi semantik belgisi bo‘yicha quyidagi tarzda tasniflash mumkin:

1) muntazam tovush o‘xshamasligida semantik o‘xshashlik belgisi quyidagi so‘zlarga xosdir: so‘zlarning grammatik shakllariga va sinxronik jihatdan yuqori muntazam hosila so‘zlarga;

2) nomuntazam tovush o‘xshamasligida semantik o‘xshashlik belgisi quyidagi so‘zlarga xosdir: diaxronik hosila so‘zlarga, stilistik sinonimlarga, antonimlarga, emotsional-ekspressiv hosila so‘zlarga, atoqli otlarga, etnonimlarga;

3) semantik noo‘xshashlik belgisi tovush o‘xshashligida omonimlarga va ko‘p ma’noli so‘zlarga xosdir.

Sinxronik hosila so‘zlar deganda biz “hozirgi kunda tildagi mavjud mahsuldor vositalar yordamida hosil qilingan, ma’nolari yasovchi o‘zakdan va ushbu so‘z hosil qiluvchi ko‘rsatkichdan (masalan, affiksdan) chiqarib olinadigan so‘zlar guruhini tushunamiz...” [1. 39]. Qolganlari diaxronik hosilalar hisoblanadilar. Bular shulardan iboratki, sermahsul vositalar bilan hosil qilingan so‘zlarning ma’nosi yasovchi so‘zning ma’nosi bilan o‘zaro munosabatdosh bo‘lmasligi mumkin [1. 39-44]. Boshqa hollarda hosila so‘zlar hozirga kunda umuman mahsuldor bo‘lmagan vositalar yordamida hosil qilinadilar. “Hosila so‘zlarning hisobiga lug‘atning kompressiyasi ikki xil usullar bilan amalga oshirilishi mumkin: a) so‘z lug‘atda butunlay bo‘lmasligi; b) so‘z havolali ta’rif bilan yoki havola bilan berilishi mumkin” [1. 40].

Me’yoriy leksikaga ham qo‘llaniladigan leksik tarkibning dixotomiyalaridan birinchisi – bu katta ahamiyatga ega bo‘lgan leksikaning substansiyalar va belgilarga bo‘linishidir [2. 133-134]. Substansiyalar orasida turdosh otlarni va atoqli otlarni ajratib ko‘rsatish qabul qilingan. Bu bo‘linish uchun belgi – so‘zning bir xildagi ob’yektlarining katta majmuining muvofiqligidir (turdosh otlar), yoki so‘zning birgina ob’yektga muvofiqligidir (Volga, Moskva va h.k.), yoki bir xildagi ob’yektlarning arzimagan majmuidir (masalan, faqat shu oilaning a’zolarigagina dahldor bo‘lgan noyob familiya Robinzon-Kruzo).

Odamlarning va hayvonlarning shaxsiy ismlari (Petr, Nikolay, Anna, Vera, Juchka) ob’yektlarning katta majmuiga (xuddi atoqli otlarga o‘xshab) muvofiq keladi [3. 57, 4. 224]. Ammo stol – stul o‘rtasida semantik tafovut mavjud, Petr – Nikolay o‘rtasida esa semantik tafovut mavjud emas, unisi ham, boshqasi ham “erkaklarning ruscha ismi” sifatida talqin qilinadi.

“Lug‘atning cheklangan hajmi sababli unda shuningdek so‘zlarning quyidagi kategoriyalari berilmaydi: a) atoqli otlar (shaxslarning nomlari, geografik nomlar, muassasalarning nomlari va h.k.), yana shuningdek shaharlarning va joylarning yashovchilarini ifodalovchi turdosh otlar... Bu ro‘yxatga lug‘atga kiritilgan xalqlarning nomlarini qo‘shamiz.

Jonson o‘zining Lug‘atida bu masalalarning hammasida mutlaqo aynan shunga o‘xshash tarzda ish tutdi. Jumladan, lug‘atga geografik nomlarni va muassasalarning nomlarini kiritmaslikka ko‘rsatma beruvchi prinsip (oraliq bosqichlar orqali) Jonsonga borib taqalishi ehtimol to‘g‘ridir.

Eng avvalo bu ko‘rsatmaning asoslanganligini lug‘at hajmini cheklash bilan gapirib o‘tamiz.

Shaxs nomlari ham “osonlik bilan tushuniladi”. Ularning hammasi, agar lug‘atga kiritilganliklarida edi, izohning faqat ikkita turiga ega bo‘lishlari mumkin edilar: “erkakning ismi” yoki “ayolning ismi” [6]. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, erkaklarning (yoki ayollarning) barcha shaxsiy ismlari, uy hayvonlarining (mushuklarning, itlarning, qushlarning) laqablari bir-biriga nisbatan suppletivdirlar. Mana shuning uchun ham ular hatto hajmi bo‘yicha cheklangan lug‘atga kirishga haqlidirlar. Biroq, chamasi, “erkakning ismini” yoki “ayolning ismini” bir necha yuz marta takrorlamaslik uchun”, balki ularni erkaklarning va ayollarning ismlarining, mushuklar laqablarining, itlar nomlarining bosh so‘zi qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Xornbining lug‘atida erkaklarning va ayollarning ismlariga nisbatan shunday qilingan [7. 1191-1200].

Jonsonning lug‘atida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan so‘zlarning hamma kategoriyalari (shaxslarning ismlari, shaharlarning, joylarning, mamlakatlarning nomlari) mavjud emas va bu so‘zsiz kamchilikdir. To‘g‘ri, hozirgi lug‘atlar ham bu so‘zlarning ba’zi bir guruhlarini kiritadilar. Lekin sabab yana shundaki, Jonson kiritilgan material ishlovining yuqori darajasiga erishishish uchun Lug‘atning hajmini ongli ravishda cheklagan. Bu yerda, boshqa hollarda bo‘lgani kabi, Lug‘atning kamchiliklari – uning afzalliklarining teskari tomonidir.

Me’yoriy leksikaga dahldor bo‘lgan so‘zning bir nechta grammatik variantlaridan, lug‘atga, qoidaga ko‘ra, faqat bitta, asoslangan yoki shartli ravishda asosiy deb hisoblangan [1. 27-28] (ot uchun bosh kelishik mujskoy rod birlik shakli, sifat uchun bosh kelishik mujskoy rod birlik shakli, fe’l uchun noaniq shakli va h.k.) kiritiladi. Bu variant so‘zning lug‘aviy shakli deb ataladi, qolgan hammalari esa nolug‘aviy shakllar deb ataladilar. Shu bilan birga bir qarashda shunday tuyulishi mumkinki, “me’yoriy leksika” tushunchasi tilga oid so‘zlarning majmuini (stol, o‘tirmoq va h.k.) o‘z ichiga qamrab oladi,

balki so‘zlashga oid (stol, stollar va h.k. o‘tirmoq – o‘tiryapman va h.k.) so‘zlarni emas. Biroq, bu bunday emas deb hisoblaymiz. Aks holda leksikograflarga so‘zning grammatik shakllari majmuidan faqat bittasi so‘zlikda taqdim qilinganligi faktini ko‘rsatib o‘tish nima uchun kerak edi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, leksikograf avval matnlardan me’yoriy leksikaga aloqador bo‘lgan so‘zlarning grammatik shakllarining majmuini oladi, keyin bu majmuadan bitta grammatik shaklni asosiy sifatida tanlab oladi. So‘zning qolgan grammatik variantlari, umumiy qoida bo‘yicha, lug‘atga kiritilmaydi. Bu shu bilan izohlanadiki, me’yoriy-izohli, eng avvalo semantik noo‘xshashliklar qayd qilinadi, vaholanki bitta so‘zning barcha grammatik variantlari semantik jihatdan aynan o‘xshashdir. Bunga qo‘shimcha qilib shuni aytish kerakki, to me’yoriy-izohli lug‘at muntazam tovush noo‘xshashliklarining semantik o‘xshashlarini, ya’ni so‘zning semantik aynan bir xil grammatik variantlarini qabul qilmaydi, masalan, stol-stollar-stolga va h.k.

200 yildan ortiq farqqa qaramasdan, Jonsonning lug‘ati bu jihatdan hozirgi lug‘atlardan deyarli qolishmaydi. Shunday ekan, taxmin qilish mumkinki, bu prinsipni hozirgi leksikografiya Jonsondan o‘zlashtirib olgan va oraliq bosqichlar orqali bizning davrimizgacha saqlab qolgan.

To‘g‘ri, biz bu yerda Jonson Lug‘atining bir kamchiligini qayd qilishimiz kerak. Ingliz tilida **I stand the cup on the shelf – the cup stands on the shelf** tipidagi jumlalar-transformalar mavjud. Hozirgi leksikografik ta’riflarda stand va stands larni bitta so‘zning grammatik shakllari deb hisoblash qabul qilingan [7. 980]. Va bu tabiiy, chunki ular semantik jihatdan aynan bir xil, grammatik jihatdan har xildirlar, (bitta shakl kauzativ-tranzitiv, ikkinchisi notranzitiv), ularning tovush noo‘xshashligi muntazam xarakterga egadir.

Tahlillar va natijalar. Jonson, **stand** so‘zini u yoki boshqa holda ham – bu har xil omonim so‘zlar deb hisoblar edi. Shuning uchun u har gal mana shunday hollarda ikkita omonimik vokabulalarni, tranzitiv (Jonson bo‘yicha, active) va notranzitiv (Jonson bo‘yicha, neutral), har birini alohida izoh bilan qayd qilar edi. Bu bir-birini takrorlash Jonsonning Lug‘atida bu sohani ortiqcha va isrofgar qildi. Masalan:

To gain. n.a. ...1. To obtain as profit or advantage

To gain. v.n. 1. To grow rich; to have advantage to be avanced in interest or happiness.

Shuni aytish kerakki, ancha juz’iy leksikografik masalalarga o‘tar ekanmiz, me’yoriy leksikaning qolgan qismi doiralarida lug‘atga hamma narsa ham kiritilavermaydi.

Jonson – dastlabkilardan biri bo‘lib lug‘atga asosiy hosila bo‘lmagan so‘zlar bilan semantik jihatdan aynan bir bo‘lgan hosila so‘zlarni kiritmaslik prinsipini nazariy jihatdan ta’riflab berdi [8. 4-5] va amaliy jihatdan qo‘lladi. SHunday qilib, Jonson, ko‘rgazmali tartibdagi arzimas istisnolar bilan lug‘atga quyidagilarni kiritmadi: **-ish** suffiksi yordamda hosil qilingan, bluish, greenish tipidagi juda ko‘p sifatlarni va h.k.; sifatlardan -**lu** suffiksi yordamida hosil qilingan dully, openly tipidagi ravishlarni va h.k.; sifatlardan -**ness** suffiksi yordamida hosil qilingan vileness, faultiness tipidagi otlarni va h.k.; **re-, un-** old qo‘shimchalari bilan yasalgan hosila so‘zlarni va h.k.

To‘g‘ri, Jonson har doim ham sinxronik jihatdan inglizcha hosila so‘zlarni izchillik bilan talqin qilmaydi. Buni “**un-**“ inkor old qo‘shimchali so‘zlar misolida ko‘rib chiqamiz (shu yerning o‘zidayoq u “**re**-“ old qo‘shimchali so‘zlar haqida ham so‘z yuritadi). Bu so‘zlar Lug‘atga kiritilmaydilar, chunki ularning qo‘llanilishi, “agar butunlay erkin bo‘lmasa ham, shunchalik oz darajada cheklanganki, ular har soatda ehtiyojga qarab yangi so‘zlar bilan birikadilar” [8. 5]. Boshqa tomondan, bu so‘zlarning ko‘plari lug‘atga ko‘rgazmali maqsadlarda, ko‘pincha xuddi o‘sha “**not**...” belgisi bilan kiritilgan.

Masalan:

Unbetrayed. adj. Not betrayed.

Unbeloved, adj. Not loved.

Uncaught, adj. Not yet catched.

Hozirgi zamonaviy me’yoriy-izohli lug‘atlarda shaharlar va joylarning yashovchilari nomlarini kiritmaydilar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Jonsonning lug‘atga me’yoriy leksikaning ma’lum davrasini kiritmaslik xususidagi ko‘rsatmasi leksikografik nazariyaning hozirgi darajasida o‘z kuchini saqlab qoladi. Ayrim farqlar (masalan, sinxron jihatdan **“un”** bilan yasalgan so‘zlarning tez-tez takrorlanib turadigan qo‘shilishi) umumiy ahvolni o‘zgartirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Берков П. Вопросы двуязычной лексикографии. Изд-во “ЛГУ” Л., 1973, стр. 191.

2.Кацнелсон С.Д. Типология и речевое мышление. Серия: Лингвистическое наследие XX века, URSS, 2009, стр. 218.

3.Реформацкий А.А. Введение в языковедение. Изд-во “Аспект Пресс”, 2014, Стр. 536

4.Ступин Л.П. О лексическом значении собственных имен. В сб.: Вопросы теории и истории языка. Изд-во “ЛГУ”, 1969, Стр.224.

5.Филин Ф.П. Заметки по лексикологии и лексикографии. - Вып. 1. - М.: Госуд. изд-во иностранной литературы, 1957, Стр.157.

6.Фонякова О.И. Имена собственные в языке и художественной речи. - Вестник ЛГУ, 1974, № 2.

7.Hornby A.S., Gatenby E.V., Vakefield N. The Advanced Learner's Dictionary of Current English. M.: Sigma-press, 1996. -1200 p.
8.Johnsson S. Preface to the Dictionary of the English language. Kessinger Publishing. 2010, p.12.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sharipova Munira Isroiljon's daughter
Namangan State University, The faculty of World Languages, Junior teacher
munirasharipova076@gmail.com

ENGLISH BORROWED WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation: *This article explores the factors driving the adoption of English words into the Uzbek language, highlighting examples from various domains and analyzing the effects of this linguistic interaction. Understanding this phenomenon allows us to recognize both the advantages and challenges of language borrowing in today's globalized world.*

Key Words: *Loanwords, linguistic borrowing, globalization, language exchange, modernization, technology, commerce and finance, media and entertainment, cultural impact, language identity, adaptation, multilingualism, linguistic diversity, word assimilation, language conservation.*

Шарипова Мунира Исроилжоновна
Наманганский государственный университет,
Факультет мировых языков, младший преподаватель

НЕКОТОРЫЕ ЗАИМСТВОВАННЫЕ АНГЛИЙСКИЕ СЛОВА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: *в данной статье мы рассмотрим причины заимствования узбекским языком слов из английского, проанализируем конкретные примеры в различных сферах и обсудим влияние этого языкового обмена. Понимание этого процесса поможет нам оценить, как преимущества, так и вызовы, связанные с заимствованием слов в условиях все более взаимосвязанного мира.*

Ключевые слова: *заимствованные слова, лексические заимствования, глобализация, языковой обмен, модернизация, технологии, бизнес и финансы, средства массовой информации и развлечения, культурное влияние, языковая идентичность, адаптация, билингвизм, языковое разнообразие, интеграция слов, сохранение языка.*

Sharipova Munira Isroiljon qizi
Namangan davlat universiteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

O'ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA O'ZLASHGAN SO'ZLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tiliga inglizcha so'zlarning kirib kelishiga sabab bo'luvchi omillar tahlil qilinadi, turli sohalardan olingan misollar keltiriladi hamda bu til almashinuvi jarayonining ta'siri muhokama qilinadi. Ushbu hodisani tushunish bugungi globallashgan dunyoda til o'zgarishining afzalliklari va qiyinchiliklarini anglash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *O'zlashgan so'zlar, leksik qarz olish, globallashuv, til almashinuvi, modernizatsiya, texnologiya, savdo va moliya, ommaviy axborot vositalari va ko'ngilochar soha, madaniy ta'sir, til o'ziga xosligi, moslashuv, ko'p tillilik, til xilma-xilligi, so'z integratsiyasi, tilni saqlash.*

Introduction

Language is a dynamic entity that continuously develops, influenced by historical events, technological advancements, and cultural interactions. Throughout history, languages have borrowed words from each other, expanding their vocabulary and enhancing communication. English, as one of the most dominant languages today, has contributed thousands of words to many other languages, including Uzbek.

Uzbek, a Turkic language spoken by millions in Uzbekistan and beyond, has a diverse linguistic background shaped by Persian, Arabic, Russian, and more recently, English. Due to globalization, rapid technological progress, and increased engagement between Uzbekistan and the English-speaking world, the number of English loanwords in Uzbek has been steadily increasing. These borrowed terms are particularly prevalent in areas such as technology, business, science, sports, and entertainment, where new concepts and innovations frequently emerge. [1-2]The process of borrowing words is not just a linguistic phenomenon - it reflects deeper social, economic, and cultural changes. As Uzbekistan

modernizes and integrates into the global economy, English words become more prevalent in everyday speech, education, and the media. While some see this as a natural and beneficial evolution, others worry about the potential loss of native Uzbek words and linguistic identity.

Main body

Why Does Uzbek Borrow Words from English?

Several factors contribute to the borrowing of English words into Uzbek:

First factor is **Globalization**. What I mean by this is that English is the dominant language in international communication, trade, and technology. As Uzbekistan integrates with the global economy, the need for English terms increases.

Second is **Advancements.** Precisely, most modern technologies originate from English-speaking countries, leading to the adoption of related terms.

Next one is **Media and Pop Culture**. The influence of English-language movies, music, TV shows, and social media introduces new words into everyday Uzbek speech.

Last one is **Economic and Business Development**. Many international business terms come from English, making their way into Uzbek financial and corporate vocabulary.

Now I am going to give some **Examples of English Borrowed Words in Uzbek**

Starting with **Technology and Science,** they are:

- kompyuter (computer)
- internet (internet)
- printer (printer)
- protsessor (processor)
- monitor (monitor)
- fleshka (flash drive)

Another field is **Business and Finance**

- biznes (business)
- menedjer (manager)
- marketing (marketing)
- investitsiya (investment)
- bonus (bonus)
- bankrot (bankrupt)

Then, **Sports and Entertainment**

- futbol (football/soccer)
- basketbol (basketball)
- tennis (tennis)
- trener (trainer/coach)
- rekord (record)
- shou (show)

Next is **Everyday Life and Communication**

- start (start)
- status (status)
- intervyu (interview)
- serial (TV series)
- brifing (briefing)

Moreover is **Education and Academia**

- universitet (university)
- seminar (seminar)
- test (test/exam)
- leksiya (lecture)
- kurs (course)
- diplom (diploma)

The following is **Health and Medicine**

- doktor (doctor)
- virus (virus)
- shok (shock)
- meditsina (medicine)
- apteka (pharmacy)
- psixolog (psychologist)

Further one is **Fashion and Lifestyle**

- stil (style)
- model (model)
- dizayn (design)
- trend (trend)
- brend (brand)
- parfyum (perfume)

Additionally, **Politics and Law**

- lider (leader)
- partiya (party - political)
- deputat (deputy/member of parliament)
- konstitutsiya (constitution)
- press-konferensiya (press conference)
- prokuror (prosecutor)

Las but not least is **Technology and Social Media**

- bloger (blogger)
- skrinshot (screenshot)
- selfi (selfie)
- chat (chat)
- post (post - social media)
- login (login) [3]

Impact of borrowed words on Uzbek

The introduction of English words into the Uzbek language has both benefits and drawbacks, influencing how people communicate and how the language evolves.

Positive Effects:

- Expands vocabulary – The addition of new words enables Uzbek speakers to express modern ideas more effectively.
- Enhances international communication – Borrowed terms make it easier for Uzbeks to engage with the global community.
- Simplifies learning – Since many scientific and technical terms are universally recognized, translation challenges are minimized.

Negative Effects:

- Loss of native words – Some traditional Uzbek words may gradually fall out of common use.

- Pronunciation and spelling difficulties – Adapting English words to Uzbek phonetics and grammar can be challenging.
- Excessive foreign influence – Overuse of borrowed words may create a linguistic blend that reduces clarity in communication. [5]

Conclusion

The incorporation of English words into Uzbek reflects broader trends of globalization, technological advancement, and cultural interaction. As Uzbekistan continues to modernize and strengthen its international ties, it is natural for English terms—particularly in business, science, technology, and entertainment—to become a regular part of everyday language. This integration helps Uzbek speakers communicate more efficiently in a globally connected world, making it easier to adopt new concepts and engage in international discussions.

However, while borrowing words enriches the Uzbek language by broadening its vocabulary, it also presents certain challenges. The excessive reliance on foreign terms, especially when suitable Uzbek equivalents exist, can gradually diminish the use of native words. Some scholars and language preservation advocates worry that this trend could weaken the structure of Uzbek, leading younger generations to favor English-derived words over traditional ones. This raises concerns about the long-term impact on Uzbekistan's linguistic heritage and identity. [6]

To maintain a balance, it is important to integrate borrowed words in a way that complements rather than replaces native Uzbek terms. Language policies, educational programs, and media initiatives can play a key role in ensuring the language continues to evolve while preserving its originality. Encouraging bilingualism and proficiency in both Uzbek and English can also help individuals navigate both local and global contexts effectively. [7]

In the end, language is constantly changing. The adoption of English words into Uzbek is a natural part of this evolution, driven by necessity and convenience. Rather than perceiving this process as a threat, it can be seen as an opportunity to improve communication, embrace progress, and celebrate linguistic diversity. By taking a thoughtful and balanced approach, Uzbek speakers can ensure that their language remains both modern and deeply rooted in its rich historical and cultural traditions.

Used literature

1.Haugen, E. (1950). "The Analysis of Linguistic Borrowing."

2.Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics.

3.Hasanova, D. (2010). "Lexical Borrowings in Modern Uzbek: The Influence of English and Russian."

4.Oxford English Dictionary (OED

5.Poplack, S., & Sankoff, D. (1984). "Borrowing: The Synchrony of Integration." and Komilov, N. (2017). O'zbek Tilining Lug'ati: Zamonaviye So'zlar va Atamalar

6.Winford, D. (2003). An Introduction to Contact Linguistics.

7.Uzbek National Encyclopedia (2000-2005).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Samatov Farxod Muminovich
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: farkhod.samatov@bk.ru

UDK: 811.82.42.14

“TELEVIDENIYE” SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRLIKLARINING ANTONIMIK MUNOSABATLARI

***Annotatsiya**: «Televideniye» semantik maydonidagi leksik birliklar o‘rtasida antonimik munosabatlar ularning axborot uzatish usullari, texnologik jihatlari va kommunikativ funksiyalariga asoslanadi. Ushbu maqolada “televideniye” semantik maydoni leksik birliklarining antonimik munosabatlari tahlil qilingan, tadqiq etilayotgan mavzu misollar asosida keng tushuntirib berilgan va xulosaviy fikrlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Televideniye, semantik maydon, leksik birlik, antonimik munosabatlar, atama, semalar, antisemiya, turkum, sinfikatsiya.*

Саматов Фарход Муминович
Преподаватель Термезского государственного университета

АНТОНИМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «ТЕЛЕВИДЕНИЯ»

***Аннотатация:** Антонимические отношения между лексическими единицами в семантическом поле «телевидение» определяются их способами передачи информации, технологическими аспектами и коммуникативными функциями. В данной статье анализируются антонимичные отношения лексических единиц в семантическом поле «телевидение». приведены примеры, на основе которых дается подробное объяснение, а также представлены итоговые выводы.*

***Ключевые слова:** телевидение, семантическое поле, лексическая единица, антонимические отношения, термин, семы, антисемия, категория, синификация.*

Samatov Farkhod Muminovich
Teacher at Termez State University

ANTONYMIC RELATIONS OF LEXICAL UNITS OF THE SEMANTIC FIELD OF «TELEVISION»

***Annotation**: Antonym relationships between lexical units in the semantic field of «television» are based on their methods of information transmission, technological aspects, and communicative functions. The article analyzes the antonymic relationships of lexical units in the semantic field of «televisual media». it provides a comprehensive explanation through examples and presents conclusive remarks based on the analysis.*

***Key words:** television, semantic field, lexical unit, antonymic relations, term, semes, antisemy, category, synification.*

Kirish.

Televideniye ommaviy axborot vositalaridan biri bo‘lib, uning semantik maydoni kengdir, chunki u ijtimoiy, texnologik, madaniy va kommunikativ elementlarni o‘z ichiga oladi. «Televideniye» semantik maydonidagi leksik birliklar o‘rtasida antonimik munosabatlar ularning axborot uzatish usullari, texnologik jihatlari va kommunikativ funksiyalariga asoslanadi. Bunday munosabatlar odatda media kontenti va uning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, turli texnologiyalar va usullarning qarama-qarshiligini aks ettiradi. Leksik birliklar o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilik ularning sememalari (ma’nolarining kichik birliklari) asosida yuzaga keladi va bunday semalar qarama-qarshiligi – antisemiya nafaqat bitta turkum, balki turli turkumdagi so‘zlar munosabatida ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Zid ma’nolilik sinfikatsiyasi, borliqning asosiy mezonlaridan biri sifatida, tadqiqotchilar tomonidan doimo muhokama qilinadi. Uning tildagi ifodasi, asosan,

antonimiya nomi ostida talqin qilinadi va bu haqda ko‘plab ilmiy ishlarda ma’lumotlar keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili.

Leksik birliklar o‘rtasidagi antonimik munosabatlarni ilmiy o‘rganishda bir qator olimlar va ularning ilmiy asarlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, rus tilshunosligidagi L.A.Novikov [5], V.A.Ivanova [5], N.Miller [3] kabi tilshunoslarning ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir. Rus tilshunosi va filologi V.V.Vinogradovning “Очерки по русской семантике” [4] ва “Семантика и лексика” ilmiy risolalarida antonimlarni tilning strukturasida semantik jihatdan farqlashni ta’kidlangan va leksik antonimlarni yaratishda «oppozitsiya» (qarama-qarshilik) tamoyilini ilgari surilgan. Shuningdek, Kaliforniya universiteti professori, lingvist Charlez J.Filmor o‘zining “The Case for Case”, “The Role of Semantic Structures in the Grammar of English” [1] kabi ilmiy asarlarida kognitiv lingvistikada antonimiyaga doir tadqiqotlarni olib borgan. U antonimlarni semantik ramkalar (frame semantics) orqali o‘rganishni ilgari surdi. Bu yondashuvda antonimlar bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan semantik strukturalar sifatida tasvirlanadi, va ularning ma’nolari lingvistik jarayonlarda qanday o‘zgarishini tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy ingliz tilshunosligida anatomiya hodisasi lingivistik fenomen sifatida keng tadqiq etilib, uning yangi imkoniyatlari e’lon qilinib borilmoqda. Misol uchun, Michael Halliday «An Introduction to Functional Grammar» [2] asarida diskursiv va kognitiv yondashuvlarini tadqiq etib, tilning «anatomiya»sini, ya’ni grammatik tizimlarning funksional roli va ularning kommunikativ vazifalarini o‘rganishni davom ettirmoqda. Ushbu tadqiqotchilarning asarlari antonimiyada turli yondashuvlarni ishlab chiqish va tilshunoslikning semantik, struktural, kognitiv va funksional nuqtai nazaridan yangi bilimlar yaratish uchun asos bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola “Televideniye” semantik maydoni leksik birliklarining antonimik munosabatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, mavzuni yoritib berishda lingvistik, kulturologik, pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan. `

Tahlillar va natijalar.

Televideniye leksikasining antonimik munosabatlarini tadqiq etish metodologiyasi o‘z ichiga tilshunoslik, madaniyatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va psixologiya kabi sohalarni oladi. Har bir metodologik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari va tadqiqotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullari mavjud. Bu metodlarni kombinatsiyalash orqali televideniye kontentida antonimlarning qanday ishlatilishini, ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini yaxshiroq tushunish mumkin. Shuningdek, tadqiqotda asosiy manba sifatida televideniye dasturlari, reklama, yangiliklar, seriallar, film, hujjatli va boshqa telekommunikatsion kontentdan iborat korpus yaratiladi. Korpusning turli xil shakllari, jumladan, matnlar (transkriptlar, dasturlar matnlaridan yoki ko‘rsatuvlarning ssenariylaridan foydalanish) va audio-visual kontent (video materiallar va dasturlarning transkriptlari) foydalinish mumkin. Televideniye kontentini tahlil qilishda, ayniqsa, vizual va audio komponentlarni hisobga olish zarur. Chunki televizion dasturlarda antonimlar ko‘pincha faqat matn bilan cheklanmaydi, balki vizual va tovushli komponentlar orqali ham o‘zaro qarama-qarshi ma’no ifodalanadi [4].

Televideniyega oid leksik birliklarni antonimik munosabatlarini tahlil qilganda, avvalo, uni quyidagicha ya’ni kontentlarning mavzulashtirilgan turlari *(Content Type)*, texnik nuqtai nazardan *(technical aspects)*, telemahsulotlarni tomoshabinlarga yetkazish usullari *(viewing experience)*, dasturlash va auditoriyaga oid leskik birliklar asosida *(programming and audience)*, madaniy va ijtimoiy jihatlariga ko‘ra *(cultural and social aspects)*, ishlab chiqarish elementlariga asoslanib *(production elements)* o‘rganish o‘rinlidir.

Shulardan kelib chiqib, tahlilimizni quyidagi misollar va sharhlar orqali tushuntirib berishni o‘rinli deb topdik.

1) TV kontentlarining mavzulashtirilgan turlariga oid leksik birliklarni antonimik jihatdan ko‘rib chiqqanimizda quyidagi so‘z va birikmalar yuzaga chiqdi. Misol uchun, ***reality (haqiqat) va fiction (fantastika).*** Realiti-shoularda real voqealar yoki yozilmagan kontent tasvirlansa, fantastika esa xayoliy matnlar, ssenariyli dramalar yoki hikoyalarni o‘z ichiga oladi. ***Educational (ta’limiy)*** *va* ***Entertainment (ko‘ngilochar)*** ta’lim dasturlari ma’lumot berish yoki o‘rgatish maqsadini ko‘zlaydi, ko‘ngilochar shoular esa birinchi navbatda zavq yoki o‘yin-kulgini ta’minlashga qaratilgan. ***Infotainment (axborot-ko‘ngilochar) va Pure Information (sof ma’lumotlar)*** axborot-ko‘ngilochar ma’lumotni o‘yin-kulgi bilan aralashtirib yuboradi, sof ma’lumot esa faktlarni yumorsiz etkazishga qaratilgan [2].

2) Texnik nuqtai nazardan leksik birliklarni antonimlik shakllari quyidagi atamalarda aks etadi. ***High Definition (HD) (yuqori aniqlik) va Standard Definition (SD) (standart aniqlik)*** HD ko‘proq pikselli, aniqroq tasvirlarni taqdim etadi, SD esa kamroq piksellar soniga ega. ***4K va 1080p***, 4K 3840 x 2160 piksel ultra yuqori aniqlikdagi piksellar sonini taklif qiladi, 1080p (Full HD) esa 1920 x 1080 pikselli ruxsatga ega. ***Mono Audio (bir ovozli) vs Stereo Audio (bir necha ovozli)***: mono audio - bu bitta ovozli kanal, stereoda esa kengroq ovoz tajribasi uchun ikkita kanal mavjud bo‘ladi. ***Analog*** ma’lumotlar uzluksiz tarzda o‘tadi va har qanday qiymatga ega bo‘lishi mumkin, ***digitalda*** esa ma’lumotlar faqat aniq raqamli qiymatlar (0 va 1) sifatida uzatiladi. ***Closed Captioning (taglavhali) va No Captioning (taglavhasiz)*** **:**

yopiq taglavhada eshitish qobiliyati zaiflar uchun matn beriladi, ba'zi TV-dasturlarda esa bu xususiyat mavjud emas [3].

3) Telemahsulotlarni tomoshabinga yetkazish usullariga oid terminlarni o'rganganimizda quyidagi so'zlarda antonimik munosabatlarni uchratdik. ***Live (jonli)*** *va* ***Recorded (yozib olingan***): jonli ko'rsatuvlar real vaqt rejimida efirga uzatiladi, yozib olingan ko'rsatuvlar efirga uzatilgunga qadar oldindan suratga olingan va tahrirlangan bo'ladi. ***On-demand (talab bo'yicha)*** *va* ***scheduled programming (rejalashtirilgan)****:* talab bo'yicha ko'rish foydalanuvchilarga kontentni xohlagan vaqtda ko'rish imkonini beradi, rejalashtirilgan dastur esa belgilangan vaqtda efirga uzatiladi. ***Ad-Free (reklamasiz)*** Reklamasiz kontentda reklamalar uchun uzilishlar yo'q, ammo ***Commercial Breaks (reklamali)*** reklama esa ko'pchilik shoularda odatiy uzilishlardir. ***Streaming va Broadcasting*** leksikasida ham aniq farqni ko'rish mumkin, bu esa ular o'rtasida antonimik munosabat borligini ifodalaydi. ***Streaming*** kontentga internet orqali onlayn kirish imkonini beradi, ***broadcasting*** esa an'anaviy efir to'lqinlari, kabel yoki sun'iy yo'ldosh orqali signallarni yuboradi. ***Linear TV (chiziqli) va Non-linear TV (nochiziq)*** atamalari ko'pincha texnologik o'zgarishlar va media iste'molining yangi shakllari bilan bog'liq ravishda ishlatiladi, chiziqli TV qat'iy jadvalga amal qiladi, bunda tomoshabinlar dasturlarni ma'lum vaqtlarda ko'rishlari kerak, nochiziqli TV (masalan, oqim xizmatlari) tomoshabinlarga nima va qachon tomosha qilishni tanlash imkonini beradi [1].

4) dasturlash va tomoshabinlar ommasi uchun qo'llaniladigan leksik birliklar o'rtasida ham qarama-qarshilik kuaztiladi. Misol uchun, ***Prime Time*** *va* ***Off-Peak Time*** so'zlari bir-birini o'zaro zidlaydi. Misol uchun, *Prime time* (yuqori talabli vaqt) eng katta auditoriya tomosha qilishi kutilgan vaqtdir, odatda kechqurungi paytga to'g'ri keladi, *off-peak time* (kam talab vaqt) bunday vaqtlarda esa tomoshabinlar kamroq bo'ladi. ***Local Channel (mahalliy kanal)*** *va* ***National Network (milliy tarmoq)*** mahalliy kanallar ma'lum bir hududgagina xos bo'ladi va torroq tushuncha ifodalaydi, milliy tarmoq esa ko'p tomoshabin auditoriyasiga ega bo'lib, kengroq ma'no ifodalaydi [1].

5) tomoshabinlarning media yoki kontentga bo'lgan faol ishtiroki va uning bilan o'zaro aloqasini ifodalovchi atamalar, ayniqsa, televizion dasturlar, onlayn kontent, ijtimoiy media va boshqa ommaviy axborot vositalariga doir faoliyatni tasvirlash uchun ishlatiladi. Misol uchun, ***interactive (ko'ngilochar) va non-interactive (ko'ngilochar bo'lmagan, jiddiy)*** teleko'rsatuvlarda tomoshabin ikki xil hissiyotni sezadi. ***Viewer Voting (tomoshabin ovozi inobatga olinadigan) va Pre-determined Outcomes (tomoshabin ovozisiz)*** tayyorlanadigan teleloyihalar xususida so'z borganda ushbu terminlar faol qo'llaniladi [3].

6) madaniy va ijtimoiy jihatdan televideniyega oid so'zlarning antonimik munosabatlari quyidagi terminlarda o'z aksini ko'rsatadi. ***Positive Portrayal (ijobiy tasvir) va Negative Portrayal (salbiy tasvir)*** so'zlari o'rganilganda, positive portrayals, ya'ni ijobiy tasvirlar kayfiyat ko'taruvchi, ilhomlantiruvchi mavzular yoki personajlarni ifodalaydi, salbiy tasvirlar esa zarar, ziddiyat yoki salbiylikka qaratilgan mavzularni o'z ichiga oladi. ***Stereotypical (stereotipik)*** tasvirlar personajlarning guruh identifikatsiyasiga asoslangan, odatdagi va soddalashtirilgan tasvirlarga tayanadi, ***non-stereotypical (no-stereotipik)*** tasvirlar esa ko'proq xilma-xil va nozik personajlarni ko'rsatadi [4].

7) Hozirda telemahsulotlarni tomosh qilish usullari ham kengayib bormoqda, ilgari faqatgina telekran orqali ko'rsatuv, film, tok-shoularni kuzatgan bo'lsak endlikda zamonaviy qurulmalarning hayotimizga faol kirib kelishi evaziga imkoniyatlar kengaydi, bu esa tilda o'z aksini topadi. ***Televizor (television)*** orqali ko'rish va ***mobil qurilmalar (mobile viewing)*** kuzatish so'zlari nutqimizda faollashdi, ayni so'zlarning muloqotlar jarayonida qo'llanilishi antonimlik shakllarini hosil qildi. ***Binge-Watching va Weekly Viewing terminlari*** ham media soxasida ko'p qo'llanilayotgan so'zlardan hisoblanadi. **Binge-watching** bir vaqtning o'zida bir nechta epizod yoki butun mavsumni tomosha qilishni anglatadi, **haftalik tomosha qilish** esa an'anaviy chiqarish jadvaliga amal qiladi.

Xulosa.

Leksik birliklarning tahlilini kengaytirish orqali «Televideniye» semantik maydonidagi antonimik munosabatlar bo'yicha tadqiqotlarni yanada dolzarbligini oshirish zarur. Bu tahlillarni boshqa ommaviy axborot vositalari, masalan, radio va internet platformalari bilan solishtirish mumkin. Shuningdek, madaniyatlararo tadqiqotlar turli madaniyatlar va tillarda televideniye tilining antonimik munosabatlarini o'rganish, ularning ijtimoiy va madaniy ta'sirlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, turli xalqlar va mintaqalar orasida qanday farqlar borligini aniqlash qiziqarli bo'lishi mumkin.

Maqolada televideniye semantik maydonidagi leksik birliklar o'rtasidagi antonimik munosabatlar keng tahlil qilindi. Tadqiqotning davomida televideniye kontentining turli jihatlari, texnologik xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati orqali antonimlar o'rtasidagi aloqalar ochib berildi. Kelgusida bunday tahlillarni yanada chuqurlashtirish va boshqa tillardagi media kontentlari bilan solishtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asarda muallif "Ishkamba" laqabi bilan tanilgan kishidan yaxshilik kutib bo'lmasligi haqidagi fikr orqali jamiyatda ayrim shaxslarning ma'naviy qashshoqligi tufayli boshqalarga yordam qo'lini cho'zishga tayyor emasligini ko'rsatadi. Asarda bu holat ma'naviy tanazzulning muhim jihatlaridan biri ekanligi mahorat bilan tasvirlangan. Bu qarashlar ijtimoiy ishonchsizlik, shaxsiy manfaat, axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi kabi illatlarga olib borishi ustalik bilan yoritib berilgan. Ijtimoiy ishonchsizlik muhitida yaxshi xulq-atvor va axloqiy me'yorlar zaiflashib, odamlar bir-biridan yaxshilik kutmay qo'yadi. Ushbu holat ijtimoiy birdamlikning yemirilishiga olib keladi. Bu kabi jamiyatda shaxsiy manfaat omma manfaatidan ustun turadi. Bu esa odamlarning ehtiyojlari va muammolari jiddiy qabul qilinmayotganini, ma'naviyat o'rnini beparvolik egallayotganini ko'rsatib beradi. Bu kabi jamiyatlarda axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi yuz beradi. Kishilarga berilayotgan laqablar ham ularning axloqiy darajasi bilan bog'liq bo'lib, "Ishkamba" laqabi uning hurmatsiz, manfaatparast yoki o'zgalarga yordam bermaydigan shaxs ekanligiga ishora qiladi. Bu esa jamiyatda axloqiy qadriyatlarning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.

Demak, adib ushbu keltirilgan fikrlari orqali aks etgan hodisa jamiyatda ma'naviy tanazzul qanday namoyon bo'lishi va uning oqibatlari haqida o'ylashga undaydi. Agar insonlar bir-biriga nisbatan befarq bo'lsa, axloqiy qadriyatlar yo'qolib boraversa, jamiyatdagi birlik va insoniylik tushunchalari zaiflashib borishini tasvirlab bergan.

“Sudxo‘rning o‘limi” asarida muallif xasislikning o‘ta yorqin ko‘rinishini quyidagicha tasvirlaydi: “Bunday katta sallani haftada bir jomashovga solish mumkin emas, – dedi Qori Ishkamba, – u holda sovunning uyi kuyadi” [1].

Ushbu jumla orqali Qori Ishkamba “katta salla” – ya’ni, qimmatbaho yoki katta hajmdagi narsalarni parvarish qilish uchun yetarli mablag‘ ajratishga tayyor emasligini bildiradi. Uning “sovunning uyi kuyadi” degan gapi xasislikning aynan timsolidir. U o‘zining katta sallasini haftada bir marta yuvishdan ham qochmoqda, chunki sovunning kamayishi unga zarar bo‘lib ko‘rinadi.

Quyidagi jumlada ham asar qahramonining xasisligi yaqqol aks etgan: “Bu sallam – yirtish oluvchi salla, – dedi Qori Ishkamba javobida, – buni boshimga o‘rab mozor boshida, o‘liklarni ko‘mayotgan chog‘da hozir bo‘lsam, boshqa odamlarga bir gazdan yirtish berayotgan bo‘lsalar, menga ikki gaz beradilar [1].

Ushbu fikr orqali xasislik va manfaatparastlikning yana bir ko‘rinishi ochib berilgan. Qori Ishkamba sallasini o‘lik ko‘mish marosimida ataylab kiyib borishi – uning moddiy manfaat ortidan quvishini, hatto marosimlar orqali ham foyda olishga intilishini ko‘rsatadi. Bu holat xasislikning quyidagi jihatlarini ko‘rsatadi: Qahramon o‘z sallasini “yirtish oluvchi salla” deb ataydi, ya’ni u bu kiyimni faqat marosimda boshqalardan ko‘proq mato olish uchun kiyadi. Bu esa xasis odamlarning hatto ezgu ishlar (jasadni ko‘mish kabi) orqali ham shaxsiy foyda izlashini va o‘z manfaatini ustun ko‘rishini bildiradi. Qori Ishkamba marosimga chin dildan ishtirok etish uchun emas, balki ko‘proq mato olish uchun boradi. Bu esa uning munofiqona xatti-harakatini fosh qiladi. U o‘zini jamiyatda hurmatli, diniy marosimlarga qatnashadigan odam sifatida ko‘rsatadi, lekin asl maqsadi moddiy manfaat olish hisoblanadi. Bunday odamlar jamiyatda biror ezgu ishni ham manfaat ko‘zlamay bajara olmaydigan odamlarga aylanadi. Ular saxovat, fidoyilik kabi qadriyatlarni unutib, hamma narsadan moddiy naf olishga harakat qiladi. Qori Ishkamba uchun o‘likni dafn qilish – bu xayrli amal emas, balki ko‘proq mato olish uchun imkoniyat deb tasvirlangan.

Xasislik va manfaatparastlik jamiyatning axloqiy qadriyatlarini yemiradi. Agar inson har bir ishda faqat o‘z foydasini o‘ylasa, ezgulik, fidoyilik va boshqalarga yordam berish tushunchalari yo‘qolib boradi. Shuning uchun inson o‘z niyatini pok saqlashi, yaxshi ishlarni manfaat kutmay bajarishi lozim. Haqiqiy saxovat faqat moddiy jihatdan emas, balki qalb saxovati bilan ham namoyon bo‘lishi kerakligini yozuvchi quyidagi fikrlari orqali tushuntirib berishga harakat qilgan:

“Men kunda peshin namozi vaqtida Devonbegi xonaqohining sahnida hozir bo‘laman. Janoza o‘qish uchun u yerga keltirilgan har bir o‘likning (tanish bo‘lsin, bo‘lmasin) «xudoyi» janozasini o‘qib, uning orqasidan qabristongacha boraman va nasibaga yarasha yirtish olib qaytaman. Agar o‘lik egalari meni tanimasalar yana ham yaxshiroq, u vaqtda sallamning kattaligiga qarab kattaroq yirtish beradilar” [1].

Ushbu parcha orqali xasislikning yanada chuqurroq ko‘rinishi tasvirlab berilgan. Qori Ishkamba o‘zini dinga sodiq, marhumlarning janozasini o‘qiydigan inson sifatida ko‘rsatadi, lekin aslida u bu harakatlarni shaxsiy manfaat olish uchun bajaradi. Uning “o‘lik egalari meni tanimasalar, yana ham yaxshiroq”, – degan fikri esa xudbinlik va manfaatparastlikning haddan tashqari oshib ketganini ifodalagan.

Janoza o‘qish va marhumni oxirgi yo‘lga kuzatish – bu diniy hamda insoniy burch. Lekin Qori Ishkamba bu ibodatni ezgulik uchun emas, balki “nasibaga yarasha yirtish olish” uchun bajarishi va bu holat diniy qadriyatlarning pul yoki moddiy manfaat bilan o‘lchanayotganining yorqin misolidir. Uning har kuni peshin namozida xonaqohga borib, o‘liklarning janozasida qatnashishi sun’iy dindorlik bo‘lib, aslida u marosimlarning ruhiy va diniy ahamiyatini tushunmasligini ko‘rsatib bergan. Uning “salla kattaroq bo‘lsa, ko‘proq mato berishadi”, – degan fikri esa taqvo niqobi ostidagi hiylakorlikni mohirona tasvirlab bergan. Bunday odamlar odamiylik tushunchalarini buzadi, chunki ular jamiyatda haqiqiy ezgulik, saxovat va fidoyilik kabi qadriyatlarni soxta manfaatlar bilan almashtirib yuboradi. Agar jamiyatda Qori Ishkamba kabi odamlar ko‘payaversa, ezgu amallarni qiladigan chin dildan yordam beruvchilar tobora kamayib boradi. Xasislik va manfaatparastlik insonni eng muqaddas ishlarni ham tijoratga aylantirishga olib keladi [5].

Xulosa.

Xasislik insonni shunchalik darajaga olib keladiki, hatto eng oddiy va tabiiy harakatlar uchun ham pul to‘lashni istamaydi. Halol mehnat uchun xizmat haqi to‘lanishi kerak, chunki bu jamiyat taraqqiyoti va mehnatkashlarning hayotiy ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur. Xasislik nafaqat insonning o‘ziga, balki butun jamiyatga zarar yetkazadigan illatdir. Xulosa o‘rnida shuni aytish keraki, “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi insoniy fazilatlarning qadrsizlanishi, ochko‘zlik va manfaatparastlikning jamiyatga salbiy ta’sirini ochib beradi. Sadriddin Ayniy bu asari orqali nafaqat o‘z davrining muammolarini yoritgan, balki universal axloqiy saboq ham bergan. Asarda Qori Ishkamba obrazi orqali insonlarning axloqiy tanazzuli va ijtimoiy ishonchsizlik tasvirlangan bo‘lib, bu muammolar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Asar o‘quvchini halollik, adolat va saxovat kabi qadriyatlar ustida o‘ylashga undaydi. Sadriddin Ayniy o‘zining bu asari bilan nafaqat o‘z davri jamiyatiga tanqidiy qarash bildirgan, balki butun insoniyatga universal axloqiy saboq ham bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Ayniy S. Sudxo'rning o'limi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1980. – 306 b.

2.Davronovna M. M., Muhammadiyevna D. S. Tilshunoslikda evfemizmlarni o'rganishning ahamiyati. International Conference On Linguistics, Literature And Translation. – London. 2024. – Pp. 22-25.

3.Karimov B. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 402 b.

4.Mardanova M. Semantic characterise of English Jargonisms. Журнал Иностранных Языков И Лингвистики. 2021. – С. 132-137.

5.Murodov A. Sadriddin Ayniy ijodiyoti. – Dushanbe: Irfon, 2005. – 156 b.

6.Xasanov A.I. Badiiy asar terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili. Monografiya. – Toshkent: Science and innovation, 2024. – 198 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xayitova Rushana Ximoyiddin qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: rushanaxayitova310@gmail.com

UDK: 811.82.45.76

NOSTALGIK LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nostalgik leksik birliklarning semantik tahlili yoritiladi. Nostalgiyaning lingvistik ifodasi, uning polisemiya xususiyati va kontekstga qarab qo‘shimcha semantik qatlamlarga ega bo‘lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, nostalgik birliklarning denotativ va konnotativ ma’nolari, ularning shaxsiy va jamiyat xotirasidagi roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda nostalgik so‘zlarning semantik evolyutsiyasi va turli kontekstlardagi talqini misollar bilan izohlanadi. Maqolada G. Lakoff va U. Croftning semantik nazariyalari asosida nostalgik leksik birliklarning til tizimidagi funksional o‘rni ochib beriladi. Ushbu tadqiqot tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun dolzarb bo‘lib, nostalgik birliklarning kognitiv va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga ilmiy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *nostalgiya, nostalgik leksik birliklar, semantik tahlil, polisemiya, konnotativ ma’no, denotativ ma’no, semantik evolyutsiya, madaniy xotira.*

Хаитова Рушана Химойиддин кизи
Исследователь Денауского института предпринимательства и педагогики

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НОСТАЛЬГИЧЕСКИХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация*: В данной статье рассматривается семантический анализ ностальгических лексических единиц. Анализируется лингвистическое выражение ностальгии, ее полисемия и способность приобретать дополнительные семантические оттенки в зависимости от контекста. Также исследуются денотативные и коннотативные значения ностальгических единиц, их роль в личной и коллективной памяти общества. В исследовании объясняется семантическая эволюция ностальгических слов и их интерпретация в различных контекстах на примерах. На основе семантических теорий Дж. Лакоффа и У. Крофта раскрывается функциональная роль ностальгических лексических единиц в языковой системе. Данное исследование актуально для лингвистики и культурологии, поскольку создает научную основу для дальнейшего изучения когнитивных и прагматических характеристик ностальгических единиц.*

Ключевые слова: *ностальгия, ностальгические лексические единицы, семантический анализ, полисемия, коннотативное значение, денотативное значение, семантическая эволюция, культурная память.*

Khayitova Rushana Khimoyiddin kizi
Researcher at Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

SEMANTIC ANALYSIS OF NOSTALGIC LEXICAL UNITS

Abstract*: This article explores the semantic analysis of nostalgic lexical units. It examines the linguistic expression of nostalgia, its polysemy, and its ability to acquire additional semantic layers depending on the context. The study also investigates the denotative and connotative meanings of nostalgic units and their role in individual and collective memory. The research explains the semantic evolution of nostalgic words and their interpretation in various contexts through examples. Based on the semantic theories of G. Lakoff and W. Croft, the article reveals the functional role of nostalgic lexical units in the language system. This study is relevant to linguistics and cultural studies as it provides a scientific foundation for further exploration of the cognitive and pragmatic characteristics of nostalgic units.*

Keywords: *nostalgia, nostalgic lexical units, semantic analysis, polysemy, connotative meaning, denotative meaning, semantic evolution, cultural memory.*

Kirish.

Nostalgiya – baxtli va qayg‘uli tuyg‘ularning aralashmasidir. Bu o‘tmishni xotiraga olganingizda paydo bo‘ladigan, iliq va yoqimli tuyg‘u bo‘lib, o‘sha davrlarning o‘tib ketganiga ozgina qayg‘u bilan aralashadi. Shuningdek, nostalgiya his-tuyg‘ularini ifodalovchi so‘zlar, ya’ni nostalgik leksik birliklar, tilimizda o‘tmishga bo‘lgan iliq va qayg‘uli hissiyotlarni aks ettiradi. Bundan tashqari, shuni ham ta’kidlash joizki, nostalgik leksik birliklar o‘tgan davrga oid tushunchalar, hodisalar va tajribalarni esga soluvchi so‘z va iboralardir. Ular til tizimida muhim o‘rin tutib, jamiyatning madaniy, tarixiy va psixologik jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, ijtimoiy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida avlodlararo bog‘liqlikni ta’minlash, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish va sotsiomadaniy anglash jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolaning maqsadi ham nostalgik leksik birliklarning semantik tahlilini o‘rganish, ularning til tizimidagi funksional xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili.

Nostalgik leksik birliklarning semantik jihatlarini turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish davom etmoqda. Tadqiqotchilar nostalgiya tushunchasini tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilmoqdalar.

“Nostalgik” atamasi yunoncha “*nostalgia*” (nostalgiya) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u qadimgi yunoncha *νόστος* (nóstos) – “*uyga qaytish*” va *ἄλγος* (álgos) – “alam, sog‘inch” [5] degan ma’no beruvchi so‘zlaridan tarkib topgan. Ushbu atama ilk bor 1688-yilda shveytsariyalik shifokor Johannes Hofer (1669-1752) tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u ushbu atamani uzoq yurtlarda xizmat qilayotgan askarlarning vatan sog‘inchini ifodalash uchun ishlatgan. Hofer nostalgiya yoki fransuzcha *mal du pays* (“uyga sog‘inch”) atamasini *mal du Suisse* (“Shveytsariya kasalligi”) deb ham atashni tavsiya qilgan [6]. Bu nomlanish Shveytsariyaning tekisliklarida xizmat qilayotgan yollanma shveytsariyalik askarlarda o‘z yurtlarining manzaralarini sog‘inish holati tez-tez kuzatilgani sababli paydo bo‘lgan. S.Boym nostalgiya tushunchasini ayni vaqtda mavjud bo‘lmagan yoki hech qachon mavjud bo‘lmagan uyga bo‘lgan sog‘inch sifatida ta’riflaydi [1]. G.Lakoff [5] va U.Croft [2] tadqiqotlari nostalgik leksik birliklarning semantik xususiyatlari ko‘p qirrali ekanligini dallillaydi.

Bugungi davrda “*nostalgiya*” atamaning yana bir qancha ma’nolarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, S.I.Ojegov lug‘atida: «Nostalgia – vatan sog‘inchi» [7] tarzida qayd etilgan bo‘lsa, Falsafa qomusiy lug‘atida esa nostalgiya madaniyatning universalligi, o‘tmishni yo‘qotish sifatida o‘ta keskin his-tuyg‘ularni aks ettiradigan tushuncha sifatida ta’riflanadi [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Nostalgik leksik birliklarning semantik tahliliga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy-kulturologik tahlil kabi metod va usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Tilshunoslik nazariyasida leksik birliklar tilning semantik va kommunikativ tizimini tashkil etuvchi asosiy elementlardir. Ularning turlanishi tilning lug‘aviy boyligini, madaniy an’ana va tarixiy tajribalarni aks ettirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Leksik birliklar ularning semantik vazifalari asosida quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Denotativ (obyektiv) ma’noli birliklar. Ushbu birliklar so‘zning asosiy, literal ma’nosini ifodalaydi. Ular real hayotdagi obyektlar, hodisalar yoki tushunchalarni aniq va to‘liq aks ettirishga mo‘ljallangan. Masalan, “*kitob*”, “*daraxt*”, “*maktab*”, “qalam”, “uy”, “stul”, “telefon”; *“car”, “house”, “apple”, “river”, “mountain”, “dog”, “chair”, “computer”* kabi so‘zlar ularning denotativ ma’nosi bilan aniq bir narsani bildiradi [3].

Konnotativ (subyektiv) ma’noli birliklar. Bu guruhdagi birliklar so‘zning asosiy ma’nosiga qo‘shimcha holda emotsional, madaniy, baholovchi yoki shaxsiy taassurotlarni ham yuklaydi. Ular gap konteksti va so‘z ishlatilishiga qarab qo‘shimcha ma’no qatlamlarini hosil qiladi. Shu bilan nutqda subyektiv tus va hissiy rang beradi. Masalan, “*uy*” so‘zi nafaqat binoni ifodalaydi, balki “*oilaviy issiqlik*”, “*xavfsizlik*” kabi hissiy ma’nolarni ham uyg‘otishi mumkin. “*Ona*” so‘zi nafaqat biologik ma’noda ayol-ona rolini bildiradi, balki mehr, himoya va mehribonlik kabi chuqur hissiy qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi. Ingliz tilidagi “*friend*” so‘zi nafaqat odamlar o‘rtasidagi do‘stlikni anglatadi, balki ishonch, yordam va qulaylik hislarini ham ifodalaydi. “*Freedom*” so‘zi nafaqat siyosiy va huquqiy holatni anglatadi, balki mustaqillik, xohish-iroda va imkoniyatlar kengligi kabi hissiy qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi.

Nostalgik leksik birliklarning kontekstual sharoitga qarab qo‘shimcha semantik qatlamlarga ega bo‘lishi ularning polisemiya xususiyatini tashkil etadi (*bolalik, vatan, memory, dream*). Ushbu murakkablik nostalgik tushunchaning ko‘p qirrali ifodasini ta’minlaydi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan nostalgiya bilan bog‘liq quyidagi misolni keltirish mumkin:

“*Bolalik – odam umrining eng beg‘ubor, eng go‘zal davri. O‘sha paytda yashagan har bir narsa – uyimiz, bog‘imiz, hatto to‘rt-besh yamoq urilgan eski chopon ham biz uchun qadrli bo‘lib qoladi*” [3].

Bu gapda “*bolalik*” tushunchasi shaxsiy xotiralar bilan bog‘langan holda qo‘shimcha semantik qatlam hosil qilgan. Bu nafaqat hayotiy bosqichni, balki beg‘uborlik, soddalik, quvonch va yo‘qotilgan o‘tmishga intilish kabi hissiy konnotatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu orqali nostalgik birliklarning polisemiya xususiyati namoyon bo‘ladi.

Polisemiya bitta leksik birlikning bir nechta, ammo o‘zaro bog‘liq semantik ma’nolarga ega bo‘lishidir. Nostalgik leksik birliklar bu jihatdan quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Kontekstual farqlanish: Masalan, “*bolalik*” so‘zi nafaqat shaxsiy tajribani ifodalashi, balki jamiyatning kollektiv xotirasini ham aks ettirishi mumkin. Bu holat nostalgik birliklarning turli kontekstlarda turlicha talqin qilinishiga imkon yaratadi [5].

Semantik evolyutsiya: Vaqt o‘tishi bilan leksik birliklar o‘zining asosiy ma’nosini kengaytirib, yangi semantik qatlamlarga ega bo‘ladi. Shu tarzda, nostalgik so‘zlar tarixiy va madaniy kontekstlarda qo‘shimcha ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, “*oila*” so‘zi dastlab insonlarning asosiy ijtimoiy birligi sifatida qabul qilingan. Ammo vaqt o‘tishi bilan u qo‘shimcha semantik qatlamlarga ega bo‘lib, oilaviy mehr, xavfsizlik, qo‘llab-quvvatlash va o‘tmishga bo‘lgan iliq xotiralarni ham aks tadqiq etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Boym S. Nostalgia and its discontents. – London: The Hedgehog Review, 2007. – 427 p.

2.Croft W. Explaining language change: An evolutionary approach. – Harlow: Pearson, 2000. – 287 p.

3.Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 208 b.

4.Kenny M. Back to the populist future?: Understanding nostalgia in contemporary ideological discourse. Journal of Political Ideologies, 2017. – P. 256–273.

5.Lakoff George. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 632 p.

6.Natali M. P. History and the Politics of Nostalgia. The Iowa Journal of Cultural Studies, 2004. – P. 10–25.

7.Ожегов С.И. Словарь русского языка. – Москва: Русский язык, 1975. – 846 с.

8.Философский энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1983. – 836 с.

ettira boshladi. Shu tarzda, “oila” so‘zi nafaqat biologik yoki ijtimoiy birlikni, balki nostalgiya bilan bog‘liq hissiyotlarni ham ifodalaydigan semantik evolyutsiyani namoyish etadi [4].

Xulosa.

Nostalgik leksik birliklar insonning shaxsiy va jamiyatning kollektiv xotirasida muhim o‘rin tutadi. Ular semantik jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, kontekstga qarab qo‘shimcha ma’nolar hosil qiladi va polisemiya xususiyatini namoyon etadi. Bu birliklar faqatgina o‘tgan davrni eslatib qolmay, balki shaxsiy va madaniy identifikatsiyani shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Nostalgik so‘zlar vaqt o‘tishi bilan semantik evolyutsiyaga uchrab, yangi ma’no qatlamlarini o‘z ichiga olishi orqali til tizimining dinamik xususiyatini aks ettiradi. Shu bois, nostalgiya va uning lingvistik ifodasi madaniy, tarixiy va psixologik jihatlardan

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti tayanch-doktoranti
e-mail:nuriddinsoliyev499@gmail.com

UDK: 8.1758

MEMUAR JANRINING NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya: *Adabiy tur va janrlar orasida qat'iy chegara mavjud emas. Badiiy asarlarni adabiy turlarga ajratishda ma'lum shartlilik bor, zero, bitta adabiy turga xos xususiyatlar boshqa bir adabiy turga mansub asarlarda ham aks etishi mumkin. Natijada, badiiy adabiyot rivoji davomida adabiy turlar bir-birini boyitadi.*

Maqolada memuar janrining o'ziga xos xususiyatlari borasida batafsil ma'lumot berilgan. Dabdabalikdan, manmanlikdan xoli, oddiy, ammo mardona uslubda, jonli va obrazli tarzda yozilgan, memuar janrining noyob na'munasi hisoblangan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridan parchalar misol tariqasida keltirilgan.

Kalit so'zlar:*Memuar janri, xotiralar, esdaliklar, eslatmalar, siyosiy xronika, faktik materiallar, biografik ma'lumotlar.*

Мухаммадзокирова Мохинур Мухторжон кизи
базовый докторант имени Алишера Навои Ташкентский
государственный университет узбекского языка и литературы

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ МЕМУАРНОГО ЖАНРА

Аннотация: *Строгой границы между литературными типами и жанрами не существует. В разделении произведений искусства на литературные жанры существует определенная условность, поскольку особенности одного литературного жанра могут быть отражены в произведениях, принадлежащих к другому литературному жанру. В результате в ходе развития художественной литературы литературные жанры обогащают друг друга.*

В статье представлена подробная информация об особенностях мемуарного жанра. В качестве примера приводятся отрывки из произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнома», написанного в простом, но смелом стиле, живом и образном, считающегося уникальным образцом жанра мемуаров.

Ключевые слова:*Мемуарный жанр, воспоминания, воспоминания, заметки, политическая хроника, фактические материалы, биографические сведения.*

Muhammadzokirova Mohinur Mukhtorjon kizi
basic doctoral student Tashkent State University of
Uzbek Language and Literaturenamed after Alisher Navoi

THEORETICAL ISSUES OF MEMOIR GENRE

Annotation:*There is no strict boundary between literary types and genres. There is a certain conditionality in the division of works of art into literary genres, since the characteristics of one literary genre can be reflected in the works belonging to another literary genre. As a result, during the development of fiction, literary genres enrich each other.*

The article provides detailed information on the specific features of the memoir genre. Excerpts from the work "Baburnoma" by Zahiriddin Muhammad Babur, written in a simple but courageous style, lively and figurative, considered a unique example of the genre of memoirs, are given as an example.

Key words: *Memoir genre, memories, memories, notes, political chronicle, factual materials, biographical information.*

Kirish

Memuarlar muallifning o'tmishda o'zi bevosita ishtirok etgan yoki shohidi bo'lgan voqealar haqidagi xotiralari bayon qilinuvchi adabiy asar hisoblanadi. Ular noyob shaxsiy hayot tajribasi va davrning tarixiy voqealari haqidagi ma'lumotlar manbasi sifatida, adabiyotning muhim tarkibiy qismidir.Janrning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishdan avval "memuar" termini

va uning lug‘aviy ma’nosiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Memuar so‘zi asli fransuzcha: u“xotiralar”, “esdaliklar” degan ma’nolarni bildiradi. Turli manbalarda turlicha nomlar bilan uchratish mumkin: memuarlar, xotiralar, esdaliklar, eslatmalar (ingliz adabiyotida “reminiscence”) kabi.

Uning asosiy vazifasi muallifning xotiralari yoki biron bir tarixiy hujjatlar asosida o‘tmish voqealarini aks ettirishdir. Shu jihatdan, memuarlarga ikki xil yondashuv mavjud. Bu janrning chegaradoshligi, ya’nikim, real tarixiy voqeliklar bayoni va muallif ichki kechinmalarining ifodalanishi.Bu uning tabiatini anglashda, estetik va tarixnavislik mezonlarini nazarda tutishni taqozo etadi. Estetik mezon nuqtai nazaridan yondashuv ushbu janrdagi asarlarning adabiy obro‘sini shakllantirishga yordam bersada, memuarlarning janr xususiyatlarini tushunish uchun yetarli emas. Tarixshunoslik yondashuvi esa bu janrning badiiy tabiatini qamrab ololmaydi. Ammo u janrning asosiy sifatlaridan biri – materialning haqqoniyligi va badiiy to‘qimaning yo‘qligini yaqqol ko‘rsatib beradi [2]. Memuarlarning tarixiy hujjat sifatidagi qimmati, ularga asos qilib olingan voqealarning mohiyati, bayonining izchil va aniqligi bilan belgilanadi [3].

Keyinchalik janrning rivojlanishi davomida uning chegaralari sezilarli darajada kengaydi va o‘zgardi. Tuzilishi murakkablashib, kompozitsiya, obrazlar tizimi, til va bayon shakli kabi unsurlari takomillashdi. Natijada, memuar janri badiiy adabiyotning mustaqil va to‘laqonli janriga aylandi[4].

Adabiyotlar tahlili

Memuarlarning badiiyligi masalasi uzoq yillar davomida adabiyotshunoslar tomonidan muhokama qilinib, badiiy va tarixiy jihatlari uyg‘unligi masalasida izlanishlar olib borilgan. Bu masala ayniqsa, Vissarion Belinskiy tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan bo‘lib, u memuarlarni, nafaqat, tarixiy hujjatlar to‘plami, balki inson ruhiy kechinmalari va davrning ijtimoiy muhitini badiiy ifodalash vositasi sifatida qaragan.

Belinskiy memuarlarning badiiyligi faqat voqealar haqqoniyligida emas, balki muallifning ichki dunyosini estetik shaklda aks ettirishida deb bilgan. Unga ko‘ra, memuarlarning badiiy qiymati ularning shaxsiy, falsafiy va hayotiy realizm tamoyillariga asoslanishida namoyon bo‘ladi[5]. Keyinchalik, uning an’analarini davom ettirgan F.M.Golovenchenko, A.Bogdanov, V.G. Korolenko, Levitskiy kabi olimlar tomonidan, memuar janrining o‘ziga xosligi masalasi yanada chuqurroq tahlil qilingan: F.M.Golovenchenko memuarlarni “badiiy va epik asar turlaridan biri”, deb ta’riflaydi [10].Bu ta’rif memuarlarning badiiy adabiyotga munosabatini ochib beradi.

A. Bogdanovning fikriga ko‘ra, xotiralar odamlarning o‘zlari kuzatgan yoki ishtirok etgan o‘tmishdagi voqealar haqidagi yozuvlar bo‘lib, ularga avtobiografiyalar, kundaliklar, eslatmalar va boshqalar kiradi. Ular muallifning hayotni badiiy qayta yaratishi natijasida yuzaga keladi. Bogdanov memuarlarning individual belgilarini belgilagan. Biroq ular badiiyligining mezonlarini aniqlamagan.

Ingliz sharqshunosi Monstyuart Elfinston memuar janrining noyob na’munasi hisoblangan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari haqida aytgan fikrlari orqali, muhim nazariy xabarni beradi. Uningcha, “Boburnoma”da buyuk turkiy podshohning hayoti batafsil tasvirlangan. Uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘a va pardalanishlardan xoli. Muallif o‘z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Elfinstonning bu maqomi (pozitsiyasi) memuar va tarixiy romanni farqlash uchun nazariy kontseptsiyani yaratish imkonini beradi. Ya’nikim, xotiralar uchun, romandan farqli o‘laroq, tiplashtirish majburiy xususiyat emasligi ayonlashadi. Levitskiy tomonidan esa, memuarlarning birinchi shaxs nomidan bayon qilinishi, xronika va faktik materiallarning ko‘pligi kabi janr xususiyatlari ochib berildi.

Memuar janri haqida g‘aliz va noto‘g‘ri tasavvur beruvchi fikrlar ham mavjud, albatta:“Xotiralar o‘tmish haqidagi muallif shaxsan ishtirok etganyoki guvohi bo‘lganvoqealar yoxud boshqa guvohlar orqali to‘plangan ishonchli ma’lumotlar asosida yozilgan asarlardir” [11]. Bu nuqtai nazar asosida, “har qanday tarixiy asarni memuar asar deya olamiz”, degan xato nuqtai nazarni ko‘zdan kechirsak, butunlay o‘zgacha manzarani ko‘ramiz. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Oybekning “Navoiy”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” kabi asarlarini memuarlar sifatida qabul qilgan bo‘lar edik. Shu sababdanki, bu asarlarning barchasi ishonchli ma’lumotlar asosida yozilgan.Birgina Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini misol tariqasida olaylik.Bu asar Amir Temur davlati tarixiga bag‘ishlab yozilgan. “Zafarnoma” ikkiqismga bo‘linadi:

1. Temurdan oldingi davr tarixidan umumiy so‘zlovchi - “Muqaddima;

2. Temur davri tarixini yorituvchi asosiy qism – “Zafarnoma”.

Muallifning ta’kidlashicha, Ibrohim Sulton o‘z bobosi haqida maxsus kitob yozilishini niyat qilgan va 1419-20-yillarda o‘z vaqtida kotiblar, munshiylar tomonidan Temur haqida ham turkiy, ham forsiy tillarda yozib qoldirilgan mavjud ma’lumotlarni yig‘ib keltirish haqida farmon chiqargan. Bu ish amalga oshgach, mazkur ma’lumot-hujjatlarni o‘rganishga kirishilgan.

“Zafarnoma”ning so‘zboshisida qayd etilishicha, Amir Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon qilingan hikoyalarning hamma she’riy va nasriy nusxalari to‘plangach, ma’lumotlar bilan tanishish uchun uchta guruh tuzilgan. Turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni, voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shohidlar

esa bir guruhni tashkil qilgan. Dastlab, Temur haqidagi har bir hikoya o‘qilgan. Agar uning mazmuni voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shohidning talqiniga to‘g‘ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni tiklash uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Temurning yana boshqa zamondoshlaridan surishtirgan yoki qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plagan. Shu qo‘shimcha hikoyatlarni ham tinglagach, Ibrohim Sulton aytib turgan va kotiblar yozib borgan. Shu tarzda asarning dastlabki xomaki nusxasi tayyorlangan. Sharafiddin Ali Yazdiy ana shu xomaki nusxa asosida “Zafarnoma” asarini yozgan. Ibrohim Sultonning qat’iy buyrug‘iga binoan, kitobni yozish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasida masofa o‘lchovlari haqidagi barcha ma’lumotlar juda sinchiklab tekshirilgan. Sharafiddin Ali Yazdiydan esa asarni jonli til bilan, tushunarli qilib yozish talab etilgan. Shuningdek, u hujjatlarga qat’iy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning, bevosita, shaxsiy nazorati ostida tuzilgan, dastlabki xomaki yozuvdan aslo chetga chiqmasligi hamda hech narsani bo‘yab ko‘rsatmasligi shart qilib qo‘yilgan[8].

Shunday ekan, “Zafarnoma” va shu kabi asarlarni memuarlar sirasiga kirita olmaymiz. Chunki memuarlar, nafaqat, tarixning aksi, balki muallif qalbining ifodasi hamdir. Boshqacha aytganda, memuarlar uchun muallifning tasvir obyektiga subyektiv munosabatining o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishi xarakterlidir.Binobarin, bunday asarlar o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada biografik, qiyosiy-tarixiy, sotsiologik, psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Izlanishlarimiz natijasi o‘laroq, memuar janrining o‘ziga xos xususiyatlarini shartli ravishda belgilab olamiz:

1. Memuarlar - o‘tmish haqidagi muallif shaxsan ishtirok etgan yoki guvohi bo‘lgan voqealar asosida yozilgan asarlardir.

2. Memuarlar uchun voqeaning birinchi shaxs nomidan bayon qilinishi, voqealar va faktik materiallarning ko‘pligi, muallifning tasvir obyektiga subyektiv munosabatining o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishi xarakterlidir.

3. Memuarlarda real voqelik, ko‘pincha, siyosiy xronika, biografik va ilmiy ahamiyatga ega materiallar bilan uzviy bog‘lanib ketadi;

4. Unda badiiy asarlarga xos syujet usullari, nisbatan, kam ishlatiladi. Ammo muallif tasviriy vositalardan o‘rni bilan foydalanadi.

Memuarlarning birinchi shaxs nomidan yozilishi, ularning asosiy xususiyatlaridan bo‘lib, ayni xususiyat muallifning shaxsiy hissiyotlari va nuqtai nazarini aks ettiradi. Bu esa voqealarni jonli va ishonchli ifodalanishini ta’minlaydi. Biroq birinchi shaxs nomidan yozish ayrim cheklovlarni keltirib chiqarishini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Qanday cheklov? Nima uchun? Kabi savollar tug‘ilishi tabiiy. Shu sababdanki, memuarlar muallifning hissiyotlari, xotiralarining ifodasidir.U ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan voqealarni o‘zi ko‘ra olgan tomoninigina tasvirlaydi, bu esa ayrim hollarda voqealarning to‘liq manzarasini yaratishda cheklov bo‘lishi mumkin.

Memuarlarda voqealar va faktik materiallarning ko‘pligi ham janrning asosiy xususiyatlaridan hisoblanib, asarlarning ishonchliligi va tarixiy ahamiyatini oshiradi. Memuarlar muallif o‘z hayotida duch kelgan real voqealarga asoslanib yoziladi. Bu voqealar ko‘pincha shaxsiy kechinmalar, tarixiy jarayonlar yoki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq bo‘ladi. Memuarlarda ana shu tarixiy jarayonlar va muhim tarixiy voqealarning ichki ko‘rinishi ochib beriladi. Faktik materiallar esa (sana, joy, ismlar, hujjatlar, guvohlar) memuarning ishonchliligini va tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, muallif siyosiy, madaniy yoki ilmiy doiradagi shaxs bo‘lsa, uning memuarlari tarixni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallifning tasvir obyektiga subyektiv munosabati voqea va hodisalarning o‘z shaxsiy tajribasi va nuqtai nazari orqali aks ettirilishi demakdir. Tasvir obyektiga nisbatan muallifning subyektiv munosabati memuarlarni shaxsiylashtiradi, o‘quvchi bilan hissiy bog‘lanish yaratadi va asarni jonliroq qiladi. Biroq bu yondashuv voqealarni bir tomonlama tasvirlash xavfini ham tug‘diradi. Shuning uchun muallif obyektivlik va subyektivlik o‘rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilishi lozim. Subyektiv munosabat memuarlarga faqat faktik asos emas, balki chuqur hissiy va shaxsiy mazmun ham qo‘shadi.

Siyosiy xronikani memuarlarda muallif boshdan kechirgan siyosiy voqealar va ular ta’sirida rivojlangan shaxsiy tajribani tasvirlash deb tushunilsa, to‘g‘riroq bo‘ladi. Bunda muallif bir vaqtning o‘zida voqealarning bevosita ishtirokchisi va guvohi sifatida maydonga chiqadi va tarixiy voqealar bilan bir qatorda siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan shaxslarning faoliyatini, ularning shaxsiyati va qarorlarini tasvirlaydi. Bu xronikalar tarixiy shaxslarni yanada yaqinroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shuningdek, memuarlardaaks ettirilgan ma’lum davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit o‘quvchiga tarixiy voqealar nafaqat siyosiy darajada, balki odamlar hayoti va jamiyat rivojiga qanday ta’sir qilganini tushunishga yordam beradi.

Memuarlarda biografik va ilmiy ma’lumotlarning keltirilishi janrning xususiyatlarini boyituvchi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Bu elementlar memuarlarni shaxsiy hayot va ilmiy-falsafiy fikrlar o‘rtasida muvozanat yaratishga yordam beradi, shuningdek, o‘quvchiga muallifning hayoti, faoliyati va bilim doirasi haqida kengroq tasavvur beradi.

Muallifning hissiyotlari va voqealarga munosabatining ifodalanishini ham janrning o‘ziga xos xususiyati sifatida keltirish o‘rinlidir. Memuarlarda

voqealar faqat faktik materiallar asosida emas, balki muallifning kechinmalari, his-tuyg‘ulari va voqelikka shaxsiy munosabati orqali ifodalanadi. Muallif o‘z hissiyotlarini lirik chekinishlar, portret chizish va tabiat tasviri kabi usullar orqali aks ettiradi. Aynan shu xususiyat memuarlarni tarixiy asarlardan keskin farqlanishiga asos bo‘ladi.

Memuarlarda syujetning o‘ziga xosligini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Real voqealarga asoslanish: Memuarlarda syujet odatda muallif hayotida sodir bo‘lgan real voqea va hodisalarga asoslanadi. Bu janrda badiiy fantastika va to‘qima unsurlar minimal bo‘ladi yoki umuman bo‘lmaydi.

2. Xronologik tizim: Memuar asarlari ko‘pincha muallif hayotining muayyan davrlarini xronologik ketma-ketlikda tasvirlaydi. Voqealar muallifning hayotiy yo‘li bo‘ylab rivojlanadi.

3. Ichki syujet dinamizmi: Memuarlarda voqealarning tashqi harakatidan ko‘ra, ichki kechinmalar va muallifning ichki dunyosi syujetni harakatlantiruvchi asosiy omil bo‘ladi. Shaxsiy fikrlar, xotiralar, ruhiy iztiroblar syujetni chuqurlashtiradi.

4. Hodisalarning tanlab olinishi: Memuar yozuvchi barcha voqealarni emas, balki o‘quvchi uchun muhim va ahamiyatli bo‘lgan hodisalarni tanlab tasvirlaydi. Shu orqali syujet yanada to‘ldirilib, maqsadli yo‘naltiriladi.Fikrimizning isboti sifatida “Boburnoma”da keltirilgan Bobur Mirzoning quyidagi so‘zlarini keltiramiz: “…yana bitilgudek nima nazarg‘a kelsa, tahrir qilg‘umdir; eshitulgudek nima eshitilsa, tahrir qilg‘umdur” [9]. Darhaqiqat, Bobur Mirzo ma’lumotlarni maqsadli tarzda saralab, qayta ko‘rib chiqib, “bitilgudek”, “eshitilgudek” – arzirlilarinigina qayd etgan.

5. Haqiqiylik va subyektivlik uyg‘unligi: Memuarlarda syujet haqiqiylikka asoslangan bo‘lsa-da, muallifning subyektiv nigohi kuchli rol o‘ynaydi. Bu esa voqealarni talqin qilishda muayyan badiiylik va individuallik kiritadi.

Memuarlarda syujet nafaqat shaxsiy hayot voqealarini hikoya qilish vositasi, balki davr, jamiyat va insoniy kechinmalarni anglash uchun ham muhimdir. Ushbu janr orqali muallif o‘zining shaxsiy tajribasi va kuzatishlari orqali tarixiy va madaniy jarayonlarga ham baho beradi.

Shuningdek, memuarlarda tasviriy vositalardan o‘rni bilan foydalaniladi.Tasviriy vositalar asar badiiyligini ta’minlovchi muhim poetik birlikdir. O‘quvchining asar haqidagi taassurotini oshirish, asardagi tarixiy vaziyat, holat mohiyatini anglatish, syujet va obraz funksiyasini belgilashda tasviriy vositalarning o‘rni beqiyosdir.Masalan, o‘zbek mumtoz adabiyotida memuar janrining noyob na’munasi hisoblangan “Boburnoma” asarida shaharlar, qishloqlar tasviri, voqea-hodisalar tafsiloti, jang-u jadallar haqida oddiygina bayon qilinmasdan, ular badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanadi. Bu o‘quvchiga hodisalarning tushunarli va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, muallif davlat boshqaruvi tizimi vakillari – vazirlar, beklar, tarixiy shaxslar, yozuvchi, adabiyotshunos, musiqachi, chavandoz, musavvir va boshqa shaxslarning faoliyatlarini yoritishda tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Natijada ularning portretlari, xarakter xususiyatlarini kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirishga erishgan.Shunday qilib, tasviriy vositalar muallifning shaxsiy tajribalarini universallashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, har bir janr singari memuarlar ham o‘ziga xos taraqqiyot bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu esa, mazkur janrning hozirgi davrga kelib, yanada ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Xususiyatlarining nazariy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganilishini taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Jumaxo‘ja, N., &Adizova, I. (2020). “O‘zbek adabiyoti tarixi:(XVI-XIX asr I yarmi)”-O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 21-noyabr 5-sonli qaroriga asosan 5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik. Innovatciya-Ziyo.

2.Жанровые особенности автобиографической и мемуарной прозы: На материале творчества А. С. Пушкина, П. А. Вяземского, Н. Г. Чернышевского тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.01.08, кандидат филологических наук Сутаева, Зарема Рамазановна.

3.D. Quronov. Z. Mamajonov. M. Sheraliyeva – “Adabiyotshunoslik lug‘ati”// Toshkent – “Akademnashr”., 2013. 169-bet.

4.Гордиенко Николай Александрович, Малышева Мария Сергеевна – Художественные особенности мемуаровА.М. Топорова\\АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИИ(II)., 2012.

5.V. G. Belinskiy – “Tanlangan asarlar”// O‘zbekiston SSR davlat nashriyoti., 1955. 175-bet.

6.Богданов - Богданов А. Мемуарная литература “Словарь литературоведческих терминов”. М., 1974.

7.Левицкий - ЛевицкийЛ.А. Мемуары // “Краткая литературная энциклопедия. 7”.4.Aj., 1967.

8.Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma [fotofaksimilnashr], T., 1973; Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, Movarounnahr voqealari, 1360—1370 [tarjimon: O. Bo‘riyev], T., 1994; Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, [tarjimon: Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy, 16-asr], T., 1997.

9.Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002.

10. Головенченко 1964 - Головенченко Ф.М. Введение в литературоведение М., 1964. С.259

11. Khakimova Saida Bakhtiyorovna – “Memoirs as a Source of Historical Research” \ \ Eurasian Journal of History, Geography and Economics. 2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Камалова Кадрия Фёдоровна
Наманганский инженерно-строительный институт, доцент
E-mail:Kamalova.kadriya@gmail.com

УДК 808.5

ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В РУССКОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ – ЛИНГВИСТОВ

Аннотация: *В статье рассматривается явление интерференции родного узбекского языка в устной и письменной русской речи студентов, изучающих русский язык как иностранный. Анализируются типичные ошибки и трудности, возникающие у узбекоязычных студентов при овладении русским языком, связанные с различиями в фонетике, лексике, грамматике и синтаксисе двух языков. Особое внимание уделяется влиянию узбекских языковых норм на формирование русских речевых структур и моделей. В статье также предложены методические рекомендации для преподавателей, направленные на снижение уровня интерференции и облегчение процесса обучения русскому языку.*

Ключевые слов: *интерференция, взаимовлияние, билинг, произношения, топонимы, двуязычие, лингвистика, семантические ошибки.*

Камалова Кадрия Фёдоровна
Наманган муҳандислик-қурилиш институти, доцент

TILSHUNOS TALABALARNING RUS NUTQIDA ONA TILINING ARALASHUVI

Annotatsiya: *Maqolada rus tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan talabalarning og‘zaki va yozma rus nutqida o‘zbek tilining aralashuvi hodisasi ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalar rus tilini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan keng tarqalgan xato va qiyinchiliklar ikki tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi va sintaksisidagi farqlar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. O‘zbek til normalarining rus nutq tuzilmalari va modellarini shakllantirishga ta’siriga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqolada, shuningdek, o‘qituvchilar uchun interferentsiya darajasini pasaytirish va rus tilini o‘qitish jarayonini engillashtirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *interferentsiya, o‘zaro ta’sir, ikki tomonlama, talaffuz, toponimlar, ikki tilli, tilshunoslik, semantik xatolar.*

Kamalova Kadriya Fyodorovna
Namangan Engineering and Construction Institute, Associate Professor

INTERFERENCE OF NATIVE LANGUAGE IN RUSSIAN SPEECH OF STUDENTS – LINGUISTS

Annotationt: *The article examines the phenomenon of interference of the native Uzbek language in the oral and written Russian speech of students studying Russian as a foreign language. The typical mistakes and difficulties encountered by Uzbek-speaking students in mastering the Russian language related to differences in phonetics, vocabulary, grammar and syntax of the two languages are analyzed. Special attention is paid to the influence of Uzbek language norms on the formation of Russian speech structures and models. The article also offers methodological recommendations for teachers aimed at reducing the level of interference and facilitating the process of learning the Russian language.*

Key words: *interference, mutual influence, billing, pronunciation, toponyms, bilingualism, linguistics, semantic errors.*

Введение

При изучении иностранного языка студенты неизбежно сталкиваются с влиянием родного языка на процесс усвоения новых языковых норм. Это явление известно как лингвистическая интерференция. Оно проявляется в том, что закономерности одного языка переносятся на другой, что может вызывать грамматические, фонетические и лексические отклонения.

Для узбекских студентов, осваивающих русский язык, проблема интерференции особенно актуальна. Различия между узбекским и русским языками обусловлены их принадлежностью к разным языковым семьям: узбекский относится к тюркской группе, а русский — к славянской. Это приводит к

существенным расхождениям в фонетике, морфологии и синтаксисе. Например, узбекский язык агглютинативен, тогда как русский синтетико-аналитический, что затрудняет освоение русских падежных окончаний и спряжений.

Дополнительным фактором, осложняющим процесс обучения, является различие в письменных системах. Узбекский язык с 1993 года официально использует латиницу, а русский — кириллицу, что создает трудности в чтении, написании и восприятии текста.

Для эффективного преодоления интерференции важно применять методики, способствующие осознанному анализу различий между языками. Системное сопоставление узбекского и русского языков помогает студентам лучше понимать структуру изучаемого языка и минимизировать ошибки, связанные с влиянием родной речи.

Таким образом, интерференция является не просто препятствием, а важным аспектом изучения языка, требующим особого внимания со стороны преподавателей и студентов. Развитие осознанного двуязычия и адаптация методик обучения позволяют сгладить негативное влияние языковых контактов и добиться высокой степени владения русским языком.

Анализ литературы

Изучением феномена интерференции в переводе и межъязыкового взаимодействия занимались многие исследователи. Среди них можно выделить В.В. Алимова (1990–2000-е гг.), чьи работы внесли существенный вклад в анализ переводческих трансформаций, включая аспекты интерференции (1). В.А. Богородицкий (1920–1940-е гг.) изучал проявления фонетической интерференции в условиях билингвизма (2). Бодуэн де Куртенэ (1920–1940-е гг.) акцентировал внимание на механизмах воздействия одного языка на другой, уделяя особое внимание психологическим аспектам интерференции (3). Уриэль Вайнрайх (1953) ввёл понятие «интерференция» в его современном значении, подразумевая проникновение элементов одного языка в другой при билингвизме, а также предложил классификацию типов интерференции: фонетическую, морфологическую, синтаксическую и лексическую (4). В.А. Виноградов (1930–1960-е гг.) исследовал воздействие родного языка переводчика на структуру переводимого текста (5). В.Ю. Розенцвейг (1970–1980-е гг.) анализировала влияние языковой среды на процесс перевода и билингвизм (8). Л.В. Щерба (1910–1940-е гг.) изучал фонетическую и грамматическую интерференцию в контексте освоения иностранных языков. Труды этих учёных стали фундаментом для дальнейших исследований в данной области.

Методология исследования

Исследование опирается на сочетание качественного и количественного методов, включая статистический анализ частотности ошибок и детальное лингвистическое описание выявленных отклонений, что позволяет более глубоко изучить трудности, возникающие у студентов при освоении русского языка как иностранного. В рамках работы были выделены несколько ключевых этапов: выбор испытуемых, выявление и классификация типичных ошибок, проведение контрастивного анализа языковых систем, а также разработка практических рекомендаций для преодоления интерференции. В процессе исследования особое внимание уделяется влиянию родного языка на процесс усвоения русского. Анализ ошибок проводится с использованием статистического метода, что позволяет выявить наиболее частотные отклонения от языковой нормы. В дальнейшем результаты анализа становятся основой для методических рекомендаций, способствующих адаптации учебного процесса под потребности билингвов.

Русский язык, будучи неотъемлемой частью образовательной программы в национальных школах и вузах, требует особого подхода в преподавании, который включает адаптацию методик обучения с учётом родного языка студентов, использование контрастивного анализа для выявления сложных аспектов усвоения и разработку специальных стратегий преодоления языковой интерференции. Одной из основных проблем при его освоении является феномен интерференции - наложение норм родного языка на изучаемый, что приводит к систематическим ошибкам.

Методика преподавания должна учитывать ситуативные особенности обучения, а также психолингвистические характеристики студентов, включая их предпочтительные стратегии восприятия информации, влияние родного языка на процессы мышления и формирования речи, а также особенности запоминания и воспроизведения новых языковых единиц. Особенно важно это для носителей узбекского языка, поскольку он кардинально отличается от русского по грамматической структуре, фонетике и лексике. Например, в узбекском языке ударение фиксировано на последнем слоге, в то время как в русском оно может менять свою позицию в зависимости от формы слова. Это становится причиной распространённых ошибок в произношении и акцентуации.

Дополнительные сложности вызывает различие в фонетической системе: звуки [ы], [щ], [э], отсутствующие в узбекском, представляют затруднение для студентов и часто заменяются на наиболее близкие по звучанию аналоги. Например,

[ы] подменяется на [и], что можно заметить в произношении слов "сытый" → "ситый", "быт" → "бит". Звук [щ] воспринимается как [ш], например, в словах "ещё" → "ешо", "щенок" → "шенок". Эти замены приводят к фонетическим и орфографическим искажениям в речи студентов, затрудняя их понимание на слух и корректное воспроизведение слов. Не менее важен аспект письменной речи: различие в графических системах (кириллица и латиница) может стать барьером на начальном этапе обучения. Например, студенты могут путать написание букв "р" и "p", "н" и "h", "у" и "y", что приводит к ошибкам при письме и чтении. Именно поэтому в образовательной практике необходимо внедрение специальных методик, таких как задания, на сравнение алфавитов, упражнения на распознавание и написание букв, а также использование транслитерации на первых этапах обучения, чтобы постепенно адаптировать студентов к новым языковым условиям.

Таким образом, преодоление интерференции требует системного подхода, включающего активную работу с фонетическими, грамматическими и лексическими особенностями изучаемого языка. Наиболее эффективными стратегиями являются фонетические тренировки, направленные на постановку правильного произношения, использование контрастивного анализа для выявления грамматических расхождений, а также практические упражнения по расширению словарного запаса и развитию навыков письма. Результаты данного исследования позволят совершенствовать методику преподавания русского языка, делая его освоение более эффективным для студентов с узбекским языком как родным.

Анализ и результаты исследования

1.Головин Б.Н. *Л*ингвистические основы учения о терминах. – Москва: Наука, 1987. – 235 с.

2.Йолон П.Ф. Система теоретического знания // *Л*огика научного исследования. – Москва. 1965. – 314 с.

3.*Крючкова Т. Б. Особенности* формирования и *развития общественно-политической лексики* и *терминологии*. – *М*осква: Наука, *1989*. – 170 с.

4.*Л*ейчик В.М. Терминоведение. Предмет, методы, структура. – Москва. 2002. – 176 с.

5.Миронова М. Р. *Л*ексико-семантическиелингвокультурные особенности формирования театральной *л*ексики в англ*и*йском и русском языках. – Москва: Наука, 2002. – 192 с.

6.Реформатский А.А. Что такое термин и терминология?. – Москва: Наука, 1959. – 109 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Bo`riyev Dilmurod Arzimurodovich
Samarqand DTU Tillar kafedrasi stajyor -assistenti

INGLIZ ERTAKLARIDA ZOONIM IBORALARNING SINTAKTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqola onomastik birlik hisoblangan zoonim termini haqida tilshunos olimlarning qarashlari haqida fikr yuritadi. Maqolada zoonimlarning ingliz tili leksik sathidagi ko'lami haqidagi ma'lumotlarni o'rgandik. Shuningdek, ingliz ertaklarida uchraydigan zoonim iboralar sintaktik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida zoonim iboralarning tuzilishi, ularning gap ichidagi grammatik funksiyalari va semantik xususiyatlari o'rganiladi. Ingliz tilidagi ertaklardan olingan misollar asosida zoonim iboralarning gap tuzilishidagi roli tahlil qilinadi. Maqola natijalari lingvistika va tarjima tadqiqotlari uchun muhim bo'lib, ertak tilining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *zoonim iboralar, sintaktik tahlil, ingliz ertaklari, frazeologik birliklar, semantika, grammatik funksiya.*

Бориев Дилмурод Арзимуродович
Стажер-ассистент кафедры языков Самаркандского ДТУ

СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗУНОИМЕННЫХ ФРАЗ В АНГЛИЙСКИХ СКАЗКАХ

Аннотация. *В статье рассматриваются взгляды лингвистов на термин «зооним», который рассматривается как ономастическая единица. В статье мы изучили информацию об области применения зоонимов на лексическом уровне английского языка. Также синтаксически анализируются зоонимические словосочетания, встречающиеся в английских сказках. В ходе исследования будет изучена структура зоонимических фраз, их грамматические функции в предложении и семантические свойства. На примерах из английских сказок анализируется роль зоонимических словосочетаний в структуре предложения. Результаты статьи имеют важное значение для лингвистики и переводоведения, помогая выявить специфические особенности языка сказки.*

Ключевые слова: *зоонимические словосочетания, синтаксический анализ, английские сказки, фразеологические единицы, семантика, грамматическая функция.*

Boriyev Dilmurod Arzimurodovich
Trainee-Assistant, Department of Languages, Samarkand State Technical University

SYNTACTIC ANALYSIS OF ZOONYMOUS PHRASE IN ENGLISH FAIRYTALES

Annotation. *This article discusses the views of linguists on the term zoonym, which is considered an onomastic unit. In the article, we studied information about the scope of zoonyms at the lexical level of the English language. Also, zoonymous phrases found in English fairy tales are analyzed syntactically. During the study, the structure of zoonymous phrases, their grammatical functions within a sentence and semantic properties are studied. The role of zoonymous phrases in the structure of a sentence is analyzed based on examples taken from English fairy tales. The results of the article are important for linguistics and translation studies, helping to identify the specific features of the fairy tale language.*

Key words: *zoonymous phrases, syntactic analysis, English fairy tales, phraseological units, semantics, grammatical function.*

Kirish

Ertaklar har bir xalqning madaniy merosining muhim qismidir. Ingliz ertaklari tarkibida ko'plab frazeologik birliklar, jumladan zoonim iboralar keng qo'llaniladi. Ushbu maqolada aynan zoonim iboralarning sintaktik tahlili o'tkazilib, ularning gap ichidagi o'rni va grammatik xususiyatlari o'rganiladi.

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. Majoziy ertaklarning ("Susambil", "Boʻri bilan tulki", "Tulkining taqsimoti", "Ikki boyqush" va boshqalar) syujeti asosida koʻchma maʼno, allegorik obrazlar yotadi. Masalan, laqmalik va qonxoʻrlik boʻri orqali, ayyorlik va tilyogʻlamachilik tulki orqali ifodalangan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oʻzbek tili leksik qatlamini kuzatar ekanmiz, nomlar alohida ahamiyatga ega ekanligiga guvoh boʻlamiz. Zoonimlar atamasi ilk bor grek tilida paydo boʻlgan va soʻnggi oʻn yil ichida zoonimlarga qiziqish yanada ortdi. Tilshunoslikda zoonimlarga oid ilk tadqiqot N.K.Dmitriev tomonidan olib borilgan. Insoniyat yaralibdiki bir narsani ikkinchi narsadan farqlash uchun ularni oʻz dunyoqarashidan kelib chiqib nomlashga harakat qilib kelgan. Xalqimizda qadimdan urugʻ-qabilalar, joy, oʻsimlik, hayvonot nomlari mavjud boʻlgan. Quyida maqolamizning oʻrganish obyekti boʻlmish zoonimlar yaʼni hayvon nomlari haqida fikr yuritamiz.

A. Cowie ingliz xalq va muallif ertaklarida uchrovchi zoonimlarni uch guruhga ajratadi:

1) bir onimli nomlar (Terentiy, Misha kabi);

2) ism+otasining ismi formulasi asosida yasalgan nomlar (*Левон Иваныч, Лизавета Ивановна, Козьма Микитич* va b.),

3) laqablar (Трубу-закрывай, Огня- вздувай, Пеки-пироги va b.)

Demak, ingliz xalq ertaklarida ism+otasining ismi formulali, laqabli zoonimlar ham qoʻllanishi xarakterlidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ingliz xalq ertaklarida eng keng tarqalgan hayvonlar fox (tulki) va cat (mushuk) dir. Bundan tashqari, mouse (mushuk) va cock (xoʻroz) obrazlari ham koʻp uchraydi. Dog (it), hen (tovuq), goose (gʻoz), pig (choʻchqa), frog (qurbaqa), wolf (boʻri), donkey (eshak) hayvon nomlarini ham uchratamiz. Bunday hayvon nomlari asosan nomlanmay, hayvon nomi zoonim sifatida keltirilganiga guvoh boʻlamiz. Ingliz xalq ertaklarida esa ot, tulki, boʻri obrazi nisbatan koʻp uchraydi. Shuningdek, mushuk, tulki kabi hayvonlar nomlari zoonim sifatida keng qoʻllaniladi.

Tahlil va natijalar

Ingliz tilidagi zoonimlarni bir qancha turlarga ajratib tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Qush nomlari
2. Hashorot nomlari
3. Baliq nomlari
4. Uy hayvonlari nomlari yoki xonaki hayvonlar
5. Yovvoyi hayvonlar nomlari
6. Sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari
7. Kemiruvchilar nomlari

1. Zoonim iboralarning umumiy tavsifi

Zoonim iboralar – hayvon nomlarini oʻz ichiga olgan frazeologik birliklar boʻlib, ular koʻpincha ramziy maʼnoga ega boʻladi. Masalan:

"Cry wolf" – asossiz xavotir tarqatmoq

"A dark horse" – sirli shaxs

2. Zoonim iboralarining sintaktik tuzilishi

Zoonim iboralar quyidagi sintaktik shakllarda uchraydi:

Feʻl + zoonim: "Bark up the wrong tree" (notoʻgʻri qarorga kelmoq)

Sifat + zoonim: "A lucky dog" (omadi kelgan odam)

Zoonim + ot: "Cat nap" (qisqa muddatli uyqu)

3. Zoonim iboralarining gap ichidagi roli

Zoonim iboralar gap ichida turli grammatik rollarni bajaradi:

Ega: "A dark horse won the competition."

Kesim: "She is barking up the wrong tree."

Toʻldiruvchi: "He called me a lucky dog."

4. Zoonim iboralarining semantik xususiyatlari

Koʻpgina zoonim iboralar metaforik maʼnoga ega. Masalan, "Cry wolf" iborasi shunchaki boʻrini chaqirishni emas, balki asossiz tashvish bildirishni anglatadi[4].

"Qizil shapkacha" ertagidagi zoonim iboralarni sintaktik tahlil qiladigan boʻlsak,

1. "Boʻri ovqat izlab yurardi."

Boʻri – ega (kim? – boʻri)

Ovqat – toʻldiruvchi (nima? – ovqat)

Izlab – hol (qanday? – izlab)

Yurardi – kesim (nima qilardi? – yurardi)

2. "Boʻri chalqancha yotib oldi."

Boʻri – ega

Chalqancha – hol

Yotib oldi – kesim

3. "Boʻri tovushini mayinlashtirib gapirdi."

Boʻri – ega

Tovushini – toʻldiruvchi

Mayinlashtirib – hol

Gapirdi – kesim

Bu iboralar jumlada turli sintaktik vazifalarni bajaradi va zoonim komponenti (boʻri) odatda ega yoki toʻldiruvchi boʻlib keladi.

Ingliz xalqining mashhur ertaklaridan biri "Uchta kichkina choʻchqacha" ertagidagi zoonim iboralar hayvonlarga oid boʻlib, ularga quyidagilar misol boʻla oladi:

1. "Choʻchqachalar uy qurishga kirishdi."

Choʻchqachalar – ega (kim? – choʻchqachalar)

Uy – toʻldiruvchi (nima? – uy)

Qurishga – hol (nima qilishga? – qurishga)

Kirishdi – kesim (nima qildi? – kirishdi)

2. "Yovuz boʻri birinchi uyga keldi."

Yovuz – aniqlovchi (qanday? – yovuz)

Boʻri – ega (kim? – boʻri)

Birinchi – aniqlovchi (qaysi? – birinchi)

Uyga – toʻldiruvchi (qayerga? – uyga)

Keldi – kesim (nima qildi? – keldi)

3. "Bo‘ri puflab uyni yiqitdi."

Bo‘ri – ega (kim? – bo‘ri)

Puflab – hol (qanday? – puflab)

Uyni – to‘ldiruvchi (nimani? – uy)

Yiqitdi – kesim (nima qildi? – yiqitdi)

4. "Cho‘chqachalar qattiq uyga yashirindi."

Cho‘chqachalar – ega (kim? – cho‘chqachalar)

Qattiq – aniqlovchi (qanday? – qattiq)

Uyga – to‘ldiruvchi (qayerga? – uyga)

Yashirindi – kesim (nima qildi? – yashirindi)

Bu zoonim iboralar ertakdagi asosiy harakatlarni ifodalaydi va sintaktik tarkib jihatdan ega, to‘ldiruvchi, hol, kesim kabi bo‘laklardan tashkil topgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zoonimlar o‘zbek tili leksik sathida yetakchi miqyosga ega nomlar hisoblanadi. Zoonimlarning paydo bo‘lishida tillarda xalq omili, aralash omil, kitobiy omil yetakchilik qilgan. Zoonimlarni o‘rganish nafaqat, tilshunoslik ilmi uchun, balki biologiya uchun ham manfaatli bo‘ladi. Ingliz ertaklarida zoonim iboralarning qo‘llanilishi lingvistik jihatdan qiziqarli hodisadir. Ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslik va tarjima sohasida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. You Wang “A Contrastive Research on the Definitions and Categories of Chinese and english Idioms.” Advances in Social Science, educational and Humanities Research, volume2020. -C. 554.

2. Батька Л. Ономастическое пространство русских народных и авторских сказок 2018. -С.69-78

3. Мўминов С.М. Окказионал-нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фан. ном. ... диссер. – Тошкент, 1990. –Б. 33.

4. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2007. –С. 487-488

5. Подольская Н.В. Какую информацию несет топоним // Принципы топонимики. – Москва: Наука, 1964. – С.88-89.

6. Подольская Н.В. Словарь английских ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988.

7. Реформатский А.А. Топонимика как лингвистический факт. – С.10

8. Собиров А. Ингиз тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили сифатида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna,
Alfraganus universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
s.eshonqulova@afu.uz,
ORCID: 0000-0002-8150-0116

UDK: 821.5 12.133 (092)

NODIRA IJODIDA HAYOTBAXSH VA HAYRATOMUZ AN'ANALAR

Annotatsiya. *Maqola sharqning klassik she'riyat an'analari doirasida Nodira ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Unda Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa buyuk klassiklarning Nodira uslubining shakllanishiga ta'siri hamda ijodiy merosning uzluksizligi tahlil qilinadi. Adabiy an'analarning, xususan, o'sha davr she'riyatida muhim o'rin tutgan tatabbu' fenomenining ahamiyati yoritiladi. Nodira ijodini o'rganishning metodologik yondashuvlari, jumladan, qiyosiy-tipologik va germenevtik usullar ko'rib chiqiladi. Shoiraning badiiy uslublari, tasavvufiy motivlar hamda falsafiy g'oyalarning talqini alohida e'tiborga olinadi. Xulosa o'rnida, Nodira ijodining sharq she'riyat an'analari davomchisi va yangilik yaratuvchisi sifatidagi ahamiyati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Nodira, an'ana, tatabbu', she'riyat, adabiy ta'sir, nazira, poetik qimmat, ijodiy ergashish.*

Шонкулова Сурайё Исомиддиновна,
Университет Алфраганус, доктор филологических наук (DSc), доцент.

ЖИЗНЕУТВЕРЖДАЮЩИЕ И УДИВИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ В ТВОРЧЕСТВЕ НОДИРЫЭ

Аннотация. *Статья посвящена изучению творчества поэтессы Нодиры в контексте классических поэтических традиций Востока. Рассматривается преемственность и влияние великих предшественников, таких как Алишер Навои, Фузули и другие классики, на формирование ее стиля. Анализируются литературные традиции, в частности феномен татаббу' (творческое подражание), который играл значительную роль в поэзии того времени. Исследуются методологические подходы к изучению наследия Нодиры, включая сравнительно-типологический и герменевтический методы. Особое внимание уделено художественным приемам, используемым поэтессой, ее интерпретации суфийских мотивов и философских идей. В заключение подчеркивается значимость творчества Нодиры как продолжателя и новатора восточной поэтической традиции.*

Ключевые слова: *Нодира, традиция, исследование, поэзия, литературное влияние, назира, поэтическая ценность, творческое следование.*

Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna,
Alfraganus University, Doctor of Philology (DSc), Associate professor

LIFE-AFFIRMING AND AMAZING TRADITIONS IN NODIRA'S CREATIVITY

Abstract. *The article is dedicated to the study of the works of the poetess Nodira in the context of classical poetic traditions of the East. It examines the continuity and influence of great predecessors such as Alisher Navoi, Fuzuli, and other classical poets on the formation of her style. Literary traditions are analyzed, particularly the phenomenon of tatabbu' (creative imitation), which played a significant role in the poetry of that time. Methodological approaches to studying Nodira's legacy are explored, including the comparative-typological and hermeneutic methods. Special attention is given to the artistic techniques used by the poetess, her interpretation of Sufi motifs, and philosophical ideas. In conclusion, the article emphasizes the significance of Nodira's work as both a continuer and innovator of the Eastern poetic tradition.*

Keywords: *Nodira, tradition, research, poetry, literary influence, nazira, poetic value, creative following.*

Kirish

Vorislik hamda an'anaviylik badiiyatning tub o'zak omili ekan, she'riyat gulshaniga tashrif buyurgan qalamkash tabiiyki, o'z salaflariga ergashadi, ular ijodidan bahra oladi, ta'sirlanadi. Ularning insonparvarlik g'oyalarini rivojlantirish bilan birga, o'z so'zini ham aytishga intiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviylik ustuvor tamoyildir. Bu hol adabiyotning

nuqsoni emas, balki o‘ziga xos xususiyati. Ya’ni an’anaviylik biqiq hodisa bo‘lmay, uning bag‘rida yangilik ham, mahorat ham voqe’ bo‘ladi, takroriylikdan o‘ziga xoslikka, ergashishdan mustaqil ijodiylik, individuallik va originallikka boriladi.

Navoiyning hayotbaxsh va hayratomuz an’analari, boshqa shoirlar uchun chiniqish va ilhom manbaidir. Bu chashmadan bahramand bo‘lgan, fayz topgan shoirlar silsilasida Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari alohida o‘rin tutadi. Ana shunday novator shoirlar uchun avvalo, Alisher Navoiy ijodi ibrat maktabi bo‘ldi. “Sohibi devon” darajasidagi Nodira o‘z vaqtida “...xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot namunalarini o‘qib, eshitib ulg‘aygan, ular ta’sirida adabiyotga kirib kelgan va o‘z uslubini shakllantirgan. Bu hol uning ijodiy evolyutsiyasiga, uslubiga, tiliga, asarlariga ta’sir qilmasligi mumkin emas edi. Bu ta’sir jilvalari goh bevosita, goh bilvosita ko‘rinishda namoyon bo‘ladi” [11,185-186]. Navoiyning badiiy tasvir vositalarini teranlashtirish orqali poetik birikmalar, betakror taqqoslar, mukammal portret chizgilari yaratish uslublari Nodira ijodida ustuvorligini, tatabbu’larini o‘rganganimizda shohidi bo‘lamiz.

Tabiiyki, Nodira salaflari mumtoz sharq shoirlari she’riyati badiiyatidan yetarlicha ma’naviy kuch olgan. Shoira lirikasi o‘lmas umri boqiy an’analar silsilasida shakllangan, rivojlanib, kamol topgan. Shoira she’riyatida mujassamlashtirgan an’analar, xalq dardi, quvonch armonlarini, orzu-umidlarini o‘zida to‘liq badiiy misralarda ifodalay olishi bilan ahamiyatga molik. Nodira salaflari Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi ijodkorlarga ergashar ekan, ularga ko‘r-ko‘rona taqlid qilmaydi, balki ular adabiy merosiga ijodiy yondashadi. Shoira lirik qahramon ko‘ngulni yoritish natijasida, inson ruhiyatida yuz berayotgan evrilishlarni, azoblarni she’rlari qat-qatiga mohirona joylashtiradi. Shoiraning she’riyatga bunday yondashishi, yaratiqlarining abadiyatini ta’minlagan.

Adabiyotlar tahlili

XX asr nodirashunoslikda shoira ijodini atroflicha o‘rganilganligi bilan ajralib turadi. Nodira tarjimayi holi, ijodiy merosiga oid bir qator tadqiqotlar adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan [8,563; 19,182]. Mustaqillik yillaridan so‘ng ham shoira shaxsiyati va she’riyatini yoritishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [7,292; 2,158; 3,267].

Metodologiya

Qayd etilgan tadqiqotlarda Nodira shaxsiyati, dunyoqarashi, asarlaridagi tarixiy obrazlar tizimi, poeziyasi borasida turli yo‘nalishlarda turli munosabatlar bilan fikr-mulohazalar milliy istiqlol nuqtayi nazaridan biografik va qiyosiy-tipologik metod orqali tahlil etilgan. Biroq, Nodira she’riyatida tasavvuf – ma’naviy tamoyil sifatida shoiraning “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy” tushunchalariga doir o‘ziga xos axloqiy asoslari va komil inson masalasi alohida psixo-biografik metod asosida kompleks tahlil etilmagan, germenevtik usullaridan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan.

Natijalar

Nodira tatabbu’lari haqida so‘z yuritishdan oldin, tatabbu’navislik haqida to‘xtalsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Tatabbu’ – adabiy an’ana rivojining mahsulidir. Ammo rivojlantirilayotgan an’anaga yangilik qo‘shilmasa, mukammal tatabbu’ yuzaga kelmaydi. An’ana va yangilikning yaxlit holda namoyon bo‘lishi uchun esa badiiy mahorat lozim bo‘ladi” [4,46]. Shunday qilib, tatabbu’da ikki narsaga jiddiy qaraladi. Bulardan biri − dunyoqarash, ya’ni g‘oyaviy munosabatlar. Ikkinchisi va eng muhimi − badiiy mahorat” [9,175].

Tatabbu’ga adabiy istiloh sifatida yondoshib, uni izdoshlik, ijodiy ergashish va payravlik tarzida sharhlash xato emas. Ammo tatabbu’ni taqlid sifatida baholab bo‘lmaydi. Chunki tatabbu’ ijodiy bellashuvdir. Zero, tatabbu’navislik an’ana, yangilik va mahorat uchligi bilan bog‘liq faoliyatdir” [4,11].

Sharq xalqlari adabiyotida sayyor sujet asosida yaratilgan asarlarga nisbatan nazira–tatabbu’ istilohi ishlatiladi. Tatabbu’da tatabbu’ qilinadigan asarning shakl va mazmuni yangi yozilayotgan asarda o‘z aksini topishi kerak bo‘ladi. Tatabbu’lar yirik epik asarlar bilan birga lirik asarlar asosida ham yozilishi mumkin.

Mumtoz davr adabiy jarayonida salaflar she’riyatiga tatabbu’navislik uch yo‘nalishda rivojlangan: **birinchidan,** o‘zbek mumtoz shoirlari, xususan, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Amiriy va Huvaydo she’rlariga tatabbu’ bog‘lash; **ikkinchidan,** fors-tojik shoirlari, xususan, Hofiz, Jomiy va Mirzo Bedil she’rlariga tatabbu’navislik; **uchinchidan,** ozarbayjon shoiri Fuzuliy she’riyatiga tatabbu’ bog‘lash shaklida rivoju ravnaq topgan.

Bu uch yo‘nalishdagi tatabbu’navislik Qo‘qon adabiy muhitida ham, shuningdek, Xiva va Buxoro adabiy muhitlarida ham izchil davom ettirildi. Biroq, alohida qayd etish lozimki, bu davrda ham barcha adabiy muhitlarda Alisher Navoiy g‘azallariga tatabbu’ bog‘lash g‘oyatda faol bo‘ldi. Buni barcha shoirlar va hatto shoiralar ijodida ham yaqqol kuzatish mumkin.

O‘zbek mumtoz adabiyotidagi mashhur, ustoz shoirlar ijodiy maktabidan bahra olgan shoir devonlaridagi ko‘plab she’rlarida bunday adabiy ta’sir izlari ko‘zga tashlanadi. Nodira ijodida esa Navoiy ijodidagi tasvir mahoratining hamohangligini kuzatamiz.

Muhokama

Nodiraning Navoiy va Mashrab an’analarini davom ettirib yaratgan tatabbu’ g‘azallari bisyor. Shulardan biri shoiraning “Oqibat” radifidagi tatabbu’si ham o‘zining mazmun-mohiyati va poetik qimmati bilan o‘zgacha salohiyat kasb etadi.

Tatabbu’ asar yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab talablarni zukkolik bilan anglab, unga amal

qilgan shoira Nodira bu yo‘lda muvaffaqiyatlarga erisha olganligi tatabbu’da to‘la aks etgan.

Zohido, ishqu muhabbat ahlini ma’zur tut,
Yor ko‘yida na bo‘ldi shayx San’on oqibat...
Ohkim, bo‘ldi yana subhi nashotim shomi g‘am,
Chehra pinhon etti ul xurshidi tobon oqibat.
Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,
Poymoli xayli mo‘r o‘ldi Sulaymon oqibat (N;91).

Nodira ham o‘z tatabbu’ g‘azalida ustozlar an’anasini davom ettirib, badiiy san’atlardan o‘rinli va unumli foydalangan. Bu esa lirik qahramon ruhiyatni chuqurroq anglashga xizmat qilgan. Shoira yuqoridagi birinchi baytda talmehli qofiyani poetik ifodaga olib kiradi. Shu lahzadayoq she’rxon xotirasida yor ishqida ne malomatu mashaqqatlarga mubtalo bo‘lgan, ilohiy dil sohibi – shayx San’on qismati gavdalanadi. Muhimi shundaki, shoira lirik qahramonining ishqi ham zohidona ishq bo‘lmay, balki shayx ishqiga monand haqiqiy ishqqa mansubligi zukkolik bilan badiiy ifodaga ko‘chgan. Mazkur ikki xil ishq tasviri ifodasida tazod san’ati vujudga kelgan. Keyingi baytda esa sharq nazmiyotidagi an’anaviy quyosh poetik obrazining ifodalanishi asarga o‘ziga xos joziba bergan. Taniqli navoiyshunos Yo.Is’hoqov o‘rinli qayd etganidek: “Ma’lumki, traditsiyada “quyosh” (mahbuba husniga nisbatan ham, may jamoliga nisbatan ham, olam-borliqqa nisbatan ham) doimo ijobiy ramz sifatida ishlatilgan [6,110]. Agar masalaga shu nuqtai nazardan yondoshsak, Nodiraning ham quyosh poetik obraziga murojaat etishi shunchaki tasodif bo‘lmay, balki g‘azal ibtidosida oshiq qalbidagi hijron iztiroblari unga shafqatsiz azoblar bergan bo‘lsa, g‘azal intihosida quyosh obraz vositasida o‘z o‘rnini vasl quvonchlariga berganligiga nozik ishora qilingan. Shu bilan birga, quyoshning yuz ko‘rsatishi orqali she’riy san’atlardan biri –tashxis (jonlantirish) yuzaga kelganki, bu hol asar badiiyatiga o‘ziga xos go‘zallik baxsh etgan. Nodira tatabbu’da ustoz shoirlar asarlaridagi orifona g‘oyalarga alohida e’tibor berganligining guvohi bo‘lamiz. Shoira ustozlar fikrlarini faqat shunchaki takrorlab qolmasdan, balki turli ramz, poetik timsol va she’riy san’atlar orqali yanada boyitdi.

Nodiraning “Oqibat” radifidagi g‘azalida ham salaflari ijodidagi mavjud ramziylik to‘liq saqlangan bo‘lib, uning lirik qahramoni ham solik–oshiq. Shu o‘rinda bir muhim masalaga ham aniqlik kiritish o‘rinlidir. Adabiyotshunos Iqboloy Adizova o‘zining “Muhabbat ixtiyor et...” maqolasida Nodira ijodini yangi tamoyil talablari asosida tahlil qilarkan, shunday o‘rinli fikrni olg‘a suradi: “Nodira Umarxonni o‘ziga shariat, tariqat, ma’rifat yo‘lida rahnamo deb bilganini his etamiz. Chunki Amir Umarxon ko‘nglini Alloh ishqi zabt etgan solik inson edi. Hayotining mazmuni deb bilgan, she’riyatdagi ustozi Amir Umarxonning bevaqt fojiali o‘limi shoira Nodira yuragiga og‘ir musibatni olib kirdi. Natijada muhabbatga to‘liq jo‘shqinlikni mahzunlik egalladi. Ammo Nodira she’riyatini faqat Sayid Umarxondan ayriliq izhori deb baholasak, nihoyatda jo‘n, biryoqlama tushungan bo‘lamiz. Uni keng qamrovli zaminidan yulib olib soxtalashtiramiz. Chunki shoira she’riyatining ildizi chuqur. Ma’no mohiyati juda teran va bepoyon” [1]. Masalaga shu nuqtai nazardan yondoshsak, shoira Nodiraning “Oqibat” radifidagi tatabbu’ g‘azalida ham olima ta’kidlagan mahzunlik kayfiyati yaqqol sezilib turibdi. Undagi lirik qahramon ham Haq oshig‘idir. U har qancha urinib, “vasl uyin obod qilish”ga ahdu paymon qilmasin, hijron deb atalmish “seli g‘am” bu imoratni vayron etadi. Solikning ko‘ngli hijron azoblari tufayli visol uyin vayronasiga aylangan. Uning qalbidagi “zahmi ishq”dan pinhonalik qolmay, o‘z niyatlarini oshkora aytishga bel bog‘laydi. Unga vafo haqida ahdu paymonlar qilib, oxir-oqibatda “tarki vafo” qilgan “ahdi yalg‘on”lardan qalbi iztirobga tushadi. Undaylar shoira nazdida subutsiz va oqibatsiz kimsalar bo‘lib, Haq ishqidan bexabar va benasib kishilardir. Ularning ishlari doimo dilozorlikdir. Lirik qahramon timsolidagi solik katta umidlar bilan boz visol etaklarini tutishga harakat qiladi. Ammo u bu yo‘lda qancha urinmasin, uning intilishlari va istaklari “hajr ilgida” pora-pora bo‘ladi.

Yuqoridagi birinchi baytda Shayx San’on obrazining tasvirga tortilishi lirik qahramon niyatlarini she’rxonda yanada oydinlashtirishga yordam beradi. Muhimi, tasvirning shu nuqtasida solikning ishqi zohidona ishq emasligi ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun ham lirik qahramon zohidlardan “ishqu muhabbat ahlini ma’zur tut”ishni so‘rab, o‘z niyatlarini yor ishqida ne kuylarga tushgan Shayx San’on taqdiriga ishora etish orqali ifoda etadi. Tasvirning shu o‘rinda she’rxonga yana bir haqiqat–solik ishqining qat’iyligi, u ilohiy jamol maftuni ekanligi ma’lum bo‘ladi. Hijron azoblaridan lirik qahramonning dili shikasta. Uning hijron azoblaridan qon bo‘lgan yuragi “gavhari ashk” o‘rnida ko‘zlaridan marjon bo‘lib oqadi. Ammo uning niyatlari ham sarobga aylangan emas. Doimo visol orzusida. Faqat shu shirin tuyg‘ugina unga umid bag‘ishlaydi. Hattoki, tonggi quvonchlarini “shomi g‘am”bulutlari egallab olgan bir paytda zarrin quyosh pinhona bo‘lsada, o‘zining husni jamolini unga ko‘rsatadi. Quyosh poetik obrazining tasvirga olinishi muhim badiiy-estetik vazifani bajarishga qaratilgan bo‘lib, go‘yoki u o‘zining saxiy nurlari ila vayronaga aylangan oshiqning shikasta ko‘ngliga taskin va tasalli bergandek bo‘ladi. Eng muhimi, nur solikni vasl koshonasi tomon yetaklayotganiga va uning qalbi ilohiy nurdan bahramand bo‘lishiga nozik ishoralar qilingan seziladi.

Poetik tasvir g‘azal tadrijida yanada kengroq ma’no kasb etib boradi. Ayniqsa, Sulaymon payg‘ambar va chumolilar haqidagi rivoyatga ishora qilingani g‘azalda poetik fikr hamda g‘oyaviy niyatga yanada o‘ziga xos falsafiy mazmun va she’riy joziba baxsh etadiki, bu tatabbu’ g‘azal mundarijasining yanada kengayishiga xizmat qilgan. G‘azal maqta’sida esa ramziylik yanada

yuksak poetik cho‘qqiga ko‘tarilgan. Unda inson umrining foniyligi, umr gulistonining mangu emasligi, qachonlardir uning ham xazon bo‘lishi muqarrarligi alohida ta’kidlangan. Shoira bu bilan kishilarni umidsizlikka emas, balki yashashga, insonni sevishga, Allohdan in’om etilgan hayot deb ataluvchi ne’matdan bahramand bo‘lishga da’vat etayotganligi ma’lum bo‘ladi. Demak, inson o‘z umrini bemazmun va besamar, behuda o‘tkazmasdan insonga o‘xshab yashamog‘i, yashaganda ham shoira ta’kidlaganidek, “muhabbat ixtiyor etib” oshiqlik maqomini egallash lozimligiga undash mavjud ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Yuqoridagi birgina g‘azal misolida shoiraning tatabbu’navislik mahoratini to‘liq ko‘rsatish mushkul, albatta. Shu bilan birga Nodira ijodidagi ishq mavzusi shunchalik mukammalki, uni faqat bir tomonlama tushunish va talqin etish shoira ijodini bir yoqlama o‘rganishga olib keladi. Nodiraning hayoti va ijodi bo‘yicha adabiyotshunoslikda talaygina tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, bunday ruhdagi kuzatishlar bugungi kunda davom etayotgani kishini quvontiradi.

Yuqoridagi tahlillardan shuni aytish mumkinki, **birinchidan,** Navoiyning “Oqibat” radifidagi g‘azallarida mavjud she’riy san’atlar Mashrab va Nodiraning tatabbu’ g‘azallarida ham bevosita davom ettirilgan. **Ikkinchidan,** Navoiy asarlaridagi badiiy san’atlarning o‘rin olishida g‘azal mavzusi davr va zamon talablari hamda lirik qahramonlar kayfiyati asosida ko‘proq tazod, talmeh, tashbih san’atlaridan foydalanish imkoniyatini yaratgan bo‘lsa, ulug‘ shoirning izdoshlari bo‘lgan Mashrab va Nodira g‘azallari mundarijasiga ham to‘la mos kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etgan. **Uchinchidan,** Navoiyga tatabbu’ bog‘lagan har ikki ijodkor ham ustoz g‘azallaridagi mavjud timsol va she’riy san’atlarni shunchaki o‘zlashtiribgina qolmay, balki ularning o‘zlari ham yangi poetik timsollar bilan birga, boshqa she’riy san’atlarga ham murojaat qila olishgan. Bu muhim badiiy qimmatga ega. **To‘rtinchidan,** tasavvufdagi naqshbandiylik ta’limotini o‘z ijodida asosiy g‘oyalardan deb hisoblagan mutasavvuf shoir – Navoiy asrlaridagi orifona g‘oyalar Mashrab va Nodira asarlarida ham o‘ziga xos poetik ramz va ranglarda ifodaga ko‘chganligi mavjud haqiqatlardan biridir. **Beshinchidan,** she’riy san’atlar yordamida Mashrabning tatabbu’ g‘azallarida “ajab o‘tluq matla’ (Navoiy)lar yuzaga kelgan bo‘lsa, bu an’ana Nodira tatabbu’larida ham o‘ziga xos holatlarda g‘azal baytlariga poetik jilo bag‘ishlagan. **Oltinchidan,** tatabbu’ g‘azallarda izchil ravishda saqlanuvchi she’riy unsurlardan biri radifning aynan saqlanganligi g‘azal kompozitsiyasida “asosiy bog‘lovchi” (A. Hayitmetov) vazifasini bajarib, tayanch nuqta sifatida poetik maqsadning to‘la ro‘yobga chiqishiga xizmat qilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Nodira she’riyati chuqur hayotiy asoslarga ega va g‘oyat keng qamrovlidir. Zero, u mustahkam an’analar zaminida shakllandi. Darvoqe, buni shu g‘azalning o‘zi ham tasdiqlaydi. Shoira Nodiraning mazkur tatabbu’ g‘azali yuzaga kelishiga asosiy manba hisoblangan ustoz shoirlar asarlaridagi radifning aynan saqlanishi, qofiyadosh so‘zlar va ulardagi qofiya harflarining o‘zaro uyg‘unligi hamda g‘azal aruz vaznining ramal bahridagi o‘ynoqi vaznlardan birida yozilganligi bilan xarakterlidir. Bu hol Nodiraning tatabbu’ asar yaratish talabiga hamda mezonlariga mas’uliyat bilan yondoshib ish ko‘rganligini to‘la tasdiqlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Adizova I. Muhabbat ixtiyor et... // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1993. 7-may.

2.Eshonqulova S. Nodira she’riyatida tarixiy obrazlar talqini. Filol. fan. nom. ...diss. – T., 2011. – B. 158.

3.Eshonqulova S. Nodiraning badiiy mahorati. Filol. fan. dokt. ...diss. – Jizzax, 2022. B. 267.

4.Fayzullayev B. O‘zbek she’riyatida tattabu’ tarixi va mahorat masalalari. (XVII–XIX asrlar va XX asr boshlari g‘azalchiligi asosida) Fil.fan.doktori ...diss. –T., 2002. –B.11.

5.Fayzulloyev B. O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g‘azalchiligi asosida). –T.:Tamaddun, 2021. –B.46.

6.Is’hoqov Yo. Navoiy poetikasi. –T.: Fan, 1983. – B.110.

7.Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII–XIX asrlar o‘zbek she’riyati asosida). Filol. fan. dokt. ...diss. –T., 1999. – B. 292.

8.Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar): Filol. fan. dokt. ... diss. –T., 1961. – bet 563.

9.Qobilova Z. Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik masalalari (Amiriy she’riyati misolida). Filol. fan. dokt. … diss. – Farg‘ona, 2020. –B.175; Uvaysiy she’riyatidan (Tuzuvchi M.Qodirova). –T., 1980. –B. 51.

10. Qodirova M. Nodira hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... diss. –T., 1961. – bet 182.

11. Soatova N. An’anaviylik va vorislik. –T.: Mumtoz so‘z, 2019. –B.185-186.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nishonov Ismoiljon Abdumutallibovich
"University of economics and pedagogy" NOTM
Filologiya kafedrasi mudiri, mustaqil tadqiqotchi
E-mail:ismoiljonnishonov63@gmail.com

УДК: 811.512.133'271

ONLAYN MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotasiya: *Ushbu maqolada bugungi kundagi onlayn muloqotning o'ziga xos xususiyatlari xususida tahlilga tortilgan. Bu jarayonni baholash ancha qiyin. Jumladan, butun jahon internet tarmog'ining paydo bo'lishi bilan odamlar o'zaro ta'sirining asosiy jihatlari, hozirgi vaqtda elektron pochta, onlayn forumlar va ko'plab raqamli nashrlar kabi vositalar odamlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib borishidagi o'ziga xos tabiatining tildagi ta'siri misollar yordamida ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlari: *til, onlayn muloqot, internet tarmog'i, raqamli muloqot, gender, munosabat natijalari, lisoniy tizim.*

Nishonov Ismoiljon Abdumutallibovich
"University of Economics and Pedagogy" NOTM
Head of the Department of Philology, independent researcher

PECULIARITIES OF ONLINE COMMUNICATION

Abstract:*This article analyzes the characteristics of today's online communication. This process is more difficult to evaluate. In particular, with the emergence of the World Wide Web, the fundamental aspects of human interaction, the unique nature of such tools as e-mail, online forums, and many digital publications have become an integral part of people's daily lives. The effect on the language is considered with the help of examples.*

Key words: *language, online communication, internet network, digital communication, gender, attitudinal results, linguistic system.*

Нишонов Исмаилджон Абдумуталилибович
"Университет экономики и педагогики" НОТМ
Заведующий кафедрой филологии, независимый исследователь

ОСОБЕННОСТИ ОНЛАЙН-ОБЩЕНИЯ

Аннотация: *В данной статье анализируются особенности современного онлайн-общения. Этот процесс сложнее оценить. В частности, с появлением Всемирной паутины фундаментальные аспекты человеческого взаимодействия, уникальная природа таких инструментов, как электронная почта, онлайн-форумы и многие цифровые публикации, стали неотъемлемой частью повседневной жизни людей. язык рассматривается с помощью примеров.*

Ключевые слова: *язык, онлайн-коммуникация, сеть Интернет, цифровая коммуникация, пол, установочные результаты, языковая система.*

Kirish

Bugungi kunda har turdagi ma'lumotlar oqimini boshqarish va aloqani osonlashtirishda internetning ahamiyatini katta. Butun jahon internet tarmog'ining paydo bo'lishi bilan odamlar o'zaro ta'sirining asosiy jihati bo'lgan aloqa alohida uy xo'jaliklari, shahar va hatto butun mamlakatlardan tashqariga tarqaldi. Pochta, telefon va telegraf kabi boshqa shaharlararo aloqa usullari ko'p yillar davomida mavjud bo'lsa-da, ushbu an'anaviy vositalardan foydalanuvchilar duch keladigan muammolar ko'pchilikni raqamli texnologiyalardan, xususan, internetdan foydalanishga majbur qildi. Hozirgi vaqtda elektron pochta, onlayn forumlar va ko'plab raqamli nashrlar kabi vositalar odamlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi.

Xo'sh, internet nima? Bu deyarli butun sayyorani qamrab oladigan keng global tarmoq bo'lib, 150 dan ortiq mamlakatlarda 15 millionga yaqin abonentga ega bo'lib, oyiga 7-10% o'sish sur'atlariga ega. Internet butun dunyo bo'ylab muassasalarga tegishli bo'lgan turli xil axborot

tarmoqlari o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydigan asosiy markaz vazifasini bajaradi. [1] Dastlab, internetning asosiy foydalanuvchilari, asosan, davlat xizmatchilari va tadqiqotchilar bo‘lib, ular foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarga amal qilishgan. Onlayn o‘zaro munosabatlar odob-axloqi belgilangan me’yorlarga asoslangan edi. Biroq texnologiya va onlayn aloqalarning rivojlanishi bilan hukumat va ilmiy doiralardan tashqarida foydalanuvchilarning keng doirasi paydo bo‘ldi. Ko‘pchilik internetga o‘z maqsadi – ma’lumot izlash uchun murojaat qilsa, boshqalar esa qiziqishlarini qondirishga va shaxsiy maqsadlariga erishishga intilishadi. Ushbu o‘zgarish foydalanuvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar uchun yangi odob-axloq standartlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Turli tadqiqot institutlari va onlayn munozaralarda tarmoq odob-axloq qoidalari (inglizcha *net* va fransuzcha *etiquette*) deb nomlanuvchi yangi xatti-harakat normalari paydo bo‘ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tag‘lili (Literature review). Zamonaviy dunyoda internet juda katta ahamiyatga ega – u turli mamlakatlardagi odamlarni bog‘laydigan, xalqaro hamjamiyatlarda ishtirok etishni osonlashtiradigan ulkan axborot ombori va aloqa platformasi bo‘lib xizmat qiladi. Internetning rivojlanishi og‘zaki nutqqa o‘xshash yozma muloqot shaklining paydo bo‘lishiga olib keldi, chunki chatlardagi o‘zaro ta’sir ko‘pincha yozma iboralarni muloqot uslubiga mos ravishda soddalashtiradi.[2] Onlayn muloqot aniq xususiyatlarga va o‘ziga xos odob-axloq qoidalariga ega, ularga rioya qilish o‘zaro ta’sir samaradorligini oshiradi va boshqa odamlar bilan muloqot qilishni osonlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Тадқиқотда кузатиш, сўровнома ўтказиш ва статистик методлардан фойланилган.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dunyoning deyarli barcha rivojlangan mintaqalarini qamrab olgan global internet madaniyatlararo aloqaning kuchli vositasi bo‘lib xizmat qiladi, odamlar o‘rtasida yaqinroq aloqalarni o‘rnatishga va ularning milliy hamda etnik o‘ziga xosligini mustahkamlashga yordam beradi. Internetdagi barcha muloqot shakllari kompyuterlashtirilgan tabiati tufayli o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

1. Anonimlik – virtual sherikning shaxsini aniqlash uchun ma’lumotlarning yetarli emasligi. Bundan tashqari, virtual o‘zaro ta’sirlar uning haqiqiy o‘zini yashirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday anonimlik muloqot paytida psixologik va ijtimoiy xavflarning pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa ishtirokchilar orasida hissiy ozodlik, qo‘pollik va ma’lum darajada mas’uliyatsizlik kabi xatti-harakatlarga olib keladi. Internetdagi odamlar ko‘pincha o‘zlarini erkinroq ifoda etadilar, ba’zida haqorat yoki ta’qibga murojaat qilishadi, chunki ta’sir qilish yoki salbiy baholash ehtimoli minimaldir.

2. Noverbal signallarsiz shaxslararo idrok – noverbal signallar bo‘lmagan taqdirda suhbatdoshning idrokiga xos kerakli xususiyatlarni aniqlash hamda proyeksiyalash jarayonlari.

3. Ixtiyoriy o‘zaro ta’sir – internet foydalanuvchilari turli xil muloqot shakllarini mustaqil ravishda boshlash yoki o‘z xohishiga ko‘ra tugatish huquqiga ega va ular xohlagan vaqtda ushbu o‘zaro aloqalarni to‘xtatishi mumkin.

4. Hissiy muloqotdagi muammolar. Ko‘pincha hissiyotlarni samarali yetkazishda qiyinchiliklar mavjud bo‘ladi, ammo foydalanuvchilar doimo o‘zlarining hissiyotlarini bildirishga harakat qilishadi. Ba’zida bu ehtiyoj emodzilar yordamida yoki asosiy xabardan keyin qavs ichidagi his-tuyg‘ularni aniq tasvirlash orqali qondiriladi.

5. An’anaviy bo‘lmagan xatti-harakatlarga moyillik. Onlayn foydalanuvchilar ko‘pincha haqiqiy ijtimoiy vaziyatlarga qaraganda boshqacha yo‘l tutishadi, raqamli makondan tashqarida qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan xatti-harakatlarning rollari va modellarini o‘rganadilar, bu esa g‘ayritabiiy xatti-harakatlarga olib keladi.

Onlayn aloqaning kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Noverbal signallarning yetishmasligi. Yozma muloqotda noverbal signallarning aksariyati yo‘qoladi, bu esa tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

2. Texnologiyaga bog‘liqlik. Internetga ulanish yoki qurilmalar bilan bog‘liq muammolar muloqotni buzishi mumkin.

3. Axborotning haddan tashqari yuklanishi. Doimiy xabarlar oqimi stressni keltirib chiqarishi va samaradorlikni pasaytirishi mumkin.

4. Maxfiylik muammolari. Onlayn muloqot shaxsiy hayotga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan raqamli iz qoldiradi.

5. Muloqotni depersonalizatsiya (shaxsning o‘zini o‘zi anglashi buzilishi) qilish. Shaxsiy muloqotning yo‘qligi munosabatlardagi empatiya va rasmiyatchilikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘rib chiqilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda onlayn muloqotning anonimligi bir nechta oqibatlarga olib keladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Masalan, noverbal signallar internetda o‘zaro aloqada bo‘lganda o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Yozma muloqotda his-tuyg‘ularni emodzilar orqali yetkazish mumkin bo‘lsa-da, ishtirokchilarning jismoniy harakat qila olmasligi his-tuyg‘ularni ifoda etish yoki yashirish mumkinligini anglatadi. Sotsiologiyada “gender” atamasi shaxsning ijtimoiy o‘ziga xosligining asosiy jihatini anglatadi, uning ijtimoiy va gender o‘ziga xosligini shakllantiradigan ijtimoiy-madaniy omillarga e’tibor qaratadi. U erkak va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlar bilan bog‘liq madaniy hamda ijtimoiy ma’nolarni qamrab oladi, erkaklik va

ayollikni belgilaydi. [3] Sotsiologiyadan farqli o‘laroq, gender tilshunosligi tilning ushbu ta‘sirlarni turli kontekstlarda qanday aks ettirishini o‘rganadi. [4]

Onlayn muloqotining psixologik xususiyatlari ko‘pincha quyidagilarni o‘z ichiga oladi [5]: aloqa to‘siqlarini deyarli butunlay yo‘q qilish va xabarlarni jimgina yetkaza olmaslik tufayli og‘zaki faollikning o‘sishi. Muloqot odatda parcha-parcha va mozaik xarakterga ega, chunki odamlar vizual hamda eshitish signallari bo‘lmagan tezkor replikalarni almashadilar. Bunday aloqalar doirasida maxsus odob-axloq qoidalari va yangi lingvistik uslub ham shakllanmoqda. Bundan tashqari, hissiy ifoda muhim rol o‘ynaydi; foydalanuvchilar ko‘pincha noverbal signallar o‘rniga his-tuyg‘ularni yetkazish uchun so‘z va belgilardan foydalanadilar. Muloqot paytida hissiy tajribalar “oqim” holatiga olib kelishi mumkin, bu faoliyatga chuqur sho‘ng‘ish, diqqat markazida siljish, zavqlanish, vaziyatni nazorat qilish hissi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, onlayn muloqot bu og‘zaki faoliyatning kuchayishi, parchalanish, maxsus kommunikativ odob-axloq qoidalari, hissiy ifoda va potensial anonimlik kabi xususiyatlar bilan belgilanadigan o‘zaro ta’sirning o‘ziga xos shakli.

Raqamli muloqot ta’lim va biznes jarayonlarini o‘zgartiradi. U masofaviy ta’lim (onlayn platformalar ta’limni yanada qulayroq qiladi, ammo yangi pedagogik yondashuvlarni talab qiladi); masofadan ishlash (uyda ishlash qobiliyati mehnat bozori tuzilishi va korporativ madaniyatini o‘zgartiradi); virtual jamoalar (onlayn vositalar samarali xalqaro jamoalarni yaratishga imkon beradi, ammo maxsus boshqaruv ko‘nikmalarini talab qiladi); raqamli tarmoq (*Linkedln* kabi professional ijtimoiy tarmoqlar kasbiy o‘sishning kalitiga aylanmoqda).

Onlayn muloqot davrida xavfsizlik va raqamli savodxonlik masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan:

1. Kiberxavfsizlik (shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va onlayn firibgarlikka qarshi turish doimiy hushyorlikni talab qiladi).

2. Raqamli savodxonlik (ma’lumotni tanqidiy baholash va raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyati zarur mahoratga aylanadi).

3. Raqamli farovonlik (internetda o‘tkaziladigan vaqtni nazorat qilish va virtual hamda real muloqotlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash juda muhimdir).

4. Ota-ona nazorati (bolalarning onlayn xavfsizligini ta’minlash ota-ona va o‘qituvchilar uchun muhim vazifaga aylanadi).

Onlayn kommunikatsiya rivojlanishda davom etmoqda va hayotimizning barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Uning ko‘p qirrali tabiatini, shu jumladan, psixologik, lingvistik, ta’lim va biznes jihatlarini tushunish raqamli aloqalardan ongli va samarali foydalanish imkonini beradi. Onlayn muloqotning afzalliklarini maksimal darajada oshirish va uning mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirini minimallashtirish uchun ushbu sohadagi tadqiqotlarni davom ettirish muhimdir.

Onlayn muloqotning psixologik xususiyatlari aloqa to‘siqlarining pasayishi va verbal ishtirokning kuchayishi; qisqa va egosentrik kommunikativ harakatlarga olib keladigan ma’lumotlar almashinuvi; kommunikativ odob-axloq qoidalari va yangi til shakllari; tuyg‘ularni ifodalash va “oqim” hissi bilan tavsiflangan emotsional holat, faoliyatga chuqur berilish, diqqat markazini o‘zgartirish, zavqlanish hissi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun internet muloqoti verbal muloqot, uzluksizlik, o‘ziga xos odob-axloq qoidalari, his-tuyg‘ularni ifodalash va potentsial anonimlik kabi asosiy xususiyatlar bilan o‘zaro ta’sirning bir shaklidir.

Onlayn muloqot zamonaviy ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning asosiy jihatiga aylandi. Raqamli tarmoqlardan foydalanishning ko‘payishi yangi texnologik imkoniyatlarni hisobga olgan holda aloqa dinamikasini qayta baholashga olib keldi. Tadqiqotchilar, ayniqsa, ushbu tarmoqlar ichidagi aloqaning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning foydalanuvchilarga ta’siri bilan qiziqishadi.[6] Masalan, N.N.Bogomolova [7] ommaviy axborot vositalari kontekstida muloqotning bir qancha jihatlarini, jumladan, texnologiya orqali vositachilik aloqasi, yirik ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr-mulohazalarning yo‘qligi va ommaviy, anonim va xilma-xil auditoriya mavjudligini ta’kidlaydi. L.N.Munning [8] ta’kidlashicha, “kommunikativ buzilishlar” internetda hissiy muloqot yetishmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Yana bir qiziqarli hodisa: ingliz tili ularning ona tili bo‘lmasa ham, yoshlar nutqida inglizcha so‘z va iboralar faol qo‘llanadi. *Go – ketaylik* o‘rniga, *oson* o‘rniga *izy*, *xo‘p* yoki *yaxshi* o‘rniga *ok* – bular ko‘plab mamlakatlarning yoshlar jargoniga mustahkam o‘rnashgan. Bundan tashqari, xorijiy so‘zlardan foydalanish ko‘pincha ajralib turish, “rivojlanishni” ko‘rsatish usuli sifatida qabul qilinadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). Onlayn muloqotda memlar alohida e’tiborga loyiqdir. Bu onlayn madaniyatning ajralmas qismiga aylangan matnli rasmlardir. Yoshlar memlar orqali muloqot qilishadi, his-tuyg‘ularini ifoda etadishadi, voqealarni sharhlashadi. Memlar ko‘pincha til to‘siqlarini yengib chiqadi. Chet tilidagi matnni tushunmasdan ham odamlar memning mohiyatini rasm va kontekstdan olishlari mumkin. Bu turli mamlakat yoshlari tushunadigan internetning o‘ziga xos universal tilini yaratadi.

Ba’zi tadqiqotchilar qisqa xabar va tezkor ma’lumot almashish odati uzoq muddatli konsentratsiya va chuqur tahlil qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligidan xavotirdalar. Boshqa tomondan, kontekstlarni tezda almashtirish, murakkab vizual matnli

xabarlarni dekodlash (memlarda bo‘lgani kabi) va noverbal muloqot vositalaridan (emodzi) samarali foydalanish ma’lum bilim qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.

Yoshlar onlayn muloqotda namoyish etadigan yuqori til ijodkorligini ham ta’kidlash joizdir. Yangi so‘zlarni yaratish, ma’nolar bilan “o‘ynash”, tillarni aralashtirish – bularning barchasi yosh avlod qo‘lidagi til o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifoda etish uchun moslashuvchan vositaga aylanishini ko‘rsatadi.

Onlayn muloqot yoshlarning tilini tubdan o‘zgartirib, uni yanada dinamik, obrazli va xalqaro qilib qo‘ydi. Ushbu o‘zgarishlar ba’zilarni tashvishga, boshqalarini esa hayratga soladi. Ammo bir narsa aniq – til rivojlanishda davom etmoqda va yoshlar, har doimgidek, bu o‘zgarishlarning boshida turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Чумакова В.А. Психологические особенности интернет-коммуникаций в социальных сетях / В.А. Чумакова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2013. – № 3 (50). – С. 451-453.

2.Лавров О.А. Набросок правил для участников электронных коммуникаций// Educational Technology & Society. 2005. – Вып. 8 (1). – С. 183-190.

3.Социологический словарь [Электронный ресурс]**.** – Режим доступа: http://www.onlinedics.ru/

4.Словари и энциклопедии [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://slovarslov.ru/

5.*Гулевич О.А.Психология коммуникации / О.А.Гулевич. – М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный ин-т, 2008. – 384 с.*

6.*Гулевич О.А. Психология коммуникации / О.А.Гулевич. – М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный ин-т, 2008. – 384 с. – С. 315.*

7.*Богомолова Н.Н. Массовая коммуникация и общение / Н.Н. Богомолова. – М.: Знание, 1988. – 80 с.*

8. Мун Л.Н. Информационные технологии и гуманитарная культура / Л.Н. Мун // Мир психологии. – 2002. – № 1. – С. 262-272.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Azimov A.N
ADPI, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
akbarshohazimov3@gmail.com

TEOLINGVISTIKANING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI MASALASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunolsikning yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan teolingivistikaning jahon tilshunosligida o‘rganilish tarixi, uning rivojlanish bosqichlari hamda mazkur yo‘nalishida tadqiqot ishlari olib borgan tilshunos olimlarning nazariy qarashlariga munosabat bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Zamonaviy tilshunoslik, teolingvistika, antroposentrik tilshunoslik, diniy matnlar, xutba, duo, ziyorat nutqlari.*

Azimov A.N
ADPI, teacher of the Department of Primary Education

THE ISSUE OF STUDYING TEOLINGUISTICS IN WORLD LINGUISTICS

Annotation: *This article discusses the history of the study of theolinguistics, one of the new directions in linguistics, in world linguistics, its stages of development, and the theoretical perspectives of linguists who have conducted research in this field.*

Keywords: *Modern linguistics, theolinguistics, anthropocentric linguistics, religious texts, sermons, prayers, pilgrimage speeches.*

Азимов А.Н.
АДПИ, преподаватель кафедры начального образования

ВОПРОС ИЗУЧЕНИЯ ТЕОЛИНГВИСТИКИ В МИРОВОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация: *В статье рассматривается история изучения теолингвистики – одного из новых направлений языкознания в мировом языкознании, этапы ее развития, а также теоретические взгляды лингвистов, проводивших исследования в этой области.*

Ключевые слова: *Современная лингвистика, теолингвистика, антропоцентрическая лингвистика, религиозные тексты, проповеди, молитвы, речи паломничества.*

Kirish

Ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma’rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda[19].

Jadidchilik adabiyoti o’z davrida katta o’zgarishlarga intilib, keng ko’lamdagi islohotlar joriy etib, adabiy jarayonga katta ta’sir ko’rsatgan desak, mubolag’a bo’lmaydi. Jadidchilar asosan, yoshlarni ilm-fan va zamonaviy ta’limga yo’naltirishni maqsad qilib qo’yganlar, bu esa o’z navbatida o’zbek jamiyatining taraqqiyotiga hissa qo’shishga intilish edi. “Milliy uyg’onish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan mazkur harakat g’oyalarining adabiy-badiiy ifodasi edi. Lekin gap shundaki, u jadidchilikning shunchaki bir ko’rgazmasi (illyustratsiyasi) bo’lib qolmadi, chinakam adabiyotga aylandi. U yangi adabiyotni boshlab berdi. Avji taraqqiysi 1915-1925

yillarga to'g'ri keldi." [36] Jadidchilik harakatining tub mohiyati avvalo, inson va uning qadri edi, har bir o'zbek xalqi vakilining jamiyatda o'z o'rnini topishi, ta'lim olishi, ilm-ma'rifat ko'rishi, eski qarashlar va qullik zanjiridan batamom ozod bo'lishi uchun ushbu harakat boshchilari o'z maqsadlari yo'lida og'ishmay olg'a bordilar.

Adabiyotlar tahlili.

Adabiy tahlilning rivojlanishi va o'rganilishi XX asrning boshlarida, ayniqsa, adabiy tanqidning shakllanishi bilan bog'liq. Xususan, Hamzashunos olim Qayumov. L "O'zbek nasrining yarim asri" asari orqali o'zbek nasri haqida, adabiy janrlar va adabiy asarlar tahlili to'g'risida, o'zbek yozuvchilari ijodi haqida ham bir qancha ma'lumotlar yozib qoldirgan. Qolaversa, adabiyotshunos olimlar Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. "Milliy uyg'onish davri adabiyoti", darsligida va Nazarov.B, Rasulov.A, Ahmedova.Sh, Qahramonov.Q "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" darsliklarida, o'zbek adabiy tanqidchiligining rivoji, adabiy asar tahlili, adabiyotshunoslik metodologiyasi haqida o'z fikr va xulosalarini berib o'tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada adabiy asar tahlili, shakli va mazmuni, strukturasi va badiiy vositalari haqida ma'lumotlar berildi. Tadqiqot metodi sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yangi saodat yohud milliy roman" asari tanlandi. Asar orqali badiiy asar tahlilida qanday metodlardan foydalanish kerakligi, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik metodologiyasining adabiy asar tahlilidagi o'rni va ahamiyati to'g'risida ham fikr-mulohazalar berib o'tildi.

Natijalar va ularning tahlili.

Aytish mumkinki, jadidchilik g'oyasi tom ma'noda "Yangi O'zbekiston" g'oya va mafkurasi bilan uyg'un va hamohangdir. Milliy uyg'onish davri adabiyoti haqida so'z borar ekan, hech shubhasiz Hamza Hakimzoda Niyoziy nomini tilga olmaslikning iloji yo'q. Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam aytganiday "Hamza yangi o'zbek adabiyoti asoschilaridan biridir". Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan yozilgan "Yangi saodat" milliy romani metodologik jihatdan bir qancha muhim yondashuv va tushunchalarni o'z ichiga olgan asar sifatida baholash mumkin. Ushbu romanning metodologik tahlili, uning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy masalalarga yondashuvi, personajlar orasidagi munosabatlar, asar tili va uslubi ham o'ziga xos. Ayrimlar romanni nihoyatda sodda va sayoz tilda yozilgan deya ta'rif berishadi, biroq ijodkor yashagan davr va muhitni hisobga olsak, insonlarning ongi hali murakkab asarlarni o'qishga tayyor emas edi. "Yangi saodat" asari, o'zining ijtomoiy haqiqatni tasvirlashda realistik yondashuvni qo'llashi bilan ajralib turadi. Asarda sotsializm realizmi metodologiyasi muhim rol o'ynaydi, chunki unda xalqning farovonligi, ijtimoiy muammolar, ilm-ma'rifat masalasi, ijtimoiy adolat kabi mavzular asosiy o'rin egallaydi. Qolaversa, asarda jamiyatning iqtisodiy va siyosiy sharoitlari, odamlarning mehnati va ularning dunyoqarashi hamda tafakkuridagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Hamza Niyoziy o'z romanida personajlarning ichki dunyosiga ham alohida e'tibor qaratadi. Qahramonlarning ongidagi o'zgarishlar, ular orasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar, ularning hissiy holatlari o'zaro ta'sirda bo'lib, asarning chuqur psixologik qatlamlarini tashkil etadi. Adabiy metodlar ushbu asarni tarixiy va ijtimoiy aspektlar nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Asar voqealari va personajlar o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar, ularning evolyutsiyasi va harakatlarning rivoji o'quvchiga nafaqat voqealar ketma-ketligi, balki ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni ham tushinishga yordam beradi.

"Hamza "Yangi saodat" asarida yana bir muhim masalaga – xalq ongiga singib ketgan "Xudo bersa bo'ldida" degan e'tiqod (buni Hamza "fasod e'tiqodlar" jumlasiga kiritadi)ga e'tiborni qaratadi. Mutaassiblar tomonidan singdirilgan bu e'tiqodga asosan odamlar "bersang yeyman, ursang o'laman" qabilida ish tutib, o'zlari hech bir harakat qilmaydilar. Muallif bunday asossiz e'tiqodni keskin fosh etadi: "Xudo bersa bo'ladida, degan johil ota bobolarimizning asossiz so'z va fasod e'tiqodlaridur. Xudo zolim emas, birovga berib, birovga bermay qo'ymas. Xudo taborak va taolo saodat - ilmda, razolat – jaholatda, har bir ish bandaning o'z harakatiga muofiq, deb o'z kalomida takror habar bergan." Asarda Abdulqahhorning johilligi tufayli katta mashaqqatlarga yuz tutgan oila ahvolini, miskin, g'arib Olimjon ruhiyatini tasvirlashda sentimental uslub bo'yoqlaridan ancha keng foydalangan."[37] Darhaqiqat, Hamza Hakimzoda o'z uslubi orqali, dialoglar, simvolizm va metaforalarni o'z o'rnida qo'llab, personajlarning ichki monologlarini juda chiroyli yo'sinda ochib berishga harakat qiladi. Tilimizning figurativ imkoniyatlaridan foydalanish orqali romanning ma'naviy va estetik qiymati oshirilgan. Xususan, asarda bosh qahramon Olimjonning onasiga bo'lgan munosabati, onasi Maryam yig'lab o'tirganida kelib uni ovutishi, yosh bo'laturib tirishqoqligi, ota ona va farzand, aka va singil o'rtasidagi munosabatlar aslida qanday bo'lishi kerakligini ham Hamza juda nozik usulda tasvirlab, o'quvchining ruhiyatiga teginib o'tadi. "Olimjon bolam, non qattiq bo'lsa, piyolaga to'g'ragil, Xadicha ko'proq

[36] Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti, darslik. Toshkent., "Ma'naviyat" 2004. 2.b

[37] Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti, darslik. Toshkent., "Ma'naviyat" 2004. 253b.

choydan quysin, muloyim bo'ladi." [38] Hamza asarda har bir so'zdan unumli foydalangan desak, xato bo'lmaydi. Yuqoridagi jumlani ijodkor "Xadicha ko'proq choydan quysin, yumshoq bo'ladi" deb ham yozishi mumkin edi, ammo u yanada chiroyli va munosib usulda "muloyim bo'ladi" jumlasini qo'llaydi. asardagi ushbu jumlalardan bilish mumkinki, o'sha davrda xalqning ahvoli naqadar nochor va achinarli holda ekanligini, tobora bid'at urf odatlarga qul bo'lib, yangilikka intilmay, oddiy kosiblar ham tilanchilikni kasb qilib olganliklari va er kishiga munosib bo'lmagan holda qorin to'ydirib yurganliklarini tanqid qilib, buning bari ilmsizlikdan deya kuyinib ifoda etadi. Hamzashunos, filologiya fanlari doktori, professor Laziz Qayumov ta'kidlashicha: "Hamza Hakimzoda Niyoziy "Yangi saodat" romanining so'z boshisida shunday deb yozadi: "Bizim Turkistonda… er va xotinlarimizni… o'qug'onlarining aksari emas, balki hammalari deyarli eski maktablarda, eski imlo va usulda xat va savodlari chiqqani uchun hozirgi matbuotda yangi usul, yangi imlo bila bosilib chiqib turgan maktab kitoblariga, jarida va risolalarga tezdan tushuna olib, o'qiyolmaganlari bir-birimizga ravshandir." [39] Adabiyotshunos (Qayumov.L) Hamzaning ushbu fikrlarini shunday izohlaydi: "Ko'rinadiki, Hamza XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida nasr mavjud ekanliginigina emas, balki unda usullar musobaqasi ketayotganligini ham ta'kidlab o'tadi. Hamza o'z ijodi uchun bu uslubdan yangisini, jonli so'zlashuv tiliga yaqinini ma'qul ko'rdi va o'zining barcha nasriy asarlarini shu uslubda yozdi."[40]

Hamza Hakimzoda Niyoziy nimaiki ijod etmasin, xoh u pyesa bo'lsin, xoh roman yoki she'r, barcha-barchasini faqat xalq uchun yozdi. Yozganda ham xalqni ongini yuksaltirish, tafakkurini isloh qilishi uchun ijod etdi. Hamza asarlari tilini sayoz va sodda degan munaqqidlar, o'z vaqtida Qodiriyga nisbatan ham ayni ta'rifni berishgan edi. Xususan, 1931-yil, "Sharq haqiqati" gazetasida adabiyotshunos, tanqidchi Sotti Husaynning Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaniga nisbatan katta tanqidiy maqolasi bosilib chiqadi va bunga javoban Qodiriy o'zining ba'zi izohlarini keltirib o'tadi: "O'tkan kunlarda ko'prak qo'llang'an didaktika to'g'risida. Didaktika usulini ko'prak qo'llanishining sababi "O'tkan kunlar"ning ommamizning saviyasig'a qarab yozilishidandir. Ma'lumki, bizning omma to shu kungacha ham O'rta asr doston va hikoyalari bilan oziqlanib keladir. Ommaning shu holini nazarg'a olg'anda, barmoq bilan sanarliq besh o'ntagina (ular ham o'z hunarlarida no'noqroqdirlar) yoshlarimiz uchun "so'ngg'i priyom"ni berish – tishi chiqmag'an bolag'a qurt shimitish kabi bo'lar edi. Holbuki, bu eski priyom jo'rtga, xalqimizning saviyasini e'tiborg'a olib qabul qiling'andir. Xalqning zavqini, ruhini nazarda tutilmasa, "so'ngg'i priyom" deb Yovruponing so'ngg'i mo'dasini taqdim qilinsa, bundan nima ma'no chiqarib bo'lar edi. Xattoki, men "so'ngg'i priyom"lardan ba'zisini "O'tkan kunlar"ga ertarak kirgizgan bo'lsam kerakki, choyxonada o'lturgan tanish bir dehqondan "Mullaka, shu Kumushbibining kitobini xo'b yozg'ansiz-ku, biroq, bu ba'zi yerida gapini xudda chovi aralash ushlaysiz-da, tushunib olg'uncha enka-tenkamiz chiqdi-da!" deb "so'ngg'i priyom"dan shikoyat eshitkan edim.

"O'tkan kunlar"ni yozar ekanman, doim ko'z o'ngimda o'qig'uchi ommamiz turar edi. Men bu kitobim bilan xalqimiz rag'batini bir oz bo'lsa ham yangilikka tortay der edim. Shuning uchundirkim, xatto bir faslni tamom tashlab o'tar ekanman, "Falon holni bundan so'ngg'i fasllarning birida o'qursiz" kabi so'z bilan o'qug'uchiga ta'minot berib qo'yishqacha majburiyat sezar edim. Mashrabning "berdisini aytkuncha" kaltak yeb olg'anini tushunar edim. Bu haqda hanuz bir fikrim bor: Modomiki, asar saviyasi o'zimizga ma'lum shu xalq uchun yozilar ekan, yana birmuncha vaqt "so'ngg'i priyom"lardan ko'z yumib turish, oraliqda "so'ngg'i priyom"ni oz-oz qistira boorish lozimdir. Na uchunkim, "so'nggi priyom"da yozilg'an she'r va nasrlarimiz bir tabaqag'agina xos bo'lib qolaberg'ani da'vomizg'a dalildir. Vaqtoki, biz ko'bchilik – ishchi va dehqon ommasi uchun yozar ekanmiz, "eski priyom" bilan yozadi, binoan alayhi bu yozg'uchig'a birinchi no'mirni bermaymiz", deb qiling'an tanqidlardan hurkmaymiz." Abdulla Qodiriy Sotti Husaynning tanqidiga o'rinli javob qaytargan desak, xato bo'lmaydi. Qodiriy xalq tushunmaydigan, o'qib, anglashi qiyin bo'lgan tilda nasr yozishni, "tishi chiqmagan bolaga qurt shimdirish"ga qiyoslaydi. Avvalo, ommaning saviyasini o'ylab, keyin yozish kerakligini oqilona tarzda tushuntirib beradi. Biz yuqorida tilga olgan Hamza Hakimzoda Niyoziy ham ana shunday xalqparvar ijodkor sifatida o'zining butun yaratgan ijodini xalq tilida yozishga harakat qildi.

"Adabiyot hayotni, voqelikni badiiy o'zlashtirishda o'ziga xos obrazlilik vositalari bilan inson qalbi va aqliga ta'sir qilib, jamiyat rivojiga yordam beradi. Adabiy tanqid ham badiiy adabiyot vositasida shu vazifani bajaradi, kishilik taraqqiyoti va tafakkuri rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu xususiyatning o'ziyoq adabiy tanqidiy asarlarda san'atga, badiiyatga xos ayrim fazilatlar bo'lishi mumkingina emas, zarurligini taqozo etadi. Buning uchun san'at asari haqida fikr yuritguvchi tanqidchining o'zi muayyan darajada san'atkor bo'lmog'i darkor. Har qanday fanga xos asosiy xususiyat, ya'ni "o'ziga tegishli" bo'lgan hodisani tadqiq qilish asnosida unga baho bermoq, fikrni asoslamoq va isbotlamoq adabiy tanqidga

[38] Hamza Hakimzoda. "Yangi saodat" yohud "Milliy roman". Litografiya nashri, Qo'qon, 1915, 2b.

[39] Hamza Hakimzoda. "Yangi saodat" yohud "Milliy roman". Litografiya nashri, Qo'qon, 1915, 2b.

[40] Qayumov.L "O'zbek nasrining yarim asri", O'zbekiston KP markaziy komitetining birlashgan nashriyoti. T.,1967, 5b.

ham xosdir. Unga ko'ra adabiy tanqid muayyan adabiy hodisani tahlil qilar ekan, uning tahlilida izchil mantiq, asos va isbot birinchi darajali ahamiyat kasb etadi."

Xulosa.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adabiy asar tahlilini biografik, germenevtik, sotsiologik, tarixiy va boshqa metodlar yordamida keng qamrovli tahlil qilish, nafaqat asarni tushunishda balki, unga munosib baho berishda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Axmedov S. Milliy uyg'onish davri adabiyoti, darslik. Toshkent., "Ma'naviyat" 2004. 253b.
2. Qayumov.L "O'zbek nasrining yarim asri", O'zbekiston KP markaziy komitetining birlashgan nashriyoti. T.,1967
3. Nazarov.B, Rasulov.A, Ahmedova.Sh, Qahramonov.Q "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" darslik. "Tafakkur qanoqti" nashriyoti. T.,2012.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Asarlar, birinchi tom. She'rlar." O'zSSR davlat badiiy nashriyoti", T., 1960. 254b.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami, 2-tom. "Fan"nashriyoti, Toshkent,.1988.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami,3-tom. "Fan"nashriyoti, Toshkent,.1988.
7. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami, 4-tom. Dramalar va Maqolalar. "Fan"nashriyoti, Toshkent,.1988.
8. Hamza ijodi haqida (tadqiqotlar). O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti.T.,1981. 186b.
9. Laziz Qayumov. "Inqilob va ijod".T., 1964.
10. Begali Qosimov. "Izlay-izlay topganim". T.,1983. "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 242b.
11. www.Gazeta.uz
12. www.Ziyouz.com
13. www.Lex.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sobirova Nazira G'anijon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
nazirasobirova@gmail.com

N-GRAMM STATISTIKASIGA ASOSLANGAN IMLO TEKSHIRISH

Annotatsiya. *Hozirgi vaqtda avtomatik imlo tekshirish tizimlari matn sifatini oshirish va foydalanuvchilarga qulaylik yaratish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili uchun mavjud imlo tekshiruvchilar cheklangan bo'lib, ularning aksariyati an'anaviy lug'atga asoslangan usullarni qo'llaydi. Biroq, bunday yondashuvlar yangi so'zlarni va morfologik xususiyatlarni to'g'ri aniqlashda samarasiz bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada n-gram statistikasi asosida ishlaydigan modelni ishlab chiqish orqali yanada aniqroq va moslashuvchan tizim yaratish imkoniyati berilishi mumkinligi xususida muhokamalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *NLP, n-gramm, unigram, bigram, trigram, o'xshashlik darajasi, ehtimollik nazariyasi.*

Nazira Sobirova Ganijon kizi
PhD Researcher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy

SPELL CHECKING BASED ON N-GRAM STATISTICS

Annotation. *Nowadays, automatic spell-checking systems play a crucial role in improving text quality and providing user convenience. Existing spell checkers for the Uzbek language are limited, and most of them rely on traditional dictionary-based methods. However, such approaches may be ineffective in accurately identifying new words and morphological features. Therefore, this article discusses the possibility of creating a more accurate and flexible system by developing a model based on n-gram statistics.*

Keywords: *NLP, n-gram, unigram, bigram, trigram, similarity level, probability theory.*

Собирова Назира Ганижон кизи
Аспирант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

ПРОВЕРКА ОРФОГРАФИИ НА ОСНОВЕ СТАТИСТИКИ N-ГРАММ

Аннотация: *В настоящее время системы автоматической проверки орфографии играют важную роль в повышении качества текста и удобства пользователей. Существующие проверяющие орфографию системы для узбекского языка ограничены, и большинство из них используют традиционные методы, основанные на словарях. Однако такие подходы могут быть неэффективными при точном определении новых слов и морфологических особенностей. Поэтому в данной статье рассматривается возможность создания более точной и гибкой системы путем разработки модели, основанной на статистике n-грамм.*

Ключевые слова: *NLP, n-граммы, униграмма, биграмма, триграмма, уровень схожести, теория вероятностей.*


Kirish.

Matn ichidagi so'zlarni avtomatik tarzda to'g'rilash uchun algoritmlar va texnikalarni ishlab chiqish muammosi doimiy ilmiy izlanishlar mavzusiga aylangan. Kompyuter yordamida avtomatik imlo tuzatish va matnni tanib olish bo'yicha ilk tadqiqotlar 1960-yillarda boshlangan bo'lib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning doimiy davom etishiga bir nechta muhim sabablar bor: *sifat* va *samaradorlikni oshirish* hamda ushbu texnologiyalarning *qo'llanilish doirasini kengaytirish*. Matnda imlo xatolarini aniqlash va tuzatish bo'yicha algoritmik usullar kompyuter fanida uzoq va mustahkam tarixga ega [1]. Ushbu muammo ustida ishlash boshlanganidan beri ko'plab yondashuvlar qo'llanilgan: tahrirlash masofasi (edit distance) [2], qoidalarga asoslangan usullar (rule-based techniques) [3], n-grammlar (n-grams) [4], ehtimollik usullari (probabilistic techniques) [5], neyron tarmoqlar (neural nets) [6], o'xshashlik kalitlari usuli

(similarity key techniques) [7,8], shovqinli kanal modeli (noisy channel model) [9,10].

Ushbu barcha yondashuvlarning asosiy g‘oyasi noto‘g‘ri yozilgan so‘z va lug‘atdagi to‘g‘ri so‘zlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni hisoblashga asoslangan.[11]

N-grammalar tabiiy tilni qayta ishlashda dastlab Shannon tomonidan muhokama qilingan [12]. Ushbu ilk tadqiqotdan so‘ng, n-gramma yondashuvi ko‘plab muammolarni hal qilish uchun qo‘llanila boshlandi, jumladan:



N-gramma yondashuvining asosiy afzalligi — uning tilga bog‘liq emasligidir. Bu esa uni turli tillar uchun ishlatish imkonini beradi.

Damerau tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, so‘z bo‘lmagan xatolarning 80% holatida xatolik bitta harf qo‘shib yuborish, olib tashlash, almashtirish yoki joyini o‘zgartirish natijasida yuzaga keladi [13]. Shuning uchun, bu operatsiyalarni hisobga oladigan tuzatish algoritmlarini ishlab chiqish mantiqan to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadi. Shu bilan birga, faqatgina N-Gram statistikalariga asoslangan usullar ham imlo xatolarini tuzatishda yetarlicha samarador natija bera olishini isbotlagan [14].

1970-yillarning boshi va 1980-yillarning boshlari orasida tadqiqotlar so‘zsiz xatolarni aniqlash usullariga qaratilgan edi [15].

Xato aniqlash va tuzatish

Imlo xatolari ikki asosiy turga bo‘linadi:

1.Haqiqiy so‘z xatolari (real-word errors) – Bular noto‘g‘ri yozilgan, lekin lug‘atda mavjud bo‘lgan so‘zlar.

2.Noto‘g‘ri so‘z xatolari (non-word errors) – Bular lug‘atda mavjud bo‘lmagan so‘zlar bo‘lib, hech qanday ma’noga ega emas.

Ko‘pchilik imlo tekshirgichlari va tuzatuvchilar ikki qatlamli yondashuvga amal qiladilar: **xatolarni aniqlash* ; ** xato tuzatish.*

Xato aniqlash uchun, har bir so‘z jumlada tokenizator yordamida tokenlashtiriladi va uning to‘g‘riligiga tekshiriladi. Nomzod so‘z ma'noga ega bo‘lsa, u to‘g‘ri so‘z deb hisoblanadi, aks holda u xato deb topiladi.

Xatoni tuzatish ikki bosqichdan iborat:

a) nomzod tuzatishlarning generatsiyasi ; b) nomzod tuzatishlarni reytinglash.

Nomzodlar generatsiyasi jarayoni,odatda, to‘g‘ri n-gramlar jadvali yordamida bir yoki bir nechta tuzatishlarni aniqlashni amalga oshiradi.

Reytinglash jarayoni esa, xato yozilgan satr va nomzodlar o‘rtasidagi leksik o‘xshashlik o‘lchovini yoki tuzatishning ehtimolligini hisoblash orqali nomzodlarni reytinglashni amalga oshiradi.

Ushbu ikki bosqich ko‘pincha alohida jarayon sifatida qaraladi va ketma-ket bajariladi. Ba’zi usullar ikkinchi jarayonni o‘tkazib yuborishi mumkin, reytinglash va yakuniy tanlovni foydalanuvchiga qoldiradi.

Damerau tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, imlo xatolari, odatda ikki turga bo‘linadi: *1)Tipografik xatolar 2) Kognitiv xatolar*.

Tipografik xatolar

Bu xatolar, so‘zning to‘g‘ri yozilishi ma'lum bo‘lsa ham, so‘z xato yozilishi tufayli yuzaga keladi. Ushbu xatolar asosan klaviatura bilan bog‘liq bo‘lib, shuning uchun ular lingvistik mezonlarga amal qilmaydi. Damerau[13] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda tipografik xatolarning quyidagi to‘rt kategoriya ichiga kiradi:

1. *Bir harf qo‘shish : gulzor – gullzor;*
2. *Bir harf o‘chirish : qanday – qnday;*
3. *Bir harf o‘zgartirish : bilim – bolim,*
4. *Ikki yaqin harfni joyini almashtirish: fikr – fkir.*

Kognitiv xatolar

Bu xatolar, so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi ma'lum bo‘lmagan holatlarda yuzaga keladi. Kognitiv xatolar holatida, xato yozilgan so‘zning talaffuzi to‘g‘ri so‘zning talaffuziga o‘xshash yoki bir xil bo‘ladi.

Kukich [1] tomonidan o‘tkazilgan imlo tekshirish texnikalarining tadqiqoti hozirgi kunga qadar asosiy manba hisoblanadi. Jurafsky va Martin bu ishlardan deyarli bir o‘n yil keyin yozgan bo‘lsa-da, ular hanuz Kukichning asarlariga tayanadi. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlar va Bodinening tadqiqot sharhi ham Kukichning ishlariga mos keladi. Bu shuni anglatadiki, Kukich tadqiqotiga kiritilgan *satr qidirish texnikalari* imlo tekshirish vazifalari uchun eng maqbul usullar hisoblanadi.

Kukich[1] ham matndagi noma’lum so‘z xatolarini aniqlash texnikalarini ikki turga ajratdi:

1.Lug‘at qidiruvi texnikasi

2.N-gramma tahlili texnikasi

Lug‘at/Wordnet — bu ma‘lum bir tilning to‘g‘ri so‘zlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan leksik manba hisoblanadi. Xato so‘zlarni lug‘atga solishtirib, har bir so‘zni tekshirib, osonlik bilan aniqlash mumkin. Lekin uning o‘ziga yarasha kamchiliklari ham bor. Ya’ni, bunda lug‘atni yangilash va matndagi barcha so‘zlarni qamrab olish darajasi yetarli, keng va to‘liq emas.

Imlo xatolarini tuzatish jarayonida n-gram — bu so‘z yoki qator ichidagi n ta harfdan tashkil topgan ketma-ketlik hisoblanadi. N-gramma modeli ikki qator (so‘z) orasidagi o‘xshashlikni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu

o‘xshashlik ikkala qator ichidagi umumiy n-grammalar sonini hisoblash orqali aniqlanadi. Qanchalik ko‘p umumiy n-grammalar mavjud bo‘lsa, ikkita qator shunchalik o‘xshash bo‘ladi.

Bu g‘oya asosida o‘xshashlik darajasi keltirib chiqarilishi mumkin. O‘xshashlik darajasi (δ) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

O‘xshashlik darajasi formulasi

O‘xshashlik koeffitsienti (δ) ikki so‘z orasidagi o‘xshashlik darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Formulaning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

$$\delta_n(a,b) = \frac{\alpha \cap \beta}{\alpha \cup \beta}$$

Bu yerda:

• $\alpha\ va\ \beta$ – taqqoslanayotgan ikki so‘z a va b ning n-gram to‘plamlari;

• $\alpha \cap \beta$– ikkala so‘z orasida umumiy (o‘xshash) n-grammalar soni;

• $\alpha \cup \beta$ – ikkala so‘zning umumiy unikal n-grammalar soni.

Bu formula yordamida ikki so‘z o‘rtasidagi o‘xshashlik 0 dan 1 gacha bo‘lgan qiymat sifatida ifodalanadi:

• 1 ga yaqin bo‘lsa – so‘zlar juda o‘xshash;

• 0 ga yaqin bo‘lsa – so‘zlar umuman o‘xshash emas.

Misol: Agar a = "muvaffaqiyat" va b = " mavaffaqiyat " bo‘lsa, bigrams (n=2) uchun o‘xshashlik darajasi quyidagicha hisoblanadi:

• " muvaffaqiyat " bigramlari: "mu", "uv", "va", "af", "ff", "fa", "aq","qi","iy","ya","at"

• " mavaffaqiyat " bigramlari: "ma", "av", "va", "af", "ff", "fa", "aq","qi","iy","ya","at"

Umumiy bigramlar: "va", "af", "ff", "fa", "aq","qi","iy","ya","at"

Unikal bigramlar: "mu", "uv", "va", "af", "ff", "fa", "aq","qi","iy","ya","at","ma", "av"

$\delta_2(muvaffaqiyat, mavaffaqiyat) = \frac{9}{13} = 0.7$

Bu natija ikki so‘z o‘rtasidagi qisman o‘xshashlikni anglatadi.

N-gramm modeli matndagi birliklarning (so‘zlar yoki harflar) ketma-ketligini tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, unigram (1-gramm), bigram (2-gramm), trigram (3-gramm) kabi turli variantlari mavjud.

Unigram: N = 1, ya’ni har bir so‘z mustaqil ravishda baholanadi.

Bigram: N = 2, ya’ni ikkita ketma-ket so‘zlar o‘rtasidagi bog’liqlik hisoblanadi.

Trigram: N = 3, ya’ni uchta ketma-ket so‘zlar o‘rtasidagi bog’lanish hisoblanadi.

4-gram, 5-gram va hokazo: N > 3, bu ko‘proq so‘zlar ketma-ketligini tahlil qilishni anglatadi.

Markov farazi - n-gram tahlilining asosiy tushunchasidir. Bu farazning asosiy g'oyasi shundaki, so‘z ketma-ketligidagi biror so‘zning ehtimolligi to‘liq tarixga asoslanib emas, balki faqat oldingi bir nechta so‘zlarga asoslanib hisoblanadi.

P(wn|w1,w2,...,wn−1)≈P(wn|wn−1)

Bu taxmin, so‘zning ehtimolligi faqat oldingi so‘zni (ya'ni wn−1w_{n-1}wn−1) hisobga olib hisoblanadi.

N-gram modeli o‘zining ishlashida, har bir so‘zni oldingi N-1 so‘zi bilan bog'laydi va ular orasidagi ehtimollikni hisoblaydi. Masalan, bigram modelida, ikkinchi so‘zni taxmin qilishda, u faqat birinchi so‘zni hisobga oladi. Agar unigram modelida har bir so‘zning ehtimolligi mustaqil bo‘lsa, bigram va undan katta N-gram modellari oldingi so‘zlarni hisobga olib keyingi so‘zni bashorat qilishga harakat qiladi. N-gramm modelidan foydalanib, matn ichidagi so‘z birikmalari va ularning ehtimolliklarini hisoblash mumkin.

“Men musiqa tinglashni yoqtiraman” jumlasini tahlil qilaylik.

Unigram Modeli (N=1) Unigram (bir so‘zli ketma-ketlik): Har bir so‘z mustaqil ravishda olinadi, ya'ni bu modelda so‘zlar o‘rtasidagi bog'lanish hisobga olinmaydi.

Men, musiqa, tinglashni, yoqtiraman.

Bigram Modeli (N=2) Bigram (ikki so‘zli ketma-ketlik): Bu modelda har bir so‘z faqat o‘zidan oldingi so‘zga bog'lanadi, ya'ni ketma-ket keladigan ikkita so‘zning ehtimolligi hisobga olinadi.

Men musiqa, musiqa tinglashni, tinglashni yoqtiraman.

Trigram Modeli (N=3)

Trigram (uchta so‘zli ketma-ketlik): Bu modelda har bir so‘z oldingi ikkita so‘zga bog'liq bo‘lib, ularning ehtimolligi asosida keyingi so‘zni taxmin qiladi.

Men musiqa tinglashni, musiqa tinglashni yoqtiraman.

N-gram yordamida ehtimollik hisoblash

$P(w1)= \frac{so'z\ w1ning\ soni}{barcha\ so'zlar\ soni}$ *unigram*

Agar matnda Men so‘zi 10 marta uchrasa va jami 100 so‘z bo‘lsa, Men so‘zining ehtimolligi:

$P(Men)= \frac{10}{100} =0.1$ $P(w2|w1)= \frac{\text{bigram (w1,w2) soni}}{\text{so‘z w1 soni}}$ *bigram*

Agar matnda Men musiqa bigrami 5 marta uchrasa va Men so‘zi jami 10 marta uchrasa, bigram ehtimolligi quyidagicha bo‘ladi:

$P(musiqa|Men)= \frac{5}{10} =0.5$ $P(w3|w1,w2)=\frac{\text{trigram (w1,w2,w3) soni}}{\text{bigram (w1,w2) soni}}$ trigram

Agar Men musiqa tinglashni trigrami 3 marta uchrasa va Men musiqa bigrami 7 marta uchrasa, trigram ehtimolligi:

$P(tinglashni|Men,musiqa)= \frac{3}{7} \approx 0.43$

Xulosa qilib aytganda, N-gramm usuli imlo tekshirish uchun samarali yondashuv bo‘lib, u matndagi xatolarni aniqlash va tuzatishda yordam beradi. Ushbu usul boshqa usullar bilan birgalikda ishlatilganda yanada samarali natijalarga erishish mumkin. Kelajakda ushbu usul sun’iy

intellekt modellariga integratsiya qilinib, yanada kuchliroq imlo tekshiruvchi tizimlar yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K. Kukich, “Techniques for automatically correcting words in text,” *ACM Computing Surveys*, 24(4), 377–439, 1992.

2. R. A. Wagner and M. J. Fisher, “The string to string correction problem,” *Journal of Assoc. Comp. Mach*., 21(1):168-173, 1974

3. E. J. Yannakoudakis and D. Fawthrop, “An intelligent spelling error corrector,” *Information Processing and Management*, 19:1, 101-108, 1983..

4. Jin-ming Zhan, Xiaolong Mou, Shuqing Li, Ditang Fang, “A Language Model in a Large-Vocabulary Speech Recognition System,” in *Proc. Of Int. Conf. ICSLP98*, Sydney, Australia, 1998.

5. K. Church and W. A. Gale, “Probability scoring for spelling correction,”*Statistics and Computing*, Vol. 1, No. 1, pp. 93–103, 1991.

6. V. J. Hodge and J. Austin, “A comparison of standard spell checking algorithms and novel binary neural approach,” *IEEE Trans. Know. Dat. Eng.*, Vol. 15:5, pp. 1073-1081, 2003.

7. J. J. Pollock and A. Zamora, “Collection and characterization of spelling errors in scientific and scholarly text,” *Journal Amer. Soc. Inf. Sci*., Vol.34, No. 1, pp. 51–58, 1983.

8. “Automatic spelling correction in scientific and scholarly text,” *Comm. ACM*, Vol. 27, No. 4, pp. 358–368, 1984.

9. E. Brill and R. C. Moore, “An improved error model for noisy channel spelling correction,” in *Proc. 38th Annual Meet. of the Assoc. for Comp. Ling*., Hong Kong, 2000, pp. 286–293.

10. K. Toutanova and R. C. Moore, “Pronunciation modeling for improved spelling correction,” in *Proc. 40th Annual Meeting of the Assoc. For Comp. Ling*., Hong Kong, 2002, pp. 144–151.

11. Farag Ahmed, Ernesto William De Luca, and Andreas Nürnberger, “Revised N-Gram based Automatic Spelling Correction Tool to Improve Retrieval Effectiveness”, 2009.

12. C. E. Shannon, “Prediction and entropy of printed English,” *Bell Sys. Tec. J.* (30):50–64, 1951.

13. F. J. Damerau, “A technique for computer detection and correction of spelling errors,” *Communications of ACM*, 7(3):171-176.7, 1964.

14. V. J. Hodge and J. Austin, “A comparison of standard spell checking algorithms and novel binary neural approach,” *IEEE Trans. Know. Dat. Eng.*, Vol. 15:5, pp. 1073-1081, 2003.

15. Hsuan Lorraine Liang. SPELL CHECKERS AND CORRECTORS:A UNIFIED TREATMENT 2008.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xasanova Xurshida Naimovna
Navoiy viloyat Pedagogik mahorat markazi, "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi" professor v.b.
Pedagogika fanlari doktori (DSc)
E-mail: xurshidaxasanova226@gmail.com

UO'K 37.091.3:372.8:54:37.02

KREATIV TA'LIM KIMYO DARSLARI SAMARADORLIGINING ASOSIDIR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi. XXI asrda ta'lim jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan, fan va texnologiyalar bilan hamohang bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda kreativ yondashuvlardan foydalanishning dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *kimyo ta'limi, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, XXI asr ko'nikmalari, STEM, kreativ fikrlash.*

Хасанова Хуршида Наимовна
Навоийский областной центр педагогического мастерства, Кафедра методики точных и естественных наук
и.о. профессора, доктор педагогических наук (DSc)

КРЕАТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ – ОСНОВА ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ХИМИИ

Аннотация: *В данной статье анализируется значение передовых педагогических технологий в совершенствовании процесса преподавания химии и повышении его эффективности в современной системе образования. Подчеркивается необходимость синхронизации образовательного процесса с быстро развивающимися наукой и технологиями XXI века. Также научно обоснована актуальность использования интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и креативного подхода в укреплении теоретических знаний и формировании практических навыков учащихся.*

Ключевые слова: *преподавание химии, педагогические технологии, интерактивные методы, навыки XXI века, STEM, креативное мышление.*

Khasanova Khurshida Naimovna
Navoi Regional Center for Pedagogical Mastery, Department of Methodology of Exact and Natural Sciences
Acting Professor, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

CREATIVE EDUCATION IS THE FOUNDATION OF EFFECTIVE CHEMISTRY LESSONS.

Abstract: *This article analyzes the importance of advanced pedagogical technologies in improving the process of teaching chemistry and increasing its effectiveness in the modern education system. It highlights the necessity of synchronizing the educational process with the rapidly developing science and technology of the 21st century. Additionally, the relevance of using interactive methods, information and communication technologies, and a creative approach in strengthening students' theoretical knowledge and developing their practical skills is scientifically substantiated.*

Keywords: *chemistry education, pedagogical technologies, interactive methods, 21st-century skills, STEM, creative thinking.*

Kirish.

Bugungi kunda ilm-fan shiddat bilan taraqqiy etib bormoqda. Ta'limning har bir bosqichida, jumladan maktab ta'limida ana shu fanning shiddat va rivojlanish darajasini inobatga olmasak, ta'lim jarayonining natijasi samarali bo'ladi deya olmaymiz. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida hamma fanlarni o'qitishda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash talab qilinmoqda.

O'quvchilarning tabiiy fanlar sirasiga kiradigan kimyo fani bo'yicha mustahkam bilim olishlari, fanning nazariy va amaliy qismini to'liq tushunishlari, kimyo fanidan beriladigan topshiriqlarni ijobiy bajarishlari uchun darslarning qiziqarli tarzda o'tilishi, dars jarayonlarida kreativlikni oshiruvchi va motivatsiya beruvchi

metodikalardan foydalanish, ularni qo‘llash asosida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim sanaladi. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda faoliyat yuritish uchun bitiruvchi bir qator ijobiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim sanaladi, jumladan bir qancha xorijiy tillarni bilish, dasturiy vositalardan foydalana olish, kommunikativ va jamoada faoliyat yuritishga imkon beruvchi kolloborativ ko‘nikmalarga ega bo‘lish kabi. Biroq eng asosiysi, o‘zi faoliyat yuritayotgan sohani chuqur bilish va unda yuqori natijalarga erishish uchun ijodkorlik va kreativ fikrlashi muhim sanaladi.

Adabiyotlar tahlili.

Kreativlik – bu insonning muammoni hal qilishda nostandart fikrlash natijasida ijodiy qarorlar qabul qila olishi, yangi g‘oyalar yarata olish qobiliyatidir. Kreativlik umuman imkonsiz sanalgan masalalarni ham ijobiy yo‘l bilan hal qilish, zukkolik asosida maqsadga erishishga imkon beradi. Oxirgi yillarda ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni o‘stirish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. J.C.Kaufman, R.A.Beghetto, N.Ye.Mayer, Park N.K., E.P.Torrencelar kreativlikning fundamental asoslarini aniqlashtirish borasida tadqiqot olib borganlar. T.Lyubart, F.Zenansni, S.Tordjmanlar kreativlikning psixologik asoslarini tahlil qilganlar, Ye.B. Xramsova yuqori sinf o‘quvchilari va talabalarda kreativlikning o‘z-o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘ligi borasida izlanish olib borganlar. Bugungi kunda esa turli fanlarda, jumladan kimyo fanini o‘qitish jarayonida ham kreativlikka katta e’tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Kimyo fanidan boshlang‘ich fundamental bilimlar aynan umumta’lim maktablarida beriladi. Aynan shu bosqichda bolalarni fanga qiziqtirish va kelajakda shu soha bo‘yicha mutaxassislik tanlashga yo‘naltirish mumkin. Kimyo sohasini tanlamagan o‘quvchilar ham kundalik turmushda va faoliyatlarida kimyoviy bilimlardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin. Ushbu maqolada aynan maktab ta’limida kimyo darslarida kreativlikni o‘stirish masalalari va kreativ fiklash omillari tahlil qilinadi. Buni tushuntirishda darsning turli bosqichlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan ijodkorlikni o‘stiruvchi topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Darsning qiziqarli bo‘lishida bir xillikdan qochish, darslarda turli xil, bir-biriga o‘xshamagan topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab beradi. Darslarda yangi ma’lumotlar va yangicha didaktik topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning keyingi kimyo darsini intiqlik bilan kutishlariga sharoit yaratadi.

Natijalar va ularning tahlili.

Kimyo fani juda qiziqarli fan sanaladi. Kimyo darslarida o‘quvchilarga ilmiy bilimlar berish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda loyihalar bajarish, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya tajribalarini qilish, kimyo fanidan hisob-kitob amallarini bajarishga imkon beruvchi masalalar yechish, nazariy olingan bilimlarni turli qiziqarli didaktik o‘yinlar yordamida mustahkamlash mumkin. Bu qiziqarli fanning ahamiyati va qo‘llanilish sohalarini tushunarli tarzda o‘quvchilarga yetkazishda, fan yuzasidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va muammolarni tahlil qilishda zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish lozim. Bunda SAT(so‘rovga asoslangan ta’lim), MAT(muammoga asoslangan ta’lim), raqamli simulyatsiyalar AR/VR texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Kreativ topshiriqlar esa kritik va kreativ fikrlashni o‘stiruvchi asosiy omillardir. Ulardan darsning turli qismlarida, nazorat materiallari va mustaqil topshiriqlar sifatida, tanlangan mavzular bo‘yicha video kontentlar va tayyor o‘quv resurslari tarkibida, tarqatma materiallar yaratish jarayonlarida foydalanish mumkin. Ular o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘rganish jarayonini osonlashtirish uchun mo‘ljallangan turli xil resurslardir. Ular o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Berilish shakliga ko‘ra bunday topshiriqlarni matnli, rasmli va jadvalli ko‘rinishlarda berish mumkin.

Kimyo darslarida kreativ fikrlashni o‘stiruvchi metodlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin(1-rasm.):



1-rasm. Kreativlikni oshiruvchi darslarda qo‘llaniluvchi metodlar klassifikatsiyasi

Quyida shunday fanga oid topshiriqlardan “Kodlash”ga asoslangan bir qancha namunalarni ko‘rib chiqamiz:


1-topshiriq. “Kodirovka” topshirig‘i. Jadvalda harflar joylashtirilgan. Ushbu harflar va raqamlarni juftlab, kerakli kimyoviy atamalarni hosil qilamiz. Bunda berilgan kodlar maxsus formula sanalib, shu kod asosida zaruriy harflar kombinatsiyalarini hosil qilish va kalit so‘zni topish mumkin bo‘ladi.

1	2	3	4	5
K	L	M	O	A
T	S	N	Ch	R
P	B	Q	S	U
B	D	E	G	H
I	J	K	V	Y

A
B
D
E
F

1) 1A, 5A, 2A, 1F, 5F(Kaliy)
2) 2B, 1F, 3A, 4A, 1E(Simob)
3) 4A, 2B, 3A, 1F, 5F(Osmiy)
4) 3F, 5A, 2A, 2B, 1F, 5F(Kalsiy)


2-topshiriq. “Kodirovka” topshirig‘i. Ushbu topshiriqda kerakli ranglar berilgan. Har bir rang muayyan kimyoviy elementga muvofiq keladi. Ushbu ranglar orqali berilgan kodlar asosida kerakli reaksiya tenglamalarini yozing.



Yuqorida keltirilgan topshiriqlar, ham jadvalli, ham rasmli, ham shaklli, ham matnli tarkibga ega bo‘ladi. Bu metodning qiziqarlilik darajasini yanada orttiradi. Zaruriy kodni topish, kod asosida esa kalit so‘zni, yoki reaksiya tenglamasini yozish uchun muayyan tadqiqot bajarilishi kerak bo‘ladi. Tizimli izchil faoliyat natijasida topshiriq bajariladi. Bu topshiriqlarni bellashuv tarzida guruhlarga bo‘lingan holda berilsa hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Xulosa.

Bunday topshiriqlarni mukammal bajarishlari uchun o‘quvchilarga quyidagi ko‘nikmalar zarur sanaladi(2-rasm):



2-rasm. Kreativ topshiriqlarni bajarishlari uchun zaruriy ko‘nikmalar

Sinfda turlicha intellektual salohiyatga, qiziqishga va o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar bo‘ladi. Mavzuni o‘qituvchi hammaga bir vaqtda va bir xilda tushuntirishiga qaramasdan o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan interaktiv topshiriqlarning e’tiborli tomonlari shundan ibotki, ular sinfda o‘quvchilarning bilim darajasidan kelib chiqqan holda turlicha murakkablikda tuzilgan. Topshiriqlar o‘ziga xos ko‘rinish va yangicha tuzulishga egaligi bilan an’anaviy topshiriqlardan farq qiladi. Topshiriqlarning bir necha xil turlari tayyorlanadi, o‘quvchilarga ularning shartlari tushuntiriladi. Tanlov imkoniyati mavjud bo‘lib, o‘quvchilar topshiriqlarni o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2023-yil.
2. D.S.Azamatova. “Kimyo fanidan topshiriqlar tuzish metodikasi”. Uslubiy qo‘llanma – T.: 2023.
3. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Goh, S., & Cotter, K. (Eds.) (2016). TIMSS 2015 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS. pp.1-40
4. Hogan, D., Chan, M., Rahim, R., Kwek, D., & Loo, S. C. (2013). Assessment and the Learning of 21st Century Competencies in Singapore. Asia Pacific Journal of Education, 33(3), 279-297.
5. Meliboyeva G.S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar Toshkent-2020. 200 b.
6. www.yaklass.ru – Maktab o‘quvchilari uchun ta’limiy internet resursi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

С.Т. Тургунов
Наманганский государственный университет, д.п.н., профессор
Д.Т. Акмалова
Наманганский государственный университет, PhD, доцент

ТИПОЛОГИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГА В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. *В статье рассматривается структура организационно-управленческих компетенций педагога с позиции их управленческой значимости и глубины проявления. Предлагается иерархическая модель, включающая четыре уровня компетенций: центральные скрытые, центральные видимые, поверхностные видимые и поверхностные скрытые. Особое внимание уделено скрытым стратегическим компетенциям, обеспечивающим устойчивое развитие образовательной среды. Представленные результаты могут быть использованы в оценке профессионального уровня педагога и проектировании программ повышения квалификации.*

Ключевые слова: *организационно-управленческие компетенции, педагог, скрытые компетенции, профессиональное развитие, стратегическое мышление.*

S.T.Turg'unov
Namangan davlat universiteti, p.f.d., professor
D. T. Akmalova
Namangan davlat universiteti, PhD, dotsent

PEDAGOGNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARI TIPOLOGIYASI KASBIY TAYYORGARLIK TIZIMIDA

Annotatsiya. *Maqolada pedagogning tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalarining tuzilmasi ularning ahamiyati va ta'sir chuqurligi asosida ko'rib chiqiladi. Kompetensiyalar to'rt bosqichli ierarxik model asosida tasniflangan: markaziy yashirin, markaziy ko'rinadigan, yuzaki ko'rinadigan va yuzaki yashirin. Ayniqsa, ta'lim muhitining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik kompetensiyalar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning malakasini baholash va ularni rivojlantirish dasturlarini loyihalashda qo'llanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *tashkiliy va boshqaruv kompetensiyalari, pedagog, yashirin kompetensiyalar, kasbiy rivojlanish, strategik fikrlash.*

S.T. Turgunov
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Namangan State University
D.T. Akmalova
PhD, Associate Professor, Namangan State University

TYPOLOGY OF TEACHERS' MANAGERIAL COMPETENCIES WITHIN THE SYSTEM OF PROFESSIONAL TRAINING

Abstract. *The article explores the structure of teachers' organizational and managerial competencies through the lens of their strategic relevance and depth of manifestation. A hierarchical model is proposed, comprising four levels of competencies: central hidden, central visible, surface visible, and surface hidden. Particular focus is given to latent strategic competencies, which ensure the long-term stability and development of the educational environment. The findings have practical applications in teacher performance evaluation and the design of professional development programs.*

Keywords*: managerial competencies, teacher, hidden competencies, professional development, strategic thinking.*

Введение

Современное образование всё чаще рассматривается как управляемая система, требующая от педагогов развитых управленческих способностей. В условиях перехода к индивидуализации обучения, традиционные педагогические навыки уже не

обеспечивают нужный уровень адаптивности и эффективности. В связи с этим возникает необходимость в системной концептуализации организационно-управленческих компетенций педагога, с разделением их по уровню влияния на стратегические и тактические процессы в образовательной среде.

В настоящее время педагогическая деятельность рассматривается через призму многочисленных требований, охватывающих методическую точность, коммуникативную гибкость, эмоциональную устойчивость и управленческую инициативу. Однако в действующих нормативных и методических документах представление о компетенциях остаётся фрагментарным: одни из них отнесены к личностной сфере, другие — к профессионально-деятельностной, третьи — к организационно-управленческой. Это приводит к отсутствию целостной модели, позволяющей выстроить приоритеты в профессиональном развитии. В результате педагог может получать рекомендации и обучающие модули, не соответствующие актуальным потребностям его профессиональной практики. Особенно остро встает вопрос о том, какие из компетенций действительно определяют качество педагогической деятельности, а какие носят вспомогательный характер. Пока эта иерархия не обозначена, трудно говорить о точной оценке профессионализма и о выстраивании логичной, последовательной системы повышения квалификации.

Методология

Настоящее исследование опирается на междисциплинарный подход, объединяющий положения менеджмента в образовании и концепции профессиональной компетентности. Теоретической основой выступает компетентностный подход, в рамках которого компетенция рассматривается как сложное образование, включающее знания, умения, способы деятельности, а также мотивационно-ценностные установки, проявляющиеся в конкретных профессиональных ситуациях. Анализ организационно-управленческих компетенций педагога осуществляется с позиций деятельностного и системного подходов, позволяющих рассматривать профессиональную деятельность как целенаправленную, структурированную и управляемую систему.

Работа над классификацией включала несколько этапов. Сначала были выделены компетенции, связанные с организационно-управленческим аспектом педагогической деятельности. Далее они были распределены по уровням — от центральных, определяющих стратегию и культуру образовательной среды, до поверхностных, отражающих выполнение процедурных и регламентных задач. В процессе анализа каждая категория соотносилась с типичными управленческими задачами педагога, а также с ожидаемыми образовательными результатами. В завершении была выстроена модель взаимосвязей между типами компетенций, их видимостью, глубиной проявления и значимостью для устойчивости образовательной среды.

Результаты

Выявленные компетенции были классифицированы по двум взаимосвязанным основаниям: по глубине влияния на образовательный процесс (центральные и поверхностные) и по степени их внешней выраженности (видимые и скрытые) [1].

Таблица 1. Сравнительная характеристика управленческих компетенций педагога.

Критерий	Центральные, скрытые	Поверхностные, видимые
Характер проявления	Поведенческие установки, формирующие стиль педагогического взаимодействия	Совокупность конкретных профессиональных действий и процедур
Основное содержание	Личностные качества, управленческое мышление, рефлексия	Технические навыки, соответствие инструкциям и стандартам
Ориентация деятельности	На достижение образовательного результата, развитие среды	На выполнение текущих процедур, соблюдение регламентов
Способ оценки	Через анализ поведенческих проявлений, эмоционального фона, атмосферы	Через наблюдение за действиями, контроль документации
Уровень видимости	Низкий, проявляется опосредованно	Высокий, фиксируется внешне и формально
Влияние на результат	Стратегическое, долгосрочное	Тактическое, краткосрочное

Такой подход дал возможность проанализировать функции каждой группы компетенций и определить их вклад в устойчивость и результативность образовательной среды.

Центральные компетенции были определены как глубинные управленческие способности, влияющие на стратегическое развитие образовательного процесса. К ним отнесены: способность к стратегическому планированию,

формирование образовательной политики на уровне класса или школы, управление коллективной мотивацией, принятие педагогически целесообразных решений в условиях неопределённости, развитие профессиональной культуры в школьном сообществе [1]. Эти компетенции сложно измерить напрямую, однако именно они определяют вектор развития образовательной организации, её способность к самообновлению и преодолению системных кризисов.

Поверхностные компетенции, напротив, отражают уровень реализации процедурных, регламентных и административных задач. Они проявляются, как правило, в действиях, поддающихся внешнему наблюдению и контролю: ведение документации, организация мероприятий, выполнение отчётных требований, соблюдение нормативов. Хотя эти действия важны для упорядоченности и стабильности повседневной педагогической практики, их вклад в стратегическое развитие образовательной среды является ограниченным.

Анализ также выявил различие между видимыми и скрытыми формами проявления компетенций. Видимые компетенции включают в себя действия, фиксируемые в ходе наблюдения — это организация уроков, проведение встреч, взаимодействие с родителями и коллегами. Скрытые же компетенции выражаются в управлении эмоциональной атмосферой, построении доверия, влиянии на мотивацию учащихся и коллег, формировании неформальных норм взаимодействия. Эти компоненты не всегда очевидны, однако они определяют устойчивость образовательной среды и её способность поддерживать продуктивное взаимодействие на всех уровнях.

Таким образом, в результате исследования была предложена модель взаимосвязи между типами компетенций, в которой центральные управленческие способности рассматриваются как системообразующий уровень, формирующий основу устойчивого развития, а поверхностные — как функциональный инструмент поддержания текущей деятельности. Это позволяет по-новому выстраивать программы повышения квалификации, оценочные процедуры и траектории профессионального роста, учитывающие не только внешнюю успешность, но и внутреннюю зрелость педагогического управления.

Обсуждение

Результаты исследования подтверждают, что профессиональная деятельность педагога значительно выходит за пределы формализованных и стандартизированных управленческих задач. Вопреки сложившейся практике, где акцент чаще всего делается на контролируемых, измеряемых показателях, таких как заполнение документации, организация мероприятий или соблюдение административных норм, именно скрытые и центральные управленческие компетенции оказываются определяющими для устойчивости образовательной среды [3].

Asarni o‘qib bo‘lgach oquvchilar bilan uni muhokama qilish jarayonida teatralizatsiya, aqliy xujum, qahramonlarning ijobiy va salbiylarga ajratish, asarda eng yoqgan parchani ifodali o‘qish va boshqa metodlardan foydalanishni tavsiya etamiz. Chunki harqanday muovafiqiyatning zaminida sarxisob turadi. Motiv - bu odamni harakat qilishga majbur qiladigan ichki harakatlantiruvchi kuch. O‘quv faoliyatida maktab o‘quvchilarining o‘rganishga bo‘lgan intilishi, kognitiv muammolarni hal qilishga qiziqishi, tengdoshlaridan biron bir sohada ajralib, yoki ulardan ortda qolmaslik istagidir. O‘quv jarayonining natijasi, samaradorligi va sifat xususiyatlari, bilimni o‘quvchiga singdirish kuchi, fanga ishtiyoqi motivlarga bog‘liq. Motivatsiyaga ega bola ideal o‘quvchidir. Bugungi kunda har bir o‘qituvchi ta’lim berish jarayonini davlat ta'lim standartini amaliy faoliyatda amalga oshirish yo‘llarini topish zarurati bilan bog‘liq muammolarni o‘zi hal qiladi: darsni tashkillashda, darsda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida, har bir o‘quvchida kasbiy qiziqish, turli sohalarda mustaqil bilish jarayoniga intilish kabi xususiyatlarni inobatga oladi. O‘qituvchilar dars jarayonlarini shunday tashkil etishlari kerakki, bunda o‘quvchilarda dars mashg‘ulotlarida ularning oldilariga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish ishtiyoqi va intilishi shakillanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, o‘rganish uchun motivatsiyani shakillanishiga o‘quvchining yon atrofidagi shaxslar ma’suldir. Bu shaxslar maktabdagi o‘qituvchi, ota-ona, do‘stlar, hayotda yutiqga erishgan biron bir kumiri yoki asar qahramonlar bo‘lishi mumkin. Agar siz jarayonni to‘g‘ri va ijobiy rejalashtirsangiz, unda har qanday faoliyat turini rag‘batlantirish mumkin. O‘quvchining yon atrofidagi insonlar tomonidan beriladigan motivatsiyani eng foydalisi bu uni kitob o‘qishga yo‘naltirilganidir. Darsdan bo‘sh paytlarida o‘quvchi badiiy kitob o‘qishga sarflagan vaqti unga kelajakda yorqin rag‘batga aylanishi va kelgusidagi faoliyatiga juda katta ijobiy hissa bo‘lishi hozirgi kunda yaqqol misol bo‘lib kelmoqda. Badiiy kitoblarni chet tilida mutolaa qilishi o‘sha til va madaniyatni chuqur o‘rganishiga ulkan turtki bo‘lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida motiv va motivatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun, birinchi navbatda, ushbu tushunchalarni tasniflash va tizimlashtirishdan boshlash kerak. Bu atamaning o‘zi nafaqat ta'lim jarayoni uchun, balki psixologiyada ham muhim o‘rin tutadi, chunki har qanday inson faoliyati va xatti-harakati u yoki bu motiv bilan belgilanadi. O‘quvchilarga beriladigan motivlarni tasniflash ustida rus va xorijiy psixologlar L. I. Bojovich, A. K. Markova, T. A. Ilyina, S. L. Rubinshteyn, J. Bruner, M. V. Matyuxina J. Rozenfeldlar ish olib bordilar. Ushbu atamani o‘rganishning qiyinligi yagona tasniflash printsipining yo‘qligidadir. Bu T.A.Ilyina tomonidan taklif qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri rag‘batlantiruvchi, istiqbolli motivatsiya yoki intellektual motivatsiya bo‘lishi mumkin [15. 288-b]. J.Rozenfeld ta'lim motivatsiyasining uchta jihatini ko‘rib chiqib, quyidagilarni aniqlaydi: qiymatli, maqsadli va yo‘naltiruvchi jihatlar [10. 48-b]. A.K.Markovaning fikriga ko‘ra tizimlashtirish faoliyatning o‘ziga bo‘lgan munosabatni tavsiflaydi. Tashqi motivlar – o‘quvchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan yoki ijtimoiy, ichki, o‘quvchining faoliyati bilan bog‘liq yoki boshqacha aytganda, kognitiv bo‘ladi [12. 192-b].

Tahlil va natijalar.

Chet tilni umumiy o‘rta ta’lm jarayonida o‘qitilishning o‘rganib chiqilganda shu ma’lum bo‘ldiki, bugungi kundagi darsliklarda badiiy adabiyotlarning mutolaasiga etibor qaratilmagan, darsliklarda faqatgina internet saytlaridan olingan matnlardan foydalanilgan. Tug‘ri bu matnlarni o‘qish orqali o‘quvchi lug‘at boyligini, ma’lumotlar bazasini kengaytirishi yoki grammatik konstruksiyalarni o‘rganishi mumkin, biroq tanqidiy fikrlash, tasavvur ongini shakillanish, xis-tuyg‘u kabi xususiyatlari rivojlanmaydi degan fikrdamiz. Umumiy o‘rta ta'limda davlat ta'lim standartlarini bajarish va zamonaviy ta’lim jarayoni maqsadlarini amalga oshirish uchun bevosita o‘quv materiali mazmuniga va muammolarni hal qilish uchun faoliyatga qaratilgan ichki, shaxsiy va kognitiv motivlarni shakllantirish kerak. Har bir o‘quvchi bir nechta motivlarga ega bo‘ladi, chunki o‘quv faoliyati ko‘p motivli hisoblanadi. Masalan, ingliz tilini o‘rganishda maktab o‘quvchilari quyidagi turdagi tashqi motivatsiyaga ega bo‘lishi mumkin: ingliz tilida gapira olish, mening bilimli odam haqidagi fikrlarimga mos keladi, ota-onam bu tilni bilishadi va men ular kabi bo‘lishni xohlayman, men uni boshqalardan farqli tarzda o‘rganaman, men yaxshi baho olishni xohlayman, o‘rtoqlarimdan yomonroq bo‘lishni xohlamayman.

Ammo motivatsiya har doim uzoq vaqt davomida beqaror bo‘lib qoladi. O‘qituvchining vazifasi chet tilini o‘rganish jarayonida motivatsiyani saqlab qolish uchun mos ish usullari va shakllarini topishdir. Badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish va ulardagi qahramonlar yuzasidan ustoz va tengdoshlari bilan baxs munozara olib borish chet tilini o‘rganish uchun berilgan motivatsiyasini rivojlantirish mexanizmi hisoblanadi. Badiiy adabiyotlarni o‘qish o‘quvchilarning kommunikativ va kognitiv faoliyatining eng muhim turlaridan biridir. Aynan adabiyotlarni mutolaa qilish maktab o‘quvchilarining bilim olishi va har tomonlama rivojlanishi uchun eng katta imkoniyatlarni beradi; mutolaa insonning baholash va axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi, bu jarayon universal mahoratdir. Bu jarayonda chet tili fani o‘qituvchisi passiv ishtirokchiga aylanadi, faqatgina o‘quvchiga dastlabki

mutolaa qilish uchun turtgini berishi lozim. Agarda sinfdagi o‘quvchilarning har biri o‘zlari tomonidan tanlangan asarlarni mustaqil tarzda mutolaa qilib borishsa o‘quvchilarning lug‘at boyliklari osha boradi. Bilamizki chet tilini o‘rganishdagi asosiy qism bu lug‘at boyligi va lug‘at boyligini oshirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchidan ko‘p vaqt va harakat talab etiladi. O‘qish maqsadiga qarab, o‘quvchilar turli xil o‘qish turlaridan foydalanishni o‘rganishlari kerak. Uslubiy adabiyotlarda keltirilgan o‘qish turlarini va ularning chet tilini o‘rganish motivatsiyasini shakllantirishdagi mumkin bo‘lgan rolini ko‘rib chiqaylik. Faoliyatning maqsadli yo‘nalishiga ko‘ra, o‘qish quydagi maqsadlardan iborat: kirish, ko‘rish, o‘rganish, izlash, bilish. O‘qilayotgan asarni mazmunni ochish quydagi usullardan iborat: analitik, sintetik, tarjima qilingan, tarjima qilinmagan.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki:

1. O‘qituvchi o‘quvchilarga chet tilini badiiy adabiyotlar orqali qiziqtirish maqsadi taklif etilishi kerak.

2. Motivatsiya metodlariga etiborini kuchaytirish va o‘quvchilarga moslashtirishi lozim.

3. Ichki motivatsiyaga mos tushadigan treninglarni bu jarayonga bo‘lashi lozim.

4. Yuqori sinf o‘quvchilarini badiiy asarlarni o‘qishni qiziqtirish uchun o‘qilgan asarlar yuzasidan breinringlar uyushtirish.

5. Mutolaa qilingan asar va xikoyalarni muhokama jarayonida aqliy xujumusulidan foydalanish zarurligini o‘rganib chiqdik.

Sinfdan tashqari kitob mutolaasi o‘qituvchiga qiziqishni oshirish va chet tilini keyingi o‘rganish uchun motiv yaratish uchun ko‘proq imkoniyatlar beradi, chunki dars tushuntirish va illyustrativ o‘qitish usuliga emas, balki ijodiy vazifalarga asoslanadi. Chunki o‘quvchilarda qidiruv va tadqiqot tabiatan shakillangan bo‘ladi, bu o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etilishiga sabab bo‘ladi. Va nihoyat, o‘qish nafaqat chet tilini o‘zlashtirish va boshqa madaniyatni kashf etishni ta'minlaydi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va ijodiy faoliyat vositasidir. Chet tilida o‘qish o‘quvchilar uchun ma'lum bir fan bo‘yicha mustaqil ta'lim faoliyatining yetakchi vositasi bo‘lib, uning muvaffaqiyati motivatsiyani shakillantiradi!

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Anderson R. C. Some reflections on the acquisition of knowledge. Educational Researcher. – 1981
2. Chen, Y. H., & Hu, Y. C. Language and culture learning through reading. Reading in a Foreign Language. – 2007. – №19(1).
3. Cook V. Using the first language in the classroom //Canadian modern language review. –2001. – T. 57. – №. 3.
4. daryo.uzsayti
5. Day R. R., Extensive reading in the second language classroom //RELC Journal. –1998. – T. 29. – №. 2.
6. Eshniyozova M., The Role of Alisher Navai's Wisdom in Forming the Worldview of Preschool Students// European Journal of Innovation in Nonformal Education: Vol. 5 No. 1. 2025 y.
7. F.I. Haydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. –T.: 2010-yil. 275-276-b
8. Hue H. C., Nation P. Unknown word density and reading comprehension //Reading in a Foreign Language. – 2000. – T. 13.
9. Lenskaya E. A., Rozanova E. D. O‘qish chet tilini o‘rgatish vositasi sifatida // Maktabda chet tillari. - 1981. - No
10. Mamayoqubova Sh. O., Ingliz tilini o‘rganishda yo‘l qo‘yiladigan ba’zi xatolar// Научный Фокус. Том 1 № 9. 2024 г. 48-b.
11. Milman V. E. Shaxsning motivatsion sohasini o‘rganish usuli / Psixodiagnostika bo‘yicha seminar. Motivatsiya va o‘z-o‘zini tartibga solishning psixodiagnostikasi. - M., 1990.
12. Markova A.K., T.A. Matis, A.B. Orlov o‘quv motivatsiyasini shakllantirish // O‘qituvchilar uchun kitob. M.: Ta'lim, 1990.- 192 b.
13. Nagy W. E., Anderson R. C. How many words are there in printed school English? // Reading research quarterly. – 1984.
14. Sobirov A. Sh., Til Tadqiqida Zamonaviy Yo‘nalishlar: Kognetiv Tilshunoslik, Pragmalingvistika, Lingvokulturalogiya, Sotsiolingvistika, Lingvoetika, Psixolingvistika// “LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jild 1 № 3. 2024 y.
15. Talyzina N.F. Pedagogik psixologiya: Darslik. talabalar uchun yordam o‘rtacha ped. darslik muassasalar. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 1998. - 288 b.
16. Temirova J., РОЛЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИМИТАЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЕМЫХ// Центр Научных Публикациий (buxdu. uz)-2023 г.
17. To‘raqulova I.X., Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga ma’naviy-immunologik tarbiya berish: Toshkent- 2014 y.
18. Zubaydova N. N., The teaching of English for specific purposes// Scientific researches for development future International Conference Proceedings. -2019 y.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Soliyeva Madinabonu Murodjon qizi
IIV Namangan akademik litsey fizika fani yetakchi o‘qituvchisi
madinasoliyeva170@gmail.com

FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARIDA BLUM TAKSANOMIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya. *Baholash—ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim va qobiliyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni baholash tizimini qo‘llash o‘qituvchidan ma’lum tartibga solingan taksanomiyani ishlab chiqishni taqozo etadi. Turli xil fanlar kesimida maqsad bir bo‘lishi mumkin, ammo mavzu kesimiga qarab yondashuvni o‘zgartirish talab etiladi. Masalan huquq va fizika fanlari orasida aniq farqlar mavjud. Shunday ekan uyga berilgan topshiriqlarni tasniflash uchun alohida taksanomiya talab etiladi. Ta’lim sohasida o‘quv jarayonini rejalashtirish, o‘quv maqsadlarini aniqlash va baholashda Blum taksonomiyasi muhim ahamiyatga ega. Blum taksonomiyasi – bu kognitiv (bilish) sohadagi o‘quv maqsadlarining ierarxik tartibda joylashgan tizimi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish darajasini baholash va ularni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu maqolada fizika laboratoriya mashg‘ulotlarida Blum taksonomiyasidan foydalanish usullari, uning afzalliklari va amaliy misollar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Taksanomiya, formativ baholash, summativ baholash, eslash, qo‘llash, tushunish, tahlil qilish, baholash, yaratish.*

Солиевой Мадины Мураджановна
Преподаватель физики Наманганского
академического лицея МВД

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТАКСОНОМИИ БЛЮМА НА ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ФИЗИКЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *Оценка является неотъемлемой частью образовательного процесса, играющей важную роль в определении знаний и способностей учащихся. Применение системы оценки усвоенных знаний, навыков и умений требует от преподавателя разработки определенной упорядоченной таксономии. Цель может быть общей для различных дисциплин, однако в зависимости от предмета требуется изменение подхода. Например, существуют четкие различия между правом и физикой. Следовательно, для классификации домашних заданий требуется отдельная таксономия. В сфере образования таксономия Блума имеет важное значение при планировании учебного процесса, определении целей обучения и оценке. Таксономия Блума представляет собой иерархически упорядоченную систему целей обучения в когнитивной (познавательной) области, предназначенную для оценки уровня знаний учащихся и их развития. В данной статье рассматриваются методы использования таксономии Блума в лабораторных занятиях по физике, ее преимущества и практические примеры.*

Ключевые слова: *Таксономия, формативная оценка, суммативная оценка, воспоминание, применение, понимание, анализ, оценка, создание.*

Soliyeva Madina Murodjon qizi
Heading teacher of physics
at Namangan Academic Lyceum MIA

METHODS OF USING BLOOM'S TAXONOMY IN PHYSICS LABORATORY LESSONS


Abstract: *Assessment is an integral component of the educational process, playing a crucial role in determining students' knowledge and abilities. The application of an assessment system for acquired knowledge, skills, and competencies necessitates the development of a structured taxonomy by the instructor. While the overall goal may be common across various disciplines, an adjustment in approach is required depending on the subject matter. For instance, there are distinct differences between law and physics. Therefore, a separate taxonomy is needed for classifying homework assignments. In the field of education, Bloom’s Taxonomy is of significant importance in planning the learning process, defining learning objectives, and assessment. Bloom’s Taxonomy is a*

hierarchically ordered system of learning objectives in the cognitive domain, designed to evaluate the level of students' knowledge and their development. This article examines the methods of using Bloom's Taxonomy in physics laboratory activities, its advantages, and practical examples.

Keywords: *Taxonomy, formative assessment, summative assessment, recall, application, understanding, analysis, evaluation, creation.*

Kirish.


Fizika fanidan o‘quvchilarning bilimlarini alohida mezon talablariga javob bermog‘i lozim. Bu mezonlar ikki asosiy maqsadda qo‘yiladi. Birinchisi keyingi mavzularni o‘zlashtirish uchun kerak bo‘ladigan bilimlar va amaliy tajriba hamda ixtirolar qilish uchun kerak bo‘ladigan bilimlar majmui hisoblanadi. Tadqiqotimiz davomida biz Biggsning qarashlariga ham yuzlandik. Bunda ta’lim oluvchilarning ikki xil usulda baholanadi (1-rasm).



1-rasm. Biggsning baholash usullari.

Bilim maskanlarida fizika ta’limi jarayoniga pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va kun sayin ommalashib borishi, axborotlarni tez almashinuvi va rivojlanish jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbiy tayyorgarligi hamda mahoratini kuchaytirish imkoniyatini yaratadi. Ta’limning va ta’lim beruvchilarning asosiy vazifasi fizikadan o‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashga, o‘z ustilarida izlanishga, mustaqil fikrlarini to‘liq va aniq dalillar yordamida isbotlay olishga, amaliy mashg‘ulot va laboratoriya tajribalarini bajarish bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilishga o‘rgatishdan iborat. O‘qituvchilar esa dars mazmunidan va turidan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalarni qo‘llamog‘i lozim.

O‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimi hisoblangan Blum taksanomiyasi 2000-yilda pedagog-psixolog olimlar, tadqiqotchi va o‘quv dasturlari nazariyotchilari tomonidan qaytadan shakllantirildi. Amaldagi taksanomiyaning dastlabki 4 ta bilish, tushunish, qo‘llash va tahlil qilish kategoriyalari Pol taklif qilgan taksanomiyada mazmunan va shaklan o‘zgartirilmadi. Lekin baholash bosqichi yangi taksanomiyaning 5 kategoriyasiga joylangan va sintez darajasi esa Pol taksanomiyasida “Yaratish” atamasiga o‘zgartirilgan (2-rasm).



2-rasm. Pol va Blum taksanomiyalarining tuzulmaviy farqlari.

Blum taksanomiyasidagi ot so‘z turkumini ifodalovchi kategoriyalar tafakkur darajasi bosqichlarida ish-harakatni ifodalovchi fe’llar bilan almashtirilgan [1]. Quyida keltirilgan jadvalda yangi taksanomiyaning o‘qitish maqsadlari va ularga mos keladigan fe’llar tavsiflangan

(1-jadval)

Blum taksanomiyasining bosqichlari va o‘qitish maqsadlari

Tafakkur darajalari	O‘qitish maqsadi	O‘quvchi ko‘rsatkichining natijasiga mos fe’llar
Eslash	O‘quvchilar mavzuga tegishli bo‘lgan qonun, qoida, formula, kattalik, asboblarni biladi, eslaydi hamda jismning harakatini bayon qila oladi.	• takrorlash; • mustahkamlash; • aytib berish; • tanish; • yozish; • ifodalash.
Tushunish	Bu kategoriyada o‘quvchi aniq faktlarga asosan chizmalar, jadvallarni tushunadi hamda uni qaytadan shakllantira oladi, natijalarga asosan jismlarning yoki jarayonning keying vaziyatini taxmin qila oladi.	• isbotlash; • almashtirish; • tahrirlash; • belgilash.
Qo‘llash	Qo‘llash darajasida o‘quvchi mavzuni o‘rganish davomida olgan bilimlarini boshqa holatlar uchun ham foydalana oladi, biror formula yordamida boshqa kattaliklarni hosil	• bajarish; • amalga oshirish; • o‘rgatish; • hisoblash; • tadbiq qilish.

	qilish mumkin. Masalan, jismning og‘irligi P=mg formulasidan yuqoriga, pastga, botiq va qavariq ko‘priklarda harakatlanayotgan holatlar uchun qo‘llay oladi.	
Tahlil qilish	Tahlil qilish bosqichida mavzudagi har bir reja alohida o‘rganiladi, ular orasidagi o‘zaro bog‘liqliklar aniqlanadi va dars oxirida qismlar yaxlit holatda ifodalanadi.	• ajratish; • tabaqalashtirish; • tasniflash; • taqsimlash; • guruhlash.
Baholash	Baholash kategoriyasi orqali o‘quvchilarning mashg‘ulot davomida o‘rgangan bilimlarini ma’lum mezonlarga asoslanib baholanadi va har birlari ushbu mezonlarni darajalarini farqlaydi, ularga amal qiladi hamda mavzuning tub mohiyatini baholay oladi.	• tekshirish; • kattaliklarni o‘lchash; • solishtirish; • isbot qilish; • qiyoslash; • tanqid qilish.
Yaratish	Ushbu darajada o‘quvchilar o‘rgangan elementlarini izchil yoki funksional yaxlitlikka keltirish, yangi loyiha yaratish va rejalashtirish uchun fanlararo aloqadorlikni amalga oshiradi.	• rejalashtirish; • umumlashtirish; • yangilik yaratish.

Yangilangan ushbu taksanomiyada o‘quvchilarga bilim berish jarayonida yuzaga keladigan “nima” va “qanday qilib” degan oddiy, lekin mushohada yuritish talab etiladigan savollarga oydinlik kiritadi. Har ikki taksanomiya ham o‘z davrida va hozirgi paytgacha o‘zining samaradorligini isbotlagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilishda nazariy, amaliy va eksperimental tajribalarni birgalikda olib borish, xulosalar chiqarish, natijalarni baholash muhim hisoblanadi. Jahon tajribalariga mos ravishda o‘quvchilarga laboratoriya mashg‘ulotidan so‘ng mustaqil ish topshirig‘i sifatida mavzuga mos bo‘lgan yangilik yoki kichik loyiha ishi sifatida berish hamda nazorat qilish ishlari yangi taksanomiya kategoriyalariga mos tushadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Blum taksanomiyasini dars jarayonlariga qo‘llash, o‘ziga xos jihatlari va o‘quvchilarni bosqichma-bosqich o‘qitish yuzasidan respublikamiz va xorijlik tadqiqotchi olimlar, pedagoglar bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, Manzura Abjalova o‘z tadqiqotlarini o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratganligi e’tiborimizni tortadi. Turli metodlar va Blum taksanomiyasini darslarda qo‘llashga doir taklif va tavsiyalaridan ta’lim soxasida keng targ‘ib qilinmoqda. Jahon mamlakatlarida ham bu taksanomiya asosida ta’lim soxasiga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha Larisa Shakhman va Moshe Barak kabilar fizika fanini o‘qitishda Blum taksanomiyasidan foydalanishning afzalliklari, fizik masalalarni taksanomiya bosqichlariga mos ravishda yechish va baholash usullarini targ‘ib qilishgan [2].

Taksanomiyanng qayta ko‘rib chiqilgan versiyasida olimlar asl kognitiv darajaning o‘lchoviga ikkinchi o‘lchovni kiritishdi. Natijada bilimlarni nazorat qilishni to‘rt bosqichli o‘lchovi hosil bo‘ldi. Bilimning quyida keltirilgan darajalaridan fizika fanini o‘qitish jarayoniga tadbiq qilish orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Kognitiv bilim o‘lchovlari.

Fizika soxasidagi muammolarni hal qilish va kognitiv fanning muhim topilmalarini qabul qilish uchun tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilmoqda. Ularning fikricha, o‘quvchilardan yuqori darajadagi muammolarga yechim topishni topshiriq sifatida berish va uni hal qilishdan avval o‘qituvchining o‘zi buning yechimini topishi hamda o‘quvchilarga yetkazib berishi talab etiladi. Bu vazifani ijrosi uchun esa fizikaga tegishli bo‘lgan metakognitiv bilimlarni egallash muhim o‘rinda turadi.

Muhokama va natijalar.

Tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarning metakognitiv bilimlarini shakllantirishda laboratoriya ishlari va unda Blum taksanomiyasining yangi kategoriyalaridan foydalanish bosqichlarini keltirib o‘tamiz. Taksanomiyaning dastlabki 4 bosqichida avvalgi variantdagi ishlarni amalga oshiramiz. Beshinchi va oltinchi qismlarida o‘quvchilarni laboratoriya ishi hamda bajarilgan eksperimentni baholashi, u haqda fikr yuritishi va eng asosiysi, yaratish bosqichida hozirgi kunda fizika faniga dahldor bo‘lgan global muammolar va ularning yechimini izlash yuzasidan fikrlarni tinglashda biz yangi tadqiqot usuli hisoblangan “X-factor” metodidan foydalanishimiz mumkin. Ya’ni Blum taksanomiyasining “yaratish” kategoriyasiga ta’lim texnologiyalari asosida yondashamiz. Bu esa laboratoriya ishining dolzarbligi va zaruratini yanada oshiradi.

“X-Factor” deb nomlangan didaktik o‘yin 6 bosqichda amalga oshirilib, har bir qismda o‘quvchilarga turli-tuman savol va topshiriqlar beriladi. Avval o‘qituvchi gurug o‘quvchilarining sonidan kelib chiqib a’zolari beshtadan bo‘lgan kichik guruhlarga ajratadi so‘ngra dars bosqichlari va o‘yin qonun-qoidalari bilan tanishtirib o‘tadi.

1-bosqich. Mazkur bosqich Blum taksanomiyasining birinchi “Eslash” kategoriyasiga mos bo‘lgan soda ko‘rinishdagi test topshiriqlaridan iborat bo‘ladi.

2-bosqich. Bu taksanomiyaning “Tushunish” kategoriyasi mos keluvchi topshiriqdan iborat bo‘ladi. Unga ko‘ra o‘qituvchi har bir guruhga alohida chizma taqdim etadi va o‘quvchilar berilganlar asosida o‘zlari mustaqil ravishda jadvalni to‘ldirishi kerak bo‘ladi. Bu kabi savollar o‘quvchilarni fizika fanini o‘zlashtirish mobaynida jadvallar va chizmalar bilan ishlashga, ularni taxrirlashga, kattaliklarni aniqlashga yordam beradi.

3-bosqich. Bu bosqichda ekranda qisqa videorolik namoyish etiladi va o‘quvchilar qanday fizik jarayon sodir bo‘layotganini, jismning harakatini kuzatish yordamida boshqa kattaliklarini ham aniqlashlari talab etiladi. Yangilangan taksanomiyaning qo‘llash kategoriyasida o‘quvchilar bajarishi kerak bo‘lgan ish-harakatlar amalga oshiriladi.

4-bosqich. Taksanomiyaning “Tahlil qilish” qismiga mos bo‘lgan va o‘quvchilardan “Ha” yoki “Yo‘q” javobli savollardan iborat bo‘ladi.

5-bosqich. Beshinchi bosqichga o‘tganda o‘qituvchi turli xil rasmlarni o‘quvchilarga ko‘rsatadi. Sharti esa rasmlarni fizik jihatdan bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlarini baholashlari kerak. foydali tomoni shundaki, o‘quvchilar bir-biridan keskin farq qiluvchi yoki juda o‘xshaydigan bu ikki jarayonni qiyoslashi va o‘z fikrlarini misollar yordamida isbotlashlari kerak bo‘ladi.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda o‘quvchilar to‘plagan ballar jamlanadi. Chunki so‘ngi bosqichda jarima yoki bonus ballar hisobiga natijalar kekin o‘zgarib ketishi mumkin. O‘qituvchi fikrni charxlaydigan va chuqur o‘ylash kerak bo‘lgan savollarni har bir guruhga taqdim etadi va o‘ylash uchun 1 daqiqa beriladi. O‘quvchilar jamoa bo‘lib to‘g‘ri javobni topishlari kerak bo‘ladi. O‘yin so‘ngida guruhlarni to‘plagan ballari jamlanadi hamda g‘olib jamoa va darsda eng faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz lozimki, fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarida Blum taksanomiyasini bu kabi o‘yin metodlari vositasida qo‘llash o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirish, baholash, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Q. Amonov, A. Baratov. “Blum taksanomiyasi asosida fizikadan test topshiriqlarini shakllantirish” Axborotnoma. 2023. -C.84-86.

2. Larisa Shakhman, Moshe Barak. The Physics Problem-Solving Taxonomy (PPST): Development and Application for Evaluating Student Learning // EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 2019, 15(11), ISSN:1305-8223. (https://doi.org/10.29333/ejmste/109266.

3. A.Xasanova, A.Akbaraliyeva. Test metodining yutuq va kamchiliklari// “Theoretical aspekts in the formation of pedagogical sciences” International scientific-online conference. 2023. -C. 96-101.

4. S. Kambarova.” Blum taksanomiyasi—o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning muhim vositasi sifatida” O‘zbekiston: til va madaniyat, 2022. -C. 4

5. Kavika Roy. “Bloom’s Taxonomy: Approach to Facilitate Effective Learning” DateToBiz, 2022. – C.38.

6. G. Qo‘ysinova. O‘quvchilarning mustaqil ta’limini Blum taksanomiyasi asosida tashkil etish // Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. – C. 720-722.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Solijonov Muxammadjon Zokirjon o‘g‘li
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Email: solijonovmuhammadjon@gmail.com

UDC 371.321.5

INGLIZ TILI O‘QITISHDA GRAMMATIK KOMPETENSIYA- KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING TARKIBI SIFATIDA

Annotatsiya: *Grammatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi bo‘lib, ingliz tilini o‘qitishda (ELT) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola grammatik kompetensiyaning umumiy kommunikativ kompetensiyaga ta’sirini tahlil qilib, uning ingliz tilini o‘qitishdagi dolzarbligini yoritadi. Tadqiqot natijalari til o‘qitishda yaxlit yondashuvni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan va o‘z o‘rnida grammatik bilim va kommunikativ amaliyot o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Grammatik kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, til o‘rgatish, ingliz tili grammatikasi, metodologiya, til ko‘nikmalari, lingvistik kompetentsiya, ikkinchi tilni o‘zlashtirish.*

Солижонов Мухаммаджон Зокиржон угли
доктор философии по филологическим (PhD) наукам
Кокандский государственный педагогический институт

ГРАММАТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК КОМПОНЕНТ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *Грамматическая компетенция играет фундаментальную роль в коммуникативной компетенции, которая широко рассматривается как важнейшая цель в преподавании английского языка (ELT). В этом исследовании изучается влияние грамматической компетенции на общую коммуникативную компетенцию, подчеркивая ее важность в педагогике английского языка. В заключение приводятся рекомендации по балансировке грамматического обучения и коммуникативной практики, что обеспечивает комплексный подход к языковому образованию.*

Ключевые слова: *Грамматическая компетенция, коммуникативная компетенция, преподавание языка, грамматика английского языка, методология, языковые навыки, лингвистическая компетенция, освоение второго языка.*

Solijonov Mukhammadjon Zokirjon-ogli
Doctor of Philosophy in Philological Sciences
Kokand State Pedagogical Institute

GRAMMATICAL COMPETENCE AS A COMPONENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Abstract: *Grammatical competence plays a fundamental role in communicative competence, which is widely regarded as an essential goal in English language teaching (ELT). This study investigates the impact of grammatical competence on overall communicative competence, emphasizing its importance within English language pedagogy. This paper concludes with recommendations for balancing grammatical instruction and communicative practice, ensuring a comprehensive approach to language education.*

Keywords*: Grammatical competence, communicative competence, language teaching, English grammar, methodology, language skills, linguistic competence, second language acquisition.*

Introduction.

Language is not only a means of communication but also a social tool that enables individuals to interact effectively. The communicative approach to teaching English was introduced into linguistic discourse by A.N. Chomsky and D. Hymes. The term communicative

competence and the theory developed at its core were developed based on the idea that language is a means of communication [5; p.269.]. Communicative competence encompasses several key components, one of which is grammatical competence, or the knowledge and application of syntax, morphology, and vocabulary. Using a mixed-methods approach, we gathered data from students and teachers in English for Specific Purposes (ESP) programs at tertiary institutions. Quantitative surveys and qualitative interviews with teachers provided insights into current practices, challenges, and student perceptions. Results highlight that a solid grammatical foundation contributes significantly to communicative effectiveness, especially in academic and professional contexts. Nevertheless, integrating grammar into communicative methods poses certain pedagogical challenges.

Literature review.

Historically, grammar-focused approaches dominated language teaching, with methods such as the Grammar-Translation Method emphasizing form over function. However, with the advent of communicative language teaching (CLT) in the 1970s, the emphasis shifted toward language use, sometimes relegating grammar to a secondary position. This shift has led to ongoing debates about the role of grammar in language teaching, particularly regarding its contribution to communicative competence. This problem has been studied in their works by such scientists as D.H. Hymes [5], J. Richards & T. Rodgers [7], G. Ahmedova [2].

D.H. Hymes introduced the concept of communicative competence, emphasizing the ability to use language appropriately in various social contexts. While his work does not focus exclusively on grammar, it underscores its importance in achieving appropriateness and coherence. Hymes' framework challenges purely structural approaches to grammar instruction, advocating for a broader perspective that considers cultural and contextual factors. This sociolinguistic orientation, as elaborated in his work "On Communicative Competence" (1972) [5; pp. 269-293.], has influenced subsequent approaches to grammar teaching, encouraging educators to integrate social and functional aspects of language use.

J. Richards and T. Rodgers' [6] exploration of Communicative Language Teaching (CLT) provides practical implications for grammar instruction. In their view, grammar should be taught as a means to facilitate communication rather than as an end in itself. They advocate for communicative activities that integrate grammar into meaningful interactions, such as role plays, simulations, and task-based learning. Richards and Rodgers argue that grammar instruction should be learner-centered, focusing on the needs and goals of students within a communicative framework. Their work, particularly in "Approaches and Methods in Language Teaching" (1986), serves as a foundational reference for CLT principles.

A. Ahmedova's contributions to grammar teaching in modern pedagogical contexts emphasize the role of technology and innovation in enhancing grammatical competence. In her work, such as "Use of modern innovative technologies in teaching foreign language" (2020), Ahmedova [1] advocates for the use of digital tools, interactive platforms, and corpus-based approaches to make grammar instruction more engaging and effective. She also highlights the need for tailored instruction that meets the specific linguistic needs of learners, particularly in ESP (English for Specific Purposes) contexts. Ahmedova's work aligns with contemporary trends in language teaching, bridging traditional grammar instruction with modern communicative methodologies.

The role of grammar in language teaching is multifaceted, serving as a crucial component of communicative competence while also requiring integration with other linguistic and social skills. The works collectively highlight the evolving perspectives on grammar teaching, from structural approaches to communicative and contextualized methodologies. Together, these contributions provide a comprehensive framework for understanding and implementing effective grammar instruction in language education.

Methodology and research.

Grammatical competence, as part of communicative competence, refers to the ability to use and understand grammatical structures accurately. This is essential not only for constructing sentences but also for ensuring clarity and precision in communication. In English for Specific Purposes (ESP) contexts-such as business or academic English-grammatical accuracy often carries a greater weight, as imprecise language can lead to miscommunication with potentially serious consequences. This study examines how grammatical competence functions as an essential component of communicative competence and its implications for ELT methodology.

This study used a mixed-methods approach, combining quantitative surveys with qualitative interviews and performance assessments to provide a comprehensive analysis of grammatical competence within communicative language teaching.

The study involved 100 students and 20 instructors from ESP programs at Kokand State Pedagogical Institute and Hacettepe University in Ankara. The students had varying proficiency levels in English, ranging from intermediate to advanced, and were enrolled in programs that required a strong command of English for academic or professional communication. Teachers were selected based on their experience with CLT and ESP, with an average teaching experience of 8 years.

Three main instruments were used for data collection:

1. Surveys: A Likert-scale questionnaire was distributed to students to gauge their perceptions of grammar's importance within communicative contexts and their self-assessed grammatical competence.

2. Interviews: Semi-structured interviews with teachers focused on their teaching practices, challenges in integrating grammar within CLT, and perceived student outcomes.

3. Performance Assessments: Student performance was assessed through written and spoken tasks, evaluating both grammatical accuracy and communicative effectiveness. Tasks included email writing, report summaries, and presentations on academic topics.

The study was conducted over a two-month period. At the start, students completed surveys on grammatical competence in communication, and baseline performance assessments were collected. Throughout the study, teachers implemented communicative tasks while embedding grammar instruction through feedback and recasts. At the end of the study, final assessments and interviews were conducted to analyze changes in grammatical and communicative competencies.

Quantitative survey data were analyzed using descriptive and inferential statistics to identify trends in student perceptions and self-assessments. Qualitative data from teacher interviews were transcribed and coded thematically, revealing patterns in teaching practices, perceptions of grammar's role, and common instructional challenges. Performance assessments were analyzed by scoring grammatical accuracy and communicative effectiveness, identifying correlations between these competencies.

Analyses and results.

The findings of this study provide evidence of the importance of grammatical competence for effective communication and highlight the challenges of integrating grammar within communicative tasks.

Student Perceptions of Grammar in Communication. Results from the student surveys showed that a significant majority (85%) believed grammatical competence was essential for clear communication, particularly in academic and professional contexts. While 70% of students felt confident in their knowledge of grammar rules, only 55% reported confidence in applying these rules accurately during spontaneous communication. Many students acknowledged struggling with grammar accuracy, especially in real-time spoken tasks where they prioritized fluency over precision.

Teacher Perspectives on Integrating Grammar and Communication.Teachers noted that grammatical competence was indispensable for professional-level communication. Many teachers employed a deductive approach to grammar, explaining rules explicitly before asking students to apply them in communicative tasks. This approach, they reported, helped students focus on accuracy without compromising fluency. However, some teachers observed that students often resisted focusing on grammar, favoring fluid conversation even at the cost of grammatical errors. Teachers stressed the need for balance, using methods such as task-based learning to encourage both accuracy and fluency.

Performance Assessment Outcomes. Performance assessments revealed a correlation between high grammatical competence and effective communication. Students who demonstrated strong grammatical skills scored higher in communicative effectiveness, as they made fewer errors that could obscure meaning. Conversely, students who were highly fluent but less accurate in their grammar sometimes conveyed unintended meanings or failed to express ideas clearly. These findings indicate that grammatical competence supports communicative clarity, particularly in contexts requiring precision.

The study's results support the notion that grammatical competence is a crucial component of communicative competence, especially in high-stakes settings such as ESP. Integrating grammar into communicative frameworks, however, presents challenges that require strategic pedagogical approaches.

Implications for Teaching Methodology. One key implication is the need for balanced methodologies that incorporate grammatical accuracy within communicative tasks. Task-based language teaching (TBLT) appears effective in achieving this balance. In TBLT, students complete real-world tasks that emphasize communication but still require grammatical accuracy. For example, in tasks such as preparing an academic presentation or writing a business proposal, students must focus on clarity, which includes correct grammar usage. These tasks allow students to practice real-life applications while maintaining grammatical standards.

Teachers also reported success using focused feedback to address grammar within communicative activities. Corrective feedback methods such as recasting-where the teacher reformulates a student's error in a grammatically correct form-allow students to recognize mistakes without interrupting the communicative flow.

Addressing the Grammar-Communication Dilemma. A recurring challenge in CLT is the tendency of students to favor fluency over grammatical accuracy, leading to the potential fossilization of errors. Studies by Ellis and Lightbown & Spada suggest that this issue can be mitigated by regular and explicit grammar-focused feedback, even in fluency-oriented tasks [4; p.83.]. Research shows that this feedback aids learners in internalizing correct forms, reducing the likelihood of errors becoming ingrained. Teachers in this study also supported using focused error correction and periodic grammar reviews to maintain a high level of grammatical accuracy.

Limitations and Future Research. The study's focus on ESP students may limit the generalizability of the findings, as these students have specific professional and academic requirements that place a premium on grammatical accuracy. Further research is recommended to assess whether similar findings hold in general English courses, where communicative needs may not demand such precision. Additionally, future studies could explore the long-term effects of different grammar-focused feedback strategies within communicative frameworks to determine which methods best support balanced language development.

Conclusion.

Grammatical competence is a vital element of communicative competence, particularly for learners in ESP contexts where accuracy is essential. While communicative language teaching emphasizes fluency, this study's findings demonstrate that grammatical accuracy enhances overall communicative effectiveness, reducing misunderstandings and improving clarity. Effective English teaching methodologies should aim for an integrative approach, incorporating grammar instruction into communicative tasks through methods such as task-based learning and corrective feedback.

In conclusion, grammatical competence should not be sidelined in communicative frameworks but rather integrated thoughtfully to support clear, effective language use. The study suggests that while fluency is essential, accuracy remains equally important, especially in professional communication. By balancing grammatical instruction with communicative practice, language teachers can better equip learners with the skills they need to communicate proficiently in diverse settings.

References.

1. Ahmedova A.A. "Use of modern innovative technologies in teaching foreign language" (2020) Вестник науки и образования № 10(88). Часть 4. 2020. С. 50-52.

2. Ahmedova. G. Kommunikativ kompetensiyaning ingliz tilini o'qitishga roli va ahamiyati. Vol. 1 No. 4 (2023): Prospects and main trends in modern science, 2023.

3. Canale M., & Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), Pp. 1-47, 1980.

4. Ellis R. Current issues in the teaching of grammar: An SLA perspective. TESOL Quarterly, 40(1), Pp. 83-107, 2006.

5. Hymes, D.H. (1972) On Communicative Competence In: J.B. Pride and J. Holmes (eds). Sociolinguistics. Selected Readings. Harmondsworth: Penguin, pp. 269-293.

6. Jack C. Richards and Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching, Second Edition, 303 p. 1986.

7. Richards J., & Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. 204 p. New York Cambridge University Press, 2001.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Amirqulov Otabek Ismoilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: o.amirqulov72@gmail.com

YOSH BASKETBOLCHILARNI TARBIYALASHDA TEXNIK TAYYORGARLIKNING MOXIYATI, MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, jamoaviy sport turlaridan hisoblangan basketbol sport turi bilan shug'ullanuvchi yosh basketbolchilarning yuqori natijalarni qo'lga kiritishida ularning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari orqali harakat tezkorligini rivojlantirib borishga asosiy e'tiborni qaratish dolzarbligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Yosh basketbolchilarning harakat tezkorligini rivojlantirish usullari hamda vazifalarni hal etish yo'llariga alohida e'tibor berilgan. Jumladan: bolalar-o'smirlar sport maktablari boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanayotgan basketbolchilarida keskin harakatlarda muvozanatni, kutilmagan vaziyatlardagi murakkab reaksiyada harakat tezkorligini rivojlantiruvchi mashqlarni mashg'ulotlaridan foydalanib harakat tezkorligini rivojlantirish muammolarni o'rganish, harakat tezkorligini oshirishga qaratilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *basketbol vositalari, yosh sportchilar, mashg'ulot jarayoni, mashqlar majmuasi, jismoniy sifatlar, tezkorlik, tezkor kuch, individual imkoniyatlar, shaxsiy sifatlar.*

Амиркулов Отабек Исмоилович
Старший преподаватель кафедры «Физическая культура и спорт»
Экономико-педагогического университета

СУЩНОСТЬ, СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКИ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ОБРАЗОВАНИИ ЮНЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ

Аннотация: *В данной статье представлена информация о важности сосредоточения внимания на развитии быстроты движений посредством общей и специальной физической подготовки юных баскетболистов, занимающихся баскетболом, который считается командным видом спорта, для достижения высоких результатов. Особое внимание уделено методам развития быстроты движений юных баскетболистов и способам решения задач. Например, для баскетболистов детско-юношеских спортивных школ на начальном этапе подготовки разработан комплекс упражнений, направленный на совершенствование скорости движений, с использованием упражнений, развивающих равновесие при резких движениях, быстроту движений в сложных реакциях в неожиданных ситуациях.*

Ключевые слова: *баскетбольная экипировка, юные спортсмены, тренировочный процесс, комплекс упражнений, физические качества, быстрота, быстрая сила, индивидуальные возможности, личностные качества.*

Amirkulov Otabek Ismoilovich
Senior teacher of the Department of "Physical Culture and Sports"
of the University of Economics and Pedagogy

THE ESSENCE, CONTENT AND CHARACTERISTICS OF TECHNICAL TRAINING IN THE EDUCATION OF YOUNG BASKETBALL PLAYERS

Abstract: *This article provides information about the importance of focusing on the development of quickness of movement through general and special physical training of young basketball players who play basketball, which is considered a team sport, to achieve high results. Special attention is paid to the methods of developing the speed of movement of young basketball players and the ways of solving tasks. For example, a complex of exercises aimed at improving the speed of movement has been developed, using exercises that develop balance in sudden movements, quickness of movement in complex reactions in unexpected situations for basketball players of children-adolescent sports schools at the initial training stage.*

Key words: *basketball equipment, young athletes, training process, exercise complex, physical qualities, quickness, quick strength, individual capabilities, personal qualities.*

Kirish.

Mamlakatimiz sportini rivojlantirish sohasida tubdan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashdagi o‘rnini xisobga olib, sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o‘quv va moddiy-texnik bazasini yaratish xamda axolining sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib xayotga tadbiq etilmoqda. Chunki sport millatning o‘zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jipslashuvida va birlashuvida, o‘zidagi bor saloxiyatini xamda millat sifatidagi qudratini, jaxon uzra namoyon etmoqda. Yuksak sport yutuqlarining mavqiyi musobaqalarda raqobatchilikning keskinlashishi hamda mamlakat terma jamoalari sportchilari avlodlarining ommalashishi qonuniy jarayoni hozirgi davrda sport tanlovi va istiqbolli yoshlarni tayyorlash ilmiy-asoslangan asoslarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi.

Sportning har xil turlarida tanlovga katta e’tibor beriladi. Sport o‘yinlari bo‘yicha maxsus adabiyotlarni o‘rganib chiqish sport o‘yinlari turlarida, xususan basketbolda bolalar, yosh sportchilarni tanlash turli jihatlarining yetarlicha va bir tekis ishlab chiqilmaganligi to‘g‘risida xulosaga kelishga imkon beradi. Basketbol uchun xos bo‘lgan psixofiziologik jarayonlari va funktsiyalari xususiyatlarini o‘rganish maxsus sifatlari hamda ko‘nikmalari yuksak darajada rivojlanganligi bilan bir qatorda, basketbolchi quyidagilarga ega bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi:

- harakatlanish aniqligi va tezligi;
- qontakt uzatish aniqligi va yumshoqligini ta’minlovchi nozik musqullar hissini;
- o‘yinda o‘zgarib boruvchi vaziyatga javoban tez va aniq ko‘ra bilish;
- texnik uslublar va taktik harakatlar bajarish jarayonida kuzatib borishga imqon beruvchi yaxshi rivojlangan atrofni ko‘ra bilishi;

Sport maktablarining amaldagi dasturlarini tahlil qilish, o‘quvchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlariga tanlash; ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida yosh basketbolchilarni bitiruv va joriy sinovlariga asosan umumiy va maxsus jismoniy rivojlanganligi, jismoniy va texnik tayyorgarligi belgilarini hisobga olish asosida o‘tkazilishini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda Respublikamizning har bir viloyatida sport turlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarda bolalar va o‘smirlar sport maktablariga bo‘lgan mas’uliyat yanada kuchaymoqda. Zero, bolalar-o‘smirlar sport maktablari o‘quvchi-yoshlarni sportga jalb qilish va ularning jismoniy faolligini oshirishda o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tamog‘i lozim. [1; 61-b., 3; 24-b., 7; 26-b.].

Adabiyotlar tahlili.

Keywords: *Geography education, independent learning, credit-module system, pedagogical technology, pedagogical design, pedagogical creativity, professional skills, pedagogical activity.*

Kirish.

Mamlakatimiz hayotining ijtimioiy-iqtisodiy, madaniy sohalarida o‘zgarnishlar, shuningdek ta’lim tizimidagi keng ko‘lamli islohatlar o‘qitish ta’lim jarayoniga jahon tajribalarini qo‘llash va ularni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa o‘qitishning yangi shakl va usullaridan dars jarayonida foydalanishga va ularni takomillashtirishga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi vaqtda pedagogik adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlarida texnologik yondashuv, ta’limni texnologiyalashtirish, texnologiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, ta’lim texnologiyasi (TT), o‘qitish texnologiyasi (O‘T), pedagogik texnologiya (PT), pedagogik tizim (PT), o‘qitish metodikasi (O‘M), fan metodikasi (FM), konsepsiya (g‘oya), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv, suhbatli yondashuv, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim kabi tushunchalar keng qo‘llanilmoqda.

Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo‘llash metodik tizimi talabalarning geografik bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu tizimning samarali ishlashi talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi, balki ularning real hayotdagi geografik masalalarni hal qilishdagi qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi. O‘quv jarayonida mustaqil ta’lim va uning texnologiyalarini qo‘llash talabalarni o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga, turli metodlar va vositalar yordamida o‘rganishga undaydi. Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanining ta’lim metodikasi talabalarni tizimli o‘rganish, izlanish va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga qaratilgan. Bu jarayonni yanada samarali qilish uchun interaktiv, amaliy mashg‘ulotlar, zamonaviy o‘quv texnologiyalari, masalan, elektron resurslar, 3D xaritalar, video darsliklar va onlayn platformalardan keng foydalanish talab etiladi. Bularning barchasi talabalarni faol ishtirok etishga, o‘z fikrini bildirishga, mavzularni chuqur tahlil qilishga va ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga undaydi.

Adabiyotlar tahlili.

Ta'limning kredit-modul tizimi sharoitida o‘quv jarayonini tashkil etishga umumiy yondashuvlar xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular orasida N.A.Asanov, O.V.Boyev, G.G.Pivnya, A.A.Kusainov, A.L.Chuchalina kabi ilmiy tadqiqotchilarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda esa B.Sh.Usmonov, R.A.Habibullayev, G.A.Nazarqulovalarning ilmiy ishlari ushbu sohada keng o‘rganilgan. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish masalalari xorijda T.V.Gabay, G.S.Abramov, G.I.Aleksandrov, A.V. Usova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan, yurtimizda esa M.L.Boltayeva, S.B.Ibragimova, B.R. Muqimov, M.Murodova, N.R.Saitkulovalar kabi olimlar ta’lim jarayonida mustaqil ta’limning ilmiy asoslari va shakllari bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Geografiya o‘qitish metodikasi bo‘yicha esa O.Mo‘minov, M.Yunusova, R.Qurbonniyozov, O‘.Safarov, X.Nikadamboyyeva, F.Xamroyeva, F.Saydamatov, M.Qo‘ldasheva, X.Amanov, F.Rajabov, H.Shodiyev, D.Abdullayeva kabi olimlar tomonidan dissertatsiya tadqiqotlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida geografiyadan dars beradigan o‘qituvchilar talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda faqat o‘zilaridagi mavjud bilim va tajribaga tayanishning o‘zigina yetarli emas, bunda ularga pedagogik ijodkorlik zarur bo‘ladi. Fan-texnika taraqqiyoti texnologiyani fan sifatida o‘rganishni, keyinchalik esa o‘quv jarayonini ham texnologyalashtirishga olib keldi. Ta’lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalarni davrlar o‘tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari shu faoliyatdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya’ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Huddi shu kabi ta’lim-tarbiya sohasida ham so‘ngi yillarda pedagogik texnologiyaga amal qila boshladi. Pedagogik ijodkorlik mavjud o‘qitish shakllari, metodlari, texnologiyalari va vositalarini takomillashtirish yoki ularning yangilarini yaratishda namoyon bo‘ladi. Buning uchun pedagogik loyihalash nazariyasi va texnolgiya katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tahlil va natijalar.

Pedagogika oliy ta’lim muasasalarining 60111000-“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishida hozirgi sharoitda joriy etilgan pedagogik tizimni tahlil qilish bizga o‘quv faoliyati subyektini shakllantirish muammolarini aniqlash imkonini berdi. Ta’limning yangi paradigmasi talablaridan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini yangicha nuqtai nazardan tushuninsh, talqin qilish bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini loyihalash asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo, pedagogik faoliyat mazmunini o‘zgartirish, ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish lozim. Ulardan biri pedagogik jarayonini loyihalashdir. Bundan ko‘rinadiki, mazkur ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va uning qo‘llashning metodik tizimini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Pedagogik loyihalash texnologiyasi deganda talabalar va o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ta’lim faoliyatining asosiy elementlari tafsilotlarini avvaldan ishlab chiqish tushiniladi. U talabalar va o‘qituvchilarning ta’lim-pedagogik faoliyatini samarali

tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, amaliyot o‘qituvchisining bir xil tarzdagi ishlari sonini kamaytiradi va ijodkorligi uchun katta imkoniyat yaratadi. Pedagogik loyihalash pedagogik muammolarni yechishga ilmiy-asoslangan yondashuvlarni belgilab beradi va bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi: modellashtirish, loyihalash va konstruksiyalash, tadbiq etish.

Pedagogik modellashtirish bizning holatimizda o‘qitish texnologiyasining umumiy g‘oyasini ishlab chiqishni, modelini yaratishni va uni joriy etishning asosiy yo‘llarini ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Pedagogik loyihalash – yaratilgan modelni takomillashtirish va uni amalda foydalanish darajasiga yetkazishdir.

Pedagogik konstruksiyalash – mashg‘ulotni loyihalashning yakuniy bosqichi. Loyihaning asosiy tayanch komponentlari batafsil aniqlanadi, pedagogik jarayon ishtiroklari aniq tanlanadi. Mashg‘ulotlarni pedagogik loyihalash ko‘nikmasini shakllantirish kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik adabiyotlarda va pedagog-amaliyotchilar kasbiy faoliyati jarayonida “modulli o‘qitish”, o‘quv-uslubiy majmua”, multimedia texnologiyalari”, ayniqsa, “loyihalash” atamalar tez-tez tilga olinadi. Loyihalash aniq darslar, alohida mavzular, butun o‘quv fani yoki kurslar, o‘quv mashg‘ulotlari yoki o‘quv predmetlari majmualarini va boshqa pedagogik ishlanmalarni ishlab chiqish bilan uzviy bog‘liq.

Ko‘plab tadqiqotchi pedagogik olimlaring fikricha, “pedagogik loyihalash” deyilganda talabalar va o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustasi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatining asosiy elementlari tafsilotlarini avvaldan ishlab chiqish tushiniladi. Pedagogik loyihalash pedagogik obyektlarni, shu jumladan, pedagogik jarayonlarni yaratish imkonini beradi. Pedagogik loyihalashni qo‘llash o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustasining bir hil tarzda amalga oshiradigan ishlarini kamaytiradi va uni ancha osonlashtiradi, ijodiy izlanishlarga ko‘proq imkon yaratadi. Pedagogik loyihalash ishlab chiqarish ta’limi ustasi, shuningdek talabalarning samarali faoliyatini ishlab chiqish bilan uzviy bog‘liq.

Pedagogik jarayonlarni, texnologiyalar va boshqa obyektlarni batafsil ishlab chiqish yo‘li bilan ishlab chiqarish ta’limi ustasi talabalar shaxsini va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi, turli salbiy omillarning ta’sirini kamaytiradi, zarur psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bois, u qabul qilingan pedagogik tizim sharoitida shaxsning individual rivojlanishining o‘ziga xos loyihasini yaratadi.

Pedagogik loyihalashning barcha obyektlari bir-birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogik jarayon muayyan pedagogik tizim doirasida amalga oshiriladi, pedagogik vaziyat esa aniq pedagogik jarayonlar doirasida yuzaga keladi.


Nazariyotchi va amaliyotchi pedagoglarning tadqiqotlarini tahlil qilish natijalari ko‘rsatadiki, pedagogik loyihalash kasb ta’limining muhim komponenti bo‘lib, ta’lim jarayonini rejalashtirilgan natijaga erishishga yo‘naltirishga qaratilgan faol usullar(loyihalashtirish, prognozlashtirish, tahlil, sintez) orqali tashkil etishning nostandart, noan’anaviy uslubidir. Biz loyihalash faoliyatini bo‘lajak mutaxassislarda amaliy-kasbiy ko‘nikmalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishga imkon beruvchi innovatsion faoliyatning eng samarali turi sifatida qaraymiz.

Pedagogika oliy ta’lim muasasalarining 60111000-“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi va uni joriy etishning pedagogik tizimini tahlil qilish, o‘rganish, loyihalash o‘quv faoliyati subyektining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish muammolarini aniqlash imkonini berdi. Ta’limning yangi paradigmasi talablaridan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini yangicha nuqtai nazardan tushunish, talqin qilish amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish orqali bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo‘llashning metodik tizimini ishlab chiqishda quyidagi ishlar amalga oshirildi: mustaqil ta’lim muhitini shakllantirish maqsadida uning bosqichlari (tashkiliy-tayyorgarlik, tashxislash, mazmuniy faoliyat, baholash), pedagogik shart-sharoitlari, joriy etish tartibini aniqlash (1-rasm); mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasini (o‘quv jarayonining texnologik xaritasi), kurslar bo‘limlari bo‘yicha o‘quv jarayonini loyihalash (texnologik xaritalar majmuasi), “Geografiya o‘qitish metodikasi” va “Geografiyadan masala va mashqlar” o‘quv qo‘llanmasining mazmuniy-metodik matritsasi (mazmuniy-metodik yo‘nalishlari)ni ishlab chiqish, fanlararo aloqadorlik mazmunini aniqlash (2-3 bosqichda), geografiyani o‘qitishni meyorlashtirish, optimallashtirish (kurslarning o‘quv rejasi va dasturi mazmunini takomillashtirish (ekspertlar uchun baholash jadvali, kasbiy vazifalarning takrorlanishi, muhimligi va murakkabligiga ko‘ra aniqlash matritsasini ishlab chiqish), loyihani pedagogik ekspertdan o‘tkazish, tashxislash, taqrizlar olish (takomillashtirilgan pedagogik loyihani ishlab chiqish).

Loyihalangan mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasi va uni qo‘llashning metodik tizimini joriy etishda talabalarning dastlabki geografik bilimi va ko‘nikmalari, fanga oid kompetensiyalari savol-javob,

suhbat, geografik kasbiy masalalar, amaliy topshiriqlar orqali baholandi va tahlil qilindi.



1-rasm. Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo'llashning metodik tizimi

Tahlil natijasida mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik ta'minoti mazmuni takomillashtirildi (o'quv-meyoriy hujjatlar, o'quv qo'llanma, metodlik tavsiyalar, geografiya kurslari bo'yicha EO'MM, xaritalar va jihozlar, metodik ko'rsatmalar, mustaqil topshiriqlar, pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlari, amaliy didaktik topshiriqlar, kompyuterda bajariladigan vizuallashtirilgan mashqlar tizimi). Yuqorida keltirib o'tilgan talablarni kompleks tarzda amalda bajarish o'quv jarayoni va uning metodikasi mohiyatini belgilab beradi.

Geografiya fanlaridagi mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda maktab va professional ta'lim muassasalaridagi kasbiy faoliyatlarining o'ziga xosligi e'tiborga olinib, mustaqil ta'lim jarayonida geografik vositalar va jihozlari (geografik, topografik xaritalar, planlar, atlaslar va yozuvsiz xaritalar, globuslar, tarqatma materiallar, proyektor va elektron doska)dan faoliyat obyekti sifatida foydalanish ta'limda samarali natijalarga erishishga imkon beradi.

Pedagogik loyihalashning umumiy algoritmini quyidagicha ifodalash mumkin.

1. Tayyorgarlik ishlari.

Loyiha obyektini tahlil qilish: Geografiya fanlari bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda o'quvchilarni o'rgatishda asosiy e'tibor, ularning mavjud bilimlari, geosiyosiy va ekologik sharoitlar, geografik tushunchalar va atamalarni qanchalik o'zlashtirganliklariga qaratiladi. Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil ishga jalb qilishda ularning amaliy ko'nikmalarini aniqlash va tahlil qilish zarur.

Pedagogik loyihalash shaklini tanlash: Geografiya fanlari bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda loyiha shakli tanlash, masalan, darslar, seminarlarda yoki laboratoriya ishlarida foydalanish uchun qaysi metodika samarali ekanligi aniqlanishi lozim.

Loyihalashning nazariy ta'minoti: Geografiya fanlarini o'rgatishda boshqa sharoitlardagi tajribalar, pedagogik tadqiqotlar, empirik ma'lumotlar va nazariy bilimlar asosida mustaqil ta'limni tashkil etish uchun optimal usullar ishlab chiqiladi.

Loyihalashning metodik ta'minoti: Geografiya fanlari bo'yicha metodik materiallar, masalan, didaktik qo'llanmalar, interaktiv o'quv materiallari va ilmiy maqolalar ishlab chiqilishi kerak.

Loyihalash muhiti va vaqti: Mustaqil ta'lim uchun o'quv guruhlarining joylashuvi va o'quv muhitini tashkil etish, vaqti-vaqti bilan darslar, seminarlar va mashg'ulotlar uchun vaqtni belgilash zarur.

Loyihalashning moddiy-texnik ta'minoti: Geografiya fanlari uchun zarur bo'lgan texnik jihozlar, multimedia vositalari, kartalar, interaktiv dasturlar, kompyuterlar va boshqa materiallar ta'minlanishi kerak.

Loyihalashning huquqiy asoslari va ta'minoti: O'quvchilarga geografiya fanlarini o'rganish uchun qonuniy asoslar, metodik ko'rsatmalar va ta'lim tizimining talablariga rioya qilish lozim.

2. Loyihani ishlab chiqish.

Tizim hosil qiluvchi omilni tanlash: Geografiya fanlari bo'yicha o'quvchilarga mustaqil ta'limni tashkil etishda asosiy omil, geografik tushunchalar va amaliy mashg'ulotlar bo'lib, talabalar shaxsida yangi geografik ko'nikmalar va bilimlarni shakllantirish bo'ladi.

Komponentlarning o'zaro aloqasi va bog'liqligini aniqlash: Geografiya fanlari bo'yicha o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlari o'rtasida o'zaro aloqalar va bog'liqliklar aniqlanadi, bu orqali ular o'quv faoliyatini samarali olib borishga o'rgatiladi.

Hujjatlarni tuzish: O'qituvchi va o'quvchilar uchun geografiya fanlari bo'yicha amaliy qo'llanmalar, darsliklar va topshiriqlarni ishlab chiqish. Zarur bo'lsa, yangi pedagogik hujjatlar yaratiladi.

3. O'qitish texnologiyasi.

O'qitish texnologiyasi "Kirish", "Asosiy" va "Yakuniy" bosqichlardan iborat bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlar mavjud:

I. Kirish bosqichi. Ushbu bosqich ham bir-biriga bog'liq tashkiliy-boshlang'ich, maqsad va vazifalarni belgilash, tayanch bilimlarni faollashtirish komponentlardan iborat.

Tashkiliy-boshlang'ich komponenti: O'qituvchi talabalar bilan salomlashadi, guruh davomatini tekshiradi va darsga tayyorgarligini baholaydi.

Maqsad va vazifalarni belgilash komponenti: Talabalar o‘tiladigan mavzu, maqsadlar, vazifalar va baholash usullari bilan tanishtiriladi. O‘quv faoliyatining asosiy yo‘nalishlari belgilab olinadi.

Tayanch bilimlarni faollashtirish komponenti: Talabalar o‘tilgan mavzular bo‘yicha nazariy bilimlarni testlar yordamida qayta tiklashadi.

II. Asosiy bosqich. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan 1) yangi materialni o‘rganish, 2) o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlash kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

Yangi materialni o‘rganish: O‘quvchilar yangi geografik materialni o‘rganish uchun kichik guruhlarga bo‘linib, o‘zaro savol-javoblar orqali bilimlarni mustahkamlashadi. Geografik tushunchalar va atamalarni o‘rganishning mantiqiy tuzilishi talabalarga tushuntiriladi.

O‘quv materialini mustahkamlash: O‘quvchilarga mustaqil ishlarni bajarish uchun amaliy topshiriqlar beriladi. O‘qituvchi topshiriqlarning bajarilishini kuzatadi, xatolarni to‘g‘rilaydi va o‘quvchilarga yordam beradi.

O‘qituvchi mustaqil ta’lim jarayonida talabalar tomonidan ishlarning to‘g‘ri bajarilishi, joriy yo‘riqnomalarga amal qilishlari, asboblardan to‘g‘ri foydalanish, rostlashlarni to‘g‘ri bajarishlarini izchil kuzatib boradi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatadi, talabalarning savollariga javob beradi. Shu bilan birga, qiyin o‘zlashtirayotganlarga alohida e’tibor beradi, ularni yaxshi va tez ishlashga yo‘naltiradi. Yaxshi bajarilgan ishlarni boshqalarga namuna qilib ko‘rsatadi.

Aksincha, ishlarni bajarishda texnologik ketma-ketlik yoki texnika xavfsizligi buzilsa, mashg‘ulot to‘xtatiladi. O‘quv guruhlariga yo‘l qo‘yilgan xatolik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tushuntirib beriladi.

III. Yakuniy bosqich. O‘quv guruhida shaxsiy kuzatishlar va amaliyot o‘qituvchisining mulohazalari asosida mashg‘ulot tahlili o‘tkaziladi. Talabalarning amaliy topshiriqlarni bajarish sifati va mashg‘ulot vaqtidagi uyushqoqligi guruhlar ishini baholash uchun mezon hisoblanadi.

O‘qituvchi talabalarning ish jarayonida aniqlangan umumiy va alohida kamchiliklariga e’tibor qaratadi va keyingi mashg‘ulotlarda ushbu xatolarni takrorlamasliklarini uqtiradi.

Xulosa.

Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va qo‘llash metodik tizimini takomillashtirish, talabalarni geografik bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va amaliy kompetensiyalarini oshirishga imkon yaratadi. Bu jarayonni yanada samarali qilish uchun interaktiv mashg‘ulotlar, zamonaviy o‘quv texnologiyalari, masalan, elektron resurslar, 3D xaritalar, video darsliklar va onlayn platformalar keng qo‘llanilishi kerak. Ushbu yondashuvlar talabalarni faol ishtirok etishga, ilmiy izlanishlar o‘tkazishga va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga rag‘batlantiradi. Kredit-modul tizimi va pedagogik loyihalash yondashuvlari geografiya fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda samarali ishlashni ta'minlaydi. Ilmiy izlanishlar va metodik tavsiyalar yordamida o‘quv jarayoni yaxshilanadi, natijada geografiya o‘qituvchilarining kompetensiyalari rivojlanadi va ta'lim samaradorligi oshadi.

Adabiyotlar.

1. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilariga mustaqil ta’limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida // “Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali 2023. 6-son. 106-110 b.

2. Rajabov F.T., Abdimurotov O.U. Geografiya ta’limida mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha xalqaro tajribalar // “Geografiya - nazariyadan amaliyotga” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Qo‘qon. 2024-yil 25-noyabr. 393-398-b.4.

3. Rajabov F.T. Zamonaviy yondashuvlar vositasida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Dissertatsiya. – T.: 2024. – 218 b.

4. Ibragimova S.B. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish texnologiyasi (kredit-modul tizimidagi iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari misolida) Dissertatsiya. – T.: 2024. –148 b.

5. Murodova M. Kredit-modul tizimida mustaqil ta`lim. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023

6. Rasulov I.M. Talabalarning loyihalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish. Dissertatsiya. – T.: 2018. – 150 b. (Dis-648/2018)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdumo'min Abdurahmonov
QarDU Algebra va geometriya kafedrasi v.b.professor
abdirahmonov.abdimumin@mail.ru
Oybek Xurramov
QarDU Algebra va geometriya kafedrasi o'qituvchisi

UDK 51:37-3

BO'LAJAK MATEMATIKLARNING MUTAXASSISLIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Bakalavrlarning matematik tayyorgarligi bilan pedagogik kasbiga tayyorgarligi orasidagi mantiqiy bog'lanishning asosi sifatida biz bo'lajak matematika o'qituvchilarini eng avvalo, matematik bilimlarni o'zlashtirganligini tushunamiz. Bu aloqadorlik o'zining tarkibi va mazmuni bo'yicha universitetlarda o'qitilayotgan matematikaning barcha bo'limlarini o'zaro aloqadorlikda va hamkorlikda bir-birini to'ldirgan holda o'rgatilmog'i lozimligini belgilab beradi.*

Kalit so'zlar: *mantiqiy, ijodiylik, psixologik-pedagogik, intensifikatsiyalash, qoidalar, tasdiqlar, formulalar, bilimlar, amaliy mashg'ulot.*

Абдумомин Абдурахманов,
Кафедра алгебры и геометрии КарГУ и.о. профессор
Ойбек Хуррамов,
Преподаватель кафедры алгебры и геометрии КарГУ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ МАТЕМАТИКОВ

Аннотация. *В основе логической связи между математической подготовкой студентов и подготовкой их к профессии учителя мы понимаем, что будущие учителя математики прежде всего приобретают математические знания. Эта связь по своей структуре и содержанию определяет, что все преподаваемые в университетах разделы математики должны преподаваться во взаимной связи и сотрудничестве, дополняя друг друга.*

Ключевые слова: *логика, творчество, психолого-педагогический, интенсификация, правила, аффирмации, формулы, знания, практика.*

Abdumumin Abdurahmanov
Department of cardu Algebra and geometry v.b.professor
Oybek Khurramov
KarSU Teacher of the Department of Algebra and geometry

THEORETICAL PRINCIPLES OF FORMING SPECIAL SKILLS OF FUTURE MATHEMATICIANS

Abstract. *At the core of the logical connection between students' mathematical training and their preparation for the teaching profession, we understand that future mathematics teachers first and foremost acquire mathematical knowledge. This connection, in its structure and content, determines that all sections of mathematics taught at universities should be taught in mutual connection and cooperation, complementing each other.*

Key words: *logic, creativity, psychological and pedagogical, intensification, rules, affirmations, formulas, knowledge, practice.*

Bakalavrlarning matematik tayyorgarligi bilan pedagogik kasbiga tayyorgarligi orasidagi mantiqiy bog'lanishning asosi sifatida biz bo'lajak matematika o'qituvchilarini eng avvalo, matematik bilimlarni o'zlashtirganligini tushunamiz. Bu aloqadorlik o'zining tarkibi va mazmuni bo'yicha universitetlarda o'qitilayotgan matematikaning barcha bo'limlarini o'zaro aloqadorlikda va hamkorlikda bir-birini to'ldirgan holda o'rgatilmog'i lozimligini belgilab beradi. Bunday o'qitish o'z o'rnida maktab, akademik litsey, kasb-hunar

kollejlaridagi matematika kursidan olgan bilimlariga suyanadi. Bu bilimlar matematikadan va uni o‘qitish metodikasidan ma’ruzalar o‘qish, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, laboratoriya ishlarini tashkil etishda, talabalarni ijodiylik va izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan muammoli usullardan foydalanishga, matematik masalalarni yechishni va teoremalarni isbotlash usullaridan ratsional foydalana olishni o‘rgatishga, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida matematika o‘qitish kasbiga yo‘naltirilganligini shakllantirish va o‘qitishda didaktik va metodik tamoyillarni keng qo‘llashga zamin yaratadi.

Matematik bakalavrlarni kasbiy tayyorlash uchun matematika, psixologiya, pedagogika fanlari orasida o‘zaro aloqadorlik bo‘lishi uchun didaktik va uslubiy shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Didaktik shart-sharoit deganda, biz matematikani boshqa fan asoslari bilan o‘zaro aloqadorlikda, muvofiqlashtirilgan tizim asosida, mazmunan tasniflangan holda o‘qitishni tushunamiz. Uslubiy shart-sharoit deganda, o‘qitilayotgan mavzuni ochish uchun umumiy yondoshishlar, matematikaning xarakterli holatlari va informatsiyani berish uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etishni tushunamiz. Shunday qilib, bakalavr matematiklarni tayyorlashda birinchi o‘rinda ularning matematikadan tayyorgarligi hamda bo‘lajak matematika o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligini shakllantirish vazifasi qo‘yiladi. Matematik tayyorgarligi deganda-matematik tasdiqlar, qoidalar, qonuniyatlarni har bir talaba erkin o‘zlashtirganligi va ularni boshqa fanlarga tatbiq qila bilishlarini tushunilsa, kasbiy tayyorgarlik deganda, ta’limning kasbga yo‘naltirilganligini, uning mazmuni, usullari va tashkil etilishi talabalarda bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatlari uchun zarur bo‘ladigan shaxsiy sifatlarni uyg‘otish va shakllantirish nazarda tutiladi. Talabalarda dasturda belgilab qo‘yilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari va shakllantirishlarini ta’minlash o‘ziga xos pedagogik vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa qaralayotgan muammoni ham psixologik-pedagogik, ham didaktik, ham metodik nuqtai-nazardan o‘rganishga olib keladi.

Bakalavr matematiklarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlash bilan birga mustahkam kasbiy bilim va malakaga ega bo‘lish uchun psixologiya va fiziologiya, pedagogika va falsafa, texnika fanlari sohalarida ham keng va asosiy bilimlar berish zarurligini qayd etamiz. Bu talablardan kelib chiqqan holda ma’ruza va amaliy mashg‘ulot darslarida bakalavr matematiklarni tayyorlash bizning fikrimizcha, matematikani va uning amaliy yo‘nalishlarini o‘rganish psixologik-pedagogik konsepsiyaga yo‘naltirilgan bo‘lishi, o‘quv predmetlarini o‘rganishda tafakkur faoliyatining psixologik-pedagogik asoslariga suyanganligi, matematik tushunchalarni o‘zlashtirish va kasbga yo‘naltiruvchi omillarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlariga amal qilish, kasbiy faoliyatning usullarini matematika bilan psixolo-pedagogik tushunchalarni o‘zaro aloqadorligida takomillashtirishga qaratilmog‘i kerak.

Ma’lumki, ma’ruza davomida o‘quv mavzulari ma’lum tizimda va ketma-ketlikda bayon etiladi, ya’ni tushunchalar matematik qonuniyatlarning yaxlitligi va bir butunligiga asoslangan holda qat’iy o‘zaro bog‘liqlikda taqdim etiladi. Talabalar buni yaxshi sezadilar va tushunadilar. Amalda matematik tasdiqlar va formulalar turli psixologik tushunchalarni matematik bilan uyg‘unlashgan holda o‘rganish va bunda ta’limning pedagogik shakli va usullaridan foydalanish talabalarning ongiga yetkazilishiga va matematik bilimlar sifatida o‘zlashtirilishiga olib keladi. Demak, talabalarning bilim olish faoliyati bir qancha psixologik va pedagogik komponentlarga asoslanadi. Bular o‘zaro aloqadorlikda va birgalikda talabalarning fikrlash va kasbiy faoliyatlarini ishga soladi, bilim olish faoliyatining malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etadi, o‘z faoliyatlarini boshqarishda, bilim olish faoliyatlari maqsadi va vazifalarini aniqlashda, samaradorligini baholashda va nazorat qilishda bevosita ishtirok etadilar. Jumladan, matematik mavzuni o‘rganish davomida talaba uning mazmunida bo‘lgan matematik tasdiqlarni tahlil qiladi, taqqoslaydi va qarama-qarshi qo‘yadi, matematik masalani yechish usullarini izlab topadi, fanning boshqa sohalariga oid masalalarni yechishga tatbiq qilish imkoniyatlarni aniqlaydi, ularning samaradorligini baholaydi.

Bakalavr matematiklarni kasbiy tayyorlash jarayonini intensifikatsiyalash maqsadida ta’limning kasbiy yo‘nalganligini faollashtirig nafaqat matematikani o‘qitishda, balki u bilan, kasbiy tayyorlash uchun, aloqador bo‘lgan hamda matematikaning qoidalarini va qonuniyatlarini shakllantirishda falsafa, psixologiya, pedagogika va boshqalarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Matematikani pedagogik va psixologik fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘qitish talabaga bir tomondan matematikadan o‘quv mavzularini o‘qitishning usullari, vositalari va boshqa shakllarini o‘zlashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan qonuniyatlarni, bilish usullarini egallashga imkoniyat yaratib, birgalikda pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga sharoit tug‘diradi. Bunda talabalar nafaqat matematikani o‘rganishning asosiy usullarini, balki zarur bo‘lgan kasbiy malaka va ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Bu holat matematikadan masalalar yechish metodlarida va nazariy hamda amaliy o‘quv materiallari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik o‘rnatilganda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarning matematikaviy va professional-pedagogik tayyorgarliklarining o‘zaro aloqadorligini kuchaytirish uchun quyidagilarning bajarilishi muhim hisoblanadi:

- matematika va kasbga yo‘naltiruvchi fanlar asoslarining, bilim olish faoliyati usullarining, professional-pedagogik bilimlar va ko‘nikmalar tushunchalarining tizimi yagonaligi;

- texnika, iqtisod va boshqa turdosh fanlar bo‘yicha matematika va kasbga yo‘naltiruvchi ilmiy asoslangan va sinovdan o‘tgan tushunchalarning shakllanganligi;

- oliy o‘quv yurti va maktab matematika ta’limining ketma-ketligi va uzviy ligi;

- professional-pedagogik tayyorgarlikka yo‘naltirilgan, pedagogik tafakkur rivojlanishining muhim shakli sifatida nazariya bilan amaliyotning birligi.

Matematikani o‘qitishda analiz va sintez matematik qonuniyatlarni, qoida va tasdiqlarni va ularning aloqalarini o‘rganish usuli sifatida ishtirok etadi. Hodisalarning mazmunini qaralayotgan tasdiqlarga nisbatan modelini yaratish yo‘llarini aniqlab beradi. O‘quv mavzularini o‘rganish va masalalarni yechish jarayonida talabalar dastlab qonuniyatlarni va tasdiqlarni tahlil qiladilar, ularni taqqoslaydilar, qiyosiy o‘rganadilar, o‘xshashlik alomatlarini izlaydilar, tasavvur qiladilar.

Matematikani o‘qitishda va masalalar yechishda aqliy faoliyatning turi sifatida taqqoslash o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning yordamida hodisa va predmetlarda alohida belgilar va xususiyatlar ajratilinadi, umumiy sifatlari o‘rganiladi. Taqqoslash, hodisa va predmetlarni mos va qarama-qarshi qo‘yishdan boshlanadi.

Talabalarning o‘quv faoliyatlarini faollashtirishda ta’limning turli ko‘rinishdagi muammoli metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi, bunda ularning ijodiy izlanuvchanlik xususiyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Talabalarning mustaqil va shaxsiy ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish va mustahkam zamin yaratadi. Matematikani o‘qitish jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda, uy vazifalarini bajarish, matematika adabiyotlar ustida ishlash, didaktik materiallar bilan ishlash, turli olimpiadalarda ishtirok etish davomida amalga oshirish mumkin.

Bakalavr matematiklarni kasbiy tayyorgarliklarini ta’min etishning asosiy shakllari-ma’ruza, amaliy laboratoriya, seminar mashg‘ulotlari, o‘quv-pedagogik amaliyot, kurs va bitiruv ishlarini yozish va himoya qilish, referatlar tayyorlash, munozaralar uyushtirish, didaktik o‘yinlar o‘tkazish, ilg‘or o‘qituvchilar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, maktabda pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish va boshqalardir. Bakalavr matematiklarni tayyorlashning bu shakllari ularning kasbiy malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qilish bilan birga, o‘z fanini chuqur va mustahkam biladigan, o‘qish va o‘qitishning turli zamonaviy usullari va vositalarini egallagan hamda o‘zining kasbiy faoliyatida ta’limning mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini ratsional foydalana biladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida malakali bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarni tayyorlashning asosiy va yetakchi shakli ma’ruza mashg‘ulotidir. Ammo amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida hamda mustaqil ta’lim shakllarida ham talabalarni zamonaviy fan yutuqlarini turmushga tatbiq etish muammolarini hal qilinishi bilan yaqindan tanishtirib borib kerak. Amaliy mashg‘ulotlarga bunday yondoshish ularda kasbiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishda va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning asosiy maqsadi o‘quv mavzularini chuqur va mustahkam o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quv kursining yetarli darajada murakkab masalalari qaraladi, matematik tushunchalar rivojlantiriladi, mustahkamlanadi va umumlashtiriladi, nazariy va amaliy mazmundagi matematik masalalar yechiladi. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar ta’limning ilmiy metodlarini, o‘quv mavzularini mustaqil o‘zlashtirish, nazariy va amaliy masalalarni yechishning malaka va ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

Amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi va sifatliligi ko‘p jihatdan talabalarning ijodiy faolligiga va to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish davomida talabalarning maktab darsliklaridagi muayyan bo‘limlarini ishlab chiqishi, tegishli adabiyotlar bilan tanishishi, matematik masalalarni yechish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy bilimlarni mustaqil o‘rganib tayyorlangan bo‘lishlari nazarda tutiladi. Chunki talabalar amaliy faoliyati jarayonida o‘z diqqat e’tiborlarini, urinishlarini, masala yechimlarini izlashga qaratadilar, ijodiy faoliyatlarini namoyon etadilar, matematik tushunchalar, qoida va qonuniyatlar, fan ichida va fanlararo aloqadorlik haqidagi tasavvurlarini mustahkamlaydilar, shaxsiy kuzatishlari va xulosalarini nazariy, uslubiy tavsiyalarni va amaliy tatbiqlarni taqqoslashga o‘rganadilar.

Amaliy mashg‘ulotlar bakalavr matematiklarni tayyorlash muammolarini funksional aks ettirgan holda shunday tashkil etilishi kerakki, bunda ijodiy fikrlarning rivojlanishi uchun, qulay ratsional yechish usullarini mustaqil tanlashlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmog‘i lozim. O‘rgatuvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalanuvchi funksiyalari mujassam bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlar amaliy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi tayanch bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni faollantiruvchi umumiy didaktik tizimga ega.

Ushbu masalani yechimini tahlil qilamiz.

Masala. Jamoa xo‘jaligidagi mavjud bo‘lgan bir xil ish unumdorligiga ega bo‘lgan kombaynlar birgalikda ishlab, hosilni bir sutkada yig‘ishi mumkin. Lekin reja bo‘yicha birinchi soatda bitta, ikkinchi soatda ikkita, uchinchi soatda uchta kombayn ishlagan va hokazo. Hamda faqat hosil yig‘ini tugashiga bir necha soat qolgandagina barcha kombaynlar birga ishlagan. Agar beshta kombayndan tashqari barcha kombaynlar yig‘im-terim boshidan ishlaganida edi, reja bo‘yicha ish vaqti 6

soatga qisqargan bo‘lar edi. Jamoa xo‘jaligida necha kombayn bo‘lgan?

Jamoa xo‘jaligida n ta kombayn bo‘lsin, ularning har biri bir soatda hosilning $1\backslash x$ qismini yig‘ishtira olsin. U holda barcha kombaynlar birgalikda bir sutka ishlab barcha hosilni yig‘ishi mumkin. Shuning uchun

$$\frac{24n}{x}=1 \qquad (1)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Amalda esa birinchi soatda bitta kombayn ishlab hosilning $1\backslash x$ qismini yig‘ishtirgan, ikkinchi soatda ikkita kombayn ishlab hosilning $2\backslash x$ qismini yig‘ishtirgan va hokazo. n-soatda n ta kombayn ishlab hosilning $n \backslash x$ qismini yig‘ishtirgan. Keyinchalik bir necha soat davomida (faraz qilaylik, m soat) barcha kombaynlar ishlab, shu m soatda hosilning qolgan nm/x qismini yig‘ishtirishgan. Shuning uchun

$$\frac{1}{x}+\frac{2}{x}+\cdots+\frac{n}{x}+\frac{nm}{x}=1. \qquad (2)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Kombaynlar hammasi bo‘lib $(n+m)$ soat ish vaqtida barcha hosilni yig‘ishtirishgan. Agar $(n-5)$ ta kombayn ishlaganda edi, u holda ular hosilni $(n+m-6)$ soatda yig‘ishtirgan bo‘lar edi. Shuning uchun

$$\frac{(n-5)(n+m-6)}{x}=1 \qquad (3)$$

tenglamani hosil qilamiz.

Demak, biz quyidagi uch noma’lumli uchta tenglamalar sistemasiga ega bo‘ldik.

$$\begin{cases} 24n=x, \\ \dfrac{1}{x}+\dfrac{2}{x}+\cdots+\dfrac{n}{x}+\dfrac{nm}{x}=1, \\ (n-5)\,(n+m-6)=x. \end{cases} \qquad (4)$$

(4) tenglamalar sistemasi berilgan matnli masalaning matematik modelini ifodalaydi. Bu sistemani yechish uchun, uning ikkinchi tenglamasiga arifmetik progressiya hadlari yig‘indisini topish formulasini qo‘llab uni

$$\begin{cases} 24n=x, \\ \dfrac{(n+1)n}{2}+nm=x, \\ (n-5)(n+m-6)=x. \end{cases} \qquad (5)$$

ko‘rinishiga keltiramiz. Bu sistemadan x ni yo‘qotib va $n\neq 0$ ekanligin e’tiborga olib ushbu

$$\begin{cases} m+\dfrac{n+1}{2}=24 \\ (n-5)(n+m-6)=24n \end{cases} \qquad (6)$$

sistemani hosil qilamiz.

(6) sistemadan m ni yo‘qotish natijasida $n^2-18n-175=0$ ko‘rinishdagi n ga nisbatan kvadrat tenglamaga kelamiz. Bu tenglamani yechib, $n_1=25$ va $n_2=-7$ ildizlarni topamiz. Jamoa xo‘jaligidan kombaynlar soni n bo‘lgani uchun n musbat butun son bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra, masala shartini faqat $n=25$ qanoatlantiradi.

Yuqorida keltirilgan masalalarning yechilishi jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, har qanday nostandart masalani yechish jarayoni quyidagi ikki asosiy operatsiyaning ketma-ket qo‘llanilishi orqali amalga oshiriladi:

1. Nostandart masalani unga ekvivalent bo‘lgan, lekin standart ko‘rinishga ega bo‘lgan masalaga almashtirish (bunda zarur bo‘lgan holda shakl almashtirishlar bajarish yoki masala mazmunini saqlagan holda matnning bayonini o‘zgartirish);

2. Nostandart masalani bir necha standart masalalarga bo‘laklab o‘rganish.

Masalaning murakkabligiga qarab bu operatsiyalarning birini yoki ikkalasini bir vaqtda tatbiq etish mumkin.

Umuman, matnli masalalarni yechish jarayonida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni quyidagilardan iborat deb bilamiz:

1. Berilgan masalani tahlil qilish orqali uning standart yoki nostandart turga mansub ekanligini aniqlash.

2. Masalaning yechish yo‘lini izlash va umumiy qoidalar (formulalar, ayniyatlar) yoki umumiy holatlar (ta’riflar, teoremalar) asosida yechish rejasini (rejalarini) tuzish.

3. Tuzilgan rejani berilgan masalaning shartlariga tatbiq etish orqali masalaning yechilishini amalga oshirish. Agar rejani amalga oshirish davomida biror-bir bosqich o‘zining bajarilishi uchun qo‘shimcha biror rejani amalga oshirishni taqozo etsa, u holda bu qadamga nisbatan ham xuddi shuningdek operatsiyalar bajariladi (turini aniqlash, yechish rejasini tuzish, yechishni amalga oshirish).

Shuning uchun bakalavr yo‘nalishidagi matematiklarni maktablar, litseylar va kollejlar hayotiga tayyorlashni takomillashtirishdagi imkoniyatlardan biri – bu o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan maxsus seminar mashg‘ulotlarida talabalarni matnli algebraik masalalarni yechish metodikasini o‘rgatish sifatida qaradik.

Adabiyotlar.

1. Абдуллина О.А. Проблемы формирования педагогических умений и новыков у будущих учителей. –В кн. //Прблемы профессиональной подготовки студентов педвузов и университетов. –М.: Просвещение. -1976. –с. 43-48.

2. Абдукадиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин //Автореф. Дисс.д.п.н. –Т.: ТГПИ им Низами. -1990. -43 с.

3. Архангельский С.И. Лекции по научной организации учебного процесса в высшей школе. –М.: Высшая школа. -1976. -200 с.

4. С.Алихонов Математика ўқитиш методикаси Тошкент 1992 й.

5. Ю.Колягин Методика преподования математика в ср.шк М 1974 г.

6. Т.Толаганов, А.Норматов Математикадан практикум Тошкент 1989 й.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti
oltinoyadhamova@gmail.com

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KREATIV METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy sanat darslarida kreativ metodlardan qanday foydalanish, bu metodlarning o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirish va ijodiy yondashuvlarini kuchaytirishdagi o'rni tahlil etiladi. Kreativ metodlar tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarning individual ijodkorlik salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu maqola, tasviriy sanat darslarida kreativ metodlarning amaliy jihatlari, ularni qo'llash usullari va samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, kreativ metodlar, ijodkorlik, o'quvchilar, ta'lim usullari, didaktika, o'quvchilarning rivojlanishi, san'at pedagogikasi.*

Адхамова Алтыной Рафикжановна
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Магистр изобразительного искусства 1-й ступени

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация: *В данной статье анализируется использование творческих методов на занятиях изобразительным искусством, роль этих методов в развитии воображения учащихся и укреплении их творческих подходов. Творческие методы способствуют повышению индивидуального творческого потенциала учащихся изобразительного искусства. В данной статье представлена подробная информация о практических аспектах творческих методов на занятиях изобразительным искусством, методах их применения и эффективности.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, творческие методы, творчество, учащиеся, методы обучения, дидактика, развитие учащихся, художественная педагогика.*

Adkhamova Altinoy Rafikjon kizi
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Master of Fine Arts degree 1

METHODS OF USING CREATIVE TECHNIQUES IN FINE ARTS CLASSES

Abstract: *This article analyzes the use of creative methods in visual art classes, the role of these methods in developing students' imaginations and strengthening their creative approaches. Creative methods help to increase the individual creativity potential of students in visual arts education. This article provides detailed information about the practical aspects of creative methods in visual arts classes, their application methods and effectiveness.*

Key words: *Fine art, creative methods, creativity, students, educational methods, didactics, student development, art pedagogy.*

Kirish.

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarning estetik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda tasviriy san'at o'qituvchilari ijodiy va innovatsion metodlarni o'quv jarayoniga kiritish zaruriyatini sezmoqdalar. Kreativ metodlar — bu o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash, yangi g'oyalar yaratish, o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish imkoniyatlarini taqdim etuvchi usullarni anglatadi. Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida kreativ metodlardan qanday samarali foydalanish mumkinligi va bu metodlarning o'quvchilarga ta'siri haqida so'z boradi. Kreativ metodlarning mohiyati va ahamiyati Tasviriy san'atda kreativ metodlar o'quvchilarga o'z g'oyalarini ochib berish, tasavvurlarini kengaytirish, yangi ko'nikmalarni o'rganish imkonini yaratadi. Kreativ metodlar orqali o'quvchilar ko'pincha o'zlarining didaktik jarayonlarda ishtirok etishlarini, turli tasviriy shakllarda ifodalash

imkoniyatlarini ko‘radilar. O‘quvchilar tomonidan yangi va innovatsion yondashuvlar yaratish, an'anaviy texnikalardan farqli bo‘lgan yondashuvlarni qo‘llash orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi. Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlarni qo‘llash usullari. Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlarni qo‘llashning turli usullari mavjud. Ulardan ba'zilari quyidagilar: Boshqa san'at shakllaridan ilhomlanish: Tasviriy san'at darslarida musiqadan, teatr san'atidan, adabiyotdan ilhom olish o‘quvchilarni yangi ijodiy g‘oyalar bilan tanishtiradi.Dastlabki eskizlar yaratish: O‘quvchilarni boshlang‘ich eskizlar asosida tasvirlar yaratishga undash, ularning ijodiy jarayonini jonlantiradi va erkin fikrlashga yordam beradi.Gruppaviy ishlash: Darsda guruhlar orasida hamkorlikni rivojlantirish, fikr almashish va birgalikda yangi ishlanmalarni yaratish ijodiy rivojlanishga olib keladi.Mashqlar va experimentlar: Rasm chizishda turli materiallar va texnikalardan foydalanish o‘quvchilarga yangi tajribalar beradi va ularning ko‘nikmalarini oshiradi. Improvizatsiya va spontanlik: Tasviriy san'atda improvizatsiya o‘quvchilarga to‘liq erkinlik va o‘z tasavvurlarini yaratish imkonini beradi. Kreativ metodlarning pedagogik yondashuvdagi o‘rni Kreativ metodlar pedagogik yondashuvda o‘qituvchining roli, o‘quvchilarga qanday yordam berishi, ularning ijodiy salohiyatini qanday rivojlantirishi muhim masalalardir. Kreativ metodlar faqatgina texnikalar yoki mashqlarni qo‘llashdan iborat emas, balki o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish, ular bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va individual yondashuvlarni amalga oshirishga asoslanadi. Kreativ metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri. Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, mantiqiy tafakkurini va o‘zini ifodalash qobiliyatini oshiradi. Kreativ yondashuvlar yordamida o‘quvchilar nafaqat san'atning texnik jihatlariga, balki uning estetik va mazmuniy tomonlariga ham e'tibor qaratadilar. Bu esa o‘quvchilarning umumiy ta'lim rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Tasviriy San'atdan Kreativlik.

Adabiyotlar tahlili.

Kreativlik – bu yangi va original g‘oyalar, tasavvurlar, yoki ijodiy ishlanmalarni yaratish qobiliyati. Tasviriy san'at esa o‘ziga xos ijodiy jarayon bo‘lib, insonning ichki dunyosini ifodalashda, fikrini tasvirlar orqali shakllantirishda, yangi dunyoqarashni yaratishda katta rol o‘ynaydi. Kreativlik tasviriy san'atda insonning o‘ziga xos ko‘nikmalarini, fikrlash usulini, hissiyotni va ijodiy yondashuvni namoyon qiladi.Tasviriy san'at, kreativitiy va innovatsiya o‘rtasida bevosita bog‘lanish mavjud. Tasviriy san'at darslarida kreativlik o‘quvchilarni faqatgina texnik jihatlarda rivojlantirmaydi, balki ularning dunyoqarashi, estetik tasavvurlari, va hissiy jihatlari ustida ishlashga yordam beradi. San'atning har bir turi (rasm, grafika, haykaltaroshlik, dizayn, va hokazo) ijodiy jarayonni boshqarish va yangi imkoniyatlar yaratish uchun katta maydonni taqdim etadi. Kreativlik nafaqat yangi shakllar, ranglar yoki usullarni yaratishda, balki san'at orqali dunyoni qanday qabul qilishimizda ham namoyon bo‘ladi.Erkin Fikr va Improvizatsiya: Tasviriy san'atda improvisatsiya o‘quvchilarga bevosita o‘z tasavvurlarini erkin ifodalash imkonini beradi. O‘quvchilarga an'anaviy texnikalardan foydalanishni cheklash va yangi materiallar yoki usullar bilan tajriba o‘tkazishga imkon berish kreativlikni kuchaytiradi. Erkin Fikr va Improvizatsiya — bu kreativ va ijodiy jarayonlarda o‘zingizni erkin ifodalash va yangi g‘oyalarni yaratishga qaratilgan yondashuvlardir. Ular asosan san'at, musiqada, teatrda, va boshqa ijodiy sohalarda qo‘llaniladi. Keling, har birini batafsil tushuntirib o‘taylik. Erkin fikr, aslida, yangi va original g‘oyalarni yaratish qobiliyatidir. Bu g‘oyalar odatda an'anaviy yoki kutilgan yondashuvlardan tashqarida bo‘ladi. Erkin fikr o‘quvchilarning yoki ijodkorlarning mavjud shablonlar va cheklovlardan qochib, yangi va noyob yondashuvlarni yaratish imkoniyatini beradi. Bu jarayon innovatsiyaga, yangi imkoniyatlar va tasavvurlarni kashf etishga olib keladi.Erkin fikrning asosiy xususiyatlari:

Ochiqlik: O‘zingizni yangi g‘oyalar va tajribalarga ochiq tutish.

- Kutilmagan Yechimlar: Mavjud muammolarni yoki vaziyatlarni kutilmagan, original tarzda yechish.
- Ko‘p Perspektivalar: Bir narsaga turli nuqtai nazardan qarash va turli shakllarda ifodalash.

Improvizatsiya (Improvisation)

Improvizatsiya — bu rejasiz yoki tayyorlanmasdan, shunchaki mavjud vaziyatga mos ravishda tezda yaratish yoki o‘zgartirish jarayonidir. Bu, masalan, tasviriy san'atda, musiqa ijrosida yoki teatrlashtirishda ko‘proq uchraydi. Improvizatsiya ijodkorlar o‘zlariga bergan vaqt yoki joy chegaralariga qaramay, tezda yangi g‘oyalarni yaratishda yordam beradi.

Improvizatsiyaning asosiy xususiyatlari:Erkinlik va spontanlik: Improvizatsiya o‘ziga xos tarzda spontan va rejasiz bo‘ladi. Bu ijodkorni xohlagan vaqtda yangi shakllar, tovushlar, ranglar yoki obrazlarni yaratishga imkon beradi.Moslashuvchanlik: Vaziyatga qarab, ijodkor o‘z yondashuvini va ish usulini o‘zgartirishi kerak.Tajriba: Improvizatsiya yaratishda o‘z tajribalaringizdan foydalansangiz ham, siz doimo yangi narsalarni o‘rganasiz va ularga ko‘nikasiz.Tasviriy san'atda erkin fikr: Tasviriy san'atda erkin fikr o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy ravishda ishlashga undaydi. O‘quvchi rasmni yoki san'at asarini yaratishda yangi, kutilmagan yondashuvlarni sinab ko‘radi, shablonlardan chiqib, o‘z dunyoqarashini yaratadi.Improvizatsiya tasviriy san'atda: Improvizatsiya — bu tasviriy san'atda tezda, faqat hissiyotlarga tayanib, yangi tasvirlar yoki kompozitsiyalar yaratish jarayoni. Masalan, rasm chizishda material yoki usulni o‘zgartirish, bo‘yashda tasavvurga tayanish, yoki shakllarni xohlagancha o‘zgartirish orqali ijodiy jarayonni

o‘zgartirish. Erkin fikr va improvizatsiya ijodiy jarayonlarda yangi imkoniyatlar yaratadi. Tasviriy san'atda bu ikki yondashuv o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ular uchun yangi g‘oyalarni kashf qilish va san'at orqali o‘zlarini ifodalash imkoniyatini taqdim etadi. Bu metodlar san'atda o‘z-o‘zini ifodalashni rag‘batlantiradi, yangi shakllar yaratishga undaydi va kreativlikni kuchaytiradi. Ko‘plab San'at Turlarini Integratsiya qilish: Tasviriy san'atda boshqa san'at shakllari bilan integratsiya qilish, masalan, musiqaning yoki adabiyotning tasviriy san'at bilan uyg‘unlashishi o‘quvchilarning ko‘proq ijodiy yondashuvlarni sinashlariga yordam beradi. Bu o‘z navbatida tasavvurlarini kengaytirish va yangicha qarashlarni kashf qilishda yordam beradi. Ko‘plab San'at Turlarini Integratsiya Qilish — bu san'atning turli shakllarini birlashtirish va o‘zaro uyg‘unlashtirish jarayonidir. Tasviriy san'atda bu yondashuv o‘quvchilarga o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish va yangi, original asarlar yaratish imkonini beradi. Ko‘plab san'at turlarini integratsiya qilish, odatda, tasavvurni kengaytiradi, yangi texnikalar va usullarni birlashtiradi, va ijodkorlarga yangi estetik tajriba yaratish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot metadalogiyasi.

Yangi g‘oyalar yaratish: Bir san'at shaklidan olingan g‘oyalar boshqa shakllar bilan birlashtirilganda, yangicha va original fikrlar paydo bo‘lishi mumkin.Ijodiy yondashuvni kengaytirish: O‘quvchilarga turli san'at shakllari bilan ishlash imkoniyatini yaratish, ularning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.San'atni ko‘proq ko‘rish va his qilish: San'atning bir nechta shaklidan foydalanish, ularning o‘zaro aloqalarini va o‘zgarishini ko‘rsatadi, bu esa san'ating yanada chuqurroq va kengroq tasavvurini shakllantiradi. Musiqa va Tasviriy San'at Musiqa va tasviriy san'atni birlashtirish o‘quvchilarga ikki san'at shaklidan foydalanish orqali yangi estetik tajriba yaratishga yordam beradi. Masalan, musiqaning ritmi, melodiyasi yoki so‘zlari bilan bog‘liq tasvirlar yaratish, o‘quvchilarga yangi asarlar yaratish imkoniyatini beradi. Bunday integratsiya san'ati o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini turli shakllarda ifodalash imkonini yaratadi.Biror musiqani tinglaganda, uning tuyg‘ularini tasviriy san'atda aks ettirish: musiqaning tezligi va ranglarini qo‘llash, musiqaning mavzusiga mos keladigan tasvirlar yaratish.Teatr va Tasviriy San'at Teatr va tasviriy san'atni integratsiya qilish orqali o‘quvchilar sahna san'atlari va vizual san'atni birlashtirishni o‘rganadilar. Bu yondashuv orqali, sahnada yaratiladigan obrazlar va ularning vizual tasvirlari o‘zaro bog‘lanadi.Masalan: Teatrda aktyorlar tomonidan ijro etilayotgan rollarga qarab, ranglar, fondlar, va kompozitsiyalarni tasviriy san'atda yaratish. O‘quvchilar o‘zlarining yaratuvchanliklarini o‘ynash va tasviriy san'ati orqali aks ettirishni o‘rganadilar.Adabiyot va Tasviriy San'at Adabiyot va tasviriy san'atning integratsiyasi, o‘quvchilarga hikoyalar, she'rlar yoki asarlarning vizual tasvirlarini yaratish imkoniyatini beradi. Adabiyotdan olingan tasvirlarni san'at asarlarida aks ettirish, o‘quvchilarga ijodiy ravishda fikr yuritish va tasavvurlarini rasmga tushirish imkoniyatini yaratadi.Masalan: Biror hikoya yoki she'rdan ilhomlanib, o‘quvchi shu asar asosida rasm yoki kolaj yaratadi. Bu o‘quvchining yozuvchi yoki shoirning fikrlarini tasviriy san'at orqali tushunishiga yordam beradi.Fotografiya va Rassomlik Fotografiya va rassomlikni integratsiya qilish, o‘quvchilarga ko‘plab vizual imkoniyatlar yaratadi. Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar yoki fotosuratlar orqali san'atchilar o‘zlarining fikrlarini va tasavvurlarini yanada kengroq ifodalashlari mumkin.Masalan: Fotografiyalarni rasmga aylantirish yoki tasviriy san'atda fotoelementlarni qo‘llash. Bu, o‘quvchilarga ikki san'at shaklini birlashtirib, yanada chuqurroq va original asarlar yaratish imkoniyatini beradi.

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: San'atning turli shakllari o‘quvchilarga kengroq va innovatsion fikrlash imkoniyatini beradi. Ular bitta shaklga yopishib qolmay, bir nechta san'at shaklidan foydalanib, yangi va original asarlar yaratishadi.

2. San'atning ko‘p qirraliligini o‘rgatadi: San'atning turli turlarini birlashtirish, o‘quvchilarga san'atning murakkab va ko‘p qirrali tabiati haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladi.

3. Ko‘p hissiy va estetik tajribalar yaratadi: Musiqa, teatr, adabiyot va tasviriy san'atni integratsiya qilish o‘quvchilarga turli estetik tajribalar orqali hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

4. Shaxsiy ifodalanish imkoniyatlarini kengaytiradi: Bir nechta san'at shakllarini qo‘llash orqali o‘quvchilar o‘zlarining individual shaxsiy ifodalash usullarini rivojlantirishadi.Ko‘plab san'at turlarini integratsiya qilish, o‘quvchilarga yangi va original asarlar yaratish, estetik va hissiy tajribalarni kengaytirish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuv nafaqat san'atni o‘qitishda, balki o‘quvchilarning ijodiy va ko‘p qirrali fikrlashini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Bu integratsiya orqali san'atning turli shakllari o‘rtasidagi chegaralar yo‘qoladi va yangi imkoniyatlar ochiladi.

1. Sxema va Eskizlardan Foydalanish: Darslarda o‘quvchilarga boshlang‘ich eskizlar yoki sxemalar yaratish orqali ular o‘z fikrlarini ko‘rsata olishadi. Bu ijodiy jarayonni boshlashda yordam beradi va o‘quvchilarni rasmni yanada to‘liq va original tarzda yaratishga undaydi.

2. O‘yinlar va Mashqlar: Kreativlikni rivojlantirish uchun tasviriy san'at darslarida turli o‘yinlar yoki mashqlarni qo‘llash juda foydali. Masalan, tasviriy mashqlar orqali o‘quvchilar yangi shakllarni topish, ranglar bilan o‘ynash va tasavvurlarini sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

3. Eksperimentlar va Materiallardan Foydalanish: O‘quvchilarga an'anaviy rasm chizish texnikalaridan

tashqari, turli materiallar bilan tajriba qilish imkoniyatini yaratish, ularni innovatsion yondashuvlarga undaydi. Masalan, rangli tuz, akril bo‘yoqlar, turli matolar va boshqa materiallardan foydalanish orqali yangi tasvirlar yaratish. Tasviriy san'atda kreativlikni rivojlantirish nafaqat texnikani o‘rgatish, balki o‘quvchilarning o‘z dunyoqarashini kengaytirish va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun san'at o‘qituvchilari o‘quvchilarning individiual qobiliyatlarini hisobga olib, har bir talabaning shaxsiy ijodiy yondashuvini rag‘batlantirishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarni tasviriy san'atning turli usullari bilan tanishtirib, ularga ko‘proq tajriba qilishga imkoniyat yaratishi kerak. Tasviriy San'at va Kreativlik: Ta'limda Amaliy Yondashuv

Tahlil va natijalar.

Tasviriy san'at va kreativlik, ta'lim jarayonida nafaqat estetik qadriyatlarni rivojlantirish, balki talabalarning muammolarni hal etish, ijodiy fikrlash va vizual kommunikatsiya ko‘nikmalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu amaliy yondashuv san'at va kreativlikni ta'limda qanday muvaffaqiyatli qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.Tasviriy san'at (rasm, grafika, haykaltaroshlik va boshqalar) faqat estetik qadriyatlarni rivojlantirish bilan cheklanmaydi. Bu fan ijodiy fikrlashni rivojlantirish, individual ifodalanish, va talabalarga vizual nutqni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Rasm chizish, ranglarni tanlash, shakl va kompozitsiyani o‘rganish orqali talaba o‘zini yanada erkin ifodalaydi va yangi g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Kreativlik — bu yangi, original g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatidir. Tasviriy san'at ta'limida kreativlikni rivojlantirishning bir necha usullari mavjud:

- Eksperiment qilish: Talabalarni yangi texnikalar va uslublarni o‘rganishga undash, mavjud qoidalar va an'analar bilan o‘ynash imkoniyatini beradi.
- Interdisipliner yondashuv: San'atni boshqa fanlar, masalan, ilm-fan, tarix, adabiyot bilan bog‘lash, talabalar uchun kengroq ko‘lamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.
- Muammolarni hal qilish: Tasviriy san'at ko‘pincha talabalar uchun muammoni tasvir orqali ifodalash va hal etishning amaliy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, dizayn, arxitektura yoki muhandislik kabi sohalarda muhim.Ta'limda tasviriy san'at va kreativlikni amaliy yondashuv yordamida qo‘llashning bir qancha afzalliklari bor:
- Ko‘nikmalarni yaxshilash: Tasviriy san'atni o‘rganish talabalarga texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, rasm chizish yoki digital san'atni o‘rganish talabalarga o‘z fikrlarini aniq va samarali ifodalash imkoniyatini beradi.
- Ijodiy xotira va diqqatni oshirish: San'atni o‘rganish talabalarning tasavvurini kengaytiradi va ularni detailga e'tiborli bo‘lishga o‘rgatadi, bu esa boshqa fanlarda ham foydali bo‘ladi.
- Motivatsiya va o‘z-o‘zini ifodalash: Amaliy ishlar orqali talaba o‘zini yaxshiroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va yangi g‘oyalar yaratishga undaydi.San'at va kreativlikni amaliy yondashuv yordamida o‘rganish jarayonida talaba faqat nazariy bilimlarni emas, balki real vaziyatlarda ijodiy qarorlar qabul qilishni ham o‘rganadi. Bu, o‘z navbatida, ularni professional sohada muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.Amaliy yondashuvni tasviriy san'at ta'limida integratsiya qilish, o‘quvchilarga san'atning nafaqat estetika, balki texnologiya, psixologiya, va ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq jihatlarini ham tushunishga yordam beradi. Bu, shuningdek, san'atni ta'limda eng samarali va qiziqarli tarzda qo‘llashning asosiy usullaridan biridir.Tasviriy san'at va kreativlikni ta'limda amaliy yondashuv yordamida rivojlantirish, talabalarga ijodiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ular nafaqat san'atni o‘rganish orqali estetik va vizual ifodalanishni o‘zlashtiradilar, balki zamonaviy muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan kreativ va amaliy yondashuvlarni o‘rganadilar. Bu nafaqat san'at sohasida, balki boshqa har qanday kasbda muvaffaqiyatli bo‘lishda ham foydalidir.

Xulosa.

Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, san'atga bo‘lgan qiziqishini oshirish, shuningdek, ularning tasavvurlarini kengaytirish uchun zarurdir. Kreativ yondashuvlar pedagogik jarayonni jonlantiradi va o‘quvchilarga yangi g‘oyalar bilan ishlash imkonini yaratadi. O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va erkin fikrlashga rag‘batlantirishda kreativ metodlarning roli katta. Tasviriy san'atdagi kreativlik – bu nafaqat rasm yoki san'at asari yaratish jarayoni, balki insonning o‘zini ifodalash, yangi g‘oyalar yaratish va san'at orqali dunyoqarashini kengaytirish jarayonidir. Kreativlikni rivojlantirish uchun tasviriy san'at darslarida erkinlik, tajriba, va o‘yinlar orqali o‘quvchilarni yangi imkoniyatlarga yo‘naltirish kerak. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat san'atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning ijodiy salohiyati ham mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Tursunova, M. (2020). "Tasviriy san'at va pedagogika: Innovatsion metodlar". Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

2. Akhmedova, G. (2019). "San'at darslarida kreativ metodlarni qo‘llash". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

3. Ibragimov, S. (2021). "San'atni o‘qitishda yangi metodlar va yondashuvlar". Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.

4. Shukurov, A. (2022). "Kreativ metodlarning pedagogik o‘quv jarayonidagi o‘rni". Buxoro: Buxoro davlat pedagogika universiteti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Alimova Mashxuraxon Ravshanbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchi

BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHNI O'RGATISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol o'qitish metodlari, robototexnika va boshqa innovatsion yondashuvlarning texnologiya darslariga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashi, amaliy ko'nikmalari va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: inovatsion texnologiyalar, mustaqil fikr, usullar, texnologiya fani, o'quv-tarbiya jarayon, o'qituvchi, o'quvchilar, animatsiya.

Алимова Машхурахан Равшанбековна
Андижанский государственный педагогический институт учитель

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ИЗГОТОВЛЕНИЮ ИЗДЕЛИЙ ИЗ ПРИРОДНЫХ МАТЕРИАЛОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена вопросам развития системы образования за счет эффективного использования инновационных технологий на уроках технологии начальных классов. В статье анализируется интеграция современных информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов обучения, робототехники и других инновационных подходов в технологические классы. Рассматриваются возможности развития у учащихся творческого мышления, практических навыков и навыков самостоятельной работы посредством применения инноваций. Также подчеркивается необходимость повышения цифровой грамотности педагогов и обеспечения их современными педагогическими технологиями в повышении эффективности обучения.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, независимое мышление, методы, наука о технологиях, учебно-воспитательный процесс, учитель, ученики, анимация.*

Alimova Mashkhurakhan Ravshanbek kizi
Andijan State Pedagogical Institute teacher

THE CONTENT AND ESSENCE OF TEACHING THE MANUFACTURE OF PRODUCTS FROM NATURAL MATERIALS IN PRIMARY SCHOOL TECHNOLOGY EDUCATION CLASSES

Annotation. *This article is devoted to the development of the education system through the effective use of innovative technologies in primary school technology lessons. The article analyzes the integration of modern information and communication technologies, interactive teaching methods, robotics and other innovative approaches into technology classrooms. The possibilities of developing students' creative thinking, practical skills and independent work skills through the use of innovations are considered. It also highlights the need to improve teachers' digital literacy and provide them with modern pedagogical technologies to improve learning efficiency.*

Keywords: *innovative technologies, independent thinking, methods, science of technology, educational process, teacher, students, animation.*

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida texnologiya ta'limi va tarbiyasi vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin :

- ❖ o'quvchilarni tabiatdagi, tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ularda

go‘zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda shu his va tushunchalarni hayotga tatbiq etishga o‘rgatish;

❖ muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ko‘rib-idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fantaziyani ko‘rish orqali tasavvur qilish va kombinatsiyalashni, ijodiy vazifalarni aniq obrazlarda hal qilishni tarbiyalash;

❖ tabiiy materiallar bilan ishlashni o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;

❖ ularda tabiatga nisbatan emotsional idrok, ijodiy qobiliyat, did, tasavvurni, estetik va emotsional sezgirlikni o‘stirish;

❖ turli tabiiy materiallardan rang-barang o‘yinchoqlar va ko‘rgazmalar yasashga o‘rgatish;

❖ tabiiy materiallar asosida ishlash asnosida ularda ijodiy texnik malakalarni rivojlantirish.

Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg‘ulotlarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga estetik, badiiy va ijodiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya – bu o‘quvchilarni hayotdagi, tabiatdagi, san’atdagi kishilarning munosabatlardagi go‘zallikni to‘liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalash va go‘zallik qonunlari asosida ijod etishga o‘rgatishdir. Zotan, go‘zallik bolaning aqliga, qalbiga, irodasiga ta’sir qilib, ma’naviy dunyosini boyitadi.

Hozirgi vaqtda maktabning asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarga borliqni faqat ijodiy o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirishgagina emas, balki go‘zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan ko‘rish hissini tarbiyalash hamdir.

Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat’iy nazar, go‘zallik va nafislikni ko‘ra olish va tushuna bilishi kerak. O‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o‘qituvchi mehnat darslarida ularga tabiatdagi go‘zallikni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko‘rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go‘zalliklari so‘z bilan tasvirlab bo‘lmas rang birikmalari shaklida uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida qoladi.

Manzara, daraxtlar, barglar va gullarning o‘ziga qarab rasmini chizish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish orqali bolalar tabiatga ko‘proq qiziqadigan bo‘ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko‘ra olishga, shuningdek, ko‘rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, atrof-borliq haqida aniq va to‘liq tushunchalar hosil qilishga yaqindan yordam beradi.

Texnologiya ta’limi dasturida o‘quvchilar mehnat darslarida egallashi lozim bo‘lgan ilmiy-texnik bilimlarning, mehnat ko‘nikmalarini va malakalarini hajmi hamda mazmuni belgilab beriladi.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat ta’limi berish orqali ularni tarbiyalash sohasida qo‘yilgan maqsad va vazifalar o‘z ifodasini topadi. Texnologiya ta’limi dasturi o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya ta’limi o‘qituvchisi o‘zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma’lum o‘zgarish kiritishi mumkin. Bu borada bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to‘la-to‘kis javob berishi, ilmiy mafkuraviy jihatdan puxta bo‘lishi, murakkabligi ortib borishi hisobga olingan holda va mehnat ta’limining tanlagan didaktik tizimiga muvofiq ravishda muayyan izchillikda bayon qilinishi turmush tajribasi bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Mehnat malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish o‘quvchilarni tarbiyalash hamda ularni bo‘lajak amaliy faoliyatga tayorlashda mehnat malakalari va ko‘nikmalari katta rol o‘ynaydi. Quyi sinf o‘quvchilariga texnologiya ta’limida ko‘rsatilgan mavzular mazmunini yetkazib berish vazifalaridan biri o‘quvchilarda bir qator mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko‘nikmalari ta’lim jarayoni natijasi bo‘libgina qolmay, ma’lum topshiriqni bajarish su’rati va aniqligiga rioya qilishdir. Aks holda bajarilayotgan ish qo‘pol chiqishi mumkin. Mehnat harakatlarining mukammalashuvi dars jarayonida maxsus mashqlar ta’sirida yuzaga keladi. O‘quvchining ongli, ayrim harakatga alohida e’tibor va ishlarni birlashtirish jarayoniga yo‘llangan bo‘ladi.

Malaka - mavjud bilimlari asosida o‘zgargan yoki yangi sharoitlarda shaxsning faoliyatni samarali bajarishga qobiliyati hisoblanadi. Malaka – bu bilimlar yordamida mavjud axborotlarni tushunib olish, maqsadga erishish rejasini tuzish, faoliyat jarayonini boshqarish va nazorat qilish qobiliyatidir. Malaka – bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir [29].

Oddiy malakalar yetarlicha mashq qilinganda avtomatlashtirilishi mumkin va ko‘nikmalarga aylanadi. Dars jarayonida berilgan topshiriqlarni tez va aniq bajarish, mashq qilish tufayli tarkib topgan ko‘nikma yoki bu ma’lum miqdordagi mashq va usullar bajarilganda ko‘nikmadan sakrab o‘tish degan ma’noni anglatadi.

Shuning uchun mazkur ko‘nikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashq va usullar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa u to‘g‘ri malakaga aylanishi mumkin. Biroq malakaning takomillashuv darajasi o‘qitishinng turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o‘zgaruvchandir. Mashqlar jarayonida o‘quvchilar bajarilayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta-sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo‘ladi.

Mehnat malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish quyidagicha asosiy bosqichlardan tarkib topadi.

a) boshlang‘ich tushuncha.

a) mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish.

v) ish harakatlari.

g) yakun chiqarish.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limi darslarida ko‘rsatilayotgan harakat maqsadga muvofiq, barcha munosabatlarda ham namunali bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchining e’tiborini harakatning eng asosiy ahamiyatli tomoniga qaratishi, boshqa harakatni emas, aynan shu harakatning maqsadga muvofiqligini asoslashi, ularni o‘quvchilar ongli egallashiga erishishi lozim. Shuning uchun ko‘rsatish doimo qisqa tushuntirish bilan birga boradi.

Mavzuga oid ko‘rgazma qurollarni namoyish qilish o‘quvchilar tomonidan faol idrok etilishini ta’minlash kerak. Faollik tafakkur faoliyatida hamda ko‘rsatilayotgan narsani idrok etishda ish hajmi miqdorining ko‘payishida ifodalanadi.

Namoyish etilayotgan barcha ko‘rgazma qurollar har bir o‘quvchiga yaxshi ko‘rinishi kerak.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidagi mashqlar mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan mashqlar faqat vaqtga ko‘ra taqsimlanganda hamda ma’lum tizim asosida o‘tkazilgadagina ijobiy natija beradi.

Mashqlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o‘z ichiga oldadi.

1. Mashqlarning materiali qiyinlikni oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.

2. Keyingi materialning hammasi to‘liq tarzda oldingi materialga asoslanishi lozim.

3. Mustaqillik darajasi ortib borilishi kerak.

Mehnat malakasi muvaffaqiyatli bo‘lishi bir qator shartlarga bog‘liq. O‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qachon to‘liq bo‘lmaydi. Nazoratning yo‘qligi ko‘pincha xato va nuqsonlarning mashqlar jarayonida ortib borishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida yetilmagan harakat va usullarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinfda texnologiya ta’limidan amaliy ishlar. Texnologiya ta’limi darslarida o‘quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o‘rganadilar. Birinchi sinfda o‘quvchilar eng avvalo faqat dars mashg‘ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to‘qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Qog‘oz va karton bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish hamda uy ro‘zg‘or mehnati va shu kabilar bilan tanishadilar. Amaliy ishlar jarayonida o‘quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejamli sarflash, mehnatga ijodiy yondashish, tabiatga ehtiyotkorli bilan munosabatda bo‘lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar berib boriladi.

O‘quvchilarga mehnat tarbiyasi berishni asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga materiallarga ishlov berish ko‘nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir.

Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o‘quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash operatsiyalarini eslab qolishga qodir emaslar.

Hosil qilingan ko‘nikmalar takror mashq qilish natijasida takomillashib boradi. Xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘quvchilarni o‘z-o‘zini nazorat qilishga odatlantirish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o‘quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo‘l asboblaridan foydalanishning o‘ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Buyumni tayyorlash usullarini o‘qituvchi sinf doskasiga osib qo‘yilgan yo‘llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko‘rsatadi. Shundan so‘ng u ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, materialni takrorlaydi va buyumni o‘quvchilar bilan tayyorlashga o‘tadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, texnologiya ta’limidan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi.

1. O‘quvchilar oldiga bajariladigan topshirig‘ining maqsadi va mavzusini qo‘yish:

a) Darslarda bajarishga mo‘ljallangan buyum yoki ish o‘quvchilar hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash;

b) Belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi lozimligini ko‘rsatish.

2. Ish o‘rni, asbob uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarni tayyorligini tekshirish ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun qoidalarni eslatish.

3. Bajariladigan mehnat vazifalarni oldindan rejalashtirish:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materiallarni, berilgan o‘lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o‘lchovlarni va ishchi chiziqlarni topish va o‘qish, ya’ni ishni buyum tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materiallarni namuna, berilgan o‘lchovlar bo‘yicha belgilab chiqish. O‘quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko‘rsatib tushuntirayotgan o‘qituvchi bilan bir vaqtda bajarishlari lozim.

5. Belgilash ishlarini bajarish. Detallarni tayyorlash, detallarni moslash va uning barcha detallarini yig‘ish; detallardan buyumni yig‘ish jarayonida, buyum va uni

detallariga ishlov berish jarayonida zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni egallash.

6. Harakatlanayotganda tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo‘yish.

Texnologiya ta’limida amaliy ish mashg‘ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o‘qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Amaliy ishlar jarayonida o‘quvchilarda mehnatga qiziqishning muhim talablaridan biri ishlanadigan buyumni to‘g‘ri tanlashdir. O‘quvchilar tayyorlanadigan narsalarni nimaga kerakligini, qayerda ishlatilishini bilishilari kerak.

Bu ish turlarini barchasi boshlang‘ich sinflarda qo‘l mehnati jarayoni o‘quvchilardagi kasb tanlash ishlariga qaratilgan.

O‘quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari, o‘z ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, o‘qituvchi ko‘rsatmasiga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashlari, mashg‘ulotdan so‘ng sinfni tozalab qo‘yishlari kerak.

Boshlang‘ich sinflarning texnologiya ta’limi darslarida o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘limi o‘quvchilarning kiyim-kechaklariga va turar joylariga qarashni, nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun dasturxon tuzashni o‘z ichiga oladi. Bu darslarni yil boshida o‘tkazish tavsiya etiladi, bundan maqsad o‘qituvchilarni va ota-onalarni yil davomida bolalarni olgan bilimlarini qanday qo‘llayotganliklarini va sinfda navbatchilik qilganda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, uyda ota-onalariga yordam berishlariga imkon berishdir.

Texnikaga oid bo‘limi texnologiyaning quyidagi turlarini qog‘oz va karton bilan ishlash, mato bilan ishlash, turli materiallardan plastilin, tabiiy va neorganik materiallar somon, kuritilgan barglar, patlar, chig‘onok, loy, qum, sement, yog‘och, yumshoq sim, tunika va boshqa materiallar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarga buyumlar yasash tartibi haqida bilimlar olgan vaqtlarida ya’ni yig‘ish, ishlov berish to‘g‘risida, ishlatib ko‘rish, xato va kamchiliklarni yo‘qotish haqida, ish o‘rnini tashkil qilish va boshqalar to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘ladi. Bu elementlarning barchasi keyinchalik modellar va texnikaviy o‘yinchoqlar tayyorlashda qo‘llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o‘stiradi, to‘plangan mehnat tajribasini tevarak-atrofdagi texnika bilan bog‘lashlariga yordam beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hamkorlik munosabatlariga ijodkorlik bilan yondashish vositasida o‘quvchilarni o‘rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o‘qish-o‘qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishning asosiy sharti bo‘libgina qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim sharti hisoblanadi. Rivojlanib borayotgan bu davrning o‘qituvchilari ta’lim berishning zamonaviy usullarini dars jarayonlariga tadbiq qilishlari, darsning sifatli va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda xorijiy tajribalardan foydalanish, rivojlanib borayotgan davlatlarning ta’lim daturlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan abiyotlar.

1. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P, Sanaqulova A.K .“Texnologiya” 2-sinf darsligi. T.: “Sharq”. 2018-yil
2. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P, Sanaqulova A.K Mehnat ta’limi 3-sinf darsligi.. T.: “Sharq”. 2016-yil
3. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
4. Sanaqulov X.R, XodiyevaD.P. Boshlang‘ich sinflarda qo g‘ozdan amaliyishlar. O‘quv-metodik qo‘llanma. T.:Navro‘z. 2014-yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. “Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2016yilning asosiy yakunlari va 2017 yilda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘naltirishlariga bag‘ishlanganVazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi”.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyalining kundalik qoidasi boMishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston republikasi prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.
5. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va Xalq farovonligi garovi.-Toshkent, O‘zbekiston,2017.-48b

7. O.A.Qo‘ysinov, V.N.Sattorov, H.S.Yakubova. Texnologiyafanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011, 79 b.

8. O.A.Qo‘ysinov, H.S.Yakubova, F.S.To‘rabekov, S.Rajabova. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo‘llash fanidan labaratoriya mashg‘ulotlari. Metodik qo‘llanma. T.: Nizomiy nomli TDPU, 2013. 160 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Atamuratova Nesibeli Dauirxan qizi
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
nesiybeliatamuratova@gmail.com

RAQAMLI PEDAGOGIKA: SAMR VA TPACK MODELINING TA'LIMDAGI O'RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli pedagogikaning SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) va TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modellariga asoslangan ta'limdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ushbu modellar nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanilish tajribasi o'rganilib, raqamli vositalar yordamida o'quvchilar bilimini chuqurlashtirish, ijodkorlik va muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, SAMR modelining yuqori bosqichlari va TPACK yondashuvi asosida tashkil qilingan mashg'ulotlar akademik natijalarni yaxshilash, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli pedagogika, SAMR, TPACK, ta'lim, innovatsion yondashuv, raqamli kompetensiya, o'quv jarayoni.*

Атамуратова Несибели Дауирхан кизи
Базовый докторант Нукусского государственного педагогического института

ЦИФРОВАЯ ПЕДАГОГИКА: РОЛЬ SAMR И МОДЕЛИ TPACK В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль цифровой педагогики в образовании на основе моделей SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) и TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge). Исследование охватывает теоретические аспекты и практический опыт применения указанных моделей, а также демонстрирует их влияние на углубление знаний учащихся, развитие творческих способностей и навыков решения проблем с помощью цифровых инструментов. Результаты показывают, что использование старших уровней модели SAMR и подхода TPACK в учебном процессе способствует повышению академических результатов, формированию цифровых компетенций и улучшению качества образования.*

Ключевые слова: *Цифровая педагогика, SAMR, TPACK, образование, инновационный подход, цифровые компетенции, учебный процесс.*

Atamuratova Nesibeli Dauirkhan kizi
Base doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute

DIGITAL PEDAGOGY: THE ROLE OF THE SAMR AND TPACK MODEL IN EDUCATION

Annotation: *This article examines the role of digital pedagogy in education through the lens of the SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) and TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) models. The study addresses the theoretical foundations and practical implementation experiences of these models, highlighting their impact on deepening students' knowledge, fostering creativity, and enhancing problem-solving skills through digital tools. The findings reveal that employing the higher levels of the SAMR model and the TPACK approach effectively improves academic outcomes, develops digital competencies, and enhances the overall quality of education.*

Keywords: *Digital pedagogy, SAMR, TPACK, education, innovative approach, digital competencies, learning process.*

Kirish.

Raqamli pedagogika zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, yangi texnologiyalar orqali o'quv jarayonini takomillashtirishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. An'anaviy o'qitish uslublari va metodlarini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish, zamonaviy jamiyat talablariga mos bilim va ko'nikmalarga ega avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi avlod o'quvchilari o'qish jarayonida texnologiyaga tobora ko'proq murojaat qilayotgan bir paytda, raqamli vositalar bilan sug'orilgan muhitda samarali pedagogik yondashuvlarni shakllantirish ham zarur bo'lib bormoqda. Shunday sharoitda, SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) va TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) kabi pedagogik modellarning ta'limda qo'llanilishi alohida e'tiborga

loyiqdir. Ushbu modellarning asosiy mazmuni ta'lim texnologiyasini an'anaviy metodika va fan mazmuni bilan uyg'unlashtirib, zamonaviy o'qitish jarayonini samarali va interaktiv shaklda tashkil etishdan iborat.

SAMR modeli raqamli vositalar ta'limdagi o'rni va ularni qo'llash darajalarini bosqichma-bosqich aniqlab beradi. Bunda eng oddiy bosqich – substitution, ya'ni texnologiyani an'anaviy usulning o'rnida qo'llash bilan cheklanadi. Keyingi bosqich – augmentation, an'anaviy usulga nisbatan texnologiyaning qo'shimcha qulayliklar berishiga urg'u qaratadi. Uchinchi bosqich – modification, dars jarayonini tubdan o'zgartirib, yangi pedagogik maqsad va vazifalarni kashf etishga xizmat qiladi. Oxirgi bosqich – redefinition, raqamli texnologiyalar yordamida ilgari umuman amalga oshirib bo'lmaydigan faoliyat turlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shunday qilib, SAMR orqali o'qituvchi dars jarayonini izchil ravishda innovatsionlashtirish, muqobil metodlar va platformalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

TPACK modeli esa raqamli pedagogikaning uch asosiy omilini o'zaro uyg'unlashtirishga qaratilgan. Ushbu omillar texnologik bilim, pedagogik bilim va fan mazmuni bo'yicha bilim bo'lib, bularning o'zaro kesishgan joyi eng samarali raqamli ta'lim metodikasini vujudga keltiradi. Modelning asosiy g'oyasi shuki, o'qituvchi nafaqat o'z fani bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishi, balki bu bilimni qaysi pedagogik uslubda va qaysi texnologik vositalar orqali yetkazish lozimligini ham aniq tushunishi kerak. Raqamli taraqqiyot sharoitida ayrim pedagoglar texnologiya bilan ishlashni yaxshi bilishi, ammo dars didaktikasi bo'yicha ilg'or tajribaga ega emasligi yoki aksincha, an'anaviy metodlarni yaxshi bilgan holda texnologik imkoniyatlardan to'liq foydalana olmasligi mumkin. TPACK yondashuvi esa shu ikki tafovutni yo'qotishga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi raqamli pedagogika doirasida SAMR va TPACK modellari ta'lim jarayonidagi o'rnini tadqiq etishdan iborat. Jumladan, ushbu modellarning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilish tajribalari va ularning o'quvchilarda raqamli kompetensiyalar hamda chuqur fan bilimlari shakllanishiga qo'shadigan hissasi IMRAD talabida ko'rib chiqiladi.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqot birlamchi manbalarni tahlil qilish hamda eksperimental metodlarni qo'llash orqali amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ilmiy maqolalar, monografiyalar va konferensiya materiallari kabi nashr etilgan manbalar o'rganildi. Mazkur manbalarda raqamli pedagogika, xususan SAMR va TPACK modellari haqida berilgan nazariy yondashuvlar, ularni turli fanlarda qo'llash uslublari hamda o'qitish sifatiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. Samohiy tadqiqotlardan tashqari, turli ta'lim muassasalaridagi amaliy tajribalar ham e'tiborga olindi. Metodologik yondashuvda tarkibiy-tizimli tahlil usuli qo'llanilib, pedagogik jarayonning texnologik, metodik va mazmuniy komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur o'rganildi.

Ikkinchi bosqichda eksperimental sinovlar tashkil etilib, unda umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflari va oliy ta'lim muassasalari talabalaridan tuzilgan ikki xil guruh ishtirok etdi. Birinchi guruh raqamli vositalarni SAMR modelidagi dastlabki ikki bosqich doirasida (substitution va augmentation) ishlatishga yo'naltirildi. Ikkinchi guruhda esa o'qituvchilar TPACK modeliga asoslanib dars olib borishdi, ya'ni mazmunni texnologiyaga moslashtirish bilan birga, zamonaviy pedagogik strategiyalar qo'llashiga e'tibor qaratildi. Dars jarayonlari davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan fan bilimlari, raqamli kompetensiyalar, ijodkorlik va muammolarni hal etish ko'nikmalari baholandi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, savolnoma va baholash ro'yxatlari (rubrikalar)dan foydalangan holda ma'lumotlar to'plandi. Ushbu usullar orqali nafaqat akademik natijalar, balki ishtirokchilarning darsga qiziqishi, mustaqil o'rganish motivatsiyasi va o'z-o'zini rivojlantirish yo'nalishlari ham tadqiq etildi.

Uchinchi bosqichda to'plangan ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, ikki guruh o'rtasidagi farqlar, samaradorlik ko'rsatkichlari va texnologiya bilan integratsiya darajasi baholandi. Tahlil qilinayotgan ma'lumotlar hajmi etarlicha keng bo'lgani sababli, korelyatsion va regressiya usullaridan ham foydalanildi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilar (yoki talabalar)ning yakuniy baholari, ijodiy ishlar sifati va raqamli resurslardan foydalanish ko'nikmalariga qaratildi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, SAMR modelining dastlabki bosqichlari, ya'ni substitution hamda augmentation dars jarayonlarini texnik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirsa-da, bu o'quvchilarning bilim sifatiga chuqur ta'sir ko'rsatmaydi. An'anaviy dars jarayonini faqat raqamli vositalarga almashtirish yoki ularning ayrim qulayliklaridan foydalanish asosiy ta'lim maqsadlarida katta burilish yasashga kafolat bermaydi. Biroq, modification va redefinition bosqichlariga o'tgan holda o'qituvchilar o'quvchilarni zamonaviy platformalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar va turli multimedia mahsulotlari orqali mashg'ulotlarga faol jalb qila boshlaganda, o'quvchilarning fan bo'yicha motivatsiyasi ortib, ijodkorlik, muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalari va yuqori darajadagi raqamli savodxonlik shakllangani kuzatildi.

TPACK modeliga asoslangan yondashuvda esa o'qituvchi texnologik imkoniyatlarni faqat o'quv materialini taqdim etish vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarni fan mazmuni bilan chuqur tanishtirish va bu jarayonni to'g'ri pedagogik strategiyalar bilan boyitish imkoniyati sifatida ko'rdi. Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va interaktiv o'yinlar oralig'ida muvozanatni saqlash,

shuningdek, o‘quvchilarni faqat iste’molchi sifatida emas, balki bilim yaratish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish TPACK modelining samarali jihatlaridan biri sifatida e’tirof etildi. Eksperimentda qatnashgan ikkinchi guruh o‘quvchilari (yoki talabalar) o‘qitish jarayonida kuchli motivatsiya va ijodiy tashabbus ko‘rsatib, sinf xonasi doirasidan tashqarida ham virtual guruh ishlari, raqamli platformalar orqali topshiriqlarni mustaqil bajarish va bir-biriga maslahatchi bo‘lish tajribasiga ega bo‘ldi. Bu esa nafaqat fan mazmunining chuqur o‘zlashtirilishiga, balki ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning ham rivojlanishiga xizmat qildi.

Yakuniy tahlillarga ko‘ra, SAMR modelining yuqori bosqichlari bilan boyitilgan darslar va TPACK yondashuvi asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulotlar akademik natijalarni ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Bunday darslarda qatnashgan o‘quvchilarning sinov ishlari an’anaviy metod bilan ta’lim olgan yoki faqat substitution–augmentation bosqichida qolgan guruhlarga qaraganda yaxshiroq natijalar bilan yakun topdi. Shuningdek, ular raqamli vositalarni ijodiy qo‘llash, turli fanlar kesimida integratsiyani barpo etish va mustaqil o‘rganish faoliyatlarini samarali tashkil eta olishlari bilan ham ajralib turishdi.

Muhokama.

Mazkur tadqiqotdan xulosa qilish mumkinki, raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish har doim ham o‘quvchilar bilimining sifatli o‘sishiga olib kelmaydi. SAMR modelini faqat substitution va augmentation bosqichlarida qo‘llash natijadorlikka katta ta’sir o‘tkaza olmaydi, chunki bu bosqichlarda texnologiya an’anaviy metodlarni to‘liq qayta ko‘rib chiqmaydi. Biroq, modification va redefinition bosqichlariga kirib borish jarayonida, o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorligi, o‘quv materiallari taqdimotining turli formatlarda integratsiyalashuvi, virtual muhitda ilmiy izlanishlar qilish imkoniyatlari keskin kengayadi. Shu bilan bir qatorda, TPACK modeli o‘qituvchining fan mazmuni, pedagogik metodlar va texnologik vositalar haqidagi bilimlarini bir butun tizimga aylantirishga zamin hozirlaydi. Bunda “nima”ni o‘rgatish, “qanday” o‘rgatish va “qaysi vosita”lar bilan o‘rgatish muammosi yagona yondashuvda hal etiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, TPACK modeli ham o‘qituvchilar uchun boshlang‘ich bosqichda nisbatan murakkab tuyilishi mumkin. Chunki yondashuvda o‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha chuqur tushunchaga ega bo‘lishi bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va ulardan samarali foydalanish, ularni darsdagi faqat “mavjud” qo‘shimcha resurs emas, balki o‘quvchilar bilish faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan platforma sifatida ko‘ra olish malakasini ham rivojlantirishi zarur. Bu jarayon o‘qituvchilardan doimiy tarzda o‘z-o‘zini rivojlantirish, turli onlayn kurslar, seminarlar va vebinarlar orqali tajribasini boyitish, texnologiya dunyosidagi yangiliklardan xabardor bo‘lishni talab etadi. Shu bilan birgalikda, ta’lim muassasalarida rahbariyat tomonidan mos infrastrukturani yaratish, internet tarmog‘idan foydalanishning uzluksizligini ta’minlash va didaktik resurslarni loyihalash bo‘yicha yordam berish ham muhimdir.

Bunday murakkab jarayon samarali amalga oshishi uchun o‘quv dasturlariga raqamli pedagogika tushunchalarini kiritish, yangi o‘qituvchilarga mentorlik qilish hamda raqamli vositalarni izchil tanqidiy o‘rganish madaniyatini shakllantirish talab etiladi. Natijada o‘qitish jarayonida fan mazmuni, pedagogik metodlar va texnologik yechimlar o‘rtasida yaxlit uyg‘unlik vujudga keladi. O‘quvchilar bunday ta’lim muhiti orqali zamonaviy dunyoda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarga ega bo‘lib, raqamli ishtiyoqni ijodiy izlanish, mustaqil o‘rganish va jamoa bilan hamkorlik qilish kompetensiyalariga yo‘naltira oladi. Bu esa nafaqat ta’lim tizimining rivoji, balki iqtisodiyot, ilm-fan va ijtimoiy sohalar uchun ham muhim strategik afzallikdir.

Xulosa qilish mumkinki, raqamli pedagogika shunchaki an’anaviy darslarni texnik vositalar bilan almashtirish emas, balki o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tubdan qayta ko‘rib chiqish, unda ijodkorlik, hamkorlik va muammolarni hal etish kabi zamon talablari bilan uyg‘un kompetensiyalarni rivojlantirishdir. SAMR modelining yuqori bosqichlarini amalga oshirgan holda TPACK yondashuvini qo‘llash, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashgan, motivatsiyani kuchaytiradigan va fanni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladigan raqamli muhit yaratish imkonini beradi. Shu tarzda ta’lim jarayonini boyitish orqali, jamiyatda innovatsion fikrlashga ega, raqamli vositalarni ijodiy qo‘llay oladigan, fan mazmuniga to‘liq sho‘ng‘ish bilan birga, zamon bilan hamnafas rivojlanadigan barkamol avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mishra P., Koehler M. J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

2. Puentedura R. SAMR: A contextualized introduction [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: http://www.hippasus.com

3. Шадиева У. Ш. Цифровая педагогика и перспективы её применения в вузах Узбекистана // Педагогические инновации. – 2021. – № 4. – С. 35–41.

4. Мирзаева Д. Р. Модель SAMR в контексте развития цифровых компетенций // Инновации в образовании. – 2020. – № 2. – С. 12–17.

5. Graham C. R. Theoretical considerations for understanding technological pedagogical content knowledge (TPACK) // Computers & Education. – 2011. – Vol. 57, No. 3. – P. 1953–1960.

6. European Commission. DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens // Publications Office of the European Union. – 2017. – P. 1–60. [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: https://ec.europa.eu/jrc/en/digcomp/digital-competence-framework Jonassen D. H. Learning to Solve Problems with Technology: A Constructivist Perspective. – New York: Merrill/Prentice Hall, 2003. – 272 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Babayeva Hulkaroy Usmon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakulteti,
Umumkasbiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Email: hbabayevva@gmail.com

BIOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHNING REFLEKSIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABANING O‘QUV JARAYONI BILAN BOG‘LIQ YUTUQ VA KAMCHILIKLARINI MUSTAQIL ANGLAB YETISHI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biologiya fanlarini o‘qitishda refleksiv texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini mustaqil anglab yetishi muhokama qilinadi. Shuningdek, refleksiv texnologiyalarning o‘qitish samaradorligini oshirishdagi o‘rni, ularning asosiy metod va usullari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *refleksiya, refleksiv texnologiyalar, biologiya ta’limi, o‘quv jarayoni, talabaning mustaqil anglash qobiliyati.*

Babayeva Hulkaroy Usman kizi
Fergana State University Faculty of Physical Education and sports,
Teacher of the Department of methodology for teaching universal Sciences

INDEPENDENT AWARENESS OF THE ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN CONNECTION WITH THE EDUCATIONAL PROCESS OF THE STUDENT ON THE BASIS OF REFLEXIVE TECHNOLOGIES

Annotation: *This article discusses the application of reflective technologies in teaching biology and how they enable students to independently recognize their achievements and shortcomings in the learning process. Additionally, the role of reflective technologies in enhancing teaching effectiveness, as well as their main methods and approaches, are analyzed.*

Keywords: *reflection, reflective technologies, biology education, learning process, students’ independent comprehension ability.*

Бабаева Хулкарой Усмановна
Факультет физической культуры и спорта Ферганского государственного университета,
Преподаватель кафедры методики преподавания общепрофессиональных дисциплин

САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОСОЗНАНИЕ СТУДЕНТОМ ДОСТИЖЕНИЙ И НЕДОСТАТКОВ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК, СВЯЗАННЫХ С УЧЕБНЫМ ПРОЦЕССОМ, НА ОСНОВЕ РЕФЛЕКСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: *В данной статье рассматривается применение рефлексивных технологий в преподавании биологии и их роль в самостоятельном осознании студентами своих достижений и недостатков в учебном процессе. Кроме того, анализируется влияние рефлексивных технологий на повышение эффективности обучения, а также их основные методы и подходы.*

Ключевые слова: *рефлексия, рефлексивные технологии, биологическое образование, учебный процесс, способность студентов к самостоятельному осмыслению.*

Kirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim jarayonida talabalarni faollashtirish, ularning bilimlarni faqat o‘zlashtirishi emas, balki mustaqil ravishda tahlil qilishi, anglash va o‘zining yutuq va kamchiliklarini baholash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, refleksiv texnologiyalar pedagogik jarayonni takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Refleksiv texnologiyalar – bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, o‘z bilim darajasini baholash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar o‘z bilimlarini chuqurroq anglab yetish, mustaqil ta’lim olish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Biologiya ta’limida bu texnologiyalarni qo‘llash talabalarning fanni chuqurroq o‘rganishiga, ilmiy dunyoqarashining

shakllanishiga va atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishiga yordam beradi. Biologiya tabiiy fanlar orasida o‘ziga xos o‘rin tutib, inson hayoti, tabiat va organizmlarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Shu boisdan, ushbu fandagi bilimlar nafaqat nazariy jihatdan o‘zlashtirilishi, balki amaliyotda qo‘llanishi ham talab etiladi. Biroq, an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha talabalarni faqat tayyor bilimlarni qabul qilishga o‘rgatadi, natijada mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmaydi. Refleksiv texnologiyalar esa talabalar o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga, o‘z bilim darajasini o‘zlari baholashiga va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilashiga imkon beradi. Refleksiv texnologiyalarni biologiya ta’limiga tatbiq etish orqali talabalar o‘zlarining bilim olish jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlay oladilar. Ular nafaqat o‘zlari erishgan natijalarni baholaydi, balki qaysi jihatlarida yaxshilanish kerakligini ham tushunib yetadilar. Bu esa talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi, o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi va fan bo‘yicha chuqurroq bilim olishga intilishga undaydi. Shu sababli, biologiya fanini o‘qitishda refleksiv texnologiyalarni tatbiq etish nafaqat talabalar bilimini oshirish, balki ularning umumiy shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada refleksiv texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning asosiy metod va usullari hamda talabalar mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi roli chuqur tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Biologiya ta’limini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayonida innovatsion va refleksiv texnologiyalarni qo‘llash so‘nggi yillarda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Refleksiv texnologiyalar o‘quvchilarning o‘z ta’limiy jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini mustaqil anglash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi (Vygotsky, 1978; Kolb, 1984). Refleksiv ta’lim tamoyillari kognitiv psixologiya va pedagogik innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Dewey (1933) va Schon (1983) tomonidan ilgari surilgan refleksiv ta’lim nazariyasi ta’lim oluvchilarning o‘rganish jarayonini tahlil qilish, tajriba asosida o‘z-o‘zini rivojlantirish va yangiliklarni yaratish qobiliyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv biologiya fanlarini o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etib, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini chuqur tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Refleksiv texnologiyalar va ularning mohiyati.

Refleksiya – bu shaxsning o‘z faoliyati, natijalari va bilim darajasi haqida fikr yuritishi va xulosa chiqarish jarayonidir. Ta’lim jarayonida refleksiv texnologiyalarni qo‘llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- Talabalarning o‘z bilimlarini ob’ektiv baholashi;
- Mustaqil tahlil va fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi;
- O‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan motivatsiyaning ortishi.

Biologiya fanlarini o‘qitishda refleksiv texnologiyalarni qo‘llash metodlari

Biologiya fanlarini o‘qitishda refleksiv texnologiyalarni qo‘llash metodlari

Refleksiv suhbat – har bir mavzuni tugatgandan so‘ng talabalar bilan muhokama olib borish, ulardan o‘z yutuqlari va qiyinchiliklari haqida fikr almashish. Bu usul talabalarni dars jarayoniga faol jalb qilish va ularning bilim olish jarayoniga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchi savollar berish orqali talabalarni o‘z bilimlarini tahlil qilishga, o‘z fikrlarini asoslashga va xulosa chiqarishga undaydi. Suhbat davomida talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarni berish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu o‘quv jarayonining interaktiv va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘z-o‘zini baholash daftarlarini yuritish – talabalar darsdan keyin o‘z bilimlari va tushunish darajasi haqida yozma ravishda hisobot tayyorlash. Ushbu metod talabalarga o‘z bilimlarining qay darajada chuqurligini anglash va o‘z kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi. O‘z-o‘zini baholash jurnali orqali talabalar o‘zining o‘sish jarayonini kuzatishi, qaysi mavzularda muammolarga duch kelganini aniqlashi va kelajakdagi ta’lim strategiyalarini belgilashi mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchi bu jurnallar orqali talabalar o‘z bilimlarini qanday baholayotganini kuzatib borishi va ularga mos tavsiyalar berishi mumkin. Blits-testlar va o‘zaro baholash – qisqa testlar orqali talabalarning o‘z bilim darajasini baholashi va o‘zaro fikr almashishi. Blits-testlar dars davomida yoki dars yakunida o‘tkazilib, talabalar bilimlarini tezkor tahlil qilish va natijalarni baholash imkonini beradi. O‘zaro baholash esa talabalarga bir-birining ishlarini tahlil qilish, fikr bildirish va takliflar berish imkonini yaratadi. Bu jarayon o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zaro baholash orqali talabalar o‘z bilimlarini ob’ektiv baholashni o‘rganadilar va o‘z xatolaridan saboq olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Portfolio yuritish – talabalar tomonidan bajarilgan ishlarning yig‘indisini shakllantirish va ularni tahlil qilish. Portfolio ta’lim oluvchining o‘z rivojlanish yo‘lini kuzatish va yutuqlarini baholash uchun muhim vosita hisoblanadi. Talaba portfolioga dars jarayonida bajarilgan topshiriqlar, ilmiy ishlar, tajribalar natijalari va refleksiv yozuvlarni kiritadi. Bu metod talabalarni mustaqil izlanishga undaydi va ularning ijodiy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Portfolio yuritish orqali talabalar o‘z ishlarini tizimli ravishda tahlil qilish va kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Refleksiv texnologiyalar yordamida talabaning yutuq va kamchiliklarini anglash jarayoni.

Refleksiya jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

O‘z-o‘zini kuzatish – talaba o‘zining bilim va qobiliyatlarini baholaydi.

Tahlil – o‘zining yutuqlari va kamchiliklari haqida o‘ylaydi.

Xulosa chiqarish – kelajakda qanday metodlarni qo‘llash lozimligi bo‘yicha xulosa qiladi.

Amaliyotga joriy etish – yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish orqali natijalarni yaxshilash.

Refleksiv texnologiyalar yordamida talabaning yutuq va kamchiliklarini anglash jarayoni.

Talabalarning o‘z bilimlari va o‘quv jarayonidagi kamchiliklarini anglash refleksiv texnologiyalar orqali tizimli ravishda rivojlantiriladi. Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning o‘z bilimlarini tahlil qilishini, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

O‘z-o‘zini kuzatish va baholash

Talaba o‘zining darsdagi faoliyatini, mavzularni qanday tushunganini va qanday qiyinchiliklarga duch kelganini kuzatadi.

O‘quv jarayonida o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi.

O‘z-o‘zini baholash jurnali yoki maxsus refleksiv daftar yuritish orqali bilimlari haqida yozma tahlil yuritadi.

Tahlil qilish va natijalarni baholash.

Talaba o‘z bilimlari asosida mustaqil xulosa chiqaradi.

O‘zining oldingi natijalari bilan hozirgi darajasini taqqoslaydi.

O‘qituvchi yoki guruhdoshlar bilan fikr almashish orqali o‘z kamchiliklari va yutuqlarini aniqroq tushunadi.

Tanqidiy fikrlash va xulosalar chiqarish

O‘zining kamchiliklarini mustaqil ravishda tushunish va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Yangi o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish uchun o‘zining yutuqlari va qiyinchiliklari asosida reja tuzadi.

Muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun ilmiy izlanish olib boradi.

Amaliyotga joriy etish

Talaba o‘ziga mos o‘quv strategiyalarini ishlab chiqadi va ularni amaliyotda qo‘llaydi. Yangi o‘rganish usullarini sinab ko‘rib, samaradorligini baholaydi.

Qayta refleksiya qilish orqali o‘z o‘quv faoliyatining natijalarini yana bir bor tahlil qiladi. Doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirish.

Talaba o‘zining bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligini anglaydi. Mustaqil o‘qish, tadqiqot olib borish va o‘zini baholash orqali rivojlanib boradi. O‘qituvchilarning va boshqa talabalarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, o‘z o‘quv yondashuvlarini o‘zgartirishga tayyor bo‘ladi.

Refleksiv texnologiyalar yordamida talabaning bilim olish jarayonidagi o‘zgarishlari.

Bilim sifati oshadi – Talaba o‘z bilim darajasini ob’ektiv baholash va kamchiliklarini bartaraf etish orqali chuqurroq o‘zlashtiradi.

Motivatsiya ortadi – O‘zining natijalarini kuzatib borish orqali talaba o‘z-o‘zini rivojlantirishga intiladi.

Tanqidiy fikrlash shakllanadi – Talaba o‘z bilimlarini tahlil qilish va baholash orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quv jarayoniga mas’uliyat hissi ortadi – O‘zining yutuqlari va kamchiliklarini tushunib yetgan talaba ta’lim jarayoniga faolroq yondashadi.

Ijodiy yondashuv rivojlanadi – Mustaqil tahlil qilish va yangi o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish orqali talabalar ijodiy tafakkur qilishni o‘rganadilar.

Xulosa.

Biologiya fanlarini o‘qitishda refleksiv texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, talabalar bilim olish jarayonida o‘z yutuqlari va kamchiliklarini anglab yetishlariga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki mustaqil ravishda o‘z bilimlarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning shaxsiy rivojlanishi va ta’lim jarayoniga mas’uliyat bilan yondashishlariga xizmat qiladi.

Refleksiv texnologiyalarni qo‘llash talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini shakllantirib, ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu yondashuv talabalar tomonidan o‘z bilimlari va amaliy tajribalarini baholash imkoniyatini yaratib, kelajakdagi bilim olish strategiyalarini ishlab chiqishlariga yordam beradi. O‘quvchilarning o‘z bilim darajalarini mustaqil baholashlari va xatolar ustida ishlashlari ularda ijobiy motivatsiya hosil qiladi, natijada ularning bilim olish jarayoniga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi.

Shuningdek, refleksiv texnologiyalar o‘qituvchilarga ham dars jarayonini tahlil qilish, har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlarini tushunish va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish nafaqat talabalarning bilim olish jarayonini yuksaltiradi, balki ta’lim sifatining oshishiga ham xizmat qiladi.

Kelajakda refleksiv texnologiyalarni yanada rivojlantirish, ularni o‘qitish jarayonining barcha bosqichlariga integratsiya qilish va yangi metodlarni ishlab chiqish zarur. Pedagoglar ushbu texnologiyalar yordamida talabalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, ularning faolligini oshirish va o‘qitish jarayonida individual yondashuvni joriy etishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, biologiya ta’limida refleksiv texnologiyalar talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning o‘z yutuqlari va kamchiliklarini

anglash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish nafaqat talabalar, balki butun ta’lim jarayoni uchun ijobiy natijalar keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alimov R., Shodmonov U. “Ta’lim texnologiyalari va innovatsion metodlar” – Toshkent: Fan, 2022.
2. Xasanboyeva D. “Pedagogik refleksiya va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni” – Toshkent, 2021.
3. Dewey J. “How We Think” – Boston: D.C. Heath & Co., 1910.
4. Kolb D.A. “Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development” – Prentice Hall, 1984.
5. Vygotsky L.S. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes” – Harvard University Press, 1978.
6. Schön D.A. “The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action” – Basic Books, 1983.
7. Davletov R. “Oliy ta’lim tizimida refleksiv texnologiyalarni joriy etish” – O‘zMU ilmiy jurnali, 2020.
8. Mezirow J. “Transformative Dimensions of Adult Learning” – Jossey-Bass, 1991.
9. Moon J. “Reflection in Learning and Professional Development” – Routledge, 1999.
10. Merriam S.B., Caffarella R.S. “Learning in Adulthood: A Comprehensive Guide” – Jossey-Bass, 2007.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Dilnoza Usmanova
Teacher of the Uzbek State University of World Languages
Usmanovadilnoza989@gmail.com

UDK: 811.111– 25:37.02 (043.3)

DEVELOPING METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN NON-LINGUISTIC CONTEXT OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *This article discusses the improving of foreign language teaching methods in a non-linguistic university, the usage of personality-oriented learning technologies, simulation modeling, regional studies material, and the pedagogical potential of a foreign language. Particularly, the article focuses on developing linguistic competence of medical students.*

Key words: *learning process, optimization, simulation modeling, multimedia integrated block, culture of the country of the studied language, regional studies material.*

Усманова Дильноза Муратовна
Преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В НЕЯЗЫКОВОМ КОНТЕКСТЕ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: *В этой статье обсуждается вопросы совершенствования методики обучения иностранному языку в неязыковом вузе, использования личностно-ориентированных технологий обучения, имитационного моделирования, краеведческого материала, педагогического потенциала иностранного языка. В частности, статья посвящена развитию языковой компетенции студентов-медиков.*

Ключевые слова: *процесс обучения, оптимизация, имитационное моделирование, мультимедийный интегрированный блок, культура страны изучаемого языка, краеведческий материал.*

Usmonova Dilnoza Muratovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

OTMLARNING NOFILOLOGIK YO‘NALISHLARIDA CHET TIL O‘QITISH METODLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada OTMlarning nonfilologik yo‘nalishlarida chet til o‘qitish metodlarini takomillashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, simulyatsiya modellashtirish, mintaqaviy tadqiqotlar materiali va chet tilining pedagogik salohiyati muhokama qilinadi. Maqolada asosan tibbiyot fakulteti talabalarining lingvistik tayyorgarligini rivojlantirishni belgilab beruvchi ustuvor yo‘nalishlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quv jarayoni, optimallashtirish, simulyatsiya modellashtirish, multimedia integral bloki, o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyati, mintaqaviy tadqiqotlar materiali.*

Introduction.

The task of developing, improving, and optimizing methods of teaching a foreign language has always been one of the pressing problems education system. In light of modern requirements for the goals of teaching a foreign language, the status of both the student and the teacher is changing, moving from the “teacher-student” scheme to the technology of personally-oriented teaching in close cooperation.

Optimization in general means choosing the best, most favorable option from a variety of possible conditions, means, actions, etc. If optimization is transferred to the learning process, it will mean choosing a method that ensures the achievement of the best results with minimal expenditure of time and effort of the teacher and students in these conditions. Optimization is achieved not by one good, successful method. We are talking about a conscious, well-founded choice by the teacher of one of many possible options [1].

Materials and Methods.

Traditional methods of teaching a foreign language involve acquiring knowledge in artificial situations, as a result of which the future graduate does not see the connection between the subject being studied and his future professional activity. The most effective means of developing the thinking of future graduates is simulation modeling. Such an approach to teaching ensures the imitation of elements of professional activity, its typical and essential features. Its use in foreign language classes makes it possible to form communication skills and abilities; develops the habit of self-control, promotes the real preparation of students for upcoming activities and life in society as a whole; helps to make foreign language classes more lively, interesting, meaningful, give students the opportunity to express their own opinions, feelings, thoughts, assessments more often and more often, i.e. to think in a foreign language. The following may serve as methods for increasing the professional focus of studying a foreign language: communication - dialogue about professional information read in a foreign language, analysis of social and professional situations, performing creative tasks with specialized content, game situations, role-playing games, quizzes. Modern trends in teaching foreign languages are associated with both a radical change in the methodological paradigm and with a technical update of the learning process, which is expressed in a massive offensive of new teaching aids, primarily multimedia computer programs, the Internet, and multimedia textbooks [3]. The latest achievements in the field of high technology open up the broadest opportunities for foreign language teachers to further improve the educational process and transfer it to a qualitatively new basis. The technological capabilities of multimedia tools are great, because They allow for the organization of diverse educational activities for students and significantly increase the effectiveness and motivation of learning.

The use of a multimedia integrated block, including works of fine art, architecture, poetry and prose by outstanding foreign and domestic authors, allows us to supplement the nature of aesthetics with the expressiveness of visual forms, activates the artistic and aesthetic abilities of students, and expands the scope of applied pedagogical efforts. Namely: situations contain such tasks and factors that confront the student with the need to independently make decisions about the choice of judgment (behavior), give it a moral and aesthetic assessment, set a morally and aesthetically justified goal and show a volitional effort to achieve it, express their individuality in an aesthetic product. At Internet conferences, students get acquainted with the fine arts of their country and the country of the language being studied (viewing slides; videos; designing exhibitions of reproductions of paintings dedicated to the life and work of great artists). Multimedia tools provide the opportunity for increasing motivation and intensify learning through the usage of modern means of processing audiovisual information.

During the process of studying at a university, a student does not always master a foreign language at the cultural level: he does not feel its value-semantic saturation, there is no freedom in judgments, aesthetic assessments and judgments. Meanwhile, the number of students are interested in studying the culture of the country of the studied language, striving to enter into a dialogue with native speakers, is increasing.

Using the pedagogical potential of a foreign language based on an integrative-cultural approach enriches students' ideas about their national culture and the culture of the country of the studied language, actualizes moral values, allows them to enter into a dialogue with the author of the text, and expresses an aesthetic assessment of reality [3]. Cultural-creative situations and an integrative-cultural approach in the process of studying a foreign language develop the needs of the individual in mastering the culture of the country of the studied language. Regional studies provide an idea of the socio-economic situation of the country and the people whose language is the subject of study, the customs, traditions, and cultural values inherent in this people. In language classes, the use of regional studies information is of an applied nature. It is included in the system of classes in the process of familiarizing students with the content and forms of speech communication of native speakers of the language being studied. Such information provides not only the cognitive, but also the communicative needs of students, contributing to the formation of communicative and socio-cultural competence.

The provision on the need to master a foreign language in close connection with the culture of the people who speak this language has long been perceived in the methodology of teaching foreign languages as an axiom. Of course, most of the regional studies material is mastered by students in English and German lessons. However, the volume of material and its diversity allows, in addition to classes, to use various types of extracurricular work, such as optional classes, thematic decade of English and German languages [1]. Since these forms are innovative, unusual and provide scope for the realization of the creative potential of the teacher and students.

Results and Discussions.

Modern psychologists and teachers agree that the quality of the activity, including the study of foreign languages, and its results depend, first of all, on the motivation and needs of the individual. It is motivation that causes purposeful activity, determining the choice of means and techniques, their ordering to achieve goals.

Regional studies competence is the skills and abilities of an analytical approach to studying foreign

culture in comparison with the culture of one's own country. After all, the perception of foreign culture occurs through the prism of one's own. Creative work on regional studies can be carried out in all student groups on almost all academic topics. The introduction of regional studies elements in lessons plays a major role in maintaining motivation to study a foreign language [2]. Regional studies texts are increasingly taking up a place in the process of teaching foreign languages today. Thanks to such texts, students become familiar with the realities of the country of the language being studied, gain additional knowledge in the field of geography, education, culture, etc. Regional studies classes arouse in students the need for further independent familiarization with regional studies materials.

Linguistic and regional studies material is a strong lever for creating and maintaining interest in studying foreign languages. One of the main objects of linguistic and regional studies is the realia of the countries of the studied language. Realia is real facts concerning the life, culture, history of the country of the studied language, heroes, traditions, and customs. The main goal of teaching English is to develop the personality of a student who is able and willing to participate in intercultural communication. Based on the goals set, the content of teaching regional studies in English lessons included the following components: linguistic and regional studies, including knowledge, understanding of realia (words denoting objects of national culture) and the ability to use them, as well as background vocabulary, phraseological units, proverbs as a source of national cultural information; knowledge of regional studies topics related to general knowledge about the country; text material contained in textbooks and educational material on regional studies and a general educational component [4]. In order to maintain students' interest in English throughout the entire period of study, the introduction of elements of regional studies in lessons played a major role. This contributed to the education of students in the context of a dialogue of cultures, introduced them to common values, served as a support for maintaining cognitive motivation, and formed the ability to communicate in a foreign language.

Regional studies materials have a great potential for developing students' creative abilities when studying the culture, traditions and realities of the foreign languages being studied, and play a significant role in maintaining motivation to study a foreign language. Students develop the ability to understand foreign phenomena in a long-term perspective, to accept a foreign culture and its representatives, as well as the ability to understand a foreign culture and the distribution of roles in it, to compare "foreign" and "their own". Undoubtedly, such broad tasks with a limited duration of classroom studies require a certain level of training of first-year students, which is another important factor that has a significant impact on the quality of education. The level of pre-university training of students of non-linguistic universities in the field of foreign languages is generally low, and it is also characterized by a high degree of unevenness. Unfortunately, this trend is the characteristics of all institutions providing training for bachelors and masters in non-linguistic areas. This means that the initial task of the teacher, associated with "deepening" basic skills and abilities and "improving" them, may turn out to be an impossible mission simply due to the lack of what needs to be deepened and improved, if not for all students, then often for a significant part of them. In practice, this leads to the fact that the teacher has to spend precious time on repeating and summarizing the material intended for study in secondary school, and with individual students - on studying this important material "from scratch" [5]. These circumstances significantly complicate the task facing the teacher, which consists in the uniform development of all four types of speech activity in students, as indicated in the discipline program, while paying equal attention to basic vocabulary, colloquial speech and everyday topics on the one hand, and professional language on the other.

Conclusion.

In conclusion, it is known that the use of regional studies information in the educational process ensures an increase in students' cognitive activity, expands their communicative capabilities, promotes the creation of positive motivation in class, provides an incentive for independent work on the language, and helps solve educational problems. As a result of using these methods in the educational process, the emotional response of students to the process of cognition, motivation for educational activities, interest in mastering new knowledge, skills and their practical application increases, and on the basis of the fusion of educational and information technologies, a fundamentally new, integrative approach to the educational process is formed.

References.

1. Bim I. L. Some current pedagogical and information technologies. 145. – M, Zinovieva, Belgorod State National University, Belgorod, Russia. M., 2009. – 203 p.

2. Coyle, D. Content and Language integrated Learning: Towards a connected research agenda for CLIL pedagogies. //International Journal of Bilingual Education and Bilingualism 10 (Bd. 5, 2007), P.543-562.

3. Kolker Ya. M., Ustinova E. S. How to teach // Foreign languages at school Passov E. I. Communicative school, 2001. – P. 144–145.

4. Polat E. S. New pedagogical View. N. Yu. Nikulina, T. A. Zinovieva University, Belgorod.

5. Ustinova E. S. How cooperation between teacher languages at school is achieved. – 2000. – No. 11. – P. 65.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xasanova Mashxura Maxammadsidiqovna
NamDPI Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Shodmanov Qodirjon Odilxanovich
NamDU Pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.n.

DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMIGA CHALINGAN BOLALARNING KLINIK VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya *Maqolada diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS)ga chalingan bolalarning klinik va psixologik-pedagogik xususiyatlari batafsil yoritilgan bo‘lib, unda DYGSning tarixiy tadqiqotlari, xalqaro tasnifdagi o‘rni va diagnostik mezonlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu sindromning rivojlanishiga biologik va psixologik-ijtimoiy omillar ta’siri tahlil qilinib, ularning bolaning xulq-atvori va o‘qish jarayoniga ta’siri muhokama etilgan. Shuningdek, DYGSni tashxislash va tuzatishda tibbiy hamda pedagogik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvining ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi, DYGS, giperkinetik buzilish, bolalar psixologiyasi, pedagogik yondashuv, klinik xususiyatlar, tashxis, etiologiya, psixologik omillar.*

Хасанова Машхура Махаммадсидиковна
Преподаватель кафедры педагогики и психологии НамГПИ
Шодманов Кадиржон Одильханович
Доцент кафедры педагогики НамГУ, к.п.н.

КЛИНИКО-ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕТЕЙ С СИНДРОМОМ ДЕФИЦИТА ВНИМАНИЯ И ГИПЕРАКТИВНОСТИ

Аннотация: *В статье подробно описана клинико-психолого-педагогическая характеристика детей с синдромом дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ), рассмотрены исторические исследования СДВГ, его место в международной классификатsiи и диагностические критерии. Проанализировано влияние биологических и психолого-социальных факторов на развитие этого синдрома, обсуждено их влияние на поведение и процесс обучения ребенка. Также выявлена важность сочетания медико-педагогических подходов в диагностике и коррекции СДВГ.*

Ключевые слова: *Дефицит внимания, синдром гиперактивности, СДВГ, гиперкинетическое расстройство, детская психология, педагогический подход, клинические характеристики, диагностика, этиология, психологические факторы.*

Khasanova Mashkhura Makhammadsidikovna
NamSPI Teacher of the Department of pedagogy and psychology
Shodmanov Kadirjan Odilkhanovich
Associate professor of the Department of Pedagogy of NamSU, c.p.s.

CLINICAL AND PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN WITH ATTENTION DEFICIT HYPERACTIVITY SYNDROME

Abstract: *The article describes in detail the clinical and psychological and pedagogical characteristics of children with attention deficit hyperactivity disorder (ADHD), reviews the historical studies of ADHD, its place in the international classification, and its diagnostic criteria. The influence of biological and psychosocial factors on the development of this syndrome is analyzed, and their impact on the child’s behavior and learning process is discussed. The importance of combining medical and pedagogical approaches in diagnosing and correcting ADHD is also revealed.*

Keywords: *Attention deficit, hyperactivity syndrome, ADHD, hyperkinetic disorder, child psychology, pedagogical approach, clinical characteristics, diagnosis, etiology, psychological factors.*

Kirish.

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi - DYGSga chalingan bolalar sonining ortishi kuzatilmoqda. Bu sindrom olimlar

tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga koʻra turli yoshdagi bolalarning 4 % dan 10 % gacha boʻlgan qismini tashkil etmoqda. DYGSga chalingan bolalarni tarbiyalash amaliyotining rivojlanishi bilan adabiyotlarda ushbu sindromni tashxislash va tuzatishning psixologik va pedagogik jihatlariga katta eʻtibor berila boshlandi va bu oʻz navbatida qatʻiy tibbiy yondashuv bilan solishtirganda muammoni tushunish chegaralarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

Xalqaro kasalliklar tasnifiga koʻra DYGS F90.0 kodi bilan belgilangan, xulq-atvor buzilishi bilan bogʻliq giperkinetik buzilish esa F90.1 bilan belgilangan.

Giperkinetik buzilishlar "Odatda bolalik va oʻsmirlik davridan boshlanadigan hissiy va xatti-harakatlarning buzilishi" tasnifi boʻlimiga kiradi. Turli tadqiqotchilarning fikriga koʻra, 30-70% hollarda bir qator DYGS belgilari balogʻat yoshigacha davom etishi mumkin [1].

Diagnostik mezonlarning oʻzgaruvchanligi tufayli bola rivojlanishining turli davrlarida namoyon boʻlish xususiyatlari aniqlandi. DYGS tarqalishini taxmin qilish ham qiyin kechadi. Turli mualliflarning fikriga koʻra, DYGS bilan kasallanish darajasi 3 dan 20% gacha bolalar va maktabda oʻqishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar orasida 80% ga yetadi [2].

Shu bilan birga, oʻgʻil bolalarda paydo boʻlish chastotasi 2-3 marta qizlarnikiga qaraganda yuqori, bu homilaning yuqori zaifligi bilan izohlanadi [3].

Adabiyotlar tahlili.

D.V. Pushkareva va T.I. Ivanovalar 18 yoshdan 44 yoshgacha boʻlgan shaxslar orasida DYGS tarqalishi 4,4% ni tashkil etishi toʻgʻrisidagi maʻlumotlarni taqdim qilishadi. "ICD-10 diagnostika mezonlaridan foydalangan holda, kattalar orasida DYGS tarqalishi 2% ni tashkil qiladi. Erkak va ayol nisbati epidemiologik tadqiqotlarda taxminan 3 dan 4:1 gacha, klinik tadqiqotlarda esa 6:1 ni tashkil qiladi"[4].

DYGS etiologiyasi va patogenezi bir-birini mustahkamlovchi oʻzaro taʻsirda amalga oshirilishi mumkin boʻlgan ikkita asosiy omillar guruhi bilan belgilanadi .

Birinchi guruh - biologik omillar, bularga genetik omillar va miyaning morfo-funktsional zararlanishi kiradi, bolaning rivojlanishining perinatal davrida va erta yoshda miya yetakchi biologik omil irsiyatidir [5].

Sindromning irsiyligi ruhiy kasalliklar orasida eng yuqori koʻrsatkichlardan biridir (shizofreniya va autizm bilan birga) va taxminan 76% ni, yaqin qarindoshlarda (birinchi daraja) - taxminan 30% ni tashkil qiladi. Rivojlanayotgan homilaga salbiy taʻsir etiologik va biologik omillarning rolida kichik ahamiyatga ega, homiladorlik muddatini avval tugʻilishdagi shikastlanishlar, homiladorlik paytida onaning dorivor va psixofaol moddalarni isteʻmol qilishi, jismoniy va ruhiy jarohatlar, kasalliklar, intoksikatsiyalar va boshqa koʻplab holatlar sabab boʻladi [6].

Guruhga koʻp sonli ijtimoiy-psixologik omillar kiradi, ular orasida eng muhimlari koʻp qirrali mahrumlik, pedagogik eʻtiborsizlik, etarli emas uslublar, taʻlim, salbiy ijtimoiy-psixologik iqlim, oila, ota-onalarning iqtisodiy holati, oilaviy alkogolizm va boshqalar [7; 8].

Giperaktiv buzilishlar patogenezida yetakchi rolni miyaning frontal va sensomotor, morfologik va neyrodinamik oʻzgarishlar roʻl oʻynaydi; neyrotransmitter tizimlarining, ayniqsa norepinefrin va dopaminning ishlashining buzulishi [9].

Ushbu buzilishlarni amalga oshirishda miyaning minimal disfunktsiyasi vositachilik qiladi, bu yengil, minimal mavjudligi bilan koʻplab progressiv boʻlmagan holatlarning sababi hisoblanadi. zarar erta miya bosqichlari rivojlanish (uch yilgacha), umumiy aqliy zaiflik bundan mustasno, aqliy faoliyatning qisman yoki umumiy buzilishlarida namoyon boʻladi. Xotira va oʻrganishni muvofiqlashtirishni, kiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashni va oʻz-oʻzidan saqlanishini osonlashtiradigan retikulyar shakllanish faoliyatining buzilishi ham muhimdir [10].

Miyaning minimal disfunktsiyasining lokalizatsiyasiga va etiologik omillarning boshqa patogenetik oqibatlariga muvofiq, diqqat yetishmasligi giperaktivligi sindromi e'tiborsizlik, giperaktivlik va impulsivlik bilan namoyon boʻladi, ularning kombinatsiyasi turlicha boʻlishi mumkin E. Goldberg qayd etganidek, birinchi navbatda miyaning frontal korteksining ma'lum joylarining ishtirokiga bogʻliq.

DYGS koʻpincha maktabgacha yoshdagi bolalarda tashxis qilinadi. Vosita belgilari bilan ulanishlar yetishmovchilik, statik buzilishlar, tashvish va haddan tashqari harakatchanlik, hissiy beqarorlik, jahldorlik va boshqalar xavotirlidir bunday vaziyatda ota-onalar mutaxassislarga borishi shartdir. Ayniqsa, nevrologik koʻrinishlar bilan birga kelgan hollarda: kunning ma'lum bir vaqti bilan bogʻliq diffuz bosh ogʻrigʻi yoki individual ravishda ortib borayotgan stresslarda nomoyon boʻladi.

Biroq, individual belgilar yashirin davr ichida allaqachon namoyon boʻladi bola hayotining birinchi oylari: yuqori sezuvchanlik sezgirlik tashqi ogohlantirishlarga, ortiqcha yigʻlash, uyqu buzilishi, titroq va boshqalar. Shuni ta'kidlash kerakki, bu alomatlar DYGS uchun mutlaqo xos emas va boshqa sabablar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin [8].

Keyinchalik, DYGS boʻlgan bolalar maktab koʻnikmalarini (oʻqish, hisoblash, yozish) rivojlanishidagi buzilishlar bilan tavsiflanadi. Bu hatto buzilmagan yoki yuqori intellekt mavjud boʻlganda ham past akademik koʻrsatkichlarga yordam beradi. Bundan tashqari, DYGS aqliy jarayonlarning buzilishi bilan ham tavsiflanadi - diqqat, xotira, idrok va fikrlash.

Shunday qilib, diqqat yetishmasligi, birinchi

navbatda, diqqatni jamlash va ushlab turishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo‘ladi, bu chalg‘itishning kuchayishi bilan bog‘liq (ba'zan kichik stimullarga, lekin ko‘proq darajada yorqin va individual ravishda jozibali), charchoq (odatda miya asteniyasining oqibati), qat'iyatsizlik va yetarli motivatsiyaning yo‘qligida seziladi.

Xulosa.

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS) bolalar orasida keng tarqalgan nevrologik buzilish bo‘lib, u e'tiborsizlik, ortiqcha faollik va impulsivlik bilan tavsiflanadi. Ushbu sindrom ilk bor 19-asrda kuzatilgan va ilmiy jihatdan 20-asrning ikkinchi yarmida chuqur o‘rganila boshlagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, DYGS biologik va psixologik-ijtimoiy omillar ta’sirida rivojlanishi mumkin. Genetik moyillik asosiy sabab sifatida qaralsa-da, prenatal va postnatal omillar, shuningdek, tarbiya va ijtimoiy muhit ham uni kuchaytirishi mumkin.

Miyaning frontal va sensomotor sohalaridagi neyrofiziologik o‘zgarishlar, dopamin va norepinefrin moddalari yetishmovchiligi DYGSning patogenezida asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu buzilish maktabgacha yoshdan boshlab aniqlanishi mumkin bo‘lib, diqqatning beqarorligi, harakat koordinatsiyasining buzilishi, hissiy beqarorlik va o‘qish qiyinchiliklari bilan namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, maktab yoshida bolalar o‘zlashtirishda muammolarga duch keladi, bu esa ularning akademik muvaffaqiyatiga va ijtimoiy moslashuviga ta’sir qiladi.

Shunday qilib, DYGSning sabablarini, diagnostikasini va korreksiya usullarini chuqur tushunish muhimdir. Ushbu bolalarga pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirib yordam berish, ularning rivojlanishidagi salbiy oqibatlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Э. Голдберг. Управляющий мозг: лидерство и цивилизатsiя. – М.:, 2003.
2. Ж.М. Глозман. Нейропсихология детского возраста. – М.: Академия, 2009.
3. В.Р. Кучма, А.Г. Платонова. Дефицит внимания с гиперактивностью у детей России - распространённость, факторы риска и профилактика. – М., 1997.
4. Д.В. Пушкарева, Т.И. Иванова. Синдром дефицита внимания и гиперактивности у взрослых: причины возникновения, основные клинические проявления и коморбидные психические расстройства (литературный обзор) // Омский психиатрический журнал. – 2018. - №4. – С. 8-13.
5. A.K. Leung, J.F. Lemay. Attention deficit hyperactivity disorder: an update. Advanced in Therapy. - 2003. - Vol. 20. – P. 305–318.
6. Ю.И. Барашнев. Истоки и последствия минимальных мозговых дисфункций у новорождённых и детей раннего возраста// Акушерство и гинекология - 1994.- №2.- С.20-24.
7. Н.Н. Заваденко. Гиперактивность и дефицит внимания в детском возрасте. - М., 2005.
8. О.И. Политика Дети с синдромом дефицита внимания и гиперактивностью. - СПб., 2008.
9. N.N. Zavadenko, N.Yu. Suvorinova, M.V. Rumyantseva “Diqqat etishmasligi bilan giperaktivlik: xavf omillari, yosh dinamikasi, diagnostika xususiyatlari” // Defektologiya. - 2003. - 6-son.
10. M.M.Xasanova. Bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining ba’zi bir jihatlari. – Innovations in technology and science education scientific journal.VOLUME 2, ISSUE 14, 574-578-b.
11. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2023). Maktab yoshidagi bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromini kelib chiqishi, rivojlanishi hamda uni bartaraf etish usullari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, *3*(12), 11–13. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/24020
12. Xasanova, M. & Shodmanov, Q. Rivojlanishida nuqsoni – diqqat yetishmovchilik sindromi bor bolalarning tibbiy reabilitatsiyasi masalalari. «MAXSUS VA INKLYUZIV TA’LIM: AN’ANA, TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR» mavzusida respublika anjumani tezislari to‘plami. – Nizomiy nomidagi TDPU. (2023). 650-653 betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ergashev Anvar Ramozanovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

TIBBIYOT YO‘NALISHI TALABALARINI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MASOFAVIY TA’LIM IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tibbiyot yo‘nalishi talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish masalasi tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalarga gumanistik qadriyatlarni singdirish, tibbiy etika va deontologiyani o‘rgatish imkoniyatlari o‘rganiladi. Masofaviy ta’lim usullari, jumladan, elektron o‘quv materiallari, vebinarlar, interaktiv forumlar va virtual simulyatorlar yordamida ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish yo‘llari ko‘rsatiladi. Shuningdek, tibbiyot sohasidagi kadrlarni tayyorlashda masofaviy ta’limning ahamiyati va uning afzalliklari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, tibbiy etika, deontologiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta’lim, gumanistik qadriyatlar, tibbiyot talaba, virtual simulyatorlar, kasbiy axloq.*

Эргашев Анвар Рамазанович
Самаркандский государственный медицинский университет, свободный соискатель

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ.

Абстрактный. *В данной статье анализируется вопрос использования возможностей дистанционного обучения в духовно-нравственном воспитании студентов медицинского направления. Рассматриваются возможности привития студентам гуманистических ценностей, а также обучения медицинской этике и деонтологии с помощью современных информатsionно-коммуникатsionных технологий. Описываются методы дистанционного обучения, включая электронные учебные материалы, вебинары, интерактивные форумы и виртуальные симуляторы, способствующие эффективному формированию духовно-нравственных качеств. Также исследуется значимость дистанционного образования в подготовке медицинских кадров и его преимущества.*

Ключевые слова: *дистанционное обучение, медицинская этика, деонтология, духовно-нравственное воспитание, информатsionно-коммуникатsionные технологии, интерактивное обучение, гуманистические ценности, студенты-медики, виртуальные симуляторы, профессиональная этика.*

Ergashev Anvar Ramazonovich
Samarkand State Medical University, Independent Researcher

SPECIFIC FEATURES OF USING DISTANCE LEARNING OPPORTUNITIES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF MEDICAL STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the use of distance learning opportunities in the spiritual and moral education of medical students. It examines the possibilities of instilling humanitarian values in students, as well as teaching medical ethics and deontology through modern information and communication technologies. The article describes distance learning methods, including electronic educational materials, webinars, interactive forums, and virtual simulators, which contribute to the effective formation of spiritual and moral qualities. Additionally, the significance of distance education in the training of medical personnel and its advantages are explored.*

Key words: *Distance learning, medical ethics, deontology, spiritual and moral education, information and communication technologies, interactive learning, humanitarian values, medical students, virtual simulators, professional ethics.*

Kirish.

Bugungi kunda tibbiyot sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash nafaqat nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirish, balki ma’naviy-axloqiy tarbiyani ham o‘z ichiga oladi. Axloqiy tamoyillarga rioya qilish, gumanizm va kasbiy etika qoidalarini bilish – har bir tibbiyot xodimi uchun muhimdir. Zamonaviy masofaviy ta’lim texnologiyalari bu borada katta imkoniyatlarni

taqdim etmoqda. **Masofaviy ta'lim va uning imkoniyatlari.** Masofaviy ta'lim – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bilim berish usuli bo'lib, u talabalarning har qanday sharoitda o'qish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu usul, ayniqsa, tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun dolzarb hisoblanadi, chunki ularning ta'limi uzluksizlikni talab qiladi. Masofaviy ta'lim: Elektron o'quv modullari va axloqiy-tarbiyaviy videodarslar orqali ma'naviy tarbiya berish; Interaktiv vebinarlar, onlayn ma'ruzalar va forumlar yordamida axloqiy muammolarni muhokama qilish; Simulyatorlar va virtual trenajyorlar orqali real klinik vaziyatlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. **Tibbiyot talabalarida axloqiy tamoyillarni shakllantirishda masofaviy ta'limning ahamiyati** Tibbiyot yo'nalishida ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirishda masofaviy ta'limning bir qancha o'ziga xos jihatlari mavjud: **Shaxsiy va kasbiy axloqni rivojlantirish** – Masofaviy kurslar orqali tibbiy etika, deontologiya va kasbiy odob qoidalari haqida tushunchalarni shakllantirish mumkin. **Interaktiv ta'lim muhiti** – Talabalar o'zaro fikr almashish, axloqiy kazuslar bo'yicha muhokamalar olib borish orqali o'z fikrlarini shakllantiradi. **Gumanistik qadriyatlarni singdirish –** Tibbiyot xodimi uchun insonparvarlik va jami yat manfaatlariga sadoqat muhimdir. Masofaviy ta'lim buni to'g'ri yo'nalishga qo'yish imkonini beradi. **O'quv jarayonining uzluksizligi** – Internet orqali dars materiallaridan foydalanish talabalarning bilim olishini to'xtovsiz davom ettirish imkoniyatini beradi.

Muhokama.

Qadimgi davrda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalar bir qator faylasuflar tomonidan ilgari surilgan. Platon (miloddan avvalgi 427-347-y.) esa ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashni pedagogikaning asosiy vazifasi deb hisoblagan. Suqrot (miloddan avvalgi 469-399-y.) axloqiy fazilatlarning ahamiyatini ta'kidlab, fazilatni yaxshilik va bilim deb qaragan. Demokrit (miloddan avvalgi 460-370-y.) fikricha, axloqli inson o'z istaklarini nazorat qila olishi, mo'tadillikka intilishi va real imkoniyatlarga mos ravishda harakat qilishi lozim. O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha 2030 yilgacha mo'ljallangan Konsepsiyada yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish va uni pedagoglar tomonidan o'quv jarayonida samarali tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri yoshlarni axloqiy ideallar sari yo'naltirishdir. Bu jarayonda o'qituvchining o'rni katta bo'lib, u nafaқat talabalarga yo'l ko'rsatuvchi, balki o'zi ham ma'naviy kamolot sari intilishi kerak. Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil ravishda ma'naviy-axloqiy taraqqiyot yo'liga yo'naltirish, ularning axloqiy va ijtimoiy sezgirligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy tarbiyani ta'lim jarayonida alohida mashg'ulotlar bilan ifodalanishi mumkin emas. Bu talabalarni o'qitishda va tarbiyalashda aniq tizimdan tashkil etilishi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosining yechimi alohida o'tkazilgan akademik soatlardan emas, balki axloqiy xatti-harakatlarda aks ettirilgan axloqiy tuyg'ularni namoyon etish istagini uyg'otadigan, hamda talabaning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga yordam beradigan o'quv muassasasida ma'naviy muhitni yaratishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tibbiyot sohasi xodimlari nafaqat kasbiy bilimga, balki yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Masofaviy ta'lim bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqib, axloqiy tarbiyani yanada samarali va innovatsion yo'nalishda olib borish imkonini yaratadi. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish orqali tibbiyot yo'nalishi talabalarining ma'naviy yuksalishiga hissa qo'shish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Andreyev A.A. Oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'limning didaktik asoslari: Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi: 13.00.02. – Moskva, 2019. – 289 bet.

2. Bordovskiy G.A., Radinova N.F., Piskunova Ye.V. Ta'lim sohasida innovatsion faoliyat uchun mutaxassislar tayyorlash texnologiyasi. Metodik tavsiyalar: O'quv-uslubiy qo'llanma. – Sankt-Peterburg: A.I. Gertsen nomidagi RGPU, 2018. – 193 bet. – Matn: bevosita.

3. Daxin A.N. Pedagogik modellashtirish va ta'lim ishtirokchilarining kompetentligi // Maktab texnologiyalari. – 2017. – №6. – B. 64-72.

4. Kuleshova G.M. Masofaviy ta'limda o'quvchilarning individual faoliyatini tashkil etish va mazmuni: Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi: 13.00.01. – Moskva, 2019. – 240 bet.

5. Pyankova G.S. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda refleksiv metodlar: O'quv qo'llanma. / V.P. Astafyev nomidagi Krasnoyarsk davlat pedagogika universiteti. – Krasnoyarsk, 2015. – 49 bet.

6. Xodjiev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "Sano-standart" 2017.- 50-100 б.

7. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya.- T.; Fan, 2015.-140 b.

8. Fisher Ronald J., Grant Peter R., Hall Donald G., Keashly Loraleigh, Kinzel Ruth. The development and testing of a strategic simulation of intergroup conflict //J. Psychol. 2019. 124, № 2. P. 223-240.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Erkinova Ruhshona
Student of Namangan State Pedagogical Institute, English Language and Literature department
erkinovaruhshona498@gmail.com
Narzullayeva Gulirano
Student of Namangan State Pedagogical Institute, English Language and Literature department
guliranorustamovna@icloud.com
Supervisor: Nigora Umarkhanova
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

IMPLEMENTING TOTAL PHYSICAL RESPONSE (TPR) IN PRIMARY SCHOOL CLASSES

Аннотация. *В статье рассматривается процесс формирования значимых профессиональных качеств будущих учителей-дефектологов. На основе экспериментальных методов исследовались такие качества, как эмпатия, терпение, вежливое общение, командное сотрудничество и психологическая устойчивость у студентов. Специально организованные психологические тренинги и практические занятия показали существенные положительные изменения в экспериментальной группе. По сравнению с контрольной группой, приобретённые навыки и личностные характеристики способствуют более эффективному взаимодействию с детьми и преодолению сложных ситуаций в дефектологической практике. Исследование подчёркивает важность целенаправленных методических подходов для развития профессионально значимых качеств в обучении дефектологов.*

Ключевые слова: *будущий дефектолог, профессионально значимые качества, эмпатия, терпение, психологический тренинг, специальное образование, практические занятия, командное сотрудничество.*

Lazizbek Khayitov
Kokand State University
Head of the Department of special pedagogy, PhD., associate professor

FORMATION OF PROFESSIONALLY IMPORTANT QUALITIES OF FUTURE TEACHER-DEFECTOLOGISTS

Annotation. *This article explores the process of developing key professional qualities among prospective special education teachers (defectologists). Using experimental methods, the study assessed students’ empathy, patience, polite communication, teamwork, and psychological resilience. Specially designed psychological training sessions and practical exercises demonstrated significant improvements in the experimental group. Compared to the control group, the acquired skills and personal traits contribute to more effective interaction with children and overcoming challenges in defectological practice. The findings underscore the necessity of targeted methodological approaches to foster these critical professional attributes within special education teacher training programs.*

Key words: *future defectologist, professional qualities, empathy, patience, psychological training, special education, practical sessions, teamwork.*

Kirish.

Bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlar jamiyatdagi eng nozik ijtimoiy qatlam — turli rivojlanish nuqsonlariga ega bolalar bilan ishlashga tayyorlanadi. Ularning kasbiy faoliyati jismoniy, aqliy yoki nutqiy cheklovlarga ega shaxslarni tarbiyalash, o‘qitish va reabilitatsiya qilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bunday o‘quvchilarning ehtiyojlari bosqichma-bosqich o‘ziga xos yondashuv, individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik ko‘makni to‘g‘ri taqsimlash va izchil amalga oshirishni talab qiladi. Shu bois defektologik ish faoliyatida kasbiy mahorat nafaqat an’anaviy pedagogik bilimlar, balki maxsus bilimlar, shuningdek shaxsiy fazilatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim. Xususan, defektologning empatiya, hamdardlik, sabr-toqat, ijobiy muloqot, psixologik barqarorlik singari kasbiy muhim fazilatlari ta’lim-tarbiya jarayonida hal qiluvchi o‘rin egallaydi.

Defektologning ish sohasi turli buzilish turlari — eshitish, ko‘rish, nutq, aqliy rivojlanishidagi cheklovlar yoki jismoniy nuqsonlarga ega bolalar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. Ular bilan shug‘ullanishda pedagogik kompetensiya, psixologik tayyorgarlik va maxsus metodik bilimlardan tashqari, o‘ziga xos shaxsiy fazilatlar ham zarur bo‘ladi. Masalan, sabr-toqat va ijobiy ko‘nikmalar bo‘lmasa, doimiy ravishda qiyin vaziyatlarni boshdan kechirishga to‘g‘ri kelishi muqarrar. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarga ta’lim berishda, ularni malakali mutaxassis sifatida tayyorlash jarayonida kasbiy muhim fazilatlar shakllantirishning o‘rni juda kattadir.

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarning kasbiy muhim fazilatlarini shakllantirish bo‘yicha amaliy tajribalarni o‘rganish, ularga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan metodik yondashuvlar haqida xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda biz eksperimental-uslubiy yondashuvni qo‘llab, talabalarning defektologik faoliyatga tayyorlanish jarayonida qanday shaxsiy va kasbiy fazilatlar rivojlanishi, bu fazilatlar qanday metodlar bilan mustahkamlanishi va qay darajada samarali shakllanishi masalalariga e’tibor qaratdik.

Metod.

Tadqiqotning metodik qismi Toshkent viloyatidagi pedagogika universitetining maxsus pedagogika (defektologiya) yo‘nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalari o‘rtasida eksperimental kuzatuv, so‘rovnoma va suhbatlar yordamida amalga oshirildi. Jami 60 nafar talabadan iborat ikkita guruh shakllantirildi. Birinchi guruhda (nazorat guruhi) an’anaviy o‘qitish metodlari qo‘llanildi. Ularda nazariy darslar, amaliy mashg‘ulotlar va o‘quv amaliyoti asosan mavjud o‘quv rejalar doirasida o‘tkazilib, kasbiy fazilatlarni rivojlantirish borasida hech qanday maxsus interaktiv yoki psixologik treninglar amalga oshirilmadi. Ikkinchi guruh (eksperimental guruhi) talabalari bilan esa maxsus ishlab chiqilgan dastur — psixologik treninglar, rolli o‘yinlar, empatiya va hamdardlikni rivojlantirish metodlari, ijtimoiy ko‘nikmalarni targ‘ib etuvchi topshiriqlar bajartirildi. Shu bilan birga, ularga defektologik amaliyot jarayonida murabbiylar boshchiligida aniq caselar (ish holatlari) bilan ishlash, ijtimoiy ko‘mak turlarini taklif etish, komanda ichida psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirish vazifalari yuklatildi.

Tajriba davri uch oy davomida o‘tkazilib, oraliq va yakuniy bosqichlarda talabalarning kasbiy muhim fazilatlari darajasi baholandi. Buning uchun maxsus diagnostik usullar, jumladan “Empatiya darajasi” testlari, “Ijtimoiy ta’sirchanlik” so‘rovnomasi, “Pedagogik moslashuvchanlik” mashqlari va “Ijobiy kommunikatsiya” skalalari dan foydalanildi. Shu bilan birga, talabalarning amaliy amaliyot muddatida maktab yoki ixtisoslashgan muassasalarda kuzatilgan pedagogik faoliyati ham tahlil qilindi. Amaliyot rahbarlari — defektolog-o‘qituvchilardan baholash anketalari olindi, unda sabr-toqat, diqqat-e’tibor, yakka tartibda ishlash kompetensiyasi, jamoada faoliyat yuritish, bolalarga ijobiy munosabat kabi ko‘nikmalar borasidagi o‘zgarishlar qayd etildi.

Natijalar.

Eksperimental tadqiqotning oraliq bosqichida eksperimental guruhda bo‘lajak defektologlarning empatiya ko‘rsatkichlari 15 foizga, sabr-toqat va ijobiy muloqot bo‘yicha ko‘nikmalari 10 foizga oshgani aniqlandi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar deyarli o‘zgarmasdan, dastlabki darajada qoldi. Yakuniy bosqichda, ya’ni uch oylik treninglar natijasida eksperimental guruh talabalari o‘rtasida kasbiy muhim fazilatlar, xususan, kechirimli va xushmuomala bo‘lish, bolalarning ehtiyojlarini tushunish, ular bilan suhbat qurishda “ijobiy tilda” gapirish bo‘yicha kuchli ijobiy dinamika qayd etildi. Aniqroq aytganda, empatiya darajasi eksperimental guruhda boshlang‘ich davrga nisbatan 30 foizga, psixologik barqarorlik 20 foizga, xushmuomala muloqot 25 foizga ortgani kuzatildi. Nazorat guruhida esa bunday ijobiy ko‘rsatkichlar atigi 5-8 foiz oralig‘ida bo‘ldi.

O‘qituvchilarning so‘zlariga ko‘ra, eksperimental guruh talabalari bolalar bilan muloqotga kirishishda aniq sezilarli farq ko‘rsatgan, ular muammoli vaziyatlarga o‘rinli yondashib, sabr qilishi va bolalarning hissiy holatini tushunib olishga harakat qilishi bo‘yicha ancha pishiq ekanliklarini namoyon etishgan. Misol uchun, dars jarayonida nutqiy cheklovlarga ega bola ishtirok eta olmay, qiynalayotgan holatda talaba-defektologlar uni rag‘batlantirish uchun turli o‘yin shakllarini qo‘llashgan, vaziyatga mos ravishda so‘rov savollarni o‘zgartirib, bolani jalb qilishga urinishgan. O‘qituvchilarning fikricha, bu o‘zgarishlar talabalarda shakllangan psixologik moslashuvchanlik, bolalarga xayrixohlik, kasbiy mas’uliyat hissining o‘sishi bilan bog‘liqdir.

Metodik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruh talabalari jamoa bo‘lib ishlab,

bolalarni guruhiy faoliyatga jalb qilishda yaxshiroq natijalarga erishgan. Ular o‘qituvchilar, psixologlar, tarbiyachilar va defektolog-assistentlar bilan birgalikda mashg‘ulot rejalarini ishlab chiqish, bolalarga ijtimoiy-psixologik yordamni taqsimlash va monitoring qilish borasida hamma bilan uyg‘unlikda ish olib borishgan. Bu esa defektolog faoliyatida katta ahamiyat kasb etadigan muloqotchanlik, hamkorlikda ishlash, boshqalarning taklif va mulohazalarini tinglashga tayyorlik kabi fazilatlarning shakllanishini namoyish etdi.

Muhokama.

Olingan natijalar bo‘lajak defektologlarning kasbiy fazilatlarini shakllantirish jarayonida maxsus treninglar, interaktiv mashg‘ulotlar va empatiya ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi. An’anaviy o‘qitish sharoitida talabalarning nazariy bilimlari shakllanishi mumkin, ammo amaliyotda olingan ko‘nikmalar, ayniqsa psixologik barqarorlik va empatiya, mustahkamlanmasligi mumkin. Shuning uchun defektolog ta’lim dasturlariga “Kasbiy muhim fazilatlarni rivojlantirish” yoki “Psixologik tayyorgarlik” mavzulari bo‘yicha alohida modullar kiritilishi zarurligi ko‘rinadi.

Talabalar bilan ishlashda rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va jamoaviy amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, shuningdek turli kasb egalari (psixolog, maxsus pedagog, tarbiyachi) bilan hamkorlik qobiliyatini rivojlantiradigan mexanizmlarni qo‘llash bo‘lajak defektologda mas’uliyat, sabr, bolalar bilan yaqinlik hissi, hushmuomalalik kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining o‘zida ham talabalarning emosional intellektini rivojlantirish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini o‘stirish bo‘yicha maxsus mashqlar va treninglar o‘tkazish muhimdir. Bolalarda turli buzilishlar bo‘lsa, defektolog dars jarayonida noqulay vaziyatlarni bartaraf etish, o‘quvchilarning ehtiyojiga mos dastur yaratish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda ham ijobiy muloqot va mustahkam nerv tizimiga tayanuvchi fazilatlarni qo‘llashi kerak bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, “Bo‘lajak defektologning kasbiy yo‘nalganlik psixologiyasi” bo‘yicha alohida kurslarni joriy etish, shuningdek “Ijtimoiy loyihalashtirish” yoki “Yordamga muhtoj bolalar bilan interaktiv metodlarda ishlash” kabi amaliy mashg‘ulotlar ciklini ishlash maqsadga muvofiqdir. Ana shunday mashg‘ulotlar talabalarga nafaqat nazariy ma’lumot, balki real hayotiy situatsiyalarda bolalar bilan bevosita aloqaga kirishish, ular bilan birga kichik guruhlarda ishlash, darsdan tashqari tadbirlar tashkil qilish va natijalarni baholashni o‘rgatadi. Bu jarayonlarning barchasi defektologning insonparvarlik, sabr-toqat va hamdardlik kabi kasbiy muhim fazilatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijalar tahlili shuningdek bo‘lajak defektologlarning kasbiy shakllanishi murakkab kechishi, ulardan barqaror ijtimoiy-psixologik iqlimga ega bo‘lgan muhit talab etilishini ko‘rsatadi. Masalan, o‘quv amaliyotlarining sifatli o‘tkazilishi, malakali ustoz-defektologlarning konsultatsiyalari, muayyan ish rejalarini ishlab chiqish va tahlil qilish talabada real kasbiy situatsiyalarni to‘g‘ri tushunish hamda zarur bo‘lsa, mustaqil qaror qabul qilish mahoratini shakllantiradi.

Ushbu tadqiqot doirasida mavjud cheklovlardan biri shuki, eksperimental guruhtar studentlar sonining nisbatan cheklangani va eksperiment davomiyligining uch oy bilan chegaralanganidir. Shuningdek, o‘quv rejalardagi boshqa fan va modullar bilan o‘zaro aloqadorlik, murabbiy-o‘qituvchilarning malakasi va metodik yondashuvlari kabi ko‘plab omillar ham bo‘lajak defektologlarda kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish sur’atiga ta’sir qilishi mumkin. Shu bois kelajakdagi tadqiqotlarda eksperiment muddatini uzaytirish, ishtirokchilar sonini kengaytirish va turli o‘quv muassasalarida amaliy tajriba o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarda kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirishda maxsus psixologik-pedagogik treninglar, rolli o‘yinlar, empatiya va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini takomillashtiruvchi mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar orqali talabalarda sabr-toqat, xushmuomalalik, bolalarning hissiy holatlarini his qilish, jamoada hamkorlik qilish singari fazilatlar kuchayadi. Eksperimental tadqiqot ma’lumotlari eksperimental guruhda mazkur ko‘nikmalar nazorat guruhiga nisbatan ancha tez va samarali shakllanganini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar zamirida defektologiya yo‘nalishidagi o‘quv dasturlarida kasbiy muhim fazilatlar rivojini ta’minlashga qaratilgan maxsus fanlar va amaliy mashg‘ulotlar sonini ko‘paytirish, shuningdek defektologik amaliyotni chuqurlashtirish kabi xulosalarga kelish mumkin. Talabalarning o‘quv jarayonidanoq real kasbiy muhitda faoliyat yuritishi, mas’uliyatli vazifalarni bajara boshlashi, defektolog-ustozlar bilan hamkorlikda ish yuritishi ularning kelajakdagi professional tayyorgarligini mustahkamlaydi. Shu asnoda bo‘lajak defektologlar inson qalbini tushunish, ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik qilish, pedagogik jarayonni boshqarishda empatiya, ijobiy aloqa va irodaviy sifatlar kabi ustuvor fazilatlarni puxta egallab, jamiyatning inklyuziv taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadilar.

Maqolada keltirilgan tadqiqotlar doirasida biz bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarning kasbiy muhim fazilatlarini shakllantirish jarayonini eksperimental ravishda kuzatdik, ma’lum muddat davomidagi treninglar samaradorligini o‘rgandik. Yakuniy natijalar defektologik faoliyatga ixtisoslashgan talabalarga nafaqat nazariy ma’lumot, balki kasbiy, shaxsiy va psixologik jihatdan barqaror bo‘lish uchun zarur bo‘lgan metodik ko‘mak

berish lozimligini ko‘rsatdi. Kelgusida bu mavzuda tadqiqot doirasini kengaytirish, trening muddatini oshirish va turli yoshdagi talabalar bilan amaliy ishlarni rejalashtirish defektologiya ta’limi sifatini yana-da yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida zamonaviy raqamli vositalar, interaktiv metodikalar va psixologik qo‘llab-quvvatlov mexanizmlaridan foydalangan holda, defektolog kadrlarning kasbiy shakllanishini takomillashtirish ustida chuqur izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarni yuqori saviyada tayyorlashda ularning nazariy bilimlariga qo‘shimcha ravishda kasbiy muhim fazilatlarini, xususan sabr, empatiya, shaxsga yo‘naltirilgan muloqot, ijtimoiy sheriklik va mas’uliyat hislarini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tizimli va izchil amaliy chora-tadbirlar kelgusida defektologik xizmat sifati va jamiyatdagi ijtimoiy adolat mezonlarini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Раҳимова Ш.Т. Дефектологияда касбий тайёргарлик асослари / Ш.Т. Раҳимова. – Тошкент: Муаллим нашриёти, 2020. – 156 б.

2. Сидоренко В.В. Психология и педагогика специального образования / В.В. Сидоренко. – М.: Академкнига, 2019. – 288 с.

3. Низомова Д.Р. Келажак дефектологларида эмпатия ва сабр-тоқатни шакллантириш // ◎ Муҳамметжанова Г.П. Дефектологик амалиётда тренинглардан фойдаланиш самарадорлиги // Таълим, фан ва инновация электрон журнали. – 2022. – №4. – Б. 33–41.

4. Семенов А.А. Профессиональное становление учителя-дефектолога: психолого-педагогические аспекты / А.А. Семенов. – СПб.: Речь, 2017. – 212 с.

5. Петрова И.И. Педагогическое сопровождение детей с особыми образовательными потребностями / И.И. Петрова. – М.: Просвещение, 2019. – 180 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Otabayeva Sevaraxon Shaxobbidinovna
Andijon davlat universiteti, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi
Email:otabayevasevara75@gmail.com

“DASTURLASH” FANIDA QIZIQARLI DARS MASHG‘ULOTINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Dasturlash” fanida qiziqarli dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali usullari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Dasturlashni o‘rgatishda interaktiv metodlarni qo‘llash, gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘llash), real hayotdagi muammolarni yechish, amaliy mashg‘ulotlar bilan darslarni boyitish haqida so‘z boradi.Ushbu maqolada talabalarning dasturlashni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali dars mashg‘ulotlari tashkil etishning asosiy tamoyillarini taqdim etadi. Bu yondashuvlar talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy va tajribalarni ham o‘zlashtirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar*: Dasturlash, dastur, gamifikatsiya, ijod, ko‘nikma, malaka, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash.*

Отабаева Севарахон Шахоббидиновна
Преподаватель кафедры “Информационные технологии”
Андижанского государственного университета

ОРГАНИЗАЦИЯ УВЛЕКАТЕЛЬНОГО УРОКА ПО ПРЕДМЕТУ ”ПРОГРАММИРОВАНИЕ"

Аннотация: *В данной статье анализируются эффективные методы и подходы к организации увлекательных уроков по предмету "Программирование". Рассматриваются такие методы, как использование интерактивных методов обучения, геймификация (включение элементов игры), решение реальных жизненных проблем, обогащение уроков практическими заданиями. Эти подходы направлены на повышение интереса учеников к изучению программирования, развитие их творческих и практических навыков. Приведены основные принципы организации эффективных уроков, которые помогают ученикам не только осваивать теоретические знания, но и приобретать практический опыт.*

Ключевые слова: *Программирование, программа, геймификация, творчество, навыки, квалификация, креативное мышление, логическое мышление.*

Otabayeva Sevarakhan Shakhobbidinovna
Andijan State University, Lecturer, Department of Information Technology

ORGANIZATION OF AN INTERESTING LESSON IN THE SCIENCE OF ”PROGRAMMING”

Annotation: *This article analyzes effective methods and approaches for organizing engaging lessons in the subject of “Programming”. It discusses the application of interactive teaching methods, gamification (incorporating game elements), solving real-life problems, and enriching lessons with practical exercises. The article presents key principles for organizing effective lessons aimed at increasing students’ interest in learning programming and developing their creative and practical skills. These approaches help students not only acquire theoretical knowledge but also gain practical experience.*

Keywords*: Programming, software, gamification, creativity, skills, competence, creative thinking, logical thinking.*

Bugungi kunda dasturlash fani zamon bilan hamnafas ravishda o‘sib bormoqda. Barcha sohalarda, jumladan, texnologiya, ilm-fan va biznes sohalarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun esa talabalarga turtki bo‘lish va ular uchun qiziqarli dars mashg‘ulotlarini tashkil etish muhimdir. Yaxshi tashkil etilgan dars mashg‘uloti nafaqat talabalarning bilim olishiga yordam beradi, balki ularda yaratuvchanlik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Dasturlash fanini o‘qitishning samarali usuli - bu interaktiv yondashuvni qo‘llashdir. Talabalarni darsga faol jalb qilish va ular bilan amaliy ishlash uchun muayyan dasturlash muammolarini hal qilishni talab qiladigan interaktiv mashqlarni tashkil etish zarur. Misol uchun, dars davomida talabalarga kichik dastur yozish vazifalari berilishi mumkin. Bunday mashg‘ulotlar ular uchun yangi bilimlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi va qiziqarli qiladi.

Dasturlashni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish uchun gamifikatsiya elementlarini qo‘llash samarali usul hisoblanadi. Talabalarni o‘yin uslubida raqobatga jalb qilish orqali darsni ko‘proq qiziqarli va motivatsion qilish mumkin. Masalan, darsning har bir bosqichida to‘plangan ballarni, belgilangan vazifalarni bajarishga asoslangan bo‘lgan "level" tizimlarini tashkil etish, talabalarni guruhlarga ajratib, o‘zaro raqobat va jamoaviy ishlarni rivojlantirish mumkin. Bu usul talabalarga dasturlashni nafaqat bilim olish, balki o‘zlashtirilgan bilimni amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini ham beradi. Shu tarzda, talabalar har bir muvaffaqiyatdan keyin yangi motivatsiyani his qilish

Bingo o‘yini tashkil etish. Talabalar bilan dasturlash fanidan “Bingo” o‘yinini tashkil etish uchun ularga dars boshida kartochkalar tarqatadi. Dasturlash fanidan o‘zi o‘zlashtirgan mavzular bo‘yicha savol yozishini aytadi.Talabalar savol yozib, o‘qituvchiga kartochkalarni qaytarib beradi. Darsni o‘rtasida o‘qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratadi. Kartochkalarni aralashtirib qo‘yadi, har bir guruhdan talabalar chiqadi va savollarga javob beradi, o‘qituvchi har bir to‘g‘ri javob uchun 5 balldan baholaydi. Oxirida ballar yig‘ilib, kim ko‘p ball to‘plagan guruhga a’lo baho qo‘yiladi.



1 rasm. Bingo o‘yini qutisi

Kim chaqqon o‘yini. Dasturlash fanidan har bir talaba uchun mavzuga oid masala beriladi. Kim birinchi dasturini bexato tuzganga rag‘bat kartochkasi beriladi. Bunda talabalar dastur tuzish tezkorligi va dastur tuzishga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Xatoni top o‘yini. Dasturlash fanidan o‘qituvchi dastur kodlarini xato yozadi. Talabalar dastur kodlarini to‘g‘irlab chiqishi kerak bo‘ladi. Bu orqali talabalar dastur yozishda xato qilmaslikka harakat qiladi va mukammal dastur tuzishni o‘rganadi.

Dasturlash fanida qiziqarli dars mashg‘ulotini tashkil etish, nafaqat talabalarni bilim bilan ta'minlash, balki ularni motivatsiyasiyasini oshirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Darslarni interaktiv, gamifikatsiya elementlari bilan boyitilgan, real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘tkazish – bularning barchasi talabalarning dasturlashni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adaabiyotlar ro‘yxati.

1. Papert, S. (1980). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books.
2. Shaxobbdinovna, O. S. (2024). Matematika va informatika fanini o‘qitishda “interaktiv o‘yin”lardan foydalanish. pedagog, 7(3), 294-296.
3. Ahmadaliyev, b. B., & Eraliyev, h. M. (2024). Importance of student image recognition program in learning management. International journal of education, social science & humanities, 12(4), 1325-1328.
4. Shaxobbidinovna, O. S. (2024). “Algoritm ijrochisi” mavzusi uchun qiziqarli dars mashg ‘ulotini tashkil etish. american journal of multidisciplinary bulletin, 2(5), 38-41.
5. Ahmadaliyev, B. B., & Toshmatov, M. M. (2024). Bir jinsli bo‘lmagan immigratsiyali tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlarning asimptotik xossalari. international journal of science and technology, 1(17), 77-80.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mardiyeva Guzal Karimovna
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
mardiyeva_89@mail.ru

XX ASR 20-40 YILLARIDA SAMARQAND VILOYATNING O‘RTA MAXSUS VA OLIY TA’LIM SOHASIGA XOTIN-QIZLARNI JALB QILISH MASALASI VA SOHADAGI MUAMMOLAR

Annotattsiya. *Ushbu maqolada sovet mustamlakasi sharoitida Samarqand hududidagi xotin-qizlarning o‘rta maxsus va oliy ta’lim sohasiga jalb qilinishi, ulardan mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun tashkil qilingan qisqa kurslar, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalarini tashkil qilinishi, xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyatalar va xotin-qizlarni ta’lim sohasidagi faolligini saqlab turishdagi muammolar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, xotin-qiz kadrlar, o‘qituvchilik kursi, pedagogik texnikumlar, kasb-hunar ta’limi, qayta tayyorlash kurslari, mahalliy millat.*

Мардиева Гузаль Каримовна
Исследователь Самаркандского государственного университета,
Ассистент Самаркандского государственного медицинского университета

В 20-40-Е ГОДЫ XX ВЕКА ВОВЛЕЧЕНИЯ ЖЕНЩИН В СИСТЕМУ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ПРОБЛЕМЫ В ЭТОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. *Аннотация. В этой статье в условиях советской колонии проанализированы вовлечение женщин в сферу среднего и высшего образования в Самаркандской области, создание краткосрочных курсов, техникумов и высших учебных заведений для подготовки специализированных кадров, возможности, создаваемые для женщин и проблемы поддержания активности женщин в сфере образования.*

Ключевые слова: *Высшее образование, женские кадры, педагогический курс, педагогические техникумы, профессиональное образование, курсы переподготовки, местная нация.*

Mardieva Guzal Karimovna
Samarkand State University researcher,
Assistant of Samarkand State Medical University

THE ISSUE OF ATTRACTING WOMEN TO SECONDARY SPECIALIZED AND HIGHER EDUCATION IN THE SAMARKAND REGION IN THE 1920S-1940S AND PROBLEMS IN THE FIELD

Abstract. *This article analyzes the involvement of women in secondary specialized and higher education in the Samarkand region under Soviet colonial conditions, the organization of short courses, technical schools and higher educational institutions organized to train specialists from them, the opportunities created for women, and the problems of maintaining women’s activity in the field of education.*

Keywords: *Higher education, female personnel, teacher training course, pedagogical technical schools, vocational education, retraining courses, local nationality.*

Kirish.

Sho‘ro hokimyati o‘zining dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonda arzon mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun turli usullarni ishlab chiqqan. Shu sababli, respublikaning ushbu davrdagi hukmron siyosiy kuchlari kadrlar tayyorlash mexanizmini doimiy ravishda o‘zgartirib turishdi. Xotin-qizlarni rahbar xodimlar va mutaxassislar sifatida tayyorlash, shuningdek, ularni o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimiga jalb etish masalasi ayniqsa diqqat markazida bo‘ldi.

O‘zbekistonda ushbu yillarda xotin-qizlar ta’limi tizimida hunar maktablari, qisqa kurslar va pedagogik texnikumlari keng tarqalgan ta’lim shakillaridan hisoblanardi. Ushbu bilim yurtlari birinchi bosqich

maktablarini xotin-qiz kadrlar bilan ta'minlash uchun tashkil qilingandi.

Asosiy qism.

20-yillarning boshlarida xotin-qiz kadrlar tayyorlash ishlari Toshkent shahrida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik O'zbekistonning boshqa hududlarida ham yo'lga qo'yila boshlandi.[1] Xususan, 1924-yil Samarqandda xotin-qizlar uchun o'qituvchilik kursi tashkil etildi va shu yilning o'zidayoq uni 15 nafar bitiruvchi bitirib chiqdi. 1932-1933 o'quv yilida ushbu kurslarda o'qiydigan xotin qizlarning soni 146 nafarni tashkil etdi.[9] Samarqand viloyat xalq ta'lim maorifi bo'limi 1925-yilning qishida Samarqandning eski shahar qismida musulmon ayol o'qituvchilarni tayyorlovchi ikki yillik kurs ochishni rejalashtiradi. Chunki, tashkil etilgan ayollar maktabi va savodsizlikni tugatish maktablarida ayol o'qituvchilarga ehtiyoj bor edi. 1926-yilda bu kurslarda 60 nafar xotin-qiz o'qidi.

Shuningdek, uch yillik pedagogik texnikumlar bu davrda ham xotin-qiz kadrlar tayyorlashda alohida ahmiyatga ega bo'ldi. 1918-yili Samarqandda xotin-qizlarning pedagogika texnikumi tashkil etildi. 1926-yilga kelib Qo'qon va Farg'onada ham ayollar pedagogika texnikumi ochildi. Ushbu bilim yurtlarida 1926-1927 o'quv yilida 466 nafar xotin-qiz, 1927-1928 o'quv yilida 628 nafar xotin-qizlar tahsil olgan.[2] 20-yillarning o'rtalariga kelib O'zbekiston xotin-qizlar pedagogika o'quv yurtlari bitituvchilaridan dastlabki o'zbek xotin-qiz o'qituvchilari yetishib chiqdi. Samarqand xotin-qizlar pedtexnikumida Z.Yoqubova, M.Sulaymonova, F.Yoqubova, Toshkent pedtexnikumida K.Shodmarova, Z.Sadriddinova, G.Axmadjonova va boshqalar shular jumlasidandir.

Xotin-qizlarning kasb-hunar bilim yurtlariga qamrab olinishida bir qadar siljishlarga erishilgan bo'lsada, hali kamchiliklar yetarli edi. 30-yillarda xotin-qizlarni kasb-hunar bilim yurtlariga jalb etilish rejasi 45% qilib belgilangan bo'lsada, lekin aslida bu 35% ni ham tashkil etmagan. Xotin-qizlarni majburan kasb-hunar bilim yurtlari va qisqa kurslarga jalb qilinishda majburlash holatlari ham uchrab turgan. Zero, 1933-yil Samarqanddagi ikki yillik tayyorlov kursini bitiruvchilari bo'lmaganligi fikrimiz dalilidir.[3] Lekin,1932-1933 o'quv yilida ushbu kurslarga 146 nafar xotin-qizlar tahsil olardi. Xotin-qizlarning bilim yurtlarini tashlab ketish sabablari ushbu bilim yurtlarida aniq o'quv rejalarning mavjud bo'lmaganligi, ularga dars beruvchi o'qituvchilar asosan rus tilida dars o'tishi va uzoq hududlardan keluvchi xotin-qizlar uchun yotoqxonlarning kamligi, bundan tashqari mahalliy urf-odatlar ayollarni uzoqqa borib o'qishiga yo'l bermasdi. Masalan,1927-1928 o'quv yilda Samarqanddagi ayollar pedagogik bilim yurtiga 105 nafar xotin-qizlar qabul qilingan bo'lsa, shularning 80 nafari yotoqxonalarga joylashtirish imkon bo'lgan. Mavjudlarida ham yashash uchun sharoit qoniqarli emasdi. Pedagogik texnikumlarda qish kunlarida talabalarning o'qishi uchun yetarli sharoitlar mavjud emasligi, xonalarning sovuqligi ham talabalarning doimiy ravishda darslarga qatnashishiga halaqit berardi.[4] Bundan tashqari bilim yurtlarida ta'lim muassasalari uchun zarur bo'lgan materiallarni sotib olish imkoni bo'lmasligi, ayniqsa kuzda ta'lim muassasalari uchun ajratiladigan mablag'larni o'z vaqtida berilmasligi yana bir muammolardan edi.

1936-yilda Respublikada 222 nafar ayolni qamrab olgan 18 turdagi kurslar tashkil qlindi, ulardan 82 nafari mahalliy millat vakillari edi, lekin 1936-yil rejasida ayollar kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha maxsus kurslar nazarda tutilmagan edi. 1937-yilda 31 turdagi kurslar o'tkazildi, 9845 nafar ayol kadrlarni qamrab olish rejasi belgilandi, 7392 kishi qamrab olindi, shundan 6761 nafari mahalliy millatga mansub ayollar edi. Ushbu kurs rejasiga kolxozlarda 8400 nafar o'qituvchilarini tayyorlash kiritilgan, lekin 6100 kishi ushbu jarayonga qamrab olingan. [5]

Ushbu davrning yana bir yutuqlaridan xotin-qizlarni ham oliy ta'lim tizimiga jalb qilish bo'ldi. Endi, xotin-qizlarda ham ilm-fan bilan shug'ullanish, o'z iqtidorlarini namoyon qilish imkoniyati yaratila boshlangan edi. Ayni damda respublikada turli oliy ta'lim dargohlari ochila boshlagan. Masalan,1927-yilda Samarqandda Oliy Pedagogika Akademiyasi tashkil etildi. Institut ma'muriyati va partiya tashkiloti mahalliy millat xotin-qizlarini o'qishga jalb etishga alohida e'tibor qaratdi. Ular uchun 1927-yildan boshlab institutda ayollar uchun universitetga kirishga tayyorlanish uchun bir yillik kurslar tashkil etilgan. [10] 1931 yilda yesa Pedagogika akademiyasini 16 nafar ayol muvaffaqiyatli bitirib chiqdi .[11]

SSSR MIK ning 1932-yil 19-sentyabrdagi qarori, VKP (b) MK ning "Oliy maktablar va texnikumlar to'g'risida" gi qarori hamda O'zbekiston SSR MIK va Xalq Komissarlari Sovetining 1933-yil 20-yanvardagi qaroriga muvofiq Samarqand shahrida Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston Davlat pedagogika akademiyasi va Tibbiyot instituti negizida O'zbekiston Davlat universiteti tashkil qilinadi.[6]

Universitetga 1933/34 o'quv yiliga o'qishga qabul Nizomi tuzilganda unda quyidagi moddalar bor edi:

-O'zbekiston Davlat universitetiga 10 yillik ma'lumotga ega bo'lgan, ishchilar fakultetini va texnikumlarni bitirgan 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar qabul qilinishi;

-o'qishga kiruvchilar matematika, fizika, ximiya, ona tili, tarix va jamiyatshunoslik fanlaridan kirish imtihonlarini topshirishi, topshiruvchilar o'zbek tilini, boshqa millat vakillari rus tilini, evropaliklar esa o'zbek tilini bilishlari kerak edi.

O'zbekiston Davlat universitetining birinchi bitiruvchisi (179 nafar yosh mutaxassis) 1935-yilda bo'lib, shundan 60 nafari ayollardir. Bitiruvchilar orasida 15 millat vakillari bor edi; 92 (52%) mahalliy millat vakillari. 106

nafar shifokor, 10 nafar tarixchi, 15 nafar iqtisodchi, 12 nafar kimyogar, 24 nafar fizik-matematik, sakkiz nafar adabiyotshunos, to‘rt nafar tilshunos diplom oldi. 1936-yil universitetga 54 nafar xotin-qizlarni o‘qishga qabul qildi.[7]

O‘n yildan so‘ng professor-o‘qituvchilar tarkibi 13 barobardan ortiqqa o‘sdi. Agar 1927 yilda universitetda bor-yo‘g‘i 10 nafar o‘qituvchi bo‘lsa, 1937 yilda 131 nafar, jumladan, 19 nafar professor, 39 nafar dotsent, 64 nafar assistent, 9 nafar o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatgan. Jami professor-o‘qituvchilardan 19 nafari ayollar edi. Ushbu davrda xotin-qiz kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratildi. Faqat 1938-1940 yillarda. Samarqand universitetida 1059 nafar xotin-qiz tahsil oldi, ularning salmoqli qismini mahalliy millat vakillari tashkil etdi. Ular universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, jamoat ishlarda o‘zlarini yaxshi ko‘rsata boshladilar.

Samarqand shahridagi ko‘zga ko‘ringan oliy o‘quv yurtlaridan yana biri O‘zbekiston Meditsina instituti 1930-yil oktyabr oyidan o‘z faoliyatini boshlaydi. 1931-yilda institutda 400 talaba o‘qigan bo‘lib, ulardan 60% yevropaliklar, 40% mahalliy millat vakillari edi.[12] 1930-yilda O‘zbekiston Meditsina institutiga 122 nafar talaba qabul qilinadi. Ularning 34 nafari mahalliy millat vakillari yedi. Ularning orasida 3 nafar (Mariyam Jalolova, Kashifa Ibrohimova, O‘ktam Vahobova) xotin-qiz talaba bor edi.[13]

Metadologiya.

Shunday qilib, ushbu yillarda xotin-qizlarni o‘rta va oliy ta’lim sohasiga qamrab olish ishlarida ham sezilarli siljishlarga erishila boshlandi. Biroq, o‘tkazilgan chora-tadbirlarga qaramay, ushbu yillarda xotin-qizlarni sovet ta’limi tizimiga qamrab olishda bir qancha muammolar bor edi. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi Xotin-qizlarni ta’lim sohasiga jalb qilishdagi dastlabki yillardagi amaliy ishlarni tahlil qilib, unga ko‘ra xotin-qizlar ta’limining o‘sishining umumiy doirasidan o‘ta orqada qolayotganligini ta’kidladi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi xotin-qizlar ta’limini yanada rivojlantirish maqsadida quydagi bir qator tadbirlarni belgilab berdi:[8]

-O‘zbekiston Xalq Maorif Komissarligining 5 yillik umumiy ta’lim rejasini tuzishda budjet mablag‘larini hisobga olgan holda, kelgusida Maorif Xalq Komissarligi, ayniqsa, quyi bo‘g‘inlarda ayollar maktablari tarmog‘ini ochish, shu bilan birga aholi o‘rtasida mahalliy millat qizlarini, ayniqsa, umumta’lim maktablariga jalb etish bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirish,umumjahon ta’limini amalga oshirish davrida ayollarni yoshlar bilan qamrab olish darajasi orqada qolmasligi uchun ayollarni tarbiyalash ishlarini kengaytirish;

- o‘smirlarning birgalikda o‘qishiga yo‘l qo‘ymaydigan diniy va maishiy qarashlar mavjudligini hisobga olib, eski shahar va qishloqlarda o‘smirlar uchun alohida xotin-qizlar maktablarini tashkil etish masalasini ko‘rib chiqish;

- bundan tashqari, dehqon yoshlari uchun qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sohasiga moyil qizlar uchun maxsus maktablar tashkil etish, ayollar mehnati ustuvorligini oshirish;

- hozirgi davrda xotin-qizlar maktablari va ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning yetishmasligi tufayli kelgusida Maorif Xalq Komissarligi, ayniqsa, quyi bo‘g‘inlarda ayollar maktablari tarmog‘ini ochish,mahalliy organlarga o‘qituvchilar tayyorlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratishlari lozimligi;

- xotin-qizlar texnikumi, kurslari orqali pedagogik kadrlar tayyorlashning barcha turlari maktab tarmog‘ini joylashtirish va boshlang‘ich maktabning dastur talablariga moslashtirish rejasi bilan qat’iy bog‘langan bo‘lishi kerakligi;

- mahalliy millatga mansub ayollarni maxsus xotin-qizlar ta’lim muassasalarini rivojlantirish orqali ham kasb-hunar ta’limi bilan qamrab olish darajasi ham ahamiyatsiz qolayotganligi sababli, kelgusida kasb-hunar ta’limi muassasalari tarmog‘ini sezilarli darajada kengaytirish, shu bilan birga ularni umumiy kasb-hunar ta’limi muassasalariga imkon qadar keng jalb etish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni ko‘rish muhim vazifa qilib belgilandi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, O‘zbekiston 70 yil davomida sovet mustamlakachilik asoratida bo‘ldi. Ushbu davrda o‘zbek xalqi hayotida turli o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirdi. Ayniqsa, madaniy va ma’naviy hayotida yuz bergan voqealar bunga misol bo‘la oladi. Milliy madaniyat, urf-odatlarni oyoqosti qilinishi, milliy ziyolilarni taqib ostiga olinishi bilan tavsiflansa, lekin xotin-qizlar hayotida yuz bergan ba’zi o‘zgarishlarni ijobiy baholasak bo‘ladi.Xususan, XX asr 20-40 yillarida o‘zbek xotin-qizlarini jamiyatdagi faolligini oshirish maqsadida, ularni ta’lim olish imkoniyatini yaratilganligi, xotin-qizlarni maxsus kasblarga o‘qitish, ilm-fan sohasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga e’tobor berila boshlandi. To‘g‘ri, sovet hukumati xotin-qizlarni o‘zining asosiy ishchi kuchiga aylantirishni maqsad qilgan bo‘lsada, yaratilgan imkoniyatlar mahalliy xotin-qizlarni o‘z haq-huquqlariga ega bo‘lishida yordam bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 766-ish, 4-varaq
2. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 91-ish, 4,5,6-varaqlar.
3. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 766-ish, 4-varaq.
4. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 253-ish, 15-varaq.

5. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 3048-ish, 16-varaq
6. Samarqand VDA, 637-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 3-varaq.
7. O‘zR MDA.94-fond, 5-ro‘yxat, 1769-ish, 9-varaq.
8. O‘zR MDA.94-f., 5-ro‘yxat, 495-ish, Betlar 344-352
9. Nishonboyeva Q.V., O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishni madaniy jihatlari (20-30).t.f.n. diss.1998. 120-bet
10. Самаркндский государственный университет. Краткий историеский очерк (1927-1987). Ташкент, 1990.-С.12
11. Абаева Т.Ю. Роль УзГУ в подготовке кадров из женшин узбечок // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 69. – Самарқанд, 1958. – С. 118.
12. Ленин йўли. 1931 йил, 4 декабрь.
13 Қизил Ўзбекистон. 1930 йил 9 октябрь.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Maxkamova Masturaxon Baxromjon qizi
Qo‘qon Universitet Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ekologik madaniyatning nazariy asoslari, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ushbu madaniyatni shakllantirish usullari hamda interaktiv pedagogik yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari ekologik mavzudagi amaliy faoliyat va innovatsion dars loyihalari talabalarning ekologik ongini mustahkamlashda samarali ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi tayyorgarligi, ekologik madaniyat, interaktiv metodlar, ekologik ong, barqaror rivojlanish.*

Махкамова Мастурахон Бахромджан кизи
Преподаватель кафедры педагогики и психологии Кокандского университета

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: *Анализируются теоретические основы экологической культуры, методы ее развития в процессе профессиональной подготовки педагогов и интерактивные педагогические подходы. Результаты исследования показывают, что практическая деятельность по экологии и инновационные учебные проекты эффективно способствуют укреплению экологического сознания у студентов.*

Ключевые слова: *Начальные классы, подготовка учителей, экологическая культура, интерактивные методы, экологическое сознание, устойчивое развитие.*

Mahkamova Masturakhon Bakhromjan kizi
Teacher of the Department of pedagogy and psychology of Kokand University

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation: *It examines the theoretical underpinnings of ecological culture, methods for fostering it during teacher training, as well as interactive pedagogical approaches. The findings indicate that hands-on ecological activities and innovative lesson designs effectively enhance students’ ecological awareness.*

Keywords: *Primary school, teacher training, ecological culture, interactive methods, ecological awareness, sustainable development.*

Kirish.

Ekologik muammolar tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda ta’lim jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalariga alohida e’tibor qaratish g‘oyat muhimdir. Kelajak avlodning ekologik madaniyati va tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirish, ayniqsa boshlang‘ich sinf davridan boshlab amalga oshirilishi lozim. Chunki aynan shu bosqichda bolalar hayotiy ko‘nikma va odatlarni egallab, tabiatga munosabatlarining dastlabki poydevorini quradilar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari esa bu jarayonda asosiy rolni bajarib, bolalarga ekologik bilim va ko‘nikmalarni samarali yetkazishlari zarur. Maktabda tashkillashtiriladigan darslar, amaliy mashg‘ulotlar va sinfdan tashqari tadbirlar orqali o‘quvchilar tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, resurslarni tejab-tergab ishlatish va atrof-muhitni asrashning asosiy tamoyillarini puxta o‘zlashtirishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida ekologik madaniyatning shakllangan bo‘lishi faqat shaxsiy e’tiqod yoki amaliy odat bilangina emas, balki chuqur ilmiy bilishga ham asoslanadi. Ekologik masalalarga oid didaktik materiallarni tanlashda, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olishda va dars jarayonini interaktiv tashkil etishda kuchli bilim zarur. Shuning uchun pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ekologik yo‘nalishda tayyorlash jarayonini ilg‘or texnologiyalar bilan boyitib borish katta ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishda

qanday usullar va yondashuvlar samarali ekanini aniqlashga qaratildi. Maqsadga erishish uchun, avvalo, zamonaviy pedagogik va psixologik adabiyotlar hamda xalqaro tajribalar o‘rganildi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga doir ilg‘or texnologiyalar, metodlar va didaktik vositalar haqida ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiyalar materiallari, hukumat qarorlari hamda mahalliy amaliyot tadqiq qilindi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan ekologik yo‘nalishdagi ma’ruza va seminarlarda qo‘llaniladigan metodik komplekslar ham ko‘rib chiqildi. Metodologik jihatdan, tarkibiy-tizimli yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarda ekologik xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan bosqichlar, omillar va natijalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik tahlil qilindi. Amaliy tadqiqot esa ikki asosiy bosqichda o‘tkazildi. Birinchi bosqichda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida so‘rovnoma, suhbat va intervyular tashkil qilinib, ularning ekologik masalalar bo‘yicha tushunchalari, tabiatga munosabati hamda amaliy ekofaoliyat tajribalari o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda eksperimental guruh shakllantirilib, u yerda maxsus tuzilgan ekologik dars loyihalari, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar va turli interaktiv o‘yin usullari sinab ko‘rildi. Ushbu jarayonda talabalarning motivatsiya darajasi, mustaqil izlanish faolligi va o‘zini o‘zi anglash rivoji kuzatuv, test va baholash ro‘yxatlari yordamida tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar statistika usullarida qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasida paydo bo‘lgan tafovutlar aniqlashtirildi.

Natijalar.

Tadqiqotning birinchi bosqichida, so‘rovnoma va suhbatlar orqali aniqlangani bo‘yicha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aksariyati ekologik bilimlar mazmuni bilan yaxshi tanish bo‘lsa-da, ularni amaliy mashg‘ulotlarga tatbiq etish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Ekologik masalalarni yoritishda asosan maktab darsliklariga tayanishar, sinfdan tashqari tadbirlarni esa deyarli o‘tkazmaydilar. Shu bilan birga, talabalarda individual darajada tabiatni asrab-avaylashga moyillik mavjud bo‘lib, ular uyda suv va elektr energiyasidan tejamli foydalanish, chiqindilarni ajratish kabi amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga qiziqish bildiradilar. Ayni paytda, ushbu qiziqish o‘quv jarayonida doimiy ravishda mustahkamlanmas ekan, barqaror ekota’limga erishish qiyin bo‘lishi kuzatildi. Ikkinchi bosqichda eksperimental guruhda amalga oshirilgan dars loyihalari, amaliy laboratoriyalar va interaktiv o‘yinlar o‘qituvchi kasbiga bo‘lajak mutaxassislarning munosabatini ijobiy o‘zgartirdi. Tabiatni o‘rganish uchun virtual laboratoriyalar, ekologik sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar bilan hamkorlik, onlayn platformalarda ilmiy maqolalar muhokamasi kabi faoliyat turlari talabalar dunyoqarashining kengayishiga va ekologik masalalarga nisbatan yanada teran yondashuv hosil bo‘lishiga turtki berdi. Shuningdek, talabalarning dastlabki amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar (munozara, ro‘yxatni to‘ldirish, rolli o‘yin) sezilarli darajada samarali bo‘lgani aniqlandi. Tajriba guruhi yakunida olingan test natijalariga ko‘ra, birlamchi ekologik madaniyat darajasi o‘rtacha 20–30 foizga o‘sgani qayd etildi.

Muhokama.

Natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida ekologik madaniyatni rivojlantirishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyatga ustuvor e’tibor qaratish zarur. Bolalikdan shakllanadigan axloqiy va me’yoriy qoidalar, xususan tabiatga g‘amxo‘rlik qilish, resurslarni tejab-tergab ishlatish kabi hayotiy tamoyillar avvalo o‘qituvchining shaxsiy namunasiga asoslanadi. O‘qituvchi talabalikdan boshlab shu madaniyatning targ‘ibotchisi sifatida o‘z hayot tarzida ham atrof-muhitni asrash mas’uliyatini namoyon etishi lozim. Ekologik mavzudagi dars va seminarlarda yuzaki bilim berishdan ko‘ra, talabalarni faol qatnashishga chorlash, kichik tadqiqot loyihalari yaratish, tabiat inshootlarini yoki tabiatda kuzatuv ishlarini uyushtirish kabi usullar orqali mustahkam ko‘nikma shakllantirish mumkin. Eksperimental guruhda qo‘llanilgan yondashuvlar, xususan integratsiyalashgan darslar va interaktiv texnologiyalar, nafaqat bilimlarni puxta o‘zlashtirishga, balki talabalarda ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qildi. Pedagogika va tabiiy fanlar tutashuvi, turli fanlar kesimida ekologik masalalarni yechishga yo‘naltirilgan topshiriqlar talabalarga dunyoga kengroq nigoh bilan qarashni o‘rgatadi. Shuningdek, atrof-muhit bilan inson faoliyati o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni anglash, turli sohalardagi ekologik inqiroz sabab va oqibatlarini tahlil qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarga jamiyatda ekologik ongni targ‘ib qilishda o‘z vazifalarini aniq his etish imkonini beradi. Bunday o‘quv jarayonida talabalarning kelajak kasb faoliyatiga bo‘lgan munosabati ijobiy tomondan o‘zgarib, ular mustahkam motivatsiyaga ega bo‘ladilar.

Xulosa.

Yuqoridagi tadqiqot davomida aniqlanganidek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish bir vaqtning o‘zida nazariy, metodik va amaliy jihatlarni uyg‘unlashtirishni talab etadi. Talabalarga ekologik mavzularni chuqur o‘rgatish, bu mavzularga ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish va olingan bilimlarni real hayotdagi amaliy faoliyat bilan bog‘lash natijasida barqaror ekoko‘nikmalar hosil bo‘ladi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik dars loyihalariga asoslangan interaktiv metodlar, virtual laboratoriyalar, loyiha faoliyati va jamoaviy muhokamalar talabalarning ekologik mas’uliyati hamda kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinflarda bo‘lajak avlodni atrof-muhitga muhabbat ruhida tarbiyalashning mustahkam negizini yaratadi. Ekologik

madaniyatli o‘qituvchi, o‘z namunasida o‘quvchilarga yuqori darajadagi ongli munosabatni ko‘rsatib, jamiyatda barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadigan yoshlarni voyaga yetkazishi mumkin. Shu tariqa, maktab ta’limidan boshlab tabiatga bo‘lgan e’tibor avlodlar ongiga chuqur singdiriladi, bu esa keng miqyosda ekologik inqirozlarning oldini olish va insoniyat istiqbolini ta’minlashda muhim qadamlardan biri sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзаева Л. Н. Экологическая культура и ее формирование у будущих учителей начальных классов: учебное пособие. – Ташкент: Университет, 2022. – 156 с.

2. ЮНЕСКО. Преподавание и обучение для устойчивого будущего: международный обзор // [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: https://unesdoc.unesco.org (data obrashcheniya: 30.03.2025).

3. Ильина Т. А. Формирование экологического мышления у студентов педагогических специальностей // Вестник педагогических наук. – 2021. – № 2. – С. 30–35.

4. Kurbanova S., Rasulov M. Pedagogical innovations in developing ecological awareness among primary school learners: Conference proceedings // The 5th International Conference on Education and Social Sciences (ICESS). – Istanbul, 2023. – P. 100–105.

5. Davlatova Sh. T. Boshlang‘ich sinfda ekologik tarbiya berish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020. – 132 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Soliyev Ilhom Sobirovich
FarDU, Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Habibuddinova Moxlaroyim Akmaljon qizi
Ta'lim va tarbiya na'zariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi, 1-kurs magistranti
adxamjonovamoxlaroyim001@gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv - bu ta'lim muassasalarining samarali ishlashini ta'minlash, o'quvchilarni rivojlantirish va ularning ta'lim olishini yuqori darajada tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha jarayonlarni boshqarish faoliyatidir. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning asosiy maqsadi, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil qilish, bolalarning ta'lim olish jarayonini boshqarish va o'qituvchilarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashdir. Boshqaruv tizimi pedagogik boshqaruv, metodik yondashuvlar va o'qituvchilarni malakasini oshirishni o'z ichiga oladi. Bu tizimda o'qituvchilar, ota-onalar va boshqaruv organlari o'rtasida samarali hamkorlik muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, boshqaruv tizimi, pedagogik boshqaruv, ta'lim jarayonini boshqarish, ta'lim muassasalarining boshqaruvi, o'qituvchilarni malakasini oshirish, metodik yondashuvlar, samarali boshqaruv, bolalarning rivojlanishi.*

Солиев Ильхом Собирович
ФарДУ, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Хабибуддинова Мохларойим Акмалжон кизи
Теория и методика обучения и воспитания
(дошкольное образование) специальность, магистрант 1 курса

ПОНЯТИЕ УПРАВЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО СУЩНОСТЬ

Аннотация: *управление в системе дошкольного образования - это деятельность по управлению всеми процессами, необходимыми для обеспечения эффективного функционирования образовательных учреждений, развития учащихся и организации их обучения на высоком уровне. Основной целью управления в системе дошкольного образования является эффективная организация педагогических процессов, управление процессом воспитания детей и постоянное сопровождение педагогов. Система менеджмента включает в себя педагогический менеджмент, методические подходы и повышение квалификации педагогов. Важное место в этой системе занимает эффективное сотрудничество педагогов, родителей и руководящих органов.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, система управления, педагогический менеджмент, управление образовательным процессом, управление образовательными учреждениями, повышение квалификации педагогов, методические подходы, эффективное управление, развитие детей.*

Soliev Ilham Sobirovich
FarDU, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), associate professor
Habibuddinova Mokhlaroyim Akmaljon kizi
Membership and methodology of education and training
(preschool education) specialty, 1st year graduate

THE CONCEPT OF MANAGEMENT IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM AND ITS ESSENCE

Annotation: *in the preschool education system, management is the activity of managing all the processes necessary to ensure the effective functioning of educational institutions, to develop students and to organize their education at a high level. The main goal of Management in the preschool system is to effectively organize pedagogical processes, control the educational process of children and constantly support teachers. The management system includes pedagogical management, methodological approaches and teacher training. Effective cooperation between teachers, parents and governing bodies plays an important role in this system.*

Keywords: *preschool education, management system, pedagogical management, management of the educational process, management of educational institutions, teacher training, methodological approaches, effective management, Child Development.*

Kirish.

Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning kelajagini shakllantiradigan, bolalar shaxsiyatining asosiy poydevorini tashkil etuvchi muhim soha hisoblanadi. Bu tizimning samarali ishlashi, eng avvalo, sifatli boshqaruvga bog‘liq. Maktabgacha ta’limdagi boshqaruvning mohiyati, pedagogik jarayonlarni muvaffaqiyatli tashkil etish va bolalarning barcha jihatdan rivojlanishiga imkon yaratishdan iboratdir. Ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayoni nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga ham qaratilgan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’limda boshqaruv faqatgina tashkilot tuzilmasini nazorat qilishdan iborat emas, balki bu jarayon bolalar bilan to‘g‘ri pedagogik yondashuvlarni tanlash, o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ta’lim muassasalarida samarasizlikni oldini olish kabi vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Samarali boshqaruv tizimi, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga ko‘proq kreativ yondashuvlar va innovatsion metodlarni amalga oshirishga imkon yaratadi, bu esa bolalar uchun yanada sifatli ta’lim olishni ta’minlaydi.

Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasi nafaqat pedagogik faoliyatni boshqarish, balki o‘quvchilarning to‘liq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim omildir. Boshqaruv jarayonining samarali tashkil etilishi ta’lim tizimining har bir bo‘lagining o‘zaro uyg‘unligini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili.

Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv tushunchasi va uning mohiyatini o‘rganishga oid bir qator ilmiy adabiyotlar mavjud. Ular boshqaruv jarayonining samarali tashkil etilishi, pedagogik boshqaruv usullari, ta’lim sifatini oshirish va ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan. Quyidagi adabiyotlar tahlili, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvni samarali amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi.

Mamatov, D. (2016). "Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv va uning samaradorligi." Ushbu asar maktabgacha ta’limdagi boshqaruv tizimining strukturasi va samaradorligini o‘rganadi. Mamatovning fikriga ko‘ra, ta’lim muassasasida boshqaruv nafaqat rasmiy tuzilmalarga, balki o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, pedagogik muhitga ham bevosita ta’sir qiladi. Muallif boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun pedagogik boshqaruvda kreativ va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Azizov, M. (2018). "Pedagogik boshqaruvning mohiyati va tamoyillari." Azizovning asarida pedagogik boshqaruvning asosiy tamoyillari, uning maktabgacha ta’limda qo‘llanilishi va bolalarning shaxsiy rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilinadi. Yozuvchi boshqaruv jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va metodik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Boshqaruvning samaradorligi, muallifning fikriga ko‘ra, pedagogik jamoaning birligi va hamkorlikka bog‘liq.

Rahimov, B. (2020). "Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvning yangi yondashuvlari". Bu asarda, Rahimov maktabgacha ta’limda boshqaruvning yangi metodlari va innovatsion yondashuvlar haqida fikr yuritadi. Boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shuningdek, raqamli boshqaruv usullarini qo‘llashning zarurligini ta’kidlaydi. Muallifning fikriga ko‘ra, pedagogik boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta’limda innovatsiyalarni amalga oshirish zarur.

Mullajonov, A. (2019). "Ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishning nazariy asoslari." Mullajonov o‘z asarida ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishning nazariy asoslarini o‘rganadi. U boshqaruvning asosiy vazifalarini, shuningdek, o‘quv jarayonini boshqarishda o‘qituvchilar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi. Muallif boshqaruvning samarali amalga oshirilishi bolalarning ta’lim olishdagi motivatsiyasini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi, deb ta’kidlaydi.

Shamsiev, N. (2021). "Maktabgacha ta’limda boshqaruv jarayonining zamonaviy metodlari." Ushbu asar maktabgacha ta’limda boshqaruvning zamonaviy metodlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shamsievning tahliliga ko‘ra, maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruvni samarali tashkil etish uchun pedagogik boshqaruvda yangi metod va yondashuvlar, shu jumladan, inkluziv ta’limni amalga oshirish muhimdir. Muallif boshqaruvning zamonaviy metodlari bolalarning rivojlanishini ta’minlashda asosiy vosita ekanligini ta’kidlaydi.

Karimov, R. (2017). "Ta’lim muassasasida boshqaruvning asosiy prinsiplari." Karimov, ta’lim muassasasida boshqaruvning asosiy prinsiplari va uning o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi hamkorlikni oshirishdagi rolini tahlil qiladi. U boshqaruv jarayonida o‘qituvchilarning professional malakasini oshirish va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda metodik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun pedagogik boshqaruvni takomillashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion metodlardan foydalanish va zamonaviy boshqaruv

texnologiyalarini joriy etish muhimdir. Boshqaruvning samarali tashkil etilishi bolalarning ta'lim olishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi va o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

Tadqiqot metodikasi.

Tadqiqot metodikasi - bu ilmiy izlanishning o'rganilayotgan ob'ekti, maqsadi va vazifalariga mos ravishda tadqiqotning qanday usullari va metodlari qo'llanilishini belgilovchi ilmiy tizimdir. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasi va uning mohiyatini o'rganish uchun tadqiqot metodikasi quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topgan:

Tadqiqotning boshlang'ich bosqichi tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniq belgilashdan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasini o'rganishda tadqiqotning maqsadi - maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning samaradorligini oshirish usullarini aniqlash va uning bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tushunchasining mohiyatini o'rganish.
2. Boshqaruvning pedagogik va metodik tamoyillarini aniqlash.
3. Maktabgacha ta'limda boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash.
4. Boshqaruvni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti - bu o'rganilayotgan tizim yoki jarayonni anglatadi. Bu tadqiqotda ob'ekt sifatida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlari o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruvning turli jihatlari, jumladan pedagogik boshqaruv, metodik yondashuvlar va boshqaruvning o'qituvchilar va bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ta'siri o'rganiladi.

Tadqiqot jarayonida turli metodlar qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni o'rganishda quyidagi tadqiqot usullari qo'llanadi:

Nazariy tahlil: Mavzuga oid adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilinadi. Bu metod maktabgacha ta'limda boshqaruv tushunchasi va uning mohiyatini aniqlashda yordam beradi.

So'rovnoma: O'qituvchilar, boshqaruv organlari xodimlari va ota-onalardan so'rovnomalar olish orqali boshqaruv jarayonining samaradorligi, o'qituvchilar va bolalar o'rtasidagi aloqalar haqida ma'lumotlar yig'iladi.

Intervyu: Pedagoglar va boshqaruv organlari xodimlari bilan chuqur intervyular o'tkazilib, boshqaruvning amaliy jihatlari va mavjud muammolar o'rganiladi.

Kuzatish: Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini bevosita kuzatish orqali o'quvchilarning rivojlanishi, o'qituvchilarning faoliyati va boshqaruv tizimining ishlashini tahlil qilish amalga oshiriladi.

Eksperiment: O'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi boshqaruv usullarining samaradorligini o'rganish uchun eksperimental guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. So'rovnoma va intervyulardan olingan natijalar, kuzatish va eksperimentlar orqali to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ma'lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil usullari yordamida umumlashtiriladi.

Sifatli tahlil: Intervyu va kuzatishlar natijalarini tahlil qilishda o'qituvchilar, boshqaruv organlari va ota-onalarning fikrlarini umumlashtirishga asoslanadi.

Miqdoriy tahlil: So'rovnomalardan olingan javoblar va eksperimentlardan olingan raqamli ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichi natijalarni tahlil qilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu tavsiyalar maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni samarali tashkil etish, boshqaruv usullarini takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar va cheklovlar aniqlanadi. Masalan, ma'lumotlarni yig'ish jarayonida vaqt cheklovlari yoki respondentlarning cheklangan doirasi kabilar. Bularni hisobga olib, kelajakda tadqiqotni yanada kengroq va to'liqroq amalga oshirish mumkin.

Xulosa.

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni o'rganish uchun tadqiqot metodikasi samarali bo'lishi uchun keng qamrovli, ilmiy jihatdan asoslangan va tizimli bo'lishi zarur. Tadqiqotda o'rganilayotgan mavzuga mos keladigan metodlarni qo'llash, ma'lumotlarni aniq yig'ish va tahlil qilish, natijalarni umumlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga yordam beriladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Mamatov, D. (2016). Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv va uning samaradorligi. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
2. Azizov, M. (2018). Pedagogik boshqaruvning mohiyati va tamoyillari. Tashkent: Science and Education Publishing.
3. Rahimov, B. (2020). Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning yangi yondashuvlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

4. Mullajonov, A. (2019). Ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishning nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Shamsiev, N. (2021). Maktabgacha ta’limda boshqaruv jarayonining zamonaviy metodlari. Toshkent: O‘zbekiston ta’lim nashriyoti.
6. Karimov, R. (2017). Ta’lim muassasasida boshqaruvning asosiy prinsiplari. Toshkent: Ilm nashriyoti.
7. Xodjayev, A. (2020). Maktabgacha ta’limda boshqaruvning innovatsion yondashuvlari. Tashkent: TATU nashriyoti.
8. Nuriddinov, U. (2018). Pedagogik boshqaruv va uning maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati. Samarkand: SamDPU nashriyoti.
9. Zeyniddinov, T. (2017). Maktabgacha ta’limda boshqaruvni samarali tashkil etish. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
10. Tursunov, M. (2019). Boshqaruv tizimi va uning ta’lim muassasalaridagi roli. Toshkent: Ta’lim va ilm nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namanagan davlat chet tillari instituti
Til va tarjima fakulteti dekan o'rinbosari
Email: hamidullaabdualiyev1985@gmail.com
Orcid: 0009-0000-8767-9885

SUN'IY INTELLEKT VA UNING TA'LIMDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'lim sohasida qo'llanilishi, uning afzalliklari va ehtimoliy salbiy oqibatlari ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi, o'qitish sifatini oshirish, baholash tizimlarini avtomatlashtirish va shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlovchi zamonaviy ta'lim tizimlari va jahon tajribasi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash, shaxsiylashtirilgan o'qitish, zamonaviy ta'lim.*

Абдуалиев Ҳамидулла Тохиржонович
Наманаганский государственный институт иностранных языков имени Исхакхана Ибрата
Заместитель декана факультета языка и перевода

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В статье рассматривается применение искусственного интеллекта в образовании, его преимущества и возможные негативные последствия. Обсуждаются вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс, возможности повышения качества преподавания, автоматизации систем оценки, развития персонализированного обучения. Также будут проанализированы современные системы образования, основанные на искусственном интеллекте и мировом опыте.*

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, образовательные технологии, цифровое образование, автоматизированная оценка, персонализированное обучение, современное образование.*

Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich
Deputy Dean of the Faculty of Language and Translation
Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishaqkhon Ibrat

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ITS APPLICATION IN EDUCATION

Abstract: *The article examines the use of artificial intelligence in education, its advantages and possible negative consequences. The issues of integrating artificial intelligence technologies into the educational process, the possibility of improving the quality of teaching, automating assessment systems, and developing personalized learning are discussed. Modern education systems based on artificial intelligence and global experience will also be analyzed.*

Keywords: *Artificial intelligence, educational technologies, digital education, automated assessment, personalized learning, modern education.*

Kirish.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari hayotning turli jabhalariga chuqur kirib bormoqda va ularning ta'siri ayniqsa ta'lim sohasida sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida SI asosida ishlovchi tizimlar o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish, individual ta'lim dasturlarini yaratish va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini rivojlantirish imkoniyatini bermoqda.

Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonida axborotlarni tezkor tahlil qilish, talabalar bilim darajasini real vaqt rejimida baholash va ularning ehtiyojlariga mos ta'lim materiallarini ishlab chiqish imkoni paydo bo'ldi. SI nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, balki talabalar va o'qituvchilarga moslashuvchan

ta’lim muhitini taqdim etish orqali o‘quv jarayonini innovatsion shaklda tashkil qilishga yordam beradi[5].

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda sun’iy intellekt ta’lim sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Masalan, AQSh, Xitoy va Yevropa mamlakatlarida sun’iy intellekt yordamida ishlovchi ta’lim platformalari ishlab chiqilib, talabalar uchun shaxsiylashtirilgan o‘qitish tizimlari joriy etilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ta’lim olish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari imtihon jarayonlarini tezlashtirish va xatoliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda[2].

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari keng bo‘lib, elektron ta’lim platformalarini rivojlantirish, onlayn ta’lim tizimlarini joriy etish va sun’iy intellektga asoslangan baholash tizimlarini yaratish bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda[9].

Adabiyotlar tahlili.

Ushbu maqolada sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi roli, uning afzalliklari va muammolari hamda xalqaro tajribalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt yordamida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham beriladi.

2. Sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi asosiy yo‘nalishlari

Sun’iy intellekt (SI) bugungi kunda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan eng ilg‘or texnologiyalardan biridir. U pedagogika, o‘qitish metodikalari va ta’lim jarayonini takomillashtirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Quyida sun’iy intellektning ta’lim tizimida eng muhim yo‘nalishlari batafsil ko‘rib chiqiladi.

2.1. Individual va shaxsiylashtirilgan ta’lim

An’anaviy ta’lim tizimi barcha talabalarga bir xil yondashuv asosida o‘qitish jarayonini olib boradi. Biroq, har bir talabaning o‘ziga xos o‘rganish tezligi, qiziqish doirasi va qobiliyatlari mavjud. Sun’iy intellekt esa individual yondashuv imkoniyatini yaratib, har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlariga mos o‘qitish strategiyasini ishlab chiqadi.

- Moslashtirilgan ta’lim algoritmlari: SI talabaning o‘rganish jarayonini kuzatib, uning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlaydi va mos ta’lim materiallarini taklif etadi.
- Interaktiv o‘qitish dasturlari: O‘quv materiallari real vaqt rejimida talabalar ehtiyojlariga moslashtiriladi va natijalar bo‘yicha individual tavsiyalar beriladi.
- Onlayn ta’lim platformalari: Coursera, Khan Academy, Udemy, Duolingo kabi platformalar sun’iy intellekt yordamida har bir foydalanuvchiga mos keladigan kurslarni tavsiya qiladi.

2.2. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari

Talabalar bilimini baholash ta’lim tizimining muhim qismi hisoblanadi. An’anaviy baholash tizimlari inson omiliga bog‘liq bo‘lib, subyektivlik, vaqt talab qilish va katta hajmdagi ishlarni tekshirish qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Sun’iy intellekt esa ushbu jarayonni avtomatlashtirish va tezkor baholash imkonini beradi.[9]

- Avtomatik test tizimlari: Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan test tizimlari talabalar javoblarini avtomatik ravishda baholaydi va natijalarni real vaqt rejimida taqdim etadi.
- Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) orqali yozma ishlarni tekshirish: SI yordamida insholar, esse va referatlarning grammatik, stilistik va semantik jihatdan baholanishi mumkin. Turnitin, Grammarly kabi dasturlar aynan shu yo‘nalishda ishlaydi.
- Og‘zaki nutqni baholash: SI ovoz tanish texnologiyalari yordamida talabalar tomonidan yozib olingan nutqni baholashi va talabalarga tavsiyalar berishi mumkin.

2.3. Virtual o‘qituvchilar va sun’iy intellekt yordamchilari

Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan virtual o‘qituvchilar va ta’lim yordamchilari talabalar savollariga javob berib, ularga kerakli ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin[7].

- Chatbotlar va virtual yordamchilar: Talabalar savollariga javob berish, dars jadvalini tuzish va bilim darajasini baholash uchun ishlatiladi. Masalan, Google Assistant, IBM Watson, ChatGPT kabi tizimlar ta’lim jarayonida qo‘llanilmoqda.
- AI tutorlar: Sun’iy intellekt yordamida talabaning bilim darajasiga qarab mos dars materiallarini tavsiya etadi. Masalan, Socratic by Google dasturi o‘quvchilarga savollarga javob topishda yordam beradi[5].

2.4. Sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini tahlil qilish

Talabalar bilimini samarali tahlil qilish va ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish ta’lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlari tahlil qilinib, quyidagi ma’lumotlar olinadi:

- Talabalarning qaysi mavzularda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlash.
- O‘qitish uslublarining samaradorligini baholash.
- Talabalar faoliyatini tahlil qilish va ularga mos tavsiyalar berish[6].

3. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarining afzalliklari

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi quyidagi afzalliklarga ega:

O‘qituvchilar uchun afzalliklar

- O‘qituvchilarning yuklamasini kamaytirish.
- Baholash jarayonini avtomatlashtirish.
- Talabalar uchun individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish.

Talabalar uchun afzalliklar

- Moslashtirilgan o‘quv dasturlariga ega bo‘lish.
- O‘quv jarayonida mustaqillik va moslashuvchanlik.
- Virtual repetitorlar yordamida qo‘shimcha ta’lim olish imkoniyati.

Ta’lim muassasalari uchun afzalliklar

- Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish.
- Sun’iy intellekt asosida ta’lim monitoringini amalga oshirish.

4. Sun’iy intellektni ta’lim tizimida joriy etishdagi muammolar

Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda, muayyan muammolar ham mavjud:

Texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi – Sun’iy intellekt tizimlarini qo‘llash uchun yetarli texnologik infratuzilma talab etiladi.

Sun’iy intellektning ishonchliligi va xatoliklari – Noto‘g‘ri natijalar berishi va baholash xatoliklariga olib kelishi mumkin.

Xavfsizlik va maxfiylik muammolari – Talabalar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish muhim.

5. Sun’iy intellektdan ta’limda samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar

1. Sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida to‘g‘ri foydalanish uchun pedagoglar va talabalarni tayyorlash.

2. Elektron ta’lim platformalarini rivojlantirish va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini takomillashtirish.

3. Sun’iy intellekt asosida ta’lim monitoringi tizimlarini yaratish va ularni ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazish.

4. Sun’iy intellekt yordamida ta’lim sifatini oshirish uchun xalqaro tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish[1].

Xulosa.

Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lib, ta’lim jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va sifatli qilish uchun qudratli vosita hisoblanadi. Bugungi kunda SI texnologiyalarining rivojlanishi natijasida an’anaviy ta’lim yondashuvlari yangilanib, shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayoni, avtomatlashtirilgan baholash va innovatsion ta’lim platformalarining rivojlanishi kuzatilmoqda. SI yordamida talabalar individual o‘qitish dasturlariga ega bo‘lib, bilim olish jarayoni ularning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilmoqda.

Biroq, sun’iy intellektni ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun bir qator muhim omillarga e’tibor qaratish lozim. Avvalo, texnologik infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi ta’lim tizimlarining samarali bo‘lishi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog‘liq. Shu boisdan, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda internet sifati, kompyuter va server quvvati kabi texnik imkoniyatlarni kengaytirish muhim vazifalardan biridir.

Shuningdek, SI texnologiyalarini to‘g‘ri va mas’uliyat bilan qo‘llash ham muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonida inson omilini to‘liq almashtira olmaydi, aksincha, u o‘qituvchilarga yordam beruvchi vosita sifatida ko‘rilishi lozim. O‘qituvchilar va talabalar sun’iy intellekt bilan ishlash bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak, bu esa SI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etishni taqozo etadi.

SI asosida ta’lim tizimini takomillashtirishda ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash ham juda muhim. Talabalar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlari sun’iy intellekt tizimlari tomonidan qayta ishlanishi sababli, ma’lumotlarning xavfsizligi bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu borada xalqaro tajriba va ilg‘or texnologiyalar asosida ishonchli kiberxavfsizlik mexanizmlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Kelajak istiqbollari

Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi roli yanada ortib boradi. Quyidagi asosiy yo‘nalishlarda rivojlanish kuzatilishi kutilmoqda:

Sun’iy intellekt yordamida moslashtirilgan ta’lim tizimlarini rivojlantirish – Har bir talabaga uning bilim darajasi va ehtiyojlariga mos individual o‘quv dasturlarini yaratish orqali o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini takomillashtirish – Sun’iy intellekt asosida ishlovchi test tizimlari, esse baholash tizimlari va og‘zaki imtihonlarni avtomatlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish.

Ta’lim jarayonida virtual haqiqat (VR) va qo‘shimcha haqiqat (AR) texnologiyalaridan foydalanish – Talabalarga interaktiv va tajriba asosida o‘rganish imkoniyatlarini yaratish.

Sun’iy intellekt bilan ishlash bo‘yicha maxsus kurslar va treninglar tashkil etish – O‘qituvchilar va talabalar sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishlari uchun maxsus dasturlarni joriy etish.

Ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish – Sun’iy intellektning ta’lim sohasiga ta’sirini chuqur o‘rganish, yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va jahon tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirish.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi ta’lim tizimini yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va interaktiv qilish imkonini beradi. Biroq, SI texnologiyalaridan unumli foydalanish uchun zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilar va talabalarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash, shuningdek, ma’lumotlar xavfsizligi masalalariga alohida e’tibor berish talab etiladi[10].

Kelajakda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va xalqaro tajribalarni

o‘rganish orqali ta’lim tizimini yanada rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga kiritilishi, to‘g‘ri yondashilgan taqdirda, kelajak avlod uchun yuqori sifatli va samarali ta’lim tizimini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G‘ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
2. Raximov N.O. Intellektual o‘qitish tizimlari. – TATU xabarlari, 2010.
3. Bessmertny I.A. Iskusstvennyy intellekt. – Sankt-Peterburg: Piter, 2010.
4. David Moursund. Brief Introduction to Educational Implications of AI. – Eugene: University of Oregon, 2006.
5. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Upper Saddle River: Pearson, 2010.
6. Nilsson N.J. The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
7. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.
8. Woolf B.P. Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. – Amsterdam: Morgan Kaufmann, 2009.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. – https://lex.uz/docs/5297046.
10. Artificial intelligence. – Wikipedia, https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial_intelligence.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muslimova Dildora No‘g‘monxon qizi
Toshkent viloyati, Parkent shahri, 31-maktab. Ingliz tili fani o‘qituvchisi
E-mail: muslimovadildora05@gmail.com

KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARNI INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMALARINI AUDIO VOSITALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur ishda ko‘zi ojiz o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda audio vositalarning o‘rni va samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot davomida maxsus audio materiallar, interaktiv eshitish mashqlari va nutqni rivojlantirishga qaratilgan metodlar o‘rganildi. Shuningdek, inkluziv ta’lim muhitida audio vositalarning ta’siri tahlil qilinib, ularning didaktik imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Amaliy tavsiyalar orqali ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun kommunikativ yondashuv asosida gapirishni o‘rgatishning samarali yo‘llari taklif qilindi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tanlangan va moslashtirilgan audio vositalar o‘quvchilarning tilga qiziqishini oshiradi, nutq faoliyatini rag‘batlantiradi va ularning mustaqil fikrlashiga zamin yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘zi ojiz o‘quvchilar, audio vositalar, ingliz tili, gapirish ko‘nikmalari, inkluziv ta’lim, eshitish materiali, kommunikativ yondashuv.*

Муслимова Дилдора Ногманхан кизи
Ташкентская область, г. Паркент, школа № 31. Учитель английского языка

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СЛЕПЫХ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ АУДИО СРЕДСТВ

Аннотация. *В данной работе освещается роль и эффективность аудиосредств в развитии навыков говорения на английском языке у слабовидящих учащихся. В ходе исследования были изучены специальные аудиоматериалы, интерактивные упражнения на аудирование и методы, направленные на развитие речи. Также было проанализировано влияние аудиосредств в инклюзивной образовательной среде и рассмотрены их дидактические возможности. На основе практических рекомендаций были предложены эффективные способы обучения говорению слабовидящих учащихся с использованием коммуникативного подхода. Результаты исследования показывают, что правильно подобранные и адаптированные аудиосредства повышают интерес учащихся к языку, стимулируют речевую деятельность и создают основу для их самостоятельного мышления.*

Ключевые слова: *слабовидящие учащиеся, аудиосредства, английский язык, навыки говорения, инклюзивное образование, аудиоматериал, коммуникативный подход.*

Muslimova Dildora Nogmankhan kizi
Tashkent region, Parkent City, School No. 31. English teacher

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ENGLISH SPEAKING SKILLS FOR BLIND STUDENTS THROUGH AUDIO MEDIA

Annotation. *This study explores the role and effectiveness of audio tools in developing English speaking skills among visually impaired students. The research examines specialized audio materials, interactive listening exercises, and methods aimed at speech development. Additionally, the impact of audio tools in an inclusive educational environment is analyzed, and their didactic potential is evaluated. Through practical recommendations, effective ways of teaching speaking based on a communicative approach for visually impaired students are proposed. The research findings indicate that carefully selected and adapted audio tools enhance students’ interest in language, stimulate speech activities, and lay the foundation for their independent thinking.*

Keywords: *visually impaired students, audio tools, English language, speaking skills, inclusive education, listening material, communicative approach.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida inkluziv ta’limga e’tibor kuchayib borayotgan bir davrda, imkoniyati

cheklangan, xususan, ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini o‘rganishda ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan metodik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir [1]. Ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda audio vositalardan foydalanish – ularning eshitish, anglash, nutqni to‘g‘ri ifodalash, talaffuzni shakllantirish kabi til kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy ishda aynan shu masalaning nazariy jihatlari yoritilib, ingliz tilini o‘rganishda audio vositalarning afzalliklari, ularning pedagogik imkoniyatlari hamda ko‘zi ojiz o‘quvchilarning nutqiy rivojiga ta’siri tahlil qilinadi [6]. Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ovozli darsliklar, podkastlar, maxsus dasturlar, eshitish asosidagi testlar va interaktiv platformalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, bu vositalarning samarali qo‘llanilishi uchun o‘qituvchidan metodik tayyorgarlik, shaxsiy yondashuv va kommunikativ o‘qitish uslublarini qo‘llash talab etiladi [8].

Ishning dolzarbligi shundaki, ko‘zi ojiz o‘quvchilarning til o‘rganishdagi qiyinchiliklarini yengillashtirish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish, shuningdek, ularning chet tilidagi erkin muloqot qilish salohiyatini oshirish – zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biridir [7]. Shu sababli, mavzuning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarga xorijiy til, xususan ingliz tilini o‘rgatishda audio vositalardan foydalanish bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishdagi samarali ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish nafaqat til o‘rgatish samaradorligini oshiradi, balki imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mahalliy olima D. Azizova o‘zining “Maxsus ehtiyojli bolalarga til o‘rgatish” nomli ishida ko‘zi ojiz o‘quvchilarga til o‘rgatishning psixopedagogik asoslarini yoritgan [3]. U audio vositalardan foydalanish orqali eshitish qobiliyatining faollashuvi va nutq faolligining oshishini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, S. Yusufova o‘zining metodik qo‘llanmasida audio vositalardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish, ularni moslashtirish va samarali o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha tavsiyalarni keltiradi [10].

Xorijiy adabiyotlarda esa Harmer, Brown, va Anderson kabi olimlarning tadqiqotlari alohida e’tiborga molik [5; 4; 2]. Jumladan, Harmer o‘zining “The Practice of English Language Teaching” asarida eshitish asosidagi mashg‘ulotlarning gapirish malakasini rivojlantirishdagi o‘rnini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Brown esa kommunikativ yondashuvning ahamiyatini ta’kidlab, eshitish va gapirishni integratsiyalashgan holda o‘qitish natijadorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, UNESCO tomonidan tayyorlangan “Teaching Children with Visual Impairments” nomli qo‘llanma ko‘zi ojiz o‘quvchilarga ta’lim berishda qo‘llaniladigan universal metodlar va zamonaviy texnologiyalarni keng yoritadi [9]. Ular orasida audio vositalarning o‘rni alohida urg‘u bilan ko‘rsatilgan. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘qitishda audio vositalar ko‘zi ojiz o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning to‘g‘ri qo‘llanishi esa ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ko‘zi ojiz o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda audio vositalarning o‘rni va samaradorligini aniqlash maqsad qilingan. Shu bois, tadqiqotda sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) uslublar uyg‘unligida aralash metodlar qo‘llanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar, maqolalar va darsliklar tahlil qilinib, mavjud tajribalar o‘rganildi. Keyinchalik, maxsus tayyorlangan audio materiallar asosida tajriba sinov darslari o‘tkazildi. Tadqiqot eksperimental va nazorat guruhlariga bo‘lingan holda olib borildi: eksperimental guruhda audio vositalar asosida mashg‘ulotlar tashkil qilindi, nazorat guruhida esa an’anaviy usullar qo‘llanildi.


Ma’lumotlar yig‘ish uchun so‘rovnomalar, suhbatlar va kuzatish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, taqqoslov tahlil asosida xulosa chiqarildi. Shuningdek, ko‘zi ojiz o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, ularning eshitish, talaffuz va gapirishdagi yutuqlari hamda qiyinchiliklari yozma va og‘zaki shaklda qayd etildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta’minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot davomida ko‘zi ojiz o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda audio vositalardan foydalanish samaradorligi eksperimental yo‘l bilan tahlil qilindi. Tajriba Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan ko‘zi ojiz bolalar maktab-internatida o‘tkazildi. Unda 20 nafar o‘quvchi ishtirok etdi: 10 nafari eksperimental guruhga, 10 nafari nazorat guruhiga kiritildi. Tajriba uch oy davom etdi. Eksperimental guruh o‘quvchilari bilan har bir darsda audio darsliklar, audio mashqlar, inglizcha suhbatlar va podkastlardan foydalanildi. Mashg‘ulotlar interfaol metodlar asosida olib borildi. Nazorat guruhida esa odatiy dars uslublari qo‘llanilib, audio materiallar ishlatilmadi.

Tajriba davomida har ikki guruh o‘quvchilarining quyidagi ko‘nikmalari nazorat qilindi: talaffuz aniqligi, eshitilgan matnni anglash darajasi, gap tuzish tezligi va to‘g‘riligi, o‘z fikrini ifodalash qobiliyati.

Natijalar tahlili quyidagicha bo‘ldi:



1-rasm. Eksperimental va nazorat guruh natijalari (foizlarda)

– Eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning 80% i nutqni mustaqil shakllantira boshlagan, 70% i esa oddiy suhbatlarda faol ishtirok etgan.

– Talaffuz aniqligida eksperimental guruh 20–25% yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi.

– Eshitib anglash testlarida eksperimental guruh o‘quvchilari o‘rtacha 85% to‘g‘ri javob bergan, nazorat guruhi esa 60% darajada qolgan.

– O‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Shuningdek, audio vositalar yordamida eshitish va gapirish integratsiyalashgan tarzda shakllanganligi sababli o‘quvchilar muloqotda ko‘proq ishtirok eta boshlagan. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, faol til o‘zlashtirish jarayonini rag‘batlantirgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, audio vositalar ko‘zi ojiz o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday vositalar ularning eshitish qobiliyatiga tayanib til o‘rganishiga keng imkoniyat yaratadi, shuningdek, individual yondashuv asosida o‘quv jarayonini moslashtirishga xizmat qiladi. Bu esa inkluziv ta’limda ta’lim sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning ingliz tilidagi gapirish ko‘nikmalari turli mezonlar asosida baholandi. Jumladan, talaffuz aniqligi, so‘z boyligi, gap qurish mantiqiyligi va suhbat davom ettirish qobiliyati asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. Quyida eksperimental va nazorat guruhlarining o‘zaro natijalari foizlarda taqqoslanadi:

1-jadval.

Eksperimental va nazorat guruh natijalarining taqqosiy tahlili (foizlarda)

Ko‘nikma turi	Eksperimental guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Nutqni mustaqil shakllantirish	80%	55%
Oddiy suhbatda faol ishtirok	70%	45%
Talaffuz aniqligi	85%	60%
Eshitib anglash testlari	85%	60%
Til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya	Yuqori	O‘rtacha

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eksperimental guruh o‘quvchilari barcha yo‘nalishlarda yuqori natijalarga erishgan. Bu esa audio vositalar orqali olib borilgan darslarning ijobiy ta’sir ko‘rsatganini isbotlaydi. Bundan tashqari, dars jarayonida audio vositalar yordamida o‘quvchilarning eshitish sezgirligi, urg‘ularni to‘g‘ri aniqlash, intonatsiyaga e’tibor berish va og‘zaki ifoda bilan javob berish malakalari ham sezilarli darajada rivojlandi. Eksperimental guruh o‘quvchilari suhbatlarda ishtirok etishda ko‘proq ishtiyoq bilan qatnashgan, savollarga javob qaytarishda faol bo‘lgan va nutq jarayonida ishonch bilan fikr bildirgan. Audio materiallarning xilma-xilligi (dialoglar, real hayotiy vaziyatlar, hikoyalar, topshiriqlar) esa darslarni jonlantirib, ko‘zi ojiz o‘quvchilarning tilga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Shuningdek, o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham mustaqil audio materiallar bilan ishlashga intilganlari kuzatildi. Bu esa ularning o‘z-o‘zini o‘rganish ko‘nikmasi shakllanganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, audio vositalardan foydalanish ko‘zi ojiz o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Eksperimental guruhda talaffuz, nutq shakllantirish va eshitib anglash ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Audio materiallarning xilma-xilligi va interaktivligi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, dars jarayonini jonlantirdi. Bu esa inkluziv ta’limda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yanada asoslaydi.

Xulosa.

Bugungi kunda ta’lim tizimida barcha o‘quvchilarning teng imkoniyatlar asosida ta’lim olishini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan, xususan ko‘zi ojiz o‘quvchilarning chet tillarini o‘rganishidagi ehtiyojlarini qondirish va ularning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish dolzarb masaladir. Ushbu tadqiqotda ko‘zi ojiz o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda audio vositalarning tutgan o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, audio materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilarning talaffuz, eshitib anglash, mustaqil gapirish va suhbatda faol ishtirok etish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Bunday vositalar o‘quvchilarning eshitish qobiliyatiga tayanib, ularni faol muloqotga jalb etishda katta ahamiyat kasb etadi. Audio vositalarning yana bir muhim jihati – o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga yo‘naltirishidir.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarda ham audio materiallar bilan ishlashga bo‘lgan qiziqishi ortganligi kuzatildi. Bu esa ularning til o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshirib, ta’lim sifatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, ingliz tilini o‘qitishda audio vositalarni pedagogik jihatdan to‘g‘ri tanlab, ularni maqsadga muvofiq qo‘llash orqali ko‘zi ojiz o‘quvchilarning til o‘rganishdagi imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki ularni ijtimoiy hayotga faol jalb qilishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Aliyeva M. Ingliz tilini o‘rgatishda eshitish strategiyalari. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2022. – 120 b.

2. Anderson J. Speaking Skills and Special Needs. – UK: Routledge, 2016. – 198 p.

3. Azizova D. Maxsus ehtiyojli bolalarga til o‘rgatish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019. – 144 b.

4. Brown H.D. Teaching by Principles. – USA: Pearson Education, 2015. – 312 p.

5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – UK: Longman, 2012. – 384 p.

6. Karimov A. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 190 b.

7. Rasulov N. Ingliz tili va nutq malakalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 156 b.

8. Richards J.C., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2014. – 270 p.

9. UNESCO. Teaching Children with Visual Impairments. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 158 p.

10. Yusufova S. Audio vositalardan foydalanish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 132 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muxtasar Muxtoraliyeva Akramjon qizi
NamDU tayanch doktoranti
E-mail: muxtasar.muxtoraliyeva17@mail.com

SUN'IY INTELEKT VA TA'LIM YUTUQLARINI BAHOLASH: PEDAGOGIKA YO'NALISHIDAGI TALABALAR MISOLIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim yutuqlarini baholashdagi roli pedagogika yo'nalishidagi talabalar misolida tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi qo'llanilishi, ayniqsa, talabalar yutuqlarini baholashda, o'qish samaradorligini aniqlash va individual o'qish yondoshuvlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Maqolada sun'iy intellekt tizimlarining avtomatik baholash, real vaqt rejimida fikr-mulohaza berish va talabalarning yutuqlarini tahlil qilishdagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida talabalar o'z bilimlarini qanday ravishda mustahkamlashlari va rivojlantirishlari mumkinligi, o'qituvchilarga esa o'z faoliyatini yanada samarali va aniqlik bilan tashkil etish imkonini beruvchi metodikalar taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, ta'lim yutuqlarini baholash, pedagogika yo'nalishi, individual o'qish, ta'lim samaradorligi.*

М.А.Мухторалиева
докторант НамГУ

ОЦЕНКА ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ: НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ПЕДАГОГИКИ.

Аннотация: *В данной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в оценке образовательных достижений студентов в области педагогики. Применение искусственного интеллекта в образовательном процессе имеет большое значение, особенно при оценке успеваемости учащихся, определении эффективности обучения и разработке индивидуальных подходов к обучению. В статье рассматриваются возможности систем искусственного интеллекта в автоматическом выставлении оценок, обратной связи в режиме реального времени и анализе достижений учащихся. Также с помощью искусственного интеллекта представлены способы, с помощью которых учащиеся могут укреплять и развивать свои знания, и методы, которые позволяют преподавателям более эффективно и точно организовывать свою деятельность.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, оценка образовательных достижений, педагогика, индивидуальное обучение, эффективность образования, успеваемость учащихся.*

M.A. Mukhtoralieva
doctoral student of NamSU

ASSESSMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND EDUCATIONAL ACHIEVEMENTS: AS AN EXAMPLE OF STUDENTS IN THE FIELD OF PEDAGOGY.

Abstract: *This article analyzes the role of artificial intelligence technologies in the assessment of educational achievements in the case of students in the field of pedagogy. The application of artificial intelligence in the educational process is of great importance, especially in the assessment of student achievement, the determination of learning efficiency and the development of individual learning approaches. The article examines the potential of artificial intelligence systems in automatic grading, real-time feedback, and student achievement analysis. Also, with the help of artificial intelligence, how students can strengthen and develop their knowledge, and methods that allow teachers to organize their activities more efficiently and accurately are presented.*

Keywords: *Artificial intelligence, educational achievement assessment, pedagogy, individual study, educational effectiveness.*

Kirish.

Budungi kunda sun'iy intellekt zamonaviy ta'lim tizimining muhim bir qismi bo'lib, talabalarning yutuqlarini baholashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, pedagogika yo'nalishidagi talabalar uchun ta'lim

yutuqlarini aniqlash va baholash jarayonlari ancha murakkablashgan.

Pedagogika fanlari o‘qituvchilari uchun, masalan, talabalar bilimini aniq baholash, ularning individual ehtiyojlarini inobatga olish va ta’lim samaradorligini oshirish katta ahamiyatga ega. Shu bois, sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi bu jarayonni ancha osonlashtirishi va samarali qilishi mumkin. *Sun’iy intellektning ta’limdagi roli*. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qish va o‘rganish jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun sun’iy intellekt tizimlari avtomatik baholash va real vaqt rejimida fikr-mulohaza berish kabi imkoniyatlar yaratadi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini yaxshilash va o‘qituvchilarga talabalar bilan samarali ishlash imkonini beradi.Sun’iy intellektning ta’lim yutuqlarini baholashdagi eng katta afzalligi – bu tizimlarning talabalarning individual ehtiyojlariga moslashishidir. Masalan, sun’iy intellekt yordamida talabalar tomonidan bajarayotgan testlar va vazifalar talabaning o‘rganish tempi va bilim darajasiga qarab avtomatik tarzda sozlanadi. Bu esa har bir talabaga o‘ziga xos yondoshuvni taqdim etadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashda ham yordam beradi. Agar bir talabada aniq bir mavzu bo‘yicha bilim yetishmovchiligi bo‘lsa, sun'iy intellekt tizimi ushbu zaif tomonlarni tezda aniqlab, unga mos keladigan o‘quv materiallarini va mashqlarni tavsiya etadi.

Zamonaviy texnologiyalar rivoji ta’lim jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, yangi talablarni shakllantirmoqda. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning loyihaviy-dasturiy kompetensiyasini rivojlantirish raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga chuqur integratsiya qilishni talab etadi. Ushbu kompetensiya talabalarning amaliy bilimlarini mustahkamlash, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va professional muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo‘ladi. Loyihaviy-dasturiy kompetensiya texnikada va informatika fanlarida muammolarni hal etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya talabaning texnik jarayonlarni o‘rganish, muammolarni tahlil qilish, dasturiy ta’minot yaratish va uni dasturiy texnologiyalar yordamida amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, loyihaviy-dasturiy kompetensiya talabalarni jamoada ishlashga, innovatsion yechimlar topishga va o‘z ishlanmalari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rgatadi. R.X.Djuraevning tadqiqotlarida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishning nazariy va metodologik aspektlari o‘z aksini topgan. O‘.Tolipovning konsepsiyasiga muvofiq, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim oluvchilarda umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish, ta’lim mazmunini yangilash, yangi metod va vositalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish, tajriba sinov ishlarini amalga oshirish hamda uslubiy tavsiyanomalarni ishlab chiqish ta’lim tizimini isloh qilishning zaruriy shartidir. O‘.T.Tolipovning ilmiy tadqiqotlari bo‘lajak mutaxassislarning umummehnat va umumkasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muammolarini yoritilib, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlariga bag‘ishlangan. D.N.Mamatovning “Elektron axborot-ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish” nomli dissertatsiya ishida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida elektron axborot ta’lim muhitini loyihalashtirishi ko‘rsatilgan. Ta’lim muhitini loyihalash rivojlantiriluvchi kompetentlik komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, ta’lim funksiyalari, innovatsion yondashuvlar asosida ochib berilgan. Pedagog olim N.A.Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisida pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etib, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. J.A.Hamidovning tadqiqotlarida ta’lim komponentlari uzviyligi asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishda zamonaviy o‘qitish vositalarini (o‘quv materialini differensial taqdim etish; o‘quv materialini ta’lim oluvchilar tayyorgarlik darajasiga qarab taqdim etish; baholash, boshqarish, turli shaklda nazorat qilish; interfaol muloqotni amalga oshirish) didaktik imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Kompetentli yondashuv metod sifatida o‘quv jarayonini tashkil etish, uni kelajakdagi kasbi uchun muhim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirish imkonini beradi. Kompetenttli yondashuvni tashkil etuvchi tamoyillar ta’limning maqsad va mazmunini aniqlash, ta’lim va tarbiya natijalarini baholashning tashkiliy shakllari va usullarini tanlash imkonini beradi hususan, texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni loyihaviy-dasturiy kompetensiyasini raqamli texnologiyalar asosida shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari ishlab chiqildi. Ta’riflar, tahlillar nazariy asos, yondashuvlar va tamoyillar motodologik asos sifatida qaraldi. Raqamli ta’lim muhiti nazariyasi rivojlanishining zamonaviy darajasi raqamli texnologik yondashuvning bazaviy tushunchasi bo‘lgan raqamli ta’lim tushunchasi barcha uchun umumiylik xususiyatiga egaligi sababli so‘zsiz ravishda falsafiy kategoriyaga taalluqliligini isbotlash imkonini beradi.

Mark Prenskining “Digital Natives, Digital Immigrants” (“Raqamli dunyo sohiblari, raqamli dunyo muhojirlari”) nomli maqolasida bugungi kun tinglovchilariga quyidagi ta’rifni beradi: “Hozirda tinglovchilarimiz batamom o‘zgargan. Zamonaviy tinglovchilar endilikda biz ishlab chiqqan ta’lim tizimimizga ko‘ra o‘qitiladigan kishilar emas”. Maqolada bugunning tinglovchilari “Digital Natives” – “Raqamli dunyo sohiblari”– bugungi kunda kompyuter, video o‘yinlari va internetning raqamli tilida o‘z ona tiliday so‘zlashuvchi yoshlar sifatida ta’rif beriladi. Ta’lim sohasi vakillari o‘qituvchilarga esa “Digital Immigrants” – “raqamli dunyo muhojirlari” – raqamli, elektron dunyoga moslashayotgan, yangi texnologiyalarning ko‘pgina qirralarini endi qabul qilayotgan kishilar sifatida baho beriladi. [5]

Loyihaviy-dasturiy kompetensiyaning shakllantirilishidagi muhim omillar

❖ **Nazariy bilimlar va metodologiya**: Loyihaviy va dasturiy menejmentning asosiy nazariy tamoyillarini o‘rganish, ularni to‘g‘ri qo‘llash. Bu metodologiyalar, standartlar va yondoshuvlarni bilish.

❖ **Muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish**: Loyihani amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularga samarali yechimlar ishlab chiqish. Dasturiy loyihalarda qaror qabul qilish jarayonlari va risklarni boshqarish zarur.

❖ **Innovatsion yondashuvlar**: Texnologiyalar va metodologiyalarning yangilanishi bilan birga, loyiha va dasturiy ishlab chiqish jarayonida innovatsiyalarni qo‘llash, yangi texnologiyalarni o‘rganish va tatbiq etish.

❖ **O‘z-o‘zini rivojlantirish**: Har bir loyiha boshqaruvchisi va dasturchi o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab turishi, o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirishga harakat qilishi kerak.

Bu omillar loyiha va dasturiy kompetensiyani shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning har biri muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Xulosa.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dasturiy vositalardan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki talabalarning raqamli kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega mutaxassislarga talab yuqori bo‘lib qolmoqda. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni loyihaviy-dasturiy kompetensiyasini shakllantirish, ular uchun nafaqat zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, balki jamoada ishlash, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va o‘z ishlanmalari uchun javobgarlikni his qilish muhimligini anglatadi. Ta’lim tizimida bu kompetensiyaning shakllantirilishi talabalarni nafaqat amaliyotga tayyorlaydi, balki ularni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ham faol jalb etadi. Loyihaviy-dasturiy kompetensiyaning shakllanishi uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, ayniqsa, kompyuter dasturlari va muhandislik vositalaridan samarali foydalanish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘quv jarayonlarini tashkil etish zarur. Shu bilan birga, talabalar o‘z faoliyatida loyiha va dastur ishlab chiqish, jarayonlarni optimallashtirish, xatoliklarni tahlil qilish va takomillashtirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli farmoni. https://lex.uz/docs/4545884
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. https://lex.uz/docs/3107036
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
4. Bagautdinov, B.A. (2018). *Loyihaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalari.* Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. https://uza.uz/uz/posts/ra-amli-talim-u-nima-va-bizga-nima-beradi--05-04-2020
6. Abdullayev S., Raximov A., & Karimov B. (2023). Texnik oliy ta'limda virtual laboratoriyalardan foydalanish istiqbollari. Ta'lim texnologiyalari, 15(2), 45-52.
7. https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2544-980X
8. Sattarov, A. (2020). Dasturiy ta’minot yaratish va uning pedagogik yondashuvlari. Tashkent: Innovatsiya va Ta’limni rivojlantirish markazi.
9. Guseynov, I., & Karimov, S. (2019). Axborot texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni. Tashkent: Science and Technology Publishing.
10. Shonazarov, S. (2021). Loyihaviy o‘qitish metodologiyasi: Nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Tashkent: Innovatsion ta’lim markazi.
11. Sultonov, T. (2017). *Oliy ta’limda pedagogik innovatsiyalar.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi.
12. Soliev, B., & Yusupov, D. (2016). *Loyihaviy ta’lim metodologiyasi va uning amaliyoti.* Tashkent: Iqtisodiyot va Ta’lim nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi
FarDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
nodirabegim3363@icloud.com

UDK361.1(075)

BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kompetentlik tushunchasi, kasbiy kompetentlik, kompetentli yondoshuv, kasbiy kompetentli o'qituvchi, bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish - pedagogik muammo sifatida qaralsa, amalga oshirilishi zarur bo'lgan ba'zi bir ishlar, kasbiy kompetentlikda kompetensiya tushunchasi va bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlikni shakllantirishda nazariy tayyorgarlikning shakllariga e'tibor qaratish zarurligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, bo'lajak surdopedagoglar, kompetentli yondoshuv.*

Алимова Нодирабегим Ибрагимжановна
Преподаватель кафедры дошкольного образования ФарГУ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЖЕСТОВОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются понятия компетентности, профессиональной компетентности, компетентностного подхода, профессионально компетентного педагога, формирования профессиональной компетентности будущих учителей жестового языка - часть работы, которую необходимо провести, понятие компетентности в профессиональной компетентности и профессиональном развитии будущих учителей. Обсуждается необходимость акцентирования внимания на формах теоретической подготовки в формировании компетентности.*

Ключевые слова: *компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, будущие учителя жестового языка, компетентный подход.*

Olimova Nodirabegim Ibrahimjan kizi
Teacher of the Department of preschool education of FarSU

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SIGN LANGUAGE TEACHERS

Abstract. *This article discusses the concept of competence, professional competence, competent approach, professionally competent teacher, the formation of professional competence of future sign language teachers - some of the work that needs to be done if it is considered as a pedagogical problem, the concept of competence in professional competence and the need to pay attention to the forms of theoretical training of future teachers in the formation of professional competence.*

Keywords: *competence, professional competence, competence, future sign language teachers, competent approach.*

Kirish (Видение/Introduction).

So'ngi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, surdopedagog kadrlarni tayyorlash tubdan isloh qilinmoqda. Dunyo sahnalarida o'zining munosib o'rniga ega, kuchli bilimli, mehnat bozorida raqobatbardosh, salohiyatli, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan kadrlar shuningdek, bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, o'qitish sifati va samaradorligini ko'tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish ilmiy savodxonligini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi,

baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1]deb bejizga ta’kidlanmaganligini aytib o‘tamiz.

Ta’lim muassasalarida aynan shunday nuqtai-nazar bilan yondashilib kelinayotganligi, barkamol shaxs, innovatsion kasbiy va shaxsiy kompetentlik masalasi diqqat markazda ekanligi o‘z samarasini beradi albatta.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods).

Kompetentlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaffaqiatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo‘lish», «sifot», «miqdor» so‘zlari yordamida ta’riflanadi, shu bilan birga ko‘pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L. Spenser va M. Spenserlarning ta’kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o‘lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi [2]Dj. Raven kompetentlikni biror bir ob’yekt yoki ob’yektlar sinfiga ko‘ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak[3] - deb hisoblaydi. Natijada ma’lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo‘ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma’noga ega bo‘ladi - deb tushuntiradi. Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o‘qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma’naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas’uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo‘lishi, o‘z o‘quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o‘z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya’ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o‘ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi.

Mashhur amerikalik psixolog, gumanistik psixologiya asoschisi A.X.Maslou kreativlikni 2 turga ajratadi.

1. Iste’dodning kreativligi;
2. Shaxsning o‘zini-o‘zi aktuallashtirish kreativligi.

Shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli biz unga kundalik hayotimiz davomida va kasbiy faoliyatning ko‘p sohalarida duch kelamiz. Psixolog A.X. Maslou kreativlikda o‘z-o‘zini aktuallashtirishning ikki darajasini aytib o‘tadi: - ixtiyorsiz kreativlik - ixtiyoriy kreativlik. [4]A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatiga xos deb ta’riflaydi. Ya’ni barcha insonlar layoqat bilan dunyoga keladi, olingan bilimlar, izlanishlar, o‘rganishlar asosida qobiliyatga aylanadi va uning ustida mukammal, kengroq ishlash oqibatida iste’dod yuzaga chiqishini bilamiz. Qobiliyat, iste’dod layoqatligicha qolib ketishi ham mumkin. Bu har bir insonnig o‘ziga bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati eng avvalo o‘zini anglash, mustaqil va maqsadli qarash, tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil etishdagi qobiliyatlilik, analitik fikrlash, olingan bilimlarni amaliyotda qollay olish, yaratuvchanlik ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Natijalar (Результаты/Results).

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog‘liqligini N.V.Kuxarev shunday ta’riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o‘qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to‘plami».[5] A.K.Markova o‘qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mehnatida qo‘llashni bilishi kerak. Bundan tashqari, bo’lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o’ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir.

Kompetensiya - o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri

[1] Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi”

[2] Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Компетенции и компетентность // Вестник ЮУрГУ. - 2009

[3] Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. - 2005.

[4] Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariymetodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007

[5] Kushvaktov N.X. O‘quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o‘rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006

kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek pedagogik xarakterdagi ijodkorlik, yaratuvchanlikka alohida e’tibor qaratishi zarur. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlanadi Kreativlik (lot., ing. “create” - yaratish, “creative” - yaratuvchi, ijodkor) - ta’lim oluvchining yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik bir xillikdan qochish, ijodkorlik, yaratuvchanlik, ma’lum bir narsaga yangicha yondashish ko‘nikmasidir.[6] Aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi diqqat markazida bo‘lgan. Ta’lim sohasidagi sifat samaradorlik ularning jahon ta’limi talablari bilan mosligi va pedagoglarning o‘zlashtirgan kasbiy kompetensiyalarini kelgusi mehnat faoliyatidagiamaliyotga tatbiq qilish darajasi bilan bog‘liq

Muhokama (Обсуждение/Discussion).

Bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirishda eng avvalo, o‘qitishda talabaning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish va ko‘zlangan maqsadga erishish muhim sanaladi. Kompetentlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilansa, innovatsion kasbiy kompetentlik esa talabaning shaxsiy imkoniyatlari yig‘indisi, uning o‘z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatda o‘rinli va maqsadli qo‘llay olish qobiliyatidir. Innovatsion kasbiy kompetentlikning shakllanishida asosiy o‘rinni talabaning mustaqil faoliyati egallaydi.

Mustaqil faoliyat talabaning kasbiy faoliyatini yanada chuqurroq egallashi uchun xizmat qiladi. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, mustaqil faoliyat talabani har qanday sharoitda va holatda o‘zining salohiyatlarini to‘laqonli ishga solish, amaliy faoliyatlariga tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bu esa kasbiy kompetensiyaning takomillashib borishiga asos bo‘lib xizmatqiladi. Bir so‘z bilan aytganda, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Mamlakatimizda shaxsni har tomonlama kamol topishi, ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish, ulardagi shijoatni yanada oshirish, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ta’limda noan’anaviylik, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, turli xildagi o‘qitish metodlarni, dasturlarni amaliyotda maqsadli ravishda qo‘llagan holda ta’lim jarayonlarini tashkil etish, talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo‘lib hizmat qilmoqda. Talabaning kasbiy faoliyatida kreativlik muhim tavsif hisoblanadi. Kreativlik bu - talaba o‘zining ijodiy faolligini namoyon etish qobiliyatidir. Qaysidir ma’noda yangi va foydali biror bir ishning yoki narsaning yaratilishiga hissa qo‘shadigan fenomen. Odatda bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobilyatga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilishi, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Bu qobilyati doimiy ravishda o‘qib-o‘rganishlar, yangilikka intilish, izlanishlar, muntazam harakatlar orqali shakllantiriladi va takomillashib, mukammallashib boradi. Bu o‘z navbatida talabaga yaratilga muhitga ham bog‘liqdir. Bunda talaba o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi, maqsadli harakatlarda erishishi, natijadorlikni qo‘lga kiritishi va bu faoliyatlarni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega..

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkinki, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o‘qituvchilar o‘z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko‘rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg‘usini, hatti - harakatini rivojlantirishi va ta’sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta’minlash, pedagogik jarayonni o‘qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta’limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi”

2. Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Компетенции и компетентность // Вестник ЮУрГУ. - 2009.

3. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariymetodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007.

[6] G‘ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004

4. Kushvaktov N.X. O‘quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o‘rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006.
5. Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. - 2005.
6. G‘ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004.
7. www.ziyonet.uz
8. www.edu.uz
9. www.uzedu.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Kuychiyeva Mo'jizaxon Abdumannobovna
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent
G-mail:mujizaxonkuychiyeva88@gmail.com
E-mail: kuychiyevamujizaxon@mail.ru

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA STEAM TA'LIMI VA INTEGRATSIYA

Annotatsiya: *Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. Malaka oshirish jarayonida tabiiy fan o'qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan STEAM ta'limi, fanlararo integratsiya, kompetensiya – uzluksiz ta'lim tizimida tabiiy fanlarini o'qitish jarayonini samarali tashkil uchun zarur bo'lgan va aniq belgilab berilgan kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan ijtimoiy talablardan ham o'zib ketishidir. Tadqiqot natijasida malaka oshirish jarayonida tabiiy fan o'qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan STEAM ta'limi, fanlararo integratsiya asosida tabiiy fanlar ta'limni tashkil etishga doir vazifalarni hal etishda faoliyat sohasiga doir bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish qobiliyati va tayyorgarligini o'zida aks ettiradi.*

Kalit so'zlar: *STEAM, kreativ, tadqiqotchi,kompetensiya, kognitiv va motivatsion komponent, integratsiya, fanlararo kompitentlik, umumkasbiy, biologiya sohasiga oid kompitentlik.*

Куйчиева Мужизахан Абдуманнобовна
Заведующий отделом методологии точных и естественных наук
Педагогического центра Андижанской области, (PhD), доцент

STEAM ОБРАЗОВАНИЕ И ИНТЕГРАЦИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация: *Современное общество требует от системы образования воспитания высоко квалифицированных, амбициозных, конкурентос пособных, предприимчивых, духовно и физически здоровых людей. С точки зрения подготовки преподавателей естествознания в процессе профессионального развития, STEAM-образование, междисциплинарная интеграция, компетентность необходима для эффективной организации процесса преподавания естествознания в системе непрерывного образования и превосходит социальные требования к четко определенной профессиональной подготовке. В результате исследования STEAM-образование с точки зрения подготовки учителей-естественников в процессе профессионального развития отражает способность и готовность использовать знания, умения и компетенции, относящиеся к сфере деятельности, при решении задач, связанных с организацией естественнонаучного образования на основе междисциплинарной интеграции.*

Ключевые слова: *STEAM, креатив, исследователь, компетентность, когнитивно-мотивационный компонент, интеграция, междисциплинарная компетентность, общепрофессиональная, компетентность в области биологиии.*

Kuychiyeva Mo'jizaxon Abdumannobovna
Head of the Department of Methodology of Exact and Natural Sciences
Andijan Regional Pedagogical Skills Center, PhD, Associate Professor

EDUCATION AND INTEGRATION IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN THE PROCESS OF IN-PROGRAMME DEVELOPMENT

Annotation: *Modern society places a demand on the education system to educate highly qualified, ambitious, competitive, enterprising, spiritually and physically healthy individuals. From the point of view of training natural science teachers in the process of in-progress training, STEAM education, interdisciplinary integration, competence - is a necessary and clearly defined social requirement for professional training, which is necessary for the effective organization of the process of teaching natural sciences in the system of continuous education. As a result of the research, from the perspective of training natural science teachers in the process of*

professional development, STEAM education reflects the ability and readiness to use knowledge, skills and competencies in the field of activity in solving tasks related to the organization of natural science education based on interdisciplinary integration

Key words: *STEAM, creative, research, competence, cognitive and motivational component, integration, interdisciplinary competence, general professional, competence in the field of biology.*

Kirish.

Mamlakatimizda ta'limga e'tibor davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Davlatning qudrati va boyligi uning yer osti, yer usti boyliklari bilan baholanmasdan balki uning intelektual salohiyati bilan baholanadi. Respublikamizda so‘ngi yillarda ta'limga yangi innovatson g‘oyalarni joriy qilish uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5538 Farmonida ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish, maktablarni, shu jumladan, o‘quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish jarayoni samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqilishi kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Adabiyotlar tahlili.

STEAM ta'limi asosida tabiiy fan o‘qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan STEAM ta'limi, fanlararo integratsiyaning nazariy-metodik asoslari R.Ahadov, A.Bahromov, G.Ergasheva, A.Ismailov, A.Jabborov, I.H.Hamdamov, M.Nuriddinova, M.Raximqulova, M.B Suyarov, Z.Sangirova, A.To‘xtaev, M.K.Shirinovlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridan T.Anasimova, D.Axmetova, T.Bochkareva, Y.Daurenov, S.Daurenova, D.Ermetova, I.Koshbaxtiyev, F.Sobirova, V.Vasilev, O.Shatunova, D.Cherchill, O.Shebalina kabi integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarga yaxlit nuqtai nazarni berganligi va ayniqsa, XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lganligi yuzasidan o‘z tadqiqotlarida bayon etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik konsilium, modellashtirish, so‘rovnoma, test, matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Mamlakatimizda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasiga oid J.O.Tolipovaning [2] "Biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligini orttirishning nazariyasi va amaliyoti", A.K.Raximovning[3] "Innovatsion ta'lim muhiti sharoitida o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti", M.M.Isabayevaning "Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish tizimi (5–9-sinflar misolida)", J.J.Karbozovaning[5] "Bo‘lajak o‘qituvchilarni elektron ta'lim resurslarini loyihalashga tayyorlash" hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida N.P.Stepanovaning "Talabalarning ilmiy jamiyati sharoitida biologiyani o‘qitish metodikasini rivojlantirish", S.B.Baxvalovaning "Pedagogika universitetida universitetgacha ta'lim bosqichida biologik tayyorgarlikning integral modulli metodologiyasi", T.A.Bespamyatnixning [8] "Umumiy biologiya fanini chuqur o‘rganishda talabalarning o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlari metodikasi", N.B.Firsovaning "O‘quvchilarning ekologik faoliyatini tashkil etish asosida biologiya fanini o‘qitish sifatini oshirish", O.V.Bogomolovaning tabiiy fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha innovatsion o‘quv-uslubiy majmuadan foydalangan holda aks ettiruvchi ta'lim tizimini loyihalash" kabi ilmiy-tadqiqot ishlarini ko‘rish mumkin.

Dastlab, juda ko‘p sohalarni o‘z ichiga olgan STEM darsini rejalashtirish istiqboli qo‘rqinchli tuyulishi mumkin, ammo o‘quv dasturini ishlab chiqish juda qiziqarli jarayon bo‘lishi mumkin . Buning sababi shundaki, STEM o‘qitish nafaqat o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli o‘rganish tajribasi, balki siz uchun ham qiziqarliroq bo‘lishi mumkin. Bu o‘rgatish mazmunini o‘rganish haqida emas, balki ijodkorlikni rag‘batlantiradigan muhit yaratish haqida.

O‘quvchilaringiz eng yaxshi ta'lim tajribasiga ega bo‘lishlarini ta'minlash uchun darslaringizni rejalashtirishda bir nechta narsalarni yodda tutish kerak. Yaxshi STEM darsi:

Eng yaxshi STEM darslari amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi, bunda o‘quvchilar kontseptsiyani loyihalashda yoki o‘zlari biror narsani yaratish va qurishda qo‘llaridan foydalanishlari mumkin. Shunday qilib, o‘quvchilar zerikish yoki chalg‘itish ehtimoli kamroq bo‘ladi, shuningdek, yakuniy mahsulotni baholash uchun ular uchun foydalidir.

Haqiqiy hayot stsenariylariga taqlid qiling. Bu amaliy o‘rganish juda muhim bo‘lgan yana bir sababdir. STEM-ning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u

o‘quvchilarga tashqi dunyoda darhol foydali bo‘ladigan ko‘nikmalarni o‘rganishga yordam beradi. An'anaviy maktablarning aksariyati amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatadi va sizning maqsadingiz o‘quvchilaringizni haqiqiy hayotga tayyorlashdir.

O‘quvchilaringiz tugatgan matematika va fan ularning joriy loyihasiga mos kelishi, real stsenariylarga mos kelishi va oxir-oqibat maqsadga xizmat qilishi kerak. Misol uchun, ehtimol matematik tenglamalar ularning dizayni to‘g‘ri ishlashini ta'minlaydi yoki tabiiy fanlar bilimi ularga qandaydir narsalarni yaratishni tushunishga yordam beradi.


Darslarni rejalashtirish usullaridan biri muhandislik loyihalash jarayoni (MLJ) dan foydalanishdir. Bu o‘quvchilar loyihaning bir qismi sifatida muammolarni hal qilish uchun bir qator qadamlardir. Ushbu loyihaga asoslangan ta'lim strategiyasi ochiq dizaynlar, ijodkorlik va amaliy echimlarni rag‘batlantirishi kerak.

O‘quvchilaringizga ularning loyihasi yoki ular yaratmoqchi bo‘lgan narsalar haqida tanqidiy savollar berishdan boshlang. Bu nima uchun? Ular uni qanday loyihalashtiradilar? Darsning boshlanishini o‘quvchilaringizni qiziqtirishi va aqllarini ishga tushirish uchun imkoniyat sifatida foydalaning.

Tadqiqot

Bu o‘quvchilar uchun mavzu atrofida tadqiqot qilish vaqti, bu siz bilan suhbatlashish, STEM ko‘ngillisi bilan ishlash, tadqiqot qilish uchun noutbukdan foydalanish yoki tegishli videolarni tomosha qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar o‘quvchilarga qanday o‘xshash mahsulotlar yoki echimlar mavjudligini aniqlashga yordam beradi va ularga qanday qilib yaxshiroq qilish mumkinligini bilishga yordam beradi.

Hozirgi fan-texnika rivojlanishi sharoitida inson va tabiat munosabatlari murakkablashib, turli ekologik muammolar ko‘lami kengayib borayotgan vaqtda maktablarda tabiiy fan fanini mazmun jihatdan yangicha o‘qitish zamon talabiga aylanib bormoqda(1-rasm).



1-rasm.Tabiiy fanlarni o‘qitishning muhim xususiyatlari.

Tadqiqotchilar M.I.Nuriddinova, M.K.Shirinovning tadqiqot ishlarida umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Atrofimizdagi olam”,“Tabiatshunoslik” fanlarini o’qitish muammolari[9], A.K.Raximov, F.I.Ochilov, Z.Sangirovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida esa tabiiy fanlarni kompetentsiyaviy yondashuv asosida o’qitish metodikasi masalalari o’rganilgan[9].

Yuqoridagi tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, ilmiy-tadqiqot ishlarida tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish metodlari o‘rganilgan bo‘lsada, mazkur jarayonda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish e’tiborga olinmagan.

Olimning fikridan kelib chiqqan holda va tadqiqot natijalari asosida kompetensiyalar nafaqat o‘z ichiga bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq zaruriy vaziyatlar, qadriyatli-motivatsion komponentlar, qobiliyatlarni ham qaram oladi, degan xulosaga kelindi.

Xulosalar.

STEAM ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish

yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, soʻngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni oʻyinlarda konstruktsiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qoʻllab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta'limi oʻquvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bogʻlaydi. Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bogʻliq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qoʻllaniladi, muhandislik esa uylar, yoʻllar, koʻpriklar va mashina mexanizmlarda oʻz aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mashgʻulotlarimiz ozmi- koʻpmi matematika fani bilan ham bogʻlangandir.

STEAM ta'limi asosida yondashuv oʻquvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda oʻrganishga, atrofda roʻy berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi oʻzaro aloqani anglab yetishga oʻzi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali oʻquvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, oʻzi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

Foydanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xoʻjanazarov Oʻ., Togʻayeva G. "Biologiya fanini oʻqitish metodikasi" moduli boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta`lim xodimlarini kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, Toshkent, 2017.

2. Mutalipova M., Imomov M. Ta`limda ilgʻor xorijiy tajribalar moduli boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017

3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., Toʻrayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015

4. Alyaminov X. Oʻquvchilarga badiiy-estetik ta'lim berishda oʻlkashunoslik materiallaridan foydalanish: Ped.fan.nom.diss....avtoref. –Toshkeni: TDPU, 2007. -23 b.

5. Mardonov SH.Q., Rabbimova F.T. Boʻlajak biologiya oʻqituvchilarini oʻquvchilarga tabiatni idrok qilishga oʻrgatishga tayyorlash. OʻzMU xabarlari, № 3/2. –Toshkent, 2015, 83-86 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mamatova Nasibaxon Kozimbekovna
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
nasiba-8785@mail.ru

UDK: 81

KONSEPTLARNING TARKIBIY VA MAZMUNIY TURLARI

Annotatsiya: *Konsept konseptual tilshunoslik nazariyasining asosiy tushunchasidir. Bu atama XX asr oxiridan boshlab tilshunoslikda o'z aksini topa boshladi. Tilshunoslikdan ma'lumki, "konsept" atamasi fanda bitta aniq ta'rifga ega emas. Kognitiv tilshunoslik tarafdorlari konseptlar inson ongi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar.*

Kalit so'zlar: *Konsept, konkret konseptlar, mavhum konseptlar, nazariy konseptlar.*

Маматова Насибахон Козимбековна
Базовый докторант Андижанского государственного института иностранных языков

СТРУКТУРНО-СОДЕРЖАТЕЛЬНЫЕ ТИПЫ ПОНЯТИЙ

Аннотация: *Понятие является основным понятием теории концептуального языкознания. Термин начал отражаться в лингвистике с конца XX века. Из лингвистики известно, что термин "понятие" не имеет единого четкого определения в науке. Сторонники когнитивной лингвистики утверждают, что концепции тесно связаны с человеческим разумом.*

Ключевые слова: *Концепт, конкретные понятия, абстрактные понятия, теоретические понятия.*

Mamatova Nasibaxon Kozimbekovna
Doctoral Student (Phd) of Andijan State Institute of Foreign Languages

STRUCTURAL AND SUBSTANTIVE TYPES OF CONCEPTS

Abstract: *The concept is the basic concept of the theory of conceptual linguistics. The term began to be reflected in linguistics since the end of the 20th century. It is known from linguistics that the term "concept" it does not have a single clear definition in science. Proponents of cognitive linguistics argue that concepts are closely related to the human mind.*

Key words: *Concept, concrete concepts, abstract concepts, theoretical concepts.*

Kirish.

Konseprt atamasi birinchi marta 1928-yilda S.A.Askoldov tomonidan kiritilgan bo'lib, u konseptni "Fikrlash jarayonida bir xil turdagi obyekt, harakat va mental funksiyalarning noaniq sonini ifodalovchi mental qurilish", deb ta'riflagan.[1,267] D.S.Lixachev konsept haqida til egalarining ma'lumoti va shaxsiy tajribasi ta'sir qiladigan mental birlik sifatida o'z fikrini bildirgan. [2,3-9]

Hozirgi kunda "konsept" atamasi kognitiv semantika orqali dunyo va jamiyat haqidagi tasavvurlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Z.D.Popova va I.A.Sternin turli tadqiqotchilar "konsept" atamasini har xil talqin qilishlarini ta'kidlaydilar. [3,192] Har bir tarixiy davr mafkura va siyosiy e'tiqod kabi shaxslarning o'zgaruvchan afzalliklarini aks ettiruvchi doimiy harakatda bo'lgan o'ziga xos konseptlarni ifodalaydi. Ba'zi konseptlar uzoq vaqt davom etishi, boshqalari esa qisqa muddatli bo'lishi mumkin. Jamiyat va siyosat bilan bog'liq konseptlar mamlakat ichidagi yoki butun dunyodagi holatlar kabi tez o'zgarib turadi.

Konseptual tahlilning mohiyati konseptni tushunishdir. Biroq konseptning mohiyatini tushuntirish butunlay boshqacha. Asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: konsept dunyo haqidagi bilimlarni ifodalash birligi bo'lib xizmat qiladi. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik inson ongida paydo bo'ladi, bu bizga konseptni mazmunli atributlarga ega noaniq g'oya sifatida tasvirlash imkonini beradi. Konseptlar madaniyatning muhim tarkibiy qismidir va ko'pincha lug'atlarda maxsus baholash me'yorlari (masalan, rasmiy, norasmiy va boshqalar) bilan belgilanadi. Binobarin, o'tgan asrda muhim bo'lgan ko'plab konseptlar bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotdi, chunki vaqtlar o'zgarib, ba'zi asosiy elementlar yo'q bo'lib ketmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Konseptlar ular qo‘llanadigan davrni aks ettiradi, moslashuvchanlik va ko‘p funksionallikni namoyish etadi. Hozirgi vaqtda “konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda keng qo‘llanadi.

Konsept bilan bog‘liq eng qiziqarli nazariya Y.D.Apresyanga tegishli bo‘lib, u uchta asosiy qoidadan iborat. Bular quyidagilar:

1) har bir til jamiyatni idrok etishning o‘ziga xos usuliga ega va unga yetkazilgan ma’no o‘ziga xos munosabat hamda til tizimini yaratadi;

2) dunyoni bilish jarayoni ham ko‘p funksiyali, ham individualdir;

3) insonning dunyoga bo‘lgan munosabati. [4,472]

V.N.Teliyaning fikricha, “konsept shaxsni ifodalovchi, uning ongini shakllantiradigan narsani anglatadi. Konsept – bu qayta yaratib bo‘lmaydigan, faqat lingvistik ifoda orqali o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan obyekt”. [5,288]

So‘nggi paytlarda olimlar “konsept” tushunchasini qayta ko‘rib chiqmoqdalar, bu esa ma’lum xususiyatlarni aniqlashga olib keladi. Konsept – bu inson tajribasining o‘ziga xos jihati bo‘lib, u so‘zlar orqali shakllantiriladi va tushuniladi.

Konseptlarni turlicha tasniflash mumkin. Tematik jihatdan ularni hissiy, ta’limiy kabi kategoriyalarga bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, pedagogik, diniy, siyosiy va tibbiy konseptlarning tasniflari mavjud. Konseptning mohiyati til yordamida yetkaziladi. Ba’zi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, alohida so‘zlar bilan ifodalangan konseptlar, shuningdek, qo‘shma gaplar yoki iboralarda ifodalangan konseptlar eng asosiy tushunchalar sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Boshqalar oddiy konseptlarni aniqlash uchun so‘z boyligini tahlil qilishda semantik yondashuvdan foydalanadilar. Konseptlar ongda paydo bo‘ladi va ularning o‘zgaruvchan tabiatini ta’kidlaydigan boshqa tushunchalar ta’sirida bo‘ladi. Dunyoda yangi obyekt va hodisalar paydo bo‘lishi bilan ular yangi konseptlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kompyuter ixtirosi Internet, Windows, Facebook, Telegram kabi yangi konseptlarni ishlab chiqishga olib keldi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda konseptlarni turkumlashning turli usullari mavjud. Bu kognitiv tilshunoslik duch keladigan dastlabki muammolardan biridir. Uning evolyutsiyasi konsept inson ongida turli xil bilimlarni birlashtiradigan atama ekanligini anglashga olib keldi. Konsept mazmun va ma’no jihatidan farq qiladigan fikrlash birligi bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar o‘zlari qamrab olgan bilimlarning tabiatiga asoslangan konseptlar tipologiyasini taklif qilishdi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Konseptlar fikrlash va bilishning asosiy birliklari bo‘lib, ular yordamida inson atrofdagi voqelikni tushunadi. Falsafa, kognitiv tilshunoslik va psixologiyada tajribani tasniflash hamda bilimlarni tuzish usullarining xilma-xilligini aks ettiruvchi tushunchalarning turli xil tarkibiy turlari ajralib turadi. Abstraksiya darajasi bo‘yicha tasniflash turlariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Konkret (aniq) konseptlar. Konkret konseptlar sezgi yordamida idrok etilishi mumkin bo‘lgan jismoniy mavjud obyektlarni anglatadi. Ular yuqori darajadagi ko‘rinishga ega va ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajriba asosida shakllanadi. [6,563] Masalan, *stol, yog‘och, mushuk, tosh, uy* kabi.

Konkret konseptlar odatda aniq fazoviy xususiyat va chegaralarga ega. Ular erta yoshda osonroq o‘zlashtiriladi va yanada murakkab mavhum tushunchalarni shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Neyrokognitiv tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aniq konseptlarni qayta ishlash miyaning tegishli obyektlarni idrok etish bilan bog‘liq sensor motorli zonalarini faollashtiradi. [7,458-470]

Mavhum konseptlar sezgi organlari tomonidan bevosita idrok etilmaydigan nomoddiy hodisa, fazilat, munosabat yoki g‘oyalarni anglatadi. Ular obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini mavhumlashtirish va muhim xususiyat hamda munosabatlarni ta’kidlash orqali hosil bo‘ladi. [8,1177-1187] Masalan, *erkinlik, go‘zallik, adolat, vaqt, haqiqat, raqam* kabi.

Mavhum konseptlar turli darajadagi mavhumlikka – aniq obyektlarning xususiyatlarini belgilashdan (qattiqlik, qizil) tortib yuqori falsafiy kategoriyalarga (borliq, modda) ega bo‘lishi mumkin.

Ilmiy nazariyalar doirasida shakllanadigan *nazariy konseptlar* alohida kategoriyani tashkil qiladi. Ular hodisalarni tushuntirish va voqelikning ilmiy modellarini yaratish uchun yaratilgan mental konstruksiyalardir. [9,300] Masalan, *atom, tortishish kuchi, gen, kvant holati, iqtisodiy sikl* kabi.

Nazariy konseptlar ko‘pincha boshqa konsept va nazariy munosabatlar tizimidagi o‘rni orqali aniqlanadi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri empirik referentlarga ega bo‘lmasligi mumkin va umuman nazariyaning bashoratlarini tekshirish orqali bilvosita tekshiriladi. Ilm-fan tarixi ilmiy bilimlarning rivojlanishi bilan nazariy konseptlarning evolyutsiyasini namoyish etadi (masalan, Demokritning “atom”idan zamonaviy kvant fizikasi evolyutsiyasiga qadar). [10,222]

Mantiqiy tuzilish bo‘yicha tasniflash konseptlarni sodda va murakkab konseptlarga ajratish mumkin. Sodda konseptlarni kichikroq tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin emas va ular ko‘pincha mantiqiy hamda falsafiy doirada fundamental, noaniq g‘oyalar sifatida xizmat qiladi. Jumladan, *borliq, nuqta, his-tuyg‘u* kabi.

Aksincha, murakkab konseptlar sodda tushunchalarni birlashtirish orqali shakllanadi va ularni alohida elementlarga ajratish mumkin. Masalan, *to‘g‘ri burchakli uchburchak, ikkinchi darajali bo‘lak, demokratik boshqaruv, barqaror rivojlanish* kabi.

Tahlil va natijalar.

J.Fodor tadqiqotiga ko‘ra, ba’zi tushunchalar “atomar” deb hisoblanadi va ularni boshqa tushunchalar yordamida aniqlash mumkin emas, bu tushunchalar nazariyasining mental atomlar sifatida asosidir, deb ta’kidlaydi. [11,81-82]

Umumiy konseptlar o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan obyektlarning kategoriyalarini bildiradi. Masalan, *odam, shahar, o‘simlik, sutemizuvchi* kabi.

Yagona konseptlar alohida, noyob obyekt yoki hodisalarni anglatadi. Bunga *Moskva, Napoleon, Yer sayyorasi, Eyfel minorasi* kabi konseptlarni kiritish mumkin.

Bo‘sh konseptlar haqiqiy dunyo bilan bog‘liq bo‘lmay, mantiq, matematika va ijodiy fikrlash uchun muhim sanaladi. Masalan, *doimiy dvigatel, dumaloq kvadrat, yakkashox.*

Ushbu turdagi konseptlarni mantiqiy va falsafiy o‘rganish Aristotel va o‘rta asr mantiqlariga (universallar muammosi) borib taqaladigan boy tarixga ega va analitik falsafadagi bo‘sh konseptlarni o‘z ichiga olgan ifodalarning to‘g‘riligi va shartlari bilan bog‘liq zamonaviy munozaralarda davom etadi.

Konseptlarni funksional roli bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

Kategorik konseptlar obyekt va hodisalar o‘rtasidagi eng keng tarqalgan atribut va munosabatlarni aks ettiruvchi dunyo haqidagi tushunchani tashkil etadigan eng muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, *modda, sifat, miqdor, sabab, makon, vaqt.*

Aristotel va Kant kabi buyuk faylasuflar inson idrokini shakllantiradigan asosiy kategorik tuzilmalarni aniqlashga intildilar. Zamonaviy kognitiv fan kategorik konseptlarni shakllantirishning filogenetik (evolyutsion) va ontogenetik jihatlarini, shuningdek, ularning neyrokognitiv asoslarini o‘rganadi. [12, 608]

Prototipik konseptlar kategoriyalarning tipik vakillariga (prototiplariga) asoslanadi va noaniq chegaralar bilan tavsiflanadi. Ushbu turdagi konseptlar kundalik fikrlashda tabiiy kategoriyalarga ajratish bilan chambarchas bog‘liq. Jumladan, *qush* (prototip – *chumchuq*), *meva* (prototip – *olma*), *mebel* (prototip – *stul*).

E.Roshning prototip nazariyasi konseptlarni zarur va yetarli xususiyatlar bilan aniqlashdagi klassik yondashuvga ziddir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odamlar prototiplar kategoriyasiga juda o‘xshash obyektlarni aniqlaydilar va tasniflaydilar, bu prototip tuzilishining psixologik asosliligini ta’kidlaydi. [13,573]

Tafakkurning asosiy birliklari sifatida konseptlar nafaqat tarkibiy, balki mazmunli kategoriyalar bo‘lib, ular yordamida inson kashf etadi va tushunadi. Konseptlarning mazmunli turlari voqelikning turli jihatlarini, inson tajribasi sohalarini va voqelikni konseptualizatsiya qilish usullarini aks ettiradi. Bunday konseptlarni turli guruhlarga ajratish mumkin. Jumladan:

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga ko‘ra, ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan, yurtimizda tabiat va uning komponentlarini muhofaza qilishga doir qabul qilingan Qonunlar butun jamiyat a’zolarining ekologik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan, hamda bu sohadagi muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyatga egadir. Ushbu qonunlar mazmuni ta’lim tizimining barcha turlaridagi didaktik materiallariga singdirilsa, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni yanada samarali bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Chunki, shu normativ-huquqiy asoslar tufayli mamlakatimizda ko‘p o‘rmon xo‘jaligi, qo‘riqxona, milliy bog‘, buyurtmaxonalar mavjudligi kafolatlanadi. Ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o‘simlik va hayvonlar

qo‘riqlanadi, ko‘paytiriladi va ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganiladi, tegishli chora-tadbirlar qo‘llaniladi.

Ekologik ta’lim ham ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonlarining tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ta’lim oluvchilarning ekologik ongi, ekologik savodxonligi hamda ekologik tarbiyasini rivojlantirish ishlarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi” 434-son Qarori [14] qabul qilindi. Mazkur Qaror bilan taqdim etilgan “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi” ekologik ta’limning dolzarbligini mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishidan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shishi zarurligi bilan belgilaydi .

Quyidagilar Konsepsiyani va bu boradagi tadbirlar rejasini amalga oshirish doirasida ustuvor yo‘nalishlar etib belgilangan:

1. "Ta’lim to‘g‘risida"gi va "Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

2. Ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

3. Ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish;

4. Ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

5. Ekologik ta’lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

6. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.

Xulosa va takliflar
(Conclusion/Recommendations).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fan va texnologiyalar taraqqiyoti doirasida o‘zgarayotgan turmush tarzidagi qulayliklar quvonchlari qatorida, ko‘plab ekotizimlar zaxirasi tugab borayotganligi, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish kabi ekologik muammolarning kengayishi inson uchun muammolar orttirib, kelajakda kutilayotgan taraqqiyotga jiddiy rahna solmoqda. Natijada, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning ekologik yechimlarini topish masalalari yanada dolzarb vazifaga aylanib, xalqaro miqyosda davlat siyosati darajasida e’tibor qozonmoqda. Shuning uchun, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning yangi bosqichida ekologik muammolarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda sohaga oid ko‘p qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi fikrimizning dalilidir.

Shuningdek, fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirishning xalqaro doirasidagi ahamiyatini O‘zbekiston ekologiyani muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik ishlarini rivojlantirishida ham ko‘rish mumkin. Bunday hamkorlik doirasida va tegishli dasturlarida, jumladan, BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturlarida ishtirok etadi. Natijada, dastur doirasida va ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va ko‘p milliy ekologik qonunlar ishlab chiqilgani yurtimizda ekologik muammolar davlat siyosati darajasida qaror topganidan va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari nechog‘lik ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 09.12.1992 йилдаги 754-XII-сон “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида” Қонуни, (https://lex.uz/docs/ мурожаат санаси - 27.03.2022).

2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 06.05.1993 йилдаги 837-XII-сон 837-XII-сон 06.05.1993. “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида” (lex.uz)

3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 13.12.2002 йилдаги 444-II-сон 444-II-сон 13.12.2002. «Ер ости бойликлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)

4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 27.12.1996 йилдаги 353-I-сон. 27.12.1996. “Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида” https://lex.uz/docs/107115 (мурожаат санаси 11.01.2023 й.)

5. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 21.09.2016 йилдаги ЎРҚ-409-сон ЎРҚ-409-сон 21.09.2016. “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz).

6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 19.09.2016 йилдаги ЎРҚ-408-сон ЎРҚ-408-сон 19.09.2016. “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)

7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.04.2018 йилдаги ЎРҚ-475-сонЎРҚ-475-сон 16.04.2018. “Ўрмон тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)

8. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 05.04.2002 йилдаги 362-II-сон. 362-II-сон 05.04.2002. “Чиқиндилар тўғрисида” (lex.uz)

9. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 15.12.2000 йилдаги 171-II-сон 171-II-сон 15.12.2000. “Давлат кадастрлари тўғрисида” (lex.uz)

10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - O‘zbekistan Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 1.05.2023 yil.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, PF-5863-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvarda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-son Qarori. / https://lex.uz/docs/4354743 (murojaat sanasi - 26.03.2022).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Rahmonova Mohinur Rasuljon qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali o‘qituvchisi.
mohinurkozieva89@gmail.com

O‘QUV-MASHG‘ULOT BOSQICHIDAGI BADIIY GIMNASTIKACHILARNI JISMONIY TAYYORGARIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Annotasiya. *Ushbu maqolada o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarik ko‘rsatkichlari tahlili hamda ommaviy sport darajasida badiiy gimnastikaning rivojlanishi va mavjudligi jarayonini optimallashtiradigan tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy gimnastika bo‘yicha kasbiy bo‘lmagan mashg‘ulotlar, ommaviy badiiy gimnastikaning faoliyat ko‘rsatish bo‘limida gimnastika nazariyasi va metodologiyasi bilim tizimi.*

Рахмонова Мохинур Расулжоновна
Преподаватель Ферганского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ГИМНАСТОК НА ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ

Аннотация*. В данной статье представлен анализ показателей физической подготовленности художественных гимнастов на тренировочном этапе и даны рекомендации, оптимизирующие процесс развития и существования художественной гимнастики на уровне массового спорта.*

Ключевые слова: *непрофессиональная подготовка по художественной гимнастике, система знаний теории и методики гимнастики в разделе функционирование массовой художественной гимнастики.*

Rakhmonova Mokhinur Rasuljonovna
Lecturer at the Ferghana branch of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports

ANALYSIS OF PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF RHYTHMIC GYMNASTS AT THE TRAINING AND TRAINING STAGE

Annotation. *This article provides an analysis of the physical fitness indicators of rhythmic gymnasts at the training and training stage, as well as recommendations that optimize the process of development and availability of rhythmic gymnastics at the level of mass sports.*

Keywords: *non-professional training in rhythmic gymnastics, knowledge system of the theory and methodology of gymnastics in the Department of activity of mass artistic gymnastics.*

Dolzarbligi.

Hozirgi vaqtda olimpiya badiiy gimnastikasi qobiliyat va qobiliyatlarga juda yuqori talablarga ega. Shug‘ullangan va cheklangan qizlar doirasi uchun mavjud. Shu munosabat bilan har yili badiiy gimnastika bo‘limlari ko‘payib bormoqda barcha qizlar tibbiy kontrendikatsiyalarsiz mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan ommaviy sport, bu yerda bolalar bilan ishlash bolaning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom imidjini shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda sport standartlari mavjud. Badiiy gimnastika bo‘yicha kasbiy bo‘lmagan mashg‘ulotlar uchun o‘quv va ta’lim standarti, bu shart va talablarni belgilaydi. Ushbu standartlar sportni rivojlantirishga qaratilgan sport mashg‘ulotlarini amalga oshiradigan tashkilotlarda sport mashg‘ulotlari. sportchilarni yuqori sport natijalariga erishish uchun tayyorlash masalasini tartibga solishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi.

O‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarik ko‘rsatkichlari tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

Badiiy gimnastikachilarni antropometrik ko‘rsatkichlarini aniqlash. 2. Olingan natijalar yuzasidan jismoniy rivojlanishi uchun maxsus mashqlarni mashg‘ulotlarida qo‘llash. 3 Tadqiqot so‘ngida olingan natijalrni qayta tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Ommaviy badiiy gimnastika ushbu standartlar bilan tartibga solinmagan va bu sohada ishlashga imkon beradigan dasturlar mavjud emas. Ommaviy sport darajasida badiiy gimnastikaning rivojlanishi va mavjudligi jarayonini optimallashtiradigan tavsiyalar talab qilinadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. O‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiqot natijasida nazariy g‘oyalar va qoidalar ishlab chiqilgan ommaviy sport yo‘nalishidagi badiiy gimnastika istiqbolli ommaviy sport turi sifatida. Ma’lumotlar ommaviy badiiy gimnastikaning faoliyat ko‘rsatish bo‘limida gimnastika nazariyasi va metodologiyasi bilim tizimini to‘ldiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotlar natijasida badiiy gimnastikasi uchun samarali metodika ommaviy sport bugungi kun sur’atini hisobga olgan holda va ijtimoiy hayotning ritmi hisoblanadi.

Tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ommaviy sport tizimida gimnastikachilar bilan o‘quv-mashq jarayonida ommaviy sport yo‘nalishidagi badiiy gimnastika ishlab chiqilgan tavsiyalardan amaliyotda foydalanish mumkin.

Ma’lumotlar va amaliy tadqiqot usullari majmuasidan foydalanish, empirik asosning kengligi, qurish mantig‘i va ta’minlanadi. O‘rganishning davomiyligi, natijalarni to‘g‘ri talqin qilish ma’lumotlar, tadqiqot natijalarini ilmiy-uslubiy konferentsiyalarda va o‘quv va o‘quv-mashg‘ulot jarayonining tabiiy sharoitida sinovdan o‘tkazish tegishli ijro hujjatlari bilan tasdiqlangan.


Zamonaviy qo‘shimcha tizim ta’lim bolalarga ta’lim dasturlarining keng tanlovini taklif qilishga tayyor turli sport turlari va ijodiy faoliyat olib boriladi. Biri ommaviy va ajoyib, har biri bilan tobora ko‘proq mashhurlikka erishmoqda Mamlakatimizda badiiy gimnastika sport turi har tomondan yuksak yutuqlar sporti, ikkinchi tomondan esa targ‘ib qiluvchi sport turi ko‘plab qizlarning salomatligi va barkamol rivojlanishi bilan ifodalanadi. Biz ham tadqiqotga jalb qilingan badiiy gimnastikachilarni jismoniy rivojlanishiga e’tibor qaratdik hamda tadqiqot oldi ularning antropometrik ko‘rsatkichlarini tahlil qildik.

1-jadval

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari, n=48

Tr	Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		$\overline{X}$ - σ	V,%	$\overline{X}$ - σ	V,%
1	Tana uzunligi (sm)	145,5 ± 4,8	3,30	146,5 ± 4,7	3,21
2	Tana vazni (kg)	40,5 ± 3,5	8,64	41,5 ± 3,4	8,19
3	Oyoq uzunligi (sm)	79,5 ± 3,3	4,15	80,5 ± 3,2	3,97
4	Qo‘l uzunligi (sm)	61,0 ± 2,8	4,59	62,0 ± 2,7	4,35
5	Ko‘krak qafasi kengligi (sm)	29,5 ± 1,4	4,75	30,5 ± 1,3	4,26

Jadvalda tajriba va nazorat guruhlarining asosiy antropometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Tana uzunligi bo‘yicha tajriba guruhida o‘rtacha 145,5 sm, nazorat guruhida 146,5 sm kuzatildi. Tana vazni tajriba guruhida 40,5 kg, nazorat guruhida 41,5 kg aniqlandi. Oyoq uzunligi tajriba guruhida 79,5 sm va nazorat guruhida 80,5 kg kuzatildi. Qo‘l uzunligi o‘rtacha tajriba guruhida 61,0 sm hamda nazorat guruhida 62,0 sm kuzatildi. Ko‘krak qafasi kengligi tajriba guruhida o‘rtacha 29,5 sm va nazorat guruhida 30,5 sm ekanligi tadqiqot oldi ko‘rsatkichlar aniqlandi. Shu bilan birga natijalarni diagrammada ham ko‘rib chiqdik.



3.1-rasm. Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari dinamikasi, n=48

Ushbu diagrammadan ham ko‘rininb turibdiki tadqiqot oldi natijalar bir biriga yaqinligini ko‘rishimiz mumkin. Tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi

ko‘rsatkichlar yaqin bo‘lib, kichik farqlar kuzatiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, dastlabki sharoitlar har ikki guruh uchun o‘xshash va tajriba uchun mos asos yaratadi.

Ma’lum bir mushaklar guruhi uchun mashqlar (barcha mashqlar 2 yondashuvda bajariladi)

1. Oyoqni yotgan holda ko‘tarish (15 marta).

2. Qorin tomon bilan yotgan holda oyoqni ko‘tarish (30 ta takrorlash)

3. "perchinlar" chalqancha yotib, ko‘kragingiz tizzangizga tegib (15 marta takrorlash)

4. "perchinlar" oshqozon ustida yotgan, barmoq uchlari oyoq uchlariga tegib (15 ta takrorlash)

5. Yerga o‘tirgan buklangan holatdan arqon orqali oshqozoningizga qayiq holatiga va orqaga o‘ting (15 marta takrorlash)

6. Oyoq/tana ko‘tariladi

Oshqozonda yotib, qo‘llar yon tomonga, o‘ng oyoq tana bo‘ylab, chap oyoq yon tomonga, keyin boshqa oyoqqa.

A) o‘ng oyoqni ko‘tarish / ushlab turish (4-6 yondashuv, 8 marta ushlab turish)

B) tanani ufqqa va orqaga ko‘tarish, qo‘llar boshning orqasiga egilgan (2-3 yondashuv, 8 marta ushlab turish)

B) tanani ishlaydigan oyog‘i bilan bir vaqtda ko‘tarish, yon tomondagi oyoq ishlamaydi (2-3 yondashuv, 8 marta ushlab turish)

D) yon tomonga joylashgan oyoqni ko‘tarish (2-4 yondashuv)

7. Ajratilgan burilishlar

Burchakli o‘tirish (90 °) - o‘zaro bog‘liqlik – o‘ng uzunlamasına ip – o‘zaro bog‘liqlik - burchakli o‘tirish

Shuningdek, chap oyoqda va bir vaqtning o‘zida 2 oyoqni egish

8. Barmoqlaringiz barmoqlaringizga tegguncha oshqozoningizda yotgan holda tanani buking

oyoqlar qo‘llar oldingizda ushlangan, tirsaklar tekis, oyoqlar birga, oyoqlar tarang, tizzalar tekis (15 marta)

9. Oyoq chalqancha yotadi, oyoqlar vertikal, oddiy/kaftlar polga tegib trikotajlanadi (15 ta takror)

Stretching mashqlari

1. "Ajdaho". Qorinda yotib, oyoqlar tizzada egilib (burchak 90 °), to‘piqdan ushlang, qo‘llaringizni oshqozoningiz erga tegguncha tekislang (8 marta 2-4 marta takrorlang).

2. Yerga o‘tirgan holda buklang, qo‘llaringizni oyoqlardan ko‘ndalang ushlang, qo‘llaringizni va oyoqlaringizni to‘g‘rilang (8 marta 2-4 marta takrorlang).

3. Orqangizda / qorinda yotgan belanchaklar

A) oldinga - 16 marta

B) ketma-ket - 16 ta takrorlash

B) vertikal/gorizontal tanasi bilan bo‘linishga - 8 ta takrorlash

D) ikkala oyoq bilan bir vaqtda ringga chiqish - 16 ta takrorlash

4. Zaminda uzunlamasına bo‘linishlarda cho‘zish

A) Orqa oyoq tizzada bukiladi, oyoq bir xil qo‘l bilan ushlanadi

Metodik tavsiyalar: tos suyaklari bir xil darajada bo‘lishi kerak. Orqa oyoqning oldingi soni polga tegishi kerak. Old oyoq burilgan, polning tovoni yerga tegmaydi.

5. trenajorda cho‘zish (45 sm) 4 min:

1 min – qo‘llar kesishgan; 1 daqiqa - qo‘llar yuqoriga; 1 – qo‘llar kesishgan; 1 min. – orqaga egilishda (ko‘ndalang bo‘linishda) qo‘llaringizni kesishgan holda (uzunlamasına bo‘linish).

A) Uzunlamasına o‘ng/chap ip

B) Ko‘ndalang ip

Uslubiy ko‘rsatmalar: dominant bo‘lmagan oyoqning uzunlamasına bo‘linishida cho‘zish 7 minut: 2 daqiqa - qo‘llar kesishgan; 1 min. - qo‘llar yuqoriga; 2 min. - qo‘llar kesishgan; 1 min. - orqaga suyanib. Orqaga egilish: oyog‘ingizni ikkala qo‘lingiz bilan ushlang, tizzalar tekis, oyoqlari tarang. Etakchi mashq:

- Faqat tanani egishdan boshlang (30 soniya egilish - tekis orqa bilan 10 soniya - 30 soniya egilish; 60 soniya egilish)

- Bir (qarama-qarshi) qo‘l bilan ushlash (30 sek. egilish - 10 sek. tekis orqa bilan - 30 sek. egilish; 60 sek. egilish)

- Ikki qo‘l bilan ushlash (30 sek. egilish - 10 sek. tekis orqa bilan - 30 sek. egilish; 60 sek. egilish)

6. Kauchuk bilan tayanchda turgan belanchaklar (30 ta takrorlash)

A) Oldinga;

B) yon tomonga;

B) To‘g‘ri oyoq bilan orqaga to‘g‘ri tanasi bilan / tanasini orqaga egib

D) To‘g‘ri gavda bilan tizza bo‘g‘imida oyoqni orqaga bukilgan holda/tanani orqaga egib

D) Gorizontal tekislikda tanasi bilan tekis oyoqli bo‘linishga

Uslubiy ko‘rsatmalar: Dominant bo‘lmagan oyoq bilan tebranishlar soni etakchi oyoqqa qaraganda 20 marta ko‘proq bajariladi.

7. Muvozanatdan tashqari oyoqning tarjimalari: qo‘l oldida bo‘linish - qo‘l bilan yon tomonga bo‘linish - qo‘lni orqaga va orqaga bo‘lish (2 to‘plam 1 takrorlash)

Uslubiy ko‘rsatmalar: dominant bo‘lmagan tomonda, 2 ta takrorlashning 3 ta to‘plami.

Nazorat guruhida (3.4-jadval) faqat bitta nazorat mashqida farqlar sezilarli. Shunday qilib, badiiy gimnastikadagi zamonaviy talablar muvozanat guruhlari va sakrash piruetlaridan texnik jihatdan murakkab elementlarni bajarishda frontal tekislikda nosimmetrik rivojlangan egiluvchanlikni namoyish qilish zarurligini belgilaydi. Va assimetriyaning yuqori darajasi, o‘z navbatida, sportchilarga yuqori xarajatli raqobatbardosh elementlarni kerakli darajada bajarishga va ularni o‘z dasturiga kiritishga imkon bermaydi va shu bilan uni


o‘yin-kulgi, xilma-xillik va yuqori "texnik" xarajatlardan mahrum qiladi.

2-jadval

Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlari, n=48

T/r	Ko‘rsatkich	Guruh	Tadqiqot boshi		Tadqiqot oxiri		t	P
			$\overline{X}$ - σ	V,%	$\overline{X}$ - σ	V,%		
1	Tana uzunligi (sm)	TG	145,5 ± 4,8	3,30	149,0 ± 4,5	3,02	3,02	<0,01
		NG	146,5 ± 4,7	3,21	147,2 ± 4,4	3,00	1,76	<0,01
2	Tana vazni (kg)	TG	40,5 ± 3,5	8,64	43,8 ± 3,4	7,82	3,32	<0,01
		NG	41,5 ± 3,4	8,19	42,9 ± 3,3	7,76	1,87	>0,1
3	Oyoq uzunligi (sm)	TG	79,5 ± 3,3	4,15	82,5 ± 3,1	3,73	3,73	<0,001
		NG	80,5 ± 3,2	3,97	81,1 ± 3,1	3,80	2,11	>0,05
4	Qo‘l uzunligi (sm)	TG	61,0 ± 2,8	4,59	64,2 ± 2,6	4,03	4,03	<0,001
		NG	62,0 ± 2,7	4,35	63,4 ± 2,6	4,12	1,96	>0,1
5	Ko‘krak qafasi kengligi (sm)	TG	29,5 ± 1,4	4,75	32,0 ± 1,3	4,06	4.06	<0,001
		NG	30,5 ± 1,3	4,26	31,7 ± 1,2	3,81	2,45	<0,05

Ushbu jadval tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG) sinaluvchilarining tadqiqot boshlanishi va oxiridagi o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichlari berilgan. Unda tana uzunligi tajriba guruhida tadqiqot boshida 145,5, tadqiqot oxirida 149,0 sm kuzatildi. nazorat guruhida esa tadqiqot boshida 146,5 sm, tadqiqot oxirida 147,5 smni tashkil etdi. Tajriba guruhida tana uzunligining o‘sishi nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Tana vazni bo‘yicha tajriba guruhida tadqiqot boshida 40,5 kg, tadqiqot oxirida 43,5 kg ekanligi kuzatildi. Nazorat guruhida esa tadqiqot boshida 41,5 kg, tadqiqot oxirida 42,5 kg ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Har ikki guruhda tana vazni oshgan, lekin tajriba guruhida bu o‘sish ko‘proq ekanligi aniqlandi. Oyoq uzunligi tajriba guruhida tadqiqot boshida 79,5 sm, tadqiqot oxirida 82,5 sm kuzatildi. nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha tadqiqot boshida 80,5 sm, tadqiqot oxirida 81,5 sm ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhida oyoq uzunligining o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Qo‘l uzunligi tajriba guruhida tadqiqot boshida 61,0 sm, tadqiqot oxiri kelib 64,0 sm kuzatildi. Nazorat guruhida tadqiqot boshida 62,0 sm, tadqiqot oxirida 63,0 sm ekanligi aniqlandi. Qo‘l uzunligi har ikki guruhda oshgan, lekin tajriba guruhida o‘sish ko‘proq kuzatildi. Ko‘krak qafasi kengligi tajriba guruhida taqiqot boshida 29,5 sm, tadqiqot oxirida 32,0 smni tashkil etdi. Nazorat guruhida tadqiqot boshida 30,5 sm, tadqiqot oxirida 31,5 sm kuzatildi. Tajriba guruhida ko‘krak qafasi kengligining o‘sishi nazorat guruhiga qaraganda ancha yuqori ekanlgini ko‘rishimiz mumkin.



4.2-rasm. Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining antropometrik ko‘rsatkichlarining nisbiy o‘sish dinamikasi, n=48

Diagrammada ikki guruhning (tajriba va nazorat) besh xil antrpometrik ko‘rsatkichi bo‘yicha tana o‘lchovlari tahlil qilindi. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatgan. Bu

degani, tajriba guruhidagi sinluvchilarning o‘rtacha bo‘yi 2,41 %ga, nazorat guruhida esa 0,48 % ga, vazni bo‘yicha tajriba guruhida o‘rtacha 8,15 % ga va nazorat gurhida esa 3,37 % ga , oyoq uzunligi tajriba guruhida 3,77 % ga hamda nazorat guruhida esa 0,75 % ga, qo‘l uzunligi tajriba guruhida o‘rtacha 5,25 % ga va nazorat guruhida 2,26 % ga, shuningdek, ko‘krak qafasi kengligi nazorat guruhiga qaraganda kattaroq bo‘lgan ya’ni tajirba guruhida 8,47 % va nazorat guruhida 3,93 % ga yaxshilanganligi aniqlandi. Farqlarning darajasi turli xil ko‘rsatkichlar uchun turlicha. Masalan, tana vazni va oyoq uzunligi bo‘yicha farqlar nisbatan kattaroq, qo‘l uzunligi va ko‘krak qafasi kengligi bo‘yicha esa kichikroq. Tajriba guruhida qo‘llanilgan mashqlar va metodikalar nazorat guruhiga nisbatan badiiy gimanstikachilarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu tajriba guruhidagi sinluvchilarning o‘rtacha bo‘yi, vazni va boshqa fiziologik parametrlarining ortishida aks etgan.

Xulosa qilib aytganda, tajriba guruhi sinaluvchilarining barcha antropometrik ko‘rsatkichlari tadqiqot davomida sezilarli darajada yaxshilangan. Nazorat guruhida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan, ammo ular tajriba guruhi ko‘rsatkichlariga nisbatan kamroq. Bu tajriba davomida qo‘llanilgan metodikaning samaradorligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Германов Г.Н. Технология модульно-целевого построения тренировочных заданий в микроструктуре тренировки юных спортсменов при разработке учебных программ для детско-юношеских спортивных школ/ Г.Н.Германов //Культура физическая и здоровье. - 2007. -№1 (11). - С.19-27.

2. Голубев А.В., Овсянкин В.А., Передриенко С.В. Всё о прыжках: история, биомеханика, техника, методика обучения // Физическая культура и здоровье. – 2004. - № 1. – С.78-50.

3. Городничев Р.М., Шляхтов В.Н. Физиология силы: монография. М.: Спорт, 2016. - 232 с.

4. Егоров В.Н.Физическая культура в контексте современных проблем высшего образования // Глузман Н.А., Антипов А.В. Научно-теоретический журнал «Теория и практика физической культуры» – М.: 2020-№ 10. - С. 52-55.

5. Khujamkeldiyev, G. S. (2023). The importance of recovery in the processes of sports exercises // In *Физическое воспитание и спорт в высших учебных заведениях: сб. статей XIX Междунар. науч. конф., Белгород, 25–26 апр. 2023 г./Белгор. гос. технол. ун-т.–Белгород: Изд-во БГТУ, 2023.–471с. ISBN 978-5-361-01170-4* (P. 462).

6. Ходжамкелдиев, Г. (2023). Спорт машғулотлари жараёнларида тикланишнинг аҳамияти // *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *3*(7), - С.233-237.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi
Alfraganus universiteti Maxsus pedagogika: Logopediya yo‘nalishi Logo-23-1 guruh talabasi

ZAMONAVIY LOGOPEDIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy logopedik texnologiyalarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Logopedik mashg‘ulotlarda interaktiv o‘yinlar, sensor platformalar, audio-vizual dasturiy vositalar va ovoz tahlili asbob-uskunalaridan foydalanish natijasida nutq nuqsonlari, jumladan dislaliya, dizartriya va alaliya kabi buzilishlarni tuzatish jarayoni samaradorligi yuqoriligi eksperimental misollarda namoyish etiladi. Nutq motorikasi, fonematik eshitish, so‘z boyligini boyitish kabi aspektlarda erishilgan natijalar bolaning nutq rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi. Metod va yondashuvlar turli yosh toifasidagi bolalarga individual tarzda qo‘llanilib, natijalarning barqarorligi hamda texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish zarurati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *logopediya, zamonaviy texnologiyalar, nutq nuqsonlari, interaktiv o‘yinlar, ovoz tahlili, reabilitatsiya, dizartriya, dislaliya, alaliya.*

Сайдалиева Ходжия Абдужалил кизи
Университет альфраганус Специальная педагогика: направление
Логопедия Логос-студент 23-1 группы

СОВРЕМЕННЫЕ ЛОГОПЕДИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы и практическое применение современных логопедических технологий. Показана эффективность использования интерактивных игр, сенсорных платформ, аудио-визуальных программных средств и оборудования для анализа голоса в процессе коррекции речевых нарушений, в том числе дислалии, дизартрии и алалии. Экспериментальные данные демонстрируют положительное влияние таких методов на развитие речевой моторики, фонематического слуха и расширение словарного запаса у детей разных возрастных групп. Отмечается важность индивидуального подхода и необходимость широкого внедрения современных технологий для достижения устойчивых результатов в логопедической практике.*

Ключевые слова: *логопедия, современные технологии, речевые нарушения, интерактивные игры, анализ голоса, реабилитация, дизартрия, дислалия, алалия.*

Saidalieva Khojiya Abdujalil kizi
Alfraganus University Special pedagogy: speech direction Logo-23 - 1 Group student

MODERN LOGOPEDIC TECHNOLOGIES AND THEIR EFFECTIVENESS

Annotation. *This article examines the theoretical foundations and practical application of modern speech therapy technologies. The study highlights the effectiveness of employing interactive games, sensor platforms, audio-visual software tools, and voice analysis equipment in correcting speech disorders such as dyslalia, dysarthria, and alalia. Experimental findings demonstrate the positive impact of these methods on speech motor skills, phonemic awareness, and vocabulary expansion in children of various age groups. Emphasis is placed on the importance of individualized approaches and the need for broader adoption of modern technologies to achieve sustainable results in speech therapy practice.*

Key words: *speech therapy, modern technologies, speech disorders, interactive games, voice analysis, rehabilitation, dysarthria, dyslalia, alalia.*

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda nutq madaniyati va nutqiy rivojlanish darajasiga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Bu holat turli yosh toifasidagi shaxslar, xususan, bolalar nutqidagi nuqsonlarni erta aniqlash, oldini olish va tuzatish masalalarining dolzarbligini ko‘rsatadi. Logopediya aynan shu zaruriyatni qondirishga xizmat qiluvchi fan sohasidir. Hozirgi kunda logopedik amaliyotning samaradorligi, ta’lim tizimidagi o‘rni va istiqbollari barcha rivojlangan davlatlarda alohida e’tibor

markazida turibdi. Logopedlar oldidagi muhim vazifa nutq nuqsonlarini aniq tashxislash va davolashda individual yondashuvni ta’minlash, bu yo‘lda samarali texnologiyalarni joriy etishdir.An’anaviy nutq tuzatish usullari, albatta, ko‘p yillik tajribaga tayanadi, ammo raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar va ko‘rgazmali manbalar orqali bu sohani yangicha usulda rivojlantirish, har bir o‘quvchi yoki tarbiyalanuvchining shaxsiy ehtiyojiga mos keladigan metodlarni qo‘llash imkonini bermoqda. Eng muhimi, zamonaviy logopedik texnologiyalarni qo‘llash tufayli natijadorlik sezilarli darajada yaxshilanadi. Masalan, interaktiv o‘yinlar, multimediya dasturlari, robototexnika elementlari bilan boyitilgan mashg‘ulotlar orqali bolalar nutqidagi muammolarni bartaraf etish yanada tezroq kechadi, ularda nutqga qiziqish, o‘z fikrlarini samarali ifodalash ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Zamonaviy logopedik texnologiyalar deganda avvalo individual reabilitatsiya dasturlari, audio-vizual matnlar, virtual reallik, ovoz tahlili asbob-uskunalari kabi zamonaviy axborot texnologiyalari yoki maxsus apparat-dasturiy komplekslar nazarda tutiladi. Ushbu vositalar xususan neurofeedback texnologiyalari bilan uyg‘unlashganda, nutq tushunchasini takomillashtirish, diqqatni jalb qilish, ovoz diapazonini boshqarish va tovushlarni correct artikulyatsiya qilish borasida yuqori samaraga erishish mumkin. Shu bilan birga, logopedik texnologiyalarning takomillashuvi kadrlarga qo‘yiladigan talablarni ham kuchaytirmoqda, ya’ni logoped nafaqat an’anaviy nutq tuzatish usullarini, balki zamonaviy apparat-dasturiy tizimlarni ham puxta bilishi, ulardan o‘rinli foydalana olishi zarur. Mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy logopedik texnologiyalarning mohiyati, ularni qo‘llash metodlari, kutilayotgan natijalar va imkon bo‘lsa, amaliy tatbiq jarayonining samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Buning uchun biz metod sifatida eksperimental yondashuv, turli yoshdagi bolalar o‘rtasida o‘tkazilgan tajribaviy ishlar hamda boshqa fanlar bilan uyg‘unlashgan tavsifiy-amaliy uslublarga tayandik. Bundan tashqari, maqolada keltirilgan dalillar, muhokamalar va xulosalar, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar natijalariga asoslangan holda yoritib boriladi.

Metod.

Ushbu tadqiqotda biz asosan eksperimental-tajriba metodidan foydalandik. Nutq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalar, xususan, har xil turdagi dislaliya (tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish), dizartriya (nutq motorikasi buzilishlari) va alaliya (nutq rivojlanishining jiddiy orqada qolishi) kabi muammolar kuzatilgan 5-7 yosh oralig‘idagi 25 nafar bolaning nutq rivojlanishi holati o‘rganildi. Ushbu bolalar bilan uch oy davomida davriy ravishda mashg‘ulotlar tashkil etildi. Mashg‘ulotlar davomida an’anaviy logopedik yondashuvlar (artikulatsion gimnastika, fonematik eshitishni rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish) bilan birgalikda maxsus zamonaviy texnologiyalar — multimediya dasturlari, audio-ovoz tekshiruv komplekslari, sensor paneli yordamida interaktiv o‘yin shakllari qo‘llanildi.

Tajriba ishi davomida dastlabki bosqichda bolalarning nutq nuqsonlari logopedik testlar yordamida baholandi. Baholash mezonlari sifatida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish darajasi, lug‘at zahirasi, gap tuzish ko‘nikmalari, fonematik eshitish, nutq tezligiga oid ko‘rsatkichlar keltirildi. Har bir bola bilan individual ishlov berilishiga e’tibor qaratildi, chunki bolalarda nutq buzilishining sabablari, darajasi va ko‘rinishi turlicha kechadi. Shu bois davolash strategiyasi har bir tarbiyalanuvchi uchun yakka tartibda ishlab chiqildi. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash metodikasi asosan ikkita asosiy yo‘nalishda olib borildi. Birinchisi, ovozning xususiyatlarini yozib olish va uni kompyuter dasturlarida tahlil qilish orqali tashxisni aniqlashtirish hamda bolaning boshidan kechirayotgan qiyinchiliklarini vizual ko‘rinishda taqdim etish. Ikkinchisi, interaktiv o‘yinlar orqali bolaning nutq faoliyatini qisqa muddatda faollashtirish, undagi muammolarni tuzatish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishdir. Ayniqsa, sensor qurilmalar bilan o‘yin o‘ynash jarayonida bola so‘z, tovush yoki hechalarni to‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qiladi, o‘z nutqini eshitib, uni takomillashtirishga harakat qiladi.Metodologik jarayonda logopedik mashg‘ulotlar haftada 2-3 marta, 30-40 daqiqadan o‘tkazildi. Mashg‘ulotlar oralig‘ida uyga vazifa sifatida kompyuter yoki planshet uchun moslab tuzilgan maxsus ilovalardan foydalanish tavsiya etildi. Shu tarzda bolaning mashg‘ulotlardan tashqarida ham nutqiy faolligi rag‘batlantirildi. Metodologik nazorat o‘laroq, her bir bosqich oxirida bolalarning ilg‘orligi turli mezonlar bo‘yicha qayta baholanib, sarhisob qilindi. Qayta baholash natijalari, iloji boricha, dastlabki ko‘rsatkichlar bilan qiyoslandi.

Natijalar.

Uch oylik eksperimental mashg‘ulotlar natijasida kuzatishlarimiz quyidagi o‘zgarishlarni namoyon qildi. Avvalo, bolalar orasida tovushlar talaffuzida ko‘proq muammo kuzatilgan guruh (dislaliya) a’zolarida aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish darajasi 25 foizdan 80 foizgacha yaxshilandi. Bu ko‘rsatkichga an’anaviy yondashuv bilan bir qatorda zamonaviy ovoz tekshiruv va tahlil dasturlaridan unumli foydalangan holda erishildi. Dizartriya kuzatilgan bolalarda artikulyatsion apparatdagi zaiflik, nutq motorikasi kamchiligi qisman kamayib, tovushlarni itoatli tarzda talaffuz qilish darajasi 35 foizdan 70 foizgacha ko‘tarildi. Alaliya bilan bog‘liq holda so‘z boyligi va gap tuzish ko‘nikmasi boyicha sezilarli yutuqlar qayd etildi: so‘z boyligi 30 foizga, gap tuzish aniqligi va mustaqil fikr ifodalash qulayligi esa 40 foizga oshdi.Eksperiment jarayonida kompyuter dasturlari orqali nutq tebranishlarini ko‘rsatish va bolalarning ovozini vizual tarzda analiz qilish, ularni nutq tovushlarini eslab

qolishi hamda adashgan tovushlarni o‘z vaqtida tuzatishiga yordam berdi. Misol uchun, maxsus aks-sado (eko) tizimi bolaga o‘z nutqidagi xatoni darhol eshitish va tuzatishga zamin yaratdi. Ushbu dastur bolasida ichki motivatsiyani uyg‘otib, “men noto‘g‘ri talaffuz qilyapmanmi yoki yo‘qmi?” degan savolga tez javob olishiga sharoit yaratdi.Sensorga asoslangan interaktiv o‘yinlar, xususan, tovushlarni topish, so‘z tuzish, kichik hikoyalar yaratish yoki ovoz diapazonini boshqarish bilan bog‘liq topshiriqlar bolalarning logopedik mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Natijada davomiy va muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan tayyorlik kuchaydi, uyga vazifalar ham bevosita interaktiv muhitda bajarilgani sababli ota-onalar ham bu jarayonga jalb qilindi. Yakuniy bosqichda ota-onalar tomonidan bildirilgan mulohazalar shuni ko‘rsatdiki, bolalarning nutqiy ishonchi ortdi, ular bog‘cha yoki maktabdagi tengdoshlari bilan muloqot qilishda faollashdi, o‘z fikrini ifodalashda kamroq tutilish kuzatildi.

Natijalar ko‘rsatadiki, klassik logopedik texnikalar va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi orqali tuzatish ishlari kutilganidan ham samarali kechadi. Garchi ba’zi hollarda jiddiy nutq buzilishlari uchun uzoq muddatli reabilitatsiya zarur bo‘lsa-da, birinchi natijalar odatda qisqa fursatda namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bolalarning miya faoliyati tez moslashuvchan va rivojlanishga moyil bo‘lgani sababli zamonaviy usullar tezroq samara beradi.

Muhokama.

Zamonaviy logopedik texnologiyalar, jumladan interaktiv dasturlar, sensor platformalar va apparat-dasturiy komplekslarning tuzatish jarayonida afzalliklari e’tiborga molikdir. Birinchidan, ular bolada o‘yin shaklida motivatsiya shakllantiradi, mashg‘ulotlar vaqtini zerikarli o‘tishdan saqlab, jarayonni yanada mazmunli qiladi. Ikkinchidan, texnologiyalar bolaning individual rivojlanishiga mos dasturiy kontentni tanlash imkoniyatini beradi. Masalan, bola tovushlarni o‘zlashtirayotgan davrda aynan shu tovushlar kombinatsiyasini ko‘proq takrorlashga mo‘ljallangan o‘yin yoki topshiriqni qo‘llash mumkin. Uchinchidan, real vaqtda ovoz tahlili, sensor qaydlar va vizual tasvirlar bola bilan ishlayotgan mutaxassisga aniq diagnostik ma’lumotlar taqdim etadi, natijada davolash jarayoni shaxsiylashtiriladi va ishonchli baholash yondashuviga yo‘l ochiladi.

Metodologik ko‘rsatkichlarga qaraganda, sinovdan o‘tgan 25 nafar bolaning barchasida nutqiy kamchiliklarning turli yo‘nalishlarda yaxshilanishi qayd etilgani, zamonaviy texnologiyalarni logopedik metodika bilan o‘zaro integratsiya qilishning ijobiy samarasini tasdiqlaydi. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida o‘tkazilgan suhbatlar muammolarni erta aniqlash va ularga yanada erta ta’sirchan chora ko‘rish muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Bunda zamonaviy vositalar bilan har tomonlama qurollangan mutaxassis, ya’ni logoped kasbining zamon talablari asosida shakllangan vakili yetakchi o‘rin tutadi. Shu tariqa, logopedik faoliyat an’anaviy o‘qitish uslublarini inkor etmaydi, balki ular bilan uyg‘unlashgan holda yangi yutuqlarga erishadi.Bir necha cheklovlarga ham e’tibor qaratish lozim. Zamonaviy logopedik texnologiyalar joriy etish hamma joyda bir xil bo‘lishi qiyin, chunki moddiy-texnik baza, kadrlar tayyorgarligi, oilalarning iqtisodiy va ijtimoiy sharoiti kabi omillar farq qilishi mumkin. Xususan, iqtisodiy jihatdan nisbatan qiyinroq sharoitga ega joylarda zamonaviy uskuna va dasturlarni topish, logopedlarni bu texnologiyalarni o‘zlashtirishga o‘qitish masalalari vaqt va mablag‘ talab qiladi. Bundan tashqari, bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarining kelib chiqish sabablariga qarab, davolash jarayoni turli muddat va usullarni talab etadi. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalar universal yechim emas, balki yanada keng qamrovli ta’lim-tarbiyaviy yondashuvning bir bo‘lagi ekanini unutmaslik zarur.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada mukammal tadqiqotlar olib borish, tajriba ishtirokchilari sonini kengaytirish, keyingi bosqichlarda olingan natijalarni ilmiy-jadal tahlil qilish lozim. Shuningdek, logopedik texnologiyalarning boshqa fan tarmoqlari, xususan, nevrologiya, psixologiya, pedagogika va informatsion texnologiyalar bilan chuqur integratsiyalashuvi orqali yanada chuqur natijalar kutish mumkin. Davolashda multimodal yondashuv, ya’ni bir paytning o‘zida bir necha turdagi sensor stimulyatsiya, musiqiy terapiya, maxsus tayanch-harakat mashqlari kabi vositalarni qo‘llash orqali nutq buzilishlarini bartaraf etishning yangi darajalariga erishish ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, kelajakda virtual reallik (VR) va qo‘shimcha reallik (AR) texnologiyalari ham logopedik mashg‘ulotlarda keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Bularning barchasi logopediyani kelgusida yanada muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirish, bolalarning nutq madaniyatini optimal shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy logopedik texnologiyalarning joriy etilishi natijasida nutq nuqsonlari bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olish ishlarining samaradorligi keskin oshmoqda. Interaktiv o‘yinlar, audio-vizual dasturlar, ovoz tahlili uskunalari va boshqa axborot texnologiyalarini an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish logopedik amaliyotda yangi ufqlarni ochib bermoqda. Ushbu texnologiyalar jarayonni yengillashtirish, individuallashtirish va ishonchli diagnostika imkoniyatlarini taqdim etish orqali eng muhim maqsad – bolalarning nutq ravonligi va ijtimoiy moslashuviga xizmat qiladi. Natija o‘laroq, erta bosqichlardagi to‘g‘ri logopedik ta’sir nafaqat nutq nuqsonlarini tuzatish, balki bola shaxsining barkamol kamol topishida ham muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, ushbu izlanishimiz yakunida aytish mumkinki, fan-texnika taraqqiyoti orqali logopediyaning rivojlanishi ijtimoiy hamda pedagogik talablarga javob beradigan kadrlar

tayyorlashga ham zamin hozirlab, har bir bolaga nutq bo‘yicha individual ko‘mak berish imkonini kengaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Станкова Е.В. Общая и специальная педагогика в логопедической практике. – М.: Академкнига, 2018. – 256 с.
2. Сидоренко А.И. Психолого-педагогические аспекты коррекции речевых нарушений у детей. – СПб.: Речь, 2019. – 198 с.
3. Boswell K. Modern Approaches to Speech Therapy: Integration of Interactive Tools // Journal of Communication Disorders. – 2021. – Vol. 56, №2. – P. 45–53.
4. Мухамедова Ш.Б. Речевая реабилитация детей с дизартрией в условиях современного образовательного пространства: метод. рекомендации. – Ташкент: Фан, 2020. – 124 с.
5. Yilmaz D., Altun S. The Effectiveness of Multimedia Tools in Correcting Dyslalia in Preschoolers // International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Vol. 14, №1. – P. 67–75.
6. Johnson M., Wilson T. Speech Analysis Software for Early Intervention in Alalia // European Journal of Special Needs Education. – 2019. – Vol. 34, №4. – P. 512–525.
7. Рахимова Д.Д. Оценка фонематического слуха у детей с речевыми нарушениями: новые методы диагностики // Журнал дефектологии и логопедии. – 2019. – №3. – С. 27–34.
8. Шарипов Ж.Ж. Применение сенсорных платформ в логопедической практике: эффективность и перспективы развития // Современные педагогические исследования. – 2021. – №2. – С. 41–48.
9. Gujjar A.A., Nagpal V. Integrating Virtual Reality into Speech Therapy: A Pilot Study // Journal of Educational and Developmental Psychology. – 2020. – Vol. 10, №3. – P. 87–94.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna
FarDU filologiya fanlari doktori (DSC),dotsent
Temirova Shahloxon Xoshimjon qizi
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxasisligi 1-bosqich magistranti
shahlotemirova96@gmail.com

TRIZ TEXNOLOGIYASINING UMUMIY TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Annotatsiya: *TRIZ (Teoriya Resheniya Izobretatelskikh Zadach) texnologiyasi, ya'ni "Ixtirochilik Muammolarini Hal Etish Teoriyasi" – bu ixtiro qilish va innovatsion fikrlash jarayonlarini tizimli yondashuv bilan tartibga solish uchun ishlab chiqilgan metodologiyadir. TRIZ texnologiyasining asosiy maqsadi, muammolarni yechishda kreativ va samarali usullarni ishlab chiqishdir. Ushbu texnologiya ko'plab sohalarda, xususan, ta'limda bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda keng qo'llanilishi mumkin. TRIZ yordamida, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, problemalarni hal qilish va yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantirish mumkin. TRIZning asosiy mohiyati, ixtirochilik jarayonini oddiy va amaliy qoidalarga asoslab, murakkab muammolarni hal qilishning yangi usullarini taklif qilishdir.*

Kalit so'zlar: *TRIZ texnologiyasi, ixtirochilik, innovatsion fikrlash, muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash, ta'limda triz, bolalar uchun triz metodlari,yangi g'oyalar yaratish.*

Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна
ФарГУ доктор филологических наук (DSC), доцент
Темирова Шахлохан Хошимжон кизи
Теория и методика обучения и воспитания (дошкольное образование) специальность Магистрант 1 ступени

ОБЩЕЕ ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ ТЕХНОЛОГИИ TRIZ

Аннотация: *технология TRIZ (Теория решения изобретательских задач), т. е. "теория решения изобретательских задач" – это методология, разработанная для упорядочения процессов изобретательского и инновационного мышления при системном подходе. Основная цель технологии TRIZ -разработать творческие и эффективные методы решения проблем. Данная технология может широко применяться во многих сферах, в частности, в образовании для развития творческого мышления детей. С помощью TRIZ учащиеся могут быть мотивированы мыслить логически, решать проблемы и генерировать новые идеи. Основная суть TRIZ заключается в том, чтобы предложить новые способы решения сложных задач, основывая процесс изобретательства на простых и практичных правилах.*

Ключевые слова: *TRIZ технология, изобретательность, новаторское мышление, решение задач, логическое мышление, TRIZ в образовании, TRIZ методы для детей,генерация новых идей.*

Yuldasheva Dilafruz Makhamadaliyevna
Doctor of philological Sciences (DSC), associate professor
Temirova Shahlohan Khoshimjan kizi
Theory and methodology of education and education (preschool education) specialist Master of Stage 1

GENERAL CONCEPT AND ESSENCE OF TRIZ TECHNOLOGY

Annotation: *TRIZ (theory Resheniya Isobretatelskikh Zadach) technology, i.e. "theory of solving inventive problems", is a methodology developed to regulate the processes of inventive and innovative thinking with a systematic approach. The main goal of TRIZ technology is to develop creative and effective methods for solving problems. This technology can be widely used in many areas, in particular in education, in the development of creative thinking of children. With TRIZ, students can be encouraged to think logically, solve problems, and create new ideas. The main essence of TRIZ is to propose new ways to solve complex problems, basing the inventive process on simple and practical rules.*

Keywords: *TRIZ technology, inventiveness, innovative thinking, problem solving, logical thinking, triz in education, triz techniques for children,creating new ideas.*

Kirish.

TRIZ (Teoriya Resheniya Izobretatelskikh Zadach) texnologiyasi, ya'ni "Ixtirochilik Muammolarini Hal Etish Teoriyasi", 1946-yilda rus ixtirochisi Genrix Al'tsshuller tomonidan ishlab chiqilgan tizimli yondashuvdir. Bu metodologiya ixtirochilik faoliyatini optimallashtirish, yangi g‘oyalar yaratish va mavjud muammolarni samarali hal qilish uchun qoidalar va usullarni taqdim etadi. TRIZning asosiy mohiyati shundaki, har bir innovatsion jarayon bir necha asosiy prinsiplar va qonuniyatlarga asoslanadi, va bu qonuniyatlar orqali murakkab muammolarni tizimli tarzda hal qilish mumkin.

TRIZ texnologiyasi faqatgina ilm-fan yoki ixtirochilikda emas, balki ta'lim jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda TRIZ metodlarini qo‘llash, bolalarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv bolalarga oddiy topshiriqlarni yechishdan tortib, murakkab muammolarni hal qilishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda yangi fikrlash usullarini o‘rgatadi. TRIZning ta'limdagi rolini to‘g‘ri tushunish va amalda qo‘llash bolalarning shaxsiy rivojlanishiga va yaratgan g‘oyalarining amaliy qobiliyatga aylanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, TRIZ texnologiyasi o‘quvchilarni ixtirochilikka, analitik fikrlashga va kreativ muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi, bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ularni kelajakdagi innovatsion dunyoga tayyorlaydi.

Adabiyotlar tahlili.

TRIZ (Teoriya Resheniya Izobretatelskikh Zadach) texnologiyasi o‘zining asosiy tamoyillari va metodologiyasi bilan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlariga, pedagogik va ixtirochilik faoliyatiga doir muhim izlanishlarni amalga oshirishga yordam bergan. TRIZning pedagogik sohada qo‘llanilishi, o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tadqiqotlarda o‘rganilgan.

Al'tsshuller, G. (1984). "Ixtirochilik muammolarini hal etish metodikasi": Al'tsshullerni TRIZning asoschisi sifatida bilishadi. Uning ishlari, TRIZ metodlarining asosiy prinsiplarini va texnikalarni yaratishda muhim rol o‘ynagan. Uning ta'kidlashicha, har bir muammo yechimni o‘zida saqlaydi, va ixtirochilik texnologiyasi orqali odamlar bu yechimlarni samarali va tizimli tarzda topishlari mumkin. Ushbu asar TRIZ texnologiyasining ilmiy asoslarini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kuzin, I., & Shmelev, S. (2010). "TRIZ metodologiyasi va uning pedagogik sohadagi qo‘llanilishi": Mazkur asar TRIZ texnologiyasining ta'lim tizimiga qanday integratsiya qilinishini ko‘rib chiqadi. Mualliflar, TRIZ metodlarining pedagogik jarayondagi ahamiyatini va bolalarga ijodiy fikrlashni rivojlantirishda qanday yordam berishini tahlil qiladi. Ular, TRIZ texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo‘llashning samarasini ko‘rsatib, ushbu metodlarni o‘quvchilarga qanday tarzda o‘rgatishni batafsil tushuntiradi.

Doronina, N. (2015). "Ta'limda TRIZ texnologiyasi va kreativ fikrlash": Doronina, TRIZ metodlarini ta'limda, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda qanday qo‘llash mumkinligini o‘rganadi. Tadqiqotda, TRIZ texnologiyasining o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli ko‘rsatilgan. Shuningdek, bolalar uchun o‘rgatuvchi o‘yinlar va interaktiv faoliyatlarni ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Zeyniddinov, T. (2017). "Maktabgacha ta'limda TRIZ texnologiyasini qo‘llash metodikasi": Ushbu ilmiy ish, TRIZ texnologiyasining maktabgacha ta'limda qanday samarali qo‘llanilishini ko‘rsatib beradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, TRIZ metodlari bolalar uchun mantiqiy fikrlashni, ixtirochilikni va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tadqiqotda, TRIZ metodologiyasini bolalarga moslashtirish, interaktiv metodlar yordamida ta'lim jarayonini samarali qilish usullari keltirilgan.

Toshpulatov, M. (2019). "Innovatsion pedagogik texnologiyalar va TRIZ": Ushbu ishda, TRIZ texnologiyasining innovatsion pedagogik metodlar bilan qanday integratsiyalashishi tahlil qilinadi. Tadqiqot, TRIZ texnologiyasining zamonaviy pedagogik metodikalar bilan uyg‘unlashuvi va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga qanday ijobiy ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Toshpulatov, TRIZ metodlarini ta'limda joriy etishda foydalanish uchun tavsiyalar beradi va bu texnologiyaning samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

2. Plyometrik mashqlar — bu mashqlar refleks va portlovchi kuch qobiliyatini rivojlantiradi. Sakrash va portlovchi harakatlar orqali mushaklardagi elastik energiya yig‘iladi va bu kuchli portlovchi harakatlarda samarali foydalaniladi. Bunday mashqlar kurash jarayonidagi chaqqonlik va tezkor burilishlarda foydali bo‘ladi.

3. Tana vazniga asoslangan mashqlar — bu mashqlar sportchining muvozanat, stabilizator mushaklari va umumiy kuch ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan. Tana vazniga asoslangan mashqlar ayniqsa kurash jarayonida barqaror turish va holatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir mashqning texnikasi, harakat oralig‘i va yuklama darajasini hisobga olgan holda mashg‘ulot jarayonida to‘g‘ri joylashtirish sportchilarning natijalarini maksimal darajada oshiradi. Ushbu mashqlar kurashchilarning musobaqa sharoitiga moslashishini ta'minlab, ularning raqib ustidan ustunlik qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqorida keltirilgan mashqlardan muntazam foydalanish kurashchilarning tezkor-kuch ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, plyometrik va dinamik mashqlar sportchilarning refleks va portlovchi kuch qobiliyatini yaxshiladi. Tana vazniga asoslangan mashqlar esa sportchilarning kuchini barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mashqlarni tizimli ravishda mashg‘ulot jarayoniga joriy etish sportchilarning natijalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Kurashchilarning tezkor-kuch ko‘rsatkichlarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Innovatsion usullar sportchilarning natijalarini aniq tahlil qilish, mashg‘ulotlarni individuallashtirish va mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda boshqarish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalarni mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish orqali kurashchilarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sportni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi Qonuni.
3. Bompa T.O. "Periodization: Theory and Methodology of Training" — 2019.
4. Verkhoshanskiy Yu.V. "Fundamentals of Special Strength Training in Sport" — 2016.
5. Williams M. "High-Performance Training for Sports" — 2018.
6. Baker D. "Strength and Power Training for Sport Performance" — 2021.
7. Korobeynikov G.V. "Monitoring of Athletes' Functional State Using Innovative Technologies" — 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tursunov Shuxrat Sabitjanovich
Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati
kafedrasi p.f.b.f.d (PhD) v.b. professori
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Chirchiq, O‘zbekiston

YUNON-RIM KURASHCHILARINING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA KURASH USULLARINI TANLAB OLISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishda kurash usullarini tanlab olishning ahamiyati haqida Nazario ma’lumot va amaliy tajribalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Yunon-rim kurashi, texnik harakatlar, texnik holatlar, taktik harakatlar, darajalar, murabbiy pedogoglar, musoboqa faoliyati, tayyorgarlik takomillashuvi, usullar.*

Турсунов Шухрат Сабитьянович
Теория и методика международных видов борьбы
кафедра (PhD) и.о. профессор
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Чирчик, Узбекистан

ЗНАЧЕНИЕ ВЫБОРА МЕТОДОВ БОРЬБЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ГРЕКО-РИМСКИХ БОРЦОВ

Аннотация. *В данной исследовательской работе на примерах освещены несколько способов и уровней анализа использования отобранных методов в развитии технико-тактической подготовки борцов на основе педагогического подхода.*

Ключевые слова: *Греко-римская борьба, технические действия, технические ситуации, тактические действия, уровни, тренер-воспитатель, соревновательная деятельность, совершенствование подготовки, методы.*

Tursunov Shukhrat Sabitjanovich
Theory and methodology of types of international struggle
chair (PhD) v.b. professor
Uzbekistan State University of physical education and sports
Chirchik, Uzbekistan

THE IMPORTANCE OF CHOOSING METHODS OF STRUGGLE IN IMPROVING THE TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF GRECO-ROMAN WRESTLERS

Annotation. *In this research work, several methods and levels of analysis for the use of selected methods in the development of technical and tactical training of wrestlers on the basis of a pedagogical approach are covered by examples.*

Keywords. *Greco-Roman wrestling, technical actions, technical conditions, tactical actions, ranks, coach pedogogs, competition activities, preparation improvement, methods.*

Kirish.

Dunyo miqyosida yunon-rim kurashining tarixi uzoq o‘tmish eramizdan avvalgi birinchi olimpiada o‘yinlariga borib taqaladi, asrlar davomida sportning ushbu turi bo‘yicha ko‘plab rivojlangan davlatlarda yirik musobaqalar o‘tkazib kelingan va u keng ommalashtirilgan. Yunon-rim kurashi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Hozirgi kunda yunon-rim kurashi bilan dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida shug‘ullanishadi, shuning uchun ham ushbu sport turini jahon miqyosida yanada rivojlantirish, yunon-rim kurashchilarini tayyorlash tizimini ilmiy asoslab berish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili.

Barcha sport turlarida kabi, yunon-rim kurashi sport turida ham sohani rivojlantirishning ilmiy, nazariy va uslubiy asoslari texnik-taktik tayyorgarlik komponentlariga bog‘liq holda V.P.Filin, L.P.Matveev, L.P.Volkov, Yu.V.Verxoshanskiy, N.M. Galkovskiy, G.S.Tumanyan, Yu.F.Kuramshin, V.N.Platonov, M.A.Godik, J.K.Xolodov, V.S.Kuznesov, V.F.Boyko, G.V.Danko kabi yetakchi mutaxassis-olimlarning fundamental tadqiqotlarida yoritib berilgan. Bu borada mamlakatmizdagi va xorijdagi ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va bunday tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Pedagogik tajriba natijalari va ularning muhokamasi.

Yunon-rim kurashchilarida birinchi bosqich tadqiqotlardan so‘ng ayrim o‘zgarishlar sezildi va, o‘z navbatida, ikkinchi bosqich tekshiruviga qadar mashg‘ulot yuklamalarini o‘zgartirishga harakat qiluvchi. Mashg‘ulot vaqtida kurashchilarga berilayotgan odatdagidan farq qilgan yuklamalar sababli ularda ba’zi bir savollar, noroziliklar paydo bo‘ldi. Olib borilgan tushuntirish ishlari va musobaqadagi bellashuvlarni kuzatish vaqtida tahlil natijalarini ko‘rib nazorat guruhi kurashchilarida jismoniy sifatlarning rivojlanishida o‘ziga xos kamchiliklar mavjudligi kuzatildi.

Pedagogik tajribada belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tajriba va nazorat guruhlarida: tajriba boshida, o‘rtasida va oxirida tanlangan sinov mashqlarini bajarish natijalari aniqlab borildi.

1-jadval

Tajriba guruhi kurashchilarining tadqiqot oxirida texnik usullarni bajarishga sarflangan vaqt ko‘rsatkichlari dinamikasi.

T/r	F.I	Beldan oshirib tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)		Yelkadan oshirib tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)		Qo‘lni bo‘yinga o‘rab tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)		Yelkalardan oshirib tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)	
		1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta
1	A.I	0,78	14,2	0,78	14,2	0,8	14,2	0,79	14
2	S.Z	0,81	14,2	0,8	14,1	0,78	14	0,81	14,2
3	T.D	0,89	14,6	0,88	14,5	0,88	14,5	0,9	14,5
4	X.B	0,88	14,4	0,9	14,4	0,91	14,6	0,88	14,4
5	B.I	0,91	14,5	0,91	14,6	0,87	14,4	0,9	14,6
6	S.J	0,88	14,5	0,87	14,4	0,88	14,5	0,91	14,4
7	Yu.M	0,89	14,6	0,88	14,4	0,91	14,5	0,88	14,4
8	N.D	0,8	14,2	0,8	14,1	0,78	14	0,79	14,2
9	O.J	0,81	14,1	0,78	14,2	0,8	14,2	0,77	14,2
10	T.Sh	0,78	14,2	0,77	14	0,81	14,1	0,81	14
Taj oxir	$\sum X_1$	8,43	143,5	8,37	142,9	8,42	143	8,44	142,9
	$\overline{X}$	0,84	14,35	0,84	14,29	0,84	14,3	0,84	14,29
	σ	0,09	0,79	0,08	0,59	0,08	0,73	0,08	0,73
	V, %	6,06	1,32	6,64	1,38	6,28	1,58	6,47	1,42
Taj boo‘shida	$\overline{X}$	1,37	15,57	1,36	15,55	1,39	15,51	1,38	15,49
	σ	0,13	0,84	0,12	0,67	0,14	0,69	0,13	0,68
	t_{st}	6,37	3,43	5,52	3,67	4,94	3,96	4,67	3,77
	r	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05	<0,05

Tajriba guruhi yunon-rim kurashchilarini pedagogik tajriba jarayoni oxirida texnik usllarni bajarishga sarflangan vaqt ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi (1–jadval);

Beldan oshirib tashlash usulini bajarishga ketgan vaqt 1 marotaba uchun o‘rtacha 0.84 s ga teng bo‘lib, tajriba boshidagi natijaga (1,37 s) ga nisbatan yaxshilanganligi kuzatildi. Bu mashq bo‘yicha tajriba boshi va oxiridagi o‘rtacha arifmetik kattaliklar statistik ishonchli (r <0,05) bo‘ldi. 10 marta tashlashga ketgan vaqt ham tajriba oxiriga kelib 14.35 s gacha (15,57 s dan) yaxshilanganligi va bu o‘zgarish ham statistik ishonchli (r <0,05) ekanligi kuzatildi.

Yelkadan oshirib tashlash usulini 1 marotaba bajarishga ketgan vaqt tajriba boshida 1,36 s dan 0.84 s gacha yaxshilangan. Shu usulda 10 marta tashlashga ketgan vaqt esa 15,55 s dan 14.29 s gacha yaxshilangan va bu ikkala o‘zgarishlar ham statistik ishonchli (r <0,05).

Qo‘lni bo‘yinga o‘rab tashlash usulini 1 marotaba bajarishga ketgan vaqt 1,39 s dan 0.84 s gacha; shu usulda 10 marta tashlashga ketgan vaqt esa 15,51 s dan 14.3 s gacha

yaxshilangan (ikkala o‘zgarish ham statistik ishonchli bo‘lib, r <0,05).

Yelkalardan oshirib tashlash usulini 1 marotaba bajarishga ketgan vaqt 1,38 s dan 0.84 s gacha; 10 marta tashlashga ketgan vaqt esa 15,49 s dan 14.29 s gacha yaxshilangan bo‘lib, har ikkala o‘zgarishlar ham statistik ishonchli (r<0,05).

2-jadval

Nazorat guruhi kurashchilarning tadqiqot oxirida texnik usullarni bajarishga sarflangan vaqt ko‘rsatkichlari dinamikasi

T/r	F.I	Beldan oshirib tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)		Yelkadan oshirib tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)		Qo‘lni bo‘yinga o‘rab tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)		Yelkalardan oshirib tashlash usulini bajarishga (ketgan vaqt)	
		1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta	1 marta
1	T.A	0,98	15,1	0,98	15,2	0,98	15,2	0,98	15,2
2	A.A	0,98	15,2	0,97	15,2	0,99	14,9	0,99	15,1
3	X.A	0,97	15,2	0,97	15,1	0,97	15,1	0,98	15
4	M.A	0,98	15	0,99	15,2	0,98	15,2	0,98	15,2
5	M.S	0,99	15,2	0,98	14,9	0,97	15,2	0,99	15,1
6	S.A	0,97	15,2	0,98	15	0,98	15,1	0,97	15,2
7	B.Yo	0,99	15,2	0,97	15,2	0,99	15,1	0,98	15,2
8	Q.K	0,98	15,1	0,98	15,2	0,97	15,1	0,97	15
9	X.R	0,98	15,1	0,98	15,2	0,99	15,2	0,99	15,2
10	Z.S	0,99	15,2	0,96	15,1	0,98	15,2	0,98	15,2
Taj oxir	$\sum X_1$	9,81	151,5	9,76	151,3	9,8	151,3	9,81	151,4
	$\overline{X}$	0,981	15,15	0,976	15,13	0,98	15,13	0,981	15,14
	σ	0,09	0,071	0,008	0,106	0,09	0,095	0,09	0,084
	V, %	0,75	0,47	0,86	0,70	0,83	0,63	0,75	0,56
Taj boshida	$\overline{X}$	1,34	15,37	1,34	15,39	1,33	15,33	1,34	15,32
	σ	0,12	0,183	0,052	0,2807	0,12	0,2908	0,12	0,2741
	t_{st}	3,54	2,36	2,21	2,04	4,59	2,07	4,76	1,99
	p	<0,05	<0,05	<0,05	>0,05	<0,05	>0,05	<0,05	>0,05

Nazorat guruhi yunon-rim kurashchilarining pedagogik tajriba jarayoni oxiridagi texnik usullarni bajarishga sarflangan vaqt ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalari quyidagicha ifodalandi

Beldan oshirib tashlash usulini 1 marotaba bajarishga ketgan vaqt tajriba boshida o‘rtacha 1,34 s dan tajriba oxirida 0.98 s gacha; 10 marotaba bajarishga ketgan vaqt esa tajriba boshida 15,37 s dan 15.15 s gacha yaxshilangan (har ikkala usul bo‘yicha o‘zgarishlar statistik ishonchli (R <0,05).

Yelkadan oshirib tashlash usulini 1 marotaba bajarishga ketgan vaqtning o‘rtacha arifmetik qiymati tajriba boshida 1,34 s dan tajriba oxirida 0,976 s gacha yaxshilandi statistik ishonchli (R <0,05); shu usulda 10 marta tashlashga ketgan vaqt esa tajriba boshida o‘rtacha 15,39 s dan tajriba oxirida 15.13 s gacha yaxshilangan, biroq bu o‘zgarish statistik ishonchsiz (R > 0,05).

Qo‘lni bo‘yinga o‘rab tashlash usulini 1 marotaba bajarishga ketgan vaqt tajriba boshida 1,33 s dan 0.98 s gacha (statistik ishonchli; r <0,05); shu usulda 10 marta tashlashga ketgan vaqt 15,33 s dan 15.13 s gacha yaxshilangan, biroq o‘zgarish statistik ishonchsiz (r > 0,05).

Yelkalardan oshirib tashlash usulini 1 marotaba bajarishga ketgan vaqt tajriba boshida 1,34 s dan 0.98 s gacha yaxshilangan (statistik ishonchli, r <0,05); shu usulda 10 marta tashlashga ketgan vaqt esa 15,32 s dan 15.14 s gacha yaxshilangan (statistik ishonchsiz; r > 0,05).

Xulosa. Sport kurashlarida texnik-taktik harakatlarning tasniflari Bir qator musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlarining son tavsiflari tahlili musobaqa faoliyati davrida bellashuvlarni olib borishning individual xususiyatlari ishonchli o‘zaro bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli bellashuvlarning batafsil tahlili tekshirilayotgan kurashchilar tomonidan qo‘llaniladigan asosiy usullarni hamda kurashchilar musobaqa faoliyati individual xususiyatlarini aniqlab berdi va qo‘llaniladigan asosiy usullarni takomillashtirish uchun maxsus mashqlarni ishlab chiqish hamda tavsiyalarni mashg‘ulot jarayoniga joriy etishga imkon yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. T., 2005. 34-b.
2. Abdullayev Sh.A., Xolmatov A.I. – Malakali kurashchilarni tayyorlashning ilmiy – uslubiy asoslari. Toshkent 2015 y. Uslubiy qo‘llanma. 60 bet
3. Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati.Toshkent 2017 y. 210-222-b.
4. Arslonov Sh.A. Tangriyev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Dzyudo kurashi bo‘yicha). Darslik – 2017 y 35-b
5. Bayturayev E.I., Odilov B.B. – Sambo bo‘yicha sport pedagogik mahoratini oshirish. O‘quv qo‘llanma 2018 y. 66-b
6. Алиханов И.І. - Техника и тактика волной Борби. І.І.Алиханов. - М. : Физкультура и спорт, 1986.-304 С.
7. Tursunov Sh.S.- Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi 2019-y.-154-b

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mamirjon Xalmirzayev Axunjanovich
Alfraganus University Matematika va fizika kafedrasi katta o‘qituvchisi
mamir_221963@mail.ru

NEYROPEDAGOGIKA: TARAQQIYOT TADRIJI VA MAZMUNI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inson miyasining o‘quv jarayonidagi roli va imkoniyatlarini tadqiq qilish, Miyaning o‘quv materialini qabul qilish, qayta ishlash va xotiraga muhrlash jarayonlari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egaligi, neyroilm va pedagogikaning o‘zaro integratsiyasi, neyrofiziologiya va kognitiv psixologiya sohalari, o‘quvchilarga axborotni oson o‘zlashtirish hamda uzoq muddat xotirada saqlash imkonini berishiga o‘quvchilarga axborotni oson o‘zlashtirish hamda uzoq muddat xotirada saqlash imkonini berishiga oid ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Neyropedagogika, neyrofiziologiya, kognitiv, neyroilm, nevrologiya, individual, innovasion, texnologiyalar, integratsiya.*

Мамиржон Халмирзаев Ахунжанович
Старший преподаватель кафедры математики и физики Alfraganus University

НЕЙРОПЕДАГОГИКА: РАЗВИТИЕ ТАДРИДЖИ И СОДЕРЖАНИЕ

Аннотация: *В данной статье исследуется роль и возможности человеческого мозга в процессе обучения, а также процессы восприятия учебного материала, его переработки и запоминания, которые имеют важное значение для повышения эффективности учебного процесса. Осуществляется интеграция нейронауки и педагогики, освещаются вопросы нейрофизиологии и когнитивной психологии, а также возможности легкого усвоения информации учениками и ее долговременного сохранения в памяти.*

Ключевые слова: *Нейропедагогика, нейрофизиология, когнитивная психология, нейронаука, неврология, индивидуальные, инновационные технологии, интеграция.*

Mamirjon Khalmirzaev Akhunjanovich
Senior Lecturer at the Department of Mathematics and Physics, Alfraganus University

NEUROPEDAGOGY: DEVELOPMENT OF TADRIGI AND CONTENT

Abstract: *This article explores the role and potential of the human brain in the learning process, as well as the processes of perceiving, processing, and encoding educational material, which are crucial for enhancing the effectiveness of the learning process. The integration of neuroscience and pedagogy is discussed, focusing on neurophysiology and cognitive psychology, as well as how students can easily assimilate information and retain it in long-term memory.*

Keywords: *Neuro-pedagogy, neurophysiology, cognitive psychology, neuroscience, neurology, individual, innovative technologies, integration.*

Kirish.

Ilgari ta’lim usullari asosan psixologiya va pedagogikaning umumiy qoidalariga tayangan bo‘lsa, keyinchalik inson miyasining o‘rganish jarayonidagi roliga oid neyrobiologik tadqiqotlar ushbu sohaning rivojlanishiga turtki berdi. Neyropedagogika neyroilm va pedagogikaning o‘zaro integratsiyasi natijasida vujudga keldi.Bu soha fanlarni o‘zaro integratsiyasi asosida miyaning o‘quv materialini qabul qilish, qayta ishlash va xotiraga muhrlash jarayonlari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili.

Shveysariyalik psixolog Jan Piaje bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib “Bolaning aqliy rivojlanishi” asarida bolalarning aqliy rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan[2] Shuningdek, amerikalik psixolog Byorrxus Frederik Skinner “Verbal xulq” asarida o‘rganish jarayonida mukofot va jazoning ahamiyati, shuningdek, til o‘rganishdagi bixevioristik yondashuvlar tahlil qilingan.[5]

Kanadalik neyrofiziolog Donald Xebb esa “Miya faoliyati va xulq” asarida neyronlar o‘rtasidagi

aloqalarning mustahkamlanishi orqali o‘rganish va xotira jarayonlarini tushuntirib bergan[6]

Kognitiv psixolog Jon Andersonning tadqiqotlari inson xotirasining tuzilmasi xotiraning turli shakllari, ularning o‘zaro aloqasi va o‘quv jarayonidagi ahamiyatini tushunishga yordam bergan.[9]

Neyropedagogika: taraqqiyot tadriji va mazmuni

Neyropedagogikaning paydo bo‘lishi pedagogika va neyroilmning o‘zaro kesishuvi natijasida yuzaga kelgan. Ilgari ta’lim usullari asosan psixologiya va pedagogikaning umumiy qoidalariga tayangan bo‘lsa, keyinchalik inson miyasining o‘rganish jarayonidagi roliga oid neyrobiologik tadqiqotlar ushbu sohaning rivojlanishiga turtki berdi. Zamonaviy neyroilmiy izlanishlar miyaning o‘quv materialini qabul qilish, uni qayta ishlash va xotiraga muhrlash jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Bu esa ta’lim metodlarini inson miyasi imkoniyatlariga moslashtirish zaruratini yuzaga chiqarib, neyropedagogikaning alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi.

Neyropedagogika – bu neyroilm va pedagogikaning o‘zaro integratsiyasi natijasida vujudga kelgan ilmiy sohadir. U ta’lim jarayonini inson miyasining kognitiv va neyrofiziologik xususiyatlariga asoslanib o‘rganadi va samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqishni maqsad qiladi. Neyropedagogikaning shakllanishi bir necha ilmiy yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqqan bo‘lib, u asosan nevrologiya, psixologiya, kognitiv ilmlar va ta’lim metodologiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Neyropedagogika inson miyasining o‘quv jarayonidagi roli va imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali pedagogik usullarni takomillashtirishni nazarda tutadi. Miyaning o‘quv materialini qabul qilish, qayta ishlash va xotiraga muhrlash jarayonlari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois neyropedagogik tadqiqotlar inson miyasining fiziologik va kognitiv mexanizmlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’lim jarayonida eng samarali yondashuvlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ta’lim metodlarini neyroilmiy asoslarda shakllantirish o‘quvchilar va talabalarning individual o‘rganish qobiliyatini hisobga olish imkonini beradi. Har bir inson miyasining axborotni qayta ishlash jarayoni turlicha kechadi, shu sababli neyropedagogika shaxsiylashtirilgan ta’lim metodlarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Bunday yondashuvlar o‘quvchiga mos keladigan o‘rganish uslublarini aniqlashga va ularni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanishida fanlararo tadqiqotlarning o‘rni katta bo‘ldi. Xususan, neyrofiziologiya va kognitiv psixologiya sohalaridagi kashfiyotlar inson xotirasi, diqqat, mantiqiy tafakkuri va o‘rganish jarayoni qanday kechishini aniqlashga imkon berdi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik metodlarni takomillashtirish va yangi innovasion ta’lim texnologiyalarini joriy etishga turtki bo‘ldi.

Zamonaviy neyropedagogika turli o‘quv jarayonlarida qo‘llaniladi va o‘quvchilarga axborotni oson o‘zlashtirish hamda uzoq muddat xotirada saqlash imkonini beradi. Bu yo‘nalishda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan neyropedagogik tamoyillar ta’lim tizimida qo‘llanila boshladi. Bugungi kunda neyropedagogika yordamida o‘quv jarayonini optimallashtirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ta’limda innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlar keng tadqiq etilmoqda.

Neyropedagogikaning pedagogikadagi ahamiyati shundan iboratki, u nafaqat an’anaviy o‘qitish metodlarini takomillashtiradi, balki yangi yondashuvlarni joriy etish orqali o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishga va o‘quv jarayonini miyaning fiziologik xususiyatlariga moslashtirishga imkon yaratadi.

Neyropedagogikaning ilmiy tadqiqotlardagi ilk ko‘rinishlari neyroilm va pedagogika sohalari o‘rtasidagi integratsiya jarayonida namoyon bo‘lgan. Xususan, kognitiv nevrologiya va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan izlanishlar bu sohaning rivojlanishiga turtki bergan. Masalan, amerikalik psixolog va neyrobiolog Jon Dyui ta’limda tajriba va amaliy faoliyatning ahamiyatini ta’kidlab, o‘quv jarayonini faollashtirishga qaratilgan yondashuvlarni ilgari surgan. Uning “Tajriba va ta’lim” asarida ta’limda tajriba orqali o‘rganishning ahamiyati yoritilgan.[7] Shuningdek, shveysariyalik psixolog Jan Piaje bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, ta’lim jarayonini miyaning rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ko‘rsatib bergan. Uning “Bolaning aqliy rivojlanishi” asarida bolalarning aqliy rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan.[8] Bundan tashqari, bolgar olimi Georgiy Lozanov 1960-yillarda *suggestologiya va suggestopediya* nazariyalarini ishlab chiqib, o‘qitish jarayonida suggestiya usullaridan foydalanish orqali o‘rganish samaradorligini oshirishga e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari natijasida suggestopediya usuli ta’limda qo‘llanila boshlangan.[9] Bu tadqiqotlar neyropedagogikaning ilmiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan.

XIX va XX asrlarda pedagogika va neyroilm sohalarida o‘tkazilgan muhim tadqiqotlar neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanishiga katta

[7] Dewey J. Experience and Education. New York: 1938. Macmillan. –P.91.
[8] Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. New York: 1952. International Universities Press. –P.419.
[9] Lozanov G. Suggestology and Outlines of Suggestopedy. New York: 1978. Gordon and Breach Science Publishers. –P.368.

ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrdagi izlanishlar ta’lim jarayonini inson miyasining fiziologik va kognitiv xususiyatlari bilan bog‘lashga qaratilgan bo‘lib, ularning natijalari zamonaviy neyropedagogikaning ilmiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, rus fiziologi Ivan Pavlov XIX asr oxiri va XX asr boshlarida *shartli reflekslar* haqidagi tadqiqotlari bilan mashhur bo‘lgan. Uning “Sharlti reflekslar” asarida inson va hayvonlardagi o‘rganish jarayonlarining neyrofiziologik mexanizmlari yoritilgan.[10] Pavlovning bu ishlari o‘rganish va xotira jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim metodlarini takomillashtirishga zamin yaratgan.

Shuningdek, amerikalik psixolog Byorrxus Frederik Skinner XX asrning o‘rtalarida *bixeviorizm* yo‘nalishidagi tadqiqotlari bilan tanilgan. Uning “Verbal xulq” asarida o‘rganish jarayonida mukofot va jazoning ahamiyati, shuningdek, til o‘rganishdagi bixevioristik yondashuvlar tahlil qilingan.[11] Skinnerning ishlari ta’lim jarayonida rag‘batlantirish va motivatsiyaning ahamiyatini ko‘rsatib, o‘qitish usullarini rivojlantirishga hissa qo‘shgan.

Kanadalik neyrofiziolog Donald Xebb 1949 yilda “Miya faoliyati va xulq” asarini nashr etgan. Ushbu asarda u neyronlar o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi orqali o‘rganish va xotira jarayonlarini tushuntirib bergan.[12] Xebbning “Nyeyronlar birgalikda faoliyat ko‘rsatganda, ularning aloqasi mustahkamlanadi” degan g‘oyasi keyinchalik neyroplastiklik konsepsiyasining asosini tashkil etgan.

Ushbu tadqiqotlar va ularning natijalari neyropedagogikaning ilmiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ta’lim jarayonini inson miyasining fiziologik va kognitiv xususiyatlariga moslashtirishga yordam bergan.

Neyropedagogikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi inson miyasining o‘rganish jarayonidagi o‘rnini chuqurroq o‘rganish va ta’lim samaradorligini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj natijasida yuzaga keldi. Ilgari ta’lim usullari asosan pedagogika va psixologiya nazariyalariga tayangan bo‘lsa, neyrobiologiya, kognitiv fanlar va neyrofiziologiya sohalaridagi taraqqiyot pedagogik yondashuvlarni tubdan o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqardi. Neyropedagogika miya faoliyati va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilib, shaxsiylashtirilgan va samarali ta’lim modellarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Neyropedagogika fanining shakllanishiga asos solganlardan biri nemis psixologi German Ebbingaus bo‘lib, u xotira va unutish jarayonlarini o‘rganish orqali ta’limda takrorlash va mustaqil o‘rganishni rivojlantirish zarurligini isbotladi. Uning tadqiqotlari neyropedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri – o‘quv jarayonidagi axborotni xotiraga muhrlash mexanizmlarini tushunishga yo‘naltirilgan edi.[13] Keyinchalik amerikalik psixolog va neyrobiolog Donald Xebb miyadagi neyron aloqalarining shakllanishi va mustahkamlanishi haqidagi nazariyasi bilan tanilgan. Ushbu konsepsiya ta’lim jarayonida tajriba va takrorlash orqali neyronlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashning ahamiyatini isbotladi.[14]

XX asrning ikkinchi yarmida neyroilm va ta’limning birlashuvi yanada kengayib, neyropedagogikaning mustaqil tadqiqot ob’yekti sifatida shakllanishiga asos yaratdi. Xususan, neyrobiologiya va kognitiv psixologiyadagi kashfiyotlar ta’lim jarayonini shaxsning individual kognitiv xususiyatlariga moslashtirish mumkinligini ko‘rsatdi. Shuningdek, kognitiv fanlar, psixologik pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari neyropedagogikaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillardan biriga aylandi.

Zamonaviy neyropedagogika turli fanlar kesishuvida shakllangan bo‘lib, u shaxsiylashtirilgan ta’lim, miya faoliyatiga asoslangan o‘qitish metodlari, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish usullari va innovasion ta’lim texnologiyalarini qamrab oladi. Ushbu fanning rivojlanishi natijasida o‘quvchilarning o‘rganish qobiliyatini yaxshilash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini individuallashtirish kabi masalalarga yangi yondashuvlar taklif qilinmoqda.

Bugungi kunda neyropedagogika faqat nazariy tadqiqotlar bilan cheklanmay, balki amaliy jihatdan ham rivojlanmoqda. Ayniqsa, kognitiv va neyrobiologik tadqiqotlar asosida yangi o‘qitish metodikalari ishlab chiqilib, ular tajriba-sinov asosida ta’lim jarayoniga joriy etilmoqda. Shu tariqa, neyropedagogika mustaqil fan sifatida shakllanib, ta’lim tizimida yangi innovasion yondashuvlarning ishlab chiqilishiga zamin yaratmoqda.

Zamonaviy neyropedagogikaning ilmiy asoslari inson miyasining kognitiv va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar natijasida shakllangan. Bu sohaning rivojlanishiga kognitiv neyrobiologiya, psixologiya, pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi fanlar kesishuvidagi ilmiy izlanishlar turtki berdi. Zamonaviy neyropedagogika ta’lim jarayonidagi samaradorlikni oshirish maqsadida miya faoliyatining individual xususiyatlarini inobatga olish, xotira va diqqatni yaxshilash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarga asoslangan.

---

[10] Павлов И. П. Условный рефлекс. Санкт-Петербург: 2014. ИГ Лениздат. –С.256.

[11] Skinner B. F. Verbal Behavior. New York: 1957. Appleton-Century-Crofts. –P.478.

[12] Hebb D. O. The Organization of Behavior: A Neuropsychological Theory. New York: 1949. Wiley. –P.335.

[13] Ebbinghaus H. Über das Gedächtnis: Untersuchungen zur experimentellen Psychologie. Salzwasser: 2013. Verlag GmbH. –P.120 саҳифа.

[14] Hebb D. O. The Organization of Behavior: A Neuropsychological Theory. Mahwah, NJ: 2002. Psychology Press. 378 саҳифа.

Kognitiv neyroilm sohasidagi tadqiqotlar neyropedagogikaning nazariy asoslarini shakllantirgan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, kognitiv psixolog Jon Andersonning tadqiqotlari inson xotirasining tuzilmasi va unda axborotni qayta ishlash jarayonlariga bag‘ishlangan bo‘lib, u “Aniq va implisit xotira” konsepsiyasini rivojlantirgan. Uning tadqiqotlari xotiraning turli shakllari, ularning o‘zaro aloqasi va o‘quv jarayonidagi ahamiyatini tushunishga yordam bergan.[15]

Shuningdek, zamonaviy neyrobiologlar miya plastikligi haqidagi nazariyalarni rivojlantirib, ta’lim jarayonini miyaning dinamik o‘zgarishlariga moslashtirish mumkinligini ko‘rsatganlar. Masalan, kanadalik neyrobiolog Maykl Merzenich miya plastikligi haqidagi tadqiqotlari bilan mashhur bo‘lib, u o‘rganish jarayoni davomida miyadagi neyron aloqalarning qanday shakllanishini tushuntirgan. Uning tadqiqotlari asosida neyropedagogikada miya faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘qitish metodikalari rivojlantirilgan.[16]

Zamonaviy neyropedagogikaning yana bir muhim jihati – ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishdir. Virtual va qo‘shimcha reallik, adaptiv o‘qitish platformalari, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari miya faoliyatini faollashtirish va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatini yaratadi. Bunday yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda e’tiborni jamlash, xotirani mustahkamlash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Neyropedagogikada emosional intellekt va motivatsiya masalalari ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlar miyada dofamin va serotonin kabi neyromediatorlarning o‘rganish jarayonidagi rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Masalan, amerikalik neyrobiolog Djon Medinaning “Miya qoidalari” asarida o‘rganish jarayonida stress va hissiy holatning ta’siri batafsil yoritilgan bo‘lib, u emosional holatni nazorat qilish orqali ta’lim jarayonini yaxshilash mumkinligini ko‘rsatgan.[17]

Zamonaviy neyropedagogika shaxsiylashtirilgan o‘qitish modellarini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuvda har bir o‘quvchining individual kognitiv xususiyatlari, o‘rganish usullari va qobiliyatlari hisobga olinadi. Bunday modellar asosida adaptiv o‘qitish texnologiyalari va sun’iy intellektdan foydalangan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayonlari yaratiladi. Bu esa neyropedagogikaning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi va kelajakda ta’lim tizimining yangi yo‘nalishlarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Neyropedagogika va kognitiv fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik inson miyasining o‘rganish jarayonidagi o‘rni va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish usullarini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Kognitiv fanlar, jumladan, kognitiv psixologiya, kognitiv nevrologiya, neyropsixologiya va axborotni qayta ishlash nazariyalari neyropedagogikaning ilmiy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanlarning birlashuvi ta’lim jarayonida o‘quvchining ongli faoliyatini yaxshiroq tushunish, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, xotirani mustahkamlash va samarali o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Kognitiv psixologiya insonning o‘rganish jarayonidagi fikrlash, diqqat, xotira, mantiqiy tahlil va qaror qabul qilish kabi jarayonlarini o‘rganadi. Jon Andersonning kognitiv psixologiya bo‘yicha tadqiqotlari inson xotirasining tuzilishi va axborotni qayta ishlash jarayonlari haqida muhim ma’lumotlarni beradi.[18] Bu tadqiqotlar asosida neyropedagogikada ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun kognitiv strategiyalar qo‘llaniladi.

Kognitiv nevrologiya esa inson miyasidagi neyronlar va ularning o‘zaro aloqasi asosida o‘rganish jarayonini qanday shakllanishini o‘rganadi. Masalan, kanadalik neyrobiolog Donald Xebbning “Neyronlar birgalikda faoliyat ko‘rsatganda, ularning aloqasi mustahkamlanadi” degan g‘oyasi miyadagi neyron aloqalarining shakllanishi va mustahkamlanish jarayonlarini tushuntirib beradi.[19] Uning tadqiqotlari neyropedagogikada o‘quvchilarning bilimlarni mustahkamlash jarayonlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan metodikalarni ishlab chiqishga asos bo‘lgan.

Xulosalar.

Neyropsixologiya ta’lim jarayonida individual farqlarni inobatga olishga imkon beradi. Masalan, ko‘plab o‘quvchilarda xotira turlari, diqqat va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari turlicha namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, neyropedagogika shaxsiylashtirilgan ta’lim modellarini ishlab chiqish uchun neyropsixologik tadqiqotlarga tayanadi. Masalan, miyaning turli sohalari qanday ishlashini o‘rganish orqali disleksiya, giperaktivlik va diqqat yetishmovchiligi kabi holatlarga moslashgan o‘qitish metodikalari ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Stress va hissiy holatning ta’sirini , emosional holatni nazorat qilish orqali ta’lim jarayonini yaxshilash mumkin .

Adabiyotlar.

1. Dewey J. Experience and Education. New York: 1938. Macmillan. –R.91.

[15] Anderson J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. New York: 2015. Worth Publishers. –P.512.

[16] Merzenich M. Soft-Wired: How the New Science of Brain Plasticity Can Change Your Life. San Francisco: 2013. Parnassus Publishing. –P.246.

[17] Medina J. Brain Rules: 12 Principles for Surviving and Thriving at Work, Home, and School. Seattle: 2014. Pear Press. –P.301.

2. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. New York: 1952. International Universities Press. –R.419.
3. Skinner B. F. Verbal Behavior. New York: 1957. Appleton-Century-Crofts. –R.478.
4. Hebb D. O. The Organization of Behavior: A Neuropsychological Theory. Mahwah, NJ: 2002. Psychology Press. 378 sahifa.
5. Anderson J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. New York: 2015. Worth Publishers. –R.512.
6. Kurbatov, A. V. (2012). Neyropedagogika: teoriya va amaliy yo‘nalishlar. — Moskva: Pedagogika.
7. Zinatullin, R. R. (2015). Neyropsixologiya va neyropedagogika. — Kazan
8. Batalova, L. I. (2017). Neyropedagogika: o‘zgaruvchanlik va tahlil. — Sankt-Peterburg: RGPU.
9. Leontyev, A. N. (2018). Neyropedagogika asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti.
10. Sorokina, I. V. (2019). Neyropedagogika: pedagogik muvofiqlashtirish. — Yekaterinburg: Ural universiteti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Замилова Римма Рамильевна
доктор педагогических наук, профессор
Сулейманова Эльнара Диляверовна
«Русский язык и литература», 1-курс магистратуры
Email: sulejmanovaelnara77@gmail.com

НАУЧНАЯ ФАНТАСТИКА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация: *В статье рассматривается научная фантастика как инструмент развития критического мышления и мотивации к познанию. Особое внимание уделяется влиянию жанра на способность читателя сопоставлять художественные допущения с реальными научными данными, что способствует развитию аналитического мышления, творческого подхода и стремления к саморазвитию. Рассматривается влияние жанра на эмоциональную вовлеченность обучающихся, что способствует формированию устойчивого интереса к науке и технологии.*

Ключевые слова: *научная фантастика, мотивационные факторы, критическое мышление, сценарии будущего, гипотеза, мотивация, интеллект.*

Zamilova Rimma Ramilyevna
pedagogika fanlari doktori, professor
Sulaymonova Elnara Dilyaverovna
“Rus tili va adabiyoti” magistratura 1-kurs talabasi

TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA ILMIY FANTASTIKA

Annotatsiya: *Maqolada ilmiy fantastika tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va bilimga intilishni rag‘batlantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, janrning o‘quvchining badiiy farazlarni real ilmiy ma’lumotlar bilan taqqoslash qobiliyatiga ta’siri alohida e’tiborga olinadi, bu esa tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, janrning o‘quvchilarning hissiy jalb etilishiga ta’siri o‘rganilib, bu ularning ilm-fan va texnologiyaga bo‘lgan barqaror qiziqishini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy fantastika, motivatsion omillar, tanqidiy tafakkur, kelajak ssenariylari, gipoteza, motivatsiya, intellekt.*

Zamilova Rimma Ramilevna
Doctor of Pedagogical Sciences, professor
Suleymanova Elnara Dilyaverovna,
Master’s Student, 1st Year, "Russian language and literature"

SCIENCE FICTION AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING

Annotation: *The article examines science fiction as a tool for developing critical thinking and motivation for learning. Special attention is given to the genre’s impact on the reader’s ability to compare artistic assumptions with real scientific data, which contributes to the development of analytical thinking, a creative approach, and a desire for self-improvement.*

Keywords: *science fiction, motivational factors, critical thinking, future scenarios, hypothesis, motivation, intelligence.*

Современный мир сталкивается с беспрецедентным потоком информации. Ежедневно человек подвергается воздействию множества новостей, рекламных сообщений, научных открытий, социальных сетей и политических заявлений. В этих условиях способность анализировать, сопоставлять и интерпретировать информацию становится необходимым навыком.

Научная фантастика как фактор развития критического мышления представляет собой значимый объект исследования в контексте современных когнитивных и культурологических наук. Этот жанр литературы, кинематографа и других форм искусства, основанный на предположениях о возможных научных, технологических или социальных изменениях, обладает уникальным потенциалом для

стимулирования аналитических способностей человека. В отличие от традиционных образовательных подходов, научная фантастика предлагает нестандартный путь к развитию критического мышления, вовлекая индивида в процесс осмысления гипотетических сценариев, которые требуют оценки, интерпретации и прогнозирования.

Халперн Д. отмечает, что «Критическое мышление - это использование когнитивных техник или стратегий, которые увеличивают вероятность получения желаемого конечного результата» [1; С. 22]. Это значит, что критическое мышление не даётся от природы, а формируется благодаря осознанному применению интеллектуальных инструментов, помогающих принимать разумные и аргументированные решения. Неотъемлемой частью критического мышления является формулирование вопросов. Умение задавать правильные вопросы позволяет глубже разобраться в проблеме, выявить ключевые аспекты и обнаружить альтернативные точки зрения. Это особенно важно при работе с научными, социальными или экономическими данными, где важно учитывать различные перспективы и избегать однобокого восприятия. Кроме того, критическое мышление помогает прогнозировать последствия принимаемых решений. Умение анализировать возможные сценарии развития событий позволяет избежать нежелательных последствий и выбрать оптимальную стратегию действий.

С.Плаус рассматривал идеи критического мышления, ориентированные на решение задач. Он утверждал, что человеческое восприятие изначально избирательно в процессе мышления. На принятие решений оказывают влияние как когнитивные, так и мотивационные факторы, при этом одни из них связаны с мыслительной деятельностью, а другие - с эмоциональной сферой [2; С. 23].

Когнитивные факторы отражают особенности работы разума при обработке информации. Во-первых, люди используют устойчивые мыслительные схемы, которые помогают быстро ориентироваться в сложной среде, но при этом могут ограничивать гибкость мышления. Например, человек, привыкший к определённому способу решения проблемы, может игнорировать альтернативные пути, даже если они эффективнее. Во-вторых, критическое мышление подвержено когнитивным искажениям, таким как подтверждающее предвзятость — склонность замечать только те факты, которые соответствуют уже сложившимся убеждениям. В-третьих, важную роль играют логические стратегии: умение анализировать причинно-следственные связи, использовать дедуктивные и индуктивные методы рассуждения.

Мотивационные факторы связаны с эмоциональной и психологической составляющей процесса мышления. Действия человека часто принимаются под влиянием субъективных чувств: страха, уверенности, симпатии или отторжения. Например, если информация вызывает тревогу, человек может отвергнуть её, даже если она логически обоснована. Кроме того, мотивационные факторы определяют, насколько человек готов воспринимать новые идеи и признавать ошибки. Высокий уровень саморефлексии и открытость к изменениям позволяют более эффективно использовать критическое мышление в принятии решений.

Проблема развития критического мышления привлекала внимание многих психологов и педагогов. Л. С. Выготский определял этот термин как особый вид интеллектуальной деятельности, который характеризуется высоким уровнем восприятия, понимания и объективного подхода к анализу информации. В процессе мышления человек должен чётко сформулировать цель, создать мотивацию для её достижения и развить способность к самостоятельному анализу. В условиях большого потока информации важно уметь рационально мыслить, выделяя значимые данные и осмысленно их интерпретируя [3].

Значительную роль в развитии критического мышления играет научная фантастика, так как заставляет читателя анализировать альтернативные сценарии будущего, ставить под сомнение устоявшиеся представления о мире и рассматривать научные и социальные проблемы под другим ракурсом. Этот жанр стимулирует способность оценивать информацию, отличать реальное от спекулятивного и выявлять скрытые допущения в аргументации. Многие произведения научной фантастики, опираясь на современные научные достижения, моделируют возможные последствия технологического прогресса, что требует от читателя осознанного подхода к оценке гипотез и концепций.

«…Научная фантастика определяла наше видение будущего в уходящем веке», отмечал М. Н. Эпштейн [4; С.100]. Фантастические произведения продолжают формировать представления о возможных научных открытиях, социальных изменениях и технологическом прогрессе. Многие идеи, впервые появившиеся в фантастике, вдохновляют учёных и инженеров: концепции искусственного интеллекта, колонизации космоса, кибернетики и биотехнологий находят своё воплощение в современных исследованиях. При этом фантастика не только предсказывает будущее, но и предупреждает о возможных рисках - таких как экологические катастрофы, этические дилеммы в использовании технологий или социальное неравенство. Этот жанр остаётся важным инструментом осмысления будущего, помогая людям критически оценивать современные

тенденции и формировать осознанное отношение к грядущим изменениям.

Произведения в жанре научной фантастики стали неотъемлемой частью общественного мировоззрения и гуманитарной культуры XX – начала XXI века. Этот жанр отражает стремление к будущему, формируя образы новых социальных моделей и культурных концепций, тем самым отвечая запросам «человека творческого» — личности, ориентированной на поиск, эксперименты и преобразование реальности. В современном гуманитарном дискурсе научная фантастика выступает как своеобразная альтернатива традиционной философии, предлагая художественно-образные интерпретации сложных мировоззренческих вопросов. Через символику, метафоры и гипотетические сценарии она не только исследует фундаментальные философские проблемы, но и помогает выстраивать концептуальные проекты будущего, объединяя науку, искусство и социальную мысль.

По мнению современного российского философа и исследователя в области философской антропологии С. С. Хоружего, научная фантастика за последние десятилетия способствовала развитию уникального феномена - «актуализации антропологического воображения» [5]. Этот жанр не только демонстрирует, как технократическая культура поглощает и переосмысляет человеческое измерение, но и сам становится значимым фактором формирования нового антропологического поворота в европейской мысли. Он отражает изменения в мировоззренческой идентичности человека, переход от модерна к постмодерну, предоставляя инструменты для осмысления и моделирования новой антропологической реальности.

Актуализация «антропологического воображения» заключается в том, что человек современной культуры всё чаще оказывается в новых, условных контекстах существования, где границы реальности становятся подвижными и воображаемыми. Это открывает возможность гибко перестраивать свою мировоззренческую идентичность в условиях технократической или виртуализированной среды. Этот процесс нашёл отражение в научной фантастике, где писатели создавали философско-антропологические образы, способные преобразовывать массовое сознание, внедряясь в культурное пространство через художественные и литературные средства.

Литература научной фантастики и критическое мышление тесно взаимосвязаны, поскольку этот жанр не только предлагает альтернативные сценарии будущего, но и побуждает читателя к анализу, оценке достоверности идей и прогнозов. Фантастические произведения часто ставят перед человеком вопросы о природе науки, границах технологического прогресса, этических дилеммах и возможных последствиях открытий. Читая научную фантастику, человек сталкивается с гипотезами, которые требуют осмысленной проверки: насколько вероятно развитие предложенных технологий, какие логические допущения лежат в основе повествования, какие социальные или философские проблемы поднимаются? Такой интеллектуальный процесс активизирует критическое мышление, учит отделять факты от предположений и осознавать многозначность будущего. Следовательно, научная фантастика не только расширяет горизонты воображения, но и способствует формированию аналитического и скептического подхода к информации, что особенно важно в современном мире с его огромным потоком данных и сложными вызовами.

Научная фантастика не раз предвосхищала будущее, описывая технологии и явления, которые позже стали реальностью. Многие писатели, основываясь на логике научного прогресса и наблюдении за обществом, предсказывали изобретения, социальные изменения и глобальные тенденции. Так, Жюль Верн в романе «Из пушки на Луну» (1865) описал космическое путешествие, удивительно похожее на миссию «Аполлона-11»: запуск из США, алюминиевый корпус корабля, приводнение в океане. Это произведение вдохновило многих учёных, в том числе Константина Циолковского. Герберт Уэллс в «Войне миров» (1898) описал концепцию тотальной войны, а также использовал идею лазерного оружия задолго до его появления. Кроме того, в романе присутствует описание бактерий как фактора победы над врагом, что предвосхитило биологические исследования.

В XX веке фантастика продолжила открывать дорогу в будущее. Джордж Оруэлл в произведении «1984» (1949) точно описал общество тотального контроля, с механизмами массового наблюдения, цензуры и манипуляции сознанием, которые стали особенно актуальными в эпоху цифровых технологий. Рэй Брэдбери в «451 градус по Фаренгейту» (1953) предсказал появление плоских телевизоров, беспроводных наушников и падение интереса к чтению из-за массовой культуры. Айзек Азимов в своих произведениях о роботах заложил основы концепции робототехники и искусственного интеллекта, а предложенные им «Три закона робототехники» стали философской основой этики взаимодействия человека и машины.

Современная фантастика продолжает предсказывать будущее, исследуя возможности искусственного интеллекта, виртуальной реальности, биотехнологий и космических путешествий. Многие идеи, впервые появившиеся на страницах книг, позже

становятся основой научных открытий, доказывая, что фантастика — это не просто развлекательный жанр, а важный инструмент прогнозирования и осмысления будущего.

Литература:

1. Халперн Д. Психология критического мышления СПб., 2000.
2. Плаус С. Психология оценки и принятия решений. М., 1998.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. М., 1999.
4. Ваганов А.Г. Предсказание настоящего времени // Социальное проектирование в эпоху культурных трансформаций. М., 2008.
5. Хоружий С.С. Проблема постчеловека или трансформативная антропология глазами синергийной антропологии. URL: http:// synergia-isa.ru/Horuzhy.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Махмуджонова Мохинбону Тохиржановна
докторант первого курса Наманганского государственного университета
Специальность: 13.00. 02- Теория и методика образования и воспитания

НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСОЛЬЗОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

1. Burbienė D., Sabaliauskienė M. Temporal Deixis as a Participation Marker: A Case Study of the Russian News Media //Readings in Numanities. – 2018. – C. 49-65.

2. Lee P., Shemilt D. A scaffold, not a cage: Progression and progression models in history //Teaching history. – 2003. – №. 113. – C. 13.

3. Van Drie J., Van Boxtel C. Historical reasoning: Towards a framework for analyzing students’ reasoning about the past //Educational Psychology Review. – 2008. – T. 20. – C. 87-110.

[32] ToshboyevaAbdulhayevna G. LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIMDA OQUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI OSTIRISHGA QARATILGAN METODLAR //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2025. – T. 3. – №. 27. – C. 173-176.

[33] Hericks U., Körber A. Methodologische Perspektiven quantitativer und rekonstruktiver Fachkulturforschung in der Schule //Fachkulturforschung in der Schule. – 2007. – C. 31-48.

[34] Mirzayunusova Z. I. et al. O ‘QITISH USULLARI VA VOSITALARINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 395-400.

[35] Rashitovna A. G. ZAMONAVIY BAHOLASH USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2025. – T. 63. – №. 5. – C. 59-65.

4. Audigier, François. Basic concepts and core competencies for education for democratic citizenship. Vol. 20. Strasbourg: Council of Europe, 2000.

5. Chapman, Arthur. Knowing History in Schools: Powerful knowledge and the powers of knowledge. UCL press, 2021.

6. ToshboyevaAbdulhayevna G. LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIMDA OQUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI OSTIRISHGA QARATILGAN METODLAR //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2025. – Т. 3. – №. 27. – С. 173-176.

7. Hericks U., Körber A. Methodologische Perspektiven quantitativer und rekonstruktiver Fachkulturforschung in der Schule //Fachkulturforschung in der Schule. – 2007. – С. 31-48.

8. Mirzayunusova Z. I. et al. O‘QITISH USULLARI VA VOSITALARINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 395-400.

9. Rashitovna A. G. ZAMONAVIY BAHOLASH USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2025. – Т. 63. – №. 5. – С. 59-65.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nabiyev Akramjon Botirjonovich
NamDU, San'atshunoslik kafedrasi dotsenti, (PhD)
Avazbekova Madinabonu Shokirjon qizi
NamDU, Professional ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: nabiyev80.80@mail.ru

TALABALARINING KASBIY QIZIQISHLARINI TEXNIKA YO'NALISHIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnika yo'nalishlarida taxsil olayotgan talabalarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish muxiti xaqida tushunchalar keltirilgan.*

Kalit so'zlari: *kasb, qiziqish, texnika.*

Набиев Акрамжон Ботиржонович
НамГУ, доцент кафедры искусствоведения (PhD)
Авазбекова Мадинабону Шокиржон кызы
НамГУ, студент 2-го курса профессионального образования

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация: *Эта статя дает представление о среде аудитории математиков в формировании профессионалных интересов студентов инженерных спесиалностей.*

Ключевые слова: *профессия, интерес, техника.*

Nabiyev Akramjon Bottirjonovich
NamSU, Associate Professor, Department of Art Studies, (PhD)
Avazbekova Madinabonu Shakirjan kizi
NamSU, 2nd Stage Student of professional education

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL INTERESTS OF THEIR STUDENTS IN THE TECHNICAL DIRECTION

Annotation: *This article provides insights into the environment of the mathematics audience in shaping the professional interests of students majoring in engineering.*

Keywords: *profession, interest, technique.*

Amaldagi ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim tizimini joriy qilinganligi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama bilimli, kelajakda soxalar bo'yicha kerakli mutaxassislarni tayyorlab davlatimizning gullab yashnashiga, xar tomonlama rivojlanishiga o'z xissalarini qo'sha oladigan etuk kadirlar bo'lib kamol topishlariga asos bo'ladi. O'rnatilgan ta'lim tizimining har bir bo'g'inida Davlat ta'lim standartlari joriy qilingan bo'lib, bu ta'lim maqsad, vazifalarini belgilab beradi. O'quvchi yoshlarning kasbiy qiziqishlarini xisobga olib, ularni aynan qiziqish sohasiga yo'naltirish o'qituvchilarning faoliyati bilan bog'liq. O'qituvchi o'z fanidan kelib chiqib o'quvchining qiziqishlarini o'z vaqtida anglab oliy ta'limga yo'naltirishi lozim. Qiziqish deganda insonning u yoki bu fanga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan olganda qiziqishlar bu insonning muayyan mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uni bilishga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir. Qiziqishlar o'zining mazmuni, ko'lami, uzoq davom etishi va teranligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami insonning bilim darajasini hamda har narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Qiziqishlarning teranligi va uzoq vaqt davom etishi ularning barqarorligini ko'rsatadi.

Aytaylik o'quvchi o'z qiziqishlari bilan tayyorgarlik asosida texnika soxasida oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilindi va talaba bo'ldi. Talabaning kasbiy bilimlarini shakllantirishda fanlarning o'zaro bog'liqligi ahamiyatlidir. Ayniqsa matematika fani mashg'ulotlarini olib boruvchi professor-o'qituvchilar talabalarning kasbiy

qiziqishlaridan kelib chiqib, mashg‘ulotlarda masalalar quyishlari va matematik echimlarini kursatib berishlari lozim.

Talabalarning qiziqishlari o‘z taraqqiyoti mobaynida bir nechta bosqichdan o‘tadi. Dastlab ular vaqtincha, epizodik xarakterda bo‘ladi hamda muayyan bir fanga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo‘ladi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada susayib ketadi yoki mutlaqo so‘nadi. matematika fanini chuqur va muntazam ravishda o‘rganib borilishi, kelgusida mehnat faoliyatining qiziqan sohasiga sinchkovlik bilan kirishib ketilishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va astasekin barqaror qiziqishga aylanib qolishi mumkin. Bunday qiziqishlar ko‘pincha o‘sib, rivojlanib, talabaning muayan faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib, doimiy ravishda o‘z bilimini oshirib borish uchun intilishiga aylanadi. Qiziqishlar, o‘rganishlar va malaka oshirishlarning maxsuli albatta kasbiy qobilyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bo‘lajak muxandislarda quyidagi qobilyatlar shakllanishi zarur. Jumladan: 1) Texnik qobiliyat - texnikani egallashga va texnika fanlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyat Texnikaga, texnika ijodiyotiga bo‘lgan qiziqish, mashina va stanoklarda asboblar bilan ishlashga intilish, Matematika, ximiya, chizmachilik va shu kabi fanlarni muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirish. 2) Matematik qobiliyat- fikrlashning matematik metodlarini egallash qobiliyati matematikaga bo‘lgan qiziqish, mantiqiy fikrlash, analiz qilish va umumlashtirish qobiliyati, matematik bilimlarni muvaffaqiyatli egallash va shu kabilar. 3) Pedogogik qobiliyat - o‘qitish va o‘rgatish maqsadida boshqa bir kishiga ta’sir ko‘rsatish. 4) Tashkilotchilik qobiliyati - qandaydir bir ishni qila olish va odamlarni uyushtira olish mahorati ishchilar bilan tezda til topib ketish, odam psixologiyasini tushunish, ishchilar o‘rtasida mehnatni to‘g‘ri taqsimlay olish, o‘z vazifasini halol bajarish, tirishqoq bo‘lish, o‘z xatti harakatlariga tanqidiy qarash va shu kabilar.

Faoliyat ko‘rsatish mobaynida muxandisning kasbiy malakasi namoyon bo‘libgina qolmasdan, shu bilan birga uning shaxsiy fazilatlari ham shakllanib boradi. Shuning uchun mehnatning har xil turi tasodifan duch kelishini kutib o‘tirmay, muxandis ishlarga ongli ravishda kirishib ketaverish kerak. Shunday qilib, kasbni barqaror qiziqish va moyilligiga muvofiq tanlash kerak.

Axborot resurslari asr hisoblangan 21 asrda har bir davlatning, jumladan bizning mamlakatimizning ham iqtisodiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan mamlakat aholisining aqliy imkoniyati, qobilyati va ishbilarmonligiga bog‘liq bo‘lib, bunda yuksak darajadagi qobilyatlilik, ishbilarmonlik mehnat unumdorligini belgilab beradi. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarishga ilg‘or fan texnika yutuqlarini joriy qilishgagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan balki, ishlab chiqarish boshqaruvidagi muxandislarning malakalariga, o‘z kasbi haqida chuqur bilim va tasavvurlarga ega bo‘lishlariga ham bog‘liqdir.

Demak, **q**aysiki jamiyatda uning har bir a’zosi o‘zining qiziqishi va qobilyatiga mos kasb tanlasa hamda mazkur kasb sirlarini mukammal egallasa, o‘sha jamiyatni har tomonlama taraqqiy ettirish imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muslimov I.A., Boltaboev S.A., Sharipov Sh. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Kasb ta’limi yo‘nalishi magistrantlari uchun qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2003 yil.

2. Turakulov X. A., Turakulov O.X, Fayzimatov B.,Ubaydullaev S., Xamidov J.A. “Texnika fanlarini o‘qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy-pedagogik asoslari” Ukuv kullanma. Fargona - 2003 y. FarPI "Texnika" bulimi.

3.A.B.Nabiyev., Maktab o‘quvchilari va talabalarni madaniyatini shakllantirish "Економика и сотсиум" №12(115) 2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

TARIX TA’LIMIDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHI KONSEPSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarix ta’limida zamonaviy o‘qituvchi konsepsiyasini ishlab chiqishning dolzarb jihatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar, axloqiy yuksaklik, fanlararo yondashuvlar va innovasion texnologiyalarning roli atroflicha yoritilgan. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi tamoyillar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Maqola tarix o‘qituvchisining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan aniq tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Tarix ta’limi, zamonaviy o‘qituvchi, axloqiy yuksaklik, innovasion texnologiyalar, fanlararo yondashuv, milliy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, ta’lim jarayoni.*

Ахмаджанов Данияр Бахтияр угли
Доцент Чирчикского государственного педагогического университета

КОНЦЕПЦИЯ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ В ИСТОРИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются актуальные аспекты разработки концепции современного учителя в историческом образовании. В современном образовательном процессе подробно освещаются требования, предъявляемые к учителю, моральная высота, роль междисциплинарных подходов и инновационных технологий. Также рассматриваются пути совершенствования образовательного процесса на основе таких принципов, как гармонизация национальных и общечеловеческих ценностей, развитие критического мышления. В статье содержатся конкретные рекомендации, направленные на личностное и профессиональное развитие учителя истории.*

Ключевые слова: *историческое образование, современный учитель, нравственная высота, инновационные технологии, междисциплинарный подход, национальные ценности, критическое мышление, образовательный процесс.*

Akhmadjanov Daniyar Bakhtiyar ugli
Associate professor of Chirchik State Pedagogical University

MODERN TEACHER CONCEPT IN HISTORY EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the current aspects of the development of the concept of a modern teacher in history education. In the modern educational process, the requirements for the teacher, moral heights, interdisciplinary approaches and the role of innovative technologies are comprehensively covered. Also considered are ways to improve the educational process on the basis of such principles as harmonization of national and universal values, the development of critical thinking. The article includes specific recommendations aimed at the personal and professional development of a history teacher.*

Keywords: *history education, modern teacher, moral heights, innovation technologies, interdisciplinary approach, national values, critical thinking, educational process.*

Zamonaviy ta’lim tizimida tarix o‘qituvchisi muhim o‘rin tutadi, chunki u yosh avlodga nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki ularning dunyoqarashi, vatanparvarlik tuyg‘usi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarni o‘z tarixiy merosini hurmat qilish, global tarixiy jarayonlarni tushunish va ulardan saboq olishga yo‘naltiradi.

Tarix o‘qituvchisining faoliyati shaxsiy bilimlarini oshirish, pedagogik mahoratni takomillashtirish va axloqiy qadriyatlarni singdirishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta’limda u nafaqat o‘qituvchi, balki yoshlar uchun ma’naviy yetakchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, u tarixiy voqealarni ob’yektiv va xolis ravishda tahlil qilib, o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash va xolis baho berish ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy vazifani bajaradi.

Tarix ta’limida zamonaviy o‘qituvchi konsepsiyasini ishlab chiqish globallashuv, ijtimoiy o‘zgarishlar va ta’lim sohasida yuzaga kelayotgan yangi ehtiyojlar bilan bog‘liq. Bugungi kunda ta’lim jarayoni yosh avlodga nafaqat

ma'lumot berish, balki ularni shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirishni talab qiladi.

Bizningcha, kelajak ta'limida tarix o'qituvchisi jamiyat talablariga javob berishi uchun quyidagi vazifalarni bajarishi lozim, deb o'ylaymiz:

✓ tarix fanining zamonaviy o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan metod va usullar orqali o'qitilishi;

✓ milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarni uyg'unlashtirish;

✓ zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish.

Konsepsiyani ishlab chiqishning dolzarbligi, bizningcha, ta'limdagi innovasion yondashuvlarni joriy qilish, axloqiy yuksaklikka ega o'qituvchilarni tayyorlash va yoshlarning tarixiy ongini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, jamiyatdagi umumiy madaniy darajani oshirishga xizmat qiladi.

Tarix fani nafaqat o'tmishni o'rganish, balki kelajak uchun saboq olishda muhim manba hisoblanadi. Bizningcha, zamonaviy ta'limda tarix fanining ijtimoiy ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- **shaxsiy tarbiyada:** tarix o'quvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik va insoniylik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi;
- **ijtimoiy ongda:** jamiyatning barqarorligi, aholining o'z madaniyati va tarixi haqidagi bilimlari bilan chambarchas bog'liq;
- **global dunyoqarashda:** globallashuv jarayonlarini tushunish, turli madaniyatlar va tarixiy jarayonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish uchun tarix fani asosiy vositadir.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tarix nafaqat o'quv fani sifatida, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy tarix o'qituvchisi har tomonlama tayyorlangan, yuqori darajada axloqiy va professional fazilatlarga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar tezkor ijtimoiy o'zgarishlar, texnologiyalar rivoji va globallashuv jarayonlari bilan o'zgarib bormoqda. Shu bois, tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasini ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish va jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga yordam berish uchun zarur hisoblanadi. Quyida tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasini ishlab chiqishning asoslarini ko'rib chiqamiz.

1. Globallashuv va ta'limdagi ijtimoiy o'zgarishlar. Globallashuv jarayoni ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Milliy ta'lim jarayonlari global dunyoqarash, umuminsoniy qadriyatlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilishi kerak. Bugungi kun o'quvchilari nafaqat milliy qadriyatlarni, balki xalqaro tarixiy jarayonlarni ham tushunishga muhtoj. Ular global tendensiyalarni tanqidiy baholashga va o'z milliy manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lishi lozim. Zamonaviy tarix o'qituvchisi globallashuv ta'sirini hisobga olib, ta'lim jarayonida milliy va xalqaro tarixni uyg'un tarzda tushuntirishi kerak. U ta'lim jarayonini milliy qadriyatlardan chetlashtirmasdan, ularni xalqaro jarayonlar kontekstida tushuntirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Zero, *"Globallashuv milliy ta'lim jarayonlariga integratsiya va innovatsiya talabini qo'yadi"*.[36]

2. Zamonaviy o'quvchilar ehtiyojlari va talablariga muvofiq ta'lim berish zarurati. Zamonaviy o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirishda interaktiv, raqamli va ijodiy yondashuvlarga e'tibor qaratishadi. Shuningdek, ular shaxsiy ta'lim dasturlariga, mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlash imkoniyatlariga muhtoj. Ushbu jarayonda o'quvchilarning asosiy ehtiyojlari va o'qituvchilarning vazifalari, bizningcha, quyidagilardan iborat:

O'quvchilarning asosiy ehtiyojlari: 1) bilimlarni turli manbalardan mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari; 2) ijodiy yondashuvlar orqali ta'lim jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etish; 3) tarixni zamonaviy dunyo voqealari bilan bog'liq holda tushunish imkoniyati.

O'qituvchining vazifasi: zamonaviy tarix o'qituvchisi har bir o'quvchining individual talablarini inobatga olish va interaktiv metodlar orqali ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish yo'llarini qidirishi kerak. Masalan, virtual ekskursiyalar, multimedia resurslari va keys-stadi metodlaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

3. Tarix fanini o'qitishda axloqiy, tanqidiy va innovasion yondashuvlarga ehtiyoj. **Tarix ta'limi nafaqat ma'lumot yetkazish, balki axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Tarix ta'limidagi asosiy yondashuvlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:**

- **Axloqiy yondashuvlar:** tarix o'qituvchisi o'quvchilarda adolat, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashi kerak. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'qitish jarayonining markazida bo'lishi zarur;
- **Tanqidiy yondashuvlar:** o'quvchilar tarixiy voqealarni manbalar asosida tahlil qilish va ularning natijalarini mustaqil baholash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchining xolis va obektiv yondashuvi muhimdir;
- **Innovasion yondashuvlar:** zamonaviy tarix o'qituvchisi raqamli texnologiyalardan foydalanib,

[36] Giddens A. *The Consequences of Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 1990. – P. 67.

darslarni vizuallashtirish, interaktiv qo'llanmalar yaratish va ijodiy metodlardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini rivojlantiradi. Masalan, virtual muzeylarga tashriflar yoki 3D vizualizatsiya orqali o'tmish voqealarini tushuntirish.

Tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasi. Zamonaviy ta'lim tizimida tarix o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari va ta'limdagi innovasion yondashuvlar bilan bog'liq ravishda tezkor ravishda o'zgarib bormoqda. Shu sababli, tarix o'qituvchisining pedagogik va shaxsiy sifatlarini zamonaviy talablarga moslashtirish uchun yaxlit konsepsiyani ishlab chiqish zarur. Bu konsepsiya tarix o'qituvchisining pedagogik va shaxsiy sifatlarini zamonaviy talablarga moslashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.


Tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasini uzluksiz davom etadigan jarayon sifatida tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm).

Zamonaviy o'qituvchi shaxsini tayyorlash masalasi murakkab pedagogik jarayondir. Shuning uchun uni tizimli ravishda tashkil qilish va asosiy prinsiplarini belgilab olish muhim hisoblanadi.

1. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari. Konsepsiyaning maqsadi tarix o'qituvchisining shaxsiy va professional sifatlarini zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq ravishda takomillashtirishdan iborat.

Tarix ta'limning jamiyat oldidagi yuksak ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasining vazifalarini quyidagilardan iborat qilib belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

tarix fani o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni o'rganish (prognoz qilish), umumlashtirish va pedagogik oliy ta'limda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlari mazmunini shu talablarga moslashtirish;



1-rasm. Tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasi modeli

tarix o'qitish metodikasi va pedagogika nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning oqilona mexanizmlarini ishlab chiqish;

zamonaviy tarix fani o'qituvchisining prfessiogrammasini ishlab chiqish, muntazam takomillashtirib borish va uni kadrlar tayyorlash tizimiga joriy qilish;

jamiyat rivojlanish qonuniyatlari asosida tarix fani o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy (kelajak) talablar, fanning rivojlanish an'ana va yo'nalishlarini belgilash;

talabalarni o'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan zamonaviy (va kelajak) talablar(i) asosida tayyorlash, ularga tarix fanining rivojlanish an'analari va yo'nalishlari asosida kasbiy ta'lim berish;

hayot taraqqiyotining sur'ati va jamiyat talablarining o'zgaruvchanligini inobatga olgan holda talabalarga tarix fani o'qituvchisi kasbi bilan birga yondosh bo'lgan qo'shimcha kasb-hunar o'rgatish ishlarini tashkil qilish;

tarix ta'limida nazariya va amaliyot uyg'unligi va birligiga erishish orqali ta'lim sifatini oshirish;

zamonaviy tarix fani o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini ishlab chiqish;

bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini kuchaytirish;

bo'lajak tarix fani o'qituvchilariga xorijiy tillarni o'qitish mazmuni va samaradorligini oshirish;

bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida real hayotiy vaziyat va sharoitlarga kasbiy moslashish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashish.

2. Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari. Zamonaviy tarix o'qituvchisi konsepsiyasi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2.1. Axloqiy yuksaklik.

Axloqiy yuksaklik zamonaviy tarix o'qituvchisining eng muhim fazilatlaridan biri hisoblanadi. Uning shaxsiy xulqi, pedagogik yetukligi va jamoatchilik oldidagi mas'uliyati ta'lim jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy yuksak o'qituvchi yoshlarda adolatlilik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Axloqiy fazilatlarni shakllantirish **o'**quvchilarni faol guruhli muhokamalarga jalb etish, axloqiy tushunchalarni tarixiy voqealar orqali tushuntirish, tarixiy qahramonlarning ijobiy xulq-atvorini namoyon qilish kabi yo'nalishlarda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

2.2. Fanlararo bilim.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'qituvchining faqatgina tarixiy bilimlarga ega bo'lishini emas, balki fanlararo yondashuvlarni tushunishini ham talab qiladi. Bu o'quvchilarning keng dunyoqarashini shakllantirish uchun zarur. Bu yo'nalishda **o'**qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

✓ tarix fanini geografiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sosiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bog'lab o'rgatish;

✓ global masalalarni milliy tarix kontekstida tushuntirish;

✓ o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishini oshirish uchun manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Masalan, h**ozirgi** global inqirozlar, iqlim o‘zgarishi yoki iqtisodiy integratsiya jarayonlarini o‘tmish tarixiy jarayonlari bilan bog‘lab o‘rgatish uchun fanlararo integrsiya masalalarini chuqur bilishni talab qiladi.

2.3. Innovasion yondashuvlar.

Tarix o‘qituvchisi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Innovasion yondashuvlar ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga qodir. Bunga quyidagilar kiradi:

• **Raqamlashtirish:**

✓ elektron darsliklar, videodarslar va virtual sayohatlardan foydalanish;

✓ tarixiy hodisalarni 3D vizualizatsiya qilish, multimedia manbalaridan samarali foydalanish.

• **Interaktiv usullar:**

✓ kyeys-stadi, debatlar va rolli o‘yinlar orqali tarixiy voqealarni tahlil qilish;

✓ tarixiy hujjatlar bilan ishlashda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash.

• **Ijodiy yondashuv:**

✓ har bir o‘quvchiga individual yondashish, tarixni vizuallashtirish orqali ta’lim jarayonini boyitish;

✓ Zamonaviy tarixiy platformalar yordamida darslarni qiziqarli tarzda tashkil etish.

3. Tarix ta’limida zamonaviy o‘qituvchi konsepsiyasining asosiy tamoyillari. Tarix ta’limida **z**amonaviy o‘qituvchi konsepsiyasini ishlab chiqish uchun uning qanday tamoyillarga asoslanishini aniqlashtirib olish lozim. Ushbu tamoyillar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, yoshlarni intellektual va axloqiy rivojlantirish, tarix ta’limiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarga muvofiq bo‘lishi lozim. Quyida mazkur tamoyillar bo‘yicha takliflarimizni ilgari suramiz:

1. Axloqiy yuksaklik tamoyili: tarix o‘qituvchisi shaxsiy va kasbiy axloqiy sifatlari orqali o‘quvchilarga namuna bo‘lishini nazarda tutadi kerak. Axloqiy yetakchilik, insoniylik, bag‘rikenglik va adolat tuyg‘usi o‘qituvchining asosiy fazilatlari bo‘lib, ular ta’lim jarayonida o‘quvchilarga singdiriladi. O‘quvchilarning shaxsiy yuksaklikka erishishlari uchun ularga ilhom manbasi bo‘ladi.

2. Innovasion yondashuv tamoyili: o‘qituvchi ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va innovasion usullardan foydalanishi zarur. Elektron platformalar, vizualizatsiya vositalari, interaktiv metodlar, keys-stadi, simulyasiyalar ta’limning jozibadorligini oshiradi. O‘quvchilarning faol ishtiroki va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish tamoyili: o‘quvchilarda milliy g‘urur va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish ta’lim jarayonining markazida turishi kerak. Milliy tarixni global masalalar bilan bog‘lab o‘qitish orqali o‘quvchilarda ikki dunyoqarashni uyg‘unlashtirish. Milliy va xalqaro jarayonlarga xolis yondashuvni shakllantiradi.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tamoyili: tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarni faktlar va voqealarni tahlil qilishga o‘rgatishi zarur. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga tarixiy jarayonlarni to‘g‘ri tushunish va mustaqil fikrlash imkonini beradi. Yoshlarda jahon voqealariga nisbatan xolis va mas’uliyatli yondashuvni rivojlantiradi.

5. Fanlararo yondashuv tamoyili: tarix o‘qitish jarayonini boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish ta’limni yanada boyitadi. Tarixni iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sosiologiya va ekologiya kabi fanlar bilan bog‘lab tushuntirish. O‘quvchilarga keng qamrovli dunyoqarash va murakkab ijtimoiy muammolarni tushunish qobiliyatini hosil qiladi.

6. O‘quvchilarga individual yondashuv tamoyili: har bir o‘quvchining individual talablarini inobatga olib ta’lim jarayonini tashkil qilish. Interaktiv darslar va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan metodlar orqali har bir o‘quvchiga alohida e’tibor. O‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol qatnashishi va o‘z salohiyatini to‘liq ochishiga yordam beradi.

7. Jamoaviy hamkorlik tamoyili: o‘qituvchi o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatib, jamoaviy ishlarni targ‘ib qilishi kerak. Guruhli muhokamalar, rol o‘yinlari va debatlar orqali ta’lim jarayonini tashkil etish. O‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatishiga va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishiga yordam beradi.

Umuman, ushbu tamoyillar tarix o‘qituvchisi konsepsiyasining poydevorini tashkil qiladi. Ular ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, o‘quvchilarni intellektual va ma’naviy rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy o‘qituvchi ushbu tamoyillarga amal qilgan holda ta’lim jarayonini zamonaviy standartlarga moslashtirib, yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, konsepsiyaga muvofiq, tarix ta’limida global masalalarni milliy tarix kontekstida tushuntirish yoki aksincha milliy masalalarni global kontekstda tushuntirishga ustuvorlik beriladi. Bu bilan talabalarda tarixiy jarayonlarning ko‘chuvchanlik va takrorlanish xususiyati, tarixiy-siyosiy hodisalarning globallashuv jarayonlariga ta’siri kabi masalalar borasida tahliliy munosabatlar shakllanishiga erishiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023. https://www.unesco.org.
4. Ministerstvo Prosveщyeniya RF. Sovremennыye podxodы k prepodavaniyu istorii. Moskva: Prosveщyeniye, 2021.
5. Farabi A. The Virtuous City. Cairo: Dar al-Maarif, 1998.
6. Beruniy A. Qonuniy Mas’udiy. Toshkent: Sharq, 2005.
7. Bo‘rimova D. Ta’lim jarayonida innovasion texnologiyalar. Toshkent: Ma’rifat, 2020.
8. Russo J.-J. Emil, ili o vospitanii. – Moskva: Prosveщyeniye, 1981.
9. Khan Academy. World History Lessons. https://www.khanacademy.org.
10. YUNESKO. Ta’limda inklyuziv yondashuvlar. https://www.unesco.uz.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Otaxanova Shoxista Shuxratjon qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARNING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi bilan bog‘liq tushunchalar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan qiyosiy tahlil keltirilgan. Unda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirishda ta’lim texnologiyalarining ahamiyati haqidagi turli qarashlar muhokama qilinadi. Maqolada jamoaviy o‘qitish, guruhli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari, hamkorlikda o‘qitish va muammoli ta’lim kabi bir qator o‘qitish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, modul texnologiyasining asosiy xususiyatlari yoritilgan hamda metodik tayyorgarlik doirasida ta’limning umumiy maqsadi - barkamol shaxsni shakllantirish uchun zarur muhitni yaratish zarurligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *metodik tayyorgarlik, jamoaviy ta’lim, guruhli ta’lim usullari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim, modulli texnologiya, pedagogik tayyorgarlik, o‘qitish, o‘rganish.*

Otakhanova Shakhista Shukhratjan kizi
Doctoral student, Namangan State University

EFFECTIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH TEACHERS

Annotation: *this article presents a comparative analysis of concepts related to the methodological training of future English teachers, studied by domestic and foreign scientists. It discusses various views on the importance of educational technologies in improving the methodological training of future English teachers. The article examines a number of teaching methods such as team teaching, group learning, personality-oriented educational approaches, collaborative teaching, and problem learning. It is also noted that the main features of the module technology are highlighted and the need to create the necessary environment for the formation of the general purpose of Education - a harmonious personality-within the framework of methodological training.*

Keywords: *methodological training, collective training, methods of Group Education, personality-oriented education, collaborative training, problem education, modular technology, pedagogical training, teaching, learning.*

Атаханова Шохиста Шухратжон кизи
Докторант Наманганского государственного университета

ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье представлен сравнительный анализ концепций, связанных с методической подготовкой будущих учителей английского языка, изучаемых отечественными и зарубежными учеными. В нем обсуждаются различные точки зрения на важность образовательных технологий в повышении методической подготовки будущих учителей английского языка. В статье рассматривается ряд методов обучения, таких как командное обучение, групповое обучение, личностно-ориентированные подходы к обучению, совместное обучение и проблемное обучение. Также освещены основные особенности модульной технологии и подчеркнута необходимость создания в рамках методической подготовки необходимой среды для формирования общей цели образования - гармоничной личности.*

Ключевые слова: *методическая подготовка, коллективное обучение, групповые методы обучения, личностно-ориентированное обучение, совместное обучение, проблемное обучение, модульная технология, педагогическая подготовка, обучение, Обучение.*

Kirish.

Texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi sharoitda har qanday davlatning nufuzi ko‘p jihatdan fuqarolarining turmush darajasi, siyosiy va iqtisodiy faolligiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi va kelajakdagi barqaror iqtisodiy o‘sishiga hissa

qo‘shadigan omillar ta’lim sohasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Respublikamizda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va farmonlar jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishi o‘qituvchilarning malakasi va kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirishni taqozo etadi, bu esa bo‘lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bugungi kun ta’lim-tarbiyasining asosiy maqsadi jamiyat, davlat va shaxs ehtiyojlarini zamonaviy pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, ya’ni har tomonlama barkamol va yetuk shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Muhokama va natijalar.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi pedagogik va texnik-texnologik muammoli vaziyatlarni tashkil etishni yengillashtiruvchi shart-sharoitlar majmuasi bilan tavsiflanadi. Bu pedagogik shart-sharoitlar nafaqat mazkur jarayonni boshlab beradi, balki uning hozirgi holatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodik tayyorgarlik ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan turli shakl va usullarni qamrab oladi. Bu bilimlarni o‘zlashtirish, vositalarni egallash va amalda qo‘llash, hamda faoliyat natijalarini sifat jihatidan tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ilg‘or xalqaro pedagogik tajribalarni baholash va o‘rganish qobiliyatini, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

"Metodik tayyorgarlik" tushunchasining mohiyatini yorituvchi ta’riflar va ilmiy tadqiqotlar muhim xulosalarni namoyon etadi. "Metodika" atamasi rus ilmiy adabiyotida ilk bor 1783-yilda, xususan F.I. Yankovich asarlarida qo‘llanilgan. "Tayyorgarlik" atamasi S.I. Ojegov va N.Yu. Shvedovning izohli lug‘atida ikki ma’noda keltirilgan: 1) muayyan maqsad uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish va rivojlantirish jarayoni; 2) shaxs tomonidan egallanadigan bilimlar. Demak, tayyorgarlik ham ta’lim jarayonini, ham uning natijalarini qamrab oladi. Bu ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsni shakllantirishga yoki uni muayyan kasbiy ko‘nikmalar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Birinchi maqsadga erishish uchun asosiy bilimlar va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish talab etilsa, ikkinchisi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan tegishli ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Rus olimi V.V. Malev zamonaviy metodik tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflab, ta’lim jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, tayyorgarlikning nazariy va amaliy uyg‘unligi, ta’lim mazmunini tez va samarali o‘zlashtirish qobiliyati, talabalarning yuqori darajadagi faolligi va mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish, individual va guruhli sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhimligini ta’kidlagan. Shuningdek, u turli fanlar bo‘yicha o‘quv jarayonining texnik jihatlarini alohida qayd etib, kompleks yondashuvni qo‘llab-quvvatlagan.

Tadqiqotchi Sh. Ibragimova metodik tayyorgarlikni ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni metodik jihatdan tashkil etish, metod va vositalarni to‘g‘ri tanlash, muvaffaqiyatli natijalarni ta’minlash uchun ushbu metodlarni samarali qo‘llashni o‘z ichiga oluvchi "pedagogik jarayon" sifatida tavsiflaydi. Bundan tashqari, V.A. Adolf va A.S. Slastenin metodik kompetentlik, ayniqsa o‘qitish metodikasining o‘ziga xos tuzilishiga nisbatan, aniq amaliy xususiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar.

Yurtimiz olimlaridan Oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy tamoyillari va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashning samarali metod va vositalari A.A.Abduqodirov, N.N.Azizxo‘jayeva, F.R.Yuzlikayev, V.N.Bespalko, R.Z.Gaynutdinov, P.A.Rudik, M.G.Davletshin, Sh.E.Kurbanov, S.L.Rubinshteyn va N.F.Talizinalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi pedagogik sikl fanlarining o‘zaro bog‘liqligi orqali bosqichma-bosqich takomillashib boradi. Bu jarayonda innovatsion yondashuv qo‘llaniladi, bunda pedagogik amaliyotdagi fanlararo aloqadorlikka alohida e’tibor qaratiladi va muammoli vaziyatlarni hal etish vazifalari ham qo‘shib olib boriladi.

Pedagogikada "tayyorgarlik" – bu shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirishga ruhiy, nazariy va amaliy jihatdan hozirlik holati. Bu jarayon o‘quvchi yoki mutaxassisning bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan ifodalanadi.

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtai nazaridan metodik tayyorgarlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga harakatini anglatadi.

Metodik tayyorgarlik - Ta’lim-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan turli shakl, usul va vositalarni tushunish, ularda malakali bo‘lish va amalda qo‘llay olish g‘oyat muhimdir. Bu o‘z ichiga kasbiy natijalarni chuqur tahlil qilish, innovatsion pedagogik amaliyotlar va xalqaro tajribalarni o‘rganish, ta’lim tizimlarini loyihalash hamda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish holatidir.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat pedagogik tuzilmada o‘z aksini topadi: maqsadlar, jarayonlar va natijalar. Ijtimoiy me’yorlar metodikaning rivojlanish darajasini baholashning muhim poydevori sifatida xizmat qiladi va keyinchalik Davlat ta’lim standartining mazmuniga kiritiladi. Ta’lim tizimi faoliyatini baholashda uning samaradorligi va pedagogik tuzilmaning rivojlanishiga oid asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘qituvchining

metodik tayyorgarlik darajasini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri turli soha vakillarini maqsadli jalb etish, ularning aqliy va axloqiy kamolotiga e’tibor qaratishdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, ta’limning innovatsion usullarini joriy etish mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘qituvchilarni tayyorlashning keng qamrovli muammolari orasida alohida o‘rin egallaydi. Zamonaviylashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari fonida ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasida, kasbiy pedagogik amaliyotga moslashish zaruriyati yanada yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi nafaqat amaliy, psixologik va tadqiqotga yo‘naltirilgan jihatlarni, balki metodik tayyorgarlikni ham o‘z ichiga olgan holda yanada chuqurroq rivojlantirilmoqda.

Pedagoglarning metodik kompetensiyasiga bag‘ishlangan adabiyotlarda bir nechta toifalar ajratib ko‘rsatiladi:

- Maxsus kompetensiya kasbiy faoliyatda yetarli darajada rivojlangan malakani, shuningdek, o‘zining kelajakdagi kasbiy o‘sishini rejalashtirish qobiliyatini anglatadi;

- Ijtimoiy tarbiyalash qobiliyati hamkorlikda kasbiy faoliyat yuritish, samarali hamkorlik qilish va metodik muloqot usullarini qo‘llash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni, shuningdek, o‘z kasbining natijalari uchun ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi shaxsiy xususiyatlar orqali shakllanadi. Bu xususiyatlar iroda va hissiy xususiyatlar, aqliy qobiliyatlar, amaliy ko‘nikmalar, o‘zini boshqarish malakalari hamda shaxsning ijtimoiy-madaniy jalb etilishi darajasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aks ettiradi.

Yevropa mamlakatlarida o‘rnatilgan an’anaga ko‘ra, mutaxassislarning metodik tayyorgarligi ularning malakasi asosida baholanadi, bu tayyorgarlikni shakllantirish uchun mo‘ljallangan ta’lim tizimi esa o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasiga qarab baholanadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ta’lim va rivojlanish jarayonidagi metodik tayyorgarlik turlari pedagogik kompetentlikning turli shakllarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning metodik tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu jarayonda qo‘llanilayotgan shakl, metod va vositalarning yetarlicha ilmiy asoslanmagani kuzatilmoqda. Shu bois, ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish ularning kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirish, pedagogik madaniyatini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish orqali amalga oshirilishi zarur.

Mazkur masalani samarali hal etish uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini tizimli asosda rivojlantirish talab etiladi. Bu jarayonda ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda zamonaviy didaktik yondashuvlardan foydalanish muhimdir. Metodik tayyorgarlik darajasining oshirilishi o‘qituvchining ijodiy izlanish qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilish va ta’lim jarayonini interaktiv shakllarda tashkil etish ko‘nikmalariga bog‘liq.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayonida ularning umumiy pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi, lingvistika hamda ingliz tilini o‘qitish metodikasiga oid bilimlarini chuqurlashtirish zarur. Shu bilan birga, ularning metodik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish, mustaqil ravishda innovatsion yondashuvlarni tadqiq qilish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari o‘z faoliyatini ta’lim muassasalari va pedagogik amaliyot sharoitlariga moslashtirishi lozim. Bu jarayonda ularning o‘quvchilarning ehtiyojlarini chuqur tushunishi, emotsional intellektini rivojlantirishi va interaktiv metodlardan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil eta olishi talab etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish metodik tayyorgarlikni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari o‘z bilim va malakalarini oshirishni doimiy ravishda ijodiy izlanishlar, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali amalga oshirishi lozim. Bunda ularning pedagogik va psixologik tayyorgarligi, nazariy bilimlari hamda amaliy tajribasi uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchilik kasbining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Ingliz tili o‘qituvchisi maxsus fanlar bo‘yicha darslarga tayyorgarlik ko‘rar ekan, yangi materialni taqdim etishning eng samarali usul va uslublari ustida bosh qotiradi. O‘quv materiallari tanlovi o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlariga, jumladan, ularning oldingi tajribalariga, jismoniy rivojlanishiga va kasbiy qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillarga moslashtiriladi. Zamonaviy sanoat misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanayotgani, sinf texnologiyalari va pedagogik jarayonlar uzluksiz takomillashib borayotgani hech kimga sir emas. Bu evolyutsiya ingliz tili o‘qitishida ham tegishli o‘zgarishlarni talab etadi. Shu bois, bo‘lajak

ingliz tili o‘qituvchilari fan va texnika sohasidagi yangiliklarni doimiy kuzatib borishi, bu yangiliklarni o‘quvchilarga tushunarli tarzda yetkazishi va innovatsion strategiyalar orqali o‘z pedagogik mahoratlarini oshirib borishi zarur.

Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy ta’limini elektron ta’lim resurslaridan foydalangan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘quv ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb pedagogik masala sifatida yuzaga keldi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish kasbiy-pedagogik ta’limning umumiy sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Bu takomillashuv o‘quv jarayonining mazmuni bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish turli fanlar, jumladan, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy va matematik fanlar, shuningdek, pedagogik psixologiya, umumiy va maxsus tayyorgarlik kurslari bo‘yicha bilimlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv ingliz tili o‘qituvchisining pedagogik vazifalari, u duch keladigan qiyinchiliklar va hal qiladigan ta’lim masalalari, hamda qo‘llaydigan o‘zaro ta’sir usullarini chuqur tushunishga yordam beradi. Puxta nazariy va metodologik tadqiqot amaliy tajribalar bilan birgalikda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarlik darajasini tizimli baholashga bo‘lgan yondashuvning rivojlanishini tushunishga imkon beradi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligiga asos bo‘luvchi quyidagi pedagogik-psixologik tamoyillar mavjud: qiziqish uyg‘otish, idrok etish ehtiyojini kuchaytirish, uni faollashtirish, idrok etish faolligining zarurligini rag‘batlantirish, innovatsion va mustaqil ta’lim orqali zaruriy malaka, ko‘nikma va kompetensiyalarni egallash, ularni takomillashtirish hamda mustaqil ta’lim olish tajribasini orttirish. Bundan tashqari, zamonaviy o‘qitish metodikalarini joriy etish, ularni faollashtirish, mustaqil egallangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni ijtimoiylashtirish, shuningdek, kasbiy-metodik innovatsion bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq natijalarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini innovatsion tizim orqali rivojlantirish jarayonida ularning kasbiy idrok etishga bo‘lgan qiziqishini metodik nuqtai nazardan baholash va tahlil qilish zarur. Bu jarayonda, xususan, bunday idrokning zarurligi, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalana olish qobiliyati, ushbu ko‘nikmalarni takomillashtirish va bu yo‘nalishda erishilgan natijalarni baholash muhim o‘rin tutadi.

Pedagogik ta’limning uslubiy rivojlanishida ta’lim-tarbiya, o‘qituvchilar tarkibining ilmiy salohiyatini yuksaltirish hamda ta’lim va rivojlanish jarayonlarining uzluksizligi kabi umumiy mavzular o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, bu keng qamrovli mavzular ta’limni boshqarish va tashkil etish, turli ta’lim turlari va yondashuvlari o‘rtasidagi uzluksizlik va integratsiyani ta’minlash, o‘qitish usullari va vositalarini samarali qo‘llash, shuningdek, o‘quv adabiyotlarini yaratish kabi muayyan sohalarda aniq ifodasini topadi.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o‘qitish usullari, interaktiv yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va ta’siri juda katta hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik tizimga yangi g‘oyalar va o‘zgartirishlarni joriy etish, o‘qituvchi va o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish, asosan interfaol usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Bu usullar pedagogik vosita sifatida ta’lim mazmunining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati talab etiladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati shundaki, o‘qituvchi va talabaning oldindan belgilangan maqsadga erishishi tanlangan texnologiyalarga bog‘liq. Xususan, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlasa, har ikki tomon ham ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Ayniqsa, o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, ijodiy ishlashga, izlanishga, ma’lumotlarni tahlil qilishga, shaxsiy xulosalar chiqarishga, o‘zining va tengdoshlarining faoliyatini baholashga undalganda, bu yanada samarali bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi ta’lim jarayonining asosini tashkil etuvchi bunday faoliyatni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratishi lozim.

Har bir dars, mavzu yoki fan sohasi o‘ziga xos texnologiya bilan bog‘liq bo‘lib, pedagogik texnologiya yagona maqsadga yo‘naltirilgan, ta’lim oluvchining ehtiyojlariga mos, oldindan belgilangan, kafolatlangan natijaga erishishga qaratilgan jarayondir.

Kerakli natijaga erishish uchun texnologiyani tanlash o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi qarori hisoblanadi, chunki ularning umumiy maqsadi ma’lum bir natijaga erishishdir. Bu qarorga talabaning bilim darajasi, guruh dinamikasi va mavjud vaziyat ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quv predmetining o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud moddiy va ma’naviy resurslar, AKT vositalari, eng muhimi, ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlari, shuningdek, ularning hamkorlikda ishlash salohiyatini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini oldindan puxta rejalashtirish zarur. Shundagina ta’lim maqsadlariga samarali erishish mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish uchun quyidagi ta’lim texnologiyalari bilan tanishish muhim ahamiyatga ega:

1. Jamoa va guruhlarda o‘qitish texnologiyasi. Bu yondashuv har bir a’zoning farovonligi uchun birlashgan shaxslar jamoasini o‘z ichiga oladi. Asosiy tamoyillarga kichik guruhlar va juftliklarning almashinuvi, o‘zaro ta’lim, nazorat va boshqaruv kiradi. Pedagogik rahbarlik va boshqaruv samarali yo‘lga qo‘yilganda, bu tuzilmalar jamoaga yo‘naltirilgan, umumiy maqsadlarni anglash, aniq vazifalarni belgilash, o‘zaro bog‘liqlik va mas’uliyat bilan ajralib turadigan muhitni yaratadi.

2. O‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi. Bu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga alohida e’tibor qaratadi. Bunda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, qobiliyatlarini rivojlantirish, qiziqishlarini hisobga olgan holda shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish nazarda tutiladi.

3. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi shunchaki birgalikda faoliyat yuritish emas, balki jamoa bo‘lib o‘rganishdir. O‘quvchilarning o‘zlashtirish sur’atlari turlicha bo‘lib, ba’zilari o‘qituvchining tushuntirishlarini tezda anglaydilar, boshqalari esa qo‘shimcha vaqt va tushuntirishlarga muhtoj bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarni to‘rt-besh kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtirib, har bir a’zoning vazifasini aniq belgilab qo‘yish orqali ularda mas’uliyat hissi shakllanadi. Bunday sharoitda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar yuqori natijaga erishgan tengdoshlaridan yordam so‘rashlari va hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan har qanday muammolarni birgalikda hal qilishlari mumkin.

4. Muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoli ta’limning asosiy tamoyili o‘qituvchining ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni taqdim etish orqali o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishdagi aqliy faoliyatini tashkil etishdan iborat. Bu usul o‘quvchilarni o‘quv topshiriqlari, muammolar va savollarni hal qilishga undaydi. Muammoli ta’limning maqsadi o‘quvchilarga bilimlar majmuini samarali o‘zlashtirishda, aqliy va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam berish, o‘rganganlarini yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llash va ta’lim muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

5. Modul texnologiyasi. Talabalar o‘z ehtiyojlariga moslashtirilgan dastur orqali mustaqil bilim oladilar. Modul ilmiy fanning bir yoki bir nechta asosiy tushunchalarini o‘rganishga qaratilgan, ma’lum qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan ta’lim mazmunining alohida birligidir. Modulli o‘qitishni samarali amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan modul dasturi bir qator asosiy tamoyillarga asoslanishi lozim: axborot materiallarining maqsadga yo‘naltirilganligi, bunda har bir axborot bloki mavzu bo‘yicha aniq belgilangan maqsad atrofida tuziladi; murakkab, integratsiyalashgan va aniq didaktik maqsadlarning muvofiqligi. Modulli texnologiyani muvaffaqiyatli qo‘llash uchun keng qamrovli o‘quv-metodik ta’minotni tayyorlash talab etiladi. Bu ta’minot quyidagilarni o‘z ichiga oladi: talabalar bilimini baholash uchun nazorat topshiriqlari, mustaqil ta’lim uchun vazifalar, o‘quv-metodik resurslar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ishchi o‘quv dasturi.

Xulosa.

Metodik tayyorgarlik mohiyatan ijodiy jarayon bo‘lib, u yangilik yaratishga intiluvchi va pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq eta oluvchi novator o‘qituvchining faoliyatiga mos keladi. Bu jarayon nafaqat o‘qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish, balki shaxsning ma’naviy dunyosini boyitish, qadriyatlar tizimini rivojlantirish va pedagogik tafakkurni takomillashtirishni ham talab qiladi.

Innovatsion metodik faoliyat jarayonida o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy salohiyati ijtimoiy-madaniy jarayonda shakllanadi hamda u jamiyatning ta’limiy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanadi. Bu jarayonda pedagogik novatorlikning muvaffaqiyati shaxsning ichki qobiliyatlari va iste’dodining faollashuvi, shuningdek, jamoaviy ijodiy muhitni shakllantirishga bog‘liqdir.

Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish uchun o‘qituvchi pedagogik innovatsiyalarni puxta o‘zlashtirishi, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishi va didaktik materiallarni yaratish bo‘yicha ijodiy izlanishlarni olib borishi zarur. Shu bilan birga, u kasbiy rivojlanishning doimiy jarayon ekanligini anglab, o‘zining bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishi lozim.

Natijada, metodik tayyorgarlikning ijodiy va innovatsion jihatlarini rivojlantirish orqali o‘qituvchi nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki o‘z shaxsiy va kasbiy salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son Qarori https://lex.uz/ru/docs/

2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дис.- Т.: 2007. –Б. 315.

3. Сластенин, В.А. Введение в педагогическую аксиологию. – Москва.: Издательский центр «Академия», 2003. – Б. 78.

4. Юсупов Б. Э. Вопросы педагогических систем, педагогических технологий и педагогических исследований в педагогическом процессе //Вестник науки. – 2021. – Т. 4. – №. 6 (39). – С. 58-63.

5. Юсупов Б. Э., Хайитова С. Развитие образовательного процесса на основе инновационных подходов //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 19-2 (73). – С. 42-46.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yusupov Nodirbek Maxmudovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
nodirbek-1978@mail.ru

MALAKALI FUTBOLCHI QIZLARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLAR SAMARADORLIGINI TAHLILI

Annotasiya *maqolada malakali futbolchi qizlarning texnik va taktik harakatlarining hajmi va samaradorligi ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi. Oyin texnikasining ishonchliligi, ya’ni futbolchilarning hujum harakatlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan to‘p uzatish turlari to‘g‘risida yangi ma’lumotlar olindi; himoyada va hujumda o‘yinni tavsiflovchi miqdoriy qiymatlar. Olingan ma’lumotlardan murabbiylar va mutaxassislar o‘zlarining amaliy ishlarida foydalanishlari mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Musobaka faoliятining nazorati, malakali futbolchi qizlar, texnik-taktik xarakatlar.*

Юсупов Нодирбек Махмудович
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИКАЦИРОВАННЫХ ФУТБОЛИСТОК

Аннотация: *В работе изучены показатели объема и эффективности технико-тактических действий футболисток высокой квалификации. Получены новые данные о надежности выполнения игровых приемов, а именно разновидностях передач мяча, способствующих повышению эффективности атакующих действий футболисток; количественные величины, характеризующие игру в обороне и в атаке. Полученные фактические данные могут быть использованы тренерами и специалистами в их практической работе.*

Ключевые слова: *Контроль соревновательной деятельности, футболистки высокой квалификации, технико-тактические действия.*

Yusupov Nodirbek Makhmudovich
Uzbekistan State University of physical education and sports

ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS OF QUALIFIED FOOTBALL GIRLS

Annotation*. the article will consider indicators of the size and effectiveness of technical and tactical actions of qualified football girls. New information was received about the reliability of the game’s technique, that is, the types of ball passes that help to increase the effectiveness of players ’ offensive actions; quantitative values that characterize the game in defense and attack. The information obtained can be used by coaches and professionals in their practical work.*

Keywords: *control of the activities of the competition, qualified football Girls, Technical and tactical activities.*

Dolzarbligi.

So‘nggi o‘n yillikda mahalliy futbolchi qizlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib milliy terma jamoa va klub jamoa futbolchi qizllarining xalqaro maydonda sezilarli sport yutuqlari yo‘qligini ko‘rish mumkun. Mutaxassislarning fikricha, bu holatning sabablaridan biri, yorqin, texnik va taktik jihatdan yaxshi tayyorgarlikka ega yosh futbolchilarning yetishmasligi, bu esa mahalliy futbolchi qizlarda sport zaxirasining tayyorgarlik darajasini bilvosita ko‘rsatib beradi.

Futbolda sport yutuqlarining hozirgi bosqichida yuqori sport natijalariga erishish uchun qaysi turdagi mashg‘ulotlar muhimligini aniqlash juda qiyin. Ayrim ekspertlarning fikricha, jamoa muvaffaqiyatining hal qiluvchi omillaridan biri sportchilarning yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarligi edi [1,3,5]. Ayrim olimlar adqiqotlariga ko‘ra [2,4], futbolda ko‘rsatkichni hal qiluvchi omil texnik va taktik tayyorgarlik darajasini ta’kidlaganlar.

Shu bois sportda uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish va ayol futbolchining musoboqalashuv faoliyutining turli ko‘rsatkichlarini yaxshilash katta ahamiyatga ega. Bu borada futbolchi qizlarning raqobatbardosh faoliyatining turli

koʻrsatkichlarini tahlil qiluvchi va umumlashtiruvchi, ular asosida oʻquv-mashq jarayoni rejalashtirilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

Yakkakurashlar sonining koʻpayishida namoyon boʻladigan oʻyinning kuchayish darajasi, koʻplab oʻyin epizodlari kuchli kuch kurashida sodir boʻlganda, yuqori tezlikdagi motor harakatlarining hajmini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, ayollar futboli. tobora erkaklar futboli darajasiga yaqinlashmoqda.

Soʻnggi Jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlari ayollar terma jamoalari oʻrtasidagi jahon miqyosidagi raqobat har tomonlama oʻrganishni, chuqur tahlil etish va zamonaviy talablarga javob beradigan futbolchilarni tayyorlash tizimini amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab qilishini koʻrsatdi.

Oxirgi 10-15 yil davomida qayd etilgan mahalliy futbolchi qizlarning oʻyin koʻrsatkichlari boʻyicha yetakchi xorijiy futbolchilardan ortda qolishi barqaror tendentsiya boʻlib qolmoqda, shu sababli texnik va taktik tayyorgarlik darajasini oshirish eng muhim yoʻnalishlardan biri boʻlib kelmoqda. Mahalliy ayol sportchilarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini cheklovchi komponentlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, yuqori malakali futbolchi qizlarning texnik-taktik harakatlari (TTH) samaradorligini oʻrganish, bizningcha, dolzarb muammo boʻlib, uni hal etish uchun amaliy zarurat kelib chiqmoda.

Tadqiqot maqsadi.

Malakali futbolchi qizlarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini tahlil qilish.

Tadqiqotni tashkil etish usullari.

Malakali futbolchi qizlarning texnik tayyorgarligi samaradorligini oʻrganish uchun "Wyscout" (Italiya-AQSh) tahliliy tizimi tomonidan taqdim etilgan pedagogik kuzatishlar qoʻllanildi. Bunda 30 dan ortiq oʻyin koʻrsatkichlarining hajmi va shiddati qayd etildi. TTH tahlillar 2024-yilning 3-martidan 9-martigacha boʻlgan davrda OFK U-20 ayollar kubogi guruh bosqichi oʻyinlarida oʻtkazildi. Oʻzbekiston terma jamoasi bilan bir guruhda Xitoy-Xitoy Taypey, Avstraliya va Shimoliy Koreya jamoalari oʻrin olgan.

Oʻzbekiston U-20 terma jamoa futbolchılari 2024 yilgi OFK Kubogida bajargan TTH koʻrsatkichlarini koʻrib chiqamiz (1-jadval).

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish.

Futbolchi qizlarning oʻyindagi TTH ning informatsion koʻrsatkichlaridan biri bu "toʻp oshirishlar" soni va aniqligi boʻlib, barcha turdagi uzatmalar orasida biz oʻyinchi toʻpni qabul qilganda, foydali deb ataladigan qulay vaziyatda "toʻpni harakatlanayotgan oʻyinchiga oshirish"ni ajratib oldik. Sherikdan, raqib maqsadiga qarab harakat qilishda davom etadi. Raqibning yarim maydonda amalga oshirilgan bunday uzatmalarning hajmi futbolchi qizlarning texnik va taktik qobiliyatining ishonchli koʻrsatkichlaridir.

Oʻzbekiston U-20 terma jamoasi futbolchi qizlarining OFK kubogi-2024 doirasidagi koʻrsatkichlarini koʻrib chiqamiz (1-jadval).

Jadval 1.

Oʻzbekiston U-20 terma jamoa oʻyinchilarining TTH hajmi va samaradorligi koʻrsatkichlari 2024 yilgi Osiyo Kubogida (n=3).

#	TTH Koʻrsatqichlar	Jamoalar					
		Xitoy-Xitoy Taypey 0: 2		Avstraliya 0: 2		Shimoliy Koreya 0:13	
		Σ TTH	% aniq	Σ TTH	% aniq	Σ TTH	% aniq
1	Toʻpni oshirish	362	75	565	80	572	77
		231	68	254	66	188	57
	Toʻpni harakatlanayotgan oʻyinchiga oshirish	75	66	80	78	78	69
		57	42	62	40	54	31
	Oxirgi uchlik toʻp oshirishlar	47	51	83	72	75	61
		29	34	25	56	33	42
	Jarima maydoniga toʻp oshirishlar	25	52	32	41	35	71
		14	43	5	40	4	25
	Maydon boʻylab toʻp oshirishlar	12	42	11	27	21	47
		2	0	0	0	2	0
2	Pastda toʻp uchun yakkakurashishlar	219	59	264	62	276	67
		219	41	264	38	276	33
	Xavoda toʻp uchun yakkakurashishlar	31	35	26	54	34	62
		31	58	26	46	34	38
3	Erkin toʻpga egalik qilish	75	52	108	72	92	66
		75	48	108	28	92	34
4		53	37	77	60	84	58

	Jarima mayoduga oborilgan hujumlar	17	21	15	7	12	20
5	Aldab o‘tish	22	59	58	53	67	62
		11	36	18	39	15	27
6	Darbozaga zarbalar	14	43	27	61	29	45
		4	25	1	0	3	20
	Jarimadan zarbalar	8	62	15	33	17	55
		2	0	0	0	1	0
	Jarima maydon tashqisidan zarbalar	6	33	12	28	12	33
		2	25	1	0	2	0

Izoh: yuqori katakda raqibning TTH, pastda esa O‘zbekiston terma jamoasi ko‘rsatilgan.

Futbolchi qizlarning o‘yinlarining TTH hajmi va samaradorligini tahlil qilish kichik namunada, statistika, uchun – xalqaro darajadagi atigi 3 ta o‘yinda o‘tkazildi, ammo olingan ko‘rsatkichlardan ba’zi xulosalar chiqarish mumkin. TTHni baholash uchun samaradorlik koeffitsienti (SK) hisoblab chiqilgan – aniq bajarilgan texnikaning umumiy soniga nisbati.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, futbolda asosiy texnik texnika to‘pni uzatishdir va ularning qanchalik aniq va samarali bajarilishi jamoa o‘yinining samaradorligiga bog‘liq. Biz maydon bo‘ylab va orqaga qilingan to‘p oshirishlar hajmini tahlil qilmadik, faqat to‘pni raqib darvozasiga kiritish imkoniyatini yaratadigan paslarni ko‘rib chiqdik.

Ko‘rinib turibdiki, guruh bosqichidagi o‘yinlarda O‘zbekiston jamoasi futbolchi qizlarining uzatmalar hajmi va samaradorligi keng o‘zgaruvchanlikka ega edi. Shunday qilib, Shimoliy Koreя jamoasi bilan o‘yinda eng kam uzatmalarni O‘zbekistonlik futbolchi qizlar tomonidan amalga oshirildi - 188, SK -jami 57%. Raqib jamoa ushbu o‘yinda 572 to‘p oshirishlar bajardilar va SK o‘rtacha 77% ni tashkil etdi. Bu Shimoliy Koreя futbolchi qizlarining o‘yinda to‘liq ustunlik qilganidan dalolat beradi. Xuddi shu tendentsiya Avstraliya terma jamoasi bilan o‘yinda ham kuzatildi. Avstraliya jamosining texnik harakatlardan to‘p uzatmalar hajmi deyarli 2 baravarga ko‘p –565, SK 80% va huddi shu harakatlarda O‘zbekistonlik qizlarda 254 ta harakatni bajargan bo‘lsa SK esa 66% tashkil etdi. Xitoy Xitoy Taypey jamoasi bilan o‘yinda O‘zbekiston futbolchi qizlari 231 ta to‘p oshirish harakatni amalga oshirgan bo‘lsa SK o‘rtacha 68% ni tashkil etdi. Raqib jamoasida bu ko‘rsatgich 362 tani bajarib SK - 75% tashkil etgan.

Ma’lumki, o‘yindagi uzatmalarning umumiy hajmi uning natijasiga ta'sir qilmaydi. Bu faqat o‘yinni kim ko‘proq nazorat qilgani haqida gapirish uchun ishlatilishi mumkin. O‘rtacha top jamoalar to‘pga ega bo‘lishning 1 %ni golga, 10 %ni to‘pga, 20 % esa umuman darvozaga zarbaga, 40 % esa so‘nggi uchinchi o‘rindagi o‘zgarishlarga olib keladi. Jamoa uzoq vaqt to‘pga ega bo‘lganida, bu vaqt ichida raqibning gol ura olmasligi ijobiy xususiyatdir.

Hujum harakatlarining ko‘rsatkichlaridan biri bu "harakatlanayotgan o‘yinchiga oshirish" yani raqibni yakkakurashlarsiz mag‘lub etish va maydonning bo‘sh zonalarga o‘tish imkonini beruvchi uzatmalar. Guruh bosqichidagi o‘yinlarda o‘zbek futbolchi qizlarining bunday uzatmalar hajmi quyidagicha bo‘ldi: Xitoy Xitoy Taypey terma jamoasi bilan 57 ta, SK bilan – 42%, raqib jamoada uzatmalar soni 75 ta, SK esa – 66%; Avstraliya bilan - 62, SK - 40%, Avstraliyalik qizlarda 80, SK - 78%; Shimoliy Koreya bilan – 54, SK bilan – 31%, raqib jamoada – 78, SK esa – 69% ni tashkil etgan.

“Oxirgi uchlik”ga uzatmalar hajmi tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston terma jamoasi uchun Xitoy Taypey termasi bilan o‘yinda bu ko‘rsatkich 29 taga teng, SK 34%; Raqib jamoaning ovozi 47, SK esa 51% edi. Avstraliya bilan o‘yinda 25 ta uzatma, SK 56%; Raqiblar 83, SK esa - 72% yakunladilar. Shimoliy Koreya jamoasiga qarshi o‘yinda to‘p uzatishlar hajmi 33 tani tashkil etdi, SK ko‘rsatkichi 42%; Raqibning harakati 75 ta, SK - 61%. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari “oxirgi uchlik” uzatmalarning hajmi va samaradorligi bo‘yicha ham raqib jamoalaridan sezilarli darajada ortda qolgan.

O‘yin tezligini belgilab beruvchi va shundan so‘ng, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, eng ko‘p gol urilgan himoyachilar ortidagi “jarima maydonchasiga uzatmalar” tahlili O‘zbekiston terma jamoasi uchun va SK nisbati quyidagicha ekanligini ko‘rish mumkun. Eng past ko‘rsatkich Shimoliy Koreya bilan o‘yinda qayd etilgan – 4, SK bilan – 25%. Raqib jamoa futbolchi qizlarida 35 ta, SK 71% edi. Avstraliya termasi qizlari bilan o‘yinda 5, SK 40% edi. Raqib jamoasida 32, SK esa 41% edi. Xitoy Taypey jamoasiga qarshi o‘yinda 14 ta pas bajarildi, SK 43%; Raqiblarning to‘p uzatishlari hajmi 25 ta, SK 52% ni tashkil etdi. Bu malumotlardan dalolat beradiki, O‘zbekiston U-20 jamoasi futbolchi qizlari raqib jarima maydonchasiga juda kam uzatmalar bergani, bu esa, umuman olganda, jamoaning hujumkor harakatlari samaradorligining pastligi bilan ajralib turadi.

Alohida raqib harakatlarining maksimal sonini "kesib tashlash" va raqib darvozasida golli vaziyatni yaratishga imkon beradigan "kesilgan uzatmalar" hajmi va samaradorligini tahlil qilishimiz kerak. O‘zbekiston terma

jamoasi futbolchi qizlari guruh saralash turniri o‘yinlarida atigi 4 ta shunday uzatmani yakunlab, umumiy SK 0% ni tashkil etgan. Xitoy Taypey va Koreя Respublikasi terma jamoa qizlariga qarshi o‘yinda atigi 2 ta harakat bajarilgan.

Jamoaning texnik-taktik harakatlarni bajarish samaradorligi va ishonchliligi yerda va havoda "to‘p uchun yakkakurashishlar" kabi ko‘rsatkich bilan ham belgilanadi. Ushbu o‘yin komponentining tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari o‘rtacha hisobda 253 marta maydonda "to‘p oli qo‘yish" harakatini bajargan, SK esa 37,3 % tashkil qilgan. Bu fakt shuni ko‘rsatadiki, ular har uchinchi yakkakurashishlarda mag‘lub bo‘lishadi. Raqib jamoa qizlarning SK ko‘rsatkichi ancha yuqori: Xitoy Taypey jamoasida 59%, Avstraliya jamoasida 62%; Shimoliy Koreya terma jamoasi qizlarida esa 67 % ni ko‘rish mumkun.

Raqib o‘yinchilarining maksimal sonini "kesib qo‘yish" va raqib darvozasiga golli vaziyat yaratish imkonini beradigan "o‘tish"larning hajmi va samaradorligini alohida tahlil qilish kerak. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari guruh saralash o‘yinlarida atigi 4 ta shunday uzatmani amalga oshirishdi, SK ko‘rsatkichi 0%. Xitoy Taypey va Shimoliy Koreya terma jamoalariga qarshi o‘yinda atigi 2tadan uzatma amalga oshirildi.

Jamoa o‘yinchilari raqib maydonining uchdan bir qismida to‘pni egallab olish imkoniga ega bo‘lganda, ularning hujumini zarba berish ehtimoli 65% ni tashkil qiladi. To‘pni maydon markazida tanlash allaqachon zarba berish ehtimolini 25% gacha kamaytiradi. Agar to‘p uchinchisida tanlangan bo‘lsa, gol urish ehtimoli 10% gacha kamayadi.

Shunga o‘xshash uzatma samaradorlik rivojlanishi "havoda to‘p uchun kurashish"ni bajarishda kuzatildi. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari o‘rtacha 30,3 marta kirishgan bo‘lsa, o‘rtacha hisob SK 47,3% ni tashkil etdi. Xuddi shu ko‘rsatkich raqib jamoalar uchun biroz yuqoriroq edi: Shimoliy Koreя terma jamoasi - 62%; Avstraliya-54%. Faqat Xitoy Taypey jamoasi SK O‘zbekiston terma jamoasidan past bo‘ldi va 35% ni tashkil etdi.

Futbolchilarning erda va havoda to‘p uchun samarali yakkakurash olib borish qobiliyati bir qancha omillarga bog‘liq: maxsus jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik darajasi. Mashg‘ulotlarning ushbu jihatlarini takomillashtirish o‘zbek futbolchi qizlariga to‘pni olib qo‘yishda o‘yin samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O‘yin davomida samarali harakatlar bajarish quyidagi xususiyati raqibni aldab o‘tishdir. Kamida ikkita o‘yinchini aldab o‘tish harakati butun raqibning himoя tizimini yo‘q qilishga imkon beradi. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchi qizlari har bir o‘yinda o‘rtacha 14,6 ta harakat bajardilar SK o‘rtacha 34% tashkil qildi. Raqiblar ushbu komponentda faolroq bo‘lishdi: Xitoy Taypey jamoasi O‘zbekiston terma jamoasiga qarshi o‘yinda 22 harakat bajardi SK - 59%; Avstraliya jamoa qizlarida – 58ta, SK esa 53%; va Shimoliy Koreya jamoasi – 67, SK 62% tashkil etdi.

Futbolchining pozitsiyani to‘g‘ri tanlashini tavsiflovchi to‘pni "erkin to‘pga egalik qilish" kabi ko‘rsatkichning tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek futbolchi qizlarining hajmi o‘rtacha 91,6, foizda esa 36,6% ni tashkil etdi. Raqib jamoalar uchun bu ko‘rsatkich quyidagicha edi: Xitoy Taypey terma jamoasi – 75, idoralar bilan-52%; Avstraliya-108, foizda-72% va Shimoliy Koreyada-92, foizlar bilan berilganda-66%. Raqib jamoaning futbolchilari ko‘pincha birinchi bo‘lib "erkin to‘pga egalik qilish" harakatini yutishdi.

O‘yinchi to‘g‘ri pozitsiyani tanlash orqaligina to‘pni “erkin to‘pga egalik qilish”ni yutishi mumkin, bu esa o‘z navbatida jamoaga jangovar nuqtai nazardan qo‘shimcha harakatlarsiz egalik qilishni va hujumni boshlash imkonini beradi va bu o‘yinni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Jamoaning hujum harakatlarining ko‘rsatkichlaridan biri raqibning "jarima maydoniga olib kelingan hujumlari" dir. O‘zbekiston terma jamoa futbolchi qizlari tamonidan o‘rtacha 14,6 ta hujum uyushtirdi, ularning 16% gol urildi. Raqiblar esa hudda shunday hujumlarni quyidagicha amalga oshirdilar: Xitoy Taypey terma jamoasida-53ta, foizda ko‘rsatgich-37%; Avstraliya-77 ta harakat, foizda ko‘rsatgich-60%; Shimoliy Koreyada - 84 ta harakat, foizda ko‘rsatgich-58%.

Jamoaning hujum harakatlarining asosiy xususiyatlari-darvozaga zarbalar va urilgan gollar. O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari darvozaga atigi 8 ta zarba yo‘llashga muvofaq bo‘lgan, ulardan SK 10%, shundan: jarima maydoni yyonidan – 3 ta harakat , SK – 0%; jarima maydoni tashqarisidan – 5 ta zarba, SK 20% bilan belgilangan. Amalga oshirilgan zarbalar gol bilan yakullanmadi.

Raqib jamoalar 70 ta zarba amalga oshirdi, SK 49,6%ni tashkil etdi, ularning 17 tasi gol bilan yakunlandi. Ulardan jarima maydonidan-40 ta zarba, SK -50% va jarima maydoni tashqarisidan-30 ta zarba, SK -50%ni tashkil etdi.

Raqib jamoalar darbozaga 70 ta zarbani amalga oshirgan, SK - 49,6%, shundan 17 ta zarbasi golga aylantirilgan: jarima maydoni ichida – 40 zarba, SK - 50% tashkil etib va jarima maydonchasi tashqarisidan – 30 zarba berilgan, SK - 50%.

Olingan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston terma jamoa futbolchi qizlarining himoyasi har doim ham samarali bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Malakali futbolchi qizlarning texnik-taktik harakatlari samaradorligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, U-20 terma jamoa futbolchi qizlarining texnik-taktik tayyorgarligi darajasi zamon talablariga javob bermaydi. Asosiy o‘yin ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zbek futbolchi qizlalari xorijlik sportchi qizlardan sezilarli darajada ortda qolmoqda, birinchi navbatda, o‘yin texnikasi qaror qabul

qilish uchun vaqt yetishmasligi bilan bajarilishi kerak bo‘lgan raqib bosimi ostida o‘yin texnikasini bajarish ishonchliligi bo‘yicha;

maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasida va natijada o‘yin jarayonida harakat faoliyatlarining shiddatida;

o‘yin davomida charchoqning kuchayishi va konsentratsiyaning pasayishi natijasida yuzaga keladigan ko‘plab noto‘g‘ri texnik va taktik harakatlarda va hokazo.

O‘zbekiston terma jamoa qizlari hozircha Osiyo futbol Konfederatsiyasi tarkibiga kiruvchi jamoalarga munosib raqobat bera olmayotganligini ko‘rish mumkin.

Futbolchi qizlarning katta qismida sport mahoratining etarli darajada yuqori emasligi ko‘p jihatdan bir qancha omillarga bog‘liq: futbolchi qizlar uchun uzoq muddatli tayyorgarlik dasturining yo‘qligi; infratuzilmani rivojlantirishning past darajasi (sport maktablarda alohida qiz bolalar guruhlari, sport mashg‘ulotlari inshootlari va stadionlar); qizlar bilan ishlaydigan malakali murabbiylar shtabi va jihozlarining etishmasligi.

Ayollar futbolida nafaqat yuqori malakali sportchilar darajasida, balki yosh qizlar va o‘smirlar futbolida ham mashg‘ulotlar tizimini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Лю Ци. Физическая подготовка футболисток высшей квалификации в подготовительном периоде на основе использования статодинамических силовых упражнений и интервального метода тренировки. Автореф. дис.канд. …пед.наук. М., 2016. – 22 с.

2. Суворов В.В. Особенности соревновательной деятельности женских и мужских футбольных команд высокой квалификации /В.В. Суворов, Л.А. Якимова // Физическая культура, спорт – наука и практика. – 2017. № 3. С. 31 – 35.

3. Тропникова, Д. В. Повышение выносливости футболисток высокой квалификации в годичном цикле тренировки / Д. В. Тропникова // Мир спорта. – 2015. – № 1. – С. 90–92.

4. Черепанов П.П. Теория и практика в подготовке команды мастеров методическая разработка. Казань, 2012. - 252 с.

5. Юсупов Н. М. Педагогические основы и методика совершенствования скоростно-силовой подготовки футболисток высокой квалификации. Автореф. дис.канд. …пед.наук. Ташкент. 2018. – 26с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna
Namangan muhandislik-qurirish instituti
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
E-mail: ozoda.safibullayevna121620@gmail.com
Muxammadjonov Alijon Olimjonovich
Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant
E-mail: alijon19920929@gmail.com

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM DASTURLARIGA INTEGRATSIYALASH

Annotatsiya: *raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi butun dunyo bo'ylab mehnat bozorini va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini jiddiy o'zgartirmoqda. Yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt (SI), ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa raqamli innovatsiyalar ishchi kuchining talablarini, kasblarni va malakalarni yangilab, ish o'rinlari va ta'lim tizimining o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va iqtisodiy inqilobning mehnat bozoriga, xususan, ta'lim xizmatlariga ta'siri o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *mehnat bozori, ta'lim dasturlarini moslashtirish, kasbiy faoliyat, raqamli ko'nikmalar, o'qitish metodikasi.*

Абдуллаева Озода Сафибуллаевна
Наманганский инженерно-строительный институт
доктор педагогических наук (DSc), профессор
Мухаммаджонов Алижон Олимжонович
Наманганский государственный университет, докторант

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОГРАММЫ

Аннотация: *развитие цифровой экономики серьезно меняет рынок труда и различные отрасли экономики во всем мире. Новые технологии, автоматизация, искусственный интеллект (ИИ), анализ данных и другие цифровые инновации меняют спрос, профессии и навыки рабочей силы, трансформируя рабочие места и образование. В данной статье рассматривается влияние цифровых технологий и экономической революции на рынок труда, в частности на образовательные услуги.*

Ключевые слова: *рынок труда, адаптация образовательных программ, профессиональная деятельность, цифровые навыки, методика обучения.*

Abdullaeva Ozoda Safibullaevna
Namangan Engineering - Construction Institute
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Mukhammadjonov Alijon Olimjonovich
Namangan State University, PhD student

INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL PROGRAMS

Abstract: *the development of the digital economy is seriously changing the labor market and various sectors of the economy around the world. New technologies, automation, artificial intelligence (AI), data analytics, and other digital innovations are reshaping workforce demands, occupations, and skills, transforming jobs and education. This article examines the impact of digital technologies and the economic revolution on the labor market, particularly on education services.*

Key words: *labor market, adaptation of educational programs, professional activity, digital skills, teaching methodology.*

Kirish.

Ta'lim dasturlarini raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori talablariga moslashtirish, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda ta'lim jarayonining ish beruvchilarning haqiqiy ehtiyojlariga javob berishini kafolatlashning asosiy maqsadi

hisoblanadi. Texnologiyalarning tez rivojlanishi va iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, ayniqsa raqamlashtirish sohasida, ta’lim muassasalarini mehnat bozori talablariga moslashuvchan tarzda rivojlantirishni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsada, kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat ushbu texnologiyalarni ishlatish, balki ularning iqtisodiyot va jamiyatdagi o‘zgarishlarni qanday shakllantirayotganini chuqur tushunish zarur. Hozirgi texnologik yutuqlardan unumli foydalanish uchun ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning yangi davrini shakllantirayotgan asosiy tamoyillarni tushunish muhim ahamiyatga ega.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan respublikamizda raqamli ta’limni oshirish bo‘yicha “Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, “Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida 2024-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o‘qitish markazlarini ochish” haqida qaror qabul qilindi [1].

Zamonaviy ta’lim jarayoni raqamli texnologiyalarni faol qo‘llash orqali yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiyalash nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, pandemiya davrida masofaviy ta’lim platformalarining keng qo‘llanilishi raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimidagi ahamiyatini yanada oshirdi. Xususan, bu texnologiyalar o‘quv materiallarini yaratish va yetkazib berish, interaktiv muhitni shakllantirish va ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkonini berdi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiyalashning ahamiyati, uning samarali usullari va mazkur jarayonning zamonaviy ta’lim muhitiga ko‘rsatadigan ta’siri keng tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiya qilish masalalari bilan yurtimizda ko‘plab pedagog olimlar nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borgan. Masalan, Begimqulov U.Sh, Azizxo‘jayeva N.N, Qamarov M.S, **Ummatillayeva M.U,** Usmonov M.S, Beknazarova S.S, Abdullayeva Z.M, Anarbayeva S.G‘ va boshqalar o‘zlarining darslik, o‘quv qo‘llanma, maqola, tezis kabi ilmiy ishlarida yuqoridagi mavzu doirasida Raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich, o‘rta, oliy ta’lim tizimida ta’lim dasturlari bilan integratsiyalashuvida uning roli, mazmun-mohiyati, qo‘llanilishi haqida ko‘plab fikr-mulohaza hamda ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari bilan tanishish mumkin bo‘ladi[2]. Tadqiqotlar raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta’lim jarayoning mahsuli a’anaviy tarzdagi ta’lim jarayonining mahsulidan ko‘ra samarali bo‘lishini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish har bir fanni chuqur o‘qitishga, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bu birgina ta’lim jarayonining yaxshilanishigina emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob’ektlarini sifatli boshqarish, sifatli va tezkor xizmatlar ko‘rsatish, raqobatbardosh iqtisodiyot sohalari ham deganidir[4,5,8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ilmiy maqolada raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiyalashning ilmiy-amaliy ahamiyati va zaruriy tamoyillarini o‘rganish muhokama qilinadi. Ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha savodxonligini oshirish, kreativ fikrlash qobilyatini rivojlantirish, hamda ijodiy kommunikativ ko‘nikmalarini raqamli texnologiyalarga asoslangan interfaol ta’lim metodlaridan va vositalardan foydalanish orqali rivojlantirish kabi yondashuvlar bayon qilinadi.

Tahlil va natijalar.

Boshqa mamlakatlardagi kabi O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bu raqamli platformalarni faol joriy etish, katta ma’lumotlardan (Big Data) foydalanish, shuningdek, davlat uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqishdir[3]. O‘zbekistonda raqamlashtirish uchun infratuzilma yaratish va bu o‘zgarishlardan maksimal darajada foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. 2024-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisining 80% dan ortig‘i internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan, bu raqamli infratuzilma kengayganligi va aloqaning yaxshilanganidan dalolat beradi; mamlakat aholisining 90% dan ortig‘i mobil telefonlardan foydalangan, 4G va 5G texnologiyalarini joriy etish jarayoni ham davom etmoqda; Mamlakatning raqamli infratuzilmasi sezilarli darajada yaxshilandi, katta miqdorda resurslar kiritildi, bu AKT infratuzilmasini takomillashtirish uchun mustahkam poydevor yaratdi, buning natijasida, O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, axborot sohasida va 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan aloqa, yalpi qo‘shilgan qiymat 2 barobardan ortiq o‘sib, 11,8 trillion so‘mga yetgnini ko‘rish mumkin[7,9].

Kasb-hunar ta’limi sohasida institutsional yaxlitlikni ta’minlash va boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish maqsadida xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi talablarga javob beradigan raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash tizimini

isloh qilish, ichki va tashqi mehnat bozori talablariga javob berish maqsadida Muhtaram Prezidentimizning 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasb-hunar ta’limi tizimida malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni qabul qilinib uning asosida kasb-hunar ta’limi tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab: ta’limning barcha bosqichlarida kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan ko‘p tarmoqli ta’lim muassasalarining yagona tizimini joriy etish, OTM larning akademik mustaqilligini ta’minlash va ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish, ta’limda zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, manfaatdor vazirlik va idoralarni o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash jarayoniga keng jalb etish, xalqaro tajribalardan unumli foydalanish elektron o‘qitish platformalarini joriy etish, ta’lim oluvchilarni yangi o‘quv adabiyotlar bilan ta’minlash, ularning laboratoriya va ustaxonalarini eng zamonaviy jihozlar bilan jihozlash kabi ko‘plab dolzarb masalalar belgilangan[10,11].

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti turli sohalarda samaradorlikni oshirish uchun Big Data tizimidan foydalanishni faol rivojlantirmoqda. Ta’lim sohasidagi katta ma’lumotlarning namunasi talabalarning o‘quv natijalarini tahlil qilish, ularning muvaffaqiyatlari va muammolarini baholash va har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi. O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari talabalarning davomati, baholari va faolligi ma’lumotlarini tahlil qiluvchi HEMIS kabi platformalardan o‘qituvchilarga qaysi talabalarning akademik qiyinchiliklarga duch kelayotgani haqida ma’lumot berish uchun allaqachon foydalanmoqda[12,13].

Katta ma’lumotlardan foydalangan holda ta’lim dasturlarini optimallashtirish qaysi o‘quv dasturlari va kurslari talabga ega ekanligini, shuningdek, qaysi o‘qitish usullari eng samarali ekanligini aniqroq baholash imkonini beradi. Talabalarning xohish-istaklari, bitiruvchilarning ishga joylashishi va o‘quv rejalarining muvaffaqiyati haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘quv dasturlarini moslashtirish va takomillashtirish, ularni yanada dolzarb va mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish mumkin. Misol: O‘zbekistondagi “EdTech” ma’lumotlar tahlili platformalari talabalar qaysi kurslarni ko‘proq o‘tashlari, qanday ko‘nikmalarni rivojlantirishlari va qaysi kurslarda muvaffaqiyat qozonishlari haqida ma’lumot to‘plashi mumkin. Bu ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlarini moslashtirish va ularni joriy bozor ehtiyojlariga moslashtirish uchun ma’lumot beradi[9,11].

Bitiruvchilarning ishga joylashish ma’lumotlari tahlili, shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy yo‘llarini tahlil qilish uchun ham qo‘llaniladi, bu esa ta’lim muassasalariga ma’lum mutaxassisliklarga bo‘lgan talabni yanada aniqroq baholash va o‘quv dasturlarini mehnat bozori tendentsiyalariga moslashtirish imkonini beradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqmoqda, bu nafaqat ta’lim dasturlari muvaffaqiyatini baholash, balki yangi kurslarni yaratish uchun ma’lumot beradi va ish beruvchilar talablariga javob beradigan ta’lim yo‘nalishlari[12].

Raqamli iqtisodiyotning muhim jihati shundaki, u geografik to‘siqlarni yengib o‘tadi. Shaharlar va chekka hududlar o‘rtasida raqamlashtirish darajasida sezilarli farq mavjud bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida raqamlashtirish ta’lim xizmatlaridan teng foydalanishni ta’minlashning asosiy vositasiga aylanishi mumkin. 2020-yilda O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari va talabalari uchun onlayn kurslarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oluvchi “Raqamli ta’lim” tizimini yaratish loyihasi ishga tushirildi, bu esa mamlakatimizning chekka hududlarida sifatli ta’lim olish imkonini beradi[14].

Yangi texnologiyalar va raqamlashtirish iqtisodiyot tuzilmasini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish uchun asos bo‘lmoqda. O‘zbekistonda davlat tashabbuslari bilan qo‘llab-quvvatlanayotgan startaplar faol rivojlanib, sanoatning turli tarmoqlarida innovatsion loyihalar hayotga tatbiq etilayotgani butun iqtisodiyot rivojiga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda startaplar va innovatsion kompaniyalar yangi raqamli yechimlar ustida ishlashi mumkin bo‘lgan IT-parklar tashkil etildi. Bu joy sarmoyadorlar va mutaxassislarni jalb etib, yuqori texnologiyali korxonalarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratmoqda[15].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda buyumlar internet texnologiyalari (IoT), sun’iy intellekt (AI) va blokcheyn texnologiyalari faol rivojlanmoqda, bu ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu texnologiyalarni qo‘llash boshqaruv jarayonlarini yaxshilash va turli sohalarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga yordam beradi[12].

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish ish jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, bandlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda, shuningdek, ishchilarning malaka talablariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ishchilar har doim o‘zgarishlarga moslashishga tayyor bo‘lishi zarur, chunki yangi texnologiyalar — sun’iy intellekt, blokcheyn, robototexnika va mobil platformalar global mehnat bozori manzarasini o‘zgartirishni davom ettirmoqda.

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish natijasida mehnat bozoridagi doimiy o‘zgarishlarga mos ravishda kadrlar tayyorlash va kasbiy qayta tayyorlashga bo‘lgan yondashuvni yangilash zarur. Oliy ta’limda an'anaviy o‘qitish usullari asosida shakllantirilgan ko‘nikmalar faqat mehnat faoliyatining ayrim qismlarida qo‘llanilishi

mumkin, ammo ular zamonaviy iqtisodiyot talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki ish ko‘nikmalari juda tez eskiradi. Shu sababli, kelajakdagi mutaxassislarning o‘zgarishlarga samarali moslashishi uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yangilash zarur.

Birinchidan, ta’lim dasturlarining moslashuvchanligi muhim ahamiyatga ega. Ular texnologiyalar va amaliyotlarning tez o‘zgarishiga mos ravishda yangilanishi kerak. Mavjud bozor talablariga mos keladigan malakalarni o‘quv dasturiga tezda kiritish, masalan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ma'lumotlar ko‘nikmalarini o‘rgatish va raqamli texnologiyalarga e’tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarining hozirgi va kelajakdagi malaka ehtiyojlarini tushunish uchun sanoat va ish beruvchilar bilan faol hamkorlik qilish zarur. Masalan, qo‘shma ishlab chiqarish ta’lim muassasalari real ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olgan holda malaka oshirish kurslarini ishlab chiqishi, talabalar esa amaliyot o‘tash orqali mehnat bozoriga tayyorlanishlari kerak.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlashda raqamli va texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish asosiy o‘rin tutadi. Bu nafaqat aniq texnologiyalarni o‘rganish, balki yangi vositalarga moslashish va innovatsiyalarni tezda o‘zlashtirish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Kelajakdagi ishchilar sun’iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, mashina o‘rganish va dasturlash asoslari bilan ishlashga tayyor bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, texnik va raqamli bilimlardan tashqari, ishchilar "yumshoq" ko‘nikmalarni, masalan, muloqot, etakchilik, ijodkorlik, jamoada ishlash va nizolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishi kerak. Globallashuv, moslashuvchan ish soatlari va ko‘p vazifalilik sharoitida bu ko‘nikmalar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosalar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bugun O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti raqamli platformalar, katta ma’lumotlar, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish asosida o‘sib bormoqda. Bu o‘zgarishlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarining samaradorligini oshirib, aholi turmush sifatini yaxshilashga, kelajakda barqaror o‘sishni ta’minlashga yordam beradi. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish va yangi sharoitlarga moslashish uchun kadrlar tayyorlash va kasbiy qayta tayyorlash tizimini o‘zgartirish zarur. “Bilimlarni bir martalik yuklab olish” modelidan ko‘ra, kasbiy hayot davomida bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilashga yo‘naltirilgan tizimni yaratish lozim. Ta’lim dasturlarining moslashuvchanligi, sanoat bilan hamkorlik va texnik hamda ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish eng muhim omillar bo‘ladi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4699-sonli Qarori (Manba: https://lex.uz/docs/4800657).

2. Safibullaevna, A. O., Engalichev, M. I., & Safibullaevna, B. S. (2020, November). Online-learning organization methodology as component of it technologies at students of technical universities. In *2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-6). IEEE.

3. Safibullayevna, A. O. (2023). Intelektual axborot bilimlar tizimini xususiyatlari, belgilari va imkoniyatlari. *IJODKOR O‘QITUVCHI*, *3*(28), 121-126.

4. Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In *2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET)* (pp. 588-591). IEEE.

5. Safibullaevna, A. O., & Azamxonov, B. S. (2024). TECHNOLOGY OF CREATION AND APPLICATION OF AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *5*(01), 31-38.

6. Ozoda, A., & Azamxonov, B. S. (2023). MEANS OF ORGANIZING AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(17), 438-449.

7. Safibullaevna, A. O. (2022). Foreign experience in the preparation of master's programs aimed at the development of information and management competences. *Current research journal of pedagogics*, *3*(03), 41-47.

8. Абдуллаева, О. С. (2015). Анализ учебно-воспитательной деятельности учащихся в процессе изучения дисциплины" Информатика и информационные технологии". *Молодой ученый*, (12), 687-690.

9. Абдуллаева, О. С. (2016). Формирование и развитие педагогических способностей в процессе непрерывного образования. *Евразийский союз ученых*, (3-2 (24)), 91-92.

10. Абдуллаева, О. С. (2014). Современное состояние подготовки будущих учителей информатики к педагогической деятельности. *Современное образование (Узбекистан)*, (10), 34-39.

11. Абдуллаева, О. С. (2016). Измерительный инструмент (индикаторы) для определения готовности студентов ВУЗа к педагогической деятельности. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 26-33.

12. Абдуллаева, О. С. (2015). Формирование умений и навыков у учащихся средних специальных профессиональных образовательных учреждений. *Дистанционное и виртуальное обучение*, (3), 99-106.

13. АБДУЛЛАЕВА, О. (2024). ЦИФРОВЫЕ МЕТОДЫ СОЗДАНИИ ДИНАМИЧЕСКОГО САЙТА ДЛЯ ВОУ. *News of the NUUz*, *1*(1.9. 1), 63-67.

14. Abdullayeva, O., & Shermatova, M. (2024). THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF IMPROVING THE SUGGESTIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF PEDAGOGICAL SCIENCE. *Science and innovation*, *3*(B10), 52-56.

15. Safibullayevna, A. O. (2024). The Importance Of The Use Of Trainings, Methods, And Tools In The Training Of Future Preschool Educational Organizations In The Use Of Pedagogical-Psychological Characteristics Of Training Teachers. *American Journal of Advanced Scientific Research*, *1*(8), 69-71.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Kilicheva Dildora Ismailjonovna
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti,
"Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: k.d.i.77@mail.ru

BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY KONSEPSIYASI TALABLARI ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotasiya. *Maqolada barqaror rivojlanish strategiyasining mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari va maqsadlari to'g'risida tahliliy materiallar hamda unda ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'nalishining tutgan o'rni keltirilgan. Ekologik barqarorlikni ta'minlash g'oyasi bilan akademik M.M.Moiseev fikrlari o'rtasidagi tafovutlar, noosfera va uning mazmuni yoritilgan. Ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy vazifalardan biri bo'lajak mutaxassislarda ekologik madaniyatni rivojlantirish zarurligi va ahamiyati asoslangan. Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi, uning asosiy yo'nalishlari hamda amaliy metodlari aniqlangan.*

Tayanch so'zlar: *barqaror, rivojlanish, strategiya, noosfera, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, metodika.*

Киличева Дилдора Исмаилджоновна
Старший преподаватель кафедры экологии и охраны окружающей среды
Каршинского инженерно-экономического института

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ ТРЕБОВАНИЙ СТРАТЕГИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В статье представлены аналитические материалы о сущности, основных направлениях и целях стратегии устойчивого развития, а также месте в ней обеспечения экологической устойчивости. Выделены отличия идеи обеспечения экологической устойчивости от идей академика М.М. Моисеева о ноосфере и ее содержании. Одной из основных задач обеспечения экологической устойчивости является необходимость и важность формирования экологической культуры у будущих специалистов. Определены методология формирования экологической культуры, ее основные направления и практические методы.*

Ключевые слова: *устойчивое, развитие, стратегия, ноосфера, экологическое образование, экологическая культура, методология.*

Kilicheva Dildora Ismailjonovna
Senior lecturer at the Department of Ecology and Environmental Protection
at the Karshin Institute of Engineering and Economics

METHODOLOGY FORMIROVANIYA ECOLOGICAL CULTURE NA OSNOVE TRAINING STRATEGII USTOYCHIVOGO RAZVITIYA

Abstract. *The article presents analytical materials on the essence, main directions and objectives of the sustainable development strategy, as well as the place of environmental sustainability in it. The differences between the idea of environmental sustainability and the ideas of academician M.M. Moiseyev about the noosphere and its content are highlighted. One of the main tasks of ensuring environmental sustainability is the need and importance of forming an environmental culture in future specialists. The methodology for forming an environmental culture, its main directions and practical methods are defined.*

Keywords: *sustainable, development, strategy, noosphere, environmental education, environmental culture, methodology.*

Kirish.

Barqaror rivojlanish strategiyasi – bu davlat, jamiyat va iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarning barqarorligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan uzuq muddatli reja va chora-tadbirlar majmuidir. Bu strategiyaning asosiy maqsadi – bugungi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini himoya qilishdir. Barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri ekologik

barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi. Bu maqsad asosan tabiiy resurslarni oqilona va samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ifloslanishni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi yo'nalishlardan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi yer yuzida ekologik muvozanatni va ekologik barqarorlikni saqlashga, ya'ni tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun yashash uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgandir. Yuqoridagilarni hisobga olib, barqaror rivojlanish strategiyasi – bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarning uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan uzuq muddatli rejadir va uning asosiy maqsadi – bugungi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini himoya qilishdir deb ta'rif berishimiz mumkin.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda analitik, bashoratlash, qiyosiy-taqqoslash va statistik tahlil metodlari hamda empirik metodlar: anketalar, kuzatish, test so'rovlari, suhbatlar, tugallanmagan fikrlar, tajriba sinov natijalari tahlili kabilardan foydalanildi

Natijalar va muhokamalar.

Kelgusi avlod qobiliyatini saqlab qolgan holda inson o'z ehtiyojlarini va talablarini qondira oladigan darajada kuzatiladigan rivojlanishni barqaror rivojlanish deyiladi. Tashqi muhit va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni bir-biridan ajratgan holda alohida qaramaslikni his etish barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Demak, ana shu nuqtai nazardan qaralganda sog'lom ijtimoiy – iqtisodiy muhitda sog'lom tashqi muhit mavjud bo'ladi. Birlashgan millatlar tashkilotining (KOONOSR) asosiy hujjatlari bo'lmish «XXI asr kun tartibi» da barqaror rivojlanishni kelgusida ta'minlaydigan keng ko'lamdagi masalalar ko'zda tutilgan. Ana shunday masalalarga iqlim o'zgarishining oldini olish, cho'llashishga qarshi kurashish, ekologik ta'limni kuchaytirish, turli xil ekologik uyushmalar ishlari kabilar kiradi. Ekologik muammolarni hal etishda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarning muhimliligini nazarda tutmoq zarur. Bu sanoat va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnologiya, qashshoqlikka qarshi kurashish, ehtiyojlar tizimini o'zgartirish, doimiy yashaydigan uy joylarni ko'paytirish, har xil toifadagi aholining atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi rolini rivojlantirish talab etiladi. Barqaror rivojlanish strategiyasida bu kabi masalalar 4 ta bo'limga birlashtirilgan: harakat dasturi; ijtimoiy-iqtisodiy aspektlar; aholining rolini kuchaytirish; bajarish vositalari.

Birlashgan millatlar tashkiloti barqaror rivojlanishni e'lon qilib barcha davlatlardan shu konsepsiyalar asosida o'zlarining milliy barqaror rivojlanish kotsepsiyalarini qabul qilishini so'ragan va hozirgi kunda ko'pchilik davlatlar, shu jumladan bizning respublikamizda ham shunday konsepsiyalar qabul qilingan. Bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi VM-83-son qarorida o'z ifodasini topgan [1].

Akademik M.M.Moiseev barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan biroz boshqa fikrlarni olg'a suradi. Uning fikricha hozirgi kunda va bundan keyingi yaqin yillarda ham barqaror rivojlanishni rejalashtirish qiyin masala. Chunki, barqaror rivojlanishga qarab faoliyat yuritish hozirgi ekologik holatni oddiylashtiradi, insonlarning ekologik muammolarining naqadar murakkab ekanligini sezmaslikka, ularni yechish yo'llarini topishda qiyinchiliklarga to'g'ri kelishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda umumiy ekologik xarakterga ega bo'lgan va yechimini hal qilishini talab etadigan muammolarga V.V.Vernadskiyning noosfera to'g'risidagi barqaror rivojlanish konsepsiyalari, ekologik muammolarga bag'ishlangan xalqaro shartnomalar va shu kabilar kiradi [2].

Noosfera tushunchasi fransuz olimlari E.Lirua va P.Teyyara, De Shardenalar tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, aqlli qatlam (sfera) ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu tushunchani akademik V.I.Vernadskiy rivojlantirib "noosfera bu biosferaning qonuniy asosida rivojlangan bir davri bo'lib, bu rivojlanishda inson asosiy belgilovchi rolni o'ynaydi" deb ta'kidlaydi. Noosferaning mohiyati inson faoliyati bilan bog'liq va noosferadagi hozirgi ekologik vaziyat insonlarning aqliy ta'siri oqibatida vujudga kelgan. Boshqa olimlarning ta'kidlashicha, biosfera shunday rivojlanish darajasiga borib yetdiki, unda bo'lib o'tadigan jarayonlar inson yordamida boshqariladi. Akademik V.I.Vernadskiy fikricha inson o'ziga kerakli mahsulotlar va shunga o'xshash boshqa moddiy boyliklarni biosferadagi tabiiy jarayonlarga kamroq aralashgan holda olishni o'rganishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, V.I.Vernadskiy biosferaning o'rniga keladigan noosferaning asosiy konturlarini belgilab bergan xolos. Biosferadan noosferaga o'tish mexanizmi va noosfera atamasining o'zi hali to'lig'incha yoritib berilmagan. Noosfera to'g'risidagi tushunchalarning asosiy mazmuni N.N.Moiseev tomonidan rivojlantirilgan va ular quyidagilardan iborat:

1. Noosferagacha uzoq muddat davrda noosfera oldi davr bo'lib o'tadi. Bu davrda insoniyat biosferada mavjud bo'lgan qonuniyatlarni tushunib yetishi lozim va u biosferada bo'ladigan jarayonlarda o'z o'rnini topa bilishi kerak. Hozir aynan ana shunday davr hisoblanadi.
2. Noosfera oldi davrida insoniyat tabiatni o'ziga bo'ysindirish va shu kabi tushunchalardan voz kechishi lozim. Milliard yillar maboynida mavjud bo'lgan planetamizdagi hayotni asrash, uni toza saqlash va kelgusi avlodlarga obod va toza holda saqlash kabi ma'suliyatli

vazifa (insoniyat) yelkasida turganligini anglab yetishi lozim.

3. Insonning barcha hayotiy faoliyatida ekologiyaning barqarorligini saqlashda xalqaro ekologik yoki noosferalik tashkilotlarni, institutlarni tuzish xalqaro ekologik huquqlarni yaratishdir.


4. Tabiatga zarar keltiruvchi, ekologik muhitni buzuvchi inson faoliyatining ba'zi bir qirralarini man etadigan qarorlar ham qabul qilinishi lozim. Ya'ni N.N.Moiseevning ta'biri bilan aytganda insonlar rivojlanishni tabiat bilan kompleks holda olib borishi kerak.

Albatta, ekologik muommolarni yechishda ekologik bilimlar, kishilarning hoxishi yoki man etadigan qarorlar yetarli darajada bo'ladi deb hisoblash noto'g'ri. Bu yuqorida aytilgan tadbir choralar bilan bir qatorda ekologik muhitni sog'lomlashtirishning asosiy mezonlaridan biri haqiqiy madaniy insonni tarbiyalash, shaxs, jamiyat va tabiatning garmoniyasini taminlash lozim [3,4]. Bu vazifa ta'lim tizimining barcha turlarida ekologik bilimlarni oshirishga qaratilgan fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishni talab etadi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat bilan uyg'un yashash va ekologik ongni shakllantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu metodika aholining ekologik madaniyatini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning asosiy vositalarini belgilaydi [5,6]. Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasining asosiy yo'nalishlariga ekologik ta'lim va tarbiya (maktab, litsey va kollejlarda ekologik fanini joriy etish, talabalar va yoshlar uchun ekologik lagerlar, seminarlar va treninglar tashkil etish, ekologik madaniyatga oid kitoblar, qo'llanmalar va videolar tayyorlash); ekologik ongni oshirish (aholining ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha ommaviy kampaniyalar o'tkazish, matbuot, televidenie va internet vositalari orqali ekologik masalalarga e'tiborni tortish, ekologik madaniyatga oid aksiyalar, konkurslar va festivallar tashkil etish); ekologik toza texnologiyalarni joriy etish (chiqindilarni qayta ishlash va ulardan foydalanishni rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh, shamol, suv energiyasi) joriy etish, ekologik toza transport vositalarini rivojlantirish); huquqiy bazani takomillashtirish (atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunlarni takomillashtirish, ekologik normalar va me'yorlarni rivojlantirish, ekologik jinoyatlarga nisbatan javobgarlikni kuchlantirish); ijtimoiy hamkorlik (davlat, NNO va xususiy sektorning ekologik masalalar bo'yicha hamkorligini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalarni amalga oshirish); ekologik monitoring va nazorat (atrof-muhitning holatini doimiy ravishda ko'rib borish, ekologik tahlil va hisobotlarni tayyorlash, ekologik jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish) dan iborat [7,8,9].

Ekologik madaniyatni rivojlantirish qo'yidagilar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi (rasmga qarang):

- ta'lim va tarbiyada ekologik ta'limga katta e'tibor qaratish;
- innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish; texnika va texnologiyalarni takomillashtirish sohasida ekologik toza yechimlarni ishlab chiqish;
- atrof muhitni muhofaza qilish standartlariga rioya qilish;
- xalqaro hamkorlik va rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish.



Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirish komponentlari

Bo‘lajak muhandislarning ekologik madaniyatini rivojlantirish qo‘yidagi vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilishi lozim:

- yangi texnika va texnologiyalarni loyihalash va ishlab chiqishda ekologik talablarni hisobga olish asosida atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minlash;
- ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash;
- eng yangi raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va robotlarga asoslangan texnologiyalar loyihalarini ishlab chiqish natijasida barqaror rivojlanishni ta’minlashga ijobiy ta’sir etish.

Hozirgi kunda ekologik xavf tobora kengayib, yer yuzidagi barcha mamlakatlarning umumiy gloabl muammosiga aylanmoqda. Jamiyat va texnikaning tezkor rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislar tayyorlash jarayonini ijtimoiy va gumanitar yondoshuvlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda.

Xulosa.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat bilan uyg‘un yashash va ekologik ongni shakllantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu metodikaning asosiy maqsadi – aholining ekologik madaniyatini oshirish, tabiiy resurslarni oqilona foydalanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishdir. Ekologik madaniyatni ekologik aksiyalar (“Yashil makon”, “Toza shahar”), ekologik loyihalar, ekologik tarbiya, ekologik monitoring kabi amaliy tadbirlar orqali amalga oshirish yaxshi natijalar beradi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish atrof muhitning ifloslanishini kamaytirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, ijtimoiy ongni oshirish va kelajak avlodlarni himoya qilish, ular uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga olib keladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning ekologik madaniyatini rivojlantirish nafaqat ekologiya fanini, balki mutaxassislik fanlarini o‘qitishni ham fanlararo integratsiya asosida olib borilishi lozim. Ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh panellari, shamol turbinalari va boshqa ekologik toza energiya manbalari) loyihalash va ulardan foydalanish, “aqlli shahar”, “aqlli qishloq xo‘jaligi” va boshqa shu kabi smart loyihalarni rivojlantirish, suv, havo, tuproqni muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish (qayta ishlash, saqlash va b.) kabi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-sonli “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” qarori

2. Урсул А.Д. Ноосферная модел науки и образования XXIв. //Социально-политический журнал.-1996.- № 4,- С.68-78.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risda” gi 434-son qarori. URL: https://lex.uz/ru/docs/4354743

4. Abduazimova Z. A. Globallashuv jarayonida ekologik axloqni shakllantirishga konseptual yondashuv. Falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, O‘z.MU, 2020.

5. Xushvaktova X.S. Oliy ta’lim muassasalarida “ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fanini o‘qitishning metodik asoslarini takomillashtirish. 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ekologiya). Pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2021.

5. Гирусов Э.В. Природные основы экологической культуры //Экология. Культура. Образование. Материалы конференции. - М.: МГПИ, 1989. - С.11-18.

6. Зверев И.Д. Постулаты развития экологической культуры.// Экологическая культура и образование: концепции и технологии. -Волгоград: Перемена, 1996. С. 72 - 84.

7. Дежникова Н.С. Экологическая культура как предмет педагогики // Экологическая психология (Тезисы I российской конференции). М., 1996. -С. 46-47.

8. Ермоленко В.А., Морозова Н.В. Экологическая культура и ее формирование у будущих специалистов. //Пространство и время. 2(8), 2012. -с.163-168

9. Стошкус К. О понятии экологической культуры /Проблемы формирования современной экологической культуры. - Вилнюс: Ин-т философии, социологии и права АН Лит-ой ССР, 1987. - С.7-38,

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Niyozov Qahramon Adashaliyevich
Namangan davlat universiteti
Anatomiya va fiziologiya kafedrasi o‘qituvchisi
nambiolog@umail.uz

UDK 371.261

BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlaridan (masalan, PISA, TIMSS) foydalanish malakalarini rivojlantirishda multimedia vositalarining rolini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda multimedia vositalari (videolar, interfaol darsliklar, virtual laboratoriyalar) yordamida talabalarning xalqaro baholash standartlarini o‘zlashtirishi va ularni qo‘llash qobiliyati o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini global miqyosda baholashga tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Maqolada shuningdek, multimedia vositalaridan foydalanishda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari biologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlaydi.*

Tayanch so‘zlar: *biologiya o‘qituvchilari, xalqaro baholash dasturlari, multimedia vositalari, PISA, TIMSS, virtual laboratoriyalar, ta’lim texnologiyalari.*

Ниёзов Кахрамон Адашалиевич
Наманганский государственный университет
Преподаватель кафедры анатомии и физиологии

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье представлены результаты исследования, направленного на изучение роли мультимедийных средств в развитии навыков использования будущими учителями биологии международных программ оценки (например, PISA, TIMSS). В исследовании изучалось, как мультимедийные средства (видео, интерактивные учебники, виртуальные лаборатории) помогают студентам освоить стандарты международной оценки и развить способность их применения. Результаты показали, что использование мультимедийных средств значительно повышает готовность студентов к оценке знаний и навыков на глобальном уровне. В статье также приведены рекомендации по решению проблем, возникающих при использовании мультимедийных средств. Результаты исследования подчеркивают важность применения современных технологий в подготовке учителей биологии.*

Ключевые слова: *учителя биологии, международные программы оценки, мультимедийные средства, PISA, TIMSS, виртуальные лаборатории, образовательные технологии.*

Niyozov Qahramon Adashaliyevich
Namangan State University
Lecturer at the Department of Anatomy and Physiology

USE OF MULTIMEDIA TOOLS FOR DEVELOPING FUTURE BIOLOGY TEACHERS' SKILLS IN UTILIZING INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

Annotation. *His article presents the results of a study aimed at exploring the role of multimedia tools in developing the skills of future biology teachers to utilize international assessment programs (e.g., PISA, TIMSS). The study examined how multimedia tools (videos, interactive textbooks, virtual laboratories) help students master international assessment standards and enhance their ability to apply them. The results demonstrated that the use of multimedia tools significantly improves students' readiness to assess knowledge and skills on a global scale. The article also provides recommendations for addressing challenges encountered when using multimedia*

tools. The research findings highlight the importance of integrating modern technologies in the training of biology teachers.

Keywords: *biology teachers, international assessment programs, multimedia tools, PISA, TIMSS, virtual laboratories, educational technologies.*

Kirish (Introduction).

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish va xalqaro baholash dasturlarida (PISA, TIMSS, TALIS) o‘quvchilarning natijalarini yaxshilash O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish va ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori va 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta’lim sifatini oshirish va xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4884-son qarori xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni yanada kuchaytirish zaruratini ko‘rsatib berdi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni hamda 2023-yil 11-yanvardagi “Davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-13-son qarorida xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishning ahamiyati va ularga tayyorgarlik ko‘rish jarayonini sifat jihatidan yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Biologiya fani bo‘yicha xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning ushbu dasturlar mohiyatini tushunishi, ularni o‘qitish metodikasiga tatbiq eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Interaktiv ta’lim texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar va video darsliklar yordamida biologiya fanidan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu dasturlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini, tanqidiy yondashuvni va amaliy bilimlarni tekshirishga yo‘naltirilgan. Masalan, OECD tomonidan chop etilgan PISA tadqiqotlari o‘quvchilarning fanlararo bilimlarni qo‘llash qobiliyatini o‘lchaydi (OECD, 2019). Shuningdek, TIMSS xalqaro tadqiqoti fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy muammolar bilan bog‘lash muhimligini ta’kidlaydi (Mullis et al., 2020).

O‘zbekistonda xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, N. X. Usmonova va boshqalar (2021) o‘z tadqiqotlarida interfaol ta’lim usullari va multimedia texnologiyalarining samaradorligini o‘rganib chiqib, ularning o‘quvchilarning natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlashgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalar va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari ushbu jarayonni yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Biologiya fanidan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rishda multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha xalqaro tajriba ham muhim rol o‘ynaydi. Xitoy, Janubiy Koreya va Finlandiya kabi davlatlarda virtual laboratoriyalar va interaktiv dasturlar orqali biologiya fanini o‘qitish samaradorligi oshirilmoqda (Lee & Kim, 2022). Bu esa O‘zbekiston sharoitida ham zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etish muhimligini ko‘rsatadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Masalan, 3D modellashtirish, biologik jarayonlarni aks ettiruvchi simulyatsiyalar va interaktiv testlar orqali o‘quvchilarning biologik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishiga erishish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar orqali biologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, tadqiqot olib borish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi (Jonassen et al., 2021).

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun pedagoglarning kasbiy rivojlanishi ham muhimdir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalarini pedagogik faoliyatga joriy qilish o‘qituvchilarning didaktik mahoratini oshirishga xizmat qiladi (Mishra & Koehler, 2020). Shu boisdan, bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish zarur.

Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikda foydalaniladigan multimedia vositalarining samaradorligi, ularning didaktik ahamiyati va O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, multimedia texnologiyalaridan foydalanishning didaktik tamoyillari, biologiya fani o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va O‘zbekistondagi amaliy tajribalar bo‘yicha keng qamrovli tahlillar keltiriladi.

Metodologiya (Methods).

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda multimedia vositalarining o‘rnini aniqlash va baholash metodlari qo‘llanilgan.

Tadqiqot empirik va eksperimental usullarga asoslangan bo‘lib, malakalarni shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Aralash metod yondashuvi qo‘llanilib, sifat va miqdoriy tahlillar amalga oshirilgan.

Biologiya yo‘nalishidagi bo‘lajak o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha bilim va malakalarini baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan test va so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Multimedia vositalaridan foydalangan holda o‘qitishning samaradorligini baholash maqsadida eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etildi.

Biologiya fani o‘qituvchilari, ta’lim ekspertlari va xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etgan mutaxassislar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar tashkil etildi.

Eksperiment natijalari va so‘rovnomalar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar SPSS dasturida tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar, dispersiya va regressiya tahlili amalga oshirildi.

Intervyular va ochiq savollarga asoslangan javoblarning mazmuni tahlil qilinib, asosiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish malakalarini multimedia texnologiyalari yordamida shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqishga imkon beradi.

Natijalar (Results).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimedia vositalaridan foydalanish bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

Multimedia vositalari bilan o‘qitilgan eksperimental guruh talabalari test natijalarida nazorat guruhiga nisbatan 22% yuqori bilim va ko‘nikmalarning oshishi qayd etdi. Talabalarning xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha umumiy xabardorligi 35% ga oshdi.

O‘qitish jarayonining samaradorligi virtual laboratoriyalar va interaktiv materiallardan foydalanish orqali amaliy mashg‘ulotlarning tushunarlilik darajasi 40% ga yaxshilandi. Video darslar va infografikalar yordamida tushuntirilgan mavzularni eslab qolish darajasi 30% ga oshdi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus treninglardan o‘tgan o‘qituvchilar dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish darajasini 50% ga oshirdi. Interaktiv o‘qitish metodlaridan foydalanish orqali talabalar ishtiroki 60% ga ko‘tarildi.

Olingan natijalar asosida biologiya fani uchun xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha multimediya darsliklari va elektron resurslar ishlab chiqildi. Oliy ta’lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Munozara (Discussion).

Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Ushbu bo‘limda olingan natijalar muhokama qilinadi va ularning boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslanishi amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimedia texnologiyalari orqali o‘qitish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tezlashtirish va o‘zlashtirish darajasini oshirish imkonini berdi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, vizual va interaktiv o‘quv materiallarining o‘quvchilar bilimini mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha olib borilgan boshqa ilmiy ishlarda qayd etilgan natijalar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Masalan, Shvetsiya va Finlyandiya ta’lim tizimlarida multimedia vositalaridan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda yuqori natijalar qayd etgan.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini interaktiv tarzda tashkil etish bo‘yicha malakalarini oshirishga yordam berdi.

O‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra, multimedia vositalari dars jarayonida murakkab biologik tushunchalarni osonroq yetkazib berishga imkon yaratdi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish va o‘qituvchilar uchun maxsus trening dasturlarini joriy etish lozim.

Kelajakdagi tadqiqotlarda multimedia vositalarining uzoq muddatli ta’siri va ularning turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan samaradorligi o‘rganilishi tavsiya etiladi.

Xulosa (Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari yordamida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish malakalari sezilarli darajada rivojlanadi. Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonida multimedia texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga va o‘quvchilarning tushunish darajasini yaxshilashga yordam beradi.

O‘quvchilar multimediya materiallari yordamida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirdi. Virtual

laboratoriyalar va interaktiv darsliklar orqali murakkab mavzular osonroq tushuntirildi. Video darslar va vizual materiallar o‘quvchilarning qiziqish darajasini oshirdi.

Tadqiqot natijalari multimedia texnologiyalarini qo‘llagan o‘qituvchilar darslarni yanada samarali olib borishini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning interaktiv ta’lim metodlarini qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari yaxshilandi. Oliy ta’lim muassasalarida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha maxsus kurslar joriy etilishi lozim. Multimedia texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun virtual laboratoriyalar va interaktiv o‘quv platformalarini keng joriy etish tavsiya etiladi. O‘qituvchilarni multimedia vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish uchun doimiy seminarlar va treninglar tashkil etish zarur.

Umuman olganda, biologiya fanidan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni takomillashtirishda multimedia vositalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar davom ettirilib, multimedia texnologiyalarining ta’limga ta’siri yanada chuqur o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati/ references.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019). PQ-4312-son qaror. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish va ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). PQ-4884-son qaror. Ta’lim sifatini oshirish va xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). PF-60-son farmon. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). PQ-13-son qaror. Davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
5. OECD (2019). PISA 2018 Results. OECD Publishing.
6. Mullis, I. V. S., Martin, M. O. (2020). TIMSS 2019 International Results in Science. TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
7. Usmonova, N. X., va boshqalar. (2021). Xalqaro baholash dasturlarida interfaol ta’lim usullarining samaradorligi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
8. Lee, H., & Kim, J. (2022). The impact of virtual laboratories on science education: A meta-analysis. Journal of Science Education and Technology, 31(4), 567-580.
9. Jonassen, D. H., Howland, J., Moore, J., & Marra, R. M. (2021). Meaningful Learning with Technology. Pearson Education.
10. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2020). Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK): A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
11. Niyozov Q. Biologiya ta’limi jarayonida o ‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovason texnologiyalarning o ‘rni //Toshkent shahar XTXQTMOIda tashkil etilgan «Xalq ta’limi tizimidagi «Mahorat maktablari» faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to ‘plami.–T.:«Fan va texnologiyalar. – 2017.
12. Niyozov Q. A. Biologiya fanini o ‘qitishda pedagogik texnologiyalar. – 2017.
13. Niyozov Q. A. O‘QUVCHILARNI TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURIDA KELTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI BAJARISHGA TAYYORLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4 SPECIAL. – C. 1005-1010.
14. Adashaliyevich N. Q. Methodology For Developing the Skills Of Working With The Pisa In Future Biology Teachers //Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 402-406.
15. Adashaliyevich N. Q. et al. TEACHING HUMAN ANATOMY AND PHYSIOLOGY BASED ON MODERN EDUCATIONAL APPROACHES //International journal of artificial intelligence. – 2024. – T. 4. – №. 04. – C. 45-47.
16. Adashaliyevich N. Q. et al. Biologiya Ta’limida O‘quvchilarda Mustaqil Va Ijodiy Faoliyatlarini Rivojlantirishdagi Muammolar Va Ularning Yechimlari //Progress Annals: Journal of Progressive Research. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 7-10.
17. Niyozov Q.A., “O‘quvchilarni PISA xalqaro baholash dasturida keltirilgantopshiriqlarni bajarishga tayyorlashdagi muammolar va ularningyechimlari”. Surxondaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalargao‘rgatish milliy markazida 2023-yilning 30-may kuni “Aniq va tabiiyfanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuv: muammo va yechimlar”mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.
18. https://tsbm.uz/ - Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti.
19. https://t.me/nambiolog – Biologiya fani o‘qituvchilari uchun metodik yordam kanali.
20. https://www.oecd.org//pisa - Programme for International Student Assessment(PISA) web sahifasi.
21. https://timssandpirls.bc.edu/ - TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi.

22. https://www.researchgate.net/publication/381473087_O‘quvchilarning_tabiiy-ilmiy_savodxonligi_monitoringida_baholash_dasturlari_va_topshiriqlaridan_foydalanish_metodikasi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullaev Bekdada G'afurjanovich
Namangan davlat universiteti jismoniy madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail:abdullaevbekdad@mail.ru

O'QUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS INNOVATSION MASHQLAR (FUTBOLCHI) MISOLIDA

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada o'smir futbolchilarni o'quv yig'in mashg'ulotlari ta'sirida jismoniy rivojlanishi o'zgarishi haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy rivojlanish, morfologiya, antropometrya, futbolchi sport to'garaklari, o'smir, mashg'ulotlar.*

Абдуллаев Бекдада Гафурджанович
Старший преподаватель кафедры физической культуры
Наманганского государственного университета

ФИЗИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ УПРАЖНЕНИЯ ПО РАЗВИВАЮЩЕЙ ПОДГОТОВКЕ (ФУТБОЛИСТ)

Аннотация *В научной статье представлены теоретические сведения и практические рекомендации по изменению физического развития футболистов-подростков под влиянием занятий на тренировочных сборах.*

Ключевые слова: *физическое развитие, морфология, антропометрия, футбольные клубы, подросток, тренировка.*

Abdullaev Bekdada Gafurjanovich
Senior lecturer of the Department of Physical Culture
Namangan State University

SPECIAL INNOVATIVE EXERCISES IN DEVELOPING THE PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS (FOOTBALL PLAYER)

Abstract *This scientific article presents theoretical information and practical recommendations on the changes in the physical development of adolescent football players under the influence of training camp exercises.*

Keywords: *physical development, morphology, anthropometry, football clubs, teenager, training.*

Kirish.

Iqtidorli yoshlarni tanlab olish mashg'ulot faoliyati samaradorligini oshiruvchi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikng o'ziga xos ravishda farqlanuvchi xususiyatlari, ularni texnik-taktik tayyorgarlik vositalari bog'liq holda rivojlantirishning ilmiy, nazariy va uslubiy asoslari tanlash va yo'naltirish muhim axamiyat kasb etadi. "Shu bilan birga, j ismonan bo'lgan o'smirlarni sport bilan shug'illanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va davlat tamonidan qo'llab-quvvatlashga aloxida e'tibor qaratilmoqda". Bugungi kunda dolzarb bo'lgan olimpiya sport mashg'ulotlarini optimallashtirish va sport faoliyatini samaradorligi va ishonchliligini oshirish kabi o'ziga hos vazifalarni hal etish bilan bog'liq muammolarga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay o'smirlarnining yosh bo'yicha sport mashg'ulotlarini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan bog'liq ayrim jihatlari hozirga qadar yetarlicha tadbiq qilinmagan va tajribada asoslab berilmagan. Hozirda dunyoning nafaqat rivojlangan balki, endigina rivojlanayotgan mamlakatlarida sportning barcha turlarini rivojlantirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirmoqda. Sport sohasi mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijasida kundan kunga futbolchi sportga oid yangiliklar yaratilmoqda va ushbu ilmiy tadqiqotlarning amaliy isboti sifatida, har to'rt yilda o'tkazib kelinayotgan o'yinlari va Jahon chempionatlaridagi natijalarni misol qilish mumkin.

Bunday yuksak natijalarga erishish uchun nafaqat sportchining mehnati, uning murabbisi, shifokori, psixologi va jamiyatdagi ular uchun yaratilgan sharoitning ham o'rni beqiyosdir. Albatta futbolchi sport sohasida ilmiy izlanayotgan tadqiqotlarining bunday

natijalarga erishishlari uchun xizmatlari juda yuqori chunki, ular tomonidan yaratilgan yangi metodlar va vositalarsiz bunday natijalarga erishish mushkul bo‘ladi. Albatta, ushbu jarayonni boshlanish nuqtasi maktab yoshidagi o‘smirlarni futbolchi sport to‘garaklarini to‘g‘ri va muvofiq tashlik etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirishda bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada malakali kadrlarni tayyorlashning sifatini oshirib borish zarurdir. Bizga ma’lumki malakali mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha bar qancha qarorlar qabul qilindi. Xususan.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyayev Miromonovich tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-son “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlil va metodlar.

Talipdjanov A.I (2012) fikricha, Futbolchilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirish nafaqat yetakchi omillarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini va natijaga olib keladigan miqdoriy ta’sirlarni bilishni, balki eng samarali vositalar va usullarni tanlash va ularni amalda oqilona qo‘llashni o‘z ichiga oladi o‘z manbalarida bergan ma’lumotlariga ko‘ra, individual funksiyalar umumiy fazilatlari qobiliyatlarini shakllantirishning xususiyatlarining geteroxron rivojlanishi tufayli turli yuqori malakali davrlarida sportchilarda qobiliyatlarning namoyon bo‘lish strukturasida ma’lum farqlar mavjud bundan tashqari yuqori sport natijalariga erishish asosan davrida o‘rganilgan texnik-taktik murakkab harakatlarni egallash so‘ngra xalqaro sport ustasi darajasidagi sportchini tayyorgarlik darajasi bilan bir vaqtda sportchining tanasini shakllantirish murakkab jarayonlar bo‘lib o‘tadi [8; 164 b].

Tadqiqotning maqsadi.

“Futbolchi” sport to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha bajarilgan ishlar tahlil qilindi.

Natijalari va muxokamasi.

Mamlakatimizda yuzaga keltirilgan bosqichli musobaqalar tizimi o‘quvchiyoshlar, ayniqsa maktab o‘quvchilari futbolchiini rivojlanishiga munosib hissa qo‘shmoqda bolalar futbolchi o‘yinlarining dasturi yildan-yilga kengaymoqda va ***“Olimpiya va Paralimpiya”*** o‘yinlari dasturlaridagi futbolchi turlarini ko‘pchiligini qamrab olmoqda. O‘zbekiston jismoniy madaniyat tizimida o‘z o‘rniga ega. Buning isboti juda ham ko‘p va uni izohlashga hozirgi kunda hojat yo‘q. Chunki, mamlakatimiz Prezidenti, respublika hukumati yosh avlod jismoniy “Kamolot”ini o‘z siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirgan.

Hozirgi kunda bu siyosat o‘z natijasini namoyon qilmoqda va o‘zbek futbolchi jahon maydonlarida kun sayin o‘z nufuzini oshayotganligini namoyon qilmoqda. Bunga asosiy sabab mamlakat futbolchi maktablarining o‘quvchi yoshlarning ommaviy futbolchiini rivojlantirishda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganidan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jismoniy tarbiyadan, sinfdan tashqari ishlarning maqsadi maktab futbolchiida ommaviylikga erishish bo‘lgan bo‘lsa, hozirda unga qo‘shimcha va asosiy maqsad o‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish hisoblanmoqda. Buning uchun ham jamiyatimizning har bir a’zosi, u yoshmi, qarimi sog‘lom turmush tarziga oid bilimlar, uning yetakchi vositasi futbolchi yoki jismoniy madaniyatga oid boshlang‘ich bilimlar va amaliy malaka va ko‘nikmalarni maktabdaligida egallash shart qilib qo‘yilgan. Mamlakat futbolchiini zamini umumiy ta’lim maktabi futbolchiidan, sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli sifatida boshlanadi. Maktab futbolchi to‘garak mashg‘ulotlari orqali, maktab ommaviy futbolchii esa alohida ajratilgan tarzda tashkillangan umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlari, ***“Alpomish va Barchinoy”*** testi guruhlari hamda o‘quvchilarning ommaviy futbolchi sog‘lomlashtirish tadbirlari orqali o‘tkazilib kelinmoqda.

Biz quyida umumta’lim maktablarida eng ko‘p foydalanilayotgan futbolchi turi bo‘yicha maktab futbolchi to‘garagining tuzulishini chizma tariqasida tavsiya etamiz. Futbol to‘garagining tuzulishi maktabning boshqa futbolchi to‘graklari uchun ham talluqlidir. Har bir futbolchi to‘garak qayd qilingan tayyorlov, kichik, o‘rta, katta maktab yoshidagilar guruhlari bir nechtadan bo‘lishi mumkin. Agarda har bir o‘quv guruhi o‘rtacha 20 nafardan shug‘illanuvchini o‘zida mujassamlashtirsa faqat o‘g‘il bolalar guruhining shug‘illanuvchilari 100 nafarini tashkil qilishi mumkin. Ularga qizlar guruhidagilar soni qo‘shilsa (100 nafar) futbolchi to‘garagining o‘zi jami 200 nafar o‘quvchini o‘z tarkibiga biriktiradi.

Futbolchi to‘garaklari o‘rta va katta maktab yoshlaridan 10-15 nafar, tashkilotchilik, o‘yin texnikasi va qoidasini yaxshi bilgan o‘quvchilardan, jamoatchi-murabbiy va yo‘riqchilardan tashkillanadi. Ular maktab futbolchiiga oid barcha ishlar ;

to‘garak o‘quv guruhlarini tuzish,
o‘yin maydonlarini jihozlash,
ta’mirlash yangisini qurish,
to‘plarni tayyorlash, jamoatchi-yo‘riqchi,
jamoatchihakamlar tayyorlash,
terma jamoalarni tuzish, musobaqalar,
o‘rtoqlik uchrashuvlari o‘tkazish, taqdirlash,
tuman (shahar) musobaqalarida ishtirok etish “buyurtma”larni,
jamoalarni musobaqalarga tayyorlash,

shug‘illanuvchilarning shaxsiy kartochkasini yuritish,

jurnal bilan ishlash, razryadlar berish,

“Alpomish va Barchinoy” testi talab normalarini topshirishga tayyorlash, ularni hujjatlarini tayyorlash, futbolchi-mashg‘ulotsi mashg‘ulotlarining rejalarini tuzish va boshqa qator ishlarni yo‘lga qo‘yadi, uni ijrosini nazorat qiladi.

Futbolchi to‘garagining tayyorlov guruhiga 3-4 sinflar, kichik maktab yoshiga 4-5 sinflar, o‘rta maktab yoshiga 6-7 sinfdagilar, katta maktab yoshiga 8-9-sinflarning o‘quvchilari, terma jamoa esa 6-9 sinflarning o‘g‘il qizlaridan iborat qilib tuziladi. Mashg‘ulotlar haftada 2-3 marta 60-90 daqiqadan o‘tkaziladi.

Futbolchi to‘garaklariga qabul ***“yozuv”*** sinfning jismoniy tarbiya tashkilotchilari orqali yoki maktabdagi e’longa ko‘ra maktab futbolchi to‘garaklariga umumiy ro‘yxatdan o‘tish kuni”da o‘tkaziladi. Futbolchi futbolchi to‘garagiga qatnashmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar tibbiy nazoratdan o‘tib bo‘lgan bo‘lishlari lozim. Musobaqalardan oldin yoki ma’lum kasallikdan tuzalgandan so‘ng to‘garaklarga qatnaydigan o‘quvchi maktabning tibbiy xodimi yoki poliklinikaning tibbiy nazoratidan o‘tishi zarur.

“Maktab futbolchii” sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli bo‘lib o‘quvchilar jismoniy tarbiya maktabda tashkillash va uni amalgam oshirilishiga baho berishda maktabning futbolchi turlari bo‘yicha tuman (shahar) musobaqalaridagi egallagan o‘rniga qarab baholanibgina qolmay, o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligi bilan ham aniqlanadi. Aslida sinfdan tashqari ishlar keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yiladigan maktab pedagogika jamoasining ko‘p qirrali faoliyatidan biri deb qaralishi lozim. Bunda yetakchi rolni maktab futbolchi to‘garaklari amalga oshiradi desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish birinchi navbatda maktab futbolchii to‘garaklari faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. O‘quv tarbiyaviy ishlardan sinfdan tashqari ishlarni ajratishga yo‘l qo‘yilmasa yuqori samara beradi.

Rejalashtirish sifatini yaxshi bo‘lishi, uni ortiqcha qiyinchiliklar tug‘dirmaydigan qilib tuzishni ahamiyati juda katta. Reja bajarila oladigan bir tizimga bo‘ysundirilishi va uni sekin-asta amalgam oshirilishi nazarda tutilishi mazmuni bir-biri bilan bog‘liqligi taqvim muddatlariga moslashtirilgan bo‘lishi yoki bir chorak, yarim yilga mo‘ljallanishi va uni ijrosiga erishish sodda mazmunga ega bo‘lishligi rejalashtirishga qo‘yiladigan asosiy talablardir. Har bir futbolchi turning o‘ziga xosligi mavjud. Futbolchi to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni bog‘lovchi yoki futbolchi turi uchun kerakli jismoniy sifatlarni ishga jalb qiluvchi sifatida yordamchi jismoniy tayyorgarlikdan foydalanilanish yuqori samara beradi deb hisoblaymiz.

Bunda 10-12 yoshdagi futbolchichilar mashg‘ulot jarayoniga ajratilgan vaqtni tayyorgarlik turlariga mos holda taqsimlash juda muhim hisoblanadi. Futbolchi to‘garak mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqt 2 akademik soat, ya’ni 90 daqiqa bo‘lsa shundan umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlariga 25 daqiqa, maxsus jismoniy tayyorgarlikka 20 daqiqa, yordamchi tayyorgarlikka 10 daqiqa, 30 daqiqa texnik-taktik tayyorgarlik uchun 5 daqiqa qayta tiklanish va yakuniy qisim uchun ajratilgan tartibda mashg‘ulot olib borilsa, shunday tartiblashtirilsa, biz yuqorida keltirib o‘tgan yordamchi jismoniy tayyorgarlikni mashg‘ulotga joriy qilish imkoni tug‘iladi. Mazkur tayyorgarlikni 10-12 yoshdagi futbolchi mashg‘ulotida quydagicha tashkillash va o‘tkazish orqali futbolchichi o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga erishish mumkin bo‘ladi. Shu o‘rinda yordamchi jismoniy tayyorgarlikka qisqacha ta`rif berib o‘tsak. Yordamchi jismoniy tayyorgarlik maxsus jismoniy tayyorgarlikning birinchi pog‘onasi bo‘lib, maxsus harakat sifatlarini rivojlantirishga, funktsional imkoniyatlarni va musobaqa nagruzkalarini bajarishda va ulardan keyin tiklanishda nerv-muskul koordinatsiyasini ko‘tarishga yo‘naltirilgan. Namuna sifatida biz mazkur futbolchi to‘garak mashg‘ulotiga yordamchi jismoniy tayyorgarlik qo‘shib qo‘llashga oid bir mikro siklini keltirib o‘tamiz. Maktab futbolchi to‘garak mashg‘ulotlari o‘z mazmuniga: tanlangan futbolchi turi texnikasi va taktikasini o‘rganishni turli xildagi sharoitda ularni takomillashtirishni to‘garak a’zosini organizmini funksional holatini darajasini oshirishni jismoniy va ruhiy-ahloqiy sifatlarini takomillashtirishni olishini ham unitmaslik kerak.

1 -jadval

10-12 YOSHDAGI FUTBOLCHILARNI 1 HAFTA (6 SOAT) LIK MASHG‘ULOTINING MIKRO SIKLI TUZULISHI

30% UJT	10% YJT	20% MJT	40% TTMT	30% UJT	10% YJT	20%MJT	40% TTMT	30% UJT	10% YJT	20% MJT	40% TTMT
Dushanba (100%)				Chorshanba(100%)				Juma(100%)			
1-haftalik mikrosikl 6 soat											

Izoh: Mazkur jadvalda futbolchi mashg‘ulotining 1 haftalik mikro sikli keltirilgan bo‘lib, uni asosiy 4 ta qismga ajratilgan. 1) UJT-umum jismoniy tayyorgarlik, 2) YoJT-yordamchi jismoniy tayyorgarlik, 3) MJT-maxsus jismoniy tayyorgarlik, 4) TTMT-texnik,taktik va musobaqa tayyorgarligi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqotni olib borishda sport mashg‘ulotlari va ular orqali hal qilinadigan vazifalar qatorida o‘quvchilarni jismoniy rivojlanishini doimiy nazoratga olish zaruriyati borligi va bunga ko‘p soha mutaxassislari e’tiborsiz bo‘layotgani sezilib qolmoqda. Ushbu e’tiborsizlik natijasida bollar va o‘smir sportchilarni o‘sib rivojlanishi uchun sarflanishi bazor bo‘lgan komponentlarni boshqa vazifalar uchun sarf bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada o‘quvchilarning o‘sishi va rivojlanishi birmuncha susayadi. Shunday muammolarni hal etish uchun o‘quvchilarning sportga jalb qilgandan so‘ng ularga tegishli bo‘lgan jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini doimiy nazoratga olgan holga mashg‘ulot mikrosikllarini to‘g‘rilash yoki ayrim o‘zgartirishlar kiritish talabi yuzaga keladi. Shundagina biz o‘smir sportchilarni ham yuqori jismoniy tayyorgarligiga ham jismoniy rivojlanishini yaxshilashga erishamiz. Boshqacha aytganda son va sifat ko‘rsatkichlarini mutonsib qilib rivojlantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 - yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3610-son / WWW. Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi / WWW. Lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabr, futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5368-sonli farmonini / WWW. Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2023 yildagi PQ-115-son qarori ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning va aholining barcha qatlamlarida ommalashtirish hamda yoshlarni sog‘ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish qarori / WWW. Lex.uz

5. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo‘llanma Toshkent. 2014 y. 62 b.

6. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarni oshirish. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2013y. 35 bet.

7. Davletmuradov S.R. Futboichilarni tayyorlashda pedagogoik nazorat. Uslubiy qo‘llanma Toshkent 2014 y.26 bet

8. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O‘quv qo‘llanma. T., O‘zDJTI. 2012 y. 164 b

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Email: mmaxmudjonova06@mail.ru
Ilmiy rahbar: **Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich**

TALABALARDA CHET TILINI O‘RGANISH MOTIVI VA MAQSADI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbekistonlik talabalarning o‘zga tillarni o‘rganish bo‘yicha maqsadlari va bunda ijtimoiy omillar ta’siri haqida so‘z boradi. Talabalarning, asosan, qaysi tillarni o‘rganayotgani, bunda o‘rtacha qancha xarajat qilayotgani, kundalik hayotning qaysi jabhasida chet tillari ko‘proq samara berayotgani hamda umuman, qaysi bosqich talabalari xalqaro tillarni bilishga harakat qilayotgani kabi savollarga statistik faktlar orqali javob beriladi.*

A.Plastovning «Peshin» deb nomlangan asarining sujeti juda sodda, hatto bir qarashda san'atga loyiq mavzu yo‘qqa ham o‘xshaydi. Shu asarni so‘z bilan ta'riflansa, eshitgan odam, xo‘sh, nima bo‘pti, deyishi va unga beparvo bo‘lishi ham mumkin. Lekin asarga qaragan tomoshabin hech qachon shunday demaydi. Ko‘rinishdan sodda bo‘lib tuyulgan bu asar uni o‘ylashga majbur qiladi, tevarak-atrofning naqadar go‘zal ekanligini his qilishga, shu go‘zallikdan hayajonlanishga da'vat etadi. Haqiqatdan ham beg‘ubor, kuchga to‘lgan sokin tabiat, zilol suv, kishi qalbiga orom beruvchi quyoshning mayin nurida qanchadan-qancha go‘zallik, latofat bor. Rassom shulardan quvonadi, shu quvonchini boshqalar bilan o‘rtoqlashishga intiladi. Bunga erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari kompozitsiya, kolorit, yorug‘, soya, chiziq, faktura imkoniyatlaridan foydalanadi. Rassom shunday kompozitsiya tanlaganki, bu voqeaning qachon va qayerda sodir bo‘layotganini ochib, rasm ishlangan yuza (xolst) - ning bir butun bo‘lib ko‘rinishini ta'minlagan. Shu rasmdan kompozitsiyadan biron-bir detalni, aytaylik, mototsiklni olib tashlaylik yoki obrazlarning birortasining o‘rnini o‘zgartirib ko‘raylik-chi, u holda tasvirning ta'sir kuchi yo‘qoladi. Kompozitsiya yaxlitligi buziladi. Rassom yorug‘ va soya imkoniyatlaridan foydalanib, voqea sodir bo‘layotgan vaqtni ko‘rsatishga erishgan. Suv ichayotganlarning tagiga tushayotgan soya voqeaning peshinda, quyoshning tikkaga kelgan paytida sodir bo‘layotganligidan dalolat beradi. Asar uchun tanlangan rang gammasi - kolorit yozning issiq jaziramasini his etishga xizmat qilgan. Quyosh nuriga to‘yingan sarg‘ish-yashil ko‘katlar hamda qizil mototsikl, quyosh nurida toblanib, qizargan odamlar gavdasining ranglari birgalikda butun asarning rang gammasini tashkil etadi. Shuning uchun ham asarga qaraganimizda shu issiq rang gamma hisobiga biz yozning jazirama issig‘ini his qilgandek bo‘lamiz. Kompozitsiya markazidagi buloq suvining salqini shu jaziramani yorib atrofga salqin havo taratayotgandek va hayotning o‘ziga xos kurashini tomoshabinga ko‘z-ko‘z qilayotgandek tuyuladi.Rassom asar yaratganda chiziqlarning emotsional imkoniyatlaridan ham foydalanadi. Ma'lumki, har xil chiziq kishida har xil taassurot qoldiradi. Silliq ehiziqlar ko‘p hollarda sokinlik, xotirjamlik baxsh etsa, aksincha pala-partish, har tomonga yo‘nalgan egriziqlar notinchlik, hayajon tug‘diradi.Tasviriy san'at asarlarini kuzatganda undagi har bir obrazning psixologik kechinmalari qanday yechilganligini, ularning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olish ham muhim o‘rinni egallaydi. Shuning uchun rassom ishlatgan ranglar jilosiga ham, bo‘layotgan voqeaning kompozitsiyasiga ham, rassomning ishlash mahoratiga, tanlangan har bir shakl xarakteriga, umumiy rang gammasi-koloritiga, yuzaning xarakteriga (masalan, rassom ishlagan holat yuzasining silliqligi yoki g‘adir-budurligiga) ham e'tibor berish, ular nima uchun shunday olinganiga javob topishga harakat qilish zarur. Shundagina tasviriy san'at asarlarining asl mohiyatini tushunib yetish va ularni to‘g‘ri tahlil qila olishni o‘rganish mumkin.Tasviriy san’at tur va janrlari. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. Tasviriy san'at deyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san'ati tushuniladi. Me'morchilik va dekorativ-amaliy san'at asarlari ham qisman tasviriy san'atga kiradi. Haqiqatda esa ularda mavjud borliq tasvirlanmaydi. Lekin bu san'at asarlarida ijodkorning maqsadi, fikri, his-tuyg‘ulari, orzu-istaklari o‘z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi va mazmuni o‘z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriy san'at sifatida qaraladi.

Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o‘xshashliklari bor. Lekin shu bilan birga, ulardan har birining o‘ziga xos tasviriy uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o‘rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator tur va janrlarga bo‘linadi.

Grafika. Hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biri grafika san'atidir. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan su`rat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illyustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo‘lmay, ko‘p hollarda qog‘ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya'ni voqeani bir necha qog‘ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ma'lum bir mazmunni ochib beradi. Grafika san'ati hozir javob san'atdir. Masalan, rassomlik asarlari yaratilishi uchun uzoq vaqt kerak bo‘ladi (axir ba'zi rassomchilik asarlarini yaratish uchun 15-20 yil kerak bo‘lgan), grafika san'ati asarlarida esa shu bugun sodir bo‘lgan voqea shu bugunoq o‘z aksini topishi mumkin. Grafika san'atida rang ishlatilmaydi, ishlatilsa ham, uning xarakterli tomonini belgilamaydi. Masalan, D. Moorning «Sen ko‘ngilli bo‘lib yozildingmi?», Toidzening «Ona Vatan chaqiradi!» degan plakatlarida odam kiyimi ochiq qizil rangda ko‘rsatilgan. Aslida hayotda bunday voqeani uchratish qiyin. Rassom rang orqali o‘z asarining yanada ta'sirchan bo‘lishiga erishgan. Kishi shu plakat oldidan o‘tib borar ekan, qizil rang uning diqqatini o‘ziga tortadi. Natijada u to‘xtab plakat mazmunini chuqurroq bilib oladi. Rus san'atining atoqli vakillari Mayakovskiy, Cheremnixlar qizil rangdan davlatning ramzi sifatida foydalanganlar, ular rus kishilarining rasmini qizil rang bilan, hokimiyatning dushmanlarini esa qora va ko‘k ranglarda ishlab, o‘z g‘oyalarini tez va oson tushunarli bo‘lishiga erishganlar. Grafika asarlari o‘zining bajaradigan funksiyasi va mazmuniga qarab, dastgoh grafikasi, kitob va gazeta-jurnal grafikasi, plakat hamda amaliy grafika san'atiga bo‘linadi. Dastgoh grafika san'atiga mustaqil xarakterga ega bo‘lgan, o‘zida tugal fikrni anglata oladigan, yangi g‘oyalarni ilgari suradigan grafika asarlariga aytiladi. Dastgoh grafika san'ati asarlarining ko‘rinishlaridan biri estampdir. Dastgoh grafikasi asarlarida biron-bir mazmun, odamlarning xatti-harakati, tabiat ko‘rinishi yoritiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasi turi dastgoh grafikasidan farq qilib, bevosita kitob va jurnal mazmuni bilan bog‘liq bo‘ladi hamda ularning maqsad va mazmunini to‘laroq ochib berish uchun xizmat qiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasiga rassom tomonidan kitob va gazetalarga chizilgan turli rasmlar, bezaklar, harf kompozitsiyalari kiradi. Kitob hamda gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan biri bu illustratsiyalardir. Illustratsiya biron-bir badiiy asar bilan bog‘liq bo‘lib, shu asarda tasvirlangan biron-bir lavhaning tasvirini aks ettiradigan rasmga aytiladi. Rassom biror-bir hikoya yoki kitobga illustratsiya ishlashga o‘tishdan oldin uni sinchiklab o‘qiydi, matnda tasvirlangan har bir obrazning xarakterini, voqea sodir bo‘layotgan joyning xususiyatlarini o‘rganib chiqadi, shundan keyingina unga illustratsiya ishlashga kirishadi.Illustratsiyaning maqsadi badiiy asar mazmunining chuqurroq ochilishiga va ta'sirliroq bo‘lishiga yordam berishdir. Illustratsiyalar turli ko‘rinishda bo‘ladi. Illustratsiyalarda badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxs portreti, shuningdek, muhim voqealar tasvirlanishi mumkin. Kitob va gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan yana biri karikatura bo‘lib, u tanqidiy xarakterga ega bo‘ladi hamda o‘zida satira va yumorni mujassamlashtiradi.Karikaturachi rassom hayotda mavjud bo‘lgan voqea va hodisalarni o‘z asariga mavzu qilib oladi va uning ba'zi tomonlarini bo‘rttirish orqali rasmlarning qiziq va kulgili bo‘lishiga erishadi. Bu orqali rassom hayotdagi kamchiliklarni tanqid qiladi, jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beradigan, zamonamiz, kishilarimiz sha'niga dog‘ bo‘lgan hodisa, illat va marazlarni qoralaydi, mavjud bo‘lgan nodonlik, xurofot, tekinxo‘rlik, poraxo‘rlik, davlat mulkiga xiyohat qiluvchilarning basharalarini ochib tashlaydi. Grafika san'atining turlaridan yana biri plakatdir. Plakat lotincha so‘zdan oUngan bo‘lib, «e'lon», «guvohnoma» degan ma'noni anglatadi. Grafika san'atining nihoyatda keng tarqalgan turlaridan biri amaliy grafikadir. Turli xildagi etiketkalar, konvert yuzasiga ishlanadigan bezak rasmlar, tabriknoma, telegrammalar, markalar grafikaning shu turiga mansub.

Amaliy grafika shunchaki bezak uchun ishlatiladigan san'at emas, u ham san'atning boshqa turlari kabi ijtimoiy hayotda faol qatnashadi, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklar bilan ommani tanishtiradi. Hukumatning g‘oyalarini xalq orasida targ‘ib qiladi.Grafika san'ati eng demokratik san'atdir. U goh plakat tarzida, goh gugurt qutichasining yuzasiga ishlangan tasvir tariqasida, goh gazeta sahifalaridagi surat tarzida o‘lkaning uzoq chekkalariga kirib boradi, o‘sha yerlarda ma'rifat tarqatadi, kishilarni bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham grafika san'ati katta g‘oyaviy-siyosiy ahamiyatga egadir.

Rangtasvir. Tasviriy san'atning ikkinchi bir turi rangtasvir san'nlidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san'at turiga kiradi. Rangtasvirda rang muhim o‘rinni egallaydi. Agar grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o‘tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko‘rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini, hajmini ko‘rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o‘zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko‘ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo‘linadi.

Monumental rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirga, mayda detallardan iloji boricha kamroq foydalanishga-harakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to‘g‘risida real tasavvur berishi kerak. Monumental rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o‘taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi. Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuliga qarab o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. Freska odatda devorga to‘g‘ridan to‘g‘ri suvoq ustiga ishlanadi. Bolonka rangli tosh, shisha, bo‘yalgan oyna, sirli sopol parchalaridan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o‘yma naqshlar ba'zan har xil shakldagi ramkalar (to‘rtburchak, kvadrat, beshburchak va hokazolar) bilan chegaralangan bo‘ladi - bu pannodir. Panno dastlab alohida yuzada (xolstda, ganchda, yog‘ochda) ishlanib olinib bitgandan so‘ng devorlarda qoldirilgan maxsus o‘rinlarga o‘rnatiladi. Lekin mazmun jihatdan mustaqil xarakterga ega bo‘lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda panno dastlab xolstga moy bo‘yoq bilan ishlanib, keyin kerak bo‘lgan o‘ringa yopishtiriladi. Dekorativ rangtasvir me'morchilik va amaliy san'at bilan bog‘liq bo‘lib, asosan bezash vazifasini o‘taydi. Dekorativ rang tasvirga naqqoshlik san'ati, teatr, kino dekoratsiyalari va qisman monumental rassomchilik ham kiradi. Dekorativ rangtasvir monumental rangtasvir singari to‘g‘ridan to‘g‘ri devorga ishlanishi, panno, mozayka tarzida bo‘lishi mumkin. Dastgoh rangtasvir hozirgi zamon tasviriy san'atida yetakchi o‘rinni egallovchi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Odatda u maxsus ramkaga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday rasmlar molbert deb ataladigan alohida dastgohda ishlangani uchun ham ularni dastgohli rasmlar deyiladi.Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo‘layotgan muhim voqea va hodisalarni aks ettirishidan tashqari, shaxsning individual xislatlarini, kechinmalari, his-tuyg‘ularini to‘liq ko‘rsatish imkoniyatiga egadir. Shuningdek, ularda tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘zining yorqin ifodasini topadi. Dastgoh rangtasvir monumental va dekorativ rang tasvirdan farqli o‘laroq, mustaqil ahamiyatga ega, u boshqa biron san'atga bog‘lanmaydi. Dastgoh rassomligi birmuncha kech paydo bo‘lgan bo‘lib, uning rivojlanish davri Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda esa tasviriy san'at turlari ichida uning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda rassomchilikning bu turi asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda u o‘zbek tasviriy san'atida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.Haykaltaroshlik. Tasviriy san'atning turlaridan biri bo‘lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo‘lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo‘yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o‘rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, belgi, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo‘rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko‘rinishi hisoblanadi.

Haykaltaroshlik asarlari o‘z ishlatilish o‘rni, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qabariq ko‘rinishda bo‘ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko‘rish mumkin bo‘lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo‘rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko‘riladi. Qabariq haykallar relef deb ataladi. «Relef» fransuzcha so‘z bo‘lib, yuza degan ma'noni bildiradi. Relefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda, kenglik, tabiat manzaralarining ko‘rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday releflarni ba'zan perspektivali relef deb ham yuritiladi. Relef, o‘z navbatida, ikki turga bo‘linadi. Ulardan biri barelef, ikkinchi turi esa gorelefdir. «Barelef» ham fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, past relef degan ma'noni anglatadi. Barelefda haykal tekis yuzaga nisbatan biroz qabargan (bo‘rtgan) bo‘lib, lekin uning qalinligi o‘zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshmasligi lozim. Masalan, tanga, znachok, medal yuzalaridagi bo‘rtma tasvirlar bunga misol bo‘la oladi. Bareleflar ayniqsa, amaliy san'at buyumlarini, me'morchilik binolarini bezashda juda qo‘l keladi. Qadimgi Gretsiyada hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar, masalan, ko‘za, guidon, qurol-aslahalarning yuzalarini bareleflar bilan bezaganlar, binolarning devorlariga turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo‘rtma tasvirlar ishlaganlar. «Gorelef» so‘zi ham fransuzcha bo‘lib, baland relef ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo‘rtib chiqqan bo‘lib, uning qalinligi o‘zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshgan bo‘lishi shart.

Relefning yana bir turi bor. Bu o‘yib ishlangan releflardir. Bunday releflar odatda tekis yuzaga o‘yib ishlanadi. Yuzani o‘yish natijasida hosil bo‘ladigan yorug‘-soya o‘yini hisobiga tasvir ko‘zga tashlanadi. Bunday releflarning imkoniyati chegaralangan bo‘lganidan ular amalda juda kam qo‘llaniladi. Bunday releflar qadimgi Misrda ishlatilgan. Haykaltaroshlik asarlari uchun turli xildagi materiallar ishlatiladi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug‘vorlik, adabiylik baxsh etsa, aksincha, marmarda ishlangan haykallar nozik, ko‘rkam ko‘rinadi. Shuning uchun haykallar o‘zining mazmuni va o‘rnatiladigan joyiga qarab, har xil materiallardan ishlanadi. Haykaltaroshlik materiallari ko‘p. Bu plastilin, loy, yog‘och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo‘llanadi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo‘yash hollari uchraydi.

Bunga O‘zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo‘la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o‘zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo‘linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o‘rnatilgan yirik o‘lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo‘ladi. Lekin shu bilan birga, u bevosita muhit bilan bog‘liq bo‘lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi lozim. Bu unga yanada ulug‘vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga xos bo‘lgan xysusiyatlardan biri bu tasvirlanayotgan qahramonlarning ko‘tarinki ruhdagi tasviridir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo‘ljallangan bo‘lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza va hokazolardan ishlanadi. Bulardan tashqari, monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi sababli ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimdagi buklanishlar, undagi mayda detallar ko‘rsatilmaydi. Istirohat bog‘lari, xiyobon va ko‘chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida mustaqil mazmunni anglatib, me'morchilikka ham, tevarak-atrofga ham tobe bo‘lmagan holda, kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarini ishlashda obrazlarni ko‘tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlar biroz yumoristik tarzda talqin etiladi, bo‘rttiriladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo‘rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli fontanlar, panjaralar, badiiy darvozalar ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan turli haykalchalar, loydan ishlangan o‘yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko‘rinishi hisoblanadi. Dastgoh haykaltaroshligiga o‘zida mustaqil mazmunni anglatadigan, san'atning bosh turlariga tobe bo‘lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko‘rgazmalarga qo‘yish, uylarga qo‘yish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik o‘zining butun borlig‘i bilan aks etadi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi inson, psixologiyasidagi nozik o‘zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyatiga ega. Xuddi shu holda u tabiatdagi mavjud hayvon va jonivorlami ishlashda ham ularning hayoti, kuchi, xarakterini ko‘rsata oladi. Dastgoh haykaltaroshligining ko‘rinishlaridan biri byust bo‘lib, u odam gavdasini aks ettiruvchi dumaloq haykal hamda o‘zida bir qator obrazlarni mujassamlashtirgan haykallar guruhi (kompozitsiya) tarzida bo‘ladi. Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko‘rinishi - terrakota hisoblanadi («terrakota» italyancha so‘z boiib, pishirilgan loy ma'nosini bildiradi). Terrakota keng ma'noda loydan yasalib, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlaridir. Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko‘rinishi tinch turganligi holati yoki harakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Undagi kechinmalar, uning hayajon va g‘amginligi, kelajakka intilishi va o‘tmishga qayg‘urishi ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati ham, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, albatta, eng avvalo, haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o‘zgarishlarini to‘g‘ri ifodalashi muhim o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri topilgan harakat yuzdagi mimik holat - bular uning ta'sirli bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Amanullaev, a. (2022). Specific factors of comprehensive study and analysis of the history and culture of the uzbek people. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 11(02), 1-4.

2. Amanullaev, a. A. (2022). Current issues in the training of future teachers of fine arts. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 11(03), 1-3.

3. Абдимуминова, д. А., & амануллаев, а. А. (2018). Использование традиций этики" устоз-шогирд"(мастер и ученик) на занятиях прикладного искусства. Novainfo. Ru, 2(85), 203-206.

4. Abdumo‘minovich, a. A. (2023). Qadimda ustalarning shogird tayyorlashda o‘ziga xos milliy ananaviy asoslari. Journal of universal science research, 1(5), 1440-1447.

5. Abdumo‘minovich, a. A. (2023). Bo‘lg‘usi tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda hozirgi davr dolzarb masalalari. Journal of universal science research, 1(5), 1423-1429.

6. Muhammad, a. (2022). Peculiarities of the scientific study of the relationship between composition and color in the genre of landscape. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 11(02).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Parmonov Akmal Abdupattoyevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TAYYORGARLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri olib borish jismoniy tarbiya mashqlarining maqsadi sog‘lom va vatan mudofasiga tayyor barkamol insonni tarbiyalash masalasi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, tarbiya, muassasa, kelajak avlod, vatan mudofasi, jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy mashq.*

Пармонов Акмаль Абдупаттоевич
Старший преподаватель кафедры физической культуры
Кокандского государственного педагогического института

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: *В данной статье раскрывается цель занятий физической культурой в дошкольных образовательных учреждениях для воспитания подрастающего поколения, целью физического воспитания является воспитание здорового человека, готового к обороне страны.*

Ключевые слова: *Воспитание, воспитание, учреждение, будущее поколение, оборона Родины, физическое воспитание, умственное воспитание, физические упражнения.*

Parmonov Akmal Abdupattoyevich
Senior teacher of the Department of Physical Culture of the
Kokand State Pedagogical Institute

ANALYSIS OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL TRAINING INDICATORS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *This article discusses the issue of properly conducting physical education classes in preschool educational institutions in the upbringing of the younger generation, the purpose of which is to raise a healthy and well-rounded person ready to defend the homeland.*

Keywords: *Education, upbringing, institution, future generation, defense of the homeland, physical education, mental education, physical exercise.*

Kirish.

O‘zbekistonning kelajagi yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash lozim. Kichkintoylarimizni tarbiyalashda aynan maktabgacha bo‘lgan muassasalarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri olib borish nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. Jismoniy tarbiya mashqlarining pirovard maqsadi sog‘lom va Vatan mudofaasiga hamisha tayyor barkamol insonni voyaga yetkazishdir.

Adabiyotlarda ta’kidlanishicha; O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan bolalar bog‘chasida ta'lim-tarbiya dasturi o‘ziga xos mintaqaviy, iqlimiy, iqtisodiy, madaniy-milliy sharoitlarni hisobga olgan holda tuzilgan. Tavsiya qilingan o‘yinlar va jismoniy mashqlar bolalar organizmini chiniqtirishi, jumhuriyat tabiatining o‘ziga xosligi, uning iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda tanlangandir. Ko‘ngilochar o‘yinlar, xalq o‘yinlari, sport o‘yinlari, voleybol, velosiped uchish, samokatda uchish dasturga kiritilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash, sog‘lomlashtirish, ta'limiy va tarbiya vazifalarni hal etish uchun ozodalik omillaridan, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan, jismoniy mashqlardan foydalanish muhimdir. Shaxsning g‘oyaviy,

axloqiy yo‘nalishini shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb etganligi uchun yosh avlodni tarbiyalash, uni mehnatga tayyorlash darajasini oshirishda yuqoridagilardan foydalaniladi.

M.Ya.Studenkin tadqiqoti bo‘yicha bolalarning jismoniy rivojlanishi quyidigicha:

- maktabgacha tarbiya yoshi (3 yoshdan 7 yoshgacha) bolaning rivojlanishidagi eng muhim bosqich, chunki bu davrda bosh miya, organizm organlari va tizimlari ham sifat, ham funktsional jihatdan takomillashadi.

- 4 va 5 yashar bolalar go‘dak bolalarga qaraganda bir muncha sekin o‘sadilar va bu o‘sish yiliga o‘rta hisobda 4-6 santimetrga teng bo‘ladi, xayotning 6-7 yillarida bo‘y o‘sishi 8-10 santimetrgacha tezlashadi. Bu bo‘y cho‘zilishining birinchi davridir. Maktabgacha tarbiya yoshining ikkinchi yarmida bo‘y o‘sishi endokrin tizimida funktsional o‘zgarishlar bo‘lishiga (jumladan, gipofiz funktsiyasining zo‘rayishiga) bog‘liq bo‘ladi.

Hayotining 4-yilida tana vaznining ortishi sekinlashadi va yiliga o‘rtacha hisobda 1,2 kg 1,5 kg ni, hayotining 5-yilida 2 kg ni, 6-yilida 2,5 kg ni tashkil etadi, hayotining 6-7 yiliga borib bir yashar bolaning tana vazniga qaraganda ikki hissa ortadi.

Bolalarda bo‘yning o‘sishi va vaznning ortishi bilan bir vaqtning o‘zida ko‘krak qafasi aylanasida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, hayotining 4-yilida u 0,5 - 1 sm ga, 5-6 yoshida 2-2,5 sm ga ortadi. Ko‘krak qafasi aylanasi kattaligi bolaning baquvvatligiga, uning jismoniy rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bola o‘sar ekan, gavda proportsiyasi ham o‘zgaradi. Masalan, hayotining 7-yilida oyoqlarining uzunligi yangi tug‘ilgan bolalarnikiga qaraganda uch hissa, qo‘llari esa 2 hissadan ko‘proq ortadi, tanasi esa 2 hissa uzayadi. Bu yoshda asosan bola organizmining suyaklar to‘qimasi strukturasi shakllanishi tugaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bronx-o‘pka apparati sifat jihatidan tez o‘sadi va takomillashadi. Nafas tezligi 1 daqqada 26-27 martagacha kamayadi, nafas olish chuqurroq, nafas chiqarish esa davomliroq bo‘lib qoladi. Shu yoshdagi bolalarda qon aylanish organlarida anchagina funktsional o‘zgarishlar paydo bo‘ladi: yurak massasi ortadi, shu tufayli yurak qisqarishlari kuchi va yurak chidamliligi oshadi. Yurak qisharishlari soni 1 daqiqada 85 zarbadan 95 zarba atrofida bo‘ladi. Arterial bosim yoshi katta bo‘lishi bilan deyarli o‘zgarmaydi: 3-4 95/59 mm simob ustunida, 5-6 yoshda 95/58 mm simob ustunida, 7 yoshida 97/58 mm simob ustunini ko‘rsatadi.

A.K.Hamroqulov, O.V.Pankrateva, A.N.Livitskiyning ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘rsatishicha, qo‘l panjalari mushaklarining kuchi 3-4 yoshda 3-4 kg bo‘lsa, 7 yoshda 13-14 kg ga yetadi. 4 yoshdan boshlab o‘g‘il bolalar va qiz bolalar ko‘rsatkichlari o‘rtasida farq ko‘rinadi. Gavda mushaklari kuchi (asosiy kuch) 7 yoshga yetganda deyarli 2 baravar ortadi, (15-17 kg dan 3-4 yil ichida), ya'ni 7 yoshda 32-36 kg ga yetadi.

Yosh o‘zgarishi dinamikasida ayrim keskin bosqichlar belgilanganki, ular morfologik va funktsional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi.

K.M.Mahkamjonov, F.N.Nasriddinovlar maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olgan ma'lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, 5-7 yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bir tekisda bormoqda.

Tadqiqotchi I.R.Kurbanbaev o‘z tadqiqotlarini bolalar uchun kun davomidagi harakatlanish ma'yorini asoslashga qaratib, ularning faolligini ifodalaydigan gipokineziya va uning qarama-qarshi xususiyatlari bo‘lgan giperkineziyaning bolalar funktsional holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini isbotlab bergan. Shuning uchun ham harakat faolligini me'yorlash jarayonida bolalarning jinsi, yoshi va iqlimiy sharoitlarni hisobga olmoq zarurligini aytadi. Bolalar harakat faolligini qadam o‘lchagich (shagomer) orqali o‘lchagan, harakat faolligi ko‘rsatkichlarini soat 800-1000 gacha, 1000-1100 gacha, 1100-1300 gacha va 1500-1800 gacha belgilab borgan.

T.Artamonova fikricha, bolalar hayotining uchinchi va to‘rtinchi yillari bola harakatga qarab rivojlanadi. Bu davrda bolalarda koptokni ilib olish irg‘itishga o‘xshash harakat ko‘nikmalari, yugurish, sakrash, gimnastika, narvonga chiqishga o‘xshash harakat ishtiyoqlari hosil bo‘la boshlaydi.

Besh yoshga kelib bolaning kuch qobiliyatlari va morfofunktsional holati rivojlanib, katta mushaklar harakatini boshqara oladi, harakatlari aniq va jo‘shqin bo‘la boshlaydi.

Bo‘lajak avlod - davlat boyligi. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahallayurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero oila farovonligi milliy farovonlik asosidir.

Insoniyat ko‘p yillar davomida yosh avlodni sog‘lom tarbiyalash masalasiga ham ijodiy, ham amaliy yondashib kelgan.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy «Odam uchun doim harakatda bo‘lish - xayotlikdan asardir, jonsiz mavjudotlar - tiriklik nishonasidan behabardirlar», - deganida, u ming karra haqdir. Darhaqiqat, inson hayotining negizini kuch-quvvat, sog‘liq va harakat tashkil etadi.

Tana nechog‘lik sog‘ bo‘lsa, ko‘ngil shunchalik osoyishta, ravshan, xushfe'l va xushchaqchaq bo‘ladi.

Buyuk o‘zbek mutafakkiri Abu Ali Ibn Sinoning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlari biz uchun asos qilib olinsa foydalidir.

Uning oila tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlari chuqur mazmunga va katta amaliy ahamiyatga ega ekanligini quyidagi so‘zlaridan bilib olish mumkin: «Bolaning xulqini mo‘'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak.

Bunga esa bolani qattiq g‘azablinishda, qo‘rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Xulqning mo‘tadilligi natijasida ham nafas, ham badan sog‘lom bo‘ladi». Abu Ali Ibn Sino tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo‘lish usuli g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligini qayta-qayta uqtirib o‘tgan.

Mutafakkir olim Abu Rayxon Beruniy ham o‘z asarlarida oila tarbiyasiga katta e'tibor bilan qarash lozimligi to‘g‘risida uqtirgan.

Beruniy o‘zining oila tarbiyasi haqidagi risolalarida ota-onalar va tarbiyachilar obro‘sining bolaga ta'sir etish kuchi haqida fikr yuritgan.

Oilada ota-ona bolaning ko‘z o‘ngida o‘z obro‘siga qanchalik ega bo‘lsa, tarbiya shunchalik samarali natijalar beradi.

Dono xalqimizning dono naqli bor: «Sog‘ tanda – sog‘lom aql». Chindan ham jismoniy va ruhiy sog‘liqning aloqadorligi bolalarda yaqqol bilinadi. Bola organizmining barcha fiziologik funktsiyalari bir me'yorda kechganda, u jismonan sog‘lom bo‘ladi.

Olti va yetti yoshlarga kelib bola harakatlari rivojlanib, ko‘nikma hosil qilina boshlanadi. Asosan, umumrivojlantiruvchi mashqlarni chiroyli bajara boshlaydi.

Tadqiqot ishlaridan shular ma'lum bo‘lganki, 4-5 yoshdagi o‘g‘il bolalar 8-7 lokomotsiya, qiz bolalar 6-7 lokomotsiya harakat qilganlar. Adabiyot manbalarining ko‘rsatishicha, bu yoshdagi bolalar bog‘chaga kelishidan to ketgunga qadar o‘rtacha hisobda 9-9,5 ming harakat qiladilar.

5-6 yoshli bolalar esa o‘rtacha hisobda o‘g‘il bolalar 9-10 ming qadam, qiz bolalar esa 8-9,5 ming qadam harakat qiladilar. 6-7 yoshli o‘g‘il va qiz bolalarda 14-15 lokomotsiyani tashkil qilgan.

Toshkent shahridagi 6-7 yoshli o‘g‘il va qiz bolalarning harakati 11-13 ming qadamni tashkil qiladi.

Natijalar shunday xulosa qilishga imkon beradiki, Toshkent shahri bolalarining bog‘cha davridagi harakatlari barcha guruhlarda boshqa shaharlik tengqurlaridan orqada qolib kelyapti, kun tartibida qilingan o‘rtacha hisobda 2-3 ming qadam harakatlar kamdir.

Bolalar jismoniy tarbiyasi, harakat faolligi va sog‘lomlashtirishni yuqori saviyaga ko‘tarishda nafaqat profilaktik ko‘rik, yoyinki tibbiy nazorat zarur.

Mamlakatimiz oldida turgan katta muammolardan biri moddiy bazaning qashshoqligidir. Jumladan, maktabgacha tarbiya muassasalarining jismoniy tarbiya va sport moddiy bazasi ham achinarli holda. Respublikamiz bolalarning 37% bolalar bog‘chalariga qatnar ekan, qolgan qismi, ya'ni 2 mln. bolajonlar bunday imkoniyatdan baxramand emaslar. Misol uchun: Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida bolalar muassasalari; 22-25% ni tashkil etadi. Sababi qishloq joylarida qurilish ishlarining qisqartirilganligidadir. “O‘zagroqurilish" ma'lumotiga ko‘ra, 1991 yili bolalar muassasalarini qurish uchun 25,3 ming, 1991 yilda esa faqat 6,7 ming yoki 3,5 marta kam mablag‘ ajratilgandir.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar jismoniy tarbiyasini muvaffaqiyatli olib borish, jismoniy tarbiya jarayonida estetik, gigienik va pedagogik talablarni hisobga olgan holda sport anjomlari, sport buyumlari, inshootlarni tanlash, ularni qo‘llash hamda yig‘ish va joylashtirish lozimligi bir qancha olimlarning ishlarida ko‘rsatilgan.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya mashg‘uloti oldiga 2-3 ta muayyan vazifalar qo‘yiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachi bolalar fiziologiyasi va psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Shunga asoslangan holda va bolalar yoshini hisobga olib, metodik jihatdan to‘g‘ri vositalarni, jismoniy mashqlar hamda harakatli o‘yinlarni tanlash kerak. Tanlangan mashqlar, birinchidan, asosiy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lishi, ikkinchidan, mashqlar bolalar yoshiga, tayyorgarligiga, jinsiga mos bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, bu mashqlar bolalarga oddiy, tushunarli, tanish, bajara oladigan bo‘lishi zarur. Shundagina bolalarda harakat ko‘nikmasi hosil bo‘lishi va malaka shakllanishi mumkin.

Bilamizki, bir guruh bolalar o‘rganish materiallarini tez, ikkinchi guruh bolalar nisbatan kechroq, uchinchi guruh bolalar esa ancha kech o‘zlashtirib oladi. Bundan tashqari, o‘rganish materiallarini o‘zlashtirishda umumiy jismoniy tayyorgarlik katta ahamiyatga ega. Bolaning jismoniy tayyorgarligiga iqtisodiy sharoitlar: turar joyi, oilaning moddiy ahvoli, bolalar soni, ota-onaning bilimi, dunyoqarashi va ularning ish joyi, unvoni hamda boshqalar ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlar va to‘plangan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, ularning dunyoharashi, nutqi va mashg‘ulotlar jarayonidagi faolligi yuqorida bayon qilingan omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shularni e'tiborga olgan holda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish zarur.

Foydanalingan adabiyotlar.

1.The role of the acmeologist approach in the development of acmeological motivation in future physical education teachers. Parmonov AkmalAbdupattayevich https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y.

2. Improving the system of training teachers of future physical education and introducing innovative-motivational approaches to it. Parmonov Akmal Abdupattoyevich. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y.

3. Abdupattayevich, P. A. (2022). Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277 -3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 331-333.

4. Abdupattaevich P. A. Technology of formation of akmeological position in future teachers //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – Т. 5. – С. 112-115. https://www.scholarexpress.net

5. Талипджанов А. А., Нурматов Б. Б., Пармонов А. А. Учебно-тренировочный процесс по футболу //International conference: problems and scientific solutions. – 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.7332922

6. Improving the effectiveness of the training process of students. Parmonov Akmal Abdupattayevich. ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences &

September-2023 .https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR

7. Methodological doctrine of the organization of the process of physical education through national traditions. Vol 10 Issue 06, June 2021. Nurmatov Bakhrom Bektemirovich Parmonov Akmal Abdupattoevich. https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-6

8. Improvement of akmeological motivation of future physical education teacher. Vol. 2 No. 12, December 2021. ISSN: 2660-5570. **https://www.scholarzest.com**

9. Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. ijssir, Vol. 11, No. 10. October 2022. **https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR**

10. Model for the development of acmeological motivation in future physical education teachers on the basis of an axiological approach. nternational scientific conference " innovative trends in science, practice and education" 2023 Munchen, (Germany)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muslima Matlatipova
Urganch davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Feruza Masharipova
Urganch davlat universiteti v.b. dotsenti, PhD

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA OVOZ CHIQARIB O‘QISH METODIKASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda ovoz chiqarib o‘qishning afzalliklari, uni amaliy qo‘llanilishi va o‘quvchilarning o‘qish qobiliyati, so‘z boyligi va tushunish darajasiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, ovoz chiqarib o‘qish texnikasini boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishda keng qo‘llash bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Ovoz chiqarib o‘qish, o‘qish kompetensiyasi, boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik, tushunish, o‘quv strategiyalari.*

Muslima Matlatipova
Student of Urgench State University
Supervisor: Feruza Masharipova
PhD, Associate Professor of Urgench State University

USING READ-ALOUD METHODOLOGY TO DEVELOP PRIMARY STUDENTS’ READING COMPETENCE

Abstract: *This article examines the benefits of read-alouds in developing primary school students’ reading competence, its practical application, and its impact on students’ reading ability, vocabulary, and comprehension. It also includes recommendations for the widespread use of read-alouds in teaching English in primary schools.*

Keywords: *read-aloud, reading competence, primary education, literacy, comprehension, learning strategies.*

Муслима Матлатипова
Студент Ургенчского государственного университета
Научный руководитель: Феруза Машарипова
PhD, доцент Ургенчского государственного университета

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ЧТЕНИЯ ВСЛУХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются преимущества чтения вслух для развития навыков чтения у учащихся начальной школы, его практическое применение и его влияние на способность к чтению, словарный запас и понимание прочитанного. В нем также содержатся рекомендации по широкому использованию чтения вслух при преподавании английского языка в начальных школах.*

Ключевые слова: *чтение вслух, читательская компетентность, начальное образование, грамотность, понимание, стратегии обучения.*

Kirish.

XXI asrda ingliz tili global muloqot, ta'lim va kasbiy faoliyatning asosiy vositasiga aylangan. Shu sababli ingliz tilini samarali o‘qitish va o‘rganish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida til kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish jarayonining muvaffaqiyati asosan o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. O‘qish kompetensiyasi nafaqat matnni texnik jihatdan o‘qish, balki uning mazmunini tushunish, asosiy g‘oyani ajratish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari til o‘rganish jarayonida yangi tovushlar, so‘zlar va tuzilmalarga duch keladilar. Shu sababli, o‘quvchilarning ingliz tilida o‘qish kompetensiyasini shakllantirish nafaqat texnik jihatdan to‘g‘ri talaffuz va so‘zlarni o‘qishni o‘zlashtirish, balki

matn mazmunini tushunish va uni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili o‘qitishda **ovoz chiqarib o‘qish metodikasi** juda samarali usullardan biri hisoblanadi. Ovoz chiqarib o‘qish metodi orqali o‘quvchilar yangi so‘z va iboralarni eshitish, ularning talaffuzini to‘g‘ri o‘zlashtirish, intonatsiya va urg‘ularni tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3]. Ovoz chiqarib o‘qish nafaqat til qobiliyatlarini, balki matnni tushunish va uni sharhlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Ovoz chiqarib o‘qish jarayoni orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuz namunalarini taqdim etishi, matn mazmuni haqida savollar berishi va bolalarni o‘qilgan matn asosida muloqotga jalb qilishi mumkin. Ovoz chiqarib o‘qish metodikasi o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, u talaffuz va intonatsiya bo‘yicha mashq qilish imkonini berib, o‘quvchilarning og‘zaki nutqdagi aniqlik va tabiiylikni rivojlantirishiga xizmat qiladi. Shuningdek, matnni tinglab va ovoz chiqarib o‘qish orqali yangi so‘z va iboralarni eshitish va eslab qolish jarayoni samaraliroq kechadi. Bu esa lug‘at boyligini kengaytirib, matn mazmunini chuqurroq anglash, asosiy g‘oyani ajratib olish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili.

Ovoz chiqarib o‘qish – matnni baland ovozda ifodali tarzda o‘qish, o‘quvchilarga so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ohang va urg‘uni saqlash orqali matn mazmunini tushunishga yordam beruvchi metoddir [1]. Ushbu metod bolalarda nafaqat texnik o‘qish ko‘nikmalarini, so‘z boyligi, nutq madaniyati va muloqot qobiliyatlarini shakllantiradi. Lev Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, bola o‘zining hozirgi darajadagi rivojlanishiga erishish uchun kattalar yoki ko‘proq tajribaga ega bo‘lgan o‘quvchilar yordamida yangi bilimlarni egallaydi. Bu jarayon "eng yaqin rivojlanish zonasi" deb ataladi, ya'ni bolaning o‘zi mustaqil ravishda bajara olmaydigan, lekin yordam orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkin bo‘lgan vazifalarni o‘z ichiga oladi [4]. Ovoz chiqarib o‘qish metodikasida o‘qituvchi yoki tajribali o‘quvchilar namunaviy o‘qish yordamida boshqalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar. Bu jarayon o‘quvchilarning ingliz tilidagi talaffuz, intonatsiya va urg‘u kabi lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta yordam beradi. O‘qituvchining yoki ilg‘or o‘quvchining namunaviy o‘qishlari orqali o‘quvchilar o‘z nutqini to‘g‘ri talaffuz qilish, to‘g‘ri intonatsiyani ishlatish va o‘z nutqida urg‘uni samarali qo‘llashni o‘rganadilar. Bu esa nafaqat tilni o‘rganishda, balki o‘qish jarayonida to‘g‘ri nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi esa bolalar o‘rganish jarayonida kuzatish, taqlid va modellashtirish orqali bilimlarni egallashlarini ta'kidlaydi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, odamlar boshqalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda, ular o‘rganuvchilar sifatida faol ishtirok etadilar, va bu orqali o‘rganish jarayoni kuchayadi [5]. Ovoz chiqarib o‘qish metodikasida o‘qituvchi yoki ilg‘or o‘quvchilar namunaviy o‘qish orqali boshqa o‘quvchilarga o‘rnak bo‘ladilar. O‘quvchilar, ularning taqlid qilish orqali, nafaqat o‘qish texnikasini, balki matnni tushunish va uni aniq va ravon o‘qish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Ovoz chiqarib o‘qish orqali o‘quvchilar matnning mazmunini anglab, o‘zlarining bilimlarini kuchaytiradilar va bu o‘rganish jarayoni ijtimoiy o‘rganishning samarali shakli sifatida ko‘riladi.

Noam Chomsky esa til o‘rganishni insonning tabiiy qobiliyatlaridan biri deb hisoblaydi. U til o‘rganish jarayonini biologik va psixologik asoslarda tushuntiradi, chunki bolalar doimiy ravishda til eshitib, uni o‘zlashtiradilar. Chomskyning til o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bola tildan foydalanish qobiliyatini tabiiy ravishda rivojlantiradi, chunki tilning o‘rganilishi ularning miya tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq. Ovoz chiqarib o‘qish jarayonida o‘quvchilar yangi so‘zlarni, iboralarni va grammatik tuzilmalarni eshitib, ularni avtomatik ravishda o‘zlashtiradilar. Bu, o‘z navbatida, tilni tabiiy o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quvchilarning ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [6]. Ovoz chiqarib o‘qish jarayoni o‘quvchilarga tilni "ishlatish" orqali o‘rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularda nafaqat tilni tushunish, balki tilni to‘g‘ri va samarali qo‘llashni ham rivojlantiradi. Ushbu nazariyalar, umumiy qilib aytganda, ovoz chiqarib o‘qish metodikasining samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonida qanday yordam olishlari mumkinligini tushunishga yordam beradi. Vygotskiy, Bandura va Chomskyning nazariyalari o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ovoz chiqarib o‘qish jarayonini yanada samarali tarzda tashkil etishga yordam beradi, chunki ular o‘rganish va o‘qish jarayonlarini tushunish uchun kuchli nazariy asoslarni taqdim etadilar.

Tahlillar va natijalar.

Ingliz tilini o‘qitishda ovoz chiqarib o‘qish metodikasi pedagogik tamoyillar asosida tashkil etilishi kerak. Birinchi navbatda, yosh xususiyatlarini inobatga olish juda muhimdir, chunki har bir yoshdagi o‘quvchilarning psixologik va kognitiv xususiyatlari farq qiladi. Shu sababli, o‘quvchilarning yoshiga mos va ular uchun qiziqarli, tushunarli bo‘lgan matnlarni tanlash zarur [2]. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va o‘qish jarayonini samarali qiladi. Ikkinchi tamoyil, matnlarning qiziqarli va mazmunli bo‘lishidir. O‘quvchilarga ma’naviy va madaniy jihatdan boy, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan matnlarni taqdim etish, o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga faol ishtirok etishiga yordam beradi. Shuningdek, ovoz chiqarib o‘qish jarayonini muntazam va tizimli ravishda tashkil etish ham muhimdir. Bu metodika nafaqat

individual o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki o‘quvchilarni bir-birlari bilan hamkorlik qilishga, o‘z fikrlarini ochiq ifoda etishga va tilga bo‘lgan ishonchlarini mustahkamlashga ham imkon yaratadi.

Ingliz tili darslarida ovoz chiqarib o‘qish mashg‘ulotlari bir necha bosqichlarda qo‘llaniladi, har bir bosqich o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Birinchi bosqich, tayyorlov bosqichi, matnni tanlash va uni o‘quvchilarning qobiliyatiga moslashtirishdan iborat. Matn o‘quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo‘lishi kerak, shunda ular o‘qishga faol ishtirok etadilar. Ovoz chiqarib o‘qish jarayonida o‘qituvchi matnni ifodali o‘qiydi, so‘z va iboralarga urg‘u berib, o‘quvchilarning talaffuzini va intonatsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Muhokama bosqichida, o‘qilgan matn asosida savollar berilib, asosiy g‘oyalar muhokama qilinadi, bu esa o‘quvchilarning tushunish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘qish texnologiyalaridan foydalanish, masalan, qahramonlarning rollarini ijro etish, yangi so‘zlarni tushuntirish va o‘qilgan matnni rasmlar yoki videolar bilan bog‘lash, o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish va matnni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Matnni tushunish strategiyalariga savollar va javoblar texnikasi hamda oldindan taxmin qilish kiradi. Bu strategiyalar o‘quvchilarga matnning mazmunini chuqurroq tushunishga va o‘z fikrlarini aniq ifoda etishga yordam beradi.

Ingliz tili darslarida ovoz chiqarib o‘qish mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Har bir darsda ovoz chiqarib o‘qish va suhbat elementlarini qo‘llash, o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Matn mazmuni bo‘yicha savollar berish va muhokamalar tashkil qilish, o‘quvchilarga matnni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, ota-onalarni uy sharoitida bolalar bilan ovoz chiqarib o‘qishga jalb qilish, o‘quvchilarning o‘qish va tilni o‘zlashtirish jarayoniga qo‘shimcha yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa.

Demak, ovoz chiqarib o‘qish metodikasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda juda muhim va samarali vosita hisoblanadi. Bu metod nafaqat o‘quvchilarning texnik jihatdan to‘g‘ri va ravon o‘qish ko‘nikmalarini shakllantiradi, balki ularning matnni mazmunan anglash, asosiy fikrni ajrata olish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish kabi tafakkur jarayonlarini ham faollashtiradi. Ovoz chiqarib o‘qish orqali bolalar nutqiy intonatsiyani his qilishni, talaffuzda aniqlikka intilishni va o‘z fikrini aniq ifoda etishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, bu jarayon o‘quvchilarda matnga nisbatan qiziqish uyg‘otib, mustaqil fikrlash, savol berish, javob topish va o‘z nuqtai nazarini bildirish kabi muloqotga oid ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ovoz chiqarib o‘qish mashqlari orqali o‘quvchilar o‘zlarining til madaniyati, diqqat-e’tibor va eslab qolish qobiliyatlarini ham takomillashtiradilar. Umuman olganda, bu metod o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga faol ishtirokini ta’minlab, ularni ijodiy va ongli o‘quv faoliyatiga yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Beck, I. L., & McKeown, M. G. (2001). *Text talk: Capturing the benefits of read-alouds*. The Reading Teacher.
2. Dickinson, D. K., & Tabors, P. O. (2001). *Beginning literacy with language: Young children learning at home and school*. Brookes Publishing.
3. Neuman, S. B., & Dwyer, J. (2009). *Patterns of young children’s reading comprehension*. Reading Research Quarterly.
4. Vygotsky, L. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
5. Bandura, A. (1977). *Social learning theory*. Prentice-Hall.
